O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISOD UNIVERSITETI

SUN’IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBA, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi

II Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025 - yil, 17-18 iyun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISOD UNIVERSITETI

“SUN’IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBA, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami

2025-yil 17-18 iyun

Toshkent-2025

TASHKILIY QO‘MITA

RAIS VA O‘RINBOSARLARI

To‘lqin Teshabayev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

Sultonali Mehmonov

O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor

Sherzod Sindarov

Infratuzilmani rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor

Nodir Akbarov

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekani

Gulnora Abduraxmanova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Komila Karimova

Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor

Normo‘min Mavlanov

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo‘limi boshlig‘i

ILMIY-TEXNIKAVIY QO‘MITA A’ZOLARI

Bahodir Mo‘minov

Sun’iy intellekt kafedrasi mudiri, professor

Diyora Xashimova

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti, dekan o‘rinbosari

Obidjon Bekmirzayev

Sun’iy intellekt kafedrasi dotsenti

Dilshod Mirzayev

Axborot texnologiyalari va tizimlari kafedrasi mudiri

Rashid Nasimov

Sun’iy intellekt kafedrasi dotsenti

Ubaydullo Arabov

Sun’iy intellekt kafedrasi katta o‘qituvchisi

CONTRAST ENHANCEMENT METHOD FOR RETINAL IMAGES

Yusupov Ozod Rabbimovich,
Docent of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov,
Abdieva Khabiba Sobirovna,
Docent of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov,
e-mail:orif.habiba1994@gmail.com
Shamsiyeva Khabiba Gafurovna,
PhD student at the Research Institute for the Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence.
email: shamsiyeva117@gmail.com

Abstract. Diabetic eye diseases are one of the most common types of eye problems in patients with diabetes. Fundus images play an important role in the early diagnosis of these diseases and can prevent visual disturbances by starting the treatment phase. This research paper presents the results of pre-processing fundus images and methods and indicators of image quality improvement. As a result of the study, a contrast enhancement algorithm was proposed to improve the fundus image quality by converting fundus images from the RGB color model to HSV, Lab, and YUV color models and by processing one channel. The proposed algorithm obtained effective results in the CLAHE method. CHASE DB1 (Child Heart and Health Study in England Database) was taken as a data set, and experiments were conducted.

Keywords: fundus image, image preprocessing, histogram, CLAHE.

Diabetic eye diseases are one of the most common complications of diabetes. According to global statistics, about 420 million people worldwide will be diagnosed with diabetes in 2023, and about 35% of them will have diabetic eye disease, resulting in vision loss. The most common of these diseases are diabetic retinopathy, diabetic macular edema, and glaucoma.

Early diagnosis of diabetic eye diseases with the help of fundus camera images (Fundus images) plays an important role in the diagnosis and prevention of irreversible visual impairment. This method allows the timely detection of pathological changes and the taking of appropriate therapeutic measures. However, the accuracy of the diagnosis largely depends on the quality and size of the obtained images, which makes the development and implementation of effective methods of analysis of fundus images an urgent task of modern medicine and bioengineering.

Fundus images have contrast problems like any other digital image. Contrast is defined as the ratio between the brightness of the object and the brightness of the background. Contrast improvement depends on the spatial distribution of bright and dark areas in the image. In taking an image, the intensity of the available light, which is measured by the amount of light reflected from the object, is an important feature that affects the quality of the image [1]. In some cases, if the ophthalmologist adjusts the lighting incorrectly, the fundus image is taken in too-dark or too-bright conditions. The reason for this is that the intensity of the image is incorrectly distributed due to insufficient light. An image that contains clear image features is an image with good contrast. In image blur, the level difference is too small, resulting in low contrast and indistinguishable features. In the emergence of high contrast, the role of light is considered very important, and it appears when some parts of the image are too dark, and other parts are bright [2, 3].

Several methods and algorithms for preliminary processing of fundus images have been proposed by scientists and researchers, and based on three principles, they are divided into the following classes: 1) gray image processing; 2) transfer the color model in the image to other color models and process one of these model channels; 3) use of quality improvement methods based on color images [4]. Algorithms in this class are based on various existing contrast enhancement methods.

One of the most common classes of image contrast enhancement methods is histogram-based methods. A histogram is a graphical representation of the frequency distribution of pixel values in an image. It indicates that a pixel has a certain intensity level, 0 (black) to 255 (white) for a grayscale image, or 0 to 255 for each color channel (red, green, and blue) for a color image[5,6]. The existing methods based on histograms include: histogram smoothing, adaptive histogram smoothing, and contrast-limited

adaptive histogram smoothing. The following two methods are improvements to the histogram smoothing method.

Histogram equalization is an image preprocessing method that adjusts the contrast of the image using a histogram. In order to increase the contrast of the image, it performs a flat distribution of the most common pixel intensities, distributing them over the intensity range of the image. By smoothing the histogram with this method, it is possible to transfer high contrast to low-contrast areas of the image (Figure 1).



Figure 1. Histogram equalization image

Adaptive Histogram Equalization is different from traditional histogram equalization in that adaptive histogram equalization uses an adaptive method to calculate multiple histograms corresponding to different parts of each image. Using histograms of these slices, the method evenly distributes the intensity values of the image pixels across slices to improve contrast.

Contrast Limited Adaptive Histogram Equalization (CLAHE) — This method is an improvement of the simple histogram equalization (HE) method, which allows for a high degree of image contrast limitation control[7].

The CLAHE algorithm divides images into small blocks and performs histogram equalization on each block separately, focusing on solving the problem of "excess contrast", which is considered the global problem of most techniques today. Contrast limit In this algorithm, the pixel contrast in each block does not exceed a predetermined limit. This method allows you to avoid unnecessary noise in the area of fine tissue or cells and soft tissues of the same color[8,9]. In the next process, i.e., interpolation, the local blocks are combined and softened beforehand so that they do not form edges.

Applying the CLAHE algorithm to medical image processing has several advantages. This algorithm is widely used for processing medical images, such as X-ray images. In X-ray images, the contrast between tissues is often low, which in turn makes it difficult to see delicate structures. We can see that using the CLAHE algorithm to overcome this problem allows us to improve the contrast to show bones, tumors, and lesions more clearly. MRI images are often hazy. In solving this problem, using the CLAHE algorithm was found to improve the fine details of histological structures in the images, as well as to facilitate the visualization of pathological changes. Delineation of tissue boundaries is somewhat difficult due to the presence of noise and low contrast in ultrasound images. If the CLAHE algorithm is used, the noise in the image will be reduced, and it will be possible to see the boundaries of the organ more clearly[10].

Other advantages of the CLAHE algorithm include the enhancement of fine details in medical image processing, that is, the ability to highlight fine structures in low-contrast areas, the ability to adapt to various types of medical images, and the use of a contrast-limiting mechanism to limit excess noise, providing great opportunities for diagnostic medicine. It is a helpful tool for ophthalmologists, allowing them to use it more accurately and effectively.

In some situations, it may be difficult to see blood vessels or other pathological changes on fundus images. The CLAHE algorithm makes it possible to detect blood vessels in the eye and diseases such as diabetic retinopathy at an early stage.

The main goal of this research work is to research and develop computational algorithms for improving the contrast of fundus images in the early stages of diabetic eye diseases, and to conduct computational experiments on them. In the algorithm of this research work, contrast enhancement algorithms are studied to improve the quality of the fundus image. Algorithms based on the idea of

converting CLAHE from RGB color models to HSV, Lab, and YUV color models, and processing one channel of the color model were developed in the research of algorithms. A block diagram of these algorithms is shown in Figure 2.



a) **b)** **c)**

Figure 2. a) Convert from HSV to RGB, b) Convert from Lab to RGB, c) Convert from CLAHE to RGB

The algorithms presented in Figure 2 used the following substitutions to convert from the RGB model to another color model. Converting the RGB color space to YUV is an important operation in image processing. YUV separates the luminance and color difference components and is useful for compression and data transmission. RGB color image includes three channels: red (Red), green (Green), and blue (Blue). Experiments were conducted in the Python 3 programming language. Figure 3 shows Image_07R.jpg from the CHASE DB1 dataset, and the results obtained by applying the studied algorithms are presented in Figure 3.

Figure 3. CHASE DB1 is a raw image from the database named Image_07R.jpg

In this case, the image named Image_07R.jpg from the CHASE DB1 image set presented in Figure 3 was processed by CLAHE with HSV, Lab, and YUV color models, and the changes in contrast can be observed.

In conclusion, fundus imaging is important for early diagnosis of diabetic eye disease and prevention of visual impairment. The article analyzes methods of preliminary processing of fundus images and image quality improvement and presents the results of experimental research. Based on the researched methods, the fundus images given in the proposed calculation algorithms were transferred

from the RGB color model to YUV, HSV, and Lab models. Then the CLAHE method was applied to these models.

References

1. Banić N, Lončarić S: Smart light random memory sprays Retinex: a fast Retinex implementation for high-quality brightness adjustment and color correction. JOSA A, 32(11), 2136-2147,2015
2. Chiu K, Herf M, Shirley P, Swamy S, Wang C, Zimmerman K, et al: Spatially nonuniform scaling functions for high contrast images. In Graphics Interface (pp. 245–245). Canadian Information Processing Society,1993
3. Setiawan AW, Mengko TR, Santoso OS, Suksmono AB, et al: Color retinal image enhancement using CLAHE. In International Conference on ICT for Smart Society (pp. 1–3). IEEE,2013
4. Sahu S, Singh AK, Ghrera SP, Elhoseny M, et al: An approach for de-noising and contrast enhancement of retinal fundus image using CLAHE. Optics & Laser Technology, 110, 87-98,2019
5. Mookiah MRK, Acharya UR, Chua CK, Lim CM, Ng E, Laude A (2013) Computer-aided diagnosis of diabetic retinopathy: a review. Comput Biol Med 43(12):2136–2155
6. Kaur M, Kaur M (2015) A hybrid approach for automatic exudates detection in eye fundus image. Int J 5(6):411–417
7. Karegowda AG, Nasiha A, Jayaram M, Manjunath A (2011) Exudates detection in retinal images using back propagation neural network. Int J Comput Appl 25(3):25–31
8. Chaudhuri S, Chatterjee S, Katz N, Nelson M, Goldbaum M (1989) Detection of blood vessels in retinal images using 470 R. Sarki et al. 1 3 two-dimensional matched filters. IEEE Trans Med Imaging 8(3):263–269
9. Hu H, Li J, Wang H, Daggard G (2006) Combined gene selection methods for microarray data analysis. Knowledge-based intelligent information and engineering systems. Springer, Berlin, Heidelberg, pp 976–983
10. Vallabha D, Dorairaj R, Namuduri K, Thompson H (2004) Automated detection and classifcation of vascular abnormalities in diabetic retinopathy. In: 28th asilomar conference on signals, systems and computers,vol. 2, pp 1625–1629

INSON OYOG‘I RENTGENOGRAFIK TASVIRLARIGA DASTLABKI ISHLOV BERISH ALGORITMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH METRIKALARI

Yusupov Ozod Rabbimovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
Abdiyeva Xabiba Sobirovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
e-mail:orif.habiba1994@gmail.com
Davronova Oybarchin Murodovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya. Ushbu tezisda inson oyog‘ining rentgen tasvirlariga dastlabki ishlov berish algoritmlarining umumiy tavsifi va ularning sifatini baholash metrikalari keltirilgan bo‘lib, ular oyoqdagi turli holatlarni, jumladan, sinishlar, deformatsiyalar va bo‘g‘im kasalliklarini tashxislash uchun muhimdir. Tadqiqot tasvirlarda o‘zgarishlarni aniqlash, segmentatsiya va belgilarni ajratib olish kabi bir nechta tasvirga ishlov berish usullarini o‘rganadi, bu esa rentgen tasvirlarining sifatini yaxshilash va tashxis aniqligini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tezisda rentgen tasvirlarida shovqin, buzilish va past kontrastni boshqarishdagi qiyinchiliklar muhokama qilinadi va ushbu muammolarni kamaytirish bo‘yicha usullar bayon etilgan. Ushbu algoritmlarni amalga oshirish orqali tadqiqot oyoq bilan bog‘liq tashxislarning samaradorligini oshirish va tibbiy qarorlar qabul qilishni yanada samarali qilishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: inson oyog‘i, rentgen tasvirlari, shovqin, PSNR, IQA algoritmlari.

Inson oyog‘ining rentgen tasvirlariga ishlov berish algoritmlari tibbiy diagnostika jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ushbu algoritmlar yordamida oyoqdagi turli holatlar, jumladan, suyak sinishlari, deformatsiyalar va bo‘g‘im kasalliklarini aniqlash ancha osonlashadi[1]. Tasvirlarga ishlov berish bosqichlari odatda tasvirlarga dastlabki ishlov berish, segmentatsiya, belgilarni ajratib olish va sinflashtirishdan iborat bo‘ladi. Ayniqsa, segmentatsiya yordamida suyaklar va yumshoq to‘qimalar aniq ajratiladi, bu esa shifokorlar uchun muhim diagnostik ma’lumotlarni beradi. Algoritmlar shuningdek, tasvirlardagi shovqin va artefaktlarni kamaytirishga, kontrastni oshirishga yordam beradi, bu esa yakuniy tashxisning aniqligini oshiradi[2].

Raqamli tibbiyotning rivojlanishi bilan bunday algoritmlar yanada takomillashib, sun’iy intellekt yordami bilan avtomatlashtirilgan tashxis qo‘yishga xizmat qilmoqda. Natijada, rentgen tasvirlariga ishlov berish algoritmlari oyoq kasalliklarini erta aniqlash va davolashni samarali tashkil etishga zamin yaratadi. Rentgen tasviri hosil bo‘lishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathfrak{N}(\theta, s) = \int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} f(x, y)\partial(s - xcos\theta - ysin\theta)dxdy;$$

bu yerda, $f(x, y)$ −oyoqning 2D zichlik funksiyasi(masalan, suyak zichligi), θ −proyeksiya burchagi, s −detektordagi koordinatasi.

Inson oyog‘i rentgen tasvirlariga dastlabki ishlov berish – bu tasvirni keyingi tahlilga tayyorlash bosqichidir[3]. Bu bosqichda tasvir sifati yaxshilanadi, shovqin kamaytiriladi, kontrast oshiriladi va keraksiz elementlar olib tashlanadi. Dastlabki ishlov berish aniqlikni oshirish va keyingi bosqichlardagi ya’ni segmentatsiya, klassifikatsiya xatoliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Rentgen tasvirlarda turli xil shovqinlar (masalan, Gauss shovqini) bo‘ladi. Buni filtrlar yordamida kamaytirish mumkin. Oyoq rentgen tasvirlari ko‘pincha past kontrastga ega bo‘ladi. Kontrastni oshirish orqali suyak va yumshoq to‘qimalar aniqroq ko‘rinadi[4]. Suyaklarning konturlarini aniqlashda chegaralarni aniqlash usullari ishlatiladi. Tasvirni qora-oq formatga o‘tkazib, muhim sohalarni ajratishda esa binarizatsiya usuli ishlatiladi.

Tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari (Image quality assessment (IQA)) – bu tasvir sifatini baholash jarayoni hisoblanadi. Subyektiv hamda obyektiv tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari – ushbu jarayonda ishlatiladigan ikki xil usul hisoblanadi[5,6].

Subyektiv tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari odatda insonlar tomonidan olib boriladi. Chunki insonlar multimediali ilovalarning oxirgi foydalanuvchilari bo‘lganliklari uchun ushbu usul samarali hisoblanadi. Lekin real vaqt ichida ushbu usulni qo‘llash bir muncha moliyaviy jihatdan qimmat hamda ko‘p vaqt talab etadi. Ushbu to‘sqinliklarni bartaraf etish uchun esa, obyektiv tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari usuli ishlatiladi. Ushbu jarayonda subyektiv jarayonga o‘xshash natijalarni olish maqsadida matematik modellar yordamida tasvir sifatini baholashda ko‘zlangan natijalar olinadi[7,8]. Subyektiv jarayonda tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari bahosi bir qator insonlar ya’ni ekspertlar tomonidan berilganda, ularning yakuniy baholashini hisoblash ko‘pincha guruh a’zolarining bergan baholarining o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi sifatida olinadi:

$$MOS = \sum_{n=1}^{N} R_n$$

bu yerda R_n - har bir ekspertning individual baholashi, *N* - esa ekspertlar soni.

Obyektiv tasvir sifatini baholash – miqdoriy baholash bo‘lib, ularni hisoblash avtomatik ravishda, ya’ni ekspertlar ishtirokisiz amalga oshiriladi. Obyektiv tasvir sifatini baholash ko‘rsatkichlari - uch toifaga bo‘lish mumkin: 1) Etalonli usul (Full-Reference(FR)) 2) Etalonsiz usul (No-Reference (NR)); 3) Qisman etalonli usul (Reduced-Reference (RR))[9].

Etalonli usul (Full-Reference(FR)) – bu usulda dastlabki tasvir hamda buzilgan tasvir taqqoslanib, tasvir sifati baholanadi.

O‘rtacha kvadrat xatolik (Mean squared error (MSE)) matematik asoslangan ko‘rsatkichlardan biridir. U asl tasvir orasidagi yig‘ilgan kvadratik xatoni hisoblab chiqadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$MSE = \frac{1}{MN} \sum_{y=0}^{M-1} \sum_{x=0}^{N-1} [E(x, y)]^2$$

bu yerda *x* va *y* piksel koordinatalari, *M* va *N* – esa tasvir kengligi va balandligi.

Eng yuqori shovqin nisbati (Pick signal-to-noise ratio (PSNR)) – dastlabki ishlov berilgan tasvir hamda asl tasvir o‘rtasidagi eng yuqori xatolik o‘lchovidir va u quyidagicha aniqlanadi:

$$PSNR = 20 \cdot log\,10\,(\frac{MAX_I}{\sqrt{MSE}})$$

bu yerda MAX_I - tasvirning mumkin bo'lga maksimal qiymati.

Strukturaviy o'xshashlik indeksi (Structural Similarity Index Measure (SSIM)) – ikkita tasvir o'rtasidagi yorqinlik, konrast va strukturasini inobatga olgan holda ularning strukturaviy o'xshashligini baholaydi:

$$SSIM(I_r, I_d = \frac{(2\mu_r\mu_d+C_1)(2\sigma_{rd}+C_2)}{(\mu^2+\mu^2+C_1)(\sigma^2+\sigma^2+C_2)})$$

bu yerda $\mu_r\mu_d$- I_r va I_d uchun o'rtacha intensivlik qiymati, σ^2_r va σ^2_d - I_r va I_d uchun intensivlik dispersiyasi, σ_{rd}- I_r va I_do'rtasidagi kovariatsiya qiymati.

Etalonsiz usul (No-Reference (NR)) – etalon tasviridan foydalanmaydi, aksincha, faqat sifati buzilgan tasvir asosida tasvir sifati reytingini hisoblab chiqadi[10].

Nisbiy bo'lmagan fazoviy tasvir sifatini baholovchi (Blind/Referenceless Image Quality Evaluator (BRISQUE)) usul - har xil turdagi ma'lum buzilishlarga ega bo'lgan tasvirlarning ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda modelda o'qitilgan o'lchov hisoblanadi:

$$I'(i,j) = \frac{I(i,j)-\mu(i,j)}{\sigma(i,j)+C}$$

bu yerda $I(i,j)$ - (i,j) pikseldagi intensivlik, $\mu(i,j)$ - lokal o'rtacha intensivlik qiymati, $\sigma(i,j)$ - lokal standart og'ish, C – kichik konstanta.

Tabiiy tasvir sifatini baholovchi (Naturalness Image Quality Evaluator (NIQU))– bu usul sifati buzilmagan tasvirlarda o'qitiladi. U fikrlarni inobatga olmaydi va o'qitish davrida insoniy baholash mulohazalaridan foydalanmay, sof yoki eng yaxshi vizual tasvirlar asosida yakuniy ballarni hisoblaydi:

$$NIQU = d(F(I), F_{natural})$$

bu yerda *F(I)* – tasvir xususiyatlari vektori, $F_{natural}$ - tabiiy tasvirlar to'plamidan hisoblangan o'lchov.

Qisman etalonli usul (Reduced-Reference (RR)) – buzilgan tasvirning sifat ko'rsatkichini hisoblash uchun etalonli tasvirdagi ma'lumotlardan qisman foydalanadi.

$$Q = f(F_r, F_d)$$

bu yerda F_r - I_r siqilgan yoki qisman shaklda mavjud etalon tasvirdan olingan vektor xususiyatlari, F_d - I_d buzilgan tasvirdan olingan vektor xususiyatlari, Q – yakuniy sifat qiymati. Umumiy tasvir sifati esa Q barcha og'ish xususiyatlarining yig'indisi sifatida hisoblanadi:

$$Q = \sum_{i=1}^{k} \omega_i \cdot E_i$$

bu yerda ω_i - xususiyat og'irligi, k – xususiyatlar soni.

Tibbiy tasvirlarga dastlabki ishlov berish tasvir sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, shovqinlarni kamaytirish, artefaktlarni yo'qotish, konstrastni oshirish, tasvirni normallashtirish, geometrik buzilishlarni to'g'rilash kabi masalalarni yechishga qaratilgan usul va algoritmlarni o'z ichiga oladi[11,12]. Dastlabki ishlov berishdan maqsad tasvirlarga ishlov berishning keyingi bosqichlari natijalarini oshirish uchun tayyorlashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Myint, A. S. Khaing and H. M. Tun, "Detecting Leg Bone Fracture in X-ray Images", International Journal of Scientific & Research, vol. 5, Jun. 2016, pp. 140-144.
1. V. D. Vegi, S. L. Patibandla, S. S. Kavikondala and Z. Basha, "Computerized Fracture Detection System using X-ray Images", International Journal of Control Theory and Applications, vol. 9, Nov. 2016, pp. 615-621.
2. S. K. Mahendran and S. Santhosh, "An Enhanced Tibia Fracture Detection Tool Using Image

Processing and Classification Fusion Techniques in X-Ray Images”, Global Journal Of Computer Science and Technology, vol. 11, Aug. 2011, pp. 27-28.

3. S. K. Mahendran and S. Santhosh Baboo, “Ensemble Systems for Automatic Fracture Detection”, International Journal of Engineering and Technology (JACSIT), vol. 4, Feb. 2012, pp.7-10.

4. Fazilov Sh.Kh., Abdiyeva Kh.S., Yusupov O.R. Image enhancement method using Hamacher t-conorm for breast cancer detection in mammograms// In International Conference “Information Science and Communications Technologies (ICISCT-2023)”, pp.671-675, 2023.
5. Fazilov Sh.Kh., Abdiyeva Kh.S., Sobirova G.D. Mammographic Density Classification Applying the CLAHE Contrast Enhancement method// In International Conference “Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security(ICABCS-2023)”, vol 2. 2023, pp.724-729. Taylor&Fransis Group, CRC Press.
6. Fazilov Sh.Kh., Abdiyeva Kh.S., Yusupov O.R. Patch-based lesion detection using deep learning method on small mammography dataset// In International Conference “Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security(ICABCS-2023)”, vol 2. 2023, pp.643-648. Taylor&Fransis Group, CRC Press.
7. Abdiyeva Kh.S., Yusupov O.R., Malikov Z. Breast cancer classification from mammographic images using Inception V4 model// In International Conference “Artificial Intelligence and Information Technologies (ICAIIT-2023)”, vol 1. 2023, pp.505-510. Taylor&Fransis Group, CRC Press.
8. Александров В.В., Горский Н.Д. Представление и обработка изображений. Рекурсивный подход. – Л.: Наука, 1985. – 350 с.
9. Садыков, С. С., Ю. А. Буланова, Е. А. Захарова. “Автоматизированная обработка и анализ маммографических снимков”. Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2014. – 208 с.
10. Bankman I. Handbook of medical image processing and analysis.// Elsevier, 2008. [12] Rafael C. Gonzalez., Richard E. Woods. Digital Image Processing. Fourth Edition, Global Edition, 2019.

TRANSTORAKAL ECHOKARDIYOGRAFIYA TASVIRLARIDA CHAP QORINCHANI SEGMENTATSIYA QILISHDA CHUQUR O‘RGANISH TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Abdullayev I.N.
Department of Artificial Intelligence. Tashkent State University of Economics
Tashkent. Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada transthorakal echokardiyografiya (TTE) tasvirlarida chap qorinchaning morfologik va funksional xususiyatlarini avtomatik tarzda baholash uchun chuqur o‘rganish texnologiyalarining qo‘llanilishi tahlil qilinadi. An’anaviy echokardiyografik tahlil inson omiliga bog‘liq bo‘lgan subyektiv baholashlar bilan cheklangan bo‘lsa, zamonaviy konvolyutsion neyron tarmoqlar, xususan U-Net va uning takomillashgan shakllari (Attention U-Net, ResUNet, TransUNet) yordamida yurak segmentlarini aniq va takrorlanuvchan tarzda ajratish imkoniyati mavjud. Tadqiqotda ushbu modellar arxitekturasi, ishlash mexanizmi, ma’lumotlar bilan ishlash usullari, baholash mezonlari va klinik tatbiqi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Adabiyotlar sharhi asosida bu modellar yurak segmentatsiyasi aniqligini oshirish, patologiyalarni erta aniqlash va inson xatolarini kamaytirish imkonini berishi isbotlangan. Maqola natijalari echokardiyografiya sohasida avtomatik analiz tizimlarini yaratish va sog‘liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etishda nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Transtorakal echokardiyografiya, chap qorincha, yurak segmentatsiyasi, chuqur o‘rganish, U-Net, Attention U-Net, konvolyutsion neyron tarmoq, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, segmentatsiya aniqligi, yurak diagnostikasi.

Kirish

So‘nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklarining tarqalishi global sog‘liqni saqlash tizimlarida dolzarb muammo sifatida e’tirof etilib kelmoqda. Xususan, chap qorincha morfologiyasi va funktsional holatidagi o‘zgarishlarni erta aniqlash yurak ishemik kasalliklari, yurak yetishmovchiligi va miokard infarkti kabi patologik holatlarning samarali oldini olish va davolash choralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi [1],[2],[3]. Bu borada eng ko‘p qo‘llaniladigan, invaziv bo‘lmagan, xavfsiz va

nisbatan arzon diagnostik vositalardan biri bu — transthorakal echokardiyografiya (TTE) hisoblanadi. TTE yordamida yurakning turli anatomik strukturasi, ayniqsa chap qorinchani tahlil qilish imkoniyati mavjud bo‘lib, u yurakning zarb hajmi, qisqarish funksiyasi, devor qalinligi va boshqa parametrlarini aniqlashda keng qo‘llaniladi. TTE tasvirlarini tahlil qilishda inson omiliga bog‘liq bo‘lgan subyektiv yondashuvlar, inson xatosi, vaqt sarfi, va tasvir sifati bilan bog‘liq turli muammolar mavjud [5],[6]. Bu holatlar yurak tasvirlarini avtomatik tarzda, aniq va takrorlanuvchan usullar bilan tahlil qilish zaruratini tug‘diradi. Shu munosabat bilan, so‘nggi yillarda sun’iy intellekt, xususan chuqur o‘rganishga asoslangan konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) asosidagi texnologiyalar tibbiy tasvirlarni qayta ishlashda keng tadbiq etila boshladi. Ular yordamida yurak tasvirlaridagi segmentlarni avtomatik ravishda aniqlash, chap qorinchani segmentatsiya qilish, uning strukturaviy va funksional o‘zgarishlarini raqamli baholash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mazkur maqola TTE tasvirlarida aynan chap qorincha segmentatsiyasi uchun ishlab chiqilgan va hozirda qo‘llanilayotgan chuqur o‘rganish modellarini, ularning algoritmik ishlash mexanizmlarini, aniqlik va samaradorlik darajasini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Maqolada U-Net, Attention U-Net, ResUNet, DeepLab va TransUNet kabi mashhur modellar taqqoslanadi, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi hamda har bir modelning afzalliklari va cheklovlari ilmiy-nazariy jihatdan baholanadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning klinik amaliyotdagi tatbiq imkoniyatlari, ularga tegishli ma’lumotlar to‘plami (datasetlar), baholash ko‘rsatkichlari (Dice coefficient, IoU, Hausdorff distance) ham atroflicha ko‘rib chiqiladi[7],[9],. Maqolaning maqsadi — TTE tasvirlarida chap qorinchani avtomatik segmentatsiya qilishga qaratilgan ilg‘or chuqur o‘rganish modellarining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud yutuqlar va cheklovlarni aniqlash hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar berishdan iboratdir. Mazkur yondashuvlar yurak patologiyalarini erta aniqlash, davolash samaradorligini oshirish va inson omilini kamaytirish orqali sog‘liqni saqlash sohasida sezilarli natijalar berishi mumkin [10].

Adabiyotlar sharhi

Transtorakal echokardiyografiya (TTE) yurak-qon tomir tizimi faoliyatini baholashda eng keng qo‘llaniladigan va klinik amaliyotda samarali usullardan biri bo‘lib, bu usul yordamida yurak kameralarining tuzilmasi, harakatlanishi va ularning funksional ko‘rsatkichlari real vaqt rejimida kuzatiladi. Ayniqsa, chap qorinchani vizual baholash va uning segmental harakatini tahlil qilish yurak kasalliklarining tashxisida asosiy diagnostik mezonlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, inson tomonidan bajariladigan vizual tahlil ko‘pincha subyektiv bo‘lib, u operator malakasi, tasvir sifati va echokardiyografik proeksiyalarning aniqligi kabi omillarga yuqori darajada bog‘liq bo‘ladi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish va echokardiyografik tahlilni avtomatlashtirish uchun so‘nggi yillarda chuqur o‘rganish (deep learning) modellaridan foydalanishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Echokardiyografik tasvirlar bilan ishlashda eng muhim bosqich bu – yurak segmentlarini aniq segmentatsiya qilishdan iborat. Ushbu maqsadda U-Net arxitekturasi asosidagi modellar juda katta e’tiborga sazovor bo‘ldi. 2015-yilda Ronneberger va hammualliflar tomonidan taklif etilgan U-Net modeli biotibbiyot tasvirlarini segmentatsiya qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan bo‘lib, encoder-decoder arxitekturasi asosida ishlaydi va past darajadagi belgilardan yuqori darajadagi semantik informatsiyani tiklash imkonini beradi. Ushbu modelning soddaligi va samaradorligi uni echokardiyografiya sohasida keng qo‘llash imkonini berdi. Misol uchun, EchoNet-Dynamic loyihasi doirasida yurak zarb funksiyasini avtomatik baholash uchun konvolyutsion neyron tarmoqlardan foydalanilgan bo‘lib, segmentatsiya natijalari yuqori aniqlik ko‘rsatkichlari bilan baholangan[10],[11],[12]. U-Net modelining takomillashtirilgan versiyasi – Attention U-Net modeli ham dolzarb e’tiborni jalb qilmoqda. Ushbu modelda segmentatsiya jarayonida ahamiyatli sohalarga diqqatni jamlash imkonini beruvchi attention mexanizmi qo‘shilgan bo‘lib, ayniqsa yurak segmentlari kabi noaniq chegaralarga ega bo‘lgan strukturalarni aniqlashda yuqori natija ko‘rsatadi. Oktay va boshqalar tomonidan taklif etilgan ushbu yondashuv yurak tasvirlaridagi kichik o‘zgarishlarni aniqlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday modellar CAMUS, Sunnybrook, EchoNet-Dynamic kabi ochiq ma’lumotlar bazalarida sinovdan o‘tkazilgan va Dice coefficient 0.90 dan yuqori natijalarga erishilgan. Bundan tashqari, segmentatsiya aniqligini oshirish uchun ResUNet, V-Net, TransUNet kabi yondashuvlar ham taklif etilgan bo‘lib, har biri o‘ziga xos afzallik va murakkabliklarga

ega. ResUNet modeli residual bloklar yordamida chuqurroq tarmoqlarni o‘rgatishda foydali bo‘lsa, TransUNet modeli esa transformer arxitekturasiga asoslangan bo‘lib, global kontekstual informatsiyani yaxshiroq hisobga oladi. Ayniqsa, segmentatsiya sifatini tekshirishda Dice koeffitsienti, IoU (Intersection over Union), Hausdorff masofasi kabi baholash ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilingan bo‘lib, turli tadqiqotlarda bu ko‘rsatkichlar modellarni taqqoslashda ishlatilmoqda[11],[12].

Adabiyotlarda shuningdek echokardiyografik tasvirlar uchun ma’lumotlarni tayyorlash, ya’ni preprocessing va augmentatsiya bosqichlari ham muhim deb ta’kidlangan. Tasvirni normallashtirish, kontrastni oshirish, o‘lchamlarni standartlashtirish, shovqinlarni kamaytirish kabi texnikalar modelning umumlashma (generalizatsiya) qobiliyatini oshiradi. Ma’lumotlar yetishmovchiligi muammosini bartaraf etish uchun GAN (Generative Adversarial Network) texnologiyasi asosida sun’iy tasvirlar generatsiyasi ham ko‘plab ishlarda sinovdan o‘tkazilgan. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganish modellarining klinik amaliyotga joriy qilinishi yurak kasalliklarini erta aniqlashda sezilarli natijalar berishi mumkin. Mavjud adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, echokardiyografik tasvirlarni chuqur o‘rganish modellariga asoslangan avtomatik segmentatsiyasi, ayniqsa chap qorincha morfologiyasini tahlil qilishda, yuqori aniqlik va tezlikni ta’minlash bilan birga, inson xatolarini kamaytirish, diagnostika ishonchliligini oshirish va yurak kasalliklarini erta aniqlashda katta potensialga ega. Kelgusida ushbu modellarni kengroq ma’lumotlar bazalarida sinovdan o‘tkazish, real vaqtli echokardiyografik tahlilga integratsiyalash, va multimodal tibbiy ma’lumotlar bilan birlashtirish ushbu texnologiyaning amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Materiallar va metodlar

Mazkur adabiy sharh maqolasida transthorakal echokardiyografiya (TTE) tasvirlarida chap qorinchani avtomatik segmentatsiya qilishga qaratilgan chuqur o‘rganish modellarining metodologik yondashuvlari tizimli tahlil qilindi. Tahlil jarayonida tanlab olingan ilmiy manbalar asosida modellarning arxitekturasi, o‘rgatish uslubi, ma’lumotlar bilan ishlash texnikasi, baholash mezonlari va klinik qo‘llanilishdagi afzallik va cheklovlari o‘zaro solishtirildi. Metodologik yondashuv sifatida strukturaviy tahlil, algoritmik taqqoslash, va funksional natijalarni solishtirish tamoyillariga amal qilindi. Sharhga jalb etilgan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar asosan Scopus, PubMed, IEEE Xplore, Elsevier va Springer kabi xalqaro ma’lumotlar bazalarida indekslangan, so‘nggi besh yil ichida chop etilgan ishlar doirasida tanlab olindi. Modellarni tahlil qilishda, ularning arxitektura strukturalariga e’tibor qaratildi. U-Net modeli encoder va decoder bloklaridan tashkil topgan bo‘lib, simmetrik tuzilish orqali past darajadagi belgi xaritalarini yuqori aniqlikdagi semantik segmentlarga aylantiradi. U-Net modelining asosiy metodik ustunligi shundaki, u kichik hajmdagi ma’lumotlar to‘plamida ham yuqori samaradorlikka ega. Attention U-Net modelida esa, attention bloklari yordamida semantik jihatdan muhim bo‘lgan yurak sohalariga diqqat jamlanadi, bu esa ayniqsa patologik holatlarda yurak devorining noaniq chegaralarini aniq aniqlashda qo‘l keladi.

Tanlangan metodologik taqqoslashning navbatdagi bosqichi — modellarni o‘rgatish va test qilishda ishlatilgan ma’lumotlar to‘plamlarini o‘rganishga qaratildi. EchoNet-Dynamic, CAMUS, Sunnybrook, M&Ms va LVQuan19 kabi keng qo‘llanilayotgan datasetlar segmentatsiya vazifasini bajarish uchun foydalanilgan bo‘lib, ular yurak kameralarining aniq annotatsiyalangan echokardiyografik tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu to‘plamlar har bir yurak tsiklining diastolik va sistolik bosqichlarida olingan tasvirlar, shuningdek, ekspertlar tomonidan belgilangan segmentatsiya maskalari bilan ta’minlangan. Shu asosda modellarni o‘rgatishda yo‘qotish funksiyasi sifatida Dice loss, Binary Cross Entropy, yoki kombinatsiyalangan ko‘rinishdagi Generalized Dice Loss va Tversky loss funksiyalari ishlatilgan. Bular modellarni yuqori aniqlik va past xato darajasi bilan moslashtirishga xizmat qilgan. Echokardiyografik tasvirlarni chuqur o‘rganish modeliga uzatishdan oldin ularni oldindan tayyorlash (preprocessing) metodlari ham metodik muhim jihat sifatida tahlil qilindi. Tasvirlar o‘lchamini standartlashtirish, kontrastni oshirish, grayscale ko‘rinishga o‘tkazish, shovqinlarni filtrlash, yoritish moslashuvi (adaptive histogram equalization) va normalizatsiya kabi usullar o‘rganilgan. Shuningdek, ma’lumotlar yetishmovchiligi muammosini bartaraf etish maqsadida data augmentatsiya usullari — aylanma (rotation), chizish (shearing), ko‘ndalang/uzunasiga cho‘zish (scaling), teskari akslantirish (flipping) va tasodifiy shovqinlar qo‘shish (Gaussian noise) texnikalari keng qo‘llanilgan [9],[10].

Metodologik yondashuvda baholash mezonlari ham muhim o‘rin tutadi. Segmentatsiya aniqligi Dice coefficient, Intersection over Union (IoU), Hausdorff distance, Mean Absolute Error (MAE) kabi ko‘rsatkichlar orqali baholangan. Ayniqsa, Dice coefficient modeli segmentatsiya va real maska o‘rtasidagi moslik darajasini aniq ifodalaydi va klinik jihatdan qanchalik aniqlikda tahlil qilinganini ko‘rsatadi. IoU esa real va predikt qilingan segmentlar orasidagi o‘zaro qoplash darajasini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, klinik moslikni baholash uchun zamonaviy tadqiqotlarda cardiologist-level evaluation (kardiologlar tomonidan ko‘r-ko‘rona baholash) metodikasi ham sinovdan o‘tkazilgan. Tanlangan modellar, ularning algoritmik strukturasi, o‘rgatilgan datasetlar, oldindan ishlov berish usullari va baholash mezonlari bo‘yicha chuqur metodik tahlil asosida mavjud yondashuvlarning samaradorligi, afzalliklari va kamchiliklari tizimli shaklda baholandi. Bu esa hozirgi kunda echokardiyografik tasvirlarda chuqur o‘rganish texnologiyalarining qamrovi, imkoniyatlari va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar va tahlil

Chuqur o‘rganish texnologiyalarining transthorakal echokardiyografik tasvirlar asosida chap qorinchani avtomatik segmentatsiya qilishdagi samaradorligi so‘nggi yillarda olib borilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar orqali nazariy va amaliy jihatdan isbotlangan. Ushbu bo‘limda ilgari chop etilgan ilmiy ishlarning natijalari tizimli ravishda taqqoslanadi, har bir model bo‘yicha olingan yondashuvlar asosida segmentatsiya aniqligi, o‘rgatish samaradorligi, vaqt tejamkorligi va klinik qo‘llanilish imkoniyatlari atroflicha muhokama qilinadi. U-Net modeliga asoslangan echokardiyografik segmentatsiya tizimlari CAMUS va EchoNet-Dynamic datasetlarida o‘tkazilgan sinovlar davomida Dice koeffitsienti 0.89–0.91 oralig‘ida natija ko‘rsatgan bo‘lib, bu klinik diagnostika uchun yetarli aniqlik darajasini anglatadi. U-Net modelining asosiy afzalligi — uning oddiy va kuchli arxitekturaga ega bo‘lishi, kamroq hisoblash resurslarini talab qilishi va kichik o‘rgatish to‘plamlari bilan ham yuqori natijalarga erishishidir. Shu bilan birga, mazkur model yurak segmentlarining noaniq konturlarini, ayniqsa patologik holatlarda, aniq segmentatsiya qilishda cheklovlarga ega bo‘lishi aniqlangan [10],[11].

Attention U-Net modeli ushbu kamchilikni qisman bartaraf eta oldi. Ushbu model sinovdan o‘tkazilgan holatlarda yurak devorining turli bo‘limlari, ayniqsa qalinlashgan yoki kam harakatlanadigan segmentlarini yuqori aniqlikda segmentatsiya qilishga muvaffaq bo‘lgan. EchoNet-Dynamic datasetida bu model bilan o‘tkazilgan testlar Dice koeffitsientining 0.91 dan yuqori qiymatga yetganini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, attention mexanizmi yordamida model ancha chuqur va semantik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan hududlarga yuqori e’tibor berishi segmentatsiya aniqligini oshirgan bo‘lsa-da, bu texnikalarning hisoblash xarajati ortganligini ham ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, ResUNet modeli residual bloklar orqali gradientning yo‘qolishiga qarshi turish va chuqur tarmoqlarni barqaror o‘rgatish imkonini bergan. Natijalarga ko‘ra, bu model patologik holatlarda, masalan chap qorincha gipertrofiyasi yoki dissinxroniyasida aniqlikni yaxshilagan. Shuningdek, V-Net va TransUNet kabi modellar 3D echokardiyografik tasvirlar bilan ishlashda sinovdan o‘tkazilgan. TransUNet modeli transformer komponentlarini integratsiya qilgani sababli global kontekstual informatsiyani to‘liq hisobga oladi, bu esa yurakning umumiy strukturaviy modelini aniqlashda katta afzallik beradi. Bu model yordamida olingan segmentatsiya natijalari Dice koeffitsienti bo‘yicha 0.92–0.94 oralig‘ida bo‘lib, ayniqsa sog‘lom va patologik holatlarni farqlashda yuqori farqlovchanlikni ko‘rsatdi. Shuningdek, barcha modellarni baholashda qo‘llanilgan umumiy mezonlar, ya’ni Dice koeffitsienti, Intersection over Union (IoU), Hausdorff distance va Mean Absolute Error (MAE) orqali olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilingan. Modellarni sinovdan o‘tkazishda ayniqsa chap qorinchani aniqlashdagi segmentatsiya sifati klinik ahamiyatli mezon sifatida qaralgan. Olingan natijalarda U-Net modeli ko‘pincha tezlik jihatidan ustunlik qilgan bo‘lsa, Attention U-Net va TransUNet modellarining aniqligi yuqoriroq bo‘lgan. Klinik nuqtai nazardan, echokardiyografik tasvirlarning avtomatik segmentatsiyasi yurak kasalliklarini erta aniqlashda, davolash natijalarini kuzatishda, operatsiyadan oldingi va keyingi baholashda hamda yurak yetishmovchiligi darajasini baholashda katta ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan tizimlarning real vaqtli echokardiyografiya qurilmalariga integratsiyalashuvi esa kardiologik diagnostikaning tezligini, aniqligini va takrorlanuvchanligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud chuqur o‘rganish modellarining har biri ma’lum kontekstda o‘z afzalliklariga ega bo‘lib, ularni tanlashda klinik ehtiyojlar, hisoblash imkoniyatlari va ishlov berilayotgan ma’lumotlarning sifati asosiy omil sifatida qaraladi. Shu bilan birga, hali ham mavjud cheklovlar, jumladan annotatsiyalangan ma’lumotlar yetishmovchiligi, individual bemorlar bo‘yicha farqlilik, va segmentatsiya sifatining yurakning turli kesimlarida bir xil bo‘lmasligi muammolari hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Kelgusida multimodal yondashuvlar — masalan, echokardiyografiyani EKG yoki MRT bilan birlashtirgan holda, segmentatsiya aniqligini yanada oshirish mumkinligi aniqlangan

[13].

Xulosa

Transtorakal echokardiyografik tasvirlar asosida chap qorinchani avtomatik segmentatsiya qilish, zamonaviy yurak diagnostikasi va kardiologik amaliyotda yuksak aniqlik, tezkorlik va takrorlanuvchanlikni ta’minlashda nihoyatda dolzarb yo‘nalish bo‘lib, so‘nggi yillarda bu sohada chuqur o‘rganishga asoslangan yondashuvlar sezilarli e’tiborga sazovor bo‘lmoqda. Ushbu maqolada mavjud adabiyotlar asosida TTE tasvirlarida chap qorinchani segmentatsiya qilishda qo‘llanilayotgan U-Net, Attention U-Net, ResUNet, TransUNet kabi chuqur o‘rganish modellarining strukturasiga, ularning ishlash algoritmlariga, amaliy natijalariga va klinik ahamiyatiga bag‘ishlangan keng qamrovli ilmiy tahlil amalga oshirildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir model ma’lum sharoit va klinik vazifalarga mos holda alohida ustunliklarga ega. U-Net modeli oddiy va samarali arxitekturasi, past hisoblash xarajatlari hamda kichik o‘rgatish to‘plamlarida ham yuqori natijalarga erishishi bilan ajralib turadi. Attention U-Net esa segmentatsiya jarayonida anatomik va semantik jihatdan muhim hududlarga diqqatni jamlash orqali aniqlikni oshiradi. ResUNet chuqur tarmoqlarda gradientning yo‘qolishini oldini olishga xizmat qilsa, TransUNet modeli esa transformer yondashuvlaridan foydalangan holda global kontekstual axborotni yaxshiroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu modellarni test qilishda qo‘llanilgan EchoNet-Dynamic, CAMUS, Sunnybrook kabi ma’lumotlar bazalarida Dice coefficient ko‘rsatkichining 0.89–0.94 oralig‘ida bo‘lishi avtomatik segmentatsiya natijalarining inson tomonidan bajarilgan konturlarga juda yaqin kelishini isbotlaydi. Ayniqsa, yuqorida ko‘rib chiqilgan modellar yurakning sistolik va diastolik fazalarida devor harakatining baholanishida hamda patologik holatlarda, masalan, gipertrofiya, infarkt yoki dissinxroniyada segmentlar o‘zgarishini aniqlashda yuqori farqlovchanlikni namoyon qilgan. Biroq bu modellar hozircha to‘liq klinik muhitda real vaqtli tahlil qilishga to‘laqonli integratsiyalashmagan, sababi bu jarayon hali ko‘plab texnik va tizimli muammolarni hal qilishni talab etadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, avtomatik segmentatsiya tizimlarini klinik amaliyotga tatbiq etishda ma’lumotlar bilan ishlash sifati, oldindan ishlov berish (preprocessing), annotatsiya sifati, o‘rgatish jarayonidagi yo‘qotish funksiyalari tanlovi va baholash mezonlari muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, chuqur o‘rganish asosidagi modelni ishlab chiqish yoki joriy qilishda texnik yondashuvlar bilan bir qatorda klinik tajriba va ekspertlar ishtiroki ham muhimdir. Bundan tashqari, ma’lumotlar yetishmovchiligi muammosini bartaraf etish maqsadida generativ sun’iy neyron tarmoqlar (GAN), self-supervised learning, transfer learning kabi yondashuvlardan foydalanish kelajakda bu sohada yangi ufqlar ochishi mumkin.

Ushbu maqola natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi: Birinchidan, TTE tasvirlarida chap qorincha segmentatsiyasi uchun chuqur o‘rganishga asoslangan modellar yurak kasalliklarini erta aniqlashda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Ikkinchidan, U-Net oilasiga mansub modellar, ayniqsa attention komponentiga ega bo‘lgan yondashuvlar, echokardiyografik tasvirlardagi noaniq chegaralarni aniq ajratib bera oladi. Uchinchidan, amaliyotda bu tizimlarni tatbiq etishda o‘rgatish ma’lumotlari sifati, texnik resurslar mavjudligi va tibbiy xodimlarning digital kompetensiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. To‘rtinchidan, ilg‘or modellar klinik sharoitga moslashtirilgan holda optimallashtirilsa, diagnostika sifatini oshirish bilan birga, inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirish va xizmat ko‘rsatish tezligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ronneberger O., Fischer P., Brox T. (2015). U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation. In: MICCAI. Springer, LNCS, vol. 9351, pp. 234–241.
2. Oktay O. et al. (2018). Attention U-Net: Learning Where to Look for the Pancreas. arXiv preprint arXiv:1804.03999.
3. Ouyang D., He B., Ghorbani A. et al. (2020). Video-based AI for Beat-to-beat Assessment of Cardiac Function. Nature, 580, pp. 252–256.
4. Leclerc S., Smistad E., Pedrosa J. et al. (2019). Deep Learning for Segmentation Using the CAMUS Dataset: Methods and Benchmark. IEEE Transactions on Medical Imaging, 39(3), pp. 681–693.
5. Smistad E., Ostvik A., Salte I. M. et al. (2020). Real-Time Automatic Segmentation and Tracking of the Left Ventricle in 2D Echocardiography Using Deep Learning. Ultrasound in Medicine & Biology, 46(4), pp. 848–858.
6. Tran P. V. (2018). A Fully Convolutional Neural Network for Cardiac Segmentation in Short-Axis MRI. arXiv:1604.00494.
7. Isensee F., Jaeger P. F., Kohl S. A., Petersen J., Maier-Hein K. H. (2021). nnU-Net: A Self-configuring Method for Deep Learning-based Biomedical Image Segmentation. Nature Methods, 18, pp. 203–211.
8. Bernard O., Lalande A., Zotti C. et al. (2018). Deep Learning Techniques for Automatic MRI Cardiac Multi-Structures Segmentation and Diagnosis: Is the Problem Solved?. IEEE Transactions on Medical Imaging, 37(11), pp. 2514–2525.
9. Abdullayev I.N., Yusupova N.S.,Tashev B.J. Modern echocardiographic methods for detection of cardiac dysynhrony //Science and Education. – 2025. – T. 6. – №. 2. – C. 75-81.
10. Abdullayev Ibroximjon, and Shakarov Farxod Quvondiqovich. "KARDIOSKLEROZ PROGNOSTIK MODELINI YARATISHDA MACHINE LEARNING VA DEEP LEARNING USULLARINING QIYOSIY TAHLILI." Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar 2.19 (2025): 22-27.
11. Nigmatilla o’g’li A. I. et al. SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA YURAK KASALLIKLARINI PROGNOZLASH MODELLARINING ISHONCHLILIGI //Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar. – 2025. – T. 2. – №. 19. – C. 16-21.
12. Nematov S.Q., Kamolova Y.M., Abdullayev I.N. Modern algorithmic methods for the analysis of speech disorders after a stroke // Science and Education. 2023. Vol. 4. №6. PP. 452–456.
13. Magrupov T.M., Nazirov R.M., Abdullaev I.N. Formation of a database of lung disease sound signals // Science and Innovation. 2024. Vol. 3. №9. PP. 90–96.

APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODELS FOR DETECTING STRUCTURAL CHANGES IN THE LEFT VENTRICLE OF THE HEART BASED ON ECHOCARDIOGRAPHIC VIDEO DATA

Ibrohimjon Abdullayev
Department of Engineering and Technical Staff for Medical Equipment and Innovative Technologies. Professional Development Center for Medical Staff, Tashkent. Uzbekistan, abdullayevibrohimjon108@gmail.com
Orcid:0009-0001-0439-5156
Rashid Nasimov
Department of Artificial Intelligence. Tashkent State University of Economics, Tashkent. Uzbekistan
rashid.nasimov@gmail.com
Orcid:0009-0005-1988-5376

Abstract: This study explores methods for analyzing echocardiographic video recordings to detect remodeling of the left ventricular myocardium. The focus is placed on semantic segmentation, which enables the precise delineation of heart structures. Architectures incorporating models like U-Net and those with attention-distribution features were compared in terms of boundary accuracy, adaptability, and consistency. The results support the value of these methods in identifying early structural changes in the myocardium and highlight their role in non-invasive assessment of cardiac function.

Keywords: Echocardiography, Transthoracic echocardiography, Semantic segmentation, Deep learning, U-Net, Attention U-Net, Left ventricular remodeling, Myocardial structure, Cardiac function assessment, Convolutional neural networks, Image preprocessing.

1. Introduction

The method of exocardiography, in particular transthoracic exocardiography (TTE), has been widely used as a diagnostic tool in the selection of early stage detection of heart diseases and effective treatments for them. This method is recognized as a high-precision, non-invasive technology that allows visual observation of the features of the anatomical structure of the heart, wall strength, valve position and blood flow. In particular, when assessing the functional state of the left ventricle and determining the degree of its remodeling, TTE images are a complex but clinically valuable source of information[1-4].

Bozorda ma’lumotlar almashinuvi protokollariga uchta asosiy yondashuv mavjud: ochiq platformalar bilan aloqa UA (asosan Evropada qo‘llaniladi), MTConnect (asosan Shimoliy Amerikada qo‘llaniladi) va MQTT. ochiq platformalar bilan aloqa fondining maqsadi avtomatlashtirish tizimlarida boshqaruv ma’lumotlarini o‘qish, yozish va monitoring qilish xizmatlarini taqdim etadigan standartni yaratish edi. Server o‘rta darajadagi ma’lumotlarni nashr etadi va mijozlar ushbu darajadagi ma’lumotlarni so‘rashadi. Texnologiya 10 000 dan ortiq tarmoq tugunlariga murojaat qilishi mumkin, 10 megabitdan 10 gigabaytdan ko‘proq hajmga ega bo‘lib, uni vaqt talab qiladigan vazifalar uchun ishlatish imkonini beradi. [12] .

Asbobning sinishi, eskirishi, konturlash xatolari va chayqalishlar aniqlanadi. Jarayon kuchi ozuqani boshqarish orqali moslashtirilgan darajada kerakli darajada saqlanadi. Shpindel tezligini nazorat qilish orqali suhbatlashishning oldini olish mumkin edi [4]. Monitoring algoritmlari moslashuvchan boshqaruv va asbob holatini kuzatish funktsiyalarining mustahkamligini oshirish uchun simulyatsiya qilingan sensorli ma’lumotlardan foydalangan. [2] frezalash uchun yopiq konturli boshqaruvni ishlab chiqdi. Frezalash va kesish tezligini jarayonda moslashtirishni o‘rnatish uchun sensorli asbob ushlagichining tezlashuv signallari ishlatilgan..

Sensor bilan o‘rnatilgan asboblar tizimlari

Asbob tizimlarida sensor integratsiyasi sensor tizimlarini buzilishlarga qarshi iloji boricha mustahkam qilish uchun yaxshilangan signal-shovqin nisbati (SNR) orqali jismoniy jarayon qiymatlarini

o‘lchash imkonini beradi. Turli texnologik texnologiyalar (tornalash, frezalash, burg‘ulash, silliqlash va boshqalar) talablarini hisobga olgan holda maxsus sensorli integratsiya echimlari ishlab chiqilgan. Har xil turdagi asboblar sensorlarni birlashtirish uchun turli xil chegara shartlariga ega va ma’lumotlarni onlayn yoki oflayn rejimda qayta ishlash, real vaqtda yoki real vaqtda bo‘lmagan ilovalar orqali tegishli signallarni to‘plash uchun maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Jarayon metrologiyasi va monitoring jarayonni kuzatish uchun sensorli integratsiya statsionar (masalan, torna) va aylanadigan (masalan, burg‘ulash, yo‘nish, frezalash, silliqlash) asboblar uchun muhokama qilinadi. Integratsiya misollariga asbob, ushlagich yoki mil rotori va korpus kiradi.

Frezalash va burg‘ulash kabi aylanadigan asboblarga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan kesish qirralari aniqlangan asboblarda sensorni integratsiyalashning ba’zi fundamental yondashuvlari tornada aniqlanishi mumkin. Texnologik kuchlarni, tebranishlarni va haroratni o‘lchash uchun sensorlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kesish moslamasi ostiga, asbob miliga yoki ushlagichga o‘rnatilgan. Kuchlar va tebranishlar, shuningdek, chiqib ketish chetidan va rake yoki yonbosh yuzidan ma’lum masofada o‘lchanishi mumkin . Jarayon haroratini sezgir o‘lchash datchiklarni chip hosil bo‘lish zonasiga iloji boricha yaqinroq joylashtirishni talab qiladi. Sensorning har bir turi uchun, ayniqsa haroratni o‘lchashda, issiqlik uzatish yo‘lining manbadan sensorning joylashgan joyiga ta’sirini qoplash kerak. Kuch va tebranishlarni o‘lchashda bu uzatish yo‘lining dinamik xususiyatlariga (ya’ni, uzatish funktsiyasi) taalluqlidir. Haroratni o‘lchash bilan solishtirganda, ko‘pchilik sensorli integratsiya sensorni kesish jarayoniga iloji boricha yaqinroq joylashtirishga qaratilgan. Torna ishlarida texnologik kuchlarni yoki past chastotali tebranishlarni o‘lchashning standart usuli - bu asbob ushlagichini olib yuradigan piezo-asosli dinamometrlardan foydalanish. Grabec va boshqalar. dinamometr tomonidan olingan kesish kuchi signalining normallashtirilgan qo‘pol taneli entropiya tezligini talqin qiluvchi chalkashlikni aniqlash uchun yondashuvni taqdim etdi. Xuddi shunday, [7] asboblarning eskirishini kuzatish uchun piezo-asosli dinamometr va uch eksenli piezo akselerometrdan foydalangan. Vaqt va chastota sohalarida kesish kuchlari va tebranish belgisi aşınma holati va progress bilan yaxshi bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Asbob ushlagichiga joylashtirilgan piezoelektrik akselerometrning signallari yon tomonlarning aşınmasını , asbobning sinishi va asbobning noto‘g‘ri hizalanishini aniqlash uchun qaror daraxti va tasodifiy o‘rmon o‘rganish algoritmi tomonidan qayta ishlanadi. Namuna olish tezligi 25 kHz edi. Algoritm turli xil asboblar xatolarini 95% aniqlik bilan tasniflashi mumkin. Ish qismining sirt pürüzlülüğünü kuzatish uchun akselerometr ma’lumotlaridan foydalanish [10] da tasvirlangan . Sensor signallari yagona spektr tahlili bilan qayta ishlandi. Mikro-kesish uchun juda ixcham va juda sezgir piezoelektrik dinamometr o‘rnatish ko‘rsatilgan . Olmosni kesish moslamasini olib yuradigan asbob ushlagichi X va Y yo‘nalishlarida yarim sharlar orqali va Z yo‘nalishida egiluvchan ilgak orqali ishlaydigan piezoelektrik elementlar bilan bog‘langan .



1- rasm . Kesish kuchini o‘lchash, a) piezo asosidagi b) deformatsiya o‘lchagichga asoslangan

Yarim sharsimon struktura eksenel kuchlarni turli yo‘nalishlarda bir-biridan ajratdi. X-da 0,1 mN, Y-da 0,05 mN va Z yo‘nalishida 0,1 mN kuch o‘lchash ruxsati 500 Hz namuna olish tezligida erishildi. Quvvatni o‘lchash elementi bilan jihozlangan uch o‘qli tezkor asbob servo mos ravishda 100 mN (X, Y) va 75 mN (Z) gacha bo‘lgan statik va dinamik kuchlarni o‘lchashga qodir edi. Signalning siljishi va

yuqori xarajatlardan aziyat chekadigan pyezo-asosli dinamometrlarga muqobil ravishda deformatsiya o‘lchagich datchiklariga asoslangan dinamometrlar ishlab chiqarishda sakkiz burchakli halqalar biriktirilgan deformatsiya o‘lchagichlari bilan deformatsiya elementlari sifatida ishlatiladi. Uzuklarning o‘ziga xos joylashuvi minimal o‘zaro ta’sirchanlikka olib keladi. Tizim ± 5 N sezgirligi bilan maksimal o‘lchanadigan kuch bilan 3,5 kN bilan tavsiflanganda , dinamik ravishda qattiq, ammo sezgir kuch o‘lchash vositasini ta’minlash uchun yarim o‘tkazgich kuchlanish o‘lchagichlarni olib yuruvchi sakkizburchak halqalarning ortogonal joylashuvi amalga oshirildi. Ushlagich metall folga kuchlanish o‘lchagichlari bilan solishtirganda, kremniy-izolyatorli piezo-rezistorli materialdan ishlab chiqarilgan yarim o‘tkazgich turi sezgirlikni 16 omilga oshirdi. Tizim 771 Gts tabiiy chastotani ko‘rsatdi. Biroq, deformatsiya elementlarini birlashtirish tizimning statik va dinamik qattiqligini pasaytiradi, bu sensorli asbobning chatter barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin. Harorat sensorlari, kesish zonasiga yaqin integratsiyani ta’minlash uchun zarur bo‘lgan darajada kichik bo‘lishi kerak . Kus va boshqalar. burilish moslamasining kesuvchi qirrasi ostida -195°C dan 1100°C gacha bo‘lgan o‘lchov diapazoniga ega K tipidagi termojuftning namunaviy integratsiyasini taqdim etdi . Termojuftning diametri 0,5 mm edi. Sensor tirgak va yon tomondan 1 mm masofada joylashgan bo‘lishi mumkin. Tijoriy sensorning aniqligi ± 2,5 ° C yoki ± 1% da ko‘rsatilgan. Kesish tajribalarida o‘lchangan asbob harorati qiymatlari infraqizil pirometrdan olingan asbob-chip interfeysidagi harorat o‘lchovlari bilan solishtirildi . Asbob haroratini o‘lchash qiymatlari jarayon parametrlariga qarab asbob-chip interfeysi haroratining atigi 13-20% ni tashkil etdi. Fotolitografiya va kimyoviy qirqish termojuftlarning 0,5 mkm qalinlikdagi strukturasini hosil qildi. Sensorli kesish qo‘shimchalari kesish tajribalarida sinovdan o‘tkazildi va tasdiqlandi. SiO_2 izolyatsion va himoya qatlamlari bo‘lgan NiCr/NiSi yupqa plyonkali termojuftlar HSS substratlarida maxsus magnetronli püskürtme texnikasi bilan yotqizilgan . Alumel-Chromel termojuftlarining WC-Co qo‘shimchalarida mikro-mashinali niqoblar yordamida püskürtülmesi da tasvirlangan . 100 nm qalinlikdagi xrom qatlami adezyon kuchaytiruvchisi sifatida ishlatilgan. Termojuft tuzilmalari taglik va qoplamaning turli termal kengayish koeffitsientlari tufayli yuzaga keladigan stresslarni kamaytirish uchun Al_2O_3 dielektrik qoplamasiga o‘rnatilgan . Nihoyat, AlTiN himoya qatlami qo‘shildi.

Asbob chipi interfeysining harorati hatto 200 m / min gacha bo‘lgan kesish tezligi bilan AISI 12L14 po‘latini uzilgan kesishda ham o‘lchash mumkin edi. [155] da yupqa plyonkali termojuftlar PCBN asboblariga o‘rnatilgan va 62 HRC gacha qotib qolgan AISI O2 asbob po‘latini quruq qattiq burishda sinovdan o‘tkazildi. 1 mm^2 dan kam maydonga 10 ta issiq o‘tish joyi qo‘yilgan. Sensorli tizim yordamida 250 m/min dan 1000 m/min gacha bo‘lgan kesish tezligida o‘lchab o‘lchanishi mumkin.. Al_2O_3 izolyatsiya qatlamiga ega volfram karbid qo‘shimchalari . Shuningdek, o‘tkazuvchi simlar kumush nanopartikulli siyohni aerozolli reaktiv bosib chiqarish orqali ishlab chiqarilgan. NiO yupqa plyonkalarni o‘choqda termal kaltsiylash kerak edi. O‘lchov natijalariga ta’sir qiluvchi termal ta’sirlar tufayli yondashuvasbob ushlagichidagi kuchlanishga sezgir sirt akustik to‘lqin sensorlari bilan birlashtirildi. Kesish kuchlari Kistler dinamometri bilan taqqoslanadigan 175 N gacha o‘lchandi. Sensorli torna asboblari kvazstatsionar, aylanmaydigan asbob korpusi bilan tavsiflanadi. Tez harakatlanuvchi va statsionar komponentlar o‘rtasidagi har qanday interfeys orqali energiya va sensor ma’lumotlarini uzatishning hojati yo‘q. Xuddi shunday chegara shartlari aylanmaydigan asbob bilan zerikish uchun ham qo‘llaniladi.

Burg‘ilash, rezba ochish, frezalashda energiya va sensor signallarini uzatish sensorli tizimlar zarurdir. Aylanish tezligiga qarab, turli xil yechimlar amalga oshirilishi mumkin. Bu yuqori tezlikda aylanadigan asboblarda sensorni birlashtirish imkonini beradi. Sensor integratsiyasi ko‘pincha mashinaning shpindel tizimini o‘z ichiga oladi. Dvigatel shpindelining oldingi podshipniklari va gardishlarida piezoelektrik halqalarni burg‘ulashda kuchni sezish uchun ishlatishda tasvirlangan . Sensor signallari 2 kHz chastotada namuna olingan. Jarayon bilan bog‘liq ta’sirlardan tashqari, milning xususiyatlarini ham aniqlash mumkin. [2] da qalinligi 7 mkm bo‘lgan pyezorezistorli yupqa plyonkali datchik tizimi yog‘ochga ishlov berishda asbobning siqish kuchini va nomutanosibligini kuzatish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri milning old yuzasiga yotqizilgan. Piezorezistiv gidrogenlangan uglerod qatlami yuqori aşınma qarshiligini ta’minlash uchun olmosga o‘xshash uglerod (DLC) qoplamalarining keyingi rivojlanishini tashkil etdi. Shpindel korpusi va aylanuvchi mil o‘rtasidagi siljishlarni o‘lchaydigan sig‘imli sensorlar [11] da kiritilgan . Asbobdagi texnologik yuklardan kelib chiqadigan siljishlarni

o‘lchash bilvosita kuch o‘lchash tizimi sifatida ishlatilgan. Kalman filtri yordamida tarmoqli kengligi 1 kHz gacha oshirilishi mumkin. Shunga o‘xshash yondashuv Brecher va boshqalar tomonidan qo‘llanilgan. [7] . Onlayn monitoring tizimiga erishish uchun o‘lchangan jarayon kuchlari simulyatsiya natijalari bilan solishtirildi . [2] da asbob tebranishidan ta’sirlangan va joy almashish sensorlari bilan o‘lchanadigan ish qismi topografiyasining bashorati tasvirlangan. [3] da to‘liq frezalashtiruvchi mil piezo-elektr konstruktsiyasi tomonidan olib borildi. Jarayon kuchlarini o‘lchash mumkin edi va yupqa devorli ish qismlarining burilishlari kuzatildi.

Frezalash momentini o‘lchashga qodir bo‘lgan sensorli asbob ushlagichini taqdim etdilar. Simsiz momentni o‘lchash tizimi (Montronix) o‘zgartirilgan standart asbob ushlagichiga o‘rnatildi. Modifikatsiya tufayli asbob ushlagichining burilish qattiqligi kamaydi. Frezalash va burg‘ulash uchun deformatsiya o‘lchagichga asoslangan sensorli asbob ushlagichi taqdim etilgan. Asbob ushlagichining to‘rtburchaklar parallel quvurli korpusi ko‘rinishidagi maxsus quvvat o‘tkazgichi Wheatstone ko‘prigi ichida 24 ta kuchlanish o‘lchagich bilan jihozlangan. Tartib 2 kN dan 3 kN gacha bo‘lgan texnologik kuchlarni va 5000 rpm gacha bo‘lgan mil tezligini hisobga oladi.. To‘rtta piezo tezlashuv sensori asbob ushlagichi bilan birlashtirildi va ko‘p o‘qli tebranish o‘lchovlarini o‘tkazishga imkon berdi. Tegirishda tayoqning sirpanish effektlari va frezalashda chatishish kuzatilishi mumkin edi.. Tegishli asbob ushlagichi ichidagi eksenel kompensatsiyani kuzatish uchun biriktirilgan deformatsiya o‘lchagichlari bo‘lgan bahor elementi ishlab chiqilgan.. Uch yo‘nalishda texnologik kuchlarni, shuningdek, asbob ushlagichi ichidagi momentni o‘lchash uchun sig‘imli sensorlar va deformatsiyalanadigan strukturadan foydalanishni taklif qildi. Prototipik tizim yordamida yuqori sezuvchanlikka erishish mumkin edi. Shunga qaramay, sezgirlik hissiy strukturaning ishlab chiqarish aniqligiga bog‘liq edi. Asbob ushlagichining umumiy o‘lchamlari katta bo‘sh joyni talab qildi, bu esa ishlov beriladigan qismning geometriyalarini foydalanish imkoniyatini kamaytirishi va asbobning avtomatik o‘zgarishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Frezeleme jarayonlarini kuzatish uchun integratsiyalangan simsiz tebranish sensori ushlagichida keltirilgan . Bir o‘qli MEMS sig‘imli akselerometr aylanma o‘qda ushlab turadigan qavs yordamida joylashtirildi . Simsiz ma’lumotlarni yig‘ish elektroniği to‘liq integratsiyalashgan tizimning kengaytirilgan maydonini talab qildi . Nozik tebranish signallarini olish mumkin edi, bu esa asboblarning aşınmasını kuzatish imkonini berdi. Tezlashtirish sensori o‘rnatilgan asbob ushlagichining ancha ixcham yechimi Bleicher va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Schunk kompaniyasi tomonidan tijoratlashtirilgan dizayn varianti ko‘rsatilgan.



2- rasm . Asbob ushlagichlariga o‘rnatilgan MEMS-sensorlar, a) sensorli asbob ushlagichi, b) datchik bilan o‘rnatilgan chuqur teshik burg‘ulash vositasi.

MEMS tezlashuv sensorining aylanish o‘qida aniq joylashishi qiyin bo‘lganligi sababli, modelga asoslangan signalni oldindan qayta ishlash kerak edi. da ikkita bir o‘qli piezoelektrik tezlashuv sensori bo‘lgan asbob ushlagichi taqdim etildi. Maqsad 1 kHz tarmoqli kengligi bilan tangensial (aylanma) va radial yo‘nalishdagi tebranishlarni o‘lchash edi . Sensorli tizim shpindel tezligini o‘zgartirish orqali suhbatni aniqlash va oldini olishga imkon berdi. da uch eksenli tebranish sensori ushlagichi taqdim etildi . Piezoelektrik akselerometr moslashtirilgan mikroelektronika bilan birlashtirildi. da Spiewak

shunga o‘xshash tizimni taqdim etdi va tezlashuv o‘lchovlarini mil tebranishiga aylantirish uchun hisoblash usulini tasvirlab berdi. Yuqorida aytib o‘tilgan dizaynlardan tashqari, asbob mili yoki asbob korpusi sezgir sensorli integratsiyani ta’minlaydi. Deformatsiya o‘lchagich ko‘prigi to‘g‘ridan-to‘g‘ri frezalashtiruvchi asbobning miliga biriktirilgan va aylanuvchi burg‘ulash novdasining og‘ishini o‘lchaydigan integral lazer tizimi joriy qilingan bo‘lib, u chiqib ketish joyini faol ravishda sozlash imkonini beradi. Zerikarli barda polyester substrat o‘rtasida laminatlangan ekranda chop etilgan PVDF polimer plyonka sensori qo‘llanilishi da xabar qilingan. [7] Tebranish signallari o‘lchangan kuchlanishdan olinishi mumkin. da , FBG‘lar burilish asboblari tebranishlarini o‘lchash uchun bitta quvurli tizim (STS) chuqur teshik burg‘ulash uchun uglerod tolasi bilan mustahkamlangan kompozit burg‘ulash trubkasiga biriktirilgan . Datchiklar 1 soniya davomida 19,23 kHz chastotada ketma-ket namunalar olindi. Deformatsiya o‘lchagichlar bilan solishtirganda , FBG sensorlari driftni ko‘rsatdi, bu esa yopishtiruvchi bog‘lanishning ta’siri bilan izohlanadi. da , asbob miliga biriktirilgan deformatsiya o‘lchagichlar bilan tekislik og‘ishlarini o‘lchaydigan reaming asbobi taqdim etildi. Wheatstone to‘liq ko‘priklarining sxemasi harorat ta’siriga chidamliligi bilan burilish kuchlanishlari va normal kuchlarning ajratilishini ta’minladi. Batareya sensor elementlarini quvvatlantirdi va telemetrik tizim signal uzatishni amalga oshirdi . Past chastotali filtrlash, kuchaytirish, konditsionerlash va xom signallarni boshqa past o‘tkazuvchan filtrlashdan so‘ng, AD konvertatsiyasi 16 bitli ruxsatda 83,3 kHz (uch kanal) namuna olish tezligida amalga oshirildi. Konvertatsiya qilish uchun 2,2 mks kerak bo‘ldi va mikro-kontrollerga o‘tkazish uchun qo‘shimcha 4 mks kerak bo‘ldi, bu juda oz kechikishdir. Ma’lumotlarni statsionar ma’lumotlarni yig‘ish (DAQ) tizimiga uzatishda ZigBee standarti qo‘llaniladi. Sensor tizimining yuqori sezuvchanligi va chiziqliligiga erishildi.



3- rasm . Sensor asboblar bilan raybalash paytida burg‘uning tekisligini o‘lchash.

Aylanadigan asboblarning uchida sensorni birlashtirish uchun yondashuvlar ham mavjud. 18 mm chuqurlikdagi burg‘ulash moslamasida sakkizta Pt1000 termal datchiklari kesish moslamasi va yo‘naltiruvchi prokladkalar ostiga o‘rnatilgan, shu jumladan asbob uchiga yaqin sig‘imli akselerometr ko‘rsatilganidek . ±40 g gacha bo‘lgan tezlanishlarni o‘lchash mumkin edi. Namuna olish chastotasi 8 kHz edi. Muayyan telemetrik tizim ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, turli jarayon sharoitlarida jarayon harorati va besleme kuchlari tahlillari taqdim etildi. Harorat datchiklarining chiqib ketish va hidoyat yostig‘i yuzalaridan uzoqligi sababli, o‘lchangan haroratlarni o‘lchash uchun yumshoq sensor simulyatsiyalari zarur edi. Haroratni sezish kabi qo‘shimcha funktsiyalarga ega bo‘lgan ba’zi tezlanishni sezish asboblari tizimlari sotuvda mavjud, masalan, Frezalash vositasi dinamometrini taqdim etdi, unda har bir kesuvchi qismda uch eksenli kesish kuchi signallari to‘planadi. To‘rtta qo‘shimchalar modulli patronlar tomonidan olib borilgan, ular piezoelektrik datchiklar orqali asbob korpusiga o‘rnatilgan. 1,5 kHz tarmoqli kengligiga erishish mumkin edi. Katta hajmli piezoelektrik kuch datchiklariga muqobil sifatida har bir kesish joyida yupqa plyonkali PVDF datchiklari bo‘lgan frezalashtirgichni taqdim etdi.[9] Datchiklar qo‘shimcha o‘rindiqlar ostiga joylashtirilgan va 10 MGts gacha bo‘lgan ish chastotasida ishlagan. Crossstalk signallarni ajratish orqali kompensatsiya qilindi. Drossel va boshqalar frezalashtirgichning kesuvchi qo‘shimchalarini qisishda pyezokeramik qalin plyonkali datchiklarni tanladi . Taqsimlangan sensor elektrodlarining signallari asosida kesish kuchlarini hisoblash uchun egilish va burilish momentlarini hisoblaydigan model ishlab chiqildi.



4- rasm . O‘rnatilgan PVDF datchiklari bilan simsiz asbobli frezalash tizimi.

Möhring va boshqalar 120 mm uzunlikdagi 12 mm sharli burunli frezalash asbobining asbob uchida MEMS tezlashuv sensori o‘rnatilgan. Bir eksenli sensor 16,4 kHz namuna olish tezligini ta’minladi. 80 kHz namuna olish tezligiga ega uch kanalli uzatish tizimi sensor ma’lumotlarini aylanadigan asbobdan uzatdi. Datchik to‘g‘ridan-to‘g‘ri asbob uchida kesish moslamasi yonida joylashganligi sababli, asbob tebranishlarini o‘lchash mumkin edi. Frezeleme jarayonida hosil bo‘lgan ish qismini pürüzlülüğünü kuzatish mumkin edi. Jarayon va asbob holatini kuzatishda kuchlar va tezlanishlardan tashqari kesish zonalaridagi harorat ham muhim ahamiyatga ega. Sensor ma’lumotlarini RF antennasi orqali DAQ tizimiga etkazish uchun asbob ushlagichidagi simsiz uzatish tizimi ishlatilgan . Qabul qilish chastotasi 1 kHz, aniqlik 1 ° C va o‘lchash kechikishi 150 mks. Lazoglu va boshqalar. Burg‘ulash jarayonida haroratni o‘lchash uchun asbob ushlagichini ishlab chiqdi. Telemetriya dinamometrga birlashtirilgan bo‘lib, haroratga qo‘shimcha ravishda kuchlar va momentlar qayd etilgan. Haroratni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kesish joyida sovutish kanallari orqali boshqariladigan ikkita termojuft orqali o‘lchash mumkin edi.[7] Ushbu ilovada kesish qo‘shimchalaridan biriga kichik bir teshik ochilgan. 0,68 ° C harorat o‘lchamlariga erishildi. Tizim haroratni kesish tezligiga qarab farqlash imkonini berdi. Frezalash asboblarini kesish uchun qo‘shimchaga birlashtirilgan NiCr / NiSi yupqa plyonkali termojuft [59] da taqdim etilgan . SiO_2 plyonkalari izolyatsiya va himoya sifatida ishlatilgan. Har xil kesish chuqurliklari uchun harorat egri chiziqlari yaratilgan. K tipidagi termojuftni diametri 8 mm bo‘lgan monolitik qattiq karbidli frezaga integratsiyalashuvi taqdim etilgan .



Termojuftning diametri atigi 0,2 mm bo‘lib, nominal nominal javob 20 ms da berilgan. Sensor chiqib ketish chetidan 0,5 mm masofada joylashgan. Yupqa plyonkali termojuftlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri frezalashtiruvchi asbobning chiqib ketish qismi yuzasiga yotqizilgan. Shunday qilib, tirgak yuzi va kesish chetiga atigi 1,3 mkm va 20 mkm masofani amalga oshirish mumkin edi. Ma’lumot uzatish slip halqalarga asoslangan edi. Bu haroratga bog‘liq qiymatlarni kattaroq masofada va yopiq mashina eshigi

bilan o‘qish imkonini berdi. Bundan tashqari, ko‘p fizik o‘lchovlar uchun turli xil sensorli texnologiyalarni o‘z ichiga olgan tizimlar ishlab chiqildi. Ko‘p sensorli frezalash boshi va uni jarayon monitoringi uchun ishlatish taqdim etildi. Asbob korpusi kuchni o‘lchash uchun har bir kesish joyida deformatsiya o‘lchagichlar bilan jihozlangan. K tipidagi termojuftlar kesish zonasiga yaqin haroratni o‘lchash imkonini berdi. Bundan tashqari, tebranishlarni o‘lchash uchun 3 o‘qli akselerometr o‘rnatilgan.

Xulosa

Sensorlar va faol asboblarning zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanilishi tahlil qilindi. Sensorlar ma’lumotlarni yig‘ish va uzatishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa raqamli boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini ta’minlash va jarayonlarni yaxshilash uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqish zarur. Sanoat Ethernet va simsiz aloqa texnologiyalari orqali monitoring va integratsiya jarayonlari yanada samarali amalga oshirilishi mumkin. Natijada, zamonaviy sensorlar va asboblar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari raqobatbardosh va barqaror bo‘lib qoladi. Bu sohadagi yangiliklar, shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Kesish jarayonlarida kuch va haroratni o‘lchash uchun sensorli tizimlarni ishlab chiqish va integratsiya qilish bilan bog‘liq innovatsiyalarni tahlil qiladi. Asbob ushlagichlari va kesish vositalariga biriktirilgan MEMS (mikroelektromexanik tizimlar) sensorlari yordamida dinamik va statik kuchlar, harorat va tebranishlar o‘lchanishi mumkin.

Maqolada piezoelektrik va deformatsiya o‘lchagichlariga asoslangan tizimlarning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, sensorlarning o‘zaro ta’siri va qattiqlik muammolari muhokama qilinadi. Asbob ushlagichlari va kesish asboblariga o‘rnatilgan turli xil datchiklar yordamida olingan ma’lumotlar jarayon parametrlarini yanada aniqroq nazorat qilish imkonini beradi. Haroratni o‘lchash uchun termojuftlar va PVDF plyonkali sensorlardan foydalanish, shuningdek, simsiz uzatish tizimlari orqali ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish jarayonning samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, maqola jarayon jarayonlari, masalan, frezalash va burg‘ulashda harorat taqsimotining simulyatsiyasi va sensor ma’lumotlarini kombinatsiyalash usullari haqida ma’lumot beradi. Ushbu yondashuvlar kesish jarayonlarida yuqori aniqlik va sezgirlikni ta’minlaydi, bu esa uskunalarning ishlashini va umrini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.M.Yusupov Abrasive Yeilish Sharoitida Ishlovchi Stamp Plastinalarining Mustaqamligini Diffuziya Borlash Usuli Bilan Oshirish Miasto Przyszlości 50, 119-124
2. Y.S.Ma'rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Kompyuterning raqamli boshqaruv mashinalari va ularni dasturlash - Informatika va ma'lumotlar fanlari xalqaro jurnali ..., 2024 y.
3. Y.S.Ma’rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Mexatronika va robototexnika tizimlarining sinergiyasini o‘rganish American Journal of Technology Advancement 1(1), 36-38
4. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
5. oglu Akbarov, Q. Q. Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi.
6. Shoxrux G‘ayratjon o’g, R., Qurbonali o’g‘li, A. Q., & Dilshodjon o’g‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts. Eurasian Scientific Herald, 9, 8-14.
7. Qurbonali O’G‘li, A. Q., & Dilshodjon O’G‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts.
8. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
9. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Exploring The Synergy Of Mechatronics And Robotics Systems. American Journal of Technology Advancement, 1(1), 36-38.
10. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Computer Numerical Control Machines and Their Programming. International Journal of Informatics and Data Science Research, 1(1), 13-18.

11. SH. Fayzimatov, S. Yusupov. Analytical and model optimization of kinematic schemes of uniform-density pressing of powder materials. // “International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology” Vol. 6, Issue 6, June 2019.

TRANSFORMER AVLODIDAGI MODELLAR ORQALI O‘ZBEK TILI UCHUN LEMMATIZATSIYA VA NAMED ENTITY RECOGNITION MUAMMOLARINING YECHIMI

Allaberganova Nasiba Muradovna
abisan_1990@mail.ru
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti doktoranti

Annotatsiya. O‘zbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash sohasida lemmatizatsiya va named entity recognition masalasini yechishda transformer avlodiga oid turli xil modellar asosan BERT, RoBERTa va XLM-R kabi modellar qiyosiy tahlilq qilingan. O‘zbek tilida leksik va grammatik tahlil qilish murakkab bo’lganligi sababli, ushbu modellarni o’zbek tiliga moslashtirish dolzarb muammo bo’lib kelmoqda. O‘zbek tilidagi korpuslar asosida maxsus belgilangan lemmatizatsiya va NER ma’lumotlar to’plami tuzildi. Transformer modellarining natijalari an’anaviy statistic modellar CRF, BiLSTM-CRF bilan solishtirildi.

Kalit so’zlar: Lemmatizatsiya, transformer, BERT, RoBERTa, XLM-R, morfologik tahlil, til modellarini moslashtirish.

Sun’iy intellekt rivojlanishi bilan tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) va chuqur o‘rganish (deep learning) sohalari jadal rivojlanib bormoqda. Transformer arxitekturasiga asoslangan til modellarining paydo bo‘lishi NLP vazifalarida sezilarli yutuqlarga erishish imkonini yaratdi. BERT, RoBERTa, XLM-R kabi modellar kontekstga bog‘liq semantik tahlilni chuqurroq amalga oshira olgani sababli, ular lemmatizatsiya, matn tasnifi, sentiment tahlili va Named Entity Recognition (NER) kabi ko‘plab NLP vazifalarida samarali qo‘llanilmoqda[1].

Biroq, ko‘pgina tadqiqotlar ingliz tili va boshqa yirik resursga ega tillarda olib borilgan bo‘lsada, o‘zbek tilida bunday chuqur modellarni qo‘llash va sinovdan o‘tkazish hali yetarli darajada o‘rganilmagan. O‘zbek tili morfologik jihatdan boy, so‘z yasalishi esa murakkab bo‘lib, lemmatizatsiya va NER kabi muammolarni an’anaviy usullar yordamida hal qilishda ko‘plab cheklovlar mavjud. Ayniqsa, kontekstual yondashuvlar bo‘lmagan hollarda grammatik noto‘g‘ri lemmatizatsiya yoki noto‘g‘ri aniqlangan semantik ifodalar paydo bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) bo‘yicha tadqiqotlar so‘nggi yillarda dolzarb sohalardan biri bo’lib, morfologik tahlil va semantik identifikatsiya kabi muhim masalalar yechimini topmagan. Ushbu muammolardan biri — lemmatizatsiya va named entity recognition (NER**)** hisoblanadi.

Lemmatizatsiya – bu so‘zlarni morfologik tahlil asosida ularning lemmat shakliga (dictionary form) keltiruvchi algoritmik jarayon bo‘lib, bu tilni avtomatik qayta ishlashda, xususan, matnni indekslash, qidiruv tizimlari, mashina tarjimasi va til modellarida qo‘llaniladi.

NER — bu avtomatik tizim yordamida matndagi so‘z yoki iboralarning semantik jihatdan muhim bo‘lganlarini aniqlab, ularni oldindan belgilangan kategoriyalarga (shaxs, joy, tashkilot, sana va h.k.) tasniflash muammosidir.

Lemmatizatsiya va Named Entity Recognition (NER) kabi tabiiy tilni qayta ishlash muammolarini hal etishda transformer arxitekturalari asosida qurilgan chuqur o‘rganish modellaridan foydalanish samarali yechim hisoblanadi. Quyida ushbu ikki vazifa uchun qo‘llaniladigan modelning matematik asoslari bayon etiladi.

Transformer asosli modellarning umumiy shakli. Transformer arxitekturasi asosida qurilgan modellar (masalan, BERT, XLM-R, T5) kirish matnni tokenlar ketma-ketligi ko‘rinishida qabul qiladi va har bir token uchun kontekstga bog‘liq yashirin tasvir (hidden representation) hosil qiladi[2].

Aytaylik, kiritilayotgan matn $X = [x_1, x_2, \dots x_n]$ bo'lib, x_i— bu i-token. Model quyidagicha ishlaydi:

$$X = Transformer(X)$$
$$H = [h_1, h_2, \dots h_n], \ \ h_i \in R^d$$

Bu yerda — h_i har bir x_i token uchun d o'lchamli yashirin (hidden) vector.

Lemmatizatsiya modellarning umumiy shakli.. Lemmatizatsiya bu tokenlarni ularning lug'aviy (asl) shakliga o'tkazish vazifasidir. Bu ketma-ketlikdan ketma-ketlikka (sequence-to-sequence) o'rganish muammosidir[3].

Aytaylik, x_i — kirish token, y_i — uning lemmatik shakli.

Model quyidagi xaritani o'rganadi:

$$y_i = Decoder(h_i), \ \ ya'ni \quad y_i = \arg\max P(y|h_i)$$

Yo'qotish funktsiyasi (loss function) sifatida kross-entropiya yo'qotish funksiyasi ishlatiladi:

$$L_{lemma} = -\sum_{i=1}^{n} \log P(y_i^{true}|h_i)$$

Named Entity Recognition (NER) modellarning umumiy shakli. NER muammosi — bu har bir tokenni tegishli entity sinfiga ajratish vazifasidir. Bu token classification muammosidir[4][5].

Aytaylik, har bir token x_i uchun bizga kerakli label t_i , bu yerda P — sinflar to'plami (PER, LOC, ORG, DATE, O — oddiy so'zlar).

Model quyidagi ehtimollikni hisoblaydi:

$$P(t_i|h_i) = soft\max(Wh_i + b)$$

Bu yerda:

W— og'irliklar matrisi

b — bias vektori

Yo'qotish funksiyasi:

$$L_{ner} = -\sum_{i=1}^{n} \log P(t_i^{true}|h_i)$$

Ko'p vazifali (multi-task learning) yondashuv. Agar lemmatizatsiya va NER birgalikda bitta modelda bajarilsa, umumiy yo'qotish funksiyasi quyidagicha birlashtiriladi[5]:

$$L_{total} = \lambda_1 L_{lemma} + \lambda_2 L_{ner}$$

Bu yerda λ_1 va λ_2 — har bir vazifa uchun yo'qotish funksiyasining muhimlik koeffitsiyentlari (odatda $\lambda_1 + \lambda_2 = 1$).

Transformer modellarning qiyosiy tahlil natijalari quyidagi jarayonlarda ulardan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi(1-jadval).

XLM-R (Cross-lingual RoBERTa)**:** Ko'p tilli kontekstual embedding hosil qiluvchi encoder model

ByT5**:** Belgilar darajasida ishlovchi T5 modifikatsiyasi, o'zbek tilining agglutinativ tabiati uchun mos

mBERT**:** Ko'p tilli BERT, token-level ishlovchi va NER uchun yaxshi bazaviy model

1-jadval. Til modellarining qiyosiy tahlili

Model nomi	**Vazifa**	**Precision**	**Recall**	**F1-Score**	**Exact Match (Lemmat.)**	**Loss qiymati**
XLM-R Base	Lemmatizatsiya	88.3%	86.7%	87.5%	84.2%	0.31
	NER	91.5%	90.1%	90.8%	—	0.25
ByT5 Base	Lemmatizatsiya	92.6%	91.9%	92.2%	89.5%	0.22
	NER	88.4%	85.2%	86.7%	—	0.28
mBERT Base	Lemmatizatsiya	84.1%	82.5%	83.3%	80.7%	0.35
	NER	89.7%	88.3%	89.0%	—	0.27

Tadqiqot natijalari ko'rsatib turibdi, lemmatizatsiya masalalarini yechishda ByT5 Base modeli samarali hisoblanadi. Bu model o'zbek tilining agglutinativligi uchun samarali natija beradi. Model eng yuqori F1-score (92.2%) va eng minimal loss (0.22) ko'rsatkichga ega. Bu model lemmatik

normallashtirish talab qilinadigan ma’lumotlar to’plami uchun samarali yechim beradi. NER masalalarini yechishda esa XLM-R Base yuqori natijalarni ko’rsatadi. Bu model eng yuqori F1-score (90.8%) va eng minimal loss (0.25) ko’rsatkichga ega. Bu model ko‘p tilli va kontekst embeddinglar hosil qilishda yuqori natijalar ko’rsatadi. Shaxs ismlari, joy nomlari, tashkilotlar kabi atoqli otlarni aniqlashda XLM-R modelidan foydalanish lozim. mBERT Base modeli esa lemmatizatsiya va NER masalalarini yechishda nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega**,** lekin resurslar cheklangan holatlarda va model hajmi yoki ishga tushirish tezligi muhim bo‘lgan masalalarda foydalanish mumkin. Tadqioqtlar natijalari transformer modellarining o‘zbek tilining kontekstual va morfologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yuqori aniqlik bilan ishlay olishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Patwardhan, N.; Marrone, S.; Sansone, C. Transformers in the Real World: A Survey on NLP Applications. *Information* 2023, *14*, 242. https://doi.org/10.3390/info14040242
2. Kotei, E.; Thirunavukarasu, R. A Systematic Review of Transformer-Based Pre-Trained Language Models through Self-Supervised Learning. *Information* **2023**, *14*, 187. https://doi.org/10.3390/info14030187
3. Rahali, A.; Akhloufi, M.A. End-to-End Transformer-Based Models in Textual-Based NLP. *AI* **2023**, *4*, 54-110. https://doi.org/10.3390/ai4010004
4. Song K. et al. Mass: Masked sequence to sequence pre-training for language generation //arXiv preprint arXiv:1905.02450. – 2019.
5. Babić, K.; Martinčić-Ipšić, S.; Meštrović, A. Survey of Neural Text Representation Models. *Information* **2020**, *11*, 511. https://doi.org/10.3390/info11110511

SHOSHILINCH DIAGNOSTIKA UCHUN REAL VAQTLI TIBBIY MA’LUMOTLARNI GRAFIK TAHLIL QILISH ALGORITMLARI TAHLILI

Allamuratova Nilufar Kuat qizi,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti doktoranti, ferouduke@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoshilinch diagnostika uchun real vaqt rejimida tibbiy ma’lumotlarni grafik tarzda tahlil qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Tibbiy signallarni (EKG, qon bosimi, SpO2) filtratsiya qilish, anomaliyalarni aniqlash va ma’lumotlarni intuitiv grafik interfeys orqali vizualizatsiya qilishning ilmiy asoslari tahlil qilindi. Grafik tahlil real vaqtli monitoring tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, grafik interfeys dizayniga qo‘yiladigan talablar, foydalanuvchi tajribasi va texnik jihatlar ham ko‘rib chiqilgan. Ish natijasida real vaqtli tibbiy monitoring uchun samarali, vizual va funksional tizim yaratish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Zamonaviy tibbiyotda shoshilinch yordam ko‘rsatish samaradorligi ko‘p jihatdan diagnostika tezligi va aniqligiga bog‘liq. Bunday holatlarda real vaqt rejimida tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyati bemorning hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yurak urishi, qon bosimi, EKG kabi signal va ko‘rsatkichlarni tezkor aniqlab, grafik ko‘rinishda aks ettirish shifokorga tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini yaratadi.

Tibbiy ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlashda grafik tahlil algoritmlarining o‘rni beqiyosdir. Grafik tahlil – bu nafaqat signalni ko‘rsatish, balki u orqali dinamik o‘zgarishlarni aniqlash, anomaliyalarni ajratib ko‘rsatish va ogohlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish demakdir. Buning uchun zamonaviy kompyuter grafikasi, mashinaviy o‘rganish va raqamli signalni qayta ishlash algoritmlari birgalikda qo‘llaniladi.

Ushbu ilmiy ishda shoshilinch diagnostika sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan real vaqtli grafik tahlil algoritmlari chuqur o‘rganiladi, ularning samaradorligi tahlil qilinadi va dasturiy ta’minotga tatbiq qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor grafik interfeys orqali real vaqtli vizualizatsiya va signal tahlilining tezkorligini ta’minlashga qaratiladi.

Shoshilinch tibbiy yordam bemorning hayotini saqlab qolish uchun eng muhim va zudlik bilan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan tibbiy amaliyotlardan biridir. Bunday holatlarda har soniya katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, shifokorlar va tibbiy xodimlar qaror qabul qilishda tez va aniq ma’lumotlarga tayanishlari zarur. Ana shu bosqichda real vaqt rejimida tibbiy axborot oqimini aniqlash va uni samarali tarzda tahlil qilish jarayonni sezilarli darajada yengillashtiradi.

Real vaqt rejimida tibbiy monitoring tizimlarini yaratish va ishlatish bir qator texnik va amaliy muammolar bilan bog‘liq. Birinchi navbatda, tibbiy qurilmalardan olinadigan signal va ma’lumotlar yuqori aniqlikda bo‘lishi kerak. Shovqin, aralashmalar va ma’lumotlarning uzilishi kabi holatlar tahlil natijalarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, ayniqsa shoshilinch holatlarda, xatoli qaror qabul qilish xavfini oshiradi.

Ikkinchidan, real vaqtli monitoringda katta hajmdagi ma’lumotlar doimiy ravishda olinadi va qayta ishlanishi talab etiladi. Bu jarayon algoritmlar va dasturiy ta’minotdan yuqori samaradorlikni, resurs tejovchanligini va muvozanatni talab etadi. Tizim sekin ishlasa yoki kechikishlar bo‘lsa, bu tibbiy qaror qabul qilish tezligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiy signallar, xususan EKG, yurak urish chastotasi yoki nafas olish signallari real vaqt rejimida sensorlar orqali olinadi. Ushbu signallar ko‘pincha tashqi shovqin, impulsli aralashmalar yoki texnik uzilishlar ta’sirida buzilgan holatda bo‘ladi. Bu esa ularni bevosita tahlil qilishni qiyinlashtiradi va noto‘g‘ri diagnostikaga olib kelishi mumkin. Shu sababli signalni qayta ishlash va filtratsiya qilish bosqichi juda muhim hisoblanadi.

Eng oddiy filtratsiya usullaridan biri bu — harakatlanuvchi o‘rtacha filtr (Moving Average Filter) bo‘lib, u signalni silliqlashtirish va tasodifiy shovqinlarni yo‘qotish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, yuqori chastotali shovqinlarni olib tashlash uchun past chastotali filtr (Low-pass filter), EKG signalidagi bazaviy o‘zgarishni kamaytirish uchun yuqori chastotali filtr (High-pass filter) ham keng qo‘llaniladi.

Quyidagi grafikda EKG tipidagi xom signal (shovqinli) va unga nisbatan qo‘llanilgan oddiy filtratsiya natijasi ko‘rsatilgan:



1-rasm. Signalni filtratsiya qilish. Xom va filtrlangan signal

Shuningdek, grafik tahlil natijalarini foydalanuvchi uchun qulay interfeysda taqdim etish ham muhim vazifadir. Interfeys haddan tashqari murakkab bo‘lsa yoki signalni noto‘g‘ri vizualizatsiya qilsa, bu diagnostikani murakkablashtiradi. Shu sababli, real vaqtli monitoring tizimlarini yaratishda nafaqat texnik, balki inson omilini ham hisobga olgan holda dizayn, funksionallik va ishonchlilikka alohida e’tibor berish zarur.

Shoshilinch diagnostikada real vaqt rejimida anomaliyalarni aniqlash — masalan, yurak ritmidagi o‘zgarish, aritmiya yoki nafas to‘xtab qolish holatlarini aniqlash — asosiy vazifalardan biridir. Bunda ikki asosiy yondashuv mavjud: aniqlangan chegaralar (thresholding) va sun’iy intellekt asosidagi modellardan foydalanish.

Thresholding usuli oddiy va tezkor bo‘lib, oldindan belgilangan chegaraviy qiymatlardan foydalanadi. Masalan, yurak urishi 40 dan past yoki 180 dan yuqori bo‘lsa, bu anomaliya deb baholanadi. Bu usul resurs jihatdan tejamkor, ammo murakkab holatlarni aniqlashda yetarli aniqlikka ega bo‘lmasligi mumkin.

Murakkab va moslashuvchan yondashuv bu — mashinaviy o‘rganish (ML) va chuqur o‘rganish (DL) algoritmlaridir. Bu usullar tarixiy ma’lumotlarga asoslanib, anomaliyalarni o‘rganadi va real vaqt rejimida yangi holatlarni baholaydi. Masalan, Random Forest, Support Vector Machine (SVM), yoki Long Short-Term Memory (LSTM) tarmoqlari EKG signallaridan aritmiya kabi holatlarni aniqlashda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

Sun’iy intellekt yondashuvlari yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, ularning asosiy kamchiligi — katta hajmdagi belgilangan (labelled) ma’lumotlar va kuchli hisoblash resurslariga ehtiyojidir. Shuningdek, real vaqtli tizimlar uchun kechikish (latency) muammosi ham muhim hisoblanadi.

Quyidagi grafikda real vaqt rejimida tibbiy ma’lumotlarning grafik tahlili qanday ko‘rinishda aks ettirilishi mumkinligi tasvirlangan:



2-rasm. Real vaqt rejimida tibbiy ma’lumotlarning grafik tahlili

Tibbiy ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda taqdim etish shifokorlar uchun ma’lumotni tez va intuitiv qabul qilish imkonini yaratadi. Grafik tahlil — bu faqat chizmalar emas, balki ma’lumotlar asosida mantiqiy xulosa chiqarishga xizmat qiluvchi vositadir. Ayniqsa, real vaqt rejimida bu yondashuv diagnostika samaradorligini sezilarli oshiradi.

Vizualizatsiya algoritmlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Chiziqli grafikalar (line plots) – yurak urishi, EKG, puls, nafas chastotasi kabi doimiy o‘zgarib turadigan ko‘rsatkichlarni aks ettirish uchun qulay.

Shtab (bar) va sektor (pie) diagrammalari – statistik tahlillar yoki guruhlangan ma’lumotlar uchun ishlatiladi.

Issiqlik xaritalari (heatmaps) – diagnostik xatoliklar yoki o‘zgarishlarni intensivlikka ko‘ra ko‘rsatadi.

Ko‘p signal bir vaqtning o‘zida ko‘rsatilgan grafik interfeyslar – kompleks holatlarda tibbiy xodimga bir necha signal asosida qaror qabul qilishda yordam beradi.

Tibbiy grafik interfeyslar yaratilayotganda vizual yuklamaning oshib ketmasligi, ranglar mosligi va ogohlantirish elementlarining aniqligi kabi dizayn tamoyillari ham hisobga olinadi.

Ushbu ishda shoshilinch diagnostika uchun real vaqt rejimida tibbiy ma’lumotlarni grafik tahlil qilishning muhim jihatlari o‘rganildi. Tibbiy signallarni filtratsiya qilish, anomaliyani aniqlash algoritmlari, vizualizatsiya vositalari va grafik interfeys dizaynining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Tizimlarning samarali ishlashi algoritmik yechimlar, dasturiy arxitektura va foydalanuvchi interfeysining uyg‘uligiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, grafik tahlil algoritmlarini real vaqtli monitoring tizimlariga integratsiya qilish orqali diagnostika jarayoni tezkor, ishonchli va interaktiv shaklga ega bo‘ladi. Bu esa, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda bemor hayotini saqlab qolish imkoniyatini oshiradi.

Kelgusida ushbu tizimlar asosida sun’iy intellektga asoslangan prognozlash modullarini joriy etish orqali yanada samarali, avtomatlashtirilgan tibbiy yordam tizimlarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сысоев В.В., Ефимов А.В. Информационные технологии в медицине: Учебное пособие. — М.: Форум, 2015. — 208 с.
2. Журавлёв Ю.И., Боровков А.И. Искусственный интеллект: современные подходы. — М.: Физматлит, 2013. — 384 с.
3. James G., Witten D., Hastie T., Tibshirani R. An Introduction to Statistical Learning: with Applications in R. — New York: Springer, 2013. — 426 p.
4. McKinney W. Python for Data Analysis: Data Wrangling with Pandas, NumPy, and IPython. — 2nd ed. — O’Reilly Media, 2018. — 544 p.
5. He K., Zhang X., Ren S., Sun J. Deep Residual Learning for Image Recognition // Proceedings of the IEEE Conf. on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 2016. – P. 770–778.
6. Goldberger A.L. et al. PhysioBank, PhysioToolkit, and PhysioNet: Components of a New Research Resource for Complex Physiologic Signals // Circulation. — 2000. — Vol. 101. — № 23. — P. e215–e220.

RANGLI TASVIRLARNI NEQR ASOSIDA O’ZGARTIRISH AMALLARIN BAJARISH

Ametova Gulsara Embergenovna
tayahch doktorant, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti gulsaraametova1@gmail.com

Annotatsiya. Rangli tasvirlar ustidan o‘zgartirish amallarini bajarish zamonaviy kompyuter ko‘rish tizimlarida muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada NEQR (Novel Enhanced Quantum Representation) algoritmidan foydalanib, rangli tasvirni piksel qiymatlariga o‘zgartirish uchun genetik algoritm va kvant mashinaviy o‘rganish usullari taklif etiladi. Ushbu usulda NOT eshigidan foydalangan holda barcha pikselning rang qiymatlariga komplement operatsiyasi tatbiq etiladi. Ushbu amallar NEQR modelidagi kubitlar ketma-ketligi orqali matematik ifodalanadi. Taklif etilayotgan model rangli kvant tasvirlar bilan amaliy ishlashda samarali hisoblash imkonini beradi. Maqola kvant hisoblash va klassik mashinaviy o‘rganish yondashuvlarining kombinatsiyasi samaradorligini tahlil qiladi va ushbu usulni tasvir ranglarini o‘zgartirish muammolariga tadbiq qilish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: NEQR, kvant tasvir, rangli o’zgartirish, piksel, komplement, kvant operatori, kubit

Kirish. So'nggi yillarda kvant hisoblash tizimlarining rivojlanishi natijasida tasvirni qayta ishlash sohasida kvant algoritmlari keng tadbiq etilmoqda. Kvant hisoblash imkoniyatlari, ayniqsa, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashda an'anaviy usullarga qaraganda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi[1]. Kvant kompyuterlari, klassik kompyuterlarga nisbatan murakkab masalalarni tezroq hal qilish imkonini beradi, shuning uchun tasvirni qayta ishlash, optik tanib olish, va ko‘plab boshqa sohalarda kvant texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda[2]. Tasvirni qayta ishlashda kvant algoritmlarining eng ko‘zga ko‘ringanlardan biri bu NEQR model tasvirdagi piksel ma'lumotlarini kubitlar yordamida kodlashni taklif qiladi. Kubitlar, klassik bitlar singari 0 yoki 1 holatida bo'lishi mumkin, ammo ularning asosiy xususiyati shundaki, ular superpozitsiya va o‘ta qiyoslash (entanglement) kabi kvant xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi.[4] Bu esa kvant kompyuterlarining ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashda yanada samarali bo‘lishini ta'minlaydi. NEQR modeli tasvirning har bir pikselini kvant holatida ifodalashni taklif etadi. Tasvirda har bir piksel o‘zining rang intensivligini ifodalovchi ma'lumotni o‘z ichiga oladi.[5] NEQR yordamida bu intensivlikni kodlash va uni kubitlar orqali ko‘rsatish mumkin, shunda tasvirni aniqroq va samaraliroq qayta ishlash imkoniyati

paydo bo‘ladi. Model, ayniqsa, kvant algoritmlarini qo‘llashda samarali hisoblanadi, chunki bu tizim an'anaviy kompyuterlarga qaraganda tasvirni qayta ishlash jarayonini yanada tezlashtiradi.[6,7]

Metod. NEQR modelida tasvirni ifodalash. NEQR modeli yordamida tasvirlarning har bir pikseli uchun yuqori aniqlikdagi kvant holatlari hosil qilinadi. Bu esa tasvirlarning rang intensivligi va sifatini yaxshilashga yordam beradi. Kubitlar yordamida kodlangan ma'lumotlar ko‘proq aniqlik bilan qayta ishlanadi va ranglar o‘rtasidagi farqlar aniqroq ko‘rsatiladi. NEQR modelida kodlangan piksel ma'lumotlari kvant algoritmlari orqali samarali qayta ishlanishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, tasvirni qayta ishlash, xususan, rangni o‘zgartirish kabi amallarni tez va aniq bajarishga imkon beradi. Bu kvant algoritmlarining qulayligi va hisoblash samaradorligini oshiradi. An'anaviy kompyuterlar bilan solishtirganda, kvant kompyuterlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tezroq qayta ishlashga qodir. NEQR modeli orqali tasvirni qayta ishlashda, ayniqsa katta hajmdagi tasvirlar bo‘lsa, hisoblash jarayoni ancha tezlashadi. NEQR modelida rangni o‘zgartirish uchun turli kvant operatorlari qo‘llaniladi. Bu operatorlar rang intensivligini kodlash va qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Rangni o‘zgartirishda quyidagi operatorlardan foydalanish mumkin. Bu operatorni ishlatib, har bir pikselning rang intensivligini teskari qilish mumkin. Misol uchun, 0 dan 255 gacha bo‘lgan intensivlikni 255 dan 0 gacha o‘zgartirish uchun teskari amallar (komplement) qo‘llanadi.

Hadamard operatori kvant kompyuterlarida superpozitsiyani yaratishda ishlatiladi. Rang intensivligi o‘zgartirilganda, bu operator rangni bir necha holatga o‘zgartirishga imkon beradi, shu bilan birga rangni ko‘proq aniqlikda ko‘rsatishga yordam beradi.

Conditional NOT (CNOT) operatori entanglement (o‘zaro bog‘lanish) holatini yaratish va rang ma'lumotlarini bir nechta kubitlar o‘rtasida tarqatish uchun ishlatiladi. Bu operator tasvirning turli qismlarida bir xil rangni aniqlashda yordam beradi.

NEQR modelida rang intensivligi kvant holatlariga o‘tkazilayotganda, har bir piksel uchun ko‘p kubitlar ishlatiladi. Masalan, 8 bitli bir pikselni kodlash uchun 8 kubit kerak bo‘ladi. Bu yerda rang intensivligi 0 dan 255 gacha o‘zgarishi mumkin, va bu qiymatlar kvant holatlarida superpozitsiya orqali taqdim etiladi. Rangni o‘zgartirish operatori esa bu holatlarni manipulyatsiya qilish orqali yangi rang intensivligini hosil qiladi.

Matematik nuqtai nazardan, rang intensivligini o‘zgartirish uchun quyidagi kabi operatorlardan foydalanish mumkin:

NEQR modelida $2^n \times 2^n$ o’lchamli tasvir $|I\rangle$ quyidagi kurinishda kodlanadi**.**

$$|I\rangle = \frac{1}{2^n} \sum_{Y=0}^{2^n-1} \sum_{X=0}^{2^n-1} f(Y,X)|Y,X\rangle$$

Bu erda $f(Y,X)$ pikselning intensivlik qiymatini ifodalaydi.

Rangni o’zgartirish operatori

Rangni o’zgartirish (masalan, komlement qilish) uchun NEQR modelida quyidagi operator qo‘llaniladi:

$$U_c = X^{\otimes 8} \otimes I^{\otimes 2^n}$$

Ushbu operator NEQR tasvirga qo’llanilganda:

$$U_c(|I\rangle) = \frac{1}{2^n} \sum_{Y=0}^{2^n-1} \sum_{X=0}^{2^n-1} |2^q - 1 - f(Y,X)\rangle|YX\rangle$$

Bu yerda, har bir piksel qiymati $2^q - 1$ orqali inversiya qilinadi, yani NOT operatsiyasi amalga oshiriladi. Bu operatsiya kulrang tasvirlarning ranglarini komplementaciya qiladi.

NEQR va Inversiya

Tasvirni kvant holatlarda quyidagicha ifodalaydi:

$$|\psi\rangle = \frac{1}{\sqrt{N}} \sum_{i=0}^{N-1} |color_i\rangle \otimes |position_i\rangle$$

Bu yerda:

$|color_i\rangle$ −pikselning rang qiymati (R,G,B komponentlar alohida yoki birgalikda),

$|position_i\rangle$ −piksellar koordinatasi.

Komplementatsiya– har bir rang qiymatiga $Pauli - X$ (NOT) yoki boshqa kvant darajadagi aylantirisglar qo‘llanadi. Pauli-X(NOT) kvant darajasida klassik $0 \leftrightarrow 1$ ni ifodalaydi. Rangli tasvirda, bu faqat 1-kubitli komponentlar uchun to‘liq inversiya beradi.

Natija: Haqiqiy tasvir uchun NEQR modeli yordamida ko‘p kubitli tasvir holatini qurib, har bir komponentni kvant darajada invert qilishingiz mumkin.



1-rasm: NEQR модел асосида 2×2 пикселли тасвирни квант ҳолатига ўтказиш ва retrieval орқали тиклаш натижаси

$2x2$ berilgan tasvir:	**Retrieval natijasi:**
[[255 255]	[[64 82]
[255 109]]	[0 63]]

Xulosa: NEQR modeli, kvant hisoblash imkoniyatlaridan foydalanib, rangli tasvirlarni qayta ishlash sohasida yangi yondashuvlarni taqdim etadi. Rang intensivligini yanada aniqroq ko‘rsatish va kvant algoritmlari yordamida yuqori samarali hisoblash imkoniyatlarini yaratish orqali, tasvirlarni qayta ishlashda yangi imkoniyatlar ochiladi. Ushbu model, ayniqsa, kvant texnologiyalarining rivojlanishi bilan tasvirni qayta ishlash sohasida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z. Wang, M. Xu, Y. Zhang, Review of quantum image processing, Arch. Comput. Methods Eng. 29 (2) (2022) 737–761.
2. Y. Ruan, X. Xue, Y. Shen, Quantum image processing: opportunities and challenges, Math. Probl. Eng. 2021 (2021) 1–8.
3. Dey, S. Bhattacharyya, S. Dey, J. Platos, V. Snasel, Automatic clustering of colour images using quantum inspired meta-heuristic algorithms, Appl. Intell. 53 (9) (2023) 9823–9845. [27] Y. Zhang, K. Lu, Y. Gao, M. Wang, NEQR: a novel enhanced quantum representation of digital images, Q. Inf. Process. 12 (2013) 2833–2860.
4. H.-S. Li, P. Fan, H. Xia, H. Peng, G.-L. Long, Efficient quantum arithmetic operation circuits for quantum image processing, Sci. China Phys. Mech. Astron. 63 (2020) 1–13.
5. D.T. Muhamediyeva, G.E.Ametova, U.N.Ganiyev NEQR algoritmi asosida kvant tasvirni kodlash va Gauss filtri yordamida shovqin ta’sirini kamaytirish, Сборник материалов республиканской научно-практической конференции на тему «Современные проблемы интеллектуальных систем» (18-19-апреля 2025 г.) часть 1, –B. 278-280.
6. S. Caraiman, V. Manta, Image processing using quantum computing, in: 2012 16th International Conference on System Theory, Control and Computing, ICSTCC, IEEE, 2012, pp.1–6.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TUPROQ XUSUSIYATLARINI HOSILDORLIKGA TA’SIRINI O‘RGANISH USULLARI

Axatov Abror Askar o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
axatov_abror@samdu.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tuproq xususiyatlarini sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida unumdorlikga ta’sirini o‘rganilgan. Tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlaridan bir nechtasi unumdorlik uchun muhim deb olindi. Tuproq tahlili uchun an’anaviy usullar va mashinaviy o‘qitishning algoritmlarining farqlari o‘rganildi. Mashinaviy o‘qitishning regressiya, klassifikatsiya va klasterlash usullarining qishloq xo‘jaligi ma’lumotlari uchun qo‘llash metodlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar. Tuproq unumdorligi, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, regressiya, klassifikatsiya, klasterlash, organik moddalar, makroelementlar, mikroelementlar, dala nam sig‘imi, tuproq zichligi.

Kirish

Qishloq xo‘jaligining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tuproqning unumdorligiga, ya’ni o‘simliklarni ozuqa moddalari bilan ta’minlash qobiliyatiga bog‘liq. Tuproq unumdorligi ekinlarning hosildorligi, sifati va qishloq xo‘jaligi tizimlarining uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu sohada tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tuproqning optimal boshqaruvi hosildorlikni 20-30% gacha oshirishi mumkin, bu esa uning hozirgi kundagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tuproqning unumdorlik qobiliyati uning fizik, kimyoviy va biologik omillarining murakkab o‘zaro ta’siriga bog‘liq bo‘lib, doimiy monitoring ostida boshqaruvni talab qiladi. Bunday boshqaruvlar asosan ma’lumotlarni zamonaviy texnologiyalar orqali tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, bunda sun’iy intellekt texnologiyalari va mashinaviy o‘qitish algoritmlari samarali hisoblanadi [1-3].

Mashinaviy o‘qitish - bu kompyuterlarga mavjud ma'lumotlardan avtomatik ravishda o‘rganish asosida xulosa beruvchi o‘sib borayotgan texnologiya hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida bu texnologiya turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirib, tuproq holati haqida bashoratlar qilishda qo‘llaniladi. Bugungi kundagi aqilli qishloq xo‘jaligining asosiy maqsadi bu resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda mashinaviy o‘qitish texnologiyalarini nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy qishloq xo‘jaligida ham tobora keng qo‘llash yaxshi va aniq natijalarni ko‘rsatmoqda [2-5].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tuproq xususiyatlarining qishloq xo‘jaligi hosildorligiga ta’sirini mashinaviy o‘qitish yordamida o‘rganishdir. Tadqiqotning dolzarbligi global miqyosdagi muammolar bilan chambarchas bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi tuproqning unumdorligiga yanada katta tahdid solmoqda, chunki eroziya, sho‘rlanish va qurg‘oqchilik kabi muammolar kuchaymoqda. Shu sababli, tuproqni samarali boshqarish va uning salohiyatini oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir [3-6].

Tuproq unumdorligiga ta’sir qiluvchi asosiy xususiyatlar va ularni
tahlil qilish choralari

Tuproq unumdorligi deganda, uning o‘simlik o‘sishi va rivojlanishi uchun kerak bo‘ladigan oziq moddalar bilan tahminlanish darajasi nazarda tutiladi. Tuproqning unumdorligi uning bir nechta asosiy xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

Fizik xususiyatlar:

Mexanik tarkib. Tuproqning mexanik tarkibi deganda turli o‘lchamdagi mineral, ya’ni qum, chang va loyqa zarrachalarining o‘zaro nisbati tushuniladi. Mexanik tarkib tuproqning suvni ushlab turishiga, tuproq tuzilishiga, biologik xilma-xilligiga ta'sir qiladi va ozuqa moddalar bilan ta'minlanishini tartibga soladi.

DNS. Dala nam sig‘imi tuproqning o‘ziga ma’lum miqdorda suv shimish va uni saqlab turish xususiyati sanaladi,

Tuproq zichligi. Tuproqning zichligi ildizlarning o‘sishi, suv infiltratsiyasi va havo almashinuviga ta'sir qiladi.

Kimyoviy xususiyatlar:

pH (tuproq muhiti). Tuproqning pH darajasi oziq moddalarning eruvchanligi va o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishiga katta ta'sir qiladi,

Elektr o‘tkazuvchanlik (EC). Tuproqdagi tuzlarning miqdorini ko‘rsatadi va bu orqali tuproqning sho‘rlanganlik holati tekshiriladi,

Organik modda. Tuproqdagi organik modda miqdori uning suv saqlash qobiliyatini, oziq moddalar bilan ta'minlashini va mikroorganizmlarning faolligini oshiradi,

Makroelementlar (azot, fosfor, kaliy va h.k). O‘simliklarning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan asosiy oziq moddalar miqdori tuproq unumdorligining muhim ko‘rsatkichi sanaladi,

Mikroelementlar (temir, mis, rux, bor va h.k). Tuproq mikroelementlari o‘simliklarning normal o‘sishi va rivojlanishi uchun oz miqdorda zarur bo‘lgan muhim oziq moddalar hisoblanadi.

Biologik xususiyatlar:

Mikroorganizmlar faolligi. Tuproqdagi mikroorganizmlar organik moddalarni parchalaydi, oziq moddalarni o‘simliklar uchun oson shaklga o‘tkazadi va tuproq strukturasi yaxshilanishiga hissa qo‘shadi [4-6].

1-jadval. Tuproq unumdorligiga ta’sir qiluvchi engm nuhim xususiyatlar

<table>
<tr><th>Kimyoviy xususiyatlar</th><th>Fizik xususiyatlar</th><th>Biologik xususiyatlar</th></tr>
<tr><td>pH (tuproq muhiti)</td><td>Mexanik tarkib</td><td rowspan="5">Mikroorganizmlar faolligi</td></tr>
<tr><td>Elektr o‘tkazuvchanlik</td><td>Dala nam sig‘imi (DNS)</td></tr>
<tr><td>Organik modda</td><td rowspan="3">Tuproq zichligi</td></tr>
<tr><td>Makroelementlar</td></tr>
<tr><td>Mikroelementlar</td></tr>
</table>

Bulardan tashqari yana boshqa ko‘plab tuproq xususiyatlari mavjud bo‘lib tuproqning boshqa holatlarini o‘rganish uchun muqobil xususiyatlarni ajratib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. An’anaviy usullar sanalgan tuproq namunalari yig‘ish va ularni laboratoriyada sinovdan o‘tkazish, ko‘p yillar davomida qo‘llanib kelinmoqda. Bu usullar aniq natijalar berishi mumkin, lekin ulardagi bir qancha kamchiliklar zamonaviy tahlil usullariga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Birinchidan - namuna yig‘ish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash jarayoni bir necha haftagacha cho‘zilishi mumkin.

Ikkinchidan - laboratoriya jihozlari, kimyoviy eritmalar va mutaxassislarning xizmatlari katta xarajatlarga olib keladi.

Uchinchidan - an’anaviy tahlillar bilan katta dalalarning turli joylaridagi farqlarni to‘liq aks ettirish qiyin.

Shu sababli, tuproq xususiyatlarini tahlil qilishda zamonaviy usullarga ehtiyoj ortib bormoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologik taraqqiyot tuproqshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini tezkorlik va aniqlik bilan tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi [5-6].

Mashinaviy o‘qitish algoritmlari va ularning tuproq tahlilida qo‘llashning ahamiyati

Mashinaviy o‘qitish yuqorida ta’kidlaganimizdek kompyuterlarga mavjud ma'lumotlardan avtomatik ravishda o‘rganish asosida xulosa beruvchi texnologiya hisoblanadi. Mashinaviy o‘qitish tizimi oldingi, daslabki ma’lumotlardan o‘qitiladi, bashorat modellarini quradi va har safar yangi ma’lumotlarni olganida, uning natijalarini bashorat qiladi.



1-rasm. *Mashinaviy o‘qitish modellarining ishlash sxemasi*

Mashinaviy o‘qitish algoritmlari odatda uchta asosiy toifaga bo‘linadi, bular nazorat ostidagi o‘qitish, nazoratsiz o‘qitish va kuchaytirilgan o‘qitish. Ushbu toifalarning har biri turli sohalarda xususan qishloq xo‘jaligida ham tuproq ma’lumotlarini tahlil qilish va unumdorlikni baholashda o‘ziga xos afzalliklarga ega bo‘lib, ushbu sohada turli maqsadlar uchun qo‘llaniladi [6-7].

Nazorat ostidagi o‘qitish usuli - ma’lumotlarni belgilangan kirish va chiqish o‘zgaruvchilari asosida o‘rganadi. Bu toifadagi usul o‘z navbatida *regressiya* va *klassifikatsiya* muammolariga bo‘linadi.

Regressiya algoritmlari uzluksiz o‘zgaruvchilarni bashorat qilish uchun ishlatiladi. Tuproq tahlilida bu usullar tuproqning pH darajasi, organik moddalar miqdori, dala nam sig‘imi yoki makro va mikro elementlar miqdorini bashorat qilishda qo‘llash mumkin. *Chiziqli regressiya, polinomial regressiya, GBM* va *SVR* kabi regressiya algoritmlari qishloq xo‘jaligi sohasida juda keng qo‘llaniladi.



2-rasm. *Tuproqning mexanik tarkib bog‘liqliklarini chiziqli regressiya yordamida aniqlash*

Klassifikatsiya algoritmlarini tuproqni turli toifalarga ajratish uchun ishlatish mumkin. Misol uchun tuproqni mexanik tarkib ko‘rsatkichlariga ko‘ra (qum, qumoq, loy) yoki unumdorlik darajasiga ko‘ra (yuqori unumdor, o‘rtacha unumdor, past unumdor) tasniflash mumkin. *KNN, logistik regressiya, qaror daraxi, SVM* va *CNN* kabi algoritmlar bu jarayonda samarali hisoblanadi [7-8].

Nazoratsiz o‘qitish usuli - yorliqsiz ma’lumotlar bilan ishlaydi va ma’lumotlardagi yashirin naqshlar yoki tuzilmalarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu toifadagi algoritmlar tuproq ma’lumotlarini guruhlarga ajratish yoki korrelyatsiyalarni aniqlash uchun ishlatiladi hamda *klasterlash* va *assotsiatsiya* kabi toifalarga bo‘linadi.

Klasterlash usuli odatda statistik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. *K-Means* yoki *DBSCAN* kabi klasterlash algoritmlari tuproq ma’lumotlarini o‘xshash xususiyatlarga ega guruhlarga

ajratadi. Misol uchun katta bir dalada tuproqning turli hududlari mexanik tarkibi, organik modda miqdori yoki pH darajasiga qarab turli guruhlarga ajratiladi. Agar ma’lumotlar to‘plami daraxtga o‘xshash tuzilmani yaratish uchun ierarxik klasterlarlash usulidan foydalaniladi.



3-rasm. *Tuproq tarkibi mikroelementlarini K-means algoritmi yordamida guruhlash*

Kuchaytirilgan o‘qitish - algoritmlari qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Bu algoritmlar ma’lum bir muhitda eng yaxshi harakatlarni tanlashni o‘rganadi. Bu algoritmlar qishloq xo‘jaligi sohasida hali keng tarqalmagan bo‘lsa ham uning kelajakdagi potentsiali katta deb baholanmoqda. Kuchaytirilgan o‘qitish algoritmlarini sug‘orish yoki o‘g‘itlash strategiyalarini optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Algoritm tuproqning joriy holati va atrof-muhit omillari asosida eng samarali chorani tanlash imkoniyatini yaratadi [7-9].

Xulosa

Ushbu tadqiqot tuproq xususiyatlarining hosildorlikga ta’sirini sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida o‘rganishga qaratildi. Tuproqning bir qancha fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari unumdorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraldi. Mashinaviy o‘qitishning regressiya, klassifikatsiya va klasterlash algoritmlari yordamida tuproq ma’lumotlarini tezkor va aniq tahlil qilish mumkin. Ushbu algoritmlar qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va tuproq degradatsiyasining oldini olishda muhim hissa qo‘shadi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining qishloq xo‘jaligi sohasida kelajakdagi muhim rolini ta’kidlaydi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo‘jaligiga katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Khaliq Pradana., F Budiman - Optimization accuracy value of agricultural land fertility classification using soft voting method., *Jurnal Penelitian Teknik Informatika*., Volume 9, Number 1, January 2024., 152-164
2. Benos, L., Tagarakis, A. C., Dolias, G., Berruto, R., Kateris, D - Machine Learning in Agriculture: A Comprehensive Updated Review. *Sensors (Basel)*, 21(11), 3758.
3. Chlingaryan, A., Sukkarieh, S., & Whelan, B - Machine learning approaches for crop yield prediction and nitrogen status estimation in precision agriculture., *Computers and Electronics in Agriculture*, 151, 61–69
4. Ortikov T - Agrochemical and Chemical Properties of Soils., *Innovations in Sustainable Agricultural Systems*, Volume 1: ISAS 2024., 280

5. A Rashidov, A Akhatov, F Nazarov - The same size distribution of data based on unsupervised clustering algorithms. The International Conference on Artificial Intelligence and Logistics Engineering., (2023)., 437-447.
6. Nazarov F.M, Yarmatov Sh - Development of algorithms for predictive evaluation of investment projects based on machine learning., *Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 2 -2023., 681-685*
7. Chlingaryan, A., Sukkarieh, S., & Whelan, B. (2018). Machine learning approaches for crop yield prediction and nitrogen status estimation in precision agriculture: A review. *Computers and Electronics in Agriculture*, 151, 61-69.
8. Axatov A., Nazarov F.M - Methods for preparing a data set for determining soil fertility based on artificial intelligence models., *Raqamli Transformatsiya va Sun’iy Intellekt ilmiy jurnali,* VOLUME 3, ISSUE 2, APRIL 2025., 91-99
9. Axatov A - The main stages of preparing a dataset for machine learning models and their importance., *“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta’lim tatbiqi muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani.*, 25-26 aprel 2025-yil., 326-328

SUNIY INTELLEKT ORQALI ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISH

Akbarov Qodirali Qurbonali o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti assistenti
akbarov.qodirali68@ferpi.uz
Axmedov Murodjon Mamurovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti, 54-22 IMT guruh talabasi

Annotatsiya: Sun’iy intellekt ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish avtomatik ravishda va eng muhimi, ma’lumotlarni bashorat qilishi mumkin bo‘lganligi sababli, u aniq va ishonchli tahmin talabini ta’minlaydi, bu esa korxonalarga xaridlar va buyurtmalarni qayta ishlash nuqtai nazaridan manbalarni optimallashtirishga imkon beradi, shuning uchun transport, omborxona va ta’minot zanjiri boshqaruvi bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi. Yaxshi ishlaydigan ta’minot zanjiri har bir tadbirkorlik subyekti uchun muvaffaqiyat kalitidir. Inventarizatsiya bo‘yicha aniq tahminga ega bo‘lish raqobatbardosh ustunlikni ta’minlaydi. Ishlab chiqarishni muvaffaqiyatga erishishida mahsulotni joriy etish, tarqatish tarmog‘ini kengaytirish kabi ko‘plab ichki omillar va ob-havo, ekstremal mavsumiylik va ta’minot zanjiri ishlashiga ta’sir qiluvchi mijozlar idrokidagi o‘zgarishlar yoki ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tashqi omillarga bog‘liq . So‘nggi yillarda sun’iy intellekt bizning miyamizning kengaytmasi bo‘lib, bizning aqliy qobiliyatimizni biz hech qachon mumkin bo‘lmagan darajalarga kengaytirganligi isbotlangan. Garchi ko‘pchilik sun’iy intellekt odamlarning o‘rnini bosishiga ishonishsada, bu to‘g‘ri emas, aksincha u bizning haqiqiy strategik va ijodiy salohiyatimizni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Kalit so‘z: Sun’iy intellect, algoritmlar, platforma, avtomatlashtirish, aqilli ishlab chiqaruvchi, aqilli do‘kon, aqilli kamera, aqilli dvigatel, aqilli logistika, elektron o‘simlik

KIRISH

Sun’iy intellekt sezish, o‘rganish, fikr yuritish va to‘g‘ri harakat qilish uchun ishlab chiqilgan hisoblash texnologiyalari to‘plamidan iborat. Mobil kompyuterlardagi texnologik taraqqiyot, internetda katta ma’lumotlarni saqlash qobiliyati, bulutga asoslangan mashinani o‘rganish va axborotni qayta ishlash algoritmlari va boshqalar. Sun’iy intellekt biznesning ko‘plab sohalariga integratsiyalashgan va xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va yaxshilashni isbotladi. aktivlardan foydalanish. Sun’iy intellekt korxonalarga deyarli 100% aniq tahminlar olish va mijozlar talabini tahmin qilishda yordam beradi, o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini optimallashtiradi va ishlab chiqarishni arzonroq va yuqori sifat bilan ko‘paytiradi, ularga reklamada yordam beradi. Masalan, maqsadli mijozlarni aniqlash, demografiya, narxni aniqlash va to‘g‘ri loyihalash o‘z mijozlariga yaxshi tajribani taqdim etadi. Qiymat yaratishning ushbu to‘rtta sohasi raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir;

a) chiqindilarni yo‘q qilish uchun samarali dizaynlarni yaratish uchun

b) real vaqt rejimida monitoring va xatosiz ishlab chiqarish

c) jarayonning qisqarish vaqtini osonlashtirish kabi sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanadilar.

Sun’iy intellektni qo‘llash korxonalarga raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishga yordam beradi:

a) yuqori aniqlikda mijozlar talabini tahmin qilish,

b) o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini optimallashtirish, shuning uchun ishlab chiqarishni arzonroq va yuqori sifat bilan oshirish

c) ularni reclama qilishda yordam berish, maqsadli mijozlarni aniqlash, demografiya, narxni aniqlash va to‘g‘ri xabarni loyihalash.

Sun’iy intellekt allaqachon tibbiyot, huquq, moliya, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, arxitektura, konsalting, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish va transport va boshqalar kabi turli biznes amaliyotlarida qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt kompyuterning hal qilish uchun aniq dasturlashtirilmagan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi

Aqilli do‘kon, o‘z sotuvchisi omborida sun’iy intellekt platformalaridan birini qo‘llaydi, u yerda robotlar mahsulot bilan to‘ldirilgan minglab qutilarni konveyer tasmalari ustida boshqaradi va ularni to‘ldirish uchun o‘z vaqtida odamlarga yetkazib beradi.

Aqilli ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarishni loyihalashda:

a) aktivlar va jarayonlarni yaxshiroq optimallashtirish,

b) eng yaxshi jamoalarni, ya’ni odamlar va robotlarni loyihalash,

c) sifat va ishonchlilikni oshirish, ya’ni xatosiz

d) texnik xizmat ko‘rsatish uchun to‘xtab qolishning oldini olish.

Aqilli kamera, obyektni tanib olish va semantik segmentatsiya texnologiyalaridagi yutuqlar robotlarning xatti-harakatlarini, xususan, ular o‘zaro ta’sir qiladigan materiallar va obyektlarning xususiyatlarini qanday tan olishlari kontekstida o‘zgartirdi. Yangi sun’iy intellekt bilan jihozlangan, kamera bilan jihozlangan robotlar bo‘sh joyni tanib olishga o‘rgatilgan.

Sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim aniq bashorat qilish uchun algoritmlar va ma’lumotlar to‘plamlarining eng yaxshi kombinatsiyasini biladi.

Qiymat yaratishning ushbu to‘rtta sohasi raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir. Ushbu talab tahminlari shunchalik aniqki, ular mahsulot mavjud emasligi sababli sotuvni yo‘qotmaydi. Sun’iy intellekt talab va optimallashtirishni bashorat qilishga yordam beradi chakana savdo va ishlab chiqarish sanoati uchun juda foydali. Sun’iy intellekt ishlab chiqarishda yordam beradi Sun’iy intellekt proyeksiya va tahminlashda samarali qo‘llaniladi. Tashkilotlar har doim talab va taklifni muvozanatlashga intiladi. Shuning uchun uning ta’minot zanjiri va ishlab chiqarishi uchun yaxshiroq tahmin kerak.

Aqilli ishlab chiqaruvchi, sun’iy intellekt ishlab chiqaruvchilaridan foydalanish asosiy ishlash ko‘rsatkichlarini optimallashtiradi va ularni real vaqtda ko‘rib chiqadi. Masalan; virtual dasturlardan foydalangan holda modelni moslashtirish moddiy va xodimlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yaxshiroq bashorat qilish, aniqlash va oldini olishga va energiya sarfini optimallashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, muammolar paydo bo‘lishidan oldin muhandislarni ogohlantiradi va yechimlarni tavsiya qiladi. Sun’iy intellekt ishlab chiqarishni nafaqat yig‘ish liniyalarining samarali amaliyotini, balki xarajatlarni qisqartirish, chiqindilarni kamaytirish va bozorga chiqish vaqtini tezlashtirish imkonini beradi. Mashinani o‘rganish algoritmlari, hamkorlikda ishlaydigan robotlar va o‘zini o‘zi boshqaradigan transport vositalaridan foydalanish ombor xarajatlarini yaxshilash va inventar darajasini pasaytiradi.

Sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlaydigan yarimo‘tkazgich chiplarini ishlab chiqarish jarayonida ham sun’iy intellekt juda katta yordam beradi. Birinchi qayta ishlashdan so‘nggi chipgacha bo‘lgan aylanish vaqtlari odatda bir necha haftadan bir oygacha davom etadi va turli xil oraliq sifatni tekshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishda sinov xarajatlari va rentabellikdagi yo‘qotishlar ishlab chiqarishning umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qilishi mumkin. Yarimo‘tkazgich ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirish orqali oldini olish mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarining asosiy sabablarini aniqlash uchun sun’iy intellect ya’ni aqilli dvigatellaridan foydalanadilar. Kengaytirilgan ilovalar real vaqtda ishlab chiqarish jarayonlarni kuzatish va sozlash uchun mo‘ljallangan Sun’iy intellekt texnikasi nafaqat mahsulotning optimallashtirilgan ish sharoitlarini yoki jarayon sharoitlarini aniqlashga, balki ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Xuddi shunday; minimal uzilishlar bilan ishlaydigan murakkab tizimlar og‘ir aktivlarga ega korxonalarda sun’iy intellekt mukammal yechimni taqdim etadi. Kommunal kompaniyalar o‘zlarining keng elektr tarmoqlariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun sun’iy intellekt foydalanadilar.

Aqilli logistikada ham robotlar yuklarni yuk mashinalariga olib boradilar, ularning haydovchilari transport sharoitlari va ob-havoga qarab eng yaxshi yo‘nalish bo‘yicha mijozlarning uylariga olib boradilar. Datchiklar, dronlar va boshqa apparat vositalaridan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda, mashinani o‘rganish dasturlari tarmoq operatorlariga aktivlarni foydali xizmat muddati tugashidan oldin foydalanishdan chiqarishdan qochishga yordam beradi va shu bilan birga aktivlarning yaxshi ishlashini ta’minlash uchun ularni masofaviy tekshirish va texnik xizmat ko‘rsatishni tez-tez bajarishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqarish korxonalariga ta’minot zanjirlarida va ko‘proq o‘zaro bog‘langan va hamkorlikda bo‘lgan qiymat zanjirlarida yordam berdi qishloq xo‘jaligida ham orqada emas. "Qutidagi elektron o‘simliklar" tushunchasi - bu raqobatbardosh narxda cheklangan mahsulot turlarini ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan kichik hajmdagi, kam kapital sarflanadigan, mobil zavodlar uchun ajoyib yangilikdir.



Agar elektron o‘simliklar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar qishloq xo‘jaligi olamida juda foydali bo‘ladi. Dunyo olimlari o‘simlikni bir kun kelib elektronika uchun aloqa yoki quvvat tizimini

ta'minlaydigan o‘tkazuvchan simlarni o'stirishga muvaffaq bo'lishdi kesilgan atirgulni suv va maxsus o‘tkazuvchan polimer - qisqacha PEDOT eritmasiga joylashtirdi. 48 soat ichida o'simlik tabiiy ravishda suvni va u bilan birga polimerlarni o‘zlashtirdi, bunda o‘simlikning himoya mexanizmi reaksiyaga kirishdi. PEDOT tarqalayotganda joyiga o‘rnatildi va o‘tkazuvchan molekulalarning uzun zanjirlarini – o‘simlik ichiga o'rnatilgan simlarni hosil qildi. Ushbu simlar ma’lumot yoki quvvatni o‘tkazishi mumkin, bu esa o‘rnatilgan qurilmalar va sensorlar uchun zavod yo‘llari o‘z resurslari bilan qilgan ishlarni amalga oshiradi. Olingan "elektron o'simlik" bu ma’lumotlarni o‘z barglarida ham ko‘rsatishi mumkin. Bargni PEDOT bilan to‘ldirish va polimerlarning barg yuzasiga nisbatan o‘rnini boshqarish uchun kuchlanish yordamida ular juda sekin, juda qo‘pol, ammo funksional monoxromatik ekranni yaratdilar. Bu tadqiqot natijasida, daraxt yaproqlari orqali tuproqning azot yoki suv darajasini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Sun’iy neyron tarmoqlar, robototexnika, internetda katta ma’lumotlarni saqlash, bulutga asoslangan mashinalarni o‘rganish va ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari va boshqalardagi texnologik taraqqiyot turli biznes sohalarida sun’iy intellektdan foydalanishni kuchaytirdi. Ko‘pgina korxonalar o‘zlarining qiymat zanjirining asosiy qismlarida sun’iy intellektdan foydalanadilar, chunki sun’iy intellekt sezilarli raqobatdosh ustunliklarni taqdim etadi. Eng muhimi, sun’iy intellekt texnologiyalari ularga qo‘lda ishlashning ko‘p darajalarini, shu jumladan reklama aksiyalarini, assortimentlarni va ta’minot zanjirini yo‘q qilishga yordam berdi. Elektron tijorat biznesi sun’iy intellektdan foydalanib, tendentsiyalarni bashorat qilish, saqlash va logistikani optimallashtirish, narxlarni o‘rnatish va aksiyalarni shaxsiylashtirish kabi qulayliklar yaratadi.

XULOSA

Sun’iy intellektdan to‘liq foydalanish uchun ko‘plab o‘zgarishlar kerak, eng muhimi, o‘zgarishlar ko‘plab kompaniyalarni chakana savdo va ishlab chiqarish jarayonlarini yangi strategiyalarni, ya’ni zavod dizaynini qabul qilishga, ularning ishlab chiqarish izlarini qayta shakllantirishga va yangi ta’minot zanjiri modellarini ishlab chiqishga majbur qiladi. Shuningdek, kompaniyalar biznes yuritish usullarini o‘zgartirishi kerak, chunki inson operatorlaridan sun’iy intellektga ega mashinalar va robotlarga o‘tish bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan global sanoat faoliyati tezkor ravishda o‘sib bormoqda, bu esa sun’iy intellekt ko‘plab korxonalar uchun yoki butun dunyo bo‘ylab ustuvor vazifaga aylanganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.M.Yusupov Abrasive Yeilish Sharoitida Ishlovchi Stamp Plastinalarining Mustaqamligini Diffuziya Borlash Usuli Bilan Oshirish Miasto Przyszlości 50, 119-124
2. Y.S.Ma'rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Kompyuterning raqamli boshqaruv mashinalari va ularni dasturlash - Informatika va ma'lumotlar fanlari xalqaro jurnali ..., 2024 y.
3. Y.S.Ma’rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Mexatronika va robototexnika tizimlarining sinergiyasini o‘rganish American Journal of Technology Advancement 1(1), 36-38
4. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
5. oglu Akbarov, Q. Q. Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi.
6. Shoxrux G‘ayratjon o’g, R., Qurbonali o’g‘li, A. Q., & Dilshodjon o’g‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts. Eurasian Scientific Herald, 9, 8-14.
7. Qurbonali O’G‘li, A. Q., & Dilshodjon O’G‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts.
8. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
9. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Exploring The Synergy Of Mechatronics And Robotics Systems. American Journal of Technology Advancement, 1(1), 36-38.
10. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Computer Numerical Control Machines and Their Programming. International Journal of Informatics and Data Science Research, 1(1), 13-18.

11. SH. Fayzimatov, S. Yusupov. Analytical and model optimization of kinematic schemes of uniform-density pressing of powder materials. // “International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology” Vol. 6, Issue 6, June 2019.

BILIMLARNI IFODALASH: MODELLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Aynaqulov Xusniddin Abduxamidovich,
Jizzax Politexnika instituti, “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsneti,
Abbazov Lazizbek Abdumajit og’li
JizPi talabasi
Gmail: aynaqulov2975@gmail.com
Gmail: a.lazizbek17@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun’iy intellekt (SI) tizimlarida bilimlarni ifodalash muammosi, mavjud modellar va texnologiyalar chuqur tahlil qilinadi. Bilimlar mashinalar tomonidan qayta ishlanishi uchun ularni ifodalash shakllari (mantiqiy modellar, freymlar, ontologiyalar, bilim grafiklari) muhokama qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar — RDF, OWL, SPARQL va bilim grafiklarining amaliy qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda bilimlarni ifodalash sohasida yuzaga kelayotgan muammolar va imkoniyatlar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bilimlarni ifodalash, sun’iy intellekt, ontologiya, semantik tarmoq, RDF, bilim grafiklari

Sun’iy intellekt tizimlari inson faoliyatining murakkab jihatlarini raqamli muhitda takrorlay olish qobiliyatiga tayanadi. Bu esa, eng avvalo, bilimlarni formal tarzda ifodalashni talab qiladi. Bilimlarni ifodalash — bu real dunyodagi tushunchalar, obyektlar, munosabatlar va holatlarni mantiqiy, strukturaviy va mashina tomonidan qayta ishlanadigan ko‘rinishda aks ettirishdir. Ushbu soha faqatgina texnik yondashuv emas, balki falsafiy, lingvistik va kognitiv jihatlardan ham chuqur tahlilni talab etadi. Tarixan, bilimlarni ifodalash mantiqiy modellardan boshlangan. Klassik predikatlar mantiqi bu borada asosiy vosita bo‘lib, u axborotni qoidalarga asoslangan tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Biroq sof mantiqiy modellarning ifoda kuchi cheklangan bo‘lib, real hayotdagi notekis, murakkab va kontekstga bog‘liq bilimlarni tasvirlashda muammolar yuzaga keladi. Shu sababli, keyinchalik freymlar, semantik tarmoqlar va ontologik modellar paydo bo‘ldi. Freymlar — bu tasvirlanayotgan obyektlar yoki holatlar haqida strukturaviy ma’lumotni saqlashga mo‘ljallangan model bo‘lib, har bir freym atributlar (slotlar) va ularning qiymatlaridan tashkil topadi. Semantik tarmoqlar esa bilimlarni graf ko‘rinishida tasvirlaydi, bu yerda tugunlar — tushunchalar, qirralar esa ularning o‘zaro munosabatlarini bildiradi. Bunday yondashuvlar bilimlar o‘rtasidagi ierarxik va semantik bog‘liqliklarni ko‘rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Eng rivojlangan ifoda shakllaridan biri bu ontologiyalardir. Ontologiyalar — bu tushunchalar to‘plami, ularning xossalari va munosabatlarini qat’iy qoidalar asosida tavsiflovchi formal tuzilmalardir. Ular sun’iy intellekt tizimlari uchun bilimlar bazasi vazifasini o‘taydi. Ontologiyalarni yaratishda OWL (Web Ontology Language) tili keng qo‘llaniladi. Ushbu til orqali murakkab tushunchalar o‘rtasidagi ierarxiyalar, izohlar, istisnolar va tavsiflar ifodalanadi. Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlarida ayniqsa bilim grafiklarining o‘rni katta. Bilim grafiklari — bu katta miqdordagi bilimni ob’ektlar va ularning bog‘lanishlari shaklida aks ettiruvchi strukturadir. Ular RDF (Resource Description Framework) texnologiyasiga asoslanadi. RDF har bir bilimni “subyekt–predikat–obyekt” ko‘rinishidagi uchlik sifatida ifodalaydi. Ushbu model semantik aniqlikni ta’minlab, ma’lumotlar orasida avtomatik xulosa chiqarishga asos yaratadi. RDF bilan ishlashda SPARQL so‘rov tili qo‘llaniladi, u orqali ontologiyalar va bilim grafiklaridan murakkab ma’lumotlarni qidirish va olish mumkin. Bugungi kunda Google, Amazon, Microsoft kabi yirik texnologik kompaniyalar foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash, kontekstual reklama berish, qidiruv natijalarini optimallashtirishda bilim grafiklaridan keng foydalanmoqda. Aynan bilimlarni to‘g‘ri ifodalash evaziga mashinalar inson fikrini chuqurroq tushunishga qodir bo‘lmoqda. O‘zbekiston kontekstida esa bu soha endi shakllanmoqda. Afsuski, hozirda davlat tilida tuzilgan ontologiyalar mavjud emas, hamda ochiq bilim grafiklari, domenga xos bilimlar to‘plami yaratilmagan. Raqamli xizmatlarni rivojlantirishda bu jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat

qilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, aynan shu muammolarni hal qilish orqali sun’iy intellekt sohasida milliy rivojlanishga erishish mumkin. Milliy til va madaniyatga mos ontologiyalar yaratish, davlat muassasalari va oliy ta’limda semantik texnologiyalarni tadbiq qilish bu yo‘nalishda muhim qadamlardir. Bilimlarni ifodalash faqat texnologik yechim emas — u inson tafakkurining mashinalar tomonidan qayta ishlanishiga zamin yaratadigan asosiy elementdir. Shu bois, bu sohani chuqur o‘rganish va rivojlantirish har qanday zamonaviy raqamli tizim uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bilim grafiklari esa ushbu texnologiyalarning amaliy natijasi hisoblanadi. Bilim grafiklari yirik hajmdagi semantik ma’lumotlar to‘plamini ifodalaydi va ular ustida SPARQL yordamida murakkab so‘rovlarni amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda bilim grafiklarining eng mashhur namunalaridan biri bu — **Google Knowledge Graph** bo‘lib, u foydalanuvchi so‘rovlariga kontekst asosida aniq javoblar qaytarishni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt sohalarida, xususan sog‘liqni saqlash, huquq, moliya, ta’lim va til texnologiyalarida bilimlarni ifodalash vositalari muhim rol o‘ynaydi. Tibbiy ekspert tizimlari bemorga tashxis qo‘yishda, moliyaviy tizimlar esa tavakkalchiliklarni baholashda bilimlar grafikidan foydalanmoqda. O‘zbekiston kontekstida esa ushbu yo‘nalish hali keng rivojlanmagan. Milliy tillarda ontologiyalar yaratilmagan, semantik vositalar integratsiyasi kam. Bu esa raqamli xizmatlar sifatiga va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, endilikda o‘zbek tilida semantik tarmoqlar yaratish, davlat xizmatlari uchun ontologik modellar ishlab chiqish, shuningdek, til texnologiyalarida bilim grafiklarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2022). *Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasi*.
2. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
3. Gruber, T. R. (1993). A Translation Approach to Portable Ontology Specifications. *Knowledge Acquisition*, 5(2), 199–220.
4. Berners-Lee, T., Fischetti, M., & Lassila, O. (2001). The Semantic Web. *Scientific American*, 284(5), 34–43.
5. W3C. RDF 1.1 Concepts and Abstract Syntax. https://www.w3.org/TR/rdf11-concepts/
6. Antoniou, G., & van Harmelen, F. (2008). *A Semantic Web Primer*. MIT Press.
7. Shadbolt, N., Hall, W., & Berners-Lee, T. (2006). The Semantic Web Revisited. *IEEE Intelligent Systems*, 21(3), 96–101.
8. Studer, R., Benjamins, V. R., & Fensel, D. (1998). Knowledge Engineering: Principles and Methods. *Data & Knowledge Engineering*, 25(1–2), 161–197

ОБНАРУЖЕНИЕ РУССКОЯЗЫЧНОГО СПАМА С ПОМОЩЬЮ АЛГОРИТМОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ

Косимов Сардор Дилмуродович
Андижанский филиал Кокандского университета,
Андижанский государственный технический институт
докторант, учитель (ORCID: 0009-0007-7859-3482)
Кодиржонова Маржона Исломжон кизи
Андижанский филиал Кокандского Университета ,
Студентка 1- курса Группы ФИЯ(рус)24_04

Аннотация :Данная работа посвящена решению задачи фильтрации спама методами машинного обучения. Проведён обзор алгоритмов идентификации спама, предложена их классификация. Дано описание математического аппарата рассмотренных алгоритмов, приведены данные о точности существующих их реализаций. Выделены перспективные направления исследований с целью повышения качества идентификации спама.

Ключевые слова: Замену букв, бессмысленные вставки, обходные символы, Gmail, Bert, обнаружение спама

На основании этой терминологии рассмотрим существующие алгоритмы фильтрации спама, основанные на машинном обучении.

Обнаружение русскоязычного спама с помощью алгоритмов машинного обучения-актуальная задача, особенно в контексте фильтрации электронной почты, комментариев, сообщений в мессенджерах и социальных сетях. Спамеры постоянно находят способы обходить фильтры, поэтому модель нужно регулярно обновлять:

Замену букв (например, "бесплатн0" вместо "бесплатно").

Бессмысленные вставки ("Купи прямо сейч.ас ва***у!").

Обходные символы (разделение слов: "п р о м о к о д").

Изображения вместо текста (боты не всегда могут их распознать).

Gmail – использует AI для фильтрации писем и блокировки фишинга. *BERT* для русскоязычного спам.

Обнаружение спама - это задача бинарной классификации, которая делит электронные письма на две категории: спам и не-спам. Чтобы преобразовать функции, основанные на традиционных методах, в общий формат, подходящий для моделей машинного обучения, необходимо вручную извлекать функции из содержимого электронной почты и метаданных. В этом методе часто используются такие модели, как наивный байесовский алгоритм [2], метод опорных векторов (SVM) и случайные леса.

Предотвращая опасности, связанные со спамом, эффективные системы обнаружения спама повышают удобство работы пользователей, а также поддерживают более масштабные инициативы в области кибербезопасности.

Машинное обучение — мощный инструмент для борьбы со спамом, особенно если использовать современные NLP-модели.

Зачастую метод машинного обучения преподносится разработчиками защитных решений как некая «серебряная пуля», волшебная универсальная технология, позволяющая защитить пользователя от широкого спектра угроз. Но что стоит за этими заявлениями? Без объяснения где именно и как используются эти технологии такие заявления воспринимаются просто как модные маркетинговые лозунги.В наших продуктах технологии машинного обучения работают уже много лет и в одном мы уверены твердо — их нельзя воспринимать как некую супертехнологию, побеждающую все угрозы. Это высокоэффективный инструмент, но это всего лишь инструмент, один из многих. Мой коллега Алексей Маланов даже написал отдельную статью на тему мифов о машинном обучении в сфере кибербезопасности.У нас в «Лаборатории Касперского» машинное обучение находит применение в самых разных областях, в частности, при решении такой интересной задачи, как детектирование спам-сообщений. Потому что эта проблема гораздо сложнее чем кажется на первый взгляд. Ведь спам-фильтр должен не просто выявить 100% писем с нежелательным контентом, гораздо важнее корректно доставить все важные для получателя письма.

Говоря научным языком, нам надо минимизировать ошибки первого рода — ложные срабатывания, они же false positives (или на жаргоне спам-аналитиков — фолсы).

Еще одна задача, о которой также нельзя забывать, это обеспечение скорости реакции системы. Для того чтобы спам-фильтр не препятствовал нормальному обмену электронной почтой, система должна реагировать практически мгновенно.Для наглядности можно провести аналогию с треугольником управления проектами, только в нашем случае вершинами будут скорость, отсутствие ложных срабатываний и высокое качество определения спама. И жертвовать чем-то мы не можем. Например, спам можно разбирать вручную — эффективность 100%, но скорость упадет до минимальной. Или можно задать жесткие правила и не пропускать вообще ничего. Тогда спама не будет, но и полезных писем никто не получит. Также можно отфильтровывать только заведомо известный спам, но тогда часть мусорных писем все равно дойдет до адресата. Именно для достижения баланса в этом треугольнике мы и используем технологии машинного обучения, в частности алгоритм, который позволяет классификатору безошибочно и быстро выносить вердикт, касающийся того или иного письма.Как строится этот алгоритм? Разумеется, при помощи данных. Однако прежде чем эти данные «скармливаются»

классификатору, следует решить еще одну проблему — очистить их от шумов. Ведь основная сложность фильтрации спама заключается в том, что критерии восприятия полезности сообщений у разных людей могут быть разными. Один пользователь будет воспринимать письма с предложениями по распродажам как жесткий спам, в то время как другой сочтет их потенциально полезной информацией. Письма такого рода создают шумы, затрудняющие построение качественного алгоритма машинного обучения. Говоря языком статистики, в нашем наборе данных могут быть так называемые выбросы, то есть результаты, резко выделяющиеся из общей выборки. И для решения этой проблемы мы внедрили автоматическую фильтрацию выбросов на базе адаптированного под наши нужды алгоритма Isolation Forest. Безусловно, она позволяет отсеивать только часть шумов, но это уже значительно упрощает жизнь нашим алгоритмам.

В результате мы получаем практически «чистые» данные. Наша следующая задача — преобразовать их в формат, понятный классификатору. То есть в набор признаков (или, как мы говорим, фичей).

Электронный для определения характеристик и характеристик сообщений, классифицированных как спам.Сбор данных для обнаружения спама в электронной почте необходимо получать и анализировать связанные данные. Электронная почта отправителя адрес, содержание сообщения, тема, а также любые ссылки или вложения. могут быть включены в эту информацию. Алгоритмы машинного обучения успешно выявляют спам, не являющийся спамом понять характеристики каждого типа сообщений, выявить спам и часто в больших наборах данных неспамовых сообщений электронной почты преподается. Процесс сбора данных об алгоритмах спама и законной электронной почты позволяет более точно дифференцировать сообщения и адаптироваться к новым спам-стратегиям .По этой причине очень важно создавать точные и успешные системы обнаружения спама.

В этом отношении спамеры демонстрируют «характерное поведение». Их цель (или, по крайней мере, побочный эффект от их деятельности) — «сжечь» репутацию домена и его IP-адресов путем разгона массовых рассылок до тех пор, пока не будут предприняты какие-то действия со стороны сетевых провайдеров, продающих эти услуги; или связанные с ними IP-адреса занесены в популярные списки спам-фильтров, что делает их бесполезными для текущего отправителя (и проблематичными для будущих владельцев IP-адресов).

Использованная литература:

1. Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. Volume 18, 2018, С. 113-120.
2. "Информационные технологии и системы". Volume 37, 2019, С. 134
3. 2023/Хаммасова Луиза Шамилевна,Нестеров Сергей Александрович
4. Т.А.Хужакулов, Н.Т.Маликова «Искуственный интеллект». Ташкент-2019.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ОБРАЗОВАНИЕ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ

Баходиров Ахрорбек Азизбекович
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: bahodirovaxrorbek5@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных информационных технологий и интернет-сетей, которые стали неотъемлемой частью нашей жизни, в образовательной системе, а также способы повышения эффективности образовательного процесса с их помощью, их преимущества **и оптимальные способы применения.**

Ключевые слова: информационные технологии, цифровая экономика, искусственный интеллект, интернет-сети, современные технологии.

Введение

В настоящее время информационные технологии и искусственный интеллект стремительно развиваются. Хотим мы этого или нет, современные технологии и гаджеты уже стали частью нашей жизни, и это не преувеличение. Представлять нашу жизнь без современных технологий сложно. Поэтому вместо того, чтобы искать способы полного отказа от них, нам следует задуматься о правильном их использовании. Сегодня существуют преподаватели, которые используют в своей практике электронные лаборатории, компьютеры и другие технологии. Однако есть и те, кто продолжает обучать по старым методам. Практически все учащиеся и студенты используют современные технологии и интернет-сети, что естественно для XXI века.Поэтому нельзя отстранять студентов и учащихся от использования информационных технологий, так как для развития нашего государства необходимо подготовить квалифицированные кадры, способные достойно представлять страну на международной арене. Во всем мире большинство стран эффективно используют информационные технологии, искусственный интеллект и интернет-сети для своего развития. В связи с этим необходимо обогащать образовательный процесс с использованием современных информационных технологий и интернет-сетей для развития системы образования. Я считаю, что в настоящее время необходимо практически обучать студентов и учащихся правильному и эффективному использованию интернет-сетей. Если просто устно запрещать, например, «онлайн-азартные игры», «видеоигры» или «контент, крадущий время», это, естественно, вызывает у большинства людей интерес, и они хотят попробовать это на себе. Поэтому я считаю, что было бы полезно включить в школьные программы предмет, который обучал бы правильному использованию интернета, наглядно демонстрируя его положительные и отрицательные стороны.

Анализ данных

Современный научно-технический прогресс требует внедрения передовых технологий не только в многочисленные отрасли производства, но и в сферы культуры, социальных и гуманитарных наук, а также в образование. Известно, что в «Национальной программе подготовки кадров» подчеркивается важность «обеспечения учебно-воспитательного процесса передовыми педагогическими технологиями», что определено как одна из ключевых задач второго и третьего этапов для повышения и совершенствования качества непрерывного образования.В этом контексте развитие независимой Республики Узбекистан основывается на богатом духовном потенциале народа, общечеловеческих ценностях, а также на последних достижениях экономики, науки, техники и технологий, что требует создания совершенной системы образования и воспитания.Создание теоретических и методических основ национальной и современной педагогики, а также их внедрение в практику, вытекает из задачи подготовки конкурентоспособных специалистов.Внедрение современных педагогических технологий в образовательный процесс и их применение требуют внимания к следующим аспектам:Преподаватели, желающие работать на основе современных образовательных технологий, должны разрабатывать сценарии занятий на основе интерактивных методов,

включающих определение времени для формирования знаний, мотивации студентов, разделение учебного материала на блоки, использование или проектирование методов, а также демонстрацию наглядности.Педагогические технологии, разработанные преподавателями, должны тестироваться в процессе занятий, анализироваться на предмет достижения целей, а преимущества работы с современными педагогическими технологиями должны обсуждатьс

на научно-методических семинарах в рамках кафедральных собраний и научных советов высших учебных заведений, чтобы обеспечить поддержку педагогического сообщества.Формирование инновационного педагогического сообщества из преподавателей, обладающих теоретическими и практическими знаниями в области педагогических технологий и их использования в образовательном процессе.Положительное выполнение этих задач не только повышает эффективность учебно-воспитательного процесса, но и создает условия для подготовки гармонично развитых личностей и конкурентоспособных квалифицированных специалистов.

Заключение

Цифровые технологии играют важную роль в повышении эффективности образовательного процесса. Они позволяют автоматизировать учебный процесс, обеспечивать индивидуальный подход к учащимся и развивать их навыки самостоятельного обучения. С помощью технологий преподаватели могут сократить время на выполнение рутинных задач и повысить эффективность уроков. Модель цифрового класса обогащает традиционную систему образования инновационными подходами, предоставляя учащимся возможность адаптироваться к требованиям современного мира. Поэтому внедрение современных технологий в образовательный процесс и их эффективное использование должны стать неотъемлемой частью современной системы образования.Цифровые технологии в классе включают различные программные обеспечения и гаджеты, предназначенные для помощи учащимся с особыми потребностями. Самый эффективный способ сократить количество повторяющихся и трудоемких задач для преподавателя — это использование технологий на уроках.Приложения образовательных технологий позволяют экономить время и энергию за счет автоматизации или частичной автоматизации повседневных операций, таких как учет посещаемости и мониторинг успеваемости. Они учат учащихся ответственно и стратегически использовать технологии, что помогает им в принятии решений и самодисциплине. Технологии в образовании готовят учащихся к обучению на протяжении всей жизни.

Список литературы

1. Мамараджабов М.Э. Технологии цифровой дидактики // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management. 2022. Том 2, №4. С. 78-84.
2. .Юсупов Г.Ю. Современное развитие и совершенствование личных и профессиональных качеств учителя информатики // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 13, 2023. С. 63-66.
3. Гуревич П.С. Педагогика и цифровизация: вызовы времени. — М.: Просвещение, 2021.
4. Громыко Ю.В. Образование в цифровую эпоху. — СПб.: Питер, 2020.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 2019.

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SUN’IY INTELEKTNING O‘RNI

Baxodirov Jasurbek Olyorbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun’iy intellekt kafedrasi assistenti
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-5771-0585
j.bakhodirov@tsue.uz

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyasining mazmuni, mohiyati va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt ilg‘or texnologiyalar asosida turli sohalar – tibbiyot, ta’lim, sanoat, moliya, transport va

boshqalarda qanday qo‘llanilayotgani yoritib beriladi. Ayniqsa, O‘zbekiston va jahon miqyosida SI asosida erishilgan yutuqlar, ilg‘or tajribalar va ularning amaliy afzalliklari o‘rganiladi. Maqolada GPT modellari, IoT qurilmalari, rentabellik (rentabel), B2B va B2C tizimlar, tibbiy sohadagi MRI tizimlari, internet marketingda qo‘llaniladigan PPC, CPC, CPM strategiyalari hamda boshqa ilg‘or AI texnologiyalari bilan bog‘liq tajribalar va istiqbollar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda sun’iy intellektni yanada samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: GPT, Superintelligent, AI, Plaid, B2B, B2C, Rentabel, MRI, CPE, IoT, KT, PPC, CPC, CPM.

KIRISH

Dependence on network pressure — during the winter period, especially during peak load times, a decrease in gas pressure in the pipeline may occur, which can lead to a temporary shutdown of the heating system. Fire and explosion hazards — improper use of gas equipment poses a serious danger. The main cause of explosions is usually the ignition of an air-gas mixture that forms as a result of a gas leak.

Since the beginning of the year, there have been 213 cases of carbon monoxide poisoning and gas-air mixture explosions in residential buildings in Uzbekistan, 66 of which were classified as emergencies. As a result, 125 people died and 115 sustained injuries of varying severity.

Currently, with the development of technology, it has become possible to significantly reduce the risk of gas leaks and the associated danger of subsequent ignition. When installing a gas leak detector, it is important to follow the following recommendations, as they determine the effectiveness of gas detection. The choice of installation location depends on the composition of the gas being used. In the case of pipeline gas, where methane (a gas lighter than air) is the main component, the detector should be installed near the ceiling, at a distance of 20–30 cm from it. When using bottled (cylinder) gas in households, it is recommended to install the detector near the floor, at a distance of 20–30 cm, in areas where propane (a heavy gas that can make up to 40% of the cylinder's volume) is likely to accumulate.

The level of control can be conditionally divided into three categories based on the equipment used:

Basic gas leak detector

Detector with automatic gas shut-off valve

Remote gas leak monitoring system

Household-grade devices are designed to ensure the safety of human dwellings. These are stationary devices installed in areas where gas leaks are likely to occur. Devices for monitoring methane (CH_4), which is the main component of natural gas, are installed in kitchens near the gas stove, preferably under the air intake or in the path of the airflow from the stove burner. The closer the detector is to the stove, the faster it will detect a leak. However, there is a lot of soot, smoke, and greasy vapors near the stove, which can affect the gas-sensitive sensor.



Figure 1. Installation of a Gas Leak Detection Device

Therefore, it is important to maintain an optimal distance — approximately 0.5 to 1.5 meters from the burner — and to use a dust-protection filter on the sensors. The stationary gas detector is powered by a 220V mains supply using a step-down transformer adapter. The device is mounted to the wall using screws, and to tiled surfaces using adhesive tape (Figure 1).

Devices for monitoring liquefied gas are installed in the lower area of rooms. However, to protect them, they are raised 0.5 to 1 meter above the floor, since they can be damaged by water during cleaning or broken by moving objects such as a bag or a bucket.

The emergency activation threshold of a device for flammable gases is set at 10% or 20% of the Lower Explosive Limit (LEL) — the minimum concentration of gas in air at which flame propagation can occur. For methane (CH_4), the Lower Explosive Limit (LEL) is 5% by volume, which means that 10% and 20% of the LEL correspond to 0.5% and 1.0% of methane in the air, respectively. For liquefied gas (a propane-butane mixture), the LEL is 2% by volume, so the detector thresholds are set at 0.2% or 0.4% by volume. Sometimes, a second warning threshold is used. Its value is set arbitrarily, typically ranging from 0.05% to 0.5% by volume. However, it is more logical to set the warning threshold below the Maximum Permissible Concentration (MPC) of methane in the air, ensuring early detection and prevention before dangerous levels are reached.

Household gas detectors for flammable gases are long-term use devices and must be periodically checked for proper functioning. However, the gas-sensitive sensors within these detectors can "age" and change their sensitivity over time. Therefore, the devices should be designed with a convenient mechanism for supplying a reference gas for testing and allow for easy sensor replacement. Alternatively, the devices can be made inexpensive enough to replace them entirely when needed [2, 3].

Some gas leak protection systems may have additional functions, such as:

* Integration with other smart devices in the home;
* the ability to work offline even in the absence of the Internet;
* Compatible with voice assistants;
* Extensive possibilities for creating automation scenarios.

In addition to installing gas leak sensors in a smart home, it is equally important to regularly maintain and test these systems. This will ensure their reliability and timely identify any malfunctions or wear of the sensors.

Another important aspect of security in a smart home is the ability to receive notifications if a gas leak is detected. Connecting the gas leak protection system to the central system of a smart home or a mobile application will allow you to quickly respond to potentially dangerous situations, even if you are not at home.

Finally, gas leak protection technologies play an important role not only in preventing emergencies, but also in saving resources. Detection and elimination of gas leaks contribute to reducing resource consumption and improving the energy efficiency of a smart home.

Some modern gas leak protection systems in smart homes can be integrated with other smart devices and systems. For example, they can interact with smart home automation systems, which allows them to automatically turn off the gas supply if a leak is detected and control other devices to ensure safety.

Moreover, some smart home systems provide the ability to monitor gas levels even in the absence of leaks. This allows users to monitor gas consumption, optimize its use, and prevent potential problems before they occur.

The integration of gas leak protection systems with other smart devices opens up new horizons in ensuring safety and comfort in a modern home. For example, notifications of a possible gas leak may be linked to a smart home system that automatically activates ventilation or notifies emergency services.

Protection against gas leakage in a smart home is becoming an integral part of the overall security system. Thanks to modern smart systems, the risk of gas leakage is significantly reduced, and the potential consequences become less noticeable.

Some gas leak protection systems may have additional features, such as:

* integration with other smart devices in the home;
* the ability to operate autonomously even without an internet connection;
* compatibility with voice assistants;
* extensive options for creating automation scenarios.

In addition to installing gas leak detectors in a smart home, it is equally important to regularly maintain and test these systems. This ensures their reliability and helps to detect any malfunctions or sensor wear in a timely manner.

Another important aspect of safety in a smart home is the ability to receive notifications in the event of a gas leak. Connecting the gas leak protection system to the central smart home system or a mobile app allows for a quick response to potentially dangerous situations—even when you're not at home.

Finally, gas leak protection technologies play a vital role not only in preventing emergencies but also in conserving resources. Detecting and eliminating gas leaks helps reduce resource consumption and increase the energy efficiency of the smart home.

Some modern gas leak protection systems in smart homes can be integrated with other smart devices and systems. For example, they can interact with smart home automation systems, allowing for the automatic shutoff of the gas supply in the event of a leak and control of other devices to ensure safety.

Moreover, some smart home systems offer the ability to monitor gas levels even in the absence of a leak. This allows users to track gas consumption, optimize its usage, and prevent potential issues before they arise.

The integration of gas leak protection systems with other smart devices opens up new possibilities for enhancing safety and comfort in a modern home. For example, gas leak alerts can be linked to the intelligent home system, which can automatically activate ventilation or notify emergency services.

Gas leak protection in a smart home is becoming an integral part of the overall security system. Thanks to modern smart technologies, the risk of a gas leak is significantly reduced, and the potential consequences become less severe.

A custom gas leak alert system project using readily available components, such as the MQ-2 gas sensor and an Arduino microcontroller, is shown in Fig. 2.



Fig. 2. Gas Leak Alert System Project

The gas leak alert system operates as follows:

Gas Detection: The MQ-2 sensor is installed in the area you want to monitor for gas leaks. When it comes into contact with combustible gas, the sensor's resistance changes, and this change is converted into an analog voltage signal.

Data Processing in Arduino: The Arduino continuously reads the analog voltage from the sensor. To obtain accurate readings, the sensor must be calibrated for the specific gases you want to detect.

Alert Mechanism: When the gas concentration exceeds a threshold value, the Arduino activates the alert mechanism. A buzzer or piezo speaker emits a loud sound, and an LED indicator may also light up, providing a visual warning.

User Notification: The alarm alerts you to the gas leak, allowing you to take appropriate action, such as ventilating the area, shutting off the gas supply, or evacuating.

The MQ-2 gas sensor is a widely used electronic component designed to detect various gases and is commonly used for gas leak detection and environmental monitoring. It is part of a family of gas sensors manufactured by Hanwei Electronics.

Here are some key features and characteristics of the MQ-2 gas sensor:

Gas Detection: The primary function of the MQ-2 sensor is to detect various gases, including but not limited to:

* LPG (liquefied petroleum gas)
* Butane
* Propane
* Methane
* Alcohol
* Hydrogen
* Smoke and other combustible gases

Operating Principle: The MQ-2 sensor operates based on the principle of chemoreceptive sensing. It contains a sensitive element or a layer made of semiconductor material that changes its electrical

resistance when exposed to certain gases. The change in resistance is proportional to the concentration of the detected gas.

Heating Element: The sensor includes a built-in heating element, usually a small coil or resistor, which heats the sensitive element to a specific temperature. This heating process is essential for the reliable operation of the sensor (Fig. 3).

Fig. 3. Smart Gas Sensor with Shut-Off Valve

Output Signal: The sensor provides an analog output voltage that varies depending on the concentration of the detected gas. This signal can be processed by a microcontroller or other electronics to display or interpret the gas concentration level.

Calibration: To obtain accurate gas concentration readings, MQ-2 sensors may require calibration. Calibration involves exposing the sensor to a known concentration of the target gas and adjusting the sensor's response accordingly.

Warning: When using the MQ-2 sensor, it is important to consider its limitations and potential interferences. For example, it may respond to multiple gases simultaneously, and its sensitivity can vary depending on temperature and humidity.

The MQ-2 gas sensor is used in various applications, including:
* Gas leak detection in homes, industrial facilities, and automotive systems
* Air quality monitoring and pollution detection
* Safety systems in kitchens and gas-powered appliances
* Fire detection systems capable of identifying smoke and combustible gases

References

1. Korosev I.L. *Hazardous Gases and Their Effects*. Edited by T.V. Shkil. – Rostov-on-Don: Feniks, 2000. – 396 p.

2. Ganiyev Abduvoxid Abduvaliyevich & Shamuratov Jahongir Sherali o‘g‘li. (2024). *The Importance of Using a Modern Automatic Fire Extinguishing System*. Pedagogs, 60(1), 30–36. https://pedagogs.uz/ped/article/view/1557
3. *Reference Data on PIC16C7xx Series Microcontrollers.*
4. *Life Safety: Industrial Safety and Occupational Health* / P.P. Kukin, V.L. Lapin, N.L. Ponamarev, et al.; A textbook for students of vocational secondary educational institutions. – Moscow: Vysshaya Shkola, 2001.

KOMPYUTER FANLARI BO‘YICHA ANDROID MOBIL ILOVASINI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI O‘RGANISH (APP INVENTOR ASOSIDA)

TDIU “Sun’iy intellekt” kafedrasi assistenti
Gulmurodova Dinora Akram qizi
dinoragulmurodova1@gmail.com
O‘zMU JF magistranti
Gulmurodova Shohsanam Akram qizi
gulmurodovashohsanam@gmail.com
UMFT magistranti
Mamatqulov Anvar Rashidovich
ovvlovulanva@mail.com

Annotatsiya: Mobil ta’lim ilovalari o‘quv natijalarini yaxshilashdagi yuqori samaradorligi bilan keng e’tirof etilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi — kompyuter operatsion tizimlari asoslariga oid Android platformasiga asoslangan mobil ta’lim ilovasini ishlab chiqish va uning samaradorligini amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Dastur qulay va vizual dasturlash imkoniyatlari bilan mashhur bo‘lgan **App Inventor** platformasi yordamida yaratilgan bo‘lib, u turli o‘quv uslublariga mos keladigan interaktiv modullar hamda multimedia vositalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot **"Tadqiqot va ishlab chiqish" (Research and Development)** metodologiyasi asosida olib borilgan bo‘lib, **ADDIE modeli**ning (tahlil, loyihalash, ishlab chiqish, joriy etish va baholash) barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv qobiliyatlar, analog media, analitik ko'nikmalar, MGBL muhandislik modeli, ta'limga integratsiyalashgan tematik yondashuv.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayoni ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqichda — kompyuter operatsion tizimi tushunchalarini o‘zlashtirishni yaxshilashga qaratilgan innovatsion Android-platformasiga asoslangan o‘quv ilovasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Keyingi, ikkinchi bosqich esa — tadqiqot natijasi sifatida ishlab chiqilgan vositalarning validatsiya (asoslanganlik) darajasini baholashga qaratilgan.

Quyida **App Inventor** platformasi yordamida **Android-operatsion tizimiga asoslangan mobil o‘quv ilovasini ishlab chiqish bosqichlari** keltiriladi:

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ishlab chiqish ishlari natijasida **kompyuter operatsion tizimlari** faniga bag‘ishlangan **Android tizimida ishlovchi o‘quv mobil ilovasi** yaratildi. Ushbu ilova .apk formatidagi dasturiy paket ko‘rinishida yakunlanib, Android operatsion tizimiga ega qurilmalarga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan.

Ilova ishlab chiqish jarayoni **ADDIE** modeliga asoslangan bo‘lib, u bosqichma-bosqich amalga oshirilgan: **Tahlil (Analysis), Loyihalash (Design), Ishlab chiqish (Development), Joriy etish (Implementation)** va **Baholash (Evaluation)** bosqichlarini qamrab oladi. Quyida ushbu bosqichlarda erishilgan natijalar yoritib beriladi:

Tahlil bosqichi

Ilovani ishlab chiqishning dastlabki bosqichi mavjud o‘quv muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu bosqich o‘quv jarayonidagi bilim bo‘shliqlarini tahlil qilish hamda foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash orqali samarali o‘quv resursini yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur bosqich quyidagi ishlarni o‘z ichiga oladi:

Kompyuter operatsion tizimlariga oid o‘quv jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklarni aniqlash;

Fan doirasida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiluvchi aniq va amaliy ta’limiy maqsadlarni belgilash.

Talabalarning individual xarakter xususiyatlarini aniqlash,

Zarur bo‘lgan resurslarni aniqlash,

Mazkur mavzuga mos o‘quv strategiyalarini tanlash,

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun kompleks o‘quv boshqaruv rejasini ishlab chiqish.

Loyihalash bosqichi

Ushbu bosqichda o‘quv vositasi tuzilmasi va tarkibiy ketma-ketligini aniq ifodalovchi **blok-sxema** ishlab chiqiladi. Shuningdek, **interfeys dizayni va ilova ko‘rinishini aniqlovchi shablon asosidagi stsenariylar (storyboard)** ham yaratiladi.

Blok-sxema — **o‘quv ilovasining strukturasi va funksional oqimini belgilovchi asosiy model** bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu sxema asosida storyboard tuziladi va u orqali foydalanuvchi interfeysi dizayni bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Storyboardlar o‘quv vositasining kutilayotgan tashqi ko‘rinishini — ya’ni **mazmun, joylashuv, va integratsiyalashgan elementlar**ni boshlang‘ich tarzda aks ettiradi. Ushbu vizual reja, o‘z navbatida, **foydalanuvchi interfeysining to‘liq dizaynini yaratish uchun asosiy hujjat** hisoblanadi.

Loyihalash bosqichidagi birinchi qadamlardan biri bu — **o‘quv ilovasining funksional blok-sxemasini tuzish** bo‘lib, u **1-rasmda** tasvirlangan.

1- rasm



Ishlab chiqish bosqichi — mahsulotni yaratish va testdan o‘tkazishdagi muhim jarayon bo‘lib, ushbu bosqichda tahlil va loyihalash natijalari **amaliy mahsulot** ko‘rinishiga keltiriladi. Ilovaning dastlabki dizayni **CorelDRAW X7** grafik muharriri yordamida ishlab chiqilgan bo‘lib, keyinchalik u real foydalanish uchun **Thunkable platformasi** orqali mobil ilovaga aylantirildi.

Yakuniy natijada **.aia** kengaytmali loyiha fayli hosil qilindi. Ushbu faylga qo‘shimcha ravishda **.aix** kengaytmali **plagin** (plugin) ham yaratildi. Bu plagin ichiga **Java dasturlash tilida yozilgan kodlar (.java)** kiritilgan bo‘lib, ular alohida modullar sifatida ishlatilishi uchun **.aix** faylga konvertatsiya qilingan



2-rasm Login sahifasi interfeysi 3-rasm

2-rasm va 3-rasmda taqdim etilgan interfeys — foydalanuvchini identifikatsiyalash bosqichida ishlatiladigan **telefon raqamini kiritish sahifasi** hisoblanadi. Sahifa tarkibida o‘quv mazmuniga mos grafik element, matnli so‘rov (“Telefon raqamini kiriting”) va foydalanuvchining ma’lumotini qabul qilish uchun ajratilgan forma mavjud. Pastki qismda joylashgan **“KEYINGISI”** tugmasi orqali foydalanuvchi keyingi sahifaga o‘tadi. Interfeys sodda, intuitiv va mobil qurilmalar uchun optimallashtirilgan bo‘lib, ilovaning interaktivligini oshiradi.

7-rasm. Fan tanlash interfeysi



Bu sahifada foydalanuvchiga ikki yo‘nalish: “Informatika” va “Sanoq sistemasiga oid misollar” taklif qilinadi. Har bir yo‘nalish alohida tugma ko‘rinishida berilgan bo‘lib, foydalanuvchi o‘z o‘quv yo‘nalishini tanlaydi. Sahifa sodda va aniq tuzilgan.

8-rasm. Matematik mantiqiy savol sahifasi



Bu sahifada foydalanuvchiga mantiqiy matematik savol taklif etiladi (masalan: 1 + 3 = 6). Pastda “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” belgilarini tanlash tugmalari mavjud. Yuqorida foydalanuvchining umumiy natijasi aks ettiriladi. Bu sahifa test shaklida bilimni aniqlashga qaratilgan.

9-rasm. Informatika fanidan test sahifasi

Bu sahifada foydalanuvchiga “Kodlashning usullari” bo‘yicha bir nechta variantlardan to‘g‘risini tanlash vazifasi beriladi. Tanlangan noto‘g‘ri javob qizil rangda, to‘g‘ri javob esa yashil rangda belgilanadi. Yuqorida joriy “Natija” soni ko‘rsatiladi. Bu sahifa foydalanuvchining bilim darajasini avtomatik baholaydi.

XULOSA

Android tizimiga asoslangan mobil o‘quv ilovasini yaratish jarayoni tizimli yondashuv asosida, ya’ni **ADDIE modeli** (Tahlil – Analysis, Loyihalash – Design, Ishlab chiqish – Development, Joriy etish – Implementation, Baholash – Evaluation) doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan.

Mazkur modelning **tahlil bosqichi**da — mavjud o‘quv muammolari aniqlanib, ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqilgan. **Loyihalash bosqichi** esa — Android ilovasini qurish uchun zarur bo‘lgan **ma’lumotlar oqimi sxemasi (flowchart)** va **interfeys stsenariylari (storyboard)** kabi muhim tarkibiy qismlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Shundan so‘ng, **ishlab chiqish bosqichi**da kompyuter operatsion tizimlariga oid mavzularni qamrab oluvchi Android ilovasining dastlabki funksional versiyasi yaratildi. Keyingi bosqich — **baholash bosqichi**da esa ishlab chiqilgan vositaning joriy etishga tayyorligi har tomonlama ko‘rib chiqilib, zaruriy takomillashtirish ishlari amalga oshirildi. Mazkur baholash jarayonida ilovaning **samaradorligi, funksionalligi va foydalanuvchi uchun qulayligi** kabi muhim jihatlari chuqur tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — **kelajakda ta’limda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, murakkabroq va interaktiv imkoniyatlarga ega Android ilovalarini ishlab chiqish uchun ilmiy va amaliy asos yaratishdir**.

Tadqiqot natijalari quyidagi jihatlar bo‘yicha istiqbolli hisoblanadi:

O‘zbekiston ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tatbiq etish imkoniyati;

O‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qilishi;
Turli platformalar (smartfon, planshet, interaktiv doska) bilan integratsiyalashuvchanligi;
Dasturchilar va o‘qituvchilar uchun amaliy yo‘riqnoma vazifasini bajarishi;
Ta’limga oid ilmiy-texnik adabiyotlar fondini boyitishi;
Talabalarning o‘quv tajribasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Archana, B. S., Chandrashekar, A., Bangi, A. G.,
2. Sanjana, B. M. and Akram, S. (2017) Survey on us-
3. able and secure two-factor authentication.
4. Archana, B. S., Chandrashekar, A., Bangi, A. G.,
5. Sanjana, B. M. and Akram, S. (2017) Survey on us-
6. able and secure two-factor authentication.
7. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi.
8. Rasulova, F. X. (2022). Mobil ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni. *O‘zbekistonda innovatsion ta’lim* jurnali, 2(3), 45–52..
9. Muxlisov, S. S., Kuchkarbayev, R. U., & Xazratov, F. X. (2021). *Ta’limda axborot texnologiyalari*.

PARALLEL ALGORITMLAR SAMARADORLIGI BO‘YICHA TAHLIL

Go‘zal Absalamova
gozalabdusalomova1996@gmail.com
Hilola Suvanova Ali qizi
suvonovahilola06@gmail.com
Abdurashidova Mahliyo
abdurashidovan428@gmail.com
O‘zbekiston Milliy universiteti ,Jizzax filiali
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ketma-ket va parallel algoritmlarning bajarilish tezligi va samaradorligi o‘rganiladi. Parallel algoritmlar turlari ishlash usullari tahlil qilinadi. Zamonaviy dasturlashda katta hajmdagi hisob-kitoblarni tez bajarish muhim bo‘lib, bu masalada parallel algoritmlar asosiy rol o‘ynashi ko’rsatiladi. Amaliy qismda C++ dasturlash tili yordamida parallel algoritmlar uchun kodlar yozilib, natijalar vaqt va samaradorlik bo‘yicha solishtiriladi. Tahlil qilish natijasida parallel algoritmlar katta hajmdagi ma’lumotlarda ancha samarali ishlashi ko‘rsatadi. Parallel algoritmlardan qanday masalalarda fordalanish qulay va samarali ekanligi tahlil qilinib, ko’rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Parallel algoritmlar, zamonaviy dasturlash tili, C++ dasturlash tili, murakkablik.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va samarali qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy ketma-ket bajariladigan algoritmlar bunday talablarni har doim ham to‘liq qondira olmaydi. Shu sababli, hisoblash jarayonlarini optimallashtirishda parallel algoritmlardan foydalanish zamonaviy informatika va dasturlash sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ba’zi muammolarni hal qilish uchun zamonaviy dasturlash tili ya’ni zamonaviy, takomillashgan algoritmlar qo’llash zarur bo’ladi.

Zamonaviy dasturlash tili – bu oddiy tillarni takomillashgan variant. Aniqroq qilib aytiladigan bo’lsa, avval mavjud til asosida yangi ishlab chiqilgan til hisoblanadi. C++, JavaScript, C#, va boshqa ko’plab tillar mavjud bo’lsada ular bajarishi lozim bo’lgan muammolar aynan bir xildir. Xuddi shunday ko’plab algoritmlar mavjud bo’lib, ushbu tezisda parallel algoritmlar tahlil qilinadi. Algoritmlarni tahlil qilish Big O asosida amalga oshiriladi ya’ni algoritmlani samaradorligini baholashda ishlatiladigan matematik ifoda.Algoritmlarni samaradorligini tahlil qilish asosan xotira va vaqt bo’yicha olib boriladi[1,4].

1. *Vaqt* – bu tahlil usulida dastur bajarilib, natija chiqarish uchun ketgan vaqt hisoblanib algoritmlar tahlil qilinadi.

2. *Xotira* – bu tahlilda dastur har bir o’zgaruvchi uchun qancha bayt yoki bit joy ajratgani orqali algoritm tahlil qilinadi.

Aynan yuqorida keltirilgan tahlillar natijasi orqali berilgan muammo uchun qaysi algoritm eng optimal ekanligi topiladi.

Parallel algoritmlarni ishltish orqali katta hajmga ega bo’lgan ma’lumotlarni bir nechta qismlarga ajratib barcha qismlarni bir vaqtda parallel ishlatish imkonini beruvchi algoritm hisoblanadi. Masalan, o’quvchilarga listga tabiat Rasmini 10 daqiqada chizish vazifasi berildi. Shu holatda o’quvchilar kelishib, bitta o’quvchi daraxtni, boshqa biri daryolarni va shu kabi tabiatni bir necha qismlarga bo’lib bir vaqtni o’zida chizishni boshlashadi. Aynan yuqorida keldirilgan misol parallel algoritmlarni osonroq chuntirish imkonini beradi. Dasturlash tilida ham berilgan mummoni hal qilish uchun uni qismlarga ajratib bir vaqtda parallel ishlash imkonini beradi. Parallel algoritmlar turlariga misollar[1](1-rasm):

Ma'lumotlarga asoslangan parallelizm (Data Parallelism)
Vazifaga asoslangan parallelizm (Task Parallelism)
Quyruq-parallel algoritmlar (Pipeline Parallelism)
SIMD algoritmlar (Single Instruction, Multiple Data)
SPMD algoritmlar (Single Program, Multiple Data)
Kooperativ algoritmlar (Cooperative Parallelism)
Rekursiv parallel algoritmlar



1-rasm.(Parallel algoritm turlari)

Parallel algoritmlar turlari yechilayotgan muammo turiga qarab tanlanadi va bitta muammo uchun mos kelgan parallel algoritm boshqa biri uchun optimal bo’lmasligi mumkin. Shu sababli muammo elementlaridan, o’lchamidan kelib chiqib tanlangan maqsadga muvofiq bo’ladi. Parallel algoritmlarni boshqa algoritmlardan farqi shundaki, bu algoritm vaqtdan ko’proq yutiq beradi. Parallel algoritmlarni quyidagi jadval orqali vaqt bo’yicha murakkabligini tahlil qilamiz.

Algoritm turi	**Vaqt murakkabligi**	**Izoh**
Parallel sum (reduction)	O($logn$)	Har safar elementlar yarmi yig‘iladi (tree reduction).
Parallel prefix sum (scan)	O($logn$)	Qismlarning yig‘indisi tartibli saqlanadi.
Parallel merge sort	O(log^2n)	Har bosqichda bo‘lish + birlashtirish parallel.
Parallel quick sort	O(log^2n) (o’rtacha)	Bo’lish va sort qismlari parallel.
Parallel map/filter (array)	O(1) (ideal holatda)	Har element mustaqil, bir bosqichda bajariladi.

1- jadval. Vaqt bo’yicha murakkablik

Ba’zi parallel algoritmlar katta ma’lumotlar uchun juda ham mos keladi. Ma’lumotlar hajmi qanchalik katta bo’lsa, dastur ish bajarish vaqti ham shuncha kattalashib boradi. Aynan shuning uchun T_k va T_p ya’ni ketma – ket amallarni bjarish vaqti va parallel bajarish vaqt tushunchalari kelib chiqadi[2].

T_k – Ketma-ket bajariladigan algatirm uchun ketgan vaqt. Murakkabligi O(n)

T_p – Parallel algaritmlar hisoblash uchun ketadigan vaqt . Murakkabligi O($\frac{n}{p}$) yoki O($logn$)

$\frac{T_k}{T_p}$ ushbu ifoda parallel algoritm necha marta samarali ekanligini bildiradi[3,5].

C++ dasturlash tilida oddiy massivdagi elementlar yig‘indisini hisoblovchi masala berilgan. Ushbu masalani ikki xil usulda katma-ket va parallel usulda ishlash:

1-usul. Oddiy algoritm (Ketma-ket)

```
#include <iostream>
#include <vector>
using namespace std;
int main() {
    vector<int> numbers = {1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10};
    int sum = 0;
    for (int i = 0; i < numbers.size(); i++) {
        sum += numbers[i];
    }
 cout << "Yig'indi = " << sum <<endl;
    return 0;
}
```

2- usul.Parallel algoritm (OpenMP bilan)

```
#include <iostream>
#include <vector>
#include <omp.h>
using namespace std;
int main() {
   vector<int> numbers = {1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10};
    int sum = 0;
    #pragma omp parallel for reduction(+:sum)
    for (int i = 0; i < numbers.size(); i++) {
        sum += numbers[i];
    }
cout << " Yig'indi = " << sum << endl;
    return 0;
}
```

Ikki dastur tahlili quyidagi jadval asosida chuntirilgan:

Mezoni	**Ketma-ket algoritm**	**Parallel algoritm**
Vaqt murakkabligi	O(n)	O($^{n}/_{p}$+$logp$)
Xotira murakkabligi	O(n)	O(n+p)
Amalda tezlik	Sekin	Tezroq (ko‘proq yadroda)

2- jadval. Vaqt va xotira bo’yicha murakkablik

Ushbu tadqiqotda bir xil vazifani bajaruvchi ikkita turdagi algoritm — ketma-ket va parallel — o‘zaro taqqoslandi. Har ikki algoritm bir xil ma’lumotlar to‘plamida (massivdagi sonlar yig‘indisini topish) sinovdan o‘tkazildi.

Ketma-ket algoritmda barcha hisoblashlar yagona oqimda (bitta protsessor) bajariladi. Bunda for sikli orqali har bir element navbati bilan sum o‘zgaruvchisiga qo‘shiladi. Ushbu yondashuvda vaqt

murakkabligi O(n) ga teng bo‘lib, bu usul kichik o‘lchamdagi massivlar uchun samarali bo‘lsa-da, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlaganda sekinlashadi.

Parallel algoritmda esa OpenMP texnologiyasi yordamida #pragma omp parallel for direktivasi orqali for sikli bir nechta protsessorlar (yadro) o‘rtasida taqsimlanadi. Bu yerda reduction(+:sum) orqali har bir yadro o‘ziga bir qism ishni olib, yakuniy natijani umumiy yig‘indiga birlashtiradi. Bu yondashuvda vaqt murakkabligi O($^{n}/_{p}$+log p) bo‘lib, bu hisob-kitoblarning ancha tez bajarilishiga yordam beradi.

Xotira jihatidan, har ikki algoritm vectordan foydalanadi (O(n)), biroq parallel algoritmda har bir bo’lak uchun alohida sum qiymati saqlanadi, bu esa umumiy xotira talabini biroz oshiradi (O(n + p)).

Shunday qilib, tajriba natijalariga ko‘ra parallel algoritm katta hajmdagi ma’lumotlar ustida tezroq ishlaydi va zamonaviy ko‘p yadroli tizimlarda samaraliroq hisoblanadi. Ketma-ket algoritmlar esa kichik va oddiy vazifalar uchun yetarli bo‘lishi mumkin.

Agar hal qilinishi kerak bo’lgan muammo hajm jihatdan katta bo’lsa parallel algoritmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Parallel algoritmlardan foydalanish boshqa algoritmlardan ko’ra ko’proq xotira egallasada zamonaviy kompyuterlar orqali bajarilsa xotira katta muammoga sabab bo’lmaydi. Parallel algoritmlar xotiradan biroz yutqazsada, ishlash tezligi ya’ni vaqti kam bo’lgani uchun unumli hisoblanadi. Masalan, 100 ta sonni qo’shish talab etilsa uni parallel algoritmlar yordamida 4 ta bo’lakka ajratamiz ya’ni 25 ta sondan iborat 4 ta bo’lak ish bajarib 25 ta sonni alohida qo’shib parallel bajaradi. Aynan yuqorida keltirilgan masalada 100 ta son int tipda bo’lsin unda xotira 100*4 bayt=400 bayt , 4 ta bo’lak ham 4 * 4 bayt = 16 bayt xotira oladi va jami xotira sarfi : 400 bayt + 16 bayt = 416 bayt bo’ladi. Shunday qilib , parallel algoritmlarda xotira sarfi O(n+p) bo’ladi. Ya’ni n – o’zgaruvchilar soni, p – bo’laklar soni.

Yuqoridagi tadqiqotlar va tajribalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, parallel algoritmlar ketma-ket algoritmlarga nisbatan murakkab masalalarni tezroq va samaraliroq hal qilish imkonini beradi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlar ustida ishlaganda, parallel hisoblash texnologiyalari vaqt jihatidan katta ustunlik beradi. Biroq, bu yondashuv xotira sarfini oshiradi, chunki har bir parallel oqim o‘ziga alohida resurs talab qiladi. Shunga qaramay, samaradorlikdagi yutuqlar bu resurs sarfini oqlaydi.Amaliy misollar asosida ketma-ket va parallel algoritmlar o‘rtasidagi asosiy farqlar aniqlanib, ularning vaqt va xotira bo‘yicha murakkabliklari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, parallel yondashuv yordamida hisoblash jarayonini tezlashtirish va ko‘p yadroli tizimlardan to‘liq foydalanish mumkin. Bu esa parallel algoritmlarni zamonaviy dasturlash va texnologik rivojlanishda muhim o‘ringa ega ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Foster I. Designing and Building Parallel Programs. – Addison-Wesley, 1995. – 432 b.
2. Ochilov M.M., Narzullayev O.O., Xolmatov O.A. Mashinali o‘qitish algoritmlari asosida o‘zbek tili matnlaridagi imlo xatolarini aniqlash va tuzatish // Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali. – 2025. – №8(1). – B. 85–94. – DOI: 10.62132/ijdt.v8i1.235
3. Toshpo’latov O.N.Algoritmlar va ma’lumotlar tuzilmasi.-Toshkent:O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta ta’lim vazirligi, 2017.- 250 b.
4. A.R. Azamatov O’quv qo’llanma .To'rtinchi nashri. - T.: ChoMpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 232b - ISBN 978-9943-05-439-4
5. Mingboyev Ulugbek Xujayevich Algoritmlar va ularning xossalari // Journal of science-innovative research in Uzbekistan volume 2, issue 10, 2024. october

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TALABALAR O‘ZLASHTIRISH DARAJASINI BAHOLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Ikromov Xusan Xolmaxamatovich
ikromovxx@gmail.com
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya. Maqolada mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalangan holda talabalarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, bashoratlash va ta’lim jarayonini individuallashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida statistik va mashinaviy tahlil usullari orqali talabalarning faoliyatiga doir atributlar o‘rganilib, Random Forest algoritmi eng yuqori aniqlik ko‘rsatgan model sifatida tanlandi. Ushbu model asosida individual yondashuvlar, diagnostika tizimi va avtomatik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar sun’iy intellekt vositalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi ulkan salohiyatini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: mashinaviy o‘rganish, talaba o‘zlashtirishi, random forest, pedagogik tahlil, sun’iy intellekt, bashorat modellar, ta’lim statistikasi, individual yondashuv, diagnostika tizimi, raqamli ta’lim.

Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamli transformatsiyalarga uchrashi natijasida pedagogik faoliyatda yangi texnologiyalar va yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda [1]. Ushbu ilmiy tezisda mashinaviy o‘rganish texnologiyalarining talaba o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish, baholash, bashoratlash hamda individual yondashuvlarni shakllantirishdagi o‘rni keng yoritiladi. Talabalarning bilim darajasi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni faqatgina an’anaviy baholash vositalari orqali to‘liq aniqlash qiyin [2]. Shu sababli, statistik tahlil va mashinaviy o‘rganish modellari orqali individual pedagogik strategiyalar ishlab chiqilishi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy o‘quv jarayonida sun’iy intellekt vositalari yordamida katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘lgan [3]. Bu esa, talabaning o‘quv faoliyatiga oid atributlar asosida uning o‘zlashtirish darajasini bashorat qilish va shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni taklif etish imkonini beradi. Ayniqsa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi didaktik aloqani chuqurlashtirish, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda bu yondashuv muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi [4]. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari, jumladan, Random Forest, Decision Tree, Logistic Regression kabi modellar orqali baholash ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, talabalar faolligi, topshiriqlarni bajarish va ishtirok statistikasi asosida ularning umumiy muvaffaqiyat darajasini belgilash mumkin [5].

Tadqiqotda talabalarning individual atributlariga asoslangan model sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalarga ko‘ra, Random Forest algoritmi eng yuqori aniqlik darajasini ko‘rsatdi. Bu modelning afzallik jihatlari – o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlash, ortiqcha murakkablikni kamaytirish, shovqinsiz tahlil qilish, yuqori sezuvchanlik va bashorat imkoniyatidir. Bu model asosida diagnostika tizimi shakllantirildi, talabaning real va bashoratlangan natijalari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi, shuningdek, avtomatik tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi.

Natijalarning amaliy ahamiyati shundaki, bu model o‘qituvchilarga nafaqat hozirgi holatni tahlil qilish, balki oldindan muammoli nuqtalarni aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish va zarur hollarda ta’lim strategiyasini qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, talabalar ham o‘z bilim darajasini aniq ko‘rsatkichlar asosida kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa, motivatsiyani oshirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, muammoli sohalarni anglab yetish va ularni tuzatishga qaratilgan mustaqil harakatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar talabalarning ballari, ishtirok darajasi, laboratoriya topshiriqlari natijalari, yakuniy imtihon ballari, o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan reyting baholari, tashriflar statistikasi kabi ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ldi. Bu atributlar bir-biri bilan aloqador bo‘lib, umumiy o‘zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Har bir atributga o‘ziga xos og‘irlik darajasi biriktirilib, modelni sinovida ushbu omillar hisobga olindi.

Tahlil natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Algoritm nomi	Aniqlik (%)	F1-score (%)	AUC (%)

Decision Tree	71.43	68.97	72.41
Logistic Regression	78.57	72.22	81.03
Random Forest	**89.29**	**85.71**	**93.10**

1-jadval. Atributlar sinovining tahlili natijalari.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, Random Forest algoritmi talabalarning o‘zlashtirish darajasini aniq bashorat qilishda eng samarali model bo‘lib chiqdi. Ushbu model orqali ishlab chiqilgan diagnostika tizimi o‘qituvchiga real vaqt rejimida tahlil natijalarini taqdim etadi. Bu esa, pedagogik qarorlar qabul qilishda subyektiv yondashuvni kamaytirib, faktlarga asoslangan yondashuvni shakllantiradi.

Modelga asoslangan tavsiyalar tizimi ham ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir talaba uchun individual o‘quv strategiyasini belgilashga yordam beradi. Masalan, o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan talabalar uchun o‘quv resurslari soni ko‘paytiriladi, qo‘shimcha mashg‘ulotlar tavsiya etiladi, faoliyatni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish taklif etiladi. Bu orqali o‘qituvchi har bir talabaga mos metodik yondashuvni tanlay oladi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni bildirish mumkin. Birinchidan, mashinaviy o‘rganish modellarining pedagogik tahlildagi roli tobora ortib bormoqda. Ikkinchidan, individual yondashuvlarning ishlab chiqilishida bu texnologiyalar ajralmas vositaga aylanmoqda. Uchinchi tomondan, talabalarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish orqali pedagogik jarayonni optimallashtirish, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy ish sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanishi orqali pedagogik jarayonni takomillashtirishga qaratilgan dolzarb tadqiqotdir. Tadqiqotda Random Forest algoritmi asosida ishlab chiqilgan modelning yuqori aniqlik ko‘rsatkichlari va amaliy tavsiyalar tizimi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida bunday tizimlarni keng miqyosda joriy qilish orqali nafaqat o‘quvchilar faoliyatini chuqur tahlil qilish, balki butun ta’lim jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ikromov, X. TA’LIM JARAYONIDAGI SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VOSITALARINING TAHLILI. *O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI*, 315.
2. Umidjon’s, K. I., & Ilhomjon’s, S. D. (2024). EFFECTIVENESS OF BUSINESS PROCESS AUTOMATION IN GROCERY STORES. International Journal of Advance Scientific Research, 5(12), 279-284.
3. IKROMOV, X. (2024). TALABALARNI MA’LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH ASOSIDA INNOVATSION AXBOROT TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISHGA O ‘RGATISH METODIKASI. *News of the NUUz*, *1*(1.1. 1), 93-96.
4. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). *Educational Data Mining and Learning Analytics*. In Learning Analytics (pp. 61–75). Springer.
5. Romero, C., & Ventura, S. (2010). Educational Data Mining: A Review of the State of the Art. IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics, Part C (Applications and Reviews), 40(6), 601–618.
6. Breiman, L. (2001). Random Forests. Machine Learning, 45(1), 5–32.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI VA IMKONIYATLARI.

Inadullayeva Sevara Qahramonovna
sinadullayeva@gmail.com
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi. +998957998787

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jaroyonida bo‘lajak pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyasidan samarali foydalanishi natijasida SI asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘quv tezligi va qiziqishlarini oshirib borishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, adaptive ta’lim, Khan Academy, Duolingo, Rosetta Stone, masofaviy ta’lim, shaxsiylashtirish.

Zamonaviy sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim sohasida inqilobiy o‘zgarishlar keltirib, an’anaviy ta’lim tashkiliy shakllarini tubdan qayta shakllantirish imkonini bermoqda. SI nafaqat o‘quv jarayonini samaraliroq va moslashuvchan qilishga xizmat qilmoqda, balki pedagoglar va ta’lim oluvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sun’iy intellektning ta’limdagi eng muhim afzalliklaridan biri bu o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, ya’ni har bir ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘quv uslubiga moslashtirilgan ta’lim tajribasini ta’minlashdir[1].

Sun’iy intellekt ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy ta’lim traektoriyalarini yaratish imkonini beradi. SI asosidagi adaptiv ta’lim tizimlari ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘quv tezligi va qiziqishlarini tahlil qilib, ularga mos dasturlar va materiallar taklif qiladi. Masalan, iqtidorli ta’lim oluvchilar uchun qiyinroq vazifalar yoki chuqurroq mavzular taqdim etilsa, orqada qolayotgan talabalar uchun qo‘shimcha tushuntirishlar va mashqlar beriladi. Bu yondashuv har bir ta’lim oluvchining potensialini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Masalan, Khan Academy yoki Duolingo kabi platformalar SI dan foydalanib, ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan mashqlar va darslarni taklif qiladi.

Sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan adaptiv ta’lim tizimlari real vaqt rejimida ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholaydi va ularga mos keladigan o‘quv materiallarini taklif qiladi. Bu tizimlar ta’lim oluvchining xatolarini tahlil qilib, qaysi mavzularda qiyinchiliklar borligini aniqlaydi va shu asosda moslashtirilgan yechimlar ishlab chiqaradi. Masalan, agar ta’lim oluvchi algebra bo‘yicha muayyan masalalarni yechishda qiynalayotgan bo‘lsa, tizim unga shu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha videodarslar yoki amaliy mashqlar taklif qilishi mumkin. Bu jarayon nafaqat ta’lim oluvchining bilim olishini osonlashtiradi, balki pedagogning vaqtini ham tejaydi.

Sun’iy intellekt ayniqsa, turli darajadagi qobiliyatga ega ta’lim oluvchilar bilan ishlashda samarali vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. Iqtidorli talabalar uchun SI murakkabroq va ijodiy vazifalar taklif qilib, ularning intellektual salohiyatini yanada rivojlantiradi. Masalan, SI asosidagi platformalar talabaga fanlararo loyihalar yoki muammolarga asoslangan o‘quv vazifalarini berishi mumkin. Orqada qolayotgan talabalar uchun esa tizim qo‘shimcha tushuntirishlar, vizual materiallar yoki bosqichma-bosqich yo‘riqnomalar orqali o‘quv jarayonini soddalashtiradi. Bu yondashuv guruhdagi har bir ta’lim oluvchining ehtiyojlariga individual yondashish imkonini beradi, bu esa an’anaviy ta’lim usullarida ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Sun’iy intellekt nafaqat ta’lim oluvchilar, balki pedagoglar uchun ham muhim yordamchi sifatida xizmat qilmoqda. SI pedagoglarga dars rejasini tuzish, o‘quv materiallarini tayyorlash, talabalarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilish va hattoki baholash jarayonlarini avtomatlashtirishda yordam beradi. Masalan, SI asosidagi vositalar ta’lim oluvchilarning test natijalarini tezkor tahlil qilib, qaysi mavzular qayta o‘tilishi kerakligini aniqlaydi. Bundan tashqari, pedagoglar chat-botlar yoki virtual yordamchilar orqali ta’lim oluvchilarning savollariga tezkor javob berish yoki qo‘shimcha resurslar taklif qilish imkoniyatiga ega. Bu pedagoglarning ish yukini kamaytirib, ularga

[1] https://www.edweek.org/technology/chatgpt-bard-copilot-khanmigo-what-ai-tools-do-teachers-use/2024/02#:~:text=AI%20experts%20have%20touted%20the,cause%20huge%20data%20privacy%20problems

o‘quv jarayonining ijodiy va strategik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi. SI ning ta’limdagi bir qancha afzalliklari:

- Avtomatlashtirilgan baholash: SI yordamida testlar, insholar va boshqa vazifalarni tezkor va xolis baholash mumkin. Masalan, Grammarly yoki Turnitin kabi vositalar talabalarning yozma ishlarini tahlil qilib, xatolarini aniqlaydi va takliflar beradi.

- Masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash: SI masofaviy ta’limda ta’lim oluvchilarning faolligini monitoring qilish, virtual guruhlarni boshqarish va o‘quv materiallarini taqdim etishda muhim rol o‘ynaydi.

- Til o‘rganishda yordam: Duolingo yoki Rosetta Stone kabi SI asosidagi ilovalar ta’lim oluvchilarga til o‘rganishda shaxsiy yondashuvni ta’minlaydi, ularning talaffuzi va grammatikasini tuzatadi.

- Ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirish: SI gamifikatsiya elementlari orqali o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, masalan, ballar, reytinglar va virtual mukofotlar tizimi orqali ta’lim oluvchilarni rag‘batlantiradi.

SI ning ta’limdagi ulkan salohiyatiga qaramay, bir qator muammolar ham mavjud. Masalan, SI tizimlarining samaradorligi ular ishlatadigan ma’lumotlar sifatiga bog‘liq. Agar ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki bir yoqlama bo‘lsa, tizimning taqdim etadigan yechimlari ham xato bo‘lishi mumkin. Shuningdek, SI ning haddan tashqari ishlatilishi pedagog va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi shaxsiy muloqotni kamaytirishi va ta’limning insoniy jihatlariga putur yetkazishi mumkin. Axborot xavfsizligi va maxfiylik masalasi ham dolzarb bo‘lib, ta’lim oluvchilarning shaxsiy ma’lumotlari himoyasini ta’minlash zarur. Zamonaviy sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim sohasida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni amalga oshirib, an’anaviy ta’lim tashkiliy shakllarini tubdan qayta shakllantirish imkonini bermoqda. SI nafaqat o‘quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilmoqda, balki pedagoglar, ta’lim oluvchilar va ta’lim tizimi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, SI ning ta’limdagi eng muhim afzalliklaridan biri bu o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishdir, ya’ni har bir ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘quv uslubiga mos keladigan ta’lim tajribasini ta’minlashdir. Shu bilan birga, SI pedagoglarga yordamchi vosita sifatida xizmat qilib, dars jarayonini boshqarish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektning ta’limdagi eng muhim yutug‘i bu har bir ta’lim oluvchi uchun shaxsiy ta’lim traektoriyasini yaratish qobiliyatidir. SI ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o‘quv tezligi, qiziqish sohalari va hatto o‘quv uslubini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan o‘quv materiallari, mashqlar va vazifalarni taklif qiladi. Bu shaxsiylashtirilgan yondashuv ta’lim oluvchilarning o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yordam beradi. Masalan, matematikadan zaif natija ko‘rsatayotgan ta’lim oluvchiga SI qo‘shimcha tushuntirishlar va oddiyroq mashqlar taklif qilsa, iqtidorli ta’lim oluvchi uchun murakkab masalalar yoki fanlararo loyihalar taqdim etilishi mumkin. Khan Academy, Coursera yoki Smart Sparrow kabi platformalar SI yordamida shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganiga misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. https://www.edweek.org/technology/chatgpt-bard-copilot-khanmigo-what-ai-tools-do-teachers-use/2024/02#:~:text=AI%20experts%20have%20touted%20the,cause%20huge%20data%20privacy%20problems
2. Abdullayeva Aziza Anvarovna, "Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida axborot kompetensiyasini rivojlantirish", Toshkent, "O‘zbekiston", 69-bet, (145 b.)
3. Mirziyoeva Sayyora Umidovna, "Pedagogik oliy ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uslubiyati", Toshkent, "Pedagog", 67-bet, (212 b.)
4. Sodiqova Shakhnoza Abdujalilovna, "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta’lim sifatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari", Toshkent, TDPU, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, 98-bet, (220 b.)

CASE STUDIES AND BEST PRACTICES OF SERVER VIRTUALIZATION IMPLEMENTATIONS IN DIFFERENT DOMAINS IT

Iskandarova Sayyora[1], Omonov Sanjarbek[2]
[1]Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Tashkent 100200, Uzbekistan; sayyora5@mail.ru

Annotation: This article explores server virtualization implementation through real-world case studies and best practices across diverse domains, including IT, healthcare, finance, education, and retail. It highlights the significant benefits of virtualization, such as cost reduction, improved scalability, enhanced resource utilization, and robust disaster recovery capabilities. The paper examines virtualization solutions like VMware vSphere, Microsoft Hyper-V, and KVM, comparing their performance, integration capabilities, and cost-effectiveness. Key best practices, including strategic planning, compliance with industry regulations, centralized management, and security integration, are discussed to guide successful virtualization deployment in corporate environments.

Keywords: Server Virtualization, VMware vSphere, Microsoft Hyper-V, KVM, Cloud Computing, Resource Optimization, Disaster Recovery, IT Infrastructure, Virtual Machines, Data Center Consolidation, Cost Efficiency, Compliance, Best Practices, Performance Scalability

Introduction

Virtualization has become a foundational technology in the transformation of corporate server infrastructures. By abstracting physical hardware resources into virtual machines (VMs), it allows multiple independent operating systems and applications to run simultaneously on a single physical server. This capability has redefined how enterprises approach server deployment, management, and optimization, offering enhanced flexibility, scalability, and cost-efficiency.

Superintellekt — har tomonlama odamlardan oshib ketadigan sun’iy intellektni rivojlantirishning yakuniy bosqichi. Bunday darajadagi tizimlarning paydo bo‘lishi olimlar inson ongining ishlash tizimini to‘liq o‘rganib, modellashtirganida mumkin bo‘ladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda barcha sohalar singari ta’lim sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan bevosita omil hisoblanadi.

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanish quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda:

1. Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish va o‘quv jarayonini boshqarish uchun sun’iy intellektdan foydalanish. Tizimga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt ilovalari axborot tizimlariga asoslangan oliy ta’limni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ular toifasiga talabalarni o‘qishga qabul qilish, dars jadvalini tuzish, davomat va mustaqil ishlarini monitoring qilish hamda ta’lim sifatini tekshirish kabi vazifalarni kiritish mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘yidagi platformalar orqali o‘quv jarayonini yaxshilashda o‘z imkoniyatlarini namoyish etadi:

ta’lim chatbotlari. Chatbotlar — bu odamlar bilan suhbatni tahlil qilib, javob qaytarish uchun bulutli xizmatlar va sun’iy intellekt usullaridan foydalanadigan onlayn kompyuter dasturi hisoblanadi. Ta’lim dasturlarida tobora ko‘proq chatbotlardan foydalanilmoqda. Foydalanuvchi (o‘quv jarayoni ishtirokchilari) savol yozib yoki gapirganidan so‘ng chatbot javobni ko‘rsatadi, ma’lumot beradi yoki berilgan vazifani bajaradi. Ta’lim chatbotlariga Kanadaning Ada Support kompaniyasiga tegishli “Ada” hamda Avstraliyaning

Deakin davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan “DeakinGenie” platformalari kiradi;

“OUAnalyse” platformasi Buyuk Britaniyaning Open universiteti tomonidan

talabalarning ish faoliyatini bashorat qilish va o‘qishni tashlab ketish xavfi yuqori bo‘lgan talabalarni aniqlash uchun sun’iy intellektga asoslangan ilova hisoblanadi. Ilova universitetning ta’limni boshqarish axborot tizimidagi katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanadi. Ilovaning asosiy maqsadi qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarga o‘qishni yakunlash (tamomlash) imkonini berishdir;

–“Swift” platformasi Hindistondagi SwifteLearningServices kompaniyasi tomonidan ta’limni boshqarish axborot tizimiga elektron ta’lim modulida yaratilgan ma’lumotlardan foydalanishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan usullar to‘plami hisoblanadi. Swift talabalarning o‘zaro munosabatlari orqali to‘plangan ma’lumotlardan talaba qachon va nima uchun o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelishi yoki muvaffaqiyat qozonishi haqida muhim ma’lumot beradi. Swift ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish talabalarning xohish-istaklarini

hisobga olgan holda, individual ta’lim traektoriyalarini yaratishga yordam beradi;

“ALP” platformasi AQSHning ta’lim tizimi standart ta’lim texnologiyalariga yordam berishi uchun sun’iy intellektga asoslangan ichki vosita hisoblanadi. Tizim har bir talabaning ma’lumotlarini tahlil qiladi va ularning o‘zaro munosabatlari, afzalliklari va yutuqlarining psixometrik profilini yaratish uchun ma’lumot to‘playdi;

“UniTime” platformasi AQSHning yirik IT kompaniyalari tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha hisoblanadi. UniTime 9 universitet kurslari va imtihonlar jadvallarini ishlab chiqadigan, talabalarni guruhlarga ajratish hamda talabalarga moslashtirilgan jadvallarni shakllantiruvchi sun’iy intellektga asoslangan ta’limni rejalashtirish tizimidir.

2. O‘rganish va ish faoliyatini baholash uchun sun’iy intellektdan foydalanish. “Ta’limdagi to‘rtinchi inqilob” deb nomlanuvchi sun’iy intellekt sohasi har bir talabaga joylashuvidan qat’i nazar, sifatli, individuallashtirilgan va foydalanish mumkin bo‘lgan umrbod ta’lim (rasmiy va norasmiy ta’lim) olish imkoniyatini taqdim etishga qaratilgan. O‘rganish va ish faoliyatini baholashga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt sohasi quyidagi ishlarni amalga oshirishda ham qo‘llanilishi mumkin:

intellektual ta’lim tizimlari. Intellektual ta’lim tizimlarining vazifasi matematika yoki fizika kabi majburiy fanlar blokida har bir talaba uchun individual bo‘lgan bosqichmabosqich o‘quv mashg‘ulotlarini taqdim etishdan iborat. Tizim mavzu va kognitiv fan tajribasi asosida, shuningdek, individual tarzda talabalarning qiyinchiliklari yoki muvaffaqiyatlariga javob beradigan o‘quv materiallari va auditoriyalar orqali eng yaxshi ta’lim olish traektoriyasini belgilaydi. Mazkur yondashuv ba’zan “Moodle” va “OpenedX” kabi ta’limni boshqarish tizimlarida yoki

“KhanAcademy” kabi platformalarda qo‘llaniladi. Talaba o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanar ekan, tizim qiyinchilik darajasini avtomatik sozlash va har bir talabaning kuchli va zaif tomonlariga ko‘ra maslahatlar yoki tavsiyalar berish uchun bilimlarni kuzatish va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanadi.

interaktiv ta’lim tizimlari. Dialogga asoslangan o‘quv tizimlari ketma-ket onlayn topshiriqlarda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi suhbatni o‘rganish hamda dialogini simulyatsiya

qilish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va boshqa sun’iy intellekt usullaridan foydalanadi. Interaktiv ta’lim tizimlarining aksariyati tadqiqot loyihalari doirasida ishlab chiqilgan.

kognitiv ta’lim muhiti. Kognitiv ta’lim muhitida sun’iy intellektning roli bilimlarni kuzatish algoritmlari va mashinani o‘rganish asosida avtomatlashtirilgan yo‘l-yo‘riq va fikrmulohazalar orqali kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan kognitiv ortiqcha yukni minimallashtirishdan iborat.

avtomatik yozishni baholash. Kompyuterda ishlaydigan talabalarning yozish jarayonida avtomatik fikr bildirish imkoniyatini yaratish uchun tabiiy tilni qayta ishlash va boshqa sun’iy intellekt usullaridan foydalanish lozim.

sun’iy intellekt yordamida tillarni o‘qish va o‘rganish. Cun’iy intellekt texnologiyalari nutqni aniqlash, avtomatik fikr bildirish va talabalarning talaffuzini yaxshilashga yordam berish maqsadida ona tilida so‘zlashuvchilarning namunaviy yozuvlarini solishtiradi.

aqlli robotlar. Sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlaydigan robotlardan foydalanish istiqbollari ta’lim jarayonlari kontekstida, ayniqsa, nogiron yoki o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelgan talabalarni o‘qitish sharoitida juda qo‘l keladi. Jumladan, autizm spektri buzilgan yoki jismoniy imkoniyati cheklangan talaba uchun mexanik o‘zaro ta’sirlarni ta’minlaydigan va nutqni yarata oladigan gumanoid robotlar yaratilgan. Mazkur robotlarning asosiy maqsadi talabalarning muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir;

virtual va kengaytirilgan reallik. Virtual va kengaytirilgan reallik ta’lim kontekstida qo‘llaniladigan ikkita o‘zaro bog‘liq yangilik bo‘lib, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ko‘pincha mashina va sun’iy intellekt usullarini birlashtiradi.

o‘quv tarmog‘i arxitekturasi. Talabalar va o‘qituvchilarning tarmoq guruhlariga ta’lim jarayonida ishtirok etish va o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi vositalar hisoblanadi. O‘quv tarmog‘i arxitekturasi odatda ishtirokchilarning mavjudligi, mavzuning soha va tajribaga qarab tanlanishi hamda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilishi mumkin.

- O‘quv jarayonlarida professoro‘qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun sun’iy intellektdan foydalanish.

sun’iy intellekt yordamida forum muhokamalarini kuzatish. Sun’iy intellekt texnologiyalari onlayn ta’limni qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, professor-o‘qituvchilarga yordam berish yoki turli muhokama forumlarini kuzatishda texnik yordam ko‘rsatish uchun ishlatiladi. – “dual o‘qituvchi” modeli.

sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o‘qituvchi yordamchisi. Ta’kidlanganidek, o‘qituvchilar tomonidan davomatni nazorat qilish, topshiriqlarni baholash va bir xil savollarga takroriy javob berish kabi ko‘p vaqt talab qiladigan ishlardan ozod qilish uchun ko‘plab texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini tatbiq etish ularga quyidagi ustunliklarni taqdim etadi:

Individual ta’lim (Personalized Learning): sun’iy intellekt talabalarning bilim darajasi va salohiyatiga qarab moslashtirilgan o‘quv dasturi va kontentini yaratish orqali individual ta’limni ta’minlashga yordam beradi.

Yuqori samaradorlik (Enhanced Efficiency): sun’iy intellekt texnologiyalari baholash, rejalashtirish va hujjatlarni yuritish kabi ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin.

Intellektual tyutorlik tizimlari (Intelligent Tutoring Systems): sun’iy intellektga asoslangan ta’lim texnologiyalari talabalarning so‘rovlariga darhol javob qaytarishi, taklif va tavsiyalar berishi hamda yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishi mumkin.

Ma’lumotlarga asoslangan tahlil (DataDriven Insights): sun’iy intellekt katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tezkorlik bilan qayta ishlash qobiliyati orqali tahliliy hujjatlarni oson va vaqt yo‘qotmasdan tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanish imkoniyati va inklyuzivlik (Accessibility and Inclusivity): sun’iy intellekt muqobil o‘quv platformalari, moslashuvchan va yordamchi texnologiyalarni taqdim etish orqali nogiron yoki maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan talabalarning ta’lim olish jarayonini yanada osonlashtiradi.

Plagiatni aniqlash (Plagiarism Detection): sun’iy intellektga asoslangan plagiatni aniqlash vositalari professor-o‘qituvchilarga talabalarning ishini ilmiy resurslar va nashr etilgan materiallarning

keng ma’lumotlari bazalari bilan taqqoslash orqali ko‘chirmachilik illatlarini aniqlashda yaqindan yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt talabalarning o‘rganish usullari va ular afzal ko‘rgan o‘quv resurslarini tahlil qilib, tegishli o‘quv materiallarini qo‘shimcha o‘rganish bo‘yicha turli imkoniyatlarni taklif qiladi. Mazkur tizim imtihon jarayonlari davomida talabalarni masofadan turib kuzatadi hamda potentsial firibgarlikning oldini olishga yordam beradi. Sun’iy intellekt talabalarni masofaviy baholaydi hamda akademik halollik va adolatni ta’minlashga ko‘maklashishi mumkin, talabalarning hissiy va ruhiy zo‘riqish holatlarining oldini olishga ko‘maklashadi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan platforma turli xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalar uchun moslashuvchan mashqlar, talaffuz bo‘yicha fikr-mulohazalar va matnga asoslangan til mashg‘ulotlarini taklif qiladi. Sun’iy intellekt akademik qarzdor bo‘lmaslik uchun astoydil intilayotgan talabalarga maqsadli yordam ko‘rsatish orqali talabalarning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. “Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning” edited by Rose Luckin, Wayne Holmes, Tiffany Barnes, and Xiangen Hu (2019).
2. “Artificial Intelligence and the End of Work: The Human Advantage” by Nigel M. de S. Cameron (2022).
3. “AI in Education: Promise and Implications for Teaching and Learning” edited by Tao Zhang and Stephen J.H. Yang (2019).
4. M.Xurramov, K.Xalmuratova Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish. Metodik qo‘llanma – T:, “Etakchi nashriyoti”, 2024, 15-19-betlar.
5. Marasulova Z.A. Incessansy and Continuity Training Informatics and Information Technlogies at school // Eastern Eurorean Scientifis Journal, Germaniya Ausgabe. 2019 №1- B.401-405 ISSN:2199-7977 www.auris-verlag.de
6. Marasulova Z.A. Neprerivnost i preemstvennost v obuchenii informatike v obsheobrazovatelnix shkolax // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system./-Praga, February 20-21, 2019. – B. 22-25 httr://siosfera.som,email:sosiosfera@seznam.sz

ALGORITMLARNI TAHLIL QILISH. XESHLASH ALGORITMI

Muhammadiyev Dilshod Yaxshiboyevich
e-mail: dilshodmukhammadiyev00@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-bosqich talabasi
Absalamova Go‘zal Bo‘riboyevna
e-mail: gozalabsalamova1996@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
”Sun’iy intellekt” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Ko’pincha muammo qanday yechilishini bilish emas, qanday muammoni hal qilish kerakligini aniqlash muhim. Quyidagi maqolada siz bir qancha algoritimlarni qisqacha tahlili bilan tanishasiz hamda ularni ishlash prinsipi nimalardan iborat ekanligini bilib olasiz. Maqolada xeshlash algoritmlarining amaliyotdagi roli va axborot xavfsizligidagi o‘rni haqida xulosa chiqarilgan. Tadqiqot natijalari axborot texnologiyalari, kriptografiya va ma’lumotlar xavfsizligi sohalarida tadbiq etilishi mumkin. Asosiy qismga o’tadigan bo’lsak Xeshlash algoritmi bilan biz malumotlar ishlash strukturasini va xavfsizligini qanchalik darajadasidagi o’rni muhimligini tanishib chiqamiz.

Kalit so’zlar: Algoritmlar, xeshlash algoritmi, xavfsizlik, assotsiativ massivlar, parol xavfsizligi, chiziqli algoritm;

Albatta hammamizga ayon ko’pchilik muammolar aniq shakllantirilmagan bo’ladi. Bazilari esa (masalan, mukammal retsept yaratish va dunyo tinchligini saqlash) kabi kompyuter orqali umuman olganda hal qilib bo’lmaydigan darajada murakkabligini bilamiz. Kompyuter dasturida muammoni hal

qilish ko’plab bosqichlardan iboratdir. Quyidagicha: Muammoni aniqlash, tavsiflash, yechim loyihalash, dasturlash, test qilish, hujjatlashtirish va oxirgi yechimni baholash.

Muammo modeli tayyor bo‘lgach, keyingi qadam — algoritm yaratish. Algoritm bu: Chegaralangan sonli bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichi aniq ma’noga ega, har bir qadam chegaralangan vaqt ichida bajarilishi kerak. Masalan: x := y + z kabi buyruq bu oddiy va bajarilishi mumkin bo‘lgan algoritm qadamidir. Muhimi, algoritm har qanday kirish qiymatida tugashi kerak ya’ni cheksiz siklga (infinite loop) tushmasligi lozim. Ammo, "aniq ma’no" va "chegaralangan vaqt" tushunchalari shaxsga qarab farq qilishi mumkin. Ba’zida bu shartlar bajarilganini matematik isbotlash ham murakkab bo‘ladi. Lekin umumiy qoida sifatida, algoritmni taklif qilayotgan inson uning to‘g‘ri ishlashini isbotlashi kerak.

Biz loyihalar yaratganimizda va tizim ishlash prinsipiga to’xtalganimizda albatta algoritimga yuzlanamiz. Algoritim bu siz qilayotgan loyihaning eng muhim omilidir. Tizim tez va sekin ishlashi, malumotlarni aniq baholashi bunga kichik yaqqol misol bo’ladi. Algoritimni ishlash funksiyasiga qarab bir necha turlarga bo’linadi:

Chiziqli algoritm — barcha ko‘rsatmalari hech qanday shartsiz, faqat ketma-ket bajariladigan jarayonlar.

Tarmoqlanuvchi algoritm — hisoblash jarayoni qandaydir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo‘yicha davom ettiriladigan va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajariladigan jarayonlar.

Takrorlanuvchi algoritm — biron bir shart tekshirilishi yoki qandaydir parametrining har xil qiymatlari asosida algoritmda takrorlanish yuz beradigan jarayonlar.

Aralash (kombinatsiyalashgan) algoritm — tarkibida bir necha turdagi algoritmlar qatnashgan algoritmdir.

Xeshlash yoki xeshlash (ing. hashing) — ixtiyoriy uzunlikdagi kirish ma’lumotlari massivini ma’lum bir algoritm yordamida amalga oshiriladigan belgilangan uzunlikdagi (chiqish) bit qatoriga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Algoritmni amalga oshiradigan va o‘zgartirishni bajaradigan funktsiya hash funktsiyasi yoki konvolyutsiya funktsiyasi deb ataladi. Asl ma’lumotlar kirish massivi deb ataladi, ya’ni “kalit” yoki “xabar” deyiladi. Transformatsiya natijasi (chiqish) esa “hash”, “hash kodi”, “hash summasi”, “xabar xulosasi” kabi nomlar bilan yuritiladi.

Hashing quyidagi hollarda qo‘llaniladi: assotsiativ massivlarni qurishda; bir qator ma’lumotlar to‘plamida dublikatlarni qidirishda; ma’lumotlar to‘plami uchun noyob identifikatorlarni qurishda; ma’lumotlardan (signaldan) nazorat summalarini hisoblashda ma’lumotlarni saqlash va yoki uzatish paytida yuzaga keladigan xatolarni (tasodifiy yoki qasddan kiritilgan) keyinchalik aniqlash uchun; parollarni saqlashda himoya tizimlarida xesh-kod ko‘rinishida (xesh-kod yordamida parolni tiklash uchun ishlatiladigan xesh funktsiyasiga teskari funktsiya talab qilinmaydi); elektron imzoni ishlab chiqishda (amalda ko‘pincha xabarning o‘zi emas, balki uning “xesh tasviri” imzolanadi) va boshqa ko‘plab sohalarda.

Hozirgi kunda bir qancha rivojlangan davlatlarda xeshlash algoritmidan foydalanishni maksimal kamaytirishga harakat qilayotgan bo’lsada, baribir talab yuqori. Buni kamaytirish maqsadi xakkerlar tomonidan tizim malumotlarini buzish osonligidir chunki ko’plab tizimlarni malumotlarini soxta xesh bilan almashtirish orqali vzlom qilayapti.

Xeshlash algoritmlariga misollar:

MD5 (Message Digest 5)
Bu xesh algoritmi 128 bitli (16 bayt) xesh qiymatini hosil qiladi. Tez ishlaydi, ammo hozirgi kunda kriptografik jihatdan zaif hisoblanadi. Faol xavfsizlik tizimlarida tavsiya etilmaydi.

SHA-1 (Secure Hash Algorithm 1)
160 bitli xesh qiymatini beradi. Bir paytlar keng qo‘llanilgan, biroq 2017-yildan boshlab zaifligi aniqlangani sababli ko‘plab tizimlarda undan voz kechilgan. Quyidagi blok sxema bunga misol bo’la oladi:



1-rasm. Algoritm blok sxemasi

SHA-2 (SHA-224, SHA-256, SHA-384, SHA-512)

SHA-1 ning takomillashtirilgan versiyasi. SHA-256 va SHA-512 ayniqsa keng tarqalgan. Yuqori xavfsizlik darajasiga ega va hozirda ko‘plab tizimlarda ishlatiladi (masalan, blokcheyn texnologiyasida SHA-256 ishlatiladi).

SHA-3 (Keccak) SHA-2 algoritmlaridan farqli tamoyil asosida yaratilgan. AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) tomonidan tanlangan. Zamonaviy va xavfsiz variant hisoblanadi.

BLAKE2 SHA-2 dan tezroq ishlaydi va xavfsizlik darajasi yuqori. Ko‘pgina dasturiy ta’minotlarda samaradorligi sababli ishlatiladi.

RIPEMD-160 Yevropalik tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan. SHA-1 bilan o‘xshash uzunlikdagi xesh qiymatini beradi, lekin boshqa algoritmik asosga ega.

Bcrypt Asosan parollarni xavfsiz xeshlash uchun ishlatiladi. Sekin ishlaydi, bu esa parolni kuch bilan topish hujumlariga qarshi yaxshi himoya beradi.

Scrypt Parollarni xeshlash uchun yaratilgan va bcryptga qaraganda resurs (xususan, xotira) ko‘proq talab qiladi. Bu xujumlarga qarshi qo‘shimcha himoya qatlamini yaratadi.



Inputs	Hash Function	Hash Keys
7	=7 % 7	0
16	=16 % 7	2
33	=33 % 7	5
42	=42 % 7	6

2-RASM: MALUMOTLAR TUZILISHINI XESHLASH

Xeshlash algoritmlari zamonaviy axborot texnologiyalarida muhim o‘rin tutadi. Ular ma’lumotlarni qisqartirilgan, o‘zgarmas formatga aylantirish orqali xavfsizlikni ta’minlash,

ma’lumotlarni tekshirish, identifikatsiya qilish va parollarni himoyalash kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Har bir xesh-funktsiya o‘zining maxsus xossalari deterministiklik, tezkorlik, takrorlanmaslik va teskari yo‘nalishda hisoblab bo‘lmaslik kabi talablarni qondirishi lozim. Bugungi kunda SHA-2, SHA-3, bcrypt va scrypt kabi zamonaviy xeshlash algoritmlari yuqori darajadagi xavfsizlikni ta’minlab, ko‘plab axborot tizimlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Xulosa qilib aytganda, xeshlash algoritmlarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash axborot xavfsizligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. Menezes, A., & Conti, M. (2015). *Cryptography: Theory and Practice.*
3. Rivest, R. (1992). *The MD5 Message-Digest Algorithm.* RFC 1321.
4. Katz, J., & Lindell, Y. (2007). *Introduction to Modern Cryptography.* Chapman and Hall/CRC.
5. Schneier, B. (1996). *Applied Cryptography: Protocols, Algorithms, and Source Code in C.* John Wiley & Sons.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ECONOMICS

Najimova Baxtigul Abdilkasim qizi
Karakalpak State University named after Berdakh,
Faculty of economics, marketing major 2nd year student - incomplete high
baxtigulnajimova1@gmail.com +998975004022

Annotation: This thesis explores the multifaceted role of artificial intelligence (AI) in economics, focusing on its impact on business operations, job creation, and skill enhancement. It examines how AI technologies streamline processes and improve efficiency in various industries while also addressing the potential for job displacement due to automation.

Keywords: AI, automation, labor displacement, AI in business, employment, risk.

In contemporary world, the rapid advancement of Artificial Intelligence (AI) has spread in a new era of technological innovation. It is affecting people in many ways namely, various economic fields, job market and our daily life. It transferred our lives into another level by creating new industries with more conveniences, enhancing productivity as well as making our works easier, while also considering the potential challenges for process of automation and labor displacement. AI's influence is becoming increasingly pervasive, raising profound questions about its impact on economic growth and future of work.

Artificial intelligence is the simulation of human intelligence processes by machines, especially computer systems. Examples of AI applications include expert systems, natural language processing (NLP), speech recognition and machine vision.

In general, AI systems work by ingesting large amounts of labeled training data, analyzing that data for correlations and patterns, and using these patterns to make predictions about future states.

AI in Business Operations

This vision, where AI transforms demand forecasting, inventory management, and customer experience personalization from cumbersome tasks into streamlined processes, is not a distant dream but today's reality. AI, extending beyond the confines of Silicon Valley tech giants to businesses of all scales, employs technologies like machine learning and robotic process automation (RPA) to not just automate tasks but also reveal insights previously obscured in data.

This paradigm shift in business operations, powered by AI, not only enhances efficiency and decision-making but also unveils new opportunities and customizes interactions, ushering in a new era of creativity and strategic growth. Explore the transformative power of AI in business, as it propels operations beyond traditional limits to a future brimming with potential.

Job Creation and Skill Enhancement

The advent of Artificial Intelligence (AI) has profoundly affected the landscape of work, necessitating a nuanced examination of its role in job creation and skill enhancement. While AI's capacity to automate tasks and enhance productivity is undeniable, the question of whether it will create or displace jobs remains a critical point of debate.



Infographic: The Tasks AI Should Take Over (According to Workers)

This chart shows the tasks that U.S. workers would like AI to completely take over.

On the one hand, AI is fostering the emergence of new sectors and industries, creating a demand for skilled professionals in areas like data science, AI engineering, and cybersecurity. This transformative impact on the workforce necessitates a re-evaluation of existing skills and the acquisition of new ones. AI's influence extends beyond creating new jobs to enhancing existing ones. By automating repetitive tasks, AI frees up human workers to focus on more complex and creative aspects of their roles, increasing overall productivity. However, this potential for augmentation can also lead to the displacement of certain jobs, particularly those involving routine tasks.

AI Automation and Job Displacement

The Rise of Automation and AI

Automation and AI technologies are revolutionizing industries across the globe. Robots, machine learning algorithms, and intelligent systems are being deployed to streamline processes, improve efficiency, and augment human capabilities. While these technologies offer immense potential for innovation and productivity, they also raise questions about their impact on the labor market.

Job Displacement and Reskilling:

The implementation of automation technologies can lead to job displacement, as certain tasks become automated, rendering some job roles obsolete. However, history has shown that technological advancements also create new opportunities and jobs. To adapt to the changing landscape, individuals and organizations must prioritize reskilling and upskilling efforts. Investing in lifelong learning and acquiring new skills can help workers remain competitive in the evolving job market.

Shifts in Employment Patterns:

Automation tends to have a disproportionate impact on specific sectors and job categories. Routine and repetitive tasks are most susceptible to automation, while jobs requiring creativity, critical thinking, and interpersonal skills are less likely to be automated. This shift in employment patterns emphasizes the importance of developing a diverse skill set that combines technical proficiency with uniquely human abilities.

Although AI automation will bring about significant productivity gains for society as a whole, it will nevertheless spawn winners and losers. Economists usually speak of such labor shocks in the abstract, believing that displaced workers can be retrained and transitioned to other parts of the economy. But the reality is that this transition is long – Keynes once remarked, "In the long run we are all dead" – and some will find that they do not have the requisite skills demanded in the new paradigm. As such, the distributional implications of AI must take priority in policymaking.

This graph provides information about automation risk by job type in percentages:



References

1. adamfard.com
2. Arntz, M., Gregory, T., & Zierahn, U. (2016). "The Risk of Automation for Jobs in OECD Countries: A Comparative Analysis." *OECD Social, Employment and Migration Working Papers.*
3. Bessen, J. E. (2019). "AI and Jobs: The Role of Demand." *NBER Working Paper No. 24235.*
4. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014)
5. Chui, M., Manyika, J., & Miremadi, M. (2016).
6. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). "Artificial Intelligence for the Real World." *Harvard Business Review.*
7. Facebook.com
8. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). "The future of employment: How susceptible are jobs to computerization?" *Technological Forecasting and Social Change,* 114, 254-280.
9. https://t.me/StatistaOfficial
10. Institute for the Future (2017). "Future Work Skills 2020."
11. LinkedIn.com
12. OECD (2019). "Skills Outlook 2019: Thriving in a Digital World."
13. researchgate.net
14. Susskind, R., & Susskind, D. (2015). *The Future of the Professions: How Technology Will Transform the Work of Human Experts.* Harvard University Press
15. Techtarget.com
16. World Economic Forum (2020). "The Future of Jobs Report 2020."

E-COMMERSE PLATFORMALARDAGI TAVSIYA TIZIMLARI

Narziyev Nosir Baxshilloyevich,
TATU ATDT kafedrasi katta o’qituvchisi, narziev@tuit.uz[1]
Isoqov Diyorbek Dilshod o’g’li,
TATU DIF talabasi , isoqovdiyorbek742@gmail.com
Shonazarov Sarvarbek Maqsud o’g’li,
TATU DIF talabasi , sshonazarov938@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron tijorat platformalarida tavsiya tizimlarining roli va ularning foydalanuvchi tajribasini yaxshilashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tavsiya tizimlari foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, mahsulot xususiyatlari va ilgari amalga oshirilgan xaridlar asosida ularni qiziqtiradigan mahsulotlarni taklif qilish orqali savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada tavsiya tizimlarining asosiy turlari — kollaborativ filtering, kontentga asoslangan yondashuv va gibrid modellarga qisqacha sharh beriladi. Shuningdek, tavsiya tizimlarining real hayotdagi samaradorligi, maxfiylik masalalari va O‘zbekiston e-commerce bozorida ularni joriy qilish imkoniyatlari ham muhokama qilinadi. Mazkur maqola tadqiqotchilar, dasturchilar va elektron tijorat sohasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, tavsiya tizimi, foydalanuvchi tajribasi, shaxsiylashtirish, onlayn xarid, platforma samaradorligi, savdo hajmi, mijoz sadoqati, konversiya darajasi, sessiya muddati, kross-sell, up-sell, kollaborativ filtering, foydalanuvchi asosidagi filtering, mahsulot asosidagi filtering, kontentga asoslangan filtering, gibrid yondashuv

Kirish

So‘nggi yillarda elektron tijorat (e-commerce) platformalari kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Foydalanuvchilar internet orqali turli mahsulot va xizmatlarni izlaydi, solishtiradi va xarid qiladi. Bunday raqobat kuchli bo‘lgan bozorda foydalanuvchi e’tiborini jalb qilish va uni saytda ushlab turish muhim ahamiyatga ega. Aynan shu yerda tavsiya tizimlari (recommendation systems) asosiy rolni o‘ynaydi. Tavsiya tizimlari foydalanuvchilarning qiziqishlari, izlash tarixi va xarid odatlariga asoslanib, ularga mos mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish orqali savdo samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda Amazon, Netflix, AliExpress kabi yirik platformalar o‘zlarining tavsiya tizimlari orqali foydalanuvchi tajribasini shaxsiylashtirish va daromadni oshirishga erishmoqda. Ushbu maqolada tavsiya tizimlarining ishlash mexanizmlari, turlari, afzalliklari, real hayotdagi qo‘llanilishi hamda O‘zbekiston elektron tijorat bozoridagi holati tahlil qilinadi.

Tavsiyaning kuchi: E-commerce saytlarda foydalanuvchi tajribasini yaxshilash

Elektron tijorat platformalarida foydalanuvchi sonining ortishi bilan birga mahsulotlar soni ham keskin ko‘paymoqda. Minglab mahsulotlar orasidan keraklisini topish foydalanuvchi uchun vaqt va energiya talab qiladi. Tavsiya tizimlari aynan shu muammoni hal qilishga yordam beradi: ular foydalanuvchining avvalgi harakatlarini, qidiruvlarini, xaridlarini va hatto boshqa foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, unga mos mahsulotlarni taklif etadi. Bu esa foydalanuvchiga qulaylik yaratadi va u bilan platforma o‘rtasida ishonchli aloqani mustahkamlaydi.

Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Oddiy misol – foydalanuvchi saytda mobil telefon izlagan bo‘lsa, tizim unga telefon g‘iloflari, quvvatlagichlar va shu turdagi aksessuarlarni taklif qiladi. Bu esa nafaqat foydalanuvchi ehtiyojiga javob beradi, balki savdo hajmini ham oshiradi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Amazon savdolarining 35% dan ortig‘i tavsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi. Netflix esa foydalanuvchilarning 80% dan ortig‘iga o‘zlarining tavsiya tizimi orqali kontent taklif qiladi. Bunday natijalar shuni ko‘rsatadiki, tavsiya tizimlari foydalanuvchini faol xaridorga aylantirishda kuchli vositadir.

Bundan tashqari, tavsiya tizimlari foydalanuvchining saytdagi vaqtini uzaytiradi, ya’ni “sessiya muddati” ortadi. Ular foydalanuvchiga mos keladigan mahsulotlarni ko‘rsata olgani sababli foydalanuvchi saytda ko‘proq mahsulot ko‘radi, ko‘proq vaqt sarflaydi va xarid qilish ehtimoli ortadi. Bu esa platformaning umumiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tavsiya tizimlari zamonaviy e-commerce saytlar uchun nafaqat texnik qo‘shimcha, balki foydalanuvchi bilan aloqani chuqurlashtiruvchi muhim vositadir. Ular orqali mijozga kerakli mahsulotni to‘g‘ri va o‘z vaqtida taklif qilish mumkin, bu esa mijoz sadoqatini oshiradi va kompaniya uchun yuqori daromad keltiradi.

Tavsiyalar qanday ishlaydi? Algoritmlarning qisqacha tahlili

Tavsiya tizimlari — bu foydalanuvchiga mos mahsulot yoki xizmatni taklif qilishga ixtisoslashgan aqlli tizimlar bo‘lib, ular turli algoritmlardan foydalangan holda ishlaydi. Ushbu tizimlar foydalanuvchining ilgari qilgan harakatlari — masalan, ko‘rgan mahsulotlari, qidiruv so‘zlari, savatga qo‘shgan yoki xarid qilgan buyumlari, reytinglari va izohlariga tayanadi. Shuningdek, mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari (narxi, brendi, toifasi, rangi, va h.k.) va boshqa foydalanuvchilarning xatti-harakatlari ham tavsiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tavsiya tizimlari foydalanuvchiga mos mahsulot yoki xizmatni taklif qilish uchun maxsus algoritmlardan foydalanadi. Ushbu algoritmlar foydalanuvchining xatti-harakatlari, mahsulot xususiyatlari yoki boshqa foydalanuvchilarning tanlovlari asosida ishlaydi.

1-rasm. Tavsiya tizimi va foydalanuvchi aloqasi

Umuman olganda, tavsiya tizimlari quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

Kollaborativ filtering (Collaborative Filtering): Bu usul foydalanuvchilarning o‘xshash xatti-harakatlariga tayanadi. Masalan, agar A va B foydalanuvchilari bir xil mahsulotlarni baholagan bo‘lsa va A boshqa bir mahsulotni yoqtirgan bo‘lsa, tizim B foydalanuvchiga ham shu mahsulotni tavsiya qiladi. Bu algoritm ikki turda bo‘ladi:

Foydalanuvchi asosidagi filtering (User-based): Foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida tavsiya beradi.

Mahsulot asosidagi filtering (Item-based): Mahsulotlar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida tavsiya beradi.



2-rasm. Jamoaviy va kontentga asoslangan tavsiya tizimlari

Kontentga asoslangan filtering (Content-Based Filtering): Bu usul foydalanuvchining ilgari yoqtirgan mahsulotlarining xususiyatlarini o‘rganadi va ularga o‘xshash yangi mahsulotlarni tavsiya qiladi. Masalan, foydalanuvchi ko‘p hollarda qora rangli va sport uslubidagi poyabzallarni xarid qilgan bo‘lsa, tizim yana shunday mahsulotlarni taklif qiladi.

Gibrid yondashuv (Hybrid Approach): Bu yondashuv yuqoridagi ikkita usulni birlashtiradi. Masalan, Netflix kabi platformalarda foydalanuvchining avvalgi tomoshalari (kontentga asoslangan) va boshqa foydalanuvchilarning didi (kollaborativ) birgalikda hisobga olinadi. Gibrid tizimlar yanada aniqroq va moslashtirilgan tavsiyalar bera oladi.

Assotsiativ qoidalar (Association Rules): Bu usul foydalanuvchilar birgalikda xarid qiladigan mahsulotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi. Masalan, agar ko‘pchilik odamlar noutbuk xarid qilganda sichqoncha ham olsa, tizim bu ikki mahsulotni bir-biriga bog‘lab tavsiya qiladi (ya’ni "birgalikda xarid qilinadigan mahsulotlar").

Deep Learning asosidagi tavsiyalar: Zamonaviy yirik platformalarda sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish (deep learning) asosidagi tavsiya tizimlari ishlatilmoqda. Ular murakkab neyron tarmoqlar orqali foydalanuvchining ehtiyojini chuqur tahlil qiladi va ancha ilg‘or tavsiyalar beradi.

Tavsiya tizimlarining biznesga ta’siri

Tavsiya tizimlari zamonaviy e-commerce biznesining yuragi hisoblanadi. Ular nafaqat foydalanuvchi tajribasini shaxsiylashtirish orqali mijozlarni qoniqtiradi, balki kompaniyaning daromadini, mijoz sadoqatini va konversiya darajasini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Quyida tavsiya tizimlarining biznesga eng asosiy ta’sir yo‘llari keltirilgan:

Savdo hajmini oshiradi: Tavsiya tizimlari foydalanuvchiga o‘z ehtiyojlariga yaqin mahsulotlarni taklif qilgani sababli, ularning xarid qilish ehtimoli ortadi. Masalan, foydalanuvchi telefon xarid qilganida, unga zaryadlagich, g‘ilof yoki quloqchin tavsiya qilinadi — bu esa qo‘shimcha savdoga olib keladi. Shu tarzda platforma bir mijozdan ko‘proq daromad oladi (bu “average order value” deb ataladi).

Kross-sell va up-sell imkoniyatlarini yaratadi: Tavsiya tizimlari yordamida biznes foydalanuvchiga qimmatroq (up-sell) yoki bog‘liq boshqa mahsulotlarni (cross-sell) taklif qilishi mumkin. Masalan, foydalanuvchi oddiy printerni ko‘rayotgan bo‘lsa, unga yuqori sifatli printerlar yoki shu printer uchun mos keluvchi siyohlar tavsiya qilinadi. Bu esa har bir tranzaksiyaning qiymatini oshiradi.

Mijoz sadoqatini mustahkamlaydi: Foydalanuvchi o‘zining didi va ehtiyojlariga mos mahsulotlarni doimiy ravishda ko‘rib tursa, u saytdan rozi bo‘ladi va yana qaytib keladi. Shaxsiylashtirilgan tajriba mijoz bilan uzoq muddatli aloqa o‘rnatishda juda muhim. Bu esa marketing xarajatlarini kamaytiradi, chunki yangi mijoz topishdan ko‘ra mavjud mijozni ushlab qolish arzonroq.

Platformadagi mahsulotlar ko‘rinishini yaxshilaydi: Ko‘p hollarda saytga joylangan mahsulotlarning katta qismi hech qachon foydalanuvchilar tomonidan ko‘rilmaydi. Tavsiya tizimlari

foydalanuvchiga yangi va ilgari ko‘rilmagan mahsulotlarni ham taklif qilgan holda ularning "ko‘rinishini" oshiradi va sotilmasdan qoladigan mahsulotlar sonini kamaytiradi.



3-rasm. Amazon.com personalizatsiya tizimi

Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi: Tavsiya tizimlari foydalanuvchilar haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘adi va tahlil qiladi. Bu ma’lumotlar asosida kompaniya mahsulot portfelini, narx siyosatini yoki reklama strategiyasini qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Shuningdek, foydalanuvchi tendensiyalari va bozordagi o‘zgarishlar tezda aniqlanadi.

O‘zbekistondagi e-commerce platformalarda tavsiya tizimlarining holati

O‘zbekiston e-commerce bozori so‘nggi yillarda sezilarli sur’atda rivojlanmoqda. Aholining internetdan foydalanish ko‘rsatkichlarining oshishi, to‘lov tizimlarining raqamlashtirilishi va logistika xizmatlarining takomillashuvi ushbu sohaning kengayishiga olib keldi. Biroq, tavsiya tizimlarining joriy etilishi va samarali ishlashi hali ham cheklangan holatda qolmoqda.

Yetakchi platformalarda tavsiya tizimlarining boshlang‘ich ko‘rinishlari: O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Uzum Market, Texnomart, Goodzone, Asaxiy, Mediapark kabi yirik e-commerce platformalarda ayrim darajadagi tavsiya tizimlari mavjud. Masalan:

"Bu mahsulot bilan birga xarid qilinadi"

"Sizga yoqishi mumkin"

"Ko‘p xarid qilingan mahsulotlar" kabi bloklar mavjud.

Biroq bu tavsiyalar ko‘pincha qoidaga asoslangan (rule-based) yoki statistik usullar bilan yaratilgan bo‘lib, ularning shaxsiylashtirish darajasi cheklangan. Ya’ni foydalanuvchining individual didi va xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilmaydi.

Texnik cheklovlar va raqobatboshi yondashuv: Ko‘pgina lokal kompaniyalar hali to‘liq tavsiya tizimi ishlab chiqish uchun zarur infratuzilma va texnik mutaxassislikka ega emas. Sun’iy intellekt, foydalanuvchi profilingi va real vaqtli ma’lumotlar tahlili uchun katta hajmli ma’lumotlar bazasi, kuchli server resurslari va data science bilimlari talab qilinadi. Aksariyat kompaniyalar esa bunday resurslarga ega emas yoki bu sohaga yetarli e’tibor qaratmaydi.

Foydalanuvchi ma’lumotlaridan foydalanishdagi muammolar: Tavsiya tizimlari foydalanuvchining har bir bosgan tugmasi, ko‘rgan mahsuloti, izlagan kalit so‘zlari va xarid tarixi kabi ma’lumotlarga tayanadi. Ammo ko‘pgina O‘zbekiston platformalarida bu ma’lumotlar tizimli ravishda yig‘ilmaydi yoki yetarlicha tozalanmagan (noisy data) holatda saqlanadi. Bu esa sifatli tavsiya tizimini yaratishga to‘sqinlik qiladi.

Yechimlar sari harakatlar: Shunga qaramay, ayrim platformalar asta-sekin bu yo‘nalishda harakat qilmoqda. Masalan, mobil ilovalarda push-tavsiyalar, foydalanuvchiga yoqadigan toifadagi mahsulotlarni e’tiborga olish, yoki email orqali "siz uchun tanladik" turidagi tavsiyalar yuborish amaliyotga kirib kelmoqda. Bu esa sohaning yaqin yillarda sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlariga o‘tishini ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Tavsiya tizimlari bugungi kunda elektron tijorat platformalarining ajralmas qismiga aylangan. Ular foydalanuvchi tajribasini shaxsiylashtirish orqali konversiyani oshiradi, foydalanuvchini mijozga aylantiradi va brendga sadoqatni mustahkamlaydi. O‘zbekiston e-commerce bozori uchun bu tizimlarni

to‘g‘ri strategiya asosida joriy etish, raqobatbardoshlik va foydalanuvchi ehtiyojini chuqur tushunish imkonini yaratadi.

Kelajakda bu tizimlar sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish yutuqlari bilan yanada takomillashadi va elektron tijoratning asosiy tayanchlaridan biriga aylanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Ricci, F., Rokach, L., & Shapira, B. (2015). *Recommender Systems Handbook* (2nd ed.). Springer.
2. Aggarwal, C. C. (2016). *Recommender Systems: The Textbook*. Springer.
3. Jannach, D., & Adomavicius, G. (2016). Recommendation systems: Challenges, insights, and research opportunities. *ACM Transactions on Intelligent Systems and Technology (TIST)*, 7(1), 1–38.
4. Gómez-Uribe, C. A., & Hunt, N. (2016). The Netflix Recommender System: Algorithms, Business Value, and Innovation. *ACM Transactions on Management Information Systems (TMIS)*, 6(4), 1–19.
5. https://towardsdatascience.com/how-recommendation-systems-work-f2a3c3cdee1d

SIMSIZ SENSOR TARMOQLARIDA REAL VAQTDA MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH

Narziyev Nosir Baxshilloyevich,
TATU ATDT kafedrasi katta o’qituvchisi, narziev@tuit.uz
Eshonqulov Oybek Shuhrat o’g’li,
TATU DIF talabasi , oeshonqulov45@gmail.com

Annotatsiya: Simsiz sensor tarmoqlari (SST) real vaqt rejimida turli sohalarda — sog‘liqni saqlash, ekologik monitoring, sanoat avtomatizatsiyasi kabi yo‘nalishlarda ma’lumot yig‘ish va qayta ishlashning muhim vositasiga aylangan. Biroq, SSTda real vaqtli ma’lumotlarni boshqarish jarayoni energiya, xotira va hisoblash resurslarining cheklanganligi sababli jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada SSTlarda real vaqtli ma’lumotlarni boshqarishning markazlashtirilgan va tarqatilgan yondashuvlari tahlil qilinadi. Vaqt cheklovlari, mantiqiy izchillik va tranzaksiyalarni samarali boshqarish zarurati alohida e’tiborga olinadi. Shuningdek, ma’lumotlarning eskiruvchanligi, sinxronlashtirishdagi murakkabliklar va kechikishga chidamli protokollarning yetishmasligi kabi ochiq muammolar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari SST asosida ishlovchi tizimlar uchun ishonchli, dolzarb va energiya tejamkor real vaqtli ma’lumotlar boshqaruvi algoritmlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Simsiz sensor tarmoqlari, Real vaqtli ma’lumotlar boshqaruvi, Markazlashtirilgan va tarqatilgan yondashuvlar, Vaqt cheklovlari, Tranzaksiya boshqaruvi, Energiya samaradorligi, Sensor ilovalari

Kirish

Real vaqtli ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari - bu an’anaviy real vaqt tizimlari va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari birikmasidan tashkil topgan kompleks yondashuvdir. Ushbu tizimlar bir vaqtning o‘zida ikkala turdagi talablarni bajara olishi kerak: mantiqiy cheklovlar va vaqt cheklovlari. Mantiqiy cheklovlar tizimdagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi, yaxlitligi, izolyatsiyasi va saqlanuvchanligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, vaqt cheklovlari real vaqt ilovalari uchun juda muhim bo‘lib, tranzaksiyalar aniq belgilangan vaqt oralig‘ida bajarilishi lozimligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, real vaqtli ma’lumotlar bazasi nafaqat ishonchli va dolzarb natijalarni taqdim etishi, balki ushbu natijalarni belgilangan vaqt chegaralarida yetkazib berishi ham zarur. Bu turdagi tizimlar odatda favqulodda holatlarga javob beruvchi yoki vaqtga sezgir bo‘lgan sohalarda, masalan, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik, sanoat avtomatizatsiyasi va harbiy tizimlarda keng qo‘llaniladi.

Simsiz sensor tarmoqlarning ma’lumotlarni qanday boshqarish jarayoni.

Simsiz sensor tarmoqlarning ma’lumotlarni qanday boshqarish jarayoni.

Simsiz sensor tarmoqlari (SST) - bu atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish va uzatishga qodir bo‘lgan aqlli qurilmalar to‘plami bo‘lib, ular sensorlar deb ataladi. Ushbu qurilmalar kuzatilayotgan hodisa yoki jarayon haqidagi ma’lumotlarni to‘plab, ularni “sink” (markaziy) tugunga uzatadi. Sink tugun esa to‘plangan ma’lumotlarni Internet orqali foydalanuvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan shlyuzga yetkazadi(1-rasm).



1-rasm.

Foydalanuvchilar, odatda, tarmoqqa so‘rovlar orqali murojaat qiladigan maxsus ilovalar orqali bu ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Ushbu turdagi tarmoqlar, odatda, fizik miqdorlar yoki hodisalarni kuzatish maqsadida keng hududga tarqatilgan katta miqdordagi tugunlardan iborat bo‘ladi. Har bir tugun muayyan darajada “aqlli” hisoblanib, atrof-muhit parametrlarini (harorat, namlik, bosim, akseleratsiya, tovush va h.k.) o‘lchovchi modul, ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, uzatish va energiya bilan ta’minlash imkoniyatiga ega. Biroq, ushbu resurslar, ayniqsa xotira va energiya imkoniyatlari juda cheklangan bo‘ladi va sensor tugunlarning energiya sarfi kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. Sensorlar istalgan joyga o‘rnatilishi mumkinligi tufayli ma’lumotlar har yerda mavjud bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sensor tarmoqlar asosida ishlovchi tizimlar turli sohalarda tobora keng qo‘llanmoqda va turli xil SST turlari vujudga kelmoqda. Ushbu turli xil SST tarmoqlari orqali juda ko‘p ma’lumotlar bazalari bilan bog‘langan ko‘plab real ilovalar ishlab chiqildi. Biroq, ayrim ilovalar uchun ma’lumotni qayta ishlash vaqti nihoyatda muhim bo‘lib qolmoqda. Bunday tizimlarda ma’lumotlar tezda so‘ralishi, tahlil qilinishi va zarur qarorlar tezda qabul qilinishi lozim bo‘ladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan ilovalardan ba’zilari quyidagilardir: tarmoq trafikini boshqarish, tranzaktsiyalar tahlili (web, bank yoki telekommunikatsiya), inson harakatlarini kuzatish, dinamik veb-sahifalardagi faoliyatlarni kuzatish, shahar yoki ekologik hodisalarni monitoring qilish, hamda sensorlar orqali to‘plangan ma’lumotlarni boshqarish. Sensorlar o‘lchovlarni bajargach, ma’lumotni saqlash va so‘rov bilan ishlash muammosi yuzaga keladi. Sensorlar odatda cheklangan xotiraga ega va tarmoqdagi doimiy aloqa va muhit o‘zgarishlari natijasida katta hajmdagi ma’lumotlar to‘planadi. SSTda ma’lumotlarni saqlash va so‘rashga ikki asosiy yondashuv mavjud: tarqatilgan va markazlashtirilgan. Tarqatilgan yondashuvda so‘rovlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sensor tarmog‘ida, lokal tarzda amalga oshiriladi va bu orqali ma’lumot almashinuvi kamaytiriladi, natijada energiyadan samaraliroq foydalaniladi. Markazlashtirilgan yondashuvda esa barcha sensorlar tomonidan yig‘ilgan oqim ma’lumotlar bitta markaziy bazaga yuboriladi va so‘rovlar ana shu serverda bajariladi. Ammo bu usul katta hajmdagi ma’lumot oqimlarini keltirib chiqaradi. SST tomonidan yig‘iladigan ma’lumotlar kuzatilayotgan muhitning joriy holatini aks ettirishi kerak. Ammo muhit doimiy ravishda o‘zgarib boradi va ma’lumotlar aniq vaqt oralig‘ida yig‘iladi. Shu sababli bu ma’lumotlar muayyan vaqt oralig‘ida dolzarb hisoblanadi, vaqt o‘tgan sari ularning aniqligi pasayadi va muhit holatini to‘g‘ri aks ettirish qobiliyati yo‘qoladi. Ilovalar uchun yuboriladigan javoblar mantiqiy va vaqt jihatdan aniqlik talablariga javob berishi zarur. Shu nuqtai nazardan, simsiz sensor tarmoqlarda real vaqtli ma’lumotlar boshqaruvi zarur bo‘lib, bu muammolarni hal qilishga qaratilgan. Real vaqtli boshqaruvning asosiy maqsadi vaqt bo‘yicha izchil va dolzarb ma’lumotlarni taqdim etish, hamda tranzaktsiyalarni real vaqt cheklovlarida qayta ishlashdan iborat. Ushbu maqolada SSTlarda real vaqtli ma’lumotlar boshqaruvi sohasida taklif qilingan eng muhim usullar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu yo‘nalishda mavjud ochiq masalalar muhokama qilinadi va keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar belgilanadi.

Tizimning asosiy xossalari.

Real vaqtli ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida tranzaksiyalar an’anaviy (Atomiklik, Moslashuvchanlik, Izolyatsiya, Bardavomlilik) xossalariga rioya qilishi kerak. Ammo real vaqt rejimida bu xossalar quyidagicha moslashtiriladi:

1) Atomiklik. Tranzaksiya to‘liq bajarilishi yoki umuman bajarilmasligi kerak. Real vaqtli ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida bu xossa butun tranzaksiyaga emas, balki uning subtranzaksiyalariga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, biror muhitga oid ma’lumotni yangilovchi tranzaksiya o‘zining belgilangan vaqt oralig‘ida yakunlanmasa, bajarilgan qismini orqaga qaytarish shart bo‘lmasligi mumkin, chunki avvalgi qiymatlar ham eskirgan bo’ladi.

2) Moslashuvchanlik. Real vaqt rejimida ma’lumotlar to‘liq mos bo‘lmasligi mumkin. Vaqt cheklovlariga rioya qilish maqsadida yaqin natijalar ham qabul qilinadi. Bu usulda real vaqtga yaqin, ammo mukammal bo‘lmagan qiymatlar to‘g‘ri deb baholanadi.

3) Izolyatsiya. Real vaqtli ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida tranzaksiyalar bir-biri bilan ma’lum darajada aloqa qilishi mumkin, ayniqsa boshqaruv funksiyalarini bajarishda.

4) Bardavomlilik. Ma’lumotlar bazasida saqlangan ma’lumotlar doimiy bo‘lishi shart emas. Ular tizim tomonidan yaroqsiz deb topilishi va keyinchalik o‘chirilishi mumkin.

Vaqt cheklovlari va ma’lumotlarning vaqtga bog’liqligi.

Real vaqt tizimlarida ma’lumotlar olingan muhitning hozirgi holatini aks ettirishi lozim. Shu sababli, ushbu tizim strukturasida asosiy atributlar mavjud bo‘lishi kerak. Absolyut amal qilish oralig‘i - ma’lumotlar bazasiga kiritilganidan so‘ng, ularning amalda haqiqiy deb hisoblanadigan vaqt oralig’i. Vaqt yorlig’i - ma’lumot bazasiga kiritilgan aniq vaqtni bildiradi. Aniqlik darajasi - ma’lumotlarning haqiqiy muhitdan qanday darajada og‘ish qilishi mumkinligini ko’rsatadi.

Real vaqtli ma’lumotlarni boshqarishda ochiq muammolar.

Simli va simsiz sensor tarmoqlarida real vaqtli ma’lumotlarni boshqarish tizimi bu real vaqt talablariga ega bo‘lgan ilovalarning ma’lumot saqlash va undan foydalanish ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan barcha texnik, arxitektura va algoritmik resurslar majmuasini anglatadi. Ushbu real vaqtli ilovalar odatiy ilovalardan tubdan farq qiladi, chunki ular aniq natija berish bilan birga, belgilangan vaqt cheklovlariga qat’iy amal qilishni talab qiladi. Ya’ni, real vaqt tizimlari faqatgina to‘g‘ri va aniq ma’lumotlarni taqdim etish bilan cheklanib qolmaydi. Bu ma’lumotlar vaqtida, ya’ni oldindan belgilangan kechikmasdan taqdim etilishi shart. Resurslar va vaqt oralig‘i o‘rtasidagi muvozanat hozirda dolzarb muammolardan biridir, chunki cheklangan energiya va saqlash imkoniyatlariga ega sensor tugunlarida real vaqtli ma’lumotlarni samarali boshqarish katta qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, ma’lumotlarning vaqtinchalik dolzarbligi muammosi ham mavjud sensorlar tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlar atrof-muhitning faqat muayyan vaqtdagi holatini ifodalaydi va vaqt o‘tishi bilan bu ma’lumotlar eskiradi yoki foydasizga aylanadi. Tranzaksiyalarni ustuvorlashtirish va sinxronlashtirish muammolari ham mavjud bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta tugunlarda amalga oshiriladigan jarayonlar o‘zaro to‘qnash kelmasligi va har bir tranzaksiya belgilangan vaqt ichida yakunlanishi zarur. Shuningdek, kechikishlarga chidamli tarmoq protokollarining mavjud emasligi yoki ularning samarasiz ishlashi ma’lumotlarni kech yetkazishga olib keladi, bu esa real vaqtli ilovalar uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Hozircha bu muammolarning ko‘pchiligi to‘liq yechim topmagan va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ochiq yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.Xulosa

Метод главных компонент позволяет эффективно снизить размерность пространства акустических признаков без существенной потери информативности. Первые 6 главных компонент объясняют более 70% общей дисперсии данных, а первые 10 компонент – более 92%.Снижение размерности с помощью PCA позволяет значительно уменьшить вычислительную сложность моделей распознавания эмоций при незначительном снижении точности. Использование 6 главных компонент вместо исходных 13 признаков приводит к снижению точности классификации всего на 8-10% в зависимости от используемого классификатора.

Литература

1. Ramakrishnan S., El Emary I.M.M. Speech emotion recognition approaches in human computer interaction. Telecommunication Systems, 2013, vol. 52, no. 3, pp. 1467-1478.
2. Schuller B., Batliner A. Computational paralinguistics: emotion, affect and personality in speech and language processing. John Wiley & Sons, 2013.
3. El Ayadi M., Kamel M.S., Karray F. Survey on speech emotion recognition: Features, classification schemes, and databases. Pattern Recognition, 2011, vol. 44, no. 3, pp. 572-587.
4. Koolagudi S.G., Rao K.S. Emotion recognition from speech: a review. International Journal of Speech Technology, 2012, vol. 15, no. 2, pp. 99-117.

5. Eyben F., Scherer K.R., Schuller B.W., et al. The Geneva minimalistic acoustic parameter set (GeMAPS) for voice research and affective computing. IEEE Transactions on Affective Computing, 2016, vol. 7, no. 2, pp. 190-202.
6. Bellman R.E. Dynamic Programming. Princeton University Press, 1957.
7. Jolliffe I.T. Principal Component Analysis. Springer Series in Statistics, 2002.
8. Scherer K.R. Vocal communication of emotion: A review of research paradigms. Speech Communication, 2003, vol. 40, no. 1-2, pp. 227-256.
9. Xia Z., Huang L., Deng Z. Speech emotion recognition using dynamic features. IEICE Transactions on Information and Systems, 2016, vol. E99-D, no. 10, pp. 2503-2511.
10. Schuller B., Vlasenko B., Eyben F., et al. Cross-corpus acoustic emotion recognition: Variances and strategies. IEEE Transactions on Affective Computing, 2010, vol. 1, no. 2, pp. 119-131.
11. Abdi H., Williams L.J. Principal component analysis. Wiley Interdisciplinary Reviews: Computational Statistics, 2010, vol. 2, no. 4, pp. 433-459.
12. Vlasenko B., Schuller B., Wendemuth A., Rigoll G. Frame vs. turn-level: emotion recognition from speech considering static and dynamic processing. In: Affective Computing and Intelligent Interaction. Springer, 2007, pp. 139-147.
13. Livingstone S.R., Russo F.A. The Ryerson Audio-Visual Database of Emotional Speech and Song (RAVDESS): A dynamic, multimodal set of facial and vocal expressions in North American English. PLoS ONE, 2018, vol. 13, no. 5, e0196391.
14. Burkhardt F., Paeschke A., Rolfes M., et al. A database of German emotional speech. Proc. Interspeech, 2005, pp. 1517-1520.

EMOTSIONAL INTELLEKT KOMPONENTLARINI BILIMLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH TEXNOLOGIYALARI.

Nurboboyeva Dilshoda Nodirovna
Turon universiteti Psixologiya 2-kurs talabasi
dilshodanurboboyeva70@gmail.com +998971117905

Annotatsiya: Ushbu maqola bilimlar bazasiga emotsional intellekt (EI) komponentlarini integratsiya qilish texnologiyalarini muhokama qiladi. Maqolada qaror qabul qilish va inson-kompyuter o'zaro ta'sirini yaxshilash uchun mashina o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash va semantik texnologiyalarni qo'llashni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt (ei), bilimlar bazasi, mashina o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, semantik texnologiyalar, inson-kompyuter o'zaro ta'siri.

Emotsional intellekt (EI) komponentlarini bilimlar bazasiga integratsiya qilish, sun'iy intellekt (SI) sohasidagi muhim yutuq bo‘lib, inson-kompyuter o‘zaro ta’sirini yaxshilash uchun tizimlarga insonning his-tuyg‘ularini aniqlash, tushunish va ularga javob berish imkoniyatini yaratadi. Bu interdisipliner yondashuv kompyuter fanlari, psixologiya va kognitiv fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, insonning emotsional tushunchalarini simulyatsiya qiluvchi tizimlarni rivojlantirishga qaratilgan.So‘nggi yillarda, EI turli sohalarda muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan xodimlar bilimlarni samarali bo‘lishish va tashkilot o‘rganish jarayonlarini yaxshilashda ko‘proq ishtirok etadilar, bu esa biznes samaradorligini oshiradi Bundan tashqari, 2030 yilga borib ish kuchida emotsional ko‘nikmalarga bo‘lgan talabning 26% ga oshishi kutilmoqda, bu esa EI ning ish joylarida ahamiyatining ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Sun'iy intellektda, affective computing (emotsional hisoblash) texnologiyalari EI ni tizimlarga integratsiya qilishda asosiy yondashuvlardan biri bo‘lib, bu soha insonning his-tuyg‘ularini tanib olish va simulyatsiya qilishni maqsad qilgan tizimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan). Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlar va chuqur o‘rganish (deep learning) hamda multimodal ma'lumotlar tahlili texnologiyalari affective computing imkoniyatlarini yanada rivojlantirib, hissiy holatlarni aniqlashda yanada yuqori aniqlikni ta'minlashga yordam bermoqda Sun'iy intellekt tizimlari kundalik hayotda tobora kengroq

qo‘llanilayotgan bir paytda, bilimlar bazasiga EI komponentlarini integratsiya qilish nafaqat intellektual tizimlarni, balki emotsional jihatdan ham ongli tizimlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu integratsiya, ta'lim, sog‘liqni saqlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda SI ilovalarining samaradorligi va foydalanuvchi qoniqishini yaxshilashda katta imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu tezisda, EI komponentlarini bilimlar bazasiga integratsiya qilish texnologiyalari va metodologiyalari tahlil qilinadi, bu jarayonlarning sun'iy intellekt rivojlanishiga bo‘lgan ta'siri va inson-kompyuter o‘zaro ta’sirlarini transformatsiya qilishdagi potentsial imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Emotsional intellekt (EI) insonning his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, shuningdek, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, EI ish faoliyatining 58% ni tashkil etadi va yuqori EI ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan xodimlar samaradorlikda 20% ga yaxshilanish ko‘rsatadi. Bilimlar bazalariga EI ni integratsiya qilish, tashkilotlarda yanada samarali axborot almashinuvini ta'minlaydi, bu esa umumiy samaradorlikni oshiradi. Affektiv kompyutering texnologiyalari yordamida kompyuter tizimlari insonning his-tuyg‘ularini tanib olish va ularga javob berish imkoniyatiga ega. Masalan, Affectiva kompaniyasining texnologiyalari yuz ifodalari va ovoz tahlili yordamida his-tuyg‘ularni 90% aniqlik bilan aniqlashga imkon beradi. Bu texnologiyalar yordamida, bilimlar bazalariga EI ni integratsiya qilish mumkin, bu esa foydalanuvchilar bilan tabiiy va samarali aloqada bo‘lishga imkon yaratadi.

EI komponentlarini integratsiya qilishda ontologiyalar va semantik tarmoqlar, mashina o‘rganish va natural language processing (NLP) texnologiyalaridan foydalaniladi. Sentiment tahlili vositalari, masalan, VADER, 80-85% aniqlik bilan matnlarni hissiy tahlil qilishga imkon beradi. Multimodal ma'lumotlar tahlili yordamida esa, yuz ifodalari, ovoz va tana holati kabi turli ma'lumotlar birlashtiriladi va insonning hissiy holati yanada aniqroq tahlil qilinadi. Ta'lim, sog‘liqni saqlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohalarida EI ni integratsiya qilish amaliy qo‘llanilmoqda. Misol uchun, ta'limda o‘quvchilarning hissiy holatini tahlil qilib, o‘qish jarayonini shaxsiylashtirish mumkin. Sog‘liqni saqlashda esa, bemorlarning hissiy holatini aniqlash orqali davolash samaradorligini oshirish mumkin. Mijozlarga xizmat ko‘rsatishda, EI asosidagi tizimlar mijozlarning hissiy holatini aniqlash va ularga mos ravishda javob berish orqali mijozlar qoniqishini oshiradi. Kelajakda, sun'iy intellekt va EI komponentlarini integratsiya qilish bo‘yicha talabning 40% ga oshishi kutilmoqda. Bu esa texnologiyalarni yanada rivojlantirishga va inson-kompyuter o‘zaro ta'sirini yangi darajaga olib chiqishga imkon yaratadi. Biroq, madaniyatlararo farqlarni hisobga olish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalalari hal qilinishi kerak. Shunga qaramay, EI tizimlarga integratsiya qilish sohasida kelajakda katta o‘zgarishlar kutilmoqda.

Emotsional intellekt (EI) komponentlarini bilimlar bazasiga integratsiya qilish, yanada javobgar, moslashuvchan va insonga yo‘naltirilgan sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqishdagi muhim qadamdir. EI ning turli sohalarda, masalan, biznes boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va ta'limda ahamiyati ortib borayotgan sari, hissiy ma'lumotlarni qayta ishlash va ularga javob berish imkoniyatiga ega tizimlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora o‘sib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, EI ga e'tibor qaratgan tashkilotlar jamoaviy ishda 20% ga yaxshilanish va umumiy samaradorlikda 15% o‘sishni ko‘rsatgan (Goleman, 1998). Bu, EI ning samarali va hamkorlikka asoslangan muhitlarni yaratishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Affektiv kompyutering, mashina o‘rganish va natural language processing (NLP) kabi texnologiyalar, his-tuyg‘ularni tanib olish va ularga mos javob berishga qodir tizimlar yaratishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Misol uchun, Affectiva kompaniyasi yuz ifodalari va ovoz tahlili orqali his-tuyg‘ularni 90% aniqlik bilan aniqlashga erishgan (Affectiva, 2020), bu texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarining ulkanligini ko‘rsatadi. Bunday tizimlar foydalanuvchilarni shaxsiy va kontekstga mos ravishda taqdim etilgan javoblar bilan ta'minlashga imkon yaratadi, bu esa foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtiradi.

EI ni bilimlar bazalariga integratsiya qilishda ontologiyalar, semantik tarmoqlar va multimodal ma'lumotlar tahlili kabi ilg‘or metodologiyalardan foydalaniladi. Bu yondashuvlar hissiy holatlarni yanada aniqroq tanib olish va prognoz qilish imkonini beradi, bu esa tizimlarga foydalanuvchilarning hissiy holatiga asoslangan shaxsiylashtirilgan aloqalarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarining hissiy ongini yanada rivojlantirish, real dunyo sharoitida ularning qo‘llanilishini kengaytiradi. Masalan, ta'limda, hissiy holatlarni aniqlash orqali o‘quvchilarga

moslashtirilgan o‘qitish metodlarini taklif qilish mumkin, sog‘liqni saqlashda esa bemorlarga shaxsiylashtirilgan yordam taqdim etish mumkin.

Kelajakda, 2030 yilga borib, emotsional intellektga ega tizimlarga bo‘lgan talab 40% ga oshishi kutilmoqda, ayniqsa mijozlarga xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash va ta'lim sohalarida (Forrester Research, 2020). Bu o‘sish, sentiment tahlili va hissiy holatlarni prognoz qilish bo‘yicha AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq, bunday tizimlarni joriy etishda axloqiy masalalar, ayniqsa, maxfiylik, madaniyatlararo sezgirlik va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalalari hal qilinishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, bilimlar bazasiga EI komponentlarini integratsiya qilish, sun'iy intellekt va inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Sun'iy intellekt tizimlari yanada emotsional ongli bo‘lishi bilan, foydalanuvchilarga ko‘proq shaxsiylashtirilgan va samarali tajribalar taqdim etish imkonini beradi. Bu rivojlanish, insonlar va texnologiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va raqamli dunyoni yanada emotsional jihatdan ongli va javobgarlikka ega qilishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Otabekov, S. (2019). *Emotsional intellekt va uning ta'limdagi o‘rni*. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Mustafoeva, N. (2018). *Sun'iy intellekt va emotsional kompyutering: nazariy asoslar va amaliy qo‘llanilishi*. Tashkent: Ilm va texnika nashriyoti.
3. Medvedev, I. I. (2005). *Emotsional'nyy intellekt v uchitel'noy deyatel'nosti*. Moskva: Pedagogika.
4. Kryukov, A. A. (2016). *Sovremennyye tekhnologii v oblasti affektivnogo kompyuteringa*. Moskva: Nauka.

UCH O‘LCHOVLI FRAKTAL ANTENNANING R-FUNKSIYA VA IFS ASOSIDA DIZAYNINI GEOMETRIK MODELLASHTIRISH

Nurimbetov Baxbergen Tolibaevich
baxbergen.n@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur ishda uch o‘lchovli fraktal tuzilishli antennani yaratish uchun Rrachev funksiya usuli va iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) asosida geometrik model taklif qilinadi. Tadqiqotda geometriyaning fraktal xossalari va ularni uch o‘lchovli antennalar dizaynida qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. Fraktal modellar Python dasturida ishlab chiqildi, 3D vizualizatsiyalar va STL formatda eksport qilish imkoniyatlari yaratildi. Fraktal antennaning yuzasi, ichki bo‘shliqlari, miniaturizatsiya darajasi va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar ushbu yondashuvni kichik hajmli, ko‘p chastotali va samaradorlikka ega antennalar dizaynida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Fraktal antennalar, R-funksiya, iteratsion funksiya tizimi, geometrik modellashtirish, 3D model, Python.

Kirish

Fraktal geometriya so‘nggi yillarda yuqori samarali antenna tizimlari dizaynida muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, miniaturizatsiya, ko‘p chastotalik va yuqori yuzaviy samaradorlikka ega antennalarni ishlab chiqishda fraktallar muhim rol o‘ynaydi. Uch o‘lchovli fraktal tuzilmalar yordamida nafaqat antenna sirtini ko‘paytirish, balki ichki bo‘shliqlar orqali elektromagnit to‘lqinlarning qayta taqsimlanishini boshqarish ham mumkin.

Mazkur maqolada R-funksiya va iteratsion funksiya tizimlari asosida uch o‘lchovli fraktal antennaning geometrik modeli va 3D vizualizatsiyasi ishlab chiqiladi.

Metodologiya

R-funksiya yordamida murakkab geometrik shakllarni analitik tarzda tasvirlash mumkin. Bu yondashuv geometrik shakllar ustida mulohazaviy funksiyalar yordamida mintaqalarni birlashtirish,

kesish va ajratishni matematik ifodalash imkonini beradi [1]. Biz R-funksiyani uch o‘lchovli obyektlar chizishda qo‘llashimizdan asosiy maqsad dastlabki shaklni aniq va sifatli chizib olish hisoblanadi. Bu shakl o‘zini-o‘zi takrorlashi natijasida bizga kerakli fractal shakl hosil qilinadi.

R-funksiyaning umumiy ko‘rinishi:

$$R(f,g) = \frac{f \cdot g}{\sqrt{f^2 + g^2}} \tag{1}$$

Bu yerdagi f va g chegaralarni ifodalovchi funktsiyalar.

R-funksiyalarning umumiy konyunksiya (2) va disyunksiya (3) amallari:

$$R(f,g) = \frac{f + g - \sqrt{f^2 + g^2}}{2} \tag{2}$$

$$R(f,g) = \frac{f + g + \sqrt{f^2 + g^2}}{2} \tag{3}$$

IFS - bu bir nechta kichraytiruvchi affin funksiyalardan tashkil topgan tizim bo‘lib, ular yordamida fraktallarni rekursiv qurish mumkin [2]. Har bir iteratsiya yangi geometriya elementini aniqlaydi.

$$F = \bigcup_{i=1}^{N} S_i(F) \tag{4}$$

Bu yerda S_i - har bir affin transformatsiya, F -fraktal obyekt

Ya’ni biz R-funksiya yordamida yaratilgan shaklni IFS dan foydalangan holda scale (ya’ni kichraytirib) qilib va affin transformatsiyasida foydalanib ko‘chishlarni amalga oshiramiz. N kochishlar sonidan keyin fraktal tarifiga javob beradigan, ya’ni ham bir-birini takrorlovchi ham butun jismning o‘ziga o‘xshash kichkina shakllarini takrorlovchi shaklga ega chiqishimiz mumkin [3].

Biz bu tadqiqotimizning obyekti sifatida uch o‘lchovli fraktal tuzilishga ega antennalarni ko‘rib chiqishni maqsad qilganmiz. Fraktal antennalar klassik shakllarga nisbatan ko‘p sirtga, o‘z-o‘zini takrorlovchi geometriyaga va keng chastota diapazoniga ega.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich shakl 3D kub, R-funksiya yordamida ichki bo‘shliqlar yaratish va o‘zaro bog‘lovchi komponentlar [4], IFS orqali fraktal iteratsiyalarni yaratish (2 - 4 daraja), Dasturlash muhiti: Python (NumPy, Matplotlib, trimesh kutubxonalar), Eksport: STL va OBJ formatlar

Kod namunasi:

```
import numpy as np
from trimesh.creation import box
from trimesh.boolean import difference
# Boshlang‘ich kub
cube = box(extents=[1, 1, 1])
# Ichki bo‘shliqlar uchun kichik kubiklar
holes = [box(extents=[0.3, 0.3, 0.3], transform=np.eye(4)) for in range(10)]
model = cube
for h in holes:
    model = difference([model, h])
model.export('fractal_antenna.stl')
```

Mazkur ishimiz natijasida 3D fraktal antennaning ko‘rinishi STL va OBJ formatda saqlanadi. Biz takomillashtirayotgan model va algortimlar natijasida 2-, 3- va 4-iteratsiyalar uchun rasm va kesimlar hosil qila olamiz (1-rasm).



1-rasm. Uch o‘lchovli gilbert fraktalining birinchi va uchinchi iteratsiyalari

Mazkur mavzuning amaliy ahamiyati shundan iboratki hajm kamayishining elektromagnit potensialga ta’siri o‘rganiladi va kelgusi tadqiqotlarimiz uchun maqsad hisobalanadi.

Xulosa

R-funksiyalar va IFS yondashuvi orqali uch o‘lchovli fraktal antennaning modellashtirilishi mumkinligi isbotlandi. Bunday antennalar miniatyura shaklda yuqori sirt ko‘rsatkichiga ega bo‘lib [5], ko‘p chastotali tarmoqlarda ishlash imkonini beradi. Kelgusida bu modelning elektromagnit simulyatsiyasi (CST Studio, HFSS) orqali real parametrlarini aniqlash rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bondarenko B.A. R-functions in geometry and boundary value problems. Naukova Dumka, 1983.
2. Falconer, K. Fractal Geometry: Mathematical Foundations and Applications. Wiley, 2014.
3. Nuraliyev F., Nurimbetov B., Nabiev I. 3d fraktal tuzilishli obyektlarni geometric modellashtirish usullari, Muhammad al-xorazmiy avlodlari ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnali ,2(24)/2023, 242-246 bb.
4. Нуралиев Ф.М., Нарзуллаев О.М., Набиев И.Ш., Нуримбетов Б.Т. «О некоторых методах геометрического моделирования 2D/3D объектов сложной фрактальной структуры», Акустооптические и радиолокационные методы измерений и обработки информации: Труды XVI Международной научно-технической конференции, Суздаль, 9–12 октября 2023 года, 49-55 сс.
5. Baxtiyorov N. “Antenna tizimlari va to‘lqinlar fizikasi.” Samarqand, 2021.

MATNDAN NUTQQA (TTS) VA NUTQDAN MATNGA (STT) O‘TISHDAGI BILIMLARNI IDEF1X MODELI ASOSIDA IFODALASH

Nuritdinov Nurbek Davlataliyevich, nuritdinovnurbek85@gmail.com
“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari”
Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Mazkur tezisda kar-soqovlar uchun muloqotni ta’minlashda nutqdan matnga (STT) va matndan nutqqa (TTS) o‘tish texnologiyalari tahlil qilinadi. Ushbu texnologiyalar o‘zaro bog‘langan bilimlar asosida ishlaydi va bu bilimlarni formal ifodalash uchun IDEF1X modeli qo‘llaniladi. Model yordamida STT va TTS jarayonlaridagi axborot oqimlari, ma’lumotlar ombori va neyron tarmoq modullari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq tasvirlanadi. STT orqali foydalanuvchi nutqi matnga aylantiriladi, TTS orqali esa matn tabiiy tovushli nutqqa o‘zgartiriladi. IDEF1X modeli bu ikki yo‘nalishdagi bilimlarning strukturasi va uzviyligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv kommunikatsiya tizimlarining aniq, moslashuvchan va samarali ishlashini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: STT, TTS, neyron mashinali tarjima, IDEF1X, neyron tarmoq, ma’lumotlar modeli, kar-soqovlar, kommunikatsiya tizimi.

Kirish. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi nutqni qayta ishlash tizimlarining yanada takomillashuviga olib kelmoqda[1]. Ayniqsa, kar-soqovlar uchun kommunikatsiya vositalarini yaratishda nutqdan matnga (STT) va matndan nutqqa (TTS) tizimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni modellashtirishda IDEF1X modeli bilimlar tuzilmasini aniq va samarali ifodalash imkonini beradi.

STT (Speech-to-Text) tizimi inson nutqini real vaqt rejimida matnga aylantirish vazifasini bajaradi. Ushbu tizim neyron tarmoqlar asosida ishlaydi va nutq signallaridan akustik, fonetik va semantik xususiyatlarni ajratib oladi. Ushbu model orqali STT tizimidagi ma’lumotlar oqimini aniq va strukturaviy tarzda ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Entitylar o‘rtasidagi bog‘liqliklar orqali tizimning har bir bosqichi qanday ma’lumotlar almashishini kuzatish mumkin. Taklif etilayotgan IDEF1X modeli quyidagi asosiy obyektlarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi model STT komponentining asosiy ob’yektlari va ularning o‘zaro aloqalarini aks ettiradi (1-rasm).



1- rasm. Neyron STT tizimi uchun IDEF1X model.

TTS (Text-to-Speech) tizimi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnni ovozga aylantirish uchun ishlatiladi. IDEF1X modeli yordamida bu jarayonlardagi ma’lumotlar va ularning uzviy bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Har bir modul ma’lum atributlarga ega bo‘lib, ular orqali tizimni dasturiy jihatdan ham samarali modellashtirish mumkin bo‘ladi. TTS moduli quyidagi ma’lumotlar strukturasi asosida modellashtirilgan (2-rasm).



2- rasm. Neyron TTS tizimi uchun IDEF1X model.

IDEF1X modeli tavsifi

IDEF1X modelining asosiy maqsadi. IDEF1X modeli yordamida ma’lumotlar bazasidagi ob’ektlar (entity), ularning atributlari (attribute) va ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar (relationship) o‘rtasidagi strukturaviy munosabatlar grafik ko‘rinishda ifodalanadi. Bu model ma’lumotlarni integratsiyalash, normallashtirish, va qarorlar qabul qilish bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi [1, 4].

Quyida IDEF1X modelining asosiy komponentlari:

Entity (Ob’ekt) – Mustaqil mavjud bo‘lgan ma’lumotlar sinfi (masalan: Foydalanuvchi, Audio, Tarjima).

Attribute (Atribut) – Entityga tegishli xususiyatlar (masalan: FoydalanuvchiID, Ism, OvozFormat).

Key (Kalit) – Har bir obyektni noyob aniqlovchi atributlar (Primary Key, Foreign Key).

Relationship (Bog‘liqlik) – Entitylar o‘rtasidagi semantik aloqa [3].

Identifying Relationship — asosiy kalit orqali bog‘liq bo‘lgan holat.

Non-identifying Relationship — begona kalit orqali bog‘liq, lekin ixtiyoriy aloqalar.

Subtype / Supertype – Ob’ektlar o‘rtasida ierarxik (merosiy) bog‘lanishlarni aks ettirish.

Domains – Atribut qiymatlari uchun ruxsat etilgan qiymatlar to‘plami [2, 5].

IDEF1X modelining afzalliklari:

Katta va murakkab ma’lumotlar tuzilmalarini tushunarli qilib ifodalaydi [2].

Ma’lumotlar bazasini loyihalash va normallashtirishda yordam beradi [3, 4].

Tizim arxitekturasi va modul o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ko‘rsatish uchun juda mos.

Tizimlararo integratsiyani osonlashtiradi [1].

STT, TTS va MT tizimlarida IDEF1X qo‘llanilishi. Tadqiqotda neyron modelga asoslangan STT, TTS[7] va neyron mashinali tarjima tizimlari uchun yaratilgan IDEF1X modellari[6] har bir tizim komponentining qanday atributlarga ega ekanligi, qanday ma’lumotlar oqimi yuz berishini va qaysi

komponentlar o‘zaro bog‘langanini aks ettiradi. Bu modellar umumiy arxitekturani yaxshiroq tushunish, tizimlararo interfeyslarni loyihalash va ma’lumotlar almashinuvini optimallashtirish uchun zarurdir [1, 4]

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida kar-soqovlar uchun muloqotni ta’minlashda nutqdan matnga (STT) va matndan nutqqa (TTS) o‘tish texnologiyalarining uzviy integratsiyasi muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi. IDEF1X modeli yordamida bu jarayonlarda ishtirok etuvchi bilimlar, ma’lumotlar bazasi strukturalari va neyron tarmoqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq ifodalandi. Model asosida tizimning komponentlari o‘zaro qanday ishlashini tasvirlash va optimallashtirish imkoniyati yuzaga chiqdi. STT va TTS tizimlarining ketma-ket va teskari ishlashini modellashtirish, ayniqsa, kar-soqov foydalanuvchilar bilan real vaqtda samarali aloqa tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi. Mazkur yondashuv, bilimlarni formal tasvirlash orqali, kommunikatsiya tizimlarining funksional to‘liqligi va moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelgusida ko‘p tilli interfeyslar, avtomatik tarjima va multimodal muloqot tizimlarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. N.S.Mamatov, X.T.Dusanov, IDEF va UML bilan birgalangan ishlab chiqarish vazifalarini modellashtirish, Toshkent-2023.
2. National Institute of Standards and Technology (NIST). (1993). *IDEF1X Integration Definition for Information Modeling*. Federal Information Processing Standards Publication 184 (FIPS PUB 184).
3. Bruce, T. (1992). *Designing Quality Databases with IDEF1X Information Models*. Dorset House Publishing.
4. Merson, P. (2010). *Data Modeling with IDEF1X*. Carnegie Mellon University Software Engineering Institute.
5. Whitten, J. L., Bentley, L. D., & Dittman, K. C. (2004). *Systems Analysis and Design Methods*. McGraw-Hill.
6. Batini, C., Ceri, S., & Navathe, S. B. (1992). *Conceptual Database Design: An Entity-relationship Approach*. Benjamin/Cummings Publishing.
7. Shen, J. et al. (2018). *Natural TTS synthesis by conditioning WaveNet on Mel spectrogram predictions*. arXiv:1712.05884.

DIKTOR SHAXSINI TANIB OLISH TIZIMLARINING ZAMONAVIY HOLATI

O‘rinboyev Johongir Kalbay o‘g‘li
Tayanch doktorant, Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ITI
jahongir8010@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda diktor shaxsini tanib olish tizimlarining zamonaviy holati, arxitekturasi, ishlash prinsiplari, hamda ularda qo‘llanilayotgan klassik va zamonaviy texnologiyalar tahlil qilinadi. MFCC, i-vector, x-vector, PLDA kabi an’anaviy usullar bilan birga CNN, LSTM, Transformer, wav2vec 2.0 kabi chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlar keng yoritilgan. Sun’iy intellekt va self-supervised learning texnologiyalarining bu tizimlardagi o‘rni, ularning kam resursli tillarda va shovqinli muhitda ishlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, diktor identifikatsiyasining bank, xavfsizlik, tibbiyot, ta’lim va media sohalaridagi amaliy qo‘llanilishi haqida ham batafsil ma’lumot beriladi. Maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Diktorni tanib olish, shaxsni identifikatsiya qilish, biometrik autentifikatsiya, MFCC, i-vector, x-vector, PLDA, chuqur o‘qitish, sun’iy intellekt, self-supervised learning, wav2vec 2.0, transformer, ovozli biometrika.

Kirish

So‘nggi yillarda biometrik texnologiyalar rivojlanishi bilan shaxsni identifikatsiya qilishning yangi usullari keng qo‘llanilmoqda. Ular orasida diktor (nutq egasi) shaxsini tanib olish tizimlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Diktor identifikatsiyasi – bu inson ovozidan foydalanib, uning shaxsini avtomatik tarzda tanib olish jarayonidir. Ushbu texnologiya xavfsizlik, aloqa, tibbiyot, kriminalistika va sun’iy intellekt sohalarida keng tatbiq etilmoqda. Diktorni tanib olish tizimlari boshqa biometrik usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: foydalanuvchidan jismoniy harakatni talab qilmaydi, uzoqdan tanib olish imkonini beradi va tabiiy nutq orqali amalga oshiriladi. Biroq, ushbu tizimlar shovqinli muhit, diktorning holati (stress, kasallik) va ma’lumotlar yetishmovchiligi kabi omillarga bog‘liq [1].

Bugungi kunda diktorni tanib olishda ishlatilayotgan usullar klassik statistik modellardan tortib chuqur o‘qitish (deep learning) texnologiyalari ham rivojlangan. MFCC, i-vector, x-vector, PLDA kabi texnologiyalar, shuningdek, Convolutional Neural Networks (CNN), Long Short-Term Memory (LSTM), Transformer va self-supervised learning asosidagi modelalar zamonaviy tizimlarning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu ishda diktor shaxsini tanib olish tizimlarining arxitekturasi, ishlash prinsiplari, zamonaviy texnologiyalar, muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Diktor shaxsini tanib olish tizimlarining arxitekturasi

Diktor shaxsini tanib olish tizimlari bir nechta bosqichli arxitekturaga asoslanadi. Bu tizimlar, odatda, audio signalni yozib olish, uni oldindan qayta ishlash, nutqdan belgilarni ajratib olish, ularni modellashtirish va yakunda shaxsni tanib olish kabi ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘ladi. Har bir bosqich umumiy tizimning aniqligi va barqaror ishlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tizim ishining birinchi bosqichi bu – nutq signalini yozib olishdir. Mikrofondan yoki boshqa qurilmadan olingan analog nutq signali raqamli shaklga o‘tkaziladi. Odatda, signal 8 kHz, 16 kHz yoki undan yuqori diskretlash chastotasida yoziladi. Signal sifatining yuqoriligi tizimning keyingi bosqichlarida yuqori natijalar olishga imkon beradi [2].

Keyingi muhim bosqich – oldingi ishlov berish (preprocessing) bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda turli texnikalar yordamida signal shovqinlardan tozalanadi, normalizatsiya qilinadi va nutqli qismlar ajratib olinadi. Masalan, Voice Activity Detection (VAD) algoritmlari yordamida nutqsiz segmentlar chiqarib tashlanadi, fon shovqini esa spektral usullar yordamida kamaytiriladi.

Raqamli filtrlar yordamida yuqori va past chastotali belgilar ajratiladi:

$$y[n] = \sum_{\mathrm{k}=0}^{M} b_{\mathrm{k}}\, x[n-k] - \sum_{l=1}^{N} a_l\, y[n-l]$$

bu yerda $y[n]$ – chiqish signal, $x[n]$ – kirish signal, b_{k}, a_l – filter koeffitsientlari.

Signal tayyor bo‘lgach, undan belgilar ajratiladi. Belgilar – bu signalning diktorga xos belgilarini ifodalaydigan sonli ko‘rsatkichlardir. Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar qatoriga MFCC (Mel-Frequency Cepstral Coefficients), PLP (Perceptual Linear Prediction), LPCC (Linear Predictive Cepstral Coefficients), prosodik belgilar (ohang, tezlik, pauza) hamda zamonaviy spektral va wavelet asosidagi belgilar kiradi. Ayniqsa MFCC belgilar nutqdagi fonemal va akustik belgilarni yaxshi ifodalaydi [3]. Quyida MFCC yordamida hisoblash bosqichlari ko‘rib chiqamiz:

Signalga avval Hamming oynasi qo‘llaniladi:

$$x_{\mathrm{w}}[n] = x[n] \cdot (0{,}54 - 0{,}46\cos(\frac{2\pi n}{N-1}))$$

Shundan so‘ng Diskret Furie almashtirish (DFT)

$$X[k] = \sum_{n=0}^{N-1} x_{\mathrm{w}}[n] e^{-\mathrm{j}2\pi \mathrm{k} n/N}$$

Mel filtrlar orqali spektral quvvat olinadi va logarifmlanadi [4]. Diskret kosininus almashtirish (DCT) yordamida MFCC koeffitsiyentlari olinadi:

$$c_n = \sum_{\mathrm{k}}^{K} \log(S_{\mathrm{k}}) \cos[n(k-\tfrac{1}{2})\pi]$$

$$\sum_{k=1}^{2K}$$

Ajratilgan belgilar asosida har bir diktor uchun model quriladi. Bu model, odatda, GMM (Gaussian Mixture Model), UBM (Universal Background Model), i-vector yoki zamonaviy DNN asosidagi x-vector kabi usullar yordamida yaratiladi. Quyida GMM hamda i-vector va PLDA modelini ko‘rib chiqamiz:

GMM (Gaussian Mixture Model)

$$p(x|\lambda) = \sum_{i=1}^{M} w_i \mathcal{N}(x|\mu_i, \Sigma_i)$$

bu yerda x – belgi vektori, w_i – i-chi komponent og‘irligi, μ_i, Σ_i– i-chi komponentning o‘rtacha qiymati va kovariatsiya matritsasi, λ – model parametrlari to‘plami hisoblanadi.

i-vector va PLDA (Probabilistic Liner Discriminant Analysis) modelida har bir i- vector w bilan ifodalanadi:

$$M = m + Tw$$

bu yerda M – diktor supervoktori, m – umumiy model, T – transformatsiya matrikasi.

PLDA yordamida diktorlararo farqlarni modellashtirish:

$$w = \mu + Vy + \epsilon$$

bu yerda μ – umumiy o‘rtacha vektor, V – diktor fazosini ifodalovchi matritsa, y – diktor identifikatori, ϵ – fonetik va boshqa tasodifiy komponentlar[5].

Oxirgi bosqichda esa kiritilgan yangi signal belgilar ko‘rinishida avvaldan saqlangan modellar bilan taqqoslanadi va qaror qabul qilinadi. Bu bosqichda tasniflash yoki verifikatsiya amalga oshiriladi: ya’ni “Bu kim?” yoki “Bu shaxs aytilgan odammi?” degan savollarga javob beriladi. Qaror qabul qilishda PLDA (Probabilistic Linear Discriminant Analysis), cosine similarity yoki neyron tarmoq asosidagi taqqoslash usullari qo‘llaniladi. Test audiosi berilgan diktor modeliga mos keladimi-yo‘qmi degan savollarga javob beriladi [6].

Cosine similarity: $score(x, y) = \frac{x \cdot y}{\|x\| \cdot \|y\|}$

PLDA ehtimollik nisbati: $LLR = \log \frac{p(x,y|H1)}{p(x,y|H0)}$

bu yerda H_1 –bir diktorga tegishli gipoteza, H_0 – har xil diktorlarga tegishli gipoteza.

Sun’iy intellekt asosida rivojlanayotgan yondashuvlar.

Diktor shaxsini tanib olish tizimlari so‘nggi yillarda sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalari rivojiga bevosita bog‘liq holda sezilarli taraqqiyotga erishdi. Ayniqsa, chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlar bu sohada yangi imkoniyatlar yaratdi. x-vector tizimlari chuqur neyron tarmoq yordamida diktor ovozining murakkab akustik belgilarini o‘rganadi va bu signalni ixcham, barqaror vektor ko‘rinishida ifodalaydi. Bu yondashuv qisqa nutq segmentlarida ham yuqori aniqlikni ta’minlaydi va ko‘p hollarda klassik i-vector modelalaridan ustun bo‘lib chiqadi. X-vector tizimlari yirik korpuslar asosida o‘qitilgan universal embedding modellarini yaratishga imkon beradi, bu esa real vaqtda ishlovchi tizimlar uchun muhim ahamiyatga ega [7].

Transformator arxitekturasiga asoslangan modelalar, ayniqsa wav2vec 2.0, HuBERT, va Data2Vec singari modellar, ovoz signalidan kontekstual embeddinglarni self-supervised o‘rganish orqali ajratib olishga imkon beradi. Ushbu yondashuvlar annotatsiyalangan (belgilangan) ma’lumotlarga ehtiyojni kamaytiradi va kam resursli tillar uchun ham sifatli model yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu modellar ko‘plab nutqga oid topshiriqlar – tanib olish, transkripsiya, segmentatsiya va til identifikatsiyasi uchun bir xil bazaviy modeldan foydalanishga yo‘l ochadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuningdek multitask learning, domain adaptation va adversarial training kabi usullarning diktorni tanib olish tizimlariga integratsiyasini o‘rganmoqda. Multitask learning orqali model bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani bajarishni o‘rganadi (masalan, diktorni va tilni birga tanib olish), bu esa umumlashtirish qobiliyatini oshiradi. Domain adaptation esa bir domen (masalan, telefon yozuvi)da o‘qitilgan modelni boshqa domen (masalan, studiya yozuvi)ga moslashtirish imkonini beradi [8].

Zamonaviy ilmiy ishlanmalarda ko‘proq end-to-end (boshdan oxirigacha) tizimlarga o‘tish tendensiyasi mavjud. Ya’ni, belgilar ajratish, modellashtirish va taqqoslash bosqichlari alohida-alohida emas, balki bitta yirik neyron tarmoq ichida birlashtiriladi. Bu esa tizim soddalashuviga, optimallashtirish imkoniyatlarining ortishiga va aniqlikning oshishiga olib keladi. So‘nggi

yangiliklardan yana biri – ovozga asoslangan ko‘p modalli (multimodal) identifikatsiya tizimlaridir. Bunda nutq signali bilan birga yuz tasviri, og‘iz harakati yoki tekst ma’lumotlari ham integratsiya qilinadi. Bu yondashuvlar ayniqsa xavfsizlik va autentifikatsiya tizimlarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Diktorni tanib olish texnologiyalarining amaliy tatbiqlari

Diktor shaxsini tanib olish texnologiyalari bugungi kunda turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Ularning asosiy ustunligi – tabiiy nutq orqali shaxsni tanib olish imkoniyatidir. Bu texnologiya maxfiylik, qulaylik va xavfsizlikni birlashtirgan holda autentifikatsiya, identifikatsiya, monitoring va arxivlash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham bu tizimlar bank, xavfsizlik, huquqni muhofaza qilish, sog‘liqni saqlash, ta’lim va telekommunikatsiya sohalarida tobora keng tarqalmoqda. Bank va moliyaviy muassasalarda diktorni tanib olish tizimlari ovozli autentifikatsiya uchun ishlatiladi. Foydalanuvchi telefon orqali shaxsini tasdiqlaganida, uning ovozi avtomatik tarzda aniqlanadi va parol kiritish yoki boshqa qiyin jarayonlarga ehtiyoj qolmaydi. Bu nafaqat foydalanuvchi qulayligi, balki firibgarlik va ruxsatsiz kirish holatlarining oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi [9].

Huquq-tartibot organlarida bu texnologiya jinoyat tergovlari davomida noma’lum diktorlarni tanib olish, audio materiallarni ekspertiza qilish va shubhali shaxslarni kuzatish uchun ishlatiladi. Masalan, telefon yozuvlarida qatnashgan shaxslarni identifikatsiya qilish orqali jinoyatchilikni ochish jarayonlari soddalashadi. Ba’zi ilg‘or tizimlar sud jarayonlarida ham ekspert xulosa sifatida ishlatilmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasida esa diktorni tanib olish texnologiyasi nevrologik kasalliklar (masalan, Parkinson, Altsgeymer) yoki ruhiy holatlarni aniqlash uchun ishlatilmoqda. Bunda shaxsning nutqidagi fonetik va prosodik belgilar orqali sog‘lig‘idagi o‘zgarishlar baholanadi. Bu usul invaziv bo‘lmagan, tabiiy kuzatuvga asoslangan tibbiy tashxis yo‘li sifatida katta istiqbolga ega [10].

Ta’lim sohasida esa diktorni tanib olish tizimlari onlayn imtihon va masofaviy darslarda shaxsni tanib olish, ovozli topshiriqlarni monitoring qilish hamda nutq terapiyasi jarayonlarida foydalaniladi. Bu orqali masofaviy ta’limda shaffoflik, ishtirok monitoringi va baholash tizimining aniqligi oshiriladi. Telekommunikatsiya va mobil texnologiyalarda esa foydalanuvchi ovoziga mos shaxsiy yordamchilar, avtomatik operatorlar, ovozli kirish tizimlari shaklida tatbiq qilinmoqda. Ayniqsa, ko‘zi ojiz yoki jismoniy imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar uchun ovoz orqali identifikatsiya qilish imkoniyati sezilarli qulaylik yaratadi. Diktorni tanib olish tizimlari multimedia va arxiv sohalarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Radio, televideniye va podkast arxivlarini avtomatik indeksatsiya qilish, ma’lum bir diktor ovozini topish va tartiblash orqali katta hajmdagi audio fayllar bilan ishlash soddalashadi.

Xulosa

Diktor shaxsini tanib olish tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, turli sohalarda xavfsizlik, qulaylik va avtomatlashtirish darajasini sezilarli oshirmoqda. So‘nggi yillarda chuqur o‘qitish, embedding texnologiyalari va transformer arxitekturalarining rivojlanishi bu tizimlarning aniqligi, barqarorligi va moslashuvchanligini keskin yaxshiladi.

Shu bilan birga, ba’zi muammolar ham mavjud: kam resursli tillar uchun ma’lumotlar yetishmasligi, modellarni eksplaina qilish qiyinligi, shaxsiy hayotni himoya qilish muammolari va yolg‘on identifikatsiyalarning oldini olish kabi masalalar tizimlarning ishonchliligi va xavfsizligini doimiy ravishda nazorat qilishni talab qiladi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar aynan ana shu muammolarga yechim topishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Niyozmatova N.A., Samijonov A.N., Yuldoshev Yu.Sh., Allanov N.M., Ismailova A.S. Nutq signallari belgilarini ajratib olish usullari // Informatika va energetika muammolari. №1 2019, B. 80-90.
2. Радзишевский А.Ю. Основы аналогового и цифрового звука // А.Ю.Радзишевский // Москва: Издательский дом «Вильямс», 2016. – 288 с.
3. M. Lindasalwa, B. Mumtaj va Elamvazuthi , «Mel chastotasi Cepstral koeffitsienti (MFCC) va DTW texnikasi yordamida ovozni tanib olish algoritmlari» Hisoblash jurnali, 2-jild, 3-son, 2010 yil.

4. KF Li, «SPHINX nutqni tanib olish tizimining umumiy ko‘rinishi», Proc ICASSP, 38, 600-610-betlar, 1990 yil
5. F. Sadaoki, «Nutq va ma’ruzachilarni tanib olish bo‘yicha tadqiqotlardagi 50 yillik taraqqiyot «, ECTI Transactions on Computer and Information Technology, Vol. 1. No2, 2005 yil noyabr.
6. Фант Г. Акустическая теория речеобразования / пер. с англ. Л.А. Варшавского и В.И. Медведева ; под ред. В.С. Григорьева. – М.: Наука, 1964. – 284 с.
7. H. Beigi. Fundamentals of speaker recognition. Springer US, 2011.
8. D. Garcia-Romero and A. McCree. Insights into deep neural networks for speaker recognition. In Sixteenth Annual Conference of the International Speech Communication Association, 2015.
9. Santhosh Umesh, Leon Cohen, Douglas J. Nelson, Fitting the Mel scale, Conference: Acoustics, Speech, and Signal Processing, 1999. Proceedings., 1999 IEEE International Conference onVolume: 1.
10. Gupta, H., & Gupta, D. (2016). LPC and LPCC method of feature extraction in Speech Recognition System. 2016 6th International Conference - Cloud System and Big Data Engineering (Confluence). doi:10.1109/confluence.2016.7508.

FIZIK JARAYONLARNI SIMULYATSIYA VA MODELLASHTIRISHDA AXBOROT TIZIMLARI O‘RNI

Ochilova Ozoda Odilovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti dotsenti
E-mail oochilova@mail.ru
Tel: +998998451074
Haydarov Kamoliddin Baratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: haydarovk378@gmail.com
Tel: +998959092284
Umarova Zulfiyaxon Xusniddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail: umarovazulfiyaxon7@gmail.com
Tel: +998951342907

Annotasiya. Simulyatsiya va modellashtirishning fizik jarayonlarni o‘rganishdagi ahamiyatini, axborot tizimlarining bu jarayonlardagi rolini tushuntirishga qaratilgan. Maqolada modellashtirish va simulyatsiyaning asosiy tushunchalari, ularning matematik va raqamli vositalar yordamida fizik tizimlarning xatti-harakatlarini tasvirlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Axborot tizimlari orqali simulyatsiya jarayonlari samarali va xavfsiz tarzda amalga oshirilishi, turli fizik jarayonlar (masalan, mexanika, termodinamika, fluiddinamika) modelining aniq va ishonchli natijalar berishi ta’kidlanadi. Maqolada simulyatsiya va modellashtirishning ilmiy tadqiqotlar va amaliyotdagi afzalliklari, shuningdek, bu usullarning ijtimoiy va sanoat sohalaridagi qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilgan. Zamanoviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt va mashina o‘rganish, simulyatsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatilgan. Maqola fizik jarayonlarni raqamli usulda o‘rganish va simulyatsiya qilishning afzalliklarini va uning kelajakdagi rivojlanish yo‘llarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Simulyatsiya, modellashtirish, raqamli modellar, matematik modellashtirish, fizik tizimlar, mashina o‘rganish, termodinamik jarayonlar.

Kirish: Fizik jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish insoniyat uchun doimo muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masaladir. Bunga erishish uchun ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan birga, simulyatsiya va modellashtirish metodlari keng qo‘llanila boshladi. Simulyatsiya – bu real tizimlarning xatti-harakatlarini raqamli yoki matematik model yordamida taqlid qilish, modellashtirish esa bu tizimlarning asosiy qonuniyatlarini matematik shaklda ifodalash jarayonidir. Ushbu jarayonlar ilmiy tadqiqotlar, sanoat dizayni, muhandislik, ekologiya va boshqa ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda simulatsiya va modellashtirish sohasida so‘nggi yillarda bir qator innovatsion tashabbuslar va ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar iqtisodiyot, muhandislik, transport, tibbiyot va boshqa sohalarda samarali va tejamkor tizimlarni yaratishga yordam bermoqda. Quyida O‘zbekistonda bu sohada olib borilgan ba’zi asosiy ishlar haqida gapirib o‘tamiz:

Masalan, kompyuter simulyatsiyasi va modellash uchun zamonaviy dasturiy ta’minot va vositalar bilan ta’minlangan laboratoriyalarni yaratish ustida ishlamoqda. O‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun real tizimlarni simulyatsiya qilish imkoniyatlari taqdim etiladi, bu esa ularga o‘z bilimlarini amaliyotga tadbiq etish imkonini beradi.

Iqtisodiy Modellashtirish va Simulyatsiya

O‘zbekistonda iqtisodiyot va moliya tizimlarini o‘rganish va prognoz qilishda simulyatsiya va modellashtirish qo‘llanilmoqda. **Markaziy bank** va **Iqtisodiy tadqiqotlar markazi** kabi muassasalar mamlakatning iqtisodiy holatini baholash va oldindan prognoz qilish uchun simulyatsiya usullaridan foydalanmoqdalar. Bu, ayniqsa, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi va boshqa iqtisodiy parametrlarni tahlil qilishda muhimdir. Shuningdek, iqtisodiy o‘sishning turli senariylarini simulyatsiya qilish orqali davlat siyosatini shakllantirishda va iqtisodiy rejalashtirishda yordam beradigan zamonaviy usullar joriy etilmoqda. Bu yondashuv iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Muhandislik va sanoat tizimlarining optimallashtirilishi

Simulatsiya va modellashtirish O‘zbekistonda sanoat va muhandislik sohasida ham faol qo‘llanilmoqda. Masalan, **avtomobil sanoati**, **energetika** va **kimyo sanoati** kabi tarmoqlarda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va samaradorlikni oshirish uchun bu texnologiyalar ishlatilmoqda.

O‘zbekiston temir yo‘llari va **avtomobil sanoati** sektorlari uchun transport tizimlarini simulyatsiya qilish va optimallashtirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Buning natijasida yo‘lovchi va yuk tashish samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Yana bir misol, O‘zbekistonda joylashgan **neft-gaz sanoati**dagi turli muhandislik tizimlarining simulyatsiyasi orqali energiya resurslarini samarali boshqarish va ishlov berish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyati mavjud.

Transport va logistika tizimlari

O‘zbekistonda transport va logistika tizimlarini rivojlantirishda simulatsiya va modellashtirish keng qo‘llanilmoqda. **Shaharlararo transport tarmog‘ini** va **yirik logistika markazlarini** tashkil qilishda bu texnologiyalar yordamida yo‘lovchi oqimlari, yuk tashish va transport vositalarining harakatlanish tezligini simulyatsiya qilish orqali tizimlarning samaradorligini oshirishga erishilmoqda.

Bundan tashqari, **O‘zavtoyo‘l** va **O‘zbekiston temir yo‘llari** kompaniyalarida turli xil transport tarmoq tizimlarini modellashtirish va ularni optimallashtirish uchun maxsus dasturiy ta’minot ishlab chiqilmoqda.

Tibbiyotda simulyatsiya va modellashtirish

Tibbiyot sohasida ham O‘zbekistonda simulyatsiya va modellashtirish texnologiyalari qo‘llanilmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan yuritilayotgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, tibbiyot markazlarida tibbiy jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Masalan, kasalliklarni prognoz qilish, davolash usullarini tahlil qilish va yangi dori vositalarining samaradorligini tekshirishda bu texnologiyalar ishlatiladi.

COVID-19 pandemiyasi davrida virusning tarqalishining oldini olish uchun epidemiologik modellashtirishlar amalga oshirildi. Bu jarayonlarda, tibbiyot mutaxassislari simulyatsiyalar orqali turli xil karantin va ijtimoiy cheklovlarni qanday samarali qo‘llashni aniqladilar.

Iqlim o‘zgarishi va ekologiya

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi va ekologik tizimlarni simulyatsiya qilish sohasida ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Ekologiya va iqlim tadqiqotlari markazi orqali turli xil ekologik tizimlarning simulyatsiyalari yaratilib, ularning o‘zgarishlari va ta’siri haqida oldindan prognozlar beriladi. Shuningdek, suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish uchun ham bu usuldan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, O‘zbekistonda sug‘orish tizimlarini modellashtirish orqali suvni tejash va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini optimallashtirishning yangi imkoniyatlari yaratilmokda.

Kelajakda simulatsiya va modellashtirish

Kelajakda O‘zbekistonda simulatsiya va modellashtirish sohasida ko‘plab yangi imkoniyatlar va tashabbuslar kutilmoqda. Xususan, sun‘iy intellekt va ma’lumotlar tahlili orqali yangi modellar yaratish, ilmiy tadqiqotlar va sanoatning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bundan tashqari, raqamli infrastrukturani rivojlantirish va yangi dasturiy ta’minotlarni joriy etish orqali bu sohada yangi yondashuvlar paydo bo‘ladi.

O‘zbekistonda simulatsiya va modellashtirish sohasidagi ishlar tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyot, sanoat, tibbiyot, transport va ekologiya kabi sohalarda bu texnologiyalarning qo‘llanilishi davlatning barqaror rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy tizimlarning optimallashtirilishiga katta hissa qo‘shadi. Bunday yondashuvlar kelajakda O‘zbekistonni ilm-fan va texnologiyalar sohasida yanada ilg‘or davlatlarga aylantirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Simulyatsiya va modellashtirish sohalaridagi eng mashhur metodlar va yondashuvlar turli tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Bu boradagi ishlar, ilmiy va texnik tadqiqotlarda katta o‘rin tutadi. A.S.Kholodov (2013) o‘zining "Fizik tizimlarni modellashtirish metodlari" nomli asarida modellashtirishning asosiy yondashuvlarini taqdim etgan. U tizimning matematik ifodasini yaratishning muhimligini, shuningdek, real tizimlar uchun samarali simulyatsiya modellarini ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, kompyuter simulyatsiyasining asosiy afzalligi – tajribalar va nazariy hisoblashlarning tez va samarali amalga oshirilishidir.

Xuddi shunday, L.P.Tolstov (2010) “Kompyuter simulyatsiyasi va uning fizika tadqiqotlaridagi roli” asarida, kompyuter simulyatsiyasining fizik jarayonlarni tushunishdagi o‘rni va uning amaliyotga tatbiqini ko‘rsatgan. U kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida fizik hodisalarni aniq va tezkor o‘rganish imkoniyatlari yaratilganini, shu bilan birga matematik modellarning ahamiyatini ta’kidlagan.

Tadqiqotchilarni bu boradagi ilmiy ishlarning natijalariga qarab, ular asosan, matematik modellashtirish va real tizimlarni simulyatsiya qilishda yuqori samaradorlikni ta’minlashga intilayotganini ko‘rish mumkin. Shuningdek, yuqori darajadagi axborot tizimlari yordamida amalga oshirilgan sinovlar va simulyatsiyalar jahon ilmiy jamoatchiligida yangi yutuqlarga erishish imkonini yaratgan.

Simulyatsiya va modellashtirish: Metodologiya

Simulyatsiya va modellashtirishni samarali amalga oshirish uchun bir qator metodologik yondashuvlar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilardir:

Matematik modellashtirish: Fizik jarayonlarni tasvirlashda matematik modellardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Matematik modellar tizimning xatti-harakatlarini tavsiflovchi tenglamalar yoki matematik ifodalardir. Masalan, haroratni o‘rganishda differensial tenglamalar, issiqlik almashinuvi tizimlarini modellashtirishda esa termodinamik tenglamalar ishlatiladi. Fizik jarayonlarni matematik modellashishda eng keng tarqalgan metodlardan biri — differensial tenglamalarni yechishdir.

Simulyatsiya modellarini yaratish: Fizik jarayonlarni simulyatsiya qilishda kompyuter yordamida tizimning xatti-harakatlarini takrorlash imkoniyatiga ega bo‘lish muhim. Simulyatsiya yordamida tizimni reja asosida "model" qilish va uning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish mumkin. Buning uchun real tizimning har bir komponenti (masalan, havo oqimi, energiya uzatish, mexanik ta’sirlar va hokazo) uchun alohida model quriladi. **Monte carlo simulyatsiyasi** va **yadro simulyatsiyasi** kabi usullar fizik tizimlarni virtual muhitda tekshirishda keng qo‘llaniladi.

Numerik usullar: Har qanday fizik jarayonni modellashtirishda aniq yechimni olish qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun **numerik usullar** yordamida yechimlar izlanadi. Bu usullar differensial tenglamalarni raqamli metodlar yordamida yechishni nazarda tutadi. **Finit differensiya metodi**, **elementlar usuli**, **tenglama tarmog‘ida diskretizatsiya** kabi metodlar bu sohada keng tarqalgan.

Parametrik tadqiqotlar: Modellashtirishda tizimning turli parametrlarini o‘zgartirish va ularning tizimning umumiy xatti-harakatlariga ta’sirini o‘rganish muhimdir. Bunday tadqiqotlar orqali tizimning sezgirliklari va o‘zgaruvchanligini aniqlash mumkin. Parametrik tadqiqotlar yordamida tizimni optimallashtirish va samaradorligini oshirish mumkin.

Simulyatsiya va modellashtirishning fizik jarayonlarga tatbiqi. Simulyatsiya va modellashtirishni fizik jarayonlarga tatbiq etishda quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Suv oqimi va aerodinamik modellashtirish: Samolyotlar va avtomobillarning havo qarshiligini simulyatsiya qilish aerodinamik dizaynning asosiy qismidir. Kompyuterda amalga oshirilgan aerodinamik simulyatsiyalar orqali havo oqimi, tezlik va kuchlar ta’sirini tahlil qilish mumkin.

Termodinamik jarayonlar: Termodinamik tizimlarning, masalan, issiqlik almashinuvi tizimlarini simulyatsiya qilish orqali energiya samaradorligini oshirish mumkin. Bu sohada, kompyuter yordamida issiqlik almashinuvi jarayonlari, issiqlik izolyatsiyasi va energiya sarfini optimallashtirish uchun turli metodlar qo‘llaniladi.

Biologik jarayonlar: Organizmning biologik tizimlarini simulyatsiya qilish, masalan, yurak ritmi yoki neyron tarmoqdagi signal tarqalishi kabi murakkab tizimlarni tushunishda yordam beradi. Bunday simulyatsiyalar yordamida yangi tibbiy metodlar yoki davolash usullari ishlab chiqilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA VEB SAYTLAR:

1. Pochtaev V.A. (2015). “Simulatsiya va modellashtirish: metod va vositalar”. Toshkent, O‘zbekiston: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Xamidov A. (2020). “Iqtisodiy tizimlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish”. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
3. Uchqunov B. (2019). “Muhandislik va sanoat jarayonlarini modellashtirish: nazariya va amaliyot”. Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.
4. Ismoilov S., & Tursunov N. (2021). “Yangi avlod simulyatsiya dasturlarining ahamiyati va imkoniyatlari”. Elektronika va axborot texnologiyalari jurnali.
5. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘quv qo‘llanmasi (2022). “Kompyuter simulyatsiyasi va modellashtirish metodlari”. Toshkent: TATU nashriyoti.
6. https://www.tuit.uz
7. https://www.economy.uz
8. https://www.minzdrav.uz
9. https://www.o‘zavtoyul.uz
10. https://www.uzecology.uz

MUSTAQIL TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Ochilova Ozoda Odilovna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalar universiteti dotsenti
E-mail oochilova@mail.ru
Tel: +998998451074
Umarova Zulfiyaxon Xusniddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail: umarovazulfiyaxon7@gmail.com
Tel: +998951342907

Annotatsiya. Ushbu maqola axborot texnologiyalarining mustaqil ta’lim olish jarayonidagi muhim rolini keng yoritadi. Maqolada, axborot texnologiyalarining ta’limni yanada qulay, samarali va interaktiv qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Bugungi kunda internet resurslari, onlayn kurslar va interaktiv platformalar yordamida har bir inson o‘z bilimlarini oshirishi, yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi va o‘z vaqtida ta’lim olish imkoniyatiga ega. Maqolada, YouTube, Khan Academy, Coursera kabi mashhur platformalar orqali o‘quvchilar o‘z sur'atida ta’lim olishlari mumkinligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari orqali resurslarga cheksiz kirish va o‘qishning mustaqil, erkin shakllari haqida ham keng fikr yuritiladi. Biroq, bu imkoniyatlardan foydalanishda muammolar ham yuzaga keladi — noto‘g‘ri ma’lumotlar, samarali vaqt boshqarish va ishonchli manbalarni tanlash masalalari muhokama qilinadi. Maqola xulosasida, axborot texnologiyalari mustaqil ta’lim olishni yanada rivojlantirishi va insonlarning bilim olish jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu jarayon, shubhasiz, jamiyatni yanada bilimli, innovatsion va taraqqiyotga yo‘naltirgan holda shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Onlayn kurslar, interaktiv ta’lim, mustaqil ta’lim, ta’limda texnologiyalar, ta’lim va innovatsiyalar, o‘qishning samarali usullari, masofaviy ta’lim

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayoniga katta o‘zgarishlar kiritdi. Mustaqil o‘qitishning eng katta afzalligi shundaki, bu jarayon insonni o‘z maqsadlariga erishish uchun mustaqil ravishda ishlashga undaydi. Mustaqil ta’lim olish, ayniqsa, internet va boshqa raqamli resurslar yordamida yanada ommalashgan va samarali bo‘ldi. Bugungi kunda har bir inson uyidan chiqmasdan, kerakli bilimlarni olish imkoniyatiga ega. Onlayn kurslar, video darsliklar, elektron kitoblar va interaktiv platformalar mustaqil ta’lim olishning asosiy vositalariga aylangan. Shuningdek, axborot texnologiyalarining ta’limga qo‘shgan yangi imkoniyatlari va unga nisbatan talablar ham ortdi. Ushbu maqolada, axborot texnologiyalarining mustaqil ta’lim olishdagi roli, uning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, samarali ta’lim olishda qanday muhim faktorlar mavjudligi haqida so‘z yuritamiz.

Mustaqil o‘qitish, shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish jarayoni bo‘lib, hozirgi zamonda aniq va samarali ta’lim olishning eng mashhur va qulay usullaridan biridir. Bu jarayonning asosi mustaqil motivatsiya qilish, rejalashtirish va mustaqil ishlashda yotadi. Mustaqil o‘qitish bilan shug‘ullanish, nafaqat yangi bilimlar olish, balki shaxsiy rivojlanishni ham ta’minlaydi. Shu bilan birga, mustaqil o‘qitish har bir kishi uchun moslashuvchan va individual yondashuvni ta’minlaydi. O‘quvchining o‘z maqsadlariga erishish uchun qanday usullarni qo‘llashi, o‘rgatish jarayonini qanday tartibga solishi va bu jarayonni samarali qilish uchun qanday asboblar yoki resurslardan foydalanishi haqida so‘z yuritishimiz mumkin. Mustaqil o‘qitish — bu shaxsning o‘zini rivojlantirishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi va yangi ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu jarayonda nafaqat rasmiy ta’lim tizimidan, balki turli xil resurslardan, kitoblar, onlayn kurslar, videolar va boshqa materiallardan ham foydalanilanishi mumkin. Mustaqil o‘qitishning eng katta afzalligi shundaki, o‘quvchi o‘z maqsadlariga erishishda mustaqil ravishda ishlashga imkon beradi. Bu, shuningdek, o‘qishdan nafaqat bilim olishni, balki shaxsiy rivojlanishni ham anglatadi.

Mustaqil o‘qitishning asosiy tamoyillari

a) Maqsad qo‘yish va rejalashtirish

Mustaqil o‘qitishda muvaffaqiyatga erishish uchun eng birinchi va eng muhim qadam bu aniq maqsadlar qo‘yishdir. Mustaqil o‘qitishdan oldin, o‘quvchi nima o‘rganmoqchi ekanligini aniq belgilashi kerak. Bu maqsadlar qisqa va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Masalan, qisqa muddatli maqsad — biror mavzuni o‘zlashtirish, uzoq muddatli maqsad esa yangi sohada mutaxassis bo‘lish bo‘lishi mumkin. Maqsadni belgilash bilan birga, o‘qish jarayonini rejalashtirish ham muhim. Reja o‘qishning vaqti, jadvali, qanday resurslardan foydalanish va natijalar qanday baholanadi — bularning hammasi aniq bo‘lishi kerak.

b) O‘qish usullarini tanlash

Mustaqil o‘qitish uchun mos usulni tanlash ham muhimdir. O‘qish jarayonida o‘quvchilar turli xil usullarni qo‘llashlari mumkin. Bular orasida aktual o‘qish (text o‘qish), audio va video materiallar yordamida o‘rganish, amaliy mashg‘ulotlar va diskussiyalar kabilar mavjud. Har bir insonning o‘qish uslubi turlicha bo‘lgani uchun, o‘quvchi uchun eng samarali usulni topish kerak.

c) Motivatsiya va intizom

Mustaqil o‘qitishda motivatsiya va intizom asosiy o‘rinda turadi. Mustaqil o‘qitish jarayonida, ba’zan o‘quvchi xohish-iroda va e'tiborini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli, maqsadga erishish uchun ichki motivatsiya va tashqi rag‘batlar zarur. Motivatsiyani saqlab qolish uchun o‘qish jarayonida kichik yutuqlarni nishonlash, o‘quvchilarga o‘zlarining rivojlanishini ko‘rsatish juda foydali bo‘ladi.

d) O‘qishdagi qiyinchiliklar va ularni yengish

Mustaqil o‘qitishda qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch kelish tabiiydir. Masalan, vaqtni boshqarish, yo‘qolgan motivatsiyani tiklash, o‘qish uchun joyni va resurslarni topish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda mustaqil tahlil qilish, o‘qish jarayonini qayta ko‘rib chiqish va yangi strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Mustaqil o‘qitishda samarali resurslardan foydalanish

Bugungi kunda mustaqil o‘qitish uchun bir qancha samarali resurslar mavjud. Ularning ba’zilari:

a) Kitoblar va maqolalar

Kitoblar va ilmiy maqolalar mustaqil o‘qitishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘qish materiallarini tanlashda ishonchli va ilmiy manbalarni afzal qilish lozim.

b) Onlayn kurslar

Onlayn kurslar mustaqil o‘qitishning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, Coursera, edX, Udemy kabi platformalarda turli sohalarda kurslar mavjud. Bu kurslar ko‘pincha mualliflar tomonidan tayyorlangan materiallar va o‘quv dasturlari asosida yaratiladi, shuningdek, interaktiv testlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta’minlanadi.

c) Video va podkastlar

Video darsliklar va podkastlar ham mustaqil o‘qitishda qo‘llaniladigan resurslardir. YouTube kabi platformalarda o‘qituvchi yoki mutaxassislar tomonidan tayyorlangan video darslar mavjud. Podkastlar esa ko‘proq audio shaklda taqdim etilib, ularni ish yoki sayohat vaqtida tinglash mumkin.

d) Interaktiv platformalar

Interaktiv platformalar, masalan, Duolingo (til o‘rganish uchun), Khan Academy (matematika va fanlar), LeetCode (dasturlash bo‘yicha) kabi saytlar, o‘quvchiga mustaqilo‘qitish jarayonini interaktiv va samarali qilishga yordam beradi.

Mustaqil o‘qitishning amaliy jihatlari

Mustaqil o‘qitishda nazariy bilimlarni o‘zlashtirishdan tashqari, amaliy mashg‘ulotlar va tajriba ham muhim ahamiyatga ega. O‘qish jarayonini amaliyot bilan mustahkamlash kerak. Masalan, dasturlashni o‘rganish uchun kod yozish, tilni o‘rganish uchun suhbatlashish, ilmiy mavzuni o‘rganish uchun tajribalar o‘tkazish zarur. Nazariy bilimlar amaliyotda sinovdan o‘tkazilmasdan to‘liq bo‘lmaydi. Shu sababli, mustaqil o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar va tajriba o‘rganish muhim rol o‘ynaydi. Bu yangi o‘rganilgan bilimlarni real hayotda qo‘llashga yordam beradi.

Shaxsiy mas’uliyat: Mustaqil o‘qitish jarayonida eng muhim jihatlardan biri – bu shaxsiy mas’uliyatni olishdir. O‘quvchi o‘z vaqtini boshqarish, o‘qish uchun rejalar tuzish, va o‘z maqsadlariga erishish uchun faoliyatni tartibga solish zarur. Bunday mas’uliyatni olish, odamni intizomli va samarali o‘qishga undaydi.

Feedback (fikr-mulohaza): Mustaqil o‘qitishda ko‘pincha o‘quvchilar o‘zlarining o‘rganish natijalarini baholashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuning uchun, mustaqil o‘qitishda o‘qiganlaridan keyin, boshqa mutaxassislar yoki o‘qituvchilardan fikr-mulohaza olish juda foydali. Bu o‘quvchiga o‘z xatolarini to‘g‘irlash va bilimini yanada chuqurlashtirishga yordam beradi.

O‘zgaruvchan maqsadlar: Mustaqil o‘qitishda maqsadlar o‘zgarib turishi mumkin. Yangi qiziqishlar paydo bo‘lishi, eski maqsadlar o‘zgarishi mumkin. Bu jarayonda o‘quvchi o‘ziga moslashuvchanlikni rivojlantirishi kerak. Bu, o‘qish jarayonining davomiy va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Vaqtni boshqarish: Mustaqil o‘qitishda samarali vaqtni boshqarish juda muhim. O‘qish jarayonida o‘quvchi ko‘pincha vaqtni qanday taqsimlashni bilmasligi mumkin. Shu sababli, vaqtni boshqarish strategiyalari, masalan, Pomodoro texnikasi yoki o‘qish jadvali tuzish, mustaqil o‘qitishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish: Mustaqil o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni, balki yangi amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, internetda mavjud turli xil qo‘llanmalar, videolar va kurslar yordamida yangi texnik ko‘nikmalarni o‘rganish mumkin. Dasturlashni o‘rganish, yangi til o‘rganish yoki kreativ faoliyatni rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni mustaqil o‘qitish orqali o‘zlashtirish mumkin.

Vazifa – raqobatbardoshlik: Shu kunlarda dunyoda 207 mln talaba o‘qimoqda. Bir yilda jahon ta’lim xarajatlari 4 813 mlrd USD tashkil etdi.O‘zbekistonda Raqobat oshmoqda 140 OTM, erkin qabul qilish. Raqobat (insonlararo, korxonalararo, milliy davlatlar va iktisodiyotlararo) kuchaib bormoqda va kuchli talablar rivojlanmoqda.

Bu sohaga oid O‘zbekistondagi yangiliklar:

Mustaqil o‘qitish sohasida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan bir qator yangiliklar va tashabbuslar mavjud. 2024-yil 12-yanvar kuni qabul qilingan prezident qaroriga ko‘ra, xorijiy davlatlarda "O‘zbek akademiyasi" (Uzacademy) internet platformasi tashkil etiladi. Ushbu platforma

O‘zbekiston tarixi, madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rgatishni maqsad qilgan. Shuningdek, xorijiy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining markazlari hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining "O‘zbekshunoslik" kafedralari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. 2024-yil yakunigacha xorijdagi o‘zbek milliy madaniy markazlari va O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari huzurida o‘zbek tili kurslari tashkil etilishi rejalashtirilgan. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 24-oktabr kuni Qarshi tumani markazidagi 12-maktabga tashrifi davomida maktab qurilishi standartlarini qayta ko‘rib chiqish bo‘yicha topshiriq bergan. Prezident maktablarning qurilishida issiqlik va sovutish tizimlariga alohida e’tibor qaratib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish zarurligini ta’kidlagan. 2024-yil mart oyida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda o‘quvchilarning 33 foizi ikkinchi va uchinchi smenalarda o‘qimoqda. Bu holat maktablar infratuzilmasi va ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri sifatida qayd etilgan. Shu sababli, maktablarni kompyuter sinflari bilan jihozlash va darsliklar sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, maktab ta’limi va o‘qituvchilar faoliyatidagi o‘zgarishlarga oid bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, 500 ta maktabda Prezident va ixtisoslashgan maktablar o‘quv dasturi joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu tizimni samarali qo‘llagan o‘qituvchilarga 40%gacha ustama berilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, maktablarda kompyuter sinflari uchun budjetdan 320 mlrd so‘m ajratilib, 40 mingga yaqin kompyuterlar olib berilgan. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun fanlar soni 16 tadan 11 taga qisqartirilishi, yangi darsliklar ishlab chiqilishi kabi chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Mustaqil o‘qitish sohasidagi bu yangiliklar va tashabbuslar O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, maktab infratuzilmasini yaxshilash va o‘quvchilarga zamonaviy ta’lim resurslarini taqdim etish borasida muhim qadamlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toxtayev, B. (2021). *Axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o‘rni*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Xolmatov, M. (2020). *Raqamli ta’lim asoslari*. Samarqand: Innovatsion ta’lim markazi.
3. Ergashev, U. (2022). “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodik asoslari.” *Oliy ta’lim muassasalari uchun ilmiy-uslubiy jurnal*, 3(1), 35–39.
4. Karimov, I. (2019). *Raqamli texnologiyalar va mustaqil ta’lim olish*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Shodmonov, S. (2023). “Mustaqil o‘qitish tizimida zamonaviy texnologiyalar.” *Ta’lim innovatsiyalari*, 5(2), 14–20.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ–2909-son (2017-yil 20-aprel). “Axborot texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida.”
7. Muminov, A. (2020). “Masofaviy ta’lim va o‘zlashtirish samaradorligi.” *Pedagogika va psixologiya* jurnali, 2(1), 22–27.
8. Mirzayeva, D. (2021). “Talabalarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli platformalarning ahamiyati.” *Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi* jurnali, 1(3), 30–35.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2023). *Masofaviy ta’lim platformalari bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent.
10. Abdullayeva, N. (2023). “Google Classroom va Moodle tizimlarining o‘zlashtirish jarayoniga ta’siri.” *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari* jurnali, 4(1), 12–16.
11. Dadaxanova, Z. (2021). “Axborot savodxonligi – mustaqil ta’limning asosi.” *O‘qituvchi va zamon*, 2(6), 18–22.
12. Zokirov, A. (2022). *Raqamli kompetensiyalar va o‘zlashtirish strategiyalari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

BINAR VA CHIZIQLI QIDIRUV ALGORITMLARINING TAHLILI VA AMALIY QO’LLANILISHI

Go‘zal Abdusalomova Bo‘ribayevna
gozalabdusalomova1996@gmail.com
Oltinoy G‘opporova G‘anisher qizi
oltinoygapporova@gmail.com
O‘zbekiston Milliy universiteti, Jizzax filiali
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ANNOTATSIYA: Ushbu tezisda dasturlash va ma’lumotlar tahlilida keng qo‘llaniladigan ikkita asosiy qidiruv algoritmi — Chiziqli qidiruv (Linear Search) va Binar qidiruv (Binary Search) tahlil qilinadi. Algoritmlarning nazariy asoslari, ishlash mexanizmlari, samaradorligi, vaqt va xotira murakkabligi, shuningdek, ularning zamonaviy amaliyotdagi qo‘llanilishi yoritiladi. Tadqiqotda algoritmlarni solishtirish uchun jadvallar, grafiklar, sxemalar va misollar keltirilgan. Algoritmlarning amaliy ahamiyati — ma’lumotlar bazasini qayta ishlash, sun’iy intellekt, moliyaviy tahlillar va tibbiyot sohalaridagi roli ko‘rib chiqiladi. Ish natijalari algoritmlarni tanlashda qaror qabul qilishga yordam beradi va dasturlashda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

KALIT SO’ZLAR: Chiziqli qidiruv, Binar qidiruv, algoritmik murakkablik, ma’lumotlar tuzilmasi, samaradorlik tahlili.

Qidiruv algoritmlari ma’lumotlar tuzilmalari va dasturlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular orqali ma’lumotlar ichidan kerakli elementni tez va samarali topish mumkin. Chiziqli va Binar qidiruv algoritmlari eng ko‘p ishlatiladigan usullardan bo‘lib, ularning afzalliklari va kamchiliklari turlicha. Binar qidiruv faqat tartiblangan ro‘yxatlar uchun ishlaydi, lekin vaqt murakkabligi jihatdan ancha samarali. Chiziqli qidiruv esa tartiblangan yoki tartiblanmagan har qanday ro‘yxatga nisbatan qo‘llanilishi mumkin [1].

Birinchi navbatda Binar qidiruv va Chiziqli qidiruv algoritmlarning qiyosiy tahlillarini ko‘rib chiqamiz:

Chiziqli qidiruv(Linear Search)- bu eng oddiy va intuitiv qidiruv algoritmi bo’lib, ro’yxat elementlarini ketma-ket (boshidan oxirigacha) tekshirib borish orqali ishlaydi [2]. Algoritm qidirilayotgan element topilguncha yoki ro'yxat oxirigacha tekshirilguncha davom etadi.

```
int linearSearch (int arr[ ], int n, int x ) {
for (int i = 0; i < n; i++) {
if (arr[i] == x )  return i;
}
return -1; }
```

Ishlash mexanizmi:

Chiziqli qidiruv algoritmi quyidagi qadamlarda ishlaydi:

1. Ro’yxatning birinchi elementidan boshlab har bir element tekshiriladi.
2. Joriy element qidirilayotgan elementga tengligi tekshiriladi, agar teng bo'lsa, element indeksi qaytariladi.
3. Aks holda keyingi elementga o'tiladi.
4. Ro’yxat oxirigacha davom etadi. Agar massivning barcha elementlari tekshirilib chiqilgan bo’lsa va mos qiymat topilmasa, -1yoki ”topilmadi” degan natija chiqadi.

Bu algoritm eng yomon holatda (worst case) O(n) vaqt sarflaydi, bu yerda n — massivdagi elementlar soni [4]. Ya‘ni, qidiruv butun massiv bo’ylab amalga oshiriladi. Eng yaxshi holatda (best case) esa, qidirilayotgan element birinchi pozitsiyada joylashgan bo’lsa, bu faqat bitta taqqoslash orqali topiladi.(1-jadval)

Afzalliklari:

Sodda va oson tushunarli. Har qanday dasturlash tilida juda oddiy kod orqali

amalga oshiriladi. Saralanmagan massivlar uchun ishlaydi. Linear search ishlashi uchun massiv tartiblangan bo’lishi shart emas. Kichik hajmdagi ma‘lumotlar uchun mos.

Kamchiliklari:

Samaradorlik past. Katta hajmdagi ma‘lumotlar ustida ishlaganda bu algoritm sekin ishlaydi. Keraksiz taqqoslashlar. Har doim butun massivni tekshirishi mumkin, bu esa resurslarni ortiqcha sarflaydi.

Binar qidiruv(Binary Search)- bu tartiblangan ro'yxatlarda ishlatiladigan yuqori samarali qidiruv algoritmi bo'lib, ”bo’lib olish va hukmronlik qilish” printsipiga asoslangan. Algoritm har qadamda qidiruv maydonini yarmiga qisqartiradi [3].

```
int binarySearch(int arr[ ], int l, int r, int x) {
while(l <= r) {
int m = l + (r-l)/2;
if(arr[m] == x) return m;
if(arr[m] < x) l = m+1;
else r = m-1;
}
return -1;
```

Ishlash mexanizmi:

Binar qidiruv algoritm quyidagi qadamlarda ishlaydi:

1. Qidirilayotgan element tartiblangan ro‘yxatda mavjud bo‘lishi kerak.
2. Ro‘yxatning o‘rtasidagi element aniqlanadi va u qidirilayotgan qiymat bilan solishtiriladi.
3. Agar o‘rtadagi element qidirilayotgan qiymatga teng bo‘lsa, qidiruv yakunlanadi.
4. Agar qiymat o‘rtadagi elementdan katta bo‘lsa, ro‘yxatning o‘ng qismiga o‘tiladi; aksincha, agar kichik bo‘lsa, ro‘yxatning chap qismida izlanadi.
5. Bu jarayon rekursiv yoki iterativ tarzda davom ettiriladi va har bir qadamda qidiruv maydoni yarmiga qisqartiriladi.

Bu algoritm eng yomon holatda (worst case) O(log n) vaqt sarflaydi [4]. Ya’ni, qidirilayotgan element mavjud bo‘lmasligi yoki oxirgi tekshiriladigan yarim bo‘lakda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda algoritm ketma-ket $\log_2(n)$ ta taqqoslash bajaradi. Eng yaxshi holatda (best case) esa, qidirilayotgan element to‘g‘ridan-to‘g‘ri massivning o‘rtasida joylashgan bo‘lsa, algoritm uni birinchi taqqoslashdayoq topadi. (1-jadval).

Afzalliklari:

Tez va samarali. Katta hajmdagi ma’lumotlar ustida ishlaganda logarifmik qidiruv orqali tez natijaga erishiladi. Qidiruv sohasi qisqarib boradi. Har bir bosqichda massivning yarmi chiqarib tashlanadi, bu esa resurslarni tejaydi. Murakkab massivlarda ishlashga mos. Tartiblangan ma’lumotlar bazalarida tezkor izlash imkonini beradi. Samaradorligi yuqori. Vaqt murakkabligi $O(\log n)$bo‘lib, bu chiziqli qidiruvga nisbatan ancha tez.(1-jadval)

Kamchiliklari:

Faqat tartiblangan massivlar uchun. Algoritm ishlashi uchun massiv avvaldan saralangan bo‘lishi shart. Qo‘shimcha saralash kerak bo‘lishi mumkin. Tartiblanmagan ma’lumotlarda avval saralash uchun vaqt sarflanadi. Tuzilishi murakkabroq. Chiziqli qidiruvga nisbatan kod va mantiqi biroz murakkabroq.

1-jadval. Murakkablik tahlili

Algoritm turi	**Vaqt murakkabligi**	**Xotira murakkabligi**
Chiziqli qidiruv algoritm	$O(n)$	$O(1)$
Binar qidiruv algoritm	$O(\log\ n)$	$O(1)$

Bugungi kunda Chiziqli qidiruv algoritmi quyidagi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Avvalo, IoT qurilmalari kabi cheklangan resursli muhitlarda chiziqli qidiruv kam xotira va hisoblash quvvati talab qilgani uchun afzal ko‘riladi [5]. Ikkinchidan, real-time monitoring tizimlarida sensorlardan kelayotgan ma’lumotlarni zudlik bilan tekshirish va ogohlantirishlarni ishga tushirishda chiziqli qidiruv yetarli tezlikni ta’minlaydi. Uchinchidan, blockchain texnologiyalarida yaratilgan blok zanjirida hash qiymatlarni solishtirish va bloklarni validatsiya qilish jarayonida ham oddiy, biroq ishonchli chiziqli qidiruv algoritmi qo‘llanadi.

Binar qidiruv algoritmi hozirgi kunda uning dolzarb ilovalari asosan sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va kriptografiya sohalarida aniqlangan. Sun’iy intellekt tizimlarida, xususan, chuqur

o‘rganish tarmoqlarida model parametrlarini tezkor yangilashda va qaror qabul qilish bosqichlarida binar qidiruvdan foydalanish samarali natija beradi [3]. Big Data platformalarida terabaytlab ma’lumot ustida qidiruv amalga oshirilganda esa binar qidiruv yuqori tezlik bilan kerakli yozuvni topishga yordam beradi. Kriptografiyada, xususan, katta kalitlar to‘plamidan ma’lum bir kalitni izlashda ham bu usul afzal bo‘ladi.

Algoritmlarning vizual tasvirlarini ko’rib chiqamiz:

1.Chiziqli qidiruv algoritmi.

Quyidagi blok-sxemada dastur boshlanganda indeks i ga nol qiymat beriladi. Keyingi iteratsion sikl uchta mantiqiy amaldan iborat bo‘lib takrorlanadi.(1-rasm).

1. Chegara sharti $(i < n)$. Agar shart rad etilsa, izlash fazosi tugagan hisoblanadi va algoritm *Topilmadi* terminal holatida yakunlanadi.

2.Tenglik sharti $(a_i = x)$. Shart rost bo‘lsa, qidiruv natijasi sifatida indeks iii azal masalasida qaytariladi va protsedura muvaffaqiyatli yakun topadi.

3. Indeksni orttirish i←i+1. Shart yolg‘on bo‘lsa, nazorat oqimi sikl boshiga qaytadi va navbatdagi element tekshiriladi.



1-rasm.Chiziqli qidiruv algoritmi blok-sxemasi.

2.Binar qidiruv algoritmi.

Quyida tartiblangan massivga tatbiq etiladigan blok-sxema dastlab left=0 va right=n−1 chegaralarini belgilaydi. Qidiruv “bo‘lish va hukmronlik qilish” printsipi asosida uchta asosiy bosqichni takrorlaydi.(2-rasm).

1.Intervall mavjudlik sharti (left≤right). Shart rad etilsa, qidiruv fazosi bo‘sh bo‘lib, *Topilmadi* terminal holati faollashadi.

2.O‘rta indeksni hisoblash mid=((left+right)/2) va markaziy taqqoslash $(a_{mid} = x)$. Agar tenglik o‘rnatilsa, mid natija sifatida qaytariladi.

3.Yarim-interval tanlash.

$(a_{mid} < x)$ bo‘lsa, izlash o‘ng yarim-massivga siljiydi: left←mid+1.

Aks holda, chap yarim-massiv tanlanadi: right←mid−1.



2-rasm.Binar qidiruv algoritmi blok-sxemasi.

Chiziqli va binar qidiruv algoritmlari zamonaviy dasturlashda muhim o‘rin egallaydi. Chiziqli qidiruv — o‘zining soddaligi va turli xil ma’lumotlar ustida ishlay olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Binar qidiruv esa logarifmik tezligi tufayli katta hajmdagi va tartiblangan ma’lumotlar ustida yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.Har ikkala algoritm o‘ziga xos ustunlik va cheklovlarga ega bo‘lib, ular real hayotdagi muammolarni turli sohalarda hal etish uchun qo‘llaniladi. Ularning dasturiy tizimlarga integratsiyalashuvi, ayniqsa bank, tibbiyot, IoT, sun’iy intellekt va navigatsiya tizimlarida, izlanayotgan ma’lumotni tez va aniqlik bilan topishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qidiruv algoritmlari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, har bir dasturchi va IT mutaxassisi ularni chuqur tushunishi va o‘z loyihalarida to‘g‘ri qo‘llay olishi zarur. Ushbu algoritmlar asosida algoritmik tafakkur, optimal qaror qabul qilish va samarali dasturlash ko‘nikmalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A., Yusupov M. Algoritmlar va ma’lumotlar tuzilmasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. – 213 b.
2. Karimov M. Dasturlash asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 186 b.
3. Qurbonov A., To‘xtasinov B. Ma’lumotlar tuzilmasi va algoritmlar. – Toshkent: TDYU, 2021. – 164 b.
4. Jo‘rayev R. Axborot texnologiyalarida qidiruv algoritmlarining o‘rni. // “Innovatsion ta’lim va fan” jurnalining 2023-yil 2-soni, Buxoro davlat universiteti. – B. 45–49.
5. G‘ulomov X. Kompyuter fanlari asoslari. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2019. – 174 b.

CHUQUR O‘QITISH MODELLARINI ANSANBIL QAROR QABUL QILISH BIRLASHTIRISH ORQALI NATIJALARNI YAXSHILASH

Kabildjanov Aleksandr Sabitovich, Pulatov G‘iyos Gofurjonovich
kabildjanov@yandex.com, giyospulatovm@gmail.com
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. Tibbiyotda aniq tashxis qo‘yish va davolash strategiyalarini ishlab chiqish bemorlarning hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari, xususan, ansanbil qaror qabul qilish algoritmlari va chuqur o‘qitish modellari (Long Short-Term Memory - LSTM, Gated Recurrent Unit - GRU, Multilayer Perceptron - MLP) hamda Adaptiv Neyro-Fazli Inferens Tizimi (ANFIS) tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tadqiqot ko‘krak saratoni tashxisida ushbu modellar- ini ansanbil ichida o‘qitish orqali qaror qabul qilishning aniqligini oshirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda modellar, matematik formulalar, jadvallar va sxemalar orqali aniq natijalar taqdim etiladi.

Asosiy qisim. Chuqur o‘qitish modellari tibbiy ma’lumotlarni, xususan, vaqt seriyali va murakkab naqshli ma’lumotlarni tahlil qilishda samarali.

LSTM vaqt seriyali ma’lumotlarni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan rekurrent neyron tar- moq (RNN) turi bo‘lib, uzoq muddatli bog‘liqliklarni saqlash qobiliyatiga ega. LSTM hujayralari quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Unutish darvozasi:

$$f_t = \sigma(\mathrm{W}_f * [h_{t-1}, x_t] + b_f) \quad (1)$$

Kirish darvozasi:

$$i_t = \sigma(\mathrm{W}_i * [h_{t-1}, x_t] + b_i) \quad (2)$$

$$C_t = tanh(\mathrm{W}_C * [h_{t-1}, x_t] + b_C) \quad (3)$$

Hujayra holatini yangilash:

$$C_t = f_t * C_{t-1} + i_t * \bar{C}_t \quad (4)$$

Chiqish darvozasi:

$$o_t = \sigma(\mathrm{W}_o * [h_{t-1}, x_t] + b_o) \quad (5)$$

$$h_t = o_t * tanh(C_t) \quad (6)$$

Tibbiyotda, masalan, EKG ma’lumotlarida aritmiyani aniqlashda LSTM 93% aniqlikka erishgan.

GRU — LSTMning soddalashtirilgan versiyasi bo‘lib, hisoblash samaradorligini oshiradi. U yangilash (update) va qayta o‘rnatish (reset) darvozalaridan foydalanadi:

$$z_t = \sigma(\mathrm{W}_z[h_{t-1}, x_t]), r_t = \sigma(\mathrm{W}_r[h_{t-1}, x_t]), h_t = (1 - z_t) * h_{t-1} + z_t - tanh(\mathrm{W} * [r_t * h_{t-1}, x_t]) \quad (7)$$

GRU tibbiy vaqt seriyali ma’lumotlarda (masalan, qon bosimi o‘zgarishlari) samarali.

MLP oddiy neyron tarmoq bo‘lib, bir nechta yashirin qatlamlardan iborat. Har bir neyronning chiqishi quyidagicha hisoblanadi:

$$y = \sigma(\mathrm{W}x + b) \quad (8)$$

bu yerda W — vaznlar, b — bias, σ — aktivatsiya funksiyasi (masalan, ReLU yoki sigmoid). MLP ko‘krak saratoni klinik ma’lumotlarini (masalan, qon tahlili natijalari) tasniflashda ishlatiladi.

ANFIS neyron tarmoqlar va fazli mantiqni birlashtiradi. U besh qatlamdan iborat:

Fazlilashtirish qatlami: Kirish qiymatlari fazli qoidalarga aylantiriladi.

Qoidalar qatlami: Fazli qoidalar faollashtiriladi.

Normallashtirish qatlami: Qoidalar vaznlari normallashtiriladi.

Defazlilashtirish qatlami: Chiziqli funksiyalar orqali chiqish hisoblanadi.

Yig‘ish qatlami: Yakuniy chiqish hosil qilinadi.

ANFISning asosiy formulasi:

$$y = \sum_i \mathrm{w}_i f_i / \sum_i \mathrm{w}_i, f_i = p_i x + q_i y + r_i \quad (9)$$

bu yerda w_i — qoida vazni, f_i — chiziqli funksiya. ANFIS tibbiyotda, masalan, saraton xavfini bashorat qilishda 90% aniqlikka erishgan.

Ansanbil usullari (masalan, soft voting va stacking) LSTM, GRU, MLP va ANFIS modellarini birlashtirish orqali qaror qabul qilishni yaxshilaydi 1-jadval. *1-jadval*

Ansanbil arxitekturasi						
LSTM	→	GRU	→	MLP	→	ANFIS

Soft Voting. Har bir modelning bashoratlari ehtimolliklari o'rtacha hisoblanadi:

$$P_{final} = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N} P_i \quad (10)$$

bu yerda P_i — i-modelning ehtimolligi, N — modellar soni.

Stackingda birinchi darajadagi modellar (LSTM, GRU, MLP, ANFIS) bashoratlari meta-modelga (masalan, logistik regressiya) kiritiladi:

$$y_{meta} = \sigma(\mathrm{W}_{meta} * [P_{LSTM}, P_{GRU}, P_{MLP}, P_{ANFIS}] + b_{meta}) \quad (11)$$

Ko'krak saratoni tashxisida ushbu ansanbil yondashuvi sinovdan o'tkazildi. Ma'lumotlar to'plami (Wisconsin Breast Cancer Dataset) klinik xususiyatlar (tumor o'lchami, shakli) va vaqt seriyali ma'lumotlarni (qon tahlili dinamikasi) o'z ichiga oladi. Quyidagi jadvalda (2-jadval) modellar va ansanblning aniqligi solishtiriladi:

2-jadval

Model	**Aniqlik (%)**	**F1-skor**	**O'qitish vaqti (soniya)**
LSTM	92.5	0.91	120
GRU	93.0	0.92	100
MLP	90.0	0.89	80
ANFIS	91.5	0.90	150
Ansanbil (Soft Voting)	95.8	0.95	200
Ansanbil (Stacking)	96.2	0.96	220

Ansanbil yondashuvi alohida modellar bilan solishtirganda aniqlikni 3-6% ga oshirdi. Masalan, LSTM vaqt seriyali ma'lumotlarni tahlil qilishda, ANFIS esa klinik xususiyat- larda samarali bo'ldi.

Xulosa. LSTM, GRU, MLP va ANFIS modellarini ansanbil ichida integratsiyalash tibbiyotda, xususan, ko'krak saratoni tashxisida qaror qabul qilishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Soft voting va stacking usullari modellar xatolarini qoplash orqali aniqlikni 96% gacha oshiradi. Biroq, hisoblash murakkabligi va katta hajmdagi ma'lumotlar talabi cheklov sifatida qolmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar kichik ma'lumotlar to'plamlari bilan ishlashga moslashtirish va hisoblash samaradorligini oshirishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long Short-Term Memory. Neural Computation, 9(8), 1735-1780.
2. Cho, K., et al. (2014). Learning Phrase Representations using RNN Encoder- Decoder for Statistical Machine Translation. arXiv:1406.1078.
3. Jang, J. S. R. (1993). ANFIS: Adaptive-Network-Based Fuzzy Inference System. IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics, 23(3), 665-685.

INTELLEKTUAL AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI YORDAMIDA TRANSPORTLAR OQIMINI TASHKIL ETISH

Qaramanov Obid Xudayberdiyevich
qaramanovobid@gmail.com
University of Management and Future Technologies magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy shahar infratuzilmasida intellektual axborot-kommunikatsiya tizimlarining (IAKT) transport oqimini samarali tashkil etishdagi rolini tahlil qiladi. Maqolada ITS (intelligent transport systems) texnologiyalarining asosiy komponentlari va ularning shaharlar va yirik sanoat markazlarida yo‘l harakati boshqaruvida qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar va O‘zbekiston sharoitida ITSni tatbiq etish imkoniyatlari misollar orqali yoritiladi. Maqola ITS texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari, ayniqsa, katta ma’lumotlar (big data) va avtomatlashtirilgan transport boshqaruv tizimlari orqali yanada samarali transport oqimini tashkil etish imkoniyatlarini ham ochib beradi.

Kalit So‘zlar. Intellektual transport tizimlari (ITS), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, transport oqimi boshqaruvi, sun’iy intellekt, iot, raqamli xaritalar, navigatsiya tizimlari, transport xavfsizligi, avtomatlashtirilgan boshqaruv, katta ma’lumotlar, shahar infratuzilmasi.

Kirish. Zamonaviy shahar va sanoat markazlarida transport vositalarining ko‘payishi va harakat samaradorligini oshirish zarurati ortib bormoqda. Intellektual axborot-kommunikatsiya tizimlari (ITS) transport oqimini samarali boshqarish va shahar infratuzilmasiga tushadigan yukni kamaytirishga imkon beradi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi intellektual axborot-kommunikatsiya tizimlarining transport oqimini tashkil etishda qanday yordam berishini aniqlashdir.

Intellektual transport tizimlarining asosiy komponentlari

Intellektual transport tizimlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan tizimlar bo‘lib, yo‘l harakati va transport infratuzilmasini boshqarishni optimallashtirishga xizmat qiladi. Intellektual transport tizimlarining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- Trafik signalizatsiyasi tizimlari ushbu tizimlar orqali svetoforlar avtomatik ravishda harakat zichligiga qarab sozlanadi, bu esa yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga va tirbandlikni kamaytirishga yordam beradi.

- Avtomatik transport nazorati tizimlari avtomatik tarzda transport vositalarining tezligi, holati va harakatlanish yo‘nalishini nazorat qilish orqali xavfsizlikni ta’minlaydi.

- Yo‘l harakatini boshqarish markazlari ushbu markazlar yo‘l harakati oqimlarini tahlil qilish, favqulodda holatlarda tezkor choralar ko‘rish, hamda transport tizimining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni real vaqt rejimida olish va boshqarishni amalga oshiradi.

Transport oqimini tashkil etishda intellektual transport tizimlarining ahamiyati

Intellektual transport tizimlari texnologiyalari transport oqimini boshqarish jarayonida katta ahamiyatga ega. Ular real vaqt rejimida monitoring va tahlil qilish, raqamli xaritalar va navigatsiya tizimlari yordamida eng samarali yo‘nalishlarni tavsiya qilish, shuningdek, avtomatlashtirilgan transport tizimlari orqali xavfsizlikni oshirish imkonini beradi.

Real vaqt rejimida monitoring va tahlil intellektual transport tizimlari texnologiyalari IoT va Sun’iy intellekt yordamida yo‘llardagi vaziyatni real vaqt rejimida kuzatib boradi va ma’lumotlarni tahlil qiladi. Bu esa avariyalarga va tirbandliklarga tezkor javob qaytarishga imkon beradi.

Tirbandliklarni kamaytirish avtomatik trafik signalizatsiyasi tizimlari va dinamik yo‘l boshqaruvi orqali tirbandliklarni kamaytirish mumkin. Svetoforlar harakat zichligiga qarab avtomatik ravishda o‘zgaradi, bu esa transport oqimini optimallashtiradi.

Samara va tezlikni oshirish raqamli xaritalar va navigatsiya tizimlari orqali haydovchilarga eng samarali yo‘nalishlar tavsiya etiladi. Bu yuk tashishda vaqtni tejash va transport vositalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xavfsizlikni oshirish avtomatik transport nazorati tizimlari transport vositalarining tezligi va harakat yo‘nalishini nazorat qiladi. Bu yo‘l harakatidagi xavfsizlikni oshiradi va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga yordam beradi.

Resurslardan Tejamkor Foydalanish intellektual transport tizimlari yordamida yo‘l infratuzilmasi va transport tizimlarining resurslari (masalan, yo‘l vaqti, yoqilg‘i sarfi) yanada samarali boshqariladi. Bu iqtisodiy jihatdan samaradorlikni oshiradi.

Xalqaro Tajriba dunyoning turli mintaqalarida Intellektual transport tizimlari texnologiyalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Misol uchun, AQShda va Yevropa Ittifoqida shaharlar o‘rtasida transport harakatini boshqarish tizimlari integratsiyalashgan. Bu tajribalar O‘zbekiston sharoitida ham amalga oshirilishi mumkin.

Katta Ma’lumotlar va Sun’iy Intellekt katta ma’lumotlar (big data) va sun’iy intellekt yordamida transport oqimini prognozlash va optimallashtirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu, shuningdek, harakat xavfsizligini oshiradi va yo‘l harakatini yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Raqamli xaritalar va navigatsiya tizimlari zamonaviy raqamli xaritalar va GPS tizimlari haydovchilarga eng samarali yo‘nalishlarni tavsiya etish imkonini beradi. Intellektual transport tizimlari ushbu ma’lumotlarni real vaqt rejimida yangilab boradi va harakat jadvalini aniq rejalashtirishga yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan transport tizimlari avtomatlashtirilgan transport boshqaruvi texnologiyalari orqali inson omili ta’sirini kamaytirish va yo‘llardagi xavfsizlikni oshirish mumkin. Ushbu tizimlar xavfsizlik kameralaridan va maxsus sensorlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va transport vositalarining harakatlanishini to‘g‘ri boshqaradi.

Xalqaro tajriba va O‘zbekistonda ITSning qo‘llanilishi

Intellektual transport tizimlari texnologiyalari butun dunyo bo‘ylab joriy etilib, transport tizimlarining samaradorligini oshirgan. Misollar:

- AQShda Intellektual transport tizimlari texnologiyalari xavfsizlik va yo‘l tirbandligini kamaytirishga qaratilgan milliy loyihalar orqali keng joriy qilingan. Smart City konsepsiyasiga asoslangan shaharlar yo‘l harakati boshqaruvini optimallashtirishga katta e’tibor qaratmoqda.

- Yevropa Ittifoqida intellektual transport tizimlari texnologiyalari orqali transport tizimlarining integratsiyasiga erishilmoqda, bu esa turli mamlakatlarda yo‘l harakati qoidalarini birlashtirish va xalqaro yuk tashish tizimlarini optimallashtirish imkonini beradi.

- Osiyo davlatlari xususan, Yaponiya va Janubiy Koreya transport boshqaruvida avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llashda yetakchilik qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida Intellektual transport tizimlari texnologiyalari joriy etilishi shahar infratuzilmasi va transport tizimining yanada samarali ishlashini ta’minlashi mumkin. Toshkent shahri va boshqa yirik sanoat markazlarida Intellektual transport tizimlari loyihalari o‘z vaqtida tatbiq etilsa, yo‘llardagi tirbandliklar va avariyalar sonini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

O‘zbekiston shaharlarida intellektual transport tizimlari (ITS) tatbiq etishga qaratilgan bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda:

1. Toshkent:

- Smart transport tizimi Toshkent shahrida trafik signalizatsiyasi tizimini modernizatsiya qilish, transport oqimini real vaqt rejimida monitoring qilish va avtomatik nazorat tizimlarini joriy etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

- Trafik nazorati markazlari shahar ichida yo‘l harakatini boshqarish va xavfsizlikni ta’minlash uchun markazlar tashkil etilgan.

2. Sanoat markazlari:

Yirik sanoat markazlarida Intellektual transport tizimlarini tatbiq etish orqali transport harakatining samaradorligini oshirish va yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

3. Xalqaro Hamkorlik:

O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlik qilib, Intellektual transport tizimlari texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishga intilmoqda. Bu borada turli loyiha va dasturlar orqali tajriba almashish va innovatsion yechimlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

ITS texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari

Intellektual transport tizimlari texnologiyalari tezkor rivojlanayotgan soha bo‘lib, yaqin kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishi kutilmoqda:

- Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili sun’iy intellekt tizimlari orqali transport vositalarining harakatlanishini oldindan bashorat qilish va yo‘llardagi harakatni optimallashtirish imkoniyati yaratilmoqda.

- V2V va V2I texnologiyalari transport vositalarining o‘zaro va yo‘l infratuzilmasi bilan o‘zaro aloqasi kelajakda yo‘l harakati xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa

Intellektual transport tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida transport oqimini samarali boshqarish nafaqat tirbandliklarni kamaytirishga, balki transport tizimi xavfsizligini oshirishga ham yordam beradi. Xalqaro tajribalar O‘zbekiston uchun Intellektual transport tizimlari texnologiyalarini joriy etishda muhim o‘ringa ega. Mamlakatda transport infratuzilmasini samarali boshqarish, tirbandliklarni kamaytirish va xavfsizlikni oshirish maqsadida Intellektual transport tizimlarini tatbiq etishning imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o‘rganish va moslashtirish O‘zbekiston sharoitida Intellektual transport tizimlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Chien, S. I.-J., Ding, Y., va Wei, C. (2002). Sun’iy neyron tarmoqlari yordamida dinamik avtobus kelayotgan vaqtini bashorat qilish. Transport muhandisligi jurnali, 128(5), 429-438.
2. Fletcher, D., va Ponnambalam, K. (1996). Moslashuvchan trafik signalizatsiyasi boshqaruvi: so‘nggi rivojlanishlar haqida umumiy ma’lumot. IEEE intellektual transport tizimlari bo‘yicha o‘tishlar, 5(3), 1-13.
3. Schrank, D., Eisele, B., va Lomax, T. (2012). TTI 2012 shahar harakati hisoboti. Texas A&M transport instituti.
4. Cheng, S. F., Tan, A. R., va Zhao, L. (2014). Katta ma’lumotlar yordamida trafik oqimini optimallashtirish. Transport tadqiqotlari qism C: yangi texnologiyalar, 44, 233-247.
5. Papageorgiou, M., Diakaki, C., Dinopoulou, V., Kotsialos, A., va Wang, Y. (2003). Yo‘l trafik boshqaruvi strategiyalarining ko‘rib chiqilishi. IEEE taqdimotlari, 91(12), 2043-2067.
6. OECD/ITF. (2017). Katta ma’lumotlar va transport: variantlarni tushunish va baholash. Xalqaro transport forumi.
7. Sussman, J. M. (2000). Transport tizimlariga kirish. Artech House.
8. Maerivoet, S., va De Moor, B. (2005). Trafik oqimi nazariyasi. Transport tizimlari jurnali, 45(2), 123-149.
9. Garcia-Castro, A., Jimenez-Redondo, N., va Sanchez-Soriano, J. (2018). Transportda katta ma’lumotlar: muammolar va imkoniyatlar. Transport va logistika jurnali, 10(1), 12-24.
10. Tashkent City Development (2020). Transportni Modernizatsiya Qilish Bo‘yicha Loyihalar: Tahlil va Takliflar. Toshkent shahar hokimiyati.
11. World Bank (2021). O‘zbekiston: Transport Soqasida Rivojlanish Strategiyalari. Xalqaro Moliya Korporatsiyasi.

Z QISMIY SATRLARNI QIDIRISH ALGORITMLARINI AMALYOTDA TADBIQ ETISH

Otaboyev Toshkanboy O’ktamjon o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ”Sun’iy intellekt” yo’nalishi talabasi
mail: gozalabsalamova1996@gmail.com

Absalamova Go‘zal Bo‘riboyevna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti
E-mail: otaboyevtoshkanboy40@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy matnli axborotlar ustida samarali ishlash masalalaridan biri bo‘lgan qismiy satrlarni qidirish muammosi ko‘rib chiqiladi. Aynan shunday muammolarni optimal hal qilishda qo‘llaniladigan Z algoritmning ishlash mexanizmi, amaliy qiymati va afzalliklari yoritilgan. Z algoritmi satr ichidagi prefikslarga tayanib, matn bo‘ylab pattern (ya’ni qidirilayotgan kichik satr)ni O(n) vaqt murakkabligida aniqlash imkonini beradi. Mazkur algoritm oddiylik va samaradorlikni o‘zida birlashtirgan bo‘lib, ayniqsa katta hajmli matnlar ustida tez va ishonchli izlash uchun qulay hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Z algoritmi, qismiy satrni izlash, matnni tahlil qilish, string algoritmlar, prefiks, Z-funktsiya.

Bugungi kunda raqamli axborotlar hajmi keskin ortib borayotgan bir davrda matnlar ustida tezkor izlash va tahlil qilish vazifalari informatsion texnologiyalarning ajralmas qismiga aylanmoqda. Matnli fayllar, veb sahifalar, foydalanuvchi xabarlarida kerakli qismni tez topish ko‘plab sohalarda – jumladan dasturlash, biotexnologiya, huquqshunoslik va jurnalistikada — muhim ahamiyatga ega[1]. Ushbu muammoni hal etishda qo‘llaniladigan algoritmlardan biri – bu Z algoritmidir. Mazkur algoritm satr ichida kichik qismni samarali qidirishga imkon beradi va bu borada mashhur KMP (Knuth-Morris-Pratt) algoritmi bilan raqobatlasha oladi.

Z-funktsiya va uning mohiyati: Z-funktsiya berilgan satrda har bir i-pozitsiyadan boshlab, satr boshidagi prefiks bilan nechta belgilar mos kelishini ifodalaydi. Masalan, agar satr s = "aabcaabxaaaz" bo‘lsa, Z[4] = 3 bo‘lishi, demak, 4-pozitsiyadan boshlab uchta belgi satr boshidagi belgilarga to‘liq mos kelishini anglatadi. Ushbu Z-funktsiyani hisoblash orqali matn ichidagi barcha mosliklar haqida aniqlik hosil qilinadi[.

Z algoritmning ishlash tamoyili: Z algoritm o‘zining soddaligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. U har bir indeksda Z qiymatini hisoblaydi, bu esa satr prefikslariga asoslangan eng katta moslikni bildiradi. Algoritm hozirgacha eng uzun moslik topilgan segmentni [l, r] sifatida saqlab boradi va har bir keyingi pozitsiyada ushbu segmentdan foydalanadi. Bu optimizatsiya tufayli algoritm umumiy O(n) vaqt murakkabligida ishlaydi[2].

Patternni matndan izlash (search) Z algoritmdan foydalanib patternni izlash uchun avvalo quyidagi kabi yangi satr tuziladi:

S = pattern + "$" + text[3]

Shundan so‘ng ushbu yangi satr uchun Z-funktsiya hisoblanadi. Har safar Z[i] == pattern.length() bo‘lsa, bu pattern aynan text matnida i - pattern.length() - 1 indeksdan boshlab uchrashganini bildiradi. Ushbu yondashuv orqali pattern qayerda paydo bo‘lganini tez va aniq aniqlash mumkin bo‘ladi(1-rasm). Amaliy qo‘llanish doiralari Z algoritmi quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

Matnli qidiruv tizimlari: Web sahifalarda kalit so‘zlarni topish;[4]

Biotexnologiya: DNK yoki RNK ketma-ketliklaridagi muhim qismlarni qidirish;

Plagiat tekshiruvi: Matnlardagi takroriy yoki ko‘chirib yozilgan qismlarni aniqlash;

Kompilyatorlar: Identifikatorlar va tokenlarni tanib olishda.

Leksik analiz bosqichi muhim rol o‘ynaydi. Bu bosqichda dastur matni ketma-ket belgilar oqimi sifatida ko‘riladi va u ma'no anglatuvchi minimal birliklarga tokenlarga ajratiladi. Tokenlar turli toifalarga, masalan, kalit so‘zlar, operatorlar, identifikatorlar va sonli konstantalarga bo‘linadi. Har bir tokenning tuzilishi odatda muntazam ifodalar (regular expressions) yordamida aniqlanadi.[5] Leksik analizator (scanner yoki lexer) ushbu tokenlarni aniqlab, sintaktik analizga uzatadi.



rasm. Z massivi

Biologiya: DNK ketma-ketliklaridagi naqshlarni aniqlash.

Plagiat tekshiruvi: Matnlardagi takrorlanuvchi iboralarni tezda topish.

Kiberxavfsizlik: Imzo asosida virus kodlarini aniqlash.

Matnni indekslash: Qidiruv tizimlarida tezkor pattern aniqlash uchun.

Qidiruv tizimlarida tezkor pattern aniqlash uchun: Takrorlanuvchi ketma-ketliklarni aniqlab, kamroq joyda saqlash.

Z algoritmining KMP< Rabin-Karp lg

1-jadval: *Z algoritmning afzalligi KMP va Rabin-Karp bilan taqqoslaganda:*

Algoritm	**Murakkablik**	**Xususiyat**
Z Algoritm	O(n)	Prefiks asosida, oddiy va tez
KMP	O(n)	Prefiks-funksiya orqali optimallashtirilgan
Rabin- Karp	O(n+m) amortizatsiyalangan	Hash asosida, ba’zida kolliziya bo'lishi mumkin

Biz endi shuni xulosa qilib aytishimiz mumkunki: Z algoritmi — bu satrlarni izlashda yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan algoritm bo‘lib, u ko‘p hollarda boshqa qidiruv algoritmlaridan tez ishlashi bilan ajralib turadi. Algoritm satrning prefikslaridan foydalanib, qidirilayotgan pattern’ni matn ichidan aniq va tez topishga yordam beradi. Z algoritmning oddiy tuzilishi, tushunarli mantig‘i va O(n) murakkabligi uni nafaqat akademik, balki amaliy dasturlash sohalarida ham keng qo‘llash imkonini beradi. Z algoritmda hech qanday hash, mod, yoki qo‘shimcha data structures yo‘q — bu uni aniq va barqaror algoritmga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cormen, T. H., Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). *Introduction to Algorithms* (3rd ed.). MIT Press.
2. Zverovich, V. (2015). An efficient implementation of the Z-algorithm. *Journal of Open Source Software*, 1(1), 1–3. https://doi.org/10.21105/joss.00001
3. GeeksforGeeks. (n.d.). *Z Algorithm (Linear time pattern searching Algorithm)*. Retrieved May 10, 2025, from https://www.geeksforgeeks.org/z-algorithm-linear-time-pattern-searching-algorithm/
4. Knuth, D. E., Morris, J. H., & Pratt, V. R. (1977). Fast pattern matching in strings. *SIAM Journal on Computing*, 6(2), 323–350.
5. Khan, A. (2020). *String matching algorithms: A comparative study*. International Journal of Computer Applications, 175(11), 10–14. https://doi.org/10.5120/ijca2020920033

KNOWLEDGE REPRESENTATION: MODELS AND TECHNOLOGIES

Nabiyeva Sharifa Ismailovna
Qarshi davlat Texnika Universiteti
“Xorijiy tillar” kafedrasi katta o’qituvchisi
Qarshiyeva Tamara Ibroximovna
Qarshi davlat Texnika Universiteti
“Xorijiy tillar” kafedrasi katta o’qituvchisi
e-mail: karshieva0989@gmail.com

5. Рахимов О. Д. эт ал. Модерн эдусатионал течнологиес //Ташкент," Ссиенсе анд Течнологй" Публишинг Ҳоусе. – 2013.
6. Рахимов О. Д. и др. Замонавий таълим технологиялари //Т.:“Фан ва технология нашриёти. – 2013.

7. «Подготовка и проведение учебных курсов в заочно-дистансионной форме обучения» Методические рекомендатсии преподавателям. Изд-во СПбГТУ, 2000 Под редаксией профессора И.А. сИКИНА
8. Ракҳимов О. Д. эт ал. Унусед оппортунитиес: дистансе эдусатион ин Узбекистан //Ссиентифис жоурнал. – 2021. – №. 3. – С. 58.
9. Ракҳимов О. Д., Чоршанбиев З. Э. Проспестс фор тҳе апплисатион оф дигитал течнологиес ин траининг тҳе" лабор протестион" соурсе //Еуропеан Жоурнал оф Лифе Сафетй анд Стабилитй (2660-9630). – 2021. – Т. 2. – С. 34-40.
10. «Интернет обучение: технологии педагогического дизайна» Моисеева М.В., Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Нежурина М.И., Москва, 2004.

РОЛЬ И ПРЕИМУЩЕСТВА МОДЕЛИ КВАНТОВЫХ ВЫЧИСЛЕНИЙ В ПРЕДСТАВЛЕНИИ ЗНАНИЙ

Рахмонова Мунисахон Рашодовна, Ёндошалиев Алишер Элёрович, Болтаев Улугбек Зафарович
munisaxon.agzamxodjaeva@gmail.com, Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Аннотация: В тезисе рассматриваются теоретические основы и практические возможности одного из инновационных направлений представления знаний - технологий квантовых вычислений. Квантовые вычисления - это новая модель представления и обработки знаний, которая использует такие свойства квантовой механики, как кубиты, суперпозиция и запутанность. Эта модель обеспечивает гораздо более высокую точность и эффективность моделирования сложных систем по сравнению с классическими системами. В тезисе рассматриваются возможности представления и анализа знаний на основе вероятностного подхода с использованием таких алгоритмов, как алгоритмы Шора, Гровера и квантового преобразования Фурье. В работе показано становление квантовых технологий как новой парадигмы представления знаний и обоснована актуальность фундаментальных исследований в этой области.

Сегодня всё больше внимания уделяется теоретическим исследованиям и практическим разработкам в области квантовых вычислений — новой вычислительной модели, которая вместо традиционного бита использует кубит, или квантовый бит. Кубит (квантовый бит) — это базовая единица информации в квантовых вычислениях, аналогичная биту в классических компьютерах. В отличие от обычного бита, который может принимать одно из двух значений — 0 или 1, кубит может находиться одновременно в состоянии 0, 1 или в их квантовой суперпозиции, что позволяет ему одновременно хранить оба значения с разной вероятностью.

Сегодня квантовых вычислений с потенциальной способностью решает проблемы, которые неподвластны современным классическим компьютерам. Примеры таких задач включают факторизацию больших чисел, поиск оптимальных решений в сложных системах, а также моделирование химических реакций и материалов на молекулярном уровне. Квантовые вычисления обещают существенный скачок в развитии машинного обучения и искусственного интеллекта. Сложные модели обучения, которые требуют огромных вычислительных мощностей, могут быть значительно ускорены и усовершенствованы с помощью квантовых алгоритмов.

На сегодняшний момент разработано уже несколько десятков квантовых алгоритмов, и число это с каждым месяцем и годом растёт. Из наиболее известных квантовых алгоритмов являются Алгоритм Шора (Shor's algorithm), Алгоритм Гровера (Grover's algorithm), Квантовый алгоритм симуляции (Quantum simulation algorithms), Квантовый алгоритм Фурье-преобразования (Quantum Fourier Transform, QFT), Алгоритмы решения задач линейной алгебры, Алгоритмы квантовой корректировки ошибок, Вариационные квантовые алгоритмы (Variational Quantum Algorithms). Эти алгоритмы находят применение в криптографии, химии, физике, оптимизации и других областях, где классические методы сталкиваются с трудностями, связанными с производительностью.

Можно сказать, что любое моделирование какого-либо физического процесса, выполненное при помощи современных средств вычислительной техники, будет неточным и неполным, но только лишь приближённым до какой-то степени точности, и у нас есть очень ограниченные средства повышения оной точности. В итоге любая такая модель так и останется неточной. Однако если для моделирования использовать именно квантово-механические системы с внутренне присущей им неопределённостью и недетерминированностью, то такое моделирование позволит точно отразить те физические процессы, которые в своей основе являются абсолютно такими же — неопределёнными и недетерминированными. Это понимание и стало основой развития модели квантовых вычислений.

В последние годы большое внимание уделяется разработке гибридных систем, где классические компьютеры работают совместно с квантовыми для решения сложных задач в химии, физике, оптимизации и машинном обучении. Таким образом, квантовые вычисления появились как результат слияния квантовой физики и информатики, когда учёные осознали, что квантовые явления могут быть использованы для решения вычислительных задач гораздо быстрее, чем это возможно с помощью классических компьютеров.

Прежде всего, для понимания модели квантовых вычисле ний необходимо овладеть понятийным аппаратом, который используется для описания и работы. Вся терминология пришла прямиком из квантовой механики.

Кубит — это базовая единица информации в квантовых вычислениях, аналог бита в классических компьютерах. Однако, в отличие от бита, который может находиться в одном из двух состояний (0 или 1), кубит может находиться в состоянии 0, 1 или **суперпозиции** этих состояний. Математически состояние кубита можно описать как $|\psi\rangle=\alpha|0\rangle+\beta|1\rangle$, где α и β — это комплексные числа, удовлетворяющие условию $|\alpha|^2+|\beta|^2=1$.

Квантовый гейт — это базовый элемент квантовых вычислений, который выполняет операции над кубитами (квантовыми битами). В отличие от классических логических гейтов, которые работают с классическими битами (0 или 1), квантовые гейты могут изменять состояние кубитов, используя принципы суперпозиции и запутанности.

Постулат об измерении — один из основных постулатов квантовой механики, который описывает, что происходит, когда измеряется квантовая система. Он объясняет, как суперпозиция квантовых состояний «коллапсирует» при измерении и каковы вероятности получения различных результатов. Когда измеряеться состояние квантовой системы, суперпозиция состояний коллапсирует в одно из возможных базисных состояний, и результат измерения оказывается определённым.

Пусть квантовая система находится в состоянии $|\ \rangle$, которое можно представить как линейную комбинацию (суперпозицию) базисных состояний $|\varphi_i\rangle$:

$$|\ \rangle = \sum_i c_i|\varphi_i\rangle,$$

где $|\varphi_i\rangle$— базисные состояния, и c_i — комплексные коэффициенты, представляющие амплитуды вероятностей для каждого базисного состояния.

Когда измеряется квантовая система, её состояние «коллапсирует» в одно из базисных состояний $|\varphi_i\rangle$. Измерение разрушает суперпозицию, и после измерения система остаётся в том состоянии, которое было зафиксировано в результате измерения.

Вероятность того, что результат измерения будет соответствовать состоянию $|\varphi_i\rangle$, равна квадрату модуля коэффициента c_i, то есть $|c_i|^2$. Так как все вероятности суммируются до 1, условие нормировки для состояния $|\ \rangle$выглядит так:

$\sum_i|c_i|^2=1.$

Правило Борна — это одно из фундаментальных положений квантовой механики, которое определяет, как из квантового состояния можно вычислить вероятность получения определённого результата при измерении. Оно связано с вероятностями исходов и, по сути, объясняет, как использовать амплитуды вероятностей для вычисления вероятности того, что квантовая система при измерении окажется в конкретном состоянии.

Правило Борна утверждает, что:

Вероятность результата измерения: Если квантовая система находится в состоянии $|\ \rangle$, и надо измерить её в каком-то базисе $|\varphi_i\rangle$, вероятность того, что результат измерения окажется в состоянии $|\varphi_i\rangle$, равна квадрату модуля скалярного произведения $(\varphi_i|\ \rangle$:

$P(\varphi_i) = |(\varphi_i|\ \ \rangle|^2$.

Для системы в суперпозиции: Если состояние системы можно выразить в виде суперпозиции базисных состояний, например, $|\ \rangle = \sum_i c_i|\varphi_i\rangle$, где c_i — это комплексные числа (амплитуды вероятностей), тогда вероятность получить результат $|\varphi_i\rangle$при измерении будет равна $P(\varphi_i) = |c_i|^2$.

Условие нормировки: Сумма вероятностей всех возможных исходов равна 1. Это значит, что все вероятности $P(\varphi_i)$ удовлетворяют условию:

$\sum_i |c_i|^2 = 1$.

Это гарантирует, что при измерении система обязательно перейдёт в одно из базисных состояний.

Рис.1. Схема процесса квантовых вычислений

На данной схеме изображен процесс квантовых вычислений, в котором различные элементы и этапы взаимодействуют между собой для достижения конечного результата. Эта схема иллюстрирует взаимодействие классической и квантовой части в процессе выполнения квантовых вычислений.

Входные данные – данные, поступающие в квантовую систему для обработки. ***Квантовые вычисления*** (центральный блок на рис.1) –основной процесс, где выполняются квантовые операции на квантовых битах. ***Результат вычисления*** – выходные данные после завершения квантовых вычислений, содержащие результат выполнения квантового алгоритма.

А также схема имеет дополнительные элементы управления, такие как ***выбор гейтов*** – набор квантовых операций (гейтов), которые применяются к квантовым битам, ***инициализация входных кубитов*** – подготовка начального состояния кубитов перед началом квантовых вычислений, ***описание определенного алгоритма*** – инструкции, описывающие конкретный квантовый алгоритм, который будет реализован и ***классический компьютер*** (верхний элемент на рис.1) – классический процессор, обеспечивающий контроль над квантовым компьютером и выполняющий поддерживающие вычисления для управления квантовой системой.

Технологии квантовых вычислений — это передовая вычислительная модель, возникшая на стыке современной компьютерной науки и физики, предлагающая совершенно новый подход к представлению и обработке знаний. Эта модель использует кубиты (квантовые биты) вместо традиционных битов, свойства которых, такие как суперпозиция и запутанность, позволяют представлять знания нетрадиционным способом.

Разработанные в рамках квантовых вычислений алгоритмы, в частности алгоритмы Шора, Гровера и квантового преобразования Фурье, обеспечивают высокую эффективность решения масштабных и сложных вычислительных задач. В то же время квантовые вентили, постулаты

измерений и вероятностные модели вводят новые технологические подходы к представлению и анализу информации.

В заключение стоит отметить, что технологии квантовых вычислений появились как новая парадигма в современном моделировании знаний и технологической практике, открывая широкие возможности для фундаментальных исследований в области компьютерных наук, математики, физики и других областей.

СПИСОК ИСПОЛЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L.. Quantum Computation and Quantum Information. Cambridge University Press. 2010
2. Shor, P. W. Algorithms for quantum computation: discrete logarithms and factoring. Proceedings 35th Annual Symposium on Foundations of Computer Science, 1994. 124–134.
3. Preskill, J. Quantum Computing in the NISQ era and beyond. Quantum, 2018. 2, 79.

TELEMEDICINE, NEW ERA IN MEDICINE WITH AI

Kosimov Sardor Dilmurodovich[1], Razzak Khan [2]
[1] Andijan Branch of Kokand University, Andijon State Technical Institute
PhD student, teacher (ORCID: 0009-0007-7859-3482)
[2]Student of General Medicine at Andijan Branch of Kokand University (KUAF)
[Email: Razzakkhan7877203886@gmail.com, Tel:+998931800704]

Abstract.The rapid advancement of technology has propelled healthcare into a new digital era, with telemedicine emerging as a transformative force in how medical services are delivered. When combined with artificial intelligence (AI), telemedicine becomes not only a tool for remote communication but a powerful system capable of enhancing diagnostic accuracy, personalizing treatment, and improving healthcare accessibility on a global scale.

Keywords:telemedicine, artificial intelligence, digital health, remote patient monitoring, ai diagnostics, virtual healthcare, healthcare technology, medical innovation, health informatics, smart healthcare systems

Introduction

This thesis explores the evolving landscape of telemedicine through the lens of AI integration, highlighting key innovations such as AI-driven diagnostics, virtual health assistants, and remote patient monitoring systems. It also examines real-world applications, ethical considerations, and the potential challenges posed by data privacy and algorithmic bias. By analyzing current trends and future prospects, this study underscores the pivotal role of AI in shaping the future of medicine, emphasizing the need for thoughtful implementation to ensure equitable, secure, and efficient healthcare for all.

The landscape of healthcare is undergoing a profound transformation, driven by the integration of cutting-edge technologies into traditional medical practices. Among the most significant developments is the rise of telemedicine, which has evolved from a convenient alternative into a vital component of modern healthcare systems. Telemedicine enables patients and healthcare providers to interact remotely, breaking down geographical barriers and offering timely medical attention regardless of location.

The momentum behind telemedicine has accelerated in recent years, particularly in response to the global COVID-19 pandemic, which exposed the limitations of in-person care and highlighted the need for scalable, flexible healthcare solutions. Simultaneously, artificial intelligence (AI) has gained prominence as a game-changing force in medicine, offering powerful tools for data analysis, diagnostic support, and clinical decision-making.

Literature review

The integration of telemedicine and artificial intelligence (AI) has garnered significant attention in recent years due to its transformative potential in healthcare. A growing body of literature has explored

the capabilities, benefits, and challenges associated with this emerging field, reflecting both optimism and caution in its application.

Telemedicine, which refers to the remote delivery of healthcare services via telecommunications technology, has been widely adopted over the past two decades. Initially, telemedicine was used primarily for consultations in underserved or rural areas where access to medical professionals was limited[1]. However, its scope has expanded dramatically, especially during the COVID-19 pandemic, when social distancing and lockdown measures pushed healthcare systems worldwide to adapt to virtual platforms. Studies have shown that telemedicine significantly improves patient access to care, reduces travel time and costs, and can lead to better patient satisfaction .The rise of telemedicine has also fostered greater collaboration among healthcare providers, enabling a more integrated approach to patient care.

While the benefits of telemedicine are widely acknowledged, challenges persist. These include issues related to technology adoption, reimbursement policies, and the need for a robust digital infrastructure to ensure equitable access [2]. Furthermore, the ability of telemedicine to provide comprehensive care, particularly in complex medical cases, remains a topic of ongoing debate

Artificial intelligence has steadily made its way into various healthcare domains, with its application spanning diagnostic imaging, predictive analytics, and clinical decision support. AI’s capacity to process vast amounts of medical data—ranging from medical records to diagnostic images—has proven invaluable in improving diagnostic accuracy and clinical outcomes [4]. Machine learning (ML), a subset of AI, is particularly useful in recognizing patterns in large datasets and making predictions that may not be immediately evident to human clinicians. In radiology, for instance, AI algorithms are being used to identify early signs of diseases such as cancer, often with greater accuracy than human radiologists [5].

In the realm of telemedicine, AI enhances remote consultations through applications such as AI-powered symptom checkers, which guide patients through the process of self-assessment before seeking professional care. Additionally, virtual assistants and chatbots are being used to triage patients, collect medical histories, and answer basic medical queries, further streamlining the consultation process.

Discussion

The convergence of telemedicine and artificial intelligence (AI) has the potential to dramatically transform healthcare systems worldwide. As discussed in the literature, the integration of AI technologies into telemedicine platforms offers significant benefits, including enhanced diagnostic accuracy, increased accessibility, and more efficient healthcare delivery. However, the broader implications of this integration require careful consideration of the technical, ethical, and societal challenges that accompany these advancements.

One of the most compelling advantages of telemedicine combined with AI is its potential to enhance healthcare access, particularly for individuals in underserved or remote areas. The ability to access medical consultations and diagnostic tools without needing to visit a healthcare facility can alleviate the burden of distance and travel, improving healthcare outcomes for patients who might otherwise face barriers to care. AI-powered systems, such as virtual assistants, symptom checkers, and remote patient monitoring tools, empower patients to take a more active role in managing their health while benefiting from expert guidance through telecommunication channels.

In regions where healthcare professionals are scarce, these tools provide a means to scale services and deliver timely care. AI’s role in automating routine tasks, such as administrative duties and initial triage, frees up healthcare providers to focus on more complex medical decisions, leading to increased efficiency within healthcare systems. This can result in reduced waiting times, lower operational costs, and ultimately, improved patient satisfaction.

However, this efficiency is not without its challenges. The widespread use of telemedicine requires robust infrastructure to support seamless communication, secure data transmission, and real-time monitoring. In many low-resource settings, access to reliable internet and modern healthcare technologies remains a significant hurdle. Ensuring that these innovations are available to all populations, not just those in developed countries, will be crucial in realizing the full potential of AI-powered telemedicine.

Conclusion.

The widespread implementation of AI and telemedicine will require a concerted effort to address regulatory, ethical, and technical challenges. Collaboration between healthcare professionals, policymakers, and technology developers will be crucial to ensure that these innovations are deployed in a way that benefits all patients, while minimizing risks and unintended consequences.

References

1. Rao, A., & Vassallo, M. (2019). Telemedicine in rural and underserved settings: A review of the challenges and benefits. Journal of Rural Health, 35(1), 3-10. https://doi.org/10.1111/jrh.12283
2. Wootton, R. (2012). Telemedicine in the 21st century: Opportunities and challenges. Journal of Telemedicine and Telecare, 18(6), 313-319. https://doi.org/10.1258/jtt.2012.120710
3. Ekeland, A. G., Bowes, A., & Sælid, G. M. (2020). A systematic review of telemedicine in chronic disease management: Applications and implications for healthcare systems. Journal of Telemedicine and Telecare, 26(1-2), 4-16. https://doi.org/10.1177/1357633X18773181
4. Esteva, A., Kuprel, B., & Novoa, R. A. (2019). Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks. Nature, 542(7639), 115-118. https://doi.org/10.1038/nature21056
5. Liu, Y., Bressler, N. M., & Chien, J. (2020). Artificial intelligence in medical imaging: Current status and future directions. Journal of Clinical Imaging Science, 10, 23-31. https://doi.org/10.25259/JCIS_92_2020

АНАЛИЗ АЛГОРИТМОВ ХЕШИРОВАНИЯ ДАННЫХ

Саъдуллаева Шахризода Мухиддиновна (магистрант 1-го курса, СамГУ, sadullayevashahrizoda@gmail.com)

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются методы оценки алгоритмов хеширования данных. Проводится сравнительный анализ популярных хеш-алгоритмов (MD5, SHA-256, Blake2, Argon2) по ключевым критериям: криптостойкость, производительность, устойчивость к коллизиям и практическая применимость. Особое внимание уделяется современным требованиям к безопасности данных и тестированию уязвимостей. Статья будет полезна разработчикам и специалистам по информационной безопасности при выборе оптимальных алгоритмов хеширования для различных задач.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Хеширование, криптография, безопасность данных, алгоритмы, коллизии, оценка производительности.

KIRISH

Zamonaviy raqamli dunyoda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashning eng muhim jihatlaridan biri - bu ma'lumotlarni samarali xeshlashdir. Ushbu maqola MD5, SHA-256, Blake2 va Argon2 kabi eng ko'p qo'llaniladigan xeshlash algoritmlarini chuqur tahlil qiladi, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi - turli xil xeshlash algoritmlarini quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilishdan iborat: Kriptografik mustahkamlik darajasi; Algoritmlarning ishlash tezligi; kolliziyalarga (collision) chidamliligi; turli hujumlar (brute-force, rainbow tables) ga qarshiligi; energiya va resurslar sarfi.

Alohida e'tibor zamonaviy parol xeshlash texnologiyalariga (Argon2) va ularning an'anaviy algoritmlardan (MD5, SHA-256) ustunliklariga qaratiladi. Ushbu tadqiqot dasturchilar, tizim administratorlari va ma'lumotlar xavfsizligi mutaxassislariga o'z loyihalari uchun eng optimal xeshlash yechimini tanlashda amaliy yordam berishi kutilmoqda.

XESHLASH ALGORITMLARINING NAZARIY ASOSLARI

MD5 ALGORITM

MD5 (Message-Digest Algorithm 5) – xesh funksiya bo‘lib, ma’lumotlarning yagona xesh qiymatini (digital fingerprint) hosil qilish uchun ishlatiladi. Ronald Rivest tomonidan 1991-yilda ishlab chiqilgan. MD5 algoritmi o‘zgaruvchan uzunlikdagi ma’lumotlarni oladi va ularni 128 bit uzunlikdagi

xesh qiymatga aylantiradi. Ushbu xesh qiymati ma’lumotni identifikatsiya qilishda yoki ma’lumot yaxlitligini tekshirishda qo‘llanadi[1].

Algoritmning asosiy afzalliklari – ishlash tezligi va soddaligi. Shunga qaramay, MD5 bugungi kunda kamroq xavfsizlik talab qiladigan vazifalar uchun ishlatiladi, chunki unda zaifliklar aniqlangan va kriptografik hujumlar kolliziyalarni (bir xil xesh qiymatini yaratish) oson topishi mumkin[2].

SHA-256 ALGORITMI

SHA-256 (Secure Hash Algorithm 256-bit) – bu kriptografik xesh funksiya bo‘lib, AQSh Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) tomonidan ishlab chiqilgan va SHA-2 oilasiga kiradi[5]. SHA-256 algoritmi yordamida yaratilgan xesh qiymatdan asl ma'lumotni qayta tiklash imkonsiz, bir xil kirish ma'lumotlari doimo bir xil xesh qiymatini hosil qiladi(deterministiklik), har qanday kichik o‘zgarish xesh natijaning keskin farqlanishiga olib keladi, kolliziyalarga (bir xil xesh natijasiga olib keladigan turli ma'lumotlarga) qarshi yuqori darajada himoya.ga ega. SHA-256 algoritmi 64 ta turdagi ish bosqichlari orqali ma’lumotlarni qayta ishlaydi va natijada 256-bit uzunlikdagi xesh qiymat hosil qiladi.

BLAKE2 ALGORITMI

Blake2 – bu tezkor, xavfsiz va moslashuvchan kriptografik xesh algoritm bo‘lib, SHA-3 tanlov jarayonida finalga yetgan Blake2 algoritmining rivojlangan versiyasidir. Blake2 2012-yilda o‘zining mualliflari Jean-Philippe Aumasson va Samuel Neves tomonidan taqdim etilgan[3]. Blake2 asosiy xususiyatlari tezkor ishlashi - SHA-2 algoritmiga nisbatan ikki baravar tezroq; xavfsizligi - MD5 va SHA-1 algoritmlarining zaifliklarini yengib o‘tuvchi mukammal xavfsizlik mexanizmlariga ega; moslashuvchanligi - har xil o‘lchamdagi chiqish hashlarini hosil qilish imkonini beradi. Algoritmning ikkita versiyasi bor. Blake2b: 64-bitli platformalar uchun optimallashtirilgan va 512-bitli chiqish qiymatini hosil qiladi. Blake2s: 32-bitli platformalar uchun optimallashtirilgan va 256-bitli chiqish qiymatini hosil qiladi.

ARGON2 ALGORITMI

Argon2 – bu 2015-yilda Password Hashing Competition (PHC) tanlovining g‘olibi bo‘lgan zamonaviy parol xesh algoritmi. Bu algoritm xavfsizlik, samaradorlik va moslashuvchanlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan[4]. Argon2 algoritmining asosiy xususiyatlari: Resursga asoslangan himoya mavjudligi - xotira va hisoblash resurslaridan samarali foydalanadi, bu esa unga parallel ishlov berish hujumlariga qarshi chidamlilikni oshiradi;

Moslashuvchanligi - turli sohalar va talablar uchun uch xil rejimni taqdim etadi: Argon2i - xotiraga ko‘proq bog‘liq bo‘lib, ma'lumotlarni ketma-ket o‘qiydi; Argon2d - GPU-larda optimallashtirilgan va parallel ishlash uchun qulay; Argon2id- ikkala uslubni birlashtiruvchi muvozanatli variant. Parol himoyasi uchun moslashuvchanligi - tuz (salt) qo‘llaniladi va har xil uzunlikdagi xeshlarni yaratish imkonini beradi; Tuzatishlarga chidamliligi - hujumchining hisoblash quvvatiga qarshi chidamlilikni ta'minlaydi;

XESHLASH ALGORITMLARINING KETMA-KETLIGI

MD-5 ALGORITMI

Ma’lumotni tayyorlash bosqichi. Ma’lumot uzunligini 512 bitga bo‘linadigan qilib kengaytirish uchun qo‘shimcha bitlar va uzunlik qiymati qo‘shiladi. Xabarga 1 qo'shiladi. 0 bitlar bilan to'ldiriladi. Xabar uzunligi 512 bitga teng bo‘lishi uchun oxiriga yetarlicha 0 bitlar qo‘shiladi. To‘ldirilgan xabar uzunligi 64 bitli uzunlik maydonini hisobga olmaganda 448 bitga yetadi. Xabar uzunligi (asl xabar uzunligi) 64 bitda ko‘rsatiladi va to‘ldirilgan xabarning oxiriga qo‘shiladi. Bu xabar uzunligini 2^{64} (64-bitli maydon) asosida ifodalashdir.

Oldindan belgilangan to‘rtta qiymat (A, B, C, D) boshlang‘ich holatda aniqlanadi (T) va boshlang`ich xesh qiymatlar olinadi:

Bloklarga ishlov berish bosqichi. Har bir 512-bitlik blok 16 ta 32-bitlik kichik bo‘lakka bo‘linadi. MD5 algoritmida 4 ta asosiy aylanish bosqichi mavjud. Har bir bosqichda 16 iteratsiya bajariladi, ya’ni jami 64 iteratsiya amalga oshiriladi.

Yakuniy iteratsiyadan so‘ng bu qiymatlar keyingi blok uchun xesh qiymatlariga qo‘shiladi. Oxirgi blokni qayta ishlashdan so‘ng, qiymatlari birlashtirilib 128-bit (16 bayt) MD5 xesh natijasini hosil qiladi.

SHA-256 ALGORITMI

Ma’lumotni tayyorlash bosqichi. Ma’lumot uzunligini 512 bitga bo‘linadigan qilib kengaytirish uchun qo‘shimcha bitlar va uzunlik qiymati qo‘shiladi. Xabarga 1 qo'shiladi. 0 bitlar bilan to'ldiriladi. Xabar uzunligi 512 bitga teng bo‘lishi uchun oxiriga yetarlicha 0 bitlar qo‘shiladi. To‘ldirilgan xabar uzunligi 64 bitli uzunlik maydonini hisobga olmaganda 448 bitga yetadi. Xabar uzunligi (asl xabar uzunligi) 64 bitda ko‘rsatiladi va to‘ldirilgan xabarning oxiriga qo‘shiladi. Bu xabar uzunligini 2^{64} (64-bitli maydon) asosida ifodalashdir.

8 ta boshlang‘ich xesh qiymati (H0–H7) va 64 ta doimiy qiymat (K0–K63) aniqlanadi.

Xabarni qayta ishlash bosqichi: Har bir 512 bitli blok uchun 64 ta so'zdan iborat (har biri 32 bitdan) xabar massivi yaratiladi: Dastlabki 16 ta so'z (word[0] dan word[15] gacha) to`g`ridan-to`g`ri joriy blokdan olinadi. Qolgan 48 ta so`z (word[16] dan word[63] gacha) ma`lum formula yordamida hisoblanadi:

Har bir davrda dastlabki(o`zgaruvchi) xesh qiymatlar (a, b, c, d, e, f, g, h) joriy xabar va o`zgarmas bilan birlashtiriladi. Operatsiyalar quyidagilarni o`z ichiga oladi: mantiqiy operatsiyalar (AND, OR, XOR), modul qo`shish, a, b, c, d, e, f, g, h qiymatlarni yangilaydigan mantiqiy funksiyalar va davr operatsiyalari: Har bir davr t (0 dan 63 gacha) uchun quyidagi vaqtinchalik qiymatlar hisoblanadi: Xesh qiymatlarini yangilanadi.

Xesh natijani olishda har bir blok uchun barcha 64 ta sikldan so`ng, o`rtacha xesh qiymatlari dastlabki xesh qiymatlariga qo`shilad va ketma-ket yoziladi.

BLAKE2 ALGORITMI

Algoritm xeshlashning boshlang‘ich holatini (IV - Initial Vector) Blake2 spesifikatsiyasi asosida yaratadi. key, digest_size, yoki boshqa sozlamalar bo‘lsa, bu boshlang‘ich holatni o‘zgartiradi.

Ma'lumot bloklarini ishlash jarayoni. Kiruvchi ma'lumotlar bir necha bloklarga bo‘linadi (odatda 128 yoki 64 bayt). BLAKE2 algoritmidagi asosiy almashtirish funksiyalari G-funksiyaga asoslangan. Bu funksiyalar BLAKE2ning ichki o‘zgaruvchilarini qayta aralashtirish va xeshlash jarayonini mustahkamlash uchun ishlatiladi. Yakuniy xesh qiymati foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan uzunlikka mos ravishda kesiladi (digest_size).

ARGON2 ALGORITMI

Argon2 algoritmi texnik jihatdan parollarni xavfsiz xeshlash uchun juda murakkab jarayonlarga asoslangan. Kirish parametrlari: (Parol) - Parol yoki xesh qilinadigan asosiy ma’lumot(foydalanuvchidan parol olinadi); Salt - xesh natijasini har xil qilish uchun har bir parolga noyob qiymat(tasodifiy bir qiymat yaratiladi, uzunligi odatda 16 baytni tashkil etadi); Kalit, ixtiyoriy - qo‘shimcha maxfiylik uchun ishlatiladigan kalit; Qo‘shimcha ma’lumot, ixtiyoriy- qo‘shimcha identifikatsiya ma’lumotlari. Bunda har bir blok 1024 bayt. Threadlar uchun bo‘limlar - xotira bo‘laklarga bo‘linadi.

Bloklarni yaratish: $B[0] = H(P \parallel S \parallel K \parallel X)$, bunda P – parol, S – salt, t – iteratsiyalar soni, m – Xotira hajmi, p – Parallellik darajasi, h – xesh-funksiyasi;

Bloklarni ajratish: $B_i = F(IB_i \parallel B_{i-1})$, bunda B_i – ichki blok, F – xesh hisoblash funksiyasi, IB_i – i-chi boshlang`ich blok, B_{i-1} – oldingi blok. Xesh natijani olish : $Xesh = H(B_1 \parallel B_2 \parallel \cdots \parallel B_n)$

NATIJALAR

Xeshlash algoritmlarining realizatsiyasi uchun Python dasturlash tilidan foydalanildi[6]. Har bir algoritmning berilgan matnni xeshlagandagi xesh qiymati va bu xeshlashga ketgan vaqti hisoblandi. Hosil bo`lgan natijalarni solishtirish orqali xeshlash algoritmlari orasidagi quyidagi farqlar aniqlandi:

Algoritmlarning solishtirma tahlili

Algoritm	Xeshlash uzunligi	Tezlik (MB/s)	Kolizion xavfsizlik	Parol xeshlash uchun mosligi
MD5	128 bit	500+	Zaif (buzilgan)	Tavsiya etilmaydi
SHA-256	256 bit	200-300	Yuqori	Cheklangan foydalanish

Algoritm	Xeshlash uzunligi	Tezlik (MB/s)	Kolizion xavfsizlik	Parol xeshlash uchun mosligi
Blake2	256-512 bit	800+	Juda yuqori	Ma’lumotlar tekshiruvi
Argon2	Deyarli har xil	5-50 (tuzga bog‘liq)	Juda yuqori	Parollar uchun eng yaxshi

XULOSA

Xeshlash algoritmlarini tanlashda maqsadga muvofiq yondashuv kerak. Parollar uchun Argon2, tez va xavfsiz tekshiruvlar uchun Blake2, standart kriptografik talablar uchun SHA-256 afzal hisoblanadi. MD5 esa faqat cheklangan ishlatish uchun tavsiya etiladi.

MD5 – tez, ammo kriptografik jihatdan xavfsiz emas.

SHA-256 – yaxshi xavfsizlik, lekin parollar uchun optimal emas.

Blake2 – SHA-256 dan tezroq va xavfsizroq, ammo parol xeshlash uchun mo‘ljallanmagan.

Argon2 – parol xeshlash uchun eng yaxshi tanlov (2015-yilda Password Hashing Competition g‘olibi).

Ma’lumotlar tekshiruvi (integrity check) uchun Blake2 eng samarali.

Parol xeshlash uchun Argon2 (CPU/GPU hujumlariga qarshilik uchun).

SHA-256 hali ham elektron imzolar va SSL sertifikatlari uchun qo‘llaniladi.

MD5 faqat checksum tekshiruvlari uchun ishlatilishi mumkin, xavfsizlik talab qilinadigan joylarda foydalanilmasligi kerak.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Alfred J. Menezes, Paul C. van Oorschot, Scott A. Vanstone. "Handbook of Applied Cryptography". CRC Press, 1996. https://cacr.uwaterloo.ca/hac/
2. Jean-Philippe Aumasson. "Serious Cryptography: A Practical Introduction to Modern Encryption". No Starch Press, 2017.
3. Alex Biryukov, Daniel Dinu, Dmitry Khovratovich Argon2 Memory-Hard Function for Password Hashing and Proof-of-Work Applications", https://datatracker.ietf.org/doc/html/rfc9106
4. Jean-Philippe Aumasson, Samuel Neves, Zooko Wilcox-O'Hearn, Christian Winnerlein, "BLAKE2 Cryptographic Hash and Message Authentication Code (MAC)", https://datatracker.ietf.org/doc/html/rfc7693
5. Sa`dullayeva Shahrizoda, “Analysis of the efficiency of SHA algorithms based on message length”, “SHA algortimlar sinfining xabar uzunligiga bog`liq ravishda ishlash samaradorligini vaqt bo`yicha tahlil qilish”, https://doi.org/10.62132/ijdt.v8i1.245.
6. Урунбаев Э., Са́дуллаева Шахризода. Анализ эффективности алгоритмов семейства SHA в зависимости от длины сообщения, Министерство Юстиции Республики Узбекистан. Свидетельство о официальной регистрации программы, созданной для электронно-вычислительных машин. № DGU 51413. 26.05.2025.

2D TASVIRLAR ASOSIDA YO‘L YAMALARINI ANIQLASH: TASVIRNI TO‘G‘RILASH VA CHUQURLIKNI HISOBLASH

Ibodullayev Sardor Nasriddin o‘g‘li
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
ORCID: 0000-0003-3652-4976 E-mail: s.ibodullayev@tuit.uz

Annotatsiya: Maqolada yo‘l yuzasidagi yamoqlarni raqamli tasvir asosida aniqlash va ularning hajmini hisoblash algoritmi taqdim etilgan. Segmentatsiya, kontur aniqlash, to‘g‘rilash (proyeksiyalash) va hajmni hisoblash bosqichlari bosqichma-bosqich tushuntirilgan. Eksperimentlar natijasida chuqurlik, yuzasi va hajmi aniqlangan va taklif etilgan yondashuvning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: 2D tasvir, chuqurlikni aniqlash, segmentatsiya, proyeksiyalash, hajmni hisoblash, yo‘l yamoqlari, OpenCV, kompyuter grafikasi

1. Kirish

Yo‘l infratuzilmasining sifati va xavfsizligi transport oqimining samarali harakatlanishi uchun muhim omillardan biridir. Yo‘l yuzasida paydo bo‘ladigan yamoqlar, chuqurlar va boshqa shikastlanishlar yo‘l transport hodisalari xavfini oshiradi hamda yo‘l ta’mirlash xarajatlarini ko‘paytiradi. Shu sababli, yo‘l yuzasidagi yamoqlarni aniqlash va ularning hajmini baholash avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, yo‘l yuzasining holatini baholashda raqamli tasvirlar va kompyuter grafikasi texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu tadqiqotning dastlabki bosqichida, yo‘l yuzasidagi yamoqlarni 2D tasvirlar asosida aniqlash va ularning hajmini taxminiy baholashga e’tibor qaratildi. Tasvirlarni qayta ishlash jarayonida tasvirni gorizontal holatga to‘g‘rilash, segmentatsiya va chuqurlikni hisoblash kabi usullar qo‘llanildi.

Maqolaning maqsadi — 2D tasvirlardan foydalangan holda yo‘l yuzasidagi yamoqlarni aniqlash, ularning chuqurligi va maydonini aniqlash orqali hajmni hisoblash metodikasini ishlab chiqishdir. Ushbu yondashuv kelajakda yanada rivojlantirib, 3D modellashtirish va batafsil tahlil imkoniyatlarini yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Metodlar

Ushbu tadqiqotda yo‘l yuzasidagi yamoqlarni aniqlash va ularning hajmini baholash 2D tasvirlar asosida amalga oshirildi. Taklif etilgan metodika bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘lib, har biri alohida algoritmik yondashuv asosida ishlaydi. Umumiy algoritm quyidagicha bosqichlarga ajraladi:

2.1. Tasvirni tayyorlash va kulrang formatga o‘tkazish

Raqamli rasm dastlab cv2.cvtColor() funksiyasi orqali RGB formatdan Gray (kulrang) formatga o‘tkaziladi:

$$I_{\text{gray}} = \text{cvtColor}(I_{\text{RGB}}) \quad (1)$$

Bu bosqichda rasm rangsizlantiriladi va keyingi bosqichlar uchun tayyorlanadi.

2.2. Segmentatsiya — Adaptive Thresholding

Kulrang tasvir segmentatsiya qilinadi va chuqur qismlar ajratiladi:

$$T(x,y) = \begin{cases} 255, & \text{if } I_{\text{gray}}(x,y) < \mu_{B(x,y)} - C \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (2)$$

Bu yerda μB(x,y)— lokal blok bo‘yicha o‘rtacha intensivlik, C — kompensatsiya parametri.

2.3. Kontur aniqlash va asosiy chuqurni tanlash

Segmentlangan rasmda cv2.findContours() funksiyasi yordamida barcha konturlar aniqlanadi. Ulardan eng katta maydonga ega bo‘lgani asosiy chuqur sifatida tanlanadi:

$$C_{\max} = \arg\max_{C_i} \left(\text{Area}(C_i)\right) \quad (3)$$

2.4. Tasvirni to‘g‘rilash (proyeksiyalash)

Agar chuqur qism chegarasini belgilovchi 4 nuqta aniqlansa, cv2.getPerspectiveTransform() orqali homografik to‘g‘rilash bajariladi:

$$M = \text{getPerspectiveTransform}(P, P') \quad \text{va} \quad I_{\text{rect}} = M \cdot I \tag{4}$$

Aks holda, to‘g‘rilash uchun bounding box (min-enclosing rectangle) ishlatiladi.

2.5. Yuza va chuqurlikni hisoblash

Yamay hududining piksellar soni hisoblanadi va real birliklarga o‘tkaziladi:

$$A_{\text{real}} = N_{\text{px}} \cdot s^2 \tag{5}$$

Bu yerda s — bir pikselga to‘g‘ri keladigan haqiqiy o‘lcham (metr).

Chuqurlik esa ROI (Region of Interest) bo‘yicha o‘rtacha piksel intensivligi yordamida hisoblanadi:

$$D = \frac{1}{|R|} \sum_{(x,y)\in R} I_{\text{gray}}(x,y) \tag{6}$$

2.6. Hajmni baholash

Oxirgi natija sifatida chuqurlik va yuzaning ko‘paytmasi orqali hajm baholanadi:

$$V = A_{\text{real}} \cdot D \tag{7}$$

Bu metodologiya orqali 2D tasvir asosida yo‘l yuzasidagi yamoqni aniqlash, yuzasi va chuqurligini hisoblash imkoniyati yaratiladi. Natijalar bo‘limida amalda olingan qiymatlar keltiriladi.

3.Natijalar

Taklif etilgan metodika asosida yo‘l yuzasidagi chuqur qismlarni aniqlash va ularning hajmini baholash bo‘yicha dastlabki eksperimentlar olib borildi. Raqamli rasm asosida quyidagi bosqichlar bajarildi: segmentatsiya, kontur aniqlash, to‘g‘rilash va geometriya asosida hisob-kitoblar.

3.1. Vizual natijalar

Quyidagi rasmda eksperiment natijalari ko‘rsatilgan (1-rasm):

Chap rasm — Kirish rasmi (yo‘l yuzasi)

Markaz rasm — Segmentatsiyalangan chuqur qism (Adaptive Threshold + Canny)

O‘ng rasm — To‘g‘rilangan tasvir va kontur bo‘yicha aniqlangan yamoq (bounding box asosida)



1-rasm. Asl rasm, chuqurlik segmenti va to‘g‘rilangan yamoq yuzasi

3.2. Hisoblangan qiymatlar

Quyidagi qiymatlar dasturiy algoritm asosida hisoblandi:

O‘lchov turi	Qiymat
Chuqurlik	0.0518 m
Umumiy yuzasi	0.021168 m²
Yakuniy hajm	0.001096 m³
To‘g‘rilash usuli	4 nuqta topilmadi, Bounding Box ishlatildi

Yuqoridagi natijalar real hayotdagi yo‘l yuzasidan olingan rasm asosida hisoblangan bo‘lib, hajm baholash formulasi quyidagicha qo‘llanildi:

$$V = A \cdot D = 0.021168\ \text{m}^2 \cdot 0.0518\ \text{m} = 0.001096\ \text{m}^3 \quad (8)$$

3.3. Tahlil

To‘g‘rilash bosqichida 4 nuqta aniqlanmaganligi sababli, chuqur qismni to‘g‘rilashda eng yaqin yondashuv — bounding box yordamida bajarildi. Bu usul to‘g‘rilikni to‘liq ta’minlamasada, hisoblashlar uchun yetarli aniqlikni beradi.

4. Munozara

Tadqiqotda 2D tasvir asosida yo‘l yuzasidagi yamoqni aniqlash, uning yuzasi va chuqurligini baholash orqali hajmni aniqlashga doir algoritmik yondashuv ishlab chiqildi. Olingan natijalar amaliy jihatdan foydali bo‘lib, dastlabki tahlillar ijobiy samara berganini ko‘rsatmoqda.

4.1. Yondashuvning afzalliklari

Soddalik va tezkorlik: Raqamli tasvirlar bilan ishlovchi algoritmlar yordamida yamoqlarni tez aniqlash imkoniyati yaratildi.

Hajmni avtomatik hisoblash: Yuza va chuqurlik asosida avtomatik hajm hisoblash yo‘lga qo‘yildi.

Proyeksiyalash asosida aniqlik: Tasvirni gorizontal holatga keltirish hisob-kitobdagi aniqlikni oshirdi.

Kameralar bilan integratsiya qilish imkoniyati: Algoritm keyinchalik avtomobilga o‘rnatilgan kameralar bilan ham birlashtirilishi mumkin.

4.2. Cheklovlar va kamchiliklar

4 ta nuqtaning aniqlanmasligi: Ba’zi hollarda chuqur qismni belgilovchi to‘liq 4 nuqta aniqlanmaydi, bu esa homografik proyeksiyani bajarishga to‘sqinlik qiladi.

2D yondashuvning chegarasi: Real chuqurlikning yanada aniq bahosi uchun 3D modelga ehtiyoj mavjud. Hozirda bu faqat sirt tahliliga asoslangan.

Yoritish va tasvir sifati ta’siri: Segmentatsiya jarayoni yoritish holatiga va kamera sifatiga sezilarli darajada bog‘liq.

Xulosa

Ushbu maqolada yo‘l yuzasidagi yamoqlarni 2D tasvir asosida aniqlash va ularning hajmini baholashga oid algoritmik yondashuv taqdim etildi. Taklif etilgan metodika tasvirni kulrang formatga o‘tkazish, segmentatsiya qilish, chuqur qism konturini aniqlash, to‘g‘rilash va geometrik hisob-kitoblar asosida hajmni aniqlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. O‘tkazilgan eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu yondashuv dastlabki baholashlar uchun yetarlicha aniq va foydalidir.

Adabiyotlar

1. Bradski, G., & Kaehler, A. (2008). *Learning OpenCV: Computer vision with the OpenCV library*. O'Reilly Media.
2. Hartley, R., & Zisserman, A. (2003). *Multiple view geometry in computer vision*. Cambridge university press.
3. Gonzalez, R. C., & Woods, R. E. (2018). *Digital Image Processing*. Pearson Education.
4. Suzuki, S., & Abe, K. (1985). Topological structural analysis of digitized binary images by border following. *Computer Vision, Graphics, and Image Processing*.
5. Serra, J. (1982). *Image Analysis and Mathematical Morphology*. Academic Press.
6. Alan Watt. (2000). *3D Computer Graphics*. Addison-Wesley.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma: *Muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi asoslari*, TATU nashriyoti, 2021.

JAMOATCHILIK FIKRINING SHAKLLANISHI VA BAHOLANISHIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Saribayeva Nigargul Bauetdinovna
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Gumanitar fanlar va tillar kafedrasi assistenti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Mustaqil izlanuvchisi (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni baholash jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn so‘rovlar va matn tahlili vositalarida AI algoritmlarining qo‘llanilishi orqali jamoatchilik kayfiyatini aniqlash va prognozlash imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada sun'iy intellekt yordamida ommaviy fikr monitoringi, trendlarni aniqlash, hamda raqamli manipulyatsiya xavflari kabi masalalarga ham e’tibor qaratilgan. Tadqiqot, AI texnologiyalari yordamida baholash jarayonlarining qanday qilib tezkor, avtomatlashtirilgan va aniq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu maqolada bu texnologiyalarning axloqiy va metodologik muammolari ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik fikri, sun'iy intellekt, baholash jarayoni, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot, ma'lumotlarni tahlil qilish, algoritmik monitoring, raqamli madaniyat.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib, turli sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) tizimlarining ommalashuvi axborot oqimlarini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni modellashtirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvallari jamoatchilik fikrini o‘rganish, asosan, sotsiologik so‘rovlar, intervyular va statistik tahlillar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayonlar sun’iy intellekt algoritmlari yordamida avtomatlashtirilmoqda. Ushbu maqolada jamoatchilik fikri va uning baholanishi jarayonida sun’iy intellektning tutgan o‘rni, samaradorlik darajasi hamda yuzaga kelayotgan metodologik va axloqiy muammolar muhokama qilinadi.

Jamoatchilik fikri va sun’iy intellekt masalalariga oid ilmiy adabiyotlar ko‘plab fanlar kesishmasida shakllangan bo‘lib, ular axborot texnologiyalari, sotsiologiya, siyosatshunoslik va kommunikatsiya nazariyalarini o‘z ichiga oladi. Habermasning "Ommaviylik makonining tuzilmalari" asarida jamoatchilik fikrining shakllanish mexanizmlari klassik tarzda izohlangan bo‘lib, bu nazariy asos zamonaviy raqamli jarayonlarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Crawford va Calo tadqiqotida sun’iy intellektning ijtimoiy va axloqiy “ko‘r nuqtalari” (blind spots) haqida fikr yuritilib, algoritmlarning shaffofligi va xolisligi muammoga aylanishi ta’kidlanadi (3). Allcott va Gentzkow esa ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan yolg‘on yangiliklarning jamoatchilik qarorlariga qanday ta’sir ko‘rsatganini statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib beradi(2).

Z.Tufekci algoritmik boshqaruvning ijtimoiy oqibatlarini chuqur o‘rganib, oddiy foydalanuvchi AI tizimlarining nozik qarorlariga qanday ta’sir qilolmasligini muhokama qiladi(6). Sunstein esa jamoatchilik fikrining sun’iy algoritmlar orqali ajratilishi jamiyatda “axborot kapsulalari” (echo chamber) paydo bo‘lishiga olib kelishini ta’kidlaydi(4). Gillespie kontentni algoritmik tarzda modellashtirish axborot oqimiga qanday ta’sir ko‘rsatishini, va bu orqali jamoatchilik qarashlarining shakllanishini tahlil qiladi(5).

Mahalliy adabiyotlarda ham bu mavzu bosqichma-bosqich o‘rganilmoqda. Xodjayev va Karimov sun’iy intellekt yordamida jamoatchilik fikrini monitoring qilishning dolzarb masalalariga e’tibor qaratib, O‘zbekistonda bu yo‘nalishda olib borilayotgan amaliy ishlarni ko‘rsatadi(8). Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yildagi PF-6313-sonli farmoni mazkur sohani davlat miqyosida rivojlantirish uchun normativ-huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda(7).

Jamoatchilik fikri – bu muayyan jamiyat yoki guruhning ijtimoiy-siyosiy, madaniy yoki iqtisodiy hodisalar yuzasidan bildirgan umumiy munosabati, kayfiyati va baholarining yig‘indisidir. Mazkur

tushuncha tarixan ommaviy axborot vositalari orqali shakllantirib borilgan bo‘lsa-da, bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar davrida bu jarayonlar tobora murakkablashib bormoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari aynan mana shu murakkab jarayonlarni tartibga solishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan:

Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar, izohlar va heshteglar asosida jamoatchilik kayfiyati aniqlanadi. Sun’iy intellekt algoritmlari ijobiy, salbiy va neytral munosabatlarni tezda ajrata oladi.

Trend tahlil vositalari orqali jamoatchilik e’tiborini tortayotgan mavzular aniqlanadi. Bu esa siyosiy strateglar, jurnalistlar va biznes subyektlari uchun muhim axborot hisoblanadi.

Online so‘rovlar va botlar yordamida fikrlarni olish tez va arzon hisoblanadi. Bu klassik sotsiologik tadqiqotlarga nisbatan ko‘proq ma’lumot beradi.

Sun’iy intellekt yordamida olingan bu ma’lumotlar chuqur tahlil qilinib, qaror qabul qiluvchi organlar, siyosatchilar yoki kompaniyalar tomonidan foydalaniladi. Ayniqsa, saylov kampaniyalari, marketing strategiyalari yoki ijtimoiy loyihalar rejalashtirilayotganda bu ma’lumotlar juda katta ahamiyatga ega.

Biroq, bu jarayonning ijobiy jihatlaridan tashqari, ayrim xavflar ham mavjud. Masalan:

Algoritmik tarafkashlik: agar AI noto‘g‘ri yoki biryoqlama ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa, u noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Manipulyatsiya va dezinformatsiya xavfi: soxta akkauntlar yoki botlar orqali jamoatchilik fikrini sun’iy tarzda o‘zgartirish mumkin.

Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi: foydalanuvchilarning roziligisiz ularning onlayn faolligi tahlil qilinishi axloqiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, jamoatchilik fikrini baholashda sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat texnik yondashuv, balki murakkab axloqiy va ijtimoiy masalalarni ham ko‘zda tutadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari jamoatchilik fikrini aniqlash, tahlil qilish va baholash jarayonlariga tubdan yangilik olib kirdi. An’anaviy sotsiologik usullarga nisbatan tezkorlik, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati bu texnologiyalarni dolzarb va samarali vositaga aylantirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar va foydalanuvchi faolligi asosida fikrlar va kayfiyatlar darajasini aniqlash zamonaviy baholash metodlarining ajralmas qismiga aylandi.

Shunga qaramay, AI asosidagi baholash tizimlari axloqiy va huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Algoritmik tarafkashlik, ma’lumotlar maxfiyligi va sun’iy manipulyatsiya xavfi jamoatchilik fikrining haqqoniy ifodalanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, bu texnologiyalardan foydalanishda nafaqat texnik kompetensiya, balki yuksak mas’uliyat, axloqiy yondashuv va shaffoflik tamoyillariga amal qilish muhimdir.

Kelajakda sun’iy intellekt va jamoatchilik fikrini o‘lchash usullarining integratsiyasi yanada chuqurlashishi kutilmoqda. Shu bois, ilmiy-texnik va ijtimoiy-gumanitar sohalar vakillari o‘rtasida uzviy hamkorlik zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Habermas, J. (1989). *The Structural Transformation of the Public Sphere*. MIT Press.
2. Allcott, H., & Gentzkow, M. (2017). *Social Media and Fake News in the 2016 Election*. Journal of Economic Perspectives, 31(2), 211–236.
3. Crawford, K., & Calo, R. (2016). *There is a blind spot in AI research*. Nature, 538(7625), 311–313.
4. Sunstein, C. R. (2018). *#Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media*. Princeton University Press.
5. Gillespie, T. (2018). *Custodians of the Internet: Platforms, Content Moderation, and the Hidden Decisions That Shape Social Media*. Yale University Press.
6. Tufekci, Z. (2015). *Algorithmic Harms beyond Facebook and Google: Emergent Challenges of Computational Agency*. Colorado Technology Law Journal, 13(203).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktabrdagi PF-6313-sonli Farmoni. *"Raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"*.

8. Xodjayev, A., & Karimov, M. (2023). *Jamoatchilik fikri va axborot texnologiyalari: zamonaviy yondashuvlar*. Toshkent: Ijtimoiy Fikr nashriyoti.

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH: TAJRIBA-SINOVLARINING QIDIRUV VA SHAKLLANTIRISH BOSQICHI XUSUSIYATLARI

Sayidova Muxtaram Xamidullayevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi katta o’qituvchisi
Email: muxtaram.saidova75@gmail.com
+998917010909

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmun-mohiyati va samaradorligi, tajriba-sinov ishlarida qo‘llaniladigan metod va vositalar, Bo‘lajak texnologiya o‘ituvchilarining shaxsiy salohiyatini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlari darajasi to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, kontseptsiya, shaxsiy salohiyat, kasbiy kompetensiya.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nazariy jihatdan muhim poydevorga ega bo‘lib, ta’limni konstruktivistik yondashuv asosida qayta tashkil etishni talab qilmoqda. Ushbu jarayon talabalarni bilimni faol egallovchi aktiv ishtirokchilarga aylantirish, ta’lim tizimini zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish, bilim manbalarini diversifikatsiya qilish va raqamli muhitda interfaol ta’limni ta’minlashni nazarda tutadi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining qidiruv bosqichiing asosiy maqsadi ishlab chiqilgan ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo’lajak texnologiya o‘qituvchilarining shaxsiy salohiyatini rivojlantirishning kontseptsiyasini aniqlashtirish va raqamli texnologiyalar sohasida texnologiya o‘qituvchilarining ilg‘or ta’limi tizimini loyihalash edi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar amalga oshirildi:

1. Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarining ilg‘or ta’limi tizimining elementlarini loyihalash, shu jumladan, o‘qituvchilarni tayyorlash texnologiyasining mazmunini shakllantirish, oqilona va samarali o‘qitish vositalarini tanlash va ishlab chiqish.
2. Ishlab chiqilgan ilg‘or ta’lim tizimini o‘quv jarayonida aprobatsiya qilish va uni baholash, ilg‘or ta’lim tizimini aniqlashtirish va tuzatish kiritish.
3. Raqamli texnologiyalar sharoitida texnologiya o‘qituvchisining ilg‘or ta’limining shaxsiy salohiyati darajasini aniqlash uchun diagnostika vositalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.

Tajribalarda biz quyidagi usullardan foydalandik:

uslubiy tizimning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini loyihalash va modellashtirish;

bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalarga o‘qitish jarayonini monitoring qilish;

shaxsiy ta’limni tahlil qilish;

pedagogik tadqiqotlar davomida olingan natijalarni umumlashtirish;

bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini raqamli texnologiyalarga o‘qitishning ilg‘or ta’lim tizimi elementlarini eksperimental tekshirish;

talabalarning motivatsion va kasbga yo‘naltirilgan sifatlarini aniqlash maqsadida so‘rov o‘tkazish.

Qidiruv bosqichida amalga oshirilgan tadbirlar va qo‘llangan uslubiy yondashuvlar raqamli texnologiyalar sharoitida texnologiya o‘qituvchilarining tayyorgarlik tizimini samarali tashkil etish uchun ilmiy-uslubiy asoslarni yaratishga imkon berdi. Bu jarayonda olingan ma’lumotlar va tekshiruv natijalari o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ilg‘or ta’lim tizimi elementlarini loyihalash ma’lum tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak. Tadqiqot nazariy qismida zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini ta’minlash uchun quyidagi ilg‘or ta’lim tamoyillariga asoslanish zarurligi isbotlandi:

kasbiy yo‘nalish: o‘quv jarayonida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yondashuv.
ilmiylik: ta’lim jarayonida ilmiy ma’lumotlarga asoslanish.
mavjudlik: ta’lim vositalarining real sharoitlarda qo‘llanish imkoniyati.
integratsiya: nazariya va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’minlash.
istiqbollilik: olingan bilimlarni kelajakdagi faoliyatda qo‘llash imkoniyati.
funksionallik: uslubiy tizimning aniq vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilganligi.
interaktivlik: ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol muloqotni ta’minlash.

Pedagogik tajriba-sinovning ushbu bosqichida tanlangan tamoyillarning to‘g‘riligini tasdiqlash va ular orasidan zamonaviy raqamli texnologiyalarga o‘qitish jarayoni uchun eng muhim bo‘lganlarini aniqlash uchun ekspert baholash usuli qo‘llanildi.

Mutaxassislar didaktik tamoyillarning ma’lum bir to‘plamidan raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq fanlarni loyihalashda hal qiluvchi bo‘lgan to‘rtta, ularning nuqtai nazaridan eng muhimini aniqlashlari kerak edi. Shu bois quyidagi bayonot shakllantirildi: «Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini zamonaviy raqamli texnologiyalarga o‘rgatish uchun o‘quv dasturlari asosida ishlab chiqilishi kerak (to‘rtta muhim fikrni belgilang):

- ilmiylik;
- fundamentallik;
- kerakli qiyinchilik darajasi bilan foydalanish imkoniyati;
- integrativlik;
- nazariyaning amaliyot bilan aloqasi;
- elektron ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- ijodiy ta’lim usullari va texnologiyalaridan foydalanish;
- aniqlik, usullarning xilma-xilligi».

Eng katta namunaviy qiymatlar zarur darajadagi qiyinchilik va elektron ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan mavjudlik tamoyillariga mos keladi. Ushbu tamoyillar respondentlarning 71 % va 65 % tomonidan tanlangan. Mutaxassislarning yarmidan ko‘pi ilmiy ta’lim dasturlariga ehtiyoj (59 %) va nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqalar mavjudligini (53 %) ta’kidladilar. Umuman olganda, tajriba natijalari tanlangan tamoyillarni tasdiqlaydi. Ammo ba’zi kelishmovchiliklar mavjud. Xususan, so‘ralgan ekspertlarning faqat uchdan bir qismi integrativlik tamoyilini tanladi (35 %). Biz ushbu tamoyilni asosiylaridan biri sifatida belgilaymiz, chunki ko‘rib chiqilayotgan raqamli texnologiyalar tabiatan integrativdir, va biz raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishda buni ko‘rsatish va hisobga olish kerak deb hisoblaymiz. Bu natija shunday ko‘rsatkichga ishora qiladiki, mutaxassislar raqamli texnologiyalarning tabiatan integrativ xususiyatini yetarlicha inobatga olmagan. Integrativlik raqamli texnologiyalarning tabiiy xususiyatidir. Raqamli texnologiyalar nazariya, amaliyot, va zamonaviy ta’lim vositalarini birlashtirish imkonini beradi. Shu boisdan, ushbu tamoyilni asosiy tamoyillardan biri sifatida ko‘rib chiqish zarur. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonida nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, shuningdek, turli ta’lim shakllari va metodlarini samarali qo‘llash imkonini beradi. Shu boisdan, integrativ yondashuv ta’lim jarayonida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Ekspert baholash natijalari biz tanlagan tamoyillarning asosliligini tasdiqlaydi. Biroq, integrativlik tamoyiliga nisbatan yetarlicha e’tibor berilmaganligini ko‘rsatadi. Ushbu holatni tuzatish uchun raqamli texnologiyalarning integrativ xususiyatlarini ta’lim jarayonida ko‘proq yoritish va ularning ahamiyatini targ‘ib qilish zarur. Bunda, mutaxassislar o‘rtasida raqamli texnologiyalarning integrativ xususiyatlarini tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ilmiylik, nazariya-amaliyot aloqasi va integrativlik tamoyillarini uyg‘unlashtirish uchun o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, integrativlik tamoyilining samaradorligini ilmiy-amaliy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda raqamli texnologiyalar mazmuni tegishli fanlarning dasturlarida keng va aniq yoritilishi kerak. Har bir predmet fanining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, raqamli texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llari yoritilishi muhimdir. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishda laboratoriya mashg‘ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashg‘ulotlar: mashg‘ulotlarning amaliyotga yo‘naltirilganligini ta’minlaydi; talabalarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantiradi; predmet fanlari bo‘yicha nazariya

va amaliyotni uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Bizning dasturlarimizda laboratoriya mashg‘ulotlari deyarli barcha fanlarga kiritilgan bo‘lib, ularning maqsadi talabalarga zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlash tajribasini berishdan iborat.

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu faoliyat quyidagi yo‘nalishlarda: **kurs dizayni** (raqamli texnologiyalarga asoslangan amaliy tadqiqotlar va ilmiy loyihalar ishlab chiqish), **yakuniy malakaviy ishlar** (talabalar tomonidan raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish va amaliy natijalarni taklif etish), **tanlovlar va fan olimpiadalarida qatnashish** (talabalarning innovatsion g‘oyalari va tadqiqot ishlarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatlarini yaratish)da amalga oshiriladi. Bu o‘rinda raqamli texnologiyalarni o‘quv dasturlariga chuqurroq integratsiya qilish, laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy uskunalar va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun universitetlar darajasida grantlar va resurslar ajratish, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun mutaxassislar va talabalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va o‘quv jarayoniga joriy etishda laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va kurs dizayni kabi ta’lim shakllari muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar texnologiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga va ularni zamonaviy raqamli muhitda ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda turli shakllardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bizning tasavvurimiz ushbu jarayonda ishtirok etgan yetakchi o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari bilan tasdiqlandi.

Mutaxassislarning javoblari belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil etildi:

Tegishli predmet fanlarini o‘zlashtirish davomida: «ha» javoblari 100% ni tashkil etdi. Natijalar shundan dalolat beradiki, barcha mutaxassislar fanlarni o‘zlashtirish raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda eng muhim jarayonlardan biri deb hisoblaydilar. Ushbu natija fanlar bo‘yicha raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish ta’lim jarayonining muhim qismi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘quv amaliyoti davomida: «ha» javoblari 44,4%ni, **«yo‘q»** javoblari 55,6% ni tashkil etdi. Mutaxassislarning yarmidan ko‘prog‘i o‘quv amaliyoti raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanishini rivojlantirish uchun muhim ekanligini qayd etgan. Bu ko‘rsatkich o‘quv amaliyoti jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishga yetarli darajada e’tibor berilmayotganini ko‘rsatadi.

Pedagogik amaliyot davomida: «ha» javoblari 66,7% ni, **«yo‘q»** javoblari 33,3% ni tashkil etdi. Bu natija pedagogik amaliyotning raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishda muhimligini ko‘rsatadi. Mutaxassislarning aksariyati ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlagan. Ushbu ko‘rsatkich raqamli texnologiyalarni pedagogik amaliyotda joriy etish muhimligini tasdiqlaydi, ammo qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Tadqiqot olib borish davomida: «ha» javoblari 88,9% ni, **«yo‘q»** javoblari 11,1% ni tashkil etdi. Mutaxassislarning aksariyati (88,9%) talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati raqamli texnologiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblashgan. Tadqiqot faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash dolzarb bo‘lib qolmoqda va yuqori darajada tan olinmoqda. Fanlarni o‘zlashtirish (100%) va tadqiqot olib borish (88,9%) raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jarayonida eng muhim shakllar sifatida tanlangan. Pedagogik amaliyot (66,7%) va o‘quv amaliyoti (55,6%) ham yuqori ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlangan. Natijalar shundan dalolat beradiki, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun o‘quv jarayonining turli bosqichlari va shakllari uyg‘un tarzda tashkil qilinishi lozim.

Xulosa

So‘rov natijalari o‘quv jarayonini tashkil etishning turli shakllari raqamli texnologiyalarning mazmunini talabalarga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu shakllar, ayniqsa, predmet fanlari, o‘quv va pedagogik amaliyot hamda tadqiqot faoliyati orqali rivojlantiriladi. Talabalarga raqamli texnologiyalar mutaxassisi bo‘lishlari uchun nazariy bilimlar bilan birga amaliy

ko‘nikmalarni ham samarali shakllantirish lozim. Ushbu yondashuv kelajakdagi texnologiya o‘qituvchilarining raqamli muhitda samarali ishlash qobiliyatini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Jo‘raev R.X., Tayloqov N. I. Axborotlashgan ta’lim muhiti – o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta'lim. IMJ. - T.: 2004. - №3. - 3-7 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste’dod, 2008. - 180 b.
3. Taylaqov N.I. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiya-larini joriy etishning istiqbollari // «Ta’lim va tarbiya». IMJ.- T.: 2002. - №1-2.- 27-30 b.
4. To‘raqulov O. «Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish». / ped. fanlari doktori dissert. – T., 2017.
5. Oybekova X., Choriev Yu. Ta’limda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish samaradorligi. / Zamonaviy ta’lim jurnali, 2015 yil.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–T.:2007. 30-32 b.
7. Sadikova F.M. Kommunikativ ko‘nikmalar va boshqaruv kommunikatsiyasi // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. – Toshkent, 2011. – № 4.– B. 54.

SAVDO MA’LUMOTLARI ASOSIDA KECHIKISH HOLATLARINI ANIQLASHDA MASHINAVIY O‘QITISH YONDASHUVLARI

Sayidqulov A.X.
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Sun’iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasi

Annotatsiya: Zamonaviy iqtisodiy sohalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma’lumotlarning tahliliy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sotuvdagi kechikish holatlarini oldindan aniqlash orqali mahsulot yetkazib berishdagi uzilishlarning oldi olinadi. Ushbu tezisda Logistic Regression va Random Forest modellariga asoslangan ikkilik tasniflash algoritmlari ishlab chiqilib, ular yordamida kechikish mavjudligi aniqlanadi. Har ikkala modelning matematik asoslari, optimallashtirish usullari va baholash ko‘rsatkichlari (Accuracy, Recall, Precision, F1 Score, RMSE, MAE, R^2) keng tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari modelning amaliy samaradorligini ko‘rsatib, iqtisodiy tizimlarda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: Logistic Regression, Random Forest, sotuvdagi kechikish, tasniflash algoritmlari, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, model baholash, Accuracy, Recall, F1 Score, RMSE, MAE, R-kvadrat, iqtisodiy bashorat.

So‘nggi yillarda iqtisodiy jarayonlarda yuzaga kelayotgan noaniqliklar, talab va taklifdagi beqarorliklar savdo tizimida mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlar muammosini keskinlashtirmoqda. Ayniqsa, tez o‘zgaruvchan bozor sharoitida mahsulotlar yetishmovchiligi yoki vaqtida yetkazilmasligi katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelmoqda. Shunday sharoitda, sun’iy intellekt algoritmlariga asoslangan bashoratlash tizimlari savdodagi kechikish holatlarini oldindan aniqlash imkonini berib, resurslardan oqilona foydalanishga va mijozlar ehtiyojini o‘z vaqtida qondirishga xizmat qiladi.

Logistic Regressiya bu ikkilik tasniflash masalalarida qo‘llaniladigan oddiy va samarali usuldir. U ma’lumotlar to‘plami asosida ehtimollarni hisoblash va ularni tasniflash uchun ishlatiladi. Bu usulning matematik modeli quyidagicha ifodalanadi.

Chiqish ehtimoli: Logistic Regression modelida har bir kirish x uchun chiqish ehtimolini quyidagicha ifodalaymiz:

$$P(y = 1|x) = \sigma(z) = \frac{1}{1+e^{-z}}$$

Bu yerda:

$P(y = 1|x)$ - bu kirish qiymati x uchun y=1 bo'lish ehtimoli.
$\sigma(z)$- sigmoid yoki logistika funksiyasi.
$z = w^T x + b$ - bu chiziqli kombinatsiya, bu yerda:
w - vaznlar vektori,
x - kirish o'zgaruvchilari vektori,
b - bias (og'ish) yoki constant.

$$P(y = 1|x) = \sigma(z) = \frac{1}{1 + e^{-(w^T x + b)}}$$

Sigmoid funksiyasi: Modelda ehtimolni sigmoid (logistik) funksiya orqali hosil qilamiz. Bu funksiya quyidagicha ifodalanadi:

$$\sigma(z) = \frac{1}{1 + e^{-z}}$$

Sigmoid funksiya qiymatlarni 0 va 1 oralig'iga keltirib beradi, bu esa ehtimollikni ifodalashga mos keladi.

Yo'qotish funksiyasi (Loss function): Logistic Regression modeli binary cross-entropy yoki log-loss deb ataladigan yo'qotish funktsiyasini minimallashtirish asosida o'rganadi. Yo'qotish funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$L(w, b) = -\frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N}(y_i(y_i|x_i)) + (1 - y_i)\, log(\, 1 - P(y_i|x_i)))$$

bu yerda:

N — namunalar soni,
y_i— haqiqiy chiqish qiymati (0 yoki 1),
$P(y_i|x_i)$ — Logistic Regression model tomonidan bashorat qilingan ehtimollar.
Logistic Regression modelining chiqishi P (= 1 I x) ni hisoblash uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$P(y = 1|x) = \frac{1}{1 + e^{-(w^T x + b)}}$$

Ushbu formula orqali Logistic Regression algoritmi kirish o'zgaruvchilariga asoslangan holda ehtimollarni hisoblaydi va 0 va 1 qiymatning chegaralariga qarab tasniflash natijalarini beradi.

Random Forest bu tasniflash va regressiya masalalarida keng qo'llaniladigan, barqaror va aniq natijalar beruvchi ansambl o'qitish (ensemble learning) algoritmidir. Bu algoritm ko'p sonli Decision Tree (qaror daraxtlari) modellaridan tashkil topgan bo'lib, har bir daraxt mustaqil ravishda o'qitiladi va ularning natijalari birlashtiriladi.

Tasodifiy xususiyat tanlash. Har bir tugunda ma'lumotlarni bo'lish uchun barcha xususiyatlardan faqat tasodifiy tanlangan kichik qismi hisobga olinadi. Tasniflash masalalari uchun odatda M xususiyatlar, regressiya masalalari uchun esa M/3 xususiyatlar tanlanadi. Bu yerda: M - umumiy xususiyatlar soni, tanlangan xususiyatlardan Gini impurity, Entropy, yoki MSE orqali bo'lish amalga oshiriladi. Tasniflash masalalarida Random Forest barcha daraxtlar ovozini hisoblab, eng ko'p ovoz olgan sinfni tanlaydi:

$$y = argmax_k \sum_{i=1}^{B} l(h_i(x))$$

Bu yerda:

$l(h_i(x))$ - agar i-daraxt x uchun k-sinfni tanlasa, qiymati 1 bo'ladi, aks holda 0. B - daraxtlar soni.

Regressiya masalalarida Random Forestdagi barcha daraxtlarning bashoratlari o'rtachasi olinadi:

$$y = \frac{1}{B}\sum_{B} i = h_i(x)$$

Bu yerda$h_i(x)$ - i-daraxtning x uchun bergan bashorati.

Oxirgi bashorat natijasi bo’yicha tasniflash masalasi hal qilinadi.

Tasniflash masalalari uchun bir qancha quyidagi baholash usullari mavjud. Real savdo ma’lumotlari asosida kechikish holatlarini aniqlash uchun Logistic Regression va Random Forest modellaridan foydalanilgan. Ikkilik tasniflash asosida masala “kechikish bor” yoki “kechikish yo‘q” sifatida yechiladi. Modellarning ishlashi aniqlik (accuracy), aniqlilik (precision), qamrov (recall) va F1-score kabi mezonlar orqali baholanadi. Taklif etilayotgan yondashuv savdo tizimlarida kechikish xavfini oldindan ko‘ra bilish va qaror qabul qilishda samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan Logistic Regressiya va Random Forest mashinaviy o‘qitishning modellari asosida algoritmlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan algoritmlar bo’yicha tajriba natijalari olindi va model aniqligi tahlil qilindi. Ishlab chiqilgan algoritmlar bo’yicha iqtisodiy soha uchun kechikishlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijalar quyidagi 1-jadval ko’rinishida ifodalanadi.

1-jadval. Mashinaviy o’qitish modellariga asoslangan algoritmlarning tajriba natijalari.

Algoritm nomi	**Baholash ko‘rsatkichlarining natijalari**			
	Accuracy	Recall	Precision	F1 Score
Logistic Regressiyaga asoslangan algoritm	0.73	0.73	0.98	0.83
Random Forestga asoslangan algoritm	0.92	0.96	0.94	0.94

Ushbu tezisda savdo tizimidagi mahsulot yetkazib berishdagi kechikish holatlarini aniqlash uchun Logistic Regression va Random Forest algoritmlari asosida mashinaviy o‘qitish modellari ishlab chiqildi. Har ikkala model matematik jihatdan asoslab berildi, ularning ustunliklari, kamchiliklari va baholash ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Random Forest algoritmi yuqori aniqlik va qamrov ko‘rsatkichlari bilan kechikishlarni aniqlashda samaraliroq natija berdi (F1 Score – 0.94). Taklif etilgan yondashuv real savdo ma’lumotlariga tayangan holda, iqtisodiy qarorlarni tez va asosli qabul qilish imkonini yaratadi. Shunday qilib, sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali savdo tizimlaridagi kechikish xavfini oldindan bashorat qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Ceh M., Kilibarda M., Lisec A., Bajat B. “Estimating the Performance of Random Forest versus Multiple Regression for Predicting Prices of the Apartments.” ISPRS Int. J. Geo-Inf. 2018, 7, 168.
2. Chatterjee S., Simonoff J.S., “Handbook ofRegression Analysis; John Wiley & Sons Inc.: Hoboken, NJ, USA, 2013, p. 240.
3. Friedman J.H. “Greedy Function Approximation: A Gradient Boosting Machine. Ann. Stat. 2001, 29, 1189-1232.
4. Korobov M. “Explaining behavior of Machine Learning models with eli5 library.” In Proceedings of the EuroPython Congress 2017, Rimini, Italy, 9-16 July 2017.
5. Nazarov F.M., Yarmatov Sh.Sh. “Development of algorithms for predictive evaluation of investment projects based on machine learning,” Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 2. eBook ISBN: 9781032684994, pages 681 – 685. 2024.
6. FM Nazarov, S Yarmatov, M Xamidov. Machine learning price prediction on green building prices. 2024 International Russian Smart Industry Conference (SmartIndustryCon), 906-911.
7. Pai P.-F., Wang W.-C. “Using Machine Learning Models and Actual Transaction Data for Predicting Real Estate Prices. Appl. Sci. 2020, 10, 5832.

SOTUV JARAYONLARIDA KECHIKISHLARNI MASHINAVIY O‘QITISH MODELLARI ASOSIDA BAHOLASHNING USULLARI

Sayidqulov A.X.
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Sun’iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy faoliyatdagi kechikish holatlarini oldindan aniqlash uchun mashinaviy o‘qitish modellari – Logistic Regressiya va Random Forest asosida algoritmlar ishlab chiqildi. Dastlab, mavjud usullar asosida ma’lumotlar to‘plami shakllantirildi. So‘ngra ishlab chiqilgan algoritmlar asosida tajribalar o‘tkazilib, ularning samaradorligi Accuracy, Recall, Precision va F1 Score kabi baholash ko‘rsatkichlari orqali tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, Random Forest modeli yuqori aniqlikni namoyon etdi (Accuracy – 0.92, F1 Score – 0.94) va iqtisodiy sohada kechikishlarni samarali aniqlash imkoniyatini yaratdi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, kechikishni aniqlash, iqtisodiy tahlil, Logistic Regressiya, Random Forest, baholash ko‘rsatkichlari, raqamli iqtisodiyot.

Dunyo miqyosida raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini turli sohalarga joriy etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayni paytda jamiyatning barcha jabhalari jadal sur’atlarda rivojlanar ekan, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt ham bu sohalarga tezlik bilan kirib bormoqda. Bugungi kunda ma’lumotlar oqimi keskin ortib borayotgani sababli, ularni tezkor tarzda qayta ishlash zaruriyati ham shunga mos ravishda oshib bormoqda.

Mashinaviy o‘qitish modellari yordamida kechikish holatlarini baholash uchun, eng avvalo, tegishli ma’lumotlar to‘plamini shakllantirish talab etiladi. Iqtisodiy sohada esa sotuvdagi kechikishlarni sun’iy intellekt asosida oldindan aniqlash maqsadida quyidagi muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan ma’lumotlar ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan usullar asosida mashinaviy o’qitish uchun ma’lumotlar to’plami tayyorlab olindi. Ushbu ma’lumotlar to’plami ichida sotuvdagi kechikish holatlarini aniqlash uchun zarur bo‘lgan barcha asosiy atributlar mavjud bo‘lib, ular modelga kiruvchi xususiyatlar sifatida qo‘llanildi. Ma’lumotlar to‘plami tozalandi va o‘rgatish hamda test uchun tegishli qismlarga ajratildi.

Keyingi bosqichda, tayyorlangan ma’lumotlar asosida Logistic Regression va Random Forest modellari qurildi va ular yordamida sotuvdagi kechikishlarni aniqlash bo‘yicha tasniflash vazifasi bajarildi. Modellar o‘qitilganidan so‘ng, ularning natijalari bir nechta asosiy baholash ko‘rsatkichlari Accuracy, Recall, Precision va F1 Score yordamida tahlil qilindi:

Accuracy (Aniqlik) modeli tomonidan to‘g‘ri tasniflangan namunalar ulushini ifodalaydi va umumiy samaradorlikni ko‘rsatadi.

Recall (Qamrov) kechikish holatlari to‘g‘ri aniqlanish ehtimolini bildiradi, ya’ni kechikish mavjud bo‘lgan holatlarni model qanchalik yaxshi topganligini o‘lchaydi.

Precision (Aniqlilik) esa model tomonidan kechikish deb tasniflangan holatlardan nechta haqiqatan ham kechikish ekanligini ko‘rsatadi.

F1 Score esa Precision va Recall o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydigan yagona ko‘rsatkich bo‘lib, ayniqsa sinflar o‘rtasidagi nomutanosiblik mavjud bo‘lganda muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan Logistic Regressiya va Random Forest mashinaviy o’qitishning modellari asosida algoritmlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan algoritmlar bo’yicha tajriba natijalari olindi va model aniqligi tahlil qilindi. Ishlab chiqilgan algoritmlar bo’yicha iqtisodiy soha uchun kechikishlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijalar quyidagi 1-jadval ko’rinishida ifodalanadi.

1-jadval. Mashinaviy o’qitish modellariga asoslangan algoritmlarning tajriba natijalari.

Algoritm nomi	**Baholash ko‘rsatkichlarining natijalari**			
	Accuracy	Recall	Precision	F1 Score
Logistic Regressiyaga asoslangan algoritm	0.73	0.73	0.98	0.83

Random Forestga asoslangan algoritm	0.92	0.96	0.94	0.94

Yuqorida keltirilgan Logistic Regressiya va Random Forest mashinaviy o‘qitishning modellari asosida ishlab chiqilgan algoritmlarning tajriba natijalarining diagrammasi 1-rasm ko’rinishida ifodalanadi.



1-rasm. Mashinaviy o’qitish modellariga asoslangan algoritmlarning tajriba natijalari.

Mashinaviy o’qitish modellari asosida ishlab chiqilgan algoritmlar yordamida iqtisodiy soha uchun sotuvdagi kechikishlarni aniqlashning tasniflash masalasi hal qilindi.

Ushbu tezisda mashinaviy o’qitish modellari asosida kechikishlarni baholashning usul va algoritmlarini ishlab chiqish bosqichlari bajarildi. Bunda mashinaviy o’qitish modellari asosida iqtisodiy soha uchun sotuvdagi kechikishlarni baholashning intellektual algoritmlari ishlab chiqildi. Dastlab sotuvdagi kechikishlarni baholash uchun ma’lumotlar to’plamini tayyorlash, tayyorlangan ma’lumotlar to’plamini o’qitish uchun Logistic Regressiyasi, Random Forest modellariga asoslangan algoritmlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan algoritmlar bo’yicha tajriba natijalari olinib model aniqligi tahlil qilindi.

Mashinaviy o‘qitish modellarining ushbu tahlili asosida ishlab chiqilgan algoritmlar iqtisodiy sohada sotuvdagi kechikishlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali vosita sifatida qo‘llanilishi mumkinligi isbotlandi. Kelgusida ushbu modellarni yanada takomillashtirish va qo‘shimcha xususiyatlar bilan boyitish orqali kechikishlarni aniqlash aniqligi va tezligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Korobov M. “Explaining behavior of Machine Learning models with eli5 library.” In Proceedings of the EuroPython Congress 2017, Rimini, Italy, 9-16 July 2017.
2. Nazarov F.M., Yarmatov Sh.Sh. “Development of algorithms for predictive evaluation of investment projects based on machine learning,” Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 2. eBook ISBN: 9781032684994, pages 681 – 685. 2024.
3. FM Nazarov, S Yarmatov, M Xamidov. Machine learning price prediction on green building prices. 2024 International Russian Smart Industry Conference (SmartIndustryCon), 906-911.
4. Sangani D., Erickson K., Hasan M. A., “Predicting Zillow Estimation Error Using Linear Regression and Gradient Boosting,” 2017 IEEE 14th International Conference on Mobile Ad Hoc and Sensor Systems (MASS), Orlando, FL, USA, 2017, pp. 530-534, doi: 10.1109/MASS.2017.88.
5. F Bolikulov, R Nasimov, A Rashidov, F Akhmedov, C Young-Im. Effective methods of categorical data encoding for artificial intelligence algorithms. Mathematics 12 (16), 2553

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

Shirinov Feruzjon Shuxratovich – Qo‘qon DU Informatika kafedrasi dotsenti, (PhD). (shirinov_0804@mail.ru)

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga qo‘shgan afzalliklari tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning ta’limda o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni taqdim etish va ularning muvaffaqiyatini prognoz qilishdagi imkoniyatlarini muhokama qilindi. Maqolada sun’iy intellektning asosiy texnologik vositalari, masalan, interaktiv o‘qitish tizimlari, o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilish va ta'limni individualizatsiya qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, maqolada sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanishi natijasida ta'lim samaradorligi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasining qanday yaxshilanishi mumkinligi ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar, ta’limda sun’iy intellekt, interfaol ta’lim, axloqiy kompas.

Ta’limda sun’iy intellektdan ta’limni yaxshilash, o‘qituvchilarga yordam berish va yanada samarali individual ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanish imkoniyati hayratlanarli, lekin bir oz qo‘rqinchlidir.

Ta’limda sun’iy intellektdan ta’limni yaxshilash, o‘qituvchilarga yordam berish va yanada samarali individual ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanish imkoniyati hayratlanarli, lekin bir oz qo‘rqinchlidir. Ta’limda sun’iy intellekt haqida aqlli suhbatlashish uchun, avvalo, kompyuterlar va robotlarning bolalarimizni o‘qitishi, o‘qituvchilarning o‘rnini bosishi va inson elementini tubdan insoniy faoliyatdan olib tashlash haqidagi xayoliy ilmiy-fantastik ssenariylarni chetlab o‘tish kerak.

Ta’limda sun’iy intellektning afzalliklari bo‘yicha yetakchi yozuvchilardan biri Metyu Linch (“Ta’limda sun’iy intellektning kelajagiga bo‘lgan qarashlarim”) ehtimoliy tuzoqlarni afzalliklari bilan birga ehtiyotkorlik bilan o‘rganib chiqadi va "Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish ba’zi jihatdan qimmatlidir, ammo biz uning rivojlanishini va bizning dunyomizdagi umumiy rolini nazorat qilishda o‘ta hushyor bo‘lishimiz kerak" deb yozadi.

Axloqiy mulohazalar har qanday vaziyatda sun’iy intellektdan foydalanishda bo‘lgani kabi chuqurdir. Sun’iy intellektda "axloqiy kompas" yo‘q. Shunday qilib, bir qarashda, TowardsDataScience ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellektning axloqi haqidagi maqolada sun’iy intellektni dasturlash "o‘z ishlab chiqaruvchisi kabi axloqiy" deb ta’riflanadi, bu esa oldinga siljish uchun ikkita muhim tavsiyalarni belgilaydi:

Biz nima uchun sun’iy intellekt bilan jihozlangan ma’lum bir texnologiyani ishlab chiqish g‘oyasiga axloqni singdirishimiz kerak.

Texnologiyaning xatti-harakatlarini to‘liq tushunish va u bizning (odam) axloqiy kompasimizni buzmasligiga ishonch hosil qilish uchun biz uning natijalarini nazorat qilishimiz kerak.

Texnologiya hamjamiyatida va undan tashqarida sun’iy intellektda etika haqida qizg‘in munozaralar mavjud va aksariyat universitet dasturlari sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha kurslarni o‘z o‘quv dasturlariga kiritmoqda. Xonada axloqiy filni aniqlaganimizdan so‘ng, keling, ta’limda sun’iy intellektning ajoyib imkoniyatlari haqida gaplashamiz.

Ta’limda sun’iy intellektning potensial afzalliklari

Ideal holatda, deb yozadi Linch "The EdAdvocate" jurnalida, "AI sinfda o‘qitishni kamaytirmaydi, lekin uni ko‘p jihatdan yaxshilaydi." U ta’limda sun’iy intellektni integratsiyalashning beshta qiziqarli potentsial afzalliklarini umumlashtiradi:

Shaxsiylashtirish: "Bitta o‘qituvchi uchun o‘z sinfidagi har bir o‘quvchining ehtiyojlarini qanday qondirishni aniqlash juda qiyin bo‘lishi mumkin Sun’iy intellekt tizimlari har bir talabaning individual o‘quv ehtiyojlariga osongina moslashadi va ularning kuchli va zaif tomonlaridan kelib chiqqan holda ta’limni maqsadli yo‘naltirishi mumkin."

Tutoring: AI tizimlari "o‘zlashtirilgan yordam va ko‘rsatmalarni taqdim etish uchun talabaning o‘qish uslubi va mavjud bilimlarini o‘lchay oladi."

Baholash: Albatta, AI javob kaliti yordamida imtihonlarni baholashga yordam berishi mumkin; lekin u "o‘quvchilarning qanday ishlashi haqida ma’lumot to‘plashi va hatto insho kabi mavhum baholarni baholashi" ham mumkin.

Kurs sifati haqida fikr-mulohaza: Masalan, agar ko‘p o‘quvchilar savolga noto‘g‘ri javob berishsa, "AI o‘quvchilar yetishmayotgan aniq ma’lumotlar yoki tushunchalarga e’tibor qaratishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchilar materiallar va usullarni maqsadli ravishda yaxshilashlari mumkin."

O‘quvchilarga mazmunli va tezkor fikr-mulohaza: Ba’zi o‘quvchilar tavakkal qilishdan yoki sinfda tanqidiy fikr-mulohaza olishdan tortinishlari mumkin, ammo "AI bilan o‘quvchilar o‘rganish uchun zarur bo‘lgan xatolarni qilishlari va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan fikr-mulohazalarni olishlari mumkin."

Ta’lim markazlarida sun’iy intellekt uchun mo‘ljallangan imkoniyatlarning aksariyati o‘qituvchilarning yanada mazmunli ishlarga vaqt ajratish uchun zerikarli ishlarga sarflaydigan vaqtini qisqartirishga qaratilgan.

Ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirish, shuningdek, muallif, futurist va texnologiya bo‘yicha maslahatchi Bernard Marr tomonidan ta’kidlangan beshta potentsial afzallikdan biri bo‘lib, u AQShda ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning 2017-2021-yillarda 47,5 foizga o‘sishini prognoz qilgan raqamlarni keltiradi.

Ta’limda sun’iy intellekt salohiyatiga bag‘ishlangan videoda Marr nima uchun sun’iy intellekt ta’limda "katta ta’sir"ga ega deb bilishini tushuntiradi - "Sun’iy intellekt o‘qituvchilar uchun tahdid emas; u o‘qituvchilarni almashtirish uchun emas, balki farzandlarimizga yaxshiroq ta’lim berish uchun yaratilgan." U "sun’iy intellektga ega tizimlarimiz va o‘qituvchilarimizdan eng yaxshisini olish" uchun mo‘ljallangan kelajakdagi gibrid modelni tasavvur qiladi. Marr bizning ta’limimizni yaxshilashga yordam berish uchun sun’iy intellektning imkoniyatlarini belgilaydi:

Tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta’lim
Ma’muriy vazifalarni avtomatlashtirish
Sinfdan tashqarida repetitorlik va yordam
Barcha o‘quvchilar uchun universal kirish

Ta’limda sun’iy intellekt namunalari

Metyu Linch "Sun’iy intellekt ta’limni buzmoqda deb hisoblaydigan eski maktab o‘qituvchisining" chaqirig‘idan ilhomlanib, "Sun’iy intellekt ta’limni yaxshi tomonga o‘zgartirishning 26 usuli" nomli asarida keng ko‘lamli mavzularni ko‘rib chiqadi. Masalan:

Adaptiv ta’lim: "Talabalarga asosiy va ilg‘or ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun ularning hozirgi ko‘nikmalarini baholash va ularga malakali bo‘lishga yordam beradigan yo‘naltirilgan o‘quv tajribasini yaratish orqali qo‘llaniladi."

Yordamchi texnologiya: SI maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga yanada adolatli ta’lim olishga yordam berishi mumkin, masalan, "ko‘zi ojiz o‘quvchiga parchalarni o‘qish."

Ilk bolalik ta’limi: "Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt bolalarga asosiy o‘quv ko‘nikmalari va boshqalarni o‘rgatadigan interaktiv o‘yinlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladi."Data and Learning Analytics: “

Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt o‘qituvchilar va ta’lim ma’murlari tomonidan ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish uchun ishlatiladi," bu ularga yaxshiroq ma’lumotli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Rejalashtirish: Ma’murlarga kurslarni rejalashtirishda va odamlarga kunlik, haftalik, oylik yoki yillik jadvallarini boshqarishda yordam berish.

Inshootlar boshqaruvi: SI "energiya, Wi-Fi va suv xizmatlari holatini nazorat qilish; muammolar paydo bo‘lganda inshootlar boshqaruvi xodimlarini ogohlantirish"da samarali.

Overall School Management: Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt butun maktablarni boshqarish, o‘quvchilar hisobini yuritish tizimlari, transport, AT, texnik xizmat ko‘rsatish, rejalashtirish, byudjetlashtirish va boshqalarni ta’minlash uchun ishlatiladi.

Yozish: Linch nafaqat sun’iy intellekt allaqachon o‘quvchilarga yozish ko‘nikmalarini oshirishga yordam berayotganini ta’kidlaydi, u tan oladi: "Men hozirda ushbu maqolani yozishda yordam berish

uchun grammatika va foydalanish ilovasidan foydalanaman." O‘z ro‘yxatini davom ettirar ekan, Linch, shuningdek, ta’limda sun’iy intellektning hozirgi kundagi ishlatilishini keltirib o‘tadi, jumladan:

- Sinfxona/Xulq-atvor boshqaruvi;
- Darsni rejalashtirish;
- Sinf audio-vizual;
- Ota-ona-o‘qituvchi muloqoti;
- Til o‘rganish;
- Testga tayyorgarlik;
- Baholash;
- Ta’limni boshqarish tizimlari;
- O‘quvchilar faolligini oshirish uchun geymifikatsiya;
- Xodimlarni rejalashtirish va o‘rinbosarlarni boshqarish;
- Malaka oshirish;
- Transport;
- Texnik xizmat ko‘rsatish;
- Moliya;
- Kiberxavfsizlik;
- Xavfsizlik va xavfsizlik;
- Hozirgi vaqtda sun’iy intellektdan oliy ta’limda qanday foydalanilishiga misollar:
- Plagiatni aniqlash;
- Imtihonning yaxlitligi;
- Ro‘yxatdan o‘tish va saqlash uchun chatbotlar;
- Ta’limni boshqarish tizimlari;
- Fakultet ma’ruzalarining transkripsiyasi;
- Kengaytirilgan onlayn muhokama doskalari;
- Talabalar muvaffaqiyati ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
- Akademik tadqiqotlar;
- Ulangan kampuslar;

Hozirda ta’limda qo‘llanilayotgan sun’iy intellektga asoslangan maxsus texnologiyalar bo‘yicha ro‘yxat kun sayin kengayib bormoqda. Quyida ulardan bir nechtasi keltirilgan:

Thinkster Math: uning yaratuvchilari tomonidan "matematika bo‘yicha repetitorlik dasturi shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish uchun insonning o‘zaro ta’siri va sun’iy intellektdan foydalanadi" deb ta’riflangan;

Jill Uotson: 2016-yilda Jorjiya texnologiya instituti tomonidan taqdim etilgan sun’iy intellektga ega virtual o‘qituvchi yordamchisi;

Brainly: sinf savollari uchun ijtimoiy tarmoq sayti;

Nuans: talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlatiladigan nutqni aniqlash uchun dasturiy ta’minot; daqiqasiga 160 tagacha so‘zni transkripsiya qila oladi; ayniqsa, yozuv bilan qiynalayotgan yoki qulayliklarga muhtoj talabalar uchun foydali;

Cognii: K-12 va oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, korporativ o‘quv tashkilotlari uchun AI asosidagi mahsulotlar, shu jumladan virtual o‘qitish yordamchisi;

KidSense: Bolalar uchun mo‘ljallangan AI ta’lim yechimlari, jumladan, yosh o‘quvchilarning ba’zan tarjima qilish qiyin bo‘lgan nutqini tanib olish uchun qurilgan algoritmlarga ega ovozli matnga aylantirish vositasi;

Kontent texnologiyalari: sun’iy intellekt tadqiqot dvigatellari bilan ta’minlangan o‘quv dizayni va kontentni qo‘llash yechimlari;

Doktor Skott Parfittning tushuntirishicha, Content Technologies Inc. "katta ma’lumotlarni axborotga va ma’lumotlarni bilimga aylantirishga" qaratilgan sun’iy intellektni o‘rganish tizimlarini ishlab chiqadi.

"Biz dvigatel yubordik, u yorug‘lik tezligida o‘qiy oladigan har bir maqolani o‘qiy boshlaydi. U o‘z materialini o‘rgandi, - deydi Parfitt. Kompaniyaning ta’limga yo‘naltirilgan yechimlari quyidagilardan iborat:

Palitt: o‘qituvchilarga "o‘zingizning maxsus ma’ruzalar seriyasi, o‘quv dasturi yoki o‘quv qo‘llanmangizni" osongina yaratishga yordam berish uchun yaratilgan

Cram101: AI texnologiyasi "har qanday darslikni boblar xulosalari, cheksiz rost-noto‘g‘ri va ko‘p tanlovli amaliy testlar va flash-kartalarni ma’lum bir darslik, ISBN raqami, muallif va bobgacha bo‘lgan aqlli o‘quv qo‘llanmasiga aylantira oladi.

JustTheFacts101: ilgarigi sariq markerning sun’iy intellekt ekvivalenti vazifasini bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, kitob va bobga xos xulosalarni bir zumda ajratib chiqaradi va yaratadi

Ta’limda AI (Inklyuzivlik va universal kirish)

Bernard Marrning tushuntirishicha, sun’iy intellekt vositalari inklyuzivlikni va ta’limga universal kirishni bir qator usullar bilan oshirishi mumkin, jumladan:

"Global sinfxonalarni barchaga, shu jumladan, turli tillarda so‘zlashuvchilar yoki ko‘rish yoki eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lganlarga ham ochiq qilishga" yordam berish;

“kasalligi tufayli maktabga bora olmaydigan o‘quvchilar” uchun ruxsat yaratish;

“boshqa darajada yoki o‘z maktabida mavjud bo‘lmagan ma’lum bir fan bo‘yicha o‘qishni talab qiladigan o‘quvchilarga” yaxshiroq xizmat ko‘rsatish.

Umuman olganda, sun’iy intellekt pirovard natijada o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ta’lim olishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan keng ko‘lamli jismoniy, kognitiv, akademik, ijtimoiy va hissiy omillarni hal qilishda doimiy o‘sishga yordam beradi va barcha o‘quvchilarning ijtimoiy sinfi, irqi, jinsi, jinsiy aloqasi, etnik kelib chiqishi yoki jismoniy va aqliy nogironligidan qat’iy nazar, ta’limda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Ta’limda sun’iy intellekt (individual ta’lim)

Sun’iy intellekt sinfning ajralmas qismiga aylangani sayin, o‘qituvchilar har bir talaba uchun individual ta’lim tajribasini taklif qilish uchun yaxshiroq jihozlangan bo‘ladi, degan g‘oya atrofida ham katta optimizm mavjud.

The Atlantic ("Sun’iy intellekt barcha uchun moslashtirilgan ta’limni va’da qiladi") maqolasida aytilishicha, sun’iy intellekt "inson o‘qituvchilarining dars jadvalini buzmasdan har bir o‘quvchiga darslarni moslashtirish qobiliyatini oshirish" salohiyatiga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning "o‘rtagacha o‘qitish" zaruratini bartaraf etadi, chunki ko‘pincha ularning o‘quvchilari bir qator malaka darajalari va o‘rganish qobiliyatlariga ega bo‘lishadi.

London universiteti kollejida ta’limga yo‘naltirilgan dizayn professori Roza Lakinning so‘zlaridan iqtibos keltiramiz: "Ta’lim uchun sun’iy intellektning haqiqiy kuchi shundaki, biz undan o‘quvchilar, o‘qituvchilar, o‘qitish va o‘rganish o‘zaro ta’siri haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda foydalanishimiz mumkin." Oxir-oqibat, sun’iy intellekt "o‘qituvchilarga o‘z o‘quvchilarini aniqroq va samaraliroq tushunishga yordam berishi mumkin."

Ta’limda sun’iy intellekt kelajagi

Ta’lim sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ijobiy va salbiy tomonlari, jumladan, depersonalizatsiya va yuqorida keltirilgan axloqiy mulohazalar bo‘yicha keng muhokamalar davom etayotgan bo‘lsa-da, hozirgi va kelajakdagi favqulodda foydalar diapazoni kun kechiradi degan konsensus mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva, G. (2019). Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati. O‘zbekiston pedagogika va psixologiya ilmiy-texnik jurnali, 5(2), 45-51.
2. Islomov, I., & Tursunov, M. (2020). Sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi roli. O‘zbek ta’limi va pedagogik texnologiyalar jurnalida, 4(3), 12-20.
3. Raxmonov, B. (2021). Ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va uning pedagogik afzalliklari. O‘zbekistonning ta’lim va ilmiy-texnik jurnali, 2(1), 34-38.
4. Shomurodov, T. (2022). O‘qitish jarayonida sun’iy intellektni qo‘llash: nazariya va amaliyot. O‘zbekiston pedagogika va informatika jurnali, 6(1), 55-60.

5. Suyarov, A. (2020). Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi ahamiyati va kelajagi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 68-72.
6. Saidov, K. (2021). Raqamli ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash: Sun’iy intellektning roli. Innovatsion ta'lim va texnologiyalar jurnali, 3(2), 15-22.
7. Heffernan, N. T. (2017). Intelligent tutoring systems: Past, present, and future. In Handbook of research on learning and instruction (pp. 576-598). Routledge.
8. Woolf, B. P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-centered Strategies for Revolutionizing E-learning. Morgan Kaufmann.
9. Joubert, M. (2020). Artificial intelligence in education: A review. International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology, 16(1), 108-118.
10. Siemens, G. (2013). Learning analytics: The emergence of a discipline. American Behavioral Scientist, 57(10), 1380-1400.

DIGITAL MEDIA IN EDUCATION

Shirinov Feruzjon Shuxratovich – Kokand State University, Associate Professor of Computer Science (PhD).
(shirinov_0804@mail.ru)

Annotation: This article presents a comprehensive analysis of the role of digital media in contemporary education systems. It explores how multimedia tools, interactive platforms, and emerging technologies are reshaping pedagogical practices, enhancing student engagement, and expanding access to quality learning experiences. The paper identifies both the benefits and challenges associated with the integration of digital media, including issues of digital equity, teacher readiness, and content reliability. By reviewing global trends and case studies, the study emphasizes the need for strategic implementation of digital tools to ensure inclusive, adaptive, and future-oriented educational environments. The article concludes by outlining key innovations—such as artificial intelligence, virtual reality, and blockchain—that are expected to drive the next generation of digital learning.

I. Introduction

The advancement of digital technologies over the past few decades has significantly transformed multiple industries, with education being one of the most impacted. In today's increasingly interconnected and technology-driven world, traditional education methods are no longer sufficient to meet the demands of a diverse and global student population. Digital media, encompassing video, audio, interactive content, and web-based tools, has emerged as a pivotal force in revolutionizing how education is delivered and received.

Digital media in education refers to the integration of various digital content formats and communication tools into the teaching and learning process. It enables the creation, dissemination, and interaction with educational material in ways that were previously unimaginable. From online tutorials and multimedia presentations to virtual classrooms and e-learning platforms, digital media provides students with enhanced learning experiences that are more engaging, flexible, and personalized. The COVID-19 pandemic, in particular, served as a catalyst for the rapid digital transformation of education systems worldwide, demonstrating the importance and potential of digital media in maintaining educational continuity during crises.

The significance of digital media is not only limited to distance learning; it also complements face-to-face instruction through hybrid and blended learning approaches. These methods offer the flexibility of online content delivery while preserving the benefits of traditional classroom interactions. Moreover, digital media supports various pedagogical strategies, including collaborative learning, inquiry-based learning, and flipped classrooms. As such, it has become an essential element of 21st-century education, aligning with global educational goals and the needs of a knowledge-based economy.

II. The Role of Digital Media in Modern Education

Digital media has become an essential component of modern pedagogical frameworks. One of its most significant contributions is the enhancement of content delivery through multimedia tools such as

videos, animations, podcasts, and simulations. These resources cater to diverse learning styles—visual, auditory, and kinesthetic—making the learning process more inclusive and effective.

Instructors today are increasingly using Learning Management Systems (LMS) like Moodle, Blackboard, and Google Classroom to organize course materials, facilitate discussions, and administer assessments. These platforms centralize learning resources and foster communication between students and teachers. Furthermore, they offer analytics that help educators monitor student progress and tailor instruction accordingly.

Another major area where digital media is impactful is in collaborative learning. Students can work on group projects using tools such as Google Docs or Microsoft Teams, enabling real-time collaboration regardless of geographical location. Peer review processes, online forums, and social media groups create a participatory learning culture that extends beyond the classroom.

Digital storytelling and gamification are also reshaping how content is presented and internalized. Gamified platforms use points, badges, leaderboards, and progress tracking to motivate students, especially in subjects like language learning and STEM. These elements not only make learning enjoyable but also improve retention and comprehension.

In higher education and professional development, MOOCs (Massive Open Online Courses) from platforms like Coursera, edX, and Udemy have democratized access to high-quality education. Learners can now access lectures from leading global universities and experts, complete assignments, and even earn certifications from the comfort of their homes.

III. Benefits of Integrating Digital Media in Education

The incorporation of digital media into educational settings provides numerous advantages for students, teachers, and educational institutions.

3.1. Accessibility and Flexibility: Students can access educational materials anytime and anywhere. This is especially beneficial for learners in remote or underserved regions who may not have access to traditional educational facilities. For individuals balancing education with work or family commitments, the flexibility offered by digital media is invaluable.

3.2. Enhanced Engagement: Multimedia content is more engaging than traditional text-based materials. Interactive videos, animations, and simulations can simplify complex topics and make learning more enjoyable. Gamification elements further drive motivation, especially among younger learners.

3.3. Personalized Learning Paths: Adaptive learning technologies analyze student performance and adjust content difficulty accordingly. Platforms like Khan Academy use AI-driven algorithms to offer personalized recommendations, enabling students to learn at their own pace and revisit concepts as needed.

3.4. Real-Time Feedback and Assessment: Digital assessments provide instant feedback, allowing students to understand their mistakes immediately. Teachers can use analytics to identify struggling students and provide timely interventions. Online quizzes, polls, and peer reviews enrich the assessment process.

3.5. Resource Efficiency: Institutions can save costs on printed materials, physical space, and logistics. Digital libraries, open educational resources (OER), and cloud storage offer scalable solutions for managing academic content.

3.6. Global Collaboration: Digital media fosters cross-cultural exchange and global collaboration. Virtual exchange programs and international discussion forums expose learners to diverse perspectives, promoting inclusivity and cultural sensitivity.

IV. Challenges in Implementing Digital Media in Education

Despite its numerous benefits, integrating digital media into education is not without challenges. These obstacles can limit its effectiveness if not addressed adequately.

4.1. Digital Divide: Access to digital devices and high-speed internet remains uneven globally. Students in low-income or rural areas may struggle to participate in digital learning. Bridging this divide requires investment in infrastructure and policy interventions at both national and institutional levels.

4.2. Teacher Readiness and Training: Many educators lack the necessary digital literacy to effectively use media tools. Professional development programs are crucial to build confidence and

competence in integrating technology into pedagogy. Moreover, curriculum design needs to accommodate the technical learning curve for both teachers and students.

4.3. Information Overload and Distraction: Students exposed to a vast array of digital resources may find it difficult to filter reliable content. Furthermore, digital distractions like social media notifications can hinder focus. Institutions must implement digital literacy programs to cultivate critical thinking and self-regulation among learners.

4.4. Data Privacy and Security: The use of digital platforms often involves the collection of student data. Ensuring the privacy and security of this data is essential. Educational institutions must comply with regulations like GDPR and adopt best practices in cybersecurity.

4.5. Equity and Inclusion: Digital content must be accessible to students with disabilities. Universal Design for Learning (UDL) principles should guide the development of inclusive educational materials, ensuring compatibility with screen readers, captioned videos, and alternative input methods.

V. Future Prospects of Digital Media in Education

As technology continues to evolve, the role of digital media in education is expected to expand further. Several emerging trends and innovations are shaping the future of learning.

5.1. Artificial Intelligence (AI): AI is revolutionizing education by enabling intelligent tutoring systems, predictive analytics, and automated grading. AI-powered platforms can track student progress and recommend tailored resources, making education more individualized and efficient.

5.2. Virtual and Augmented Reality (VR/AR): Immersive technologies like VR and AR are transforming subjects such as history, science, and medicine. Students can explore ancient civilizations, conduct virtual dissections, or simulate engineering processes in 3D environments, enhancing experiential learning.

5.3. Blockchain Technology: Blockchain can provide secure, verifiable records of academic achievements and credentials. This decentralization enhances transparency and simplifies the verification process for employers and institutions.

5.4. Internet of Things (IoT): IoT-enabled classrooms allow real-time monitoring of environmental conditions and student attendance. Smart devices can enhance interactivity and foster data-driven decision-making in educational institutions.

5.5. Lifelong and Microlearning: With rapidly changing job markets, there is an increasing demand for continuous skill development. Digital media supports microlearning—short, focused learning sessions—that can be accessed on-demand to fit into busy schedules.

VI. Conclusion

Digital media is reshaping education at every level, from primary schools to professional development. Its potential to personalize learning, increase engagement, and expand access makes it a cornerstone of 21st-century pedagogy. However, to fully realize its benefits, educational systems must address challenges related to infrastructure, equity, teacher training, and data security.

As we look toward the future, a thoughtful and inclusive approach to digital integration is crucial. Policymakers, educators, technologists, and communities must collaborate to create a learning ecosystem where every student has the opportunity to thrive in a digitally connected world.

REFERENCES

1. Atina, V., Nurchim, N., & Yudha, Y. A. (2020). Penerapan Aplikasi Augmented Reality sebagai Media Pembelajaran Digital di Taman Kanak-Kanak. Indonesian Journal of Community Services, 2(2), 172-180. https://doi.org/10.30659/ijocs.2.2.172-180
2. Demirbas, D., & Ogut, S. T. (2020). Re-designing the design brief as a digital learning tool with participatory design approach. Turkish Online Journal of Distance Education, 21(1), 83-100. https://doi.org/10.17718/tojde.690356
3. Hegarty, B., & Thompson, M. (2019). A teacher's influence on student engagement: Using smartphones for creating vocational assessment ePortfolios. Journal of Information Technology Education: Research, 18, 113. https://doi.org/10.28945/4244
4. Shuxratovich, S. F. (2023). PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11, 60-65.

5. Shuxratovich, S. F. (2023). COMPOSING AND SHAPING OF WEB TEXT. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 2, 51-56.
6. Shirinov, F. (2024). TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. University Research Base, 170-172.
7. Shuhratovich, S. F. (2023). TA'LIM JARAYONIDA AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 6, 303-307.
8. Shukhratovich, SF (2022). Technology of working with graphic programs. *Open Access Repository* , *9* , 99-102.
9. Shukhratovich, SF (2023). TECHNOLOGIES OF WEBSITE CREATION. *INTELLECTUAL EDUCATIONAL TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* , *2* , 57-63.
10. Shuxratovich, S. F. (2023). THEORETICAL AND DIDACTIC FOUNDATIONS OF THE DISTANCE EDUCATION SYSTEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11, 66-71.
11. Shukhratovich, S. F. (2022). The Field of Computer Graphics and Its Importance, Role and Place in The Information Society. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *4*, 86-88.

XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI

Ma’mur Shuhratov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun’iy intellekt kafedra assistenti
m.shuhratov@tsue.uz
Mo‘min Xayrullayev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun’iy intellekt kafedra assistenti
m.xayrullayev@tsue.uz

Annotatsiya: Korxona va tashkilotlarda xodimlar faoliyatini baholashda KPI (kalit samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda KPI tushunchasi, uning boshqaruvdagi roli va xodimlarning ish unumdorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, KPI tizimining afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, amaliy misollar yordamida tizimning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari asosida xodimlarni baholash va rag‘batlantirishda KPI indikatorlarining ahamiyati ochib beriladi.

Ka’lit so‘zlar: KPI (samaradorlik ko‘rsatkichi), xodimlarni boshqarish, ish faoliyatni baholash, ish samaradorligi tahlili, rag‘batlantirish tizimi, HR inson resurslari boshqaruvi .

Zamonaviy korxona va tashkilotlarda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri — bu inson resurslarini samarali boshqarishdir. Inson resurslari (HR — Human Resources) boshqaruvi — bu tashkilotdagi xodimlarni yollash, rivojlantirish, rag‘batlantirish va saqlab qolish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni o‘z ichiga olgan tizimdir. Tashkilotlar faoliyatida xodimlar nafaqat ishchi kuchi, balki strategik resurs sifatida qaralmoqda. Bunga sabab — texnologiyalar, ishlab chiqarish vositalari yoki kapitaldan farqli o‘laroq, inson resurslari tashkilotning ijodiy salohiyati, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Inson resurslari boshqaruvi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Tashkilot ehtiyojlariga mos kadrlarni yollash va joylashtirish;

Xodimlarning malakasini oshirish va ularni rivojlantirish;

Xodimlarni baholash va ularning faoliyatini monitoring qilish;

Motivatsiya tizimini ishlab chiqish va qo‘llash;

Ijtimoiy va mehnat muhitini sog‘lomlashtirish.

HR (inson resurslari)boshqaruv tizimi samarali tashkil etilgan tashkilotlarda xodimlar o‘z ishidan mamnun bo‘ladi, ishlab chiqarish unumdorligi oshadi, kadrlar aylanishi kamayadi va umumiy maqsadlarga erishish osonlashadi. Shu sababli, bugungi global raqobat sharoitida korxona va tashkilotlar

uchun inson kapitalini boshqarish nafaqat yordamchi funksiya, balki strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, xodimlar soni va bandlik holati



KPI yoki “samaradorlik ko‘rsatkichlari” — bu tashkilot yoki xodimlarning maqsadlariga erishish darajasini o‘lchash uchun qo‘llaniladigan o‘lchovlar yoki indikatorlardir. KPIlar muayyan faoliyatning samaradorligini baholash, monitoring qilish va nazorat qilish imkonini beradi.

KPIlarning boshqaruvdagi ro‘li

Strategik yo‘nalish va maqsadlarni aniq belgilash. KPIlar tashkilotning umumiy strategiyasini amaliy faoliyatga aylantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular yordamida rahbariyat xodimlar oldiga aniq va o‘lchanadigan vazifalar qo‘yadi.

Xodimlar faoliyatini baholash va monitoring qilish. KPIlar orqali xodimlarning ishdagi samaradorligi doimiy ravishda nazorat qilinadi. Bu esa muammolarni erta aniqlash va tuzatish choralarini ko‘rish imkonini beradi.

Rag‘batlantirish va motivatsiya tizimi. KPI natijalari xodimlarni rag‘batlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Yaxshi natijalar uchun mukofotlar, bonuslar yoki boshqa imtiyozlar taqdim etiladi.

Resurslarni samarali taqsimlash. KPIlar asosida qaysi sohalarda resurslar yetishmayotgani yoki ortiqcha ekanligini aniqlash mumkin, bu esa korxona samaradorligini oshiradi.

Jarayonlarni takomillashtirish va strategik rejalashtirish. KPIlar yordamida korxona faoliyatidagi zaif tomonlar va imkoniyatlar aniqlanib, ularni yaxshilashga yo‘naltirilgan strategik qarorlar qabul qilinadi.

KPIlar qanday belgilanadi va aniqlanadi

KPIlarni to‘g‘ri belgilash va aniqlash tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun juda muhimdir. KPIlar quyidagi bosqichlarda ishlab chiqiladi:

1. Tashkilotning strategik maqsadlarini aniqlash

– KPIlar tashkilotning umumiy strategiyasi va maqsadlariga mos bo‘lishi kerak.

– Masalan, agar strategik maqsad mijozlar sonini oshirish bo‘lsa, KPI sifatida mijozlarni ushlab qolish darajasi yoki yangi mijozlar soni tanlanadi.

2. O‘lchanadigan va aniq ko‘rsatkichlarni tanlash

– KPIlar aniq va o‘lchanadigan bo‘lishi shart (raqamlar, foizlar, vaqti).

– Masalan, “xodimlarning ish unumdorligi” o‘lchanadigan KPIga aylantirilishi uchun “bir xodim tomonidan bajarilgan vazifalar soni” ko‘rsatkichiga aylantiriladi.

3. Maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash

– KPIlar uchun aniq maqsad (target) qo‘yiladi.

– Masalan, “yillik savdo hajmini 10% ga oshirish” yoki “mijozlar qoniqish darajasini 85% ga yetkazish”.

4. KPIlarni boshqaruv darajalariga moslashtirish

– KPIlar strategik, operatsion yoki jamoa, individual darajada bo‘lishi mumkin.
– Har bir bo‘lim yoki xodim uchun mos ko‘rsatkichlar belgilanishi kerak.

5. KPIlarni muntazam monitoring va tahlil qilish

– KPI natijalari muntazam ravishda kuzatilib, baholanadi.
– Kerak bo‘lsa, KPIlar qayta ko‘rib chiqiladi yoki yangilanadi.

KPIlar aniqlanishda qo‘llaniladigan ba’zi usullar

SMART printsipi: KPIlar SMART (Specific - aniq, Measurable - o‘lchanadigan, Achievable - erishish mumkin, Relevant - dolzarb, Time-bound - vaqt bilan chegaralangan) mezonlariga mos bo‘lishi kerak.

Boshqaruv bo‘limlari bilan maslahatlashish: KPIlar bo‘lim rahbarlari va xodimlari bilan kelishiladi, ular faoliyatni eng yaxshi tushunadigan mutaxassislar hisoblanadi.

Benchmarking: Bozor va sohadagi eng yaxshi tajribalarni o‘rganib, unga mos KPIlar ishlab chiqiladi.

Xulosa

To‘g‘ri belgilangan KPIlar tashkilot faoliyatini aniq va samarali boshqarishga, xodimlarning maqsadga yo‘naltirilgan ish faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli KPIlar aniqlanishi aniq, o‘lchanadigan va tashkilot strategiyasiga mos bo‘lishi zarur. Ushbu ishda korxona va tashkilotlarda xodimlar faoliyatini baholashda KPI (kalit samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimining samaradorligi tahlil qilindi. KPIlar tashkilotning strategik va operatsion maqsadlariga erishishda muhim vosita bo‘lib, xodimlarning ish unumdorligini oshirish va rag‘batlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlanmoqda.

Tadqiqot davomida KPIlarning strategik, operatsion, moliyaviy va nomoliyaviy turlari ko‘rib chiqildi, shuningdek, KPIlar qanday aniqlanishi va boshqaruv jarayonida qanday qo‘llanilishi yoritildi. Samarali KPI tizimi xodimlarning faoliyatini aniq baholash, ularni maqsadga yo‘naltirish va natijalarga erishishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Kelajakda KPI tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish hamda korxona samaradorligini yanada yuqori darajaga olib chiqish uchun tizimli yondashuvlar va ilg‘or tajribalar joriy etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Armstrong, M. (2020). *Armstrong's Handbook of Human Resource Management Practice*. Kogan Page.
2. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action*. Harvard Business School Press.
3. Dessler, G. (2019). *Human Resource Management*. Pearson Education.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2024). *Mehnat bozori statistikasi*. https://stat.uz
5. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2019). *Organizational Behavior*. Pearson.
6. Harvard Business Review, *Using KPIs to Drive Employee Performance*, 2021.

TRANSFORMER MODELLARINING ISHLASH TAMOYILLARI

Sobirova Zarnigor G‘anijon qizi
zarnigorsobirova@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalaridagi yutuqlar tilshunoslik, tarjima, matn tahlili, dialog tizimlari va boshqa ko‘plab amaliy vazifalarni avtomatlashtirishda tub burilish yasadi. Ayniqsa, 2017-yilda taqdim etilgan Transformer arxitekturasi ushbu jarayonni keskin tezlashtirdi. Transformer modellar o‘zining self-attention (o‘ziga e’tibor qaratish) mexanizmi orqali an’anaviy RNN va LSTM modellaridan ustun bo‘lib, katta hajmdagi matnlardagi kontekstual bog‘liqliklarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada

Transformer arxitekturasiga asoslangan va bugungi kunda eng ko‘p qo‘llanilayotgan uchta yirik model — BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers), GPT (Generative Pre-trained Transformer) va T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) modellarining tuzilishi, o‘rganish tamoyillari, afzalliklari hamda ularning tabiiy tilni qayta ishlashdagi amaliy qo‘llanilishi batafsil tahlil qilinadi. Har bir model alohida struktura va o‘qitish uslubiga ega bo‘lib, ularning har biri turli xil NLP vazifalarida yuqori natijalarga erishgan. Maqolada ushbu modellar o‘zaro solishtirilib, ularning texnik imkoniyatlari, chegaralari va istiqbollari yoritiladi. Bundan tashqari, tilga oid vazifalarda Transformer asosidagi yondashuvlarning hozirgi zamon sun’iy intellekt tizimlaridagi o‘rni va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Transformer, BERT, GPT, T5, Encoder, Decoder, NLP, o‘rganish strategiyasi

KIRISH

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida inqilobiy yondashuvlardan biri bu Transformer arxitekturasi hisoblanadi. 2017-yilda Vaswani va uning hamkorlari tomonidan taklif etilgan ushbu arxitektura “Attention is All You Need” maqolasida e’lon qilinib, an’anaviy rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) o‘rnini bosuvchi asosiy modelga aylandi.

Transformer modellar katta hajmdagi matnlar ustida o‘rganish imkonini berib, kontekstual bog‘liqlikni chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada Transformer asosidagi uchta yirik model — BERT, GPT, va T5 chuqur o‘rganiladi. Transformer arxitekturasi va uning BERT, GPT, T5 kabi yirik til modellari NLPning deyarli barcha yo‘nalishlarida jadal qo‘llanila boshlandi.

Transformer modeli 2017-yilda Vaswani va hamkorlari tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, RNN va LSTM modellarining cheklovlarini bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan. Transformer an’anaviy ketma-ketlikka asoslangan modellar o‘rniga attention mexanizmini markaziy komponent sifatida ishlatadi. Bu esa modelga butun kirish ketma-ketligi bo‘ylab parallel ravishda ishlash imkonini beradi.

Transformer quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

Encoder – kiruvchi matnni (tokenlar ketma-ketligini) kodlaydi.

Decoder – chiqish matnini generatsiya qiladi (masalan, tarjimada).

Multi-head self-attention – har bir token boshqa tokenlar bilan kontekstual bog‘lanishini o‘rganadi.

Position encoding – matndagi so‘zlarning tartibini modelga bildiradi.

Transformer modelining asosiy afzalliklari:parallel ishlash imkoniyati, uzoq kontekstlarni eslab qolish qobiliyati, katta hajmdagi korpuslarda o‘rganish samaradorligi.

BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) 2018-yilda Google tomonidan ishlab chiqilgan va Transformer’ning faqat encoder qismiga asoslangan. BERT ikkala yo‘nalishda kontekstni o‘rganadi: ya’ni, har bir so‘z atrofidagi so‘zlarning chap va o‘ng tomonlarini bir vaqtda hisobga oladi. Bu uni kontekstni chuqur tushunishga imkon beradi. Uning afzalliklari: so‘zlar kontekstini to‘liq tahlil qilish, savol-javob tizimlari, nom taglash (NER), matn tasnifi kabi vazifalarda yuqori aniqlik, amaliyotda: Google qidiruv tizimi, hujjat tahlili, til identifikatsiyasi. Kamchiliklari ham bor: yozuv generatsiyasida zaif (faqat encoder),MLM strategiyasi real vaqtda ishlashga yaroqsiz.

GPT (Generative Pre-trained Transformer) modeli OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, Transformer’ning faqat decoder qismini ishlatadi. U bir yo‘nalishda — chapdan o‘ngga qarab matn generatsiya qiladi. Versiyalar va imkoniyatlar

GPT-2: 1.5 milliard parametr, ko‘p tilli matn generatsiyasi.

GPT-3: 175 milliard parametr, kod yozish, esse tuzish.

GPT-4: multimodal, kontekstni 128k tokenlargacha yodda saqlay oladi.

Afzalliklari: uzoq va uzviy matnlar generatsiyasi, kod yozish, tarjima, xulosa chiqarish, konversatsion AI (ChatGPT). Kamchiliklari esa kontekstdagi bir tomonlama yondashuv, ba’zan izchil bo‘lmagan generatsiya.

T5 modeli: Text-to-Text Transfer Transformer

T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) Google tomonidan 2020-yilda ishlab chiqilgan va barcha NLP vazifalarni "matndan matnga" aylantirish orqali umumlashtiradi.

Afzalliklari: moslashuvchanligi yuqori, ko‘p vazifali (multi-task learning), o‘rganish va qo‘llash mexanizmi bir xil shaklda. Kamchiliklari: yirik versiyalari uchun hisoblash resurslari talabchan, Encoder-Decoder strukturasi GPTga nisbatan sekinroq ishlaydi.

BERT, GPT va T5 modellarini taqqoslash

Model	Arxitektura	O‘rganish usuli	Afzalliklari	Kamchiliklari
BERT	Encoder	MLM + NSP	To‘liq kontekst	Yozuv generatsiyasida zaif
GPT	Decoder	Causal LM	Generatsiya kuchli	Kontekst bir yo‘nalishli
T5	Encoder+Decoder	Text-to-Text	Moslashuvchan, ko‘p vazifali	O‘qitish xarajatli

Transformer modellarining amaliy qo‘llanilishi



- Google: BERT qidiruv natijalarini yaxshilash uchun.
- OpenAI: GPT asosida ChatGPT, Codex, DALL·E.
- Facebook (Meta): BlenderBot, LLaMA modellar.
- HuggingFace: T5, DistilBERT, RoBERTa asosida ko‘plab NLP modellar.



Xulosa

Transformer arxitekturasi NLP sohasida inqilobiy burilish yasadi. BERT kontekstni to‘liq tushunishda, GPT esa generativ vazifalarda kuchli. T5 esa har qanday NLP vazifani matnga aylantirib, moslashuvchanlikni oshirdi. Ushbu modellar tilga oid vazifalarni avtomatlashtirish, tilni tushunish va dialog yaratishda mislsiz yutuqlarga olib keldi. Kelajakda Transformer arxitekturalarining yanada ixcham, energiya samarali va ko‘p tilli versiyalari ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaswani, A. va boshq. (2017). *Attention Is All You Need*. NeurIPS 2017.
2. Devlin, J. va boshq. (2019). *BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding*. NAACL 2019 (arXiv:1810.04805)
3. Brown, T. B. va boshq. (2020). *Language Models are Few-Shot Learners*. NeurIPS 2020 (arXiv:2005.14165, GPT-3)
4. Raffel, C. va boshq. (2020). *Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer*. J. Machine Learning Research, 21(140), 1-67 (arXiv:1910.10683, T5)
5. Radford, A. va boshq. (2018). *Improving Language Understanding by Generative Pre-Training*. OpenAI Tech Report (OpenAI GPT)
6. Raffel, C. va boshq. (2020). *Exploring the Limits of Transfer Learning with a Unified Text-to-Text Transformer*. J. Machine Learning Research, 21(140), 1-67

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI YORDAMIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: mirobidsulaymonov@gmail.com
Usanov Rashid Sharofovich.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
email: rashidusanov533@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt vositalari yordamida matematik modellashtirish metodlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. An’anaviy modellashtirish usullarining cheklovlari va sun’iy intellekt texnologiyalarining ularni bartaraf etishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Neyron tarmoqlar, mashinaviy o‘rganish va genetik algoritmlar kabi texnologiyalarning matematik modellashtirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan modellar murakkab jarayonlarni tezroq va aniqroq modellashtirishga imkon berishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, matematik modellashtirish, neyron tarmoqlar, mashinaviy o‘rganish, optimallashtirish, genetik algoritmlar.

Kirish. Matematik modellashtirish – bu real dunyo jarayonlarini matematik formulalar yoki algoritmlar asosida tavsiflash va tahlil qilish metodidir. An’anaviy modellashtirish usullari yuqori aniqlikni talab qiladigan murakkab tizimlar uchun yetarlicha mos kelmasligi mumkin. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi matematik modellashtirishda yangi yondashuvlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Sun’iy intellekt yordamida modellashtirish algoritmlari o‘z-o‘zini o‘rganish, katta ma’lumotlarni qayta ishlash va aniqlikni oshirish xususiyatlariga ega. Bu esa fizik, iqtisodiy, biologik va muhandislik tizimlarini modellashtirishni sezilarli darajada soddalashtiradi va natijalarni ishonchli qiladi.

Asosiy qisim. Bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida matematik modellashtirish bir qancha yo‘nalishlarda takomillashtirilmoqda. Bularga biz bir qanchasini aytishimiz mumkin bulardan bir bu “**Mashinaviy o‘qitish va matematik modellashtirish”** bu usul yordamida modellashtirish jarayoni avtomatlashtiriladi va real ma’lumotlar asosida modelning aniqligi oshiriladi. Bu madellar asosida eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlar quyidagilardir:[1]

Chiziqli va no-chiziqli regressiya – tizimlarning o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish;

Qaror daraxtlari va ansambllar – turli omillarning modelga ta’sirini baholash;

Sun’iy neyron tarmoqlar – murakkab tizimlarni tahlil qilish va prognozlash, kabi modellashlarni aytish mumkin.

Bundan tashqari “**Sun’iy neyron tarmoqlar asosida modellashtirish”** bu **s**un’iy neyron tarmoqlari matematik modellashtirishda Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyati, Modellashtirish natijalarini prognoz qilish, Noaniqlik sharoitida ham model samaradorligini saqlab qolish imkoniyatlarini beradi. Yana bir modellashtirishdan biri bu “**Genetik algoritmlar orqali optimallashtirish”** bu genetik algoritmlar murakkab tizimlarning optimal parametrlarini aniqlashda samarali usullardan biri hisoblanadi. Ular biologik evolyutsiya printsiplariga asoslanib, turli parametrlarni yaxshilashga imkon beradi.[2]

Demak biz bu texnologiyalar yordamida matematik modellashtirishni yanada takomillashtirish imkoniga ega bo‘lamiz, masalan matematik modellashtirishni samarali amalga oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida biz, “Gibrid modellar yaratish”- klassik matematik modellashtirish usullari va sun’iy intellekt texnologiyalarini birlashtirish, “Real vaqt rejimida tahlil qilish” – sensor va IoT qurilmalar yordamida real ma’lumotlarni modellashtirish va “Bulutli hisoblash va parallel hisoblash imkoniyatlari” – katta hajmdagi hisob-kitoblarni tezlashtirish imkoniyatiga erishamiz.

Bu imkoniyatlardan kelib chiqib biz sun’iy intellect asosida qurulgan modellarni bir qancha sohalarda qo‘llanilish mumkin bo‘ladi.

Moliya sohasida: Risklarni tahlil qilish, kredit reytinglarini bashorat qilish. Bu moliya sohasida sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va mashinani o‘rganish texnologiyalaridan foydalangan holda risklarni tahlil qilish va kredit reytinglarini bashorat qilish bo‘yicha samarali modellar ishlab chiqilmoqda. Ushbu modellar kompaniyalar va banklarga kredit olish jarayonida qarorlarni yaxshiroq qabul qilish, potentsial mijozlarning to‘lov qobiliyatini baholash va moliyaviy xatarlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Moliya sohasida risk tahlili va kredit reytingi bashorat qilishning afzalliklari Aniqlik, Tezkorlik, Firibgarlikni aniqlash, Shaxsiy yondashuvni beradi. 1-jadval.

	Размер кредита (руб)	1 200 000					
	Ежемесячное погашение (min,ру	14 458					
	ДАТА ПЛАТЕЖА	ОСТАТОК ЗАД-ТИ	Ежемесячное погашение	КОЛ-ВО ДНЕЙ	% СТАВКА	СУММА ПО %%	Общая сумма
1	2015, май	1 200 000	0	21	20,0	13 808,22	13 808,22
2	2015, июнь	1 200 000	14 286	30	20,0	19 726,03	34 012,03
3	2015, июль	1 185 714	14 286	31	20,0	20 140,90	34 426,90
4	2015, август	1 171 428	14 286	31	20,0	19 898,23	34 184,23
5	2015, сентябрь	1 157 142	14 286	30	20,0	19 021,51	33 307,51
6	2015, октябрь	1 142 856	14 286	31	20,0	19 412,90	33 698,90
7	2015, ноябрь	1 128 570	14 286	30	20,0	18 551,84	32 837,84
8	2015, декабрь	1 114 284	14 286	31	20,0	18 927,56	33 213,56
9	2016, январь	1 099 998	14 286	31	20,0	18 633,85	32 919,85
10	2016, февраль	1 085 712	14 286	29	20,0	17 205,27	31 491,27
11	2016, март	1 071 426	14 286	31	20,0	18 149,84	32 435,84
12	2016, апрель	1 057 140	14 286	30	20,0	17 330,16	31 616,16
13	2016, май	1 042 854	14 286	31	20,0	17 665,83	31 951,83
14	2016, июнь	1 028 568	14 286	30	20,0	16 861,77	31 147,77
15	2016, июль	1 014 282	14 286	31	20,0	17 181,83	31 467,83
16	2016, август	999 996	14 286	31	20,0	16 939,82	31 225,82
17	2016, сентябрь	985 710	14 286	30	20,0	16 159,18	30 445,18

1-jadval. Kredit grafigi.

Tibbiyotda: Kasalliklarni aniqlash va davolash modellarini yaratish. Kasalliklarni aniqlash va davolash modellari zamonaviy tibbiyotning muhim qismi bo‘lib, sun’iy intellekt mashinani o‘rganish statistika va tahliliy usullarga asoslanadi. Ushbu modellar bemorlarning sog‘lig‘ini baholash, kasalliklarni oldindan bashorat qilish va samarali davolash rejalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Tibbiyotda modellashtirishdan foydalanishning afzalliklari shundaki Tezroq va aniq tashxis qo‘yish, Bemor uchun individual davolash rejalarini yaratish, Kasalliklarni oldindan aniqlash va profilaktika qilish, Robotlar yordamida xavfsiz va aniq jarrohlik amaliyotlarini bajarish imkoniuatlarini beradi. 1-rasm.

1-rasm. Suniy intelektga asoslangan tibbiyot vositalari.

Muhandislikda: Muhandislikda murakkab tizimlarni modellashtirish va optimallashtirish ilmiy-texnik jarayonlarni tahlil qilish, ularni yaxshilash va samaradorligini oshirish uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy sanoat, qurilish, energetika, transport, avtomatlashtirish va boshqa sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalr yordamida ishlab chiqarish samaradorligini, resurslarni tejash, xavfsizlikni ta’minlash, yangi texnologiyalarni sinash**,** murakkab tizimlarni modellashtirish va optimallashtirish muhandislikning turli sohalarida samarali qarorlar qabul qilish, innovatsion loyihalar ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt va zamonaviy hisoblash texnologiyalaridan foydalanish esa ushbu jarayonlarni yanada tezkor va aniq bajarishga imkon beradi. 2-rasm.

2-rasm.3D printerlar.

Ekologiyada: Ekologiyada atmosfera va iqlim jarayonlarini prognoz qilish tabiiy ofatlarni oldindan aniqlash, ekologik muvozanatni saqlash va global iqlim o‘zgarishlarini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Ob-havo prognozlari, tabiiy ofatlar oldini olish, iqlim o‘zgarishini tahlil qilish, atmosfera va iqlim jarayonlarini prognoz qilish ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish va insoniyatga potensial tahdidlarni kamaytirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt va zamonaviy hisoblash texnologiyalaridan foydalanish bu jarayonlarni yanada aniq va samarali bajarishga imkon beradi.

Fizika va kimyo sohalarida: Moddiy jarayonlarning modellashtirilishi. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish fizikaviy va kimyoviy jarayonlarni chuqur o‘rganish, modellashtirish va optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu usullar murakkab hisob-kitoblarni tezlashtirish, yangi materiallar va kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilish imkonini beradi Katta ma’lumotlar tahlili, kompyuter simulyatsiyalari**,** sinir tarmoqlari va generativ modellar, Sun’iy intellekt fizikaviy va kimyoviy jarayonlarni tushunish va modellashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, yangi materiallar, ekologik toza texnologiyalar va yanada samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishda katta yutuqlarga yo‘l ochmoqda.

Bundan ko‘rinadiki sun’iy intellekt asosida matematik modellashtirishning afzalliklari yuqori hisoblash tezligi, o‘z-o‘zini o‘rganish imkoniyati, noaniqlik sharoitida ishlash qobiliyati va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi.

Xulosa. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi matematik modellashtirish usullarini sezilarli darajada takomillashtirishga imkon beradi. Neyron tarmoqlar, mashinaviy o‘rganish va genetik algoritmlar kabi yondashuvlar modellashtirishning aniqroq, tezroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi.

Kelajakda bu yo‘nalishda quyidagi tadqiqotlar amalga oshirilishi lozim: Sun’iy intellekt asosida yanada samarali matematik modellar yaratish; Mashinaviy o‘rganish algoritmlarini optimallashtirish; Parallel va bulutli hisoblash imkoniyatlaridan keng foydalanish. Sun’iy intellektning rivojlanishi matematik modellashtirishning yangi bosqichga chiqishiga sabab bo‘ladi va kelajakda yanada murakkab tizimlarni modellashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mamasidiqova, I., Husanova, O., Madaminova, A., & Tojimamatov, I. (2023). Data mining texnalogiyalari metodlari va bosqichlari hamda data science jarayonlar. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3 Part 2), 18-21/
2. https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlarni-intelektual-tahlil-qilishda-data-mining-qo-llash/viewer
3. https://ict.xabar.uz/uz/startap/big-data-texnologiyasi-va-undagi-malumotlarni-tahlil-etish.
4. Amaliy matematikaning zamonaviy muammolari va istiqbollari.
5. Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta’limtarbiyaning ahamiyati https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:8k81kl-MbHgC
6. Raqamli ta’lim muhitida fanlararo integratsiyani qo‘llashning ta’lim samaradorligiga ta’siri: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari

7. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9vBLcrUAAAAJ&citation_for_view=9vBLcrUAAAAJ:hqOjcs7Dif8C

TANIB OLISH ALGORITMLARINI QURISHNING ASOSIY USULLARI.

Mirzayev N, Tillavoldiyev A.O.
Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti.
azizbek.otabekovich@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda sun’iy intellekt va mashinali o‘qitishning muhim qismi bo‘lgan zamonaviy timsollarni tanib olish algoritmlari o‘rganiladi. Ma’lumotlarni tasniflashning turli usullari, jumladan, statistik, chiziqli, neyron tarmoqli va boshqa yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Har bir usulning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinadi, shuningdek, to‘liq bo‘lmagan yoki shovqinli ma’lumotlar bilan samarali ishlay oladigan universal va barqaror modellarni yaratish zarurligi muhokama qilinadi. Yuqori aniqlik va umumlashtirish qobiliyatini namoyish etuvchi kombinatsiyalangan va adaptiv algoritmlarga alohida e’tibor qaratilgan..

Asosiy qism.

Timsollarni tanib olish algoritmlarini ishlab chiqish sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va amaliy matematikada fundamental muammo hisoblanadi. Masalaning mohiyati ma’lumotlarning murakkabligi, o‘zgaruvchanligi va ko‘p sonli xususiyatlariga qaramay, ularni ishonchli tasniflay oladigan modellarni yaratishdan iborat. Bunday algoritmlarni qurishga zamonaviy yondashuvlarni statistik, evristik, neyrotarmoqli va o‘lchash nazariyasiga asoslangan turlarga ajratish mumkin. Bayes tasniflagichlari va eng katta o‘xshashlik usullari kabi statistik usullar tasniflash uchun matematik apparatdan foydalanadi, ammo sinflarning ehtimoliy xususiyatlari haqida oldindan ma’lumot talab qiladi.

Neyron tarmoqlar, xususan, chuqur o‘qitishda mustaqil ravishda tashkil etiladigan konvolyutsion tarmoqlar murakkab tasvirlarni, xoh u tasvir, tovush yoki matn bo‘lsin, tanib olishni yuqori darajada bajaradi. Biroq, ularni o‘qitish uchun ko‘proq hisoblash resurslari va katta hajmdagi ma’lumotlarni talab qiladi. Bunga esa muqobil yechim metrik fazolarda o‘lchash va tanib olish nazariyasidan foydalanishdir. U obyektlar orasidagi masofalar va yaqinlik o‘lchovlarini hisoblashga asoslangan. Asosiy masala esa mos keladigan o‘lchovlarni (Yevklid va noyevklid) ishlab chiqish va mahalliy va global miqyosda informativ belgilarni tanlashdir. Bundan tashqari, samaradorlikni oshirish uchun ansambl va kaskad modellarida turli yondashuvlarning afzalliklarini birlashtirgan kombinatsiyalangan usullar ishlab chiqish asosiy masala bo‘lib qolmoqda.

Timsollarni tanib olish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar o‘zgarayotgan ma’lumotlarga moslasha oladigan va ularning tuzilishini hisobga oladigan algoritmlarni yaratishga qaratilgan. Asosiy muammolar algoritmlarning ishlash mantiqini tushunishdan iborat va to‘liq bo‘lmagan yoki shovqinli ma’lumotlar mavjud bo‘lganda ularning ishonchliligi, shuningdek, murakkab sharoitlarda umumlashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ma’lum bir algoritmni tanlash vazifasi qo‘yilganda, ma’lumotlar aniq, tushunarli va hisoblash xarajatlariga qo‘yiladigan talablarini inobatga olishimiz kerak. Axborot yetishmasligi va dinamik muhit sharoitida ishlashga qodir bo‘lgan universal, moslashuvchan va barqaror modellarni ishlab chiqish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda..

Timsollarni tanib olish algoritmlarini qurish sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va amaliy matematika sohalarida fundamental masala hisoblanadi. Bundan maqsad tasvirni formallashtirishdir.

$$f: X \to Y,$$

bu obyektlarni eng yuqori aniqlik bilan tasniflash imkonini beradi. Bunday algoritmlarni yaratishning turli yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularni tanlash ma’lumotlarning xususiyatlari, talab qilingan aniqlik darajasi, natijalarni talqin etish imkoniyati va mavjud hisoblash resurslariga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy tasniflash usullarini bir nechta asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin.:

Statistik usullar.

Statistik usullar asosida ehtimoliy modellashtirish yotadi. Asosiy vositalardan biri Bayes teoremasidir.:

$$\hat{y} = \arg\max_y P(y|x) = \arg\max_y P(x|y)\,P(y),$$

bu yerda $P(y)$ — sinfning boshlang‘ich ehtimolligi, $P(x|y)$ — berilgan sinfdagi belgilar ehtimolligining shartli zichligi. Asosiy qoida noto‘g‘ri tasniflashning kutilgan xavfini minimallashtiradi.

Chiziqli ajratish usullari

Chiziqli usullar belgilar fazosini ajratuvchi gipertekislikka asoslanadi. Eng sodda holat - chiziqli diskriminant:

$$f(x) = \text{sign}(w^T x + b),$$

bu yerda w — vazn vektori, b — bo‘sag‘a. Bu usullar sinflarning chiziqli ajralishi shartida samarali hisoblanadi..

Metrik usullar

Metrik algoritmlar obyektlarning yaqinligi tushunchasiga asoslanadi. Mashhur yondashuvlardan biri k-NN usuli bo‘lib, unda sinf eng yaqin chegaradoshlar orasidagi ustunlik bo‘yicha aniqlanadi.:

$$\hat{y} = \arg\max_y \sum_{i=1}^{k} \delta(y_i = y)$$

bu yerda δ — sinf mos kelganda 1 ga, aks holda 0 ga teng bo‘lgan indikator funksiyasi.

Neyrotarmoq usullari

Neyron tarmoqlari kirish belgilarining murakkab nochiziqli o‘zgartirishlarini amalga oshiradi. Ko‘p qatlamli perseptron (MLP) - asosiy variantlardan biri bo‘lib, quyidagicha tavsiflanadi:

$$f(x) = \sigma(W_2 \cdot \sigma(W_1 x + b_1) + b_2),$$

bu yerda σ — aktivatsiya funksiyasi (masalan, ReLU yoki sigmoida), $W_1 W_2$— vazn matritsalari, $b_1 b_2$— siljish vektorlari. Neyron tarmoqlari sinflar orasidagi murakkab chegaralarni modellashtira oladi.

Informatsion-nazariy usullar

Axborotga asoslangan usullar belgilar va sinflar o‘rtasidagi o‘zaro ma’lumotlarni maksimal darajada oshirishga intiladi:

$$I(X;Y) = \sum_{x,y} P(x,y) \log \frac{P(x,y)}{P(x)P(y)}$$

Bu sinflar orasidagi tafovutga eng ko‘p hissa qo‘shadigan belgilarni tanlash va ma’lumotlarni taqdim etishda ortib ketishni minimallashtirish imkonini beradi.

Tanib olish algoritmlarini ishlab chiqish bir necha muhim xususiyatlarning eng maqbul kombinatsiyasiga intiladi: generalizatsiya qobiliyati (yangi ma’lumotlarga aniqlik), xatoliklarga chidamlilik, ishlash tezligi va olingan natijalarning aniqligi. Katta hajmdagi, turli xil va doimiy o‘zgaruvchan ma’lumotlar bilan ishlaydigan zamonaviy mashinali o‘qitish masalalari moslashuvchan va o‘zgaruvchan algoritmlarni talab qiladi.

Tanib olish algoritmining eng muhim xususiyati uning umumlashtirish qobiliyati hisoblanadi. Bunda yangi, noma’lum obyektlarni to‘g‘ri tasniflash tanib olish algoritmining eng muhim xususiyati bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun tartibga solish (ortiqcha o‘qitishning oldini olish uchun), eng muhim xususiyatlarni tanlash va ma’lumotlardagi ehtimoliy noaniqlikni hisobga oladigan Bayes usullari kabi turli xil usullar qo‘llaniladi.

Xulosa

Zamonaviy tanib olish algoritmlari murakkab holatlarda katta miqdordagi belgilar, o‘zgaruvchan ma’lumotlar va shovqinlar mavjudligida maksimal darajada universal va samarali bo‘lishga intiladi. Asosiy vazifa - nafaqat timsollarni tanib olish, balki yangi, ilgari uchramagan holatlarga moslasha oladigan modellarni yaratishdir..

Eng istiqbolli yondashuvlar kombinatsiyalangan va asta-sekin o‘rganiladigan usullar hisoblanadi. Ehtimollik, metrik va neyron tarmoq usullarini o‘zida birlashtirgan gibrid modellar yuqori aniqlik va ishonchlilikni ko‘rsatmoqda. Real vaqt rejimida yoki oqim shaklida keladigan ma’lumotlar bilan ishlash uchun bosqichma-bosqich o‘qitishga qodir bo‘lgan o‘sish algoritmlari juda mos keladi..

Xulosa qilib aytganda, tanib olish algoritmlarining rivojlanishi texnik diagnostika va tibbiyotdan tortib tasvirlarni qayta ishlash, matnni tahlil qilish va avtonom tizimlarni yaratishgacha bo‘lgan turli

sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal, o‘z-o‘zini o‘rganuvchi va shovqinga chidamli tizimlarni yaratishga qaratilgan..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дуда Р., Харт П., Сторк Д. *Распознавание образов и машинное обучение*. — М.: Техносфера, 2001.
2. Бишоп К. *Распознавание образов и машинное обучение*. — М.: Издательский дом "Вильямс", 2007.
3. Vapnik V. N. *The Nature of Statistical Learning Theory*. — Springer, 1995.
4. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. — MIT Press, 2016.
5. Муртазин Р.З. *Интеллектуальный анализ данных и машинное обучение*. — Казань: Казанский университет, 2018.
6. Куценко А.А. *Методы распознавания образов в задачах машинного обучения*. — СПб.: Лань, 2020.
7. Cover T., Hart P. *Nearest neighbor pattern classification*. — IEEE Transactions on Information Theory, 1967.
8. Shannon C.E. *A Mathematical Theory of Communication*. — Bell System Technical Journal, 1948.
9. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. *The Elements of Statistical Learning: Data Mining, Inference, and Prediction*. — Springer, 2009.
10. Schmidhuber J. *Deep Learning in Neural Networks: An Overview*. — Neural Networks, 2015.

FROM SYNTAX TO SEMANTICS: THE ROLE OF LINGUISTIC STRUCTURES IN AI'S JOURNEY TOWARD MACHINE COMPREHENSION

Tog‘ayev Sarvar Eshniyoz o‘g‘li
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Department of Foreign Languages, Assistant Teacher
sarvartogayev98@gmail.com
Aliyeva Saida Aziz qizi
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, majoring in "Philology and Language Teaching: English", 1st year student of the Faculty of Psychology,

Abstract: Artificial intelligence models (AI) emerged as key tools in the reign of the elaboration of natural language (NLP), demonstrating significant skills in understanding and generating a human language. At the center of these progress is the transition from addiction to syntactic structures to a more nuanced interpretation of semantics, underlining the incremental complexity of the linguistic understanding of the AI. Initially, many artificial intelligence models operated mainly within the boundaries of syntax, using grammatical rules and structures to analyze and generate language. This phase of the elaboration of language, guided mainly by algorithms that analyze the structure of the sentences, has allowed the effective management of well -trained sentences, thus providing a basis for subsequent progress. However, the addiction to syntax alone has limits; It cannot capture the wealth of meaning inherent in human communication, which often extends beyond the simple arrangement of words.

Key words: Artificial Intelligence (AI), Natural Language Processing (NLP), Syntax, Semantics, Transformer Models, Deep Learning, Contextual Understanding, Word Embeddings, Language Generation

Human-AI Interaction

The syntactic dependence of the first artificial intelligence models can be exemplified by systems based on the rules that have precisely followed grammatical conventions and have fought with idiomatic expressions, polysemic and pragmatic. These limitations have highlighted the need for artificial intelligence models to evolve: progress beyond the structural arrangement of language towards a deeper understanding of the meanings that these structures transmit. This move is fundamental, since language

is not simply a collection of words governed by grammatical laws; It is a complex tapestry woven with context, intent of speakers and cultural shades. Consequently, the transition from syntax to semantics represents a fundamental leap in the trajectory of the language processing skills.

The progress in deep and neural learning networks have facilitated this transition, allowing models to summarize linguistic structures in order to allow a richer semantic interpretation. Modern approaches, in particular those who use transformer architecture, have shown the ability to capture contextual relationships between words and phrases. Taking both local and global contexts in which linguistic elements occur, these models can deduce meanings that are simultaneously appropriate, thus opening the way to understand the most sophisticated machine. This is fundamental in applications involving the analysis of feelings, the translation of machines and conversational agents, in which the ability to analyze both syntax and semantics is fundamental.

The interaction between syntax and semantics in the NLP is crucial to reach an understanding of the complete machine. The syntactic structures act as scaffolding on which semantic interpretation is built, which implies that effective linguistic processing requires an integrated approach that respects both size. For example, while the syntactic analysis identifies the grammatical functions of words, semantic understanding allows models to interpret the implications and inferences that derive from these functions. Therefore, the improvement of the AI understanding skills is based on the interdependent relationship between syntax and semantics. As highlighted by Sain and Sain (2024), this evolution not only means greater refinement in the AI language models, but also offers new opportunities for applications that require a high degree of substantial understanding.

Furthermore, the meaning of this transition extends beyond technical progress; It increases substantial implications for the role of the AI in the interpretation of human language. The models that can navigate in the complexities of both syntax and semantics are to interact more naturally and effectively with users, leading to greater human-ai collaboration. The linguistic structures, therefore, are not simply formal indicators of grammarity; They are fundamental for how the meaning is built and understood, modeling the very essence of the communication itself (Pavlick, 2022). The researchers continue to explore this dimensions, aiming to further perfect the IA as it enters the nuanced world of the understanding and interaction of human language., Syntactic structures play a central role in IA language models, as they provide a fundamental framework through which language can be analyzed and understood. The syntax refers to the rules and principles which govern the formation of sentences, encompassing the arrangement of words and sentences to create well -formed sentences. In the treatment of natural language (NLP), the exploitation of syntactic structures is essential for various tasks, in particular the analysis, translation and analysis of feelings. However, excess syntax can lead to important limits, in particular to understand the nuances of meaning that occur in complex languages and contextual scenarios (Limisiewicz and Mareček, 2020).

At the heart of many models of AI is the understanding of how words are linked to each other in a sentence. Traditionally, syntactic analysis is used to generate trees that represent the grammatical structure of statements, allowing models to identify subjects, objects and predicates. Although these syntactic representations facilitate the initial stages of language treatment, they can lead to false ideas when applied in isolation. For example, consider the ambiguous nature of English expression "I saw the man with the telescope." An approach based on a syntax can produce a grammatically correct analysis, but it can fail to approach the underlying ambiguity as to whether the telescope modifies "man" or describes how "I" saw it. In this case, syntactic structures alone cannot capture the semantic depth required for a precise interpretation (Limisiewicz and Mareček, 2020).

The relationship between syntax and semantics is increasingly recognized as a focal point in the progress of Linguistic technologies of AI. Current models, such as those based on transformer architectures, have shown improvements in contextual understanding, largely because of their ability to take advantage of syntactic and semantic information (Abbas, n.d.). These models of transformers, in particular those using attention mechanisms, can prioritize relevant information in extended contexts, thus improving understanding. However, the complex link between syntactic representation and semantic understanding remains a subject of active exploration.

In addition, the role of the interests of words in this context cannot be overestimated. The incorporations of words - Vector representations of words generated from large corpus - can encapsulate syntactic and semantic relationships. While traditional approaches were based on purely syntactic indices to determine the proximity of vectors, contemporary integration models, such as Word2vec, Fasttext and Glove, have evolved to consider contextual interests. Consequently, these methods allow a more in - depth representation of meaning, effectively filling the gap between syntax and semantics (Daiu and Allushi, 2025). The contextual interests generated by models like Bert use attention mechanisms to unpack the meanings in word layers according to their surrounding syntax, thus aligning words with similar contextual uses, rather than on only their grammatical categories. This transition to a richer contextual representation marks a critical evolution in AI understanding strategies.

Moliya universiteti professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim sohasidagi raqamli transformatsiya iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Ilmiy ishlarni o‘rganish, o‘z tadqiqotlari asosida mualliflar hozirgi davrda oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt, robotlashtirish va boshqalar kabi raqamli texnologiyalar qo‘llanilayotganini ta’kidlaydilar. Bundan tashqari, mualliflar raqamli texnologik yechimlar nafaqat o‘quv jarayoni sifatini oshirishga hissa qo‘shishi, balki zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning drayverlaridan biri ekanligini ta’kidlaydilar.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifati, ilg‘or texnologik yechimlar, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Hozirgi vaqtda raqamli transformatsiya global jarayon bo‘lib, u jahon iqtisodiy tizimining barcha tarmoqlari va sohalari faoliyatida o‘z aksini topmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, loyiha yechimlari va boshqa tadbirlarning xilma-xilligi shundan dalolat beradi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu qadamlarning barchasi ilg‘or texnologik yechimlarni qo‘llash asosida mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga hissa qo‘shadi [1, 3].

Bunga mamlakatimizda qabul qilingan 2030-yilgacha mo‘ljallangan sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi yaqqol misol bo‘la oladi. O‘z navbatida, Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Raqamli transformatsiya bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshiradigan oliy ta’lim sohasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda oliy ta’lim sohasida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (BigData), buyumlar interneti (IoT), robotlashtirish, blokcheyn va boshqa texnologiyalar tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot ta’lim sohasini iqtisodiy tizimning boshqa tarmoq va sohalari bilan murakkabligi turlicha bo‘lgan masalalarni birgalikda hal etish va oliy malakali mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun kooperatsiya qilish va muvofiqlashtirishga ko‘maklashadi.

Zamonaviy davrda oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish masalalariga xorijiy va mahalliy olimlarning bir qator ishlari bag‘ishlangan. Xorijlik olimlardan R. Barro, M. Blix, X.R. Varian, D. Veyl, F. Goldfarb, S.M. Grinshteyn, Dj. Kendrik, K.Ye. Taker, I.E.Jukovskaya o‘zlarining ilmiy ishlarida raqamli texnologik yechimlarning oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonining tuzilishi va tashkil etilishiga ta’sirining konseptual asoslarini va shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini yoritib kelganlar. Mahalliy olimlardan S.S. Gulyamov [3], G.A. Abdurahmanova [4], B.A. Begalov [7] ushbu sohada izlanishlar olib borishgan.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar qisqa vaqt ichida ko‘plab turli xil vazifalarni bajarish imkonini beradi. Aynan tezkorlik va universallik ularni shu qadar talabgir qilgan. Raqamli iqtisodiyot har bir talabaning o‘z bilimlarini ijodiy qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishini, zamonaviy kompetensiyalarni egallashini, tanqidiy fikrlay olishini, mustaqil o‘rganishni va raqamli texnologiyalardan ta’lim va kundalik ishda to‘liq foydalanishni talab qiladi. Bunday qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish faol o‘qitish usullariga o‘tishni, murakkab tuzilgan ta’lim dasturlaridan foydalanishni va raqamli texnologiyalar infratuzilmasi bilan ham, professor-o‘qituvchilarning doimiy malakasini oshirish bilan ham bog‘liq muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishni talab qiladi.

Bugungi kunda tobora ko‘proq tadqiqotchilar raqamli oliy ta’lim muassasasi tushunchasini shakllantirishmoqda. Ko‘plab o‘rganilgan ta’riflardan kelib chiqib, “raqamli oliy ta’lim muassasasi” deganda, ta’lim muhitiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) kompleks joriy etishning keng qamrovli loyihasi tushuniladi. Bu loyiha dasturiy-apparat vositalarini uzluksiz takomillashtirish sharoitida ta’lim mazmunining funksionalligi va hajmini oshirish imkonini beradi.

O‘z navbatida, zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari - bu o‘quvchilarga ma’lumotni eng samarali tarzda yetkazish va turli xil o‘quv materiallarini yaratish imkonini beruvchi vositalar majmuasidir. Raqamli universitetga o‘tishning maqsadi har bir talabaning har kursda talab etiladigan ta’lim darajasiga erishishini ta’minlashdan iborat.

“Raqamli oliy ta’lim muassasasi”ning maqsadlari quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv faoliyatini optimallashtirish;

ta’limni individuallashtirish va sifatini oshirish;

xodimlarning axborot texnologiyalari bo‘yicha kompetentsiyasini rivojlantirish;

raqobatbardoshlikni kuchaytirish;

xavfsizlikni ta’minlash.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy “raqamli oliy ta’lim muassasasi” metodologik jihatdan yangi ta’lim standartlariga tayanib, kompetensiyaviy ko‘p bosqichli yondashuvni qo‘llaydi. Shu bilan birga, olimlarning ilmiy izlanishlari natijalariga ko‘ra, bugungi kunda raqamli texnologiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ta’lim oluvchilarga axborot va bilimlarni samarali yetkazish usullari;

o‘quv materiallarini yaratish usul va vositalari;

o‘qitishning samarali usullari.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasasini raqamlashtirish universitetning barcha darajalarida faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan xodimlar hamda talabalar foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, yangi raqamli xizmatlar va axborot-tahliliy tizimlarini tatbiq etish natijasida universitetni boshqarish va hujjat aylanishi samaradorligi ham yuksaladi.

Hozirgi kunda oliy ta’limni raqamlashtirish jarayoni quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyati;

raqamli vositalar, xizmatlar va resurslardan foydalanish imkoniyati;

o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish;

pedagoglaming raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash;

oliy ta’limni raqamlashtirish jarayonini boshqarish.

Shunday qilib, zamonaviy ta’limni raqamlashtirish davlat ta’lim siyosatining eng muhim jihatlaridan biridir. Ta’lim falsafasi va zamonaviy ta’lim siyosati nuqtayi nazaridan ta’lim muassasalarida barqaror raqamli muhitni yaratish va ta’minlash yangi ta’lim sifatiga erishishning asosiy shartlaridan biridir.

Bundan tashqari, ta’limni raqamlashtirish mohiyati raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida zarur ta’lim natijalariga erishish va ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish sari harakatlanish ekanligini ta’kidlash mumkin.

Raqamli texnologiyalar o‘quv ishlarini tashkil etish va o‘tkazishning yangi modellaridan amalda foydalanishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar ilgari an’anaviy muloqot usullari va axborot bilan ishlash usullari orqali amalga oshirishning murakkabligi tufayli ta’lim jarayonida munosib o‘rin egallay olmadi.

O‘z navbatida, oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari uchun mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha murakkab va ko‘p qirrali vazifalarni hal eta oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079 – son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5030957.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 14.10.2024 yildagi PQ – 358 son Qarori. https://www.lex.uz/docs/-7158604.
3. Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Проблемы развития цифровой экономики в Узбекистане. // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” Ilmiy elektron jurnali.–Toshkent, 2023. Maxsus son.
4. Abdurahmanova G. Q., Mirzaliyev S. M. Oliy ta’lim transformatsiyasining tashkily-iqtisodiy mexanizmlari. // “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” Ilmiy elektron jurnali.–Toshktnt, 2023. Maxsus son.
5. Жуковская И.Е. Цифровые платформы – важный аспект цифровизации высшего образования. Открытое образование. 2022;26(4):30-40. https://doi.org/10.21686/1818-4243 2022-4-31-40.
6. I. Zhukovskaya, Sh. Xashimxodjayev, E. Pilipenko. Digital Technological Solutions Are an Important Factor in The Effective Development of Higher Education in the Republic of Uzbekistan. IV International Scientific Congress “Society of Ambient Intelligence – 2021” (ISCSAI 2021).
7. https://doi.org/10.1051/shsconf/202110001016.
8. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Развитие сферы услуг – результаты настоящего для перспектив в будущем // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. 2022. № 4.

BILIMLARNI TASVIRLASH MODELLARI

Kamalov Sherzodbek Sabirovich
E-mail: kamalovsherzodbek1986@gmail.com
Andijon davlat texnika instituti, assistenti (O‘zbekiston)

Annotatsiya. Sun’iy intellekt sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan bilimlarni tasvirlash modellari o‘rganildi. Bilimlarni mashina tomonidan qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beruvchi modellar turlari – semantik tarmoqlar, ramkalar, ishlab chiqarish qoidalari, mantiqiy ifodalar va ontologiyalar haqida batafsil tushuncha berilgan. Har bir modelning ishlash prinsipi, afzalliklari va qo‘llanilish sohalari o‘rganilgan. Shuningdek, bilimlar bazasiga asoslangan tizimlarda bu modellarning ahamiyati va ular yordamida murakkab muammolarni hal qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so’zlari: bilimlar, interpretatsiya, tasvirlash freym, predmet, axborot, ierarxik, semantik, tarmoqlar, muloqot, qoida, mantiqiy modellar, evristik modellar.

Bizga ma`lumki XXI asr axborot texnika-texnalogiya va telekomunikatsiya asri hisoblanadi. Kompyuter va axborot texnalogiyalari jadal suratlar bilan yangilanib, rivojlanishi bilan birga kundalik turmushimizning asosiga aylanib bormoqda. Dunyoda globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda hayotimizni axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zamonaviy kompyuter texnikasi, internet, mobil aloqa vositalari vaqtni tejashi, ixcham, qulay va tezkorligi bilan kundalik turmush tarzimizga tobora chuqur singib bormoqda. Bugun axborotlarni bir zumda tarqatish, qabul qilish va iqtisodiy sarf xarajatlarni kamaytirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Katta hajmdagi berilganlardan bilimlarni ajratib olish sun’iy tafakkur sohasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bilimlarni shakllantirish yo‘llaridan biri predmet sohaning turli holatlari va ko‘rinishlarini tavsiflovchi, yetarlicha katta hajmdagi tajriba ma'lumotlarini berilganlarini qonuniyatlarni aniqlash maqsadidagi qayta-ishlash bo‘lib, uning natijalari bilimga akslantiriladi. An'anaviy usullardagi katta hajmdagi berilganlar to‘plamida tanlashni eksponensial o‘sishi sababli berilganlardan bilimlarni ajratib olishning bunday

usullarini kompyuterlarda amalga oshirishning imkoni yo‘q. Shu sababli, to‘la tanlovni cheklovchi va maqbul vaqtda natija beruvchi berilganlarni qayta-ishlashning maxsus usullarini yaratish va tadqiq qilish juda dolzarbdir [1].

Bilimlar bazasidagi bilimlarning tuzilishini ko‘rib chiqamiz. Barcha bilimlar interpretatsiyalanuvchi va interpretatsiyalanmaydiganga bo‘linadi.

Bilimlarni birinchi turi - bu echuvchini belgilash yoki interpretatsiyalashga qodir tur, ya’ni interpretatordir. Bilimlarning ikkinchi turi echuvchiga noma’lum va yordamchi va qo‘llab-quvvatlovchi bilimlarga bo‘linadi. Qo‘shimcha bilimlar tilning leksikasi va grammatikasi haqidagi axborotlarni va muloqotning tuzilishi haqidagi axborotlarni saqlaydi. Qo‘shimcha bilimlar amalda til haqidagi bilimlar va muloqot haqidagi bilimlarga bo‘linadi. Qo‘llab quvvatlovchi bilimlardan tizimni yaratishda va izohlarni bajarishda foydalaniladi. O‘z navbatida qo‘llab-quvvatlovchi bilimlar texnologik va semantik bilimlarga bo‘linadi. Texnologik bilimlar bilimlarni yaratilish vaqti va bilimlarning muallifi haqidagi ma’lumotlarga ega. Semantiq bilimlar bilimlarning ma’naviy bayon qilinishi [2].

Ular tarkibiga bilimlarni kiritish sabablari, bilimlarni belgilanishi, ulardan foydalanish usullari va olinadigan samara haqidagi axborotlar kiradi. shunday qilib qo‘llab-quvvatlovchi bilimlar bayon qilish harakteriga ega. Interpretatsiyalanuvchi bilimlar o‘z tarkibiga predmetli bilimlar, boshqaruvchi bilimlar va tasavvurlar haqidagi bilimlarni oladi.

Bilimlarning keyingi ikki turi meta bilimlar degan umumiy nom ostida birlashadi. Tasavvurlar haqidagi bilimlar interpretatsiyalangan bilimlar tizimda qanday taqdim etilganligi haqidagi axborotlarga ega. shunday qilib, predmetli sohani bayon qiluvchilar predmetli bilimlar haqidagi ayrim axborotlarga ega, masalan, qoidalar, ma’lumotlar, muhimlik va murakkablik o‘lchamlarining aniqlanganlik darajasi. Predmetli bilimlar bayon qiluvchi va shaxsan predmetli bilimlarga bo‘linadilar. Shaxsan predmetli bilimlar dalillar va operatsion bilimlarga bo‘linadilar. Operatsion bilimlar vazifa echilishini borishida predmetli sohani bayon qilinishini qanday o‘zgartirish mumkinligi haqidagi axborotlarga ega. Bu ishlab chiqish tadbirlarini beruvchi bilimlar. Boshqaruvchi bilimlar fokuslovchi bilimlar va hal qiluvchi bilimlarga bo‘linadi. Fokuslovchi bilimlar u yoki bu vaziyatda qanday bilimlardan foydalanish kerakligini bayon qiladi. Odatda fokuslovchi bilim eng istiqbolli gipotezalar va bilimlar haqidagi ma’lumotlarga ega, ulardan tegishli gipotezlarni tekshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hal qiluvchi bilimlardan ushbu vazifani echish uchun samaraliroq strategiyani tanlash uchun foydalaniladi. 1-rasmda bilimlar bazasidagi bilimlarning tuzilishi taqdim etilgan [3].



1-rasm. Bilimlar bazasidagi bilimlarning tuzilishi.

Bilimlarni tashkil qilish ostida bilimlarni tarkiblashtirish tushuniladi. Bilimlar quyidagiga tashkil qilinishlari mumkin:

-bilimlarni taqdim etish darajasi va detallik darajasi bo‘yicha tashkil qilish.

-bilimlarni tizimning ishchi xotirasida tashkil qilish.

-bilimlarni bilimlar bazasida tashkil qilish. Bilimlarni taqdim etish modellarining turli tumanligini 2 turga tasniflash mumkin.

-mantiqiy modellar.

-evristik modellar.

Mantiqiy modellarning asosida rasmiy nazariya tushunchasi yotadi. Mantiqiy modellarda bilimlarning alohida birliklari dalillar o‘rtasidagi munosabatlar rasmiy nazariyaning sintaktik bilimlari yordamida aks ettiriladi masalan, predikatlarni hisoblash. Mantiqiydan farqliroq evristik modellar u yoki bu muammoli sohaning o‘ziga hos xususiyatlarini uzatuvchi vositalarning turli tuman majmuasiga ega. Buning oqibatida evristik modellar mantiqiylardan ham imkoniyati yoki xuddi shunday aks ettirish, ya’ni muammoli sohani taqdim etish qobiliyati bo‘yicha va ham chiqishning foydalanilgan mexanizmining samaradorligi bo‘yicha ustivorlik qiladi. Evristik modellar tarmoqli, freymli yoki mahsulotli bo‘ladilar. Mantiqiy modellar predikatlarni hisoblash tilidan foydalanadilar. Birinchi predikatga munosabatning nomi mos keladi, dalilning atamasiga esa ob’ektlar. Predikatlar mantiqida foydalaniladigan barcha mantiqiy iborolar haqiqiy yoki yolg‘on ma’noga ega [4].

Masalan “Djon kompter bo‘yicha mutaxassisdir” iborasini ko‘rib chiqamiz. Bu ibora quyidagicha taqdim etilishi mumkin. Djon kompter bo‘yicha mutaxassisdir. Ammo bu ibora quyidagicha interpritatsiyalanishi mumkin: qandaydir X ob’ekti mavjud, u kompter bo‘yicha mutaxassisdir. Bunda yozuvning quyidagi formulasidan foydalaniladi, X kompter bo‘yicha mutaxassisdir. Smit IBM firmasida mutaxassis sifatida ishlaydi iborasi 3 dalilga ega predikat ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin: ishlaydi, Smit IBM firmasi, mutaxassis. Mantiqiy modellar bilan ishlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur.

Dalillarning tartibi hamma vaqt ushbu predmetli sohada qabul qilingan predikatning interpritatsiyasiga ko‘ra berilishi kerak. Dasturchi dalillarning qayd qilingan tartibi haqida qarorni qabul qiladi va unga boshidan oxirigacha rioya qiladi. Predikat dalillarning ehtieriy soniga ega bo‘lishi mumkin. Predikat va u bilan bog‘liq dalillardan tashkil topgan ayrim iboralar mantiqiy aloqalar yordamida murakkab iboralarga birlashtirilishi mumkin [5].

AGAR Smit dasturni yozsa va u ishlamasa, UNDA Smit dasturni kechqurun sozlashi yoki keyingi kuni dasturchiga topshirishi kerak. Iboralarda dalillar sifatida o‘zgaruvchilardan ham foydalanish mumkin. Bu holda o‘zgaruvchilar bilan ishlash uchun Kvantor tushunchasi kiritiladi. Kvantor ikki turda bo‘ladi:

Umumiylik kvantor ∀

2. Mavjud bo‘lishlik kvantori ∃ ∀(X) ba’zi bir predmetli sohada tegishli bo‘lgan qavs ichidagi o‘zgaruvchilarning barcha ma’nolari haqiqiy bo‘lishi kerakligini bildiradi.

∃(X) X ning ma’nolaridan faqat ba’zi birlari haqiqiy ∀, ∃ dan biri boshqasining tarkibiga kirishi mumkin. Kirish tartibidan iboraning ma’nosi o‘zgaradi. Bir necha misollarni ko‘rib chiqamiz:

Bu modellarning asosida tarmoqlar, cho‘qqilar va yoylar tushunchasi yotadi. Tarmoqlar oddiy va ierarxik bo‘ladi, unda cho‘qqilar - bu ba’zi bir tushunchalar, mohiyatlar, ob’ektlar, voqealar, jarayonlar yoki hodisalardir. Bu mohiyatlar o‘rtasidagi munosabatlar yoylar bilan aks ettiriladi. Abstrakt yoki aniq ob’ektlar odatda tushunchalar bo‘ladilar, munosabatlar esa bu («bu» («is»), “bir qismi bo‘ladi”, tegishli, sevadi ko‘rinishidagi aloqalar. Oddiy tarmoqlar ichki tuzilishga ega emas, ierarxik tarmoqlarda esa ba’zi bir cho‘qqilar ichki tuzilishga egalar. Munosabatlarning quyidagi uchta turini mavjudligi semantik tarmoqlarning harakterli xususiyatlari bo‘ladi:

sinf - sinfning elementi

xususiyat - ma’no

sinf elementining misoli

Oddiy semantik tarmoqning parchasini keltiramiz. Ikromga ba’zi bir vaqt t1 dan t2 gacha davomida “Lada” avtomobili tegishli. U B1 hodisasida mulk egasi bo‘ladi. Ikrom “Odam” to‘plamida element bo‘ladi, uning avtomobili esa avtomobil - VAZ to‘plamidagi elementdir. B1 hodisasi “egalik qilish” hodisalar to‘plamida element bo‘ladi, u vaziyatlar to‘plamida to‘plamcha bo‘ladi. E Yoyi to‘plamning elementini bildiradi, P Yoyi to‘plamchani bildiradi. PR Yoyi kesishmaydigan har xil to‘plamni bildiradi. ER yoyi kesishmaydigan har xil elementdir.

Ierarxik semantik tarmoqlarda tarmoqlarni tarmoqchalarga bo‘linishi ko‘zda tutiladi va munosabatlar nafaqat cho‘qqilar o‘rtasida, balki tarmoqchalar o‘rtasida ham o‘rnatiladi.

Yuqoridagi keltirilgan rasmda joylarning daraxti aks ettirilgan. P6 joyi uchun P_4, P_2, P_0 joylari chegarasida yotgan joylarning barcha cho‘qqilari ko‘rinadi, qolganlari esa ko‘rinmaydi. “Ko‘rinishlik” munosabati joylarni tartibga solingan ko‘pchilik “istiqbollar”da guruhlash imkoniyatini beradi [6-7].

Ierarxik tarmoqlarni grafik tasvirlarining qoidalari yoki bitimlarini ko‘rib chiqamiz. Bir joyda yotgan cho‘qqilar va yoylar to‘g‘ri to‘rtburchak yoki ko‘pburchak bilan cheklanadilar. Yoy uning nomi yotgan joyga tegishli bo‘ladi.

P_j joyning ichida tasvirlagan P_i joyi avlod ichki daraja hisoblanadi, ya’ni P_i dan P_j “ko‘rinadi”. P_i P_j da etgan super cho‘qqi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Semantik tarmoq ko‘rinishidagi bilimlar bazasida echimni qidirish muammosi qo‘yilgan savolga mos keluvchi ba’zi bir tarmoqgacha tegishli tarmoq qismini qidirish masalasidan iborat bo‘ladi.

Tarmoqli semantik tarmoqning asosiy afzalligi - insonning uzoq muddatli xotirasini tashkil qilish haqidagi zamonaviy tasavvurga mos kelishidadir. Modellarning kamchiligi - semantik tarmoqka chiqishni qidirishning murakkabligidir.

O‘zida har xil modellarning afzalliklarini birlashtiruvchi taqdim etishlarini ishlab chiqishga harakat qilish freym - taqdim etishlarni vujudga kelishiga olib kelgan. Freym (inglizcha Frame - qolip yoki ramka) - bu qandaydir andozaviy vaziyat yoki abstrakt obrazni taqdim etish uchun mo‘ljallangan bilimlarning tuzilishi. Har bir freym bilan quyidagi axborotlar bog‘lanadi:

• Freymdan qanday foydalanish haqidagi.
• Freymni bajarishdan kutilgan natijalar qanday.
• Agar kutishlar o‘zini oqlamasa, nima qilish kerak.

Freymning yuqori darajasi qayd qilingan va ushbu freym tomonidan bayon qilinayotgan mohiyatlar yoki haqiqiy vaziyatlardan iborat bo‘ladi. Pastki daraja slotlardan iborat, ular freymni chaqirishda axborotlar bilan to‘ldiriladi [8].

Freymlar tizimi odatda axborotli qidirish tizimi ko‘rinishida taqdim etiladi, ulardan taklif etilayotgan freymni belgilangan vaziyatga mos keltira olinmaganda, ya’ni slotlarga ushbu slotlar bilan bog‘liq shartlarni qanoatlantiruvchi ma’nolarni berish mumkin bo‘lmaganda foydalaniladi. Bunday vaziyatlarda tarmoqdan boshqa freymni qidirish va taklif etish uchun foydalaniladi [9].

Freymlar - namunalar yoki bilimlar bazasida saqlanayotgan timsollar va kelib tushayotgan ma’lumotlar asosida haqiqiy vaziyatni aks ettirish uchun yaratiladigan freymlar nusxalar farqlanadi. Freymning modeli etarlicha universaldir, chunki dunyo haqidagi bilimlarning barcha turli tumanliklarini quyidagilar orqali aks ettirishga imkon beradi. Ob’ektlar va tushunchalarni aks ettirish uchun freymlar - tuzulmalar zaem, gorov, veksel [10].

Freymlar - rollar menejer, kassir, mijoz

Freymlar - senariyalar bankrotlik, hissadorlar majlisi

Freymlar - vaziyatlar xavotir, avariya, qurilmaning ish tartibi.

Freymlar nazariyasining eng muhim xususiyati semantik tarmoqlar nazariyasidan meros xususiyatlarini qarzga olishidir. Ham freymlarda va ham semantik tarmoqlarda meros qoldirish AKO-aloqalar bo‘yicha sodir bo‘ladi (A – kind - of). AKO slot ierarxiyaning eng yuqori darajasidagi freymni ko‘rsatadi, undan yaqqol meros olinmaydi, ya’ni xuddi shunday slotning ma’nosi ko‘chiriladi. Xususiyatlarni meros olish qisman bo‘lishi mumkin, ya’ni, o‘quvchilar uchun yoki bola freymidan meros qilib olinmaydi, chunki o‘zining shaxsiy freymida ham yaqqol ko‘rsatilgan. Bilimlarni taqdim etish modellar sifatida freymlarning asosiy afzalliklari inson xotirasini tashkil qilishning kontseptual asosini aks ettirish qobiliyati, hamda uning egiluvchanligi va ko‘rgazmaligidir [11].

An’anaviy dasturlashda, agar i-buyruq qanoatlangan buyrug‘i bo‘lmasa, undan keyin i + 1 buyrug‘i keladi. Dasturlashning bunday usuli ishlab chiqishning izchilligi ishlab chiqiluvchi ma’lumotlarga kamroq bog‘liq bo‘lgan hollarda qulaydir. Aks holda dasturni namunalar tomonidan boshqariladigan bog‘liq modullarining majmuasi sifatida ko‘rib chiqish yaxShiroqdir. Bunday dastur tahlilning har bir qadamida ushbu vaziyatning ishlab chiqish uchun qanday modul to‘g‘ri kelishini belgilaydi. Namuna tomonidan boshqariladigan modul tadqiqot mexanizmidan yoki bir necha tuzilmalarni zamonaviylashtirishdan iborat bo‘ladi [12].

Har bir bunday modul ayrim mahsulotli qoidani bajaradi. Bunda boshqaruv vazifalarini interpertator bajaradi. Bilimlarni taqdim etish nuqtai nazaridan namunalar tomonidan boshqariladigan

moduldan foydalanishdagi yondashish quyidagi xususiyatlar bilan ta’riflanadi. Bilimlar bazasida saqlanayotgan doimiy bilimlarni va ishchi xotiradan vaqtincha bilimlarni taqsimlash. Modullarning tarkibiy mustaqilligi. Boshqaruv sxemalarni muammoli soha haqidagi bilimlarga ega bo‘lgan modullardan ajratish. Bu boshqaruvning har xil sxemalarini ko‘rib chiqish va amalga oshirshga imkon beradi, tizimlar va bilimlarni zamonalashtirishni osonlashtiradi [13].

Mahsulotli tizimlarning asosi qoidalardan iborat, ularda taqqoslash va boshqarish interpritatorda qayd etilgan tizimning yaqqol vazifalaridan bo‘ladi. Odatda mahsulotli tizimlar ostida ma’lumotlar tomonidan boshqariladigan xulosalardan foydalanuvchi tizimlar tushuniladi. Maqsadlar tomonidan boshqariladigan mahsulotli tizimlarda harakatlar ma’lumotlar qoidalar haqidagi tasdiqlar bo‘ladi, xulosa esa teskari yo‘nalishda ya’ni isbotlanishi kerak bo‘lgan tasdiqlarda amalga oshiriladi. Bilimlarni mahsulotli qoidalar ko‘rinishida taqdim etish quyidagi afzalliklarga ega:

-bilimlarni tashkil qilishning modulliligi.

-qoidalarning mustaqilligi.

-bilimlarni zamonalashtirishni oddiyligi va tabiiyligi.

-boshqaruvchi bilimlarni predmetlidan ajratilganligi.

-vazifalarning avtomatlashtirilgan echimi uchun boshqaruvchi mexanizmlarni bir qator qo‘llanishlar uchun imkoniyat yaratish [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupbekov N.R., Aliyev R.A., Aliyev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellectual tizimlari va qaror qabul qilish. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. –571 b.
2. Юсупбеков Н.Р., Алиев Р.А., Алиев Р.Р., Юсупбеков А.Н. Интеллектуальные системы управления и принятия решений. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2014. -490с.
3. Пегат А. Нечеткое моделирование и управление. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 798 с. (серия «Адаптивные и интеллектуальные системы).
4. Гаврилова Т.А., Хорошевский Ф.В. Базы знаний интеллектуальных систем. Учебник. – Санкт-Петербург: Питер, 2000. -384 с.
5. Рутковская Д., Пилиньский М., Рутковский Л. Нейронные сети, генетические алгоритмы и нечеткие системы. – М.: Горячая линия- Телеком, 2004. - 452 с.
6. Насиров, Илхам Закирович, and Шерзодбек Сабирович Камолов. "Bobur shox va s. zunnonova ko‘chalari kesishmasiga svetoforlarni o‘rnatish." *Journal of new century innovations* 7.5 (2022): 102-107.
7. Камалов, Шерзодбек. "ROUTING ISSUES BASED ON MATHEMATICAL MODELS IN TRANSPORT LOGISTICS." *Interpretation and researches* 4 (50) (2025).
8. SOBIROV, SD, and SH KAMALOV. "WAYS OF DEVELOPING A MODERN CAR SERVICE." *Изложены материалы докладов II Международной научно-практической конференции молодых ученых, студентов и учащихся колледжей «Наука–транспортной инфраструктуре». Для молодых ученых, научных работников, магистрантов, аспирантов, студентов технических вузов, учащихся колледжей, а также инженерно*.
9. Taxirjanovich, Ismailov Sarvarbek, and Zingirov Saidolim Jo‘rayevich. "AVTOMOBILLARNING TORMOZLANISH XUSUSIYATLARINI NAZARIY VA EKSPERIMENTAL TADQIQOTLASH." *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari* 1.1 (2023): 268-271.
10. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "LOGISTIK TIZIM ICHIDA MODDIY VA AXBOROT OQIMLARNI TAQSIMOTINI TASHKIL YETISH." *IJODKOR O‘QITUVCHI* 3.32 (2023): 127-133.
11. 11.Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "AVTOTRANSPORT OQIMINI MODELLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 290-298.
12. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "TRASPORT VOSITALARINI IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNI YORITISH OMILLARI." *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 214-222.

13. Ғаффаров, М. Т., and Ш. С. Камалов. "ХАЙДОВЧИЛАР ИШ РЕЖИМИНИ ХАЛКАРО ТАШИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ХАВФСИЗ ХАРАКАТНИ КАФОЛАТЛАШ." *Journal of new century innovations* 18.5 (2022): 92-99.
14. Sabirovich, Kamalov Sherzodbek. "TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI NAZORAT QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH." *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari* 1.1 (2023): 306-311.

АВТОМАТИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ КРУПНЫХ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ ГАЗА: ТЕХНОЛОГИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Джораев А.[1] Хайруллаев У.[2]
[1] Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, стажёр преподавател.
email: azizbek21714group@gmail.com
[2]Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, стажёр преподавател.
email: uchqunbek1729@gmail.com

Аннотация Статья анализирует роль автоматизации в повышении эффективности и безопасности систем крупных потребителей газа, таких как промышленные предприятия и нефтегазовые месторождения. Рассматриваются ключевые направления автоматизации, включая мониторинг параметров потребления, дистанционное управление и обеспечение безопасности, с акцентом на использование терминалов FB3000 RTU от Emerson и центральных панелей управления. Описание структуры системы включает взаимодействие полевых устройств через сеть FBxNet с терминалами, интегрированными с системой SCADA на платформе OSI Monarch, а также настройку через ПО FBxDesigner и мониторинг с помощью интерфейса FBxVue.

Исследование демонстрирует, что автоматизация повышает производительность на 8% и снижает эксплуатационные затраты на 40%, обеспечивая точность отчётности и минимизируя риски для персонала. Однако высокие первоначальные затраты и необходимость обучения персонала представляют значительные вызовы. Статья также рассматривает перспективы развития, включая внедрение искусственного интеллекта и технологий Интернета вещей для прогнозирования сбоев и снижения экологического воздействия. Результаты подчёркивают стратегическую важность автоматизации для устойчивого развития газовой отрасли, предлагая рекомендации по преодолению существующих ограничений.

Введение

В условиях стремительного развития газовой отрасли автоматизация становится неотъемлемым инструментом для повышения эффективности, снижения эксплуатационных затрат и обеспечения безопасности. Крупные потребители газа, такие как промышленные предприятия, нефтегазовые месторождения и энергетические комплексы, сталкиваются с необходимостью управления сложными технологическими процессами, требующими высокой точности и надёжности. Современные системы автоматизации позволяют не только оптимизировать производственные процессы, но и минимизировать риски, связанные с человеческим фактором, а также обеспечить соответствие строгим нормативным требованиям. Настоящая статья посвящена анализу ключевых направлений автоматизации в данной сфере, технологических решений, их практического применения и влияния на отрасль. Особое внимание уделяется интеграции передовых технологий и их влиянию на долгосрочную устойчивость газовой промышленности.

Основные направления автоматизации

Одним из главных направлений автоматизации в системах крупных потребителей газа является мониторинг параметров потребления. Современные системы, такие как центральные панели управления, собирают данные о расходе газа, давлении и балансе в режиме реального времени. Эти данные сохраняются в течение шести месяцев, что позволяет проводить

ретроспективный анализ и выявлять потенциальные отклонения в работе системы [1]. Такой подход обеспечивает оперативное принятие решений и минимизирует вероятность сбоев, которые могут привести к значительным финансовым потерям. Например, в случае обнаружения несоответствий в балансе газа операторы могут немедленно скорректировать параметры подачи, предотвращая перерасход или утечки.

Другим важным аспектом является дистанционное управление технологическими процессами. Устройства, такие как терминалы FB3000 RTU, разработанные компанией Emerson, обеспечивают точное регулирование параметров газовых потоков, что особенно актуально для многоскважинных месторождений, где требуется координация сложных процессов [2]. Эти терминалы поддерживают удалённый ввод-вывод данных, что позволяет операторам управлять системой без необходимости физического присутствия на объекте. Такой подход не только повышает удобство эксплуатации, но и снижает риски для персонала, работающего в потенциально опасных условиях.

Наконец, автоматизация вносит значительный вклад в повышение безопасности. Дистанционное управление минимизирует необходимость взаимодействия персонала с зонами повышенного риска, такими как высоконапорные газовые линии. По данным компании Emerson, внедрение терминалов FB3000 RTU позволяет сократить количество инцидентов, связанных с человеческим фактором, на 50% [2]. Это достигается за счёт автоматизации рутинных операций и внедрения систем раннего предупреждения, которые уведомляют операторов о потенциальных угрозах. Например, в случае резкого изменения давления в системе терминалы могут автоматически перекрыть подачу газа, предотвращая аварийные ситуации. Эти направления подчеркивают комплексный характер автоматизации, охватывающий как технические, так и организационные аспекты управления.

Технологические решения и их структура

Современные технологии автоматизации в газовой отрасли представляют собой сочетание аппаратных и программных решений, разработанных для интеграции и масштабирования. Одним из ключевых устройств является терминал FB3000 RTU, который обеспечивает высокую производительность и гибкость. Эти терминалы поддерживают функции измерения и управления, интегрируясь через сеть FBxNet, которая гарантирует стандартизацию процессов и безопасность передачи данных [2]. Такая стандартизация особенно важна для крупных объектов с распределённой инфраструктурой, где требуется согласованная работа множества компонентов. Например, на месторождениях с десятками скважин FB3000 RTU позволяет централизованно управлять всеми процессами, минимизируя задержки в передаче данных.

Программное обеспечение также играет важную роль в автоматизации. Комплекс Production Manager EDGE, разработанный Emerson, предоставляет операторам инструменты для анализа производственных данных и оптимизации работы скважин. Удобный интерфейс этого программного обеспечения упрощает настройку и мониторинг, что снижает нагрузку на персонал и позволяет сосредоточиться на стратегических задачах. Кроме того, центральные панели управления собирают данные с региональных модулей, обеспечивая комплексный анализ параметров и поддерживая функции учёта баланса [1]. Это позволяет операторам получать полную картину работы системы и принимать обоснованные решения на основе точных данных.



Схема 1. Схема автоматизации

Схема автоматизации, представленная в документации Emerson, иллюстрирует взаимодействие компонентов [2]. Она демонстрирует, как полевые устройства, подключённые через FBxNet, передают данные на терминалы FB3000 RTU, которые, в свою очередь, взаимодействуют с центральной системой SCADA, работающей на платформе OSI Monarch. Для настройки терминалов используется ПО FBxDesigner, соответствующее стандарту IEC 61131, а мониторинг осуществляется через интерфейс FbxVue [3]. Данные также передаются на локальную SCADA-систему через протокол DN Modbus, что обеспечивает интеграцию с другими платформами управления.

Структура взаимодействия компонентов автоматизированной системы подробно представлена в схеме, разработанной Emerson [2]. Полевые устройства, такие как датчики давления и расхода, собирают данные и передают их через сеть FBxNet на терминалы FB3000 RTU. Эти терминалы, в свою очередь, взаимодействуют с центральной системой SCADA, работающей на платформе OSI Monarch, которая обеспечивает мониторинг и управление на уровне всего объекта. Для настройки терминалов используется программное обеспечение FBxDesigner, соответствующее стандарту IEC 61131, что гарантирует совместимость с международными нормами. Мониторинг осуществляется через интерфейс FBxVue, который предоставляет операторам наглядное представление данных в реальном времени [3]. Дополнительно данные передаются на локальную SCADA-систему через протокол DN Modbus, что позволяет интегрировать систему с другими платформами управления. Такая структура обеспечивает высокую надёжность и гибкость, позволяя адаптировать систему к специфическим требованиям объекта.

Преимущества и ограничения

Автоматизация систем крупных потребителей газа приносит значительные преимущества, подтверждённые практическими результатами. Внедрение автоматизированных решений повышает производительность на 8% за счёт точного контроля параметров и оптимизации процессов [2]. Это достигается благодаря возможности оперативно корректировать параметры работы системы, например, регулировать подачу газа в зависимости от текущих потребностей объекта. Снижение эксплуатационных затрат достигает 40%, что обусловлено уменьшением человеческого участия и повышением эффективности оборудования. Например, автоматизация

рутинных операций, таких как мониторинг давления, позволяет сократить время, необходимое для выполнения этих задач, и минимизировать вероятность ошибок.

Кроме того, автоматизация обеспечивает точность отчётности, что крайне важно для соблюдения нормативных требований. Системы, такие как центральные панели управления, автоматически формируют отчёты о расходе газа и балансе, которые могут быть использованы для предоставления данных регулирующим органам [1]. Это снижает административную нагрузку на предприятия и помогает избежать штрафов за несоблюдение требований. Наконец, повышение безопасности, достигаемое за счёт минимизации человеческого участия, позволяет предприятиям сосредоточиться на долгосрочных целях, таких как устойчивое развитие и снижение углеродного следа.

Несмотря на очевидные преимущества, автоматизация сопряжена с рядом ограничений, которые требуют внимания. Высокие первоначальные затраты на установку и настройку систем могут стать серьёзным барьером для малых и средних предприятий. Например, внедрение терминалов FB3000 RTU и интеграция их с существующей инфраструктурой требуют значительных инвестиций в оборудование и программное обеспечение. Кроме того, регулярное техническое обслуживание и обновление программного обеспечения необходимы для поддержания работоспособности системы, что влечёт дополнительные расходы.

Ещё одним вызовом является необходимость обучения персонала. Внедрение новых технологий требует от операторов освоения сложных программных комплексов, таких как Production Manager EDGE, а также понимания принципов работы терминалов FB3000 RTU. Без должной подготовки персонал может столкнуться с трудностями при эксплуатации системы, что снижает её эффективность. Например, неправильная настройка параметров через FBxDesigner может привести к сбоям в работе системы, что подчёркивает важность квалификации сотрудников. Эти ограничения требуют тщательного планиVuerования и стратегического подхода к внедрению автоматизации, чтобы обеспечить её долгосрочную эффективность.

Перспективы развития

Будущее автоматизации в газовой отрасли связано с дальнейшим развитием технологий и их адаптацией к новым вызовам. Одним из перспективных направлений является внедрение искусственного интеллекта для анализа данных, поступающих от систем мониторинга. Например, алгоритмы машинного обучения могут быть использованы для прогнозирования сбоев на основе исторических данных, что позволит операторам принимать превентивные меры. Кроме того, развитие технологий Интернета вещей (IoT) открывает возможности для более глубокой интеграции полевых устройств, что повысит точность сбора данных и скорость их обработки [4].

Ещё одним важным аспектом является переход к более экологичным решениям. Автоматизация может способствовать снижению выбросов за счёт оптимизации процессов потребления газа. Например, точное регулирование подачи газа, обеспечиваемое терминалами FB3000 RTU, позволяет минимизировать перерасход и утечки, что снижает воздействие на окружающую среду. В долгосрочной перспективе такие решения могут стать частью более широкой стратегии по достижению углеродной нейтральности, что особенно актуально в условиях ужесточения экологических требований.

Заключение

Автоматизация систем крупных потребителей газа представляет собой стратегически важное направление для повышения эффективности, безопасности и устойчивости в газовой отрасли. Технологии, такие как терминалы FB3000 RTU, центральные панели управления и программное обеспечение Production Manager EDGE, обеспечивают надёжный мониторинг, управление и оптимизацию процессов. Структура взаимодействия компонентов, включающая полевые устройства, сеть FBxNet и системы SCADA, демонстрирует высокую степень интеграции и гибкости. Несмотря на высокие первоначальные затраты и необходимость обучения персонала, преимущества автоматизации, включая снижение затрат на 40% и повышение производительности на 8%, делают её незаменимой для современных предприятий. Перспективы развития, такие как внедрение искусственного интеллекта и технологий Интернета вещей,

открывают новые возможности для отрасли, позволяя адаптироваться к возрастающим требованиям рынка и экологическим стандартам.

Литература

1. Emerson Process Management. (2022). Техническое описание центральной панели управления. Внутренний документ компании Emerson.
2. Emerson Automation Solutions. (2021). Обзор решений для автоматизации газовых систем. Презентация для промышленных клиентов
3. Международная электротехническая комиссия (IEC). (2019). IEC 61131-3: Программируемые логические контроллеры. Женева: IEC.
4. World Energy Council. (2023). Технологии Интернета вещей в управлении энергосистемами. Ежегодный отчёт. Лондон: WEC.

BILIMLARNI IFODALASHNING DOLZARB MODELLARI VA TEXNOLOGIK YECHIMLARI

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU
Pedagogika va psixologiya fakulteti
Pedagogika yo‘nalishi talabasi
Xujakulova Diyora Botirovna

Annotatsiya : Mazkur maqolada bilimlarni ifodalashning dolzarb modellari va texnologik yechimlari atroflicha yoritilgan. Unda bilimlarni ifodalash tushunchasi, asosiy modellar (mantiqiy modellar, semantik tarmoqlar, freymlar, Bayes tarmoqlari, ontologiyalar) va zamonaviy texnologiyalar (sun‘iy intellekt, mashina o‘rganish, bulutli hisoblash, boshqaruv tizimlari, katta ma‘lumotlar) tahlil qilingan. Maqola ilmiy-amaliy izlanishlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi va bilimlarni ifodalashning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar : Ta‘lim, texnologiya, model, tarmoq, sun‘iy intellekt, mantiqiy model, semantik tarmoq, freym, aqliy faoliyat.

Bugungi globallashuv jarayonida bilimlar iqtisodiyot va innovatsion taraqqiyotning asosiy resurslaridan biriga aylanmoqda. Shu bois, bilimlarni to‘g‘ri ifodalash va ulardan samarali foydalanish jamiyatning barcha sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bilimlarni ifodalash tushunchasi sun‘iy intellekt tizimlaridan tortib, ma‘lumotlarni boshqarish, qarorlar qabul qilish, ekspert tizimlari yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash va ko‘plab boshqa yo‘nalishlarda qo‘llaniladi. Shu sababli, ilmiy hamjamiyat ushbu sohadagi izlanishlarni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratdi. Bilimlarni ifodalash jarayonida murakkab tushunchalar, muloqotlar va ma‘lumotlar o‘zaro aloqador bo‘lib, bu jarayon ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda bilimlar modellar asosida strukturaviy ravishda tasniflanadi va turli texnologik yechimlar yordamida amaliyotda qo‘llaniladi. Zamonaviy davrda bilimlarni ifodalashning mantiqiy modellar, semantik tarmoqlar, freymlar, Bayes tarmoqlari va ontologiyalar kabi turli shakllari mavjud bo‘lib, har biri ma‘lum bir vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-apreldagi PF-133-sonli “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish vazifalari belgilangan. Farmonda bilimlarni boshqarish, raqamlashtirish va texnologik yechimlarni qo‘llash dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu farmon bilimlarni ifodalashning davlat va jamiyat rivojidagi muhim o‘rni va uni amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydi. Bu esa bilimlarni ifodalash va ulardan foydalanish masalalarini dolzarb va ustuvor yo‘nalish sifatida qarashga asos yaratmoqda. Shu bois, ilmiy jamoatchilik va amaliyot vakillari uchun bilimlarni ifodalashning dolzarb modellari va texnologik yechimlarini o‘rganish, ularni hayotga tatbiq qilish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bilimlarni ifodalash – bu axborotni inson aqliy faoliyati va kompyuter tizimlari o‘rtasidagi aloqani ta‘minlashga qaratilgan jarayondir. Bu jarayon sun‘iy intellekt va bilimlar bazalarini yaratishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois bilimlarni ifodalashning samarali shakllari zamonaviy ilmiy-texnologik taraqqiyotda muhim o‘rin egallaydi.

Hozirgi kunda bilimlarni ifodalashning bir necha asosiy modellari mavjud:

— Mantiqiy modellar – bilimlarni ifodalash uchun mantiq qoidalaridan foydalanadi. Ya‘ni, bilimlarni ifodalash uchun mantiqiy operatorlar, qoidalar va formulalar ishlatiladi. Ushbu modelning asosiy vazifasi – bilimlar bazasidagi ma‘lumotlar va ularning o‘zaro aloqalarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashdir.

— Semantik tarmoqlar – tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni tasvirlash uchun tarmoq shaklidagi model. Bu bilimlarni tarmoq shaklida ifodalash usuli bo‘lib, tushunchalar va ular o‘rtasidagi aloqalarni uzviy tarzda ko‘rsatadi. Bu modelda bilimlar tugunlar va bog‘lovchi chiziqlar orqali tasvirlanadi. Semantik tarmoqlarning asosiy vazifasi – bilimlarni vizual va strukturaviy shaklda aks ettirish.

— Freym modellari – bilimlarni strukturaviy bloklar ko‘rinishida tashkil qilishga asoslangan. Bu bilimlarni strukturaviy bloklar orqali ifodalash usuli. Har bir freym muayyan obyekt, voqea yoki tushunchani ifodalaydi va uning asosiy xususiyatlari bilan birga saqlanadi.

— Ishonchlilik tarmoqlari (Bayes tarmoqlari) – ehtimollik asosida bilimlarni ifodalash uchun va noaniq ma‘lumotlar bilan ishlash va qaror qabul qilishda qo‘llaniladi. Bu modelda tugunlar o‘zgaruvchilarni (faktlar yoki hodisalar) ifodalaydi, bog‘lovchi chiziqlar esa ularning sababiy yoki ehtimollik aloqalarini ko‘rsatadi.

— Ontologiyalar – bilimlarni tizimli va izchil ravishda tasniflash va ularga ma‘no yuklash. Boshqacha aytganda, ontologiya – bilimlar strukturasi va tartibga solingan tushunchalar to‘plami bo‘lib, u qanday tushunchalar mavjudligini va ular qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Bilimlarni ifodalashning dolzarb yechimlari zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Sun‘iy intellekt (AI) – bilimlar bazasi va bilimlarni qayta ishlash uchun kuchli vosita.
- Mashina o‘rganish (ML) – ma‘lumotlardan yangi bilimlarni chiqarib olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini beradi.
- Bulutli hisoblash (Cloud Computing) – bilimlarni saqlash va ulardan foydalanishning qulay usuli.
- Boshqaruv tizimlari (Knowledge Management Systems) – tashkilot ichida bilimlarni samarali boshqarish imkonini beradi.
- Big Data texnologiyalari – katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash va ulardan yangi bilimlar olish.

Bilimlarni ifodalash jarayonida bir nechta dolzarb muammolar mavjud: bilimlar hajmining ortishi; turli formatdagi ma‘lumotlarni integratsiya qilish; bilimlarning yangilanish tezligi; tizimlarning moslashuvchanligi va boshqa shu kabilar.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi texnologik yechimlar qo‘llaniladi:

1. Ma‘lumotlar integratsiyasi va standartlashtirish;
2. Ontologik yondashuvlar;
3. Avtomatik bilimlarni chiqarib olish;
4. Moslashuvchan dasturiy vositalar yaratish.

Zamonaviy texnologiyalar bilimlarni ifodalashning rivojlanishiga yangi ufqlarni ochmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat bilimlarni aniq va samarali tarzda ifodalash, balki ularni qayta ishlash, boshqarish va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Bilimlarni ifodalash sohasidagi zamonaviy texnologiyalar asosan sun‘iy intellekt, mashina o‘rganish, katta ma‘lumotlar, bulutli hisoblash tizimlari va ekspert tizimlari bilan chambarchas bog‘liq.

Sun‘iy intellekt va mashina o‘rganish – bilimlarni avtomatik tarzda o‘rganish, yangi bilimlarni hosil qilish va ular asosida mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, murakkab tizimlarda bilimlarni tahlil qilish va optimal yechimlarni topishga xizmat qiladi.

Bulutli hisoblash – bilimlarni ifodalash va saqlash jarayonini qulaylashtiradi. Ma‘lumotlar va bilimlar bazalarini markazlashgan holda boshqarish, ularga tezkor va uzluksiz kirishni ta‘minlash imkonini yaratadi.

Katta ma‘lumotlar (Big Data) – bilimlarni ifodalash va ulardan samarali foydalanishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ma‘lumotlar hajmining oshishi bilimlarni tahlil qilishning yangi usullarini talab qiladi, bu esa zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda.

Ekspert tizimlari va semantik tarmoqlar – zamonaviy ekspert tizimlari bilimlarni ifodalashning turli modellari (mantiqiy modellar, freymlar, ontologiyalar) bilan birgalikda ishlaydi. Bu esa bilimlar bazasini boyitib, murakkab vazifalarni hal qilishda katta yordam beradi.

Bularning barchasi innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot rivojini ta‘minlaydi. Bilimlarni ifodalashning dolzarb modellari va texnologik yechimlari bugungi kunda ilm-fan va amaliyotning ajralmas qismiga aylandi. Turli modellar va zamonaviy texnologiyalar yordamida bilimlarni samarali boshqarish va ulardan foydalanish imkoniyati ortmoqda. Shu sababli, bilimlarni ifodalash masalalarini chuqur o‘rganish va amaliyotda tatbiq qilish dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. (2022). PF-133-sonli Prezident Farmoni. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida".
2. Yo‘ldoshev A. “Sun‘iy entellektda bilimlarni tasvirlash modellari” 2021. Toshkent.
3. Gruber, T. R. (1993). A translation approach to portable ontology specifications. Knowledge Acquisition, 5(2), 199–220.
4. Sowa, J. F. (2000). Knowledge Representation: Logical, Philosophical, and Computational Foundations. Brooks/Cole.
5. Brachman, R. J., & Levesque, H. J. (2004). Knowledge Representation and Reasoning. Morgan Kaufmann.
6. Russell, S., & Norvig, P. (2010). Artificial Intelligence: A Modern Approach (3rd ed.). Prentice Hall.
7. Davis, R., Shrobe, H., & Szolovits, P. (1993). What is a Knowledge Representation? AI Magazine, 14(1).
8. Alavi, M., & Leidner, D. E. (2001). Knowledge Management and Knowledge Management Systems: Conceptual Foundations and Research Issues. MIS Quarterly, 25(1).

MAKTAB VA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KIBERXAVFSIZLIK FANINING O‘QITILISHI: MAVJUD HOLAT VA TAKLIFLAR

Xusenov Murodjon Zoxirovich
(Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, e-mail: m.z.xusenov@buxdu.uz, ORCID: 0000-0002-1533-3102)

Annotatsiya Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi holati tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya davri talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim tizimida kiberxavfsizlik bilimlarini shakllantirish zarurati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro tajribalar o‘rganilib, milliy ta’lim tizimimizga mos keluvchi samarali yondashuvlar taklif etilgan.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Elektron tijorat, masofaviy ta’lim, elektron davlat xizmatlari va boshqa sohalarda raqamli transformatsiya jarayonlari tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu jarayonlar bilan bir qatorda,

kiberhujumlar xavfi ham ortib bormoqda. 2023-2024 yillarda kiberxavfsizlik bo‘yicha global hisobotlarga ko‘ra, kiberjinoyatlar soni va miqyosi sezilarli darajada oshgan. Bu esa har bir fuqaroni, ayniqsa yoshlarni kiberxavfsizlik sohasida bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Axborot xavfsizligi va kiberhimoya ko‘nikmalarini rivojlantirish - zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarda kiberxavfsizlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyasida ham ta’lim tizimida bu yo‘nalishni kuchaytirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq, bugungi kunda maktab va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Mavjud holat

Umumta’lim maktablarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi

Umumta’lim maktablarida kiberxavfsizlik mavzusi asosan "Informatika va axborot texnologiyalari" fani doirasida qisman o‘rgatiladi. 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab yangilangan o‘quv dasturlarida axborot xavfsizligi bo‘yicha mavzular biroz kengaytirilgan bo‘lsa-da, bu yetarli emas:

O‘quv soatlari chegaralanganligi sababli, kiberxavfsizlik mavzulariga ajratilgan vaqt juda kam (o‘rtacha 6-8 soat);

Mavzular asosan nazariy bilimlarni o‘z ichiga oladi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yetarli e’tibor qaratilmagan;

O‘qituvchilarning ko‘pchiligida kiberxavfsizlik bo‘yicha chuqur bilim va tajriba yetishmaydi;

Zamonaviy o‘quv-metodik ta’minot, laboratoriya sharoitlari va texnik jihatdan ta’minlanganlik darajasi past.

Natijada, ko‘plab o‘quvchilar maktabni bitirgach, internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish kabi asosiy ko‘nikmalarga to‘liq ega bo‘lmaydilar.

Oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi

Oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi turli yo‘nalishlarda turlicha tashkil etilgan:

Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarida - maxsus mutaxassislik fanlari sifatida chuqur o‘rgatiladi;

Kompyuter texnologiyalari va dasturlash yo‘nalishlarida - qisman o‘rgatiladi;

Boshqa yo‘nalishlarda - deyarli o‘rgatilmaydi yoki tanlov fan sifatida taklif etiladi.

Bu borada quyidagi muammolarni kuzatish mumkin:

Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy laboratoriyalar va tegishli dasturiy ta’minot yetishmaydi;

O‘quv dasturlari tez rivojlanayotgan kiberxavfsizlik sohasidagi yangiliklar bilan doimo ham hamqadam emas;

Professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi va amaliy tajribasi ba’zan zamona talablariga to‘liq javob bermaydi;

Sohada faoliyat yuritayotgan kompaniyalar bilan hamkorlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik sohasida innovatsion ta’lim shakllari, jumladan kiberpoligonlar, amaliy laboratoriyalar, hakaton va kibermashqlar, CTF (Capture The Flag) musobaqalari kabi tashabbuslar mavjud bo‘lsa-da, bular ayrim institutlardagina joriy etilgan.

Xalqaro tajriba

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi tajribasini o‘rganish, milliy ta’lim tizimimizda qo‘llashimiz mumkin bo‘lgan yaxshi amaliyotlarni aniqlashga yordam beradi:

AQSh tajribasi

AQShda K-12 (maktabgacha va maktab ta’limi) dasturlarida kiberxavfsizlik asoslari bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. "CyberPatriot" kabi milliy dasturlar orqali maktab o‘quvchilariga kiberxavfsizlik asoslari amaliy shaklda o‘rgatiladi. NIST (National Institute of Standards and Technology) tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim standartlari barcha darajalarda qo‘llaniladi.

Singapur tajribasi

Singapur maktablarida 2020-yildan boshlab "Cyber Wellness" dasturi joriy etilib, boshlang‘ich sinflardanoq internetdan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish o‘rgatiladi. Singapur

Texnologiya va Dizayn Universiteti (SUTD) kiberxavfsizlik bo‘yicha amaliy ta’lim berish uchun maxsus kiberpoligon tashkil etgan.

Estoniya tajribasi

Estoniya ta’lim tizimida "ProgeTiger" dasturi orqali maktab o‘quvchilariga kiberxavfsizlik asoslari o‘rgatiladi. Tallin Texnologiya Universiteti esa NATO kiberxavfsizlik markazining laboratoriyalariga ega bo‘lib, talabalar real kiberhujumlarni simulyatsiya qilish orqali tajriba orttirishadi.

Taklif va tavsiyalar

Kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishini yanada takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Umumta’lim maktablari uchun:

Kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida o‘quv modulini ishlab chiqish va joriy etish. Bu modul tegishli yoshga mos tarzda bosqichma-bosqich chuqurlashtirib borilishi kerak:

Boshlang‘ich sinflarda (1-4) — internetda xavfsiz muloqot qoidalari;

O‘rta sinflarda (5-9) — shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, parollar xavfsizligi;

Yuqori sinflarda (10-11) — kibertahdidlar turlari, kiberhujumlardan himoyalanish usullari.

O‘qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Informatika fani o‘qituvchilarini zamonaviy kiberxavfsizlik asoslari bo‘yicha muntazam o‘qitish.

Interaktiv ta’lim resurslarini ishlab chiqish. O‘yin texnologiyalari asosida kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan platformalar yaratish.

Maktab o‘quvchilari uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha respublika musobaqalarini tashkil etish. "Yosh kiberhimoyachi" kabi tanlovlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish.

Oliy ta’lim muassasalari uchun:

Barcha yo‘nalishlarda kiberxavfsizlik bo‘yicha majburiy kurs joriy etish. Har qanday soha mutaxassislari uchun kiberxavfsizlik asoslari bo‘yicha minimal bilimlar majburiy bo‘lishi kerak.

Amaliy laboratoriyalar va kiberpoligonlar tashkil etish. Real sharoitlarda kiberhujumlarni simulyatsiya qilish va ulardan himoyalanish ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatini yaratish.

IT kompaniyalar bilan hamkorlikda "Dual ta’lim" modelini rivojlantirish. Talabalarning bevosita ish jarayonida kiberxavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Yevropa Ittifoqi, AQSH, Singapur va boshqa rivojlangan davlatlarning yetakchi universitetlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha tadqiqot loyihalarini rag‘batlantirish. Magistratura va doktorantura bosqichida kiberxavfsizlik yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash.

Milliy darajadagi takliflar:

Milliy kiberxavfsizlik ta’lim standartini ishlab chiqish. Bu standart barcha ta’lim bosqichlarida kiberxavfsizlik fanining o‘qitilishi bo‘yicha yagona yondashuvni belgilashi kerak.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha onlayn platformani yaratish. Ushbu platforma orqali ta’lim resurslari, video darslar, simulyatorlar va boshqa materiallarni keng ommaga taqdim etish.

“Kiberxavfsizlik oyligi” tadbirlarini o‘tkazish. Har yili oktyabr oyida maktab va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik masalalariga bag‘ishlangan turli tadbirlarni o‘tkazish.

OAV bilan hamkorlikda kiberxavfsizlik bo‘yicha axborot kampaniyalarini tashkil etish. TV, radio va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar uchun tushunarli formatda kiberxavfsizlik masalalarini yoritish.

Xulosa

Raqamli transformatsiya davri ta’lim tizimidan kiberxavfsizlik bo‘yicha yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik fanining samarali o‘qitilishi nafaqat IT sohasidagi mutaxassislar, balki barcha soha vakillari uchun muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini xavfsiz kechishini ta’minlash va kelgusi avlodlarni zamonaviy kibertahdidlarga qarshi kurasha oladigan bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish imkonini beradi.

Kiberxavfsizlik sohasida ta’lim - bu faqat texnik himoya masalasi emas, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va har bir fuqaroning shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligini ta’minlashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kiberxavfsizlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha konsepsiyani tasdiqlash to‘g‘risida"gi Qarori, 2022 yil.
2. "O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi", 2023-2030 yillar.
3. Mullodjonov A. Kiberxavfsizlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023.
4. NIST. "National Initiative for Cybersecurity Education (NICE) Strategic Plan", 2022.
5. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). "European Cybersecurity Skills Framework", 2023.
6. PwC Global Digital Trust Insights Survey. "Cybersecurity comes of age", 2024.
7. Cybersecurity Education Curriculum Framework. Singapore Cyber Security Agency, 2023.
8. Digital Citizenship Education Handbook. Council of Europe, 2022.
9. World Economic Forum. "Cybersecurity Learning Hub", 2023-2024 reports.
10. UNESCO. "Digital Skills for Teachers and Students in the Information Age", 2023.

PARETO OPTIMALLASHTIRISH VA UNING AMALIYOTDA TATBIQI

Yo’ldashmaxamodov Og’abek Doniyorjon o’g’li
e-mail: ogabekk2705@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ”Sun’iy intellekt” yo’nalishi talabasi
Absalamova Go‘zal Bo‘riboyevna
e-mail: gozalabsalamova1996@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ”Sun’iy intellekt” kafedrasi katta o’qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda, muhandislik, iqtisodiyot, logistika, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa ko'plab sohalarda bir vaqtning o'zida bir nechta, ko'pincha bir-biriga zid bo'lgan maqsadlarga erishish zarurati tug'iladi. Bunday ko'p maqsadli optimallashtirish (KMO) muammolarini hal qilish uchun Pareto optimallashtirish usuli keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada biz Pareto optimalligining asosiy tushunchalarini, usullarini, algoritmlarini, qo'llanilishini va kelajakdagi istiqbollarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Pareto optimallashtirish, Pareto samaradorligi, Pareto fronti, genetik algoritmlar, epsilon-cheklash usuli, og‘irliklangan summa usuli, goal programming.

Pareto optimalligi (yoki Pareto samaradorligi) - bu resurslarni taqsimlashning bir holati hisoblanadi.Ushbu tushuncha italyan iqtisodchisi Vilfredo Pareto sharafiga nomlangan bo'lib, u iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ishlab chiqqan. Aytaylik, bizda ikkita yechim mavjud: A va B. Agar A yechimi barcha maqsadlar bo'yicha B yechimidan yaxshiroq bo'lsa yoki hech bo'lmaganda barcha maqsadlar bo'yicha B yechimiga teng bo'lsa va kamida bitta maqsad bo'yicha B yechimidan yaxshiroq bo'lsa, u holda A yechimi B yechimini Pareto dominantligini bajaradi. Pareto optimal yechim (yoki Pareto samarali yechim) - bu boshqa maqsadni yomonlashtirmasdan, hech qanday maqsadni yaxshilab bo'lmaydigan yechim[1]. Boshqacha qilib aytganda, Pareto optimal yechim boshqa yechimlar tomonidan Pareto dominantligini bajarmaydi. Pareto chegarasi (yoki Pareto fronti) - bu barcha Pareto optimal yechimlarning to'plami. Pareto chegarasi ko'p maqsadli optimallashtirish muammosining yechimlar fazosida maqsadlar o'rtasidagi kelishuvni ko'rsatadi. Ko'p maqsadli optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun turli xil Pareto optimallashtirish algoritmlari mavjud. Ushbu algoritmlarni uchta asosiy toifaga bo'lish mumkin. Ushbu usullar bir nechta maqsadni yagona maqsad funksiyasiga birlashtiradi va so'ngra ushbu funksiyani optimallashtiradi. Ushbu usullar Pareto

dominantligi tushunchasidan foydalanib, Pareto optimal yechimlarni qidiradi. Ushbu usullar maqsadlarni birlashtirish va Pareto asosidagi usullarning afzalliklarini birlashtiradi. Maqsadlarni birlashtirish usullari. Og'irliklangan summa usuli (Weighted Sum Method): Har bir maqsadga og'irlik beriladi va barcha maqsadlar yagona maqsad funksiyasiga birlashtiriladi. So'ngra, ushbu yagona maqsad funksiyasi optimallashtiriladi. Ushbu usulning asosiy kamchiligi shundaki, u Pareto chegarasining barcha nuqtalarini topa olmaydi, ayniqsa Pareto chegarasi konveks bo'lmagan hollarda[2].



1-rasm.Og’irliklangan summa usuli

Epsilon-cheklash usuli (Epsilon-Constraint Method): Maqsadlardan biri optimallashtiriladi, qolganlari esa chegaralar sifatida ishlatiladi. Ushbu usul Pareto chegarasining barcha nuqtalarini topishi mumkin, ammo chegaralarni to'g'ri tanlash qiyin bo'lishi mumkin. Maqsad dasturlash (Goal Programming): Har bir maqsad uchun maqsad darajasi belgilanadi va maqsadga erishish uchun harakat qilinadi. Pareto asosidagi usullar. Genetik algoritmlar (Genetic Algorithms):(3-rasm). Tabiatdagi evolyutsiya jarayonidan ilhomlangan optimallashtirish algoritmlari. Ko'p maqsadli genetik algoritmlar (masalan, NSGA-II, MOEA/D) Pareto chegarasini topish uchun keng qo'llaniladi. Ushbu algoritmlar populyatsiyaga asoslangan bo'lib, bir nechta yechimni bir vaqtning o'zida ko'rib chiqadi va Pareto dominantligi tushunchasidan foydalanib, yaxshiroq yechimlarni tanlab oladi. Particle Swarm Optimization (PSO): Qushlar to'dasining harakatidan ilhomlangan optimallashtirsh algoritmi. Ant Colony Optimization (ACO): Chumolilar koloniyasining harakatidan ilhomlangan optimallashtirish algoritmi. Gibrid usullar maqsadlarni birlashtirish va Pareto asosidagi usullarning afzalliklarini birlashtiradi. Masalan, og'irliklangan summa usuli genetik algoritm bilan birgalikda ishlatilishi mumkin. Pareto optimallashtirishning afzalliklari va kamchiliklari. Afzalliklari: Ko'p maqsadli muammolarni hal qilish: Bir vaqtning o'zida bir nechta maqsadga erishish imkonini beradi. Yechimlar to'plamini taqdim etadi: Pareto chegarasi qaror qabul qiluvchilarga turli xil yechimlarni ko'rib chiqish va ularning ehtiyojlariga mos keladiganini tanlash imkoniyatini beradi. Maqsadlar o'rtasidagi kelishuvni aniqlash: Pareto chegarasi maqsadlar o'rtasidagi savdoni vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Moslashuvchanlik jihatidan ham mukammal hisoblanadi.Turli xil sohalarda qo'llanilishi mumkin. Kamchiliklari ham mavjud. Hisoblash qiyinligi: Pareto chegarasini topish hisoblash nuqtai nazaridan qimmatga tushishi mumkin, ayniqsa murakkab muammolar uchun. Og'irliklarni aniqlash qiyinligi (Og'irliklangan summa usuli): Og'irliklangan summa usulida har bir maqsadga to'g'ri og'irlik berish qiyin bo'lishi mumkin. Chegaralarni aniqlash qiyinligi (Epsilon-cheklash usuli): Epsilon-cheklash usulida maqsadlar uchun to'g'ri chegaralarni aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Qaror qabul qilish qiyinligi: Pareto chegarasida ko'plab yechimlar mavjudligi sababli, eng mos keladiganini tanlash qiyin bo'lishi mumkin. Avtomobil dizayni: Avtomobil dizayneri xarajatlarni minimallashtirish bilan birga uning xavfsizligini,

samaradorligini va ishlashini maksimal darajaga ko'tarishga intiladi. Samolyot dizayni: Samolyot dizayneri og'irlikni minimallashtirish bilan birga uning ko'tarilish qobiliyatini, tezligini va yoqilg'i samaradorligini maksimal darajaga ko'tarishga intiladi[3]. Portfelni optimallashtirish: Investor daromadni maksimal darajaga ko'tarish bilan birga xavfni minimallashtirishga intiladi. Narxlash strategiyasi: Kompaniya foydani maksimal darajaga ko'tarish bilan birga bozor ulushini ushlab qolishga intiladi. Ta'minot zanjirini optimallashtirish: Kompaniya xarajatlarni minimallashtirish bilan birga mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini maksimal darajaga ko'tarishga intiladi. Yo'nalishni rejalashtirish: Transport kompaniyasi masofani minimallashtirish bilan birga yetkazib berish vaqtini qisqartirishga intiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilishda resurslarni boshqarishda yordam beradi. Hukumat iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga intiladi[4]. Chiqindilarni boshqarish: Kompaniya xarajatlarni minimallashtirish bilan birga chiqindilarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga intiladi. Amaliy misol: Shamol energetikasi parkini optimallashtirish. Bir qator maqsadlarga ega bular: Energiya ishlab chiqarishni maksimal darajaga ko'tarish. Xarajatlarni minimallashtirish. Shamol energetikasi parkining energiya ishlab chiqarishi shamol turbinalarining joylashuvi, turbinalar soni va turbinalarning texnik xususiyatlariga bog'liq. Xarajatlar esa turbinalarni sotib olish, o'rnatish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlaridan iborat. Tasavvur qiling, bizda turli xil joylashuv variantlari mavjud va har bir variant uchun energiya ishlab chiqarish va xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlar asosida biz Pareto chegarasini qurishimiz mumkin.



2-rasm. Shamol energetikasi parkini optimallashtirish uchun Pareto chegarasi

Rasmdagi har bir nuqta shamol energetikasi parkining turli joylashuv variantlarini ifodalaydi. Pareto chegarasida joylashgan nuqtalar optimal hisoblanadi, chunki 3-3-rasm. Genetik algoritm

ularning hech biri boshqasidan ustun emas. Qaror qabul qiluvchi o'zining energiya ishlab chiqarish va xarajatlarga bo'lgan munosabatiga qarab, Pareto chegarasidan eng mos keladigan nuqtani tanlashi mumkin.

Genetik algoritm yordamida Pareto chegarasini avtomatik ravishda topish mumkin. Algoritm quyidagi bosqichlardan iborat: Boshlang'ich populyatsiyani yaratish: Tasodifiy shamol energetikasi parkining joylashuv variantlari yaratiladi. Baholash: Har bir variant uchun energiya ishlab chiqarish va



xarajatlar hisoblanadi. Tanlash: Pareto optimal yechimlar tanlab olinadi. Chatishtirish va mutatsiya: Yangi joylashuv variantlari yaratiladi. Takrorlash: 2-4 bosqichlar takrorlanadi. Pareto optimallashtirish shamol energetikasi parkining optimal dizaynini topishga yordam beradi, bunda energiya ishlab chiqarishni maksimal darajaga ko'tarish bilan birga xarajatlar minimallashtiriladi. Pareto optimallashtirish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan: Murakkab muammolarni hal qilish uchun yangi algoritmlarni ishlab chiqish: Real dunyo muammolari ko'pincha juda murakkab bo'lib, mavjud algoritmlar ularni samarali hal qila olmaydi. Shuning uchun, yangi va samarali algoritmlarni ishlab chiqish zarur. Katta ma'lumotlar bilan ishlash: Pareto optimallashtirish algoritmlarini katta hajmdagi ma'lumotlarga moslashtirish. Sun'iy intellekt bilan integratsiya: Pareto optimallashtirish algoritmlarini sun'iy intellekt tizimlarida qo'llash.Parallel hisoblash: Pareto optimallashtirish algoritmlarini parallel kompyuterlarda tezroq ishlashini ta'minlash. Qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash: Pareto chegarasidan eng mos keladigan yechimni tanlashda qaror qabul qiluvchilarga yordam beradigan vositalarni ishlab chiqish[5].

Pareto optimallashtirish - bu ko'p maqsadli muammolarni hal qilishda samarali usuldir. U turli xil sohalarda qo'llanilishi mumkin va qaror qabul qiluvchilarga turli xil yechimlarni ko'rib chiqish va ularning ehtiyojlariga mos keladiganini tanlash imkoniyatini beradi. Pareto optimallashtirish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu usulning samaradorligini va qo'llanilish sohasini yanada kengaytirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kountzakis, C.; Tsachouridou-Papadatou, V. Pareto Efficiency in Euclidean Spaces and Its Applications in Economics. Computation 2025, *13*, 97. https://doi.org/10.3390/computation13040097
2. Jakob, W.; Blume, C. Pareto Optimization or Cascaded Weighted Sum: A Comparison of Concepts. Algorithms 2014, *7*, 166-185. https://doi.org/10.3390/a7010166
3. Giannelos, S.; Zhang, X.; Zhang, T.; Strbac, G. Multi-Objective Optimization for Pareto Frontier Sensitivity Analysis in Power Systems. Sustainability 2024, *16*, 5854. https://doi.org/10.3390/su16145854
4. Younesi, S.; Ahmadi, B.; Ceylan, O.; Ozdemir, A. Optimum Parallel Processing Schemes to Improve the Computation Speed for Renewable Energy Allocation and Sizing Problems. Energies 2022, *15*, 9301. https://doi.org/10.3390/en15249301

5. Chen, S.-C.; Chen, H.-M.; Chen, H.-K.; Li, C.-L. Multi-Objective Optimization in Industry 5.0: Human-Centric AI Integration for Sustainable and Intelligent Manufacturing. Processes 2024, *12*, 2723. https://doi.org/10.3390/pr12122723

KO‘RINISHLAR VA ULARNING MUHANDISLIK GRAFIKASI FANIDAGI AHAMIYATI

Yo‘ldoshov Baxtiyor Botirovich - v.v.b.dotsent
sanjarergashev0305@gmail.com
Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali, O‘zbekiston, Sirdaryo vil, Yangiyer sh.,Tinchlik ko‘chasi 1-uy

Annotatsiya: Ushbu maqolada muhandislik grafikasi fanining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan ko‘rinishlar mavzusi keng yoritilgan. Ko‘rinishlar buyumlarning fazoviy shaklini tekislikda aniq va to‘liq ifodalash uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqolada asosiy ko‘rinishlar turlari, ularning joylashuvi, tuzish qoidalari va amaliy ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, ko‘rinishlar va kesimlar o‘rtasidagi farq, hamda zamonaviy 3D modellashtirish dasturlarida ko‘rinishlarni yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqola talabalarga muhandislik chizmalarini to‘g‘ri o‘qish va chizish ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Muhandislik grafikasi, ko‘rinishlar, proyeksiya, chizma, texnik tasvir, asosiy ko‘rinishlar, kesim, 3D modellashtirish, AutoCAD, SolidWorks.

Muhandislik grafikasi – bu texnik sohalarda buyumlarning shakli, o‘lchami va o‘zaro joylashuvini grafik usullar orqali ifodalovchi fan bo‘lib, muhandislik faoliyatining ajralmas qismidir. Ushbu fan yordamida detallar, uzellar va butun qurilmalar haqida vizual va aniq tasavvur hosil qilinadi. Muhandislik grafikasi asoslarini puxta o‘zlashtirish, ayniqsa, texnik chizmalarni to‘g‘ri tuzish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘rinishlar esa chizmalarda buyumlarning fazoviy shaklini ikki o‘lchamli tekislikda aniq tasvirlashga xizmat qiluvchi eng muhim elementlardan biridir. Har bir ko‘rinish buyumning ma’lum bir tomondan (old, yuqori, yon va h.k.) qaralgandagi tasvirini beradi. Ko‘rinishlar orqali chizmani o‘qish, detallarni tasavvur qilish va ishlab chiqarish jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ta’minlanadi. Shu sababli, ushbu maqolada ko‘rinishlar tushunchasi, ularning turlari, tuzilish qoidalari va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Mavzu bo‘yicha hozirgi kungacha qilingan ishlarning ketma-ketligi. Muhandislik grafikasi va uning ajralmas qismi bo‘lgan ko‘rinishlar mavzusi yuz yillardan beri texnik ta’limda yetakchi o‘rin egallab kelmoqda. Quyidagi bosqichlarda bu mavzu bo‘yicha ilmiy va uslubiy yondashuvlar takomillashib borgan: 1. XIX asr oxiri – XX asr boshi: Ko‘rinishlar Yevklid geometriyasiga asoslangan proyeksion chizma shaklida shakllanib, Frantsiya va Germaniya texnik maktablarida o‘rgatilgan. Gaspard Monjning monografiyalari orqali proyeksion chizmachilik umumiy fan sifatida tarqalgan. 2. XX asrning 30–70-yillari: Sobiq Ittifoq davrida muhandislik grafikasi mustaqil fan sifatida rasmiylashtirilib, ko‘rinishlarni tuzishning qat’iy standartlari (GOST) ishlab chiqildi. Mashhur rus olimlari (A.A. Yefimov, B.V. Lavrentyev) tomonidan muhandislik grafikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. 3. 1980–1990-yillar: Kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan bir qatorda, CAD (Computer-Aided Design) dasturlari joriy etilib, ko‘rinishlarni avtomatik chizish imkoniyati paydo bo‘ldi. AutoCAD dasturi orqali ko‘rinishlar modellashtirilishi o‘quv jarayoniga kirib keldi. 4. 2000–2010-yillar: 3D modellashtirish dasturlari (SolidWorks, CATIA, Inventor) yordamida fazoviy modellar yaratish va ularni asosiy ko‘rinishlarga proyeksiya qilish imkoniyatlari kengaydi. Ko‘rinishlar faqat ikki o‘lchovli tasvir sifatida emas, balki 3D obyektlarning vizual qismi sifatida ham tahlil qilina boshlandi. 5. 2010-yildan hozirgi kungacha: Interaktiv o‘quv platformalari, virtual laboratoriyalar va AR/VR texnologiyalari yordamida ko‘rinishlar mavzusi yanada qulay va vizual tarzda o‘rgatilmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida Davlat standarti asosida ishlab chiqilgan yangi o‘quv qo‘llanmalarda ko‘rinishlar mavzusi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un holda talabalarga yetkazilmoqda. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan yangiliklar 1. Raqamli texnologiyalar asosidagi interaktiv o‘qitish: Muhandislik grafikasi, jumladan ko‘rinishlar mavzusi bo‘yicha interaktiv

simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar joriy qilinmoqda. Bu usul yordamida talabalar fazoviy tasavvurini amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rgana olmoqda. Maxsus veb-platformalar (masalan, Tinkercad, Fusion 360 Education) yordamida onlayn chizmalar chizish imkoniyati kengaymoqda. 2. 3D modellashtirish orqali ko‘rinishlarni avtomatik generatsiya qilish: Zamonaviy CAD dasturlari (SolidWorks, AutoCAD, Creo) 3D modeldan avtomatik tarzda asosiy ko‘rinishlar, kesimlar va izometrik chizmalarni generatsiya qilish imkonini bermoqda. Bu texnologiya vaqt tejalishiga va aniqlikka xizmat qiladi. 3. Sun’iy intellekt (AI) yordamida ko‘rinishlarni aniqlash: Ayrim tadqiqot markazlarida sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar orqali qo‘lda chizilgan eskizlardan avtomatik ko‘rinishlar yaratish loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bu texnologiya dizayn va muhandislik chizmalarini avtomatlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. 4. AR/VR texnologiyalar bilan vizual ko‘rinishlar: Talabalar va muhandislar ko‘rinishlarni augmented reality (AR) yoki virtual reality (VR) muhiti orqali ko‘rib, obyektlarni 360° formatda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu fazoviy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. 5. STEM va muhandislik ta’limiga integratsiya: Ko‘rinishlar mavzusi endi nafaqat muhandislik fakultetlarida, balki umumiy STEM yo‘nalishidagi dasturlarda ham keng o‘rgatilmoqda. Bu yosh avlodni erta bosqichda fazoviy fikrlashga o‘rgatishga xizmat qiladi. Yangi taklif: Ko‘rinishlarni o‘rgatishda 3D–2D sinxron vizual platforma yaratish. Muhandislik grafikasi fanida, ayniqsa "Ko‘rinishlar" mavzusini o‘rganishda ko‘plab talabalar fazoviy tasavvurda qiynaladi. Shuning uchun quyidagi innovatsion yondashuvni taklif etamiz: Taklif mazmuni: Muhandislik chizmalarini o‘rgatishga mo‘ljallangan, 3D–2D sinxron interaktiv o‘quv platformasini yaratish. Bu platformada: 3D modelni aylantirib ko‘rish va shu asosida old, yuqori va yon ko‘rinishlarni avtomatik yoki qo‘lda olish mumkin; Talaba har bir ko‘rinishni o‘zgartirsa, 3D modeldagi o‘zgarishlar ham real vaqtda aks etadi; Murakkab detallarga kesimlar, yordamchi ko‘rinishlar, va izohlar qo‘shish funksiyasi bo‘ladi; Platforma mobil va veb versiyalarda ishlaydi, hamda o‘zbek tilidagi interfeys bilan jihozlanadi. Taklifning afzalliklari: Talabaning fazoviy tasavvurini kuchaytiradi; O‘qituvchilarga darsda interaktiv materiallar asosida tushuntirish imkonini beradi; Murakkab chizmalarni tahlil qilish va amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishni osonlashtiradi; O‘zbekiston texnik oliy o‘quv yurtlari uchun moslashtirilgan holda ishlab chiqilishi mumkin. Adabiy tahlil Muhandislik grafikasi fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ko‘rinishlar mavzusi yuzasidan turli davrlarda ko‘plab ilmiy-uslubiy manbalar yaratilgan. Ularning ba'zilari mavzuning nazariy asoslarini yoritgan bo‘lsa, boshqalari esa amaliy yondashuvlarga yo‘naltirilgan. Eng ko‘p foydalaniladigan klassik adabiyotlar sirasiga A.A. Yefimovning "Инженерная графика" nomli qo‘llanmasi kiradi. Unda ko‘rinishlar tizimi, ularning joylashuvi va GOST talablariga muvofiq chizma tuzish qoidalari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, N.P. Suvorovning ishlari ham muhandislik chizmasida proyeksion usullarning nazariy asoslariga chuqur yondashganligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston mualliflari orasida I.M. Axmedov, R.J. Oripov, A.S. To‘xtayev singari olimlarning muhandislik grafikasi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari e’tiborga loyiq. Jumladan, I.M. Axmedovning "Muhandislik grafikasi" nomli kitobida ko‘rinishlarning amaliy masalalarda qo‘llanilishi, shuningdek, kesim va yordamchi ko‘rinishlar bilan bog‘liq topshiriqlar keng yoritilgan. So‘nggi yillarda ko‘plab zamonaviy darsliklar CAD dasturlari (AutoCAD, SolidWorks va boshqalar) asosida yozilmoqda. Masalan, D. Kulakov va I. Kazarinovning "Компьютерная графика и инженерное проектирование" nomli ishlari chizmalarni elektron muhitda yaratish metodikasi bilan ajralib turadi. Bu kabi asarlar orqali ko‘rinishlar endi faqat qog‘ozda emas, balki raqamli platformalarda ham o‘rganilmoqda. Muhokama Muhandislik grafikasi fanining ajralmas qismi hisoblangan ko‘rinishlar mavzusi texnik chizmalar to‘g‘ri va aniq tuzilishini ta'minlaydigan asosiy metod hisoblanadi. Bu mavzu yuzasidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullarda o‘rgatilayotgan ko‘rinishlar tushunchasi talabalarda fazoviy tasavvurni shakllantirishda yetarli darajada samarali bo‘lmayapti. Bunga sabab – vizual vositalarning yetishmasligi va faqat ikki o‘lchovli tasvirlarga tayanilganligi bo‘lishi mumkin. Shuningdek, hozirgi zamon talabalarining ko‘pchiligi raqamli texnologiyalar muhitida ulg‘ayayotgani sababli, ularning qog‘ozdagi abstrakt chizmalarni idrok etish qobiliyati an’anaviy metodlarga nisbatan sustroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, muhandislik grafikasi fanida, xususan ko‘rinishlar mavzusini o‘qitishda interaktiv, vizual, va 3D yondashuvlar joriy etilishi zaruratga aylandi. Taklif etilgan 3D–2D sinxron platforma nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki talabalarda murakkab shakllarni fazoviy tushunish, analiz qilish va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu

texnologiya orqali chizmalarni yaratish, tahlil qilish va ularni amaliy loyihalarda qo‘llash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik mustahkamlanadi. Muhokama davomida aniqlanishicha, mavjud darsliklarning ko‘pchiligi an’anaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya yetarli emas. Shu bois, yangi texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali ko‘rinishlar mavzusining o‘quvchilarga ta’sirchanligi va samaradorligi oshadi.

Xulosa

Muhandislik grafikasi fanining asosiy bo‘limi bo‘lgan ko‘rinishlar mavzusi muhandislik chizmalarini to‘g‘ri tuzish, detallarni fazoviy tasavvur qilish va texnik fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullar orqali o‘rgatilayotgan ko‘rinishlar mavzusi zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli, talabalarning mavzuga qiziqishini oshirish va ularning amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida interaktiv, raqamli va vizual yondashuvlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Xususan, 3D–2D sinxron platforma orqali ko‘rinishlar mavzusini yanada sodda, tushunarli va zamon talablariga mos tarzda o‘rgatish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, mavjud adabiyotlar va dasturiy vositalarni tahlil qilish orqali ushbu mavzuni yanada takomillashtirishga doir istiqbolli yo‘nalishlar aniqlandi. Keltirilgan takliflar asosida o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, talabalar bilimini mustahkamlash hamda muhandislik sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yefimov A.A. "Инженерная графика", Moskva, 2015.
2. Suvorov N.P. "Основы инженерной графики", Sankt-Peterburg, 2012.
3. Axmedov I.M., Oripov R.J., To‘xtayev A.S. "Muhandislik grafikasi", Toshkent, 2020.
4. Kulakov D., Kazarinov I. "Компьютерная графика и инженерное проектирование", Moskva, 2018.
5. "AutoCAD: 3D modeling for beginners", O‘quv qo‘llanma, Tashkent, 2019.
6. GOST 2.101-2013, "Engineering Drawing. Types of Views", Russia, 2013.
7. "SolidWorks: Engineering Design with 3D Modeling", Darslik, Tashkent, 2021.

RESEARCH ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE FIELD OF EDUCATION IN UZBEKISTAN

Yue YuBo,
Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University, first-year master's student.

Abstract This paper explores the current status of Artificial Intelligence (AI) integration in Uzbekistan’s education sector, analyzing national strategies, implementation challenges, and outcomes of AI-related pilot programs. Through qualitative analysis of policy documents and institutional reports, the study finds that AI technologies have positively impacted both primary and higher education. Cases include the Eduten math platform, university AI departments, and certified teacher training workshops. These initiatives have enhanced STEM engagement, teaching efficiency, and educational innovation. Despite regional disparities and capacity gaps, Uzbekistan has made significant progress in developing a modern digital learning ecosystem. The study concludes that sustained investment in infrastructure, teacher development, and localized content creation is critical to expanding AI’s role in education. The findings contribute to understanding how emerging economies adopt AI to improve learning outcomes and foster long-term educational transformation.

Keywords: Artificial Intelligence; Education in Uzbekistan; Digital Transformation; Teacher Training; EdTech; STEM Learning; AI Curriculum; Higher Education Policy; Innovation in Schools

Introduction

Artificial Intelligence is transforming global education by enabling more efficient, personalized, and engaging learning environments. AI automates administrative processes, enhances student participation, and helps create customized lesson plans aligned with students’ abilities and interests.

Countries worldwide are integrating AI into educational frameworks to improve learning experiences and prepare students for future tech industry opportunities (UNESCO, 2023).

Uzbekistan has incorporated AI into its education system and is among the first countries to commit to this effort. In 2023, Uzbekistan announced a national AI strategy to strengthen its education sector, including implementing AI courses at secondary and tertiary levels and establishing specialized AI faculties at universities (Government of Uzbekistan, 2023). However, challenges remain. A 2024 survey shows that 65.7% of people believe the existing education system is inadequate, leading many to seek external services to upgrade their skills (UzEdu Analytics, 2024). Rural students also face worse access to technology than urban students, as city schools typically have new teaching aids while rural schools lack basic resources (World Bank, 2023).

Materials and Methods

This study is based on a descriptive analysis of Uzbekistan’s strategic documents on education digitization. Qualitative methods explain how existing policies fit into the "Digital Uzbekistan 2030" program regarding AI in education (Ministry for Development of Information Technologies and Communications, 2023). A gap exists between policy ambition and execution: while digital transformation is promoted, practical progress is slow (OECD, 2022). Many rural schools still lack reliable internet, modern equipment, and trained staff (ITU, 2023). Additionally, no comprehensive AI teaching syllabi or certification systems exist (UNDP Uzbekistan, 2023).

1.1. AI Adoption in Primary and Secondary Education

AI integration in primary and secondary education has had positive effects in Uzbekistan. Pilot programs in major cities and selected regional schools taught AI basics like coding, algorithmic thinking, and digital problem-solving (British Council Uzbekistan, 2023). These initiatives improved students’ interest in STEM subjects and classroom engagement. Students reported that AI-enhanced classes were more interactive and adapted to their learning pace. AI-based apps like Eduten and Khan Academy, which support learning in Uzbek, have excelled in teaching mathematics, offering exercises, data-driven insights, and personalized learning through dashboards. UNICEF’s 2024 research showed that Eduten improved students’ math skills by 16.9%.

However, challenges persist. Many schools, especially in rural areas, lack basic infrastructure like reliable internet and computer labs (OECD Education Uzbekistan Report, 2023). Both students and teachers face shortages of basic digital skills (Teacher Training Foundation of Uzbekistan, 2024). Teachers often hesitate to use AI tools effectively, and existing AI resources are rarely culturally or academically relevant (EdTech Review Central Asia, 2024). To address this, the Ministry of Public Education plans to increase AI training for remote and rural teachers (Ministry of Public Education of Uzbekistan, 2024), roll out digital classrooms, and collaborate with local staff to develop culturally specific materials. International partners are expected to provide localized and translated AI educational aids (British Council Uzbekistan, 2023; UNICEF Uzbekistan, 2024).

Looking ahead, Uzbekistan plans to introduce AI education in earlier grades and make it a compulsory subject. AI applications could help design personalized learning plans, diagnose early learning issues, and support students with special needs. Sustained investment and partnerships may transform AI’s role in primary education, improving quality and equity (OECD Education Uzbekistan Report, 2023).

1.2. AI in Higher Education and Industry Collaboration

AI is a key focus in Uzbekistan’s higher education system. Major universities have established AI departments with specialized centers in machine learning, data science, and natural language processing (Minister of Higher Education of Uzbekistan, 2023). These programs attract international students due to multinational educational models, with instruction in English and Uzbek and some courses taught by foreign experts. Universities have also formed strategic alliances with tech companies, creating joint research labs, student innovation hubs, and internships, which help students gain skills for digital economy jobs (OECD Education Uzbekistan Report, 2023).

However, challenges include shortages of qualified faculty in advanced AI disciplines (Ministry of Higher Education of Uzbekistan, 2023), lack of modern computing infrastructure for research and projects, and curriculum-content mismatches with industry needs (OECD Education Uzbekistan Report,

2023). Language barriers and limited access to international research materials also affect teaching quality (British Council Uzbekistan, 2023). To address these, the Ministry of Higher Education is developing faculty exchange programs and online training courses (Ministry of Higher Education of Uzbekistan, 2023), proposing to equip labs with high-performance computing and cloud access, and promoting university-startup collaborations for AI research funding and student projects (EdTech Review Central Asia, 2024).

Uzbekistan aims to become a Central Asian hub for AI education and research. In the coming years, more universities are expected to offer AI-related degrees, and dual-degree programs with Asian and European universities are under consideration. The country also plans to foster university-level AI entrepreneurship through incubators and tech parks, promoting a sustainable link between higher education and industry to cultivate skilled talent for innovation and digital transformation (UNICEF Uzbekistan, 2024; OECD Education Uzbekistan Report, 2023).

1.3. Teacher Training and Educational Innovation

Uzbekistan recognizes that effective AI implementation in teaching requires well-trained educators. Recently, the government and institutions held AI-focused teaching workshops in cities like Tashkent, Samarkand, and Bukhara (Teacher Training Foundation of Uzbekistan, 2024), certifying over 1,000 teachers to integrate AI tools into daily teaching. Tools like instructional chatbots, adaptive algorithms, and data dashboards support automated lesson delivery and personalized instruction, enabling dynamic teaching for diverse students (British Council Uzbekistan, 2023).

Local startups and university hubs have developed bilingual educational apps, AI simulators, and interactive digital resources, benefiting science and foreign language learning (EdTech Review Central Asia, 2024). Gamification and personalized content have improved student motivation and outcomes. School administrators also use AI for attendance, scheduling, and performance evaluation, enhancing management efficiency (UNICEF Uzbekistan, 2024).

However, rural teachers often lack access to training or modern technology (Teacher Training Foundation of Uzbekistan, 2024), and some resist AI tools due to unfamiliarity or fear of losing classroom control (OECD Education Uzbekistan Report, 2023). More localized AI teaching materials aligned with national curricula and culture are needed, as most AI platforms focus on students rather than teacher professional development (British Council Uzbekistan, 2023). The Ministry plans to build rural training centers, develop online modules, create Uzbek- and Russian-language AI resources with local guidance, and establish a support platform for tutorials, lesson guides, and teacher collaboration (Ministry of Public Education of Uzbekistan, 2024; EdTech Review Central Asia, 2024).

The country seeks to create an environment for teachers to develop AI literacy, encouraging them to collaborate with universities and edtech companies to create digital products and test new methods. Over time, teachers will both benefit from and shape AI’s use in Uzbekistan’s schools (OECD Education Uzbekistan Report, 2023; British Council Uzbekistan, 2023).

Conclusion

Uzbekistan is steadily advancing AI integration in education as part of its "Digital Uzbekistan 2030" strategy. Introducing AI tools in schools, establishing university AI departments, and training educators mark significant steps toward modernizing education, demonstrating government commitment to using technology for better learning outcomes and workforce readiness. By addressing challenges through strategic coordination, Uzbekistan can align its education system with national development goals. AI has the potential to improve education and drive socioeconomic transformation. Sustained investment, capacity building, and ethical implementation are essential to ensure AI in education is equitable, effective, and future-ready, bridging policy goals and classroom realities for scalable and inclusive impact.

References

1. Asian Development Bank (ADB). 2024. *Building inclusive digital infrastructure in education.*
2. British Council Uzbekistan. 2023. *AI in general education: Engagement and access*. Available at: https://www.britishcouncil.uz (Accessed: 20 May 2025).

3. EdTech Review Central Asia. 2024. *AI tools in Uzbek classrooms: A regional survey*. Available at: https://www.edtechca.uz (Accessed: 20 May 2025).
4. Government of Uzbekistan. 2023. *National AI development strategy 2023–2030*. Tashkent: Government of Uzbekistan.
5. International Telecommunication Union (ITU). 2023. *ICT access and usage in rural schools: Central Asia report*.
6. Ministry for Development of Information Technologies and Communications. 2023. *Strategic implementation roadmap for “Digital Uzbekistan 2030”*.
7. Ministry of Higher Education of Uzbekistan. 2023. *Strategic AI education framework*. Tashkent: Ministry of Higher Education.
8. Ministry of Public Education of Uzbekistan. 2024. *National strategy for AI integration in general education*. Tashkent: Ministry of Public Education.
9. OECD. 2022. *Digital readiness in emerging economies: Uzbekistan education review*. Paris: OECD Publishing.
10. OECD Education Uzbekistan Report. 2023. *Bridging academia and industry: AI skills in Uzbekistan*. Paris: OECD Publishing.
11. Teacher Training Foundation of Uzbekistan. 2024. *Annual report on digital pedagogy and AI tools*. Available at: https://www.teachers.uz (Accessed: 20 May 2025).
12. UNICEF Uzbekistan. 2024. *Impact assessment of AI-based learning platforms in Uzbek schools*. Available at: https://www.unicef.org/uzbekistan (Accessed: 20 May 2025).
13. UNESCO. 2023. *Artificial intelligence in education: A global perspective*. UNESCO Publishing.
14. UzEdu Analytics. 2024. *Survey on digital education readiness in Uzbekistan*.
15. World Bank. 2023. *Bridging the digital divide: Education technology in Central Asia*.
16. UNDP Uzbekistan. 2023. *AI competency standards for education: A policy brief*.

TALABALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTLARNING TA’SIRI.

Yuldashev Abdurauf Ro‘zmatjonovich
Qo‘qon davlat universiteti, Informatika kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: yabdurauf740@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda sun’iy intellektning roli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi qo‘llanilishi, adaptiv o‘qitish tizimlari, virtual yordamchilar va ijodiy platformalar orqali ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari, pedagogik muammolari va kelajak istiqbollari haqida ham fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellektni ta’lim jarayonida talabalarning ijodkorlik salohiyatini oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, talabalarning ijodiy faoliyati, ta’limda AI qo‘llanilishi, adaptiv o‘qitish tizimlari, virtual yordamchilar, ijodiy, fikrlashni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalar, ta’limda innovatsiyalar, shaxsiylashtirilgan ta’lim, ta’limda avtomatlashtirish.

Kirish. Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’limda yangi imkoniyatlar yaratib, talabalarning o‘qish jarayonida ijodiy yondashuvlarni kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu maqolada sun’iy intellektlarni talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi roli, ilmiy yondashuvlar, qo‘llanilishi va muammolari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi roli. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonlarini shaxsiylashtirish, moslashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish va talabalarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi. SI yordamida ta’lim jarayonida ijodiy vazifalarni avtomatik baholash, individual feedback berish

va talabalarni qiziqtirgan sohalarda chuqurroq bilim olish uchun qo‘llaniladigan resurslarni taqdim etish mumkin.

Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda SI texnologiyalari.

1. Adaptiv o‘qitish tizimlari - talabalar uchun moslashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini yaratib, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

2. AI asosida yaratish vositalari - matn, rasm, musiqa va boshqa ijodiy mahsulotlarni yaratishda yordam beradi.

3. Virtual yordamchilar va chat-botlar - talabalarga savollarga tezkor javob berib, ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi.

4. Collaborative learning platformalari - talabalar o‘rtasida hamkorlik va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlar. So‘nggi yillarda SI texnologiyalarining ta’limdagi ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi. Ularning ko‘pchiligi talabalarning ijodiy salohiyatini oshirishda AI vositalarining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Masalan, adaptiv o‘qitish tizimlari talabaning o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlab, moslashtirilgan resurslar bilan ta’minlaydi, bu esa ijodiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Muammolar va cheklovlar.

a) Texnologik imkoniyatlarni oladigan bo’lsak, hamma talabalarga bir xil darajada SI vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

b) Maxfiylik va axborot xavfsizligi esa talabalar ma’lumotlarining himoyasi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

c) Pedagogik yondashuvlar asosida SI texnologiyalarini ta’limda samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning malakasi va tayyorgarligini doimiy ravishda oshirib borish talab etiladi.

Yangi imkoniyatlar va istiqbollar. Kelajakda sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi roli yanada kengayadi. Misol qilib oladigan bo’lsak, federativ o‘qitish orqali ma’lumotlarni markazlashtirmasdan, xavfsizlikni ta’minlagan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim tizimlarini yaratish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, AI asosida avtomatik ijodiy vazifalar yaratish va baholash tizimlari rivojlanadi.

Xulosa

Sun’iy intellekt orqali talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo’lib u ta’lim jarayonlarini shaxsiylashtirish, individual yondashuvlarni qo‘llash va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologik, axborot xavfsizligi va pedagogik muammolarni hal etish orqali uning samaradorligini oshirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Baker, R. S., & Siemens, G. (2014). Educational data mining and learning analytics. Learning Analytics, 61–75.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. Pearson.
3. Woolf, B. P. (2010). Building intelligent interactive tutors: Student-centered strategies for revolutionizing e-learning. Morgan Kaufmann.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign.
5. Roll, I., & Wylie, R. (2016). Evolution and revolution in artificial intelligence in education. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 26(2), 582–599.
6. Zhou, M., Brown, D., & Ching, Y.-H. (2018). Enhancing creativity in education with artificial intelligence technologies. Journal of Educational Technology & Society, 21(1), 60–73.

IQTISODIY VA IJTIMOIY TARMOQLARNI RAQAMLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona Davlat Texnika universiteti, Menejment kafedrasi dotsenti
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Email: nilush1986@bk.ru
Toshpulatova Oydinoy Alisher qizi
Menejment yo‘nalishi 64-22 M guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot va ijtimoiy sohada qo‘llanilishi tahlil qilingan. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat xizmatlari va boshqaruv sohalarida sun’iy intellekt texnologiyalarining roli, ulardan foydalanishning ahamiyati va istiqbollari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, O‘zbekiston, 2030-yil strategiyasi, davlat xizmatlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash.

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlarni raqamlashtirish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Raqamlashtirish — bu an’anaviy jarayonlarni raqamli texnologiyalar asosida qayta qurish va ularni samarali boshqarishdir. Bu jarayon iqtisodiyotning turli sohalarida, jumladan, moliya, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va energetika kabi sohalarda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda muhim o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Ularning qo‘llanilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qarorda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun’iy intellektni keng qo‘llashning strategik maqsadlari va yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, va ilmiy sohalarning eng muhim tendensiyalaridan biriga aylandi. Bu texnologiyalar nafaqat odamlarning kundalik hayotini yaxshilashga qaratilgan, balki insoniyat kelajagini tubdan o‘zgartirishi kutilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ham mazkur maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan.

Mashhur matematik va sun’iy intellekt sohasining asoschilaridan biri Alan Turing bir paytlar shunday degan edi: “Kompyuter bir kunda odam kabi o‘ylay oladi, ammo odam unga qanday o‘ylashni o‘rgatadi.” Uning fikricha, inson o‘zining aql-zakovatini texnologik tizimlarga singdirish orqali yangi texnologiyalarning yuqori darajada rivojlanishiga erishadi. Bu fikr bugungi sun’iy intellekt tizimlarining rivojlanish jarayonida o‘z aksini topmoqda.

“Sun’iy intellekt” atamasini muomalaga kiritgan John McCarthy esa sun’iy intellektning maqsadi haqida shunday deydi: “Bizning vazifamiz – insonning o‘z fikrlarini texnik tizimlarda aks ettirishdir.” O‘zbekistonning raqamli transformatsiya strategiyasi ham bu maqsadni ko‘zlab, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ushbu texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda texnologiyalar dunyosida katta o‘rin egallagan Elon Maskning quyidagi fikri o‘rinlidir: “Sun’iy intellekt dunyo iqtisodiyotini tubdan o‘zgartiradi, ammo biz uning xavflariga tayyor bo‘lishimiz kerak.” Maskning ushbu fikri O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish jarayonida xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Stanford universiteti professori Fei-Fei Li shunday deydi: “Sun’iy intellekt – bu faqat texnologiya emas, balki u inson hayotini yaxshi tomonga o‘zgartiradigan kuchdir.” Ushbu fikr sun’iy intellektni inson manfaatlariga moslashtirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar zarurligini isbotlaydi.

Bundan tashqari, Nick Bostrom sun’iy intellektning xavflari haqida ogohlantirib: “Sun’iy intellektning rivojlanishi insoniyatning eng katta yutuqlaridan biri bo‘lishi mumkin, ammo uni nazorat

qilish eng katta muammo bo‘lib qolmoqda,” deb ta’kidlaydi. Bu fikr sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji bilan bog‘liq nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish jarayonida yuqoridagi fikrlar qo‘llanma bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ushbu strategiyada ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarining sonini oshirish, sun’iy intellektni ijtimoiy sohalarda joriy etish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt iqtisodiyotning turli tarmoqlarida jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, strategiyada 2030-yilga qadar sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Elektron tijorat platformalari orqali mahalliy kompaniyalar xalqaro bozorlar bilan tezkor va samarali aloqa o‘rnata oladi. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan biznes-analitika vositalari esa resurslarni samarali boshqarish va bozor tendensiyalarini oldindan ko‘ra bilishga imkon yaratadi.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, biznes samaradorligini oshirish va yangi bozorlarni ochishda beqiyos rol o‘ynaydi. Masalan, McKinsey kompaniyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sun’iy intellekt global iqtisodiyotga 2030-yilga kelib 13 trillion AQSh dollari miqdorida foyda keltirishi kutilmoqda. O‘zbekiston uchun bu imkoniyatlardan foydalanish iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va milliy mahsulot hajmini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar, xususan, onlayn platformalar va masofaviy o‘qitish tizimlari o‘quv jarayonini qulay va tejamkor qilishga yordam bermoqda. Strategiyada sun’iy intellektni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali personalizatsiya qilingan o‘qitish usullarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Strategiyada O‘zbekistonda ta’lim jarayonida sun’iy intellektni qo‘llash orqali o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘qitish tizimini rivojlantirish belgilangan. Misol sifatida “Coursera” yoki “Khan Academy” kabi onlayn platformalar O‘zbekistonda ham keng joriy etilishi mumkin. Sog‘liqni saqlash tizimida esa telemeditsina texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Masalan, masofadan turib tashxis qo‘yish va davolash xizmatlari qishloq hududlarida ham sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlamoqda. Strategiya doirasida sun’iy intellektga asoslangan sog‘liqni saqlash tizimlarini joriy etish orqali xizmatlar sifatini oshirish belgilangan. Misol uchun, Hindistonda telemeditsina loyihalari 70 million aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda yordam berdi. O‘zbekistonda ham shunday loyihalar orqali aholining salomatligini yaxshilashga erishish mumkin.

Davlat xizmatlarida “yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Ushbu portalda sun’iy intellekt asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu fuqarolar uchun qulaylik yaratib, byurokratik jarayonlarni sezilarli darajada qisqartirishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning asosiy maqsadlaridan biri O‘zbekistonni “Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksi” (Government AI Readiness Index) bo‘yicha dunyoning yetakchi 50 davlati qatoriga kiritishdir. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni talab qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va qo‘llash jarayonida kiberxavfsizlikni ta’minlash masalalariga ham katta e’tibor qaratilishi lozim.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga tatbiq qilish davomida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy sohaning umumiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchidan, malakali mutaxassislar yetishmovchiligi bugungi kunning eng muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Sun’iy intellektga ixtisoslashgan yuqori malakali kadrlarning yetarli emasligi texnologiyalarni rivojlantirish jarayonini sekinlashtiradi. Har bir davlatning innovatsion yutuqlari bevosita uning mutaxassislariga bog‘liq ekanini hisobga olsak, bu masalaning dolzarbligini anglash qiyin emas. Ikkinchidan, texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi natijasida yuqori quvvatli serverlar va katta ma’lumotlarni qayta ishlash markazlari yetishmayapti. Bu esa, o‘z navbatida, texnologik taraqqiyotning tizimli amalga oshirilishiga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. SI loyihalarining muvaffaqiyati uchun ma’lumotlar infratuzilmasi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqiy va me’yoriy bazaning sustligi milliy darajadagi yirik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivoji huquqiy muhitning barqarorligiga bog‘liq bo‘lsa-da, ko‘pgina davlatlar bu sohada yetarli choralarni ko‘rmayapti. To‘rtinchidan, aholining texnologik savodxonligi darajasi pastligi ham sun’iy intellektning samarali joriy qilinishiga halaqit bermoqda. Jamoatchilikka SI texnologiyalarining afzalliklari va xavf-xatarlari haqida yetarli ma’lumot berilmasa, ularni qo‘llash jarayoni qiyin kechadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun aniq va samarali strategiyalar ishlab chiqish talab qilinadi. Kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini rivojlantirish dolzarb masala sifatida birinchi o‘rinda turadi. Oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni ochish va yoshlarni xorijiy grantlar yordamida malaka oshirishga jalb qilish mamlakatning SI sohasidagi yutuqlariga xizmat qiladi. Yosh mutaxassislarning o‘z mamlakatida qolishi uchun esa ularning mehnatini rag‘batlantiruvchi tizimlar joriy etilishi kerak.

Texnik infratuzilmani mustahkamlash esa bu sohadagi muhim qadamlardan biridir. Yuqori quvvatli hisoblash markazlarini tashkil etish va ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirish sun’iy intellekt loyihalarining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Huquqiy bazani takomillashtirish esa sun’iy intellekt texnologiyalarini tartibga soluvchi global standartlarga mos keladigan qonunchilikni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu nafaqat texnologik xavfsizlikni ta’minlaydi, balki ushbu sohada amalga oshirilayotgan loyihalarning qonuniy himoyasini ham mustahkamlaydi.

Jamoatchilik savodxonligini oshirish esa kelajakka qaratilgan eng muhim qadamdir. Sun’iy intellektning imkoniyatlari va ehtimoliy xavflari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish uchun OAVda faol tashviqot ishlari olib borilishi zarur. Trening va seminarlar orqali oddiy fuqarolarga SI texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish esa bu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammolarni hal qilishda har bir davlatning iqtisodiy resurslari va ilmiy salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu choralar orqali O‘zbekiston sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida yuksak natijalarga erishishi mumkin.

Bunga qo’shimcha ravishda, raqamli texnologiyalar iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirish salohiyatiga ega. Sun’iy intellekt texnologiyalari, telemeditsina va raqamli davlat xizmatlari orqali insonlar hayotini osonlashtirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin. O‘zbekistonning “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” ushbu yo‘nalishda muhim qadam bo‘lib, mamlakatimizni raqamli taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqadi. Shu sababli, bu texnologiyalarni to‘g‘ri boshqarish va samarali qo‘llash kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda, balki insoniyat hayotida muhim burilish yasash imkoniyatiga ega. Olimlarning fikricha, ushbu texnologiyalarni inson manfaatlariga moslashtirish va xavf-xatarlarga tayyor turish orqali kelajakda yanada barqaror jamiyat qurish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jalolov, A. (2023). "Raqamli texnologiyalar va iqtisodiy rivojlanish: O‘zbekiston tajribasi". Iqtisodiy tahlil va innovatsiyalar jurnali, 18(2), 56-67.
2. Sodiqov, B. (2022). "Sun’iy intellekt va uning ijtimoiy sohalardagi o‘rni". Ijtimoiy taraqqiyot va raqamli texnologiyalar - ilmiy to‘plam, 45-58.
3. Rahimov, M., & Karimov, D. (2021). "O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi: sun’iy intellektning roli". Xalqaro iqtisodiy o‘zgarishlar, 12(4), 132-142.
4. Mamatov, Z. (2020). "Raqamli ta'lim tizimining rivojlanishi va uning ta'lim jarayoniga ta'siri". Ta'lim va texnologiyalar, 9(3), 89-100.
5. Ergashev, A. (2023). "Telemeditsina texnologiyalari va ularning tibbiyot sohasidagi qo‘llanilishi". Tibbiyot texnologiyalari jurnali, 7(1), 23-34.
6. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. http://lex.uz//docs/-7158604

TASVIRLARDAGI SAHNANI TASNIFLASH UCHUN RESNET ARXITEKTURASI ASOSLANGAN EKSPERTLAR ARALASHMASI ANSAMBLINI QURISH

[1,a]O.R. YUSUPOV, [1,b]E.SH.ESHONQULOV
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Elektron pochta: [a)]ozodyusupov@gmail.com,
[b)]erali.eshonqulov1201@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompyuter ko‘rish sohasidagi asosiy masalalardan biri bo‘lgan sahnalarni tasniflash masalasi ko‘rib chiqiladi. Taklif etilayotgan usul ResNet konvolyutsion neyron tarmog‘i va “Ekspertlar aralashmasi” (MoE) arxitekturasining kombinatsiyasiga asoslangan. MoE arxitekturasi tasniflashning murakkab masalasini kichikroq qism masalalarga bo‘lib, ularni ixtisoslashgan “ekspertlar” tomonidan hal etish imkonini beradi. Maxsus shlyuz mexanizmi esa har bir ekspertning yakuniy qarorga qo‘shilishini boshqaradi. Taklif etilgan ResNet-MoE modeli, ayniqsa kategoriyalari xilma-xil va vizual jihatdan murakkab bo‘lgan sahna to‘plamlari uchun, asosiy ResNet modeliga nisbatan yuqoriroq aniqlik va klassifikator turg‘unligini ta’minlashi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada model arxitekturasi, o‘qitish jarayoni tafsilotlari hamda standart sahnalarni tasniflash to‘plamlari ustida o‘tkazilgan eksperimentlar natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sahnalarni tasniflash, chuqur o‘qitish, ResNet, Ekspertlar aralashmasi (MoE), kompyuterli ko‘rish, timsollarni tanib olish.

Kirish

Sahnali tasniflash – bu tasvirning umumiy mazmuni asosida (masalan, “plyaj”, “ofis”, “o‘rmon”) unga semantik yorliqni avtomatik ravishda biriktirish jarayoni bo‘lib, u robotlar uchun avtonom navigatsiya, videokuzatuv tizimlari, multimedia kontentini tashkil etish va qidirish, kengaytirilgan reallik hamda inson-kompyuter o‘zaro ta’siri kabi ko‘plab qo‘llanmalarda muhim rol o‘ynaydi. Vizual axborot hajmining ortib borishi bilan sahnalarni aniq va samarali tasniflash usullarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1-3].

An’anaviy sahnani tasniflash yondashuvlari ko‘pincha qo‘l mehnati asosida tuzilgan belgilarga (masalan, SIFT, GIST, HOG) va so‘ngra mashinaviy o‘qitish klassifikatorlariga (masalan, SVM) tayanardi [1]. Biroq, chuqur o‘qitish, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlarning (CNN) paydo bo‘lishi ushbu sohada sezilarli siljishni keltirib chiqardi. AlexNet, VGG, GoogLeNet va ayniqsa ResNet [4] kabi CNN arxitekturalari tasvirning xom piksellari asosida iyerarxik belgilarni avtomatik o‘qitish qobiliyati tufayli yuqori natijalarga erishdi. ResNet arxitekturasi o‘zining qoldiq (residual) tuzilmasi orqali juda chuqur tarmoqlarni o‘qitishga imkon yaratib, gradiyentning so‘nib ketish muammosini bartaraf etadi va yuqori aniqlikka erishadi.

CNN arxitekturasi yutuqlariga qaramay, sahnani tasniflash hali ham murakkab masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunga sabab – sinflar ichida o‘zgaruvchanlikning yuqoriligi (masalan, “o‘rmon” qish va yoz fasllarida har xil ko‘rinadi) va sinflararo o‘zgaruvchanlikning pastligi hisoblanadi (masalan, “oshxona” va “ovqatlanish xonasi” o‘xshash vizual elementlarga ega bo‘lishi mumkin). Bunday murakkab holatlarni hal etishda ansambl usullar yoki ixtisoslashgan modellar yuqori aniqlikni va turg‘unlikni ta’minlanishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, biz ushbu ishda “Ekspertlar aralashmasi” (Mixture of Experts, MoE) [4, 6] ansambl asosida masalani yechishni amalga oshirishga qaratdik. MoE – bu bir nechta “ekspert” tarmoqlari kirish belgilar fazosining turli sohalariga ixtisoslashgan ansambl usuli bo‘lib, har bir kirish obyekt uchun qaysi ekspertdan (yoki ekspertlar kombinatsiyasidan) foydalanishni dinamik tarzda aniqlovchi shlyuz tarmog‘ini (gating network) o‘z ichiga oladi. Bunday yondashuv ma’lumotlardagi murakkab bog‘liqliklarni modellashtirish hamda modelning aniqligi va izohlanishini (interpretatsiyasini) yaxshilash imkonini beradi.

Ushbu maqolada biz sahnalarni tasniflash uchun ResNet arxitekturasining transfer o‘qitish asosida belgilarni yaxshi ajratish va MoE modelining moslashuvchan, ixtisoslashgan qayta ishlash

imkoniyatlarini birlashtirgan ansambli qurish taklif etiladi. Bizning asosiy farazimiz shundan iboratki, masalani bir nechta ResNet ekspertlariga taqsimlash orqali vizual sahnalarning xilma-xilligi va murakkabligini yaxshiroq ajratadi deb hisoblaymiz.

Bog‘liq ishlar

Chuqur o‘qitish asosidagi sahnalarni tasniflash. So‘nggi yillarda chuqur konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) sahnalarni tasniflashda yetakchi yondashuvlarda biriga aylandi. Dastlab AlexNet [7] bilan boshlangan bu rivojlanish keyingi arxitekturalar – VGG [8], GoogLeNet [9] va ResNet (qoldiq tarmoqlar) [4] bilan yanada takomillashtirildi va turli modellarni baholashda sezilarli natijalarga erishildi. Ayniqsa, ResNet arxitekturasi qoldiq bloklarining kiritilishi tufayli ancha chuqur tarmoqlarni (masalan, ResNet-50, ResNet-101, ResNet-152) muvaffaqiyatli o‘qitishga imkon berdi. Bu esa tasvirni tanib olish, jumladan sahnalarni tasniflash masalalarida aniqlikning sezilarli oshishiga olib keldi.

Ko‘plab tadqiqotlar ResNet arxitekturasidan foydalanish samaradorligini ko‘rsatdi. Xususan, bu model avvaldan yirik ma’lumotlar to‘plamlarida, jumladan, ImageNet [10] ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilib, so‘ngra sahnalarni tasniflash uchun mo‘ljallangan maqsadli to‘plamlarda (fine-tuning) nozik sozlash orqali quyidagilar Places365 [11], SUN397 [12] va MIT Indoor67 [13] yaxshi natijalarga erishilgan.

“Ekspertlar aralashmasi” (MoE) ansambli. “Ekspertlar aralashmasi” (Mixture of Experts, MoE) kontseptsiyasi ilk bor Jacobs va hammualliflar tomonidan [5] “bo‘l va hukumron bo‘l” tamoyiliga asoslangan usul sifatida taklif etilgan. MoE arxitekturasi bir nechta ekspert tarmoqlari va bitta shlyuz (gating) tarmog‘idan iborat. Har bir ekspert tarmog‘i alohida model (masalan, neyron tarmoq) bo‘lib, u o‘ziga xos kichik qism masalani hal qilishni o‘rganadi. Shlyuz tarmog‘i esa har bir kirish obyekti uchun ekspertlar chiqishlariga qanday vazn qiymatlarini berilishini belgilaydi. Bunday yondashuv har bir ekspertning kirish fazosining turli sohalariga ixtisoslashishiga imkon yaratadi.

Dastlab, MoE nisbatan sodda ekspert modellar bilan regressiya va klassifikatsiya masalalariga tatbiq etilgan. Biroq chuqur o‘qitish rivojlanishi bilan MoE qatlamlari yirik neyron tarmoqlarga, xususan til modellashtirish [6, 14] va kompyuter ko‘rish [2, 14] sohalariga integratsiyalashuvda qo‘llanila boshlandi. Siyrak MoE yondashuvlari model quvvatini hisoblash resurslarga bo‘lgan talablarni oshirmay, sezilarli darajada oshirishga imkon beradi.

MoE ning kompyuter ko‘rishda qo‘llanilishi. Kompyuter ko‘rish sohasida MoE turli vazifalar uchun qo‘llanilgan. Masalan, [13] ishida Vision Transformer (ViT) modellarining masshtablanuvchanligini oshirish uchun MoE dan foydalanish taklif etiladi. [14] da esa tasvirlarni tasniflashda MoE yondashuvi o‘rganilgan bo‘lib, unda har xil ekspertlar turli vizual tushunchalarga ixtisoslashadi. Modellarning ayrim qismlarini kirish ma’lumotlariga mos ravishda moslashuvchan tanlash g‘oyasi turli belgilarga ega obyektlar yoki sahnalarni aniqlashda istiqbolli yechim hisoblanadi.

Shunga qaramay, ResNet kabi chuqur CNN asosidagi MoE yondashuvlaridan sahnalarni tasniflash vazifasida foydalanish hozircha keng ko‘lamda o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko‘pincha sodda bazaviy modellar yoki boshqa kompyuter ko‘rish masalalariga qaratilgan. Bizning ishimiz aynan sahnalarni aniq tasniflashda ResNet asosidagi MoE modelini qurishga qaratilgan.

Taklif etilayotgan ansambl

Ushbu qismda biz chuqur belgilarni ajratish imkoniyatiga ega ResNet arxitekturasi va moslashuvchan MoE modelini birlashtirgan ResNet-MoE arxitekturamiz tafsilotlarini bayon qilamiz.

Umumiy arxitektura. Taklif etilayotgan ansambl uchta asosiy komponentdan iborat:

Asosiy ResNet tarmog‘i belgilarni ajratish vazifasi amalga oshiradi. Kiruvchi tasvirdan yuqori darajadagi belgilarni ajratib olish uchun xizmat qiladi.

Ekspert tarmoqlar to‘plami (Expert Networks). Har bir ekspert tarmog‘i ResNet arxitekturasining takomillashtirilgan modeli hisoblanadi. Ular ma’lum sahna turlari yoki belgilarga ixtisoslashtiriladi.

Shlyuz tarmog‘i (Gating Network). Asosiy tarmoqdan olingan belgilarga asoslanib har bir ekspertning ta’sir etuvchi vazn qiymatlarini belgilaydi.

ResNet tarmog‘i. Belgilarni ajratish uchun biz ImageNet [10] ma’lumotlar to‘plamida oldindan o‘qitilgan ResNet arxitekturasidan foydalanamiz. ResNetning tasniflash qatlami olib tashlanadi. Modelning so‘nggi konvolyutsion bloklaridan birining chiqishi (masalan, global o‘rtacha poolingdan oldingi) yoki pooling natijasi x_b belgilar vektori sifatida ishlatiladi va u shlyuz hamda ekspert tarmoqlari

uchun kirish bo‘lib xizmat qiladi. Oldindan o‘qitilgan ResNetdan foydalanish sahna tasnifi masalasi uchun o‘qitishni tezlashtiradi va kengroq ma’lumotlar to‘plamidan o‘rganilgan bilimlarni transfer qilish imkonini beradi.

Ekspert tarmoqlari. Faraz qilaylik, bizda $\boldsymbol{N}$ ta ekspert tarmog‘i mavjud bo‘lsin: $\mathcal{E}_1, \mathcal{E}_2, \dots, \mathcal{E}_N$. Har bir ekspert tarmog‘i $\mathcal{E}_i$ quyidagi usullardan biri bilan qurilishi mumkin:

Mustaqil “boshlar” (heads). x_b bir nechta mustaqil kichik neyron tarmoqlarga (masalan, ikkita to‘liq bog‘langan qatlam va ReLU aktivatsiya funksiyasi bilan) uzatiladi. Har biri sahna sinflari uchun logitlar vektorini hisoblaydi.

Ixtisoslashgan ResNet bloklari. x_b ResNetning erta bosqichlaridan olinadi va har bir ekspert ResNetning qolgan bloklari (bir nechta qoldiq bloklar) hamda o‘ziga xos tasniflash qatlami bilan taqdim etiladi. Bu usul hisoblash resurslarini ko‘proq talab qiladi. Ammo chuqur ixtisoslashuvga erishish imkonini beradi.

ResNet yuqori qatlamlarining takomillashtirilgan nusxalari. Har bir ekspert ResNetning yuqori qatlamlari nusxa sifatida (masalan, bir nechta oxirgi to‘liq bog‘langan qatlamlar yoki konvolyutsion blok + to‘liq bog‘lamli qatlamlar) kichik o‘zgarishlar bilan yoki mustaqil o‘qitiladigan tarzda quriladi.

Bizning quyidagicha ekspert tarmoqlarini amalga oshirdik: har bir ekspert – ikki to‘liq bog‘langan qatlam va ReLU faollashtiruvchi funksiyasiga ega bo‘lgan mustaqil boshdan iborat bo‘lib, u T ta sahna sinflari uchun logitlar chiqaradi.”

Shunday qilib, har bir ekspert $\mathcal{E}_i$ ga x_b uzatiladi va u chiqishda $\mathcal{F}_i \in \mathbb{R}^T$ logitlar vektorini beradi, bu yerda T — sinflar soni.

Shlyuz tarmog‘i. Shlyuz tarmog‘i $\mathcal{G}$ ham x_b (yoki uning kamroq korrelyatsiyalangan versiyasi) ni kirish sifatida oladi. Uning vazifasi — har bir ekspert $\mathcal{E}_i$ ushbu kirish uchun qanchalik ta’sirini aniqlashdir. Shlyuz odatda kichik neyron tarmoq (masalan, 1 yoki 2 to‘liq bog‘langan qatlam) bo‘lib, yakunda Softmax funksiyasi orqali vazn qiymatlar vektorini hosil qiladi, ya’ni:

$$\mathcal{G}(x_b) = [\mathcal{G}_1(x_b), \mathcal{G}_2(x_b), \dots, \mathcal{G}_N(x_b)], \qquad \sum_{i=1}^{N} \mathcal{G}_i(x_b) = 1.$$

bu yerda $\mathcal{G}_i(x_b)$ – shlyuzning $\mathcal{E}_i$ ekspertiga bo‘lgan ishonch darajasini ifodalaydi.

Chiqishlarni birlashtirish va yo‘qotish funksiyasi. Modelning yakuniy chiqishi quyidagi vazn qiymatlari asosidagi yig‘indi orqali hisoblanadi:

$$\mathfrak{F}(\mathcal{E}_1, \dots, \mathcal{E}_N, \mathcal{G}_1, \dots, \mathcal{G}_T) = \sum_{t=1}^{N} \mathcal{G}_t(x_b)\mathcal{E}_t.$$

Ushbu chiqish ustida Softmax funksiyasi qo‘llanilib, sinf ehtimolliklari olinadi.

Asosiy yo‘qotish funksiyasi (cross-entropy) quyidagicha,

$$\mathcal{L}_{ce} = -\sum_{t=1}^{N} y_t log(p_t),$$

bu yerda y_t –ko‘p sinfli kesishuvchi sinf yorlig’i, p_t esa model tomonidan aniqlangan sinflarning ehtimolligi.

Agar shlyuz tarmog‘ining doimo bir ekspertni tanlashining oldini olish kerak bo‘lsa yuklama balanslash yo‘qotish funksiyasi (load balancing loss) quyidagicha bo‘ladi:

$$\mathcal{L}_{load} = \frac{\alpha}{K} \sum_{i=1}^{N} \sum_{j=1}^{K} \mathcal{G}_t(x_j),$$

bu yerda α –regulyarizatsiyaning intensivligini belgilovchi giperparametr, K o‘quv tanlanmadagi obkeytlar soni.

Umumiy yo‘qotish funksiyasini esa quyigacha yozishimiz mumkin,

$$\mathcal{L} = \mathcal{L}_{ce} + \beta \mathcal{L}_{load}$$

bu yerda $\beta \in \{0,1\}$ – agar $\mathcal{L}_{load}$ yo‘qotish foydalanilsa 1 qiymat, aks holda 0 qiymat beriladi/

Modelni o‘qitish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. ResNet-MoE modeli end-to-end tarzda, ya’ni xatolikni orqaga tarqatish (backpropagation) usuli asosida o‘qitiladi. Biz modelda amalga oshirishimizda quyidagi parametrlarni qiymatlari aniqlashda SGD optimallashtir usuli amalga oshirdik.

ResNetning pastki qatlamlari “muzlatib qo‘yilishi” (freeze) yoki kichikroq o‘qitish tezligi bilan qo‘shma tarzda qayta o‘qitilishi mumkin. Bu ImageNetdan o‘rganilgan foydali pastki darajadagi belgilar saqlashga yordam beradi.

Tajribada NWPU-RESISC45 [15], UC Merced Land Use Dataset [16], EuroSAT Dataset [17] ma’lumotlar to‘plamidan foydalanildi.

NWPU-RESISC45. Havo va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida sahnalarni tasniflash uchun yaratilgan katta hajmdagi benchmark to‘plamidir. U 45 ta sinfni o‘z ichiga oladi va har bir sinf uchun 700 ta, jami 31,500 ta 256×256 o‘lchamdagi tasvirdan iborat. Tasvirlar turli masshtab, burchak, va yoritilish sharoitlarida olingan bo‘lib, real sharoitdagi tasniflash muammolarini modellashtirishga xizmat qiladi.

UC Merced Land Use Dataset. UC Merced to‘plami yerni foydalanish turlarini tasniflash uchun AQSh hududining ortofoto tasvirlaridan tashkil topgan. U 21 ta sinfni qamrab oladi (masalan: aeroport, o‘rmon, stadion) va har bir sinf uchun 100 ta 256×256 piksel tasvirdan iborat. To‘plam sun’iy yo‘ldosh sahna tasnifi bo‘yicha dastlabki benchmarklardan biri hisoblanadi.

EuroSAT Dataset. EuroSAT to‘plami Sentinel-2 sun’iy yo‘ldoshi orqali olingan multispektral tasvirlar asosida yaratilgan bo‘lib, u Yevropadagi yer qoplamasining 10 xil kategoriyasini (masalan: o‘rmon, shahar, qishloq xo‘jaligi) tasniflashga mo‘ljallangan. Tasvirlar 64×64 o‘lchamda bo‘lib, jami 27 mingdan ortiq namunalarni o‘z ichiga oladi. To‘plam ekologik monitoring va geokosmik sahna tasniflash tadqiqotlarida keng qo‘llaniladi.

Ushbu ishda sahnalarni tasniflash vazifasi uchun ResNet-MoE modeli taklif etildi va chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiyatlarni ajratuvchi sifatida ResNet arxitekturasi va qaror qabul qilish uchun “Ekspertlar aralashmasi” (MoE) mexanizmini birlashtirish orqali sahnalarni tasniflashda an’anaviy ResNet modeliga nisbatan yuqoriroq aniqlikka erishish mumkin.

Ushbu ma’lumotlar to‘plamlarida olib borilgan tajribalar ResNet-MoE modeli yaxshiroq natijaga ega ekanligi ko‘rsatdi. Shlyuz tarmog‘ining faollik taqsimoti bo‘yicha olib borilgan tahlillar ekspertlarning turli sahna turlariga ixtisoslashganligini isbotladi.

Taklif etilgan model sahna tasnifi usullarini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Model moslashuvchan va kuchli arxitekturaga ega bo‘lib, murakkab ma’lumotlar tuzilmasiga moslashish imkonini beradi. Biroq, ushbu tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega: – faqat zich (dense) MoE arxitekturasi tahlil qilingan,– ekspertlar va shlyuz tarmog‘i uchun giperparametrlar chegaralangan ko‘lamda o‘rganilgan.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda quyidagi masalalar o‘rganiladi:

siyrak (sparse) MoE modellarini o‘rganish. Har bir kirish uchun faqat kichik miqdordagi ekspertlarni faollashtirish orqali hisoblash xarajatlarini kamaytirgan holda ekspertlar sonini oshirish imkonini beradi;

ekspertlar va shlyuz tarmoqlari uchun yanada murakkab arxitekturalarni sinab ko‘rish. Turli arxitektura variantlarining model samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish.

iyerarxik MoE modellarini qo‘llash. Ekspertlar guruhi chiqishlarining navbatdagi ekspertlar guruhi uchun kirish bo‘lib xizmat qiladigan ko‘p bosqichli (multi-level) ixtisoslashuv tizimini shakllantirish;

yuklama balansini va ekspertlar ixtisoslashuvini yaxshilash usullarini ishlab chiqish. Maxsus yo‘qotish funksiyalari va o‘qitish strategiyalarini yaratish orqali amalga oshiriladi;

modelni boshqa kompyuter ko‘rish masalalariga moslashtirish. Masalan, sahnalarni segmentatsiya qilish yoki obyektlarni aniqlash vazifalarida qo‘llash.

Shu asosda, biz “Ekspertlar aralashmasi” asosidagi modellarni yanada rivojlantirish kompyuter ko‘rish sohasidagi murakkab masalalarni hal etishda katta salohiyatga ega, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov, O., Xandamov, Y., & Eshonqulov, E. (2025). Quyi va o‘rta darajadagi deskriptorlar asosida masofadan olingan tasvirlarda sahnani tasniflash algoritmlari. Международный Журнал Теоретических и Прикладных Вопросов Цифровых Технологий, 8(1), 7–21. https://doi.org/10.62132/ijdt.v8i1.229
2. Fazilov S. et al. Analysis of pansharpening methods for multispectral satellite imagery //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – Т. 3244. – №. 1.
3. Ш.Х.Фазылов, В.В.Ганченко, А.В.Инютин, О.Р.Юсупов. Перспективы исползования алгоритмических ансамблей для анализа изображений ДЗЗ // «Информатика ва энергетика муаммолари» Ўзбекистон журнали. – Тошкент, 2023. 6-сон. 3-10 бетлар.
4. He, K., Zhang, X., Ren, S., & Sun, J. (2016). Deep residual learning for image recognition. In Proceedings of the IEEE conference on computer[1] vision and pattern recognition (pp. 770-778).
5. Jacobs, R. A., Jordan, M. I., Nowlan, S. J., & Hinton, G. E. (1991). Adaptive mixtures of local experts. Neural computation, 3(1), 79-87.
6. Shazeer, N., Mirhoseini, A., Maziarz, K., Davis, A., Le, Q., Hinton, G., & Dean, J. (2017). Outrageously large neural networks: The sparsely-gated mixture-of-experts layer. arXiv preprint arXiv:1701.06538.[2]
7. Krizhevsky, A., Sutskever, I., & Hinton, G. E. (2012). Imagenet classification with deep convolutional neural networks. In Advances in[3] neural information processing systems (pp. 1097-1105).
8. Simonyan, K., & Zisserman, A. (2014). Very deep convolutional networks for large-scale image recognition. arXiv preprint arXiv:1409.1556.[4]
9. Szegedy, C., Liu, W., Jia, Y., Sermanet, P., Reed, S., Anguelov, D., ... & Rabinovich, A. (2015). Going deeper with convolutions. In Proceedings of the IEEE conference on computer vision and pattern[5] recognition (pp. 1-9). 7.[6] Deng, J., Dong, W., Socher, R., Li, L. J., Li, K., & Fei-Fei, L. (2009). Imagenet: A large-scale hierarchical image database. In 2009 IEEE conference[7] on computer vision and pattern recognition (pp. 248-255). Ieee.
10. Zhou, B., Lapedriza, A., Khosla, A., Oliva, A., & Torralba, A. (2017). Places: A 10 million image database for scene recognition. IEEE transactions on pattern analysis and machine intelligence,[8] 40(6), 1452-1464.
11. Xiao, J., Hays, J., Ehinger, K. A., Oliva, A., & Torralba, A. (2010). Sun database: Large-scale scene recognition from abbey to zoo. In 2010 IEEE computer[9] society conference on computer vision and pattern recognition[10] (pp. 3485-3492). IEEE.
12. Quattoni, A., & Torralba, A. (2009). Recognizing indoor scenes. In 2009 IEEE conference on computer vision and pattern recognition (pp. 413-420).[11] Ieee.
13. Lepikhin, D., Lee, H., Xu, Y., Chen, D., Firat, O., Huang, Y., ... & Wu, Y. (2020). Gshard: Scaling giant models with conditional computation and automatic sharding. arXiv preprint arXiv:2006.16668. 12.[12] Riquelme, C., Puigcerver, J., & Mustafa, B. (2021). Scaling vision with sparse mixture of experts. Advances in Neural Information Processing Systems, 34, 8583-8595.
14. Gross, S., Rabbat, M., & Zappella, L. (2017). Hard-gated mixture of experts. arXiv preprint arXiv:1705.05586.
15. Cheng G. et al., "Remote sensing image scene classification: Benchmark and state of the art", Proceedings of the IEEE, 2017.
16. Yang Y. & Newsam S., "Bag-of-visual-words and spatial extensions for land-use classification", ACM SIGSPATIAL, 2010.
17. Helber, P., Bischke, B., Dengel, A., & Borth, D. (2019). EuroSAT: A Novel Dataset and Deep Learning Benchmark for Land Use and Land Cover Classification. IEEE Journal of Selected Topics in Applied Earth Observations and Remote Sensing, 12(7), 2217–2226.

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ И ИНТЕРЕСЫ ИСКУСТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Абдураимов Достонбек
Гулистанский государственный университет, факультет «Информационные технологии и физико-математические», старший преподаватель кафедры «Информационные технологии»
E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru
Юнусовой Севинч
Гулистанский государственный университет, факультет «Информационных технологий и физико-математического» факультета, студент группы 13-23ATT,
E-mail: syunusova67@gmail.com

Анатация: В настоящее время искусственный интеллект является актуальной темой исследования. Существует много споров о том, насколько широко это используется. В статье анализируются результаты, используемые на практике при разработке технологий и механизмов искусственного интеллекта. Кроме того, освещены текущие проблемы человеческого интеллекта и проблемы, которые могут возникнуть в будущем. В Узбекистане оценены стратегические задачи, поставленные в этом направлении.

В современных условиях, когда наука и информационно-коммуникационные технологии бурно развиваются, в развитых странах мира управление государством и обществом, экономика, промышленность, социальная защита, образование, медицина, занятость, сельское хозяйство, оборона, безопасность, туризм и другие области, современные информационные технологии и широкое использование возможностей искусственного интеллекта становятся традицией. В Узбекистане приоритетной задачей является стать к 2030 году одной из ведущих стран с инновационным развитием за счет информатизации и развития цифровой экономики.

В настоящее время этот инструмент широко используется во всех сферах экономики. Существуют конкретные возможности для применения технологий искусственного интеллекта в сельском хозяйстве и смежных областях. Эта технология позволяет автоматизировать производственные и управленческие процессы, а также выявлять скрытые связи в крупномасштабных неструктурированных данных. Термин искусственный интеллект был предложен Стэнфордским университетом (США) в 1956 году. Интеллект – это совокупность факторов и инструментов, необходимых для достижения этой цели.Достижение цели заключается в применении к этим факторам необходимых правил.

Искусственный интеллект (ИИ) — это система компьютерной среды, в которой мышление человека моделируется в компьютерный процесс. Идея создания креста и подобного материала и использования его в сложных задачах волновала людей с давних времен. Р. Лулли, учёный, живший в 14 веке, попытался создать машину, став мастером концепций. Г. Лейбниц и Р. Декарт, жившие в 18 в., независимо друг от друга предложили универсальный язык для всех наук. Это предложение послужило основой для развития искусственного интеллекта. Развитие искусственного интеллекта как области науки стало возможным с момента появления ЭУ. Эта марка соответствует 40-м годам 20 акров. В это время Н. Винер познакомился с новой наукой кибернетикой. Спустя долгое время после признания искусственного интеллекта он разделился на две основные отрасли: «нейрокибернетику» и кибернетику «черного ящика». Однако к настоящему времени эти две тенденции движутся к сближению.

Направление «Нейрокибернетики» можно объяснить так: Единственный объект, который умеет мыслить и думать – это человеческий мозг. Поэтому создаваемое другое мыслящее устройство должно отражать его структуру. Таким образом, нейрокибернетика направлена на моделирование мозгоподобных структур. Ранее физиологи установили, что существует более 1021 взаимосвязанных и взаимодействующих нервных тканей – нейронов. Поэтому целью нейрокибернетики было создание нейроноподобных единиц и создание из них функциональных связей. Эти связи называются нейронными сетями (нейросетями). В последние 20 лет высокая техническая и технологическая «вооруженность» возрастает среди стран мира в связи с быстрым и интенсивным развитием науки и творческого интеллекта.

В настоящее время вопрос искусственного интеллекта, роботов и их перспектив обсуждается в различных сферах нашей жизни. Мы видим много нарциссизма в американских фильмах последних десятилетий. Мы боимся ужасов революции железных машин и роботов-торговцев. Кроме того, не существует единого мнения о понятиях акоции акоци: -мышление; - сознание; - разум.

Развитие искусственного интеллекта сопровождается периодической работой компьютеров, позволяющих расширять возможности выбора. Григорий Бакунов (директор по технологиям Яндекса) говорит, что нейронные сети позволяют людям принимать необходимые решения. Отсюда следует, что их можно использовать в тех сферах деятельности, где решения могут приниматься без участия несовершеннолетних. Именно этот навык будет развиваться в ближайшие годы.Это позволяет заменить человеческую доработку автоматическим результатом данной ошибки.

За этим следует этап, называемый самообучением, который состоит из алгоритмов самообучения, которые состоят из алгоритмов машинного обучения с помощью нейронных сетей с самообучением, действием и медленным затуханием. Самообучение включает в себя анализ, синтез, исследование. Следующий шаг. Этот тест подтверждает наличие осознанности.

Когда мы говорим о человеческом интеллекте, мы сталкиваемся с моральными проблемами. Может ли роботизация привести к искусственному рабству? Другими словами, можем ли мы научить компьютер думать? Чтобы ответить на этот вопрос, мы не можем понять, что такое мышление. Виртуальная деятельность очень сложна, поэтому это не тот процесс, который следует полностью удалять и выполнять на компьютере.

Тем не менее, на компьютере можно создавать отдельные моменты мыслительного процесса. Основная задача изобретательности – не создавать более сложные и самостоятельные машины, а совершенствовать ранее созданные машины. Однако критическая разница между неконфликтным и циничным интеллектом заключается в мотивации. Мотивация приводит к человеческим действиям. В истории существовало три типа мотивации: - действие, вызванное страхом наказания; – действие, приводящее к стимуляции; - действие, которое осуществляется по вашему убеждению.

Таким образом, без мотивации в человеческом интеллекте он остается инструментом. Хотелось бы выделить следующие проблемы: - понятийные аппараты не идеализированы, существуют понятия и междисциплинарные аппараты. - Разнообразие нерешенных проблем общества (как социальных, так и экономических). - Может быть вероятность того, что искусственный интеллект выйдет из под контроля.

Вышеуказанные проблемы можно смягчить. Одной из крайностей может быть ограничение технологий. Искусственный интеллект может быть снабжен функцией перехода. Конечно, сейчас во многих сферах нашей жизни есть искусственный интеллект. Это позволяет повысить интенсивность труда при управлении различными сторонами жизни. Кроме того, это помогает улучшить качество услуг. Искусственный интеллект является основой процесса усиления систем различного направления для современных условий труда.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Самсонович О.О., Фокина Е. А. Искусственный интеллект-новые реалии // Международный журнал академических и фундаментальных исследований. - 2018. № 5–1. - С. 257-263.
2. Халилов Д. (2022). Математические основы искусственного интеллекта и радиальные нейронные сети. Наука и инновации, 1(A6), 664-671.
3. Валиев, Ш. (2022). УДК 165.63 Искусственный интеллект и этика. Вестник КГУ им. Бердаха. № 2, 207.
4. Мухамедиева Д.Т. Сформированы модели прогнозирования и альтернативные процессы обработки неоднозначной информации. «Наука и техника» – Ташкент, 2012, 376 стр.
5. Мухамедиева Д.Т. Методы и алгоритмы решения некорректных задач построения нечетких моделей формируемых процессов. Издательство «Навруз». Ташкент, 2018. 216 страниц.

6. Каршиев Ж. (2023). Искусственный интеллект как феномен современной когнитивной психологии. Журнал педагогических и психологических исследований, 1 (2), 90–95.

МЕТОДЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПРОЕКТИРОВАНИИ КОМПЬЮТЕРОВ

Абдураимов Достонбек
Старший преподаватель кафедры «Информационных технологий» Гулистанского государственного университета
E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru
Баратова Зарина
Гулистанский государственный университет, факультет «Информационных технологий и физико-математического» факультета, студент группы 9-23А,
E-mail:baratovaz664@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается важность эффективного представления знаний в автоматизированном проектировании производства. Анализируются взаимосвязи между моделями представления знаний, включая логические, сетевые, фреймовые и продукционные модели. Логические модели играют важную роль в управлении процессами принятия решений. Сеточные модели облегчают организацию и анализ данных. Фреймовые модели позволяют отображать сложные отношения. С другой стороны, производственные модели обеспечивают автоматизированные процессы, которые помогают оптимизировать производственные процессы. В статье подчеркивается необходимость интеграции моделей представления знаний для повышения эффективности.

Эффективное представление знаний в области автоматизированного проектирования производства имеет важное значение для сбора, организации и эффективного использования информации. Модели представления знаний обеспечивают структурированную основу для представления и управления знаниями в компьютерной системе. В статье рассматривается компьютерное проектирование различных моделей представления знаний: логических, сетевых, фреймовых и производственных.

Представление знаний на основе логики: Модели представления на основе логики, такие как прикладная логика и логика первого порядка, используют формальные логические системы для представления знаний. Эти модели используют предложения, предикаты и правила для выражения отношений, ограничений и механизмов рассуждения. В автоматизированном проектировании производства логические модели помогают формулировать сложные правила и механизмы вывода для управления процессами принятия решений. Логическая модель обеспечивает подход к проблеме на основе логических правил. В этой модели проблема может содержать предложения, предпосылки и выводы. Логическая модель работает с формальными логическими подходами, утверждениями и логическими операциями для анализа проблем и получения результатов.

Представление знаний на основе сетки: модели на основе сетки, также известные как табличные представления, организуют знания в структурированном сетевом формате. Каждая ячейка сетки представляет собой определенный атрибут или свойство, что позволяет отображать многомерные данные. Сетевое представление особенно полезно для организации и сравнения данных в автоматизированном проектировании производства, позволяя проектировщикам эффективно анализировать и управлять информацией.

Представление знаний на основе фреймов: Фрейм — это декларативное представление информации, предназначенное для некоторой стандартной ситуации. Кадры можно отображать в виде сетки. В нем высшие классы демонстрируют свою значимость и обретают истинную ценность в любой ситуации. Нижний слой заполнен слотами, содержащими конкретную информацию. Модели на основе фреймворков организуют знания в иерархические структуры, известные как фреймворки. Фрейм представляет объект или концепцию и состоит из слотов, в которых хранятся свойства, атрибуты и отношения. Представление на основе фреймов позволяет

отображать сложные, взаимосвязанные знания, что делает его пригодным для отражения тонкостей процессов проектирования производства. Рамки предоставляют гибкий способ представления и осмысления объектов реального мира.

Во фреймовой модели проблема описывается ее объектами и их свойствами, отношениями и логическими правилами. Фреймы используются для представления структурных концепций объектов, их взаимосвязей, а также логических проблем и результатов. Модель фрейма широко используется при представлении информации, описании взаимосвязей между проблемами и результатами, а также при проектировании информационных систем. Модели рам. Стремление разработать представления, сочетающие преимущества различных моделей, привело к появлению фреймовых представлений. Фрейм (англ. Frame — рамка или обрамление) — структура знаний, созданная для представления некоторой стандартной ситуации или абстрактного образа.

Производственная модель: Производственная модель подходит к проблеме на основе таблицы логических правил и действий, выраженных в формате «если-то». В этой модели существует множество производств (реализаций) для систематического применения логических правил к проблемам и выполнения операций. Производственная модель используется для описания автоматизированных процессов на основе логических правил и действий.

Модель производства: Модель производства предоставляет набор ресурсов, используемых для описания продукта как совокупности компонентов и процессов, применяемых к этим компонентам. Иерархия ресурсов обеспечивает модульный и многоуровневый подход к определению изменяющегося семейства продуктов и их производства. Производственная модель описывает такие виды деятельности, как процессы, рецепты изготовления изделий и информационные потоки. Эта модель определяет, как и когда используются объекты, описанные в других моделях. Серийная модель может быть изготовлена

Он также используется для описания продуктов, а также ресурсов (например, оборудования и материалов), стадий производства и процессов, необходимых для их производства.

Производственная модель состоит из следующих элементов: Статические модели данных, описывающие ресурсы и процессы, такие как сегменты процесса, сегменты определения и классы данных. Информация, используемая для связи ресурсов и процессов с продуктом, созданным на основе рабочих определений. Данные о времени безотказной работы, описывающие выполняемые работы, включая запросы на работу. Сегменты рабочего процесса и определения можно создавать в иерархической структуре, что позволяет создавать сегменты на очень детальном уровне в соответствии с требованиями вашего бизнеса.

Автоматизированное проектирование производства: Автоматизированное проектирование производства подразумевает использование вычислительных инструментов и технологий для повышения эффективности и точности процесса проектирования. Интегрируя модели представления знаний, проектировщики могут создавать интеллектуальные системы, которые поддерживают принятие решений, автоматизируют задачи и повышают эффективность. Эти системы могут собирать и использовать знания в предметной области, облегчать совместную работу и помогать создавать оптимизированные производственные проекты. Производственные работы выполняются с использованием компьютерного проектирования и производственных моделей. Основными этапами проектирования производственных работ являются:

Проблема и требования: Определение проблемы и требований является начальной частью проекта. На этом этапе необходимо объяснить проблему и требования, выявить взаимозависимости и определить, какой вид производственной работы необходимо разработать для решения проблемы. Сюда входят такие вещи, как требования, информация о проблеме, информация и область действия, метрики, требования и ограничения решения проблемы.

Создание производств: создание необходимых действий для решения проблемы с использованием производственных моделей является ключевой частью проекта. На этом этапе логические правила, условия и действия, необходимые для решения задачи, формулируются в

виде продукций (реализаций). Например, можно выразить требуемые логические правила с помощью продукций в формате «если-условие».

Классификация информации: Классификация информации — это процесс анализа и организации информации, необходимой для организации производственных моделей и действий по решению проблем в них. На этом этапе необходимо определить и организовать ключевую информацию для решения проблемы, ее взаимосвязи, требования и достаточную информацию. Информация может представлять собой данные, факты, ценности, условия и результаты, необходимые для использования в процессе решения проблем.

Проектирование и реализация: с использованием производственных моделей создаются процессы проектирования и реализации для решения проблем. На этом этапе создается таблица продукций (реализаций) решения задачи, порядок и комбинации в которых соблюдаются. Разработан процесс получения необходимой информации для решения проблемы, следования логическим правилам и реализации решения проблемы посредством постановок.

Тестирование и анализ: Процессы тестирования и анализа проводятся для проверки правильности функционирования спроектированной производственной работы, правильности вывода результатов и эффективности решения проблем. На этом этапе, наряду с другими важными процессами решения проблем, проверяется правильность выполнения спроектированной работы и оцениваются результаты.

Автоматизированное проектирование производственных задач — удобный способ автоматизации решения проблем и получения результатов на систематической основе. Преимущества и проблемы: Модели представления знаний предлагают ряд преимуществ при автоматизированном проектировании производства. Они обеспечивают эффективную организацию и обработку знаний, облегчают процессы мышления и принятия решений, а также расширяют возможности автоматизации и оптимизации. Однако существуют такие проблемы, как сложность получения и представления знаний, проблемы масштабируемости и необходимость постоянного совершенствования модели для адаптации к меняющимся требованиям к проектированию.

Преимущества: Интеллектуальные обучающие системы (ИОС) обладают рядом преимуществ, делающих их эффективным инструментом в дошкольном образовании. Одним из ключевых достоинств является возможность индивидуализации обучения. Такие системы адаптируют задания и материал под уровень знаний, интересов и темпа развития конкретного ребёнка, что особенно важно в условиях разного уровня готовности детей к восприятию информации. Благодаря игровому формату, визуальным эффектам и анимации ИОС вызывают у дошкольников интерес, делают обучение увлекательным, повышая мотивацию к выполнению заданий. Интерактивные упражнения способствуют развитию речи, внимания, памяти, логического мышления и познавательной активности. Немедленная обратная связь в виде похвалы или подсказки помогает ребёнку лучше понять материал, развивать самоконтроль и уверенность в своих силах. ИОС удобны в применении как в условиях ДОО, так и дома, позволяя родителям участвовать в образовательном процессе, что усиливает взаимодействие между семьёй и педагогами. Кроме того, интеллектуальные обучающие платформы могут быть адаптированы под нужды детей с особыми образовательными потребностями, способствуя созданию инклюзивной развивающей среды.

Ограничения и риски использования интеллектуальных обучающих систем в дошкольном возрасте: Несмотря на многочисленные преимущества, использование интеллектуальных обучающих систем (ИОС) в дошкольном образовании сопряжено с рядом ограничений и рисков, которые необходимо учитывать педагогам и родителям. Прежде всего, чрезмерное увлечение цифровыми технологиями может привести к снижению живого общения, что крайне важно для полноценного речевого, эмоционального и социального развития ребёнка. Общение со взрослым, игра со сверстниками, подвижная активность и предметно-практическая деятельность не должны заменяться цифровыми форматами. Длительное использование ИОС повышает риск переутомления, зрительного напряжения и снижения физической активности. Существует также опасность недостаточной фильтрации контента: не все цифровые ресурсы соответствуют возрастным особенностям и требованиям безопасности. Без грамотного педагогического сопровождения и контроля со стороны взрослых даже самые качественные ИОС могут не дать ожидаемого развивающего эффекта. Не все дошкольные учреждения и семьи располагают необходимыми техническими возможностями и уровнем цифровой компетентности, что ограничивает доступ к таким технологиям. Таким образом, важно соблюдать баланс между цифровыми и традиционными формами обучения, учитывая возрастные, психологические и физиологические особенности детей дошкольного возраста.

Заключение; Интеллектуальные обучающие системы (ИОС) в условиях цифровой трансформации образования становятся неотъемлемым инструментом в формировании нового подхода к организации образовательного процесса в дошкольных образовательных учреждениях. Их внедрение открывает широкие возможности для индивидуализации обучения, активизации познавательной деятельности детей, развития логического мышления, памяти, речи и других психических процессов. Особенно важным является тот факт, что ИОС позволяют учитывать темп, уровень и особенности развития каждого ребёнка, что особенно актуально в условиях инклюзивного образования. Такие системы предоставляют доступ к качественному обучающему

контенту, стимулируют интерес к познанию через игровую и интерактивную деятельность, обеспечивая более высокий уровень вовлечённости дошкольников в образовательный процесс. Однако, несмотря на все обозначенные преимущества, использование ИОС в дошкольной педагогике требует предельной осторожности. Возраст детей дошкольного периода накладывает определённые ограничения, связанные с психофизиологическим развитием, необходимостью живого общения, эмоционального отклика и двигательной активности. Злоупотребление цифровыми технологиями может привести к снижению коммуникативных навыков, нарушению режима дня, ухудшению зрения и общего самочувствия. Кроме того, недостаток подготовки педагогов и родителей в вопросах цифровой грамотности может повлечь за собой неэффективное или даже вредное применение ИОС. Необходимо разработать комплексные меры по внедрению интеллектуальных обучающих систем в практику дошкольного образования. Прежде всего, это касается разработки научно обоснованных программ и платформ, адаптированных к возрастным и культурным особенностям детей. Важно, чтобы образовательный контент, предлагаемый через ИОС, был не только познавательно ценным, но и психологически безопасным. Следует обеспечить регулярную подготовку педагогических кадров по вопросам цифровой педагогики, организовывать семинары и курсы повышения квалификации, где воспитатели смогут ознакомиться с методикой эффективного использования ИОС в образовательной деятельности. Не менее важным направлением является активное привлечение родителей: через просветительскую работу, тренинги, совместные мероприятия и рекомендации по организации образовательного процесса в домашних условиях с применением цифровых средств. Особое внимание следует уделить вопросам технической оснащённости и равного доступа к ИОС. Необходимо поддерживать дошкольные учреждения, особенно в сельской местности и отдалённых регионах, обеспечивая их необходимым оборудованием и интернет-инфраструктурой. Необходимо разработать методические рекомендации по нормированию времени взаимодействия ребёнка с ИОС, включающим чередование с подвижными, творческими и коммуникативными формами деятельности. Интеллектуальные обучающие системы, при грамотном и продуманном внедрении, способны стать эффективным инструментом поддержки и обогащения образовательного процесса в дошкольных учреждениях. Главное условие их успешного применения — это научно-педагогическое сопровождение, системная подготовка всех участников образовательного процесса и стремление к сохранению баланса между цифровыми технологиями и живым взаимодействием, столь необходимым для полноценного развития ребёнка.

Список использованной литературы

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.: Педагогика, 1991.
2. Эльконин Д.Б. Психология игры. — М.: Педагогика, 1978.
3. Миронова С.И. Цифровые технологии в дошкольном образовании: возможности и ограничения // Дошкольное воспитание, 2021, №5.
4. Солдатова Г.У. Цифровая социализация детей и подростков. — М.: МГУ, 2017.
5. Печора Е.М. Информационные технологии в дошкольном образовании: теория и практика применения. — СПб.: Речь, 2020.
6. Lingokids, официальный сайт: https://www.lingokids.com

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O‘RNI

Rashidov Jamshid Xamidovich i.f.n., dotsent
International School of Finance Technology and Science Instituti
“Menejment” kafedrasi dotsenti
Email: rashidovj75@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlaridagi o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi bilan birga, kibertahdidlarning murakkablashuvi SI asosidagi himoya choralarini qo‘llashni zarur etmoqda. Tadqiqotda sun’iy intellekt yordamida kibertahdidlarni aniqlash, prognozlash, avtomatik javob qaytarish, anomaliyalarni monitoring qilish kabi asosiy yo‘nalishlar yoritiladi. Shuningdek, SI texnologiyalarining afzalliklari va amaliy cheklovlari muhokama qilinib, kelajakda raqamli xavfsizlikni ta’minlashda ushbu texnologiyalarning strategik roli asoslanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, kibertahdidlar, avtomatlashtirish, tahdidni aniqlash, ma’lumotlarni himoya qilish, mashinaviy o‘rganish, algoritmlar.

Kirish

Global raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining chuqur singib borishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, axborot infratuzilmasining kengayishi va murakkablashuvi kiberxavfsizlik masalalarini eng muhim strategik yo‘nalishlardan biriga aylantirdi. Xususan, davlat boshqaruvi, moliyaviy xizmatlar, sanoat tizimlari va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda yuzaga kelayotgan kibertahdidlar nafaqat axborot resurslarini, balki iqtisodiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ham jiddiy xavf ostida qoldirmoqda.

An’anaviy kiberxavfsizlik tizimlari, odatda, reaktiv yondashuvga asoslangan bo‘lib, mavjud xavf yuzaga chiqqanidan keyingina choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan. Bunday yondashuvlar tez o‘zgaruvchan tahdid muhitida yetarlicha samarali emasligini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini kiberxavfsizlik sohasiga integratsiyalash - bu muammoga zamonaviy, ilg‘or va proaktiv yondashuvni taklif etadi. Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, noan’anaviy xatti-harakatlarni aniqlash, hujumlarni prognozlash va avtomatik tarzda javob choralari ko‘rish imkonini beradi.

Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik tizimlaridagi funksional imkoniyatlari, ularning afzalliklari va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, SI asosidagi xavfsizlik infratuzilmasini shakllantirishda duch kelinayotgan muammolar va cheklovlar ham ko‘rib chiqilib, kelajakda bu texnologiyalar yordamida barqaror va ishonchli axborot muhitini yaratish istiqbollari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) va kiberxavfsizlikning o‘zaro integratsiyasi ilmiy tadqiqotlar va amaliy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. G‘arb va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining kibertahdidlarni aniqlash, ularni klassifikatsiyalash, tahdidga avtomatik javob berish hamda anomaliyalarni aniqlashda samarali vosita bo‘lishini ta’kidlaydi. Xususan, Anderson va Moore (2019)[1] o‘z tadqiqotlarida SI asosidagi tizimlarning an’anaviy xavfsizlik protokollariga nisbatan ancha moslashuvchan va tezkor ekanligini ta’kidlaganlar.

Chio va Freeman (2018)[2] tomonidan olib borilgan tadqiqotda mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalanib kiberhujumlarni oldindan prognozlashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar real vaqt rejimida ishlaydigan SI modellari yordamida zararli faoliyatni 95 foizgacha

[1] Anderson, R., & Moore, T. (2019). *The economics of information security*. Science, 314(5799), 610–613. https://doi.org/10.1126/science.1130992

[2] Chio, C., & Freeman, D. (2018). *Machine Learning and Security: Protecting Systems with Data and Algorithms*. O'Reilly Media.

aniqlash mumkinligini isbotlashgan. Shu bilan birga, Buczak va Guven (2016)[3] o‘z maqolasida mashinaviy o‘rganish asosidagi metodlarning kiberxavfsizlik sohasida qo‘llanishi, xususan, tarmoq trafigini tahlil qilish va xatti-harakatlardagi anomaliyalarni aniqlash bo‘yicha natijalarni tahlil qilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotgan izlanishlarda ham SI texnologiyalarini axborot xavfsizligida qo‘llash istiqbollari o‘rganilmoqda. Jumladan, Karimov va boshqalar (2022)[4] sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari yordamida korxona axborot tizimlaridagi xavflarni real vaqt rejimida aniqlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Shuningdek, SI va kiberxavfsizlik o‘zaro bog‘liq fanlararo yondashuvni talab qilgani bois, ko‘plab ilmiy manbalarda bu ikki sohaning integratsiyasi texnik, huquqiy va etik jihatlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilmoqda. Brundage et al. (2020)[5] tomonidan e’lon qilingan ishda sun’iy intellekt xavfsizligi bilan bog‘liq xavf-xatarlar va ularni boshqarish strategiyalari keng tahlil qilingan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar sun’iy intellektning kiberxavfsizlikda qo‘llanishi tobora kengayib borayotganini, ammo texnologik, huquqiy va metodologik jihatdan hali ham tadqiqot va takomillashtirishga muhtoj soha ekanini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tahdidlarni oldindan prognozlash, o‘z-o‘zini o‘rganuvchi himoya tizimlarini yaratish, shuningdek, insonga bog‘liq bo‘lmagan xavfsizlik qarorlarini qabul qilish masalalari alohida ilmiy e’tibor talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlarini o‘rganish, ularning samaradorlik darajasini baholash hamda mavjud muammolarni aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik sohalaridagi ilg‘or ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar, amaliy tajribalar tahlil qilindi. Bu uslub orqali mavjud ilmiy yondashuvlar o‘rganilib, tahliliy asos yaratildi.

An’anaviy kiberxavfsizlik tizimlari va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ilg‘or himoya mexanizmlari o‘rtasida samaradorlik, tezkorlik, aniqlik va moslashuvchanlik darajalari taqqoslab chiqildi.

Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasidagi mutaxassislar o‘rtasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkazilib, sun’iy intellektning tahdidlarni aniqlash va bartaraf etishdagi afzalliklari hamda cheklovlari haqida fikrlar olindi.

Mavjud ma’lumotlar asosida SI texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari prognoz qilindi. Bu jarayonda statistik axborotlar, tahdidlar dinamikasi va texnologik taraqqiyot sur’atlari hisobga olindi.

Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlar uyg‘un ravishda qo‘llanildi. Sifatli yondashuv orqali konseptual tahlil, ekspert mulohazalari va real holatlar o‘rganilgan bo‘lsa, miqdoriy yondashuv orqali ayrim ko‘rsatkichlar asosida samaradorlik darajasi matematik jihatdan baholandi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik tizimlariga integratsiyalashuvi bu sohada samaradorlik va javob tezligini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatadi. Quyida tahlil qilingan asosiy yo‘nalishlar va natijalar keltirilgan:

1. Tahdidlarni aniqlash tezligi va aniqligi.

---

[3] Buczak, A. L., & Guven, E. (2016). A Survey of Data Mining and Machine Learning Methods for Cyber Security Intrusion Detection. *IEEE Communications Surveys & Tutorials,* 18(2), 1153–1176. https://doi.org/10.1109/COMST.2015.2494502

[4] Karimov, S., Tursunov, D., & Islomova, N. (2022). Sun’iy intellekt yordamida axborot tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash. *O‘zbekiston axborot texnologiyalari jurnali,* 2(1), 45–51.

[5] Brundage, M., Avin, S., Clark, J., Toner, H., Eckersley, P., Garfinkel, B., ... & Amodei, D. (2020). *The Malicious Use of Artificial Intelligence: Forecasting, Prevention, and Mitigation*. Future of Humanity Institute. https://arxiv.org/abs/1802.07228

Amaliy holatlar tahlili (IBM QRadar, Darktrace va CrowdStrike tizimlari misolida) shuni ko‘rsatdiki, SI asosida ishlovchi tizimlar tarmoqdagi anomal xatti-harakatlarni 85-95% aniqlikda va an’anaviy tizimlarga nisbatan 2-3 barobar tezroq aniqlay oladi. Ayniqsa, mashinaviy o‘rganish algoritmlari (Random Forest, SVM, Deep Learning) zararli trafikni va noma’lum tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatgan.

2. Proaktiv himoya mexanizmlarining rivojlanishi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, SI asosidagi tizimlar faqat mavjud xavflarni aniqlash bilan cheklanmasdan, balki ularning yuzaga kelishini oldindan prognoz qilish, avtomatik choralar ko‘rish (masalan, tarmoq segmentatsiyasi, trafikni bloklash) kabi funksiyalarni bajarishga qodir. Bu esa kiberxavfsizlikda reaktiv emas, balki proaktiv yondashuvni shakllantirishga yordam bermoqda.

3. Inson aralashuviga bo‘lgan ehtiyojning kamayishi.

Ekspert so‘rovlari natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida xavfsizlik xodimlarining yuklamasi 30-40% ga kamaygan. Bu xodimlarga murakkab strategik vazifalarni bajarishga ko‘proq vaqt ajratish imkonini bergan. Shu bilan birga, avtomatlashtirilgan qarorlar doimo inson nazorati ostida bo‘lishi lozimligi ham ta’kidlangan.

4. Sun’iy intellektning cheklovlari.

Tahlil davomida SI texnologiyalarining ayrim cheklovlari ham aniqlangan. Jumladan:

model o‘rgatilgan ma’lumotlar sifati va to‘liqligi uning samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;

SI tizimlari noto‘g‘ri musbat (false positive) yoki noto‘g‘ri salbiy (false negative) signal berishi ehtimoli mavjud;

xavfsizlik tizimining o‘ziga qarshi AI-yo‘naltirilgan kiberhujumlar (masalan, adversarial attacks) bo‘lishi xavfi mavjud;

ma’lumotlar maxfiyligi va etik me’yorlarga rioya qilish SIga asoslangan tizimlar uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

5. Rivojlanish istiqbollari.

Tadqiqot sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida yanada chuqurroq integratsiyalashuvi zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, real vaqt monitoringi, o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi himoya tizimlari, avtonom tahdidga javob vositalari, va gibrid SI-modellar (AI + blockchain) istiqbolli yo‘nalishlar sifatida ajralib turmoqda.



1-grafik: Tahdidlarni aniqlash aniqligi (Aniqlik %)[6]

Ushbu grafik sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining tahdidlarni aniqlashdagi aniqlik darajasini an’anaviy tizimlar bilan taqqoslaydi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, SI tizimlari 92% aniqlikka ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich an’anaviy tizimlardagidan (70%) ancha yuqori. Bu esa sun’iy intellektning katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va murakkab tahdidlarni aniqlashda yuqori imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

[6] Muallif tomonidan yaratilgan



2-grafik: Tahdidlarni aniqlash tezligi (ms)[7]

Ushbu grafik tahdidlarni aniqlashga ketadigan o‘rtacha vaqtni millisoniyalar (ms) hisobida ifodalaydi. Sun’iy intellekt tizimlari tahdidlarni o‘rtacha 120 ms da aniqlagan bo‘lsa, an’anaviy tizimlarda bu ko‘rsatkich 350 ms ni tashkil etgan. Bu esa SI asosidagi tizimlarning tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini tasdiqlaydi, ayniqsa real vaqt rejimida xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil sanaladi.

3-grafik: Noto‘g‘ri ijobiy signal ko‘rsatkichi (False Positive %)[8]

Grafikda noto‘g‘ri ijobiy (false positive) signal ko‘rsatkichlari solishtirilgan. An’anaviy tizimlarda bu ko‘rsatkich 15% bo‘lsa, SI asosidagi tizimlarda 6% ni tashkil etgan. Bu esa SI modellari tahdidni haqiqiy xavfdan farqlay olish darajasining yuqoriligini bildiradi. Noto‘g‘ri signal darajasining pastligi xavfsizlik xodimlarining charchashini kamaytiradi va operatsion samaradorlikni oshiradi.

[7] Muallif tomonidan yaratilgan
[8] Muallif tomonidan yaratilgan



4-grafik: Inson aralashuviga ehtiyoj darajasi (%)[9]

Grafikda inson aralashuvi zarurligi bo‘yicha solishtirma natijalar keltirilgan. An’anaviy tizimlarda xavfsizlikni ta’minlashda inson aralashuvi 85% ni tashkil etsa, SI tizimlarida bu 50% gacha kamaygan. Bu esa kiberxavfsizlik jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida inson resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Grafiklar sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida quyidagi ustunliklarini ko‘rsatdi:

Yuqori aniqlik va tezlik.

Past xatolik ko‘rsatkichi.

Avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish imkoniyati.

Inson resurslariga bo‘lgan ehtiyojning kamayishi.

Ushbu omillar sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik tizimlarida keng qo‘llanilishini va ularning doimiy takomillashtirilishini asoslaydi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida qo‘llanilishi tahdidlarni tez, aniq va samarali aniqlash imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar nafaqat kiberxavflarni aniqlash, balki ularni oldindan bashorat qilish, tahdidlar ssenariylarini avtomatik tarzda aniqlash, noto‘g‘ri signal darajasini kamaytirish hamda inson aralashuviga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada qisqartirish orqali an’anaviy kiberxavfsizlik mexanizmlariga nisbatan ustunlikka ega ekani tasdiqlandi.

Shuningdek, SI yordamida xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirish natijasida katta hajmdagi ma’lumotlar oqimidan samarali foydalanish va real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyati yaratiladi. Bu esa zamonaviy raqamli infratuzilmalarning barqaror va ishonchli ishlashini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Davlat miqyosida strategik siyosat ishlab chiqish:

Sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Tashkilotlarda SI bazasidagi xavfsizlik tizimlarini joriy etish:

Korxona va muassasalar an’anaviy kiberxavfsizlik vositalaridan bosqichma-bosqich SI texnologiyalariga asoslangan tizimlarga o‘tishlari maqsadga muvofiq.

Kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislar tayyorlash:

SI texnologiyalarini chuqur biladigan va ulardan samarali foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish zarur.

Ilmiy tadqiqot ishlarini va innovatsion ishlanmalar yaratishni kuchaytirish:

SI va kiberxavfsizlik sohalari kesishgan nuqtalarda yangi algoritmlar, tahdid modellari va himoya usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

[9] Muallif tomonidan yaratilgan

Xavfsizlik monitoringi uchun real vaqtli SI tizimlarini rivojlantirish:

Tarmoqdagi harakatlarni uzluksiz kuzatib borish, anomaliyalarni aniqlash va tahdidlarning oldini olish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan SI tizimlariga sarmoya kiritilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Rouse, M. (2023). *Artificial Intelligence in Cybersecurity*. TechTarget. https://www.techtarget.com
2. Shrestha, A., & Mahmood, A. (2019). Review of deep learning algorithms and architectures. *IEEE Access*, 7, 53040–53065. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019. 2912200
3. Javaid, A., Niyaz, Q., Sun, W., & Alam, M. (2016). A Deep Learning Approach for Network Intrusion Detection System. *Proceedings of the 9th EAI International Conference on Bio-inspired Information and Communications Technologies (formerly BIONETICS)*.
4. Nguyen, T. T., & Reddi, V. J. (2021). Deep reinforcement learning for cyber security. *ACM Computing Surveys (CSUR)*, 54(5), 1–36.
5. Ashraf, M. U., & Javaid, N. (2020). AI in cybersecurity: Threat detection and defense. *International Journal of Computer Applications*, 177(36), 1–7.
6. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2022). *AI Threat Landscape Report*. https://www.enisa.europa.eu
7. Bughin, J., Hazan, E., Ramaswamy, S., Chui, M., Allas, T., Dahlström, P., ... & Trench, M. (2018). *Artificial Intelligence: The Next Digital Frontier?* McKinsey Global Institute.
8. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
9. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). *Raqamli xavfsizlik konsepsiyasi*. https://mitc.uz
10. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
11. Karimov, S., Tursunov, D., & Islomova, N. (2022). Sun’iy intellekt yordamida axborot tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash. *O‘zbekiston axborot texnologiyalari jurnali*, 2(1), 45–51.

КРИПТОГРАФИЯДА БАРДОШЛИ ХЕШ ФУНКЦИЯЛАРИНИНГ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ

Абдураимов Достонбек Эгамназар ўғли
Ўзбекистон, Гулистон, Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси
E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru
Шерваев Абдураҳмон Махаммаджон ўғли
Ўзбекистон, Гулистон, Гулистон давлат университети, 2-босқич талабаси
E-mail: abdurahmonsherboyev17@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада криптографияда бардошли хеш функцияларининг ривожланиши ва ахборот хавфсизлигини таъминлашдаги аҳамияти муҳокама қилинади. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш учун қабул қилинган қонунлар, меъёрий ҳужжатлар ва стандартлар, шунингдек, бардошли хеш функцияларининг роли ва уларнинг амалиётдаги қўлланилиши таҳлил қилинади. Ҳеш функциялари маълумотларнинг бутунлигини, идентификациясини ва фойдаланувчиларни аутентификациялашда муҳим восита сифатида хизмат қилади. Уларнинг калитли ва калитсиз турлари, шунингдек, ҳар бир турнинг қўлланилиш соҳалари батафсил баён этилган. Мақола, бардошли хеш функцияларининг замонавий ахборот тизимларидаги аҳамиятини ва уларнинг хужумларга қарши курашдаги самарадорлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: Ахборот хавфсизлиги, Ҳеш функциялари, Калитли ҳеш функциялари, Калитсиз ҳеш функциялари, Электрон рақамли имзо, Маълумотларнинг бутунлиги, Аутентификация, Киберҳужумлар, Криптография, Норматив ҳужжатлар.

Замонавий ахборот айланиш тизимларининг тез ривожланиши ва инсон ҳаётига янада кириб бориши ахборот хавфсизлигини таъминлашни, фойдаланувчиларни ахборот

ҳужумларидан ҳимоялайдиган тизимларни ишлаб чиқишни тақозо этади. Бугунги кунда мамлакатимизда ахборот хавфсизлигини таъминлашга доир кўплаб қонун ва фармоишлар қабул қилинган, жумладан, “Электрон рақамли имзо тўғрисида”ги қонун, “Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида”ги қонун ва Президентимизнинг “Ўзбекистон Республикасида ахборотни криптографик муҳофаза қилишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари.

Аниқланган меъёрий ҳужжатлар, жумладан, O’z DSt 1092:2009, O’z DSt 1105:2009 ва O’z DSt 1106:2009 каби миллий стандартлар, ҳамда E-KALIT, E-XAT, E-HUJJAT тизимлари ахборот хавфсизлигини мукаммал таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Электрон ҳужжат алмашиш жараёнида ахборот хавфсизлигининг мукаммаллиги талаб этилади. Бунинг учун конфиденсиалликни таъминлашда шифрлаш алгоритмларидан, аутентификация жараёнларида электрон рақамли имзо алгоритмларидан ва маълумот бутунлигини назорат қилишда бардошли хеш функцияларидан фойдаланиш зарур.

Бардошли хеш функциялари криптографияда маълумотларнинг бутунлигини ва идентификациясини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Уларнинг асосий вазифаси маълумотларни ўзгартirishдан ҳимоя қилиш, яъни маълумотлар узатилганда ёки сақланганда уларнинг ўзгармаслигини таъминлашдир. Бардошли хеш функциялари орқали яратилган хешлар, маълумотларнинг оригиналлигини текширишда самарали восита бўлиб, улар ахборот хавфсизлиги тизимларида муҳим ўрин тутади.Шу билан бирга, бардошли хеш функциялари фойдаланувчиларнинг аутентификация жараёнларини соддалаштиришга ёрдам беради. Ушбу функциялардан фойдаланган ҳолда, фойдаланувчиларнинг шахсий маълумотлари ва ҳисобларининг хавфсизлигини таъминлаш мумкин. Бундан ташқари, хеш функциялари маълумотларнинг конфиденсиаллигини таъминлашда ҳам муҳим роль ўйнайди, чунки улар маълумотларни шифрлаш жараёнида самарали восита сифатида хизмат қилади.

Хеш функция деб, ихтиёрий узунликдаги маълумотни бирор фиксирланган узунликдаги қийматга ўтказувчи функцияга айтилади. Хеш функциялар маълумотларни узатиш ёки сақлашда унинг тўлалигини назоратида, маълумот манбаини аутентификация қилишда, статистик тажрибаларни ўтказишда, мантиқий қурилмаларни текширишда, тез қидириб топиш алгоритмларини тузишда ва маълумотлар базасидаги маълумотларни тўлалигини текширишда қўлланилади.Маълумотларни узатишда ёки сақлашда унинг тўлалигини назорат қилиш учун ҳар бир маълумотнинг хеш қиймати ҳисобланилади ва бу қиймат маълумот билан бирга сақланилади ёки узатилади. Маълумотни қабул қилган фойдаланувчи маълумотнинг хеш қийматини ҳисоблайди ва унинг назорат қиймати билан солиштиради. Агар таққослашда бу қийматлар мос келмаса, маълумот ўзгарганлиги ҳақида хулоса чиқарилади.

Хеш функцияга қуйидаги умумий талаблар қўйилади:

Ихтиёрий узунликдаги матнга қўллаб бўлади.

Чиқишда тайинланган узунликдаги қийматни беради.

Ихтиёрий берилган x бўйича $h(x)$ осон ҳисобланади, бу ерда $h(x)$ ихтиёрий узунликдаги x маълумотни фиксирланган узунликдаги $h(x)=H$ қийматга акслантирувчи бир томонлама функция.

Ихтиёрий берилган H бўйича $h(x)=H$ тенгликдан x ни ҳисоблаб топиб бўлмайди.

Олинган x ва $y\neq x$ матнлар учун $h(x)\neq h(y)$ бўлади, яъни коллизияга бардошлилик хоссаси.

Агар бир хил хеш қийматга ега бўлган иккита ҳар хил маълумот мавжуд бўлса, бу маълумотлар жуфти коллизия ҳосил қилади дейилади.

Хеш функциялар иккита муҳим турга ажратилади:

Калитли хеш функциялар.

Калитсиз хеш функциялар.

Калитли хеш функциялар симметрик калитли тизимларда ишлатилади. Уларга маълумотни аутентификация қилиш кодлари (messege authentication code (MAC)) ҳам дейилади. Улар бир-бирига ишонувчи фойдаланувчилар тизимида қўшимча воситаларсиз манбанинг ҳақиқийлигини, маълумотнинг тўлалигини кафолатлайди.

Калитли хеш функцияларни қўллашда уларга қуйидаги асосий талаблар қўйилади:

фабрикация имкониятининг мавжуд емаслиги;

модификациянинг имконияти йўқлиги.

Ўзбекистон Республикаси хеш функция давлат стандарти O’z DSt 1106:2009 да калитли хеш функция келтирилган бўлиб, калит узунлиги 128 ёки 256 бит бўлиши мумкин. Йевропа ҳамжамиятининг RACE дастури доирасида ишлаб чиқилган RIPE-MAC1 ва RIPE-MAC3 хеш функция алгоритмлари, Nippon Telephone and Telegraph компанияси томонидан ишлаб чиқилган N- хеш функция алгоритми, шунингдек CBC-MAC ва CRC-MAC хеш функцияларини калитли хеш функция алгоритмларига мисол қилиб келтиришимиз мумкин.

Калитсиз хеш функциялар хатоларни аниқлаш кодлари (modification detection code (MDC)) деб юритилади. Калициз хеш функциялар қўшимча воситалар (шифрлаш ёки рақамли имзо) ёрдамида маълумотнинг тўлалигини кафолатлайди. Бундай хеш функциялар бир-бирига ишонувчи ҳамда бир-бирига ишонмайдиган фойдаланувчилар тизимларида ишлатилади.

Одатда калициз хеш функциялардан қуйидаги хоссаларни қаноатлантириши талаб қилинади:

бир томонламалилик;

коллизияга бардошлилик.

Бугунги кунда кўплаб давлат стандартлари хеш функция алгоритмлари калитсиз хеш функция алгоритмлари бўлиб, уларга мисол қилиб Россия федерациясининг ГОСТ Р 34.11-94 хеш функция давлат стандартини, АҚШ нинг федерал стандарти FIPS PUB 180 да келтирилган SHA-0, FIPS PUB 180-1 да келтирилган SHA-1, FIPS PUB 180-2 да келтирилнае SHA-256, SHA-384, SHA-512 хеш функцияларни, Белорус хеш функция давлат стандарти STB 1176.1-99 ни, АҚШ нинг федерал стандарти SHA турдаги хеш функцияларни яратишга асос бўлган MD туридаги хеш функциялар ва уларнинг MD2. MD4 ва MD5 модификацияларини, MD5 асосида ишлаб чиқилган HAVAL хеш функциясини ва юқоридаги хеш функция алгоритмларидан фарқ қилувчи алгоритмга эга бўлган TIGER хеш функциясини келтириш мумкин.

Бугунги кунда хеш функция электрон рақамли имзо алгоритмларини бардошлигини оширишда муҳим ахамиятга ега. Шунга кўра ишлаб чиқилаётган миллий тизимларда бардошли хеш функциялардан фойдаланиш тизимларнинг турли ҳужумларга дош бериш қобилиятини оширади.

Хулоса қилиб айтганда, бардошли хеш функциялари криптографияда ахборот хавфсизлигини таъминлашда, маълумотларнинг бутунлигини ва оригиналлигини текширишда, шунингдек, фойдаланувчиларни аутентификациялашда муҳим аҳамиятга эгадир. Улар замонавий ахборот тизимларининг энг муҳим элементлари бўлиб, хавфсизликни таъминлашда самарали восита сифатида фойдаланилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мелников В.Н., Клейменов С.А. Информасионная безопасност и защиты информасии. Москва 2017.
2. Бахтеев Д.В. Предложения становления и этапа развития технологий искусственного интеллекта // Генезис: исторические исследования. 2019. № 8. С. 89–98.
3. Бегишев И.Р. Глава 1. Регулирование робототехнических технологий: столкновение этики и законов / в кн.: Социально-психологические проблемы современного общества в условиях цифровой цифровизации: личность, организация, управление. Бариляк И.А., Бегишев И.Р. и др. Тверь: Изд-во ТвГУ. 2021. С. 141–152.
4. Ғаниев С.К., Каримов М.М., Ташев К.А. Ахборот хавфсизлиги. Ахборот коммуникасион тизимлари хавфсизлиги.-Т 2018.
5. Қулмаматов, С. И., Абдураимов, Д. Э., Норматова, М. Н., & Монасипова, Р. Ф. (2021). УГРОЗЫ В ИНТЕРНЕТЕ И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ. Экономика и социум, (7), 351-356 Афанасьев А.Ю. Искусственный интеллект в угловом процессе // Юридическая техника. 2021. № 15. С. 571–574.

КИБЕРХАВФСИЗЛИК ВА РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ: КОРХОНАЛАР УЧУН ХАВФ-ХАТАРЛАРНИ БОШҚАРИШ

Абдураимов Достонбек Эгамназар ўғли
Ўзбекистон, Гулистон, Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси
E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru
Шерваев Абдураҳмон Махаммаджон ўғли
Ўзбекистон, Гулистон, Гулистон давлат университети, 2-босқич талабаси
E-mail: abdurahmonsherboyev17@gmail.com

Аннотация:Келтирилган ушбу мақолада ахборот технологиялари асосида рақамли иқтисодиётда киберхавфсизликнинг муҳим рўли келтирилиб берилган.Сўнгги вақтларда “Рақамли иқтисодиёт” тушунчаси жуда кўп марта қўлланилмоқда. Кўплаб ривожланган мамлакатларда рақамли иқтисодий уларнинг ривожланиш омилларига сезиларли даражада таъсир ўтказган. Жамият ҳаётида рақамли иқтисодиёт муҳим рол ўйнайди.

Калит сўзлар: Рақамли иқтисодиёт, киберхавфсизлик, электрон тижорат, ахборот технологиялари, ахборот хавфсизлиги, электрон бизнес, саноат обьектлари.

Рақамли иқтисодиёт — бу хўжалик фаолиятини юритиш бўлиб, бу ерда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда асосий омил рақамлар кўринишидаги маълумотлардир. Катта ҳажмдаги ахборотларни қайта ишлаш ва натижаларни анализ қилиш орқали самарали ечимлар тадбиқ этилади. Рақамли иқтисодиётнинг муҳим элементлари орасида электрон тижорат, интернет банкинг, электрон тўловлар, интернет реклама ва интернет ўйинлари мавжуд.

Автоматлашган тизимлар ва рақамли технологиялар меҳнат самадорлигини оширишга ёрдам беради.

Корхоналар рақамли платформалар орқали бозордаги рақобатни яхшилаш имкониятига эга.

Рақамли усуллар ишлаб чиқаришдаги харажатларни камайтиради, бу эса фойда олишни оширади.

Рақамли иқтисодиёт янги касблар ва иш ўринлари яратишга замин яратади.

Рақамли технологиялар камбағалликни енгиш ва ижтимоий тенгсизликни йўқотишда муҳим роль ўйнайди.

Дунё мамлакатлари каби Ўзбекистонда ҳам рақамли иқтисодиёт ривожланмоқда. Ахборот технологияларини кундалик ҳаётимизга тадбиқ қилиш орқали оддий инсонлар учун кўплаб имкониятлар яратилмоқда. Бироқ, Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши потенциалга нисбатан бир неча баробар секинроқ. Имкониятлар мавжуд, керакли ресурслар бор, лекин ривожланиш анча суст.

Рақамли трансформация жараёнида киберхавфсизлик муҳим аҳамиятга эга. Корхоналар кибер таҳдидлардан ҳимояланиш учун хавф-хатарларни тўғри баҳолаш ва самарали стратегиялар ишлаб чиқишлари керак. Бу, ўз навбатида, рақамли иқтисодиётнинг ривожланишини таъминлайди ва корхоналарнинг узоқ муддатли муваффақиятини белгилайди.

Рақамли иқтисодиёт ва киберхавфсизлик ўртасидаги мувозанатни таъминлаш, ҳар бир корхона учун стратегик аҳамиятга эга.

Бунга сабаб сифатида рақамли иқтисодиётни Ўзбекистонда ривожланишини бир қанча тўсиқларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

кўплаб соҳалардаги монополия;

интернет тезлигини пастлиги ва уни сифацизлиги;

ахборот технологиялари соҳасида қонунунчиликнинг замондан орқада қолганлиги;

фуқароларда компютер саводхонлигининг ўта пастлиги;

қонунчиликнинг шаффоф эмаслиги;

ахборот технологийлари бўйича мутахассисларнинг етишмаслиги ёки уларни бошқа мамлакатларга кетиб қолиши;

ахборот маданияти, ахборот гигиенаси пастлиги;

ахборот технологиялари хавфсизлиги яхши эмаслиги;

бошқарув органларида соҳани тушунадиган мутахассисларнинг камлиги ёки(баъзиларида) уларнинг умуман йўқлиги;

илм-фан ва айниқса аниқ фанларнинг ривожланиши сустлиги (ёки ривожланишдан тўхтаб қолганлиги).

Юқорида келтирилган муоммолар босқича-босқич, тизимли, дунё тажрибасидан келиб чиқиб ҳал қилинса, Ўзбекистон ҳам бемалол рақамли иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда бири бўла олади.

Рақамли иқтисодиёт келтириб чиқариши мумкин бўлган хавфлар қуйидагилар ҳисобланади;

Кибер ҳужум хавфи, шахсий маълумотлар ҳимояси билан боғлиқ муоммолар;

“рақамли қуллик” (миллионлаб инсонлар маълумотларидан кейинчалик уларни ўзларини тутишини бошқариш учун фойдаланиш);

ишсизликни ошиши, ахборот технолоияларини ривожланиши ва уни тадбиқ қилиниши ортидан бир қанча соҳалар ва касблар йўқ бўлиб кетиши мумкин.

Рақамли иқтисодиёт рақамли технологияларга асосланган, электрон бизнес, электрон тижорат билан боғланган, рақамли товар ва хизматлар ишлаб чиқараётган ва тақдим этаётган иқтисодий фаолиятдир.Бунда иқтисодий хизмат ва товарлар учун ҳисоб-китоблар электрон пул орқали амалга оширилади.Рақамли иқтисодиёт консепцияси атомдан битга, яъни кимёвий енг кичик заррадан электрон бирликка ўтишга асосланади. Рақамли иқтисодиёт йирик саноат обьектлари иш самарадорлигини ошириш, ишлаб чиқаришда ўсиш, фаолият шаффофлигини таьминлаш, маҳсулот таннархини камайтириш имконини беради.

Ўзбекистонда барча тизимлар рақамлашмоқда. Айниқса, коронавирус туфайли жорий этилган карантин режимида онлайн товар ва хизматларга бўлган талаб яна-да ортди, барча соҳаларда рақамли функсияларнинг сафи кенгайди.Бугун уйдан чиқмасдан тўловларни амалга ошириш, ҳеч бир муаммосиз масофавий таьлим олиш, дунёнинг йирик кутубхоналаридан фойдаланиш ва ҳатто ишлаш мумкин. Рақамли хизматлар аньанавий турга қараганда қоғозбозлик, расмиятчиликнинг йўқлиги, вақтни тежаш каби бир қатор афзалликларга эга. Масалан, давлат хизматларини рақамли кўринишда олсангиз, сизга белгиланган тўловнинг 10 фоизи миқдорида чегирма тақдим етилади.

Буларнинг барчаси мамлакатимизда рақамли иқтисодиётга фаол ўтилаётганининг белгиси.Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг яна бир омили — киберхавфсизликни таьминлашдир.Сохта онлайн-дўконлар, веб-сайтлар, ижтимоий тармоқлардаги аккаунтлар ва электрон почта манзилларидан фойдаланишди.Бу ҳам ахборот хавфсизлигини таьминлаш заруратини яна бир бор тасдиқлайди.Рақамлашув ва киберхавфсизлик тушунчалари доимо ёнма-ён келади.Чунки барча тизим ва жараёнларни рақамлаштириш билан бирга, уларнинг техник жиҳатдан мукаммал ва бехато ишлашини, хавфсизлигини таьминлаш муҳим ҳисобланади.Юртимизда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга қанчалик еьтибор қаратилаётган бўлса, киберхавфсизликни таьминлаш ҳам шунча долзарблик касб этмоқда. Ўзбекистон киберхавфсизлик глобал индексида ўзи позициясини мустаҳкамлаб бормоқда

Киберхавфсизлик — ахборот хавфсизлигининг муҳим кўриниши бўлиб, у фақат техник жараёнлар билан чекланмай, балки фойдаланувчиларнинг шахсий маълумотларини ҳимоялашга ҳам қаратилган. Хусусан, почта, ижтимоий тармоқлар ва тўлов тизимларида ишончли паролларни ўрнатиш, шахсий қурилмаларни вируслардан ҳимоялаш киберхавфсизликнинг асосий элементларидир. Кенгроқ маьнода, киберхавфсизлик тармоқлар, мобил иловалар ва қурилмаларнинг ҳимоясига қаратилган чора-тадбирлар мажмуидир.

Ўзбекистонда 2020–2023-йилларга мўлжалланган киберхавфсизликка доир миллий стратегия ишлаб чиқиш ва “Киберхавфсизлик тўғрисида”ги қонун лойиҳасини қабул қилиш муҳимдир. Киберхавфсизликка доир меьёрларнинг ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланиши, рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши учун зарурдир. Рақамли оламдаги таҳдидларнинг янги турлари ва шакллари пайдо бўлаётганини инобатга олган ҳолда, бу борадаги қонунчиликни мустаҳкамлаш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, корхоналар киберхавфсизликни самарали бошқариш учун хавф-хатарларни тўғри баҳолаш ва ҳуқуқий базани мустаҳкамлашлари керак. Бу, ўз навбатида, рақамли трансформация жараёнида уларнинг муваффақиятини таъминлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ш.М.Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
2. Мелников В.Н., Клейменов С.А. Информасионная безопасност и защиты информасии. Москва 2017.
3. Ғаниев С.К., Каримов М.М., Ташев К.А. Ахборот хавфсизлиги. Ахборот коммуникасион тизимлари хавфсизлиги.-Т 2018.
4. Қулмаматов, С. И., Абдураимов, Д. Э., Норматова, М. Н., & Монасипова, Р. Ф. (2021). УГРОЗЫ В ИНТЕРНЕТЕ И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ. Экономика и социум, (7), 351-356.

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O‘RNI

Andijon davlat texnika instituti
“Axborot texnologiyalari va tizimlari” yo'nalishi 2-kurs talabasi
Abdurashidov Azizbek Solijon o‘g‘li
azizbekce@gmail.com

Annotatsiya. Sun’iy intellekt kiberxavfsizlikda kiberhujumlarni aniqlash, oldini olish va ularga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezis SI texnologiyalarining joriy holati, afzalliklari va muammolarini tahlil qiladi. Mashinaviy o‘qitish va chuqur o‘qitish usullari, ularning xavfsizlik tizimlariga integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. SI yechimlarini optimallashtirish va xavflarni kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zolar: Sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, mashinaviy o‘qitish, chuqur o‘qitish, kiberhujumlar, avtomatlashtirish, xavfsizlik tizimlari.

Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy kiberxavfsizlikda muhim vosita sifatida tobora ko‘proq e’tibor qozonmoqda. SI tizimlari kiberhujumlarni aniqlash, ularga tezkor javob berish va xavflarni oldindan bashorat qilishda samarali yechimlar taqdim etadi. Mashinaviy o‘qitish (ML) va chuqur o‘qitish (DL) algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, shubhali faoliyatni aniqlash va avtomatlashtirilgan choralar ko‘rish imkonini beradi. Masalan, SI asosidagi tizimlar real vaqt rejimida tarmoq trafigini monitoring qilib, anomaliyalarni aniqlaydi va kiberxavfsizlik xodimlarining ishini soddalashtiradi.

SI texnologiyalari kiberxavfsizlikda quyidagi asosiy sohalarda qo‘llaniladi:

Hujumlarni aniqlash: SI tizimlari firibgarlik, zararli dasturlar (malware) va boshqa kiberxavflarni aniqlashda yuqori aniqlik ko‘rsatadi.

Avtomatlashtirilgan javob choralari: SI hujumlarga tezkor reaksiya ko‘rsatib, tizimni bloklash yoki zararli faoliyatni izolyatsiya qilish kabi choralar ko‘radi.

Bashoratli tahlil: SI tizimlari kelajakdagi xavflarni bashorat qilish uchun tarixiy ma’lumotlarni tahlil qiladi.

Mashinaviy o‘qitish algoritmlari, xususan, nazoratli va nazoratsiz o‘qitish usullari, kiberxavfsizlikda keng qo‘llanilmoqda. Nazoratli o‘qitish algoritmlari ma’lum xavf turlari (masalan, phishing yoki DDoS hujumlari) asosida o‘qitiladi va yangi ma’lumotlarni tasniflashda ishlatiladi. Nazoratsiz o‘qitish esa anomaliyalarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki u tarmoq trafigidagi odatiy bo‘lmagan harakatlarni aniqlay oladi.

Chuqur o‘qitish, xususan, neyron tarmoqlar yordamida, yanada murakkab xavflarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) va rekurrent neyron tarmoqlar (RNN)

zararli dasturlarni tahlil qilishda va xavfli URL manzillarni aniqlashda samarali. SI asosidagi tizimlar, masalan, IBM Watson yoki Google DeepMind, kiberxavfsizlik sohasida keng qo‘llanilmoqda.

SI kiberxavfsizlikda bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

Tezlik va aniqlik: SI tizimlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilib, xavflarni real vaqt rejimida aniqlaydi.

Avtomatlashtirish: SI tizimlari odamlar ishtirokisiz xavfsizlik choralarini ko‘rish imkonini beradi, bu esa resurslarni tejaydi.

Moslashuvchanlik: SI tizimlari yangi turdagi hujumlarga moslashish qobiliyatiga ega, bu esa ularni doimiy rivojlanib borayotgan kiberxavflar sharoitida foydali qiladi.

Masalan, SI asosidagi tizimlar DDoS hujumlarini aniqlashda 95% dan yuqori aniqlik ko‘rsatishi mumkin [Darktrace, 2024].

SI texnologiyalarining afzalliklariga qaramay, bir qator muammolar mavjud:

Ma’lumotlar sifati: SI tizimlari sifatli va to‘g‘ri ma’lumotlarga tayanadi. Agar ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmasa, algoritmlar samarasiz bo‘lishi mumkin.

Hujumlarning murakkablashishi: Kiberjinoyatchilar SI texnologiyalaridan foydalanib, yanada murakkab hujumlar (masalan, adversarial AI) tashkil qilmoqda.

Axloqiy muammolar: SI tizimlari maxfiylikni buzishi yoki noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin, bu esa foydalanuvchilar huquqlariga putur yetkazadi.

Masalan, 2023 yilda adversarial AI hujumlari SI tizimlarini aldashga qaratilgan holatlar 30% ga oshgan [MIT Technology Review, 2023].

SI texnologiyalarining kiberxavfsizlikdagi kelajagi istiqbolli bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

Kvantal hisoblash integratsiyasi: Kvant hisoblash SI algoritmlarini yanada kuchaytirib, tahlil va bashorat qilish tezligini oshiradi.

Federativ o‘qitish: Ushbu usul ma’lumotlarni markazlashtirmasdan SI tizimlarini o‘qitish imkonini beradi, bu maxfiylikni oshiradi.

Avtonom xavfsizlik tizimlari: SI asosidagi tizimlar kelajakda to‘liq avtonom bo‘lib, inson ishtirokisiz xavflarga qarshi kurashishi mumkin.

Takliflar:

Ma’lumotlar sifatini oshirish: Tashkilotlar SI tizimlarini o‘qitish uchun sifatli va xavfsiz ma’lumotlar bazalarini shakllantirishi lozim.

Xavfsizlik standartlarini joriy qilish: SI tizimlarining axloqiy va xavfsiz qo‘llanilishini ta’minlash uchun global standartlar ishlab chiqilishi kerak.

Kiberxavfsizlik mutaxassislarini tayyorlash: SI tizimlarini boshqarish va tahlil qilish uchun malakali kadrlar tayyorlanishi zarur.

Adversarial AI ga qarshi choralar: SI tizimlarini aldashga qaratilgan hujumlarga qarshi maxsus algoritmlar ishlab chiqilishi lozim.

SI asosidagi yechimlar bir qator muvaffaqiyatli loyihalarda o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Masalan, Darktrace tizimi 2024 yilda global miqyosda minglab tashkilotlarda kiberhujumlarni aniqlashda 98% samaradorlikka erishdi. Shuningdek, Palo Alto Networks kompaniyasining Cortex XDR platformasi SI yordamida real vaqt rejimida xavflarni aniqlash va ularga javob berishda yetakchi hisoblanadi.

Sun’iy intellekt kiberxavfsizlik sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, uning muammolari va xavflarini inobatga olish zarur. Yuqorida keltirilgan takliflar va tavsiyalar SI asosidagi yechimlarni yanada samarali va xavfsiz qilishga yordam beradi. Tashkilotlar SI texnologiyalarini to‘g‘ri integratsiya qilish orqali kiberxavfsizlikni mustahkamlashi va zamonaviy kiberxavflarga qarshi samarali kurashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Darktrace. (2024). *Cybersecurity AI Report 2024*. Available at: https://darktrace.com/reports*
2. *MIT Technology Review. (2023). *Adversarial AI: The New Frontier in Cybersecurity Threats*. Available at: https://www.technologyreview.com*

3. *IBM Security. (2023). *AI-Powered Cybersecurity: The Future of Threat Detection*. Available at: https://www.ibm.com/security*
4. *Palo Alto Networks. (2024). *Cortex XDR: AI-Driven Threat Detection*. Available at: https://www.paloaltonetworks.com*
5. *Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.*
6. *NIST. (2023). *Artificial Intelligence and Cybersecurity Framework*. Available at: https://www.nist.gov*
7. *Gartner. (2024). *The Future of AI in Cybersecurity*. Available at: https://www.gartner.com*

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI

Akbarova Azizaxon Axmat qizi
Namangan davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi, +998973763373
Azizaxonakbarova1995@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu tezisda zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga kuchayib borayotgan kiberxavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishda sun’iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari o‘rganiladi. Tezisda SI asosida ishlovchi tizimlarning kiberxurujlarni aniqlash, oldini olish, xavfsizlikni avtomatlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, mashinaviy o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va anomaliyalarni aniqlash texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasiga integratsiyasi tahlil qilinadi. Ishda SI yordamida tahdidlarni prognoz qilish, foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda xavfsizlik siyosatlarini mustahkamlash yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan. Tezis natijalari sun’iy intellektga asoslangan samarali va zamonaviy kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt (SI), Kiberxavfsizlik, Mashinaviy o‘rganish, Chuqur o‘rganish, Anomaliyani aniqlash, Tahdidni aniqlash, Ma’lumotlarni himoya qilish, Avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari, Kiberhujumlar, Foydalanuvchi xatti-harakatlari tahlili, Xavfsizlik monitoringi, Axborot texnologiyalari, Aqlli xavfsizlik tizimlari, Sun’iy intellekt asosidagi himoya, Kiberjinoyatlarga qarshi kurash.

KIRISH

Raqamli transformatsiya davrida axborot va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik muammolari ham keskin tus olmoqda. Xakerlik, fishing, zararli dasturlar, DDoS hujumlar kabi xavf-xatarlar tobora murakkablashib bormoqda. Shu bilan birga, bu muammolarga qarshi kurashishda innovatsion texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (SI) vositalari muhim rol o‘ynay boshladi. Sun’iy intellekt imkoniyatlari kiberxavfsizlikni nafaqat kuchaytiradi, balki uni yanada avtomatlashtiradi, moslashuvchan va oldindan tahdidlarni aniqlovchi tizimlarga aylantiradi. O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida sun’iy intellekt yordamida kiberxavfsizlikni ta’minlash mavzusida bir qator muhim ishlar mavjud. Misol uchun: **Muattar Akbarova – "Sun’iy intellekt tizimlarini kiberxavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati"**. Ushbu tezisda kiberxavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellekt tizimlarining ahamiyati va afzalliklari ko‘rib chiqilgan. **Sevinch Baxtiyor qizi Pattayeva – "Sun’iy intellekt va axborot xavfsizligi sohasidagi yangiliklar"**.

Ushbu maqola sun’iy intellektning axborot xavfsizligi sohasidagi o‘zgarishlarni va yangi imkoniyatlarni o‘rganadi. **Muhammadqodir Abdumutalib o‘g‘li Sodiqov – "Kiberxavfsizlik, sun’iy intellekt, ma’lumotlarni himoya qilish"**

Mazkur maqolada kiberxavfsizlikning elementlari va uning kompyuterlar, serverlar, mobil qurilmalar, elektron tizimlar, tarmoqlar va ma’lumotlarni zararli hujumlardan himoya qilish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. **X. Nigmatov – "Ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashda sun’iy intellektdan foydalanish"**

Axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning mumkin bo‘lgan usullarining qisqacha tahlili keltirilgan.

ASOSIY QISM

1. Xavfsizlikni kuzatish va monitoring qilish

Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar real vaqt rejimida tarmoq va foydalanuvchi faoliyatini kuzatib, noodatiy xatti-harakatlarni aniqlay oladi. Masalan, foydalanuvchi odatdagidan ko‘ra boshqa vaqtda yoki joyda tizimga kirishga urinsa, SI tizimi bu holatni potentsial xavf sifatida belgilaydi.

2. Tahdidlarni oldindan aniqlash

SI mashina o‘rganish (Machine Learning) modellari orqali tarixiy ma’lumotlar asosida hujum turlarini aniqlashni o‘rganadi. Bu, ayniqsa, ilgari noma’lum bo‘lgan "zero-day" hujumlarni aniqlashda foydalidir.

3. Avtomatlashtirilgan javob berish tizimlari

SI yordamida tahdid aniqlangach, tizim avtomatik tarzda unga javob choralarini ko‘rishi mumkin: foydalanuvchi sessiyasini to‘xtatish, zararli faylni karantin qilish yoki administratorga ogohlantirish yuborish.

4. SIEM va IDS/IPS tizimlarining takomillashuvi

Kirish: Kiberxavfsizlik bugungi kunda har bir tashkilot va shaxs uchun eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va Internetga ulanishning kengayishi kiberxavflarni yanada oshirib, yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Kiberhujumlar va ma'lumotlarning o'g'irlanishi hollari ortib bormoqda, bu esa tashkilotlarning ish faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun bugungi kunda mavjud bo‘lgan an'anaviy usullar har doim ham samarali bo‘lmaydi, chunki kiber tahdidlari doimiy ravishda evolyutsiya qilmoqda va yangi usullar bilan tashkilotlarga hujum qilmoqda.

Bunday tahdidlarga qarshi kurashishda, yangi texnologiyalar va strategiyalarni ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda masofaviy boshqaruv amaliyotlarining joriy etilishi bilan, tashkilotlar xodimlariga o‘z ishlarini masofadan turib samarali tarzda amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Biroq, masofaviy ish rejimining kengayishi bilan xavfsizlik risklari ham ortdi. Xodimlar va tizimlar geograflik joylashuvlaridan qat'iy nazar bir-birlari bilan aloqada bo‘lishlari kerak, bu esa kiberxavfsizlikni ta'minlashni yanada murakkablashtirmoqda.

Bu muammolarni hal qilishda, sun'iy intelekt (SI) texnologiyalarining o‘rni va roli juda katta. Sun'iy intelekt kiberxavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi. SI yordamida kiber tahdidlarga qarshi kurashish, ma'lumotlarni himoya qilish va tizimlarni yaxshilash jarayonlari yanada samarali va tezkor amalga oshirilishi mumkin. Sun'iy intelektning o‘z-o‘zini o‘rganish va yangi tahdidlarga tezkor javob berish imkoniyatlari kiberxavfsizlikni kuchaytirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Ushbu maqolada, biz SI texnologiyalarining kiberxavfsizlikda masofaviy boshqaruvni yaxshilashdagi qo‘llanilishini chuqurroq o‘rganib chiqamiz. Maqola davomida, kiberxavfsizlikni ta'minlashda sun'iy intelektning qanday rol o'ynashini, uning tahdidlarni aniqlash, tizimlarni himoya qilish va resurslarni boshqarishda qanday qo'llanilishini tahlil qilamiz. Shuningdek, masofaviy boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intelekt texnologiyalarining kelajakdagi imkoniyatlarini ham muhokama qilamiz.

Metodologiya

Kiberxavfsizlik va masofaviy boshqaruv: Masofaviy boshqaruv tizimlarining xavfsizligini ta'minlashda sun'iy intelekt (SI) texnologiyalarining integratsiyasi katta ahamiyatga ega. Masofaviy boshqaruv sharoitida xodimlar va IT mutaxassislari geografik joylashuvlaridan qat'iy nazar, o‘z ishlarini amalga oshirishi mumkin, bu esa tashkilotlarga moslashuvchanlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Biroq, masofaviy ish rejimi xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, kiber hujumlar va ma'lumotlarning nojo'ya ishlatilishi xavfi ortadi. Shu sababli, masofaviy boshqaruvni xavfsiz amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, sun'iy intelektni qo‘llash zarur. SI texnologiyalari masofaviy boshqaruvda xavfsizlikni kuchaytirish va xodimlar bilan tizimlar o'rtasidagi aloqalarni himoya qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Sun'iy intelekt va uning kiberxavfsizlikdagi o‘rni: Sun'iy intelekt texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida tahdidlarga qarshi kurashishda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. SI tizimlari tahdidlarni aniqlash, ularni oldini olish va xavfsizlikka javob berish jarayonlarini tez va samarali amalga oshirishi mumkin. O‘z-o‘zini o‘rganish va yangi tahdidlarga moslashish imkoniyatiga ega bo‘lgan SI tizimlari, mavjud xavf-xatarlarga tezkor javob berish imkoniyatini yaratadi. Sun'iy intelektning tahdidlarni aniqlashdagi roli katta, chunki SI tizimlari tahdidlarni o‘rganib, o‘zining algoritmik asosida hujumlarni oldindan bashorat qilishi mumkin. Shu tarzda, sun'iy intelekt texnologiyalari kiberxavfsizlikni yanada samarali qilishga yordam beradi, masofaviy boshqaruvda tizimlarni himoya qilish uchun zarur bo‘lgan moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Natijalar

Tahdidlarni aniqlash: Sun'iy intelekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlikda qo‘llanilishi tahdidlarni aniqlash tezligini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kiber hujumlar va xavf-xatarlar har doim yangilanib turishi va rivojlanishi sababli, ularni tezkor aniqlash va tahlil qilish zarur. SI tizimlari, o‘z-o‘zini o‘rganish va mustahkamlangan algoritmlar yordamida kiber tahdidlarga aniq va samarali javob berishni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar tahdidlarni oldindan bashorat qilish va ularga nisbatan doimiy monitoring o‘rnatish imkoniyatlarini yaratadi. Dastur o‘rganish jarayonida tahdidlar yangi usullarini aniqlash uchun tizimni yanada optimallashtiradi, bu esa xavfsizlik choralari samaradorligini oshiradi.

Tizimlarni himoya qilish: SI texnologiyalarining yana bir muhim qo‘llanilishi tizimlarni himoya qilishda o‘z aksini topadi. Ma'lumotlar analizi, sanchiq algoritmlari va boshqa mexanizmlar yordamida xavfsizlik tizimlari yanada mustahkamlanadi. Sun'iy intelekt yordamida aniqlangan tahdidlar tizimning xavfsizlik choralari orqali tezda bartaraf etilishi mumkin. Bunday tizimlar masofaviy boshqaruvda xodimlar va mutaxassislar uchun samarali va xavfsiz ish muhitini yaratadi. Tizimlar va dasturlar o‘z-o‘zidan hujumlardan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshiradi va bu jarayonni optimallashtiradi.

Rejalashtirish va yuklarni taqsimlash: Masofaviy boshqaruvda SI texnologiyalari rejalashtirish va yuklarni taqsimlash jarayonlarini optimallashtirishda katta yordam beradi. Kiberxavfsizlik tizimlarining samarali ishlashi uchun resurslarni va jarayonlarni to‘g‘ri taqsimlash muhimdir. Sun'iy intelekt bu jarayonlarni doimiy ravishda baholash va optimallashtirishda yordam berib, tizim resurslarini eng samarali tarzda taqsimlash imkonini yaratadi. Bu texnologiya, masofaviy boshqaruvda kiberxavfsizlikni yaxshilash uchun kerakli tahlil va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Munozara

SI texnologiyalarining afzalliklari: Sun'iy intelekt texnologiyalarining kiberxavfsizlikdagi qo‘llanilishi ko‘plab afzalliklarga ega. Ular tahdidlarni aniq va samarali aniqlash imkonini beradi, jarayonlarni tezlashtiradi, xavfsizlikni mustahkamlaydi va tizimlarni himoya qilishda samarali yechimlar yaratadi. SI yordamida xavfsizlik tizimlari o‘z-o‘zini o‘rgatadi va yangi tahdidlarga moslashadi, bu esa tizimlarning vaqt o‘tishi bilan yanada samarali bo‘lishini ta'minlaydi. Shuningdek, sun'iy intelekt kiberxavfsizlik sohasida insonga bo‘lgan qaramlikni kamaytiradi va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali xavfsizlikni yaxshilaydi.

Sun'iy intelektning kelajagi: Kelajakda sun'iy intelekt va kiberxavfsizlik o‘rtasidagi integratsiya yanada mustahkamlanishi kutilmoqda. Masofaviy boshqaruv tizimlari va SI texnologiyalarining rivojlanishi kiberxavfsizlikni yangi bosqichlarga olib kelishi mumkin. Avtomatik tizimlar va robotlar kiber tahdidlarga tezkor va samarali javob berish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa xavfsizlikni yuqori darajaga ko‘taradi. Kelajakda SI yordamida yaratilingan kiberxavfsizlik tizimlari mutlaqo o‘z-o‘zini boshqaradigan, oldindan tahdidlarni aniqlaydigan va ularga qarshi avtomatik ravishda javob beradigan tizimlarga aylanishi mumkin.

Yangi tendentsiyalar: Yaqin kelajakda, sun'iy intelekt texnologiyalarining rivojlanishi kiberxavfsizlikda yangi imkoniyatlar ochilishi kutilmoqda. Masofaviy boshqaruv sharoitida, xodimlarning o'qishini va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda SI texnologiyalarining ta'siri ortishi mumkin. Sun'iy intelekt yordamida, xodimlarga kiberxavfsizlik bo‘yicha yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish, ularning tajribalarini oshirish va xavfsizlikni yanada samarali boshqarish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Bu esa, kelajakda kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislarning samaradorligini oshiradi va yangi tahdidlarga qarshi yanada kuchli kurash olib borish imkonini yaratadi.

Xulosa: Sun'iy intelekt texnologiyalarining kiberxavfsizlikda masofaviy boshqaruvni yaxshilashdagi ahamiyati juda katta. SI yordamida tahdidlarni samarali aniqlash, tizimlarni himoya qilish va resurslarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu texnologiyalar yordamida kiberxavfsizlik tizimlari o‘z-o‘zini o‘rganib, yangi tahdidlarga tezkor javob berishga qodir. Shuningdek, sun'iy intelekt kiberxavfsizlikni yaxshilash va xodimlarga o‘z ishlarini xavfsiz tarzda amalga oshirish imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Kelajakda, SI texnologiyalari yordamida kiberxavfsizlikni ta'minlashni yanada samarali qilish va tahdidlarga qarshi avtomatik javob berish imkoniyatlari rivojlanishi kutilmoqda. Sun'iy intelektning yangi tendentsiyalari kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislarning samaradorligini oshiradi va yangi xavflarga qarshi kurashish imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xusenov M.Z., Umurov O.F., Boltayev Sh.J. Oliy ta‘lim muassasasida axborot xavfsizligini ta‘minlash. //Pedagogik akmeologiya. – Buxoro, 2022. – № 1(1). – B. 152-154. (OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori).
2. G'apporov Umidjon Abdurashid o‘g'li Developing Practice-Oriented Knowledge of Students through Artificial Intelligence European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 5 | Issue 3 | Mar - 2025 ISSN: 2795-8612
3. Abdurahmonov, S. (2021). *Raqamli pedagogika: Sun’iy intellekt va immersiv texnologiyalar asosida ta’lim samaradorligini oshirish*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
4. Woolf, B. P. (2020). *AI in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Cambridge University Press.
5. Baker, R. S., & Siemens, G. (2019). *Educational Data Mining and Learning Analytics: Improving Educational Outcomes with Artificial Intelligence*. Springer.
6. G‘apparov Umidjon Abdurashid o‘g‘li Amonova Nilufar Avaz qizi Использование Искусственного Интеллекта В Оценке Профессиональной Компетентности Студентов Journal of Interdisciplinary Science | ISSN: 2960-9550

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O‘RNI.

Aynaqulov Xusniddin Abduxamidovich,
Jizzax Politexnika instituti, “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsneti,
Bariddinov Ramazon G’ayrat og’li JizPi talabasi
Gmail: aynaqulov2975@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi tutgan o‘rni chuqur ilmiy yondashuv asosida tahlil etilgan. Unda real vaqt rejimida tahdidlarni aniqlash, fishingga qarshi kurash, avtomatik himoya tizimlari va “zero-day” xurujlariga javob qaytarish bo‘yicha SI ning imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, SI asosidagi hujumlar va ularga qarshi chora-tadbirlar, global tendensiyalar va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellect, Kiberxavfsizlik, Mashinali o‘rganish.

Axborot texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib borgan bir paytda, kiberxavfsizlik masalasi davlatlar, kompaniyalar va alohida shaxslar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Dasturiy vositalar, onlayn platformalar, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar keng qo‘llanilayotgan bir muhitda, xavfsizlikka tahdidlar ham murakkablashib bormoqda. Aynan mana shu sharoitda sun’iy intellekt (SI) kiberxavfsizlik sohasida inqilobiy vosita sifatida paydo bo‘ldi. Sun’iy intellekt odatiy xavfsizlik algoritmlaridan farqli ravishda tahdidlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, ularni oldindan aniqlash va proaktiv tarzda harakat qilish imkonini beradi. Ayniqsa, mashinali o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) modellaridan foydalanish orqali kiberxavfsizlik tizimlari juda katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda tahlil qilish, anomal xatti-harakatlarni aniqlash va ilgari noma’lum bo‘lgan xakerlik sxemalarini fosh etishga qodir bo‘ldi. Sun’iy intellekt asosidagi

kiberxavfsizlik yondashuvlarining ustunligi, ayniqsa, zamonaviy zamonda juda tez o‘zgarib borayotgan tahdid landshaftiga qarshi kurashishda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Masalan, 2023-yilda global miqyosda qayd etilgan tahdidlarning 60% dan ortig‘i ilgari noma’lum bo‘lgan usullarda amalga oshirilgan. Oddiy antivirus yoki an’anaviy xavfsizlik tizimlari bunday hujumlarga qarshi zaif bo‘lib qolmoqda. SI esa ushbu noma’lum tahdidlarni tahlil qilish, real vaqt rejimida signal berish va hatto avtomatik tarzda qarshi choralar ko‘rish qobiliyatiga ega. Kiberhujumlarning yangi toifasi — “zero-day” zaifliklar, ya’ni hali ishlab chiquvchilar tomonidan aniqlanmagan va yopiqlik holatida turgan xatoliklar orqali amalga oshiriladigan hujumlar — ayniqsa xavfli sanaladi. Bunday vaziyatda sun’iy intellektning o‘rni beqiyos, chunki u foydalanuvchi tizimidagi odatiy xatti-harakatlar statistik modelini yaratadi va ulardan chetga chiqadigan har qanday anomaliyani aniqlay oladi. Bu esa erta ogohlantirish tizimlarining samaradorligini keskin oshiradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt hozirda fishing (phishing) va ijtimoiy muhandislik (social engineering) asosidagi hujumlarga qarshi kurashda ham qo‘llanilmoqda. Natural Language Processing (NLP) yondashuvi orqali SI elektron pochta yoki messenjerlardagi soxta, manipulyativ matnlarni aniqlab, tizimni ogohlantiradi. Shu tariqa, foydalanuvchi hali havolani ochmasidan oldin tizim uni potentsial xavfli deb belgilaydi. Ammo SI faqat foydali vosita emas — u ayni paytda yangi xavf manbai hamdir. Masalan, xakerlar tomonidan sun’iy intellektdan foydalanib, soxta audio yoki video kontentlar — “deepfake” texnologiyasi orqali odamlarni chalg‘itish, ijtimoiy ishonchsizlikni yuzaga keltirish holatlari ham ko‘paymoqda. Yana bir xavfli yo‘nalish bu — adversarial attacks, ya’ni SI tizimlarini ataylab noto‘g‘ri qaror qabul qilishga undovchi manipulyativ kirishlar. Shu sababdan, SI texnologiyalarini kiberxavfsizlikda qo‘llash bilan birga, ularni o‘zini ham himoya qilish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu esa maxsus SI xavfsizligi (AI security) yo‘nalishining shakllanishiga olib kelmoqda. Dunyodagi yetakchi universitetlar — MIT, Stanford, Cambridge — aynan SI xavfsizligi bo‘yicha alohida ilmiy dasturlarni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekiston uchun ham bu yo‘nalish juda dolzarb. Yurtimizda raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, elektron sog‘liqni saqlash tizimlari rivojlanar ekan, SI asosidagi kiberxavfsizlik texnologiyalarini milliy infratuzilmaga joriy qilish muhim vazifalardan biriga aylanadi. Shu maqsadda quyidagi tavsiyalar dolzarb: Hukumat darajasida sun’iy intellekt va kiberxavfsizlikni birlashtiruvchi milliy strategiya ishlab chiqilishi kerak. Bunda SI algoritmlarini mustaqil test qilish, ularning xavfsizlik darajasini sertifikatlash tizimlari joriy etilishi lozim.

Mahalliy universitetlar va texnoparklarda kiberxavfsizlik va sun’iy intellektni birlashtirgan magistratura yo‘nalishlari ochilishi zarur. Bu — nafaqat xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga, balki o‘zimizning texnologik mustaqilligimizni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorliklar orqali ilg‘or amaliyotlarni o‘rganish, ayniqsa, Xitoy, AQSh va Isroil kabi davlatlarning tajribasini mahalliylashtirish lozim. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor hamkorligida SI asosidagi kiberxavfsizlik loyihalari ishlab chiqilishi zarur. Sun’iy intellekt kiberxavfsizlik sohasida nafaqat himoyachi, balki tahdid ham bo‘lishi mumkin. Ammo to‘g‘ri siyosat, kuchli texnologik baza va malakali mutaxassislar mavjud bo‘lsa, SI bizni eng murakkab raqamli tahdidlardan himoya qila oladi. Kelajak aynan ana shunday xavfsiz, aqlli va moslashuvchan texnologiyalarga tayanuvchi jamiyatga tegishlidir. Shuningdek, kiberxavfsizlik va sun’iy intellekt o‘zaro integratsiyalashgan sari, bu sohada shaffoflik, etik me’yorlar va huquqiy tartibga solish muammolari ham tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, SI asosidagi qarorlar avtomatlashtirilgan bo‘lgani bois, bu jarayonlarda inson nazoratining kamayishi xavf tug‘diradi. Misol uchun, noto‘g‘ri belgilangan o‘quv ma’lumotlari asosida mashq qilingan SI modeli aybsiz foydalanuvchini tahdid sifatida noto‘g‘ri aniqlashi mumkin. Shunday xatoliklar inson huquqlari, ma’lumotlar maxfiyligi va axborot adolatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, algoritmik shaffoflik, mas’uliyatli SI dizayni va inson omilining doimiy ishtiroki dolzarb prinsiplar sifatida qaralmoqda. Bu borada xalqaro me’yoriy hujjatlar va SI etikasi bo‘yicha tavsiyalarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish zarur. Bundan tashqari, sun’iy intellektdan foydalanishda infratuzilmaviy tayyorgarlik darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Har qanday SI tizimi sifatli, toza va izchil ma’lumotlarga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatdagi mavjud ma’lumotlar bazalarining xavfsizligi, ularning standartlarga muvofiqligi va interoperabiliteti (tizimlararo uyg‘un ishlash qobiliyati) ta’minlanishi kerak. Aks holda, SI tizimlari noto‘g‘ri xulosa chiqarishi, ularning samaradorligi pasayishi mumkin. Bu borada davlat tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari va IT sektor o‘rtasidagi uzviy hamkorlik asosida yagona

ma’lumotlar siyosati ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlikda inson omili, ya’ni foydalanuvchi xatti-harakatlari va madaniyati ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng zamonaviy xavfsizlik tizimi ham foydalanuvchining noto‘g‘ri harakati tufayli zaiflashishi mumkin. Shu boisdan, umumiy axborot madaniyatini oshirish, foydalanuvchilarda kibergigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish, sun’iy intellekt imkoniyatlari haqida keng ommaga tushunarli tilda ma’lumot berish zarur. O‘zbek tilida yaratiladigan raqamli savodxonlik platformalari, maxsus o‘quv dasturlari va simulyatorlar orqali keng jamoatchilikning bu sohadagi xabardorligini oshirish mumkin. Kelajakdagi raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston uchun sun’iy intellektga asoslangan, proaktiv va adaptiv kiberxavfsizlik modelini shakllantirish — bu strategik zaruratdir. Bu nafaqat ichki tahdidlarni jilovlash, balki xalqaro maydonda texnologik suverenitetni ta’minlash yo‘lida ham muhim qadam bo‘ladi. Sun’iy intellektni xavfsizlikka emas, aynan ishonchga asoslangan raqamli kelajakni qurishda poydevor sifatida ko‘rish — zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Russell, Stuart; Norvig, Peter (2021) – *Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th Edition)* – Sun’iy intellekt asoslari, mashinali o‘rganish, muhandislik va xavfsizlik konsepsiyalariga doir fundamental manba
2. Goodfellow, Ian; Bengio, Yoshua; Courville, Aaron (2016) – *Deep Learning* – Chuqur o‘rganish va SI tizimlarining tahdidlarni aniqlashdagi roliga ilmiy asos. – Nashriyot: MIT Press
3. IBM Security Reports (2022–2023) – *Cost of a Data Breach Report* – Kiberxavfsizlikdagi iqtisodiy yo‘qotishlar, zero-day hujumlar va SI yondashuvlari statistikasi. – Veb: https://www.ibm.com/reports/data-breach
4. MIT CSAIL (Computer Science and Artificial Intelligence Laboratory) – *Research on AI-driven cybersecurity defense systems* – Real vaqt rejimidagi tahdidlarni aniqlovchi AI tizimlar bo‘yicha tadqiqotlar. – Veb: https://www.csail.mit.edu
5. Gartner (2023) – *Top Security and Risk Trends* – Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishning global xavfsizlik sohasidagi eng so‘nggi tendensiyalari. – Veb: https://www.gartner.com/en.

KOMPYUTER TOMOGRAFIYASIDAN OLINGAN MA’LUMOTLAR ASOSIDA OSHQOZON EROZIYASINI ANIQLASHNIG MODELLASHTIRISH.

Baxromov Alisher Baxtiyor o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti.
E-mail: alisherbaxromov91921@gmail.com

Anatatsiya. Mazkur maqolada oshqozon eroziyasini aniqlashda kompyuter tomografiyasi yordamida trapetsiya usulidan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqotda oshqozon shilliq qavatidagi eroziya maydoni trapetsiya usuli yordamida aniqlanib, matematik hisob-kitoblar orqali natija chiqarildi. Ushbu usul yordamida aniqlangan maydon kasallik diagnostikasida samarali usullardan biri sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Oshqozon eroziyasi, kompyuter tomografiyasi, trapetsiya usuli, yuzani hisoblash.

Kirish

Oshqozon eroziyasi — bu oshqozon shilliq qavati yuzasida yuzaga keladigan yuzaki nuqson bo‘lib, u keyinchalik chuqurlashishi yoki yaraga aylanishi mumkin. Oshqozon eroziyasi kasalliklarini erta aniqlash davolash samaradorligini oshiradi va asoratlarning oldini oladi. Zamonaviy tibbiyotda KT tasvirlari yordamida ichki organlar holatini aniq baholash imkoniyati mavjud. Oshqozon shilliq qavatidagi zararlangan hududlarni aniq belgilash, o‘lchash va baholash jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, trapetsiya usuli orqali hisoblash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada KT tasvirlarini qayta ishlash orqali oshqozon eroziyasini aniqlash va trapetsiya usuli yordamida zararlangan yuzani hisoblash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi [1].

Adabiyotlar sharxi

Kompyuter tomografiyasi sohasida bir qancha ilmiy ishlar bajarilgan bo‘lib, ularda turli kasalliklarni aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Xususan, tasvirlarni raqamli qayta ishlash, chegaralarni aniqlash va yuzalarni o‘lchash bo‘yicha bir qancha metodlar ishlab chiqilgan [2][3]. Trapetsiya usuli esa matematik jihatdan eng oddiy va tez ishlov berish imkonini beradigan usul hisoblanadi [4].

Asosiy qism

Mazkur tadqiqot ishida oshqozon eroziyasining aniqlashda aniq integralning hisoblashning trapetsiya usullarida foydalanildi. Trapetsiya usuli yordamida oshqozon eroziyasini aniqlash algoritmi. Trapetsiya usuli, raqamli integrallashning eng oddiy va tezkor usullaridan biri hisoblanadi. Bu usulda, ma’lum bir oraliqda funktsiyaning (bu yerda, oshqozon yuzasining balandligi yoki uzunligi) qiymatlari olingan nuqtalarda hisoblanadi va bu nuqtalar orasidagi maydon trapetsiyalar shaklida tasavvur qilinadi. Trapetsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan integral:

$$S=\frac{h}{2}*[f(x_0)+2\sum_{i=1}^{n=1} f(x_i) + f(x_n)] \qquad (1)$$

Bu yerda: **h**-intervalning uzunligi;

$f(x_i)$-intervaldagi i-chi nuqtadagi funktsiyaning qiymati.(1) ga asoslanib KT tasviridan olingan balandliklar va uzunliklar hisoblanadi, Buning natijasida oshqozonning zararlangan yoki sog‘lom qismlarini ajratib olish imkoniyatiga ega bo’linadi. Trapetsiya usuli yordamida oshqozon eroziyasining maydoni quyidagi ko‘rinishda hisoblanadi. KT tasvirida zararlangan hududlarni aniqlash uchun ushbu usulni qo‘llash orqali tez va aniq natijalarga erishish mumkin.

Nuqta(x)	Y Koordinatasi (f(x))
0	1.2
1	1.8
2	2.4
3	2.6
4	3.1

Qadam uzunligini hisoblash. Agar nuqtalar orasidagi masofa teng bo‘lsa, **h** ni quyidagicha hisoblaymiz:

$$h=\frac{xn-x0}{n}=\frac{4-0}{4}=1 \qquad (2)$$

Natijani hisoblash. Trapetsiya usuli formulasi yordamida umumiy maydonni hisoblaymiz:

$$S=\frac{1}{2}[f_{(0)}+2*(f_{(1)}+f_{(2)}+f_{(3)})+f_{(4)}],\ S=\frac{1}{2}[1.2+2*(1.8+2.4+2.6)+3.1]$$

$$S=\frac{1}{2}[1.2+2*6.8+3.1],\ S=\frac{1}{2}[1.2+13.6+3.1],\ S=\frac{1}{2}*17.9,\ S=8.95$$

Natija

Tadqiqot ishi doirasida olingan natijalar erishilgan yuturqlar quydagi 1- rasmda keltirilgan. Shuningdek raqamli ishlash natijasini dastlabki tasvirga nisbatan baholash 1- jadvalda keltirilgan.



1-rasm(Oshqozon ichida yalig’langan qismining o‘lchami)

Baholash ko‘rsatgichlari jadvali

Ko‘rsatgich	Y Koordinatasi (f(x))
MSE (O‘rtacha kvadratik xatolik)	4598.59
MAE(O‘rtacha absalyut xatolik)	54.16
PSNR(shovqinga nisbatan yuqori signal)	11.50 dB
Korelatsiya (Pearson)	Aniqlanmagan (NaN)

Izohlar:

MSE (Mean Squared Error): Bu qiymat qancha kichik bo‘lsa taqqaslanayotgan tavsiyalar o‘zoro shunchalik o‘xshash bo’ladi. Bu yerda MSE ancha katta, ya’ni o‘zgarishlar mavjud.

MAE(Mean Absolute Error): o‘rtacha farq 54.14 bo‘lib, bu ham sezilarli darajada farq borligini ko’rsatadi.

PSNR (Peak Signal to Noise Ratio): 11.5 dB jida past hisoblanadi; bu tasvir sifati jida farq qilishi bildiradi.

Person Korelatsiyasi: Bu yerda NaN qaytdi, chunki taqqoslanayotgan qiymatlardan biri (sintetik ma’lumot) konstant bo‘lgani sababli statistik bog‘liqlik aniqlanmadi.

Xulosa

Oshqozon eroziyasini aniqlashda trapetsiya usulidan foydalanish orqali olingan natijalar, ushbu metodning tibbiy tasvirlarni raqamli tahlil qilishda samarali qo‘llanilishini ko‘rsatadi. 1-rasm asosida trapetsiya usuli yordamida hisoblangan maydon 8.95 sm² ni tashkil etadi, bu esa oshqozon eroziyasining zararlangan hududining umumiy maydonini aks ettiradi. Trapetsiya usuli hisoblashda, nuqtalar orasidagi masofalarni teng qilib ajratish va har bir nuqtadagi funktsiya qiymatlarini hisoblash orqali zararlangan hududning maydoni aniq belgilandi. Ushbu hisoblashning nozikligi nuqtalar orasidagi masofaning kichikligini oshirish bilan yaxshilanadi, bu esa integralning aniqligini oshiradi. Shuningdek, bu usul yordamida tibbiy tasvirlar asosida amalga oshirilgan integral hisoblashlari, oshqozon eroziyasini aniqlashda qo‘llaniladigan boshqa raqamli metodlarga nisbatan yuqori aniqlikni ta’minlashi mumkin. Trapetsiya usulining soddaligi va samaradorligi, uning boshqa sohalarda, xususan, meditsina va biologiyada keng qo‘llanilishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, trapetsiya usulining afzalliklari va kamchiliklari ham bor. Bunda kichik qadamlar (ya’ni, nuqtalar orasidagi masofani kamaytirish) yordamida aniqlikni oshirish mumkin, ammo bu vaqtni ko‘paytiradi. Bundan tashqari, agar tasvirda aniqlangan zararlangan hudud juda murakkab yoki juda

katta bo‘lsa, trapetsiya usuli ba’zi holatlarda noto‘g‘ri natijalar keltirishi mumkin. Natijada, trapetsiya usulini qo‘llash oshqozon eroziyasini aniqlashda va boshqa tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda muhim bir vosita sifatida xizmat qilishi mumkin, ammo metodning to‘liq samaradorligi va aniq natijalari, tasvirning o‘zi va ishlatilayotgan nuqtalar soniga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. B. Smith, “Medical Imaging and Computed Tomography in Diagnostics” *Journal of Medical Technology”* 15(3), 45-56, 2020.
2. M. A. Brown, “Digital Image Processing in Medical Applications” *Journal of Computational Medicine*, 40(2), 112-121, 2019.
3. L. R. Green, “Techniques in Medical Image Segmentation and Boundary Detection” *Biomedical Engineering Review*, 18(4), 89-96, 2021.
4. R. P. Agarwal, S. B. Dube, “Mathematical Methods in Medicine: Application of Trapezoidal Rule in Medical Image Processing” *Mathematical Methods in Medicine*, 34(2), 7-14, 2022.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROTGA BO‘LADIGAN TAHDIDLARDAN HIMOYALANISH USULLARI

Boymurodov Bobir Elmurodovich,
boymurodovbe@gmail.com, O‘zJOKU

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining axborot xavfsizligini ta’minlashdagi roli va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli muhitda axborotga qarshi bo‘lgan tahdidlar ko‘lami kengayib, ularni aniqlash va bartaraf etish an’anaviy usullar bilan tobora murakkablashmoqda. Shu bois maqolada sun’iy intellekt yordamida tahdidlarni erta aniqlash, avtomatik monitoring olib borish, anomal faoliyatlarni tahlil qilish va real vaqt rejimida javob choralarini ishlab chiqish kabi usullar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada mashinaviy o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining kiberxavfsizlik tizimlariga integratsiyasi misollar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida yaratilgan himoya tizimlari axborotni himoyalashda yuqori aniqlik, moslashuvchanlik va tezkorlikni ta’minlay olishini ko‘rsatadi. Maqola yakunida mazkur texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida tavsiyalar beriladi.

Raqamli transformatsiya jarayoni global miqyosda tez sur’atlar bilan rivojlanar ekan, axborot xavfsizligi masalasi har qachongidan ham dolzarb tus olmoqda. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt (SI), insoniyatga katta qulayliklar yaratish bilan birga, kiberjinoyatchilar uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Cybersecurity Ventures kompaniyasining prognozlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib global kiberjinoyatlar tufayli yetkaziladigan zarar yillik $10,5 trillionga yetishi kutilmoqda.

Kiberhujumlarning murakkabligi ortib borayotgan bir paytda, an’anaviy xavfsizlik choralarining yetarli emasligi ayon bo‘lmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalari, jumladan, mashinaviy o‘rganish (ML), chuqur o‘rganish (DL) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohalaridagi yutuqlar kiberxavfsizlikni ta’minlashda yangi ufqlarni ochmoqda. Grand View Research ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda global sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik bozori hajmi $25,35 milliardni tashkil etgan bo‘lsa, 2025–2030-yillar oralig‘ida ushbu bozor yillik 24,4% o‘sish sur’ati bilan rivojlanishi kutilmoqda. Biroq, sun’iy intellektning o‘zi ham kiberjinoyatchilar tomonidan qurol sifatida ishlatilmoqda. Masalan, generativ AI texnologiyalari yordamida yaratilgan soxta kontentlar (deepfake) va avtomatlashtirilgan fishing hujumlari soni ortib bormoqda. Amazon kompaniyasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda ular kuniga o‘rtacha 750 million kiberhujumga duch kelgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich yil boshidagi 100 milliondan sezilarli darajada oshgan.

Shu bois, kiberxavfsizlik sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarining roli nafaqat tahdidlarni aniqlash va oldini olishda, balki ularning o‘zini ham nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt yordamida axborotga bo‘ladigan tahdidlardan himoyalanish usullari, xususan, mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarining kiberxavfsizlikdagi amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mashinaviy o‘rganish (ML), chuqur o‘rganish (DL) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari kiberxavfsizlik tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Polaris Market Research kompaniyasining hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda global sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik bozori hajmi $25,40 milliardni tashkil etgan bo‘lib, 2034-yilga kelib bu ko‘rsatkich $219,53 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa yillik o‘rtacha 24,1% o‘sish sur’atini anglatadi. Shuningdek, Grand View Research ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari, jumladan, NLP va ML, kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirishda tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Biroq, sun’iy intellektning o‘zi ham kiberjinoyatchilar tomonidan qurol sifatida ishlatilmoqda. Axios’ning 2025-yil 27-maydagi “Future of Cybersecurity” axborot byulletenida ta’kidlanishicha, ChatGPT kabi AI chat-botlarining mukammal grammatika va insoniy ohangda yozilgan phishing xatlari aniqlanishini qiyinlashtirmoqda, bu esa yanada murakkab fishing sxemalariga olib kelmoqda. Shuningdek,

Dimensional Research va SailPoint tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, kompaniyalarning 82% AI agentlarini joriy etgan bo‘lsa-da, faqat 44% kompaniyalarda AI agentlarining faoliyatini boshqarish siyosatlari mavjud.

O‘tkazilgan tahlillar va mavjud statistik ma’lumotlar asosida quyidagi muhim natijalar aniqlangan:

Sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi roli ortib bormoqda: 2024-yilda global sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik bozori hajmi $25,35 milliardni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkich $93,75 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu yillik o‘rtacha 24,4% o‘sish sur’atini anglatadi.

Kichik va o‘rta bizneslar sun’iy intellektni faol qo‘llamoqda: Verizon Business’ning 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, kichik va o‘rta bizneslarning 38% sun’iy intellektni marketing, ishga qabul qilish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda qo‘llamoqda. Shuningdek, 47% kompaniyalar o‘tgan yilda kiberxavfsizlik tizimlarini yangilagan.

Avtonom AI agentlari xavfsizlik tahdidlarini keltirib chiqarmoqda: Dimensional Research va SailPoint tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, kompaniyalarning 82% avtonom AI agentlarini joriy etgan bo‘lsa-da, faqat 44% kompaniyalarda ushbu agentlarning faoliyatini boshqarish siyosatlari mavjud. Bu esa maxfiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi xavfini oshiradi .

AI asosidagi tahdidlar ortib bormoqda: Team8 tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, kiberxavfsizlik mutaxassislarining 85% sun’iy intellektni himoya vositasi sifatida ko‘rmoqda. Biroq, AI yordamida amalga oshirilayotgan fishing va deepfake hujumlari xavotirli darajada ortib bormoqda.

AI texnologiyalarining samaradorligi yuqori: Enterprise Apps Today ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt yordamida kiberxavfsizlikda qo‘llanilayotgan texnologiyalar tahdidlarni aniqlashda 63% tezroq natijalar beradi. Shuningdek, kompaniyalarning 69% sun’iy intellektsiz kiberjinoyatlarga javob bera olmasliklarini ta’kidlamoqda. Ushbu natijalar sun’iy intellektning kiberxavfsizlik sohasidagi ahamiyatini yanada oshirib, uni tahdidlarni aniqlash, oldini olish va ularga javob berishda muhim vosita sifatida ko‘rsatmoqda. Biroq, AI texnologiyalarining o‘zi ham xavf manbai bo‘lishi mumkinligi sababli, ularni boshqarish va nazorat qilish tizimlarini kuchaytirish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sholla, A., Qazim, L., & Lipari, G. (2021). *AI in Cybersecurity: Threat Detection and Prevention*. Springer.
2. Sarker, I. H. (2022). “Machine Learning for Intelligent Cybersecurity Systems: A Review”. *IEEE Access*, 10, 18915–18945. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2022.3149090
3. Sommer, R., & Paxson, V. (2010). “Outside the Closed World: On Using Machine Learning for Network Intrusion Detection”. *IEEE Symposium on Security and Privacy*, 305–316.
4. Jo‘rayev, A. R. (2022). *Kiberxavfsizlik asoslari va sun’iy intellekt texnologiyalari*. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
5. Mamatqulov, S. Sh. (2023). *Axborot xavfsizligi va intellektual tizimlar*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
6. Abdullayeva, Z. (2021). “Sun’iy intellekt vositalarining axborot himoyasidagi o‘rni”. *TATU Ilmiy axborotnomasi*, №2, 47–53.
7. Qodirov, O. H. (2020). *Kompyuter tarmoqlarida xavfsizlik siyosati va uning algoritmik yondashuvi*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. Karimov, D. A. (2022). “Sun’iy intellekt asosida tahdidlarni aniqlash algoritmlari”. *Axborot texnologiyalari jurnali*, №3, 65–72.

AI ETHICS IN CYBERSECURITY: STRIKING A BALANCE BETWEEN SAFETY AND PRIVACY

Dilnoza Altinovna Buribayeva
Student, Chirchik State Pedagogical University
buribayevadilnoza@gmail.com
Saida Turgunovna Gaziyeva
Teacher at Chirchik State pedagogical university

Annotation: The growing integration of Artificial Intelligence (AI) into cybersecurity has brought both significant advancements and complex ethical challenges. While AI enhances the ability to detect, prevent, and respond to cyber threats, its implementation also raises concerns about individual privacy, surveillance, and decision-making transparency. This paper explores the ethical dilemmas that emerge from using AI technologies in cybersecurity contexts, particularly focusing on the trade-off between public safety and personal privacy. Through a review of current literature and real-world case studies, this study highlights how AI can be both a protector and a potential violator of digital rights. The paper emphasizes the need for a balanced approach that incorporates ethical guidelines, legal frameworks, and technical safeguards to ensure AI is used responsibly. It argues that building public trust in AI-driven cybersecurity systems requires transparency, accountability, and a clear commitment to respecting user privacy.

Keywords: Artificial Intelligence, Cybersecurity, Ethics, Privacy, Safety, Surveillance, Accountability, Digital Rights

Introduction: In today’s digital era, cybersecurity has become a critical concern for individuals, organizations, and governments. With the rise in cyberattacks, data breaches, and digital fraud, the demand for advanced protection tools is higher than ever. Artificial Intelligence (AI), with its ability to process massive amounts of data and detect anomalies in real time, is increasingly being employed to strengthen cybersecurity systems.

However, alongside these benefits come serious ethical questions. AI systems can operate with minimal human oversight, analyze personal information, and even make decisions that impact people's digital lives. This leads to concerns about privacy violations, biased algorithms, lack of transparency, and uncontrolled surveillance. While AI can make systems more secure, it may also become a tool for mass data collection and potential misuse. The aim of this paper is to examine the ethical implications of using AI in cybersecurity, with a specific focus on how to strike a balance between enhancing safety and protecting privacy. The central research question is: How can cybersecurity systems powered by AI ensure security without compromising ethical standards, particularly user privacy?

To explore this question, this study will review existing literature, analyze case studies, and discuss current practices, offering suggestions for ethical guidelines and regulatory frameworks that can help maintain this delicate balance.

Methods: This study is based on a qualitative research approach that primarily involves a literature review. Academic articles, professional reports, cybersecurity case studies, and ethical frameworks were examined to understand the relationship between Artificial Intelligence (AI) and cybersecurity from an ethical standpoint. Sources were selected from online academic databases such as Google Scholar, IEEE Xplore, and ScienceDirect, focusing on publications from the last 5–7 years to ensure relevance.

The analysis involved identifying key themes such as privacy, surveillance, fairness, accountability, and transparency. Special attention was given to real-world examples where AI has been applied in cybersecurity systems—both successfully and controversially. By comparing these cases, the study aimed to understand how ethical guidelines are implemented (or ignored) in practice. Although this paper does not involve primary data collection or interviews, the use of documented case studies and expert opinions helps provide a comprehensive understanding of the current challenges and ethical concerns in AI-based cybersecurity systems. This method allows us to critically analyze the gap between technological capabilities and ethical responsibility.

Results: After reviewing many sources, several important points emerged about the ethical issues of using AI in cybersecurity. These findings help us better understand how AI affects privacy, security, and trust in the digital world. AI improves cybersecurity by quickly detecting threats. It can analyze large amounts of data and find suspicious activities faster than humans. For example, many companies use AI to identify phishing emails or prevent hackers from stealing data. This helps keep systems safer and reduces the risk of cyberattacks.

However, to work effectively, AI systems need access to a lot of personal data like emails, messages, and browsing history. This raises concerns about who controls this data and how it is used. Sometimes, people are unaware that their data is being monitored, which can feel like spying. As a result, while safety increases, privacy can be compromised. Another problem is that AI learns from existing data, which might be biased or incomplete. This can lead AI to make unfair decisions, such as wrongly flagging innocent users as threats based on certain data patterns. Such mistakes can harm people's rights and reputations.

Additionally, many AI systems operate like a "black box," meaning their decision-making process is not clear even to experts. This lack of transparency makes it difficult to understand or challenge decisions made by AI in cybersecurity, reducing trust in these systems. Because of these issues, experts agree that clear ethical guidelines are necessary. AI should be transparent, fair, and respectful of user privacy. Governments and companies need to work together to ensure AI is used responsibly. While some countries are starting to create laws about AI and cybersecurity, much work remains to establish effective regulations.

Discussion: The results show that AI plays a very important role in cybersecurity, but it also brings serious ethical problems. The biggest challenge is finding the right balance between protecting systems and respecting people's privacy. On one hand, AI helps quickly find and stop cyberattacks, which protects not only companies but also ordinary users. On the other hand, this often requires collecting and analyzing large amounts of personal information, which can threaten privacy and freedom.

Another important point is fairness. AI systems are only as good as the data they learn from. If the data contains biases, AI can make unfair decisions that harm innocent users. This problem shows that technical development must be combined with ethical thinking. Developers and companies should work to reduce bias and improve the accuracy of AI systems. Transparency is also key. If people do not understand how AI makes decisions, they cannot trust it. This is especially important in cybersecurity, where false positives or mistakes can lead to serious consequences, such as blocking users or wrongly accusing them of malicious actions. Governments and organizations need to require AI systems to be more open about their processes.

Finally, the study confirms that legal and ethical frameworks are necessary. Currently, many countries do not have clear laws regulating AI in cybersecurity. Without these rules, AI can be misused or cause harm without consequences. Building public trust in AI technologies requires clear policies that protect privacy, ensure fairness, and hold users accountable.

Conclusion: In conclusion, Artificial Intelligence has become a powerful tool in cybersecurity, offering great benefits in detecting and preventing cyber threats. However, its use raises important ethical questions related to privacy, fairness, and transparency. To use AI responsibly, it is crucial to develop ethical guidelines and legal regulations that balance security needs with the protection of individual rights.

This paper highlighted that AI can both protect and potentially harm digital rights. Therefore, cooperation between developers, governments, and society is needed to create trustworthy AI systems. Only by ensuring transparency, accountability, and respect for privacy can AI fulfill its promise to improve cybersecurity without compromising ethical standards.

References

1. European Commission. (2023). Ethical guidelines for trustworthy AI. https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/library/ethics-guidelines-trustworthy-ai
2. Johnson, M. (2019). Transparency and trust in AI: A cybersecurity perspective. Cybersecurity Review, 7(2), 102-115.

3. Lee, H., & Kim, S. (2020). Privacy challenges in AI-based security systems. International Journal of Information Security, 19(4), 300-310.
4. Pivot.uz. (2025, April 16). Uzbekistan is Drawing Legal Boundaries for Artificial Intelligence. Retrieved from https://pivot.uz/uzbekistan-is-drawing-legal-boundaries-for-artificial-intelligence/
5. Shavkat Mirziyoyev Proposes Global Ethical Standards for Artificial Intelligence Use. (2025, April 7). Kun.uz. Retrieved from https://monitor.kun.uz/en/news/2025/04/07/shavkat-mirziyoyev-proposes-global-ethical-standards-for-artificial-intelligence-use
6. Times of Central Asia. (2025, April 16). Uzbekistan Moves to Regulate AI and Protect Personal Data. Retrieved from https://timesca.com/uzbekistan-moves-to-regulate-ai-and-protect-personal-data/
7. World Economic Forum. (2022). Responsible AI: Balancing Innovation and Ethics. Retrieved from https://www.weforum.org/reports/responsible-ai

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O’RNI

Qodirov Bahodirjon Tursunovich
Iqtisodiyot‖ kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD) Email: qodirovbahodir0175@gmail.com
Axmedov Dilmurodjon Dilshodbek o’g’li
Andijon Davlat Texnika Instituti Iqtisod (tarmoqlar va soxalar bo’yicha) talabasi Email: axmedovdilmurodjon0@gmail.com Tel: +998916207017

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola sun’iy intellektning (SI) kiberxavfsizlik tahdidlarini aniqlash va ularni bartaraf etishdagi muhim o’rnini o’rganadi. Mashinaviy o’rganish, chuqur o’rganish va xulq-atvor tahlili kabi ilg’or SI usullaridan foydalangan holda, tashkilotlar kiber tahdidlarni real vaqt rejimida samarali aniqlab, ularga qarshi choralar ko’rish imkoniyatiga ega bo’ladilar. SI katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, naqshlarni aniqlash va bo’lajak xavfsizlik hodisalarini oldindan bashorat qilish orqali tahdidlarni faol aniqlashni ta’minlaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi xavfsizlik yechimlari masshtablanuvchanlik, samaradorlik va moslashuvchanlik kabi afzalliklarni taqdim etib, tobora rivojlanayotgan kiber tahdidlar qarshisida ular ajralmas vositaga aylanmoqda.

Umuman olganda, SI kiberxavfsizlik mudofaasini mustahkamlashda va muhim axborot resurslarini murakkab kiberhujumlardan himoya qilishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Kiber tahdidlar tobora murakkablashib va ko’payib borayotgan bir paytda, SI ni xavfsizlik tizimlariga integratsiya qilish nafaqat javob berish tezligini oshiradi, balki tashkilotlarga ehtimoliy hujumlardan oldinroq xabardor bo’lish va choralar ko’rish imkonini beradi. Shu bilan birga, tashkilotlar SI asosidagi xavfsizlik choralarini tobora keng joriy etayotgan bir vaqtda, etik jihatlarni hisobga olish va algoritmlardagi ehtimoliy noxolisliklarni bartaraf etish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, Xulq-atvor tahlili, Kiberxavfsizlik, Chuqur o’rganish, Mashinaviy o’rganish, Faol tahdid aniqlash, Real vaqt himoyasi, Masshtablanuvchanlik, Xavfsizlik yechimlari, Murakkab hujumlar.

Sun’iy intellekt (AI) kiberxavfsizlikni yaxshilashda muhim rol o’ynaydi: u tahdidlarni avtomatik aniqlash, hodisalarga javob berishni yaxshilash va kiberxavflarni kamaytirishga yordam beradi. AIning kiberxavfsizlik tizimlariga integratsiyasi tashkilotlarga tobora murakkablashayotgan kiberhujumlardan raqamli infratuzilmani himoya qilish usullarini tubdan o’zgartirmoqda. Biroq, AI ko’plab afzalliklar bilan birga, samarali qo’llanilishi uchun hal qilinishi zarur bo’lgan muammolar va cheklovlarni ham keltirib chiqaradi. So’nggi o’n yilliklar kiberxavfsizlik sohasida AI texnologiyasini qabul qilish bilan bog’liq tub o’zgarishlar davri bo’ldi, bu tahdidlarni aniqlash va mudofaani kuchaytirishga yordam berdi. Quyida so’nggi tadqiqotlardan olingan asosiy natijalar keltirilgan.

Somme tad va Hallberg axborot xavfsizligi sohasida aniq simulyatsiyalar va tanlovlarning foydaliligini ta’kidladilar. Ular haqiqatga yaqin stsenariylarni avtomatik yaratish imkoniyati yo’qligini qayd etdilar. Shuning uchun ular strukturaviy stsenariylarni belgilash imkonini beruvchi AI agentlarini

yaratish ramkasini taklif qilishdi. Samujima va TajimaU biznesning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan IT xavf-xatarlarni boshqarish tizimini taqdim etdilar. Ular xodimlarni hodisalar to’plamidan foydalangan holda mashina o’rganish algoritmlari va AI yordamida stsenariy yaratishga o’rgatdilar.

Scarfone, Grance va Masone avtomatik stsenariylarni yaratish bo’yicha tavsiyalar berdilar va ularni kiber mashg’ulotlarda qo’llashni taklif qildilar. Ular loyihalardagi stsenariyni va global tahdidlarni AI yordamida kuchaytirilgan holatlar bilan qanday bog’lash mumkinligini ko’rsatgan dizayn xaritasini yaratdilar. Pastuszuk, Burek va Ksieopolski IT tizimlarining dinamikasini ifodalovchi kiber ontologiyani yaratdilar, bu IT tizim stsenariylarini avtomatlashtirishni yaxshiladi. Ular nomlangan obyektlarni aniqlash texnologiyasi va grafik taqqoslash usullaridan foydalanganlar.

Tsinganos va Mavridis ijtimoiy muhandislik hujumlarini aniqlashda inson omilini hisobga olgan til modelini ishlab chiqdilar. Ularning algoritmi mashina o’rganish zanjiri yordamida muhim elementlarni topdi va hodisa grafikini takomillashtirdi.Natijada, tadqiqotlar ko’rsatadiki, AI kiberxavfsizlikda oddiy alternativ yechim emas, balki tahdidlarni aniqlash, simulyatsiya qilish va kiber mashg’ulotlarni rejalashtirishda strategik integratsiyaning ajralmas qismidir. Sun’iy intellekt kiberxavfsizlik tahdidlarini aniqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqdi va turli usullar yordamida tahdidlarni samarali aniqlash va kamaytirish imkonini berdi.

Imzo asosidagi aniqlash — bu ma’lum zararli kod yoki xatti-harakatlarning namunalarini (imzolarini) ma’lumotlar bilan taqqoslash. Bu usul yuqori aniqlik va kam noto’g’ri signal berishi bilan samarali himoya qiladi. Ammo u nol kunlik (zero-day) hujumlar va o’zgaruvchan zararli dasturlarga qarshi kurasha olmaydi, chunki doimiy ravishda imzo bazasini yangilash talab qilinadi. Misol uchun, antivirus dasturi fayllardagi zararli dastur imzolarini qidiradi va faqat ular bilan mos keladigan fayllarga kirishni taqiqlaydi.

Anomaliya aniqlash — normal holatlardan statistik usullar yordamida farq qiladigan hodisalarni topishdir. Bu usul noma’lum va ichki hujumlarni aniqlashda yaxshi, ammo noto’g’ri signal berishi mumkin, shuning uchun normal holat oldindan aniq ko’rsatilishi zarur. Kirish aniqlash tizimlari (IDS) tarmoqlardagi g’ayrioddiy naqshlarni kuzatishda yaxshi misol hisoblanadi. Bu usul foydalanuvchilar va tizim ichidagi o’zaro aloqalarni o’rganib, g’ayrioddiy faoliyatlarni aniqlashga qaratilgan. Eng sezgir joylarda tahdidlarni topish imkonini beradi. Biroq, bu usulda aniq standartni aniqlash uchun katta miqdorda o’quv ma’lumotlari kerak bo’ladi. UEBA (User and Entity Behavior Analytics) texnologiyalari aynan ichki tahdidlarni aniqlashga yo’naltirilgan.

Mashina o’rganish algoritmlari tarixiy ma’lumotlar asosida tahdidlarning o’xshash xususiyatlarini aniqlash uchun modellarni o’rgatadi. Bu usul yangi tahdidlarga moslashishda samarali va katta ma’lumotlarni qayta ishlay oladi. Ammo qarshi hujumlar xavfsizligini zaiflashtirishi va yuqori hisoblash quvvatini talab qilishi muammo hisoblanadi. Masalan, spam filtrlar mashina o’rganish yordamida qaysi elektron pochta xabarlarini qabul qilish yoki rad etishni hal qiladi.Chuqur o’rganish ma’lumotlarni ko’p qavatli abstraktsiyalarda tahlil qilib, rasm va nutqni aniqlashda yuqori aniqlik beradi. Matnni qayta ishlashda ham juda samarali. Biroq, kam o’quv ma’lumotlari bilan yaxshi tushuntira olmaydi. Bu algoritmlar tarmoq trafikida hujumlarni aniqlashda ham qo’llaniladi.

Naqshni aniqlash kiberxavfsizlikda muhim bo’lib, ma’lum tahdidlarni ularning o’ziga xos naqshlari yoki zararli xatti-harakatlar imzolari bilan farqlashga yordam beradi. Bu dasturlar tarmoq trafigi va ma’lumotlarni kiberhujum naqshlari, masalan, zararli dastur imzolari yoki hujumlarning xatti-harakatlarini aniqlash uchun ishlatiladi. Shu orqali zararli kontent yoki faoliyatlar tezda aniqlanib, oldi olinadi.

Anomaliya aniqlash esa tarmoq yoki tizimda kuzatilgan normal xulq-atvordan chetga chiqqan g’ayrioddiy holatlarni aniqlashga qaratilgan. Masalan, zararli dasturlarni aniqlashda algoritm aynan tahdidni tanib olishga intiladi. Naqshni aniqlash odatdagi holatlarga e’tibor qaratadi, anomaliya aniqlash esa odatdagidan farq qiladigan holatlarni topadi, bu esa mavjud xavfsizlik teshiklari, ichki tahdidlar yoki kutilmagan hujum yo’llarini ko’rsatishi mumkin.Bunday aniqlash tizimlarining afzalligi shundaki, ular chetga chiqishlarni o’rganib, shubhali harakatlarni topib, xavfsizlik guruhlariga muammoni darhol tekshirishga imkon beradi. Naqshni aniqlash va anomaliya aniqlash texnologiyalari kelajakdagi innovatsion xavfsizlik modellari uchun ajralmas qism bo’lib qoladi.

Aniqlash kiberhujumlarga oid urinishlarni tezkor aniqlash, javob berish va oldini olishni osonlashtiradi, bu esa tizimni kiberhujumlar sohasida keng tarqalgan tahdidlardan himoya qiladi. Buning aksiga, anomaliya aniqlash noma’lum xatti-harakatlar yoki yangi va paydo bo’layotgan xavflar aniqlanganda maxsus signal beruvchi yana bir xavfsizlik qatlamini qo’shadi. Anomaliya aniqlash va signalni qayta tiklash kabi usullarni birlashtirib, kiberxavfsizlik choralari mustahkamlanadi va oddiy zararli dasturlardan tortib eng murakkab zero-day ekspluatatsiyalarigacha bo’lgan keng doiradagi tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish imkonini beradi. Foydalanuvchilarning harakatlari va avtomatlashtirilgan faoliyatlarni tushunish kiberxavfsizlik uchun zarurdir. Bu rivojlangan hujumlar, buzilishlar yoki ichki xavflarni aniqlashga yordam beradi. Anomaliyali xatti-harakatlar ruxsatsiz kirish, ma’lumot o’g’irligi yoki boshqa xavfli faoliyat belgisi bo’lishi mumkin. Kirish vaqtlarini, fayllarga kirishlarni va tarmoq trafigini o’rganish orqali xavfsizlik jamoasi har qanday g’ayritabiiy holatlarni tezda aniqlashga tayyor bo’ladi.

Rivojlangan tahlildan foydalangan holda, ushbu xavflar o’tgan ma’lumotlarga chuqur nazar tashlab oldindan aniqlanishi mumkin. Chuqlashgan o’rganish tizimlari yangi naqshlarni qabul qilib o’zini takomillashtirishi mumkin. Aqlli algoritmlar oldingi voqealar va boshqa imkoniyatlarni tahlil qilib, xavflarni oldindan aniqlash uchun naqshlarni aniqlashda yordam beradi. Bu usullar tashkilotlarga ichki xavfsizlik choralarini yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

AI yordamida boshqariladigan xulq-atvor tahlili va bashoratli tahlilni o’z ichiga olgan yechimlar, masalan, User and Entity Behavior Analytics (UEBA) platformalari va Security Information and Event Management (SIEM) tizimlari, kiber tahdidlarni oson aniqlashga misol bo’la oladi. Ular murakkab mashinani o’rganish texnologiyalari asosida xatti-harakatlarni tahlil qiladi va qoidalar asosida aniqlashni amalga oshiradi. Bu yechimlar tashkilotlarga muammoni imkon qadar erta hal qilish va ichki xodimlar va buzilgan foydalanuvchi hisoblari sababli xavflarni samarali oldini olishga yordam beradi. SIEM tizimlari loglarni tahlil qilib, hujumlarni aniqlash va voqealarni bog’lash orqali tahdidlarni tezda aniqlashga mo’ljallangan. Shuningdek, vaziyatni chuqurroq tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun loglarni batafsil tekshirish muhimdir. Ushbu yechim yordamida tashkilotlar zararli faoliyatlarni tez va aniq aniqlash hamda oldini olish imkoniyatiga ega bo’lib, xavf-xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Real vaqtda monitoring kiberxavfsizlikning muhim qismi bo’lib, tashkilotlarga tahdidlarni darhol aniqlash va ularga javob berishga yordam beradi. Tarmoq trafigi, tizim loglari va foydalanuvchi faoliyatini uzluksiz kuzatib borish orqali tashkilot g’ayritabiiy harakatlar, ruxsatsiz kirish urinishlari va boshqa xavfsizlik voqealarini paydo bo’lishi bilan darhol aniqlay oladi. Masofadan monitoring qilish real vaqtda ogohlantirishlar va amaliy tavsiyalar beradi, bu esa xavfsizlik jamoalariga darhol tegishli choralar ko’rishga imkon yaratadi.

AI asosidagi texnologiyalar, masalan, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari, hodisalarga real vaqtda javob berishni va zarur tuzatish choralarini ko’rishni ta’minlaydi. AI imkoniyatiga ega xavfsizlik platformalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, xavfsizlik buzilishi mumkin bo’lgan naqshlarni aniqlaydi. AI algoritmlari zararli dastur yuqtirish, ruxsatsiz kirish urinishlari va ma’lumotlar o’g’irligi kabi tahdidlarga avtomatik javob bera oladi. Bunday texnologiyalar javob berish vaqtini qisqartiradi, inson aralashuvini kamaytiradi va tashkilotning xavfsizlik holatini yaxshilaydi.

Ammo real vaqtda monitoring va hodisalarga javob berishning ba’zi cheklovlari mavjud. Eng katta muammo — monitoring qurilmalari tomonidan chiqarilgan katta miqdordagi ogohlantirishlar xavfsizlik jamoasini charchatadi va ogohlantirishlarga nisbatan e’tiborsizlikka olib kelishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun tashkilotlar ogohlantirishlarni jiddiyligi va biznesga xavfi bo’yicha ustuvorligini belgilaydigan qo’llanmalar ishlab chiqishi zarur. Bundan tashqari, real vaqtda monitoring tarmoq va tizim loglarini kuzatishni talab qilishi mumkin, bu esa tarmoqning sekinlashishi va tizim samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun monitoring vositalarini o’rnatishda va sozlashda resurslar samarali ishlatilishini va tahdidlarni aniqlash imkoniyatlari buzilmasligini ta’minlash juda muhim.

Perimeter himoyasi: Kuchli firewall tizimlarini va tarmoq chegaralarini himoya qiluvchi hujumlarni aniqlash/oldini olish tizimlarini o’rnatish, ruxsatsiz kirishni to’xtatish uchun asosiy qadam. Endpoint xavfsizligi: Antivirus dasturlari, EDR (Endpoint Detection and Response) tizimlari va MDM (Mobile Device Management) platformalari kabi endpoint himoya echimlarini joriy etish, zararli dasturlar, fishing va boshqa tahdidlardan himoya qilish uchun.

Ma’lumotlarni shifrlash: Ma’lumotlarni saqlash va uzatishda shifrlash algoritmlaridan foydalanish, ma’lumotlarni noqonuniy kirishdan va buzilishdan himoya qilish uchun.Tahdidlarni aniqlash: Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, potentsial xavflar naqshlarini aniqlay oladigan AI-ga asoslangan yechimlarni qo’llash.

Hodisalarni avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish jarayonlarini AI yordamida tezlashtirish. Tarixiy ma’lumot va tendentsiyalar asosida kelajakdagi xavflarni oldindan aniqlash uchun AI asosidagi bashoratli tahlil vositalaridan foydalanish. An’anaviy himoya strategiyalarini AI texnologiyalari bilan birlashtirish orqali tashkilotlar o’z kiberxavfsizlik choralari mustahkamligini oshiradi, yangi xavflarga qarshi samarali himoya yaratadi va xavfsizlik buzilishlari hamda ma’lumotlar yo’qolishining oldini oladi.

Zaifliklarni baholashning ahamiyati: IT infratuzilma, ilovalar va tizimlardagi zaifliklarni vaqtida va muntazam aniqlash zaif joylarni topish va ularni bartaraf etishda asosiy omildir. Bu esa ruxsatsiz kirishlar, ma’lumot o’g’irligi va ish faoliyatining to’xtatilishini oldini oladi. AI yordamida zaifliklarni skanerlashni avtomatlashtirish: AI asosidagi zaiflik skanerlari skanerlash natijalarini tahlil qilib, xavf darajasi yuqori bo’lgan zaifliklarni aniqlaydi va ustuvorlashtiradi. Bu xavfsizlik operatsiyalarini samaraliroq qiladi va tashkilotlarga yangi aniqlangan tahdidlarga tezkor javob berish imkonini yaratadi. Yamashlarni baholash, sinovdan o’tkazish, joriy etish va monitoringni muntazam olib borish.Yamashlarni xavf darajasi va infratuzilma xavfsizligiga ta’siri bo’yicha saralash.Yamash boshqaruvi uchun aniq rollar, mas’uliyatlar va aloqa kanallarini belgilovchi tizimli yondashuv yaratish. Yamashlarning to’g’ri qo’llanilishini va zararli ta’sirlarsiz ekanligini tekshirish. AI yordamida zaifliklarni aniqlash va samarali yamash boshqaruvi siyosatini qo’llash orqali tashkilotlar o’z xavfsizlik chegaralarini mustahkamlaydi, kiberhujum xavfini kamaytiradi va raqamli aktivlarni himoya qiladi.

Xulosa

Kiberxavfsizlik sohasida xavflarni aniqlash va ularga tezkor javob qaytarish muhim ahamiyatga ega. Anomaliya aniqlash texnologiyalari yordamida noma'lum va yangi xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi. Foydalanuvchi va tizim xatti-harakatlarini tahlil qilish va oldindan bashorat qilish texnologiyalari — xususan, sun’iy intellekt (AI) va mashinani o’rganish usullari — ichki xatarlarni va ilg’or hujumlarni aniqlashda samarali yordam beradi. Real vaqtda tarmoqlar va tizimlarni monitoring qilish hamda avtomatlashtirilgan javob berish tizimlari xavfsizlik hodisalariga tezkor va samarali reaksiya ko’rsatishga imkon beradi.

Shu bilan birga, ko’p sonli xavfsizlik ogohlantirishlari xavfsizlik jamoalarining charchashiga olib kelishi mumkin, shuning uchun ogohlantirishlarni tartibga solish zarur.Kiberxavfsizlikni mustahkamlash uchun «defense-in-depth» strategiyalari, ya’ni ko’p qatlamli himoya choralarini qo’llash, jumladan, kuchli tarmoq devorlari, endpoint himoyasi va ma’lumotlarni shifrlash zarur. Shuningdek, muntazam zaifliklarni aniqlash va tizimlarni yangilash (patch management) jarayonlarini avtomatlashtirish orqali zaif joylarni o’z vaqtida bartaraf etish mumkin.

Ruxsatnomalarni qat’iy nazorat qilish, xususan, minimal huquqlar prinsipini qo’llash, foydalanuvchilar va tizimlar harakatlarini kuzatish va adaptiv autentifikatsiya usullarini joriy etish xavfsizlikni oshiradi. Ma’lumotlarni shifrlash esa ma’lumotlar buzilishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Umuman olganda, zamonaviy kiberxavfsizlik texnologiyalari va sun’iy intellekt yondashuvlarini birlashtirish tashkilotlarga keng ko’lamli tahdidlarni aniqlash, oldini olish va ularga javob qaytarishda yordam beradi hamda ularning raqamli aktivlarini himoya qilish imkonini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T. Sommestad va J. Hallberg, "Kiberxavfsizlik mashg’ulotlari va musobaqalari sifatida kiberxavfsizlik eksperimentlari platformasi," 9-ximoya konferensiyasi (CyCon), 2017 yil.
2. M. Samejima va H. Yajima, "Biznes uzluksizligi uchun axborot tizimlarining o’zgarishini tahlil qilish orqali IT xatarlarni boshqarish ramkasi," IEEE Xalqaro axborotni qayta ishlash va integratsiya konferensiyasi (IRI), 2019 yil.
3. K. A. Scarfone, T. Grance, va K. Masone, "Kompyuter xavfsizlik hodisalarini boshqarish qo’llanmasi," Milliy standartlar va texnologiya instituti (NIST), Maxsus nashr 800-61 Rev. 2, 2012 yil.

4. J. Pastuszuk, P. Burek, va B. Ksieopolski, "Axborot texnologiyalari tizimlarining dinamik tahlili uchun kiberxavfsizlik ontologiyasi," Kiberxavfsizlik va axborot tizimlari jurnali, 3-son, 1-jild, 2018 yil, 45-56-betlar.
5. N. Tsinganos va I. Mavridis, "Chat asosidagi ijtimoiy muhandislik hujumlarini avtomatik aniqlash uchun izohlangan korpus yaratish va baholash," Axborot xavfsizligi tadqiqotlari jurnali, 7-son, 2-jild, 2020 yil, 89-102-betlar.
6. D. Silverman, "Kiberxavfsizlik tahdidlarini aniqlashda sun’iy intellektning roli haqida tushuncha," Kiberxavfsizlik va axborot tizimlari jurnali, 12-son, 4-jild, 2022 yil, 223-240-betlar.
A. Smith va B. Johnson, "Kiberxavfsizlik uchun AI asosida tahdidlarni aniqlash sohasidagi yutuqlar," Kiberxavfsizlik sharhi, 5-son, 3-jild, 2023 yil, 102-115-betlar.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TIBBIY DIAGNOSTIKA TIZIMLARINING KIBERXAVFSIZLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ergashev Bekzod Jaloliddin o‘g‘li
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti, O‘zbekiston, Farg‘ona, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz
E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0382-0811

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (AI) asosida tibbiy diagnostika tizimlarining ahamiyati va rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishlar ko‘rib chiqilgan. AI texnologiyalarining radiologiya, patologiya, kardiologiya va nevrologiya sohalaridagi samaradorligi tibbiy tasvirlarni tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va aniqlikni oshirish imkonini yaratmoqda. AI diagnostikasi tibbiyotda shaxsiylashtirilgan davolash, bemor parvarishini yaxshilash, hamda uzoq hududlarda tibbiy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish imkoniyatlarini beradi. Biroq, AI texnologiyalarining joriy etilishi axloqiy, regulyator va kasbiy tayyorgarlik kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada AI ning tibbiy diagnostikadagi roli va uning kelajagi muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, tibbiy diagnostika, tasvirlarni tahlil qilish, mashinani o‘rganish, shaxsiylashtirilgan tibbiyot, regulyator talablar.

Kirish: So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari tibbiyotda, ayniqsa, diagnostika sohasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda[1]. Tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, aniqlikni oshirish, davolash rejalarini optimallashtirish va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar yaratishda AI keng qo‘llanilmoqda. Radiologiya, patologiya, kardiologiya va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida inson xatolari kamaymoqda, tahlil tezligi ortmoqda va bemorlar uchun yanada ishonchli tibbiy xizmat taqdim etilmoqda [2, 3].

AI asosida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish:

Sun’iy intellekt tibbiy tasvirlarda (rentgen, MRI, KT, ultratovush, PET) mavjud bo‘lgan belgilarni aniqlashda va ularni talqin qilishda yuqori aniqlik bilan ishlay oladi. Ayniqsa, konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) keng ma’lumotlar to‘plamida o‘qitilib, o‘smalar, shikastlanishlar va anomaliyalarni yuqori aniqlikda aniqlashga yordam beradi. Masalan, AI algoritmlari ko‘krak saratoni uchun mammogrammalarda erta ogohlantiruvchi belgilarni aniqlay oladi, bu esa o‘z vaqtida davolanishga zamin yaratadi [4, 5, 6].

Diagnostika jarayonlarining avtomatlashtirilishi:

AI yordamida anatomik tuzilmalarni segmentatsiyalash, o‘lchash va belgilarni avtomatik ajratish mumkin. Bu esa rentgenolog va patologlar ish yukini kamaytiradi va ularning diqqatini tibbiy qarorlar qabul qilishga qaratish imkonini beradi. Shuningdek, AI algoritmlari bemorning avvalgi holati bilan hozirgi natijalarni solishtirish orqali kasallikning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Asosiy qism: Dunyoning ko‘plab mintaqalarida malakali tibbiyot mutaxassislari yetishmasligi diagnostika jarayonlarining kechikishiga sabab bo‘lmoqda. AI algoritmlari ushbu muammoni hal etishda

yordam beradi — ular tasvirlarni dastlabki tahlil qilishi, shubhali holatlarni ajratib ko‘rsatishi va shifokorga tayyor xulosani taqdim etishi mumkin [7, 8].

Sun’iy intellektning tibbiy diagnostikadagi afzalliklari [9]:

1. Aniqlikni oshirish: AI inson tomonidan o‘tkazib yuborilishi mumkin bo‘lgan nozik belgilarni aniqlaydi.
2. Tezlik: Sun’iy intellekt tasvirlarni insondan bir necha barobar tezroq tahlil qilishi mumkin.
3. Moslashuvchanlik: Turli xil kasalliklar uchun maxsus o‘rgatilgan algoritmlar mavjud.
4. Shaxsiylashtirilgan tibbiyot: Ma’lumotlarni tahlil qilib, individual davolash rejalari tuziladi.
5. Skrining samaradorligi: AI ko‘plab bemorlar orasidan xavfli belgilarni tez aniqlashga yordam beradi.
6. Tadqiqotlar va rivojlanish: Kasalliklar mexanizmini chuqur o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

AI bilan bog‘liq muammolar va cheklovlar:

AI tibbiy tasvirlarni talqin qilishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, muayyan cheklovlar mavjud. Ulardan biri — algoritmlarni tushuntirish qiyinligi (ya'ni, "black box" muammosi). Bu shifokorlar va bemorlar orasida ishonchni pasaytirishi mumkin. Shuningdek, AI qarorlariga javobgarlik kimda bo‘lishi kerakligi ham hal qilinmagan dolzarb masaladir [10, 11].

Axloqiy va huquqiy masalalar:

Ma’lumotlar maxfiyligi, bemorning roziligi, algoritmlarning adolatli va diskriminatsiyasiz ishlashi kabi masalalar AI tizimlarini joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir AI tizimi qat’iy nazorat, tasdiqlash va litsenziyalash jarayonlaridan o‘tishi zarur. Mutaxassislarni tayyorlash, ularning AI vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganishi ham asosiy shartdir. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining rivojlanishi tibbiyot sohasiga ham keng kirib keldi. Ayniqsa, tibbiy diagnostika tizimlarida sun’iy intellektdan foydalanish sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, diagnostika jarayonining tezligi va aniqligini yaxshilash [12], bemorlarga sifatli va o‘z vaqtida tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratdi.

AI, ayniqsa, radiologiya, patologiya, kardiologiya va nevrologiya kabi sohalarda tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda samarador vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mashinani o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlari yordamida AI tizimlari rentgen, MRT (magnit-rezonans tomografiya), KT (kompyuter tomografiyasi) hamda ultratovush tasvirlarini tahlil qilishda yuqori aniqlikka erishmoqda.

Sun’iy intellekt algoritmlari, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) murakkab tasvirlardagi noaniqliklarni aniqlash, o‘simtalarni tasniflash, qon tomirlardagi o‘zgarishlarni kuzatish kabi jarayonlarda yuqori darajada ishlay oladi. Bu esa diagnostik xatolarning oldini olishga va inson omilining ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi [13].

Tibbiy diagnostika jarayonining eng ko‘p vaqt talab qiladigan jihatlaridan biri tasvirlarni tahlil qilishdir. An’anaviy usullarda bu ishlar rentgenolog yoki mutaxassis shifokor tomonidan bajariladi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonni avtomatlashtirishga imkon beradi. Misol uchun:

AI mammografiyada ko‘krak bezi saratonini erta aniqlashda shifokorga yordam beradi.

Yurak ritm kasalliklarini EKG (elektrokardiogramma) signallaridan aniqlash [14].

Neyrodegenerativ kasalliklar (masalan, Altsgeymer)ni MRT tasvirlarida aniqlash.

COVID-19 kabi virusli kasalliklarni KT tasvirlarida aniqlashda AI sezgirlik va aniqlikni oshiradi.

AI orqali shaxsiylashtirilgan tibbiy xizmat:

AI diagnostika tizimlari nafaqat kasallikni aniqlash, balki bemorning individual xususiyatlari (yoshi, genetik omillari, anamnezlari, laborator natijalari) asosida shaxsiy davolash rejasini tuzishda ham katta yordam beradi. Bu "shaxsiylashtirilgan tibbiyot" (personalized medicine) konsepsiyasini amalda qo‘llash imkonini yaratadi. Uzoq hududlarda tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish [15].

AI asosida ishlovchi tibbiy diagnostika tizimlari aholisi kam yoki sog‘liqni saqlash resurslari cheklangan hududlarda ham keng qo‘llanilishi mumkin. Internet orqali tasvirlarni yuborish va sun’iy intellekt yordamida dastlabki talqinni olish orqali bemorlarni erta tashxislash imkoniyati yaratiladi. Bu esa kech tashxis qo‘yish, davolashda kechikish kabi muammolarni kamaytiradi.

AI tibbiy diagnostika tizimlarida keng imkoniyatlar yaratganiga qaramay, hali ham yechilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar mavjud:

Tushuntirish muammosi (Interpretability): Ko‘pgina AI algoritmlarining ishlash mantig‘i shifokorlar uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Bu esa qarorlar asosining ishonchliligiga putur yetkazadi.

Axloqiy muammolar: Bemorlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ularning roziligi bilan ishlash va ma’lumotlar maxfiyligini saqlash muhim hisoblanadi.

Regulyator talablar: AI tizimlarini sog‘liqni saqlash tizimiga joriy qilish uchun ular qat’iy tekshiruvlardan o‘tishi, sifat, xavfsizlik va ishonchlilik standartlariga mos bo‘lishi kerak.

Kasbiy tayyorgarlik: Shifokorlar va texnik xodimlar AI tizimlaridan to‘g‘ri foydalanish uchun kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

AI tibbiy diagnostikada tadqiqot va innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

AI nafaqat mavjud diagnostika tizimlarini takomillashtirishda, balki yangi ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini ham ochib bermoqda. Tasvirni tahlil qilishning yangi algoritmlarini yaratish, kasalliklarning erta bosqichlarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish va yangi biomarkyorlarni topish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Xulosa: Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tibbiy diagnostika tizimlari sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Radiologiya, patologiya, kardiologiya va nevrologiya kabi sohalarda AI texnologiyalari yuqori aniqlik va tezlik bilan kasalliklarni aniqlashga yordam beradi. AI algoritmlari tibbiy tasvirlarni avtomatik tahlil qilish, o‘simtalarni tasniflash va yurak ritm kasalliklarini aniqlash kabi sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Shuningdek, AI yordamida shaxsiylashtirilgan tibbiyot va bemor parvarishini yaxshilash imkoniyatlari paydo bo‘lmoqda. Uzoq hududlarda tibbiy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish orqali, tibbiyotning muhim qismlariga kirib borish imkoniyatini beradi. Biroq, AI tizimlarining joriy etilishida axloqiy va regulyator muammolar, shuningdek, shifokorlarning tayyorgarligi kabi masalalar mavjud. Kelajakda AI texnologiyalari sog‘liqni saqlash tizimining asosi bo‘lishi mumkin, ammo uning muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun qat’iy boshqaruv va tibbiy xodimlarning o‘qitilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jiang, F., Jiang, Y., Zhi, H., et al. (2017). Artificial intelligence in healthcare: past, present and future. Stroke and Vascular Neurology, 2(4), 230–243.
2. Topol, E. (2019). Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. Basic Books.
3. Yu, K.H., Beam, A.L., Kohane, I.S. (2018). Artificial intelligence in healthcare. Nature Biomedical Engineering, 2, 719–731.
4. Kaissis, G.A., Makowski, M.R., Rückert, D., Braren, R.F. (2020). Secure, privacy-preserving and federated machine learning in medical imaging. Nature Machine Intelligence, 2, 305–311.
5. Amann, J., Blasimme, A., Vayena, E., Frey, D., Madai, V.I. (2020). Explainability for artificial intelligence in healthcare: a multidisciplinary perspective. BMC Medical Informatics and Decision Making, 20, 310.
6. Rajkomar, A., Dean, J., Kohane, I. (2019). Machine learning in medicine. New England Journal of Medicine, 380, 1347–1358.
7. Dinerstein, M. (2021). AI and cybersecurity in medical diagnostics: emerging threats and challenges. Journal of Health Informatics, 14(2), 85–94.
8. Finn, R., Wright, D., Friedewald, M. (2013). Seven types of privacy. Innovation: The European Journal of Social Science Research, 26(1-2), 7–23.
9. Price, W.N., Cohen, I.G. (2019). Privacy in the age of medical big data. Nature Medicine, 25, 37–43.
10. He, J., Baxter, S.L., Xu, J., Xu, J., Zhou, X., Zhang, K. (2019). The practical implementation of artificial intelligence technologies in medicine. Nature Medicine, 25(1), 30–36.
11. Rieke, N., Hancox, J., Li, W., et al. (2020). The future of digital health with federated learning. npj Digital Medicine, 3, 119.
12. ISO/TS 25237:2017. Health informatics — Pseudonymization. International Organization for Standardization.

13. McGraw, D. (2013). Building public trust in uses of Health Insurance Portability and Accountability Act (HIPAA) de-identified data. Journal of the American Medical Informatics Association, 20(1), 29–34.
14. Obermeyer, Z., Emanuel, E.J. (2016). Predicting the future — big data, machine learning, and clinical medicine. New England Journal of Medicine, 375(13), 1216–1219.
15. Challen, R., Denny, J., Pitt, M., Gompels, L., Edwards, T., Tsaneva-Atanasova, K. (2019). Artificial intelligence, bias and clinical safety. BMJ Quality & Safety, 28(3), 231–237.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI KIBERXAVFSIZLIK TEXNOLOGIYALARINING TIBBIY MA’LUMOTLAR HIMOYASIDAGI O‘RNI

Ergashev Bekzod Jaloliddin o‘g‘li
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti, O‘zbekiston, Farg‘ona, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz
E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0382-0811

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) asosidagi kiberxavfsizlik texnologiyalarining tibbiy ma’lumotlar himoyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Bugungi kunda tibbiyot sohasida katta hajmdagi shaxsiy va klinik ma’lumotlar elektron shaklda saqlanadi va almashiladi, bu esa ularni kiberhujumlar va ma’lumotlar sizib chiqishidan himoya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Maqolada SI tizimlarining real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, tahdidlarni aniqlash va xavfsizlikni avtomatlashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, SI va Machine Learning algoritmlarining tibbiy ma’lumotlarni himoya qilishdagi qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va mavjud muammolari muhokama etiladi. Maqola yakunida tibbiy tashkilotlarda kiberxavfsizlikni mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, Machine Learning, tahdidlarni aniqlash, avtomatlashtirish, neyron tarmoqlar, kiberhujum, tarmoq xavfsizligi.

Kirish: Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari barcha sohalarda, jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida ham jadal rivojlanmoqda. Tibbiyot sohasida elektron sog‘liqni saqlash (e-Health), telemeditsina, elektron tibbiy kartalar (EMR/EHR), genetik ma’lumotlar bazalari va IoT (Internet of Things) texnologiyalari yordamida sog‘liq haqida to‘plangan ma’lumotlar hajmi keskin oshib bormoqda [1, 2, 3]. Ushbu o‘sib borayotgan ma’lumotlar oqimi tibbiyot sohasida xizmatlar sifatini oshirish, individual tashxis va davolash strategiyalarini rivojlantirish imkonini berayotgan bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan katta tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, bemorlarning shaxsiy ma’lumotlari, klinik natijalar, genetik ma’lumotlar va moliyaviy ma’lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligi tahdid ostida qolmoqda. Shu bois, sun’iy intellekt (SI) asosidagi kiberxavfsizlik texnologiyalarining tibbiy ma’lumotlarni himoya qilishdagi roli tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Asosiy qism: Axborot xavfsizligi sohasida bugungi kunda hujum yuzasi nihoyatda kengayib, kiberhujumlarning murakkabligi va soni ortib bormoqda [4]. Tibbiyot sohasida bu yanada jiddiyroq, chunki tibbiy ma’lumotlar nafaqat moliyaviy qiymatga ega, balki bemor hayotiga ham bevosita ta’sir qiluvchi ma’lumotlardir. Har qanday ma’lumotlar sizib chiqishi bemorning shaxsiy hayoti va sog‘lig‘i bilan bog‘liq nozik ma’lumotlarning oshkor bo‘lishiga olib keladi, bu esa nafaqat huquqiy, balki axloqiy va ijtimoiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi [5, 6].

Tibbiy ma’lumotlar hajmi va xilma-xilligini hisobga olgan holda, ularni himoya qilish uchun yuz milliardlab o‘zgaruvchan signallarni real vaqt rejimida tahlil qilish zarur bo‘lib, buni inson omiliga tayangan holda amalga oshirish qiyin. Shu nuqtada sun’iy intellektga asoslangan kiberxavfsizlik tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, tahdidlarni tez va aniqlik bilan aniqlash, ularga zudlik bilan javob berish imkonini beradi. Masalan, AI yordamida bemor ma’lumotlari bazasiga g‘ayrioddiy kirish urinishlarini, noma’lum

manbadan kelgan so‘rovlarni yoki ruxsatsiz ma’lumotlar ko‘chirish harakatlarini darhol aniqlash va to‘xtatish mumkin [7, 8, 9].

Sun’iy intellekt algoritmlarining iterativ va dinamik xususiyati tufayli ular doimiy ravishda yangi ma’lumotlardan “o‘rganadi” va borgan sari ko‘proq avtonom qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lib boradi. Masalan, sog‘liqni saqlash tarmoqlarida kiberhujumlarning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan, AI tizimlari o‘z algoritmlarini moslashtiradi va yangi tahdidlarni tanib olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa an’anaviy statik xavfsizlik tizimlariga nisbatan sezilarli ustunlikdir.

AI texnologiyalarining tibbiy ma’lumotlar himoyasidagi amaliy imkoniyatlari:

1. Xavf prognozi va zaifliklarni aniqlash — Sun’iy intellekt tibbiy IT infratuzilmasidagi barcha aktivlar inventarizatsiyasini yuritadi, ehtimoliy zaifliklarni aniqlaydi va hujum ehtimolini bashorat qiladi. Masalan, AI tizimi bemorlarning elektron kartalarini saqlaydigan serverlarda xavfsizlik nuqsonlarini aniqlab, ularni bartaraf etish uchun resurslarni qanday taqsimlash bo‘yicha tavsiyalar beradi [10].

2. Avtomatlashtirilgan tahdidlarni aniqlash va javob berish — Machine Learning va Deep Learning yordamida AI tizimlari real vaqt rejimida tarmoqdagi zararli faoliyatni aniqlab, zarur xavfsizlik choralari ko‘rishni avtomatik tarzda boshlaydi. Masalan, nomaqbul dasturlarni aniqlash va izolyatsiya qilish, ma’lumotlar oqimlarini cheklash va tizim foydalanuvchilari faoliyatini blokirovka qilish.

3. Soxta foydalanuvchilar va ruxsatsiz kirishlarni aniqlash — Neyron tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan SI tizimlari foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qiladi va odatdagidan chetga chiqqan faoliyatni aniqlaydi. Bu esa ichki tahdidlarni, ya’ni tashkilot ichidagi xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan ruxsatsiz kirishlarni aniqlash imkonini beradi [11].

4. Ma’lumotlar shifrlash va maxfiylikni ta’minlash — AI yordamida ilg‘or shifrlash algoritmlarini qo‘llash orqali bemor ma’lumotlari himoyasi kuchaytiriladi. Masalan, AI yordamida shifrlash kalitlarini dinamik ravishda yangilash va ma’lumotlarga faqat zarur hollarda kirish huquqini taqdim etish mexanizmlari ishlab chiqiladi [12].

AI texnologiyalarining asosiy turlari:

Yordamchi razvedka — Hozirgi paytda keng qo‘llanilib, tibbiyot xodimlariga ma’lumotlarni tezroq tahlil qilish va aniqroq qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Masalan, kasalliklarni tashxislashda qo‘llaniladigan AI yordamchi tizimlari [13].

Kengaytirilgan razvedka — Tibbiyotda murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish va genetik ma’lumotlarga asoslangan individual terapiya rejalari tuzishda qo‘llaniladi [14].

Avtonom intellekt — Kelajakda tibbiyotda to‘liq avtonom AI tizimlari paydo bo‘lib, masalan, robotlashtirilgan jarrohlik amaliyotlarini mustaqil bajarish va bemor monitoringini to‘liq avtomatlashtirish imkonini beradi [13].

Amaliy misollar:

Google 18 yildan buyon Gmail’da spam filtrlashda Machine Learning’dan foydalanib kelmoqda. Xuddi shu texnologiyalar bugungi kunda tibbiyot sohasida ham, masalan, soxta retseptlar, yolg‘on tibbiy sug‘urta da’volari va tibbiy billingdagi firibgarliklarni aniqlashda qo‘llanmoqda. IBM Watson Health, Microsoft Cloud for Healthcare va Philips AI Platform kabi yirik kompaniyalar tibbiy ma’lumotlarni himoya qilish va tahlil qilishda AI texnologiyalarini faol joriy qilmoqda [15].

Xulosa: Tibbiy ma’lumotlar bugungi raqamli davrda juda qimmatli aktiv hisoblanadi. Ularning doimiy ravishda oshib borayotgan hajmi va muhimligi kiberxavfsizlik choralarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik texnologiyalari tibbiy ma’lumotlarni himoya qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. SI tizimlari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va aniqlik bilan tahlil qilish, rivojlanayotgan kiber tahdidlarni aniqlash va ularga tezkor javob berish imkonini beradi. Xususan, Machine Learning, neyron tarmoqlar va chuqur o‘rganish algoritmlari orqali tibbiy ma’lumotlar bazasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan anomal faoliyatni aniqlash va xavfsizlik choralarini avtomatlashtirish mumkin. Tibbiy muassasalarda SI asosidagi xavfsizlik tizimlarini joriy etish orqali malakali mutaxassislar yetishmasligi, katta hujum maydonlari va yuzlab hujum vektorlariga qarshi samarali kurashish imkoni paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, SI tizimlarini to‘g‘ri joriy etish va boshqarish uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, mutaxassislarni tayyorlash va ma’lumotlar maxfiyligini

ta’minlash bo‘yicha qat’iy siyosatlar ishlab chiqilishi zarur. Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlaridan oqilona va mas’uliyatli foydalanish tibbiy ma’lumotlarning kiberxavfsizligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Janabi, S., & Al-Shourbaji, I. (2016). A study of cyber security awareness in educational environment in the Middle East. Journal of Information & Knowledge Management, 15(1), 1650008.
2. Rajput, A. Q., Li, Q., & Zhang, H. (2020). The Role of Artificial Intelligence in Enhancing Cybersecurity for Health Information Systems. IEEE Access, 8, 105152–105164.
3. Shinde, S., & Wagh, S. (2018). Cybersecurity and Artificial Intelligence: A Modern Approach. International Journal of Computer Applications, 179(9), 15–19.
4. Topol, E. (2019). High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence. Nature Medicine, 25(1), 44–56.
5. Dwivedi, A. D., Srivastava, G., Dhar, S., & Singh, R. (2019). A decentralized privacy-preserving healthcare blockchain for IoT. Sensors, 19(2), 326.
6. Davenport, T., & Kalakota, R. (2019). The potential for artificial intelligence in healthcare. Future Healthcare Journal, 6(2), 94–98.
7. Chenthara, S., Ahmed, K., Wang, H., Whittaker, F., & Chen, Z. (2019). Security and privacy-preserving challenges of e-health solutions in cloud computing. IEEE Access, 7, 74361–74382.
8. Rahman, M. A., Hossain, M. S., & Alhamid, M. F. (2020). Secure and privacy-preserving healthcare data sharing in cloud computing using blockchain. IEEE Access, 8, 134363–134372.
9. Sarker, I. H., Kayes, A. S. M., & Watters, P. (2020). Cybersecurity data science: an overview from machine learning perspective. Journal of Big Data, 7(1), 1–29.
10. Ahmed, M., Mahmood, A. N., & Hu, J. (2016). A survey of network anomaly detection techniques. Journal of Network and Computer Applications, 60, 19–31.
11. Shukla, N., & Pandey, D. (2020). Cybersecurity in Healthcare: A Systematic Literature Review of Modern Threats and Solutions. Journal of Healthcare Engineering, 2020, 1–15.
12. Amin, R., Hossain, M. S., & Alsulaiman, M. (2020). Blockchain-based secure data management for healthcare systems: Issues and challenges. IEEE Access, 8, 216718–216731.
13. He, D., Zeadally, S., & Kumar, N. (2018). Anonymous authentication for healthcare applications: Issues and solutions. Computer Networks, 149, 147–167.
14. Yin, X., & Wang, X. (2018). Medical data privacy protection based on blockchain and machine learning. Journal of Medical Systems, 42(8), 1–8.
15. Zhang, R., & Liu, L. (2010). Security models and requirements for healthcare application clouds. Proceedings of the 2010 IEEE 3rd International Conference on Cloud Computing, 268–275.

KIBERXAVFSIZLIKDA SUN’IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI VA PEDAGOGIK QO‘LLANILISHI

Ergashev Dostonbek Pratovich
Andijon davlat texnika instituti, dostonpratovich@gmSIl.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi o‘rni, uni zamonaviy axborot tizimlarida qo‘llash imkoniyatlari hamda ta’lim tizimiga integratsiyalash metodik asoslari atroflicha tahlil qilinadi. SI vositalarining tahdidlarni aniqlash, oldini olish, zararli dasturlarni tasniflash va kiberforensika yo‘nalishlaridagi afzalliklari misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, SI texnologiyalarining ta’lim sohasiga joriy etilishi va shu orqali yuqori malakali kiberxavfsizlik mutaxassislarini tayyorlash zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, mashinaviy o‘rganish, zararli dasturlar, ta’lim, kiberforensika, raqamli tahdid

Kirish. XXI asr – axborot texnologiyalari asri sifatida insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida mutlaqo yangi sahifani ochmoqda. Global raqamlashtirish, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va Internet narsalar (IoT) kabi ilg‘or texnologik yechimlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning funksional imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki insonning turmush tarzini, mehnat faoliyatini, hatto tafakkur shaklini ham tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonining intensiv sur’atlari bilan bog‘liq holda axborot xavfsizligi muammosi jahon miqyosida eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Dastlab lokal darajadagi viruslar va zararli dasturlar orqali amalga oshirilgan hujumlar bugungi kunda global ijtimoiy tarmoqlar, elektron davlat tizimlari, moliyaviy institutlar va hatto harbiy sanoat komplekslariga qaratilgan murakkab kiberhujumlar shaklini olmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositalaridan noto‘g‘ri yoki zararli maqsadlarda foydalanilishi natijasida yuzaga keladigan xavflar insoniyatning umumiy axborot xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Jahon banki, Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU), Yevropa Ittifoqi va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning hisobotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda kiberjinoyatlar natijasida yetkazilgan iqtisodiy zarar hajmi trillion dollarlab miqdorni tashkil qilmoqda. Kiberxavfsizlik tahdidlarining bunday keskin o‘sishi mavjud an’anaviy himoya vositalarining imkoniyatlari chegaralanganligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, global miqyosda sun’iy intellekt texnologiyalarini axborot xavfsizligini ta’minlash tizimlariga integratsiyalash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya, transport va sanoat kabi sohalarda axborot tizimlariga asoslangan jarayonlarning keskin murakkablashuvi, ularning turli xatolik va zSIfliklarga duch kelish ehtimolini oshirmoqda. Bu esa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar axborot oqimini avtomatik monitoring qilish, anomal xatti-harakatlarni aniqlash, foydalanuvchi faoliyatini tahlil qilish, kiberhujumlarni prognozlash va real vaqt rejimida javob qaytarish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar nafaqat reaktiv himoya, balki proaktiv xavfsizlik strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi[1].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sun’iy intellektni kiberxavfsizlik sohasiga tatbiq etish zamonaviy axborot muhitida yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarning oldini olishda, tahdidlarni aniqlash va hujumlarni neytrallashtirishda, axborot resurslarini himoya qilishda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bu texnologiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali sohaga malakali mutaxassislarni yetishtirish, ularning real tahdidlarga qarshi turg‘unlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bois, ushbu maqolada sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi o‘rni va u orqali yaratilayotgan yangi texnologik yondashuvlar chuqur ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt asosida yaratilgan algoritmlar orqali foydalanuvchilar harakatlarini monitoring qilish, kutilmagan anomal holatlarni aniqlash, zararli dasturlarni avtomatik tasniflash va tarmoqdagi axborot oqimini real vaqtda tahlil qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ayniqsa, mashinaviy o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) usullari kiberxavfsizlikni mustahkamlashda samarali yechim sifatida qaralayapti. Bu jarayonlarda katta hajmdagi log fayllar, paketlar va trafik ma’lumotlarini avtomatik tarzda tahlil qilish orqali xavf darajasi aniqlanadi, muhim resurslar himoyasi kafolatlanadi.

Kiberxavfsizlik sohasidagi eng muhim muammolardan biri — xavfli hodisalar (breach), zararli dasturlar (malware), fishing hujumlari va xizmatdan foydalanishni to‘xtatish (DDoS) kabi tahdidlarni aniq, tez va samarali aniqlashdir. An’anaviy antivirus tizimlari va xavfsizlik devorlari (firewall) ko‘pincha statik metodlarga, ya’ni oldindan belgilangan qoidalar va imzolarga (signatures) tayanadi. Bu usullar ilgari ma’lum bo‘lgan tahdidlarni aniqlashda muvaffaqiyatli bo‘lsa-da, yangi yoki ilgari uchramagan tahdidlar, masalan, zero-day hujumlari yoki murakkab APT (Advanced Persistent Threat) hujumlariga qarshi samarasiz bo‘lib qolishi mumkin. Buning sababi, zamonaviy kiberhujumlar doimiy ravishda evolyutsiyalashadi, shifrlangan kanallar orqali amalga oshiriladi yoki tashqi ko‘rinishini o‘zgartirib, an’anaviy tizimlarni aldashga qodir[2].

Sun’iy intellekt (SI) va mashinaviy o‘qitish (ML) texnologiyalari esa bu muammoni hal qilishda inqilobiy yondashuvni taklif etadi. SI-ga asoslangan xavfsizlik tizimlari statik qoidalarga tayanmaydi;

aksincha, ular katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qiladi, anomaliyalarni aniqlaydi va xatti-harakatlar naqshlarini (behavioral patterns) o‘rganadi. Masalan, SI tarmoq trafigini real vaqt rejimida kuzatib, odatiy bo‘lmagan faollikni (masalan, g‘ayritabiiy ma’lumot oqimi yoki kirish urinishlari) aniqlay oladi. Shuningdek, u zararli dasturlarni ularning kod tuzilishi yoki imzosiga emas, balki xatti-harakatlariga (masalan, fayllarni shifrlash yoki tizim resurslarini haddan tashqari ishlatish) asoslanib aniqlaydi.

Bundan tashqari, SI fishing hujumlarini aniqlashda ham samarali. U elektron pochta xabarlarining mazmunini, jo‘natuvchi ma’lumotlarini va havolalarni tahlil qilib, foydalanuvchi uchun xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan xabarlarni aniqlay oladi. DDoS hujumlariga qarshi esa SI tarmoq trafigining anomaliyalarini tezkor aniqlab, avtomatik ravishda himoya choralarini qo‘llaydi, masalan, zararli IP manzillarni bloklaydi yoki trafigni qayta yo‘naltiradi.

SI-ning eng katta afzalliklaridan biri uning doimiy o‘rganish qobiliyatidir. U yangi tahdidlar paydo bo‘lishi bilan o‘z algoritmlarini yangilaydi va o‘zini optimallashtiradi. Masalan, global miqyosda aniqlangan yangi zararli dastur haqidagi ma’lumotlar SI tizimiga integratsiyalashib, boshqa tizimlarni ham himoya qiladi. Shu bilan birga, SI inson omiliga bog‘liqlikni kamaytiradi — an’anaviy tizimlarda xavfsizlik mutaxassislari har bir yangi tahdidni qo‘lda tahlil qilishi talab qilinsa, SI bu jarayonni avtomatlashtiradi va tezkor javob beradi[3].

Biroq, SI-ga asoslangan yechimlar ham o‘z cheklovlariga ega. Masalan, noto‘g‘ri sozlamalar yoki noto‘g‘ri o‘qitilgan modellar noto‘g‘ri ijobiy (false positive) yoki salbiy (false negative) natijalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kiberjinoyatchilar ham SI texnologiyalaridan foydalanib, yanada murakkab hujumlarni amalga oshirishi mumkin, masalan, SI tomonidan boshqariladigan adaptiv zararli dasturlar yaratishi mumkin. Shu sababli, SI-ni kiberxavfsizlikda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun doimiy monitoring, sifatli ma’lumotlar va malakali mutaxassislarning ishtiroki zarur.Misol uchun, anomaliyani aniqlash tizimlari mashinaviy o‘rganish asosida ishlaydi. Ular foydalanuvchilarning odatiy faoliyatini o‘rganib boradi va har qanday chetga chiqishni xavfli holat sifatida belgilaydi. Bu turdagi tizimlar kiberxavfsizlikda tarmoq monitoringi, kredit karta firibgarligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi kabi ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyasi yordamida xat yozishmalardagi fishing linklar yoki zararli faylga ulanma beruvchi xabarlar avtomatik aniqlanadi.

Sun’iy intellekt faqat tahdidlarni aniqlash bilan cheklanmaydi. U kiberhujumlar yuz berganidan so‘ng forensika jarayonlarida — ya’ni tahlil va hujjatlashtirish bosqichlarida ham faol ishtirok etadi. Hodisa yuz bergach, tizim avtomatik tarzda log fayllarni yig‘ib, tahlil qiladi, qayerdan hujum bo‘lgani, qanday ma’lumotlar tahdid ostida bo‘lganini aniqlaydi va himoya strategiyasini ishlab chiqadi[4].

Mazkur texnologiyalarni samarali joriy etish uchun kiberxavfsizlik mutaxassislarining SI sohasidagi bilimlarini oshirish ham muhim. Shu sababli sun’iy intellekt va kiberxavfsizlikni integratsiyalashga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasi ishlab chiqilishi zarur. Bu esa yangi avlod axborot texnologiyalari mutaxassislarini tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Interfaol laboratoriyalar, virtual sinov maydonchalari, SI-podkastlar, gamifikatsiyalangan trening modullari orqali bu yo‘nalishda yangi yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab bermoqda. AI-ning katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, anomaliyalarni aniqlash va xatti-harakat naqshlarini o‘rganish qobiliyati tufayli kiberhujumlarning oldini olish, real vaqtda tahdidlarni aniqlash va ularga tezkor javob qaytarish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. An’anaviy xavfsizlik tizimlari statik qoidalar va imzolarga tayanib, yangi yoki ilgari uchramagan tahdidlar (masalan, zero-day hujumlari) oldida ojiz qolsa, AI doimiy o‘rganish va o‘zini optimallashtirish orqali bu bo‘shliqni to‘ldiradi. U zararli dasturlarni, fishing hujumlarini, DDoS kabi xavflarni aniqlashda nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki tizimlarni avtomatlashtirish orqali inson omiliga bog‘liqlikni kamaytiradi.

Biroq, AI-ni kiberxavfsizlikda to‘liq va samarali joriy etish uchun bir qator shartlar bajarilishi zarur. Birinchidan, kadrlar salohiyati muhim ahamiyatga ega — AI va kiberxavfsizlik bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar yetishib chiqishi lozim. Bu esa ta’lim tizimida sun’iy intellekt va kiberxavfsizlikni integratsiyalashgan holda o‘rgatuvchi zamonaviy o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ikkinchidan, axborot infratuzilmasining rivojlanganligi zarur. AI tizimlari katta hajmdagi

ma’lumotlarni tahlil qilish uchun yuqori ishlov berish quvvatiga ega serverlar, xavfsiz bulutli platformalar va ishonchli tarmoq infratuzilmasiga muhtoj. Uchinchidan, normativ-huquqiy baza ham zamon talablariga mos ravishda takomillashishi kerak. AI tizimlarining foydalanilishi, ma’lumotlar maxfiyligi, axloqiy masalalar va kiberxavfsizlik standartlari bo‘yicha aniq qonuniy me’yorlar ishlab chiqilishi va joriy etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanovich Q. M. Kibersarhadlardagi zamonaviy tahdidlar, kiberxavfsizlik va kibergigiena //«Надежда нации» международного научно-практического конкурс. – 2024. – Т. 1. – №. 1.
2. Ozod o‘gli O. A. et al. Kiberxavfsizlik: muammolar va zamonaviy yechimlar //Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 225-227.
3. Jalolov T. S. Sun’iy intellektni kiberxavfsizlik tizimlarida qo ‘llash: tahdidlarni erta aniqlash usullari //Modern digital technologies in education: problems and prospects. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 54-59.
4. Farxodjon o‘g‘li T. S. Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik: ilm-fan rivojlanishida raqamli inqilob va yangi imkoniyatlar //Журнал научных исследований и их решений. – 2025. – Т. 4. – №. 02. – С. 458-467.

SHAHAR TRANSPORTINI REAL VAQT REJIMIDA BASHORAT QILISH UCHUN CHEKKA HISOBLASH ASOSIDAGI HIBRID CHUQUR O‘RGANISH MODELI

Bekzod Qurbonov Nurbek o’g’li
bekzodqurbonov1399@gmail.com
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ATDT kafedrasi stajyor-o’qituvchisi

Annotatsiya: Aqlli shaharlar konsepsiyasi transportni samarali boshqarishni talab qiladi, ayniqsa avtomobillar sonining keskin oshishi fonida. Mazkur maqolada chekka hisoblash (edge computing) bilan birgalikda ishlovchi Hibrid Konvolyutsion Neyron Tarmoq (HCNN) asosida ishlab chiqilgan transportni oldindan bashorat qilish tizimi taklif etiladi. HCNN modeli Konvolyutsion Neyron Tarmoq (CNN) va Uzun-Qisqa Xotira (LSTM) tarmoqlari kuchli tomonlarini birlashtiradi. Natijalar HCNN 97% aniqlik bilan bashorat qilishga va kechikishni 50% gacha kamaytirishga erishganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Aqlli shahar, transportni boshqarish, chuqur o‘rganish, HCNN, CNN-LSTM, edge computing

Kirish: Bugungi kunda aqlli shahar texnologiyasi ko‘plab davlatlar tomonidan joriy qilinayotgan ilg‘or texnologiyalardan biridir. Aqlli shahar konsepsiyasi tarkibiga aqlli transport, aqlli tibbiyot va boshqa sohalar kiradi. Aqlli shahar ilovalarini amalga oshirishda mashinali o‘rganish (ML) va chuqur o‘rganish (DL) uslublarining rivojlanishi katta yordam beradi. Aqlli shaharlarda har bir joy avtomatik tarzda, tashqi manbalarga qaramasdan, mustaqil ishlashi lozim. Bunday shaharlarda ko‘plab aqlli qurilmalar — sensorlar, kuzatuv kameralar (CCTV), aqlli avtomobillar va boshqalar mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, kichik sensorlar tibbiyot, avtomatlashtirish va kuzatuv sohalarida katta ustunliklar namoyon qilgan. Aqlli shaharlarning asosiy arxitekturasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Rasm 1. Tizim arxitekturasiz



2. Avvalgi ishlanmalar tahlili

So‘nggi yillarda transport oqimini bashorat qilish bo‘yicha bir qator mashinaviy va chuqur o‘rganish asosidagi yondashuvlar taklif etilgan. An’anaviy ML algoritmlari (Decision Tree, SVM, Random Forest) kichik ma’lumotlarda samarali ishlasa-da, real vaqt rejimidagi katta hajmdagi trafik ma’lumotlarini qayta ishlashda kechikish va aniqlik muammolariga duch kelgan.

Shu bilan birga, Elman neyron tarmog‘iga asoslangan OWENN, GAN-LSTM kombinatsiyasi, CNN-LSTM modellari, shuningdek, Apache Kafka va WSO2 Siddhi asosida real vaqt oqimlarida ishlov beruvchi tizimlar sinovdan o‘tkazilgan. Ayniqsa, attention mexanizmi bilan boyitilgan CNN-LSTM modellar geografik va vaqt o‘zgaruvchanligini hisobga olib, aniqlikni oshirishga yordam bergan. Biroq mavjud tizimlarda quyidagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda: yuqori kechikishlar, redundant ma’lumotlar, tarmoq bosimi va real vaqtli aniqlikning yetishmasligi. Shu sababli, bu maqolada aynan shu muammolarni hal qilishga qaratilgan chekka hisoblashga asoslangan hibrid CNN-LSTM (HCNN) modeli taklif etiladi.

3. Taklif etilgan tizim modeli

Department of Imformation system and technology Tashkent State University of Economics, 100066, Tashkent, Islam Karimov street, 49.
husniyarustamovna@gmail.com
Berdiboyev Dilshodbek Qadamboy o'g'li
Department of Imformation system and technology Tashkent State University of Economics, 100066, Tashkent, Islam Karimov street, 49.
dilshodbekberdiboyev@gmail.com

Annotation. The digital economy is growing rapidly, especially in developing countries. However, the meaning and size of the digital economy are limited and varied. The purpose of this paper is to review the current state of knowledge in order to develop a definition of the digital economy and an estimate of its size. The paper argues that there are three relevant areas. At the core of the digital economy is the "digital sector": the IT/ICT sector that produces essential digital products and services. The true "digital economy" – defined as "the part of economic output that is derived entirely or predominantly from digital technologies and whose business models are based on digital goods or services" – consists of the digital sector and emerging digital and platform services.

Keywords: Cybersecurity; digital economy; trends.

Introduction

The digital economy is a young phenomenon and is becoming increasingly important, with double-digit growth expected annually around the world, with particularly strong growth in the Global South (World Economic Forum, 2025). The driving forces behind this development are economic and political, but of course they are also rooted in technological innovation (which itself is shaped by wider forces). In the 1990s, economic change was largely associated with the advent of the Internet, which remains fundamental to the growth of the digital economy. However, in the 2000s and 2020s, a range of new information and communication technologies (ICTs) spread and supported economic change. This includes the embedding of networked sensors into an increasing number of objects (the Internet of Things), new devices (mobile phones, smartphones, tablets, netbooks, laptops, 3D printers), new digital models (cloud computing, digital platforms, digital services); growing intensity of data usage through spread of big data, data analytics and algorithmic decision-making; and new automation and robotics technologies (OECD 2025).

That impact can be understood as a disruption of existing economic processes, systems and sectors, re-shaping existing consumer behaviour, business interactions and business models (Dahlman et al. 2023). It can also be understood as the emergence of new economic processes, systems and sectors. Within individual sectors, we see this readily reflected in dominance of new firms: Uber (world's largest "taxi" company), Facebook (world's most popular media company), Alibaba (world's biggest and most valuable retailer) and Airbnb (world's largest "hotelier"). And new business models come to dominate the discourse even if not yet the economic realities: the notion of "Industry 4.0" (see Figure 1), for example.

One model that emerges from a mix of discourse and reality is the notion of the digital economy, argued by some to be the leading driver of economic growth and to lead to "life-changing economic upheavals" and "profound regional implications on businesses, jobs and people" (Brynjolfsson & Kahin 2000, Bahl 2023). For developing countries, there is significant promise that the digital economy will boost economic growth, raise productivity of capital and labour, lower transaction costs and facilitate access to global markets (Dahlman et al. 2023). These are not just empty words: the digital economy is growing 15-25% per year in emerging markets (WEF 2025). There are specific digital dividends already observed that may counter-act economic inequalities: above-local-average wages for digital labour in the global South potentially leading to global convergence of incomes (Beerepoot & Lambregts 2025);

new and unique local markets for digital start-ups within developing countries (Quinones et al. 2025); and digital platforms in the global South providing an escape route from ineffective, corrupt market and labour institutions (Lehdonvirta 2023).

In today's reality, digital financial assets have become as valuable or even more valuable than physical assets, protecting these digital assets - from customer data to strategic financial information - is a colossal task that requires a multifaceted approach. Financial institutions must do everything to ensure that their cybersecurity measures are reliable, scalable, and able to withstand the ever-changing landscape of cyber threats and cyber attacks.

literature review

The growth of the digital economy is associated with the growth of new technologies and the expansion of the internet. Cyber threats, such as data theft, hacking, and ransomware attacks, threaten the stability of the digital economy. The article "cybersecurity and economic growth" by m. A. Albrecht and s. R. Zubair provides detailed information on the threats and their economic impact. Cybersecurity strategies play a key role in ensuring the stability of the digital economy. In "effective cybersecurity policies for the digital economy", k. R. Johnson and l. M. Smith review the key principles needed to develop and implement effective cybersecurity policies. User trust is essential in the digital economy. In his article "trust in the digital economy: the role of cybersecurity", c. D. Lee analyzes how users perceive security measures and their impact on the digital economy. Cybersecurity issues are often overlooked in the process of digital transformation. E. F. Brown shows how cybersecurity can be effectively applied in the process of digital transformation in his work "digital transformation and cybersecurity challenges". Cyber threats can lead to financial losses. T. H. Roberts analyzes the financial losses caused by cyber threats and strategies to combat them in his article "the financial impact of cyber incidents". International cooperation and regulatory frameworks for cybersecurity are important for the development of the digital economy. In their work "international cooperation in cybersecurity", a. M. Green and b. T. White analyze the role of international cooperation and its impact on the digital economy.Cyber threats and cyber security strategies play an important role in the development of the digital economy. This literature review will help to expand and deepen the understanding of the topic. Focusing on cyber security issues will help to ensure the sustainable growth of the digital economy.

Problem Formulation

Building from the prior analysis, we can identify three elements relating to conceptualisation of the digital economy. All definitions give some acknowledgement that digital technologies of some kind are the foundation for the digital economy. But only a few, in their explanations, identify the production of these technologies and related foundational services as part of – indeed as the core of – the digital economy.

None of the definitions restricts itself solely to the digital sector but always adds some component of the “ICT consumption/application” category noted in Figure 2. Thus, the digital economy must be defined as being broader than simply the digital sector. At their broadest, overall definitions of the digital economy cover all digitally-enabled economic activity. But this raises a problem: “Increasingly the digital economy has become intertwined with the traditional economy making differences between them less clear” (OECD 2023); “The digital economy is increasingly interwoven with the physical or offline economy making it more and more difficult to clearly delineate the digital economy” (European Parliament 2025). Not only is there a problem of clarity, there is also a problem of scope: as more and more services, manufacturing and even primary production activities rely on ICTs, the digital economy under these definitions increasingly becomes just “the economy”.

To partly skirt this problem, we will not refer to this broad scope – covering all economic activity based on digital technologies – as the digital economy but, instead, as the digitalised economy. This arises from the differentiation between “digitisation”: conversion of data from analogue to digital form; and “digitalisation”: application of digitisation to organisational and social processes (including economic activity) (Brennen & Kreiss 2024). This broad-scope definition therefore covers e-business (ICT-enabled business transactions) and its sub-set, e-commerce (ICT-enabled external business transactions), algorithmic decision-making in business, use of digitally-automated technologies in manufacturing and agriculture including Industry 4.0 and precision agriculture, etc.

Based on this and the central notion of extensivity, we therefore define the digital economy as "that part of economic output derived solely or primarily from digital technologies with a business model based on digital goods or services". The definition has a blurred boundary but it is also flexible enough to incorporate digital and digital business model innovation over time. As Figure 3 summarises, it encompasses both the core digital sector and also the broader range of extensive digital activity, without claiming that all digitised activity is part of the digital economy.

Analysing the digital economy definitions in Table 1, one can identify a number of different perspectives reflected:

Alongside these direct components of definitions, we can identify:

Solution of the Problem

Given the increase in digitally-enabled economic activity and hence its growing economic importance, measuring the digital economy is an essential process. But it is a flawed process:

Good policy making, tax policy and the allocation of resources require high-quality data. This does not exist at present in the digital economy, and policy making cannot therefore be reliably expected to support as much as possible the digital economy" (House of Commons 2023)

Finally, there are much higher estimates which encompass the digitalised economy. For example, those suggesting the value of e-commerce in 2023 was US$16.2tn; just over 21% of global GDP (UNCTAD 2025). And those suggesting the size of the "digital economy" (but defined as per the digitalised economy above) represented US$19tn or 22.5% of the global economy in 2025 (Knickrehm et al. 2023).

Results and Discussion

Notwithstanding the lack of direct digital economy measures, one can draw other conclusions about the digital economy from the available data:

i. The digital economy is unevenly distributed. There is uneven distribution between global North and global South. For example, McKinsey figures estimate the Internet economy in 2020 contributing 3.4% of developed country GDP but only 1.9% of "aspiring country"10 GDP, with the former contributing 78% and the latter 22% of the overall Internet economy (Manyika & Roxburgh 2021, Gnanasambandam et al. 2022). Figure 4 shows the data for 2022, with the GDP share of the Internet economy in Africa well below that of other country groupings at just 1.1% (Manyika et al. 2023). Likewise, three-quarters of global e-commerce was accounted for by the US, UK, Japan and China (UNCTAD 2025).

There is also uneven inter-regional distribution. For example, the US dominates the global North's digital (IT/ICT) sector, taking around one quarter of the global total (ITA 2022). Within the US, this contributes 7.1% of GDP11 which is well above the OECD average (ibid.). The same applies in the global South. Using McKinsey's figures (du Rausas et al. 2021), two-thirds of Internet economy GDP in aspiring countries came from the four BRICs (see also Figure 4). Digital economy leaders include India (with more than 7% of GDP estimated to come from the IT sector alone (Nasscom 2023)) and the Philippines (with more than 7% of GDP estimated to come from the BPO sector alone (Chang et al. 2023)).

Labour productivity in the digital economy is generally higher than that in the overall economy. For example, labour productivity was US$90,000 per head in the general economies of the OECD, and more than US$160,000 per head in the ICT sector (OECD 2024), which fits roughly with the idea of nearly 4% of employment but more like 6% contribution to GDP/value added. The specific ratio will depend on the digital economy sub-sector: productivity levels were 160% above those of the total economy in telecommunications services but only 21% higher in IT services (ibid.)13. The ratio may be higher in developing countries: for example, in India average labour productivity per worker in the mid-2020s was around US$10,000 but in the software industry was more than US$37,000 (Heeks 2025).

Conclusion

Economic and political imperatives are combining with technological innovation to spur growth of the digital economy, with growth levels particularly high in developing countries. This growth must be strategised by the private sector, guided by government, and analysed by civil society and academe.

Yet the foundations for these actions are missing with definitions, concepts and measures of the digital economy currently in rather a mess.

Measuring the digital economy faces challenges of fuzzy boundaries, poor data quality, pricing problems, and invisibility of much digital activity. Acknowledging many caveats, we see the digital economy as defined here probably making up around 5% of global GDP and 3% of global employment. Overall measures hide significant unevenness: the global North has had the lion’s share of the digital economy to date, but growth rates are fastest in the global South. Potential growth rates in the global South – if barriers could be overcome – are even higher. Separate investigation will be required of opportunities, barriers, and good-practice interventions that are required to realise this potential of the digital economy to deliver significant development impacts.

References

1. B.Khuzhayorov, Filtration of Heterogeneous Liquids in Porous Media, Fan, Tashkent, Uzbekistan, 2020. (In Russian).
2. B.Khuzhayorov, J.M.Makhmudov, B.M.Fayziev, T.I.Begmatov, Journal of Applied and Industrial Mathematics, Vol. 14, No.3, 2020, pp .513–523. doi:10.33048/SIBJIM.2020.23.311
3. B. Fayziev, G. Ibragimov, B. Khuzhayorov and I. A. Alias, Symmetry. 12(5), 696 (2020). doi:10.3390/sym12050696, doi:10.3390/sym12050696.
4. Z. M. Makhmudov, U. Z. Saidullaev and B. Kh. Khuzhayorov, Fluid Dynamics, 52(2), 299–308 (2022). doi: 10.1134/S0015462817020232. doi: 10.1134/S0015462817020232
5. D.N.Mikhailov, N.I.Ryzhikov, V.V.Shako, *Fluid Dynamics*, Vol. 50, No.5, 2023, pp.691–704.
6. S.A.Boronin ., et.al. Damage to formation surrounding flooding wells: Modelling of suspension filtration with account of particle trapping and mobilization, *J. Phys. Conf. Ser*, Vol. 925, No.1, 2022, pp 012009.
7. V.Gitis , I.Rubinstein ,M.Livshits, M.Ziskind , *Chemical Engeneering Journal*, Vol. 163, No.1, 2022, pp 78–85.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KIBERXAVFSIZLIKNING O‘RNI: RIVOJLANISH PERSPEKTİVASI

Salimova Husniya Rustamovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Axborotlashtirish tizimi va texnologiyalari” kafedrasi , 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. husniyarustamovna@gmail.com
Berdiboyev Dilshodbek Qadamboy o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Informatsion tizim va texnologiyalar” kafedrasi , 100066, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. dilshodbekberdiboyev@gmail.com

ANNOTATSIYA. O‘zgaruvchan iqtisodiyot bir qator o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, jumladan raqamlashtirish. 21-asr iqtisodiyoti tashlab bo‘lmaydigan raqamli texnologiyalar g‘ildiraklarida harakatlanishi kerak. Bu raqamli makonda muhim ma’lumotlarni haqiqiy kiberhujumlar va kiberfiribgarliklarning ortib borayotgan soni bilan himoya qilishni talab qiladi. Iqtisodiyot har qanday jamiyatning tayanchi bo‘lib qoladi va uning rivojlanish darajasini belgilaydi, bu institutda har qanday murosa shakli uning turli tashkilotlari yoki bo‘linmalari uchun halokatni anglatadi. Har qanday sohada rivojlanishning kaliti bo'lgan muhim ma’lumotlarni himoya qilish kerak. Shu sababli, maqolada, ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kibermakon xavfsizligini ta'minlash muhimligi muhokama qilinadi. Ba’zi umumiy kiberxavfsizlik tahdidlariga quyidagilar kiradi: axborot tizimlariga hujum qiluvchi zararli dasturlar, ma’lumotlarni o'g'irlash va kibermakondagi firibgarlik. Kompaniyalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar va hukumatlar o‘zlarining muhim ma’lumotlari hamda mijozlari va mijozlari xavfsizligiga tahdidlarni oldindan bilishlari zarur; axborot tizimlarining yaxlitligini ta’minlaydigan va tizimning buzilishi xarajatlarini kamaytiradigan xavfsizlik choralari va siyosatlarini qabul qilishda faol bo‘lish.

Kalit so‘zlar: kiberxavfsizlik, raqamlashtirish, iqtisodiyot, taraqqiyot.

Kirish

Kiber-dunyo tobora ortib bormoqda va insoniy tashkilotlarning ko'proq qismlarini o'z ichiga oladi va uning ahamiyati endi taraqqiyot sari cheksiz yurishimiz bilan yashirilmaydi. So'nggi yillarda Internet deyarli har bir tasavvurga ega bo'lgan ko'rsatkichlar bo'yicha ajoyib kengayishni boshdan kechirdi. Internetdan foydalanuvchilarning soni 2000-yilda taxminan 360 million kishidan 2010-yil oxiriga kelib qariyb ikki milliardga yetdi. 1998-yil boshida Internetga 30 milliondan kam xost ulangan edi. 2010 yilning o'rtalariga kelib, bu raqam taxminan 770 millionga ko'tarildi. Ushbu global tarmoq sanoat tomonidan har yili 10 trillion dollarlik Internet tranzaktsiyalariga yordam berish yoki imkon berish uchun baholanadi (Mbanaso & Dandaura , 2015). Iqtisodiyotlar raqamlashtirish orqali raqamli transformatsiyaga intilmoqda va kompaniya operatsiyalari va jarayonlari uzoq muddatli daromad olish va xarajatlarni optimallashtirish umidida yaxshilanmoqda. O'z mijozlariga yaxshiroq xizmat ko'rsatish uchun iqtisodiyotning bir qancha tarmoqlari, xususan, korporativ sektor raqamli texnologiyalarni jadallik bilan o'zlashtirmoqda.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ilgari nashr etilgan ishlardagi tadqiqotlar ushbu maqola uchun asos bo'ldi. Tadqiqotchilar turli xil nashr etilgan manbalardan, jumladan, ilmiy jurnal maqolalari, xalqaro hisobotlar, darsliklar, tegishli sohalardagi so'nggi ishlanmalar va bozorlarda rivojlanayotgan naqshlardan materiallar to'plashdi. Adabiyotlar to'plangandan so'ng, tadqiqotchilar vakillik adabiyotlarini yakunlash uchun qaysilari mavzuga mos kelishini hal qilish uchun ularni ko'rib chiqishdi (Teoh & Mahmood, 2018). Tanlangan adabiyot asarlari maqsad, vakolat, samaradorlik va ishonchlilik kabi mezonlar asosida ularning dolzarbligi uchun baholandi. Kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar o'z vaqtida va doimo rivojlanib borayotganligi sababli, mavzuga oid yozuvlar dolzarb bo'lishi uchun dolzarb bo'lishi kerak. Ushbu tadqiqotda texnologik o'zgarishlarga oid nufuzli maqolalar, jurnal maqolalari va yangiliklar maqolalaridan foydalanilgan. U kiberxavfsizlik sohasidagi eng so'nggi protseduralar va yutuqlarni tahlil qilishni taklif qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rivojlanish kontseptsiyalari xilma-xil va ko'p bo'lib, hodisaning ko'p qirraliligi va turli mualliflar va faylasuflarning rivojlanish nutqi sohasidagi nuqtai nazarlari bilan shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mualliflar rivojlanishni jamiyatning barcha jabhalarida yaxshilanishlarni o'z ichiga olgan doimiy jarayon sifatida qabul qiladilar, bunda asosiy maqsad shaxslarning hayot sifatini oshirishdir. Bu iqtisodiy farovonlik, siyosiy barqarorlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, sud tizimi va hatto diniy jihatlarga taalluqlidir.

Todaro va Smit (2004) Tomas (2010) da keltirilganidek, rivojlanishni butun jamiyat va uning ijtimoiy tizimini yaxshiroq va insonparvarroq hayotga barqaror yuksalish sifatida tavsiflaydi. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik barqaror rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynashi ayon bo'ladi. Iqtisodiyotni yanada rivojlangan davlatlar singari raqamlashtirishni faollashtirar ekanmiz, ayniqsa, kibertahdidlar kuchayib borayotgan sharoitda institutlar ichidagi axborot tizimlari xavfsizligiga ustuvor ahamiyat berish zarur.

adabiyot manbalarini haqida umumiy ma'lumot; Adabiyot sharhi

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi biznesning yangi shakllarini, shuningdek, yangi bozorlarni, mahsulotlarni va xizmatlarni, xususan, asosiy korporativ infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanishga asoslanganlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasi alohida yaratilgan va hozirda foydalanish uchun mavjud bo'lgan turli raqamli texnologiyalarni birlashtirish va bir vaqtda foydalanishga tayanadi. Buni axborot, hisoblash, aloqa va ulanish texnologiyalarining kombinatsiyasi sifatida ham aniqlash mumkin. Hisoblash, saqlash, tarmoqli kengligi va dasturiy ta'minot ilovalarining narxlari/ishlash qobiliyatidagi eksponentsial o'zgarishlar bulutli hisoblash orqali ta'minlanadigan raqamli texnologiyalarning keyingi avlodiga o'tmoqda (spremić va boshq., 2018). Raqamlashtirish va raqamli biznesning yuksalishi yangi imkoniyatlarni jadal rivojlantirish va raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli iqtisodiyot mijozning yotoqxonasidagi qulaylikdan 24/7 foydalanish mumkin bo'lgan xizmatlarning qulayligini taklif etadi. 2017 yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, global biznesning 42% dan ortig'i onlayn tarzda amalga oshirilgan (choi , 2017). Raqamli yechimlar va yangi

texnologiyalardan foydalanish rivojlanishning asosiy muammolarini yengib o‘tishi va barcha biznes xizmatlaridan universal foydalanishga erishishga hissa qo‘shishi mumkin. Korxonalar o'zlarining raqobatbardosh ustunliklarini saqlab qolish va bozorda barqarorligini ta'minlash uchun raqamli inqilobni kuzatib borishlari kerak. Internet va turli xil qurilmalar orqali kirish mumkin bo'lgan katta ma'lumotlar va raqamli tizimlardan foydalanish kompaniyaning maxfiyligini saqlash qobiliyatini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

XULOSA

Yig‘ilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kibertahdid va hujumlar real va yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular axborot tizimlarining yaxlitligini buzishi va shu tariqa jabrlanuvchilar, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarga katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan turli shakllarda keladi. Rivojlanish oqibatlari salbiy bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni yaxshilashga harakat qilmoqda. Kiberxavfsizlik moliyaviy yo'qotishlarga, turg'unlikka, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatning boshqa sohalarida taraqqiyot imkoniyatlarini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Kibermakonda xavfsizlikni o'rnatish murosaga yo'l qo'ymaslik, maxfiy ma'lumotlar va shaxsiy hayot huquqini himoya qilishni ta'minlash, firibgarlikning oldini olish va har qanday joyda mavjud bo'lgan ma'lumotlar tizimlarining umumiy yaxlitligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Shu tariqa, raqamli texnologiyalarni iqtisodiy taraqqiyotga tatbiq etishdagi yutuqlar to‘liq foydalaniladi.

Va nihoyat, tadqiqot muhim infratuzilmalarga tahdidlar va hujumlarni minimallashtirish uchun global xavfsizlikni muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi va shu bilan birga bunday tahdidlarni butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Umuman olganda, tadqiqot tobora raqamli dunyomizda kiberxavfsizlikning muhim ahamiyatini ta'kidlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Akter , S., Uddin, MR, Sajib , S., Li, WJT, Maykl, K. va Xossain, MA (2022). Ma'lumotlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikdan xabardorlik qobiliyatini qayta kontseptsiyalash . Amaliyot tadqiqotlari yilnomalari, 1-26.
2. Ambastha , A., Desai, K., Patil , P., Chavan , O., Dodia , H., Jawar , S. va Parihar , M. (2021, sentyabr). Raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikning ta'siri: BFSIga maxsus havola bilan korporativ sektordan o'rganish. Global iqtisodiy inqiloblar bo'yicha xalqaro konferentsiyada (543-552-betlar). Springer, Cham.
3. C. (2018 yil, 21 fevral). 2025-yilga borib kiberjinoyat dunyoga har yili 10,5 trillion dollarga tushadi. Kiberjinoyatlar jurnali. https://cybersecurityventures.com/hackerpocalypse-cybercrime-report-2016/
4. Choy, K. (2021). Raqamli iqtisodiyotda biznesning kelajagi haqida 99 ta fakt 2017. https://www.slideshare.net/sap/99-facts-onthe-future-of-business-in-the-digital-economy-2021 manzilidan olindi).
5. Craigen , D., Diakun-Thibault , N., & Purse, R. (2024). Kiberxavfsizlikni aniqlash. Texnologiya innovatsiyalarini boshqarish sharhi, 4(10).

ELEKTRON HUKUMAT TIZIMIDA KIBERXAVFSIZLIKNING O‘RNI

Samatova Sabina,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, talabasi,
E-mail: Samatova_sabina@gmail.com
Bekmirzayev Obidjon
Xalqaro nordik universiteti, dotsenti

Annotatsiya: Elektron hukumat tizimlari fuqarolarning tezkor, sifatli va arzon xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari ortishi bilan tobora rivojlanmoqda. Ushbu tizimlarning samarali va xavfsiz ishlashi nafaqat alohida komponentlarning himoyasiga, balki butun jamiyat miqyosida kiberxavfsizlik yondashuvlariga bog‘liqdir. Jamiyatga asoslangan kiberxavfsizlik mashqlari tizimdagi zaif tomonlarni aniqlash va yaxshilash imkonini beradi, bu esa mahalliy davlat organlariga o‘z raqamli xizmatlarini

fuqarolar ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Mazkur tadbirlar orqali murakkab va resurs talab qiluvchi muammolar bilan birga, oson hal qilinadigan kamchiliklar ham aniqlanib, elektron hukumat tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada kiberxavfsizlikning strategik ahamiyati, zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Elektron hukumat, kiberxavfsizlik, raqamli xizmatlar, tizim xavfsizligi, raqamli transformatsiya, davlat xizmatlari, ma’lumotlar himoyasi, xavfsizlik strategiyalari, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish

Kirish

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib borib, davlat boshqaruvidagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Elektron hukumat (e-hukumat) tizimlari fuqarolarga va biznesga davlat xizmatlarini tez, qulay va shaffof shaklda taqdim etishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarda elektron hukumatning rivojlanishi davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, ichki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish va raqamli ma’lumotlar asosida siyosat ishlab chiqishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, elektron hukumat tizimlarining samarali va xavfsiz ishlashi uchun kiberxavfsizlik eng ustuvor masalalardan biridir. Axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi bilan birga, davlat tizimlari kiberhujumlarga, ma’lumotlarning buzilishi va noqonuniy foydalanishga duch kelish xavfi ortmoqda. Bu esa davlat xizmatlarining ishonchliligi, shaffofligi va uzluksizligini ta’minlash uchun zamonaviy, kompleks kiberxavfsizlik tizimlarini yaratishni talab qiladi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni doirasida qabul qilingan «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi elektron hukumat tizimini yanada kengaytirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu strategiyada elektron davlat xizmatlarining ko‘lamini oshirish, bulutli hisoblash va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalarini keng joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Shuningdek, strategiya doirasida davlat organlarida axborot xavfsizligini ta’minlash, kiberxavfsizlik standartlarini joriy qilish va raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston elektron hukumat sohasida tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu jarayon Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilmoqda va taqdim etilayotgan xizmatlar doimiy ravishda kengayib bormoqda. BMTning Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksiga (EGDI) ko‘ra, O‘zbekiston 2020 yilda 87-o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 69-o‘ringa ko‘tarilib, yuqori EGDI ko‘rsatkichlariga ega mamlakatlar qatoriga kirgan. 2022 yilda O‘zbekiston quyidagi uchta subindeks bo‘yicha ijobiy o‘sish ko‘rsatgan:

Onlayn xizmatlar indeksi — 55-o‘rin;

Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi — 123-o‘rin;

Inson kapitali indeksi — 90-o‘rin.

Bu yo‘nalishlar “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham asosiy o‘rin tutadi.

Elektron hukumat tizimlarining rivojlanishida kiberxavfsizlik nafaqat texnik masala, balki keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammo sifatida ko‘rilmoqda. U davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, korrupsiya va firibgarlikni kamaytirish, fuqarolarning davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan shaffof va barqaror muhitni yaratadi.

O‘zbekiston elektron hukumat xizmatlarining keng portfeliga ega bo‘lib, unda fuqarolar va yuridik shaxslarga turli murakkablikdagi xizmatlar taqdim etiladi. Hozirda mavjud 774 ta elektron davlat xizmatining 371 tasi fuqarolarga taqdim etilmoqda va bu xizmatlar soni doimiy oshib bormoqda.

Raqamli xizmatlarni rejalashtirish va joriy etish jarayoni to‘liq hukumatning o‘z kuchlari bilan amalga oshirilmoqda, xususiy pudratchilar ishtirokisiz. Xizmatlar yil sayin rejalashtiriladi, ammo uzoq muddatli raqamlashtirish yo‘l xaritasi hali ishlab chiqilmagan. Bu muammo elektron hukumatni kelajakda rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

O‘zbekiston elektron hukumat xizmatlari 6 ta asosiy kanallar orqali taqdim etiladi:

EPIgu portali;

MyGov mobil ilovasi;
Davlat xizmatlari markazlari (DSM);
Davlat organlari veb-saytlari;
800 dan ortiq pochta bo‘limlari;
Konsullik xizmatlari.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali taqdim etilayotgan elektron xizmatlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Quyida 2022, 2023, 2024 va 2025 yillar kesimida xizmatlar soni haqida ma’lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Yillik xizmatlar soni statistikasi

Yil	Xizmatlar soni	Izoh
2022	370 ta	Yil davomida 47 ta yangi xizmat joriy etilib, jami xizmatlar soni 370 taga yetkazildi.
2023	570 ta	200 ta yangi xizmat joriy etilib, xizmatlar soni 570 taga yetkazildi.
2024	700+ ta	Yil yakuniga kelib, xizmatlar soni 700 tadan oshdi.
2025	Ma’lumot mavjud emas	Hozircha 2025-yil uchun aniq ma'lumotlar e'lon qilinmagan.

Ushbu xizmatlar soning statistikasini diagramma ko‘rinishi 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida mavjud davlat xizmatlari soni

2025-yil 1-fevral holatiga ko‘ra, elektron hukumat portalidan (my.gov.uz) foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshgan. Ularning 53,45% — erkaklar, 46,55% — ayollar. Eng faol foydalanuvchilar — 25–34 yoshdagilar (31,02%). E-hukumat tizimlarida kiberxavfsizlikni mustahkamlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, “Zero Trust” arxitekturasini joriy etish muhim strategiyalardan biridir. Bu yondashuv asosida tizimga kiruvchi har qanday foydalanuvchi yoki qurilma avtomatik tarzda ishonchli deb hisoblanmaydi. Har bir kirish urinishida doimiy autentifikatsiya va tasdiqlash jarayonlari amalga oshiriladi. Bu esa ichki va tashqi tahdidlarga qarshi tizim zaifliklarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, davlat axborot tizimlarini doimiy ravishda monitoring qilish va zaifliklarni baholash ham muhim ahamiyatga ega. Tizimlar ustidan uzluksiz nazorat olib borish orqali kiberxavflar erta aniqlanadi va oldindan ogohlantirish asosida zarur choralar ko‘riladi. Bu yondashuv, ayniqsa murakkab va o‘zgaruvchan tahdidlar fonida, davlat xizmatlarining barqaror ishlashini ta’minlashda katta rol o‘ynaydi.

Kiberxavfsizlikni kuchaytirishda davlat-xususiy hamkorliklar ham muhim o‘rin tutadi. Xususiy sektor innovatsion texnologiyalar, ilg‘or yechimlar va amaliy tajribaga ega bo‘lgan kuchli hamkor sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, davlat idoralari xususiy kompaniyalar bilan hamkorlikda zamonaviy

xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali o‘z infratuzilmasini yanada mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, davlat xodimlari va keng jamoatchilikni kiberxavfsizlik bo‘yicha xabardor qilish va doimiy o‘qitish ham dolzarb masalalardan biridir. Ko‘plab kiberhujumlar aynan inson omiliga bog‘liq xatoliklar sababli ro‘y beradi. Shu sababli, foydalanuvchilarga kuchli parollar yaratish, phishing xatlarini aniqlash, shubhali havolalardan saqlanish kabi amaliy bilimlar berilishi zarur. Bu orqali dastlabki mudofaa chizig‘i — inson omili — kuchaytiriladi.

Nihoyat, har qanday favqulodda vaziyatga tayyorgarlik ko‘rish kiberxavfsizlik siyosatining ajralmas qismidir. Yaxshi ishlab chiqilgan, sinovdan o‘tgan va doimiy yangilanib boriladigan insidentlarga javob rejasi kiberhujum sodir bo‘lgan taqdirda tezkor harakat qilish imkonini beradi. Bu hujjat yordamida muammoga tezkor javob qaytariladi, xizmatlar tiklanadi va tizimning ishonchliligi saqlanib qoladi.

Umuman olganda, e-hukumatning barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash uchun yuqoridagi strategiyalar uyg‘un holda qo‘llanilishi zarur. Bu nafaqat texnologik jihatdan, balki huquqiy, tashkiliy va insoniy omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Davlat organlari ham kiberxavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular kiberxavfsizlik sohasidagi qonunlarni ishlab chiqish, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va aholini kiberxavfsizlik bo‘yicha xabardor qilish orqali fuqarolarning onlayn xavfsizligini himoya qilishadi. O’zbekistonda ham bu borada bir qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, 2022 – yilda «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun axborot texnologiyalari sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Jismoniy shaxslar ham oz shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishda mas’uldirlar. Ular shaxsiy ma’lumotlarini ehtiyotkorlik bilan boshqalarga berishlari, ishonchli parollardan foydalanishlari va ularni muntazam ravishda yangilashlari tavsiya etiladi. Shuningdek, ular o’z kompyuterlari va mobil qurilmalarida antivirus dasturlarini o‘rnatishlari va doimiy ravishda yangilab turishlari lozim.

Shu bois, O‘zbekiston hukumati elektron hukumatni rivojlantirish jarayonida kiberxavfsizlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu borada davlat tomonidan kiberxavfsizlik sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, zamonaviy infratuzilma yaratish, kiberxavfsizlik bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada, elektron hukumat tizimlarining xavfsiz va samarali ishlashi nafaqat davlat va fuqarolar manfaatlarini himoya qiladi, balki raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy omilga aylanmoqda. Kiberxavfsizlik bu jarayonda davlatning raqamli transformatsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Elektron hukumat tizimlari davlat xizmatlarini fuqarolarga qulay va tez yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq ularning kengayishi bilan birga kiberxavfsizlikka doir tahdidlar ham ortib bormoqda. Ma’lumotlar maxfiyligi, xizmatlar uzluksizligi va texnologik barqarorlik bugungi raqamli boshqaruvning asosiy muammolaridan biridir. Bu muammolarga qarshi kurashda Zero Trust arxitekturasi, doimiy monitoring, xususiy sektor bilan hamkorlik va aholi xabardorligini oshirish kabi choralar zarur. Eng muhimi, bu choralar o‘zaro integratsiyalashgan yondashuvda amalga oshirilsa, samaradorlik yanada ortadi.

Yechim sifatida, kiberxavfsizlikni e-hukumat loyihalarining boshlang‘ich bosqichlaridanoq ajralmas qismi sifatida rejalashtirish va strategik darajada boshqarish lozim. Bu nafaqat texnologiyani, balki jamiyat barqarorligi va fuqarolar ishonchini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nuralievich, B. O., & Boltaevich, M. B. (2021, November). Method of Detection and Elimination of Tracks of Attacks in the Information System. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-2). IEEE.

2. Nuralievich, B. O., Boltaevich, M. B., & Ugli, B. U. B. (2022, September). The Procedure for Forming a List of Sources of Attack in the Information System. In 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.
3. Bekmirzaev O., Shirinov B. An Algorithm for Viewing Node State Events Under Attack for Information Systems // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050003. DOI: 10.1063/5.0210404
4. Bekmirzaev O., Samarov H. A Method of Evaluating the Effectiveness of Information System Protection // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050004. DOI: 10.1063/5.0210405
5. Muminov, B., & Bekmirzaev, O. (2022). Structure and algorithms of online discussion information system. Scientific Collection «InterConf», (114), 373-384.
6. Мўминов, Б., & Бекмирзаев, О. (2022). Построение узлов о событиях под влиянием атаки в информационной системе. Scientific Collection «InterConf», (114), 388-396.
7. Bekmurodov, O. (2023). Ахборот тизимларида ҳужум манбалари рўйхатини шакллантириш процедураси. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 1(3), 129-136.
8. Samarov, H. K., & Bekmirzayev, O. N. (2023). Masofaviy o‘qitish tizimlarida mavjud risklar va ularni minimallashtirish istiqbollari. Research and Education, 2(4), 146-155.
9. Bekmirzayeva, M. (2024). Vizuallashtirish tizimlarida yomg‘ir va qor muammolarini tasvirga dastlabgi ishlov berish yordamida bartaraf etish. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(1), 120-124.
10. Bekmirzayev, O., & Sabirov, X. (2023). “Kompyuter arxitekturasi” fanini o ‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan foydalanish. Science and Innovation, 2 (Special Issue 14), 549-551.
11. Muminov, B., Bekmirzaev, O., & Al-Khwarizmi, M. (2022). Classification and analysis of network attacks in the category of “denial of service” information system. central asian journal of education and computer sciences (CAJECS), 1, 7-15.
12. Бекмирзаев О., Турсунов Ж. Алгоритмы системы одностороннего межсетевого взаимодействия и система обнаружения вторжений //Digital Transformation and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 135-145.
13. Axmedova, N., & Bekmirzaev, O. (2022). Analysis of methods of fighting against network attacks of the “denial of service” category on information systems. central asian journal of education and computer sciences (CAJECS), 1, 5.
14. Bekmirzayev, O., & Muminov, B. (2024). The Role and Application of Artificial Intelligence in Identifying Threats to Information Systems. DTAI–2024, 1(DTAI), 85-90.
15. Bekmirzayev, O. (2024). Algorithm for Constructing and Configuring Parameters of a Model for Searching for Traces of Attacks in an Information System. DTAI–2024, 1(DTAI), 171-174.
16. Bekmurodov, O., Usmanbayev, D., & Eshonqulov, N. Z. (2024). Kompyuter tarmoqlarini ddos hujumlaridan himoya qiluvchi dasturiy vositalarning qiyosiy tahlili. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(2), 46-50.
17. Bekmirzayev, O., & Kumushbibi, G. U. (2024). Korxona tizimlarda ma’lumotlarni saqlash va uzatishda foydalanuvchi maxfiyligi. Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2(6), 207-213.
18. Bekmirzayev, O. N., & Bekmirzayeva, M. S. (2016). Recognize faces by the selecting degree of security. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 3-7).
19. Ташев, К. А., & Бекмирзаев, О. Н. (2015). К вопросу анализа проблем информационной безопасности. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 211-214).
20. Турапов, У. У., & Бекмирзаев, О. Н. (2015). Системный подход при обеспечении информационной безопасности в информационно-библиотечных сетях. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 219-224).
21. Beknazarova, S., & Bekmirzaeva, M. (2024). Analysis of Filters for Processing Video Images. DTAI–2024, 1(DTAI), 224-227.

22. Safibullaevna, B. S., Qizi, J. M. K., Shaimardanova, B. M., & Erkinovna, A. M. (2020). Adaptive Method For Eliminating Noise Of Image. The American Journal of Engineering and Technology, 2(12), 59-66.
23. Islomov, S. Z., Bekmirzayev, O. N., Shodmonova, X., & Karimov, A. A. (2017). Threats and protection ways of mobile networks. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 213-216).
24. O‘zbekistonda kiberxavfsizlikni ta’minlash – davr talabi tahlil va tavsiyalar.
25. Cyber Security and the Need for International Governance.Charletta Eugenia AndersonFortson of Southern University Law Center May 16, 2016.
26. http://linkedin.com/pulse/e-governance-cybersecurity-securing-digital-services-falgun-rathod-jhq2c
27. https://dgov.uz/media/files/16893248700853375.pdf,Развитие электронного правительства и ИКТ-инфраструктуры Узбекистана
28. https://www.researchgate.net/publication/4216146_e-Government_and_ Cyber_ Security_ The_Role_of_Cyber_Security_Exercises

CRYPTOJACKING HUJUM VA UNING TURLARI

Sharipov Husen Rashidovich
“Xavfsiz Shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi davlat muassasasi, bosh mutaxasis
husan.sharipovtatu@gmail.com

Annotasiya: Cryptojacking – bu zamonaviy kiberxavfsizlik sohasida eng keng tarqalgan va yashirin tahdid turlaridan biridir. Bu hujum orqali xakerlar foydalanuvchilarning roziligisiz ularning qurilmalarini kriptovalyuta qazib olish uchun ishlatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, brauzer orqali, zararli dasturlar, bulutli tizimlar yoki mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan cryptojacking hujumlari sezilmaydigan, ammo samarali iqtisodiy zarar yetkazadigan hujumlardandir.

Bu turdagi hujumning xavfliligi shundaki, foydalanuvchi ko‘pincha bunday faoliyatni sezmaydi. Natijada, tizim ishlashi sekinlashadi, elektr energiyasi sarfi ortadi, texnik qurilmalar ishdan chiqishi mumkin, eng muhimi esa, xakerlar hech qanday xarajatsiz foyda oladi.

Shu sababli cryptojackingga qarshi kurashishda foydalanuvchilar va tashkilotlar quyidagi choralarni ko‘rishi lozim: himoya vositalaridan foydalanish, brauzer xavfsizligini oshirish, doimiy monitoring o‘rnatish va foydalanuvchi xabardorligini oshirish. Bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish — zamonaviy kiberxavfsizlik sohasining ajralmas qismi bo‘lib, real vaqtda tahdidlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Kalit so’zlar: Cryptojacking, IOT, veb sayt, hujum, xavfsizlik, kriptovalyuta.

Cryptojacking — bu hackerlar tomonidan o‘zlarining foydalari uchun boshqalarning kompyuterlarini yoki qurilmalarini noqonuniy ravishda foydalanib, kriptovalyutalar (odatda Bitcoin yoki Monero) ishlab chiqarish (mining) uchun ishlatishdir. Bu hujumda qurilmangizning resurslari (masalan, protsessor quvvati) kriptovalyuta ishlab chiqarish uchun ishlatiladi, va siz bunga bexabar bo‘lishingiz mumkin. Cryptojacking hujumi asosan maxfiy ravishda amalga oshiriladi va qurilmangizni zaiflashtiradi.

Cryptojacking hujumlari va kriptovalyuta sohasidagi noqonuniy faoliyatlar global miqyosda xavotir uyg’otmoqda. 2024 yilda kripto xakerliklaridan yo‘qotilgan mablag’lar 2,2 milliard dollarga yetdi, bu 2023 yilga nisbatan 21% ko‘proqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham kriptovalyuta sohasidagi noqonuniy faoliyatlar kuzatilmoqda. 2024 yilning birinchi yarmida “Uzenergoinspektsiya” tomonidan 75 ta noqonuniy kriptovalyuta qazib olish holati aniqlanib, jami 81,6 milliard so‘mlik elektr energiyasi sarfi qayd etilgan.

Shuningdek, 2024 yilning iyun oyida O‘zbekistonda kriptovalyuta savdosi bilan noqonuniy shug’ullangan kamida 12 kishi javobgarlikka tortildi. Ular Ma’muriy javobgarlik to‘g’risidagi kodeksning 155−4-moddasi bilan aybli deb topilib, ma’muriy qamoq jazosiga hukm qilingan.

1-jadval

2024 yil davomida kriptovalyuta sohasidagi ba’zi yirik hujumlar va ularning ta’sir ko‘rsatgan davlatlar

Hujum oyi	**Hujum qilingan platforma**	**O‘g’irlangan summa**	**Ta’sir ko‘rsatgan davlatlar**
May 2024	DMM Bitcoin	$305 million	Yaponiya
2024	WazirX	$235 million	Hindiston
2024	BingX	$43 million	Xalqaro

2024 yilda Shimoliy Koreya tomonidan kriptovalyuta xakerliklari orqali $1,3 milliarddan ortiq mablag’ o‘g’irlandi, bu global kripto xakerliklarining uchdan ikki qismini tashkil etdi. O‘zbekiston hukumati va tegishli organlari kriptovalyuta sohasidagi noqonuniy faoliyatlarga qarshi kurashishda faoliyat olib bormoqda. Kriptovalyutalardan foydalanish va ularni qazib olish bilan bog’liq qonunlarga rioya etish, shuningdek, xavfsizlik choralarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Cryptojacking hujumlarining turlari:

Veb-sayt orqali cryptojacking: Bu hujum turi veb-saytlarda amalga oshiriladi. Hakerlar, veb-saytga zararli JavaScript kodini joylashtirib, uni foydalanuvchining brauzeriga yuboradilar. Bu kod, foydalanuvchi veb-saytda bo‘lsa, avtomatik tarzda foydalanuvchining kompyuterini mining (kriptovalyuta ishlab chiqarish) uchun ishlatadi.



1-rasm. Veb-sayt orqali cryptojacking hujum ko‘rinishi

Veb-sayt orqali cryptojacking hujum turini yuqish yollari:

Zararli JavaScript Kodlari: Cryptojacking hujumlari ko‘pincha zararli JavaScript kodlari orqali amalga oshiriladi. Bu kodlar veb-saytga joylashtirilgan bo‘lib, foydalanuvchi saytga kirganida avtomatik tarzda ishlay boshlaydi. Zararli kod, foydalanuvchining brauzerida ishlaydi va uning protsessori yoki grafika kartasining kuchini cryptocurrency qazib olish uchun ishlatadi.

Miner (Qazish dasturi): Zararli kodlar foydalanuvchining qurilmasida miner (kriptovalyuta qazish dasturi)ni ishga tushiradi. Ushbu miner, foydalanuvchining qurilmasining resurslarini ishlatib, ma’lum bir kriptovalyutani (masalan, Bitcoin yoki Monero) qazib olish uchun ishlaydi. Foydalanuvchi bu jarayonni sezmasligi mumkin, chunki bu asosan fon jarayoni sifatida amalga oshiriladi.

Veb-saytga kirish: Cryptojacking veb-saytga tashrif buyurganda, foydalanuvchi zararli JavaScript kodini avtomatik ravishda ishga tushiradi. Bu veb-sayt ko‘pincha reklama tarmoqlari yoki noma’lum, ishonchli bo‘lmagan manbalardan keladi. Ba’zi hollarda, zararli kod reklama bannerlari orqali kiradi.

Foydalanuvchi bilmasdan: Cryptojackingning eng xavfli tomonlaridan biri shundaki, foydalanuvchi bu jarayonni sezmaydi. Kompyuter yoki mobil qurilma kutilganidan ko‘ra ko‘proq resurslarni ishlatishi mumkin, ammo foydalanuvchi bunga e’tibor bermasligi mumkin. Bu shuningdek, qurilmaning ishlash tezligini sekinlashtiradi.

Malware (zararli dastur) orqali cryptojacking: Bu holatda, zararlangan fayl (malware) foydalanuvchi qurilmaga yuklanadi va o‘zini tizimga o‘rnatadi. Malware, qurilmani nazorat qilish uchun kriptovalyuta ishlab chiqarish jarayonini boshlaydi. Bu turlari kompyuterni juda sekinlashtiradi va uning ishlashini keskin yomonlashtiradi.



2-rasm. Malware ishlash prinsipi

Malware (zararli dastur) orqali cryptojacking yuqish yo‘llari:

Zararli dastur o‘rnatilishi: Cryptojacking malware hujumlari foydalanuvchining qurilmasiga zararli dastur o‘rnatish orqali boshlanadi. Bu dastur odatda foydalanuvchining ruxsatisiz yuklab olinadi yoki o‘rnatiladi. Zararli dasturlar ko‘pincha email xabarlari (fishing), zararli veb-saytlar yoki zararli reklamalardan (malvertising) kelib chiqadi.

Malwareni tarqatish yo‘llari:

Fishing (xavfli email): Hujumchilar fishing usullari orqali foydalanuvchilarni aldab, zararli dastur yuklab olishlarini ta’minlashadi. E-pochta orqali yuborilgan zararli havolalar yoki ilovalar foydalanuvchiga ko‘rinmas tarzda zararli malwareni tizimga o‘rnatadi.

Malvertising (Zararli Reklama): Zararli reklama bannerlari yoki reklama tarmoqlari orqali foydalanuvchilarni o‘z ichiga olgan zararli kodlarni yuklab olishga undaydi. Bu kodlar foydalanuvchining brauzerida ishlaydi va minerlarni ishga tushiradi.

Veb-saytlar orqali: Ba’zi veb-saytlar zararli skriptlarni ishga tushirishi mumkin, bu esa foydalanuvchining qurilmasiga zararli dastur o‘rnatadi.

Zararli dastur ishlash boshlaydi: Zararli dastur qurilmaga o‘rnatilgach, u miner (kriptovalyuta qazish dasturi)ni ishga tushiradi. Miner, qurilmaning resurslarini ishlatib, ma’lum bir kriptovalyutani (masalan, Bitcoin yoki Monero) qazib olishni boshlaydi. Biroq, bu jarayon foydalanuvchi tomonidan sezilmas bo‘ladi va qurilmaning ishlash tezligi sekinlashadi, resurslar isrof bo‘ladi.

Qurilma resurslariga ko‘proq safrlash: Cryptojacking malware, qurilmada juda ko‘p energiya sarflab, resurslarni to‘liq ishlatadi. CPU (markaziy protsessor) yoki GPU (grafika protsessori) ortiqcha ishlaydi va bu qurilmaning samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu jarayon kompyuterning sekinlashishiga, ortiqcha qizishiga, va batareyaning tez tugashiga olib keladi (mobil qurilmalarda).

Zararli dastur yashirin faoliyatni amalga oshirishi: Cryptojacking malware, zararli dastur sifatida o‘zini tizimda yashirishga qodir. U, odatda, aniq bir dastur sifatida ko‘rinmaydi va tizim monitoringi orqali aniqlanishi qiyin. Malware o‘zini ishlatish davomida foydalanuvchi qurilmasining barcha resurslarini qazib olish jarayoniga bag’ishlaydi.

IoT qurilmalarini maqsad qilish: IoT qurilmalari (masalan, aqlli telefonlar, uy jihozlari, televizorlar va boshqa tarmoqqa ulangan qurilmalar) hujumga uchraydi. Bu qurilmalar ko‘pincha zaif xavfsizlikka ega bo‘ladi va hackerlar ularni kriptovalyuta ishlab chiqarish uchun ishlatishadi.



3-rasm. Troyan hujumi

Cryptojacking IoT qurilmalariga maqsadi:

Zararli dastur o‘rnatish: Cryptojacking IoT qurilmalariga odatda zararli dastur yoki skript o‘rnatish orqali kirib boriladi. Bu zararli dastur IoT qurilmasiga tarmoq orqali kiradi yoki tashqi qurilmalar (USB, Wi-Fi, Bluetooth, etc.) orqali yuklanadi. Zararli kod IoT qurilmasining resurslarini ishlatib, ma’lum bir kriptovalyutani qazib olishni boshlaydi.

IoT qurilmalarining kam resurslarini foydalanish: IoT qurilmalari ko‘pincha kam resurslarga ega bo‘ladi: CPU, xotira va energiya cheklangan bo‘ladi. Shunga qaramay, cryptojacking hujumchilari bu kam resurslarni o‘z foydasiga ishlatishga harakat qiladilar. IoT qurilmalari odatda 24/7 ishlashga mo‘ljallangan, bu esa hujumchilarga ularni uzluksiz ishlatish imkonini beradi.

Tarmoqdan foydalanish: IoT qurilmalari ko‘pincha bir-biriga tarmoq orqali ulanadi (masalan, Wi-Fi yoki Bluetooth orqali). Bu ularni tarmoqdagi zaif nuqtalar orqali zararli dastur bilan infektsiyalashga juda qulay qiladi. IoT qurilmasi infektsiyalanganidan so‘ng, boshqa tarmoqdagi qurilmalar ham ta’sirlanishi mumkin.

Qurilmalarning yashirin faoliyatini bajarish: IoT qurilmasidagi cryptojacking malware foydalanuvchi tomonidan sezilmas holatda ishlaydi. IoT qurilmasining faolligi ko‘pincha fon jarayoni sifatida ko‘rinadi va foydalanuvchilar bu faoliyatni sezmasligi mumkin. Buning natijasida, minerlar qurilmaning resurslarini ishlatib, kriptovalyutani qazib olishni amalga oshiradi.

Mobil qurilmalar orqali cryptojacking: Mobil qurilmalarda ham cryptojacking hujumlari bo‘lishi mumkin. Telefoningizga zararli dastur yoki veb-sayt orqali kirib, uning resurslarini kriptovalyuta ishlab chiqarish uchun ishlatadi.



4-rasm. Fishing hujumi

Mobil qurilmalar orqali cryptojacking yuqish yo‘llari:

Zararli dastur yoki skript o‘rnatish: Cryptojacking hujumlari mobil qurilmaga zararli dastur yoki skript o‘rnatish orqali amalga oshiriladi. Zararli dasturlar ko‘pincha quyidagi usullar orqali tarqatiladi:

Fishing: Hujumchilar mobil foydalanuvchilarni aldaydi va zararli ilovalarni yoki havolalarni yuklab olishga undaydi.

Zararli Ilovalar: Foydalanuvchilar zararli ilovalarni o‘rnatishlari mumkin, masalan, App Store yoki Google Playdan ko‘rinadigan noma’lum manbalardan. Ba’zi zararli ilovalar kriptovalyuta minerlarini o‘z ichiga oladi.

Zararli Reklama: Reklama bannerlari orqali mobil foydalanuvchilarni zararli skriptlarni yuklab olishga majbur qilish.

Brauzer orqali: Ba’zi veb-saytlar mobil qurilmalarda mining (kriptovalyuta qazish) skriptlarini ishga tushiradi, bu orqali foydalanuvchining qurilmasi orqali kriptovalyutalar qazib olinadi.

Kriptovalyuta bilan shug’ullanish: Zararli dastur yoki skript mobil qurilmaga o‘rnatilganidan so‘ng, minerning ishlashi boshlanadi. Mobil qurilmalar resurslari, ya’ni protsessor (CPU) va grafika protsessorlari (GPU), miner tomonidan ishlatiladi, bu esa kriptovalyuta (masalan, Monero yoki Bitcoin) qazib olishni amalga oshiradi.

Mobil qurilmaning resurslarini ishlatish: Cryptojacking mobil qurilmalarining CPU va GPU resurslarini to‘liq ishlatib, minerni ishga tushiradi. Bu esa mobil qurilmaning ishlash tezligini pasaytiradi, batareyani tez tugatadi, va qurilmaning qizib ketishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mushtaq, M. F., et – “A Comparative Study of Browser-based Cryptojacking Detection Techniques.” Journal of Information Security and Applications, 2020.

2. Alasmary, W., et – “Deep Learning-Based Cryptojacking Detection in Cloud and Edge Computing”, IEEE Transactions on Cloud Computing, 2022.
3. Rahman, M. A., & Williams, P. – “Browser-based Cryptojacking: A New Cyber Threat”, Computer Fraud & Security, 2021.
4. Roger A. Grimes – ”Apocalypse: Preparing for the Day When Quantum Computing Breaks Todays Crypto”, 2021.
5. Michael Sikorski, Andrew Honig (2020) – “Practical Malware Analysis: The Hands-On Guide to Dissecting Malicious Software”, 2020.
6. Symantec Internet Security Threat Report (2020–2024), https://symantec-enterprise-blogs.security.com.
7. Trend Micro Research Reports (2020–2024), https://www.trendmicro.com.

ONLINE TO‘LOV TIZIMLARIDA TRANZAKSIYALARINI AMLAGA OSHIRUVCHI PROTOKOLLAR VA ULARNING ZAIFLIKLARINI TAHLIL QILISH

Sharipov Husen Rashidovich
“Xavfsiz Shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi davlat muassasasi, bosh mutaxasis
husan.sharipovtatu@gmail.com

Annotasiya: Online to‘lov tizimlarida tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi protokollar va ularning zaifliklarini tahlil qilish” bu mavzu juda muhim va dolzarb hisoblanadi. Online to‘lov tizimlari masalan, Click, Payme, VISA, PayPal kabi har kuni millionlab foydalanuvchilarning pul mablag‘larini uzatishda ishlatiladi. Agar bu tizimdagi protokollar zaif bo‘lsa, firibgarlar foydalanuvchi ma’lumotlarini o‘g‘irlashi mumkin. Zamonaviy raqamli iqtisodiyotda onlayn to‘lov tizimlari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Bu tizimlar orqali amalga oshiriladigan har bir tranzaksiya foydalanuvchilarning moliyaviy va shaxsiy xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tranzaksiyalarni amalga oshiruvchi protokollar masalan, SSL/TLS va tokenizatsiya kabi mexanizmlar ma’lumotlarni shifrlash va himoya qilishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu protokollarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan zaifliklar tajovuzkorlar tomonidan foydalanuvchi ma’lumotlarini o‘g‘irlash, firibgarlik va tizimga zarar yetkazish uchun ishlatilishi mumkin. Shu faktlarni inobatga olgan holda maqolada protokollar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: elektron to’lov, protokol, SET, SSL, TSL, IOPT, SEP.

Elektron to‘lov elektron tijoratning ajralmas qismi hisoblanadi. Keng ma’noda aniqlangan elektron to‘lov - bu xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida onlayn tarzda amalga oshiriladigan moliyaviy almashinuv. Ushbu almashinuvning mazmuni odatda bank yoki vositachi yoki qonuniy to‘lov vositasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan raqamli moliyaviy vositalarning (masalan, shifrlangan kredit karta raqamlari, elektron cheklar yoki raqamli naqd pul) qandaydir shaklidir.

Moliyaviy institutlar o‘rtasida elektron to‘lovlarga qiziqishni rag’batlantiruvchi uchta omil:
texnologik xarajatlarni kamaytirish;
operatsion va qayta ishlash xarajatlarini qisqartirish;
onlayn tijoratni oshirish.
Elektron to‘lov tizimlari:
bank va moliyaviy to‘lovlar;
katta yoki ulgurji to‘lovlar (masalan, bankdan bankka o‘tkazma);
kichik o‘lchamdagi yoki chakana to‘lovlar (masalan, avtomatlashtirilgan kassalar va kassa dispenserlari);
uy banki (masalan, to‘lov);
chakana savdo to‘lovlari;
kredit kartalar (masalan, VISA yoki MasterCard);
shaxsiy yorliqli kredit/debet kartalari (masalan, JC Penney Card);
to‘lov kartalari (masalan, American Express);

onlayn elektron tijorat to‘lovlari;
tokenga asoslangan to‘lov tizimlari;
elektron naqd pul (masalan, DigiCash);
elektron cheklar (masalan, NetCheque);
smart kartalar yoki debet kartalari (masalan, Mondex elektron valyuta kartasi);
kredit karta asosidagi to‘lov tizimlari;
shifrlangan kredit kartalari (masalan, World Wide Web shakliga asoslangan shifrlash).

Elektron to‘lov tizimlarini loyihalashdan maqsad:

Maxfiylik. Foydalanuvchi xavfsiz tizimga ishonishni kutadi; telefon tinglash va xakerlardan xoli xavfsiz va shaxsiy vosita bo‘lgani kabi, elektron aloqa ham teng ishonchga sazovor bo‘lishi kerak.

Xavfsizlik. Xavfsiz tizim “foydalanuvchi autentifikatsiyasi” orqali ikki tomonlama tranzaktsiyalarning identifikatorini tekshiradi va kirishni boshqarish orqali ma’lumot/xizmatlarni cheklash uchun moslashuvchanlikni saqlab qoladi. Ertaga bank o‘g’irlovchilariga qochib ketadigan mashinalar kerak bo‘lmaydi, shunchaki kompyuter terminali, telefon qo‘ng’irog’i narxi va ozgina zukkolik. Millionlab dollarlar kompyuter firibgarligi orqali o‘zlashtirildi. Dizaynerlar xavfsizlikka e'tibor qaratayotgan bo‘lsada, hech qanday tizim hali aqldan ozgan emas.

Intuitiv interfeyslar. To‘lov interfeysi telefon kabi qulay bo‘lishi kerak. Umuman olganda, foydalanuvchilar hamma narsadan ko‘ra qulaylikni qadrlashadi.

Ma’lumotlar bazasi integratsiyasi. Masalan, uy banki bilan mijoz o‘zining barcha hisoblari bilan o‘ynashni xohlaydi. Bugungi kunga qadar alohida hisoblar alohida ma’lumotlar bazalarida saqlangan. Banklar oldidagi vazifa ushbu ma’lumotlar bazalarini bir-biriga bog’lash va mijozlarga ma’lumotlarning yangilangan va xatosiz holda ulardan istalganiga kirishiga ruxsat berishdir.

Brokerlar. “Tarmoq bankiri” - tovarlar va xizmatlarni brokerlik qilish, nizolarni hal qilish va moliyaviy operatsiyalarni elektron tarzda osonlashtirish uchun kimdir - bu erda bo‘lishi kerak.

Xavfsiz elektron tranzaksiya (SET) protokoli. SET protokoli dastlab 1997 yilda Visa va MasterCard tomonidan ishlab chiqilgan va shundan beri rivojlanib bormoqda. SET protokoli SSL (Secure Socket Layer) kabi EC uchun to‘rtta xavfsizlik talablariga javob beradi: autentifikatsiya, shifrlash, yaxlitlik va rad etmaslik. Savdogarlar buyurtma ma’lumotlarini ham, kredit karta ma’lumotlarini ham olishlari kerak, chunki qo‘lga olish jarayoni savdogar tomonidan boshlangan. Boshqa tomondan, SET protokoli mijozning kredit karta ma’lumotlarini savdogarlardan yashiradi va maxfiylikni himoya qilish uchun banklardan buyurtma ma’lumotlarini yashiradi.



1- rasm. SET protokoli ishlash prinsipi

SEP protokoli, xavfsiz va samarali protokolni ishlab chiqishdir onlayn to‘lov operatsiyalarini firibgarlikdan himoya qilish uchinchi tomonni jalb qilmasdan, SEP protokoli elektron to‘lov xavfsizligi talablarini amalga oshiradi: maxfiylik, yaxlitlik, autentifikatsiya va rad etmaslik. Xavfsiz elektron to‘lov (SEP) protokoli buni oldini oladi SET va dan farqli ravishda amalga oshirish bilan bog’liq murakkabliklar 3D-secure, integratsiya va foydalanish qulay.



2- rasm. SEP protokoli ishlash prinsipi

SSL (Secure Socket Layer – himoyalangan soketlar protokollari) protokoli Netscape Communications tashkiloti tomonidan va RSA Data Security tashkiloti hamkorligida mijoz/server dasturlarida himoyalangan ma’lumot almashinuvini tashkil etish uchun ishlab chiqarilgan. Hozirgi vaqtda SSL protokoli OSI modelining seans darajasidagi himoyalangan kanal protokoli sifatida qo‘llaniladi.

SSL-sessiyasi o‘rnatilganda qo‘yidagi masalalar yechiladi:

1) tomonlar autentifikatsiyasi;

2) tomonlarning himoyalangan ma’lumot almashinuvida ishlatiladigan kriptografik algoritmlar va siqish algoritmlari mosligi va kelishuvi;

3) umumiy maxfiy maxsus-kalitni kalitni tashkillashtirish;

4) umumiy maxfiy maxsus-kalit asosida ma’lumot almashinuvining kriptohimoyasi uchun umumiy maxfiy seans kalitlarni generatsiyalash.

Transaction Layer Security (tls) Ishchi guruhi (WG) 1996 yilda Internet Engineering Task Force (IETF) tomonidan, birinchi navbatda, transport qatlami ustidagi ilovalar uchun maxfiylik, autentifikatsiya va yaxlitlik xizmatlarini taqdim etish uchun Internet standart protokolini yaratish uchun tuzilgan.



3- rasm. SSL protokoli asosida mijos va serverga bog’lanishi

SSL/TLS TCP va yuqori qatlamli dastur o‘rtasida joylashgan oraliq protokol qatlamidir. SSL/TLS Transmission Control Protocol (TCP), shu jumladan Gipermatnni uzatish protokoli (HTTP), fayl uzatish protokoli (FTP), Telnet va elektron pochta protokollari (oddiy pochta uzatish protokoli) orqali ishlaydigan har qanday dastur qatlami protokoli tomonidan ishlatilishi mumkin. SMTP, Post Office protokoli - POP3 va Internet xabarlariga kirish protokoli - IMAP4). Haqiqatan ham, SSL/TLS ning eng keng tarqalgan va keng qo‘llaniladigan ilovasi URL manzillarida https:// bilan belgilanadigan HTTP aloqasini ta’minlash va TCP 443 portidan foydalanish. Asosiysi, SSL/TLS umuman to‘lov protokoli emas. SSL-ning maqsadi ikki tomon o‘rtasida xavfsiz ulanishni ta’minlash va uning elektron tijorat uchun qo‘llanilishi mijoz va biznes shaxsiy ma’lumotlarni almashishi mumkin bo‘lgan xavfsiz aloqa kanalini ta’minlashdan iborat.



4- rasm. SSL\TSL protokoli asosida mijo zva server o‘rtasoda ma’lumot almashish

IOTP protokoli, SSL iste’molchi tomonidan to‘lov ma’lumotlarini uzatish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan xavfsiz aloqa protokoli bo‘lsa va SET kredit karta operatsiyalari uchun maxsus mo‘ljallangan protokol bo‘lsa, Internet Open Trading Protocol (IOTP) iste'molchidan biznesga Internet uchun o‘zaro ishlash tizimini ta’minlaydi. Elektron tijoratga asoslangan. Savdo tizimi spetsifikatsiyasi sifatida IOTP iste'molchilar o‘z mahsulotini tanlaydigan, sotuvchini tanlaydigan, to‘lov shaklini (sotuvchisi bilan birgalikda), etkazib berishni tashkil etadigan va vaqti-vaqti bilan qaytarib beradigan tranzaktsiyalarning “haqiqiy” dunyosini takrorlash uchun mo‘ljallangan. mahsulotlar.



5- rasm. IOPT protokoli ishlash prinsipi

Online to‘lov tizimlarida tranzaksiyalarini amlaga oshiruvchi protokollar qo‘shimcha zaifliklari:

texnik masalalar (Onlayn to‘lovlar texnik buzilishlarga qarshi himoyasiz);

xavfsizlik muammolari;

bahsli jarayonlar va operatsiyalar;

ko‘tarilgan xarajatlar;

kredit va debet kartalari;

takroriy hisob-kitob;

elektron pochta orqali to‘lash uchun hisob-fakturasini bosish;

elektron tekshiruvlar.

Online to‘lov tizimlarida tranzaksiyalarini amlaga oshiruvchi protokollar asosiy zaifliklari:

undan tashqari ikki xil maummo ma’lumotlar bazasi tranzaktsiyalari bir xil ma’lumotlar bazasi elementlarida o‘qish/yozish operatsiyalarini bir-biriga aralashtirilgan tarzda (ya’ni, bir vaqtning o‘zida bajarish) amalga oshirganda yuzaga keladi, bu elementlarning qiymatlarini noto‘g’ri qiladi, shuning uchun ma’lumotlar bazasini nomuvofiq qiladi;

mantiqiy xatolar - Tranzaktsiya bajarilmasa, unda kod xatosi yoki biron bir ichki xatolik mavjud;

tizim xatolari - Ma’lumotlar bazasi tizimining o‘zi faol tranzaksiyani to‘xtatganda, chunki ma’lumotlar bazasi tizimi uni bajara olmaydi yoki tizimning ba’zi holati tufayli u to‘xtashi kerak;

elektron to‘lovlarning eng katta kamchiliklaridan ba’zilari autentifikatsiyaning yo‘qligi, to‘lovlarni rad etish va kredit kartalaridagi firibgarlikdir. Ma’lumotni onlayn kiritayotgan shaxsning o‘zi kim ekanligini tasdiqlash yoki tasdiqlashning hech qanday usuli yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2019, Journal of Computational and Theoretical Nanoscience 16(11):4826-4838 DOI:10.1166/jctn.2019.8395, “Electronic Payment Systems: Architecture, Elements, Challenges and Security Concepts: An Overview”, Mostafa A. Ali.
2. August 01, 2022, “What is Online Payment? Types, Modes, Methods, Meaning”, Pine Labs.
3. 21/06/2021, ”What are the different types of e-commerce payment systems”, Anindya Ray.
4. 2015, “SECURITY ISSUES AND SOLUTIONS IN E-PAYMENT SYSTEMS”, Bogdan-Alexandru.
5. 2000, “Internet Payment Systems: Status and Update on SSL/TLS, SET, and IOTP”, Gary C. Kessler, N. Todd Pritsky.
6. Internet saydlar
7. “Zaharlanish va zaharlanishda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish”, http://emedic.uz/news/zaharlanish_va_zaharlanishda_birinchi_tibbiy_yordam_korsatish/2010-02-07-52.
8. “Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”, Toshkent “Iqtisod-moliya” 2011, https://staff.tiiame.uz/storage/users/376/books/yHKuxYOItpJ97DdfsOklwYtTovBgwzEsvuNkthCo.pdf.

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O‘RNI

I.M.Siddikov – Qo‘qon davlat universiteti
Informatika kafedrasi professor v.v.b., t.f.n.

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun’iy intellektning kiberxavfsizlik sohasidagi roli va ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, kompyuter tizimlari, tarmoqlar, algoritm, katta ma’lumotlar, ma’lumotlar himoyasi.

Ma’lumki, *kiberxavfsizlik* –bu kompyuter tizimlari, tarmoqlar va ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan, foydalanishdan, oshkor qilishdan, buzilishdan, o‘zgartirishdan yoki yo‘q qilishdan himoya qilish amaliyoti [1]. U nafaqat biznes va davlat tashkilotlari uchun, balki har bir inson uchun ham dolzarb masaladir.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar sun’iy intellektni kirish ma’lumotlaridagi naqshlarni topadigan yoki ularni baholay oladigan va keyin natijalardan mustaqil ravishda qaror qabul qilish uchun foydalanadigan algoritm sifatida ko‘rishadi.

Sun’iy intellekt (AI) – bu kompyuterlar va dasturlar orqali inson fikrlashini, o‘rganishini va qaror qabul qilish jarayonlarini taqlid qiluvchi texnologiya. Sun’iy intellekt algoritmlari katta ma’lumotlarga asoslanadi, o‘z-o‘zidan o‘rganadi (machine learning) va ko‘pincha insondan tezroq va aniqroq natijalar beradi [2,3].

AI Amerika Harbiy havo kuchlari polkovnigi Jon Boydning OODA halqasi (Observe — Orient — Decide — Act - "Kuzatish, Holatni baholash, Qaror qabul qilish, Harakat qilish") kontseptsiyasiga amal qilib, inson kabi harakat qilishi kerak[1]. Bundan tashqari, "robot" buni odamnikidan yuzlab marta tezroq qila oladi.

AIga asoslangan birinchi vositalar xavfsizlik maqsadlarida 80-yillarning oxirlarida qo‘llanila boshlandi. Bular oldindan belgilangan qoidalar va parametrlarga asoslangan kiber tahdidlar haqida ogohlantirish tizimlari edi. 2000-yillarda AIning roli, birinchi navbatda, mashinalarni o‘rganish sohasidagi taraqqiyot tufayli o‘sishni boshladi. Ammo kiberxavfsizlikda sun'iy intellektning haqiqiy yutug'i so‘nggi yillarda neyron tarmoqlar va generativ AIning jadal rivojlanishi bo‘ldi.

Afsuski, xakerlar AI texnologiyalarini juda tez o‘zlashtirib olishdi va ulardan bir qator sohalarda kiberhujumlar uchun faol foydalanishmoqda[2]:

[1] https://lukatsky.ru/strategy/blog-post_12-11.html
[2] https://wezom.com.ua/blog/ispolzovanie-ii-v-kiberbezopasnosti-rol-i-preimuschestva

buzilish jarayonlarini avtomatlashtirish (zaifliklarni qidirish, xavfsizlik choralarini yengish);
shaxsiy ma’lumotlarni o‘g'irlash uchun maqsadli fishingni soddalashtirish va avtomatlashtirish;
firibgarlik va ijtimoiy muhandislik uchun deepfakes ishlab chiqarish;
har qanday vazifa uchun AI modellarini ishlab chiqish uchun "ma’lumotlarni zaharlash";
zararli dasturlarni ishlab chiqishni soddalashtirish.

Ushbu yangi tahdidlar kibermudofaa sanoatini kuzatish, tizimlardagi zaifliklarni topish, xavflarni baholash, AI tomonidan yaratilgan materiallarni tanib olish va hujumlarga bir zumda javob berish uchun tegishli AI algoritmlarini zudlik bilan moslashtirish va keng joriy etishga majbur qilmoqda. Natijada, kibermudofaada sun'iy intellektni joriy etish juda tez rivojlanmoqda. Spherical Insights ma’lumotlariga ko‘ra, kiberxavfsizlik bo‘yicha sun’iy intellekt yechimlari global bozori 2022-yilda 15,25 milliard dollarga baholangan bo‘lsa, 2032-yilga kelib bu ko‘rsatkich 96,81 milliard dollargacha, ya’ni kamida 6 barobar o‘sishi kutilmoqda. Ushbu sektor prognoz davrida CAGR[3] 20% ga o‘sishi kutilmoqda. Darhaqiqat, ikki-uch yil ichida kiberxavfsizlik sohasini mashina o‘rganish algoritmlari va neyron tarmoqlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Sun'iy intellekt axborot xavfsizligi bilan bog'liq turli manbalardan ma’lumotlarni avtomatik ravishda to‘plashi, qayta ishlashi va tahlil qilishi mumkin: hodisalar jurnallari, audit natijalari, xavfsizlik tizimi ogohlantirishlari, hodisalar haqida hisobotlar va boshqalar. Mashinani o‘rganish algoritmlari va neyron tarmoqlar tizim zaifliklari, kiberhujumlarga urinishlar va boshqa muammolarni ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bunday ma’lumotlardagi naqshlar, korrelyatsiyalar va anomaliyalarni samarali aniqlaydi. AI bunday tahlillarni odamlarga qaraganda o‘nlab marta tezroq va aniqroq amalga oshiradi.

AI vositalari tizimga tashqaridan aralashishga urinishlarni samarali aniqlashi mumkin. Buning uchun ikkita asosiy yondashuv qo‘llaniladi: imzoni aniqlash va evristik tahlil.

Imzoni tanib olish usuli allaqachon ma’lum bo‘lgan xakerlik algoritmlarini qidirishni o‘z ichiga oladi: AI umumiy stsenariylar asosida hujumlarni darhol aniqlash va to‘xtatish uchun kirish ma’lumotlarini ma’lum hujum imzolari (virus kodlari, ekspluatatsiyalar va boshqalar) ma’lumotlar bazasi bilan solishtiradi. Evristik tahlil hujumni ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan me'yordan og'ishlarni aniqlash uchun tizimlar va foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Muhimi, sun’iy intellekt algoritmlari bunday baholashlarni doimiy va real vaqtda amalga oshirishi va hatto inson aralashuvisiz ham bir zumda javob berishi mumkin.

AI qurilmalar, ilovalar va xizmatlar o‘rtasidagi trafikni tahlil qilish orqali tizimdagi ma’lumotlar oqimini kuzatishga yordam beradi. Xuddi shu tarzda, u foydalanuvchilarning tizim bilan qanday munosabatda bo‘lishini kuzatadi: ular tizimga nima kirganlari, serverlarga qanday fayllar yuklaganlari, qanday xabar almashishlari va hokazo. AI hujum yoki ma’lumotlarning buzilishini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan anomaliyalarni aniqlash uchun tarmoq trafigini tahlil qilish va xatti-harakatlar tahlili usullaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek, u yangi ma’lumotlardan o‘rganish va modellarini yangilash orqali o‘zgarishlarga moslasha oladi.

Noto‘g'ri ogohlantirishlar kiberxavfsizlikka zarar etkazadi, chunki ular tahdidni idrok etishga salbiy ta’sir qiladi va xavfsizlik sektorining allaqachon cheklangan resurslarini isrof qiladi.

Kiberxavfsizlik tahdidi haqida xabar berish tizimining to‘g'ri ishlashi uchun chinakam murakkab xavfsizlik algoritmini sozlash va qo‘lda monitoring qilish talab etiladi. Biznes axborot xavfsizligidagi sun'iy intellekt tizim faoliyatidagi oddiy hodisalar va zararsiz epizodlarni noto‘g'ri baholash natijasida kelib chiqadigan noto‘g'ri signallar sonini kamaytirishga yordam beradi. Statistik tahlil usullari, ML algoritmlari va neyron tarmoqlaridan foydalanish mashinalarga mutaxassislarning fikr-mulohazalarini va baholashda epizod kontekstini hisobga olgan holda odamlardan yomonroq bo‘lmagan tahdidlarni baholashga imkon beradi.

AI vositalari kompaniyaning IT infratuzilmasini keng ko‘lamli yangilash vaqtida baholash va optimallashtirishda yordam berishi mumkin. Masalan, yangi tizimni yangi mahalliy muhitda o‘rnatishda, bulutga o‘tishda, yangi texnologiyalarni joriy qilishda yoki turli tizimlarni integratsiyalashda va hokazo. AI algoritmlari konfiguratsiya tahlili va sozlashni, shuningdek, tizimning muvofiqligi, ishlashi va

[3] CAGR (Murakkab yillik o'sish darajasi) - yillik o'sish sur'ati. U foiz sifatida ifodalanadi va o'rganilayotgan parametr yiliga necha foizga oshishini ko'rsatadi.

xavfsizligini tekshirish uchun testlarni soddalashtiradi. AI test algoritmlari ish muhitini yangilash yoki o‘zgartirishlar paytida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘pgina nizolar, xatolar va zaifliklarni aniqlashi mumkin. Faqat qo‘lda test yordamida bunday natijalarga erishish deyarli mumkin emas.

AI algoritmlari tizim ma’lumotlarini turli talablarga mos ravishda tasniflash va klasterlashda foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qonunchilik talablariga rioya qilish, hujum va zaiflik profillarini yanada shakllantirish, kiberhujum epizodlari kontekstida ma’lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, kibermudofaa strategiyasini yanada prognozlash va shakllantirish.

Bular bugungi kunda biznes axborot xavfsizligida AIdan foydalanishning eng keng tarqalgan usullari. Sun'iy intellekt texnologiyalarini takomillashtirish va bozorning rivojlanishi bilan bu ro‘yxatni yanada kengaytirish mumkinligiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cybercrime [Electronic resource] // https://en.wikipedia.org/wiki/Cybercrime
2. А.Фишман. Искусственный интеллект: возможности и угрозы. ИТ Безопасность (it-world.ru). Журнал IT Manager. 01.06.2021.
3. M. Siddiqov, A. T. Abduraxmonov. Sun’iy intellektning bugungi holati va rivojlanish tendetsiyalari. Academic research in educational sciences, 2023, V.4, pp: 446-451.

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O‘RNI

Toirjonov A’zam Elyor O’g’li
azamtoirjonov@gmail.com
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Bugungi raqamli davrda texnologik taraqqiyot bilan birga axborot xavfsizligini ta’minlash masalasi global muammoga aylanmoqda. Kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi omillar tobora murakkablashib, inson resurslari ularni aniqlashda ojiz qolmoqda. Sun’iy intellekt (SI) esa bu borada yangicha yondashuvlarni taklif qilmoqda. Ushbu ilmiy tezisda SI texnologiyalarining kiberxavfsizlik tizimlariga integratsiyasi, ularning samaradorligi, dolzarbligi va mavjud cheklovlari chuqur tahlil qilinadi.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda internet va raqamli qurilmalar kundalik hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Bu holat, bir tomondan, inson faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, davlat organlari, tibbiyot muassasalari, moliya tashkilotlari va boshqa sohalarda kiberxurujlar kuchaymoqda. Bu esa muhofaza tizimlarini kuchaytirishni, tezkor va moslashuvchan yechimlar ishlab chiqishni talab qiladi. Raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi bilan bog‘liq holda axborot hajmi har kuni geometrik progressiya bilan ortib bormoqda. Har bir foydalanuvchi, korxona yoki tashkilot o‘z faoliyatida yuzlab raqamli tizimlar bilan ishlaydi. Shu bilan birga, bu tizimlar zaifliklar va xatolarga yo‘liqishi mumkin. Kiberjinoyatchilar aynan shu zaif nuqtalardan foydalanib, moliyaviy yoki siyosiy maqsadlarni ko‘zlab turli tahdidlarni amalga oshirishmoqda. An’anaviy axborot xavfsizligi vositalari – antivirus dasturlari, xavfsizlik devorlari, kirishni boshqarish tizimlari – ko‘pincha mavjud tahdidlarni faqat aniqlangandan keyingina bartaraf eta oladi. Ammo bugungi tahdidlar ko‘p hollarda yangi, ilgari uchramagan shaklda namoyon bo‘ladi. Zero-day hujumlar, sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilgan fishing va ijtimoiy muhandislik asosidagi manipulyatsiyalar ayni misollardir. Aynan shunday murakkab sharoitda sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi kiberxavfsizlikni ta’minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Mashinali o‘rganish, chuqur neyron tarmoqlar, real vaqt rejimida monitoring imkoniyatlari, katta hajmdagi ma’lumotni tahlil qilish salohiyati – bularning barchasi axborot xavfsizligi sohasiga yangicha yondashuv olib kirdi. Shu jihatdan, sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi o‘rni nafaqat texnik, balki strategik ahamiyatga ham ega. Mazkur ilmiy tezisda sun’iy intellektning kiberxavfsizlik sohasida qanday ishlatilayotgani, u qanday afzallik va xavflarga ega ekani, amaliy

misollar asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kelajakdagi istiqbollar va dolzarb muammolar ham yoritiladi.

Sun’iy intellekt: nazariy asoslari va mohiyati. Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatini taqlid qiluvchi, ya’ni o‘rganish, muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi murakkab jarayonlarni avtomatlashtirishga qodir shaklidir. Bu tushuncha ilk bor 1956-yilda Dartmut konferensiyasida Jon Makkarti, Marvin Minskiy, Nyuell va Saymon kabi olimlar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, o‘shandan buyon bu soha keskin rivojlanib, hozirgi kunda texnologik inqilobning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Sun’iy intellekt atamasi ostida ko‘plab turli texnologiyalar va usullar jamlangan bo‘lib, ular orasida mashinali o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), ekspert tizimlar, sun’iy neyron tarmoqlar va kompyuter ko‘rish (computer vision) kabi sohalar ajralib turadi. Har bir yo‘nalish ma’lum bir intellektual funktsiyani avtomatlashtirishga qaratilgan bo‘lib, sun’iy intellektning imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun’iy intellektning nazariy asosi informatika, matematika (ayniqsa ehtimollar nazariyasi, statistik modellashtirish), mantiq va neyrobiologiyaga tayangan holda shakllanadi. Masalan, mashinali o‘rganish algoritmlari statistik analizga asoslanadi, chuqur o‘rganish esa inson miyasi faoliyatini modellashtiruvchi ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar orqali ishlaydi. Bu esa tizimlarga real hayotdagi murakkab va noaniq vaziyatlarda ham o‘zini mustaqil ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Sun’iy intellektning mohiyati shundan iboratki, u nafaqat ma’lumotni qayta ishlaydi, balki ma’lumotlar asosida yangi bilimlarni hosil qiladi, prognozlar tuzadi, o‘z harakat strategiyasini mustaqil ravishda aniqlaydi. Masalan, SI yordamida ishlovchi dastur tizimi ilgari hech qachon duch kelmagan holatga ham moslasha oladi, bu esa uni klassik dasturlash yondashuvlaridan tubdan farqlaydi. Bugungi kunda sun’iy intellekt texnologiyalari turli sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda: tibbiyotda tashxis qo‘yish, moliyaviy bozorlarda xatarlarni baholash, avtomatlashtirilgan transport vositalarini boshqarish, tahdidlarni oldindan aniqlash, ishlab chiqarishni optimallashtirish va, albatta, kiberxavfsizlikni ta’minlashda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda SI asosida ishlovchi tizimlar yordamida kiberxavf manbalarini aniqlash va ularni neytrallashtirish samaradorligi keskin oshgani kuzatilmoqda.

Kiberxavfsizlik va dolzarb tahdidlar. Kiberxavfsizlik — bu raqamli axborot, tizimlar, tarmoqlar va foydalanuvchilarni ruxsatsiz kirish, hujum, o‘g‘rilik, buzilish yoki zarar yetkazilishdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. XXI asrning raqamli transformatsiyasi davrida insoniyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, mudofaa, davlat boshqaruvi raqamli muhitga chuqur integratsiyalashgan. Bu esa o‘z navbatida yangi, murakkab va tezkor rivojlanayotgan kiberxavf manbalarini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda kiberhujumlar nafaqat alohida shaxslar yoki tashkilotlar, balki butun davlatlar xavfsizligiga tahdid soluvchi real xavfga aylangan. Kiberjinoyatlar turlari ham tobora murakkablashmoqda: fishing, ransomware (garov dasturlar), DDoS-hujumlar, nol-kun ekspluatatsiyalari (zero-day exploits), ijtimoiy muhandislik, ma’lumotlar sizib chiqishi (data leakage), zararli dasturiy ta’minotlar va boshqa ko‘rinishlar orqali axborot xavfsizligi doimiy tahdid ostida qolmoqda. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan aniq nishonli (targeted) kiberhujumlar kuchaymoqda. Global miqyosda tahdidlarning murakkabligi ortib borayotgan bir paytda, an’anaviy xavfsizlik choralarining o‘zi yetarli emasligi tobora yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shu sababli zamonaviy yondashuvlarda sun’iy intellekt vositalarini kiberxavfsizlik tizimlariga integratsiyalash tobora dolzarb tus olmoqda. SI asosida ishlovchi tizimlar katta hajmdagi tarmoq trafiklarini real vaqtda tahlil qilishi, odatiy bo‘lmagan xatti-harakatlarni aniqlab, ularni potentsial tahdid sifatida belgilashi va avtomatik tarzda xavfli faoliyatni to‘xtatishi mumkin. Masalan, mashinali o‘rganish algoritmlari orqali SI tizimlari foydalanuvchi xatti-harakatlarining modelini yaratib, har qanday og‘ishlarni aniqlay oladi. Shu bilan birga, chuqur o‘rganish algoritmlari zararli dasturiy ta’minotlar, noan’anaviy kiberhujumlar va yangi ekspluatatsiyalarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bu yondashuvlar ayniqsa, keng miqyosli tarmoqlarda va kritik infratuzilmalarni (energetika, transport, sog‘liqni saqlash, moliyaviy tizimlar) himoya qilishda yuqori samara bermoqda. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan tahdid aniqlash va javob berish tizimlari (SOAR – Security Orchestration, Automation and Response) yordamida kiberxavfsizlik xodimlarining yuklamasi kamaytiriladi va inson omiliga bog‘liq xatoliklar ehtimoli keskin kamayadi. Natijada, xavfsizlikni ta’minlash jarayoni nafaqat tezlashadi, balki ancha aniq va samarali tus oladi.

Sun’iy intellekt yordamida xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari. Sun’iy intellekt yordamida kiberxavfsizlikda bir nechta muhim yo‘nalishlarda samarali yutuqlarga erishish mumkin: birinchidan, mashinali o‘rganish algoritmlari tarmoq trafigidagi noodatiy harakatlarni aniqlab, potentsial hujumlarni erta bosqichda to‘xtatishga yordam beradi. Ikkinchidan, chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyalari foydalanuvchi faoliyatini o‘rganib, xatti-harakatlar profilini yaratadi va har qanday og‘ishlarni xavf sifatida belgilay oladi. Shuningdek, SI asosida ishlovchi avtomatik tahlil tizimlari hujumni aniqlashdan tashqari, unga qarshi javob choralarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa inson omiliga bog‘liq xatoliklar sonini kamaytiradi va xavfsizlik tizimining ish faoliyatini sezilarli darajada optimallashtiradi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi xavfsizlik jurnal (log) ma’lumotlarini samarali qayta ishlash va tahlil qilish orqali ilgari ko‘zga tashlanmagan xavf omillari aniqlanadi. Bu esa strategik xavfsizlik yondashuvlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, sun’iy intellekt texnologiyalarining xavfsizlik sohasidagi integratsiyasi zamonaviy muassasalar uchun nafaqat texnologik yutuq, balki zarur ehtiyojga aylanmoqda. Ayniqsa, davlat muassasalari, moliyaviy institutlar va sog‘liqni saqlash tizimlarida SI asosida ishlab chiqilgan xavfsizlik yechimlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy misollar va real loyihalar. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan kiberxavfsizlik loyihalari keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar yirik IT-kompaniyalar, davlat muassasalari hamda xususiy sektor faoliyatida o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Masalan, IBM Security kompaniyasining “QRadar Advisor with Watson” loyihasi sun’iy intellekt asosida tarmoqdagi tahdidlarni tahlil qilish, ular haqida kontekstual ma’lumotlarni to‘plash va foydalanuvchiga tahliliy xulosalar taqdim etish imkonini beradi. Ushbu tizim tahdidlarning sabablari va oqibatlarini tushunish orqali xavfsizlik bo‘yicha qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi.

Yana bir muhim loyiha bu — Darktrace kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Enterprise Immune System tizimi bo‘lib, u inson immunitetiga o‘xshash tarzda tarmoqdagi g‘ayritabiiy harakatlarni aniqlaydi va ularga qarshi avtomatik tarzda javob qaytaradi. Tizim mashinali o‘rganish asosida foydalanuvchi va tizimlar odatiy xatti-harakatlarini tahlil qilib, istalgan og‘ishni xavf sifatida belgilaydi. Google Cloud Security ham sun’iy intellekt yordamida xavfsizlikni kuchaytirishga katta e’tibor qaratmoqda. Ularning Chronicle platformasi tarmoq loglarini chuqur tahlil qiladi, shubhali faoliyatni aniqlaydi va xavfsizlik guruhlarini ogohlantiradi. Bu tizim katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashda yuqori tezlik va aniqlikni ta’minlaydi. Bundan tashqari, ayrim davlatlar ham milliy xavfsizlik strategiyalarida SI vositalarini faol qo‘llamoqda. Masalan, Isroil, AQSh va Janubiy Koreya maxsus xizmatlari sun’iy intellekt asosida ishlovchi xavfsizlik tizimlarini mudofaa, razvedka va tahdidlarni monitoring qilishda muvaffaqiyatli foydalanmoqda. Shu kabi loyihalar va yondashuvlar sun’iy intellektning nafaqat nazariy jihatdan, balki amalda ham axborot xavfsizligi sohasida muhim vosita ekanini ko‘rsatmoqda.

Xulosa va takliflar. Sun’iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasiga integratsiyalashuvi hozirgi davrning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, SI yordamida tahdidlarni oldindan aniqlash, avtomatik javob qaytarish va tahlil qilish imkoniyatlari sezilarli darajada oshgan. Bu esa an’anaviy xavfsizlik tizimlarida mavjud bo‘lgan inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq, bu sohada ayrim muammolar va yechilishi zarur bo‘lgan vazifalar ham mavjud. Jumladan, SI texnologiyalarining noto‘g‘ri ishlashi, noto‘liq ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilinishi yoki ularning o‘zlashtirilishi xavfi — bularning barchasi sun’iy intellektga to‘liq ishonch bildirishni cheklaydi. Shu sababli, har bir xavfsizlik tizimida inson nazorati, etik me’yorlar va shaffof algoritmlar muhim o‘rin tutishi zarur.

Shuningdek, texnologiyalar tez yangilanayotgan sharoitda yurtimiz uchun quyidagi takliflar dolzarb hisoblanadi:

Sun’iy intellektni kiberxavfsizlik tizimlariga joriy etish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish.

Milliy darajadagi SI ekspertlarini tayyorlash, oliy ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik va sun’iy intellektni birgalikda o‘rgatuvchi maxsus yo‘nalishlar ochish.

SI asosida ishlab chiqilgan xavfsizlik tizimlarini mahalliylashtirish, ularni O‘zbekiston axborot infratuzilmasiga moslashtirish.

Etik va huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish, sun’iy intellekt faoliyatining qonuniy asosda yuritilishini ta’minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sun’iy intellekt — kiberxavfsizlikni ta’minlashda kuchli va istiqbolli vositadir. Ammo u ehtiyotkorlik, nazorat va puxta rejalashtirilgan siyosat bilan uyg‘unlashgan holda joriy etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaspersky Lab. (2020). *Artificial Intelligence in Cybersecurity: Challenges and Opportunities*. Kaspersky Research, Moscow.
2. Shvets, V., & Petrov, A. (2022). *Artificial Intelligence and Cybersecurity: A New Frontier in the Digital Age*. Springer, Berlin.
3. Gritsenko, O. (2019). *Implementing AI Solutions for Cybersecurity in a Complex Environment*. Journal of Information Security, 35(4), 112-128.
4. Turing, A. (1950). *Computing Machinery and Intelligence*. Mind, 59(236), 433-460.
5. Smith, C., & Johnson, M. (2021). *Cybersecurity and Artificial Intelligence: A Survey of Current Applications*. International Journal of Information Security, 22(1), 20-37.
6. Berg, D., & Kearns, M. (2021). *AI and the Future of Cybersecurity*. Cambridge University Press, Cambridge.
7. Wang, L., & Zhang, Y. (2020). *Deep Learning and Artificial Intelligence in Cybersecurity*. IEEE Access, 8, 5429-5442. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2020.2972386.
8. Gusikhin, O. (2021). *The Role of Machine Learning in Cybersecurity Defense Mechanisms*. Cybersecurity Review, 17(2), 14-22.
9. Lee, H., & Kim, J. (2022). *Cybersecurity with Artificial Intelligence: Principles and Practices*. Wiley & Sons, New York.
10. National Institute of Standards and Technology (NIST). (2020). *Artificial Intelligence and Cybersecurity*. NIST Special Publication 800-53. U.S. Department of Commerce.
11. Anderson, R. (2021). *Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems*. Wiley, New York.

SIMMETRIK VA ASSIMETRIK KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNING BARDOSHLILIGINI TAQQOSLASH

Tojiyev Ma’ruf Ruzikulovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tel: +998971286886, E-mail: mrtojiyev6886@gmail.com
Shirinboyev Ravshan Shirinboy o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Tel: +998881272297 E-mail: forravshanrsh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. DES va AES kabi simmetrik algoritmlarning ishlash mexanizmi, xavfsizlik darajasi hamda samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, RSA va ECC kabi assimetrik algoritmlarning matematik asoslari, kalit boshqaruvi va xavfsizlik xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari simmetrik algoritmlarning yuqori tezligi va past resurs talabiga ega ekanligini, assimetrik algoritmlarning esa yuqori xavfsizlikni ta’minlashga ixtisoslashganligini ko‘rsatadi. Maqolada shuningdek, turli kalit uzunliklari va algoritmlar asosida xavfsizlik va ishlash samaradorligi o‘rtasidagi muvozanat masalalari tahlil qilinib, kiberxavfsizlik tizimlarida ularni birgalikda qo‘llashning afzalliklari ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Simmetrik shifrlash, assimetrik shifrlash, AES algoritmi, DES algoritmi, RSA algoritmi, ECC algoritmi, kalit boshqaruvi, kriptografik xavfsizlik, shifrlash samaradorligi, kiberxavfsizlik.

Hozirgi zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va axborot tizimlarining jadal sur’atlar bilan rivojlanib borishi turli sohalarda tub o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi, moliya va ijtimoiy sohalarda raqamli transformatsiya jarayonlari yangi imkoniyatlar, samaradorlik va qulayliklarni taqdim etmoqda. Bu esa axborot almashinuvi, raqamli hujjatlar aylanishi, masofaviy xizmatlar ko‘rsatish kabi ilg‘or yo‘nalishlarning kengayishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining bunday jadal rivojlanishi axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarning ham keskinlashuviga olib kelmoqda. Ayniqsa, raqamli axborot resurslariga noqonuniy kirish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, ularni buzib ko‘rsatish yoki yo‘q qilish kabi salbiy holatlar hozirgi kunda ko‘plab tashkilot va foydalanuvchilar uchun muhim tahdid hisoblanadi. Natijada, har qanday tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxs uchun axborotning maxfiyligi (konfidensialligi), butunligi (integralligi) va ishonchliligi (autentikligi)ni ta’minlash dolzarb va ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Simmetrik shifrlash algoritmlarining kriptografik bardoshliligi

Simmetrik shifrlash algoritmlari zamonaviy kriptografiyada axborot maxfiyligi va yaxlitligini ta’minlashda keng qo‘llaniladi. Ularning asosiy xususiyati — shifrlash va deshifrlashda bir xil maxfiy kalitdan foydalanilishidir [1]. Bunda DES — ilk blokli shifrlash algoritmlaridan bo‘lib, 56 bitli kalitdan foydalanadi [2]. Hozirda kompyuter quvvatining ortishi sababli DES eskirgan deb hisoblanadi. 3DES — DESning uch marta qo‘llanishi orqali xavfsizlikni oshirgan, ammo ishlash tezligi past [3].

RC oilasi algoritmlari orasida RC2, RC4 (oqim shifri), RC5 va RC6 mavjud. RC4 ko‘p ishlatilgan, lekin bugungi kunda xavfsiz emas [4]. RC5/RC6 esa moslashuvchanligi bilan ajralib turadi, ammo patentlanganligi ularning keng tarqalishiga to‘sqinlik qiladi. Rijndael (AES) — zamonaviy standart hisoblanadi. AES 128, 192 va 256 bitli kalitlarni qo‘llab, yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi. Bugungi kunda AES eng ishonchli va keng tarqalgan simmetrik algoritmdir [6].

Shuningdek, boshqa algoritmlar — CAST-128, Skipjack, MARS, Serpent, Twofish kabi blok shifrlari ham mavjud. Ayrim davlatlar milliy algoritmlarini ishlab chiqishgan: Rossiyada GOST, Xitoyda SM4, Janubiy Koreyada SEED [7-10].

Simmetrik algoritmlarning kriptografik bardoshliligi ularning kalit uzunligi, struktura murakkabligi va zamonaviy hujumlarga chidamliligiga bog‘liq. AES hozircha eng optimal hisoblanadi, biroq kvant texnologiyalari xavfsizlik talablariga yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Asimmetrik shifrlash algoritmlarining kriptografik bardoshliligi

Asimmetrik shifrlash algoritmlari (ochiq kalitli kriptografiya) ikki xil kalit — ochiq va yopiq kalitlardan foydalanadi. Ular bir-birini to‘ldirib, axborotni shifrlash va autentifikatsiya qilish imkonini beradi. Eng mashhur asimmetrik algoritmlardan biri bu RSA algoritmi bo‘lib, katta butun sonlarni faktorizatsiya qilishning hisobiy murakkabligiga asoslangan [11]. Kalitlarda 2048 yoki 3072 bitli qiymatlar foydalanilganda yuqori xavfsizlikni ta’minlaydi, biroq ishlash tezligi past holatga kelib qoladi. Yana bir asimmetrik shifrlash algoritmlaridan ElGamal — diskret logarifm masalasiga asoslangan bo‘lib, kuchli kriptografik himoya beradi [12]. RSAga nisbatan sekinroq, lekin ba’zi hollarda mustahkamroq himoya taqdim etadi.

Elekktron raqamlash tizimlarida foydalaniladigan yana bir algorimt bu DSA (Digital Signature Algorithm) — raqamli imzo uchun mo‘ljallangan bo‘lib, autentifikatsiyani ta’minlashda keng qo‘llaniladi.

Elliptik egrilik kriptografiyasi asoslangan ECC shifrlash algoritmi yuqori darajadagi xavfsizlikni qisqa kalitlar orqali ta’minlaydi. Masalan, 256 bitli ECC kaliti 3072 bitli RSA kalitiga teng darajadagi xavfsizlikni beradi. Bu esa uni tezkor va samarali algoritmga aylantiradi.

Asimmetrik algoritmlarning bardoshliligi matematik muammolarning yechish murakkabligiga bog‘liq [13]. RSA va ECC hozirgi zamon shifrlash tizimlarida keng qo‘llaniladi, ammo kvant kompyuterlar ularning xavfsizligini tahdid ostiga qo‘yishi mumkin. Shu bois kvantga chidamli algoritmlar ustida izlanishlar davom etmoqda.

Simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarining taqqoslash tahlili

Simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarining o‘zaro taqqoslanishi ularning xavfsizlik infratuzilmasiga integratsiyalashuvi, samaradorligi va qo‘llanilish sohalarini aniqlashda muhim omil

hisoblanadi. Bunda algoritmlarning samaradorligiga kalitlarni boshqarish, ishlash tezligi, ishonchlilik va masshtablanuvchanlik kabi xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval

Simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarining asosiy farqlari

Mezonlar	Simmetrik shifrlash (SE)	Assimetrik shifrlash (AE)
Kalitlar soni	1 ta maxfiy kalit	1 ta ochiq va 1 ta yopiq kalit
Ishlash tezligi	Juda yuqori	Past (1000 martagacha sekinroq)
Kalitlar boshqaruvi	Kalitni xavfsiz uzatish muammo	Ochiq kalit orqali uzatiladi – xavfsiz
Xavfsizlik darajasi	Kalit uzatishda zaiflik mavjud	Yopiq kalitni faqat qabul qiluvchi biladi
Hisoblash resurslari	Kam resurs talab qiladi	Katta hisoblash quvvatini talab qiladi
Qo‘llanish sohasi	Real vaqtli tizimlar, IoT qurilmalari	Xavfsiz kalit almashinuvi, digital imzo

Simmetrik shifrlashda ma’lumotlar bloklar yoki oqim shaklida qayta ishlanadi. AES algoritmi 128 bitli bloklarda ishlaydi va 128, 192, 256 bitli kalitlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Assimetrik algoritmlar esa ma’lumotlarni kalit hajmiga mos fragmentlarga bo‘lib qayta ishlaydi.

Sun’iy intellekt tizimlarida simmetrik shifrlash, ayniqsa AES, yuqori tezlik va past resurs sarfi tufayli afzallik kasb etadi. Assimetrik algoritmlar (masalan, RSA) esa yuqori xavfsizlik darajasi bilan ajralib turadi va maxfiy ma’lumotlar almashinuvida muhim rol o‘ynaydi.

Resurslar cheklangan muhitlarda (masalan, IoT qurilmalarda) simmetrik shifrlash energiya samaradorligi bilan ustunlik qiladi. Assimetrik usullar esa ko‘proq hisoblash resurslari talab qiladi va kalit almashinuvi yoki raqamli imzo uchun qo‘llaniladi. Shu tariqa, Simmetrik — tezlik va samaradorlik, Asimmetrik esa xavfsizlik va ishonchlilikni ta’minlaydi.

Sun’iy intelektga asoslangan kiberxavfsizlikda simmetrik va assimetrik shifrlash usullarining qiyosiy tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Aspekt	Simmetrik shifrlash (SSH)	Assimetrik shifrlash (ASH)
AI bilan integratsiyasi	Yuqori tezlik, katta hajmdagi ma’lumotlarni tez shifrlash uchun qulay	Xavfsiz boshlang‘ich ulanishlar, lekin sekin ishlaydi
Ma’lumot o‘tkazish tezligi	Yuqori, katta ma’lumotlar oqimini boshqarishda ideal	Past, xavfsiz bir martalik almashinuv uchun mos
Resurslardan foydalanish	Past talab, mobil va IoT tizimlari uchun qulay	Yuqori talab, murakkab tarmoqlarda xavfsiz sozlash uchun ideal
Real vaqtli samaradorlik	Tezkor shifrlash, real vaqtli AI funksiyalari uchun mos	Sezilarli sekinlik, faqat xavfsiz qabul qilishda samarali
Kengayuvchanlik	Yuqori tezlikda yaxshi masshtablanadi	Tarqatilgan va bulut tizimlarida xavfsiz kommunikatsiya uchun mos
Batareya va quvvat iste’moli	Kam quvvat sarfi, mobil/Iot ilovalar uchun samarali	Yuqori quvvat talab qiladi, markazlashtirilgan kalit almashinuvida ishlatiladi
Xavfsizlik darajasi	Tez, ammo kalit boshqaruvi zaifligi mavjud	Yuqori xavfsizlik, maxfiylik talab qilinadigan joylarga mos
Murakkablik darajasi	Soddaligi bilan past kechikma ta’minlaydi	Murakkab, katta ma’lumotlarda sekinlik keltiradi
SI ilovalaridagi qo‘llanilishi	Real vaqtli tahdidlarni aniqlash va monitoring	Federativ o‘qitish va nozik xavfsiz ulanishlarda qo‘llanadi

Simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlari turli afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, ularning qo‘llanilishi aniq holatlarga bog‘liq. Simmetrik usullar yuqori tezlik va samaradorlikni, assimetrik

usullar esa yuqori xavfsizlikni ta’minlaydi. Shu sababli, zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarida bu ikki yondashuvni birgalikda qo‘llash ma’lumotlarni tahdidlar ostida ham ishonchli va samarali himoya qilish imkonini beradi.

DES va AES algoritmlari asosidagi dasturiy vosita modullari

Simmetrik algoritmlar assimetrik algoritmlarga nisbatan sezilarli darajada tez ishlaydi. Quyidagi jadvalda DES va AES algoritmlarining turli kalit uzunliklaridagi shifrlash va deshifrlash tezliklari (1 MB ma’lumotga nisbatan, millisekundda o‘lchangan) ko‘rsatilgan (3-jadval).

3-jadval

Algoritm	Kalit uzunligi (bit)	Shifrlash tezligi (ms)	Deshifrlash tezligi (ms)
DES	56	8.5	8.4
AES	128	2.1	2.0
AES	192	2.6	2.5
AES	256	3.2	3.1

AES algoritmi DESga qaraganda barcha jihatlarda ustun: u tezroq ishlaydi, xavfsizligi yuqori va resurslar talabida ham samaralidir. Shuning uchun zamonaviy axborot xavfsizligi tizimlarida AES algoritmidan foydalanish eng maqbul tanlov hisoblanadi. Ushbu bo‘limda keltirilgan amaliy taqqoslash natijalari, kalit uzunligining algoritm samaradorligi va xavfsizlik darajasiga qanday ta’sir qilishini aniq ko‘rsatadi. Bu esa simmetrik shifrlash algoritmlarini tanlashda asosli qaror qabul qilish imkonini beradi.



3-rasm. AES va DES algoritmlarining shifrlash bo‘yicha solishtirish grafigi



4-rasm. AES va DES algoritmlarining deshifrlash bo‘yicha solishtirish grafigi

Shifrlash va deshifrlash bo‘yicha umumiy vaqt samaradorligi



5-rasm. AES va DES larning shifrlash va deshifrlash bo‘yicha grafigi

Xuddi shundey asimmmetrik shifrlash RSA va ECC algoritmlarining ishlash samaradorligini o‘rganish asosida olingan natijalar 6-7-8-rasmlarda aks etgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, RSA shifrlash jarayonida yuqori samaradorlikni ta’minlasada, deshifrlashda sezilarli darajada sekin ishlaydi. Aksincha, ECC algoritmi shifrlashda biroz sekinroq ishlasa-da, deshifrlashda yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi. Umuman olganda, ECC algoritmi RSA algoritmiga nisbatan samarali va xavfsizroq ekanligi 4-jadvalda ko‘rsatilgan.

4-jadval

8 bitli shifrlash, deshifrlash va umumiy vaqt (sekundlarda)

Xavfsizlik bitlari	ECC (Shifrlash)	RSA (Shifrlash)	ECC (Deshifrlash)	RSA (Deshifrlash)	ECC (Umumiy vaqt)	RSA (Umumiy vaqt)

80	2.1685	0.1366	5.9099	5.5372	8.0784	5.6738

112	9.9855	0.1635	6.9333	20.4108	16.9188	20.5743
128	15.0882	0.1672	7.3584	46.4782	22.4466	46.6454
144	20.2308	0.1385	8.4785	77.7642	28.7093	77.9027



6- rasm. RSA va ECC shifrlash vaqti bo‘yicha solishtirish grafigi



7- rasm. RSA va ECC deshifrlash vaqti bo‘yicha solishtirish grafigi



8- rasm. RSA va ECC umumiy shifrlash va deshifrlash vaqti bo‘yicha solishtirish grafigi

Yuqorida 8 bitli ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan tahlil natijalari ko‘rib chiqildi. Endilikda esa, 64 bitli xavfsizlik darajasi uchun shifrlash, deshifrlash va umumiy ishlov berish jarayonlariga sarflanadigan vaqt ko‘rsatkichlarini taqqoslash asosida batafsil tahlilni amalga oshiramiz (5-jadval). Ushbu algoritmlarni shifrlash va deshifrlashning vaqt bo‘yicha samaradorlik natijalari tahlili qilindi.

5-jadval

Security Bits	Shifrlash (ECC)	Shifrlash (RSA)	Deshifrlash (ECC)	Deshifrlash (RSA)	Umumiy Vaqt (ECC)	Umumiy Vaqt (RSA)
80	2.1685	0.1366	5.9099	5.5372	8.0784	5.6738
112	9.9855	0.1635	6.9333	20.4108	16.9188	20.5743
128	15.0882	0.1672	7.3584	46.4782	22.4466	46.6454
144	20.2308	0.1385	8.4785	77.7642	28.7093	77.9027

Olingan natijalarning grafik kurinishi quyidagi 9 – 11 rasmlarda keltirilgan.



9- rasm. 64 bitli ma’lumot uchun shifrlash vaqti



10- rasm. 64 bitli ma’lumot uchun deshifrlash vaqti



11- rasm. 64 bitli ma’lumot uchun shifrlash va deshifrlash vaqti

Kriptografik tizimlar samaradorligini baholashda, xavfsizlik darajasidan tashqari, algoritmlarning ishlash tezligi ham muhim o‘rin tutadi. Katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda yoki real vaqtda ishlovchi tizimlarda, kriptografik operatsiyalarning tezligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu tadqiqotda, RSA va ECC algoritmlarining ishlash tezligi (operatsiya/sekund) kalit uzunligi va egriya darajasi (bitlarda) nuqtayi nazaridan taqqoslandi.

RSA algoritmi, kalit uzunligi oshishi bilan ishlash tezligining pasayishini ko‘rsatdi. Quyidagi natijalar kuzatildi:

1024 bitli kalitda ~18500 operatsiya/sekund.

2048 bitli kalitda ~13000 operatsiya/sekund.

3072 bitli kalitda ~9000 operatsiya/sekund.

Bu shuni anglatadiki, kalit uzunligi ortgani sari RSA algoritmida hisoblash murakkabligi oshib, natijada operatsion tezlik sezilarli darajada kamayadi. Bu, ayniqsa, yuqori xavfsizlikni talab qiladigan tizimlarda, resurslar sarfini oshiradi va tizimning umumiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda simmetrik va assimetrik shifrlash algoritmlarining nazariy asoslari, kriptografik bardoshliligi va amaliy qo‘llanilish samaradorligi keng qamrovda o‘rganildi. Shifrlash tizimlarining xavfsizlik darajasi, kalit uzunligi, ishlash tezligi va hisoblash resurslariga bo‘lgan talablar singari asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha chuqur tahlillar olib borildi.

Amaliy tahlillar asosida turli kalit uzunliklarida algoritmlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari solishtirildi va turli sharoitlarda ularni optimal qo‘llash senariylari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot xavfsizligi tizimlarida shifrlash algoritmlarini tanlashda xavfsizlik, tezlik, kalit uzunligi va hisoblash resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar sinchkovlik bilan tahlil qilinishi lozim. Aynan simmetrik va assimetrik shifrlash yondashuvlarini muvozanatli ravishda birlashtirish kiberxavfsizlikni samarali ta’minlashning eng maqbul strategiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stallings, W. (2020). Cryptography and Network Security: Principles and Practice. Pearson.
2. Menezes, A. J., van Oorschot, P. C., & Vanstone, S. A. (1996). Handbook of Applied Cryptography. CRC Press.
3. Rivest, R. L., Shamir, A., & Adleman, L. (1978). A Method for Obtaining Digital Signatures and Public-Key Cryptosystems. Communications of the ACM, 21(2), 120–126.
4. Koblitz, N. (1987). Elliptic Curve Cryptosystems. Mathematics of Computation, 48(177), 203–209.
5. Diffie, W., & Hellman, M. E. (1976). New Directions in Cryptography. IEEE Transactions on Information Theory, 22(6), 644–654.
6. Schneier, B. (1996). Applied Cryptography. John Wiley & Sons.
7. Koblitz, N. (1987). Elliptic Curve Cryptosystems. Mathematics of Computation, 48(177), 203–209.

8. Алгоритм ГОСТ 28147-89 и шифр «Магма» (ГОСТ Р 34.12-2015) - КРИПТОГРАФИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАЦИИ
9. Шифр «Кузнечик» (ГОСТ Р 34.12-2015) и режимы работы блочных шифров (ГОСТ Р 34.13-2015) - КРИПТОГРАФИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАЦИИ
10. https://intuit.ru/studies/curriculums/4101/courses/28/lecture/20416?page=5
11. https://lazarusalliance.com/ru/what-is-advanced-encryption-standard-aes-and-how-is-it-related-to-nist/
12. N. Gura, A. Patel, A. Wander, H. Eberle va S. Shantz, “8-bitli protsessorda elliptik egri kriptografiya va RSAnisolishtirish”.Kriptografik apparat va o'rnatilgan tizimlar CHES 2004, ser. Informatika fanidan ma'ruza matnlari,M. Joye va J.Quisquater, Eds. Springer BerlinHeidelberg, 2004, jild. 3156, 119–132-betlar.
13. B. Alese, E. Philemon va S. Falaki, “Ochiq kalitlarnishifrlash sxemalarining qiyosiy tahlili”,Xalqaro muhandislik va texnologiya jurnali, jild. 2, yo'q. 9, 1552–1568-betlar, 2012 yil.
14. Maruf T. Hazard recognition system based on violation of the integrity of the field and changes in the intensity of illumination on the video image //2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2022. – С. 1-3.
15. Axatov A. R., Tojiyev M. R., Shirinboyev R. S. Konvolyutsion neyron tarmog ‘i asosida video tasvirdan yong ‘inni erta aniqlash //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 128-132.

SUN'IY INTELLEKT, KIBERXAVFSIZLIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR

Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, Menejment kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishida sun'iy intellekt (AI) va kiberxavfsizlikning o‘rni, ularning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va kelajakdagi istiqbollari tahlil qilinadi. AI tizimlarining qaror qabul qilish jarayonlaridagi roli, ma’lumotlarni himoya qilishning zamonaviy usullari, shuningdek, raqamli transformatsiya davrida insoniyat duch keladigan yangi qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, ma’lumotlar himoyasi, algoritmlar, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamli qurollanish.

XXI asr axborot texnologiyalari inqilobi davri bo‘lib, sun'iy intellekt (AI) va kiberxavfsizlik kabi sohalar insoniyatning texnologik taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. AI tizimlari tibbiyot, transport, moliya va sanoat kabi sohalarda qarorlar qabul qilishni optimallashtirsa, kiberxavfsizlik esa shaxsiy va davlat ma’lumotlarini xakerlik hujumlaridan himoya qilishda zarur vositaga aylandi. Biroq, texnologiyalar tez rivojlanib borar ekan, ma’lumotlar xavfsizligi, axloqiy masalalar, kiberjinoyatlar va AI tizimlarining ishonchliligi kabi yangi muammolar vujudga kelmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellekt va kiberxavfsizlikning nazariy asoslari, amaliy tatbiqlari hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan global chaqiriqlar yoritiladi. Sun'iy intellekt — bu mashinalarning inson kabi fikrlash, tushunish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan texnologik yondashuvdir. AI, ayniqsa, mashinaviy o‘rganish (ML) va chuqur o‘rganish (DL) texnologiyalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, naqshlarni aniqlash va bashorat qilish imkonini beradi. Uning amaliy qo‘llanilishi quyidagicha:

Tibbiyotda: IBM Watson kabi tizimlar rentgen suratlari asosida kasalliklarni 95% aniqlik bilan tashxislashi mumkin, bu esa erta tashxis va davolashni osonlashtiradi.

Sanoatda: avtomatlashtirilgan robotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, inson ishtirokini kamaytiradi va ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi.

Moliya sohasida: AI algoritmlari fond bozoridagi tendensiyalarni kuzatib borib, xavfni kamaytirish va daromadni oshirishga xizmat qiladi.

Shunga qaramay, AI tizimlarining qaror qabul qilish jarayonlari shaffof bo‘lishi, ularning natijalari tushunarli tarzda izohlanishi (Explainable AI) lozim. Bundan tashqari, inson huquqlari, maxfiylik va bandlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratilishi kerak. Ishlab chiqilayotgan algoritmlarda adolatlilik, diskriminatsiyadan holi bo‘lish va etik tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Kiberxavfsizlik: zamonaviy tahdidlar va himoya mexanizmlari Raqamli transformatsiya sharoitida ma’lumotlar eng qimmatli aktivga aylanmoqda. Shuning uchun ularni himoya qilish va kiberxavfsizlikni ta’minlash zamonaviy jamiyatda ustuvor vazifalardan biridir. 2023-yilda global kiberhujumlar soni 65 foizga oshgani (Cybersecurity Ventures) bu sohaga bo‘lgan ehtiyojni yaqqol ko‘rsatadi. Fishing: foydalanuvchilarni yolg‘on xabarlar yordamida aldab, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash usuli. Ransomware: foydalanuvchining ma’lumotlarini shifrlab, ularni qayta ochish evaziga pul talab qilish. IoT (Internet of Things) hujumlari: aqlli qurilmalar orqali butun tarmoq tizimiga kirishga urinishlar. Blockchain texnologiyasi: ma’lumotlarni o‘zgartirib bo‘lmaydigan tarzda saqlash imkonini beradi. Biometrik autentifikatsiya: yuz, barmoq izi yoki ko‘z to‘rini skanerlash orqali shaxsni aniqlash. AI asosida tahdidlarni aniqlash: hujumlarni oldindan prognoz qilish va avtomatik ravishda himoya choralarini ko‘rish.

Kiberxavfsizlik nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va siyosiy muammolarga ham aylandi. Korxonalar va davlat idoralari global darajada standartlar va qonunchilik asosida birgalikda harakat qilishlari lozim.

XXI asr chaqiriqlari: Sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik sohasidagi dolzarb muammolar Sun'iy intellekt (AI) va kiberxavfsizlikning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatga nafaqat yangi imkoniyatlar, balki chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Ushbu sohalarda yuzaga keladigan asosiy chaqiriqlarni tahlil qilish orqali ularga innovatsion yechimlarni topish mumkin.

AI va ish o‘rinlarining kelajagi. Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt tizimlarining keng qo‘llanilishi an'anaviy kasblarni tubdan o‘zgartirmoqda. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) ma'lumotlariga ko‘ra, 2025-yilga kelib 85 million ish o‘rni yo‘qolishi mumkin, biroq AI, ma'lumotlar tahlili va robototexnika sohalarida 97 million yangi ish o‘rni paydo bo‘lishi kutilmoqda. Bu o‘zgarishlar quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

Kasbiy qayta tayyorlash zarurati – Avtomatlashtirish tufayli ishsiz qolgan xodimlar yangi ko‘nikmalar bilan ta'minlanishi kerak. Masalan, AI muhandislari, ma'lumotlar olimlari va kiberxavfsizlik mutaxassislariga bo‘lgan talab keskin oshmoqda.

Ta'lim tizimini isloh qilish – An'anaviy ta'lim dasturlari zamonaviy texnologiyalar talablariga mos kelmay qolmoqda. STEM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, Matematika) yo‘nalishlarini rivojlantirish, onlayn kurslar va amaliy loyihalarga investitsiyalar zarur.

Ishchi kuchi tarkibidagi tengsizlik – AI tizimlari past malakali ishlarni avtomatlashtirishi tufayli ijtimoiy tabaqalanish kuchayishi mumkin.

Kiberqurollanish va xalqaro xavfsizlik. Raqamli texnologiyalar tarqalgan sari kiberhujumlar ham murakkablashib bormoqda. XXI asrda davlatlar o‘rtasidagi "kiber urushlar" haqiqiy tahdidga aylanmoqda:

Davlatlararo kiberhujumlar – Maxfiy ma'lumotlarni o‘g‘irlash, elektr tarmoqlarini buzish (masalan, Ukraina energiya tizimiga hujumlar) va propaganda uchun AI-dan foydalanish keng tarqalmoqda.

Terrorizm va kiberjinoyatlar – Terroristik guruhlar kiberhujumlar orqali moliyaviy tizimlarga zarar yetkazishi mumkin.

Xalqaro hamkorlikning ahamiyati – BMT, NATO va boshqa xalqaro tashkilotlar kiberxavfsizlik bo‘yicha umumiy standartlarni ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Biroq, davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar samarali hamkorlikka to‘sqinlik qilmoqda.

Ma'lumotlar xususiyligi va shaxsiy huquqlar. Yevropa Ittifoqining Umumiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish Qonuni (GDPR) kabi qonunlar shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlashga qaratilgan. Biroq, AI tizimlari keng miqyosda foydalanuvchilar ma'lumotlarini yig‘ib, tahlil qilgani holda, quyidagi muammolar yuzaga keladi:

Shaffoflik muammosi– AI qanday qaror qabul qilayotganini tushuntirish qiyin ("AI qora qutisi muammosi").

Ma'lumotlar suiiste'moli– Katta texnologiya kompaniyalari (Google, Meta) foydalanuvchilar ma'lumotlarini reklama uchun sotishda ayblanmoqda.

Qonuniy tartibga solish– Har bir mamlakatda ma'lumotlar himoyasi qonunlari turlicha, bu esa global kompaniyalar uchun qiyinchilik tug‘diradi.

Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik bugungi kunda faqat IT mutaxassislari uchun emas, balki har bir sohaga qiziqqan yoshlar, ayniqsa talabalar uchun ham dolzarb va o‘rganilishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlardir. AI va kiberxavfsizlikning uyg‘unligi raqamli jamiyatni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. AI inson faoliyatini avtomatlashtirib, ish unumdorligini oshirsa, kiberxavfsizlik esa bu jarayonlarda ishonchlilik va xavfsizlikni kafolatlaydi. Talaba sifatida ushbu texnologiyalarni o‘rganish bizga nafaqat zamonaviy texnologiyalarni tushunish, balki ularni amaliyotga tadbiq etish, masalan, yangi algoritmlar yaratish, axborotlarni himoyalash, yoki startaplar ishlab chiqishda muhim tajriba bo‘lishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik sohalarining ijtimoiy va axloqiy jihatlari ham diqqat markazida turishi lozim. AI texnologiyalarining adolatli va inson huquqlariga zid bo‘lmagan tarzda ishlashi, kiberhujumlar oqibatida fuqarolarning ma’lumotlari buzilmasligi kabi masalalar — biz, talabalar, ertangi kun liderlari sifatida mas’uliyat bilan yondashishimiz lozim bo‘lgan yo‘nalishlardir. Kelajakda ushbu sohalarda ilmiy izlanishlar olib borish, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish va milliy darajada raqamli siyosatni shakllantirishda faol bo‘lish yoshlarning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan, biz — bugungi talabalar — sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik sohasida nafaqat iste’molchi, balki bu texnologiyalarni yaratib, rivojlantiruvchi kuch bo‘lishga intilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. IBM. "Tibbiyotda sun’iy intellekt: Diagnostika va davolash", 2023-yil. https://research.ibm.com
2. Cybersecurity Ventures. "Global kiberjinoyatlar hisoboti", 2024-yil. https://cybersecurityventures.com/reports/
3. Jahon Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum). "Ish o‘rinlarining kelajagi haqidagi hisobot", 2023-yil. https://www.weforum.org/
4. Yevropa Ittifoqi Kiberxavfsizlik Agentligi (ENISA). "Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik tendensiyalari", 2022-yil. https://www.enisa.europa.eu

РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В БАНКОВСКОЙ СФЕРЕ.

Umarov Ulug‘bek Unarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kata o‘qituvchisi
umarov.u8u@gmail.com

Аннотация. В данной работе рассматривается развитие и внедрение технологий искусственного интеллекта в банковской сфере. Подчёркивается роль ИИ в трансформации финансовых услуг, повышении эффективности, снижении затрат и улучшении качества клиентского обслуживания. Отдельное внимание уделено ключевым направлениям применения ИИ — таким как чат-боты, аналитика больших данных, борьба с мошенничеством и автоматизация процессов. Обозначены преимущества, вызовы и перспективы дальнейшего развития ИИ в банковском секторе.

Введение.

Развитие цифровых технологий коренным образом изменяет ландшафт финансовых услуг. Одним из ключевых технологических трендов, влияющих на банковскую систему, является искусственный интеллект (ИИ). Современные банки активно внедряют ИИ для повышения качества обслуживания клиентов, оптимизации внутренних процессов, снижения издержек и повышения безопасности. ИИ в банковской сфере выходит за рамки автоматизации рутинных задач и становится стратегическим инструментом для создания конкурентных преимуществ.

Основные направления применения ИИ в банках.

ИИ находит применение в широком спектре банковских операций. Одним из наиболее заметных направлений является обслуживание клиентов. Чат-боты и голосовые помощники, работающие на базе технологий обработки естественного языка (NLP), позволяют круглосуточно предоставлять консультации, отвечать на вопросы клиентов и выполнять простые банковские операции. Это снижает нагрузку на операторов и повышает доступность сервиса. Другим важным направлением является анализ больших данных. ИИ способен обрабатывать и интерпретировать большие объёмы клиентской информации, выявляя поведенческие паттерны, определяя кредитные риски, прогнозируя отток клиентов и предлагая индивидуальные продукты. Это делает банковские предложения более персонализированными и эффективными. Кроме того, ИИ используется в системах обнаружения мошенничества. Алгоритмы машинного обучения в режиме реального времени анализируют транзакции и выявляют подозрительные действия, что позволяет оперативно блокировать мошеннические операции. Такие системы становятся всё более точными и адаптивными к новым схемам злоумышленников.

Преимущества внедрения ИИ в банковскую деятельность.

Одним из главных преимуществ ИИ является повышение эффективности работы банков. Благодаря автоматизации процессов сокращаются временные и трудозатраты, что приводит к снижению издержек. Например, автоматический анализ документов при рассмотрении кредитных заявок значительно ускоряет процесс принятия решений. ИИ также способствует улучшению качества обслуживания клиентов. Быстрая и точная обработка запросов, персонализированные рекомендации и круглосуточный доступ к сервисам формируют положительный клиентский опыт и повышают лояльность. Не менее важно влияние ИИ на управление рисками. Предиктивная аналитика позволяет заранее выявлять потенциальные проблемы, такие как рост кредитной задолженности или угрозы кибербезопасности, и принимать меры по их предотвращению.

Вызовы и риски использования ИИ в банковской сфере.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение ИИ сопровождается рядом вызовов. Прежде всего, это вопросы этики и прозрачности. Алгоритмы ИИ могут быть «чёрными ящиками» — их решения не всегда легко объяснить. Это особенно критично при отказе в кредите или автоматической блокировке операций, когда клиент требует разъяснений. Второй проблемой является защита персональных данных. Для эффективной работы ИИ требуется доступ к большому объему чувствительной информации, что требует соблюдения строгих стандартов безопасности и конфиденциальности. Также существует риск технологической зависимости. Банки, полагаясь на сторонние ИИ-решения, могут утратить контроль над критически важными процессами. Важно развивать собственные компетенции и подходы к созданию и внедрению ИИ. Наконец, автоматизация может привести к сокращению рабочих мест в традиционных банковских подразделениях. Это требует выработки стратегий переквалификации сотрудников и адаптации организационной культуры.

Перспективы развития ИИ в банковском секторе.

В будущем роль ИИ в банковской сфере будет только расти. Ожидается, что ИИ будет всё глубже интегрироваться в стратегическое управление банком, участвуя в принятии решений на всех уровнях. Появятся более интеллектуальные системы поддержки клиентов, способные вести полноценные диалоги, решать нестандартные задачи и предлагать оптимальные решения на основе поведенческого анализа. Развитие квантовых вычислений, нейроморфных чипов и новых моделей ИИ откроет новые возможности по обработке и интерпретации данных. Важную роль сыграет также развитие регулирующего поля, направленного на обеспечение прозрачности и справедливости ИИ-решений. Банки будущего станут не только финансовыми учреждениями, но и высокотехнологичными платформами, интегрирующими ИИ, блокчейн, интернет вещей и другие передовые технологии.

Заключение.

Искусственный интеллект трансформирует банковскую отрасль, предоставляя новые возможности и преимущества как для клиентов, так и для самих финансовых организаций. Однако эффективное и этически обоснованное использование ИИ требует не только

технологических ресурсов, но и стратегического подхода, включающего вопросы прозрачности, безопасности и социальной ответственности. Банки, способные грамотно интегрировать ИИ в свою деятельность, получат устойчивые конкурентные преимущества в условиях цифровой экономики.

Литература.

1. Сборник статей под ред. Ассоциации российских банков., Искусственный интеллект в банковской сфере 2024., 148-ст.
2. Иванова Е.С., Петров К.В., Искусственный интеллект в банковском секторе: возможности и вызовы 2024., 300-ст.
3. Artificial Intelligence Applications in Banking and Financial Services 2024., 327-ст.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ТЕХНОЛОГИИ РАСПОЗНАВАНИЯ ЛИЦ ДЛЯ АВТОМАТИЗИРОВАННОГО УЧЁТА ПОСЕЩАЕМОСТИ СТУДЕНТОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ В УЧЕБНЫХ АУДИТОРИЯХ.

Умаров Улугбек Унарович
Ташкентский государственный экономический университет Старший преподаватель
umarov.u8u@gmail.com

Аннотация. Современные образовательные учреждения стремятся автоматизировать процессы учёта студентов и повысить уровень безопасности в аудиториях. Применение искусственного интеллекта и технологий распознавания лиц на основе видеокамер позволяет в реальном времени определять количество студентов, фиксировать их присутствие, вести статистику посещаемости и выявлять несанкционированный доступ. Система функционирует на базе нейронных сетей, обеспечивающих высокую точность распознавания, даже при сложных условиях. Интеграция с образовательной платформой ВУЗа обеспечивает автоматическое обновление данных, уведомления и аналитическую поддержку. Особое внимание уделяется защите персональных данных. Внедрение технологии требует поэтапного подхода, но открывает широкие перспективы для цифровизации образования.

Современные образовательные учреждения стремятся повысить эффективность управления учебным процессом, а также усилить меры безопасности внутри учебных корпусов. Одним из перспективных направлений в этом контексте является внедрение искусственного интеллекта и технологии компьютерного зрения для автоматического подсчёта присутствующих студентов и их идентификации на занятиях с использованием видеокамер. Данный подход позволяет не только автоматизировать рутинные процессы, такие как учёт посещаемости, но и создать дополнительный уровень защиты внутри учебных пространств.

Использование ИИ в сочетании с камерами видеонаблюдения и алгоритмами распознавания лиц позволяет в реальном времени фиксировать присутствие студентов в аудитории, проводить их идентификацию, а также вести статистику посещаемости без вмешательства преподавателя. Это обеспечивает прозрачность учёта, исключает возможность подделки присутствия и позволяет своевременно выявлять случаи пропусков.

Алгоритмы распознавания лиц работают на базе нейронных сетей, обученных на больших массивах изображений, что позволяет точно определять лицо человека даже в условиях частичной видимости или изменённого внешнего вида. Кроме того, такие системы способны анализировать и фильтровать данные, чтобы исключить ложные срабатывания, обеспечивая высокую точность результатов. В условиях учебных аудиторий это особенно важно, поскольку свет, ракурсы и движение студентов могут влиять на качество распознавания.

Автоматизированный подход позволяет преподавателю сосредоточиться на образовательном процессе, а не на проверке списков. Кроме того, интеграция таких решений с образовательной платформой ВУЗа даёт возможность моментально обновлять базы данных,

формировать отчёты, направлять уведомления студентам и родителям о пропусках, а также использовать собранную информацию для аналитики и принятия управленческих решений.

Отдельное внимание в системе должно уделяться вопросам информационной безопасности. Лицевые биометрические данные являются персональными, поэтому необходимо соблюдать требования законодательства по защите персональных данных (включая GDPR, если используется международная система, и национальные законы в стране внедрения). Хранение и обработка данных должны осуществляться с использованием защищённых каналов, шифрования и политик ограниченного доступа.

Кроме того, система может быть дополнена модулями для реагирования на подозрительные ситуации. Например, при обнаружении несанкционированного лица в аудитории система может уведомить охрану или администрацию. Это расширяет функционал от простой регистрации студентов до обеспечения общего контроля за безопасностью учебного процесса.

Внедрение такой технологии требует поэтапного подхода: от пилотного проекта на нескольких аудиториях до масштабирования по всему учебному заведению. При этом необходимо учитывать технические ограничения (качество камер, вычислительные мощности, скорость сети) и обучать персонал работе с системой.

Таким образом, применение искусственного интеллекта и распознавания лиц для подсчёта студентов и защиты учебных аудиторий является инновационным шагом в цифровизации образования. Оно способствует автоматизации, снижению административной нагрузки, повышению дисциплины среди студентов и укреплению мер безопасности в образовательной среде.

Заключение.

Внедрение технологий искусственного интеллекта и распознавания лиц в учебный процесс позволяет существенно повысить точность учёта посещаемости студентов и уровень безопасности в аудиториях. Автоматизация избавляет преподавателей от рутинной работы, исключает ошибки и подделки, а также обеспечивает прозрачность и контроль за учебным процессом. Система может интегрироваться с внутренними ресурсами ВУЗа, предоставляя актуальную статистику и возможность быстрого реагирования на несанкционированный доступ. При этом важно строго соблюдать требования по защите персональных данных и обеспечить надёжную архитектуру системы. Таким образом, применение ИИ в образовательной среде является важным шагом к цифровизации образования, повышению его эффективности и безопасности.

Литература.

1. Гонсалес Р. С., Вудс Р. Е. Цифровая обработка изображений Москва: Техносфера, 2012. – Стр. 692–740
2. Гудфеллоу И., Бенжио Й., Курвил А. Глубокое обучение (Deep Learning) Москва: ДМК Пресс, 2018. – Стр. 533–562
3. Richard Szeliski Computer Vision: Algorithms and Applications Springer, 2022. – Pages 375–420
4. Чжан Ц., Кантор М. Безопасность информационных систем Москва: Форум, 2020. – Стр. 351–367

KELAJAK TEXNOLOGIYALARIDA SUN‘IY INTELLEKT VA KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI

Uzaqov Ortik Shaymardanovich, Qarshi davlat texnika universiteti
“OAT va T” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD)
E-mail: uzaqovortiq@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli transformatsiya sharoitida kiber tahdidlarning murakkabligi, o‘zgaruvchanligi va keltirayotgan zarar oqibatlariga ko‘ra sonining ortib borayotganligi sun‘iy intellektning (SI) ushbu dinamik muhitda axborot xavflariga qarshi kurashish uchun samarali yechim sifatida qaralmoqda hamda kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarni aniqlash, zaif joylarni baholash, hodisalarga javob qaytarish va xavflarni oldindan bashorat qilish usullari va algoritmlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik, tahdidlarni aniqlash, mashina o‘rganish, maxfiylik, raqamli tahdid, zaiflik, algoritm.

Kiber tahdidlarning murakkab tabiatini hisobga olgan holda, ularni bartaraf etish uchun doimiy yangilanadigan va moslashuvchan strategiyalar talab qilinadi. SI kiberxavfsizlikni mustahkamlashda yangi imkoniyatlarni ochuvchi ilg‘or texnologiya sifatida ajralib turadi.

Kiberxavfsizlik sohasida SIning qo‘llanilishi tahdidlarni aniqlash qobiliyatini oshirib, himoya tizimlarini kuchaytirishga va xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. SIning tahdidlarni aniqlash, zaifliklarni o‘rganish, hodisalarga javob berish va oldindan tahlil qilish kabi asosiy funksiyalari, mashinali o‘rganish va ilg‘or ma‘lumotlarni tahlil qilish yordamida, SI asosidagi tizimlar katta hajmdagi ma‘lumotlarni real vaqt rejimida o‘rganib, xavfsizlik buzilishlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan noodatiy holatlarni aniqlashga imkon yaratadi. SI tashkilotlarga tahdidlarni oldindan sezish va ularni to‘liq hujumga aylanishidan avval oldini olish imkonini beradi[1].

SIni kiberxavfsizlik tizimlariga joriy etish jarayonida etik masalalar, shaxsiy ma‘lumotlar himoyasi va algoritmlardagi ehtimoliy bir tomonlamalik kabi muammolar yuzaga keladi. SI kiberxavfsizlik sohasida yangi davrni boshlab berdi va raqamli tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

SIning kiberxavfsizlikdagi ahamiyatini chuqur o‘rganish maqsadida keng qamrovli metodologiyani qo‘llaydi va tahdidlarni aniqlash, zaifliklarni baholash, hodisalarga javob berish va oldindan bashorat qilishdagi qo‘llanilishiga tizimli yondashadi.

Kelajakdagi kiberxavfsizlikning eng dolzarb masalalaridan biri - buyumlar interneti (IoT) tizimlaridir. **IoT** - bu turli xil qurilmalar, jumladan, aqlli uy jihozlari, masofadan boshqariladigan texnologiyalar, sanoat uskunalari va muhim infratuzilmalarni o‘z ichiga olgan keng tarmoqdir. IoT texnologiyalari qulaylik va avtomatlashtirishni taqdim etsada, ular xavfsizlik nuqtai-nazaridan sezilarli zaifliklarga ega bo‘lib, yovuz niyatli shaxslar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi mumkin. Zaif autentifikatsiya, yetarlicha himoya choralarining yo‘qligi va noto‘g‘ri boshqaruv IoT qurilmalarining hujumlarga moyilligini oshiradi. Shu sababli, kelajakdagi kiberxavfsizlik strategiyalarida IoT qurilmalari uchun kuchli shifrlash, muntazam dasturiy ta‘minotni yangilash va maxsus xavfsizlik protokollarini joriy etish muhim ahamiyatga ega[2].

SI va mashina o‘rganish texnologiyalarining rivojlanishi kiberxavfsizlik sohasida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Yovuz niyatli shaxslar ham ushbu texnologiyalardan foydalangan holda hujumlarni avtomatlashtirish, maqsadli fishing kompaniyalarini tashkil qilish va an‘anaviy himoya tizimlarini chetlab o‘tishga urinmoqda. Shuning uchun SI asosida yaratilgan himoya vositalarini doimiy takomillashtirish, yangi tahdidlarga real vaqt rejimida javob berish imkoniyatini ta‘minlash zarur.

Kvant hisoblash texnologiyasining paydo bo‘lishi kiberxavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlar va muammolarni yuzaga keltirmoqda. Kvant kompyuterlar hozirgi shifrlash usullarini buzishga qodir bo‘lishi mumkin, bu esa maxfiy ma‘lumotlarga jiddiy tahdid soladi. Shu sababli, kvantlarga chidamli shifrlash usullarini ishlab chiqish va post-kvantar kriptografiyasini yaratish ustida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bu yangi texnologiyalar ma‘lumotlarni kelajakdagi hujumlardan samarali himoya qilishga xizmat qiladi[3].

Ta‘minot zanjiri hujumlari ham kiberxavfsizlik sohasidagi dolzarb muammolardan biridir. Ko‘plab tashkilotlar uchinchi tomon yetkazib beruvchilariga ishonch bildiradi, ammo bu bog‘liqlik zaif joylarni hosil qiladi. Kiberjinoyatchilar ta‘minot zanjiri orqali tizimlarga noqonuniy kirish yoki zararli dasturlarni joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Shu sababli, ta‘minot zanjirini yaxshilab tekshirish, doimiy nazorat qilish va tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur.

Bulutli hisoblash ma‘lumotlarni saqlash va ishlov berishni osonlashtirsada, o‘ziga xos xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Ma‘lumotlar chiqib ketishi, noto‘g‘ri sozlamalar va ruxsatsiz kirish bulutdagi resurslarga katta zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, kelajakda bulut xavfsizligini mustahkamlash uchun kuchli kirish nazorati, shifrlash va monitoring tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy muhandislik va fishing usullari ham kiberxavfsizlik uchun doimiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Kiberjinoyatchilar insonlarning psixologik zaif tomonlaridan foydalangan holda ularni aldash va maxfiy ma‘lumotlarni qo‘lga kiritishga harakat qilishadi. Ushbu hujumlarga qarshi kurashish uchun foydalanuvchilarni ogoh qilish, kuchli autentifikatsiya usullarini qo‘llash va tezkor javob berish tizimlarini tashkil etish zarur[4].

Tizim ma‘muriyati tashkilotlar kiberxavfsizlik arxitekturasining muhim qismidir. Bu jarayon serverlar, ma‘lumotlar bazalari va operatsion tizimlarning boshqaruvi hamda xavfsizligini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi. Tizim ma‘murlari kiberxavfsizlik choralari, foydalanuvchilarga kirishni cheklash va tizimlarda yuzaga keladigan xavfli holatlarni monitoring qilish bilan shug‘ullanadi. Ular shuningdek, hodisalar yuz berganda tezkor javob choralarini ko‘rib, zararlarni minimallashtirish uchun zarur choralarga rahbarlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tizim ma‘muriyati kiberxavfsizlikning asosiy tarkibiy qismlaridan bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilishi tashkilotning axborot tizimlari xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
2. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th Edition). Pearson.
3. Sommer, R., & Paxson, V. (2010). “Outside the Closed World: On Using Machine Learning for Network Intrusion Detection”. *IEEE Symposium on Security and Privacy*.
4. Buczak, A. L., & Guven, E. (2016). “A Survey of Data Mining and Machine Learning Methods for Cyber Security Intrusion Detection.” *IEEE Communications Surveys & Tutorials*.

SUN’IY INTELLEKTDA KIBER TAHDIDLARNI ANIQLASH TIZIMLARINING SAMARADORLIGI

Uzaqov Ortik Shaymardanovich, Qarshi davlat texnika universiteti
“OAT va T” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.(PhD)
E-mail: uzaqovortiq@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun‘iy intellekt(SI) texnologiyalari asosida ishlaydigan tizimlarning kiber tahdidlarni aniqlash samaradorligi tahlil qilingan hamda mashinali o‘rganish (machine learning), chuqur o‘rganish (deep learning) va xulq-atvorni tahlil qilish (behavior analysis) algoritmlari asosida kiber tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu tizimlarning an‘anaviy yondashuvlarga nisbatan aniqlik, tezlik va moslashuvchanlik darajalari hamda SI texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, kiberxavfsizlik, kiber tahdid, tahdidlarni aniqlash, mashinali o‘rganish, chuqur o‘rganish, xulq-atvorni tahlil qilish, SI tizimlari.

Raqamli transformatsiyada kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalasi global miqyosda dolzarb muammoga aylanmoqda. Har yili millionlab kiberhujumlar sodir etilib, iqtisodiy - siyosiy, axborot

tizimlari va ma‘lumotlar bazalariga kiber tahdidlar amalga oshirilmoqda. Ana‘naviy tahdidlarni aniqlash tizimlari bu kiber hujumlarga qarshi kurashishda samarasiz bo‘lib bormoqda, ayniqsa yangi turdagi, oldin noma‘lum bo‘lgan (zero-day) tahdidlar bunga misol bo‘la oladi. Shu bois, kiberxavfsizlikni ta‘minlashda yangi yondashuvlar, jumladan, sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish zarurati muhim masalaga aylanmoqda.

SI asosidagi tahdidlarni aniqlash tizimlarining samaradorligi tahlil qilishda, SI asosiy yondashuvlari, ishlash prinsiplari va samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish muhimdir. SI asosidagi tizimlarning an‘anaviy usullarga nisbatan afzalliklarini aniqlash va ularning kiberxavfsizlik sohasidagi qo‘llanilish istiqbollarini baholashdan iborat bo‘ladi.

SI texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida qo‘llanilishi kiber tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. An‘anaviy xavfsizlik tizimlari statik qoidalar va signatura asosidagi yondashuvlarga tayangan bo‘lsa, SI bu jarayonlarga moslashuvchanlik va o‘z-o‘zini rivojlantirish xususiyatlarini olib kirdi. Mashinali o‘rganish algoritmlari kiber tahdidli holatlarning tarixiy ma‘lumotlari asosida model qurib, yangi va ilgari kuzatilmagan tahdidlarni aniqlashga imkon berdi. Ayniqsa, xulq-atvorni tahlil qilishga asoslangan yondashuvlar foydalanuvchilarning kundalik faoliyatini o‘rganib, har qanday og‘ishlarni potentsial xavf sifatida qayd eta oladi. Bu usul an‘anaviy tizimlardan ko‘ra ko‘proq sezgirlikka ega bo‘lib, aniqlik darajasi yuqori va noto‘g‘ri ijobiy signal berish holatlari ancha kam kuzatiladi[1].

Chuqur o‘rganish usullari esa ko‘p miqdordagi va murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni tahlil qilishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Masalan, neyron tarmoqlar yordamida tarmoq trafigi, elektron pochta xabarlari yoki foydalanuvchi faoliyati haqida to‘plangan katta hajmdagi ma‘lumotlar asosida kiber tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlash imkoniyati mavjud. Aynan ushbu texnologiyalar SI asosidagi tizimlarni kiberhujumlarga tezkor javob bera oladigan, o‘zini yangilab boradigan va tahliliy o‘rganishga asoslangan tizimlarga aylantirmoqda[2].

SI asosidagi tizimlari SIEM (security information and event management), EDR (endpoint detection and response), NTA (network traffic analysis) kabi tizimlar bilan integratsiyalashib, kompleks himoya strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tizimlar o‘zaro ma‘lumot almashish orqali tahdidlar haqidagi kontekstual ma‘lumotni boyitadi va ko‘proq aniqlik bilan xulosa chiqarishga yordam beradi. Rejalashtirilgan hujumlarni, zararli dastur namunalarini va ichki foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini aniqlashda SI muhim rol o‘ynaydi [3].

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, SI asosidagi tizimlar an‘anaviy vositalarga nisbatan yuqori aniqlik, tezkorlik va moslashuvchanlik darajalariga ega hisoblanadi. Ayniqsa, kiberhujumlar murakkablashib borayotgan bir paytda, faqat qoidalar asosida ishlovchi tizimlar bu tahdidlarni aniqlashda ojizlik qilmoqda. SI esa ushbu muammoga zamonaviy va ilg‘or yechimlar taklif qilmoqda. Shuningdek, bunday tizimlarning samaradorligi ularni qanday ma‘lumotlar bilan o‘rgatilishiga, tizim dizayni va doimiy ravishda yangilanib borilishiga ham bevosita bog‘liq [4].

SI texnologiyalari asosida tahdidlarni aniqlash tizimlari nafaqat mavjud tahdidlar bilan kurashishda, balki ularning oldini olish, yangi tahdidlarni bashorat qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa kiberxavfsizlik sohasida ularning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda (1-jadval).

1-jadval

SIEM, EDR va NTA tizimlarining tahliliy jadvali

Ko‘rsatkichlar	SIEM	EDR	NTA
Asosiy vazifasi	Loglar va voqealarni to‘plash, tahlil qilish, tahdidlarni aniqlash	Endpoint qurilmalarda tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish	Tarmoq trafigini tahlil qilish orqali tahdidlarni aniqlash
Kuzatuv darajasi	Keng ko‘lamli IT-infratuzilma bo‘yicha	Faqat Endpoint qurilmalar (kompyuterlar, serverlar)	Tarmoq darajasida (trafik, protokollar, oqimlar)
Reaktivlik	Voqeadan keyingi tahlil va xabardorlik	Real vaqtli aniqlash va javob berish	Real vaqtli tahlil va oqimlarni aniqlash

Sun’iy intellekt integratsiyasi	Anomaliyalarni aniqlash va qoidabozlikni kamaytirish	Davriy o‘rganish orqali avtomatik aniqlash	Davlat tahlili va xulq-atvor o‘zgarishlarini ko‘rish
Afzalliklari	Keng ko‘lamli kuzatuv va moslik (compliance) tekshiruvlari	Har bir qurilma uchun chuqur nazorat	Shifrlangan trafikni ham tahlil qilish mumkin
Kamchiliklari	Ko‘p noto‘g‘ri ijobiy signal va sozlash murakkabligi	Faqat Endpoint darajasida cheklangan nazorat	Yuqori tarmoq trafigi bilan ishlashda resurs talabchanligi
Qo‘llanilish sohasi	Katta kompaniyalar va SOC (Security operation center)	Kichik va o‘rta tashkilotlar, Endpoint muhofazasi	Tarmoq xavfsizligi va intruziyani aniqlash

Tadqiqotlar natijalari SI asosidagi tizimlar an‘anaviy vositalarga nisbatan yuqori aniqlik, tezkorlik va moslashuvchanlik darajalariga egaligini isbotlamoqda. Ayniqsa, kiberhujumlar murakkablashib borayotgan bir paytda, faqat qoidalar asosida ishlovchi tizimlar kiber tahdidlarni aniqlashda ojizlik qilmoqda. SI esa ushbu muammoga zamonaviy va ilg‘or yechimlar taklif qilmoqda. Bunday tizimlarning samaradorligi ularni qanday ma‘lumotlar bilan o‘rgatilishiga, tizim dizayni va doimiy ravishda yangilanib borilishiga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi[5].

SI texnologiyalari asosida tahdidlarni aniqlash tizimlari nafaqat mavjud tahdidlar bilan kurashishda, balki ularning oldini olish va yangi tahdidlarni prognoz qilishda ham katta imkoniyatlar yaratmoqda hamda kiberxavfsizlik sohasida ularning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lmoqda.

SI yordamida kiber tahdidlarni aniqlashning afzalliklari qo‘yidagilardan iborat:

real vaqt rejimida ishlash;

o‘zini-o‘zi o‘rgatish;

anomaliyani aniqlash;

xato foizining kamayishi.

Sun‘iy intellekt asosidagi kiber tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish yondashuvlari qo‘yidagidan iborat:

mashinali o‘rganish (machine learning) - tarmoq trafigi, foydalanuvchi xatti-harakatlari asosida tahdidlarni aniqlash;

chuqur o‘rganish (deep learning) - neyron tarmoqlar orqali murakkab tahdidlarni aniqlash;

nazoratsiz o‘rganish (unsupervised learning) - ilgari ma‘lum bo‘lmagan tahdidlarni aniqlash;

tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) - phishing va zararli e-pochtalarni aniqlashda ishlatiladi.

Samaradorlikni baholash mezonlariga aniqlik darajasi (accuracy), noaniqlik holatlar soni (false positives/negatives), ish tezligi (response time), moslashuvchanlik (adaptability), resurs sarfi (CPU/RAM yuki) kabilar muhim hisoblanadi hamda ushbu usullar bank tizimlari, davlat muassasalari, korporativ tarmoqlar, bulutli xizmatlar, IoT qurilmalar xavfsizligida qo‘llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi[6].

Asosiy kamchiliklar sifatida katta hajmdagi ma‘lumotlar talab qilinishi, modelni noto‘g‘ri o‘rgatish xatarlari, kiber hujumchilarning SI tizimlariga qarshi strategiyalari, maxfiylik va etik masalalar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, SI kiber tahdidlarni aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatishi, an‘anaviy xavfsizlik tizimlarini to‘ldirishi, lekin to‘liq almashtira olmasligi, o‘qitilgan SI modellarining doimiy ravishda yangilanib borilishi muhimligi, davlat va xususiy sektor SI asosida kiberxavfsizlik infratuzilmasini rivojlantirishga e‘tibor qaratishi lozimligi bilan asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stallings, W. (2020). *Computer Security: Principles and Practice*. Pearson Education.
2. Scarfone, K., & Mell, P. (2007). *Guide to Intrusion Detection and Prevention Systems (IDPS)*. NIST Special Publication 800-94.

3. Sommer, R., & Paxson, V. (2010). Outside the closed world: On using machine learning for network intrusion detection. *IEEE Symposium on Security and Privacy*, 305-316.
4. Shon, T., & Moon, J. (2007). A hybrid machine learning approach to network anomaly detection. *Information Sciences*, 177(18), 3799-3821.
5. Buczak, A. L., & Guven, E. (2016). A survey of data mining and machine learning methods for cyber security intrusion detection. *IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 18(2), 1153-1176.
6. Gavai, G., Sricharan, K., Gunning, D., & Hanley, J. (2015). Supervised and unsupervised methods for behavioral-based anomaly detection. *Proceedings of the 1st ACM Workshop on AI in Security*.

O’ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASHDA DATASET YIG’ISH MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Uzoqov Lochinbek Mamurjon o’g’li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, Sun’iy intellekt kafedrasi
lochinbekuzoqov@mail.ru

Annotatsiya: Soxta xabarlarning tarqalishi global muammo bo’lib, O’zbekiston ijtimoiy tarmoqlarida ham keng yo’nalgan. Ushbu tezisda O’zbek tilidagi soxta xabarlarni aniqlash uchun yaxshi ishlangan ma’lumotlar bazasi (dataset) yaratishda duch kelinadigan asosiy muammolar va ularning yechimlari ko’rib chiqiladi. Tezisda taqdim etilgan yechimlar nafaqat soxta xabarlarni aniqlash, balki O’zbek tilidagi boshqa tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) loyihalari uchun ham asos bo’lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: soxta xabarlar, dataset, O’zbek tili, NLP, fact-checking, ma’lumotlar annotatsiyasi, sun’iy intellekt.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, noto’g’ri, yolg’on yoki manipulyativ xabarlar tarqalish tezligi ham oshib bormoqda. Bu holat ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda ko’proq kuzatiladi va jamiyatda noto’g’ri qarorlar, vahima, ijtimoiy beqarorlik yoki siyosiy manipulyatsiyalarga olib kelishi mumkin. Soxta xabarlar (feyk news) bilan kurashish bo’yicha eng samarali usullardan biri bu – sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga asoslangan avtomatik aniqlash tizimlarini yaratishdir. Biroq bunday tizimlarning ishlashi uchun asosiy shartlardan biri – to’g’ri, keng qamrovli va ishonchli ma’lumotlar to’plamiga ega bo’lishdir. Aynan shu bosqichda O’zbekistonda va umuman o’zbek tilida feyk yangiliklar aniqlovchi tizimlar yaratishda jiddiy muammolar yuzaga chiqmoqda.

Dataset yig’ish jarayonida uchraydigan muammolarni tushunish uchun ularni batafsil ko’rib chiqamiz. Har bir muammo o’ziga xos jihatlarni o’z ichiga oladi va ularning yechimi turli usullarni talab qiladi.

1. O’ZBEK TILIDAGI MA’LUMOTLARNING CHEKLANGANLIGI: O’zbek tilida soxta va haqiqiy xabarlarni ajratish uchun tayyor datasetlar deyarli mavjud emas. Mavjud datasetlar ko’pincha ingliz yoki rus tillarida, o’zbekcha kontent esa asosan qo’lda yig’ilishi kerak. Soxta xabarlar haqiqiy xabarlarga nisbatan kamroq tarqalgan, bu esa balanssiz datasetga olib keladi. Agar datasetda haqiqiy xabarlar ko’p, soxtalari kam bo’lsa, model noto’g’ri o’rganishi mumkin. Soxta xabarlar siyosiy, tibbiy, ijtimoiy va boshqa mavzularda bo’lishi mumkin, lekin har bir soha uchun yetarli ma’lumot topish qiyin.

2. LINGVISTIK VA TILGA OID MUAMMOLAR: O’zbek matnlari lotin, kirill va hatto arab alifbolarida uchraydi, bu esa matnlarni qayta ishlashda qiyinchilik tug’diradi. Bir xil so’z turli alifbolarda yozilishi tufayli model uchun tushunish qiyin bo’lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda turlicha qisqartmalar, norasmiy so’zlar va mahalliy shevalardan foydalaniladi, masalan: “Qanday?” (rasmiy) ↔ “Qalay?” (norasmiy). O’zbek tili qo’shimchalarga boy bo’lib, bir so’z turli shakllarda ishlatilishi mumkin, masalan: “o’qiganman”, “o’qigandim”, “o’qib bo’ldim” – barchasi bir fe’lning turli shakllari. Ba’zi matnlarda lotin va kirill alifbolarining aralashmasi uchraydi: “Тошкентда (Toshkentda) янги метро қурилмоқда”.

3. ANNOTATSIYA VA TEKSHIRISH MUAMMOLARI: Soxta xabarlarni aniq belgilash uchun fakt-tekshiruvchilar (fact-checkers) kerak, ammo O’zbekistonda bunday mutaxassislar soni cheklangan.

Bir xabar bir ekspert uchun soxta, ikkinchisi uchun “shubhali” deb qaralishi mumkin. Annotatorlar kelishuvchanligini (inter-annotator agreement) oshirish uchun aniq mezonlar kerak. Har bir matnni qo’lda tekshirish va belgilash juda ko’p vaqt talab qiladi.

4. HUQUQIY VA ETIK MUAMMOLAR: Ijtimoiy tarmoqlardan yig’ilgan ma’lumotlar shaxsiy ma’lumotlarni o’z ichiga olishi mumkin, bu qonuniy jihatdan muammoli. Ommaviy axborot vositalaridan yig’ilgan matnlardan foydalanish mualliflik huquqini buzishi mumkin. Dataset tarkibida soxta xabarlar bo’lishi ularni qayta tarqatish xavfini oshiradi.

5. TEXNIK VA AMALIY QIYINCHILIKLAR: Ko’pgina saytlar avtomatik tarqatmalarni bloklaydi (masalan, CAPTCHA). Katta hajmdagi matnli ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish kuchli serverlar talab qiladi. Soxta xabarlar doimiy ravishda yangi usullar bilan paydo bo’ladi, shuning uchun datasetni doimiy yangilab turish kerak.

O’zbek tilida soxta xabarlarni aniqlash uchun dataset yig’ish – bu ko’p jihatli muammolarga ega bo’lgan murakkab jarayon. Ushbu muammolarni hal qilish uchun:

Ko’proq ochiq manbalardan foydalanish (ommaviy axborot vositalari, fakt-checking loyihalari);

Hamjamiyat ishtirokini rag’batlantirish (crowdsourcing orqali ma’lumotlarni yig’ish);

NLP vositalarini yaxshilash (O’zbek tiliga moslashtirilgan tokenizer va lemmatizerlar);

Huquqiy jihatlarni aniqlash (anonimizatsiya va ma’lumotlardan foydalanish qoidalari).

Agar bu muammolar muvaffaqiyatli hal qilinsa, kelajakda O’zbek tilidagi soxta xabarlarga qarshi aniqroq va samarali AI modellari ishlab chiqish mumkin bo’ladi.

O’ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASHDA DATASET YIG’ISH MUAMMOLARI VA ULARGA YECHIMLAR.

Dataset yig’ish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularning yechimlarini tizimli ko’rib chiqamiz:

1. MA’LUMOTLARNING YETISHMASLIGI VA NOANIQLIGI: O’zbekcha soxta xabarlar uchun tayyor korpuslar yo’q yoki yetarli emas. Mavjud ma’lumotlar tarqoq holatda va sifat jihatidan noaniq.

Yechimlar:

Ommaviy axborot vositalari hamkorligi - “Kun.uz”, “Daryo.uz” kabi nufuzli OAVlar bilan kelishib, ularning arxivlaridan foydalanish;

Fakt-tekshirish platformalari bilan integratsiya - “Tekshir.uz”, “Factcheck.uz” loyihalarining tasdiqlangan ma’lumotlar bazasidan foydalanish;

Ijtimoiy tarmoqlardan ma’lumot yig’ish - Telegram, Facebook, Twitterdagi muhokamalarni avtomatik monitoring qilish uchun botlar yaratish.

2. TILNING LINGVISTIK MURAKKABLIGI: Lotin, kirill, arab yozuvlarining aralashmasi. Norasmiy til, dialektlar (sheva) va qisqartmalarning keng qo’llanilishi.

Yechimlar:

Birlashtirilgan transliteratsiya algoritmi - Barcha matnlarni bitta alifboga (masalan, lotinga) avtomatik o’tkazish;

Kontekstli normalizatsiya - “qalay” → “qanday”, “jude” → “juda” kabi o’zgarishlarni avtomatik bajarish;

O’zbekcha NLP kutubxonalarini rivojlantirish - “UzBERT”, “O’zStemmer” kabi maxsus vositalarni takomillashtirish.

3. ANNOTATSIYA SIFATINI TA’MINLASH: Ekspertlarning yetishmasligi va subyektiv baholash xatolari.

Yechimlar:

Ikki bosqichli tekshirish mexanizmi - Birinchi navbatda AI tomonidan avtomatik filtratsiya, keyin inson tekshiruvi;

Annotatsiya qo’llanmasi - Har bir xabar uchun aniq baholash mezonlari (misollar bilan) ishlab chiqish;

Crowdsourcing platformasi - “Wikipedia” usulidagi ochiq tahrirlash imkoniyatini yaratish.

4. HUQUQIY VA ETIK CHEKLOVLAR: Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va mualliflik huquqini buzish xavfi.

Yechimlar:

Anonimizatsiya protsedurasi - Ismlar, raqamlar, manzillar kabi shaxsiy ma’lumotlarni avtomatik olib tashlash;

Ochiq litsenziyali kontent - Faqat Creative Commons litsenziyasidagi materiallardan foydalanish;

Qonuniy maslahatchilar bilan hamkorlik - Ma’lumotlar yig’ish jarayonini huquqiy jihatdan to’g’ri yo’lga qo’yish.

5. TEXNIK INFRATUZILMA MUAMMOLARI: Katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash qiyinligi va qimmat hisoblash resurslari.

Yechimlar:

Bulutli texnologiyalardan foydalanish - Google Cloud, AWS yoki Yandex Cloud xizmatlaridan foydalanish;

taqsimlangan saqlash tizimi - IPFS kabi texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni tarqatib saqlash;

Samarali indekslash algoritmlari - ElasticSearch yoki Apache Solr kabi tizimlarni joriy etish.

6. DINAMIK KONTENTGA MOSLASHISH: Soxta xabarlarning doimiy ravishda evolyutsiyasi va yangi manipulyatsiya usullarining paydo bo’lishi.

Yechimlar:

Avtomatik yangilanish mexanizmi - Har kuni yangi ma’lumotlarni skanerlovchi dastur;

Adaptiv model - O’rganish jarayonini davomiy ravishda yangilab boruvchi AI;

Trendlarni monitoring qilish - So’nggi soxta xabar tendentsiyalarini kuzatib borish uchun alohida tahlil qurilmasi.

Qo’shimcha Tavsiyalar:

O’quv dasturlari ishlab chiqish - Annotatorlar uchun maxsus trening kurslari tashkil etish

Xalqaro tajribadan foydalanish - “FakeNewsChallenge” kabi xalqaro loyihalar tajribasini o’rganish

Grant va moliyalashtirish - Xalqaro fondlar (UNESCO, EU) va mahalliy tashkilotlarning grantlaridan foydalanish

Xulosa

Ushbu yechimlar kompleks tarzda qo’llanilganda, O’zbek tilida sifatli va keng qamrovli dataset yaratish mumkin bo’ladi. Muhimi - bu jarayonni doimiy ravishda yangilab borish va jamoatchilikni faol jalb qilish orqali tizimni rivojlantirish.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

O‘zbek tiliga ixtisoslashtirilgan ochiq manbali NLP vositalarini yaratish.

Soxta xabarlarni aniqlash bo‘yicha milliy monitoring markazini tashkil etish.

Ma’lumotlar bazasini doimiy yangilab boruvchi avtomatik tizimni ishlab chiqish.

Natijada, nafaqat soxta xabarlarga qarshi kurash samaradorligi oshadi, balki O‘zbekiston raqamli mediadagi ishonchlilik indeksini yaxshilash imkoniyati ham paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatning axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova, M. (2023) *O‘zbek tilida sun’iy intellekt: NLP muammolari va yechimlar*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Ahmedov, S. and Karimova, N. (2022) ‘Fake news detection in Uzbek: Challenges of data collection’, *Journal of Central Asian Linguistics*, 15(2), pp. 45-67. doi:10.1234/jcal.2022.0152.
3. Alimova, D. (2021) ‘Linguistic preprocessing for low-resource languages: Uzbek case study’, *Proceedings of the International Conference on Computational Linguistics*, pp. 112-125.
4. European Commission (2022) *Ethical guidelines for AI development*. Brussels: EU Publications. Available at: https://ec.europa.eu/digital-strategy/policies/ai-ethics (Accessed: 12 June 2024).
5. Ismoilov, T. (2020) *Digital media literacy in Uzbekistan*. Tashkent: MediaLab Press.
6. Jones, M. and Patel, R. (2021) ‘Cross-lingual transfer learning for fake news detection’, *AI Research*, 8(3), pp. 201-215. doi:10.1016/j.aires.2021.03.002.
7. O‘zbekiston Respublikasi (2019) *Axborot texnologiyalari to‘g‘risidagi qonun*. Toshkent: Adolat nashriyoti.

8. Smith, A. (2023) *Data collection methods for NLP*. 2nd edn. London: TechPress.
9. Tekshir.uz (2024) *Fact-checking reports archive*. Available at: https://tekshir.uz/reports (Accessed: 15 June 2024).
10. UNESCO (2023) *Media and information literacy policy*. Paris: UNESCO Publishing. Available at: https://unesdoc.unesco.org/ (Accessed: 10 June 2024).
11. Xalilova, Z. (2022) ‘Dialectal variations in Uzbek social media texts’, *Turkic Languages Journal*, 17(1), pp. 89-104.
12. Yuldashev, B. (2021) *Machine learning for Uzbek text classification*. PhD thesis. Tashkent: TUIT.

KIBERXAVFSIZLIKNING ZAMONAVIY TAHDIDLARI: AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA TEXNOLOGIK VA STRATEGIK YECHIMLAR

Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna
Farg‘ona Davlat Texnika universiteti, Menejment kafedrasi dotsenti
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Email: nilush1986@bk.ru
Toshpulatova Oydinoy Alisher qizi
Menejment yo‘nalishi 64-22 M guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy kiberxavfsizlik tahdidlari va ularga qarshi samarali strategik va texnologik yechimlar muhokama qilinadi. Xalqaro tajribalar va yetakchi olimlarning fikrlari asosida kiberxavfsizlikning dolzarb muammolari yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan qonunchilik islohotlari, statistik ma’lumotlar va mavjud strategiyalar tahlil qilinadi. Kiberjinoyatchilikning oldini olish, sun’iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari tamoyiliga asoslangan yondashuvlarning istiqbollari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, sun’iy intellekt, blokcheyn, nol ishonch modeli, kiberjinoyatchilik, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston qonunchiligi, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar.

Kirish

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik tahdidlari tobora murakkablashib bormoqda. Kiberhujumlar, ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi, shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi va tarmoqlarga kirishni cheklash kabi muammolar jamiyat, korxonalar va davlatlar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta’minlashda texnologik va strategik yechimlarni ishlab chiqish va qo‘llash dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat misli ko‘rilmagan qulayliklarga ega bo‘ldi. Biroq, raqamli inqilob kiberxavfsizlik sohasida ham dolzarb muammolarni keltirib chiqardi. Statistika shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda dunyo bo‘ylab kiberjinoyatlar tufayli korxonalar va davlat muassasalari 10,5 trillion AQSh dollariga teng zarar ko‘rgan (Cybersecurity Ventures, 2023).

Adabiyotlar sharhi

Kiberxavfsizlik sohasida Kevin Mitnik, Bruce Schneier, Eugene Kaspersky kabi olim va mutaxassislar zamonaviy tahdidlarga qarshi texnologik va strategik yechimlarni ilgari surgan. O‘zbekiston ham bu borada mustahkam huquqiy asos yaratmoqda.

Kiberxavfsizlik ilmiy jihatdan Claude Shannonning axborot nazariyasi va Whitfield Diffie hamda Martin Hellmanning kriptografiya asoslari orqali shakllangan. Bruce Schneier (2015) kiberxavfsizlikni "har qanday texnologiyaning eng zaif nuqtasi - inson omili" deb ta’riflaydi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda Zero Trust Security (Nol ishonch xavfsizligi) tamoyili eng samarali strategiya sifatida e’tirof etilmoqda. John Kindervag (2010) bu kontsepsiyani ishlab chiqib, tizimga kiruvchi har qanday foydalanuvchini avvaldan ishonchsiz deb hisoblash kerakligini ilgari surgan. Kiberjinoyatchilik global iqtisodiyotga katta zarar yetkazayotgan muhim muammolardan biridir. Cybersecurity Ventures (2023) tadqiqotiga ko‘ra, kiberjinoyatlar dunyo iqtisodiyotiga yiliga taxminan 10,5 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetkazadi. Ushbu raqam global yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning muhim qismini

tashkil etadi va har yili ortib bormoqda. IBM Security (2023) tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, o‘rtacha ma’lumotlar buzilishining iqtisodiy zarari bir korxona uchun 4,45 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Cybersecurity Ventures (2023) ma’lumotiga ko‘ra, har 39 soniyada dunyoda bitta kiberhujum sodir bo‘ladi. IBM Security (2023) tadqiqotlariga ko‘ra, birorta kiberhujumni bartaraf etish o‘rtacha 287 kun talab qiladi. Gartner (2022) prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga kelib kiberjinoyatlar dunyo iqtisodiyotiga yiliga 20 trillion dollarlik zarar yetkazadi. World Economic Forum (2023) hisob-kitoblariga ko‘ra: "Kiberjinoyatlar hozirda global iqtisodiyotga eng katta xavf tug‘diruvchi omillardan biri bo‘li Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib, kiberjinoyatchilikning iqtisodiy ta’siri tobora ortib borayotgani aniq ko‘rinadi.

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida kiberjinoyatchilik bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi (Uzkomnazorat) ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda mamlakatda 20 mingdan ortiq kiberhujum qayd etilgan, bu esa 2021-yilga nisbatan 30 foizga ko‘proq. Ayniqsa, moliya, davlat boshqaruvi va elektron savdo sohalari hujumlardan ko‘proq zarar ko‘rmoqda.

2022-yilda O‘zbekiston Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 500 dan ortiq kiberhujumlar qayd etilgan, bu esa mamlakatda axborot xavfsizligini ta’minlash zaruriyatini oshirmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik Strategiyasi – 2030 (2022) hisobotida ta’kidlanishicha, 2021–2022 yillarda mamlakatda 20 mingdan ortiq kiberhujumlar qayd etilgan, bu esa iqtisodiy yo‘qotishlarning sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. Ayniqsa, bank sektori, davlat idoralari va raqamli bizneslarga nisbatan uyushtirilgan hujumlar iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda.

Mamlakatda nol ishonch modeli (Zero Trust Model), blokcheyn texnologiyasi va sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan himoya tizimlarini joriy etish orqali kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyalarini kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, xalqaro tajribadan foydalanib, mahalliy qonunchilikni kuchaytirish va malakali kiberxavfsizlik mutaxassislarini tayyorlashga e’tibor qaratish shart. Aks holda, kiberjinoyatlarning iqtisodiyotga yetkazayotgan zarari yanada ortib boraveradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida raqamli xavfsizlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlab, 2022-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik Strategiyasi – 2030”ni tasdiqladi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi – kiberjinoyatlarga qarshi samarali huquqiy va texnologik choralarni joriy etish, davlat va xususiy sektorning axborot xavfsizligini mustahkamlash.

O‘zbekiston bank tizimi rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, moliyaviy firibgarlik va fishing hujumlari soni ortib bormoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 15 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ bank mijozlaridan noqonuniy ravishda tortib olingan. Xususan, plastik kartalar va internet-banking tizimlariga hujumlar ko‘paymoqda.O‘zbekistonda ham kiberjinoyatchilik oshib bormoqda. 2022-yilda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan 5 000 dan ortiq kiberhujum qayd etilgan. Ayniqsa, fishing (firibgar xatlar orqali hujum), ransomware (shifrlovchi dasturlar) va DDoS hujumlari keng tarqalmoqda.

2023-yilda O‘zbekistonning muhim davlat saytlariga qarshi bir nechta DDoS hujumlar amalga oshirildi, bu esa ma’lumotlar tizimining ishlashini vaqtinchalik to‘xtatdi. O‘zbekiston Elektron Hukumat Markazi ma’lumotlariga ko‘ra, har oyda davlat saytlariga 5 mingdan ortiq buzib kirish urinishlari qayd etiladi.

2021-yilda 2,5 million O‘zbekistonlik fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari xalqaro darknet bozorida sotuvga chiqarilgani aniqlangan. Bu esa axborot xavfsizligi tizimini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi jarayonida kiberjinoyatchilik bilan bog‘liq tahdidlarni minimallashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Hukumatning qabul qilayotgan qaror va strategiyalari ijobiy natija berayotgan bo‘lsa-da, bu sohada yanada kuchli chora-tadbirlar zarur. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki O‘zbekistonning xalqaro maydondagi raqamli ishonchliligini oshiradi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yetuk mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratish lozim.

Kiberhujumlarning oldini olishda AI va ML texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. MIT CSAIL (2022) tadqiqotlariga ko‘ra, AI algoritmlari kiberhujumlarni 95% aniqlik bilan oldindan bashorat qilishi mumkin. Blokcheyn ma’lumotlarni buzib bo‘lmaydigan hajmda shifrlash imkonini beradi. University of Cambridge (2021) tadqiqotlariga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasi orqali moliyaviy tranzaktsiyalarning 99,9% himoyalanishi mumkin.

O‘zbekistonning aksariyat tashkilotlari hali ham an’anaviy xavfsizlik tizimlaridan foydalanmoqda. CISA (Cybersecurity and Infrastructure Security Agency, 2023) hisob-kitoblariga ko‘ra, Nol ishonch modeli kiberhujumlarni 70% ga kamaytirishi mumkin.

Raqamli transformatsiya jarayonida O‘zbekiston ko‘plab imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavf-xatarlarga ham duch kelmoqda. Kiberjinoyatchilikning o‘sishi, IT-mutaxassislar yetishmovchiligi, davlat va xususiy sektor hamkorligining zaifligi, shuningdek, aholining kiberxavfsizlik borasida yetarli bilimga ega emasligi eng asosiy muammolar qatoriga kiradi. Bu masalalarning yechimi uzoq muddatli strategik rejalashtirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 10 000 dan ortiq kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis yetishmaydi (IT Park, 2023). Bu esa davlat va xususiy sektor tizimlarining kiberhujumlarga qarshi zaifligini oshiradi. Chet ellik mutaxassislarni jalb qilish vaqtinchalik yechim bo‘lishi mumkin, ammo uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun milliy IT-kadrlarni yetishtirish talab etiladi.

O‘zbekistonda kiberxavfsizlik bo‘yicha umumiy strategiya mavjud bo‘lsa-da, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik yetarlicha rivojlanmagan. Xususiy IT-kompaniyalarning tajribasi va texnologik imkoniyatlari yetarli darajada foydalanilmaydi, bu esa kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda tizimli muammolarni keltirib chiqaradi. Ko‘pgina kiberjinoyatlar inson omili tufayli sodir bo‘ladi. Phishing, ijtimoiy muhandislik (social engineering), firibgarlik (fraud) va boshqa kiberhujumlar aksariyat hollarda odamlarning yetarli bilim va ehtiyot choralariga rioya qilmasligi sababli muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Fikrimizcha mamlakatimizda kiberjinoyatchilikning iqtisodiy ta’sirini kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

– “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun yanada takomillashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur.

– Kiberjinoyatlar uchun jazolarni kuchaytirish va sud tizimini raqamli jinoyatlarga moslash qilish lozim.

– Yirik IT-kompaniyalar bilan hamkorlikda kiberxavfsizlik markazlarini tashkil etish.

– Bank va moliya muassasalari uchun blokcheyn va nol ishonch (Zero Trust) texnologiyalarini joriy etish.

– O‘zbekiston universitetlarida kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus magistratura dasturlarini kengaytirish.

– Yosh mutaxassislarni xalqaro tajribaga asoslangan sertifikatsiyalash dasturlariga jalb qilish.

– AI va Big Data asosida kiberhujumlarni oldindan bashorat qilish.

– Davlat tashkilotlarida avtomatlashtirilgan xavfsizlik monitoringi tizimlarini joriy etish.

Xulosa

Kiberxavfsizlik – XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri. Dunyo bo‘ylab kiberjinoyatlar keskin o‘sib borayotgan bir paytda, O‘zbekiston ham bu borada jiddiy qadamlar tashlashi kerak. IT-mutaxassislar yetishmovchiligi, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi, aholi orasida kiberxavfsizlik savodxonligining pastligi – bularning barchasi iqtisodiyotimizning raqamli transformatsiyasiga jiddiy xavf tug‘diradi.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

Sun’iy intellekt, blokcheyn va nol ishonch (Zero Trust) modeli kabi ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish – bu kiberhujumlarning oldini olishda samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Ta’lim va qonunchilik tizimini kuchaytirish – mamlakatda IT-mutaxassislar sonini oshirish va kiberjinoyatlar uchun jazo tizimini kuchaytirish muhim.

Xalqaro tajribalarni tatbiq etish – Isroil, AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.

Xususiy sektorni rag‘batlantirish – IT-kompaniyalar uchun kiberxavfsizlik texnologiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan soliq imtiyozlarini joriy qilish.

Kiberxavfsizlikning zamonaviy tahdidlari tobora murakkablashib borayotgan sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun texnologik va strategik yechimlarni qo‘llash zarur. Kriptografiya, ikki bosqichli autentifikatsiya, tarmoq xavfsizligi va bulutli xavfsizlik kabi texnologik yechimlar bilan birga xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, xodimlarni o‘qitish va qonuniy bazani rivojlantirish kabi strategik choralar muhim ahamiyatga ega. Kelajakda sun’iy intellekt, kvant kriptografiyasi va global hamkorlik kiberxavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bruce Schneier (2015). Data and Goliath: The Hidden Battles to Collect Your Data and Control Your World. W. W. Norton & Company.
2. John Kindervag (2010). No Trust Security Model: A Paradigm Shift in Cybersecurity. Forrester Research.
3. Cybersecurity Ventures (2023). Cybercrime Report: The Global Economic Impact of Cybercrime in 2023. Cybersecurity Ventures.
4. IBM Security (2023). Cost of a Data Breach Report 2023. IBM Corporation.
5. Gartner Research (2022). Cybersecurity Trends for 2023 and Beyond. Gartner.
6. University of Cambridge (2021). Blockchain for Cybersecurity: An Analysis of Financial Transactions Security. Cambridge University Press.
7. MIT CSAIL (2022). Artificial Intelligence and Cybersecurity: Enhancing Threat Detection through Machine Learning Algorithms. Massachusetts Institute of Technology Press.
8. CISA (Cybersecurity and Infrastructure Security Agency) (2023). Zero Trust: The Future of Cybersecurity. U.S. Department of Homeland Security.
9. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (2022). O‘zbekistonda Kiberxavfsizlik bo‘yicha yillik hisobot. Tashkent.
10. IT Park Uzbekistan (2023). Cybersecurity Talent Gap in Uzbekistan: Current Situation and Future Perspectives. IT Park Research Center.
11. Kevin Mitnick (2011). Ghost in the Wires: My Adventures as the World's Most Wanted Hacker. Little, Brown and Company.
12. Eugene Kaspersky (2020). Cybercrime and Global Security Challenges. Kaspersky Lab.
13. Claude Shannon (1948). A Mathematical Theory of Communication. Bell System Technical Journal.

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI DOLZARB MASALARI.

Nuraddin G‘afforov,
Raqamli texnologiya va sun’iy intellektni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktoranti
e-mail:mrgaffarov28@gmail.com
Zebiniso Ataboyeva
“Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy- akademik litseyi”
Kadrlar bo‘linmasi inspektori
Toshkent davlat transport universiteti, talabasi
e-mail:zebozebo108@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-2192-4478
Tel:+998937519811

Annotatsiya: Ushbu tezisda sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Kiberxavfsizlik zamonaviy dunyoda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kiberhujumlar va tahdidlar soni ortayotgan bir paytda, sun’iy intellekt yangi yechimlar taqdim etadi. Tezisda kiberhujumlar turlari, kiberxavfsizlik tizimlarining zaifliklari va sun’iy intellektning xavf tahlili, avtomatlashtirish va tahdidlarga qarshi kurashdagi roli ko‘rib chiqiladi.

Mashina ta'limi va chuqur o'qitish texnologiyalari orqali anomal xatti-harakatlarni aniqlash va kiberhujumlarni oldini olish misollari keltiriladi. Shuningdek, SI bilan bog'liq muammolar, masalan, algoritmlarning noaniqliklari va etika masalalari tahlil qilinadi. Tezis oxirida sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi kelajakdagi tendensiyalari va tavsiyalar beriladi, bu esa tashkilotlarga tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Kalit So‘zlar: Sun’iy intellekt (SI), kiberxavfsizlik, kiberhujumlar, tahdidlar, xavf tahlili, avtomatlashtirish, mashina ta'limi, chuqur o'qitish, anomal xatti-harakatlar, xavfsizlik strategiyalari, maxfiylik, etika, kiberxavfsizlik tizimlari, avtomatik javob, ma'lumotlarni tahlil qilish

Kirish:

Zamonaviy dunyoda kiberxavfsizlik har bir tashkilot va shaxs uchun muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, kiberhujumlar va tahdidlar soni ortib bormoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun zamonaviy yechimlar zarur. Sun’iy intellekt (SI) bu sohada innovatsion imkoniyatlar yaratadi.

Sun’iy intellekt kiberxavfsizlikda xavf tahlili, avtomatlashtirish va tahdidlarga qarshi kurashishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. SI yordamida kiberhujumlarni oldini olish, anomal xatti-harakatlarni aniqlash va xavf manbalarini baholash jarayonlari tez va samarali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tezisda sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi o‘rni keng yoritilib, mavjud muammolar va ularni hal etish uchun yangi strategiyalar taklif etiladi. Kiberxavfsizlik sohasida sun’iy intellektning roli kelajakda yanada muhim bo‘lishi kutilmoqda, shuning uchun bu mavzu zamonaviy tadqiqotlar va tajribalar asosida batafsil o‘rganilishi lozim.

Sun’iy intellekt (SI) va uning kiberxavfsizlikdagi o‘rni

Sun’iy intellekt kiberxavfsizlikda innovatsion yechimlar taqdim etadi. SI yordamida tahdidlarni aniqlash, xavf tahlili va javob berish jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Xavf tahlili: Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda tahlil qilib, anomal xatti-harakatlarni aniqlaydi. Bu jarayon, kiberhujumlarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Avtomatlashtirish: SI yordamida xavfsizlik jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa xavfsizlik mutaxassislarining ishini yengillashtiradi va tezkor javob berishga imkon yaratadi.

O‘rganish va takomillashtirish: Sun’iy intellekt tizimlari o'z tajribalaridan o'rganib, yangi tahdidlarga qarshi samaraliroq kurashish imkoniyatini beradi.

Kiberhujumlar turlari- Zamonaviy kiberhujumlar bir necha turga bo'linadi. Eng keng tarqalganlari:

DDoS (Distributed Denial of Service): DDoS hujumi, maqsadli server yoki tarmoq resurslarini ortiqcha trafik bilan to'ldirish orqali ularning xizmatlarini uzilishiga olib keladi.

Ushbu hujumlar ko'pincha botnetlardan foydalanib amalga oshiriladi, bu esa juda ko'p zarar etkazishi mumkin.

Phishing: Phishing hujumlari, foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni, masalan, parol va kredit kartasi raqamlarini o'g'irlash uchun qo'llaniladi.

Huquqbuzarlar, odatda, rasmiy ko'rinishdagi elektron pochta xabarlari yoki veb-saytlar orqali foydalanuvchilarni aldaydi.

Malware: Malware (zararli dasturlar) kompyuterlarga va tarmoqlarga zarar yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotdir.

Viruslar, trojanlar, ransomware va spyware kabi turlar mavjud. Ransomware, masalan, ma'lumotlarni shifrlab, ularga kirish uchun to'lov talab qiladi.

SQL Injection: SQL injection hujumlari, dasturiy ta'minotdagi zaifliklardan foydalanib, ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirishni ta'minlaydi.

Bu turdagi hujumlar, odatda, foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlar orqali amalga oshiriladi.

Kiberxavfsizlik tizimlari ba'zan bir qator zaifliklarga ega bo'lishi mumkin:

Anomal xatti-harakatlarni aniqlashdagi qiyinchiliklar: Kiberxavfsizlik tizimlari ko'pincha odatdagi faoliyatni aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Anomal xatti-harakatlarni aniqlash uchun zamonaviy algoritmlar va SI texnologiyalari talab etiladi, lekin ularning samaradorligi har doim ham yuqori bo'lmasligi mumkin.

Xavf tahlilining samaradorligi: Xavf tahlili jarayoni ko'pincha vaqt talab qiladi va ko'p hollarda haqiqiy vaqtda tahdidlarni aniqlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Tizimlar eski ma'lumotlarga asoslangan tahlilni amalga oshirsa, yangi va murakkab tahdidlarga qarshi kurashishda samarasiz bo'lishi mumkin.

Sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi roli: Xavf tahlili- Sun’iy intellekt (SI) kiberxavfsizlikda xavf tahlilini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Uning yordamida tahdidlarni aniqlash va baholash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

Ma'lumotlarni yig'ish: SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda yig'ib, ularni tahlil qilishga tayyorlaydi. Bu ma'lumotlar foydalanuvchi xatti-harakatlari, tarmoq trafiklari va boshqa xavf manbalaridan olinishi mumkin.

Anomal xatti-harakatlarni aniqlash: SI algoritmlari o'z-o'zini o'rgatish orqali odatdagi xatti-harakatlardan og'ishlarni aniqlaydi. Bu jarayon kiberhujumlarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, agar foydalanuvchi odatdagi faoliyatidan keskin farq qilsa, SI tizimi bu holatni aniqlab, ogohlik hosil qiladi.

Tahdidni baholash: Tahdidlar aniqlangandan so'ng, SI tizimlari ularning ehtimolini va ta'sirini baholaydi. Bu jarayon, tashkilotlar uchun qaysi tahdidlarni birinchi navbatda hal qilish kerakligini belgilashda yordam beradi.

Xulosa chiqarish: SI tahlil qilinayotgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarishi va tavsiyalar berishi mumkin. Bu, kiberxavfsizlik mutaxassislari uchun qo'shimcha ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt yordamida kiberxavfsizlik jarayonlarini avtomatlashtirish va tezkor javob berish quyidagi afzalliklarga ega- Jarayonlarni avtomatlashtirish:

SI yordamida xavfsizlik jarayonlari, masalan, tahdidlarni aniqlash, tahlil qilish va javob berish, avtomatlashtiriladi. Bu esa inson xatolarini kamaytiradi va jarayonlarni tezlashtiradi.

Tezkor javob berish: SI tizimlari kiberhujumlar aniqlanganda avtomatik ravishda javob berishi mumkin. Masalan, tizim tahdidni aniqlaganda xavfsizlik devorlari yoki boshqa himoya mexanizmlarini avtomatik ravishda ishga tushirishi mumkin.

Resurslarni tejash: Avtomatlashtirish natijasida kiberxavfsizlik mutaxassislari o'z vaqtlarini strategik vazifalarga sarflash imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi.

O'z-o'zini o'rgatish: SI tizimlari o'z tajribalaridan o'rganib, yangi tahdidlarga qarshi yanada samarali kurashish imkoniyatini yaratadi. Bu, vaqt o'tishi bilan xavfsizlikni yanada mustahkamlaydi.

SI texnologiyalari: Mashina ta'limi (MT) sun’iy intellektning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u kompyuterlarga ma'lumotlardan o'rganish va qaror qabul qilish imkonini beradi. Anomal xatti-harakatlarni aniqlashda mashina ta'limining roli quyidagilardan iborat:

O'qitish jarayoni: Mashina ta'limi jarayoni ma'lumotlar asosida o'qitishdan boshlanadi. Modelga turli xil ma'lumotlar beriladi va u o'z ichida naqshlar va qonuniyatlarni aniqlaydi. O'qitish jarayoni nazoratli (supervised) va nazoratsiz (unsupervised) o'qitish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Nazoratli o'qitishda modelga to'g'ri javoblar beriladi, nazoratsiz o'qitishda esa model o'z-o'zidan naqshlarni topadi.

Anomal xatti-harakatlarni aniqlashda roli: Mashina ta'limi yordamida anomal xatti-harakatlarni aniqlash uchun algoritmlar ishlab chiqiladi. Bu algoritmlar foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilib, odatdagi faoliyatdan og'ishlarni aniqlaydi. Misol uchun, agar foydalanuvchi ma'lum bir vaqtda odatdagi faoliyatidan keskin farq qilsa, SI tizimi bu holatni aniqlaydi va ogohlantirish beradi.

Chuqur o'qitish (CO) mashina ta'limining bir turi bo'lib, murakkab neyron tarmoqlaridan foydalanadi. U kompyuter ko'rishi va tabiiy tilni qayta ishlashdagi amaliy qo'llanilishi quyidagi jihatlardan iborat:

Kompyuter ko'rishi: Chuqur o'qitish algoritmlari rasm va video ma'lumotlarini tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Ular ob'ektlarni aniqlash, tasvirni segmentlash va boshqa ko'plab vazifalarni bajarishi mumkin. Kiberxavfsizlikda kompyuter ko'rishi yordamida anomal xatti-harakatlarni aniqlash va kiberhujumlarni oldini olishda foydalidir. Misol uchun, xavfsizlik kameralaridan olingan videolarni tahlil qilish orqali shubhali faoliyatni aniqlash mumkin.

Tabiiy tilni qayta ishlash:Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) chuqur o'qitish yordamida matn va nutq ma'lumotlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu texnologiya kiberxavfsizlikda phishing hujumlarini aniqlashda foydali bo'lishi mumkin. Masalan, SI tizimlari shubhali elektron pochta xabarlarini aniqlash uchun matnni tahlil qilib, odatiy til naqshlaridan farq qiladigan xabarlarni belgilaydi.

SI muvaffaqiyatli qo'llanilishi Sun’iy intellekt kiberxavfsizlikda muvaffaqiyatli qo'llanilishi bir qator amaliy misollarni o'z ichiga oladi:

Anomal xatti-harakatlarni aniqlash: Bir bank, SI yordamida o'z mijozlarining operatsiyalarini tahlil qilib, odatiy faoliyatdan og'ishlarni aniqlashda muvaffaqiyat qozondi.

Natija: SI tizimi shubhali tranzaksiyalarni tezda aniqlab, bank xodimlariga ogohlantirishlarni yuboradi, bu esa potentsial firibgarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Phishing hujumlariga qarshi kurash: Bir kompaniya, SI asosida ishlab chiqilgan matn tahlil algoritmlaridan foydalanib, phishing xabarlarini aniqlashni amalga oshirdi.

Natija: Ushbu tizim, foydalanuvchilarni aldagan shubhali elektron pochta xabarlarini aniqlab, foydalanuvchilarga vaqtida ogohlantirishlarni yuboradi, natijada firibgarlik holatlari keskin kamaydi.

DDoS hujumlariga qarshi himoya: Internet xizmat provayderlari, SI yordamida DDoS hujumlarini oldini olish uchun tarmoq trafikini real vaqtda tahlil qilishda muvaffaqiyat qozondilar.

Natija: SI tizimlari tahdidlarni aniqlab, avtomatik ravishda himoya mexanizmlarini ishga tushirib, xizmatlarning uzluksizligini ta'minlaydi.

Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik sohasidagi yangi texnologiyalar kelajakda quyidagi tendensiyalarni ko'rsatishi kutilmoqda:

Chuqur o'qitishning rivojlanishi: Kelajakda chuqur o'qitish algoritmlari yanada kuchayadi va murakkab tahdidlarni aniqlashda samaradorligi oshadi. Bu, kiberhujumlarni oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari: SI yordamida avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlari kengayadi. Bu tizimlar kiberhujumlarga qarshi kurashda yanada tezkor va samarali bo'ladi.

Kiberxavfsizlik va blockchain: Blockchain texnologiyalari kiberxavfsizlikda yangi yechimlar keltirishi mumkin. SI bilan birgalikda, ma'lumotlarni himoya qilish va firibgarliklarni oldini olishda qo'llaniladi.

Maxfiylik va etik masalalar: SI va kiberxavfsizlikning rivojlanishi bilan maxfiylik va etik masalalar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tashkilotlar xavfsizlikni ta'minlashda foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini qanday himoya qilishni o'ylab ko'rishlari kerak.

SI bilan bog'liq muammolar

Algoritmlarning noaniqliklari - Noaniqliklar: Sun’iy intellekt algoritmlari ko'pincha murakkab va noaniq natijalar chiqarishi mumkin. Ular ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qiladi, lekin ba'zan noto'g'ri yoki kutilmagan natijalar berishi mumkin.

Misol : Agar algoritm noto'g'ri ma'lumotlar bilan o'qitilgan bo'lsa, u tahdidlarni aniqlashda xato qilishi mumkin, bu esa xavfsizlikni zaiflashtiradi.

Etika masalalari - Maxfiylik: SI tizimlari foydalanuvchilar ma'lumotlarini to'playdi va tahlil qiladi, bu esa maxfiylik masalalarini keltirib chiqaradi. Foydalanuvchilar o'z ma'lumotlarining qanday ishlatilishi haqida bilmasliklari mumkin.

Diskriminatsiya: Algoritmlar notekis ma'lumotlarga asoslanib, ayrim foydalanuvchilarni kamsitishi yoki noto'g'ri baholashi mumkin. Bu esa inson huquqlarini buzishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar

SI va kiberxavfsizlikni birlashtirish uchun strategiyalar:

Ochiq ma'lumotlar: Tashkilotlar SI algoritmlarini o'qitish uchun yuqori sifatli va ko'p miqdordagi ma'lumotlarni to'plashlari kerak. Bu, tahdidlarni aniqlashda noaniqliklarni kamaytiradi.

Shaffoflik: SI tizimlari qanday ishlashini va qarorlar qabul qilish jarayonini foydalanuvchilarga tushuntirish zarur. Bu, maxfiylik masalalarini kamaytiradi va foydalanuvchilarning ishonchini oshiradi.

Tavsiya etilgan chora-tadbirlar:

Etkazib beruvchilar bilan hamkorlik: Tashkilotlar kiberxavfsizlikni yaxshilash uchun SI texnologiyalarini ishlab chiqayotgan etkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilishlari kerak.

Maxfiylik siyosatlari: Foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha aniq siyosatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bular foydalanuvchilarning ma'lumotlarini qanday to'playotganini va ishlatayotganini ko'rsatishi kerak.

Sun’iy intellekt kiberxavfsizlikda innovatsion yechimlar taqdim etadi. U zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda samaradorlikni oshirib, xavf tahlilini, avtomatlashtirishni va anomal xatti-harakatlarni aniqlashni yanada samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kiberhujumlar va tahdidlar ortib borayotgan bir paytda, sun’iy intellektning ahamiyati yanada oshmoqda. U nafaqat kiberhujumlarni oldini olish, balki tashkilotlarga o'z xavfsizlik strategiyalarini takomillashtirishda ham yordam beradi.

Kelajakda sun’iy intellekt kiberxavfsizlik sohasida muhim rol o'ynaydi, yangi texnologiyalar va yechimlar bilan birga, tahdidlarga tez va samarali javob berishni ta'minlaydi. Shuning uchun, tashkilotlar SI imkoniyatlaridan to'liq foydalanishlari va ularni o'z kiberxavfsizlik strategiyalariga qo'shishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stouffer, K., Falco, J., & Scarfone, K. (2019). Guide to Industrial Control Systems (ICS) Security. NIST Special Publication.
2. Bertino, E., & Islam, N. (2017). "Botnets and IoT: Security and Privacy Challenges." IEEE Internet of Things Journal.
3. Chandola, V., Banerjee, A., & Kumar, V. (2009). "Anomaly Detection: A Survey." ACM Computing Surveys.
4. Zhang, Y., & Wang, Y. (2020). "Artificial Intelligence in Cybersecurity: A Review." Journal of Cybersecurity and Privacy.
5. Sommer, P., & Paxson, V. (2010). "Outside the Closed World: On Using Machine Learning for Network Intrusion Detection." 2010 IEEE European Symposium on Research in Computer Security.
6. Huang, Z., & Ghorbani, A. A. (2011). "A Survey of Network Anomaly Detection Techniques." IEEE Communications Surveys & Tutorials.
7. Kumar, R., & Singh, M. (2021). "Artificial Intelligence for Cybersecurity: A Comprehensive Review." International Journal of Information Security.

ЗАЩИТА ДАННЫХ В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: УГРОЗЫ И РЕШЕНИЯ

Ибрагимов Зойиржон Зиятович
Старший преподаватель кафедры
«Компьютерная и программная инженерия»
Джизакского политехнического института.

Аннотация: В эпоху цифровизации кибербезопасность становится одной из ключевых проблем современного общества. Быстрое развитие технологий, распространение облачных сервисов, искусственного интеллекта и интернета вещей (IoT) создают новые вызовы для защиты информации. Основными угрозами являются кибератаки, вредоносное ПО, фишинг, утечки данных и взломы систем. В данной работе рассматриваются актуальные угрозы кибербезопасности, методы защиты данных, включая использование криптографии, двухфакторной аутентификации, антивирусного программного обеспечения и принципов безопасного поведения в сети. Особое внимание уделяется роли государственных и корпоративных стратегий в обеспечении цифровой безопасности [1].

Ключевые слова: кибербезопасность, цифровизация, угрозы, защита данных, кибератаки, информационная безопасность.

Введение: Современный мир все больше зависит от цифровых технологий, что приводит к росту угроз в области кибербезопасности. Расширение цифровой трансформации, облачных

сервисов, искусственного интеллекта и интернета вещей (IoT) создает новые вызовы для защиты данных. В данной статье рассматриваются основные киберугрозы и эффективные способы защиты информации в условиях цифровизации.

Основные угрозы кибербезопасности: Угрозы кибербезопасности – это потенциальные или реальные действия злоумышленников, которые могут привести к утечке, потере, повреждению или краже данных, а также нарушению работы цифровых систем [4,5]. Эти угрозы могут быть направлены как на отдельных пользователей, так и на компании, организации или даже государственные структуры.

Киберугрозы могут проявляться в различных формах, включая вредоносное программное обеспечение, фишинг, взлом систем, атаки на сети и утечки конфиденциальной информации. Основная цель таких атак – получить несанкционированный доступ к данным, нанести финансовый ущерб, нарушить работу организаций или подорвать доверие к цифровым технологиям.

Чтобы эффективно противостоять этим угрозам, необходимо применять современные методы защиты, такие как шифрование данных, двухфакторная аутентификация, антивирусное ПО и регулярное обновление систем безопасности. С развитием технологий появляются новые виды атак, представляющие серьезную опасность для пользователей и организаций. Рассмотрим основные из них:

- Кибератаки – направленные попытки взлома компьютерных систем или сетей с целью кражи данных, нарушения работы или нанесения ущерба [6,7].

Вредоносное ПО (Malware) – программы, такие как вирусы, трояны, шпионское ПО, предназначенные для кражи или уничтожения информации.

Фишинг – метод социальной инженерии, при котором злоумышленники выманивают конфиденциальные данные, маскируясь под доверенные источники.

Атаки типа «человек посередине» (MITM) – перехват данных между пользователем и системой, позволяющий атакующему изменять или похищать информацию.

DDoS-атаки – перегрузка систем огромным количеством запросов, приводящая к их выходу из строя.

Утечки данных – несанкционированный доступ или потеря конфиденциальной информации, что может привести к финансовым и репутационным потерям.

Способы защиты от киберугроз — это метод или набор мер, направленных на предотвращение, обнаружение и устранение угроз, возникающих в цифровой среде. Киберугрозы могут включать в себя вирусы, хакерские атаки, утечку данных, фишинг, вредоносные программы и другие формы угроз, которые могут повредить компьютерные системы, сети или данные. Способы защиты обеспечивают безопасность информации, предотвращают её утрату или повреждение и помогают минимизировать последствия атак. Для эффективной защиты от кибератак необходимо применять комплексные меры безопасности, включающие технологические и организационные решения:

Криптография и шифрование – использование алгоритмов шифрования для защиты данных от несанкционированного доступа [8,9].

Двухфакторная аутентификация (2FA) – дополнительный уровень защиты, требующий подтверждения личности через второй фактор (SMS-код, биометрия и др.).

Антивирусное программное обеспечение – инструменты, выявляющие и блокирующие вредоносные программы.

Фильтрация и защита электронной почты – предотвращение фишинговых атак с помощью автоматизированных фильтров.

Мониторинг и анализ трафика – выявление аномального поведения в сети для предотвращения угроз.

Обучение сотрудников – повышение осведомленности пользователей о киберугрозах и безопасном поведении в интернете.

Регулярное обновление ПО – устранение уязвимостей путем своевременной установки обновлений и патчей безопасности.

Резервное копирование данных – создание бэкапов для восстановления информации в случае кибератаки.

Роль государства и бизнеса в обеспечении кибербезопасности: государственные структуры и бизнес-организации должны активно участвовать в защите данных и информационных систем. Важные аспекты:

Разработка и внедрение законодательных норм, регулирующих сферу кибербезопасности.

Создание национальных центров кибербезопасности для мониторинга угроз и оперативного реагирования.

Взаимодействие государственных и частных организаций для обмена данными о кибератаках [2,10].

Внедрение стандартов и сертификаций для обеспечения защиты информационных систем.

Заключение: В условиях стремительной цифровизации кибербезопасность играет ключевую роль в защите данных, финансов и личной информации. Эффективное противодействие киберугрозам требует комплексного подхода, включающего технологические решения, организационные меры и активное участие государственных и бизнес-структур. Только совместными усилиями можно создать безопасную цифровую среду и минимизировать риски, связанные с киберугрозами [3,11].

Список литературы:

1. Ibragimov, Z. Z. (2022). Application of the Nettest Network Testing Software Package on the Lessons Information Technology. *The Peerian Journal*, *10*, 14-16.
2. Yuldashev, F., & Bobur, U. (2020). Types of Electrical Machine Current Converters. *International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN*, 162-164.
3. Ibragimov, Z., & Ibragimova, N. (2021). Информационные технологии в сфере туризма в Узбекистане. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, *2*(2).
4. Бегматова, Н. З. (2020). Загрязнение и охрана окружающей среды. Причины и последствия. *Символ науки*, (6), 19-21.
5. Ибрагимова, Н. А., & Ибрагимов, З. З. (2020). Анализ этапа программирования для определения погрешностей процесса обработки деталей с числовым программным управлением. *Энигма*, (25), 137-142.
6. Ubaydullayevich, B. A. (2024). Kredit-modul talim tizimida mustaqil talimning dolzarb muammolari.
7. Ибрагимов, З. З., & Ибрагимова, Н. А. (2020). Обзор методов трехмерного сканирования. *Энигма*, (27-3), 191-194.
8. Аллаберганова, Г. М., Кутбеддинов, А. К., Каримов, А. М., & Кудратов, Э. А. (2015). Интерактивные методы обучения студентов естественных специальностей на основании радиационных факторов экосистемы. *Педагогика и современность*,1,39-43.
9. Абдиев, Х., Умаров, Б., & Тоштемиров, Д. (2021). Структура и принципы солнечных коллекторов. In *наука и современное общество: актуальные вопросы, достижения и инновации* (pp. 9-13).
10. Ибрагимова, Н. А., & Ибрагимов, З. З. (2021). Платформа moodle–необходимый инструмент для преподователей. *Academic research in educational sciences*, *2*(CSPI conference 1), 572-575.

ПРИМЕНЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Салимов Рузибек Насимович — преподаватель кафедры "Прикладная математика и технологии программирования" Бухарского государственного университета.
r.n.salimov@buxdu.uz
+99894.548-88-83
Хусенов Муроджон Захирович — доцент кафедры "Информационные системы и цифровые технологии" Бухарского государственного университета.
m.z.xusenov@buxdu.uz
ORCID: 0000-0002-1533-3102
+99897.300-07-89

АННОТАЦИЯ. С ростом киберугроз и угроз безопасности в цифровой среде важность роли искусственного интеллекта в кибербезопасности становится все более очевидной. Эффективное использование алгоритмов машинного обучения, автоматизация обнаружения и реагирования на кибератаки, решение этических вопросов, связанных с использованием искусственного интеллекта в этой сфере, являются ключевыми аспектами современной кибербезопасности. В данной статье рассматривается роль и влияние искусственного интеллекта на кибербезопасность, определяются преимущества и проблемы, а также обсуждаются этические аспекты этого вопроса.

Ключевые слова: Информационная безопасность; Киберугрозы; Информационная безопасность; Защита данных.

В современном цифровом мире, где технологии становятся все более сложными, а киберугрозы — все более утонченными, роль искусственного интеллекта (ИИ) в обеспечении кибербезопасности становится ключевой. Искусственный интеллект внедряется в сферу кибербезопасности с целью не только обнаружения и предотвращения угроз, но и эффективного реагирования на них. Одним из важных аспектов является автоматизация кибербезопасности с использованием искусственного интеллекта. Алгоритмы машинного обучения позволяют системам автоматически анализировать большие объемы данных, выявлять аномалии и предсказывать возможные кибератаки. Это повышает оперативность реакции и позволяет предотвращать угрозы до того, как они нанесут ущерб. Технологии машинного обучения также способствуют созданию интеллектуальных систем, способных адаптироваться к новым видам угроз. Системы, оснащенные искусственным интеллектом, могут обучаться на основе новых данных и улучшать свою эффективность с течением времени. Это особенно важно в контексте появления всё более сложных и хитрых кибератак. Кроме того, искусственный интеллект применяется для создания интеллектуальных систем анализа угроз и решения сложных киберзадач. Такие системы могут обрабатывать данные в реальном времени, выявлять нестандартное поведение пользователей, анализировать сетевой трафик и обнаруживать скрытые угрозы. Однако, вместе с усилением киберзащиты, искусственный интеллект также становится инструментом для создания более сложных кибератак. Атакующие могут использовать технологии машинного обучения для создания интеллектуальных и трудно выявляемых угроз. Это подчеркивает необходимость постоянного совершенствования методов кибербезопасности и адаптации к новым вызовам. Одним из значительных аспектов обсуждения являются этические вопросы, связанные с использованием искусственного интеллекта в кибербезопасности. Вопросы конфиденциальности, ответственности за принятие решений, а также создание стандартов и регулирование в этой области становятся все более актуальными.

В современном мире, где технологии играют огромную роль в нашей повседневной жизни, кибер-безопасность становится все более значимым аспек-том. Угрозы виртуального пространства постоянно эволюционируют, и потому необходимо развивать инновационные методы и инструменты для борьбы с киберпреступностью. В этом контексте, искусствен-ный интеллект (ИИ) играет все более важную роль в обеспечении кибербезопасности. Искусственный интеллект обладает потенциалом преобразовать со-временные методы обнаружения и реагирования на киберугрозы. Автоматическое обнаружение инци-дентов, анализ больших объемов данных, прогнозиро-вание потенциальных уязвимостей - все это является областью применения ИИ в кибербезопасности. Это позволяет идентифицировать и отражать атаки быстрее, чем это возможно для человека.

Повышение кибербезопасности имеет решающее значение в современном цифровом мире. Вот не-сколько предложений по улучшению кибербезопас-ности:

Обучение и осведомленность сотрудников:

Проводите регулярное обучение сотрудников кибербезопасности, чтобы рассказать им о потен-циальных угрозах, фишинге и передовых методах обработки конфиденциальной информации;

Развивайте культуру заботы о кибербезопас-ности, чтобы поощрять сотрудников оперативно сообщать о подозрительных действиях.

Надежные меры аутентификации:

Обеспечьте использование надежных и уни-кальных паролей для всех учетных записей;

Внедрите многофакторную аутентификацию (MFA), чтобы добавить дополнительный уровень безопасности.

Сетевая безопасность:

Используйте брандмауэры для мониторинга и контроля входящего и исходящего сетевого трафика.

Используйте системы обнаружения и предот-вращения вторжений для выявления потенциальных угроз и реагирования на них.

Искусственный интеллект также способен усилить процессы аутентификации и авторизации. Технологии распознавания лиц и голоса, например, могут предоставить более надежные способы иден-тификации пользователей. Благодаря ИИ, можно создать системы, которые могут авто-матически обнаруживать необычную активность в сети и применять меры безопасности для предотвра-щения возможных атак. Кроме того, ИИ может быть использован для разработки сильных систем противо-действия фишингу и вредоносному программному обеспечению. Алгоритмы машинного обучения могут анализировать тысячи электронных писем, обнаруживая подозрительные и небезопас-ные ссылки, а также прикрепленные файлы. Такие системы способны улучшить процессы фильтрации на самом раннем этапе, что помогает предотвратить многие кибератаки. Искусственный интеллект также может использоваться для разработки системы мониторинга, которая анализирует активность в сети и идентифицирует любые подозрительные дей-ствия. Это позволяет предупреждать потенциальные угрозы и принимать меры для их нейтрализации. Однако, несмотря на все преимущества, ИИ также несет некоторые риски. Настолько, сколько ИИ может быть использован для защиты, он может быть ис-пользован и злоумышленниками для создания более сложных и усовершенствованных атак. Соответ-ственно, необходимы такие же сильные системы искусственного интеллекта для борьбы с этими угрозами.

В заключение, роль искусственного интеллекта в кибербезопасности является основополагающей и стремительно развивающейся. Он способен улучшить обнаружение и реагирование на киберугрозы, сде-лать процессы аутентификации и авторизации более надежными, а также предотвратить фишинг и вредо-носное программное обеспечение. Однако, важно развивать соответствующие механизмы искусствен-ного интеллекта для борьбы с растущими угрозами. Взаимодействие между ИИ и людьми становится ключевым фактором для обеспечения кибербезопас-ности в нашем цифровом обществе. В заключение, роль искусственного интеллекта в кибербезопасности неотъемлема в современном цифровом

обществе. Это инновационное средство позволяет усиливать защиту от киберугроз, но также предъявляет новые вызовы, требующие внимания к аспектам безопас-ности и этики.

Список литературы:

1. Намиот Д.Е., Ильюшин Е.А., Чижов И.В. (2022). Искусственный интеллект и кибербезопасность. International Journal of Open Information Technologies, 10(9), 135-147.
2. Афанасьева Д.В. (2020). Применение искусственного интеллекта в обеспечении безопасности данных. Известия Тульского государственного университета. Технические науки, 2, 151-154.
3. Власенко А.В., Киселёв П.С., Склярова Е.А. (2021). Искусственный интеллект и проблемы кибербезопасности. Технология Deepfake. Молодой ученый, (21), 81-86.0020

ЯЗЫК В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Юлбарсов Фахриддин Боходирович, преподаватель кафедры русской филологии.
Ферганский государственный университет
Yulbarsovcom007@mail.ru

Аннотация: Цифровая революция кардинально преобразила многие аспекты человеческой жизни, и язык не стал исключением. Эта статья исследует многогранное влияние цифровизации на язык, рассматривая как новые формы коммуникации и языковые явления, так и возникающие вызовы, связанные с сохранением языковой чистоты, доступностью и развитием искусственного интеллекта. Анализируются изменения в лексике, грамматике, стилистике, а также роль цифровых технологий в сохранении и распространении языков.

Ключевые слова: цифровая революция, технология, язык, глобализация, грамотность, коммуникация.

Введение. Эпоха цифровизации, характеризующаяся повсеместным распространением информационных технологий, интернета и мобильных устройств, оказывает глубокое и всеобъемлющее влияние на человеческое общество. Одним из наиболее фундаментальных аспектов, подвергающихся трансформации, является язык – основное средство коммуникации, мышления и культурной идентичности. Цифровые технологии не просто предоставили новые платформы для общения, но и породили новые формы языкового взаимодействия, лексические единицы и стилистические особенности. Понимание этих изменений, а также связанных с ними вызовов и перспектив, является ключевым для осмысления будущего языка и его роли в обществе. **Новые формы и средства коммуникации**. Цифровизация привела к появлению множества новых платформ и средств коммуникации, которые существенно отличаются от традиционных форм устного и письменного общения.

Социальные сети и мессенджеры. Платформы, такие как Twitter, Facebook, Instagram, Telegram и WhatsApp, стали неотъемлемой частью повседневной жизни миллионов людей. Они характеризуются краткостью сообщений, использованием мультимедийного контента (изображений, видео, аудио), эмодзи и стикеров, а также высокой скоростью распространения информации. Это приводит к формированию особого "цифрового языка", отличающегося лаконичностью, эмоциональностью и частым использованием невербальных средств коммуникации.

Электронная почта. Несмотря на появление новых средств коммуникации, электронная почта сохраняет свою значимость в деловой и официальной переписке. Она характеризуется более формальным стилем, структурированностью и возможностью передачи больших объемов информации. Эти платформы предоставляют возможность для развернутых дискуссий и обмена мнениями по различным темам. Язык здесь может варьироваться от формального до неформального, в зависимости от тематики и аудитории. Также, сервисы, такие как Zoom, Skype и Google Meet, стали особенно актуальными в условиях пандемии COVID-19, обеспечивая

возможность удаленного общения и сотрудничества. Язык в видеоконференциях сочетает элементы устной и письменной речи, требуя ясности и лаконичности изложения.

Языковые изменения под влиянием цифровизации. Появляются новые слова и выражения, связанные с информационными технологиями (например, гаджет, селфи, стриминг, лайк, хейтер, мем). Происходит заимствование англицизмов и их адаптация к русскому языку. Расширяется значение существующих слов (например, облако в значении хранилища данных). Исследования в области интернет-лингвистики отмечают активное проникновение англицизмов в русский язык под влиянием глобальной сети [1]. В неформальной цифровой коммуникации наблюдается упрощение грамматических конструкций, пропуск служебных слов, использование сокращений и аббревиатур (например, *пжл, спс, имхо*). Однако в формальной переписке и официальных документах грамматические нормы сохраняются.

Цифровой язык характеризуется большей эмоциональностью, использованием разговорных элементов, сленга и интернет-мемов. Появляются новые стилистические приемы, связанные с гипертекстуальностью и мультимедийностью.

В неформальном общении часто наблюдается пренебрежение орфографическими и пунктуационными нормами. Однако существуют и новые формы графического выражения эмоций, такие как использование большого количества восклицательных знаков или намеренное написание слов с ошибками.

Вызовы цифровой эпохи для языка. Наряду с новыми возможностями, цифровизация ставит перед языком ряд серьезных вызовов.

Сохранение языковой чистоты и норм. Активное использование заимствований, сленга и упрощенных грамматических конструкций вызывает опасения относительно сохранения чистоты литературного языка и соблюдения языковых норм. Проблемы сохранения языковой нормы в интернет-коммуникации активно обсуждаются в современной лингвистике [2].

Языковая неграмотность. Распространение неформальных стилей письма и снижение внимания к орфографии и пунктуации могут способствовать росту языковой неграмотности. Исследования показывают, что влияние цифровой среды на грамотность является неоднозначным и требует дальнейшего изучения [3].

Обилие информации в цифровой среде затрудняет ее фильтрацию и может способствовать распространению недостоверной информации и "фейковых новостей", что представляет угрозу для критического мышления и общественного дискурса. Также, Неравный доступ к цифровым технологиям и языковым ресурсам может усугубить языковое неравенство и создать барьеры для участия в цифровом обществе [4].

Развитие систем машинного перевода, чат-ботов и голосовых помощников ставит вопросы о роли человеческого языка в будущем и о потенциальной стандартизации и унификации языкового общения под влиянием алгоритмов. Тенденции развития современного русского языка, в том числе под влиянием интернет-коммуникации, рассматриваются в работе М. А. Кронгауза [5].

Перспективы развития языка в цифровой среде. Несмотря на вызовы, цифровизация открывает и новые перспективы для развития и сохранения языков.

Цифровые технологии позволяют людям общаться друг с другом независимо от географических границ и временных зон, способствуя развитию межкультурного диалога и обмену знаниями.

Интернет предоставляет платформу для сохранения и продвижения языков, находящихся под угрозой исчезновения, а также для создания онлайн-ресурсов для их изучения. Инструменты автоматического перевода, распознавания и синтеза речи, анализа текстов могут способствовать более эффективной коммуникации, облегчить доступ к информации и поддерживать языковое разнообразие.

Цифровая среда порождает новые формы языкового творчества, такие как интернет-мемы, вирусные тексты и интерактивные нарративы.

Большие объемы текстовых данных, доступные в цифровой среде, предоставляют уникальные возможности для лингвистических исследований в области корпусной лингвистики,

социолингвистики и компьютерной лингвистики. Особенности языка интернет-коммуникации подробно анализируются в монографии Г. Н. Трофимовой [6].

Заключение

Язык в эпоху цифровизации находится в состоянии непрерывной трансформации. Новые технологии порождают новые формы коммуникации, влияют на лексику, грамматику и стилистику, а также ставят перед обществом важные вызовы, связанные с сохранением языковой чистоты, грамотности и обеспечением равного доступа к языковым ресурсам. Вместе с тем, цифровизация открывает и новые перспективы для развития и сохранения языков, расширяя возможности коммуникации, поддерживая языковое разнообразие и стимулируя новые формы языкового творчества. Понимание этих процессов и активное участие в формировании языковой политики в цифровую эпоху является необходимым условием для сохранения богатства и многообразия человеческого языка в будущем.

Литература.

1. Горохов, В. М. (2019). Англицизмы в русском языке интернета: лингвокультурологический аспект. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Русская филология, (3), 74-81.
2. Иванова, С. В. (2017). Языковая норма и ее нарушения в интернет-коммуникации. Филологические науки. Вопросы теории и практики, (6-1), 112-115.
3. Сидорова, М. И., & Захарова, И. Г. (2015). Влияние интернет-коммуникации на письменную грамотность школьников. Информатика и образование, (10), 87-91.
4. Цифровая грамотность российских педагогов: результаты исследования / под ред. А. Ю. Уварова, Е. Е. Смирновой. – М.: НИУ ВШЭ, 2020.
5. Кронгауз, М. А. (2016). Русский язык на грани нервного срыва. Москва: Знак.
6. Трофимова, Г. Н. (2004). Язык интернет-коммуникации: лингвистический и коммуникативно-прагматический аспекты. Москва: Российский университет дружбы народов.

IMPROVING ADAPTIVE CROSS-MODAL ATTENTION MODEL FOR HUMAN-TO-HUMAN INTERACTION RECOGNITION.

Abdulaziz Xo'jamqulov[1], Javlon Jumanazarov[2]
[1]Artificial intelligence, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, a.xojamqulov@tuit.uz
[2]Artificial intelligence, Tashkent State University of Economics, j.jumanazarov@tsue.uz

Abstract. Accurately detecting human-to-human interactions involves properly utilizing multimodal data including audio, visual, and textual signals. Conventional multimodal attention mechanisms often utilize fixed or uniform weighing across modalities, which cannot handle changing contextual cues present in realistic situations. Such fixed strategies might fail to capture subtle yet critical human-centric signals, including changes in emotional expression, engagement levels, or conversational dynamics. In this thesis we introduce the improved version of the advanced method known as Adaptive Cross-Modal Attention, designed to dynamically and contextually adjust the contribution of different modalities based on real-time data. Additionally, we explore potential improvements by incorporating temporal dynamics through contextual gating mechanisms and integrating self-attention or transformer-based layers. These advancements should continue to hone the adaptive nature of cross-modal attention, facilitating more accurate recognition of subtle human interactions.

Key words: Multimodal learning, fusion models, human-to-human interaction, transformer contextual gating, modality-specific attention gating.

Baseline multimodal models, which often utilize fixed attention mechanisms to allocate equal weighted or static importance to modalities, are constrained from adapting to the subtle and fluid nature of human interactions. Unlike conventional methods employing static fusion formulas, Adaptive Cross-Modal Attention incorporates learnable modality-specific attention gates. These gates dynamically compute attention weights, enabling the model to emphasize or deemphasize particular modalities as dictated by context. In practical situations, the significance of audio, visual, or written information can fluctuate markedly, shaped by elements such as conversational context, emotional expression, and levels of participation [2].

Adaptive Cross-Modal Attention mitigates this restriction by implementing a sophisticated, context-sensitive mechanism that dynamically modulates the influence of each modality [1]. This adaptiveness ensures the model remains sensitive and responsive to modality-specific relevance, improving overall recognition performance, especially in scenarios where certain modalities become less reliable or temporarily unavailable. While traditional multimodal attention uses fixed combinations represented as [3]:

$$X_{fused} = W_a X_{audio} + W_v X_{visual} + W_t X_{textual} X$$

Adaptive Cross-Modal Attention instead uses learnable attention gates, enabling dynamic modulation of modality contributions:

$$X_{fused} = \alpha_a X_{audio} + \alpha_v X_{visual} + \alpha_t X_{textual}$$

where each modality-specific weight α_m is computed dynamically from data.

The mathematical formulation of Adaptive Cross-Modal Attention comprises three main steps. In first step, we compute modality-specific attention scores. For this, initially, embeddings for audio ($X_a \in R^d$), visual ($X_a \in R^d$), and textual ($X_t \in R^d$) modalities are derived. These embeddings are either concatenated or independently transformed to compute modality-specific logits:

$$z_a = W_a^T X_a + b_a, \quad z_v = W_v^T X_v + b_v, \quad z_t = W_t^T X_t + b_t$$

where:

$W_a, W_v, W_t \in R^{d\times 1}$ are learned weight matrices, and b_a, b_v, b_t are corresponding biases.

In the second step, we normalize attention scores via softmax or sigmoid. The computed logits are then normalized to derive attention weights. A softmax normalization ensures mutual exclusivity and

guarantees weights sum to one [6]:

$$\alpha_m = \frac{e^{z_m}}{\sum k \in \{a, v, t\} e^{z_k}}, \qquad m \in \{a, v, t\}$$

This guarantees:

$0 \leq \alpha_m \leq 1$ and $\sum_m \alpha_m = 1$.

Alternatively, when independent modality weighting is preferable, sigmoid normalization can be employed [4]:

$$\alpha_m = \sigma(z_m) = \frac{1}{1 + e^{-z_m}}$$

providing independent control over each modality's importance.

In the third step the final fused embedding is obtained by dynamically weighting each modality's embedding:

$$X_{fused} = \sum_{m \in \{a,v,t\}} \alpha_m X_m$$

This fusion method ensures that the resulting representation dynamically emphasizes or de-emphasizes modalities based on their contextual relevance [5].

In training process the parameters of the adaptive attention mechanism (W_m, b_m) are trained end-to-end via backpropagation, guided by task-specific objectives such as classification or regression. Typical loss functions include cross-entropy loss for classification tasks and regression losses like Mean Squared Error (MSE) for regression tasks.

By applying this process, we get several benefits of Adaptive Cross-Modal Attention that include enhanced contextual adaptability, which leads to improved recognition performance and increased robustness to modality reliability fluctuations, and also improved interpretability, as attention weights transparently indicate the modality importance.

To further enhance this model, future our research could incorporate temporal dynamics through contextual gating mechanisms:

$$\alpha_{m,t} = \sigma(W_m X_{m,t} + U_m h_{t-1} + b_m)$$

or integrate self-attention and transformer layers to capture intricate interactions among modalities and across temporal steps. Additionally, modality-specific attention gates could further adapt inputs based on contextual relevance:

$$X_{m^F} = X_m \cdot \sigma(W_m X_m + b_m)$$

Where $\sigma(\cdot)$ is a sigmoid gating function and W_m, b_m are learned parameters specific to modality m.

References:

1. Tsai, Y. H. H., Bai, S., Liang, P. P., Kolter, J. Z., Morency, L. P., & Salakhutdinov, R. (2019). Multimodal Transformer for Unaligned Multimodal Language Sequences. *Proceedings of the 57th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL)*, 6558–6569.
2. Zadeh, A., Chen, M., Poria, S., Cambria, E., & Morency, L.-P. (2017). Tensor Fusion Network for Multimodal Sentiment Analysis. *Proceedings of the Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP)*, 1103–1114.
3. Rahman, W., Hasan, M., Lee, S., Zadeh, A., Mao, C., & Morency, L.-P. (2020). Integrating Multimodal Information in Large Pretrained Transformers. *Proceedings of the 58th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL)*, 2359–2369.
4. Baltrušaitis, T., Ahuja, C., & Morency, L.-P. (2019). Multimodal Machine Learning: A Survey and Taxonomy. *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, 41(2), 423–443.
5. Chen, M., Wang, S., Liang, P. P., Baltrušaitis, T., Zadeh, A., & Morency, L.-P. (2021). Multimodal Transformer for Crossmodal Representation Learning. *Proceedings of the IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR)*, 264–273.
6. Liu, Y., Shi, Y., Liu, X., & Sheng, L. (2020). Attention-aware Multi-modal Co-attention Networks for Video Question Answering. *IEEE Transactions on Multimedia*, 22(11), 2919–2929.

YANGILIK XABARLARINI TASNIFLASH UCHUN MATNLI MA’LUMOTLARNI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISH ALGORITMLARI

Abduraxmanova Nigora Nurmaxamadovna,
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
nikokauzbechka@gmail.com,

Annotasiya. Matnlarni tasniflash kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, bundan tashqari bir qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: matnning tematik yondashuvini aniqlash, fikrlarning emosional bo‘yog‘ini aniqlash va boshqalar. Yangiliklar oqimini o‘sishi, hamda qaror qabul qilishda ma’lumotlar fonining ta’siri tufayli yangilik xabarlarini tasniflash aktual vazifaga aylanmoqda. Ushbu maqola matnlarni tasniflash usullarining kurinishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari keltirilgan bo‘lib, uning maqsadi matnlarni tasniflash vazifalarini yechishning zamonaviy usullarini solishtirish, ushbu yo‘nalishdagi rivojlanish tendensiyasini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: tasniflash, tabiiy tilni qayta ishlash, Bag-of-Word, Word2Vec, BERT.

Zamonaviy davrda axborot oqimi tezligi ortib borayotgani sababli, yangilik xabarlarini avtomatik tasniflash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Matnli ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish orqali yangiliklarni toifalarga (siyosat, iqtisod, sport, fan-texnika va boshqalar) ajratish samaradorligini oshirish mumkin.

Matnli ma’lumotlarni qayta ishlash, matn tahrirlashda juda muhim bo‘lib, matndagi xatolar va noaniq ma’lumotlarni bartaraf qilish yoki matning ko‘rsatilgan ma’noga to‘g‘ri kelishini ta’minlash yordam beradi. Ma’lumotlar intelektual tahlili murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, o‘zida turli bosqichlarda ma’lumotlarni yig‘ish, dastlabki ishlov berish va tahlil qilish jarayonlarini mujassamlashtiradi. Ma’lumotga dastlabki ishlov berish fazasida turli formatdagi ma’lumotlarni tartiblash, bir formatga keltirish uchun bir qator algoritmlarni qo‘llashni talab qiladi. Ishlov berish fazasi ma’lumotlar integrasiyasi, ularni tozalash hamda tavsiflovchi belgilarni ajratishni qamrab oladi [1]. Ba’zi hollarda ma’lumotlar tavsifidagi xarajatni qisqartirish uchun belgilar fazosini samarali tanlashdan foydalanish mumkin. Ma’lumotlar qulay formatga keltirilgach, ularga ishlov berishda turli ko‘rinishdagi algoritmlardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Ma’lumotlarni intellektual tahlillash muammolari hal etilishida guruh masalalarda: timsollarni aniqlash, klasterizasiya, tasniflash va chetlashishlar tahlili kabi xilma-xilliklar uchun ssenariylarni takroriy qo‘llash kuzatiladi. Ma’lumotlarni intellektual tahlilining muayyan masalalarida yakuniy yechim ko‘rinishi uchun turli bloklarni birlashtirish yoki yangilangan algoritmlardan foydalanish mahorati talab etiladi [2].

Ma’lumotlarga ishlov berish jarayonini to‘g‘ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ham ma’lumotlarni to‘g‘ri tayyorlab olish, saralash ishlov berishdagi yutuq kafolati hisoblanadi, chunki analitik algoritmlar kirish ma’lumotlarining sifatiga o‘ta sezuvchan bo‘ladi. Ma’lumotlarni intelektual tahlili jarayoni analitik algoritmlarni bevosita qo‘llash uchun yaroqsiz bo‘lgan shakldagi turli xil manbalardan ishlov berilmagan ma’lumotlarni ajratib olish talab etiladi. Shuning uchun birlamchi ma’lumotlardan muhim belgilarni ajratib olish uchun ko‘plab usullar taklif qilingan. Olingan ma’lumotlarda sezilarli darajada xatolik, beqarorlik, ortiqchaliklar va yo‘qotilgan qiymatlar uchrashi mumkin. Yo‘qotilgan qiymatlarni kiritish yoki ma’lumotlardagi noaniqliklarni bartaraf etish uchun turli analitik usullar va ma’lumotlarni yig‘ish vositalari mavjud [3].

NLP(tabiiy tilni qayta ishlash) matnli ma’lumotlarni tasniflash uchun foydalaniladi. Matnni tasniflash- matn ma’lumotlari mazmuniga mos holda turlarga ajratish muammosi. Bugungi kunga kelib yangiliklar lentasi va agregatlarning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Ko‘pchilik kompaniyalarga foydalanuvchilarni ularni mahsulotiga va o‘z obro‘siga bo‘lgan munosobatni baxolash uchun ma’lumotlar fonini taxlillash zarur. Axborot agregatlaridan matnli ma’lumotlarni yig‘ib va klasterlab, asosiy mavzu va voqe’alarni aniqlash,kompaniya va korporativ xarakatlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash mumkin. Ushbu maqolada yaxshi tanish bo‘lgan Bag-of-Words(mashinani o‘qitishda oddiy algoritmlardan foydalanuvchi), so‘z birikmalari mashxur modeli(chuqur o‘qitiladigan neyron to‘rlarida foydalaniladi) va zamonaviy til modellari((ispolzuyemыye pri peredache obucheniye u transformera), bular NLP butun landshaftini o‘zgartirdi.

Bag-of-Words modeli soddadir: u xujjat korpusidan lug‘at tuzadi va ushbu so‘zlar xar bir xujjatda nechcha marta ishtirok etishini sanaydi. Bunday yondashuv o‘lchamda katta muammo tug‘diradi:sizning xujjatingiz qancha katta bo‘lsa, lug‘atingiz shuncha katta bo‘ladi, shu sababli matrisangiz katta bo‘g‘imlardan iborat matrisaga aylanadi. Bundan kelib chiqadiki, Bag-of-Words modelini muhum dastlabki ishlov berish kutmoqda (so‘zlarni tozalash, stop-so‘zlarni o‘chirish, so‘z ildizini ajratish, lemmatizatsiya) xajmni kamaytirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Terminlardan foydalanish chastotasi matnning eng yaxshi ko‘rinishi bo‘lishi shart emas. Aslida, korpusda eng yuqori chastotali, ammo maqsadli o‘zgaruvchi bo‘yicha kichik bashorat kuchiga ega bo‘lgan umumiy so‘zlarni topish mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun so‘zlar paketining kengaytirilgan varianti mavjud bo‘lib, unda oddiy hisoblash o‘rniga "chastota - hujjatning teskari chastotasi" (yoki Tf - Idf) atamasi ishlatiladi. Aslida, so‘zning ma’nosi miqdorga mutanosib ravishda ortadi, lekin u korpusdagi so‘zning chastotasiga teskari mutanosiblikda bo’ladi.

So‘zlarni o‘rnatish modeli So‘zlarni o‘rnatish funksiyani o‘rganish usullarining yig‘ma nomi bo‘lib, unda lug‘atdagi so‘zlar haqiqiy sonlar vektorlari bilan taqqoslanadi. Bu vektorlar bir-biridan oldin yoki keyin paydo bo‘lgan har bir so‘z uchun ehtimollik taqsimotidan hisoblanadi. Google kompaniyasining Word2Vec (2013), Stanford GloVe (2014) va Facyebook kompaniyasining FastText (2016) so‘zlarni joylashtirishning mashhur modellari hisoblanadi. Word2Vec korpusdagi har bir noyob so‘z bilan odatda bir necha yuz o‘lchovdan iborat vektor maydonini yaratadi, shuning uchun korpusda umumiy kontekstga ega bo‘lgan so‘zlar maydonda bir-biriga yaqin joylashadi. Buni 2 xil yondashuv yordamida amalga oshirish mumkin: kontekstni bashorat qilish uchun bitta so‘zdan boshlash (Skipgram) yoki so‘zni bashorat qilish uchun kontekstdan boshlash (Continuous Bag-of-Words).

So‘zlarni joylashtirishning til modellari Til modellari yoki so‘zlarning dinamik joylashuvi so‘zlarni joylashtirishga klassik yondashuvning eng katta cheklovini yengib o‘tadi: ko‘p ma’nolilikni bartaraf etish, turli ma’nolarga ega bo‘lgan so‘z faqat bitta vektor bilan aniqlanadi. Ilk mashhur modellardan biri ELMO (2018) bo‘lib, u qat’iy biriktirishni qo‘llamaydi, lekin ikki yo‘nalishli LSTMdan foydalanadi, butun jumlani ko‘rib chiqadi va keyin har bir so‘zga biriktirishni belgilaydi. Google’dan BERT o‘zida ELMO kontekstini o‘rnatish va bir nechta konvertorlarni, shuningdek, ikki tomonlama yo‘nalishni birlashtiradi. BERT so‘zni belgilaydigan vektor butun gapning funksiyasidir, shuning uchun so‘z kontekstlarga qarab turli vektorlarga ega bo‘lishi mumkin. Matnni tasniflash vazifasini bajarish uchun BERTdan uch xil usulda foydalanish mumkin: barchasini noldan o‘rgatish va tasniflagich sifatida foydalanish; so‘z birikmalarini ajratib olish va ularni o‘rnatish qatlamida ishlatish yoki oldindan o‘rgatilgan modellarni nozik sozlashyondashuvning eng katta cheklovini yengib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Kovalenko, T.V. Razrabotka biblioteki postroyeniya vektornoy modeli teksta na osnove morfemnogo razbora slov / T.V. Kovalenko, R.B. Galinskiy, Yu.V. Yakovleva, I.V. Nikiforov // Nedelya nauki SPbPU. Institut kompyuternых nauk i texnologiy – SPb.: Izd-vo Politexn. un-ta, 2017. – 518 c.
1. Mikolov, T. Efficiyent Estimation of Word Representations in Vector Spacye. / T. Mikolov, I. Sutskever, K. Chen, G. Corrado, J. Dean [Electronic resourcye]. – Accyess mode: https://arxiv.org/abs/1301.3781 (21.11.2020).
2. Pennington, J. Global Vectors for Word Representation / J. Pennington, R. Socher, C.D. Manning [Electronic resourcye]. – Accyess mode: https://nlp.stanford.edu/projects/glove/ (25.11.2020).
3. Vaswani, A. Attention Is All You Neyed / A. Vaswani, N. Shazeyer, N. Parmar, J. Uszkoreit, L. Jones [Electronic resourcye]. – Accyess mode: https://arxiv.org/abs/1706.03762 (27.11.2020)

TO’LQIN TARQALISH SIMULYATSIYASINI HOSIL QILISHDA 2D SEN-VENAN TENGLAMALARIGA ASOSLANGAN PINN MODELI

Abduraxmonov Olim Ne’matullayevich,
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti, mustaqil izlanuvchi.
email: abdalim83@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola ikki o‘lchovli Sen-Venan tenglamalarini fizikaga yo‘naltirilgan neyron tarmoq yordamida yechib, ochiq kanal yoki suv toshqinlaridagi to‘lqin tarqalishini to‘liq fazo-vaqt maydonida tiklashni ko‘zlaydi. PINN kiruvchilariga (x,y,t) nuqtalari beriladi; chiqishda suv chuqurligi h hamda o‘rtacha tezliklar u va v olinadi. PINN asosidagi yondashuv seldan himoyalovchi damburush jarayonlarini, shahar drenaj tizimlarini va sug‘orish kanallarini real vaqt monitoringi uchun mos keladi. So‘nggi tadqiqotlar PINN arxitekturasi Fourier xususiyatlari va adaptiv og‘irliklar bilan kengaytirilganda kompleks relyef hamda yomg‘ir manbalarini ham muvaffaqiyatli hisobga olishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Sen-Venan tenglamalari, PINN modeli, fizik qoldiqlar (residual), xatoliklar, umumiy xatolik, PDE tenglamalar,

Suv oqimi, toshqinlar, kanallar va gidravlik inshootlar kabi fizik jarayonlarni modellashtirishda Sen-Venan tenglamalari (2D differensial tenglamalar) keng qo‘llaniladi. Ushbu tenglamalarni yechish an’anaviy usullar (FEM, FDM, FVM) bilan murakkab geometrik sharoitlarda va noaniq boshlang‘ich shartlarda qonuniyat bajarilishi murakkablashadi.

So‘nggi yillarda fizik qonunlarga asoslangan sun’iy intellekt yondashuvlariga asoslangan Physics-Informed Neural Networks (PINN), turli cheklovlarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida paydo bo‘ldi. PINN modeli PDE tenglamalar, boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni bevosita loss funksiyasiga kiritadi va differensial tenglamalarning buzilmasligiga asoslanadi. Bu metod orqali yechimlar uzluksiz, hosilali funksiyalar sifatida olinadi.

PINN modelining asosiy afzalliklaridan biri - bu to‘rsiz yechim yondashuvi bo‘lib, u murakkab domenlarda ham yechimga ega bo‘ladi. Shuningdek, fizik qonunlar bilan birgalikda mavjud eksperimental ma’lumotlar ham modelga kiritilishi mumkin. Bu PINNni nafaqat nazariy jihatdan, balki real muhitda qo‘llash imkonini ham oshiradi. Modelning kamchiligi o‘rgatish jarayoniga uzoq vaqt sarflanishi.

PINN modelining hisoblash ketma ketligi

2D Saint-Venant tenglamalari quyidagi fizik kattaliklar asosida simulyatsiya qilinadi. Ochiq kanallardagi suv oqimi misolida neyron tarmog‘i uchun kiruvchi o‘zgaruvchilar *x* - uzunlik yo‘nalishi, *y* - kenglik yo‘nalishi, *t* - vaqt hamda chiquvchi o‘zgaruvchilar *h(x, y, t)* - suv balandligi, *u(x, y, t)* *x*-yo‘nalishdagi tezlik, *v(x, y, t)* *y*-yo‘nalishdagi tezlik. PINN kiruvchilariga ilk nuqta (x_1,y_1,t_1) foydalanuvchi tomonidan beriladi, model kiyingi bir nechta (x_i,y_i,t_i) nuqtalarni tasodifiy tanlab oladi. PINN modelida chiqish qiymatlari (bashorat qilingan) va real(o‘lchangan) qiymatlar o‘rtasidagi farqni kamaytirish uchun xatoliklarni hisoblash bosqichi (loss) ishlatiladi. Bu komponent modelni mavjud ma’lumotlarga moslashtiradi.

Nyerondan chiquvchi parametrlarni real(o‘lchangan) qiymatlarga yaqinlashtirish uchun umumiy xatolik bo’yicha hisoblashni amalga oshiradi.

$\mathcal{L}_{total} = \lambda_{PDE}\mathcal{L}_{PDE} + \lambda_{BC}\mathcal{L}_{BC} + \lambda_{IC}\mathcal{L}_{IC}$

Bu yerda:

$\mathcal{L}_{PDE}$- Saint-Venant tenglamalariga asoslangan fizik qoldiqlar (residual):

Massani saqlash tenglamasi: $\partial h/\partial t + \partial(u\cdot h)/\partial x + \partial(v\cdot h)/\partial y = 0$

Impulsning x yo‘nalishidagi tenglamasi: $\partial(u\cdot h)/\partial t + \partial(u^2\cdot h + 0.5\cdot g\cdot h^2)/\partial x + +\partial(u\cdot v\cdot h)/\partial y = -g\cdot h\cdot S_{fx}$

Impulsning y yo‘nalishidagi tenglamasi: $\partial(v\cdot h)/\partial t + \partial(u\cdot v\cdot h)/\partial x + \partial(v^2\cdot h + +0.5\cdot g\cdot h^2)/\partial y = -g\cdot h\cdot S_{fy}$

$\mathcal{L}_{IC}$- Boshlang‘ich shartlar (masalan, h(x, y, 0) - boshlang‘ich to‘lqin shakli);

$\mathcal{L}_{BC}$- Chegara shartlari (masalan, kanal devorida v=0, kirishda h taxminan z ga teng);

λ_{PDE}, λ_{BC}, λ_{IC}-vaznlar umumiy xatolikda hissasiga qarab katta xatolik qismlarida shartlarni yaxshiroq qidirish uchun ustuvorlik berilganini bildiradi.

Odatda $\mathcal{L}_{PDE}$, umumiy xatoliklarning katta ulushini tashkil etib, model ixtiyoriy tanlagan bir nechta (x_i,y_i,t_i) nuqtalarda $\mathcal{L}_{IC}$, $\mathcal{L}_{BC}$- mos ravishda boshlang'ich(x_i,y_i,t_0) va chegara($x_{\{0,L\}}$,$y_{\{0,W\}}$,t_i) nuqtalarda autograd orqali hosilalarni hisoblab differensial tenglama bajarilishini tekshiradi va chiqishdagi real(o'lchangan) qiymatlarga moslashtirish uchun backward_pass qayta hisoblash bosqichiga qiymatlarni yetkazib beradi. Backpropogition algoritmi, xatoliklar asosida model ixtiyoriy tanlagan (x,y,t) nuqtalar uchun yangilangan waznlar hisoblab, kiyingi chiqish qiymatlarni shu yangi vaznlar asosida hisoblaydi va bu iteratsiya bir necha marotaba bajariladi. Yangi chiqish(bashorat qilingan) qiymatlar real(o'lchangan) qiymatlar o'rtasidagi xatolik nolga yaqinlashguncha iteratsiya davom etadi.



1-rasm. PINN modelining arxitekturasi

1-rasmdagi PINN arxitekturasidan ko'rish mumkinki oddiy neyron tarmog`idan farqli tomoni chiqish qiymatlari uchun alohida xatoliklarni hisoblash bosqichi bajariladi. Neyron tarmog'i hamda fizik jarayonlarni bajarilishini hisoblash bosqichi uzviy bog'liqlikda umumiy bitta murakkab tarmoq sifatida shakllanishi bu Physics-Informed Neural Networks (PINN) deb nomlangan.



2-rasm. PINN algoritmi

Xatoliklarni kamaytirish strategiyasini amalga oshirish uchun aktivatsiya funksiyalari uchun tanlangan waznlarni o`zgartirish talab qilinadi. Ushbu jarayonni backpropogition algoritmi gradiyentlarni hisoblab chiqib, bir necha bosqichli takrorlanishlar natijasida real(o‘lchangan) qiymatlarga erishiladi.



3-rasm. PINN modelining o‘qitilish jarayonida umumiy xatolik(loss) kamayib, yechimga yaqinlashib borishi tasvirlangan.

Gorizontal o‘q- o‘qitish davrlari (epochlar), vertikal o‘q- umumiy xatolik (loss), chiziq- har bir epochda hisoblangan loss qiymati.

Model hali yaxshi o‘rganmagan holat- boshida xatolik katta bo‘ladi;

Har bir backward step va vaznlarni yangilashdan keyin xatolik pasayadi;

50–100 epochdan keyin loss juda kichik qiymatga yaqinlashadi va model asl fizik yechimga moslashgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. E. Lagaris, A. Likas, and D. I. Fotiadis, “Artificial neural networks for solving ordinary and partial differential equations,” IEEE Transactions on Neural Networks, vol. 9, no. 5, pp. 987–1000, 1998.

2. Psaros, A.F.; Kawaguchi, K.; Karniadakis, G.E. Meta-learning PINN loss functions. J. Comput. Phys. 2022, 458, 111121. [CrossRef]
3. https://www.mathworks.com/discovery/physics-informed-neural-networks.html
4. https://www.geeksforgeeks.org/what-is-fully-connected-layer-in-deep-learning/

SUYAK YEMIRILISHI KASALLIKLARINI ERTA TASHXISLASHDA KATTA TIBBIY MA’LUMOTLAR VA DATA MINING USULLARINING QO‘LLANILISHI

Anarova Shahzoda Amanbayevna
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori
E-mail: anorova@tuit.uz
Omonov Sarvar Abror o‘g‘li
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti
E-mail: sarvaromonov19@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu tezisda suyak yemirilishi, xususan, osteoporoz kasalligini erta aniqlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Katta tibbiy ma’lumotlar va Data Mining texnologiyalari asosida zamonaviy intellektual model ishlab chiqish taklif etilgan. Elektron tibbiy ma’lumotlar, tasviriy diagnostika va hayot tarzi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan model osteoporoz xavfini baholash, bemorlarni xavf guruhlariga ajratish va diagnostika aniqligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari sog‘liqni saqlash tizimida tashxislash jarayonini avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Suyak yemirilishi, osteoporoz, katta tibbiy ma’lumotlar, Data Mining, sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish, CNN, XGBoost.

Kirish

Suyak yemirilishi kasalliklari tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ularning keng tarqalishi va og‘ir asoratlari global sog‘liqni saqlash tizimi oldida jiddiy vazifalarni qo‘yadi. So‘nggi yillarda bu kasalliklarning ko‘payishi aholi yoshining ortishi, turmush tarzining o‘zgarishi va bir qancha omillar bilan bog‘liq [1].

Bu kasalliklar suyak to‘qimasining struktura va funksiyasida buzilishlarga olib keladi, natijada suyaklar mo‘rtlashadi va sinish xavfi ortadi. Ayniqsa, osteoporoz - suyak zichligining kamayishi bilan kechuvchi surunkali kasallik - eng xavfli turlardan biri bo‘lib, u suyak to‘qimasining yangilanishida muvozanat buzilishi natijasida yuzaga keladi [3].



1-rasm. Oddiy (chapda) va osteoporozga chalingan (o‘ngda) suyaklarning tasvirlari

Osteoporoz bemorlar hayot sifatini pasaytiradi, ularni ijtimoiy faollikdan cheklaydi va og‘ir hollarda nogironlikka olib keladi. Shu bois, kasallikni erta aniqlash, profilaktika va zamonaviy tashxislash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bolalik va o‘smirlik davrida suyak massasini to‘g‘ri shakllantirish, sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanishga e’tibor qaratish bu borada asosiy strategiyalar hisoblanadi. Umuman olganda, suyak yemirilishi kasalliklari tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan dolzarb bo‘lib, ularga qarshi kompleks yondashuv talab etiladi [2].



Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - suyak yemirilishi (osteoporoz) kasalligini erta aniqlashda katta tibbiy ma’lumotlar (Big Data) bazasini tahlil qilish orqali samarali prognozlash modelini ishlab

chiqishdir. Bunda Data Mining texnologiyalaridan foydalanib, osteoporozning asosiy xavf omillarini aniqlash, bemorlarni xavf guruhlariga ajratish va diagnostika aniqligini oshirish ko‘zda tutilgan [4,5].

Tadqiqot quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

Elektron tibbiy yozuvlar, tasviriy diagnostika ma’lumotlari va hayot tarzi bo‘yicha to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlar bazasini yig‘ish va strukturaviy tahlil qilish;

Data Mining algoritmlari (masalan, Random Forest, CNN, XGBoost) asosida osteoporozni erta aniqlovchi intellektual model yaratish;

Yaratilgan model asosida tibbiyot muassasalari uchun qaror qabul qilishda yordam beruvchi tizimni taklif qilish.

Katta ma’lumotlar atamasi 1990-yillardan beri qo‘llanilib kelinmoqda. Katta ma’lumotlar odatda qabul qilinadigan vaqt ichida ma’lumotlarni to‘plash, saralash, boshqarish va qayta ishlash uchun keng qo‘llaniladigan dasturiy vositalar imkoniyatlaridan tashqari o‘lchamdagi ma’lumotlar to‘plamlarini o‘z ichiga oladi.

Katta ma’lumotlarni analiz qilish, inson his etish imkoniyatidan tashqarida bo‘lgan qonuniylatlarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa kundalik hayotimizdagi barcha sohalar, hukumatni boshqarish, tibbiyot, telekommunikatsiya, moliya, transport, ishlab chiqarish va boshqa sohalarni yanada yaxshilash, ularning imkoniyatlarini oshirish, muommolarga muqobil yechimlar izlab topish imkonini yaratadi.

2-rasm. Katta ma’lumotlar

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasida katta tibbiy ma’lumotlar to‘planmoqda. Ushbu ma’lumotlar orasida bemorning klinik ko‘rsatkichlari, genetik axborotlari, turmush tarzi, ovqatlanish odatlari, tibbiy tarix va tasviriy diagnostika natijalari mavjud. Bunday katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali osteoporozning erta bosqichlarini aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Tibbiyot sohasi katta ma’lumotlarning eng muhim amaliy sohalaridan biri hisoblanadi. Bunga sabab - tibbiy muassasalarda har kuni yuz minglab bemorlar haqida turli ko‘rinishdagi ma’lumotlar: klinik yozuvlar, laborator tahlil natijalari, radiologik tasvirlar (masalan, rentgen, MRI), genetik ma’lumotlar va sog‘liqni saqlash moslamalari orqali hosil bo‘layotgan oqimdir. Ushbu ma’lumotlar, agar ularni samarali tarzda tahlil qilish va modellash imkoniyati bo‘lsa, kasalliklarni erta aniqlash, bashorat qilish va individual muolajalarni rejalashtirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Katta tibbiy ma’lumotlar shifokorlarga tashxislashda ko‘maklashishi, tibbiy xatoliklar ehtimolini kamaytirishi, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Bunda ayniqsa Data Mining va sun’iy intellekt texnologiyalari orqali ma’lumotlar ichidagi yashirin qonuniyatlar aniqlanadi, kasallik xavfini oldindan baholash imkoniyati yaratiladi [7].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, osteoporoz kasalligini erta aniqlash uchun katta tibbiy ma’lumotlardan foydalanish - sog‘liqni saqlash tizimida diagnostika sifatini yaxshilashda va kasallik tarqalishini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa tibbiy tasvirlar (rentgen, DEXA) va laborator ko‘rsatkichlar asosida yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali tahlil qilish orqali bemorlarni skriningdan o‘tkazish va xavf ostidagi shaxslarni aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Data Mining - bu katta hajmdagi ma’lumotlar ichidan foydali, ilgari noma’lum bo‘lgan, amaliy qiymatga ega bilim va andozalarni aniqlashga qaratilgan texnologik jarayondir. Tibbiyot sohasida Data Mining usullari orqali kasalliklar rivojlanishiga olib keluvchi omillarni aniqlash, bemorlarning sog‘lig‘i holatini bashorat qilish va diagnostikani avtomatlashtirish mumkin.

Osteoporoz kabi suyak yemirilishi kasalliklari uchun an’anaviy diagnostika usullari odatda ma’lum ko‘rsatkichlarga asoslanadi va subyektiv qarorlar talab qiladi. Biroq Data Mining algoritmlari orqali ko‘p o‘lchamli tibbiy ma’lumotlar chuqur tahlil qilinadi, turli mezonlar o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklar aniqlanadi va diagnostika jarayoni ob’ektivlashadi. Ayniqsa, bemorning yoshi, jinsiy holati, suyak zichligi, turmush tarzi va genetika kabi bir nechta omillarni kompleks baholash imkoniyati Data Mining yondashuvlarining ustun jihatidir. Osteoporozni erta aniqlashda Data Mining algoritmlari kasallik rivojlanishini erta bosqichda aniqlash, xavf ostidagi guruhlarni aniqlash va shifokor qarorlarini qo‘llab-quvvatlashda katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan mashinali o‘qitish (machine learning) modellarining tibbiyotda qo‘llanishi hozirgi kunda kasalliklarni erta tashxislash va klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlashda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar tibbiy tasvirlar va raqamli klinik ma’lumotlarni integratsiyalash orqali CNN va XGBoost modellarining birgalikdagi ishlatilishini taklif qilmoqda. Bunday kombinatsiyalash natijasida tasviriy belgilar CNN orqali, statistik ma’lumotlar esa XGBoost orqali tahlil qilinadi va yakuniy qarorlar birlashtiriladi. Bu esa tashxis aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshiradi.

CNN - bu chuqur o‘rganish (deep learning) arxitekturasiga asoslangan model bo‘lib, u ayniqsa tibbiy tasvirlarni avtomatik aniqlash va klassifikatsiya qilishda yuqori samaradorlikka ega. Rentgen, DEXA, MRI kabi tasvirlarda suyak zichligining pasayishiga doir o‘zgarishlarni aniqlashda CNN modellarining imkoniyatlari juda keng. CNN qatlamlari orqali tasvir ichidagi tekstura, shakl, kontur va boshqa diagnostik belgilarni aniqlaydi va avtomatik tarzda kasallik mavjudligi bo‘yicha qaror chiqaradi [6].

XGBoost - bu gradient asosidagi kuchli algoritm bo‘lib, strukturaviy va raqamli ma’lumotlar asosida yuqori aniqlikdagi bashorat modellarini qurishga mo‘ljallangan. Tibbiyotda, jumladan osteoporozga olib keluvchi omillarni baholashda - bemorning yoshi, jinsiy holati, tana massasi indeksi, laborator tahlillar, suyak zichligi kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda - kasallik xavfini baholovchi model yaratishda XGBoost keng qo‘llaniladi.

Osteoporozni erta aniqlashga qaratilgan amaliy dasturiy ta’minot tibbiy tashxislash jarayonini avtomatlashtirish, optimallashtirish va shifokor qarorlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bunday dasturiy yechimni ishlab chiqishda tizimli yondashuv, ya’ni modullararo integratsiya, model tanlovi va ma’lumotlar oqimini boshqarish muhim rol o‘ynaydi.

Tayyorlanadigan amaliy dasturiy ta’minot va unga integratsiyalangan CNN va XGBoost algoritmlari asosida osteoporoz kasalligini erta tashxislashda model samaradorligi sinovdan o‘tkazadi. Tahlil natijalari diagnostik aniqlikni, model barqarorligini hamda foydalanuvchiga qulaylik darajasini baholash imkonini beradi.

Katta ma’lumotlar - osteoporozni erta aniqlash, xavf baholash, modelni o‘rgatish va amaliy dastur samaradorligini oshirishda asosiy resurs hisoblanadi. Sun’iy intellekt algoritmlarining muvaffaqiyatli ishlashi ko‘p jihatdan aynan shu ma’lumotlarning hajmi, sifati va xilma-xilligiga bog‘liq hisoblanadi.

Xulosa

Osteoporoz bugungi kunda keng tarqalgan muhim sog‘liq muammolaridan biri bo‘lib, suyaklar zaiflashib, hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu kasallikning erta aniqlanishi aholi salomatligini saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida katta tibbiy ma’lumotlar asosida osteoporozni erta aniqlashga qaratilgan sun’iy intellektga asoslangan model yaratiladi. CNN algoritmi tibbiy tasvirlardan belgi ajratishda, XGBoost esa raqamli ma’lumotlardan xavfni baholashda samarali natija berdi. Ularning birgalikdagi ishlatilishi diagnostika aniqligini oshiradi. Yaratiladigan model shifokor qarorlarini qo‘llab-quvvatlashda va sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilashda foydali bo‘lishi mumkin. Kelajakda bu yondashuvni takomillashtirib, real vaqtda ishlovchi tizim yaratish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. B.N.Toshmamatov, Sh.S.G‘ulomov, K.N.Botirov. Suyak yemirilishi kasalligi. // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 2024. 172-175

2. W.Tański, J.Kosiorowska, Ch.A.Szymańska. Osteoporosis – risk factors, pharmaceutical and non-pharmaceutical treatment. // European Review for Medical and Pharmacological Sciences, 2021. 3557-3566
3. J.E. Compston, M.R. McClung, W.D. Leslie. Osteoporosis. // The Lancet, 2019. – Vol. 393, No. 10169. – P. 364–376.
4. B. Ristevski, M. Chen. Big Data Analytics in Medicine and Healthcare. // Journal of Integrative Bioinformatics, 2018. – Vol. 15, No. 3. – P. 1–14.
5. T. Chen, C. Guestrin. XGBoost: A Scalable Tree Boosting System. // Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD International Conference on Knowledge Discovery and Data Mining, 2016. – P. 785–794.
6. A. Esteva. Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks. // Nature, 2017. – Vol. 542, No. 7639. – P. 115–118.
7. R. Miotto, L. Li, B.A. Kidd, J.T. Dudley. Deep Patient: An Unsupervised Representation to Predict the Future of Patients from the Electronic Health Records. // Scientific Reports, 2016. – Vol. 6, Article No. 26094.

O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Azizov Laziz Jahongirovich,
NDKTU tadqiqotchisi
jmziyo1112@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish orqali korxonalarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish va ta'minot zanjiri boshqaruvini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kirish

O‘zbekiston sanoat korxonalarida boshqaruv tizimining samaradorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy raqobat sharoitida korxonalar oldida turgan asosiy vazifalardan biri — boshqaruv tizimini zamon talablari asosida takomillashtirishdir. Bunda axborot texnologiyalari, katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt kabi ilg‘or yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlar

Jahon va mahalliy olimlar tomonidan sanoat korxonalarini boshqarish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlanmalar yaratilgan. Ular asosan boshqaruv samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish, resurslardan oqilona foydalanish kabi yo‘nalishlarga qaratilgan. O‘zbekiston olimlarining ishlarida tashkiliy tuzilma, funksional boshqaruv va iqtisodiy motivatsiya vositalarini takomillashtirish zarurati ko‘rsatib o‘tilgan.

1. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm tushunchasi va uning ahamiyati

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm — bu korxonaning ichki va tashqi muhitiga moslashgan holda, uning faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilma, boshqaruv usullari, iqtisodiy vositalar va motivatsiya tizimlarining majmuasidir. Ushbu mexanizm korxonaning strategik maqsadlariga erishish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydi.

1. Tashkiliy mexanizm: korxona tuzilmasi, vakolatlar taqsimoti, boshqaruv darajalari, ichki me’yoriy hujjatlar tizimi.

2. Iqtisodiy mexanizm: rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, rag‘batlantirish tizimi, xarajatlar nazorati, rentabellikni oshirish mexanizmlari.

3. Sanoat korxonalarida boshqaruv tizimining mavjud holati

Hozirgi kunda ko‘plab sanoat korxonalarida boshqaruv tizimlari an’anaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, bu esa tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda subyektiv omillar, ma’lumotlarning yetarli darajada tahlil qilinmasligi va resurslarning optimal taqsimlanmasligi kabi kamchiliklar mavjud.

Hozirgi bosqichda O‘zbekistonda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- Korxonalarda boshqaruv funksiyalarining aniq ajratilmaganligi
- Moliyaviy va iqtisodiy tahlilning sustligi
- Innovatsion faoliyatning yetarli emasligi
- Kadrlar malakasi va motivatsiyasining pastligi

3. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari

3.1. Axborot texnologiyalarini joriy etish

Korxonalarda axborot texnologiyalarini joriy etish boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari orqali korxonaning barcha bo‘limlari o‘rtasida axborot almashinuvi yaxshilanadi.

3.2. Katta ma’lumotlar va sun’iy intellektdan foydalanish

Katta ma’lumotlar (big data) va sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida korxonalar bozor tendensiyalarini aniqlash, mijozlar ehtiyojlarini o‘rganish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa strategik rejalashtirish va innovatsion mahsulotlar yaratishda muhim omil hisoblanadi.

3.3. Xodimlar malakasini oshirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish

Korxonalarda xodimlar malakasini oshirish va ularni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish orqali ish samaradorligini oshirish mumkin. Bunda doimiy treninglar, kasbiy rivojlanish dasturlari va adolatli mehnat haqi tizimi muhim rol o‘ynaydi.

3.4. Strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish

Korxonalarda strategik rejalashtirish jarayonini yo‘lga qo‘yish va risklarni boshqarish tizimini yaratish orqali uzoq muddatli maqsadlarga erishish va noaniqlik sharoitida barqaror faoliyat yuritish ta’minlanadi. Bunda SWOT tahlil, PEST tahlil kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish

Korxonalarda boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish orqali qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish, bo‘limlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanish mumkin. Bunda matritsali tuzilma, loyiha asosida boshqaruv va boshqa zamonaviy yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin.

5. Xulosa va tavsiyalar

O‘zbekiston sanoat korxonalarida boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur:

Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt asosida boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish.

Katta ma’lumotlar tahlili orqali strategik qarorlar qabul qilishni yo‘lga qo‘yish.

Xodimlar malakasini oshirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish.

Strategik rejalashtirish va risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish.

Boshqaruv tuzilmasini zamonaviy yondashuvlar asosida optimallashtirish.

Ushbu chora-tadbirlar korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Kurbaniyazov Sh.K. (2023). Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 8, 45-47.ResearchGate
2. Durmanov A. va boshqalar. (2021). Development of the Organizational and Economic Mechanisms of Greenhouse Industry in the Republic of Uzbekistan. Journal of Environmental Management and Tourism, 12(2), 331-340.

3. Isaev R.A. (2022). Improvement of organizational and management mechanisms of strategy implementation in the enterprises of textile industry of the Republic of Uzbekistan. International Journal of Health Sciences, 6(S6), 1527–1540.ResearchGate
4. Karimov M.A. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Andijon: STEP BY STEP PRINT MChJ.
5. Umarov I.Yu. (2009). Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi.

KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) TEXNOLOGIYASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARI BOSHQARUVINI TAHLIL QILISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Azizov Laziz Jahongirovich,
NDKTU tadqiqotchisi
jmziyo1112@gmail.com

Kirish. Fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan odamlar "katta ma'lumotlar" (big data) deb nomlanuvchi yangi tushunchani joriy qildilar. Bu hozirda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, korxonalar boshqaruvi muhitida katta o‘zgarishlar olib keldi.

Hozirgi vaqtda korxonalar boshqaruvining asosiy qismi inson resurslariga asoslangan bo‘lib, faoliyatlar tegishli boshqaruv xodimlarining kasbiy bilimlari orqali boshqariladi. Biroq, insonning subyektiv omillari tufayli boshqaruv samaradorligi barqaror emas.

Shu sababli, ushbu maqolada aqlli ma'lumotlar texnologiyasiga asoslangan korxona biznes boshqaruvi tizimi ishlab chiqildi va korxona biznes boshqaruvining tahlil doirasi shakllantirildi. Ushbu tizim boshqaruv choralarini amalga oshirishda menejerlarga eng yaxshi reja tuzishda yordam beradi, ishlab chiqarishni boshqarish, savdoni boshqarish, moliyaviy boshqaruv, kadrlar tashkilot tuzilmasini boshqarish kabi sohalarda samaradorlikni oshiradi, natijada biznes boshqaruvi yanada ilmiylashadi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda takomillashtirilgan (yaxshilangan) C4.5 algoritmining qo’lanilib kelinmoqda. Yaxshilangan C4.5 algoritmi (Improved C4.5) — bu Ross Quinlan tomonidan ishlab chiqilgan C4.5 algoritmining takomillashtirilgan versiyasi bo‘lib, qaror daraxtlari asosida ma’lumotlarni tasniflashda qo‘llaniladi. Uning asosiy maqsadi — katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda aniqlikni oshirish, samaradorlikni yaxshilash va murakkablikni kamaytirishdir.

Asosiy qism. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyasining bosqichma-bosqich yetilishi bilan korxona boshqaruvi yanada ko‘proq muammolarga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, katta ma’lumotlar texnologiyasiga asoslangan korxona boshqaruvini tahlil qilish tizimini shakllantirish korxonalar rivojining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

An’anaviy korxona boshqaruvi ko‘proq qo‘lda statistik ma’lumotlar yig‘ish, tahlil qilish va qaror qabul qilishga tayanadi, bu esa samarasiz va xatolarga olib keladigan jarayondir. Shu bilan birga, ma’lumotlar manbalari va tuzilmalari turli xil bo‘lgani sababli, korxonalar ichki ma’lumotlari ko‘pincha parchalanib ketgan va markazsizlashgan bo‘lib, ularni integratsiya qilish va samarali foydalanish qiyin bo‘ladi. Bu holat korxonalar faoliyatining samaradorligi va barqaror rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Biroq, katta ma’lumotlar texnologiyasining paydo bo‘lishi korxona boshqaruvi uchun bir qator yangi imkoniyatlarni yaratdi. Ichki va tashqi ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali korxonalar o‘z faoliyati, bozor dinamikasi, mijoz ehtiyojlari va boshqa jihatlar bo‘yicha chuqur tushuncha va tahlilga ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa strategik rejalashtirish, operatsion optimallashtirish va mahsulot innovatsiyasi uchun mustahkam asos yaratadi.

Shuningdek, katta ma’lumotlar texnologiyasining sun’iy intellekt, mashinali o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash kabi sohalarda qo‘llanilishi korxonalarga ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv sifatini va samaradorligini yanada oshiradi.

Shu sababli, katta ma’lumotlar texnologiyasiga asoslangan korxona boshqaruvi tahlil doirasini yaratish bugungi kunda korxona rivojining muhim yo‘nalishiga aylangan. Ichki va tashqi ma’lumotlarni

chuqur tahlil qilish, ko‘p yo‘nalishli ma’lumotlarni solishtirish va baholash orqali korxonalar uchun yanada to‘liq, aniq va amaliy qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi axborot taqdim etiladi. Shu bilan birga, bu jarayon korxonalardan ma’lum texnik salohiyat, ma’lumotlarni boshqarish qobiliyati va malakali kadrlar zaxirasini talab qiladi. Bunday holatda, korxonalar bozor raqobatida ustunlikka erishishlari mumkin.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — katta ma’lumotlar texnologiyasiga asoslangan biznes boshqaruvi tahlil doirasini shakllantirishni namoyish etishdir. Maqolaning yangiligi shundaki, u katta ma’lumotlar texnologiyasi orqali korxona boshqaruvining mexanizmi, tuzilmasi va asosiy funksional tarkibiy qismlarini tizimli ravishda muhokama qiladi hamda to‘liq nazariy va amaliy boshqaruv modelini yaratishni maqsad qilgan. Shu asosda korxonaning biznes boshqaruv me’morchiligi (arxitekturasi), uning komponentlari va faoliyat mexanizmlari o‘rganiladi.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlar. Fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida turli tadqiqotchilar zamonaviy tendensiyalarga moslashish, yetakchilik pozitsiyasini saqlab qolish va raqobatbardosh ustunlikni ta’minlash bo‘yicha izlanishlar olib borib, muayyan yutuqlarga erishganlar.

Masalan, Yohannes D Xavassa shahridagi kichik davlat korxonalarining moliyaviy boshqaruv amaliyotini empirik tahlil qilib, samarali moliyaviy boshqaruv kichik korxonalar uchun foyda olish, muvaffaqiyatga erishish va kengayish uchun asos bo‘la olishini aniqlagan.

Yevhen A tashkilot va iqtisodiy rivojlanish kontekstida korxona boshqaruvining biznes foydalarini chuqurlashtirishni maqsad qilgan. U biznes boshqaruvi faoliyatini tahlil qilish uchun miqdoriy baholash tizimini ishlab chiqqan.

Ni H biznes boshqaruvi kompaniya o‘sishini jadallashtirishi va boshqaruvdagi innovatsiyalar korxonaga yangi hayot baxsh etishini ta’kidlagan. U korxona rivojlanishini, ilmiy-texnik innovatsiyalarning ta’sirini tahlil qilgan va bu innovatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha uch darajadagi chora-tadbirlarni muhokama qilgan.

Sycheva I. N Rossiyaning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xodimlarni rag‘batlantirish nazariyasini amalda sinab ko‘rgan va umumlashtirgan. U taklif etilgan mukofot tizimini yaxshilash orqali korxonada ijobiy jamoa muhitini yaratish va savdo hajmini oshirish mumkinligini ta’kidlagan. Bu natijalar menejerlarga boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha rejalar tuzishda asos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan.

Wang J esa turli davlatlarning boshqaruv modellarini boshqaruv obyektlari, qaror qabul qilish jarayonlari, usullari va tashkilot tuzilmalari nuqtayi nazaridan taqqoslab tahlil qilgan. U oxirida korxonaning dinamik boshqaruv modelini aniqlab, bu modelni sezish, harakat va o‘zgarishlar aspektlaridan o‘rganishni taklif qilgan.

Shu tariqa, ko‘plab olimlar an’anaviy boshqaruv usullarining kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida turli biznes boshqaruv modellarini ishlab chiqqan bo‘lsalar-da, ular korxona boshqaruvini tizimli va chuqur o‘rganishga yetarlicha e’tibor qaratmaganlar.

Tarmoq texnologiyalari tez rivojlanayotgan bir davrda, katta ma’lumotlar texnologiyasi bilan birlashgan texnologiyalar korporativ boshqaruvda keng qo‘llanilmoqda va jadal rivojlanmoqda.

Masalan:

Yan Y. ismli xitoylik olim katta ma’lumotlar davrida ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini o‘rgangan. U noaniqlik sharoitida ko‘p mezonli qaror qabul qilish usuliga asoslanib, korxona samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqqan.

Ren S ismli xitoylik olim katta ma’lumotlar texnologiyasining moliyaviy boshqaruvdagi qaror qabul qilish mexanizmlariga axborot nomutanosibligi va risklarni boshqarish nazariyasi asosida ta’sirini tahlil qilgan [9].

Aqlli shaharlar (smart cities) katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanib resurslarni samarali boshqarishga harakat qilmoqda. Biroq, katta ma’lumotlar tahlilining keng joriy etilishida bir qancha to‘siqlar mavjud. Khan S katta ma’lumotlar tahlilining aqlli shaharlar rivojlanishiga qo‘shilishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni o‘rgangan. U avval 13 ta muammoni aniqlagan va ularni "eng yomon-eng yaxshi" usuli bilan ustuvorlashtirgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar murakkabligi, mos keladigan tahlil doiralarining yo‘qligi va kerakli texnikalarning yetishmasligi asosiy to‘siqlardir.

Raqamli transformatsiya doirasida tashkilotlar o‘zlarining tarkibiy boshqaruv muammolarini hal etishga qaratilgan yangi va samaraliroq yechimlarni izlamoqda. Biroq, bu yechimlar ko‘pincha kundalik ish faoliyatidagi ma’lumotlarni yig‘ish va ularning qiymati haqida yetarlicha chuqur o‘rganmaydi. Mathieu C tashkilot xodimlarining ma’lumotlarni yaratish, saqlash va qayta ishlash amaliyotlarini modellashtirib, mavjud boshqaruv siyosatlari bilan amaliyotlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlashga urinadi. U raqamli obyektlarni yaratish, tavsiflash va saqlash bo‘yicha strategiyalarni tavsiflab, bilim ishchilarning qadriyatlari va tashkilot siyosati o‘rtasida muvofiqlikni ta’minlash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarni beradi.

Shundan ko‘rinadiki, katta ma’lumotlar bilan bog‘liq ko‘plab texnologiyalar va nazariyalar hozircha konseptual darajada qolmoqda. Shuning uchun bu texnologiyalarni amaliyotda to‘liq joriy qilish uchun yana vaqt talab etiladi.

Korxona boshqaruvi — bu korxonalar tomonidan o‘zlarining kundalik xo‘jalik faoliyatida kutilgan maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgan turli strategiyalar va qarorlarni kompleks va tizimli boshqarish jarayonidir. Bu strategiyalar va qarorlar moliya, inson resurslari, marketing, ta’minot zanjiri boshqaruvi kabi sohalarni qamrab oladi. Ular korxona resurslarini optimal taqsimlash, ishlab chiqarish samaradorligi va foydaliligini oshirish, shuningdek, bozor o‘zgarishlariga javob qaytarish va risklarni boshqarish maqsadida amalga oshiriladi.

Muvaffaqiyatli biznes boshqaruvi quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishni talab qiladi:

Birinchidan, aniq biznes strategiyasi va maqsadlar bo‘lishi kerak.

Kompaniya o‘zining missiyasi va vizyonini aniqlashtirishi, uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarini belgilashi, tegishli reja va amalga oshirish choralarini ishlab chiqishi zarur. Faqat aniq strategiya va maqsadlar orqali korxonaga uzoq muddatli rejalashtirish va samarali resurs taqsimoti imkoniyatlari yaratiladi hamda to‘g‘ri yo‘ldan borish kafolatlanadi.

Ikkinchidan, xodimlarni tayyorlash va rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Xodimlar — bu korxonaning asosiy boyligidir. Ularning salohiyati va malakasi korxona rivojida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, korxonalar xodimlarga sifatli trening va rivojlanish imkoniyatlarini yaratib berishlari zarur. Bu orqali xodimlar innovatsion fikrlovchi, jamoada ishlay oladigan, samarali ijrochi bo‘lgan mutaxassislarga aylanishadi va bu esa korxonaning asosiy raqobat ustunligini oshiradi.

Uchinchidan, marketing va brend yaratishga kuchli e’tibor qaratish kerak.

Marketing va brend yaratish — bu korxonaning tashqi muhit bilan muloqotidagi asosiy vosita bo‘lib, uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlashda kalit omillardandir. Shu boisdan, korxonalar faol tarzda bozor tadqiqotlarini o‘tkazishlari, iste’molchilar ehtiyoji va bozor tendensiyalarini aniqlashlari, mos marketing strategiyalari va brend rejalari ishlab chiqishlari kerak. Bu esa marketing faoliyati samaradorligini va xarajatlar nazoratini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, ta’minot zanjiri boshqaruvi va risklarni nazorat qilish zarur.

Ta’minot zanjiri boshqaruvi — bu korxonada ichki va tashqi resurslarni muvofiqlashtirishdagi muhim vosita bo‘lib, xarid, ishlab chiqarish, omborlash, logistika kabi bir necha bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi. Bu bo‘g‘inlarda yetkazib beruvchining sifatidagi beqarorlik, ortiqcha zaxiralar kabi turli xavflar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, korxonalar puxta risklarni boshqarish tizimini yaratishlari, ta’minot zanjiri jarayonlari va boshqaruv uslublarini uzluksiz takomillashtirishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, korxona boshqaruvi ko‘p omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak — strategiyani ishlab chiqish va maqsadlar qo‘yishdan boshlab, xodimlarni rivojlantirish, marketing va brend siyosati, ta’minot zanjiri va risklarni boshqarishgacha. Bularning barchasi tizimli boshqaruv va innovatsiyalarni talab qiladi. Faqat boshqaruv usullari va jarayonlarini doimiy takomillashtirish orqali korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qolishlari va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishlari mumkin.

Biznes boshqaruvi tushunchasi. Korxonaning sanoat va tijorat boshqaruvi tashkilotning saqlanishi, yangilanishi, rivojlanishi, moslashtirilishi hamda lavozim standartlarini belgilash uchun mas’ul hisoblanadi. Shu bilan birga, korxona boshqaruvi bo‘limi vakolatlar taqsimoti va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladi hamda vakolat suiiste’molligini kamaytirish bo‘yicha ishlar olib boradi. Boshqaruv tuzilmasi 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, korxona biznes boshqaruvining boshqaruv darajalari uchta asosiy qismlardan iborat. Eng pastki (bazaviy) boshqaruv darajasida esa beshta bo‘limga ajratiladi:

Texnologiya va sifat bo‘limi – korxonaning mahsulot tadqiqoti va texnologik rivojlanishi uchun mas’ul.

Logistika va xarid bo‘limi – ishlab chiqarish uchun xomashyo va ofis ehtiyojlari uchun zarur vositalarni xarid qilish bilan shug‘ullanadi.

Marketing bo‘limi – korxonaning mahsulotlarini bozorda targ‘ib qilish va sotishni amalga oshiradi. Bu bo‘lim kompaniyaning asosiy strategik bo‘linmalaridan biridir.

Moliyaviy bo‘lim – korxona faoliyatining barcha moliyaviy ko‘rsatkichlari va statistik ma’lumotlarini yuritadi.

Ma’muriy va logistika bo‘limi – kompaniyaning kundalik xo‘jalik-logistik faoliyatini boshqaradi.

Ushbu boshqaruv bo‘limlari birgalikda korxonaning umumiy ishlashini ta’minlash uchun yagona tizim — **biznes boshqaruvi** deb ataladi.

Kompaniya samarali va uzoq muddat faoliyat yuritishi uchun har bir bo‘lim ishini qo‘llab-quvvatlaydigan **ilmiy asoslangan boshqaruv tizimi** zarur.

Korxona bu tizimdan foydalangan holda inson, axborot, texnologiya, qaror va material oqimini integratsiyalashgan holda boshqaradi. Natijada ichki va tashqi boshqaruvni birlashtirgan ta’minot zanjiri modeli yuzaga keladi. Bu model orqali korxona qisqa va uzoq muddatli foydaga erishishi, shuningdek lokal va global darajada maksimal foydadorlikni ta’minlashi mumkin.

Biznes jarayonlarini qayta loyihalash (BPR) ortiqcha xarajatlar, mehnat zichligi va ortiqcha zaxiralarni kamaytiradi. Standartlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari orqali mehnat unumdorligi va sifat oshadi, mijoz talablariga mos ravishda ishlab chiqarish moslashtiriladi va resurslar optimal taqsimlanadi.

Yaxshilangan C4.5 algoritmi.Yaxshilangan C4.5 algoritmi quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Uzluksiz atributlarni samarali ishlov berish: Algoritm uzluksiz (numerik) atributlar uchun optimal bo‘luv nuqtalarini aniqlaydi va ularni ikkita toifaga ajratadi. Bu, ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda muhimdir. mechauz.uz

Yo‘qolgan qiymatlar bilan ishlash: Ma’lumotlar to‘plamida mavjud bo‘lmagan (yo‘qolgan) qiymatlar mavjud bo‘lsa, algoritm ularni hisobga olib, qaror daraxtini qurishda moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Post-pruning (keyingi budash): Algoritm ortiqcha murakkablikni oldini olish uchun qurilgan daraxtni keyinchalik budaydi, bu esa umumlashtirish qobiliyatini oshiradi va haddan tashqari moslashuvchanlikni kamaytiradi.

Axborot foydasi nisbati (gain ratio): Qaror daraxtini qurishda atributlarni tanlashda axborot foydasi nisbati qo‘llaniladi, bu esa eng samarali atributlarni aniqlashga yordam beradi.

Yaxshilangan C4.5 algoritmi quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

Sanoat korxonalari boshqaruvi: Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sifat nazorati va resurslarni samarali taqsimlashda qaror daraxtlari yordamida tahlil qilish.

Marketing va mijozlarni segmentatsiyalash: Mijozlarning xarid qilish xatti-harakatlarini tahlil qilish, ularni guruhlarga ajratish va maqsadli marketing strategiyalarini ishlab chiqish.

Moliyaviy tahlil: Kredit risklarini baholash, firibgarlikni aniqlash va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Tibbiyotda tashxis qo‘yish: Bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini tahlil qilish orqali kasalliklarni aniqlash va davolash strategiyalarini belgilash.

shilangan C4.5 algoritmi menejment sohasida quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

Strategik qarorlar qabul qilish: Bozor tendensiyalarini tahlil qilish orqali uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish.

Resurslarni boshqarish: Inson resurslari, moliyaviy va moddiy resurslarni optimal taqsimlashda yordam beradi.

Risklarni boshqarish: Potensial xavf-xatarlarni aniqlash va ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish.

Ishlab chiqarishni optimallashtirish: Ishlab chiqarish jarayonlaridagi samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish.

Xulosa. yaxshilangan C4.5 algoritmi korxona biznes boshqaruvi tizimlarida qo‘llash uchun yaxshi amaliy imkoniyatlarga ega bo‘lib, korxonalarga boshqaruv samaradorligini va daromad darajasini oshirishga yordam beradi.

Kelajakda esa sun’iy intellekt texnologiyalarining doimiy rivojlanishi va tatbiqi bilan korxona boshqaruvi tizimidagi qarorlarning ko‘pchiligi aynan sun’iy intellekt algoritmlariga tayanadi. Shunday sharoitda yaxshilangan C4.5 algoritmi ham kengroq qo‘llaniladi va takomillashtiriladi. Masalan, u murakkab biznes ssenariylariga mos ravishda optimallashtirilishi va yangilanishi mumkin.

Biroq, sun’iy intellekt algoritmlarini korxona boshqaruviga tatbiq qilishda hali ham e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan ayrim muammolar mavjud, masalan: ma’lumotlar sifati va aniqligini qanday ta’minlash, ma’lumotlar xavfsizligini qanday kafolatlash. Shu sababli, bu yo‘nalishlarda tadqiqotlar va takomillashtirish ishlari davom ettirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, yaxshilangan C4.5 algoritmi samarali qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida kelajakdagi korxona biznes boshqaruvida muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quinlan, J. R. (1993). *C4.5: Programs for Machine Learning*. Morgan Kaufmann Publishers.
2. Wang, J. (2017). Comparative Analysis of Enterprise Management Models in Various Countries. *Journal of Business Management*, 29(4), 54–63.
3. Sycheva, I. N. (2019). Incentive Mechanisms in Russian Enterprises During Economic Development. *Economic Strategies*, 12(1), 43–50.
4. Khan, S. (2020). Barriers to Big Data Analytics for Smart Cities: A Multi-Criteria Decision Approach. *Sustainable Cities and Society*, 61, 102326.
5. Ren, S. (2018). Big Data Technologies in Financial Decision-Making: Theoretical and Empirical Perspectives. *Information Systems Journal*, 22(2), 123–138.
6. Yan, Y. (2020). Evaluation System for Manufacturing Enterprises Based on Multi-Criteria Decision-Making in Big Data Environment. *Journal of Industrial Engineering*, 48(3), 67–79.
7. Ni, H. (2021). Innovation in Business Management for Enterprise Growth: Case Studies and Strategy. *Journal of Modern Economy*, 35(2), 88–95.
8. Yevhen, A. (2016). Quantitative Evaluation of Business Management in Development Context. *Economic Review*, 44(1), 31–38.
9. Yohannes, D. (2017). Empirical Study of Financial Management in Small Public Enterprises in Hawassa. *African Journal of Business*, 18(2), 12–21.
10. Mathieu, C. (2020). Digital Transformation and Information Governance in Enterprises. *International Journal of Information Management*, 52, 101968.
11. OECD (2022). *Big Data and AI in Enterprises: Strategy, Governance and Value*. OECD Publishing.

THE ROLE OF BIG DATA ANALYTICS IN THE GREEN ECONOMY

Nilufar Baxronova Sunnat qizi
Student of Karshi state technology university
Email address: nilufarbaxronova909@gmail.com
Phone number: +998882522205
Noraliyeva Sevinch Sardorjon qizi
Student of Karshi state technology university
Phone number: +998338480084
Email address: noraliyevasevinch555@gmail.com

Annotation: This article explores the critical role of Big Data analytics in advancing the green economy. As the global community increasingly prioritizes sustainability and environmentally responsible economic practices, the integration of data-driven solutions becomes indispensable. The article examines the application of Big Data in environmental monitoring, renewable energy

optimization, smart agriculture, urban planning, and waste management. It also discusses challenges such as data privacy, infrastructure demands, and the digital divide. Through case studies and real-world examples, the paper highlights how Big Data enables informed decision-making, efficiency improvements, and the reduction of ecological footprints.

Key Words: Green economy, Big Data, sustainability, environmental monitoring, smart cities, renewable energy, data analytics, digital transformation, climate change.

In recent decades, the global economy has witnessed a paradigm shift toward sustainability. This shift, often referred to as the transition to a "green economy," emphasizes low-carbon growth, resource efficiency, and social inclusiveness. Central to this transformation is the integration of digital technologies—particularly Big Data analytics—which has the potential to revolutionize how environmental challenges are understood and addressed. Big Data, characterized by its volume, velocity, and variety, enables the analysis of vast datasets to extract meaningful insights. In the context of the green economy, this capability is invaluable for real-time monitoring, predictive modeling, and strategic planning.

Big Data and Environmental Monitoring

One of the most prominent applications of Big Data in the green economy is environmental monitoring. Satellite imagery, IoT sensors, and real-time data streams enable governments and organizations to track air and water quality, deforestation, biodiversity changes, and pollution levels with unprecedented accuracy. For example, NASA and the European Space Agency use Big Data from satellite observations to monitor global climate patterns and greenhouse gas emissions. Similarly, environmental protection agencies employ data analytics to detect anomalies in pollution levels, allowing for swift intervention.

Big Data also plays a crucial role in predicting natural disasters such as floods, wildfires, and hurricanes. By analyzing historical weather data, land usage patterns, and current meteorological inputs, predictive models can forecast extreme events and minimize their impact on both human life and infrastructure.

2. Big Data in Renewable Energy Optimization

The energy sector is undergoing a green revolution, with renewable energy sources like solar, wind, and hydropower playing an increasingly significant role. Big Data analytics enhances the efficiency and reliability of these energy systems. For instance, in wind energy, real-time data on wind speed, direction, and turbine performance can be analyzed to optimize energy production. Similarly, in solar power, predictive models can forecast sunlight availability, allowing operators to better manage energy grids.

Smart grid technology, enabled by Big Data, allows for dynamic energy distribution and real-time demand response. Utilities can analyze consumption patterns to balance supply and demand, reduce energy waste, and cut down emissions. Companies like Siemens and GE are already leveraging Big Data to build intelligent energy systems that are both cost-effective and environmentally friendly.

3. Smart Agriculture and Resource Management

Agriculture is a vital sector for sustainable development, and Big Data analytics is transforming it into a more efficient and environmentally responsible industry. Through the use of sensors, drones, and satellite imagery, farmers can collect data on soil conditions, crop health, weather forecasts, and irrigation needs. Machine learning models then analyze this data to provide actionable insights for planting, fertilization, pest control, and harvesting.

This precision agriculture approach minimizes the use of harmful chemicals, conserves water, and increases yield, contributing to both environmental protection and food security. Organizations like the Food and Agriculture Organization (FAO) are investing in data-driven tools to help farmers, especially in developing countries, adopt sustainable practices.

4. Big Data and Sustainable Urban Planning

Urban areas are responsible for a significant portion of global carbon emissions and resource consumption. As such, cities are pivotal in the transition to a green economy. Big Data enables the

development of smart cities, where transportation, waste management, energy use, and public services are optimized through data integration.

For example, traffic flow data can be used to reduce congestion and pollution through adaptive traffic signal systems. Waste collection can be made more efficient by analyzing bin usage patterns. Urban planners can also use demographic and environmental data to design greener infrastructure, such as parks, bike lanes, and energy-efficient buildings.

The city of Singapore, often cited as a leader in smart urban planning, uses a centralized platform to collect and analyze data from across the city to make real-time decisions that enhance sustainability and quality of life.

5. Challenges and Ethical Considerations

Despite the many benefits, integrating Big Data into the green economy comes with challenges. One major issue is data privacy. As more sensors and digital tools are deployed, the collection of personal and sensitive data becomes inevitable, raising ethical concerns. Strong data governance frameworks are required to protect individuals’ rights.

Another challenge is infrastructure. Developing countries may lack the digital infrastructure necessary to collect, store, and analyze large datasets. Bridging the digital divide is essential to ensure that the green economy benefits are equitably distributed.

Lastly, data accuracy and standardization remain concerns. Poor-quality data or inconsistent metrics can lead to flawed analyses and misguided policy decisions.

Conclusion: Big Data analytics holds transformative potential for the green economy. From improving energy efficiency and environmental monitoring to revolutionizing agriculture and urban planning, data-driven insights empower decision-makers to act with precision and foresight. However, to fully harness these benefits, challenges related to privacy, infrastructure, and data quality must be addressed through collaborative efforts between governments, businesses, and civil society. As the world faces mounting environmental pressures, embracing Big Data as a tool for sustainable development is not just beneficial—it is essential.

Used literature:

1. World Economic Forum (2022). Harnessing Big Data for a Sustainable Future.
2. European Commission (2021). The Role of Digital Technologies in the Green Transition.
3. FAO (2020). Digital Agriculture: Supporting Farmers through Data-Driven Innovation.
4. United Nations Environment Programme (2022). Big Data for Environmental Sustainability.
5. McKinsey & Company (2021). Smart Cities and the Role of Big Data in Urban Planning.
6. NASA Earth Observatory.
7. https://earthobservatory.nasa.gov
8. International Renewable Energy Agency (IRENA) (2020). Innovation Outlook: Smart Grids.
9. Zikopoulos, P., & Eaton, C. (2012). Understanding Big Data: Analytics for Enterprise Class Hadoop and Streaming Data. McGraw-Hill.

SUN’IY INTELLEKT VA ONTOLOGIK YONDASHUVNING ILMIY-ASOSIY TAMOYILLARI

Bekmurodov Ulug’bek Bahrom o’g’li
ulugbekmurodov1987@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalari va ontologik modellardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalari orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari takomillashadi. Ontologik yondashuv esa soha ichidagi bilimlar, jarayonlar va munosabatlarni formal tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston sharoitida raqamli turizm infratuzilmasini sun’iy intellektga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, SI, turizm, sun’iy intellekt, iqtisodiy samaradorlik, AI, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston, ontologik model

Kirish. Raqamli transformatsiya jarayonida turizm sohasi texnologik yechimlarga asoslangan raqobatbardosh platformaga aylanishi kerak. Turizmda axborot oqimlarining ko‘pligi, xizmatlarning diversifikatsiyasi va mijozlar ehtiyojlarining keskin o‘zgarishi sun’iy intellektga asoslangan modellashtirish va bashoratlash tizimlarini zarur qiladi. Shu bilan birga, ontologik modellar orqali turizm sohasidagi tushunchalar, obyektlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi aniq va formal tarzda tasvirlanadi.

1. Sun’iy intellekt texnologiyalari va turizm sohasi. Sun’iy intellekt hozirda quyidagi yo‘nalishlarda turizmda keng qo‘llanmoqda:

- SI-chatbotlar
- Rekomendatsion tizimlar
- SI marketing va tahlil
- Tashrif zichligi va oqimini boshqarish (smart tourism)

2. Ontologik modellar: bilimlarni raqamlashtirish asosi. Ontologiya — bu ma’lum bir sohaga oid tushunchalar, ularning tavsiflari va o‘zaro munosabatlarini belgilovchi bilimlar to‘plamidir. Turizm ontologiyasi quyidagilardan tashkil topadi: tushunchalar, munosabatlar va xususiyatlar. Ontologiya — bu axborot tizimlarida yoki bilimlarni boshqarish sohasida muayyan soha haqidagi bilimlarni strukturaviy va formal tarzda tasvirlovchi, tushunchalar (klasslar), ularning atributlari, shuningdek ularning o‘zaro aloqalarini aniqlovchi mantiqiy-matematik modeldir.

Ontologiyaning asosiy elementlari:

klasslar (tushunchalar) – Mavjudlikni ifodalovchi asosiy obyektlar (masalan: sayyoh, mehmonxona, marshrut).

atributlar (xususiyatlar) – Klasslarga xos bo‘lgan belgilar (masalan: mehmonxonaning joylashuvi, narxi, yulduzlar soni).

munosabatlar (aloqalar) – Klasslar o‘rtasidagi bog‘lanishlar (masalan: sayyoh → turistik marshrutni tanlaydi).

qoidalar va aksiomalar – Ontologiyadagi tushunchalar qanday ishlashini aniqlovchi mantiqiy ifodalar.

3. SI va ontologiya: Integratsiyalashgan yondashuv. SI va ontologiyalarni birlashtirish orqali bilimlar bazasi, SI algoritmlari, semantik tarmoqlar va natural language processing birgalikda ishlaydi. Turizmda ontologiyaning ahamiyati:

• Turizm sohasidagi murakkab axborotlarni semantik tarzda tashkil etadi.
• Sun’iy intellekt tizimlari uchun bilimlar bazasini yaratishda asos bo‘ladi.
• Raqamli platformalar (masalan, turistik xizmatlar, marshrut planlashtirish, rezervatsiya tizimlari) uchun strukturaviy model bo‘lib xizmat qiladi.
• Soha bo‘yicha intellektual tahlil va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

4. Matematik model: SI asosida samaradorlikni baholash

Yuqoridagi yondashuv asosida turizm sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdan keladigan iqtisodiy samaradorlik quyidagi model orqali baholanadi:

$$\max Z = \alpha_1 R + \alpha_2 Q + \alpha_3 P + \alpha_4 D - C$$

Bu yerda:

Z — yakuniy daromad,
R, Q, P, D — SI orqali boshqariladigan reklama, xizmat sifati, narx va mijozlar soni,
C — umumiy xarajat.

5. O‘zbekistonda raqamli turizmda AI va ontologik yondashuvni joriy etish istiqbollari. Hududiy platformalar, raqamli “smart tourism” tizimlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va texnoparklar bilan hamkorlik AI va turizm sohasida modellashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa. Sun’iy intellekt va ontologik modellar integratsiyasi O‘zbekiston turizm sohasining raqamli rivojlanishini tezlashtiradi. Turizm xizmatlari AI algoritmlari orqali shaxsiylashtirilgan va

tezkor bo‘lishi kerak. Davlat strategiyalariga “AI-Tourism” platformalarini yaratish kiritilishi lozim.

Raqamli bilimlar bazasini yaratish (ontologiya) orqali AI uchun semantik tarmoqlar qurilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-y.
3. Столяров А.В. Цифровая экономика: теория и практика. – Москва: Юрайт, 2021.
4. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – McGraw-Hill, 1996.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – World Economic Forum, 2016.

BULUTLI HISOBLASH TIZIMLARI VA ULARNING XIZMATLARI

Mirzohid Berdimuradov
berdimurodov.mirzohid@gmail.com
University of Management and Future Technologies universiteti assistenti;

Annotatsiya: Ushbu maqolada bulutli hisoblash tizimlarining xizmat turlari va ularning xavfsizlik yechimlari qiyosiy tahlil qilindi. Bulutli hisoblash xizmatlarining asosiy turlari – IaaS, PaaS va SaaS modellari o‘rganilib, ularning afzalliklari hamda cheklovlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: IaaS, PaaS, SaaS, xususiy bulut, ommaviy bulut, gibrid bulut, shifrlash, IAM.

Bulutli hisoblash tizimlari - bu foydalanuvchilarga internet orqali masofaviy serverlar, saqlash joylari, dasturiy ta'minotlar va hisoblash resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi texnologiya tizimidir. Bu tizimlar foydalanuvchilarga o‘z qurilmasida hech qanday og‘ir dastur o‘rnatmasdan turib, kuchli hisoblash xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Bulutli hisoblash tushunchasida keltirilgan asosiy qoidalar quyidagilar:

- foydalanuvchi hisoblash ehtiyojlarini o‘z xohishiga ko‘ra tanlaydi;
- resurslar tezkor ravishda qayta taqsimlash imkoniyati bilan birlashtirilgan;
- ma’lumotlar tarmog‘i orqali kirish universaldir;
- xizmatlar deyarli vaqtni sarflamasdan avtomatik rejimda taqdim etilishi,
- kengaytirilishi yoki shartnoma tuzilishi mumkin;
- iste’mol qilingan resurslar avtomatik ravishda hisoblanadi.

Bulutli hisoblashni joylashtirish modeli yoki xizmat turi asosida tasniflash mumkin. Joylashtirish modeliga ko‘ra, bulut ommaviy (public), xususiy (private) va gibrid (hybrid) bulut turlariga bo‘linadi[1].

Xususiy bulut

Xususiy bulutda hisoblash xizmatlari faqat bitta tashkilotga tegishli bo‘lgan maxsus IT tarmog‘i orqali taqdim etiladi. Ichki (internal), korporativ (enterprise) yoki korxona buluti (corporate cloud) deb ham ataluvchi ushbu model odatda tashkilotning o‘z resurslari tomonidan boshqariladi va tashqi foydalanuvchilarga ochiq bo‘lmaydi. Xususiy bulut, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish (self-service), kengayuvchanlik (scalability) va elastiklik (elasticity) kabi ommaviy bulutning barcha afzalliklarini taqdim etish bilan birga, qo‘shimcha nazorat, xavfsizlik va moslashtirish (customization) imkoniyatlarini ham ta’minlaydi.

Ommaviy bulut

Ommaviy bulut uchinchi tomon provayderlari tomonidan internet orqali taqdim etiladigan hisoblash xizmatlarini anglatadi. Xususiy bulutdan farqli ravishda, ommaviy bulutdagi xizmatlar istalgan foydalanuvchi uchun ochiq bo‘lib, ulardan foydalanish yoki sotib olish mumkin.

Ommaviy bulutlar korxonalarga mahalliy infratuzilmani sotib olish, boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, chunki tizimni boshqarish uchun bulut xizmatlari provayderi javobgar bo‘ladi. Shuningdek, ommaviy bulutlar dinamik tarzda RAMni oshirish,

moslashuvchan tarmoq kengligini ta’minlash kabi imkoniyatlarni taqdim etib, korxonalarga saqlash ehtiyojlarini oson kengaytirish imkonini beradi[2].

Gibrid bulut

Gibrid bulut - bu ommaviy va xususiy bulut texnologiyalarining kombinatsiyasidan iborat bo‘lib, u hisoblash va xarajat talablari o‘zgarishi bilan ish yuklamalarini ushbu ikki model o‘rtasida moslashuvchan tarzda taqsimlash imkonini beradi.

Gibrid bulut ikki yoki undan ortiq turdagi bulut muhitlarini o‘z ichiga oladi. Gibrid bulutni joriy etish jarayoni ommaviy va xususiy bulutlarni birlashtirish bilan birga, mahalliy (on-premise) An’anaviy infratuzilmani ham o‘z ichiga olishi mumkin. Haqiqiy gibrid bulut modeliga erishish uchun ushbu turli bulut muhitlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi va yagona infratuzilma sifatida ishlashi kerak[3].

Bulutli hisoblashning xizmat ko‘rsatish modellari quyidagilar:

- Infrastructure as a Service (IaaS);
- Platform as a Service (PaaS);
- Software as a Service (SaaS).

Infrastructure as a Service (IaaS)

Infrastructure as a Service - bu bulutli hisoblash xizmatlari modeli bo‘lib, u internet orqali virtualizatsiyalangan hisoblash resurslarini taqdim etadi. IaaS yordamida tashkilotlar virtual mashinalar, ma’lumotlarni saqlash tizimlari va tarmoq boshqaruv komponentlari kabi moslashuvchan infratuzilma resurslariga ega bo‘lishi va ularni boshqarishi mumkin, shu bilan birga jismoniy uskunalarga sarmoya kiritish yoki ularni saqlab turish zarurati yo‘qoladi.

Quyida IaaS odatda qanday ishlashiga bosqichma-bosqich umumiy ko‘rinish berilgan[4]:

- talabga binoan resurslarga kirish. IaaS yordamida foydalanuvchilar hisoblash resurslariga talabga binoan ega bo‘lishlari mumkin, bu ularga infratuzilma komponentlarini tezkor tarzda sozlash va joylashtirish imkonini beradi;

- o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish asosida taqsimlash. IaaS platformalari foydalanuvchilarga mustaqil ravishda tizim resurslarini sozlash va boshqarish imkonini beruvchi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish interfeyslarini (masalan, veb-portallar yoki API-lar) taqdim etadi;

- masshtablash imkoniyati. IaaS platformalari odatda gorizontal masshtablash imkoniyatini taqdim etadi, ya’ni foydalanuvchilar talabga qarab resurslarni ko‘paytirish yoki kamaytirishlari mumkin;

- foydalanish asosida to‘lov tizimi. IaaS provayderlari odatda foydalanilgan hisoblash resurslari asosida to‘lov tizimini qo‘llaydilar. Quyidagi 1 - rasmda IaaS ishlash printsipi ko‘rsatilgan.



1 - rasm. IaaS ishlash printsipi

Platform as a Service (PaaS)

Platform as a Service - bu bulutli hisoblash modeli bo‘lib, u dasturchilarga ilovalarni yaratish, joylashtirish va boshqarish uchun zarur bo‘lgan platformani taqdim etadi, shu bilan birga, infratuzilma bilan bog‘liq muammolarni hal qilish zaruriyatini bartaraf etadi[6].

PaaS infratuzilma bilan bog‘liq murakkabliklarni abstraktsiyalash orqali ilova ishlab chiqishni soddalashtiradi va dasturchilarga faqat innovatsiyalar yaratishga e’tibor qaratish imkonini beradi.

PaaS quyidagi jarayonlar orqali ishlaydi:

- resurslarni taqdim etish (Provisioning). Bulut provayderi zarur hisoblash resurslarini, jumladan serverlar, tarmoq va xotirani tashkil qiladi;

- ilova ishlab chiqish (Application Development). Dasturchilar ilovalar uchun kod yozish va sinovdan o‘tkazish jarayonlarini ichki dasturiy ta’minot vositalari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish to‘plamlari (SDK) va dasturiy interfeyslar (API) yordamida amalga oshiradilar;

- joylashtirish va hosting (Deployment and Hosting). Dasturchilar ilovalarni bulutga minimal konfiguratsiya bilan joylashtiradilar;

- masshtablash va yukni taqsimlash (Scalability and Load Balancing). PaaS talablarga mos ravishda resurslarni avtomatik masshtablash imkoniyatini beradi;

- ma’lumotlar bazasi va xotirani boshqarish (Database and Storage Management). PaaS boshqariladigan ma’lumotlar bazalarini taqdim etadi, ularning xavfsizligi uchun zaxiralash va qayta tiklash funksiyalarini o‘z ichiga oladi;

- xavfsizlik va texnik xizmat ko‘rsatish (Security and Maintenance). PaaS provayderi xavfsizlik yangilanishlari, infratuzilmani modernizatsiya qilish va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini o‘z zimmasiga oladi;

- monitoring va tahlil qilish (Monitoring and Analytics). PaaS ilovalarning ishlash ko‘rsatkichlarini kuzatish, xatolarni bartaraf etish va tizim jurnallarini yuritish uchun monitoring vositalarini taqdim etadi[1].

Quyidagi 2-rasmda Paas ishlash printsipi ko‘rsatilgan.



2 - rasm. Paas ishlash printsipi

Software as a Service (SaaS).

SaaS - bu bulut muhitida joylashtirilgan va internet aloqasi orqali veb-brauzer, mobil ilova yoki thin client yordamida ishlatiladigan dasturiy ta’minotdir.

SaaS ilovalari bulut muhitida joylashtirish uchun ishlab chiqilgan. SaaS dasturiy ta’minot yetkazib beruvchisi ilovani o‘zining xususiy bulut infratuzilmasida yoki uchinchi tomon bulut xizmatlari provayderida (masalan, Amazon Web Services (AWS), Google Cloud, IBM Cloud yoki Microsoft Azure) joylashtirishi mumkin[3].

Eng muhimi, SaaS ilovalari mijoz tomonidan deyarli boshqaruvni talab qilmaydi va texnik xizmat ko‘rsatishni umuman taqozo etmaydi. Barcha jarayonlar SaaS yetkazib beruvchisi tomonidan amalga oshiriladi, jumladan:

- ilovaning ishlashi uchun zarur bo‘lgan barcha serverlar, tarmoq uskunalari, saqlash vositalari va operatsion tizim dasturlarini ta’minlash, boshqarish va texnik xizmat ko‘rsatish;

- dasturiy ta’minotda yuzaga keladigan xatolarni tuzatish va xavfsizlik yangilanishlarini zarur holatlarda joriy etish;

- yuklamani muvozanatlashtirish, ortiqcha infratuzilmani ta’minlash, ma’lumotlarni zaxiralash, bulut xavfsizligini ta’minlash hamda favqulodda tiklash xizmatlarini ko‘rsatish orqali uzilishlarning oldini olish va xizmat ko‘rsatish darajasi kelishuviga (SLA – Service Level Agreement) muvofiq ishlash samaradorligi, mavjudlik darajasi hamda ma’lumotlarni himoyalash standartlarini ta’minlash[2].

Quyidagi 3-rasmda SaaS ishlash printsipi keltirilgan.



3-rasm. SaaS ishlash printsipi

Bulutli texnologiyalarga o‘tish kiberxavfsizlik tahdidlarining tabiatini va korxonalar uchun zarur bo‘lgan himoya choralarini tubdan o‘zgartirdi[2].

Bulutli hisoblashda uchraydigan asosiy xavfsizlik tahdidlari quyidagilar:

- ma’lumotlarning sizib chiqishi;
- akkountga ruxsatsiz kirish;
- xavfsizligi ta’minlanmagan ilovalar dasturlash interfeyslari (API lar);
- Denial of Service (DoS) hujumlari;
- ichki tahdidlar;
- noto‘g‘ri konfiguratsiya;
- yetarli darajada identifikatsiya va kirish boshqaruvi (IAM)ning yo‘qligi;
- rivojlangan davom etuvchi tahdidlar (APT);
- muvofiqlikni buzishlar;
- bulut resurslarini egallab olish;

Quyidagi texnologiyalar bulut xavfsizligining asosini tashkil etadi. Garchi ular yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun yetarli bo‘lmasada, ular bulut muhitlarining murakkabliklarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan mustahkam xavfsizlik strategiyasining asosiy tarkibiy qismlarini taqdim etadi[5].

Bu texnologiyalar quyidagilar:

- shifrlash;
- identifikatsiya va kirish boshqaruvi (IAM);

Shifrlash

Bulut shifrlash - bu ma’lumotlarni bulutga uzatishdan oldin kodlash va o‘zgartirish jarayonidir. Ushbu jarayon, matnli ma’lumotlarni matematik algoritmlar yordamida shifrlangan matnga aylantirib, ma’lumotlarni o‘qib bo‘lmaydigan holga keltiradi va uni ruxsatsiz va potentsial zararli foydalanuvchilardan himoya qiladi. Quyidagi 1-jadvalda bulutli shifrlash turlarining qiyosiy jadvali berilgan[5].

Jadval 1

Bulutli shifrlash turlarining qiyosiy jadvali

Asosiy farqlar	**Simmetrik shifrlash**	**Assimmetrik shifrlash**
Shifrlangan matnning hajmi	Shifrlangan matnning hajmi asl oddiy matn faylidan kichikroq bo‘ladi.	Shifrlangan matn hajmi asl oddiy matn faylidan kattaroq bo‘ladi.
Ma’lumotlar hajmi	Katta ma’lumotlarni uzatish uchun ishlatiladi.	Kichik ma’lumotlarni uzatish uchun ishlatiladi.
Resurslardan foydalanish	Simmetrik kalitli shifrlash resurslardan kam foydalanish bilan amalga oshiriladi.	Assimmetrik shifrlash yuqori darajada resurs iste'molini talab qiladi.
Kalit uzunliklari	128 yoki 256-bitli kalit o‘lchami.	RSA 2048-bit yoki undan yuqori kalit o‘lchami.

Xavfsizlik	Shifrlash uchun bitta kalitdan foydalanilishi sababli kamroq xavfsiz.	Shifrlash va dekodlashda ikkita kalit ishtirok etgani uchun ancha xavfsiz.
Kalitlar soni	Simmetrik shifrlash shifrlash va dekodlash uchun bitta kalitdan foydalanadi.	Assimmetrik shifrlash shifrlash va dekodlash uchun ikkita kalitdan foydalanadi.
Texnikalar	Bu eski texnikadir.	Bu zamonaviy shifrlash texnikasidir.
Maxfiylik	Shifrlash va dekodlash uchun bitta kalitning ishlatilishi kalitning buzilishi ehtimolini keltirib chiqaradi.	Shifrlash va dekodlash uchun alohida yaratilgan ikkita kalit bu kalitni ulashish zaruratini bartaraf etadi.
Tezlik	Simmetrik shifrlash tezkor texnikadir.	Assimmetrik shifrlash tezlik jihatidan sekinroqdir.
Algoritmlar	RC4, AES, DES, 3DES va QUAD.	RSA, Diffie-Hellman, ECC algoritmlari.

Identifikatsiya va kirish boshqaruvi (IAM)

Shaxsni identifikatsiya qilish va kirish boshqaruvi (IAM yoki qisqacha IdAM) - bu foydalanuvchining kimligini aniqlash va ularga nima qilishga ruxsat berilganini belgilash usulidir.

Texnik jihatdan aytganda, IAM - bu berilgan foydalanuvchilar to‘plamining raqamli identifikatsiyalarini va har bir identifikatsiyaga bog‘liq bo‘lgan imtiyozlarni boshqarish vositasidir. Bu, shu asosiy funksiyani bajaradigan bir nechta turli mahsulotlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli atamadir[7]. Quyidagi 2-jadvalda Identifikatsiya boshqaruvi va kirish boshqaruvining qiyosiy tahlili keltirilgan.

Jadval 2

Identifikatsiya boshqaruvi va kirish boshqaruvining qiyosiy tahlili

Parametrlari	**Identifikatsiya boshqaruvi (Identity Management)**	**Kirish boshqaruvi (Access Management)**
Asosiy Maqsad	Foydalanuvchilarning shaxsini tasdiqlash, ya’ni ular kimligini aniqlash.	Foydalanuvchilarga yoki tizimlarga tizim resurslariga kirish huquqlarini boshqarish.
Jarayon	Foydalanuvchi ma’lumotlarini yig‘ish, tasdiqlash va ma’lumotlarni saqlash.	Foydalanuvchining ma'lum bir resursga kirishini boshqarish, masalan, rolga asoslangan ruxsatlar.
Qamrov	Foydalanuvchilarning shaxsini aniqlash va identifikatsiya qilish.	Foydalanuvchilarni yoki tizimlarni autentifikatsiya qilgandan so‘ng, ularga resurslarga kirish huquqini berish.
Misollar	Foydalanuvchi hisobini yaratish, elektron pochta manzili va parolni tasdiqlash.	Foydalanuvchi resurslarga kirish uchun rolni taqdim etish yoki ruxsat berish.
Xavfsizlik	Shaxsni tasdiqlash jarayoni orqali tizimga ruxsatni taqdim etishning asosiy qismi.	Resurslarga kirishni boshqarish orqali xavfsizlikni ta'minlash.

Bulutli hisoblash tizimlarining xavfsizligi murakkab va ko‘p qatlamli yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda tashkilotlar bulut infratuzilmasiga ko‘chayotganda, ma’lumotlarni himoya qilish va tizim xavfsizligini ta’minlash uchun bir qancha muhim chora-tadbirlarni ko‘rishlari lozim. Yuqorida tahlil qilingan xavfsizlik mexanizmlarini umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- shifrlash - ma’lumotlarni himoya qilishning muhim komponenti. Bulut xizmatlarida ma’lumotlar tranzit va dam olish holatida shifrlanishi shart. AES-256 kabi kuchli shifrlash algoritmlari hamda

TLS/SSL texnologiyalaridan foydalanish orqali ma’lumotlar tarmoq orqali uzatilayotganda yoki saqlanayotganda himoya qilinadi.

IAM - foydalanuvchilar va ruxsatlarni samarali boshqarish. Bulut xizmatlaridan xavfsiz foydalanish uchun identifikatsiya va kirish boshqaruvi (IAM) tizimlarining to‘g‘ri konfiguratsiya qilinishi zarur. Minimal imtiyoz tamoyiliga amal qilish, ko‘p faktorli autentifikatsiya (MFA) va avtomatlashtirilgan ruxsatlar nazorati orqali ruxsatsiz kirishning oldini olish mumkin. IAM tizimlari xodimlarning bulut resurslariga kirishini aniq belgilab, tashkilot xavfsizligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Armbrust, M., Fox, A., Griffith, R., Joseph, A. D., Katz, R. H., Konwinski, A., … & Zaharia, M. (2010).
2. Mell, P., & Grance, T. (2011). The NIST Definition of Cloud Computing. National Institute of Standards and Technology.
3. Buyya, R., Yeo, C. S., & Venugopal, S. (2008). Market-Oriented Cloud Computing: Vision, Hype, and Reality for Delivering IT Services as Computing Utilities.
4. Zhang, Q., Cheng, L., & Boutaba, R. (2010). Cloud Computing: State-of-the-Art and Research Challenges.
5. Cisco. (2013). Cloud Computing Security Issues and Challenges: A Survey Rittinghouse, J. W., & Ransome, J. F. (2017).
6. Buyya, R., Broberg, J., & Goscinski, A. (2010).
7. Pallis, G. (2010). Cloud Computing: The New Frontier of Internet Computing. IEEE Internet Computing, 14(5), 70-73.

KATTA MA’LUMOTLAR VA DATA MINING ZAMONAVIY USULLARI

M.Y.Rustamova, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, katta o‘qituvchisi
mohimrustamova83@gmail
D. B.Abilov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, talabasi
abilovdilshod54@gmail.com
S.R. Avazbekov, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, talabasi
sayfulloavazbekov11@gmail.com

Annotatsiya: Katta ma’lumotlar (Big Data) – bu juda katta hajmdagi, tez-tez yangilanadigan va turli xil formatlarda bo‘lgan ma’lumotlar to‘plamidir. Ularning o‘lchamlari va murakkabliklari an’anaviy ma’lumotlar bazalari yordamida boshqarish va tahlil qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Katta ma’lumotlar asrida, Data Mining (ma’lumotlarni qazib olish) usullari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada katta ma’lumotlar va data mining zamonaviy usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Katta ma’lumotlar to‘plami uchta asosiy xususiyatga ega: hajm, tezlik va xilma-xillik.

1. Hajm: Katta ma’lumotlar to‘plamlari terabaytlar, petabaytlar yoki hatto eksabaytlar bilan o‘lchanadi. Bunday hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, boshqarish va tahlil qilish ancha murakkab jarayon.

2. Tezlik: Ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanadi va oqimda keladi. Real vaqtda ma’lumotlarni qayta ishlash zarurati ko‘plab sohalarda, masalan, moliya, sog‘liqni saqlash va marketingda muhim ahamiyatga ega.

3. Xilma-xillik: Katta ma’lumotlar turli manbalardan keladi va strukturaviy, strukturaviy bo‘lmagan yoki yarim strukturaviy bo‘lishi mumkin. Bu matn, tasvirlar, videolar va sensor ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Data Mining – bu katta ma’lumotlardan foydali ma’lumotlarni olish jarayoni. Bu jarayon statistik tahlil, mashinani o‘rganish (machine learning) va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanadi. Data Mining jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish: Ma’lumotlar turli manbalardan to‘planadi, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, korporativ bazalar yoki internetdan.

2. Ma’lumotlarni tozalash: Yig‘ilgan ma’lumotlar xatolarni aniqlash va ularni tuzatish uchun tozalanadi.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish: Ma’lumotlar statistik usullar va algoritmlar yordamida tahlil qilinadi. Bu bosqichda model yaratish va uni sinovdan o‘tkazish amalga oshiriladi.

4. Natijalarni baholash: Olingan natijalar baholanadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Zamonaviy data mining usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Mashina o‘rganishi (Machine Learning): Bu usul algoritmlarni qo‘llab-quvvatlaydi va ularga o‘z-o‘zini takomillashtirish imkonini beradi. Mashina o‘rganishi yordamida tasniflash, regressiya va klasterlash kabi vazifalar bajariladi.

1-rasm. Machine Learning

2. Tarmoq analizi: Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa aloqalarni tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Tarmoq analizi yordamida foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin.

3. Tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing): Bu usul matnli ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. U matnni tushunish, tarjima qilish va sentiment analizini amalga oshirish imkonini beradi.

2-rasm. Natural Language Processing

4. Katta ma’lumotlar arxitekturasi: Hadoop va Spark kabi platformalar katta ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun ishlatiladi. Hadoop ekotizimi Apache Hadoop dasturiy ta’minot to’plamidan iborat bo‘lib, shu nom bilan ham nomlanishi mumkin. Ushbu texnologiyalar katta ma’lumotlardagi muammolarini hal qilish mumkin bo‘lgan keng ko’lamli odatiy yechimlar va vositalar bilan to‘liq jihozlangan Apache ochiq manba loyihalarini o‘z ichiga olgan. Hamda to‘plamdagi ba’zi mashhur nomlar orasida Apache Spark, Apache Pi, MapReduce va HDFS lar ham mavjud. Ushbu texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali ravishda boshqarish mumkin.

5. Vizualizatsiya: Ma’lumotlarni vizual tarzda taqdim etish usullari (masalan, grafiklar, diagrammalar) qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi va natijalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda katta ma’lumotlar va data mining zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ko‘plab sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonlar orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko‘rsatish va yangiliklarni kashf etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Katta ma’lumotlarning rivojlanishi bilan birga data mining usullarining ham takomillashuvi davom etmoqda, bu esa kelajakda yanada innovatsion yechimlarni keltirib chiqarishi kutilmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. "Hadoop nashrlari". apache.org. Apache dasturiy ta'minot fondi. Olingan 28 aprel 2019.
2. "Apache Hadoop". Olingan 7 sentyabr 2019.
3. Hakam, Piter (2012 yil 22 oktyabr). "Dagni kesish: katta ma'lumotlar ko'pik emas". silikon.co.uk. Olingan 11 mart 2018.
4. Vudi, Aleks (2014 yil 12-may). "Nega Hadoop IBM Power-da". datanami.com. Datanami. Olingan 11 mart 2018.
5. Xemsot, Nikol (2014 yil 15-oktabr). "Cray Hadoop-ni HPC havo maydoniga uchirdi". hpcwire.com. Olingan 11 mart 2018.
6. "Apache Hadoop-ga xush kelibsiz!". hadoop.apache.org. Olingan 25 avgust 2016.
7. "Hadoop tarqatilgan fayl tizimi (HDFS) nima?". ibm.com. IBM. Olingan 30 oktyabr 2014.
8. Malak, Maykl (2014 yil 19 sentyabr). "Ma'lumotlarning joylashuvi: HPC va Hadoop va Spark". datascienceassn.org. Ma'lumotlar bo'yicha assotsiatsiya. Olingan 30 oktyabr 2014.
9. Vang, Yandun; Oltin tosh, Robin; Yu, Veykuan; Vang, Teng (2014 yil oktyabr). "HPC tizimlarida xotira-rezident MapReduce-ni tavsiflash va optimallashtirish". 2014 IEEE 28-chi xalqaro parallel va taqsimlangan ishlov berish simpoziumi. IEEE. 799-808 betlar. doi:10.1109 IPDPS.2014.87. ISBN 978-1-4799-3800-1.
10. "Resurs (Apache Hadoop Main 2.5.1 API)". apache.org. Apache dasturiy ta'minot fondi. 12 sentyabr 2014. Arxivlangan asl nusxasi 2014 yil 6 oktyabrda. Olingan 30 sentyabr 2014.

DEEPFAKE TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA AUDIO VA VIDEO KONTENTLARNI SOXTALASHTIRISH ORQALI KELIB CHIQADIGAN FIRIBGARLIKLARNING IQTISODIY OQIBATLARI, ULARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI VA USULLARI

Burliyev Abdulla Ubaydullayevich
E-mail: a.burliyev@gmail.com
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada deepfake texnologiyalari asosida audio va video kontentlarni soxtalashtirish orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklarning iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. 2020–2024 yillar oralig‘ida kuzatilgan statistik ma’lumotlar asosida firibgarlik holatlarining keskin oshgani va ularning moliyaviy, axborotiy hamda ijtimoiy sohalarga yetkazayotgan zararlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada texnik va huquqiy jihatdan tahdidlarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar, xalqaro tajriba va ilmiy asoslangan yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Deepfake, firibgarlik, iqtisodiy xavf, sun’iy intellekt, raqamli xavfsizlik, kiberxavfsizlik, audio/video soxtalashtirish, AI-deteksiya, qonunchilik, media savodxonlik.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida axborot soxtalashtirishning ilg‘or usullari yuzaga keldi. Shulardan biri Deepfake texnologiyasidir. Bu texnologiya orqali sun’iy intellekt yordamida insonlarning yuz ifodasi va ovozi haqiqiydek ko‘rinadigan tarzda soxtalashtiriladi. Ushbu texnologiya dastlab film sanoati va ko‘ngilochar kontentda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda firibgarlik, yolg‘on axborot tarqatish va kiberjinoyatlarda ham faol ishlatilmoqda. Maqolada deepfake texnologiyasi orqali sodir etilayotgan firibgarliklarning iqtisodiy oqibatlari, mavjud xavf-xatarlar va ularni oldini olish yo‘llari tahlil qilinadi.

USLUBLAR:

Statistik ma’lumotlar tahlili: 2020–2024 yillar orasida deepfake texnologiyasi orqali sodir etilgan firibgarlik holatlari haqidagi xalqaro va milliy manbalardagi ochiq statistik ma’lumotlar to‘plandi va ularning yillik o‘sish dinamikasi o‘rganildi. Jumladan, Europol, FBI va boshqa tashkilotlarning yillik hisobotlari asosida grafik va jadval ko‘rinishida umumlashtirildi.

Voqealarning huquqiy-ijtimoiy tahlili: Deepfake bilan bog‘liq holatlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Yevropa Ittifoqining GDPR qonuni va boshqa xalqaro normativ hujjatlar asosida huquqiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, bu texnologiya orqali jamiyatda yuzaga kelayotgan ishonchsizlik, axloqiy muammolar, psixologik ta’sirlar ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqildi.

Kiberxavfsizlik texnologiyalarining solishtirma bahosi: Deepfake aniqlash va oldini olishda qo‘llanilayotgan texnologiyalar – AI asosidagi detektorlar, raqamli suv belgilar (digital watermark), metadata tahlili va blockchain texnologiyalarining samaradorligi solishtirildi. Har bir texnologiyaning afzallik va kamchiliklari ko‘rsatib o‘tildi.

Amaliy misollar orqali tahlil (case-study): AQSH, Germaniya, Hindiston, Xitoy va O‘zbekiston kabi davlatlarda sodir bo‘lgan konkret deepfake firibgarlik holatlari tahlil qilinib, ularning oqibatlari va javob choralari ko‘rsatildi. Masalan, “CEO fraud” holatlaridagi kompaniya zararlarining sabablari va ta’siri tahlil qilindi.

NATIJALAR

So‘nggi besh yillikda (2020–2024) deepfake texnologiyalariga asoslangan firibgarlik holatlari keskin o‘sdi. Tahlillarga ko‘ra, 2020 yildagi 320 ta holat 2024 yilda 1890 taga yetib, 6 baravardan ortiq o‘sishni ko‘rsatdi. Ayniqsa, 2023 va 2024 yillarda keskin o‘sish kuzatildi, bu esa texnologiyaning ommalashuvi va qo‘llanish doirasining kengayganidan darak beradi. Europol ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda deepfake orqali sodir etilgan firibgarliklar natijasida yetkazilgan umumiy zarar miqdori 465 million AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2020 yildagi 45 million dollar bilan solishtirilganda, 10 baravar o‘sishdan darak beradi.

Asosiy iqtisodiy oqibatlar:

Moliyaviy yo‘qotishlar:

Soxta shaxslar nomidan yuborilgan videoxabarlar yoki audioqo‘ng‘iroqlar orqali bank hisoblaridan mablag‘lar yechib olinmoqda.

Korporativ darajadagi moliyaviy transferlar noto‘g‘ri rekvizitlarga yuborilishi holatlari ko‘paygan.

Obro‘ga putur yetishi:

Siyosatchilar, mashhur shaxslar va kompaniya rahbarlari nomidan tarqatilgan yolg‘on videolar ularning imidjiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Reklama va ommaviy axborot vositalaridagi soxta nutqlar tashkilotlarga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirmoqda.

Huquqiy xarajatlar:

Jabrlangan kompaniyalar yuridik maslahatlar, sud jarayonlari va ekspertizalar uchun katta mablag‘ sarflashga majbur bo‘lmoqda.

Himoya tizimlarini takomillashtirish uchun texnologik xarajatlar ham ortmoqda.

Internet muhitida ishonch inqirozi:

Tarmoqlarda haqiqiy va soxta kontentni farqlash qiyinlashgani sababli, foydalanuvchilar o‘rtasida umumiy ishonchsizlik kuchaymoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va axborot platformalari ko‘proq nazorat va filtrlash tizimlariga ehtiyoj sezmoqda.



	1	2	3	4	5
Yil	2020	2021	2022	2023	2024
Holatlar soni	320	580	910	1340	1890
Zarar (mln USD)	45	87	155	290	465

MUHOKAMA

Deepfake texnologiyalari dastlab ko‘ngilochar soha va media ishlab chiqarishda innovatsion yondashuv sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u xavfsizlik tahdidiga aylangan. Ayniqsa, iqtisodiy firibgarliklarda foydalanilayotgan deepfake asosidagi hujumlar global miqyosda xavotir uyg‘otmoqda. Ushbu texnologiya orqali sodir etilayotgan firibgarliklar bevosita moliyaviy tizimlarga, brend obro‘siga va foydalanuvchi ishonchiga zarar yetkazmoqda.

1. “CEO Fraud” - korporativ firibgarlikda deepfake tahdidi: So‘nggi yillarda “CEO fraud” deb ataluvchi sxemalarda deepfake texnologiyalari tobora ko‘proq ishlatilmoqda. Unda firibgarlar kompaniya rahbarining ovozi yoki yuz tasviri asosida soxta topshiriq yoki moliyaviy tranzaksiya talab qiluvchi xabarlar yaratadilar. Xodimlar ushbu xabarlarni haqiqat deb qabul qilib, millionlab mablag‘larni firibgarlarga o‘tkazmoqda. Masalan, 2023 yilda Yevropadagi yirik energetika kompaniyasining moliyaviy bo‘limi rahbar nomidan yuborilgan deepfake video asosida 35 million yevro mablag‘ni noqonuniy hisob raqamiga o‘tkazgan (Europol hisobotlari).

2. Obro‘ga putur yetkazish holatlari: Mashhur siyosatchilar, san’atkorlar yoki korxona rahbarlari nomidan tarqatilgan yolg‘on bayonotlar brendlar va tashkilotlarga jiddiy zarar yetkazmoqda. Deepfake videolar orqali noto‘g‘ri axborot tarqatilishi ommaviy ijtimoiy norozilikka, aksiyalarning tushishiga yoki siyosiy tanqidga olib kelmoqda. Bu holat Internetdagi kontentga bo‘lgan ishonchni susaytiradi va ijtimoiy dezinformatsiya muhitini kuchaytiradi.

3. Texnik va institutsional qarshi chora-tadbirlar: **Yevropa, AQSH va Osiyo davlatlarida** deepfake texnologiyalariga qarshi quyidagi ilg‘or usullar joriy etilmoqda:

AI asosidagi detektorlar: audio va videolardagi sun’iylik izlarini aniqlovchi algoritmlar (masalan, Microsoft Video Authenticator);

Raqamli watermark (stegano-tamg‘a): kontentga yashirin identifikator joylashtirish orqali ularning haqiqiyligini tekshirish;

Blockchain asosidagi tasdiqlash tizimlari: video va audio fayllarning kelib chiqishini aniq kuzatish imkonini beruvchi zanjirli tasdiqlash vositalari;

Real vaqtli monitoring tizimlari: ijtimoiy tarmoqlar va media platformalarda kontentni avtomatik aniqlovchi algoritmlar.

4. O‘zbekiston sharoitida zarur choralar: O‘zbekiston Respublikasi kontekstida deepfake tahdidlariga qarshi kurashda quyidagilarni joriy qilish maqsadga muvofiq:

Maxsus qonunchilik hujjatlari: Deepfake texnologiyalaridan foydalanish orqali firibgarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan aniq huquqiy javobgarlikni belgilash;

Raqamli savodxonlikni oshirish: ayniqsa davlat idoralari, moliyaviy tashkilotlar va OAV xodimlari orasida soxta kontentni aniqlash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Texnik himoya vositalari: mahalliy internet resurslar va korxonalarga real vaqtli deepfake monitoring tizimlarini joriy etish.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **deepfake texnologiyalari** nafaqat texnik innovatsiya, balki kiberfiribgarlik va ijtimoiy manipulyatsiya vositasi sifatida global xavfga aylanmoqda. 2020–2024 yillar oralig‘ida deepfake orqali sodir etilgan firibgarliklar sonining 6 baravarga oshishi va umumiy zarar miqdorining 465 million AQSH dollariga yetgani bu texnologiyaning iqtisodiy tizimlarga qanday kuchli ta’sir o‘tkazayotganini tasdiqlaydi.

Deepfake texnologiyalari:

Moliyaviy yo‘qotishlar (korporativ va shaxsiy mablag‘lar o‘zlashtirilishi),

Axborot manipulyatsiyasi (soxta bayonotlar, feyk yangiliklar),

Brend va siyosiy obro‘ga putur yetkazish,

Ijtimoiy ishonchning zaiflashuvi kabi ko‘plab xavfli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Shu bois, ushbu xavfga qarshi **kompleks yondashuv** zarur bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1. Texnik vositalar:

Sun’iy intellektga asoslangan **deepfake aniqlovchi detektorlar**,

Video va audiolarga **raqamli watermarklar (stegano-belgilar)** kiritish,

Blockchain texnologiyasi yordamida kontentning haqiqiyligini kuzatish.

2. Tashkiliy chora-tadbirlar:

Korxona va davlat tashkilotlari xodimlari uchun **treninglar va simulyatsiyalar**,

Maxfiy ma’lumotlar bilan ishlovchi xodimlar uchun **ikki bosqichli tasdiqlov tizimlari**.

3. Huquqiy asoslar:

Deepfake asosida firibgarlik sodir etgan shaxslarni jazolashga oid **maxsus qonunchilik normalari**,

Xalqaro hamkorlik asosida deepfake kontentini tarqatishga qarshi kurashish mexanizmlari.

4. Jamoatchilik xabardorligini oshirish:

Ommaviy axborot vositalari, blogerlar va ta’lim tizimi orqali **axborot madaniyati va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish**.

TAKLIFLAR

1. Texnik yo‘nalishdagi takliflar:

a. AI-deteksiya tizimlarini joriy etish:

Deepfake kontentlarini aniqlovchi sun’iy intellekt asosidagi detektorlar (masalan, Microsoft Video Authenticator, Deepware Scanner) mahalliy va korporativ axborot tizimlarida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi kerak.

b. Raqamli watermark va metadata tekshiruv tizimi:

Har bir rasmiy audio/video kontentga raqamli steganografik belgi (watermark) kiritish orqali ularning asl manbasini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu kontentni sud-huquqiy jihatdan isbotlashda ham qo‘llaniladi.

c. Blockchain asosida kontent autentifikatsiyasi:

Video va audio kontentlar blockchain platformalarida ro‘yxatdan o‘tkazilib, har bir fayl uchun yagona tasdiqlangan identifikator orqali kuzatib boriladi.

2. Tashkiliy va institutsional yo‘nalishdagi takliflar:

a. Kiberxavfsizlik bo‘yicha muntazam treninglar:

Xodimlar orasida deepfake xavflarini tan olish, soxta kontentni aniqlash va favqulodda vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etilsin.

b. Soxta topshiriqlarga qarshi verifikatsiya protokollari:

Rahbar nomidan yuborilgan har qanday audio/video xabarlar ikkilamchi autentifikatsiya (telefon tasdig‘i, biometrik tekshiruv) orqali tasdiqlanishi lozim.

c. Maxfiylik va ishonch muhitini mustahkamlash:

Ichki axborot oqimlari, xizmat yozishmalari va moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligi uchun shifrlangan (end-to-end encryption) platformalardan foydalanish tavsiya etiladi.

3. Huquqiy yo‘nalishdagi takliflar:

a. Maxsus qonun loyihalari ishlab chiqish:

Deepfake kontentlarini yaratish, tarqatish va undan foydalangan holda jinoyat sodir etganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilovchi alohida qonunchilik normalari qabul qilinishi kerak.

b. Transmilliy monitoring organlari bilan hamkorlik:

Interpol, Europol, UNICRI (BMTning jinoyatchilik va adliya bo‘yicha instituti) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda deepfake kontentlarga qarshi tezkor axborot almashinuvi va chora ko‘rish protokollari ishlab chiqilsin.

4. Axborot va ma’naviy-psixologik yo‘nalishdagi takliflar:

a. Media savodxonlikni rivojlantirish:

Aholi, ayniqsa yoshlar orasida tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tekshirish va soxta kontentni farqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim tizimiga axborot madaniyati fanlari kiritilsin.

b. Ommaviy xabardorlik kampaniyalari:

Televizion roliklar, ijtimoiy tarmoqlarda videolavhalar va vizual infografikalar orqali deepfake tahdidlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari o‘tkazilsin.

c. Ijtimoiy platformalar bilan memorandumlar:

Facebook, YouTube, TikTok kabi yirik media platformalar bilan memorandumlar tuzib, deepfake kontentni avtomatik bloklovchi algoritmlar faoliyati kengaytirilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chesney, R., & Citron, D. K. (2019). *Deepfakes and the new disinformation war: The coming age of post-truth geopolitics*. Foreign Affairs, 98(1), 147–155.
2. Westerlund, M. (2019). *The emergence of deepfake technology: A review*. Technology Innovation Management Review, 9(11), 39–52. https://doi.org/10.22215/timreview/1282
3. Europol. (2024). *Facing reality? Law enforcement and the challenge of deepfakes*. Retrieved from https://www.europol.europa.eu/publications
4. Agarwal, S., Farid, H., Gu, Y., He, M., & Nagano, K. (2020). *Detecting deep-fake videos from phoneme-viseme mismatches*. Proceedings of the IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 2020, 3507–3516.
5. Mirsky, Y., & Lee, W. (2021). *The creation and detection of deepfakes: A survey*. ACM Computing Surveys (CSUR), 54(1), 1–41. https://doi.org/10.1145/3425780
6. United Nations Interregional Crime and Justice Research Institute (UNICRI). (2023). *AI and robotics for law enforcement: Deepfakes and synthetic media threats*. Retrieved from https://unicri.it/publications
7. Microsoft Security. (2023). *Defending against deepfake threats: Tools and techniques*. Retrieved from https://www.microsoft.com/security/blog
8. Khan, R. Z., & Al-Habib, M. (2022). *Blockchain-based authentication for combating deepfakes*. Journal of Information Security and Applications, 65, 103080. https://doi.org/10.1016/j.jisa.2022.103080
9. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2023). *Raqamli xavfsizlik: Deepfake texnologiyalari va xavflarga qarshi chora-tadbirlar*. Toshkent: Axborot resurs markazi.
10. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2019). *Siri, Siri, in my hand: Who’s the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence*. Business Horizons, 62(1), 15–25. https://doi.org/10.1016/j.bushor.2018.08.004

SPARK STREAMING ASOSIDA REAL VAQTDA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH

H.I. Eshankulov
Texnika fanalari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro davlat universiteti professori, O‘zbekiston Respublikasi
E-mail: vivente_2006@mail.ru
R.B. Murodova
Buxoro davlat universiteti doktoranti, O‘zbekiston Respublikasi
E-mail: x.i.eshonkulov@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada real vaqt ma'lumotlarini qayta ishlash texnologiyalari, xususan, Spark Streamingning roli va afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Real vaqt tizimlarida ma'lumotlarni darhol qayta ishlash, tahlil qilish va qaror qabul qilishning ahamiyati o‘rganilgan. Maqolada Spark Streamingning "batch" (partiya)lar shaklida ma'lumotlarni qayta ishlash usuli, turli ma'lumot manbalari bilan integratsiya imkoniyatlari va real vaqtda ma'lumotlarni olish va qayta ishlash jarayonlari taqdim etiladi. Shuningdek, Spark Streamingning moliya, tibbiyot, transport, energiya va sport sohalaridagi qo‘llanilishi misollar bilan tushuntirilgan.

Kalit so’zlar: real vaqt ma'lumotlarini qayta ishlash, spark streaming, ma'lumot manbalari integratsiyasi, real vaqt tizimlari

Bugungi kunda barcha sohada ma’lumotlar oqimi juda oshib bormoqda. Bunday holda real vaqtda ma’lumotlarning intelektual tahlil qilish masalasi juda dozlarb sanaladi. Real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash– ma'lumotlarning tezkor yoki kechikishsiz qayta ishlanishi jarayoni bo‘lib, ushbu texnologiya orqali tahlil va qaror qabul qilish ham vaqtida amalga oshiriladi. Bu jarayon ko‘pincha sensorlar, onlayn tizimlar yoki joriy voqealar oqimini kuzatish va ulardan ma'lumotlarni olish bilan bog‘liq. Real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlashning bir nechta sohalardagi qo‘llanilishi mavjud: moliya tizimlarida savdolar yoki tranzaksiyalar real vaqt rejimida kuzatiladi va tahlil qilinadi; tibbiyotda esa sensorlar va qurilmalar orqali bemorlar holatini real vaqt rejimida kuzatish va ularga javob berish amalga oshiriladi; transport tizimlarida yo‘llardagi tirbandlik real vaqt rejimida kuzatilib, avtomatik ravishda marshrut optimallashtiriladi; energiya sektorida esa energiya ishlab chiqarish va taqsimlashda real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash energiya sarfini optimallashtirish va taqsimotning barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Shuningdek, sport va o‘yin sanoatida real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash o‘yin natijalarini tahlil qilish, statistika va yutuqlarni kuzatishda qo‘llaniladi. Spark Streamingning real vaqt tizimlaridagi roli juda muhim, chunki bugungi rivojlanib borayotgan axborot olamida uning ahamiyati ortib bormoqda.

Spark Streaming – bu real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasidir, unda kiruvchi ma'lumotlar "batch" (partiya)lar shaklida qayta ishlanadi. Bu esa ma'lumotlar oqimini kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularni tezkor tahlil qilish va qayta ishlashni ta'minlaydi. Ma'lumotlar partiyalari juda tezkorlik bilan qayta ishlanadi. Spark Streaming, shuningdek, turli ma'lumot manbalari bilan oson integratsiya qilish imkoniyatiga ega. U Kafka, Flume, Kinesis, HDFS, JDBC va boshqa tizimlardan real vaqtda ma'lumotlarni olish va qayta ishlashni amalga oshiradi (1-rasm).

1-rasm. Ma’lumotlar oqimini qabul qilish

Ishlov berish imkoniyatlari: Spark Streaming, real vaqtda ma'lumotlar ustida turli statistik tahlil, agregatsiya, o'zgarishlarni aniqlash va boshqa murakkab operatsiyalarni bajarish imkoniyatlarini taqdim



etadi. Masalan, foydalanuvchilarning real vaqtdagi faoliyatlarini kuzatish yoki ma'lumotlarga asoslangan prognozlar qilish mumkin. Yuqori darajadagi API: Spark Streaming yuqori darajadagi API taqdim etadi, bu esa dasturchilarga qulay tarzda real vaqtda ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatini beradi. API orqali operatsiyalarni oson bajarish, masalan, ma'lumotlarni filtrlash, agregatsiya qilish, bog'lanish va boshqalar. Qo'shimcha vositalar: Spark Streaming bilan birga Structured Streaming ham mavjud bo'lib, u ma'lumot oqimlarini (streaming) Sarka ekotizimidagi odatiy ma'lumotlar to'plami (batch) kabi ishlov berishga imkon beradi. Bu, statik va dinamik ma'lumotlarni bir xil tarzda ishlash imkoniyatini beradi. Apache Spark Streaming real vaqtda ishlov berishning yuqori samarali va kengaytiriladigan tizimi sifatida turli sohalarda, masalan, finans, e-commerce, monitoring tizimlari va boshqa ko'plab sohalarda qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Zhang, X., & Li, X. (2019). "A survey of real-time data processing systems and applications". IEEE Access, 7, 17482-17495. doi: 10.1109/ACCESS. 2019. 2898285.
2. Karim, M. R., & Ahmed, F. (2018). "Real-time big data stream processing with Apache Spark: A survey". International Journal of Computer Applications, 180(1), 18-25. doi: 10.5120/ijca2018916982.

BI-РЕШЕНИЯ И МНОГОАГЕНТНЫЕ ПЛАТФОРМЫ ДЛЯ МОДЕЛИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ

Ҳ.И. Эшанкулов
доктора философии (phd) по техническим наукам, профессор, Бухарский государственный университет, Республика Узбекистан
E-mail: vivente_2006@mail.ru
Р.Б. Муродова
докторант, Бухарский государственный университет, Республика Узбекистан
E-mail: x.i.eshonkulov@buxdu.uz

Анотация. Современные образовательные системы требуют разработки эффективных подходов к управлению учебными процессами и ресурсами. В этой связи, моделирование и имитация на основе многоагентных систем становится всё более актуальным для создания решений в сфере поддержки принятия решений и управления образовательными процессами. В данной статье предлагается решение для обработки данных симуляционных моделей, а именно выходных данных и реальных данных, используемых для оптимизации образовательных маршрутов и взаимодействий между учебными модулями.

Ключевое слово: Многоагентные системы, образовательные технологии, оптимизация образовательных процессов, моделирование и имитация, координация агентов.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ МНОГОАГЕНТНОЙ СИСТЕМЫ

Реальные системы требуют способности точно измерять влияние различных стратегий координации многоагентных систем в непредсказуемой среде. Существенным преимуществом многоагентных систем по сравнению с традиционными проектами является то, что система распределена. Децентрализованный, частично автономный и избыточный характер такой системы делает её менее чувствительной к определённым типам ошибок или атак. Однако эта децентрализация также затрудняет анализ таких систем, так как необходимо учитывать множество взаимодействующих агентов с различными целями и стратегиям.

Многоагентные системы состоят из автономных, взаимодействующих, более или менее интеллектуальных сущностей. Метафора агента зарекомендовала себя как эффективный инструмент для создания сложных и адаптивных программных приложений. Это позволяет решать ключевые проблемы управления сложностью уже на концептуальном уровне, например, в контексте образовательных технологий, где необходимо взаимодействие множества различных участников (студентов, преподавателей, учебных материалов и т.д.).

Сотрудничество в многоагентных системах может принимать различные формы в зависимости от системы, в которой оно используется. В рамках образовательных систем, сотрудничество — это механизм, который позволяет агентам (студентам, преподавателям, образовательным ресурсам) работать совместно с целью достижения определённых образовательных целей. Это предполагает наличие инструментов для обмена информацией, совместного использования знаний и локальных методов действий. Сотрудничество может помочь агентам эффективно справляться с неопределённостью в образовательном процессе, обеспечивая гибкость и адаптивность.

Модели связи между агентами могут быть представлены в виде карт или сетей, состоящих из узлов, которые соединены линиями маршрутов. В контексте образовательной системы, каждый узел представляет собой учебный ресурс или элемент учебного процесса, в то время как каналы связи символизируют взаимодействие между различными обучающими модулями или участниками процесса. Каждый агент может взаимодействовать только с теми агентами, с которыми существует канал связи. Это соответствует реальной образовательной практике, где студенты и преподаватели взаимодействуют только через определённые учебные материалы или в рамках конкретных образовательных задач.



Рисунок 1. Архитектура мультиагентной приложения

Многоагентные приложения революционизируют подход к решению сложных задач. Эти приложения используют несколько интеллектуальных агентов, которые сотрудничают для выполнения задач, требующих разнообразной экспертизы. Оркестрация этих агентов позволяет разделить труд, при этом каждый агент специализируется на конкретном аспекте задачи. Например, в типичной настройке Multi-Agent RAG пользовательский запрос разбивается на более

мелкие, управляемые задачи. Каждому агенту, например, поисковику, исследователю или писателю, назначается конкретная роль, соответствующая их сильным сторонам. Это совместное усилие не только повышает эффективность, но и увеличивает точность предоставляемых решений. В результате исследования предложена модель, использующая многоагентные системы для оптимизации образовательных процессов.

Литература

1. Ahmed, T., & Siegel, J. (2024). Pareto Data Framework: Steps Towards Resource-Efficient Decision Making Using Minimum Viable Data (MVD). IEEE Internet of Things Journal. doi:10.1109/JIOT.2024.1234567
2. Saxena, D. K., & Kumar, N. (2021). A Pareto-optimal approach to decision-making in business intelligence systems. Expert Systems with Applications, 168, 114218. doi:10.1016/j.eswa.2020.114218

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA REAL VAQT REJIMIDA VIDEO MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.

Eshankulov Hamza Ilhomovich
Buxoro davlat universiteti
Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari
kafedrasi professori, t.f.f.d (PhD)
Fayziyev Muhriddin Bahriddin o‘g’li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya**:** Mazkur maqolada sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida video ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonining nazariy asoslari, zamonaviy texnologiyalari, asosiy muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda transport, sanoat, xavfsizlik, ekologiya kabi sohalardagi video monitoring amaliyotlari, hisoblash resurslari va tarmoq cheklovlari, ma’lumot sifati, model generalizatsiyasi va maxfiylik masalalar yoritiladi. Muammolar yechimi sifatida model optimallashtirish, transfer learning, explainable AI, data augmentation, bulut va chekka hisoblash integratsiyasi hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda sun’iy intellekt asosidagi video tahlil texnologiyalarini yanada rivojlantirish va hayotimizda keng joriy etish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, real vaqt tahlili, video ma’lumotlar, kompyuter ko‘rish, konvolyutsion neyron tarmoq, edge computing.

Hozirgi raqamli transformatsiya jarayonida sun’iy intellekt (SI) yordamida real vaqt rejimida video ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari jadal sur’atda rivojlanmoqda va ko‘plab sohalarda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Transport infratuzilmasidan tortib, sanoat, xavfsizlik, ekologiya, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda uzluksiz video monitoring va tahlil samaradorlik, xavfsizlik, boshqaruv sifati va ijtimoiy muammolarni erta aniqlash uchun asosiy vositaga aylanmoqda [1; 4]. Shu bilan birga, video oqimlarining hajmi va xilma-xilligi, real vaqt talabining murakkabligi, hisoblash resurslari cheklovi, axborot maxfiyligi va texnik muammolar ushbu yo‘nalishda dolzarb ilmiy-amaliy muammolarni yuzaga chiqaradi. Ushbu tezisda video ma’lumotlarni SI asosida real vaqtli tahlil qilish jarayonining nazariy va amaliy asoslari, muammolari va istiqbolli yechimlari keng qamrovli yoritiladi.

Sun’iy intellekt yordamida video ma’lumotlarni real vaqt tahlil qilishning nazariy asosi konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN), chuqur o‘rganish (deep learning), vaqtli o‘lchovli modellar (RNN, LSTM) va Transformer arxitekturalaridir [1; 3]. CNNlar video kadrlaridan obyektlarni, yuzlarni, harakatni, raqamlarni va boshqa vizual belgilarni aniqlash va tasniflash uchun ishlatiladi. RNN va LSTMlar esa vaqt ketma-ketligidagi dinamikani, ya’ni video oqimdagi harakatlarni yoki hodisalarning rivojlanishini o‘rganadi. Transformer va Vision Transformer (ViT), TimeSformer kabi zamonaviy model arxitekturasi katta hajmdagi va murakkab video oqimlarda ham samarali ishlash imkonini bermoqda [3; 8].

Real vaqtli video tahlilining amaliyotda ishlashi uchun maxsus optimallashtirilgan model arxitekturalari – yengil CNN (MobileNet, YOLOv5/YOLOv8, EfficientDet), kvantizatsiyalash va model siqish, chekka (edge) hisoblash texnologiyalari keng joriy qilinmoqda [8]. Bunday tizimlarda IoT qurilmalari va kam quvvatli edge-device’lar (masalan, NVIDIA Jetson, Google Coral, Raspberry Pi) bilan hisoblash yuklamasi markazlashtirilmagan tarzda taqsimlanadi [4].



1-rasm. Real vaqt rejimida video tahlil texnologiyalarining qo‘llanilish sohalari.

Transport va xavfsizlik: SI asosida video monitoring tirbandlik, avariya va xavfli xatti-harakatlarni aniqlash hamda transport oqimini boshqarishda keng qo‘llaniladi. Kuzatuv kameralaridan kelayotgan video oqimlar YOLO, EfficientDet kabi modellar orqali real vaqtda tahlil qilinadi, favqulodda holatlarda avtomatik signal beriladi [4; 8]. Shuningdek, jamoat joylari va aeroportlarda yuzni tanish va harakat monitoringi xavfsizlikni kuchaytiradi [3; 5].

Sanoat: Korxonalarda video tahlil yordamida mahsulot sifatini nazorat qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish monitoringi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish amalga oshirilmoqda. Real vaqtda nuqsonlarni aniqlash va texnika xavfsizligi buzilganda avtomatik ogohlantirish beriladi [6; 8].

Ekologiya va sog‘liqni saqlash: Dron va statsionar kameralar orqali o‘rmon yong‘inlari, suv toshqinlari va boshqa ekologik xavflar avtomatik aniqlanmoqda [2]. Tibbiyotda esa SI video tahlilidan jarrohlik va telemeditsina jarayonlarida foydalanilmoqda [3].

Asosiy muammolar va ularning yechimlari.

Hisoblash resurslari va kechikish: Video oqimlarning yuqori hajmi real vaqtli tahlil uchun kuchli server yoki edge qurilmasini talab qiladi.

Modelni optimallashtirish (MobileNet, Tiny YOLO), model siqish va edge computing texnologiyalarini joriy etish orqali yuqori hajmli video ma’lumotlarni real vaqtda tahlil qilish mumkin [4; 8].

Ma’lumot sifati va o‘zgaruvchan muhit: Yoritish, ob-havo, kamera burchagi va harakat tezligi natijalarga salbiy ta’sir qiladi. Bunda Data augmentation, synthetic data va transfer learning orqali modelning umumiylashuv qobiliyatini oshirish ijobiy natijalar beradi [1; 3; 6].

Generalizatsiya va noto‘g‘ri aniqlash: Model boshqa joy yoki sharoitda yomon ishlashi yoki xatoliklar ko‘pligi ishonchlilikni pasaytiradi.
Bunda samaralai yechim transfer learning, domain adaptation va muntazam qayta o‘qitish usullaridan foydalanish hisoblanadi [1; 3].

Qarorlarni izohlash va ishonchlilik: Ko‘plab modellar "qora quti" bo‘lib, qarorlar sababini tushuntirish qiyin. Bunda Explainable AI va vizualizatsiya vositalarini tatbiq etish orqali bunday muammoni bartaraf etish mumkin [1].

Ma’lumot maxfiyligi va huquqiy masalalar: Video monitoringda shaxsiy hayot daxlsizligi va axloqiy masalalar yuzaga keladi. Bunday holatda ma’lumotlarni shifrlash, anonimizatsiya va axloqiy tamoyillar asosida ishlash, milliy va xalqaro standartlarga rioya qilish muammoning samarali yechimi bo’la oladi [5].

Annotatsiyalangan datasetlar yetishmasligi: Sifatli va katta hajmdagi label qilingan video ma’lumotlar yetarli emas. Bunda synthetic data, data augmentation va hamkorlikda datasetlar yaratish samarali yechim hisoblanadi [6].

Xulosa

Sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida video ma’lumotlarni tahlil qilish zamonaviy raqamli infratuzilmaning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu soha transport, xavfsizlik, sanoat, ekologiya va boshqa jabhalarda samaradorlik, xavfsizlik va boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shuningdek, mavjud texnik, amaliy va axloqiy muammolarni hal etish uchun yangi model va arxitekturalar, data augmentation va transfer learning, explainable AI va maxfiylikni ta’minlash, bulutli va chekka hisoblashni integratsiyalash, kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida SI asosida video tahlil texnologiyalari yanada optimallashtiriladi va hayotimizning barcha sohalarida ishonchli, samarali hamda inson manfaatiga xizmat qiluvchi tizimga aylanadi [1–8].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Pearson, 2021.
2. UNEP. Artificial Intelligence and Big Data for Environmental Monitoring. 2021.
3. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. MIT Press, 2016.
4. Mohanty S.P., Choppali U., Kougianos E. Everything you wanted to know about smart cities. IEEE Consumer Electronics Magazine, 5(3), 60-70, 2016.
5. Mosenia A., Jha N.K. Security of Internet-of-Things. IEEE Trans. Emerging Topics in Computing, 5(4), 586-602, 2017.
6. Susto G.A., et al. Machine Learning for Predictive Maintenance. IEEE Trans. Industrial Informatics, 11(3), 812-820, 2015.
7. Buczak A.L., Guven E. Data mining and ML for cyber security intrusion detection. IEEE Comm. Surveys & Tutorials, 18(2), 1153-1176, 2016.
8. Ponce H., Gutiérrez S., et al. Artificial Intelligence and Industrial Applications. Springer, 2020.

YASHIL IQTISODIYOTDA SUN’IY INTELLEKT. EKOLOGIK BARQARORLIK VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR SINTEZI

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru (91) 322-10-03
Fayzullayeva E’zoz O‘tkir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi o‘rganiladi. Ayniqsa, ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishda sun’iy intellektning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Misollar orqali turli sohalarda AI texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, sun’iy intellekt, ekologik barqarorlik, raqamli transformatsiya, chiqindilarni boshqarish, energiya samaradorligi.

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtirgan yangi rivojlanish modelidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari, yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. SI orqali ishlab chiqarish jarayonlari avtomallashtiriladi, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkorligini oshirish va ekologik muvozanatni saqlashga erishiladi. Maqolada SI texnologiyalarining yashil iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi. Barqaror energiya manbalarini ishlab chiqish va joriy etish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish,

ekologik transport tizimlarini yaratish va chiqindilarni qayta ishlash. Bu yo‘nalishlarning har birida sun’iy intellekt texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ular yordamida ekologik monitoring tizimlari avtomatlashtiriladi, muammoli hududlar aniqlanadi va ekologik siyosatga oid aniq strategiyalar ishlab chiqiladi. Qishloq xo‘jaligida SI asosida yaratilgan dronlar va sensorlar orqali suv resurslari tejab foydalaniladi, zararkunandalar monitoringi amalga oshiriladi. Energiya sohasida esa aqlli tarmoqlar (smart grids) orqali elektr ta’minoti avtomatlashtiriladi. Shuningdek, chiqindilarni ajratish va qayta ishlash tizimlarida SI algoritmlari qo‘llaniladi.

Germaniyada Siemens kompaniyasi ishlab chiqqan aqlli energiya tizimlari yordamida 20% gacha energiya tejashga erishilgan. AQShda Google AI texnologiyasi yordamida o‘zining server markazlarida energiya sarfini 40% gacha kamaytirgan. Xitoyda esa aqlli transport tizimlari orqali ifloslanish darajasi kamaytirilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan raqamli iqtisodiyot va ekologik barqarorlik sohalarida bir qator milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Sun’iy intellekt bo‘yicha 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyada yashil texnologiyalar muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, texnologik infratuzilma, kadrlar yetishmovchiligi va tadqiqotlar hajmining pastligi bu boradagi asosiy muammolardandir.

Yashil iqtisodiyotda sun’iy intellektdan quyidagicha foydalanish mumkin. Oliy ta’limda sun’iy intellekt va ekologiya bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish. Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun grant tizimini joriy etish.

Xalqaro tajribani o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish.

Yashil startaplar uchun inkubator markazlarini ochish. Global iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va sanoatlashtirish natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar insoniyatni yangi iqtisodiy yondashuvlarga undamoqda. So‘nggi yillarda bu boradagi eng e’tiborga molik yondashuvlardan biri – yashil iqtisodiyot konsepsiyasidir. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt *(SI)* sohasidagi keskin rivojlanish yashil iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yo‘naltirilgan yondashuvdir. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, karbonsizlashtirish, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni ta’minlash. Yashil iqtisodiyot iqlim o‘zgarishini jilovlash, bioxilma-xillikni saqlash va inson salomatligini himoya qilish kabi maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyot har qanday iqtisod nazariyasi sifatida aniq ta’riflanadi. Unga ko‘ra iqtisodiyot o‘zi yashaydigan ekotizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo‘lib, iqtisodiy g‘oyalar ma’lum bir nazariyotchiga qarab har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, atrof-muhit harakati, tinchlik harakati, yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashuvga qarshi harakat tarafdorlari bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo‘lgan juda boshqacha g‘oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan. Ushbu atamaning qo‘llanishi rasmiy ravishda tashkil etilgan va bosh harflar bilan yozilgan Yashil atamani noyob va ajralib turuvchi belgi sifatida da’vo qiladigan Yashil partiyalarning siyosiy farqi bilan yanada aniqlashtiriladi. Shunday qilib, odatda yashil iqtisodiyotga o‘tishni, biomimikriyani va bioxilma-xillikni to‘liqroq hisobga olishni targ‘ib qiluvchi „yashil iqtisodchilar“ning bo‘sh maktabiga murojaat qilish ma’qul.

Raqamli texnologiyalar – bu zamonaviy dunyo rivojlanishining asosiy drayveri bo’lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda ulkan rol o’ynamoqda. Sun’iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish va bulutli hisoblash kabi texnologiyalar bugungi kundagi eng ommaviy texnologiyalardir. Ular jamiyatni yanada samarali, xavfsiz va barqaror rivojlanish sari yetaklamoqda.

Ekologik barqarorlik – bu tabiat resurslaridan foydalanishning shunday yo’li bo’lib, u hozirgi va kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhitning holatini saqlab qoladi. Bu tushuncha iqtisodiy rivojlanish va tabiiy muhit o’rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Ekologik barqarorlik dunyodagi iqlim o’zgarishi, resurslarning tugashi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi dolzarb muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ekologik barqarorlikning asosiy prinsiplari - resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tejash va qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishni rag’batlantirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, qayta foydalanish

va chiqindilarni ekologik xavfsiz yo’l bilan boshqarish. Energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan alternativ energiya manbalaridan foydalanish, biodiversitetni saqlash, hayvonot va o’simliklar turlarini himoya qilish va ularning yashash muhitini saqlash. Barqaror qishloq xo’jaligi- tabiatga zarar yetkazmasdan oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish. Ekologik barqarorlikni ta’minlash – bu tabiatni himoya qilish va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolishga qaratilgan strategiyalar va harakatlarni amalga oshirishni anglatadi. Ekologik barqarorlikka erishish uchun amalga oshirilishi kerak bo’lgan bir qancha choralar mavjud. Bu chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni misol qilib ko’rsatishimiz mumkin, ya’ni, quyosh, shamol va suv energiyasini keng qo’llash, bioyoqilg’i va geotermal energiyadan foydalanish, elektr transport vositalarini ommalashtirish, plastik chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlashni targ’ib qilish, chiqindilarni saralash tizimini joriy etish, elektron chiqindilarni ekologik xavfsiz qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish kabilardir.

Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatini, xususan o‘rganish, fikrlash, muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish kabi funksiyalarni bajarishga qodir bo‘lish holatidir. Bugungi kunda SI quyidagi sohalarda faol qo‘llanilmoqda. Sanoat avtomatlashtirish, tibbiyot diagnostikasi, moliyaviy modellashtirish, transport tizimlari, energetika boshqaruvi. Ammo oxirgi yillarda SI ekologik muammolarni hal qilish vositasi sifatida ham faol tadbiq qilinmoqda.

SI asosidagi texnologiyalar atrof-muhit monitoringini yanada aniq, tezkor va samarali qiladi. Sun’iy yo‘ldoshlar va dronlar yordamida o‘rmonlar, suv havzalari va havoning ifloslanish darajasi real vaqtda kuzatiladi. Ma’lumotlarni tahlil qilish algoritmlari yordamida yirik ekologik datasetlar ustida ishlanadi, ifloslanish manbalari aniqlanadi. Prognozlash tizimlari orqali havoning sifati, iqlim o‘zgarishi yoki tabiiy ofatlar xavfi oldindan baholanadi. Masalan, Google Earth Engine SI texnologiyasi asosida ishlaydi va butun dunyo ekotizimlarini raqamli formatda tahlil qilish imkonini beradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (quyosh, shamol, geotermal) samarali boshqarilishi SI texnologiyalari orqali optimallashtirilmoqda. Quyosh panellari faoliyatini monitoring qilish, shamol turbinalarining optimal yo‘nalishini hisoblash, energiya iste’molining prognozini berish, elektr tarmoqlaridagi yuklamani muvozanatlash, SI asosida ishlovchi aqlli tarmoqlar (smart grid) energiyani isrofsiz taqsimlash imkonini beradi bu esa karbon izini kamaytirishga xizmat qiladi. SI chiqindilarni qayta ishlash va ularni samarali boshqarishda quyidagi yo‘nalishlarda foydali. Obyektlarni tanish algoritmlari yordamida chiqindilarni avtomatik ajratish, raqamli xaritalash orqali chiqindi yig‘ish marshrutlarini optimallashtirish, materiallarning ikkilamchi hayotiy siklini prognozlash. Shuningdek, SI chiqindilarni to‘plash va saralash jarayonini avtomatlashtirish orqali inson mehnatini yengillashtiradi hamda ekologik xavflarni kamaytiradi.

Raqamli texnologiyalar ekologik barqarorlikka ikki xil yo’nalishda ta’sir ko’rsatadi. Ijobiy ta’sir va salbiy ta’sir. Ijobiy ta’sir – atrof-muhitni himoya qilish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Salbiy ta’sir – energiya sarfi va elektron chiqindilarning ko’payishi orqali ekologiyaga zarar yetkazishi mumkin. Rivojlangan texnologiyalar atrof-muhitni himoya qilish bilan birga, jamiyatning barqaror kelajagini ta’minlashga ko’maklashadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida yaratilgan yangi model — **Ekologik Ma’lumotlar Infrastruktura Tarmog‘i (EMIT)** — ekologik jarayonlarni raqamlashtirilgan kuzatuvlar, real vaqtli tahlillar va bashoratlash modellariga asoslangan boshqaruv tizimini taklif qiladi. EMIT yordamida har bir o‘simlik, suv havzasi yoki havoning holati blockchain asosida identifikatsiyalanadi va ekologik barqarorlik darajasining “raqamli pasporti” yaratiladi. Bu pasport ekotizimni boshqarishda ishonchli metrik bo‘lib xizmat qiladi.

Metavers, AR/VR kabi texnologiyalar faqat inson uchun emas , balki **biosfera uchun virtual makon** yaratish imkonini beradi. Misol uchun, tog‘li hududdagi biologik xilma-xillikni real muhitga zarar bermasdan virtual muhitda sinovdan o‘tkazish mumkin. Bu esa ekologik tajribalarni amalga oshirishda yangi davrni boshlab beradi. Kvant hisoblash orqali global ekologik tizimlar o‘rtasidagi mikromiqyosdagi o‘zaro ta’sirlar tezda tahlil qilinadi. An’anaviy kompyuterda bir necha oy talab qiladigan ekologik muvozanat modellarini kvant kompyuterlar bir necha daqiqada yechadi. |Masalan, okean oqimlarining CO_2 yutishdagi real ta’siri yoki o‘rmonlarning iqlimga ta’sirini aniq bashorat qilish mumkin. Hozirgi ko‘p AI modellari o‘zlari ekologik iz qoldiradi. Yangi konsepsiya, **Zero Impact AI**

(ZIAI) — bu atrof-muhitga **nol zarar bilan ishlovchi sun’iy intellekt** tizimlari bo‘lib, energiya tejamkorlik, chiqindi boshqaruvi va ekologik “feedback loop” orqali o‘z faoliyatini avtomatik ravishda muvofiqlashtiradi.

Ekologik-axborot etikasi — raqamli texnologiyalar tomonidan yig‘ilayotgan ekologik ma’lumotlarning qanday maqsadda, kim tomonidan va qanday ishlatilishini aniqlovchi me’yorlar to‘plamidir. Masalan, AI o‘rmonlarning holatini noto‘g‘ri tahlil qilsa, noto‘g‘ri qaror qabul qilinishi mumkin — bu esa ekologik xavf tug‘diradi. Shuning uchun raqamli tizimlar ekologik mas’uliyatni his qiladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak.

Wearable texnologiyalar yordamida nafaqat odamlar, balki hayvonlar yoki hatto daraxtlar ham **biofeedback qurilmalari** bilan jihozlanadi. Bu qurilmalar orqali ularning stress holati, sog‘lomligi va yashash muhitiga munosabati real vaqt rejimida kuzatiladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar esa **yashil iqtisodiy qarorlar qabul qilishda** asosiy rol o‘ynaydi.

Ekologik barqarorlik va raqamli innovatsiyalar sintezi — bu oddiy texnologik integratsiya emas, balki **yangi sivilizatsion paradigma.** Bu paradigma insoniyatga ekologiyani saqlab qolish, uni chuqurroq anglash va yanada ongli tarzda boshqarish imkonini beradi. Bunda texnologiyalar vosita emas, balki **hamkor** sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, sun’iy intellektning yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvi ekologik muammolarga innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Bu sintez orqali insoniyat nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ekologik xavfsizlikni ham ta’minlashi mumkin. Albatta, bu yo‘lda raqamli bilimlarni ommalashtirish, ekologik mas’uliyatni oshirish va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt va yashil iqtisodiyotning integratsiyasi barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, davlat, xususiy sektor va ilmiy doiralar hamkorligida muhim yutuqlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdihakimov, Mirjalol. "IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. "MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O‘lmas. "SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.
4. Baratova, Nafisa. "BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.
5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. "O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.
6. Berdimuhammadov, Iskandar. "MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.
7. Berdishukurova, Munisa. "DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.
8. Boltayev, Farhod. "INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO’LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.
9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. "MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.
10. Boymurodova, Ozoda. "AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.

11. Ernazarova, Lola. "WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.
12. Eshonqulov, Muhammad. "WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.
13. Ibodov, Azizbek. "INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.
14. Jurayeva, Gulchehra. "DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.
15. Karimova, Iroda. "VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO'LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.
16. Madadjon, O‘ktamov. "Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-331.
17. Mahmudova, Shohsanam. "ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.
18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish." *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

MICROSOFT POWER BI: ZAMONAVIY BIZNES INTELLEKT VOSITASI SIFATIDA TAHLIL

TDIU “Sun’iy intellekt” kafedrasi assistenti
Gulmurodova Dinora Akram qizi
dinoragulmurodova1@gmail.com
O‘zMU Jurnalistika fakulteti magistranti
Gulmurodova Shohsanam Akram qizi
gulmurodovashohsanam@gmail.com
TDIU “Sun’iy intellekt” kafedrasi assistenti
Omonov Sanjarbek G‘anisher o‘g‘li
s.omonov@tsue.uz

Annotatsiya: O‘zgaruvchan biznes sharoitlarida biznes intellekti (Business Intelligence, BI) vositalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. BI vositalari ko‘p manbali ma’lumotlarga asoslangan holda tezkor va ishonchli qaror qabul qilish jarayonini standartlashtirish imkonini beradi. Bu esa tashkilotning bozorda raqobatbardosh bo‘lib qolishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tashqi biznes muhiti va kasbiy ehtiyojlardagi o‘zgarishlar natijasida yangi BI yechimi — Self-service BI (o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi BI) yondashuvi paydo bo‘ldi va so‘nggi yillarda bu yondashuvdan foydalanayotgan kompaniyalar soni tez sur’atlarda oshdi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan Self-service BI yechimlaridan biri bo‘lgan Power BI asosida BI tizimini yaratishdir. Tadqiqot ikki qismdan iborat. Birinchi qismda — nazariy asos sifatida BI va Self-service BI yondashuvlari keng yoritilib, ushbu tushunchalar bo‘yicha umumiy tasavvur shakllantiriladi. Bu nazariy qism keyinchalik tadqiqotning amaliy bosqichi uchun asos yaratadi.

Tadqiqot BI va Self-service BI o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishdan boshlanadi. Shundan so‘ng Microsoft BI yechimi tanishtirilib, Power BI’ga oid asosiy ma’lumotlar beriladi. Tadqiqotning ikkinchi qismida esa Power BI yordamida real biznes ssenariysi asosida optimal BI yechimi qanday qurilishi amalda ko‘rsatib beriladi. Sinov jarayonida BI tizimini yaratish uchun zarur bosqichlar, shuningdek, Power BI vositalar to‘plamining asosiy imkoniyatlari yoritiladi.

The comparative SWOT analysis of rule-based, statistical, and machine learning methods for automatic text correction is presented in this section. The outcomes are predicated on assessments of performance metrics and observations from the SWOT analysis framework.

1. Performance Comparison

Method	Accuracy (%)	Precision (%)	Recall (%)	F1-Score (%)	Avg. Runtime (milliseconds)
Rule-Based Methods	75.2	72.8	70.5	71.6	10
Statistical Methods	81.4	78.2	75.9	77.0	50
Machine Learning	92.6	91.0	89.5	90.2	200

Rule-Based Methods: Demonstrated satisfactory performance for structured texts with predictable errors; however, they encountered difficulties with informal text and contextual nuances.

Statistical Methods: Exhibited enhanced performance in comparison to rule-based methods, particularly in the context handling using n-grams. However, it exhibited limitations with uncommon or out-of-vocabulary words.

Machine Learning Methods: Demonstrated exceptional contextual and semantic comprehension, particularly in the context of informal and complex text, achieving the highest F1-scores and accuracy. Nevertheless, the computational and operational demands were substantially increased.

2. Results of the SWOT Analysis

Rule-Based Methods

Strengths: High interpretability, minimal computational cost, and effectiveness for specific error patterns.

Weaknesses: Inadequate contextual comprehension and inadequate adaptability.

Opportunities: Beneficial in hybrid models for error detection or preprocessing.

Threats: In intricate contexts, statistical and machine learning methods outperform.

Statistical Method

Strengths: Context-sensitive in high-resource languages, robust probabilistic modelling.

Weaknesses: Difficulties with uncommon words and dependence on large datasets.

Opportunities: May be improved through the incorporation of ML techniques and data augmentation.

Threats: The erosion of relevance as a result of the development of neural networks.

Methods of Machine Learning

Strengths: Scalable for multilingual duties, strong contextual and semantic understanding, and high accuracy.

Weaknesses: Requires massive annotated datasets and is resource-intensive.

Opportunities: Development of lightweight real-time models, fine-tuning for low-resource languages.

Threats: Ethical concerns regarding accessibility and biases in low-resource contexts.

3. Perspectives from Low-Resource and Multilingual Environments

High-Resource Languages (e.g., English, Spanish): Statistical models demonstrated moderate success, while machine learning methods outperformed others significantly. Although rule-based methods were effective in addressing fundamental errors, they were limited in their adaptability.

Low-Resource Languages (e.g., Uzbek): Statistical methods demonstrated limited efficacy as a result of data scarcity, while machine learning methods encountered difficulties in adapting to restricted corpora. The most reliable methods were rule-based, with language-specific principles.

4. Observations of the Hybrid Approach

The combination of rule-based preprocessing and machine learning in hybrid models was shown to substantially reduce computational costs while maintaining high accuracy in preliminary experiments. Context management was further enhanced by the integration of statistical models as a feature extractor.

Summary of Results - Machine learning methods are computationally intensive, but they are the most effective for complex, context-aware corrections.

- Rule-based methodologies are appropriate for preprocessing and predictable errors in hybrid systems.

- Statistical methods are a middle ground that performs well in resource-rich contexts but struggles with infrequent words and low-resource languages.

- Hybrid systems demonstrate potential for achieving a balance between efficiency and accuracy, particularly in real-time and low-resource applications.

These findings offer practical insights for the development of text that is both adaptable and durable.

correction systems that are customised to accommodate a wide range of computational and linguistic contexts.

Conclusion

This study provides a thorough SWOT analysis of rule-based, statistical, and machine learning methods for automatic text correction, providing a comprehensive understanding of their strengths and weaknesses.

respective threats, opportunities, weaknesses, and assets. The results indicate that, despite the fact that machine learning models exhibit superior accuracy and contextual comprehension, their accessibility is restricted by their high computational demands and dependence on annotated datasets, particularly for low-resource languages. Statistical methods are capable of striking a balance between simplicity and performance; however, they are susceptible to errors when dealing with uncommon or obsolete data terms from the vocabulary. Rule-based systems, despite their scalability and adaptability limitations, continue to be valuable for predicting errors and as components in hybrid systems.

A significant point to consider is the potential of hybrid models, which integrate the efficiency of rule-based methodologies that combine the probabilistic strengths of statistical methods with the contextual capabilities of machine learning. These models are capable of overcoming their present constraints, rendering them appropriate for a wide range of computational and linguistic contexts, such as real-time and low-resource applications.

In addition, the study underscores the necessity of addressing ethical concerns, including bias in machine learning models and the necessity of cross-lingual transfer learning, fill the voids in low-resource environments. Future research can improve the applicability of text correction systems in under-represented languages and domains by promoting inclusivity and scalability.

In summary, automated text correction does not offer a universal solution. Alternatively, the utilisation of the complementary assets of a variety of methodologies provides the most viable course of action. This research establishes a foundation for the creation of text correction systems that are inclusive, efficient, and robust, and that cater to the diverse requirements of global users.

References

1. Damerau, F. J. (1964). A method for the computer-assisted identification and correction of typographical errors. Communications of the ACM, 7(3), 171-176.

2. Kernighan, M. D., Church, K. W., and Gale, W. A. (1990). A program for orthography correction that is based on a noisy channel model. The proceedings of the 13th Conference on Computational Linguistics (COLING).
3. Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., and Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language comprehension. Proceedings of the 2019 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics (NAACL), 4171-4186.
4. Radford, A., Narasimhan, K., Salimans, T., and Sutskever, I. (2018). Enhancing language comprehension through generative pre-training. Technical Report for OpenAI.
5. Artetxe, M., Ruder, S., and Yogatama, D. (2019). Regarding the cross-lingual transferability of monolingual representations. Proceedings of the 57th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics (ACL), 3633-3643.
6. Uzbek Academy of Sciences. (2023). Obstacles associated with the development of natural language processing (NLP) instruments for the Uzbek language. Tashkent Journal of Computational Linguistics, 15(4), 45-62.
7. Jurafsky, D., and Martin, J. H. (2023). 3rd edition of Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. Pearson.

LEVENSHTEYN MASOFASI ALGORITMI: O‘ZBEK TILIDA MATN TUZATISHDA QO‘LLANILISHI VA SAMARADORLIGI

Isoqova Adiba Shamshidin qizi
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
a.isokova@tsue.uz

Annotatsiya So‘nggi yillarda matnlarni tahlil qilish va ularga ishlov berish muhim tadqiqot sohasiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali yozma muloqotlarning ko‘payishi grammatik va imloviy xatolarni tez-tez uchratadi. Avtomatik tuzatish tizimlari bu xatolarni kamaytirib, yozma kommunikatsiya sifatini oshiradi. O‘zbek tilida rasmiy hujjatlar, ta’lim va biznes sohasida to‘g‘ri yozuv muhim ahamiyatga ega. Tilning turli lahjalari hamda kirill va lotin yozuvlari o‘rtasidagi muvofiqlik muammolari avtomatik tuzatish tizimlariga ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Levenshteyn masofasi algoritmi (LDA) matnni avtomatik tuzatishda keng qo‘llaniladigan usul bo‘lib, ikki so‘z o‘rtasidagi minimal tahrirlar sonini hisoblash orqali xatolarni aniqlaydi va tuzatadi. Ushbu maqola LDA asoslarini tahlil qiladi, uning matn tuzatishdagi afzalliklari va kamchiliklarini baholaydi, shuningdek, hisoblash samaradorligi va optimizatsiya imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi.

Kalit so’zlar: Levenshteyn masofasi, minimal tahrirlar soni, o‘zbek tili, LDA, tabiiy tillar, NLP.

Kirish: So‘nggi yillarda matnlarni tahlil qilish va ularga ishlov berish keng ko‘lamli tadqiqot sohasiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali yozma muloqotlarning ko‘payishi grammatik va imloviy xatolarni tez-tez uchratadi. Avtomatik tuzatish tizimlari bu xatolarni kamaytirib, yozma kommunikatsiya sifatini oshiradi. Davlat idoralari, ta’lim muassasalari va rasmiy tashkilotlar hujjatlarda o‘zbek tilidan foydalanadi. Avtomatik tuzatish tizimlari hujjatlardagi xatolarni aniqlab, tuzatish orqali ularning aniqligini ta’minlaydi. O‘quvchilar va talabalar o‘zbek tilida yozilgan ishlarda ko‘pincha imloviy va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yadi. Avtomatik tuzatish vositalari ularga xatolarini tahlil qilish va tuzatish imkonini berib, ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Avtomatik tuzatish texnologiyalari tarjima tizimlari, nutqni matnga aylantirish, qidiruv tizimlari va tahliliy dasturlarda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida bunday tizimlarni rivojlantirish uchun matn tuzatish asosiy qadamdir. O‘zbek tili turli lahjalarga ega bo‘lib, kirill va lotin yozuvlari o‘rtasida muvofiqlik muammolari mavjud. Avtomatik tuzatish bu farqlarni bartaraf etish va yozma kommunikatsiyani standartlashtirishga yordam beradi. Elektron tijorat, marketing va boshqa biznes sohalarda to‘g‘ri yozuv va grammatika mijozlar bilan muloqotda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilidagi

avtomatik tuzatish dasturlari tadbirkorlarga professional va ishonchli imidj yaratishda yordam beradi. Umuman, avtomatik tuzatish tizimlari o‘zbek tilining raqamli muhitdagi mavqeini mustahkamlash, sifatli yozuvni ta’minlash va xalqaro maydonda tilning nufuzini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Tabiiy tillar uchun avtomatik tuzatish tizimlari yozma muloqotni soddalashtirishda foydalanuvchilarga katta yordam beradi. Bunday texnologiyalarga ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, aniq va samarali algoritmlardan foydalanish zarurati sezilmoqda. Matnni avtomatik tuzatishda keng qo‘llaniladigan algoritmlardan biri Levenshteyn masofasi algoritmi (LDA) bo‘lib, u ikki so‘z o‘rtasidagi minimal tahrirlar sonini hisoblab, noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlaydi va tuzatadi. Ushbu maqolada LDA asoslari, uning matn tuzatishdagi afzalliklari va kamchiliklari batafsil tahlil qilinadi.

LDA matn tahlili va tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) muhim algoritm hisoblanadi. Bu algoritm bir so‘zni ikkinchisiga aylantirish uchun zarur bo‘lgan minimal amallar sonini hisoblaydi. Bunda quyidagi amallar qo‘llaniladi:

1-amal:	**Joylashtirish (INSERT)**	**word1** ning istalgan indeksidan oldin yoki keyin istalgan belgini kiritish.
2-amal:	**O’chirish (DELETE)**	**word1** belgisini olib tashlash.
3-amal:	**Almashtirish (REPLACE)**	**word1** ning istalgan indeksidagi belgini boshqa belgi bilan almashtirish.

Levenshteyn masofasi formulasi:

$$lev_{a,b}(i,j) = \begin{cases} \max(i,j) & if\ \min(i,j) = 0 \\ \min\{ \begin{matrix} lev_{a,b}(i-1,j)+1 \\ lev_{a,b}(i,j-1)+1 \\ lev_{a,b}(i-1,j-1)+1 \end{matrix} & if(a_i \neq b_i) \\ lev_{a,b}(i-1,j-1) & if(a_i = b_i) \end{cases}$$

bu yerda:
a – birinchi so’z,
b – ikkinchi so’z.
i – birinchi so’zdagi harfning (belgining) tartib raqami.
j – ikkinchi so’zdagi harfning tartib raqami.

Yuqoridagi formulaga asosan Levenshteyn masofasi algoritmi quyidagi bosqichlar ketma-ketligida amalga oshiriladi:{ Misol uchun, "boxadir" va "bakhodir" so‘zlari o‘rtasidagi Levenshteyn masofasini hisoblab chiqamiz:}

Levenshteyn masofasi algoritmi:

1-qadam: Matritsa(jadval) tayyorlash: Ikki so‘z (word1=”boxadir” va word2=”bakhodir”) belgilari sonidan(a=length(word1) va b=length(word2)) bitta ortiqcha bo’lgan matritsa yaratamiz([a+1]x[b+1] o’lchovli). Bunda matritsaning har bir qatori va ustuni o‘ziga xos qiymatlar bilan to‘ldiriladi.

2-qadam: Matritsaning birinchi qator elementlarini kiritib chiqish: Matritsaning birinchi qatorida 0 dan boshlab ketma-ket 1, 2, 3, ... bilan to‘ldiriladi (chunki bir so‘zning boshiga boshqa so‘z qo‘shilgan holatlarni ifodalaydi).

3-qadam: Matritsaning birinchi ustun elementlarini kiritib chiqish : Matritsaning birinchi ustuni ham 0, 1, 2, 3, ... bilan to‘ldiriladi (chunki birinchi so‘zdan o‘chirish holatlarini ko‘rsatadi).

4-qadam: Matritsaning qolgan elementlarini kiritib chiqish :Bunda dastlab so’zlarning belgilari solishtiriladi agar ular bir xil bo’lsa, shu elementning yuqori chap tarafdagi matrissa elementi nusxalanib qo’yiladi, aks holda ushbu elementning 3 ta qo’shni elementlari (chap, yuqori, yuqori chap)dan kichigiga 1 ni qo’shib qo’yamiz.

5-qadam: Natijani olish: Matritsaning pastki o‘ng burchagidagi qiymat natija sifatida olinadi. Ya’ni bu qiymat birinchi so’zni ikkinchi so’zga aylantirish uchun kerak bo’ladigan minimal amallar soni yig’indisi.

Matritsaning pastki o‘ng burchagidagi qiymat — 4. Demak, natija – 4, bu ikki so‘z o‘rtasida minimal tahrirlar quyidagicha amalga oshirilgan.

Ketma-ket o‘zgartirishlar:

"BOXADIR" → "BAXADIR" ("O" ni "A" ga almashtirish(replace), 1 tahrir)

"BAXADIR" → "BAHADIR" (."X" ni "K" ga almashtirish(replace), 1 tahrir)

"BAHADIR" → "BAKHADIR" (“H” ni qo‘shish(insert), 1 tahrir)

"BAKHADIR" → "BAKHADIR" ("A" ni "O" ga almashtirish(replace), 1 tahrir)

Endi yuqoridagi algoritmning dasturlashtirish jarayonini c++ tili dasturlash tilida ifodalaymiz.

Dinamik dasturlash jarayoni: Levenshteyn masofasini hisoblash uchun eng keng tarqalgan usul **dinamik dasturlash** yondashuvi hisoblanadi.

Algoritmning kodi (C++):

```
#include <iostream>
#include<string>
using namespace std;
int min(int a, int b,int c){
  int min;
  min=a<b?a:b;
  min=min<c?min:c;
  return min;}
int minDistance(string word1, string word2){
  int m=word1.length();
  int n=word2.length();
```

	“”	B	A	K	H	O	D	I	R
“”	0	1	2	3	4	5	6	7	8
B	1	0	1	2	3	4	5	6	7
O	2	1	1	2	3	4	5	6	7
X	3	2	2	2	3	4	5	6	7
A	4	3	2	3	3	4	5	6	7
D	5	4	3	3	4	5	4	5	6
I	6	5	4	4	4	5	5	4	5
R	7	6	5	5	5	5	6	5	4



```
  //DP[i][j] := word1 ni word2 ga o'zgartirish uchun min amallar soni
  int costDP[m+1][n+1];
  //DP matrissani inistalizatsiya qilish
  for(int i=0; i<=m; ++i) costDP[i][0]=i;
  for(int j=0; j<=n; ++j) costDP[0][j]=j;
  for(int i=1; i<=m; ++i)
    for(int j=1; j<=n; ++j)
      //bir xil belgilar bo'lsa
      if(word1[i-1] == word2[j-1])
      //yuqori chapdagi nusxalanadi
      costDP[i][j] = costDP[i-1][j-1];
      else{
        //3 ta qo'shnisi orasidan min topadi
        int topLeft = costDP[i-1][j-1];
        int top = costDP[i-1][j];
```

```
        int left = costDP[i][j-1];
        costDP[i][j] = min(topLeft,top,left)+1;}
    return costDP[m][n];}
int main()
{ string a,b;
  cin>>a;
  cin>>b;
    cout << minDistance(a,b);
    return 0;}
```

Levenshteyn masofasi algoritmi (LDA) yordamida ikki satr o‘rtasidagi minimal tahrirlar soni dinamik dasturlash asosida muvaffaqiyatli hisoblanadi. Masalan, “boxadir” va “bakhodir” so‘zlari o‘rtasidagi masofa 4 tahrir sifatida aniqlandi, bu jarayonda joylashtirish, o‘chirish va almashtirish amallari qo‘llanildi.

Masalan: 40 ta so‘zdan iborat matn (har bir so‘z o‘rtacha 5 belgi) va 40,000 so‘zdan iborat lug‘at yordamida hisoblash amallari soni quyidagicha aniqlandi:

Solishtirishlar soni: Har bir so‘z lug‘atdagi 40,000 so‘z bilan solishtirilganda, jami 40 × 40,000 = 1,600,000 solishtirish talab qilinadi.

Har bir solishtirish uchun operatsiyalar: Dinamik dasturlash yordamida har bir so‘z uchun O(5 × 5) = 25 operatsiya zarur.

Umumiy hisoblash amallari: 1,600,000 × 25 = 40,000,000 operatsiya.

Ushbu natijalar LDAning matn tuzatishda samarali ekanligini ko‘rsatadi, chunki algoritm noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlash va ularga mos to‘g‘ri so‘zlarni taklif qilishda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Biroq, katta lug‘atlar bilan ishlashda hisoblash xarajatlari sezilarli darajada oshadi.

Xulosa

Levenshteyn masofasi algoritmi ikki satr o‘rtasidagi minimal tahrirlar sonini hisoblash orqali matnni avtomatik tuzatishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Algoritm matn tahlili, qidiruv tizimlari va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilida rasmiy hujjatlar, ta’lim va biznes kommunikatsiyasida to‘g‘ri yozuvni ta’minlash uchun LDA muhim ahamiyatga ega.

Hisoblash amallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, katta lug‘atlar bilan ishlashda algoritmning resurs talabi yuqori bo‘ladi. Shu sababli, optimizatsiya usullari, masalan, lug‘atni indeksatsiya qilish (trie yordamida), threshold asosidagi filtrlash, parallellik (multi-threading yoki GPU) va yaqinlik metrikalarining kombinatsiyasi (Jaccard yoki Cosine similarity) algoritm samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Umuman olganda, LDA o‘zbek tilining raqamli muhitda rivojlanishiga hissa qo‘shadi va optimizatsiya yordamida uning qo‘llanilish doirasini yanada kengaytirish mumkin. Kelgusida algoritmni lahja va kontekstga moslashtirish orqali o‘zbek tilidagi matn tuzatish tizimlarini yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Levenshtein, V. I. (1966). Binary codes capable of correcting deletions, insertions, and reversals. *Soviet Physics Doklady*, 10(8), 707–710.
2. Navarro, G. (2001). A guided tour to approximate string matching. *ACM Computing Surveys (CSUR)*, 33(1), 31–88.
3. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Prentice Hall.
4. Kukich, K. (1992). Techniques for automatically correcting words in text. *ACM Computing Surveys (CSUR)*, 24(4), 377–439.

COMPARATIVE ANALYSIS OF CLASSICAL AND MODERN METHODS FOR DETERMINING AUTHORSHIP

Isoqova Adiba Shamshidin qizi
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
a.isokova@tsue.uz
Kunuzoqov Hayotjon Shodiboy o'g'li
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
hayotjonline@gmail.com

Abstract: This article investigates authorship attribution systems, following their development from traditional static methods to advanced artificial intelligence models. It looks at the importance of authorship attribution, the role of modern technology, and the capabilities of natural language processing (NLP) and deep learning models. The paper also covers the limitations of traditional techniques and the benefits of current methodologies, with a focus on the influence of Transformer models like BERT and GPT. Furthermore, real-world applications, empirical evidence, and model comparisons shed light on their usefulness in a variety of disciplines, including forensic linguistics, academic plagiarism detection, social media verification, and legal procedures.

Keywords: authorship attribution, transformer models, comparative analysis, machine learning, plagiarism detection, BERT and GPT.

INTRODUCTION

The Significance of Authorship Attribution Authorship attribution is an important part of cultural legacy and scientific research. This procedure identifies the original author of a document and is critical in fields such as literary studies, linguistics, forensic science, and modern computing technology. In addition to literary analysis, authorship attribution aids in the detection of plagiarism, the investigation of legal infractions, and the analysis of anonymous social media content. It is especially useful for protecting internet security by identifying the perpetrators of political propaganda, cyber threats, and fraudulent digital content.

In practice, authorship attribution is critical for resolving historical conflicts over literary works, analysing anonymous threats in criminal investigations, and determining the legitimacy of scientific articles. With the rapid proliferation of digital information, authorship integrity has become increasingly vital[1].

The Evolution of Modern Technologies and Their Effect on Authorship Analysis

The advent of artificial intelligence and computational linguistics has transformed authorship attribution. Modern AI-driven technologies, unlike earlier statistical approaches, allow for the quick and accurate examination of enormous amounts of textual data[4]. Advances in natural language processing and deep learning have enabled the automatic recognition of linguistic traits, stylistic markers, and syntactic patterns in texts, resulting in very accurate authorship attribution models. These enhancements have considerably improved the efficiency and precision of analysing anonymous writings.

Machine learning algorithms and deep learning approaches facilitate in-depth linguistic analysis by identifying sentence structures, lexical usage patterns, and stylistic nuances, resulting in a more robust framework for authorship authentication.

The Use of Natural Language Processing and Artificial Intelligence for Authorship Attribution

NLP and artificial intelligence have become essential tools for authorship attribution. NLP enables automated text analysis, linguistic feature extraction, and statistical language processing. These techniques aid in identifying sentence structures, detecting common word pairings, and analysing stylistic characteristics specific to individual authors[2].

Deep learning models, such as Transformer architectures (BERT, GPT), have set new standards for textual analysis, providing unmatched accuracy in detecting tiny linguistic differences. NLP applications in authorship attribution include forensic investigations, legal cases, and cybercrime

detection. These models use large training datasets and self-learning techniques to distinguish between authors with surprising precision.

Traditional and Modern Methods of Authorship Determination

1. Traditional methods (Static Approaches)

Word Frequency Analysis: Identifies an author's style based on frequently used terms and phrases.

Grammatical analysis examines word or character sequences in a text to find recurring linguistic patterns.

Examines linguistic and stylistic features such as sentence length, punctuation, and grammar to identify authorship.

2. Artificial intelligence-based approaches.

Early NLP applications used CNN and RNN models, which can analyse sequential linguistic data but had poor contextual comprehension.

BERT and GPT are transformer models that use deep contextual analysis, exceeding previous AI-based methods in accuracy and robustness.

Real-World Applications for Authorship Attribution

NLP-based forensic analysis has been employed in judicial situations, such as identifying Ted Kaczynski (the Unabomber) via linguistic profiling.

AI-powered programs like Turnitin and iThenticate use BERT and GPT models to detect plagiarism in academic publications[5].

Social Media Verification: NLP-powered authorship attribution is used by Facebook and Twitter to identify false and bot-generated content.

AI-assisted authorship analysis can uncover financial and business fraud, including misleading disclosures and phoney reviews on e-commerce sites.

AI models have verified the authorship of contested literary works, including passages of Henry VIII attributed to John Fletcher rather than Shakespeare.

Case studies: AI Models Resolves Authorship Disputes.

BERT-based analysis identified ghostwriting in high-impact medical research papers.

GPT-based language profiling aids law enforcement in identifying anonymous cyber threats.

CNN models were used in legal proceedings to authenticate contested documents.

RNN-based analysis helped resolve the Shakespeare authorship controversy by analysing stylistic features[3].

Comparison between Traditional and Modern Models

Model	Accuracy (%)	Processing Speed (ms/sample)	Computational Cost (Relative)
Word Frequency	70	5	1
n-Gram	75	10	1.5
Linguistic Features	80	15	2
CNN	85	50	4
RNN	87	60	5
BERT	96	120	8
GPT	95	150	9



Comparison of Authorship Attribution Models

Ethical and practical considerations.

Privacy and Data Protection: The use of AI for authorship attribution creates ethical difficulties, especially when personal texts are analysed without consent.

AI-generated misclassifications may cause reputational harm, particularly in forensic and legal contexts.

Existing authorship attribution techniques may promote linguistic and cultural biases in training datasets.

CONCLUSION

The advancement of authorship attribution technologies, from early statistical methods to deep learning approaches, has greatly improved the accuracy and reliability of text analysis. Traditional methods, while valuable, are limited due to their basic approaches. In contrast, new AI-powered solutions offer improved contextual knowledge, scalability, and precision. Authorship attribution is currently used extensively in judicial proceedings, academic integrity verification, and digital forensics. As AI models progress, they are projected to become more precise and efficient. Future research should focus on reducing ethical hazards and increasing computing efficiency, as well as broadening the use of these technologies across varied linguistic and cultural contexts.

REFERENCES

1. Stamatatos, E. "Authorship Attribution Using Textual Similarities." Journal of Computational Linguistics, 2019.
2. Potha, N. and Stamatatos, E. (2019), Improving author verification based on topic modeling. Journal of the Association for Information Science and Technology, 70: 1074-1088.
3. Косимов, А.А. О распознавании автора текстового фрагмента на основе частотности слогов / А.А. Косимов // Политехнический вестник, Серия: интеллект, инновации, инвестиции. – 2021. – 4(56). – С. 59-64.
4. Юсупов Ж.М. Общая характеристика плагиата как правонарушения и
5. его виды // Журнал Юриспруденция. 2021. -№2.- С. 24 – 31. (12.00.00; №15).
6. Юсупов Ж.М. Plagiarism in scientific research and publications //American journal of Research in Humanities and Social Sciences , USA, April 2023. С. 106 – 113. (ISSN (E): 2832-8019, SJIF 2023: 5.62, JIF: 7.855).

O‘ZBEK TILIDA MATN KORPUSLARINI SHAKLLANTIRISH VA TRANSFORMER MODELLARINI MOSLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Isoqova Adiba Shamshidin qizi
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
a.isokova@tsue.uz
Umarova Zulfiyaxon Xusniddin qizi
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti “Axborot tizimlari va texnologiyalari” ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi
zulfiyaxonumarova327@gmail.com

Annotatsiya: O‘zbek tili, turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, agglutinativ morfologiyasi va murakkab lingvistik tuzilishi tufayli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. So‘nggi yillarda chuqur o‘qitish, xususan Transformer modellaridagi yutuqlar NLP sohasini inqilobiy o‘zgartirdi, ammo o‘zbek tili kabi kam resursli tillarga ularni qo‘llash hali cheklangan. Ushbu maqola o‘zbek tili uchun sifatli matn korpuslarini shakllantirish va Transformer modellarini mashinaviy tarjima, sentiment tahlili va matn generatsiyasi kabi vazifalarga moslashtirish strategiyalarini o‘rganadi. Biz Vikipediya, yangiliklar arxivlari va ijtimoiy tarmoqlardan turli xil matn manbalarini yig‘ishni muhokama qilamiz, shu bilan birga ma’lumotlar yetishmasligi, shevalar farqlari va morfologik murakkablik kabi muammolarni ko‘rib chiqamiz. Transfer o‘qitish va mBERT kabi ko‘p tilli modellar yordamida o‘zbek tili uchun Transformer modellarini nozik sozlash (fine-tuning) bo‘yicha ramka taklif qilamiz. Natijalarimiz ushbu yondashuvlarning o‘zbek tili uchun NLP imkoniyatlarini oshirish potentsialini ko‘rsatadi va boshqa kam resursli tillar bo‘yicha tadqiqotchilar uchun yo‘l xaritasini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Tabiiy tilni qayta ishlash, Transformer modellar, O‘zbek tili, Kam resursli tillar, Matn korpusi

KIRISH

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasi Transformer modellar (Vaswani va boshq., 2017) paydo bo‘lishi bilan sezilarli yutuqlarga erishdi, bu esa mashinaviy tarjima, sentiment tahlili va matn generatsiyasi kabi vazifalarda inqilobiy natijalarga olib keldi. Biroq, bu yutuqlar asosan ingliz, xitoy yoki ispan tillari kabi resurslarga boy tillarga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek tili kabi kam resursli tillar e’tibordan chetda qolmoqda. 33 milliondan ortiq odam, asosan O‘zbekistonda so‘zlashadigan o‘zbek tili, agglutinativ morfologiyaga va Ega-To‘ldiruvchi-Kesim (SOV) sintaktik tuzilishga ega bo‘lib, NLP tizimlari uchun o‘ziga xos muammolar yaratadi. Katta hajmdagi sifatli matn korpuslari va o‘zbek tiliga moslashtirilgan oldindan o‘qitilgan modellar yetishmasligi bu muammolarni yanada kuchaytiradi.

Ushbu maqola o‘zbek tili uchun NLPni rivojlantirishning ikkita muhim jihatini ko‘rib chiqadi: (1) model o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash uchun keng qamrovli matn korpusini yaratish va (2) Transformer modellarini o‘zbek tilining lingvistik xususiyatlariga moslashtirish. Biz o‘zbek Vikipediyasi va yangiliklar saytlaridan veb-skraping orqali korpus yaratishning amaliy usullarini o‘rganamiz va ko‘p tilli Transformer modellarini nozik sozlash strategiyalarini muhokama qilamiz. Ishimiz o‘zbek tili uchun mustahkam NLP vositalarini ishlab chiqish uchun asos yaratishga qaratilgan bo‘lib, boshqa kam resursli turkiy tillar uchun ham foydali bo‘ladi.

Transformer modellar Vaswani va boshq. (2017) tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, diqqat mexanizmlariga asoslanib, matndagi uzoq masofali bog‘liqliklarni aniqlashda an’anaviy rekurrent neyron tarmoqlardan (RNN) ustun keladi. BERT (Devlin va boshq., 2018) va XLM-RoBERTa (Conneau va boshq., 2019) kabi modellar ko‘p tilli sozlamalarda muvaffaqiyat ko‘rsatdi, ammo kam resursli tillarda ularning samaradorligi o‘quv ma’lumotlari mavjudligi bilan cheklanadi. Turk tili kabi turkiy tillarda so‘nggi tadqiqotlar (Safaya va boshq., 2020) ko‘p tilli modellarini nozik sozlash orqali yaxshi natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Biroq, o‘zbek tiliga oid tadqiqotlar hali dastlabki bosqichda bo‘lib, ochiq manbali korpuslar yoki oldindan o‘qitilgan modellar deyarli yo‘q.

O‘zbek tili uchun matn korpusi yaratish

1. Ma’lumot manbalari

O‘zbek tili uchun sifatli matn korpusi yaratish turli xil va vakillik qiluvchi ma’lumot manbalarini talab qiladi. Biz quyidagi manbalarni taklif qilamiz:

- O‘zbek Vikipediyasi: 2025-yil holatiga ko‘ra, o‘zbek Vikipediyasida 140,000 dan ortiq maqola mavjud bo‘lib, tarix, madaniyat va ilm-fan kabi mavzularni qamrab oladi. MediaWiki API yordamida maqolalarni dasturiy ravishda yig‘ish mumkin.

- Yangiliklar saytlari: Kun.uz va Daryo.uz kabi saytlar zamonaviy o‘zbek tilida jurnalistik uslubdagi matnlarni taqdim etadi. BeautifulSoup yoki Scrapy kabi veb-skraping vositalari ma’lumot yig‘ishni avtomatlashtiradi.

- Adabiy asarlar: Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy kabi mualliflarning klassik va zamonaviy asarlari Ziyouz.uz kabi platformalarda mavjud.

- Ijtimoiy tarmoqlar: X va Telegram platformalari norasmiy matnlarni, shu jumladan shevalarga xos farqlarni aks ettiradi. Maxfiylik va mualliflik huquqlari kabi axloqiy masalalarga e’tibor berish kerak.

2. Ma’lumotlarni tozalash va oldindan qayta ishlash

Xom matn ma’lumotlari ko‘pincha shovqin (masalan, HTML teglar, reklamalar yoki imlo farqlari) bilan keladi. Biz quyidagi qayta ishlash jarayonini taklif qilamiz:

1. Matn tozalash: HTML teglar, maxsus belgilar va keraksiz tarkibni regular expressions va BeautifulSoup kabi kutubxonalar yordamida olib tashlash.

2. Normalizatsiya: Barcha matnlarni lotin yozuviga birlashtirish va keng tarqalgan imlo xatolarini tuzatish.

3. Tokenizatsiya: O‘zbek tilining agglutinativ morfologiyasini hisobga olgan holda maxsus tokenizer ishlab chiqish, masalan, “kitobxonlar” so‘zini “kitob” + “xon” + “lar” sifatida ajratish.

3. Korpusni izohlash

Sentiment tahlili yoki nomlangan ob’ektlarni aniqlash (NER) kabi vazifalar uchun izohlangan korpuslar zarur. Prodigy yoki Label Studio kabi vositalar qo‘lda yoki yarim avtomatlashtirilgan izohlashni osonlashtiradi, sentiment teglari, ob’ekt teglari yoki mashinaviy tarjima uchun parallel korpuslarga e’tibor qaratadi.

4. Transformer modellarini o‘zbek tiliga moslashtirish

O‘zbek tili NLPdagi muammolar: O‘zbek tilining agglutinativ morfologiyasi va shevalar farqlari (masalan, Xorazm shevasi) maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, WordPiece kabi standart tokenizatsiya usullari o‘zbek tilining qo‘shimchalar tizimi bilan muammolarga duch keladi, bu esa maxsus tokenizerlarni talab qiladi.

Ko‘p tilli modellarini nozik sozlash: mBERT va XLM-RoBERTa kabi oldindan o‘qitilgan ko‘p tilli modellar o‘zbek tilini o‘z ichiga oladi, lekin ular uchun optimallashtirilmagan. Ushbu modellar o‘zbek tiliga xos korpuslarda nozik sozlash orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Biz quyidagi qadamlarni taklif qilamiz:

1. Vazifaga xos korpus yig‘ish: Masalan, ijtimoiy tarmoqlardan ijobiy/salbiy deb belgilangan matnlar korpusi.

2. mBERT’ni nozik sozlash: Hugging Face Transformers kutubxonasi yordamida mBERT’ni yig‘ilgan korpusda nozik sozlash, o‘quv tezligi va partiya hajmi kabi giperparametrlarni moslashtirish.

3. Samaradorlikni baholash: Test to‘plamida model aniqligini F1-skore kabi metrikalar yordamida baholash.

Transfer o‘qitishdan foydalanish: O‘zbek tili ma’lumotlarining yetishmasligini hisobga olib, turk yoki qozoq tillari kabi yaqin turkiy tillardan transfer o‘qitish model samaradorligini oshirishi mumkin. TurkBERT (Safaya va boshq., 2020) kabi oldindan o‘qitilgan modellar boshlang‘ich nuqta sifatida xizmat qilishi mumkin, so‘ngra o‘zbek ma’lumotlari bilan nozik sozlanadi.

Yondashuvimizning amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatish uchun quyidagi Python skripti yordamida 50 ta o‘zbek Vikipediya maqolasidan iborat kichik korpus yig‘dik:

```
import wikipediaapi
import json
wiki = wikipediaapi.Wikipedia('uz')
def save_wiki_articles(category, output_file, max_articles=50):
```

```
    articles = []
    cat = wiki.page(f"Category:{category}")
    for page in cat.categorymembers.values():
        if len(articles) >= max_articles:
            break
        if page.ns == 0:
            articles.append({"title": page.title, "text": page.text})
    with open(output_file, 'w', encoding='utf-8') as f:
        json.dump(articles, f, ensure_ascii=False, indent=4)
save_wiki_articles("O‘zbekiston", "uzbek_wiki_corpus.json")
```

Ushbu korpus taxminan 500,000 tokenni o‘z ichiga oladi va oldindan o‘qitish yoki nozik sozlash uchun boshlang‘ich nuqta sifatida xizmat qiladi. Kelajakdagi ishlar bu korpusni yangiliklar maqolalari va shevalarga xos matnlar bilan kengaytiradi.

Dastlabki tajribalarimiz ko‘p tilli Transformer modellarini o‘zbek tili uchun nozik sozlashning potentsialini ko‘rsatadi. Biroq, katta hajmdagi izohlangan korpuslar va hisoblash resurslari yetishmasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kabi muassasalar bilan hamkorlik jarayonni tezlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, GitHub kabi platformalarda korpuslarni ochiq manba sifatida ulashish jamoa tomonidan NLP rivojlanishini rag‘batlantirishi mumkin.

XULOSA

Ushbu maqola o‘zbek tili uchun matn korpuslarini shakllantirish va Transformer modellarini moslashtirish bo‘yicha amaliy ramkani taqdim etadi. Ma’lumotlar yetishmasligi va lingvistik muammolarni bartaraf etish orqali biz o‘zbek tili uchun mashinaviy tarjima va sentiment tahlilidan tortib, mustahkam NLP ilovalarini rivojlantirish yo‘lini ochmoqchimiz. Kelajakdagi ishlar korpuslarni kengaytirish, maxsus tokenizerlar ishlab chiqish va ko‘p tilli transfer o‘qitishni o‘rganishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vaswani, A., va boshq. (2017). Diqqat – bu sizga kerak bo‘lgan hamma narsa. Advances in Neural Information Processing Systems, 30.
2. Devlin, J., va boshq. (2018). BERT: Tilni tushunish uchun chuqur ikki tomonlama transformerlarning oldindan o‘qitilishi. arXiv preprint arXiv:1810.04805.
3. Conneau, A., va boshq. (2019). Ko‘p tilli vakillikni o‘rganish. arXiv preprint arXiv:1911.02116.
4. Safaya, A., va boshq. (2020). TurkBERT: Turk tili uchun oldindan o‘qitilgan til modeli. arXiv preprint arXiv:2004.12345.

KATTA MA’LUMOTLAR VA DATA MINING ZAMONAVIY USULLARI

Kunuzoqov Hayotjon Shodiboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail: hayotjonline@gmail.com
Tel: +998939441609
Haydarov Kamoliddin Baratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: haydarovk378@gmail.com
Tel: +998959092284

Annotatsiya: Ushbu maqolam katta ma’lumotlar (Big Data) va Data Mining zamonaviy usullarining innovatsion qirralarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Biz yashayotgan raqamli davrda, ma’lumotlarning hajmi va xilma-xilligi o‘sib borayotgani sababli, yangi analitik yondashuvlar va texnologiyalar zaruriyati keskin oshmoqda. Katta ma’lumotlar bizning hayotimizning har bir sohasida - iqtisodiyotdan sog‘liqni saqlashgacha, marketingdan ta’limgacha - inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Maqolamda Data Mining jarayonlarining murakkabligi va ko‘p bosqichli tuzilishi yoritiladi, xususan, ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, transformatsiya qilish va chuqur tahlil qilish jarayonlari. Zamonaviy Data Mining usullari sifatida mashinalarni o‘rganish (Machine Learning) va teran o‘rganish (Deep Learning) texnologiyalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu usullar, ayniqsa, sun’iy intellekt (AI) bilan integratsiyalashgan holda, ma‘lumotlardan chuqur bilimlar olish imkoniyatini taqdim etmoqda.

Shuningdek, ushbu ilmiy ishimda katta ma’lumotlar va Data Miningning ijtimoiy, iqtisodiy va etika jihatlari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Katta ma’lumotlar kiberxavfsizlik, maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida yuzaga keladigan xavflar va muammolarni yechish uchun zamonaviy yechimlar va strategiyalar, masalan, ma’lumotlarni shifrlash va anonimlashtirish kabi metodlar haqida ham so‘z yuritiladi.

Maqolam katta ma’lumotlar va Data Miningning kelajagi haqida prognozlar beradi, bu esa tadqiqotchilar, analitiklar va amaliyotchilar uchun yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarni ochib beradi. Katta ma’lumotlar asrida, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar yordamida biz ma’lumotlardan nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham foydalanishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Katta ma’lumotlar (Big Data); Data Mining; Mashinalarni o‘rganish; Regressiya; Tasniflash; Klasterlash; Assotsiatsiya qoidalari; Neyron tarmoqlar; Anomaliyalarni aniqlash; Chuqur o‘rganish; Vaqt qatorlari tahlili; Statistik tahlil; Algoritmlar; Ma’lumotlarni tozalash; Etik masalalar.

Hozirgi kunda biz raqamli asrda yashayapmiz, bunda ma’lumotlar har qanday sohada muhim resursga aylangan. **Katta ma’lumotlar (Big Data)** tushunchasi ma’lumotlarning miqdori va xilma-xilligi keskin oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Katta ma’lumotlar nafaqat biznes jarayonlarini optimallashtirish, balki shaxsiy hayotimizga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Masalan, sog‘liqni saqlash, moliya, marketing va ta’lim sohalarida katta ma’lumotlar yordamida ko‘plab yangiliklar va innovatsiyalar amalga oshirilmoqda.

Data Mining yoki ma’lumotlarni qazib olish - katta ma’lumotlar ichidan foydali bilimlarni olish jarayonidir. Ushbu jarayon orqali ma’lumotlar tahlil qilinadi, shuningdek, ma’lumotlar orasidagi bog‘lanishlar va naqshlar aniqlanadi. Data Mining zamonaviy texnologiyalar, masalan, mashinalarni o‘rganish va teran o‘rganish bilan birga, katta ma’lumotlardan foydalanishni yanada samaraliroq va intuitivroq qiladi.

Katta ma’lumotlar zamonaviy texnologiyalar olamining ajralmas qismi bo‘lib, ular hajmi, xilma-xilligi va ishlov berish tezligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar katta ma’lumotlarni oddiy ma’lumotlardan farqlovchi asosiy jihatlar hisoblanadi.

Birinchi navbatda, katta ma’lumotlarning hajmi haqida gapirish kerak. Bugungi kunda insoniyat tomonidan yaratilayotgan ma’lumotlarning hajmi nihoyatda ulkan. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat platformalari, sanoat tizimlari va hatto oddiy mobil qurilmalar orqali har kuni trillionlab ma’lumotlar yig’iladi. Ushbu hajmni boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalar masalan: bulutli platformalar va massiv parallel ishlov beruvchi tizimlar qo‘llaniladi.

Katta ma’lumotlarning yana bir muhim xususiyati - ularning yig‘ish va tahlil qilish tezligidir. Hozirgi zamonda ma’lumotlar real vaqt rejimida tahlil qilinishi kerak bo‘lgan holatlar juda ko‘p uchraydi. Masalan, bank tizimlarida firibgarlikni aniqlashda tranzaksiyalar bir zumda tahlil qilinadi yoki transport tizimlarida tirbandliklarni oldini olish uchun real vaqt ma’lumotlari ishlatiladi. Tezlikning bunday darajada muhim bo‘lishi zamonaviy texnologiyalarning yuksak rivojlanishini talab qiladi.

Xilma-xillik esa katta ma’lumotlarning yana bir o‘ziga xos jihati bo‘lib, ma’lumotlarning turli shakllarda bo’lishini anglatadi. Bu ma’lumotlar matn, rasm, video, ovoz yoki hatto sensor ma’lumotlari shaklida bo‘lishi mumkin. Xilma-xil ma’lumotlar bilan ishlash esa maxsus algoritmlar va asbob-uskunalarni talab qiladi.

Katta ma’lumotlarning ushbu asosiy xususiyatlari uni oddiy ma’lumotlardan farqlab turadi va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Data Mining - bu mashinani o‘rganish, statistika va ma’lumotlar bazasi tizimlarining kesishmasidagi usullarni o‘z ichiga olgan katta ma’lumotlar to‘plamlarida naqshlarni olish va topish jarayoni. Data Mining – informatika va statistikaning fanlararo kichik sohasi bo‘lib , umumiy maqsad ma’lumotlar to‘plamidan ma’lumot olish (aqlli usullar bilan) va undan keyin foydalanish uchun ma’lumotlarni tushunarli tuzilmaga aylantirishdir. Ushbu jarayon turli bosqichlardan iborat bo‘lib, ularning har biri muhim ahamiyatga ega. Data Mining jarayoni odatda quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘ladi: ma’lumotlarni tayyorlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, naqshlarni aniqlash va natijalarni talqin qilish.

Ma’lumotlarni yig’ish va tayyorlash - Data Miningning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda kerakli ma’lumotlar yig‘iladi va to‘planadi. Ma’lumotlar turli manbalardan kelishi mumkin: ijtimoiy tarmoqlar, IoT qurilmalari, tijorat tizimlari va boshqalar. Ushbu bosqichda ma’lumotlar sifatini yaxshilash uchun tozalash jarayoni amalga oshiriladi, ya’ni noto‘g‘ri yoki yo‘qolgan ma’lumotlar aniqlanadi va tuzatiladi. Shuningdek, ma’lumotlar bir xilda bo‘lishi uchun standartlashtiriladi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish bosqichida tanlangan ma’lumotlar o‘rganiladi va ulardan mantiqiy naqshlarni aniqlash uchun dastlabki tahlillar amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda statistik usullar, grafik tahlillar va boshqa texnikalar qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ma’lumotlar orasidagi bog‘liqliklar va munosabatlar aniqlanadi.

Naqshlarni aniqlash va modellashtirish Data Miningning asosiy qismi hisoblanadi. Bu bosqichda maxsus algoritmlar yordamida ma’lumotlar orasidagi yashirin naqshlar va qonuniyatlar aniqlanadi. Mashinalarni o‘rganish (Machine Learning) texnologiyalari, masalan, regressiya, tasniflash (classification), klasterlash (clustering) va assotsiatsiya qoidalari (association rules) kabi usullar keng qo‘llaniladi. Ushbu bosqichda ma’lumotlardagi murakkab muammolarni hal qilish uchun modellar yaratiladi.

Natijalarni talqin qilish va foydalanish jarayoni so‘nggi bosqichdir. Ushbu bosqichda aniqlangan naqshlar va tahlil natijalari foydalanuvchilar uchun tushunarli shaklda talqin qilinadi. Natijalar vizual vositalar, grafiklar va hisobotlar orqali ifodalanadi. Ushbu bosqichning maqsadi aniqlangan bilimlarni qaror qabul qilish yoki muammoni hal qilish uchun ishlatishdir.

Data Mining jarayoni o‘zining tuzilmasi va bosqichlari orqali ma’lumotlardan maksimal foyda olishga qaratilgan. Jarayonning muvaffaqiyati ma’lumotlarning sifati, tanlangan usullar va natijalarni to‘g‘ri talqin qilishga bog‘liq.

Zamonaviy Data Mining usullari ma’lumotlarni tahlil qilish, ulardan bilim olish va qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu usullar quyidagilardan iborat:

Tasniflash

Tasniflash usuli - ma’lumotlarni oldindan belgilangan kategoriyalarga ajratib, ularning tegishli guruhlarini aniqlashni maqsad qiladi. Bu usulda ma’lumotlar asosida model yaratiladi va keyinchalik yangi ma’lumotlarni tasniflash uchun foydalaniladi.

Mashhur algoritmlar:

Decision Tree (qaror daraxtlari);

Support Vector Machines (SVM);
Neural Networks (sun’iy neyron tarmoqlar);
Misol: Bank kredit olish uchun murojaat qilgan mijozning to‘lov qobiliyatini "yaxshi" yoki "yomon" sifatida tasniflaydi.

Klasterlash

Klasterlash - ma’lumotlarni biror oldindan belgilangan kategoriyalarsiz guruhlarga ajratish usulidir. Bu usulda ma’lumotlar o‘zaro o‘xshashlik darajasiga qarab klasterlarga ajratiladi.

Mashhur algoritmlar:
K-means
Hierarchical Clustering
DBSCAN
Misol: Xaridorlarni xarid qilish odatlariga qarab guruhlarga ajratish.

Assotsiatsiya qoidalari

Assotsiatsiya qoidalari - usuli ma’lumotlar ichidagi elementlar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlaydi. Bu usul, odatda, savdo yoki marketing tahlilida ishlatiladi.

Mashhur algoritmlar:
Apriori algoritmi
FP-Growth algoritmi
Misol: "Agar xaridor non sotib olgan bo‘lsa, u katta ehtimol bilan sariyog‘ ham xarid qiladi."

Regressiya

Regressiya usuli - bir yoki bir nechta omillar va natija o‘rtasidagi munosabatni aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu usul asosan sonli (raqamli) ma’lumotlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Mashhur turlari:
Linear Regression (chiziqli regressiya)
Logistic Regression (logistik regressiya)
Misol: Uyning narxini uning maydoni va joylashuviga qarab bashorat qilish.

Neyron tarmoqlar

Neyron tarmoqlar - inson miyasi faoliyatini taqlid qiluvchi algoritmlardir. Ushbu usul murakkab naqshlarni aniqlash va bashorat qilish uchun ishlatiladi. Neyron tarmoqlar, ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashda juda samarali.

Masalan:
yuzni tanib olish
ovozli buyruqlarni aniqlash.

Anomaliyalarni aniqlash

Bu usul ma’lumotlar ichidagi g‘ayrioddiy yoki noodatiy naqshlarni aniqlash uchun ishlatiladi. U firibgarlikni aniqlash yoki xavfsizlik buzilishlarini topishda keng qo‘llaniladi.

Mashhur algoritmlar:
Isolation Forest
One-Class SVM
Misol: Kredit karta firibgarliklarini aniqlash.

Time Series Analysis (Vaqt qatorlari tahlili)

Ushbu usul vaqt davomida o‘zgaradigan ma’lumotlarni o‘rganish uchun ishlatiladi. U asosan bashorat qilish yoki trendlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Masalan:
Oylik savdo hajmlarini bashorat qilish.
Valyuta kurslarining prognozi.

Deep Learning (Chuqur o‘rganish)

Deep Learning - zamonaviy Data Miningning eng ilg‘or usullaridan biri bo‘lib, sun’iy neyron tarmoqlarga asoslanadi. Bu usul juda katta hajmdagi ma’lumotlardan murakkab naqshlarni aniqlashga qodir. U asosan tasvir tanib olish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va ovoz tanib olishda qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy Data Mining usullari ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va ulardan qiymatli bilimlarni olish imkonini beradi. Ushbu usullar texnologiya, savdo, tibbiyot, moliya,

transport va boshqa ko‘plab sohalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Har bir usul ma’lumot turiga va tahlil maqsadiga qarab tanlanadi, bu esa Data Miningni kuchli vositaga aylantiradi.

Bugungi kunda Data Mining texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Ma’lumotlarning ulkan hajmi har kuni ishlab chiqarilayotgani sababli, ushbu ma’lumotlarni samarali tahlil qilish va ulardan foyda olish imkoniyati Data Mining texnologiyalarini rivojlantirishni zaruratga aylantirdi. Quyida Data Miningning turli sohalardagi amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil ma’lumot beramiz.

Moliyaviy sohada Data Mining firibgarlikni aniqlash va kredit xavfini boshqarishda keng



qo‘llaniladi. Masalan, banklar mijozlarning kredit tarixini tahlil qilib, ularga qarz berish xavfsizligini baholashadi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida amalga oshiriladigan tranzaksiyalarni kuzatish orqali firibgarlikni aniqlash va oldini olish imkoniyati yaratiladi. Data Mining vositalari bank tashkilotlari uchun qaror qabul qilish jarayonini ancha tezlashtiradi va xavfsizlikni oshiradi.

Savdo va marketingda Data Miningning o‘rni juda katta. Xaridorlarning xarid qilish odatlarini tahlil qilish orqali kompaniyalar o‘z mahsulotlarini yaxshiroq targ‘ib qila oladi yoki mijozlar ehtiyojiga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etadi. Masalan, onlayn savdo platformalari foydalanuvchilarning qidiruv tarixini va xaridlar bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilib, ularga mos keladigan mahsulotlarni tavsiya qiladi. Shuningdek, Data Mining reklama strategiyalarini optimallashtirish va mijozlarning sodiqligini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Tibbiyot sohasida Data Mining bemorlarning kasallik tarixini tahlil qilib, tashxis qo‘yish va davolash usullarini aniqlashda samarali qo‘llaniladi. Kasalliklarning tarqalish tendensiyalari va xavflarini oldindan aniqlash orqali sog‘liqni saqlash tizimi pandemiyalarga yoki epidemiyalarga qarshi samarali choralar ko‘rishi mumkin. Bundan tashqari, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt yordamida o‘smalarni aniqlashdagidek murakkab jarayonlarda Data Mining muhim ahamiyatga ega.

Transport sohasida Data Mining tirbandlikni boshqarish, yo‘lovchilar oqimini kuzatish va logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun qo‘llaniladi. Misol sifatida, yo‘lovchilar oqimini va transport vositalari harakatini kuzatish orqali shaharda transport tizimini samarali boshqarish mumkin. Shuningdek, yuk tashish bo‘yicha ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kompaniyalar o‘z operatsion xarajatlarini kamaytirishi va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishi mumkin.

Data Mining ***ta’lim sohasida*** ham o‘z o‘rniga ega. Misol uchun, talabalar o‘qish jarayonidagi xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash va ularga shaxsiy yondashuvni

taklif qilish mumkin. Ta’lim jarayonini individuallashtirish bugungi kunda zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Data Miningning qo‘llanilishi bilan bog‘liq misollarni ko‘rib chiqarkanmiz, ushbu texnologiya hayotimizning ko‘plab sohalarida muhim o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jarayon har bir sohada qaror qabul qilishni tezlashtiradi va maqsadga erishishni osonlashtiradi.

Data Mining texnologiyalari juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lsa-da, ularning ayrim cheklovlari ham mavjud. Ushbu bo’limda Data Miningning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rib chiqamiz.

(+) Data Miningning eng katta afzalligi shundaki, u katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkorlik bilan tahlil qiladi va ulardan foydali bilimlarni chiqarib beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni ancha optimallashtirilgan, bu esa biznes qarorlarini qabul qilishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, kompaniyalar Data Mining yordamida mijozlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga mos xizmatlarni taklif qilish orqali raqobatbardoshligini oshiradi.

Bundan tashqari, Data Mining yordamida yashirin naqshlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Bu esa yangi bilimlarni ochishga va muammoni anglashning yangi usullarini yaratishga yordam beradi. Ushbu texnologiya ilmiy tadqiqotlardan tortib to korxona boshqaruvigacha bo‘lgan ko‘plab sohalarda innovatsion yechimlarni taqdim qiladi.

(-) Biroq, Data Miningning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchi navbatda, ushbu texnologiyani qo‘llash uchun yuqori sifatli ma’lumotlar talab qilinadi. Agar ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmasa, tahlil natijalari ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Data Mining jarayonlari murakkab va ko‘p vaqt talab qilishi mumkin. Bu esa yuqori texnik bilim va resurslarni talab qiladi.

Maxfiylik va xavfsizlik masalalari Data Miningning yana bir zaif tomonidir. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayonida shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lish xavfi mavjud. Shuning uchun Data Miningni qo‘llashda maxfiylikni ta’minlash uchun maxsus choralar ko‘rilishi kerak.

Data Miningning afzalliklari va cheklovlarini hisobga olgan holda, uni samarali va ehtiyotkorlik bilan qo’llash zarur. Bu texnologiyaning kuchli tomonlaridan foydalanish orqali ko‘plab muammolarni hal qilish mumkin, lekin zaif tomonlarini e’tiborsiz qoldirmaslik lozim.

Data Mining texnologiyalarining bugungi kunda keskin rivojlanib borishi bilan birga, u bilan bog‘liq bo’lgan xavflar va etik muammolar ham dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Texnologik taraqqiyot yangi imkoniyatlar yaratgan holda, shaxsiy hayot daxlsizligi, ma’lumotlarning nojo‘ya ishlatilishi, algoritmlarning adolatsiz qarorlarga olib kelishi kabi masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Avvalo, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi masalasi Data Mining sohasidagi asosiy muammolardan biridir. Ko‘plab korxonalar va tashkilotlar foydalanuvchilarning ruxsatisiz ularning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘adi, saqlaydi va tahlil qiladi. Masalan, internetdagi izlanishlar, xaridlar tarixi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatlar asosida foydalanuvchi profillari yaratiladi. Ushbu profiling asosida individual reklama takliflari, xizmatlar yoki kontentlar taqdim etiladi. Garchi bu xizmatlarning shaxsiylashtirilishiga xizmat qilsa-da, lekin ko‘plab hollarda foydalanuvchi o‘z ma’lumotlari qanday yig‘ilganini, qanday ishlatilayotganini yoki kimlarga uzatilayotganini bilmaydi. Bu esa ochiqlik va ishonch muammosini yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, Data Mining algoritmlarining adolatsiz qarorlar chiqarish ehtimoli ham mavjud. Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar kredit berish, ishga qabul qilish, sug‘urta stavkalarini belgilash kabi jarayonlarda ishlatilganda, ularning qarorlari ba’zan ayrim guruhlar foydasiga yoki zarariga biryoqlama bo‘lishi mumkin. Bunday algoritmik diskriminatsiya asosan tarbiyalangan modelning o‘rgatilgan ma’lumotlarida mavjud bo‘lgan noaniqliklar yoki tarixiy noto‘g‘riliklar tufayli yuzaga keladi. Ya’ni, agar o‘rgatilgan ma’lumotlarda ilgari ayollar yoki ozchilik guruhlariga nisbatan nohaqlik bo‘lgan bo‘lsa, algoritm ham shunga mos ravishda adolatsiz qarorlar chiqaradi. Bu esa mavjud ijtimoiy muammolarni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Algoritmlarning shaffof emasligi - ya’ni ularning qanday qarorga kelgani aniq tushuntirib berilmasligi - boshqa bir dolzarb etik muammo hisoblanadi. Ko‘plab zamonaviy Data Mining tizimlari, ayniqsa chuqur o‘rganish (deep learning) asosidagi modellar, o‘z ish jarayonini oddiy inson uchun tushunarli qilib izohlab berolmaydi. Bu holat "qora quti" muammosi deb ataladi. Buning oqibatida esa texnologiyalarning ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish qiyinlashadi.

Shuningdek, axloqiy masalalardan biri – Data Mining vositalarining kuzatuv (monitoring) va nazorat maqsadlarida haddan tashqari qo‘llanilishidir. Masalan, ayrim davlatlar yoki yirik kompaniyalar foydalanuvchilar harakatini doimiy ravishda nazorat qilib, ularning siyosiy qarashlari, shaxsiy qiziqishlari yoki ijtimoiy aloqalari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa erkinlik va demokratik tamoyillarga zid bo‘lgan holatlarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi barcha xavf va etik muammolar shuni ko‘rsatadiki, Data Mining texnologiyalarini faqat texnik yondashuvlar bilan emas, balki ijtimoiy, huquqiy va axloqiy mezonlar asosida ham baholash zarur. Etik Data Mining deganda, shaffoflikni ta’minlaydigan, foydalanuvchi roziligiga asoslangan, diskriminatsiyadan holi va ijtimoiy javobgarlikni hisobga olgan yondashuvlar tushuniladi. Hozirda Yevropa Ittifoqida amal qilayotgan GDPR (General Data Protection Regulation) kabi qonunchilik hujjatlari ushbu muammolarni cheklash va texnologiyalardan mas’uliyat bilan foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bunday yondashuvlar butun dunyo bo‘ylab Data Miningning barqaror va adolatli rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.



Kelajakda Data Mining yanada rivojlanib, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, bulutli hisoblash, quantum computing kabi boshqa ilg‘or texnologiyalar bilan uyg‘unlashadi. Bu esa uni yanada qudratli vositaga aylantiradi. Shu bois, bugundan boshlab Data Miningning faqat texnik emas, balki etik, huquqiy va ijtimoiy jihatlariga ham jiddiy e’tibor qaratish zarur. Kelajakdagi innovatsiyalar aynan mana shunday muvozanatli, ongli va javobgar yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Data Mining texnologiyalari zamonaviy jamiyat uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ammo bu eshikdan ongli, axloqiy va ehtiyotkorlik bilan kirish talab etiladi. Faqat shunda biz bu texnologiyalarni insoniyat farovonligi yo‘lida to‘g‘ri yo’naltira olamiz. Shu nuqtai nazardan, Data Miningni o‘rganish, undan foydalanish va uni boshqarishda har bir mutaxassis, tadqiqotchi va foydalanuvchi o‘zining axloqiy mas’uliyatini chuqur anglamog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar va veb saytlar:

1. Detlaf A.A, Yavorskiy B.M. Fizika kurslari.: Eng oliy maktab, 1977
2. Savelev I.V. Fizika kurslari.: Fan 1989 y
3. Ogurtsov N.A, Ma’ruza uchun fizika kurslari, Xarkov, 2007
4. Oplachko T.M, Tursunmentov K,A. Fizika, Tashkent, 2007
5. Abdurahmonov K.P, Egamov U. Fizika kursi, 2011 y
6. https://www.youtube.com/@Xurmomedia
7. https://www.gartner.com
8. https://sloanreview.mit.edu
9. https://techcrunch.com

10. https://iot-analytics.com
11. https://www.oecd.org
12. https://www.wikipedia.org/
13. https://gov.uz/oz/digital/news/view/
14. https://infocom.uz/news/
15. https://coursera.org

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON HUMAN DECISION MAKING, LAZINESS, AND SAFETY IN EDUCATION

Kurbonov Bekzod Nurbek o'g'li
Assistant of the Department of Information Technology Software, Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Key words: Artificial Intelligence, Education, Data Privacy, Security Concerns, AI Ethics in Education, Automation in Learning, Teacher-Student Interaction

Introduction

Artificial Intelligence (AI) has become an integral component of modern society, altering various facets of academic practices and education systems. As AI technologies have evolved from rudimentary rule-based systems to sophisticated machine learning and deep learning frameworks, their influence on human decision making, the phenomenon of laziness, and safety in educational environments has garnered significant scholarly attention. This essay examines the multifaceted impact of AI by exploring its definition, analyzing its effects on human decision making, evaluating how it contributes to or mitigates laziness in educational contexts, and investigating the benefits and risks associated with AI's integration in education. The discussion is intended for educational researchers and academic professionals seeking to understand the implications of AI for future research and practical application.

Definition

Artificial Intelligence is defined as the field of computer science dedicated to creating systems capable of performing tasks that typically require human intelligence [1]. This includes, but is not limited to, pattern recognition, natural language processing, predictive analytics, and decision-making support. Modern AI frameworks often involve complex algorithms that can learn from data, adapt to new inputs, and make autonomous decisions in some contexts. The relevance of AI to human decision making is rooted in its capacity to process large volumes of data rapidly, detect trends and anomalies that may be overlooked by human analysts, and provide recommendations to aid in decision making [2].

In the field of education, AI manifests through applications ranging from automated grading systems and personalized learning platforms to predictive analytics aimed at improving student safety. The term "human loss in decision making" reflects concerns that reliance on AI may compromise human judgment, diminish the development of critical thinking skills, and lead to an overdependence on technology. Furthermore, discussions of 'laziness' in this context refer to reduced cognitive effort and a potential decline in intellectual engagement among students and educators as a result of automated decision processes.

Impact Analysis: AI and Human Decision Making

AI-driven systems have the potential to both enhance and impede human decision-making processes within educational settings. On one hand, the availability of data-driven insights and predictive analytics facilitates more informed decision making by educators, administrators, and policymakers. For example, implementing AI in administrative tasks such as student performance tracking allows educators

[1] Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
[2] Goodfellow, I., Bengio Y. & Courville A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

to make timely interventions, thus improving learning outcomes [3]. Similarly, diagnostic tools powered by machine learning can detect learning difficulties early, guiding educators in the creation of personalized learning experiences. Conversely, there is growing concern that overreliance on AI-supported recommendations may lead to a degradation in human critical thinking and analytical skills. The phenomenon described as "human loss in decision making" refers to situations in which decision-makers, trusting the objectivity of automated systems, might bypass their own evaluative processes. This dependency risks reducing intellectual rigor, particularly when AI outputs are seen as infallible.

The implications for research and practice are considerable, as educators may increasingly delegate critical tasks to AI at the expense of developing their own informed judgments [4]. It is essential to balance AI support with active human oversight to ensure that the decision-making process remains both efficient and intellectually engaging.

AI and Laziness in Educational Contexts

The integration of AI into educational systems has elicited debates concerning its role in promoting or mitigating laziness. On the surface, AI aims to free educators and students from routine administrative burdens – automating grading, scheduling, and even some content delivery tasks. In theory, this should allow for more in-depth study and personalized interactions. However, critics argue that such automation might inadvertently encourage passivity or a reduction in critical inquiry. When systems provide ready-made answers and pre-processed solutions, there is a risk that both educators and learners may become complacent, relying on automated processes rather than engaging deeply with the learning material [5].

Nonetheless, AI also has the potential to combat laziness by offering adaptive learning environments that challenge students with customized problems and activities. Intelligent tutoring systems, for instance, track student progress and dynamically adjust the difficulty of tasks, thereby encouraging continual learning progress and reducing the risk of academic complacency. The balance between convenience and intellectual rigor is delicate, requiring careful consideration in curriculum design and teaching methodologies.

An analysis by Anderson and Rainie (2021) suggests that the successful integration of AI in education necessitates a framework where human initiative is still highly valued. In this model, AI serves as a tool to enhance efficiency and provide personalized learning pathways, while educators retain the critical role of cultivating a rigorous intellectual culture that demands active participation from students.

Effects of AI on Safety in Education

The discourse on AI in education cannot be complete without an examination of safety. In this context, safety encompasses both physical security in educational institutions and the cybersecurity measures needed to protect students' and educators' data. AI can offer significant benefits in these areas. For instance, AI-driven surveillance systems and predictive analytics can monitor campus environments to detect potential security threats. These systems analyze patterns of human behavior and detect anomalies that might indicate a physical security risk, enabling quicker responses[6].

Similarly, in the realm of cybersecurity, AI systems can identify potential breaches or data leaks by constantly monitoring network traffic and flagging unusual activities. With the growing amount of sensitive student and institutional data stored digitally, such measures are essential to safeguard privacy and prevent cyberattacks (Kshetri, 2018). Automated threat detection systems and rapid-response mechanisms have become central to maintaining robust safety protocols. However, the benefits are accompanied by significant risks. One major concern involves the potential for AI systems themselves to become targets of cyberattacks. As these systems increasingly manage critical aspects of education, the consequences of a successful attack could be severe, compromising not just data but also the integrity of the educational process. Moreover, there is the risk of bias in AI algorithms, which can

[3] Baker R. S., & Inventado P. S. (2014). Educational data mining and learning analytics. In Learning Analytics (pp. 61-75). Springer.

[4] Carr, N. (2014). The glass cage: Automation and us. W. W. Norton & Company.

[5] Selwyn, N. (2019). Should robots replace teachers? AI and the future of education. Polity Press.

[6] Zhou, Y., Li, D., & Chen, H. (2020). Leveraging machine learning for campus safety: Challenges and applications. Journal of Safety Research, 73, 123-130.

lead to unequal safety measures being applied. If AI systems are trained on unrepresentative data sets, they might misinterpret signals and either underreact to real threats or overreact to benign occurrences, thereby disrupting educational processes [7].

Furthermore, privacy concerns are paramount. The deployment of AI in surveillance and data monitoring within educational environments may impinge on individual rights and create an atmosphere of distrust among students and staff. Striking a balance between effective safety measures and respect for personal privacy remains a challenging aspect of AI integration.

Benefits of AI in Educational Settings

Several key benefits support the adoption of AI in educational settings, particularly when its use is balanced with human oversight. First, AI contributes to enhanced decision making by providing comprehensive data analyses that inform timely interventions and curriculum adjustments. Tools such as learning management systems and educational analytics help educators identify learning gaps and tailor instruction accordingly (Baker & Inventado, 2014).

Second, AI plays an instrumental role in creating adaptive learning experiences. Advanced algorithms tailor educational content to individual student performance, thereby supporting personalized learning and increasing engagement. This kind of targeted instruction can motivate learners to tackle complex subjects and deter the temptation of intellectual laziness.

Third, regarding safety, as noted earlier, AI-driven surveillance and cybersecurity systems serve as powerful tools in maintaining secure educational environments. They provide the dual function of preemptively identifying threats and managing emergencies more effectively than traditional methods.

Finally, AI in education facilitates the optimization of administrative tasks, thereby allowing educators to concentrate on mentorship and pedagogy rather than bureaucratic duties. The enhanced efficiency that AI provides contributes to a more dynamic and responsive educational atmosphere, fostering innovation and continual improvement.

Risks Associated with AI in Educational Environments

Despite the promising benefits, the integration of AI in education is not without its risks. One primary concern is the potential degradation of human decision-making skills. Excessive reliance on AI for data analysis and automated decision making can stifle the development of critical analytical skills among educators. This "de-skilling" can have long-term implications for academic leadership and policy-making, potentially leading to a workforce less adept at handling unexpected challenges independently.

Additionally, the risk of propagating biases through AI systems is significant. When AI algorithms are trained on data sets that reflect historical inequalities, they may inadvertently replicate these disparities. In safety applications, a biased algorithm might misinterpret behavioral data, leading to disproportionate monitoring of certain groups or false alarms that could disrupt the educational environment.

The risk of privacy violations also looms large. As educational institutions increasingly rely on AI to monitor behavior and manage data, there is a heightened potential for breaches of confidentiality. The long-term implications of such breaches could be particularly damaging in educational settings, where trust and a sense of security are essential for effective learning.

Finally, there is the challenge of accountability. When decisions are made or influenced by AI systems, pinpointing responsibility in the event of an error or malfunction becomes complex. The opaque nature of some AI algorithms further exacerbates this issue, calling into question how data is processed and how decisions that affect student lives are ultimately made. Without clear accountability structures, educators and policymakers may find it difficult to navigate ethical and legal challenges posed by AI integration.

Recommendations for Future Research and Practice

Given the array of benefits and risks associated with AI in education, there is a pressing need for ongoing research and the development of robust frameworks to guide its use. First, it is imperative that

[7] O'Neil, C. (2016). Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. Crown Publishing Group.

future research continues to investigate the balance between automated decision making and human judgement. Studies should explore how integrating AI can support, rather than supplant, critical thinking among educators and students. Collaborative research involving cognitive scientists, education professionals, and AI developers could yield methodologies that enhance both efficiency and intellectual rigor.

Second, research must look to address issues of algorithmic bias and the ethical implications of data-driven decision making. Ensuring that training data sets are diverse and representative, and that algorithms are subject to regular ethical audits, is imperative for creating equitable educational environments. Transparency in AI development, accompanied by well-defined protocols for oversight and accountability, will be crucial in maintaining trust with all stakeholders [8].

Third, educational institutions should develop policies that clearly delineate the roles of AI and human actors. This includes establishing guidelines for when and how AI should be used for decision making and ensuring that human oversight remains a central component of any process involving AI. Professional development programs for educators can be pivotal in fostering an awareness of both the benefits and limitations of AI, enabling them to judiciously integrate technology into their teaching practices.

Additionally, safeguarding student data must be prioritized. Institutions should invest in cybersecurity measures that are robust yet respectful of individual privacy. Developing a regulatory framework that governs the ethical use of AI in educational settings could help prevent abuses and ensure that technology serves as a tool for empowerment rather than exploitation.

Finally, it is recommended that interdisciplinary teams within educational institutions continuously evaluate the performance and impact of AI systems. By monitoring outcomes related to student engagement, safety, and academic achievement, institutions can adapt their strategies and refine AI applications as necessary. This iterative approach to technology integration ensures that educators remain proactive in addressing challenges while reaping the benefits of AI-enhanced learning.

Conclusion

The evolution of Artificial Intelligence has indisputably reshaped the landscape of education. Its capacity to improve decision making, automate administrative tasks, and enhance safety protocols offers significant advantages; yet, these advancements must be weighed against risks such as the erosion of human critical thinking, the potential propagation of algorithmic biases, and concerns over privacy and accountability. As AI continues to permeate educational environments, maintaining a balanced perspective that emphasizes both technological innovation and human integrity is essential. With a thoughtful, research-driven approach, AI can serve as a powerful ally in education—complementing human judgment, supporting learning, and ensuring a safe and equitable academic environment.

Future progress in this field will rely on rigorous academic research, transparent policy development, and continuous dialogue among educators, technologists, and policymakers. By addressing the challenges and potential downsides of AI, educational researchers and academic professionals can ensure that the integration of technology not only enhances learning outcomes but also preserves the critical roles of human creativity and judgment.

References:

1. Russell S., Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.
1. Goodfellow I., Bengio Y., Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
2. Baker R. S., Inventado P. S. (2014). Educational data mining and learning analytics. In Learning Analytics (pp. 61-75). Springer.
3. Carr N. (2014). The glass cage: Automation and us. W. W. Norton & Company.
4. Selwyn N. (2019). Should robots replace teachers? AI and the future of education. Polity Press.
5. Zhou, Y., Li, D., & Chen, H. (2020). Leveraging machine learning for campus safety: Challenges and applications. Journal of Safety Research, 73, 123-130.

[8] Anderson, J., & Rainie, L. (2021). The future of decision making in the age of AI. Journal of Educational Technology, 45(3), 233-247.

6. O'Neil, C. (2016). Weapons of Math Destruction: How Big Data Increases Inequality and Threatens Democracy. Crown Publishing Group.
7. Anderson, J., & Rainie, L. (2021). The future of decision making in the age of AI. Journal of Educational Technology, 45(3), 233-247.
8. Kshetri, N. (2018). 1 Cybersecurity and Artificial Intelligence in Education. IT Professional, 20(4), 22-24.

KATTA MA’LUMOTLAR TAHLILI VA SUN’IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI

Madraximov Shuxratjon Shukurovich, Madraximova Maxfuza Axmedovna
Qo‘qon davlat universiteti, Informatika kafedrasi,
E-mail: shuxratjon3233749@gmail.com

Kalit so’zlar: katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt, samarali qayta ishlash, qaror qabul qilish jarayoni, "3V" tamoyili, mashinali o‘rganish

Annotatsiya: Katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari zamonaviy axborot tizimlarida muhim o‘rin tutadi. Ushbu integratsiya orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali qayta ishlash, chuqur tahlil qilish va murakkab vazifalarni avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Katta ma’lumotlardan olingan natijalar asosida SI algoritmlari aniq bashoratlar qilishi, qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishi va tizimlarning moslashuvchanligini oshirishi mumkin. Ushbu maqolada katta ma’lumotlar va sun’iy intellektning o‘zaro aloqalari, ularning integratsiyasi yo‘llari, texnologik asoslari va amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinadi. Shu bilan birga, integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari ham ko‘rib chiqiladi.

Kirish. Katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt (SI) sohalari zamonaviy ilm-fan va texnologiyada tez rivojlanayotgan yo'nalishlardir. Ularning integratsiyasi nafaqat yangi texnologik imkoniyatlarni yaratadi, balki turli sohalarda, jumladan, sog’liqni saqlash, biznes, moliya va ijtimoiy fanlarda ham katta o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada katta ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt integratsiyasining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishlari, mavjud muammolari va istiqbollari ilmiy yondashuv bilan ko‘rib chiqiladi.

Katta ma’lumotlar - bu hajmi, tezligi va xilma-xilligi jihatidan an’anaviy ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari bilan boshqarish qiyin bo‘lgan ma’lumotlar majmuasidir. Katta ma’lumotlar uchta asosiy xususiyatga ega bo‘lib ular hajm, tezlik va xilma-xillik, ko‘pincha bu uchlikni "3V" tamoyili deb atashadi. Katta ma’lumotlarni tahlil qilish usullari statistik metodlar, mashinali o‘rganish, ma’lumotlarni tozalash va transformatsiya qilish, hamda grafik va vizualizatsiya texnikalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarda yuqori samaradorlik va aniqlikni ta’minlash uchun kompyuter hisoblash quvvatining yuqori bo‘lishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sun’iy intellekt va uning asosiy metodlari

Sun’iy intellekt - bu kompyuter tizimlarining inson aqliga o‘xshash funksiyalarni bajarish qobiliyati bo‘lib, Sun’iy intellekt algoritmlari orasida mashinali o‘rganish, chuqur o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, ekspert tizimlar va reaktiv tizimlar mavjud.

Mashinali o‘rganish (Machine Learning) - ma’lumotlardan o‘z-o‘zini o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Chuqur o‘rganish (Deep Learning) esa ko‘p qatlamli neyron tarmoqlarga asoslangan bo‘lib, murakkab ma’lumotlar tuzilmalarini aniqlash imkonini beradi.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt integratsiyasi.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt integratsiyasi ma’lumotlarni yanada samarali tahlil qilish va ulardan yuqori darajada foyda olish imkonini beradi. Bu integratsiya asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

1. Ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash: Katta ma’lumotlardagi shovqinlarni kamaytirish, ma’lumotlarni tozalash va moslashtirish uchun SI texnologiyalari ishlatiladi.

2. Ma’lumotlarni tahlil qilish va bashorat qilish: SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlardan murakkab naqshlarni aniqlash va kelajakdagi holatlarni bashorat qilishda yordam beradi.

3. Real vaqt rejimida qaror qabul qilish: IoT qurilmalari va sensorlardan olingan katta ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, tezkor javoblar berish imkoniyati.

4. Avtomatlashtirilgan tizimlar va robototexnika: SI yordamida katta ma’lumotlardan olingan natijalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yaratish.

Amaliy qo‘llanilishlar.

Sog’liqni saqlash sohasida katta ma’lumotlar va SI integratsiyasi kasalliklarni diagnostika qilish, dori-darmonlarni yaratish va individual davolash rejalarini ishlab chiqishda qo‘llanilmoqda. Masalan, genom ma’lumotlarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan tibbiyot yaratish mumkin.

Biznes va moliya yo‘nalishida moliyaviy tahlil, risklarni baholash, mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilishda katta ma’lumotlar va SI keng qo‘llaniladi. Bu kompaniyalarga bozor trendlarini aniqlash va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Transport va logistika yo‘nalishi yo‘llar va transport oqimini boshqarishda katta ma’lumotlardan foydalanish, avtonom transport vositalarini boshqarishda SI yordam beradi.

Mavjud muammolar va cheklovlar.

1. Maxfiylik va xavfsizlik: Katta ma’lumotlar bilan ishlashda shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va himoyasi muhim muammo hisoblanadi.

2. Ma’lumotlarning sifati: Katta ma’lumotlarning sifati va to‘liqligi tahlil natijalarining aniqligiga bevosita ta’sir qiladi.

3. Hisoblash resurslari: Katta ma’lumotlarni qayta ishlash va SI algoritmlarini ishga tushirish uchun katta hisoblash quvvatlari talab qilinadi.

4. Algoritmlarning adolatliligi: AI tizimlarining qarorlari odatda shaffof emas, bu esa ularning adolatli va ishonchli ishlashini ta’minlashni qiyinlashtiradi.

Istiqbollar

Kelajakda katta ma’lumotlar va sun’iy intellektning integratsiyasi yanada rivojlanib, yangi imkoniyatlar ochiladi. Jumladan, federativ o‘rganish, shaffof AI, va etik standartlarni yaratish sohalari alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa

Katta ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt integratsiyasi zamonaviy texnologiyalar rivojining markazida turib, ko‘plab sohalarda innovatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu integratsiya yordamida murakkab muammolarni hal etish, yangi bilimlarni kashf etish va avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratish mumkin. Shu bilan birga, maxfiylik, xavfsizlik va algoritmik adolatlilik kabi muammolarni hal qilish kelajakda ushbu sohani yanada barqaror va samarali rivojlantirish uchun muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Sommer, R. & Paxson, V. (2010). Outside the closed world: On using machine learning for network intrusion detection. IEEE Symposium on Security and Privacy.
2. Buczak, A. L., & Guven, E. (2016). A survey of data mining and machine learning methods for cyber security intrusion detection. IEEE Communications Surveys & Tutorials, 18(2), 1153-1176.
3. Javaid, A., Niyaz, Q., Sun, W., & Alam, M. (2016). A deep learning approach for network intrusion detection system. Evolving Systems, 1-13.

O‘QUVCHILARNING O‘RGANISH FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISHDA KATTA MA’LUMOTLAR VA DATA MINING TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI

Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi
e-mail: mahmudova_mohiniso@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini chuqur tahlil etishda katta ma’lumotlar (Big Data) va Data Mining texnologiyalarining imkoniyatlari hamda ahamiyati yoritilgan. Interaktiv va raqamli ta’lim tizimlarida to‘plangan ulkan hajmdagi ma’lumotlar

asosida o‘quvchilarning bilim darajasi, faolligi aniqlash mumkin. Maqolada ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi.

Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Elektron jurnal, LMS (Learning Management System), test tizimlari, onlayn platformalar va boshqa raqamli vositalar orqali o‘quvchilarning har bir harakati ma’lumot sifatida saqlanadi. Ushbu ma’lumotlar ustida tahliliy ishlar olib borish, xususan, Data Mining (ma’lumotlar koni) va Big Data texnologiyalari yordamida o‘quv faoliyatining chuqur tahlili mumkin bo‘ladi.

Big Data va Data Mining texnologiyalari haqida umumiy tushuncha

Big Data — bu hajmi, xilma-xilligi va yangilanish tezligi jihatidan oddiy vositalar bilan qayta ishlash qiyin bo‘lgan ulkan ma’lumotlar to‘plamidir.

Data Mining esa ushbu ma’lumotlardan foydali bilimlarni aniqlash, yashirin tendensiyalarni topish, o‘zaro bog‘liqliklarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Asosiy usullar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Klasterlash (cluster analysis)

Klassifikatsiya (classification)

Assotsiativ qoidalarni aniqlash (association rule mining)

Regressiya tahlili

O‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini tahlil qilishda qo‘llanilishi

Big Data va Data Mining texnologiyalari statistik modellash, mashinaviy o‘rganish, klasterlash, regressiya, assotsiatsiya qoidalari va boshqa tahliliy metodlarga tayanadi.

Personalizatsiyalashgan ta’lim. Data Mining yordamida o‘quvchining individual o‘rganish uslubi, qiziqishlari va qiyinchiliklari aniqlanib, unga moslashtirilgan o‘quv kontenti taklif etiladi. Bu yondashuv “adaptiv ta’lim” deb ataladi va samaradorlikni oshiradi.

Progress monitoring. Katta ma’lumotlar orqali o‘quvchilarning real vaqt rejimida faoliyatini kuzatish mumkin. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining qaysi mavzuni qanday o‘zlashtirayotganini kuzatib borishi, zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha yordam ko‘rsatishi mumkin.

Drop-out va qiyinchilik xavfini oldindan aniqlash. O‘quvchining platformadagi faoliyatini tahlil qilib, o‘qishni tashlab ketish ehtimoli bo‘lgan yoki past natija ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash va erta ogohlantirish tizimlarini ishlab chiqish mumkin.

Ta’lim jarayonini optimallashtirish. Umumiy tahlillar orqali samarali dars formatlari, o‘quv materiallari va baholash metodlari aniqlanib, ularni butun ta’lim tizimiga tatbiq qilish imkoniyati mavjud.

Dunyo miqyosida ko‘plab ta’lim platformalari bor. Masalan, Coursera, Khan Academy, Udacity bu foydalanuvchilarning faoliyatini Data Mining orqali tahlil qilib, individual tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Xuddi shunday, ayrim universitetlarda “learning analytics” tizimlari joriy etilib, o‘quvchilarning o‘quv samaradorligi tahlil qilinmoqda.

Moodle kabi platformalar orqali o‘quvchilarning har bir faolligi log-fayllarda saqlanadi va bu ma’lumotlar asosida interaktiv tahlil mumkin.

Google Classroom foydalanuvchilari uchun ma’lumotlar vizual tahlil vositalari orqali monitoring yuritiladi.

Yirik universitetlar Data Mining texnologiyalarini qo‘llab, talabalar faolligini bashoratlovchi modellar ishlab chiqqan (masalan, Purdue University ning “Course Signals” tizimi).

Big Data va Data Mining texnologiyalari raqamli ta’limda yangi yondashuvlarni joriy qilish imkonini beradi. Ular yordamida o‘quvchilarning o‘rganish faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, individual yondashuv asosida ta’limni tashkil etish va oldindan muammolarni aniqlash mumkin. Ushbu texnologiyalarni joriy qilish o‘qituvchilar, ta’lim muassasalari va ta’lim siyosatini yurituvchi tashkilotlar uchun muhim ustuvor yo‘nalishdir.



Yuqoridagi grafik “Shaxsiylashtirilgan o‘rganish yo‘llari” Data Mining va Katta Ma’lumotlar texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash orqali qanday qilib har bir o‘quvchining individual o‘rganish traektoriyasini tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu vizualizatsiya quyidagilarni ifodalaydi:

O‘quvchi A - Boshlanishida bilim darajasi past bo‘lsada, intensiv o‘zlashtirish tufayli tez sur’atda rivojlanmoqda. Bu o‘quvchiga moslashtirilgan individual materiallar samaradorligini ko‘rsatadi.

O‘quvchi B - Barqaror o‘sishga ega, u an’anaviy tempda rivojlanmoqda. Ushbu o‘quvchi uchun muvozanatli yuklama berish tavsiya etiladi.

O‘quvchi C - Boshlanishda yuqori bilim darajasiga ega bo‘lib, sekinroq o‘smoqda. Ehtimol, materiallar u uchun yetarlicha murakkab emas bu esa didaktikani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Mazkur yondashuvda shaxsiylashtirilgan o‘qitish texnologiyasi (Personalized Learning) asos qilib olingan. Ya’ni bu texnologiyada har bir o‘quvchi o‘z ehtiyojiga mos tempda o‘rganadi. Data Mining algoritmlari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi doimiy ravishda tahlil qilinadi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarayotgan bilim ko‘rsatkichlari kuzatilib, ularga mos pedagogik ta’sir strategiyalari ishlab chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, Data Mining va Big Data texnologiyalarining o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi bu o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos o‘quv rejalarini tuzish imkonini beradi. Vaqt bo‘yicha bilimdagi o‘zgarishlarni grafik tarzda monitoring qilish orqali o‘zlashtirishni optimallashtirishga yordam beradi. Bu omillar o‘z navbatida individual yondashuvni ta’minlab, pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tan P.-N., Steinbach M., Karpatne A., Kumar V. Introduction to Data Mining. – Boston: Pearson, 2018. – 864 p.
2. Leskovec J., Rajaraman A., Ullman J.D. Mining of Massive Datasets. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 600 p.
3. Shmueli G., Bruce P.C., Patel N.R. Data Mining for Business Analytics: Concepts, Techniques, and Applications in R. – Hoboken: Wiley, 2016. – 560 p.
4. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning: Data Mining, Inference, and Prediction. – New York: Springer, 2009. – 745 p.
5. EMC Education Services. Data Science and Big Data Analytics: Discovering, Analyzing, Visualizing and Presenting Data. – Indianapolis: Wiley, 2015. – 432 p.

HAYDOVCHI XATTI-HARAKATLARINI BOSHQARUV JARAYONIDA TAHLIL QILISHDA TIZIMLI YONDASHUVLAR.

Mirzayeva Nilufar Sirojidinovna
nilufarmirzayeva1410@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya: Avtomobillarni boshqarish jarayonida haydovchini hatti-harakatlarni o‘rganish yo‘l harakati havfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada haydovchi holatini monitoring qilish inson omiliga asoslangan xavflarni aniqlash, simulyatsiya tizimlaridan foydalanish, algoritmlar va modelashtishga doir metodlar taxlili ko‘rib chiqilgan.

Kalit sozlar: CNN, RNN, LSTM, YOLOv11

Hozirgi kunda yo‘llarda avtomobillar soning keskin ortishi bilan birga yo‘l taransport hodisalarining ham ko‘payishiga olib kelmoqda. Statistik ma’lumorlarga ko‘ra yo‘l harakati qoidalarini buzishning asosiy sababi ko‘pchilik holatda haydovchining e’tiborsizligi, charchog‘i, noto‘g‘ri qaror qabul qilishi bilan bog‘liq holatda yuzaga keladi. Haydovchining hatti harakatlarini taxlil qilish, uning avtomobil boshqargandagi emotsiomnal holati, diqqat e’tibori va qaror qabul qilish mexanizmini o‘rganishda juda muhim hisoblanadi. Haydovchining charchog‘i fizologik kongyuktiv resurslarni kamayishi bo‘lib, uzoq vaqt mobaynida jimoniy yoki aqliy faoliyat bilan shug‘irlanishdan hosil bo‘ladi. Buning asosiy tasiri to‘xtash yoki burilish reaksiyasining uzayishi, haydovchini atrof muhitga chalg‘ishi, 1-2 soniyalik ko‘zlarni yumilishi, pedal yoki rulga noto‘g‘ri bosim berish charchoq oqibatida ko‘plab yo‘l harakati qoidalarini buzilishiga olib keladi. Haydovchining emotsional holati ham xavfli tezlikda harakatlanish yaqin masofada bo‘lishi passiv reksiyalar, sikin atrofga befarq harakatlar yoki stress holati haydovchini noto‘g‘ri qaror qabul qilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Charchoq ham o‘z navbatida hissiy beqarorlikka sabab bo‘ladi. Uzoq muddatli haydash haydovchini jismoniy toliqishi va charchashiga olib keladi.

Haydovchi va avtomobilni o‘zoro tasirini kompleks tizim sifatida qarash mumkin. Bu tizim tashqi omillar: yo‘lning holati, yorug‘lik, harorat, ichki omillar: haydovchinning sog‘ligi, charchash darajasi, hissiy holatiga, axborot oqimlari: visual, akkustik, taktik signallarga bog‘liq bo‘lgan umumiy tizim sifatida qarash mumkin. Haydovchilarning yo‘ldagi uyquchanligini monitoring qiluvchi mavjud bunday tizimlardan avtomobil ishlab chiqiish sanoatida ham kemg foydalanilmoqda.

Sunniy intellek modellar yordamida haydovchini monitoring qilishda yuz mimikalarini tahlil qilish uchun Convulyatsion neyron rarmoqlardan foydalanish, vaqt ketma ketligida signallarni(yurak urishi) asosida tahlil qilish uchun takroriy neyron tarmoqlari(RNN) va LSTM bilan tahlil qilinadi. Esnash va ko‘z holatlarini real vaqt rejimida aniqlash uchun YOLOv5 va YOLOv8 algoritmlaridan foydalanamiz. Haydovchi holatini real vaqtda yordamida monitoring qilishda ko‘z pirpirashi, yuz mimikalarining holatini ham inobatga olgan holda monitoring qilishada YOLOv11 algoritmlaridan foydalanish yaxshi natijalarga erishgan. YOLOv11 oldingi versiyalaridan aniqlik jihatidan ayniqsa haydovchining qo‘lidagi telefonlar, sigaretlar kabi kichik buyumlarni aniqlashda sezilarli ustunlikkka ega. Murakkab arxitekturaga qaramay YOLO v11 tez xulosa chiqarish tezligini saqlab qolgan va vaqtni sezgir haydovchi ilovalari uchun yuqori aniqlikka olib keladi. CSPNeXt va PANet arxitektur integratsiyasi tufayli YOLOv11 turli yorug‘lik sharoitlarida burchaklar va shumlar bo‘yicha yaxshi umumiylikka ega hisoblanadi. Model bir vaqtning o‘zida bir nechta chalg‘ituvchi omillar: telifon, chekish, esnashlarni bir kadrni aniqlay oladi va vaziyatdan xabardorlikni oshiradi. Integratsiyalar zamonaviy ramkalar PyTorch, ONNX bilan mosligi chekka qurilmalarda yoki bulutga asoslangan tizimlarda uzluksiz joylashtirish imkonini beradi. YOLOv11 asosidagi boshqaruv monitoring qilish tizimini natijaviy aniqlik real tajriba va sinovlarda samarali tarzda baholandi.

Belgilangan holat	Aniqlik	Izoh
Telefon ushlashni hisoblash	94-96 %	YOLOv11 kichik obyektlarni aniq aniqlaydi
Chekishni oshirish	92-95 %	signal va rang kontrastiyuqori darajadagi aniqligi yuqori

Ko‘z yumilishi	93-97 %	Mediapipe FaceMesh va CNN-LSTM birikmasi yordam beradi
Esnash	90-94 %	Og‘iz ochilishi va ketma-ket ramkalarni tahlil qiladi
Chalg‘ish	88-92 %	CNN-LSTM vaqtli ketma-ketliklar asosida tahlil qiladi
Umumiy aniqlik	93 %	Bir nechta model birlashtirilgan hisoblangan aniqlik

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, inson omilini hisobga olmasdan turib avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqish yetarli emas. Aksincha, haydovchining holati real vaqt rejimida monitoring qilinishi, ushbu ma’lumotlar asosida moslashtirilgan signal tizimlari va ogohlantirish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari, sun’iy intellektga asoslangan individual moslashuvchan algoritmlar yordamida haydovchining hatti-harakatini oldindan bashorat qilish mumkin bo‘ladi.

Haydovchi xatti-harakatlarini tizimli tahlil qilish orqali yo‘l-transport hodisalarining oldini olish mumkin. Ko‘rish, sensorik va kognitiv reaksiyalarni monitoring qilish, charchoqni aniqlovchi tizimlarni joriy qilish, sun’iy intellekt asosida tavsiyalar ishlab chiqish orqali avtomobil boshqaruvi xavfsizligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalnilgan adabiyotlar.

1. Лашков И.Б. Детектирование состояния зевоты у водителя транспортного средства при помощи модели сверточной нейронной сети. Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. 2022. Т. 22, № 1. С. 33–46. doi: 10.17586/2226-1494-2022-22-1-33-46
2. Yang, G.; Ridgeway, C.;Miller, A.; Sarkar, A. Comprehensive Assessment of Artificial Intelligence Tools for Driver Monitoring and Analyzing Safety Critical Events in Vehicles. Sensors 2024, 24, 2478. https://doi.org/10.3390/s24082478
3. Liu, S., Qi, L., Qin, H., Shi, J. va Jia, J. (2018). *Misol segmentatsiyasi uchun yo‘llarni yig‘ish tarmog'i (PANet)* . Kompyuterda ko'rish va naqshlarni aniqlash (CVPR) bo'yicha IEEE konferentsiyasi materiallarida.
4. Safarov, F.; Akhmedov, F.;Abdusalomov, A.B.; Nasimov, R.;Cho, Y.I. Real-Time Deep Learning-Based Drowsiness Detection: Leveraging Computer-Vision and Eye-Blink Analyses for Enhanced Road Safety.Sensors 2023, 23, 6459. https://doi.org/10.3390/s23146459

ORQAGA QAYTISH ALGORITMI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Adxamjonova M.U.
muxlisaadxamjonova@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Sun’iy intellekt yo‘nalishi 1-kurs talabasi.
Absalamova G.B.
gozalabdusalomova1996@gmail.com
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Sun’iy intellekt kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda orqaga qaytish (backtracking) algoritmining nazariy asoslari, ishlash mexanizmi va uning algoritmlar nazariyasidagi o‘rni yoritiladi. Algoritmning asosiy prinsipi — noto‘g‘ri tanlovda oldingi bosqichga qaytib, boshqa variantni sinab ko‘rish — rekursiv yondashuv orqali tushuntiriladi. Tezis kombinatorik va cheklovli muammolarni yechishda backtracking algoritmining samaradorligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: orqaga qaytish, backtracking, algoritm, rekursiya, N-Queens, permutatsiya

Zamonaviy kompyuter fanida ko‘plab algoritmlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos muammolarni yechishga mo‘ljallangan. Shunday algoritmlardan biri bu orqaga qaytish (backtracking)

usulidir. U muammoni rekursiv tarzda bosqichma-bosqich yechishga imkon beradi. Ushbu usul murakkab va kombinatorik muammolarni yechishda samarali bo‘lib, mos bo’lmagan yechimlar bo‘yicha ketayotgan holatlarda oldingi bosqichga qaytib, boshqa variantlarni sinab ko‘rish imkonini beradi.

Algoritm - algoritm bajaruvisi amalga oshiruvchi qaralayotgan masalalar sinfiga taalluqli bo‘lgan ixtiyoriy masalaning echimini topish uchun zarur bo‘lgan chekli sondagi amallar ketma-ketligi va mazmunini ifodalovchi formallashtirilgan va konstruktiv, aniq va to‘liq ko‘rsatalar tizimi vositasida realizatsiya qilinadi[1].

Algoritm –ma’lum maqsadlarga chekli sondagi qadamlarda erishishga qaratilgan xarakatlarning qat’iy aniqlangan ketma-katligidir.

Backtracking — bu "birinchi yondashuvda to‘g’ri yechim topilmasa, boshqa variantlar sinab ko‘riladi" degan prinsip asosida ishlaydi. Ayrim hisoblash muammolarining bir yoki bir nechta yechimlarini topish uchun ishlatiladigan umumiy algoritmik usul bo‘lib, u cheklovlarga asoslangan muammolar (Constraint Satisfaction Problems) va kombinatorik muammolarni hal qilishda keng qo‘llaniladi[2]. Bu usul yechimga nomzodlarni bosqichma-bosqich quradi va har bir bosqichda tanlov qiladi. Agar tanlangan yo‘l to‘g’ri yechimga olib kelmasligi yoki cheklovlarga mos kelmasligi aniqlansa, algoritm "orqaga qaytadi" — ya’ni, oldingi qaror nuqtasiga qaytib, boshqa alternativani sinab ko‘radi. Bu jarayon barcha mumkin bo‘lgan variantlar ko‘rib chiqilmaguncha yoki to‘g’ri yechim topilguncha davom etadi.

Backtracking algoritmlari quyidagilar uchun samarali hisoblanadi[3]:

Sudoku yoki shaxmat kabi mantiqiy o‘yinlar

Permutatsiya va kombinatsiyalarni hosil qilish

N-Queens (N-malika) muammosi

Labirintdan chiqish yoki yo‘l topish muammolari

So‘z topish yoki anagramma muammolari

Backtracking — bu muammoni yechishda har bir bosqichda ehtimoliy variantlarni sinab ko‘rib, noto‘g’ri yo‘ldan orqaga qaytib, to‘g’ri yechimni izlashga asoslangan kuchli va moslashuvchan algoritmik yondashuvdir.

Orqaga qaytish algoritmi bo‘yicha ushbu misolni hisoblaymiz:

Masalan, candidates nomli butun sonlar massivi va target nomli maqsadli butun son berilgan. Maqsad — massiv elementlarini (cheksiz marta ishlatish mumkin) qo‘shib targetga teng kombinatsiyalarni topish masalasini backtracking algoritmi yordamida yechilishi:

```
#include <iostream>
#include <vector>
using namespace std;
class Solution {
public:
vector<vector<int>> result;
void backtrack(vector<int>& candidates, int target, vector<int>& temp, int start) {
if (target < 0) return;
if (target == 0) {
result.push_back(temp);
return;
}
for (int i = start; i < candidates.size(); ++i)
 {
temp.push_back(candidates[i]);
backtrack(candidates, target - candidates[i], temp, i);
temp.pop_back();
}
}
vector<vector<int>> combinationSum(vector<int>& candidates, int target) {
vector<int> temp;
```

```
backtrack(candidates, target, temp, 0);
return result;
}
};
int main() {
Solution sol;
vector<int> candidates = {2, 3, 6, 7};
int target = 7;
vector<vector<int>> combinations = sol.combinationSum(candidates, target);
cout << "Natijalar:\n";
for (const auto& comb : combinations) {
cout << "[ ";
for (int num : comb) {
cout << num << " ";
}
cout << "]\n";
}
return 0;
}
```

Natijalar:
[2 2 3]
[7]

Orqaga qaytish algoritmi – bu yechimni topish uchun barcha ehtimoliy yechimlarni tekshiradigan, balandlik bo’yicha qidiruv (DFS) yondashuviga asoslangan usullardan biridir[4,5]. Bu algoritm, xususan kombinatorik va cheklovlarga asoslangan muammolarni hal qilishda keng qo‘llaniladi.

Orqaga qaytish algoritmining *afzalliklari* quyidagilardan iborat:

Oddiy va tushunarli: Ko‘plab masalalar uchun bu yondashuvni anglash va dasturlashga tatbiq etish juda oson.

Moslashuvchan: Har xil turdagi muammolar, xususan kombinatorik hisoblashlar va cheklovlarni bajarishga asoslangan masalalarga moslashadi.

To‘liq qamrovli izlanish: Mavjud bo‘lsa, barcha imkoniyatlarni ko‘rib chiqib, kerakli yechimni topishni kafolatlaydi.

Keraksiz yechimlarni dastlabki bosqichdanoq istisno qilish (Azizillo): Maqsadga olib bormaydigan yo‘nalishlarni erta aniqlab, izlanish maydonini ancha qisqartiradi.

Murakkab masalalarni yechish qobiliyati: Murakkab cheklovlar yoki noaniq shartlar bo‘lgan holatlarda ham ishonchli yechim taqdim eta oladi.

Orqaga qaytish algoritmining *kamchiliklari* quyidagilardan iborat:

Yuqori vaqt murakkabligi: Barcha imkoniyatlarni tekshirish zarurati sababli ba’zi hollarda juda sekin ishlashi mumkin. Bu esa ko‘pincha eksponensial vaqt talab qiladi.

Katta xotira sarfi: Keng va chuqur rekursiv chaqiruvlar juda ko‘p operativ xotira talab qiladi.

Katta o‘lchamdagi masalalar uchun samarasiz: Kombinatsiyalarning haddan tashqari ko‘pligi tufayli yirik miqyosli muammolar uchun amaliy yondashuv emas.

Optimal bo‘lmagan natijalar: U to‘g’ri yechimni bersa-da, ba’zida eng yaxshi yoki eng samarali variantni topmasligi mumkin, agar alohida optimallashtirishlar bajarilmasa.

Yaxshi kesish strategiyalariga bog’liqlik: Orqaga qaytish samaradorligi ko‘pincha to‘g’ri amalga oshirilgan kesish (pruning) texnikalariga bog’liq bo‘ladi, bu esa murakkablashtirishi mumkin.

Orqaga qaytish algoritmlari kombinatorik muammolarni hal etishning samarali usulidir. Ular orqali barcha yechimlar topilishi mumkin, ammo optimallashtirish va resurslar bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, kombinator masalalar, yo‘l topish, tartiblash, mantiqiy o‘yinlar (masalan, sudoku, n-qirol masalasi) kabi sohalarda bu algoritm o‘zining yuqori aniqligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Amaliyotda orqa qaytish algoritmi nafaqat mustaqil yechim sifatida, balki boshqa algoritmlar bilan integratsiyada ham (masalan, heuristik usullar, cheklovlar asosida dasturlash bilan) samarali natijalar bergani kuzatildi. Shu bilan birga, bu algoritmning asosiy kamchiligi hisoblangan hisoblash murakkabligini kamaytirish uchun turli optimallashtirish usullarini qo‘llash lozimligi ta’kidlandi.

Kelajakda bu algoritmni sun’iy intellekt, marshrutlash, logistika va boshqaruv tizimlariga qo‘llash istiqbollari mavjud bo‘lib, aynan real vaqtda ishlovchi tizimlar uchun yengil va tezkor versiyalarini ishlab chiqish ilmiy izlanishlar uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Aripov va boshqalar. Informatika va informatsion texnologiyalar, Oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent-2019 y. 230-b
2. Moghimi, O.; Amini, A. A Novel Approach for Solving the N-Queen Problem Using a Non-Sequential Conflict Resolution Algorithm. *Electronics* **2024**, *13*, 4065. https://doi.org/10.3390/electronics13204065
3. Pan, X.; Cheng, Z.; Zhang, Y. Two Improved Constraint-Solving Algorithms Based on lmaxRPC3^{rm}. *Symmetry* **2023**, *15*, 2151. https://doi.org/10.3390/sym15122151
4. H. Lloyd and M. Amos, “Solving Sudoku with Ant Colony Optimization,” IEEE Trans Games, vol. 12, no. 3, pp. 302–311, Sep. 2020, doi: 10.1109/TG.2019.2942773
5. Gembarski, P.C. Joining Constraint Satisfaction Problems and Configurable CAD Product Models: A Step-by-Step Implementation Guide. *Algorithms* **2022**, *15*, 318. https://doi.org/10.3390/a15090318

QARORLAR DARAXTI YORDAMIDA KLASSIFIKATSIYALASH VA PROGNOZLASH METODLARI

Norqulova Ziyoda Nabi qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti
ziyodanorqulova88@gmail.com
Hilola Suvanova Ali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
suvonovahilola06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda klassifikatsiyalash va prognozlash metodlarining umumiy tushunchasi hamda ularning zamonaviy axborot texnologiyalaridagi o‘rni yoritilgan. Ayniqsa, yechimlar daraxti algoritmi chuqur tahlil qilinib, uning ishlash prinsipi, asosiy algoritmlari, afzallik va kamchiliklari yoritilgan. Tezisda yechimlar daraxtining ma’lumotlarni analiz qilishdagi samaradorligi va oddiyligi ta’kidlanadi. Shuningdek, uni boshqa murakkab modellar bilan birlashtirish orqali yanada kuchli tahlil tizimlarini yaratish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Ushbu ish sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va mashinaviy o‘rganish sohalarida tadqiqot olib boruvchi talabalar va mutaxassislar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: Klassifikatsiya, prognozlash ,daraxt, yechimlar daraxti, barg, tugun, ildiz, ikkilik yechimlar daraxti, daraxt qurish,Big Data,

Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohalarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatda ma’lumotlar bilan ishlashga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) inson uchun sezilarli darajada qiymatga ega bo‘lishi mumkin, biroq bu ma’lumotlardan foydali xulosalar chiqarish uchun samarali metodlarga ehtiyoj katta. Shunday metodlardan biri bu — klassifikatsiyalash va prognozlash usullaridir. Bu metodlar yordamida turli jarayonlarni tahlil qilish, ularning natijalarini oldindan aniqlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bulardan biri yechimlar daraxati hisoblanadi va u 1950-yillarning oxirlarida Xovelend va Xant tomonidan taklif qilingan. Yechim daraxtlarining mohiyatini bayon etgan Xant va boshqalarning eng qadimgi va taniqli asari "Induksiyadagi tajribalar" 1966 yilda nashr etilgan[1]. Yechimlar daraxtining eng sodda usuli bu “Ha”

yoki “Yo‘q” degan savollarga javob berish orqali tuziladi. Keling, buni bitta misol orqali tushuntirishdan oldin yechimlar daraxti nima ekanligini ko‘rib chiqamiz. **Daraxt** - bu bog‘langan asiklik graf, ya’ni sikllar yo‘q va uchlar juftligi orasida bitta yo‘l bor (1-rasm). Kirishning nol darajasiga ega bo‘lgan uch daraxtning ildizi, chiqish nol darajaga ega tugunlar esa barglar deb nomlanadi. Ya’ni yechimlar daraxti ham xuddi shunday ikkita yo’ldan iborat bo‘ladi. Endi yechimlar daraxtiga misol ko‘rib chiqamiz.



1-rasm.

Yechimlar daraxtini loyihalash jarayoni. Yechim daraxtlarini qurish algoritmlari daraxtni "qurish" yoki "yaratish" (daraxt qurish) va daraxtni "kesish" (daraxtlarni kesish) bosqichlaridan iborat. Daraxt yaratish jarayonida bo'linish va mashg'ulotni to'xtatish mezonini tanlash masalalari hal qilinadi (agar algoritmda nazarda tutilgan bo'lsa). Daraxtlarni qisqartirish bosqichida uning ba'zi shoxlarini kesish masalasi hal qilinadi. Keling, ushbu masalalarni batafsil ko’rib chiqaylik.

Bo’linish mezoni. Daraxti yuqoridan pastga qarab tuziladi. Bu jarayonda algoritm ma’lumotlar to‘plamini mos sinov tuguniga bog‘liq holda kichik guruhlarga ajratish uchun mos ajratish mezonini tanlashi lozim. Ushbu mezonlar ayrim hollarda "bo‘lish qoidalari" deb ham ataladi. Har bir sinov tuguni muayyan atribut (xossa, belgi) asosida belgilanadi. Atributni tanlashda asosiy maqsad — dastlabki ma’lumotlarni shunday ajratish kerakki, natijada hosil bo‘lgan kichik guruhlarning ichida asosan bir xil toifaga mansub elementlar joylashgan bo‘lsin yoki bunga iloji boricha yaqin holatga keltirilsin. Bu degani, har bir sinf ichida boshqa sinflarga oid elementlar — ya’ni, "aralashmalar" yoki "begona elementlar" — iloji boricha kamaytirilishi zarur.

Daraxt qurishni to'xtatish. Endi to‘xtatish mezonlarini ko‘rib chiqamiz. Ya’ni, daraxtning har bir tuguni oraliq (ichki) tugun bo‘ladimi yoki u so‘nggi (yakuniy) tugun sifatida qoladimi – shuni aniqlash masalasi.

To‘xtatish – bu qaror daraxtini qurish jarayonida navbatdagi bo‘linishlarni to‘xtatish zarur bo‘lgan bosqichni anglatadi. To‘xtatishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri bu "erta to‘xtatish" (yoki oldindan ajratishni cheklash) bo‘lib, u tugunni bo‘lish foydalimi yoki yo‘qmi – shuni belgilaydi. Ushbu yondashuvning afzallik tomoni shundaki, u modelni o‘qitish vaqtini kamaytiradi. Biroq, bu yondashuv tasniflash (klassifikatsiya) aniqligini kamaytirish xavfini tug‘diradi. Shu sababli, "to‘xtatish o‘rniga qirqish (budama)ni qo‘llash" afzalroq hisoblanadi (Breiman, 1984).To‘xtatishning yana bir varianti — daraxt chuqurligiga cheklov qo‘yish. Bunda daraxt qurilishi oldindan belgilangan maksimal chuqurlikka yetganda avtomatik tarzda to‘xtatiladi.Yana bir usul — barg tugunlardagi namunalar (misollar) soniga minimum chegarani belgilash. Bu usulda tugunlar faqatgina barglarda yetarli miqdorda misollar mavjud bo‘lguncha, yoki har bir tugun yetarlicha "toza" (ya’ni bir xil sinfga oid) bo‘lguncha bo‘linishda davom etadi.To‘xtatishga oid turli mezonlar mavjud, ammo ularning hech biri umumiy holda mukammal deb hisoblanmaydi. Ba’zilari faqat muayyan holatlardagina samarali bo‘ladi.

Daraxtni qisqartirish yoki novdalarni kamaytirish. Haddan tashqari murakkab va kengayib ketgan daraxt muammosini hal qilishning samarali yo‘li — uning ayrim tarmoqlarini qisqartirish orqali soddalashtirishdir. Qaror daraxti asosida yaratilgan klassifikatsiya (tasniflash) modeli quyidagi ikki asosiy ko‘rsatkich bilan baholanadi: aniqlik darajasi va xato qilish ehtimoli.

Tanib olish aniqligi — bu o‘qitish (mashq) jarayonida to‘g‘ri ajratilgan (klassifikatsiya qilingan) ob’yektlar sonining, umumiy mashg‘ulot ma’lumotlar to‘plamidagi ob’yektlar soniga nisbati sifatida aniqlanadigan ko‘rsatkichdir.

Optimal ajratish qoidalarini tanlashda qo‘llaniladigan bo‘linish sifatini baholovchi asosiy mezonlardan biri — Gini indeksi hisoblanadi. Bu funksiya tugunlardagi noaniqlik darajasini kamaytirish prinsipiga asoslanadi. Faraz qilaylik, bir tugun mavjud va u ikki xil sinfga ajratiladi. Tugundagi eng yuqori noaniqlik holati — bu 50 ta misoldan iborat ikkita teng guruhga bo‘linishdir, ya’ni har ikkala sinfda misollar soni bir xil. Aksincha, eng yuqori aniqlik holati esa — barcha 100 ta misol faqat bitta sinfga, ikkinchi sinf esa 0 misolga ega bo‘lgan taqsimotda yuz beradi.

Gini indeksi. Gini indeksi — bu klassifikatsiya daraxtlarida tugundagi aralashlik (noaniqlik) darajasini o‘lchaydigan mezon. U tugun qanchalik “toza” yoki “iflos” ekanini baholash uchun ishlatiladi. Oddiy qilib aytganda, Gini indeksi shuni aniqlaydi.“Agar biz tasodifiy tanlov qilsak, bu tanlov noto‘g‘ri sinfga tushish ehtimoli qancha?”

$Gini(p) = 1 - (p_1^2 + p_2^2 + ... + p_n^2)$

Bu yerda:

$p_1, p_2, ..., p_n$ — sinflarning ehtimollari (foiz ko‘rinishida emas, 0 dan 1 gacha),

n — sinflar soni.

Tushunarli misol:

Faraz qilaylik, bir tugunda 100 ta ob’ekt bor va ular ikki sinfga bo‘lingan:

70 ta — A sinf,

30 ta — B sinf.

Demak:

p(A) = 0.7

p(B) = 0.3

Gini = $1 - (0.7^2 + 0.3^2) = 1 - (0.49 + 0.09) =$ **0.42**. Bu degani: tugun **toza emas**, ya’ni sinflar aralashgan.Qachon Gini eng kichik bo‘ladi?

Agar tugunda **faqat bitta sinf** bo‘lsa (masalan, 100 ta A, 0 ta B), u holda:

Gini = $1 - (1^2 + 0^2) = 0 \rightarrow$ **tugun toza**.

Gini indeksi — bu tasniflash modellari, xususan, qaror daraxtlarida tugundagi sinflarning aralashligini o‘lchaydigan ko‘rsatkichdir. U tugunning qanchalik “toza” yoki sinflar bo‘yicha qanchalik aniq ajratilganini ifodalaydi. Gini indeksi qanchalik kichik bo‘lsa, tugun shunchalik yaxshiroq ajratilgan hisoblanadi. Qaror daraxtini qurishda maqsad — har bir bo‘linishda Gini indeksini kamaytirish, ya’ni toza va aniq sinf guruhlarini olishdir. Shu tarzda, modelning aniqligi oshadi va xatolik kamayadi. Umumiy holda shuni aytish mumkinki, daraxtlarini qurishda optimal bo‘linishni tanlash uchun Gini indeksi kabi sifat baholash funktsiyasi qo‘llaniladi. Gini indeksi tugundagi noaniqlikni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, u tugun ichidagi ob’ektlarning sinflarga taqsimlanish darajasini o‘lchaydi. Tugundagi noaniqlik maksimal bo‘lsa, ya’ni ob’ektlar teng taqsimlangan bo‘lsa, Gini indeksi yuqori bo‘ladi; aksincha, agar barcha ob’ektlar bitta sinfga to‘plangan bo‘lsa, indeks minimal qiymatga ega bo‘ladi. Shuning uchun, qaror daraxti qurishda maqsad — har bir bo‘linishda Gini indeksini kamaytirish, ya’ni ob’ektlarni imkon qadar toza va aniq sinflarga ajratishdir. Bu modelning aniqligini oshirishga yordam beradi.

Qaror daraxtlari iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, har bir tugun ma'lumotlarning muhim xususiyatlariga asoslangan qaror qabul qilish qoidalarini ifodalaydi. Daraxt quyidagicha tuziladi:

Ildiz tugun: Ma'lumotlarning barcha to'plamini o'z ichiga oladi va birinchi qoidaga asoslanib bo'linishni amalga oshiradi.Ichki tugunlar: Ma'lumotlarni xususiyatlarga ko'ra keyingi kichikroq qismlarga ajratadi.Barg tugunlar: Yakuniy qarorlarni yoki baholash natijalarini o'zida mujassam etadi[3].

Yechimlar daraxtiga misol: kvadrat tenglamani faqat manfiy yoki faqat musbat yechimlar yig‘indisini toping degan masala berilgan bo‘lsin. Bunda yechimlar daraxti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (2-rasm). Matematik usulda ishlangani kabi diskerinant topiladi va “ha” yoki “yo‘q” savollarga javob berish orqali kerakli natijaga boriladi. Bu yechimlar draxtining soda ko’rinishlaridan biri. Bu masalani oddiy matematik formulalar yordamida inson o‘zi yech olishi mumkin albatta. Ammo shunday

muammolar borki, inson bu muammolarni qo‘lda hisoblashga qiynaladi va aynan shu muammolarni yechish uchun ham ushbu klassifikatsiyalash va prognozlash metodlari ishlab chiqilgan.



2-rasm.

Klassifikatsiya bu — berilgan ma’lumotni oldindan aniqlangan toifalarga (kategoriya, sinf) ajratish usuli. Ya’ni bir ma’lumot turi bunga tegishlimi yoki yo‘q degan savollarga javob beradi (1-jadval).

Soha	**Misol**
Tibbiyot	Kasallik bor yoki yo‘q
Bank	Kredit to‘lov qila oladimi, yo‘qmi
Savdo	Xaridor mahsulotni yoqtiradimi yoki yo‘qmi
Kompyuter	Suratdagi obyektni aniqlash

Bu jadvaldan ko‘rish mumkinki klassifikatsiyalash metodlarni har bir sohada qo‘llash mumkin. Ya’ni kompyuterga ma’lumotlarni o’qitish orqali ularni sinflarga yoki qandaydur qonunlarga bo‘ysunga holatda toifalarga ajratish zamonaviy dunyoning har bir sohasida keng qo‘llaniladi.

Endi prognozlash usullarini ko‘rib chiqamiz. Prognozlash — bu
kelajakdagi qiymatni oldindan aytish. Bu yerda natija sonli bo‘ladi va keng qo‘llaniladi (2-jadval).

Soha	**Misol**
Iqtisodiyot	Neft narxini bashorat qilish
Qishloq xo‘jaligi	Hosil miqdorini oldindan aytish
Marketing	Savdo hajmini prognoz qilish
Meteorologiya	Ob-havoni bashorat qilish

Masalan, oddiy ob-havo ma’lumotlarini aniqlashda ham prognozlash
metodlari qo‘llaniladi. Bir necha oylik, haftalik yoki kunlik ma’lumotlar hisoblanib bugungi hattoki 5 kunlik ma’lumotlargacha taxmin qilish imkonini beradigan metod hisoblanadi prognozlash. Bundan tashqari prognozlash davrlari degan tushuncha ham bor. Prognoz davrlari-kelajakda bajarilishi kerak bo‘lgan qadamlar soni[2]. Ya’ni kompyuter tomonida tahmin qilingan ma’lumotlrni qaysi davrda sodir bo‘lishini tavsiflaydigan tushuncha.

Klassifikatsiyalash va prognozlash metodlari zamonaviy ma’lumotlarni tahlil qilishda, sun’iy intellekt va mashina o‘rganishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu metodlar yordamida ma’lumotlar to‘plamidagi ob’yektlar turkumlarga ajratiladi yoki ularning kelajakdagi holati haqida

taxminlar qilinadi. Yechimlar daraxti (qaror daraxti) esa ushbu jarayonlarni sodda, tushunarli va samarali amalga oshirish imkonini beruvchi kuchli vositadir.Daraxt strukturasining yuqoridan pastga qarab qurilishi jarayonida, har bir sinov tuguni ma’lum atributlar asosida ajratiladi. Atributni tanlash mezonlari, jumladan Gini indeksi kabi sifat baholash funktsiyalari, daraxtning sifatli va samarali bo‘linishini ta’minlaydi. To‘xtatish qo‘llanmalari daraxtning haddan tashqari murakkablashib ketishini oldiniolib, modelning umumlashganligini oshiradi va ortiqcha moslashish (overfitting) muammosini kamaytiradi.Yechimlar daraxti modeli aniq va tushunarli qaror qoidalarini ishlab chiqishga yordam beradi, bu esa uni biznes, tibbiyot, moliya kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladigan vositaga aylantiradi. Shu bilan birga, klassifikatsiya va prognozlash usullarining to‘g‘ri tanlanishi va samarali qo‘llanilishi modelning aniqligi va ish faoliyatining yuqori darajasini ta’minlaydi.Umuman olganda, klassifikatsiya va prognozlash metodlari va ularning yechimlar daraxtlari asosidagi yondashuvlari ma’lumotlarni samarali tahlil qilish, qarorlarni avtomatlashtirish va yanada aniq natijalar olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xazratov, F. X., Atamuradov, J. J., & Eshonqulov, H. I. (2021). Big Data va ma’lumotlar tahlili[O‘quv qo‘llanma]. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
2. Arabova, F. A., Onarkulov, M. K., & Yusupov, M. A. (2023). Prognozlash va vizualizatsiya. Ta’lim, Tarbiya va Innovatsiyalar, 1(Dekabr), 124–132.
3. Onarqulov, M. K., Yusupov, M. A., & Xudoyberdiyev, N. Z. (2023). Qarorlar daraxtini qurish algoritmlari. *İzlanuyçi İlmiy-Metodik Jurnali, 1*, 32–38.
4. Norqulova, Ziyoda. "DATA VISUALIZATION STEPS TO SORT DATA BY REMOVING MISSING VALUES AND CONVERTING DATA TO NUMERIC TYPE." DTAI–2024 1.DTAI (2024): 37-39.
5. Muminov, Bahodir, and N. Z. Norqulova. "VIZUALIZATSIYA MASALALARIDA SUN’IY INTELLEKTNING ROLI." DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE 1.1 (2023): 7-14

RAQAMLI PLATFORMALARNING IJTIMOIY XIZMATLARDA FOYDALANILISH TAJRIBASI

Olimova Mukhlisa Vokhidjon qizi, mukhlis.olimova1323@gmail.com, Tashkent State University of Economics, Senior Lecturer at the Department of Artificial Intelligence, orcid: 0009-0000-0990-3079
Isoqova Adiba Shamshidin qizi, a.isokova@tsue.uz, Tashkent State University of Economics, Assistant at the Department of Artificial Intelligence, orcid: 0009-0000-6540-6616

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda raqamli platformalar ijtimoiy xizmatlar sohasini transformatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu platformalar davlat institutlari, xususiy sektor va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni soddalashtirib, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, shaffoflikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi nafaqat vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartirishga, balki aholining turli qatlamlari, xususan, chekka hududlarda yashovchi fuqarolar uchun xizmatlardan foydalanishni qulaylashtirishga ham xizmat qiladi. Ushbu bo‘limda raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlarda qo‘llanilishiga oid xalqaro va mahalliy tajribalar tahlil qilinadi, ularning texnologik asoslari va amaliy natijalari faktlar va statistik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqiladi.

Xalqaro tajriba - raqamli platformalarning samaradorligi

Raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlarda qo‘llanilishi bo‘yicha eng muvaffaqiyatli tajribalardan biri Janubiy Koreyaning “K-Government” tizimidir. Ushbu tizim 2000-yillarning boshidan boshlab joriy etilib, 2023 yilga kelib aholining 92% dan ortig‘ini raqamli xizmatlar bilan qamrab olgan. “K-Government” orqali fuqarolar pensiya hisoblash, sog‘liqni saqlash xizmatlari, ish bilan ta’minlash va hatto ovoz berish kabi jarayonlarni onlayn tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega. Janubiy Koreya hukumatining ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli platformalar tufayli ma’muriy jarayonlarning o‘rtacha

bajarilish muddati 5-7 ish kunidan 1-2 soatgacha qisqargan, bu esa davlat xizmatlari samaradorligini 40% ga oshirgan. Shu bilan birga, ushbu tizim yagona raqamli identifikator (K-ID) asosida ishlaydi, bu esa ma’lumotlarning xavfsizligi va integratsiyasini ta’minlaydi.

Estoniya misoli ham diqqatga sazovor. “e-Estonia” loyihasi doirasida 2002 yildan boshlab raqamli infratuzilma yaratilib, 2024 yil holatiga ko‘ra, aholining 99% dan ortig‘i raqamli shaxsiy identifikatsiyaga (ID-card) ega. Ushbu tizim orqali ijtimoiy xizmatlarning 98% i onlayn tarzda taqdim etiladi. Masalan, fuqarolar pensiya so‘rovlarini yuborishdan tortib, bolalar nafaqasini rasmiylashtirishgacha bo‘lgan jarayonlarni bir necha daqiqada yakunlay oladi. Estoniya Hukumatining 2023 yilgi hisobotiga ko‘ra, raqamli platformalar tufayli yiliga 800 ming soatdan ortiq vaqt tejaladi va davlat byudjetidan qariyb 2% (taxminan 140 million yevro) iqtisod qilinadi. Bu tajriba raqamli platformalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.

Hindistonda “Aadhaar” tizimi ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirishning yana bir muvaffaqiyatli namunasidir. Ushbu biometrik identifikatsiya tizimi 2009 yilda ishga tushirilgan bo‘lib, 2024 yilga kelib 1,35 milliard fuqaroni qamrab olgan. “Aadhaar” orqali ijtimoiy yordam dasturlari, xususan, oziq-ovqat subsidiyalari va naqd pul o‘tkazmalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanuvchilarning bank hisoblariga yetkaziladi. Hindiston Hukumatining ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu tizim joriy etilgandan so‘ng ijtimoiy to‘lovlardagi yo‘qotishlar 25% ga kamaygan va yiliga 12 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag‘ tejalgan. Bu raqamli platformalar shaffoflikni oshirish va korruptsiyani kamaytirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.



O‘zbekistondagi tajriba - hozirgi holat va imkoniyatlar

O‘zbekistonda raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlarda qo‘llanilishi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida 2019 yildan boshlab faol rivojlanmoqda. “Yagona portal” (my.gov.uz) ushbu jarayonning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, 2024 yil holatiga ko‘ra, unda 300 dan ortiq davlat xizmatlari, shu jumladan ijtimoiy xizmatlar (pensiya tayinlash, subsidiyalar va nogironlik nafaqalari) taqdim etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda ushbu portal orqali 5 milliondan ortiq so‘rov qayta ishlangan, bu esa 2020 yilga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. Shu bilan birga, aholining faqat 65% i ushbu platformadan foydalanish imkoniyatiga ega, chunki internetga ulanish darajasi va raqamli savodxonlik hali ham cheklangan.

Mahalliy tajribada “E-Mahalla” tizimi ham e’tiborga molik. Ushbu tizim mahalla fuqarolar yig‘inlari darajasida ijtimoiy yordam so‘rovlarini raqamli tarzda qabul qilish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan. 2023 yilda ushbu tizim orqali 150 mingdan ortiq so‘rov qayta ishlangan bo‘lib, bu mahalliy darajada xizmat ko‘rsatish jarayonini 20-25% ga tezlashtirgan. Biroq, turli idoralar o‘rtasidagi ma’lumotlar bazalarining integratsiyasi yetarli darajada emasligi va foydalanuvchilarning raqamli ko‘nikmalarining pastligi tufayli tizimning to‘liq imkoniyatlaridan foydalanish cheklanmoqda.

Texnologik asoslar va kelajakdagi imkoniyatlar

Raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi zamonaviy texnologiyalarga, xususan, sun’iy intellekt (SI), katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash (Cloud Computing) ga tayanadi. Masalan, AQShning “Healthcare.gov” platformasi SI yordamida

foydalanuvchilarning sog‘liqni saqlash ehtiyojlarini tahlil qilib, ularga mos sug‘urta dasturlarini tavsiya qiladi. 2023 yilda ushbu platforma orqali 20 milliondan ortiq fuqaro sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalangan, bu esa xizmat ko‘rsatish jarayonini 35% ga optimallashtirgan.

Mamlakat	Qamrov (%)	Tejalgan mablag‘ (mlrd $)	So‘rovlar soni (mln)
Janubiy Koreya	92	-	-
Estoniya	99	0.14	-
Hindiston	98	12	-
O‘zbekiston	65	-	5

Muammolar va cheklovlar

Raqamli platformalarni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, raqamli tafovut (digital divide) muammosi aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Jahon Bankining 2023 yilgi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda internetga ulanish darajasi 70% ni tashkil etadi, ammo qishloq hududlarida bu ko‘rsatkich 50% dan past. Ikkinchidan, kiberxavfsizlik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Masalan, 2022 yilda “Yagona portal” tizimida ma’lumotlar sizib chiqishi holatlari qayd etilgan, bu esa shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi bo‘yicha qo‘shimcha choralar talab qilinishini ko‘rsatadi. Uchinchidan, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi pastligi tufayli platformalardan foydalanish darajasi cheklanmoqda. O‘zbekiston Statistika Agentligining 2023 yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, 35 yoshdan oshgan aholining faqat 40% i raqamli xizmatlardan mustaqil foydalana oladi.

Ijtimoiy xizmatlarda raqamli platformalarning o‘rni

Ijtimoiy xizmatlar – bu davlat va xususiy sektor tomonidan aholiga taqdim etiladigan turli yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimlari bo‘lib, ular sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik, ijtimoiy ta’minot va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Raqamli platformalar quyidagi yo‘nalishlarda faol qo‘llanilmoqda:

Sog‘liqni saqlash – telemeditsina xizmatlari, elektron kasallik tarixlari va onlayn konsultatsiyalar;

Ta’lim – onlayn kurslar, elektron kutubxonalar, masofaviy ta’lim platformalari va o‘quv jarayonini avtomatlashtirish tizimlari;

Ijtimoiy ta’minot – elektron pensiya tizimi, subsidiyalar, davlat yordam dasturlari va ehtiyojmand qatlamlarga mo‘ljallangan xizmatlar;

Bandlik va ish bilan ta’minlash – onlayn rezyume platformalari, masofaviy ish qidirish tizimlari, ishga joylashtirish bo‘yicha maslahat xizmatlari;

Huquqiy xizmatlar – elektron notarial xizmatlar, sud jarayonlarining onlayn platformalar orqali amalga oshirilishi.

Ilmiy tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlarga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Masalan:

Jahon Bankining tadqiqotlariga ko‘ra, elektron hukumat tizimlari joriy etilgan mamlakatlarda davlat xizmatlariga bo‘lgan ishonch 25-30% ga oshgan.

Yevropa Ittifoqi tadqiqotlari masofaviy ta’lim platformalarining pandemiya sharoitida ta’lim sifatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatmoqda.

MIT (Massachusetts Institute of Technology) universiteti tadqiqotchilarining tahliliga ko‘ra, tibbiyot sohasida raqamli platformalar ishlatilishi bemorlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini 40% ga oshirishga yordam bergan.

McKinsey & Company kompaniyasi o‘tkazgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari ijtimoiy xizmatlar samaradorligini 35% ga oshirishga olib kelgan.

PwC (PricewaterhouseCoopers) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, raqamli platformalar orqali ijtimoiy yordam dasturlarining yetkazib berilishi kam ta’minlangan qatlamlarga xizmat ko‘rsatish samaradorligini 50% ga oshirgan.

Bundan tashqari, SI (sun’iy intellekt) texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish tizimlari foydalanuvchilarning muammolarini aniq prognoz qilish imkonini bermoqda. Masalan:

IBM Watson Health sun’iy intellekt tizimi sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni erta aniqlash imkoniyatini 45% ga oshirishga xizmat qilmoqda.

Google AI tadqiqotlari ko‘rsatishicha, SI asosida ishlovchi raqamli platformalar yordamida nogironlar va keksa yoshdagilarga xizmat ko‘rsatish sifati 20-25% ga oshgan.

1. Elektron hukumat va davlat xizmatlari. Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, elektron hukumat tizimlarini joriy etish davlat xizmatlarining samaradorligini oshiradi va fuqarolarning ularga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. Masalan, O‘zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida davlat xizmatlarining sifati yaxshilangan.

2. Masofaviy ta’lim platformalari. Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan tadqiqotlar pandemiya davrida masofaviy ta’lim platformalari ta’lim sifatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatdi. Masalan, Germaniyada o‘tkazilgan tadqiqotda masofaviy ta’lim vositalari o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan.

3. Tibbiyot sohasida raqamli platformalar. Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, tibbiyot sohasida raqamli platformalardan foydalanish bemorlarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini 40% ga oshirgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko‘rsatish tizimlari foydalanuvchilarning muammolarini aniq prognoz qilish imkonini bermoqda.

4. Tibbiy ta’limda raqamli texnologiyalar. Tibbiy ta’limda zamonaviy IT-texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3D raqamli o‘yinlar va virtual reallik (VR) texnologiyalari bo‘lajak shifokorlarning ko‘nikmalarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, Florida shtati tibbiyot universiteti kollejida o‘tkazilgan tadqiqotda 3D raqamli o‘yinlar yordamida talabalarning ko‘z-qo‘l koordinatsiyasi va reflekslari yaxshilangan.

Ushbu tadqiqotlar raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirish va foydalanuvchilarning qoniqishini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Xulosa

Raqamli platformalar ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Ular xizmatlarning sifatini oshirish, ulardan foydalanish qulayligini ta’minlash va resurslarni samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Biroq, ushbu platformalarning keng qo‘llanilishi uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, huquqiy asoslarni mustahkamlash va raqamli savodxonlikni oshirish zarur.

Kelajakda raqamli platformalarning yanada rivojlanishi, ijtimoiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shishi kutilmoqda. Xususan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish orqali xizmatlarning yanada ishonchli va shaffof bo‘lishiga erishish mumkin. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, raqamli platformalarni yanada samarali ishlashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jahon Banki. (2023). Raqamli rivojlanish bo‘yicha umumiy ko‘rinish: O‘zbekiston. https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment saytidan olingan.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2024). Elektron hukumat so‘rovi 2024: Barqaror rivojlanish uchun raqamli hukumat. Nyu-York: BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘limi.
3. OECD. (2023). Davlat xizmatlarida raqamli transformatsiya: Estoniya va Janubiy Koreya misollari. Parij: OECD nashriyoti.
4. McKinsey & Company. (2022). Raqamli platformalarning ijtimoiy xizmatlar samaradorligiga ta’siri. https://www.mckinsey.com/business-functions/mckinsey-digital saytidan olingan.

AUTOMATIC DATASET AUGMENTATION TECHNIQUES FOR FAKE NEWS DETECTION MODELS

Omonov Sanjarbek G'anisher o'g'li[1], Xo'jamqulov Abdulaziz Xazrat o'g'li[1], Hakimov O'ktam Axtam o'g'li[1], Mamatkulov Anvar Rashidovich[2]
omonovsanjar94@gmail.com, abdulazizxojamqulov47@gmail.com, hakimovoktam77@gmail.com, ovvlovulanva@gmail.com
[1]*Tashkent state university of economics,*
[2] *University of Management and Future Technologies*

Abstract: This article explores various augmentation techniques, including textual transformations, contextual embeddings, GAN-based synthetic data generation, and multimodal augmentation, highlighting their impact on model performance and generalization. Key challenges are discussed, such as quality control, computational demands, and potential biases introduced through augmentation. Future directions, including hybrid human-AI augmentation, meta-learning, and real-time adaptive pipelines, are proposed to overcome these challenges and further improve fake news detection capabilities. Through a balanced approach that leverages both automation and human oversight, dataset augmentation can significantly enhance model robustness, enabling more accurate detection of evolving misinformation tactics.

Keywords: Fake News Detection, Dataset Augmentation, Machine Learning, Natural Language Processing (NLP), Generative Adversarial Networks (GANs), Contextual Embeddings**,** Multimodal Augmentation**,** Meta-Learning**,** Hybrid Augmentation.

1 Introduction

In recent years, the proliferation of fake news across digital platforms has posed significant challenges to society, influencing public opinion, shaping political outcomes, and impacting social stability. As a result, developing robust methods for accurately detecting fake news has become a critical focus within the fields of data science, machine learning, and artificial intelligence[6]. Central to the success of these detection systems is the availability of high-quality, diverse datasets. However, the dynamic nature of fake news, along with language and cultural variations, often limits the availability of labeled data necessary for training reliable models.

Dataset augmentation has emerged as a promising solution to address the issue of limited labeled data. By artificially increasing the size and diversity of datasets, augmentation techniques can enhance model performance, improve generalization, and help mitigate bias. These techniques involve creating new data points from existing ones through various transformations, such as text paraphrasing, synonym replacement, and even advanced methods like back-translation or contextual embeddings [10].

This article explores the potential of automatic dataset augmentation in the field of fake news detection. We will examine different augmentation methods, from simple textual transformations to sophisticated AI-driven techniques, and discuss their applications, benefits, and limitations in training fake news detection models. Through this exploration, we aim to provide a comprehensive overview of how automatic dataset augmentation can empower fake news detection models to be more resilient, adaptive, and capable of addressing the evolving challenges posed by digital misinformation [11].

2 IMPLEMENTATION AND METHODOLOGY

The implementation of dataset augmentation for fake news detection involves setting up a structured pipeline that uses a range of techniques to generate diverse and realistic data [13]. Here, we outline the key steps and methods for implementing both automatic and hybrid augmentation strategies, highlighting tools and best practices for maximizing data quality and model performance.

Step 1: Data Preprocessing

Text Cleaning: Before augmenting, it's essential to clean the text data by removing unnecessary elements such as HTML tags, special characters, and excessive whitespace. Preprocessing ensures consistency and minimizes the risk of introducing noise during augmentation[2].

Tokenization: Tokenize the data to divide sentences into words or subword units. This step is critical for applying techniques like synonym replacement or embedding-based methods, which rely on word-level manipulation[4].

Step 2: Applying Textual Augmentation Techniques

Synonym Replacement: Use Natural Language Processing (NLP) libraries like NLTK or spaCy to replace words with their synonyms. For instance, after tokenizing, identify nouns, adjectives, or verbs, and replace a subset of these with synonyms from WordNet or similar databases. Care should be taken to retain the original sentence structure and meaning.

Back-Translation: Translate text into a different language and then back to the original language to create paraphrased versions. Google Translate API or OpenNMT can facilitate this process [14]. This technique is especially useful for generating natural variations in phrasing.

Contextual Embeddings: Use pretrained language models like BERT or RoBERTa to identify contextually similar words and phrases. By leveraging contextual embeddings, models can substitute words with high semantic similarity, preserving meaning while introducing subtle diversity[8].

Step 3: Implementing Advanced Methods for Synthetic Data Generation

Generative Adversarial Networks (GANs): GANs can create synthetic news articles that resemble real-world fake news. By training GANs on existing datasets, they learn patterns and structures characteristic of fake news, enabling the generation of new, plausible articles. Tools such as TensorFlow and PyTorch provide frameworks for implementing GANs.

Variational Autoencoders (VAEs): VAEs can generate new sentences by encoding existing data into a compressed representation and then decoding it to create novel but similar content[3]. VAEs are beneficial for creating synthetic data that retains the structure and linguistic style of original fake news examples.

Step 4: Multimodal Augmentation (If Applicable)

Image Manipulation: For fake news that includes images, techniques like slight rotation, cropping, and color adjustment can create variations. Libraries like OpenCV and PIL (Python Imaging Library) are commonly used for such transformations.

Audio and Video Augmentation: For audio content, augmentation techniques include adjusting speed, pitch, and volume. Video augmentation may involve cropping, adding noise, or slightly modifying frame rates. Tools such as FFmpeg for video and librosa for audio are useful for implementing these augmentations[5].

Step 5: Setting Up an Augmentation Pipeline

Automated Pipeline Creation: Build an automated pipeline to apply these augmentation techniques systematically. Python libraries such as TextAttack, nlpaug, and Albumentations (for multimodal data) allow users to create complex pipelines that automatically apply a mix of augmentations to the data[7].

Custom Augmentation Functions: For more granular control, create custom functions to apply specific augmentations in a sequence. For example, a function can apply synonym replacement, followed by back-translation, to generate multiple variations of a single data point.

Step 6: Hybrid Approach with Manual Oversight

Manual Curation and Quality Check: After automatic augmentation, manually review a subset of the data to ensure authenticity and quality. This can help identify and eliminate any unnatural or irrelevant augmentations[1].

Feedback Loop: Incorporate feedback from experts to refine the automatic augmentation pipeline. For instance, if certain transformations consistently produce low-quality output, they can be adjusted or removed from the pipeline.

Tools and Frameworks for Augmentation

TextAttack: Provides a variety of text augmentation techniques for NLP tasks, useful for synonym replacement, paraphrasing, and more[9].

nlpaug: Offers multiple augmentation methods, including contextual embeddings and character-level augmentations.

OpenNMT: An open-source framework for machine translation, ideal for back-translation.

TensorFlow and PyTorch: For implementing advanced models like GANs and VAEs to generate synthetic data [12].

Albumentations: Useful for multimodal image and video augmentation, enhancing the variety of visual content for fake news.

The implementation of an effective dataset augmentation pipeline requires a blend of NLP techniques, generative models, and multimodal transformations. Starting with basic text manipulations and progressing to sophisticated AI-driven methods, each step aims to increase data diversity while maintaining quality[6]. By combining automation with selective manual oversight, this methodology ensures that the augmented dataset enhances model performance, generalization, and resilience to evolving fake news content.

3 EXPERIMENTS AND RESULTS

Case studies and experimental results are essential to demonstrate the effectiveness of dataset augmentation techniques in enhancing fake news detection models. Here, we present a selection of relevant case studies, along with experimental results that highlight the impact of various augmentation methods on model performance, generalization, and robustness.

Case Study 1: Impact of Textual Augmentation on LIAR Dataset

To evaluate the effect of basic textual augmentation techniques (synonym replacement, back-translation, and random insertion) on the LIAR dataset, a popular fake news dataset consisting of labeled statements from various news sources.

Accuracy:

$$Accuracy = \frac{True\ Positives + True\ Negatives}{Total\ Predictions}$$

F1-Score:

$$F1 = 2 \cdot \frac{Precision \cdot Recall}{Precision + Recall}$$

Experimental Setup

Techniques: Synonym Replacement, Back-Translation
Model: BERT-Based Classifier
Table 1: Our model's performance comparison.

Dataset	Accuracy	Precision	Recall	F1-Score
Original	72%	70%	68%	69%
Augmented	79%	75%	76%	76%

A bar chart to show the improvement in accuracy and F1-score for the original vs. augmented dataset:



Fig 1: Accuracy and F1-Score Comparison (Accuracy and F1-Score Comparison for Textual Augmentation on LIAR Dataset).

The model trained on the augmented dataset showed a 7% improvement in accuracy compared to the original dataset. The F1-score increased by 6%, indicating better generalization to unseen fake news content. Errors in detecting ambiguous statements decreased, as the augmented dataset provided the model with more diverse linguistic structures[5].

Contextual Embedding-Based Augmentation on FakeNewsNet:

To analyze how contextual embedding-based augmentation impacts model performance on FakeNewsNet, a dataset that includes both news content and social context.

Precision:

$$Precision = \frac{True\ Positives}{True\ Positives + False\ Positives}$$

Recall:

$$Recall = \frac{True\ Positives}{True\ Positives + False\ Negatives}$$

Experimental Setup

Techniques: Contextual Embedding with BERT

Model: Transformer-Based Classifier

Table 2: Evaluating our model's performance: Precision and Recall.

Dataset	Precision	Recall
Original	78%	72%
Augmented	83%	80%

A line chart comparing precision and recall over training epochs for both original and augmented datasets.



Fig 2: Precision and Recall Improvement (Precision and Recall Improvement with Contextual Embedding-Based Augmentation)

The model trained on the augmented dataset exhibited a 5% increase in precision and an 8% increase in recall, particularly benefiting in identifying fake news articles with nuanced language. The model's performance on a different dataset (NewsQA) was more stable, suggesting improved cross-domain generalization. The model showed a better understanding of contextual clues and was more resilient to slight variations in word choice or phrasing.

Conclusion:

Dataset augmentation is a critical tool for enhancing the robustness, accuracy, and generalization of fake news detection models. By generating diverse and realistic training samples, augmentation helps models better adapt to the constantly evolving nature of misinformation. Effectiveness of Different Augmentation Techniques: Various augmentation techniques—such as textual modifications, contextual embeddings, GAN-based synthetic generation, and multimodal augmentation—offer unique advantages. Each technique contributes to improved model performance in different ways, depending on the specific needs and challenges of the dataset and the task. While augmentation techniques are highly beneficial, they come with inherent challenges such as potential noise, semantic integrity issues, computational demands, and risks of reinforcing bias. Overcoming these limitations requires careful technique selection and validation to ensure augmented data maintains its quality and relevance. Combining manual and automatic methods, or adopting a human-in-the-loop approach, offers a promising balance between scalability and quality control. This hybrid approach can produce authentic and reliable data, supporting models in detecting nuanced and context-sensitive fake news. Emerging technologies such as meta-learning and on-the-fly augmentation for real-time adaptation hold great promise. These techniques enable models to dynamically adjust their augmentation strategies based on the domain, context, and user feedback, making them highly adaptable to new and unforeseen types of fake news. Advanced contextual models, multilingual and cross-domain augmentation, and crowdsourced curation are promising areas for further research. Exploring these areas could significantly enhance the authenticity, inclusiveness, and effectiveness of augmented datasets.

References

1. Zhang, X., & Ma, Y. (2020). Data augmentation for machine learning: A survey. *Journal of Big Data*, 7(1), 1-41. [Discusses various data augmentation techniques and their applications across domains, including text, image, and multimodal datasets.]
2. Shu, K., Mahudeswaran, D., & Liu, H. (2020). FakeNewsNet: A data repository with news content, social context, and dynamic information for fake news research. *Big Data*, 8(3), 171-188.

[Describes the FakeNewsNet dataset and provides insights into social and contextual information used in fake news detection.]

3. Wei, J., & Zou, K. (2019). EDA: Easy Data Augmentation techniques for boosting performance on text classification tasks. *Proceedings of the 2019 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP)*, 6383-6389. [Explores basic text augmentation techniques, such as synonym replacement and back-translation, and their impact on text classification.]
4. Goodfellow, I., Pouget-Abadie, J., Mirza, M., Xu, B., Warde-Farley, D., Ozair, S., ... & Bengio, Y. (2014). Generative adversarial nets. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 27, 2672-2680. [Introduces GANs as a technique for generating realistic synthetic data, applicable to text, image, and other modalities.]
5. Devlin, J., Chang, M. W., Lee, K., & Toutanova, K. (2018). BERT: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding. *arXiv preprint arXiv:1810.04805*. [Presents BERT, a contextual embedding model, which is highly effective for semantic augmentation in NLP tasks, including fake news detection.]
6. Huang, C., & Ma, W. (2021). Real-time fake news detection on social media using hybrid augmentation. *Journal of Information Science*, 47(2), 173-188. [Examines the effectiveness of hybrid approaches combining manual and automatic augmentation for real-time fake news detection.]
7. Radford, A., Wu, J., Child, R., Luan, D., Amodei, D., & Sutskever, I. (2019). Language models are unsupervised multitask learners. *OpenAI GPT-2 Technical Report*. [Discusses large language models like GPT, which are increasingly used for generating contextual and domain-specific text augmentations.]
8. Liu, Y., Ott, M., Goyal, N., Du, J., Joshi, M., Chen, D., ... & Stoyanov, V. (2019). RoBERTa: A robustly optimized BERT pretraining approach. *arXiv preprint arXiv:1907.11692*. [Presents RoBERTa, an enhancement of BERT, and its application for generating accurate text augmentations.]
9. Sutskever, I., Vinyals, O., & Le, Q. V. (2014). Sequence to sequence learning with neural networks. *Advances in Neural Information Processing Systems*, 27, 3104-3112. [Describes the sequence-to-sequence model architecture, foundational for techniques like back-translation used in text augmentation.]
10. Xo‘jamqulov A., Muxamadiyev S., Omonov S. INTEGRATING LARGE LANGUAGE MODELS WITH VISUAL DATA FOR ENHANCED HUMAN-OBJECT INTERACTION DETECTION //DTAI–2024. – 2024. – Т. 1. – №. DTAI. – С. 306-309.
11. Кахоров А. ОБРАБОТКА ЕСТЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА (NLP) НА ОСНОВЕ СИНТАКСИЧЕСКОГО И СЕМАНТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ТАКЖЕ ЧАСТЕРЕЧНОЙ РАЗМЕТКИ //International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. – 2023.
12. Isoqova. A., (2024). UDC 004.421 Analysis of Methods and Algorithms of Creation of Multimedia Electronic Textbooks. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. 307-314 http://niet.uz/index.php/nj/article/view/374
13. G. Absalamova, D. Absalamova, and I. Mamajonov, “Matnli ma’lumotlarga intellektual ishlov beruvchi sun’iy intellekt modeli: Matnli ma’lumotlarga intellektual ishlov beruvchi sun’iy intellekt modeli”, mp, vol. 1, no. 01, Jun. 2024.
14. Abdusalomov, A.B.; Nasimov, R.; Nasimova, N.; Muminov, B.; Whangbo, T.K. Evaluating Synthetic Medical Images Using Artificial Intelligence with the GAN Algorithm. Sensors 2023, 23, 3440. https://doi.org/10.3390/s23073440

ОБНАРУЖЕНИЕ РУССКОЯЗЫЧНОГО СПАМА С ПОМОЩЬЮ АЛГОРИТМОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ

Косимов Сардор Дилмуродович
Андижанский филиал Кокандского университета,
Андижанский государственный технический институт
докторант, учитель (ORCID: 0009-0007-7859-3482)
Кодиржонова Маржона Исломжон кизи
Андижанский филиал Кокандского Университета ,
Студентка 1- курса Группы ФИЯ(рус)24_04

Аннотация :Данная работа посвящена решению задачи фильтрации спама методами машинного обучения. Проведён обзор алгоритмов идентификации спама, предложена их классификация. Дано описание математического аппарата рассмотренных алгоритмов, приведены данные о точности существующих их реализаций. Выделены перспективные направления исследований с целью повышения качества идентификации спама.

Ключевые слова: Замену букв, бессмысленные вставки, обходные символы, Gmail, Bert, обнаружение спама

На основании этой терминологии рассмотрим существующие алгоритмы фильтрации спама, основанные на машинном обучении.

Обнаружение русскоязычного спама с помощью алгоритмов машинного обучения-актуальная задача, особенно в контексте фильтрации электронной почты, комментариев, сообщений в мессенджерах и социальных сетях. Спамеры постоянно находят способы обходить фильтры, поэтому модель нужно регулярно обновлять:

Замену букв (например, "бесплатн0" вместо "бесплатно").

Бессмысленные вставки ("Купи прямо сейч.ас ва***у!").

Обходные символы (разделение слов: "п р о м о к о д").

Изображения вместо текста (боты не всегда могут их распознать).

Gmail – использует AI для фильтрации писем и блокировки фишинга. *BERT* для русскоязычного спам.

Обнаружение спама - это задача бинарной классификации, которая делит электронные письма на две категории: спам и не-спам. Чтобы преобразовать функции, основанные на традиционных методах, в общий формат, подходящий для моделей машинного обучения, необходимо вручную извлекать функции из содержимого электронной почты и метаданных. В этом методе часто используются такие модели, как наивный байесовский алгоритм [2], метод опорных векторов (SVM) и случайные леса.

Предотвращая опасности, связанные со спамом, эффективные системы обнаружения спама повышают удобство работы пользователей, а также поддерживают более масштабные инициативы в области кибербезопасности.

Машинное обучение — мощный инструмент для борьбы со спамом, особенно если использовать современные NLP-модели.

Ichki (yadroga yaqin) uchta qobiqdagi elektronlar barqaror bo‘lib, ular odatda kimyoviy jarayonlarda ishtirok etmaydi. Asosiy faollikni tashqi — valentlik qavatidagi elektronlar bajaradi. Aynan ushbu elektronlar boshqa atomlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi va kimyoviy bog‘lanishlar hosil qiladi. Germaniyning so‘nggi (valent) qavatida 4 ta elektron mavjud bo‘lib, bu uning valentligini to‘rtga teng deb belgilaydi. Bu esa shuni anglatadiki, har bir germaniy atomi to‘rtta boshqa atom bilan barqaror kimyoviy bog‘lanish hosil qila oladi. Yaqin atrofdagi boshqa atomlar bilan yaqinlashganda, bu valent elektronlar bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashib, kristall panjara hosil qiladi. Atomga tashqaridan ma’lum miqdorda energiya (issiqlik, yorug‘lik, nurlanish va hokazo) berilganda, tashqi qavatdagi elektronlar yadro bilan bo‘g‘lanishini yo‘qotib, erkin holga o‘tadi. Bu hodisa ionlashuv deb ataladi. Aynan so‘nggi qobiqdagi elektronni ajratib olish uchun minimal energiya talab qilinadi. Bu jarayon, yarim o‘tkazgich materiallarining elektr o‘tkazuvchanligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Germaniy, kremniy va boshqa ko‘plab yarim o‘tkazgichlar kristall modda hisoblanadi. Ularning atomlari fazoda qat’iy tartibda joylashgan bo‘lib, bu struktura atomlararo kuchlarning muvozanatda bo‘lishini ta’minlaydi. Germaniyning kristall panjarasi to‘rt valent elektronlar yordamida qo‘shni atomlar bilan bog‘langan mustahkam tuzilmani tashkil etadi. Bu struktura orqali yarim o‘tkazgichlarning elektr, issiqlik va optik xossalari aniqlanadi.



1-rasm. Oddiy yarim o‘tkazgich-kremniy kristali.

Kremniy (Si) — elektronika sanoatida eng keng tarqalgan yarim o‘tkazgich bo‘lib, quyosh panellari (fotovoltaik elementlar) ishlab chiqarishda asosiy materialdir. U quyosh nurlarini yutib, fotoeffekt orqali elektr tokini hosil qiladi. Kremniy fotoelementlar – quyosh panellarining eng ko‘p ishlatiladigan turidir hisoblanadi. Uning sabablari:

Boy resurs: Yer qobig’ida eng ko‘p uchraydigan elementlardan biri.

Elektron xossalari: Tashqi energiya ta’sirida erkin elektronlar hosil qilishi oson.

Narx va barqarorlik: Nisbatan arzon va mustahkam.

Kremniyning quyidagi turlari mavjud:

Monokristall kremniy (monocrystalline silicon) – yuqori samaradorlikka ega, lekin ishlab chiqarish qimmat.

Polikristall kremniy (polycrystalline silicon) – ishlab chiqarish arzon, lekin samaradorligi nisbatan past.

Amorf kremniy (amorphous silicon) – egiluvchan va yengil, biroq samaradorligi eng past.

Kimyoviy jihatdan toza yarim o‘tkazgichlar xususiy yarim o‘tkazgichlar deb ataladi. Ularga bir qator kimyoviy toza elementlar (germaniy-Ge, kremniy-Si, selen-Se, tellur-Te) va kimyoviy birikmalar (galliy arsenidi– GaAs, indiy arsenidi-InAs, indiy antimonidi - InSb, Karbid kremniy-SiC va hokazo) kiradi.

Kirishmalar	Mumkin bo‘lgan miqdori, %
Al	$1\cdot10^{-7}$
B	$1\cdot10^{-7}$
H	$1\cdot10^{-3}$
Fe	$1\cdot10^{-7}$
O	$1\cdot10^{-7}$
Mg	$1\cdot10^{-7}$
Mn	$1\cdot10^{-7}$
Cu	$1\cdot10^{-8}$
Pb	$1\cdot10^{-7}$
Ag	$1\cdot10^{-7}$
P	$1\cdot10^{-8}$
Zn	$1\cdot10^{-8}$

1-jadval.

Yuqori darajada tozalangan kremniy tarkibida kirishmalarning atom ulushi.

Sun’iy intellekt — mashina o‘rganishi, chuqur neyron tarmoqlari, bashoratlash tizimlari va real vaqtda monitoring texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Quyosh panellari sohasida SI quyidagi vazifalarni bajaradi:

Quyosh radiatsiyasini prognoz qilish (weather prediction),

Nosozliklarni avtomatik aniqlash va ogohlantirish,

Energiya ishlab chiqarishni optimallashtirish,

Quyosh panellarining orientatsiyasini boshqarish (tracking systems).

So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Ayniqsa, ekologik toza va barqaror energiya manbalaridan biri bo‘lgan quyosh energiyasidan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda eng muhim vositalardan biri bu — quyosh batareyalaridir.

Quyosh batareyasi — bu yarimo‘tkazgichli materiallar asosida tayyorlangan qurilma bo‘lib, u quyosh nurlarini elektr energiyasiga aylantiradi. Quyosh batareyasining asosiy qatlamlari quyidagilardan iborat:



2-rasm. Metalli o‘tkazgich (kontakt qatlam):

Batareyaning ustki qismi metall panjara shaklida tuzilgan bo‘lib, u quyosh nurlarining o‘tishiga imkon beradi va hosil bo‘lgan elektr tokini tashqi zanjirga o‘tkazadi.

n-tipli kremniyli qatlam:

Bu qatlam elektronlarga boy bo‘lib, manfiy zaryad tashuvchilar (erkin elektronlar)ni o‘z ichiga oladi. Quyosh nurlari ta’sirida bu qatlamda elektronlar harakatga keladi.

Inversionli qatlam:

Bu oraliq zona p-tipli kremniy yuzasida hosil bo‘lgan bo‘lib, u yerda elektr maydoni yuzaga keladi. Bu maydon elektronlar va teshiklarning qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanishiga sabab bo‘ladi.

Inversionli qatlam:

Bu oraliq zona p-tipli kremniy yuzasida hosil bo‘lgan bo‘lib, u yerda elektr maydoni yuzaga keladi. Bu maydon elektronlar va teshiklarning qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanishiga sabab bo‘ladi.

Voltmetr (yoki tashqi zanjir):

Hosil bo‘lgan elektr toki tashqi zanjir orqali voltmetrga uzatiladi. Voltmetr kuchlanishni o‘lchaydi va elektr energiyasi iste’mol qurilmalariga uzatiladi.

Quyosh batareyasining ishlashi fotoelektrik effektga asoslangan. Quyoshdan kelayotgan fotonlar kremniyli qatlamga tushadi va undagi atomlarda elektronlarni qo‘zg‘atadi. Erkin holga o‘tgan elektronlar elektr maydonining ta’siri ostida n-tipli qatlam tomon harakatlanadi. Shu bilan birga, teshiklar esa p-tipli qatlamga harakatlanadi. Bu elektron va teshiklar oqimi elektr tokini hosil qiladi.

p-n o‘tish zonasidagi elektr maydoni harakatni yo‘naltiradi va energiyaning bir yo‘nalishda oqimini ta’minlaydi. Shunday qilib, quyosh nuri yordamida uzluksiz ravishda elektr energiyasi hosil qilinadi.

Quyosh Batareyasining Afzalliklari:

Ekologik tozaligi: Ishlashida zararli chiqindilar hosil bo‘lmaydi.

Qayta tiklanuvchanlik: Quyosh energiyasi cheksiz va tabiiy manba hisoblanadi.

Kam xarajatli xizmat: Uzoq muddatli foydalanish uchun qulay, kam texnik xizmat talab etadi.

Shovqinsiz ishlaydi: Har qanday muhitda tinch ishlashi mumkin.

Texnologik soddaligi: Kremniy keng tarqalgan va arzon material.

Quyosh Batareyasining kamchiliklari:

Quyosh nurlari kechasi va bulutli kunlarda kam bo‘ladi.

Batareyalarning samaradorligi (15–22%) nisbatan past.

Ishlab chiqarish va o‘rnatish xarajatlari yuqori.

Quyosh batareyalari kelajakda toza va barqaror energiya manbalarining eng asosiy ko‘rinishlaridan biriga aylanishi aniq. Ular quyosh nurlarini elektr energiyasiga aylantirish orqali sanoat, qishloq xo‘jaligi, uy xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan bu qurilmalar yanada samarali, arzon va qulay bo‘lib bormoqda.

Quyosh energiya manbaalari tuman va qishloqlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Jumladan, yangi ish joylari tashkil etilib, daromad manba’lari paydo bo‘ladi, hududning soliq bazasi kengayadi. Quyosh energiyasi katta potensialga ega, toza atrof muhitni tegishli talabni qondiradi, sof

atrof-muhitni yaratadi, investitsiya qo‘yishga qulay sharoitlar yaratiladi. Qishloq aholisi bunday qayta tiklanadigan energiya manba’si yaratilishidan katta foyda ko‘radi. SHunday rivojlanish qishloq aholisiga zamonaviy energiya shaklini olishga imkoniyat hosil qiladi. SHamol, quyosh, geotermal elektr stansiyalari, katta bo‘lmagan gidrostansiyalari shuningdek, biomassalar, qishloq maishiy sohasiga elektr energiyasini beradi. Quyosh energetikasi va quyosh bilan suv isitish qishloq aholisining arzon zamonaviy energiya manba’si bilan ta’minlashi mumkin. Jumladan, 2011 yilning boshida aholiga Toshkent viloyatidagi tabiiy gaz tarqatuvchi korxonalar 1 m3 tabiiy gazni 67 so‘m 50 tiyin deb belgilangan narxda sotayotgan edi. Agar 5–6 kishilik bir oila yashayotgan uyining isitish maydoni o‘rtacha 60 m2 bo‘lsa, tabiiy gazga sarf-xarajat 1 yilga (yoz oyida – 15000 so‘m, 6 oy = 90000 so‘m; qish davriga 80000 so‘m, 6 oy = 480000 so‘m) qish va yoz uchun 570 ming so‘m sarflangan. «Ixlos Biznes Baraka» xususiy korxonasining sarf-xarajatlari bo‘yicha qilingan hisob-kitoblarga ko‘ra, biogazdan foydalanilganda, uning 1 m3 sotuvga 30 so‘m atrofida bo‘lib, 1 yilning qish va yoz oylariga (yozda – 9000 so‘m, 6 oy = 54000 so‘m, qishda 30000 so‘m, 6 oy = 180000 so‘m) 234000 ming so‘mni tashkil etgan. Demak, biogazdan foydalanishning iqtisodiy samarasi 2,5 barobar arzonligi aniqlangan. Bugungi kunga kelib yangi materiallar asosida FIK 45 % gacha bo‘lgan quyosh panellari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoning ilmiy tadqiqot laboratoriyalarida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Albatta ishlab quyosh elementlarini ishlab chiqarishdagi tannarx juda zarur. Bir qancha yangi texnologiyalar asosida yupqa qatlamli quyosh elementlari ishlab chiqarish bo‘yicha katta masshtabda quyosh panellarini va modullarni arzonlashtirish ishlari boshlab yuborildi.

Hozirgi kunda kremniyni boshqa materiallar bilan birlashtirib, gibrid quyosh elementlari, nanoqurilmalar, perovskitlar kabi texnologiyalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa kremniy texnologiyasining yanada takomillashishiga olib kelmoqda. Kremniy asosidagi quyosh panellari hozirda eng keng tarqalgan va ishonchli muqobil energiya texnologiyasidir. Ular ekologik xavfsiz, uzoq muddat ishlaydigan va iqtisodiy jihatdan samarali tizimdir. Kelajakda texnologik rivojlanish natijasida bu tizimlar yanada takomillashib, arzonlashib, kengroq qo‘llanilishi kutilmoqda.

Quyosh panellari qanday ishlaydi?

Quyosh nurlari kremniy qatlamiga tushganda, u fotonlarni yutadi va elektron–kovak juftligi hosil bo‘ladi. Elektronlar harakatlanib, elektr toki vujudga keladi.



3-rasm. Fotoelementning ishlash prinsipi.

Fotoelektrik effekt asosidagi formulalar (quyosh batareyalarining ishlash prinsipi):

Einshteyn tenglamasi:

$E = h \cdot f$

E – foton energiyasi (Joule),

h – Plank doimiysi (6.626×10^{-34} J·s),

f – yorug‘lik to‘lqinining chastotasi (Hz).

Quyosh nurlari kremniyga urilganda, agar foton energiyasi kremniyning energiya to‘sig‘idan (band gap) katta bo‘lsa, elektronlar ajralib chiqadi va tok hosil bo‘ladi.

Kremniy uchun band gap:

$E_g \approx 1.1$ eV (elektron volt)



4-rasm. Kremniy asosidagi quyosh panellarining afzalliklari va kamchiliklari

Afzalliklar:

Uzoq muddat xizmat qilishi (25–30 yil).

Ishlab chiqarish texnologiyasi rivojlangan.

Yaxshi samaradorlik (monokristall panellarda 18–22%).

Kamchiliklar:

Quyosh nurisiz yoki bulutli ob-havoda ishlashi pasayadi.

Ishlab chiqarishda energiya talabi yuqori.

Optimal burchakda o‘rnatilmasa, samaradorlik kamayadi.

Quyosh panellarini boshqarishda SI algoritmlarining qo‘llanilishi

Neyron tarmoqlar: quyosh nurlanishining oldindan prognozini berish orqali optimal ishlab chiqarishni boshqaradi.

Genetik algoritmlar: panel burchagini muhitga mos holda avtomatik sozlaydi.

Reinforcement Learning: panellarning harakatini muhitdan kelib chiqib optimallashtiradi.

Deep Learning: turli xil sharoitlarda energiya ishlab chiqarishni o‘rganadi va tahlil qiladi.

Sun’iy intellekt quyosh energiyasida quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

a) Real vaqtda monitoring

Sensorlar orqali yig’ilgan ma’lumotlar SI yordamida tahlil qilinadi. Nosozliklar, samaradorlik pasayishi, soya tushishi kabi holatlar aniqlanadi.

Misol: Bir fermada 200 dona quyosh paneli o‘rnatilgan. SI algoritmi har bir paneldan olinayotgan quvvatni tahlil qilib, 5 ta panelda kuchlanish pasayganini aniqlaydi. Operatorlar tezda choralar ko‘rishadi.

b) Quyosh nurlanishining prognozi

Mashinali o‘rganish algoritmlari quyosh nurlanishini, ob-havo sharoitlarini prognoz qiladi. Bu esa batareyalar faoliyatini oldindan rejalashtirishga yordam beradi.

c) Energiya konversiyasini optimallashtirish

SI yordamida panel burchaklari, invertor sozlamalari avtomatik tarzda moslashtiriladi.

Sun’iy intellekt yordamida quyosh batareyalari faqat maksimal nurlanish holatida emas, balki bulutli kunlarda ham samarali ishlashi mumkin. Bu esa umumiy konversiya samaradorligini oshiradi.



5-rasm. SI yordamida quyosh panelining moslashuvi.

Kremniy + SI: Integratsiyaning istiqbollari

Yaqin kelajakda quyidagilar kutilmoqda:

Avtonom quyosh stansiyalari: SI yordamida butun tizim o‘zini boshqaradi.

“Aqlli” quyosh panellari: Har bir panel alohida analiz qilinadi.

Energiya tarmoqlariga moslashuv: SI ishlab chiqarilgan energiyani qayerga yo‘naltirishni real vaqtda boshqaradi.

Hozirgi kunda elektr energiyasi energiya turlarining ichida eng mukammal, iste’molchiga yetkazib berishning osonligi, energiyaning boshqa turlariga o‘zgartirishning qulayligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, energiya manbalarini, birinchi navbatda quyosh energiyasini o‘zgartirish va qayta ishlash eng maqbul usullardan biri hisoblanadi. Quyosh energiyasining manbai bo‘lib termoyadro reaksiyasi hisoblanadi. Har sekundda taxminan 6×10^{11} kg N_2 gazi Ne ga aylanadi. Bu vaqtda massa defekti 4×10^{20} J ni tashkil etadi. Quyosh nurlanishi bitmas-tuganmas energiya manbasi hisoblanadi. Chunki, Quyosh energiyasini o‘zgartirgichlar termodinamik FIKi nazariy chegarasi birga yaqin bo‘ladi. Yana bir yaxshi tomoni bu energiya manbai nisbatan ekologik toza, energetik potensiali yuqori hisoblanadi. Olimlarning hisoblariga ko‘ra quyosh energiyasi 10^{10} yilgacha etishi kerak.

Fotoelementlar (FE) uchun ba’zi bir perspektiv moddalar tabiatda kam uchraydi yoki ularni olish texnologiyalari juda qimmat.

Kremniyli FE tannarxini kelajakda real qiymatlargacha, ya’ni bir-ikki darajagacha yangi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish usullari yordamida tushirish imkoni bor. Xususan, kremniyli tasmalar olish, katta yuzali quyosh elementlari (QE) olish mumkin bo‘ladi. Kremniyli FE oxirgi 25 yil ichida 20-30 marta arzonlashdi. QE ni ishlab chiqarishda perspektiv hisoblangan quyidagi polikristall, monokristall va amorf birikmalar: GaAs, InP, CdTe, CdSe, CuP_2, $MoSe_2$, MoS_2, WSe_2, InSe, BeB_4, BeB_6, MgB_6, MgP_4, CaP_3, FeP_4, SrP_4, YS_2, TiS_3, ZrS_3, $ZrSe_3$ hisoblanadi.

QE effektivligi YA‘O materialining optik va elektro-fizik xususiyatlariga (yorug‘likning sirtidan qaytishi, fotoionizatsiyaning kvant chiqishi, asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilarning diffuzion uzunligi, yutilishning asosiy zonasidagi spektral holati, p–n o‘tishdagi hodisalar o‘tishning teskari toki, potensial to‘siqning balandligi, hajmiy zaryad zonasining kengligi, geometrik faktorlar – p–n o‘tishda shu o‘tishning kengligi va zaryad tashuvchilarning diffuzion uzunligi) bog‘liq bo‘ladi.

QE effektiv ishlashi uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

YA‘O aktiv qatlami yutilishining optik koeffitsiyenti yetarli darajada katta bo‘lishi kerak, tushayotgan quyosh nuri energiyasining katta qismi qatlam qalinligida yutilishi kerak;

Aktiv qatlamning ikkala tarafida nurlanish natijasida paydo bo‘lgan elektronlar va kovaklar kontaktlar elektrodlarida effektiv ravishda yig‘ilishlari kerak;

YA‘O o‘tishida QE potensial barrieri katta qiymatga ega bo‘lishi kerak;

Ish jarayonida quvvat yo‘qotishlarini (Joul issiqligini) kamaytirish maqsadida FE bilan ketma-ket ulangan to‘liq qarshilik (yuklama qarshiligini hisobga olmagan holda) kichik bo‘lishi kerak;

QE ning aktiv zonasida yupqa qatlam shakli (struktura) bir xil bo‘lishi kerak, element xususiyatlarini yaxshilash maqsadida QE effektiv ishlashi uchun yarim o‘tkazgichli o‘tishda QE ancha katta barrier balandligiga ega bo‘lishi kerak.

Kremniy monokristalli asosda bunday talablariga javob beradigan strukturani ishlab chiqish texnologik jihatdan qiyin va qimmat turadigan jarayon hisoblanadi. Kremniydan ishlangan QE optik nurlanish tushadigan yarim o‘tkazgichli sohasi juda yupqa bo‘ladi va kuchli legirlangan bo‘ladi (aralashma atomlarini maksimal kontsentratsiyasi 10^{20}–10^{21} sm^{-3} gacha). n-turdagi yarim o‘tkazgichning baza sohasi ko‘pincha nisbatan kuchsiz legirlanadi. Ularda aralashma atomlarini kontsentratsiyasi 10^{16}–10^{17} sm^{-3} gacha bo‘ladi, masalan, bor bilan odatda monokristall olishda). Elementning tashqi sirti o‘rnini qoplovchi bilan odatda turli konfiguratsiyaga ega bo‘lgan tok oluvchi yo‘lchalardan iborat to‘r bilan sirtni 5–7% qoplanadi, orqa tomonida esa to‘liq yoki to‘rsimon kontakt hosil qilinadi.

Agar kontakt kremniyli quyosh elementlarida planar konstruktsiyada hisoblashlar va aniq texnologiyalar mos yaratilsa, voltamper xarakteristika keskin yaxshilanadi (shakli to‘g‘ri burchagiga yaqin, foydali ish koeffitsiyenti esa η atmosferadan holis quyoshda 12 dan 13,5% gacha tashkil etadi).

Keyingi vaqtlarida qalinligi kichik bo‘lgan legirlangan qatlamli kontaktlarni yaratish uchun bir qator yangi ashyo taklif qilindi, masalan, titanning nitridlari kremniy bilan juda kichik o‘tish qarshiligiga ega.

Zamonaviy quyosh elementlarining ko‘pchiligi p–n o‘tishga ega. Bu elementlarda erkin zaryad tashuvchilar faqat shu fotonlar yordamida hosil qilinadiki, ularning energiyasi katta yoki taqiqlash sohasining kengligiga teng.

Yaqin kunlarda Samsung kompaniyasi 2,6 dyuymli VGA yechimga ega bo‘lgan suyuq kristall matritsani yaratgani haqida xabar berdi. Bunday ajoyib yechimga ega bo‘lish amorf kremniydan foydalanish hisobiga amalga oshadi. Ashyo shunday ajoyib hususiyatlarga egaki, ishlab chiquvchilar dyuymda 300 tagacha nuqtani joylashtirish imkoniga ega bo‘ldilar (zichligi oshdi).

Quyosh energiyasidan unumli foydalanishda kremniy asosidagi yarim o‘tkazgichlar muhim o‘rin tutadi. Ularning ishlash samaradorligini yanada oshirish uchun sun’iy intellekt algoritmlari asosida ishlab chiqilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Bu integratsiya nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki tizimga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

Kelajakda quyosh energiyasi sohasida SI texnologiyalarining ahamiyati yanada ortadi, bu esa energetika sohasida yangi texnologik bosqichga olib keladi.

Demak, amorf yarim o‘tkazgichlari yaqin kelajakda odatiy qo‘llanilmalarda mikroelektronika va optoelektronikada monokristallar o‘rnini egallaydi deyish ehtimoli bor, u holda fizik va amaliy qiziqishlar bu muammolar ustida ish olib borilishida davom etishni ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авезов Р.Р., Орлов А.Ю. Солнечные системы отопления и горячего водоснабжения. – Т.: Фан, 1988.
2. Андреев С.В. Солнечные электростанции. – М.: Наука, 2002.
3. Рубан С.С. Нетрадиционные источники энергии. – М .: Энергия, 2003.
4. Zaynabiddinov S., Teshaboyev A. Yarim o‘tkazgichlar fizikasi. – T., 2012.
5. Zaynolobidinova S., Rashidova D. Yarim o‘tkazgichlar va ularning elektrofizik xususiyatlati. – 2022.
6. Green, M. A. (2020). Photovoltaic Technology and Innovation. Energy & Environmental Science.
7. Насиров Ильхам Закирович и Рахмонов Хуршидбек Нурмухаммад оглы. (2022). ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ОБРАТНОГО ЗАЖИГАНИЯ В ДВИГАТЕЛЯХ АВТОМОБИЛЕЙ. Всемирный бюллетень социальных наук , 12 , 63-69. Получено с https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1177.
8. Sobirova Tursunoy Abdipatto qizi, Quyosh panellaridagi yarimo‘tkazgichli materiallarning ahamiyati, Eurasian journal of technology and innovation. – 2023.

KUKUNSIMON SINTETIK YUVISH VOSITALARI XOSSALARI

Ikromova Nilufar Bahodirjon qizi
Farg’ona davlat texnika universiteti 93-23KT talabasi

Annotatsiya:Ushbu maqolada yuvuvchi vositalar ya’ni tozalov vositalari haqida aniq va to’liq ma’lumotlar orqali so’z boradi. Shuningdek, tozalov vositalarining yaratilish tarixi, ularning fizik va kimyoviy xossalari,amaliyotdagi ahamiyati keng yoritib berilgan. Yuvuvchi vositalar kundalik hayotda tozalikni saqlashda muhim ro’l o’ynaydi. Ekologik toza mahsulot yaratish bo’yicha zamonaviy yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan vositalarning afzalliklari haqida ma’lumot berilgan. Maqola yuvuvchi vositalardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofaza qilish borasidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar bilan yakunlangan.

Kalit so’zlar: Yuvuvchi vositalar, ekologiya, sintetik modda, parchalanish, atrof-muhit, sovun, manfiy zaryad, dissotsiya, shisha, quyish usullari, dezinfeksiyalash, qotishmalar, keramika, metal.

Yuvuvchi vositalar (tozalovchi vositalar) — turli materiallar sathidagi, inson va hayvonlar tanasidagi kirlarni yuvish uchun qo‘llanadigan modda yoki moddalar aralashmasi. Yuvuvchi vositalar tarkibiga sintetik yuvuvchi moddalar (sovunga o‘xshash sirt faol moddalar) va turli qo‘shimcha vositalar (mineral tuzlar, organik birikmalar va boshqalar) kiradi. Yuvuvchi vositalar sifatida qadimdan ishqoriy tuzlar (potash, tabiiy soda) gidrofil loylar (mas, gilvata), ba’zi o‘simliklarning sharbati qo‘llangan.

XIX asrda sovungarlik sanoatining vujudga kelishi bilan bu tabiiy Yuvuvchi vositalar o‘z mavqeini yo‘qotdi. Yuvuvchi vositalarni sanoat miqyosida ishlab chiqarish ilk bor XIX asrning 30-yillarida Germaniyada yo‘lga qo‘yildi; 1950-yildan boshlab Yuvuvchi vositalar qariyb barcha rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarila boshlandi. Bu vaqtda yog‘dan olinadigan sovun ulushi Yuvuvchi vositalar umumiy hajmiga nisbatan anchagina kamayadi.Yuvuvchi vositalar xossasini belgilovchi tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi sirt faol moddalardir.

Yuvuvchi vositalar eritmalarda (aniqrog‘i, yarim kolloid sistemada) mitsellalar hosil qiladi va ularning yuvish qobiliyati ana shu eritma xossasiga bog‘liq. Yuvuvchi moddalar ionlarga dissotsilanadigan — ionli va ionlarga dissotsilanmaydigan — ionsiz sinflarga bo‘linadi. Ionli moddalarning sirt faol ioni manfiy zaryadli bo‘lsa, anion faol, musbat zaryadli bo‘lsa kation faol deyiladi.

Sirt faol ionlar ishqoriy sharoitda manfiy, kislotali sharoitda musbat zaryadlansa, bunday yuvuvchi moddalar amfoter yoki amfolit deb ataladi. Eng ko‘p tarqalgan yuvuvchi moddalar anion faol moddalardir. Bular asosida barcha sovunlar va ko‘pchilik sintetik yuvuvchi vositalar olinadi.

Sintetik Yuvuvchi vositalar tarkibida yuvish jarayonini yaxshilovchi qo‘shimcha moddalar bo‘ladi. Bularga kuchsiz anorganik kislotalarning ishqoriy tuzlari (natriy karbonat, natriy bikarbonat, natriy silikat, turli tarkibli fosfatlar), neytral tuzlar (natriy sulfat, natriy xlorid), oqartirish va dezinfeksiyalash xossalariga ega bo‘lgan peroksidlar tuzi (natriy perborat, natriy perkarbonat) va boshqalar kiradi.

Yuvuvchi vositalar tarkibiga xushbo‘y moddalar ham qo‘shiladi. Yuvuvchi vositalar tarkibidagi komponentlar miqdori ularning qanday maqsadda qo‘llanishi hamda iqtisodiy va sanitariyagigiyena talablariga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Yuvuvchi vositalarning asosiy qismi kukun holda, qolganlari esa suyuq, pasta va boshqalar holda sotishga chiqariladi. Ularning kir, shisha, fayans, sirli sopol, emallangan metall buyumlarni tozalash kabi maqsadlar uchun alohida turlari mavjud. Jun, ipak, sintetik va sun’iy toladan to‘qilgan matolar, ip gazlamalarni yuvish maxsus Yuvuvchi vositalar hamda barcha matolarni yuvishga mo‘ljallangan universal Yuvuvchi vositalar ishlab chiqariladi. Suyuq yuvish vositalarini ishlab chiqarish uskunalarini joriy etish.

Kukunlardan metall materiallar (buyumlar) ishlab chiqarish uchun, dastlab, metallar yoki metallar bilan metallmas materiallarning mayin kukunlari tayyorlanadi. Metall kukunlari tayyorlashda, asosan, qattiq metallarni mexanik maydalash, metallarning qattiq birikmalarini (metall oksidlarini) qaytarish, elektroliz, suyuq metallarni purkash usullari qo‘lla-niladi. So‘ngra kukunlardan dastlabki ma’lum kimyoviy tarkib va xossali aralashma (shixta) tayyorlanadi va undan kerakli buyumning zagotovkasi

qoliplarga solib tayyorlanadi hamda presslanadi, keyin asosiy komponentning suyuqlanish temperaturasidan pastroq temperaturada, asosan, elektr pechlarda qovushtirilgan zagotovkalarga sovuqlayin yoki qizdirib qo‘shimcha ishlov beriladi.

Metallokeramik qotishmalar (kesuvchi asboblar, burgilar, shtamplar va boshqa tayyorlash uchun ishlati-ladigan krtishmalar)dan yasalgan as-boblarning kesish xossalari 1000° da ham saqlanib qoladi. Metallokeramik qotishmalar tarkibiga volfram karbidi, titan karbidi va kobalt kiradi

Quyish usullaridan foydalanib olish mumkin. Bularga g‘ovak antifriksion kukun qotishmalari kiradi! Ular qora va rangli metallar kukunlaridan tayyorlanishi mumkin. Bu qotishmalardan avtomobil dvigatellarining porshen halqalari, o‘z-o‘zidan moylanadigan podshipniklar va mashivalarning ishqalanuvchi boshqa detallari tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Bolliyev “Sintetik Yuvuvchi vositalar ”
2. D.Ashurova“Kimyo texnologiyasi asoslari
3. B.M.Krasilnikov “Kimyoviy mahsulotlar texnologiyasi”
4. G.X, Qodirova M.X “Maishiy kimyo asoslari”

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA SUN’IY INTELLEKTNING ROLI VA ISTIQBOLLARI

Ahrorqulov Jonibek Otabek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tutgan o‘rni va ularning istiqbollari yoritilgan. Unda SI yordamida ekologik monitoring, havo va suv ifloslanishini aniqlash, chiqindilarni qayta ishlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, atrof-muhit, ekologik monitoring, yashil iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish, barqaror rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat tabiat bilan munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Global isish, atmosfera ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik muammolar sayyoramiz kelajagiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi nafaqat ekologlarning, balki barcha soha vakillarining diqqat markazida bo‘lib turibdi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti tufayli ushbu muammolarga zamonaviy yechimlar taklif qilinmoqda. Shulardan biri — sun’iy intellekt texnologiyalari. Avvallari faqat sanoat, transport yoki tibbiyotda qo‘llanilgan ushbu texnologiyalar endilikda ekologik sohada ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy intellekt yordamida havodagi zararli moddalarning miqdorini aniq kuzatish, chiqindilarni qayta ishlashni optimallashtirish, suv resurslarini boshqarish va tabiiy ofatlarning oldini olish bo‘yicha samarali choralar ko‘rilmoqda. Ushbu tezisda sun’iy intellektning ekologik muammolarni hal etishdagi roli, amaliy qo‘llanilishi va istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlilida ilmiy tadqiqotlarning mavjud manbalari tizimli ravishda o‘rganiladi va ular orasidagi aloqalar, o‘xshashliklar va farqlar aniqlanadi. Har bir manba, metodologiya va natijalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, va ularning ilmiy ahamiyati, samaradorligi baholanadi. Solijonov, M. (2022) - O‘zbekiston yashil iqtisodiyot sari yo‘l xaritasi asarida O‘zbekistondagi yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va muammolar tahlil qilindi. Xolboyev, N. (2023) - Barqaror rivojlanish va ekologik siyosat asari orqali sun’iy intellektning barqaror rivojlanish va ekologik siyosatdagi roli ko‘rib chiqildi. Foydalanilgan adabiyotlar metodologiyasi, masalan, IBM Green Horizon va Microsoft AI for

Earth kabi manbalarda ko‘rsatilgan ekotizimlarni himoya qilishdagi yondashuvlar asosida sun’iy intellektning samaradorligini o‘rganishga imkon beradi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi bugungi kunda global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 7 milliondan ortiq inson havo ifloslanishi sababli hayotdan ko‘z yumadi. Shu bilan birga, BMTning 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, har 10 kishidan 9 tasi ifloslangan havodan nafas olmoqda.[1] Bu holat ekologik muammolarni texnologik yechimlar orqali hal etish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Ana shunday zamonaviy yechimlardan biri bu — sun’iy intellektdan (SI) foydalanishdir. Sun’iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma’lumotlar tahlil qilinadi, ifloslanish manbalari aniqlanadi va ekologik xavflarning oldi olinadi. Masalan, Google Earth Engine platformasi sun’iy intellekt texnologiyalari orqali o‘rmonlarning kesilishi va yer usti suvlarining kamayishini real vaqtda aniqlash imkonini bermoqda. Bundan tashqari, Yaponiya, AQSh, Xitoy va Yevropa davlatlari chiqindi saralashda SI algoritmlaridan foydalangan holda ekologik zararlarni kamaytirishga erishmoqda. Shunga qaramay, sun’iy intellektni ekologiya sohasida joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Avvalo, ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda texnologik infratuzilmaning yetishmasligi SI imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Demak, bugungi kunda atrof-muhit muhofazasida sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat dolzarb, balki zaruriy ehtiyojga aylangan. Biroq bu texnologiyalarning to‘laqonli joriy qilinishi uchun davlatlararo hamkorlik, ilmiy-tadqiqotlar va investitsiyalar zarurdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy dunyoda texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, ularning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bu – sun’iy intellekt (SI). Bugungi kunda SI faqat sanoat, tibbiyot, moliya yoki avtomatlashtirishda emas, balki atrof-muhitni muhofaza qilishda ham muhim rol o‘ynayapti. Tezisda ekologik barqarorlikni ta’minlashda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotga qaratilgan yondashuvlar va texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, sun’iy intellektning bu sohadagi integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston va dunyo miqyosida ekologik barqarorlikni ta'minlashda, sun’iy intellektning qo‘llanilishi orqali yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishning samaradorligi ko‘rsatilgan. To‘plangan ma’lumotlar va tahlil asosida, O‘zbekiston hukumati ekologik tizimni mustahkamlash va yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish uchun sun’iy intellektni rivojlantirish zarurligini anglamoqda. o‘zaro integratsiyasi, xususan, ekologik tarmoqlarda qanday Bularning barchasi ekologik tizimlarni yanada samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o‘tkazilgan tajriba va ilmiy ishlarning natijalarini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning ekologik siyosatidagi asosiy strategiyalar, jumladan, “Yashil makon” loyihasi kabi tashabbuslar, sun’iy intellektni joriy etishning amaliy imkoniyatlarini ochib beradi. Biroq, mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlashda hali bir qancha muammolar mavjud. Solijonov, M. (2022) va Xolboyev, N. (2023) tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlar va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligining hisobotlari, mamlakatda ekologik holatni yaxshilashda texnologik infrastrukturani rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.[2] Shuningdek, ma’lumotlar xavfsizligi, maxfiylik va sun’iy intellektning noto‘g‘ri qo‘llanilishi kabi masalalar ham dolzarb muammolar sifatida ta’kidlanadi. Sun’iy intellektni ekologiya sohasida qo‘llashning ko‘plab afzalliklari bor. O‘zbekistonda ekologik tizimlarni va tabiiy resurslarni optimallashtirish, monitoring qilishda sun’iy intellektning roli o‘ta muhimdir. Buning natijasida, masalan, atrof-muhitni monitoring qilishda yangi texnologiyalar, o‘rmonlar va suv resurslarining boshqarilishida samaradorlik oshadi. Biroq, sun’iy intellektni amaliyotga joriy etish uchun yetarli malakali mutaxassislar tayyorlanishi zarur. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar va tashabbuslar, jumladan, Prezidentning Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-358-son qaroriga muvofiq, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shu jumladan, huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni belgilash maqsadida ishlab chiqilgan. [3] Ushbu qaror yordamida ekologik barqarorlikni ta’minlashda sun’iy intellektni qo‘llashning imkoniyatlari va samaradorligi oshadi. Shuningdek, ushbu qarorlar va tashabbuslarni amalga oshirishda xalqaro tajribalar, xususan, Xitoy va Yevropa davlatlarining ilg‘or yondashuvlari o‘rganilib, O‘zbekistonga moslashtirilgan yechimlar ishlab chiqilishi kerak. Shu bilan

birga, mamlakatdagi ekologik tizimni yanada barqaror qilish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va ularni joriy etishda jamoatchilikning ishtirokini oshirish zarur.

Har yili dunyoda 10 million gektar o‘rmon yo‘q qilinadi [4]. Buning asosiy sabablari — noqonuniy daraxt kesish, o‘t qo‘yish va qishloq xo‘jaligiga yer ajratishdir. GFW va DETER loyihalari sun’iy yo‘ldoshlar yordamida kesishlarni aniqlab, hukumatlarga real vaqt ma’lumotlar beradi.[5] Bu yondashuv o‘ta samarali, chunki ilgari daraxtlar kesilganidan keyin oradan oylar o‘tib ma’lum bo‘lardi. Endi esa SI bu jarayonni bir necha kun ichida fosh qilib, ekologik jinoyatchilikka qarshi kurash imkonini yaratmoqda. Ayniqsa Amazon o‘rmonlarida bu tizimlar olamshumul o‘zgarishlar keltirdi. Bu degani, SI – bu atrof-muhitning kuzatuvchisi, nazoratchisi va qisman himoyachisidir. IBM Green Horizon loyihasi SI algoritmlari orqali iqlimni prognoz qiladi, havodagi ifloslik miqdorini aniqlaydi. Microsoft esa “AI for Earth” orqali iqlim o‘zgarishini baholashda fermerlar, olimlar va hukumatlarga yordam beradi. [6] Iqlim muammolari hozirgi davrning eng xavfli ekologik inqirozlaridan biridir. O‘zbekiston kabi iqlimi keskin o‘zgarayotgan davlatlarda ham SI texnologiyalari yordamida suv resurslarini boshqarish, issiqxona gazlari monitoringi kabi sohalar rivojlantirilsa, nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlik ta’minlanadi. Demak, SI bu sohada bashorat qiluvchi aql sifatida ishlamoqda — bu juda zarur. Google Cloud asosidagi Wildlife Insights fototuzoq suratlarini tahlil qilib, hayvonlarning soni, joylashuvi va faoliyatini aniqlaydi. PAWS esa brakonerlikni taxmin qiladi va patrullarni to‘g‘ri yo‘naltiradi. [7] Hayvonlar yo‘qolib ketganidan keyin emas, yo‘qolish arafasida yordam ko‘rsatish SI’ning eng buyuk yutug‘idir. PAWS loyihasi ayniqsa zo‘r, chunki SI nafaqat kuzatadi, balki strategik xavfsizlikni ta’minlaydi. Menimcha, bu kabi texnologiyalarni O‘zbekiston tog‘li hududlarida, milliy bog‘larda ham joriy qilish kerak — masalan, qor barsi yoki kamyob qush turlarini asrashda. Microsoft “AI for Water” loyihasi bilan suv havzalarini nazorat qiladi. Google esa Hindistonda suv omborlarining to‘lish darajasini SI yordamida oldindan aniqlaydi.[8] Suv — hayot manbai, lekin bugungi kunda suv inqirozi real tahdiddir. SI bu yerda nazoratchi rolini o‘ynaydi, u muammo chiqqach emas, chiqishidan oldin ogohlantiradi. Ayniqsa qishloq joylarda, suvdan foydalanish madaniyati past bo‘lgan hududlarda SI yordamida suv taqsimotini tartibga solish mumkin. DeepMind algoritmlari quyosh va shamol elektr stansiyalarining samaradorligini 20% ga oshirgan [9]. Bu faktlar shuni ko‘rsatadiki, SI energiya sohasida resurslarni tejash orqali tabiatni asrayapti. Qayta tiklanuvchi energiya SI bilan uyg‘unlashganida, bu nafaqat ekologiya, balki iqtisodiyot uchun ham foydali. O‘zbekistonda quyosh energiyasi salohiyati yuqori bo‘lgani uchun SI texnologiyalari bizda ham muhim bo‘ladi. Har yili 8 million tonna plastik chiqindi okeanlarga tushadi. The Ocean Cleanup sun’iy kamera va algoritmlar bilan chiqindilarni aniqlab, avtomatik yig‘ib oladi.[10] Okeanlarda plastik yig‘ilib, hayot tarmoqlarini buzmoqda. Bu yerda SI “ko‘z” vazifasini bajaradi. Menimcha, bunday tizimlar ichki suv havzalarida, masalan, Amudaryo yoki Sirdaryoda ham foydali bo‘ladi. SI bu yerda tabiatni tozalovchi kuch rolini o‘ynayapti.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki, Sun’iy intellekt – insoniyat va tabiat o‘rtasidagi ko‘prik. Sun’iy intellekt — bu oddiy avtomatlashtirish emas. U bashorat qiladi, ogohlantiradi, tahlil qiladi va himoya qiladi. Tabiatni muhofaza qilishda SI insoniyatning eng katta yordamchilaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston ham bu sohada orqada qolmasligi, o‘zining ekologik muammolariga SI asosida yechim topishi kerak, deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMTning 2023 yilgi hisobotida https://uz.wikipedia.org/wiki/Havoning_ifloslanishi.
2. Solijonov, M. (2022). O‘zbekiston yashil iqtisodiyot sari yo‘l xaritasi. Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti. Xolboyev, N. (2023). Barqaror rivojlanish va ekologik siyosat. Andijon: AndDU nashriyoti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaroriga
4. FAO. (2020). Global Forest Resources Assessment 2020: Main Report. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.
5. Instituto Nacional de Pesquisas Espaciais (INPE). (2020). DETER – Real-time Deforestation Detection System. Brazil: INPE.
6. IBM. (2020). Green Horizon Initiative: AI for Environmental Forecasting. IBM Research.

7. Wildlife Insights. (2022). Transforming Wildlife Monitoring with AI and Camera Traps. URL: https://www.wildlifeinsights.org
8. Google India. (2020). AI for Water Resources Monitoring and Forecasting in India.
9. DeepMind. (2019). Using AI to Predict Wind Power Output. Google DeepMind Blog. URL: https://deepmind.google/discover/blog/wind-power/
10. The Ocean Cleanup. (2022). Innovative AI Solutions for Marine Plastic Removal. URL: https://theoceancleanup.com

YASHIL IQTISODIYOT ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI

Akmalova Zeboxon Akobirxon qizi
akmalovazeboxon1@gmail.com
Alfraganus University Psixologiya yo’nalishi
2-kurs talabasi

Annotatsiya: Global ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida insoniyatni barqaror rivojlanishga olib boruvchi muqobil yo‘llarni izlash zarurati ortib bormoqda. Shunday sharoitda “yashil iqtisodiyot” (green economy) konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan asosiy strategik yo‘nalish sifatida qabul qilinmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning barqaror rivojlanishdagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarning bu jarayondagi ahamiyati va amaliy tatbiqlari tahlil etiladi.

Maqolada, avvalo, yashil iqtisodiyot tushunchasining shakllanish tarixi, uning asosiy tamoyillari — ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat prinsiplari yoritiladi. Shundan so‘ng, raqamli texnologiyalar (sun’iy intellekt, IoT – “narsalar interneti”, “aqlli” tizimlar, katta ma’lumotlar tahlili, blokcheyn va boshqalar) yordamida tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkorligini oshirish, ekologik monitoring olib borish kabi sohalardagi imkoniyatlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Xususan, aqlli qishloq xo‘jaligi, raqamli energetika, ekologik kuzatuv tizimlari va raqamli iqtisodiy rejalashtirish modellarining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni alohida yoritiladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ekologik muammolarning ol dini olishda, balki yashil biznes, ekologik investitsiyalar va barqaror innovatsion iqtisodiy model yaratishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi isbotlab beriladi.

Maqola natijalari yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tadbiq qilish, raqamli yechimlardan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlik va innovatsion rivojlanish sohalarida strategik qarorlar qabul qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, ekologik samaradorlik, aqlli tizimlar, IoT, big data.

So‘nggi o‘n yilliklarda global miqyosda ekologik muammolar keskin kuchayib, iqlim o‘zgarishlari, tabiiy resurslarning tez kamayishi, ifloslanish darajasining oshishi kabi holatlar insoniyatning barqaror rivojlanish strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda (BMT, 2015). Shu sababli, iqtisodiyot va atrof-muhitni muvozanatlashga qaratilgan yangi yondashuv — yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi dunyo hamjamiyati tomonidan barqaror taraqqiyotning muhim yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda (OECD, 2011).

Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samarali foydalanishni, chiqindilarni kamaytirishni va ijtimoiy adolatni ta’minlashni maqsad qilgan bo‘lib, bu orqali iqtisodiy o‘sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishga intiladi (United Nations Environment Programme, 2011). Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda raqamli texnologiyalarning roli tobora oshib bormoqda. Jumladan, sun’iy intellekt (AI), “narsalar interneti” (IoT), katta ma’lumotlar (big data), blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalar atrof-muhitni monitoring qilish, resurslarni boshqarish va chiqindilarni optimallashtirishda samarali vositalar sifatida keng qo‘llanilmoqda (World Economic Forum, 2020).

Misol uchun, “aqlli” energetika tizimlari energiya samaradorligini oshirsa (IRENA, 2021), IoT sensorlari orqali suv resurslarining holati real vaqtda kuzatiladi (FAO, 2019). Shuningdek, blokcheyn

texnologiyasi ekologik investitsiyalarni shaffoflashtirishda va karbon izlarini kamaytirishda qo‘llanilmoqda (European Commission, 2020). O‘zbekiston Respublikasining ham “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo‘yicha strategik hujjatlari mavjud bo‘lib (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilgi farmoni), mamlakatda raqamli texnologiyalar yordamida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nazariy asoslari, zamonaviy raqamli texnologiyalarning bu jarayondagi roli va amaliy tadbiqlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi hamda kelajak istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi mavzusi so‘nggi yillarda ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan asosiy tadqiqotlar va ularning mualliflari quyidagicha ta’riflanadi.

1. Jeykobson va boshqalar (Jacobson et al., 2015)

Jeykobson va hamkasblari barqaror energetika tizimlarini yaratishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini o‘rganib, ayniqsa, “aqlli” energiya tarmoqlari (smart grids) va sun’iy intellekt algoritmlari orqali energiya samaradorligini oshirishni ta’kidladilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, raqamli transformatsiya yashil iqtisodiyotga o'tishda energiya ishlab chiqarish va iste’molining ekologik izini kamaytirishda muhim vositadir (Jacobson et al., 2015, *Energy & Environmental Science*).

2. Kagermann va boshqalar (Kagermann et al., 2013)

Raqamli transformatsiya va “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasi doirasida, Kagermann va hamkasblar IoT va katta ma’lumotlar yordamida sanoat jarayonlarini optimallashtirish orqali chiqindilarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni yoritdilar. Ularning ilmiy ishlarida yashil iqtisodiyot uchun raqamli innovatsiyalar asosiy drayver hisoblanadi (Kagermann et al., 2013, *Management of Industrial Research*).

3. Schwab (2016)

Jahon Iqtisodiy Forumi rahbari Klaus Schwab raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyotning uyg‘un rivojlanishi haqida ko‘p ishladi. Schwab ta’kidlaganidek, sun’iy intellekt, blokcheyn va IoT barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, ayniqsa atrof-muhit monitoringi va resurslarni boshqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega (Schwab, 2016, *The Fourth Industrial Revolution*).

4. Kuznetsov va boshqalar (Kuznetsov et al., 2020)

Rossiyalik olimlar Kuznetsov va hamkasblari yashil iqtisodiyot doirasida raqamli texnologiyalar yordamida chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar olib bordilar. Ularning amaliy tajribalari raqamli yechimlarning samaradorligini ko‘rsatdi (Kuznetsov et al., 2020, *Journal of Environmental Management*).

5. O‘zbekiston Respublikasi olimlari

O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi mavzusida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Abdullayeva M. (2021) raqamli monitoring tizimlarining mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rnini tadqiq qildi va ularning barqaror rivojlanishdagi ahamiyatini ta’kidladi (Abdullayeva, 2021, *O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi ilmiy hisobotlari*).

So‘nggi yillarda global ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi fonida yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi barqaror rivojlanish strategiyasining markaziy elementi sifatida shakllandi. Ushbu iqtisodiy model atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy raqamli texnologiyalar — sun’iy intellekt, “narsalar interneti”, katta ma’lumotlar tahlili va blokcheyn — yashil iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirishda hal qiluvchi vositalar hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar atrof-muhitni real vaqt rejimida monitoring qilish, energiya va suv resurslarini optimallashtirish hamda ekologik investitsiyalarni shaffoflashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi strategik hujjatlar mavjudligi, ularning amaliyotga tatbiq etilishi istiqbollarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishi ekologik xavfsizlik, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion texnologiyalarni kengroq qo‘llash va davlat siyosatini samarali amalga oshirish yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning asosiy omillari bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). *2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari* [Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development]. Toshkent: BMT Nashriyoti.
2. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). (2011). *Yashil o‘sishga tomon* [Towards Green Growth]. Paris: OECD Nashriyoti.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Dasturi (UNEP). (2011). *Yashil iqtisodiyotga yo‘nalish: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish yo‘llari* [Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication]. Nairobi: UNEP.
4. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF). (2020). *To‘rtinchi sanoat inqilobi va Yer muhofazasi* [Harnessing the Fourth Industrial Revolution for the Earth]. Jeneva: WEF Nashriyoti.
5. Xalqaro Qayta tiklanadigan Energetika Agentligi (IRENA). (2021). *Aqlli energetika tarmoqlari va qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi* [Smart Grids and Renewable Energy Integration]. Abu-Dabi: IRENA.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq xo‘jaligi va Oziq-ovqat Tashkiloti (FAO). (2019). *Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish* [Water Use Efficiency in Agriculture]. Rim: FAO Nashriyoti.
7. Yevropa Komissiyasi. (2020). *Ishonchli va barqaror kelajak uchun blokcheyn texnologiyasi* [Blockchain for a Trusted and Sustainable Future]. Bryussel: Yevropa Ittifoqi Nashriyoti.

IDORALARARO INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI

Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
Soliq qo‘mitasi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti Idoralararo integratsiya bo‘limi davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada idoralararo integratsiya tushunchasi va uning davlat boshqaruvidagi ahamiyati shuningdek boshqa vazirlik tashkilotlar ma’lumotlari asosida soliq hisobotlarini haqqoniy va to‘g‘ri topshirilishi tashqi manba ma’lumotlari asosida soliq to‘lovchilarning hisobotlarini to‘liq avtomatlashtirilib inson omilini kamaytirish orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshirish ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: soliq munosabatlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, korrupsion omillar, idoralararo integratsiya, tashqi manba, axborot tizimlari, metodologik asoslar.

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida, soliq siyosatining samarali tashkil etish va raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarining raqamli ko‘nikmalarini yaxshilash, raqamli ma’lumotlarni boshqarishda yangi yechimlarni joriy etish va mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish muammoli masalalar sifatida qolmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq[4], O‘zbekistonning barcha sohalarda, jumladan soliq sohasida ham, raqamli transformatsiyani amalga oshirish rejalashtirilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash hamda shu orqali iqtisodiyotning samaradorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini oshirishdir. Strategiya doirasida soliq sohasidagi muammolarni hal etish va ularni raqamli transformatsiya jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat soliq

[4] “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yil, PF-6079-son.

sohasining, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri - mamlakatni raqamli rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga yordam beradi.

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to‘lashdan qochishning turli xil yo‘llarini izlash va undan soliq to‘lovchilar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlar-yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni “foydani o‘tkazish” amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o‘tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda”.[5]

Soliq munosabatlari davlat moliyaviy siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

Majburiylik — soliqlar to‘lovchilar tomonidan davlatga majburiy tarzda to‘lanadi;

Biryoqlamalik — soliq to‘lovchi soliq to‘lagani evaziga bevosita xizmat olmaydi;

Normativlik — soliqlar qonun hujjatlari asosida undiriladi;

Adolatlilik — soliq yukining aholining moliyaviy ahvoliga mos taqsimlanishi.

Elastomer kompozitlarni ishlab chiqarishda jarayonni modellashtirish yordamida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Jarayonni optimallashtirish: Vulkanizatsiya, aralashtirish va qoliplash kabi jarayonlarni modellashtirish hamda ularning texnologik-kinetik parametrlarini optimallashtirish imkoniyatini yaratadi.

Elastomer sifatini bashoratlash: Elastomer kompozit materiallarining sifatini belgilab beradigan mexanik, termik va dielektrik xususiyatlarini ishlab chiqarishdan oldin prognoz qilish imkonini beradi.

Noaniqlik va xatoliklarni aniqlash: Jarayonni modellashtirish yordamida ishlab chiqarish jarayonidagi noaniqliklar hamda xatoliklarni oldindan aniqlash va ularni tuzatish yo‘llarini topish mumkin.

Resurslarni tejash: Jarayonlarni imitatsion modellashtirish orqali real ishlab chiqarish sharoitida moddiy resurslar va vaqtni tejashga yordam beradi.

Ishlab chiqarish tizimining faoliyatini yaxshilash: Jarayonni boshqarish va optimallashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Elastomer kompozitli materiallar ishlab chiqarish jarayonini modellashtirishda quyida keltirib o‘tilgan modellashtirish metodologiyalaridan foydalanish mumkin. Birinchi usul bu chekli elementlar usuli yordamida hisoblash va modellashtirish hisoblanib, bunda fizik tizim ideallashtirish orqali matematik modellashtiriladi. Keyingi qadamda esa ishlab chiqilgan matematik modelni chekli elementlar usuli yordamida diskret modelga aylantirishdan iborat. Diskret model yordamida modellashtirish natijalarini tadqim etadigan diskret yechim aniqlanadi. Bunda yechimni aniqlash mobaynida xatoliklar aniqlansa, diskret yechim xatoligi ideallashtirish va diskretlashtirish qadamlariga qaytariladi.

Chekli elementlar usuli yordamida asosan elastomer kompozit materialning mexanik, plastiklik, elastiklik va termik xususiyatlari, jumladan, kauchukdagi mexanik kuchlanish, deformatsiyalanishi, issiqlik o‘tkazuvchanligi parametrlari modellashtiriladi. Elastomer kompozit materiallarini modellashtirishning navbatdagi usuli termik modellashtirish hisoblanib, bu usulda elastomer kompozitlar ishlab chiqarishda issiqlik uzatish va haroratni rostlash asosiy parametrlardan biri hisoblanadi. Vulkanizatsiya jarayonida haroratni bir xil kattalikda ushlab turish jarayonning borishini tezlashishiga va mahsulotning sifatini yaxshilanishiga olib keladi. Vulkanizatsiya jarayonida elastomer kompozit materiallarining ichida issiqlikning tarqalishi va issiqlikning uzatish jarayonlarini modellashtirish mumkin bo‘ladi. Bu modellashtirishda vulkanizatsiya jarayonidagi to‘ldiruvchilar va

polimerlar o‘rtasidagi issiqlik uzatish hisoblanadi. Temperaturaning holati ya’ni ko‘tarilishi yoki pasayishi vulkanizatsiyadan so‘ng materialning mexanik xossalari, elastiklikligiga ta’sir qiladi, shuni hisobga olgan holda temperaturani to‘g‘ri boshqarish talab etiladi. Vulkanizatsiya jarayonining kimyoviy reaktsiyalarini simulyatsiya qilish uchun jarayonning kinetikasi, to‘ldiruvchilarning va oltingugurtning o‘zaro aloqalari modellashtiriladi.

Masalaninig qo‘yilishi. Vulkanizatsiya jarayonidagi noaniqliklarni simulyatsiya qilish. Vulkanizatsiya jarayonida harorat, bosim va vaqt kabi parametrlarning o‘zgarishi noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu noaniqliklarni kompyuter simulyatsiyalari orqali hisoblash mumkin, bu esa jarayonni yanada optimallashtirish imkonini beradi. Elostomer kompozitlar ishlab chiqarishda optimal vulkanizatsiya vaqtini aniqlashda, kinetik egrilik grafiklari yuqori qiymatga erishish uchun yetarlicha vaqt talab etiladi.

Elastomer kompozit materialning vulkanizatsiya vaqtining hisoblash uchun, polimer mahsulotning kinetik sxemasi o’rganilib chiqiladi.Kimyoviy o‘zgarishlar sxemasini aniqlashtirish uchun eng to‘liq reaksiyalar mexanizmini asos sifatida olish maqsadga muvofiqdir. Elastomer kompozit materialning vulkanizatsiya vaqtining hisoblash uchun, polimer mahsulotning kinetik sxemasi o’rganilib chiqiladi. Kimyoviy o‘zgarishlar sxemasini aniqlashtirish uchun eng to‘liq reaksiyalar mexanizmini asos sifatida olish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun 1-6 formulalarda keltirilgan kinetik sxemaga qo‘shimcha reaksiyalar kiritish taklif qilingan. Ushbu reaksiyalar oltingugurt molekulalarining o‘zgartirilishiga, makroradikalning hosil bo‘lishiga va uning haqiqiy vulkanizatsiyalovchi agent bilan reaksiyaga kirishishini sodir qiladi. [3].

$$A \xrightarrow{k_1} B \xrightarrow{k_2} B^{*} \quad (1)$$

$$B \xrightarrow{k_2} B \xrightarrow{k_3} \alpha \cdot V_{tb} \quad (2)$$

$$A + B^{*} \xrightarrow{k_4} \beta \cdot B \quad (3)$$

$$B^{*} \xrightarrow{k_5} B \cdot \gamma \cdot V_{tbb} \quad (4)$$

$$V_{tbb} \cdot \gamma \xrightarrow{k_6} B^{*} \quad (5)$$

$$B^{*} \xrightarrow{k_7} \delta \cdot C \quad (6)$$

$$R \xrightarrow{k_8} B \quad (7)$$

Vulkanizatsiya jarayonining kinetik sxemasi

Bu yerda ***A***-Vulkanizatsiyalovchi agent ***B***-O‘zaro bog‘lovchi qo‘shma bog’ **B***-faol o‘zaro bog‘lanish shakli ***C***- Molekulalar orasidagi bo‘g‘langan oltin gugurt Vu_{St}, Vu_{Lab}-*Vulkanizatsiya to‘rlarining barqaror va labil tugunlari* ***R***-kauchuk makroradikal, termal tebranishlarning parchalanishi natijasidan hosil bo‘lgan. α, β, γ va δ- stexiometrik koyffitsentlar. $k_1, k_2, \ldots k_8$, *-reaksiya tezliklarning konstantalar.*

Vulkanizatsiya jarayonining kimyoviy o’zgarish sxemasini ifodalashda reaksiya mexanizmini yoritishni yuqori darajaga ko’tarish kerak. Shu sababli ma’lum knetik sxemaga, qo’shimcha reaksiyalarni qo’yish kerak, bu reaksiyalar oltingugurt molekulalarini strukturasini o’zgartirish yo’li bilan mikroradikal va vulkanizatsiyalovchi agent reaksiyalarni hosil qiladi.

Vulkanizatsiya jarayonining matematik modellari asosan reaksiyaning tezlik qonunlari va haroratning ularning o‘zgarishiga ta’sirini hisobga olishga asoslanadi. Reaktsiya tezliklari haroratning o‘zgarishi bilan farqlanadi, shuning uchun haroratning reaksiyaning tezlikiga ta’sirini aniqlash jarayonni to‘g‘ri tushunish va modellashtirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday jarayonlarni tavsiflashda eng keng

tarqalgan va samarali matematik model sifatida Arrenius tenglamasi ishlatiladi. Reaktsiya tezliklari, ko‘pincha haroratning o‘zgarishi bilan o‘zgaradi va bu bog‘lanish jarayonini model qilishda muhim parametr hisoblanadi. Haroratga bog‘liq bo‘lgan tezlik konstantalarining o‘zgarishini tahlil qilishda eng ko’p tarqalgan matematik ifoda bu Arrenius tenglamasi hisoblanadi. Arrenius tenglamasi yordamida har bir temperatura uchun reaksiya tezlik konstantalari hisoblanadi.1-jadvalga keltirilgan reaksiya tezlik

konstantalari shu tenglamadan foydalanib hisoblab topilgan [8]. Quyida Arrenius tenglamasi formulasi keltirilgan.

$$k = A \cdot e^{-\frac{E}{RT}} \qquad (8)$$

Vulkanizatsiya jarayonida vulkanizatsiya kinetikasining masalarini yechish uchun masalaning to’g’ri yechimi bu vulkanizatsiyada hosil bo’lgan konsentratsiyaning bo’g’inlarini vaqt bo’yicha o’zgarish funksiyasi aniqlanadi. Kinetikaning to’g’ri masalalarni yechish deganda Koshi tengalmasi bo’yicha masala yechishni tushinamiz (9) oddiy diffirensial tenglamada keltirilgan. Jarayonning kinetik o’zgarish chizig’i M(t) o’zgaruvhi moment qiymatlari orqali aniqlash mumkin. Differensial tengalmalar mavjud hisoblash raqamli usul bilan amalga oshiriladi. Kinetikaning teskari masalalarini yechimi qo’llanilganda optimallastirishning chegaralangan va chegralanmagan usullaridan foydalaniladi. Kinetkaning masalalari yechimlarini MATLAB dasturida integratsiyalashgan muhitida ishlab chiqilgan muammoli dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshiriladi.[2]

$$\begin{cases} \frac{dC_A}{dt} = -k_1 \cdot C_A - k_4 \cdot C_A \cdot C_D \\ \frac{dC_B}{dt} = k_1 \cdot C_A - k_2 \cdot C_B + k_8 \cdot C_M + \beta \cdot k_4 \cdot C_A \cdot C_D \\ \frac{dC_D}{dt} = k_2 \cdot C_B - k_7 \cdot C_D - k_5 \cdot C_D - k_3 C_D + k_6 C_{Vtbb} - k_4 \cdot C_A \cdot C_D \\ \frac{dC_{V_{tb}}}{dt} = \alpha \cdot k_3 \cdot C_D \\ \frac{dC_{V_{tbb}}}{dt} = \gamma \cdot k_5 \cdot C_D - k_6 \cdot C_{Vtbb} \\ \frac{dC_C}{dt} = \delta \cdot k_7 \cdot C_D \\ \frac{dC_M}{dt} = k_8 \cdot C_R - C_M \\ \frac{dC_R}{dt} = -k_8 \cdot C_R \end{cases} \qquad (9)$$

Bu yerda C_A- vulkanizatsiyalovchi agent концентрация; C_B- o‘zaro qo‘shma bog‘ kontsentratsiyasi; C_D- o‘zaro bog‘lanishning faol kontsentratsiyasi; C_{Vtb} - barqaror vulkanizatsiya tugunlarining kontsentratsiyasi; C_{Vtbb}-barqaror bo’lmagan vulkanizatsiya tugunlarining kontsentratsiyasi; C_c - ichkimolekulyar bog’langan oltingugurt konsentratsiyasi; C_M - kauchuk makroradikal konsentratsiyasi; C_R- kauchuk konsentratsiyasi; $\alpha, \beta, \gamma, \delta$ – stexiometrik koeffitsientlar; $k_1, \dots, k_8$ – reaksiya tezligi konstantalari. Vulkanizatsiyani tezlashtiruvchi agentni boshlang‘ich kontsentratsiyasini ko‘paytirish orqali aniqlaymiz.

$$[VTA]=\xi\cdot[S]\cdot[A_C]\cdot[Akt]^{\theta}\cdot[R]^{\eta} \qquad (3)$$

[VTA]- Vulkanizatsiyani tezlashtiruvchi agent. Bu yerda ξ, θ, η, - konstantalar, $[Akt]^{\theta}$ – aktivatorning boshlang‘ich konsentratsiyasi (natriy oksidi), $[S]$– oltingugurtning boshlang‘ich konsentratsiyasi, $[R]^{\eta}$ – kauchuk makroradikalning boshlang‘ich konsentratsiyasi, $[A_C]$–tezlatgichning boshlang‘ich konsentratsiyasi.

Vulkanizatsiya vaqtidagi reaksiya tezlik konstantalari qiymatlari 1-***jadval***

Параметр	**T=145⁰C**	**T=155⁰C**	**T=165⁰C**
k_1, [с$^{-1}$]	0.000188	0.000566	0.000985
k_2, [с$^{-1}$]	0.005621	0.008709	0.0255

k_3 , [c^{-1}]	0.09802	0.000200	2.26e-015
k_4, [c^{-1}]	0.004376	0.007025	0.02112
k_5, [c^{-1}]	2.133e-023	3.195e-034	6.117e-045
k_6, [c^{-1}]	7.066e-023	2.547e-013	4.111e-012

k_7, [c^{-1}]	0.002406	0.006489	0.00812
k_8, [c^{-1}]	0.00302	0.06028	0.08514

Ushbu tadqiqotda elastomer kompozit materiallarning vulkanizatsiya jarayonining optimal vaqtini aniqlash maqsadida matematik modellash usullari asosida kompyuter modelini yaratish jarayoni chuqur o‘rganilgan. Elastomerlarning vulkanizatsiya jarayonini aniq va samarali boshqarish uchun ilmiy asoslangan matematik modellarning ishlab chiqilishi, jarayonni to‘g‘ri boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarurdir.Vulkanizatsiya jarayonining optimal vaqtini aniqlash jarayoni juda ko‘p omillarni hisobga olishni talab qiladi. Bu omillar orasida harorat, bosim, modifikatorlar, vulkanizatsiya agentlari, materialning tarkibi va boshqa tashqi omillar mavjud. Matematik modellar orqali bu parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va optimal vaqtni aniqlash, kompozit materiallarning mukammal sifatini ta'minlash va ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Shunday qilib, ushbu tadqiqotda o‘rganilgan kompyuter modelini yaratish jarayoni, elastomerlarning vulkanizatsiya jarayonini yanada samarali va aniq boshqarish imkonini beradi, natijada yuqori sifatli materiallar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan vaqt va resurslar aniq belgilanishi mumkin. Vulkanizatsiya jarayonining optimal vaqtini aniqlash, ko‘plab parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olishni talab etadi, shu jumladan harorat, bosim, modifikatorlar va boshqa tashqi omillar. Ushbu parametrlar vulkanizatsiya tezligini va uning samarasini sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Matematik modellashtirish orqali bu jarayonni optimallashtirish va aniq bashorat qilish mumkin bo‘ladi. Kompyuter modelini ishlab chiqish orqali, bunday matematik ifodalar dasturiy ta'minotga kiritilgan. Kompyuter modelining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u eksperimentlarni o‘tkazishdan oldin jarayonni simulatsiya qilish imkonini beradi, bu esa vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi. Jarayonning matlab dasturidagi imitatsion kompyuter modeli quyidagi ko’rinishga ega bo‘ladi.



2-rasm Vulkanlash darajasi taqsimlanishini uch o‘lchovli grafigi.



3-rasm Kauchuklar qorishmasining imitatsion modeli.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda polimer mahsulotlarni vulkanizatsiya jarayonidagi bir nechta parametrlarni inobatga olgan holda vulkanizatsiya vaqtini optimali matlab dasturi yordamida hisoblandi. Bunda berilgan kinetik sxemaga qo’shimcha vulkanizatsiyalovchi agent qo’shilib undagi parametrlarni matematik ifodalrda o‘rganilib chiqildi va hisoblab topildi. Matlab dasturi yordamida amalga oshirilgan hisoblashlar natijasida vulkanlanish jarayonining optimal vaqti ellik daqiqaga teng bo‘ldi. Ushbu natija dasturga kiritilgan parametrlar asosida aniq hisoblangan bo‘lib, vulkanizatsiya jarayonining samarali o‘tishini ta’minlash uchun muhim rol uynaydi. Maqolada keltirilgan metodologiya, texnologik jarayonlarni optimallashtirish maqsadida energiya sarfini kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan. Umuman olganda Matlab dasturi yordamida olib borilgan hisoblashlar, vulkanlanish

jarayonining optimal parametrlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni amaliyotda qo‘llash orqali sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikni oshirish mumkin. Maqolada foydalangan dasturimizda unda kutilayotgan natijalar energiya sarfini kamaytirib mahsulotning sifatini oshiradi. Matlab dasturi asosida hisoblash natijalaridan so‘ng optimal vulkanizatsiya vaqti ellik daqiqaga teng bo‘ldi. Laboratoriya qurilmasida o’tkazilgan tajribadan besh minut oldin tugallandi bu energiyani tejash va yaxshilash imkonini beradi unumdorligi 8%ga teng bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Макаров И.М., Лохин В.М. Интеллектуальные системы автоматического управления. Москва; Физматлит, 2001, 576 стр
2. Кошелев, Ф.Ф. Общая технология резины / Ф.Ф. Кошелев, А.Е. Корнев, А.М. Буканов. М., Химия, 2018, 528 С
3. Карманова О.В Новый подход к решению задачи кинетики изотермической вулканизации [Текст] / XVIII международная научно-практическая конференция «Резиновая промышленность». – Москва, 2012. – С. 227-228
4. Omatu, S., Khalid, M., Yusof, R. Neuro-Control and its applications. London: Springer-Verlag, 1995, 255 p.
5. Г. С. Хакимзянов, Математическое моделирование, Новосибирск, 2014 218 с.
6. Емельянов, В.В. Теория и практика эволюционного моделирования [Текст] / В.В. Емельянов, В.В. Курейчик, В.М. Курейчик // М.: Физматлит, 2003. – 432с
7. Донцов, А. А. Процессы структурирования эластомеров [Текст] / А. А. Донцов – М.: Химия, 2018. – 288 с
8. Yan X (2007) A numerical modeling of dynamic curing processof tire by finite element. Polym J 39:1001–1010
9. Yau Y.H., Wong H.F. and Ahmad N., Numerical Heat Transfer Study for A Large Rubber Product. International Journal of Heat and Mass Transfer, 55 (2012) 2879-2888.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDAGI USTUNLIKLARI VA QO‘LLANILISH SAMARADORLIGI

Ergashev Abrorbek Raxmatulla o’g’li
ISFT Instituti o’qituvchisi
abrorbekergashev96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining iqtisodiyotdagi rolini tahlil qiladi. IMRAD tuzilmasiga asoslangan holda, turli sohalardagi (moliya, sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligi) amaliy misollar va ilmiy manbalar asosida SI’ning beshta asosiy afzalligi aniqlangan: ma’lumot tahlili, operatsion samaradorlik, mijozlar bilan aloqalar, innovatsiya va xavf-xatarlarni boshqarish. Natijalar diagrammalar yordamida tasdiqlanib, SI’ning xarajatlarni qisqartirish, yangi bozorlar yaratish va iqtisodiy barqarorlikni oshirishdagi salohiyati ko‘rsatilgan. Tadqiqot SI’ning tez sur’atda rivojlanayotganini, shu bilan birga mehnat bozoriga va axloqiy me’yorlarga ta’sirini ham muhokama qiladi. Xulosa sifatida, SI’ni samarali joriy etish uchun qayta tayyorlash, tartibga solish va axloqiy yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, iqtisodiyot, ma’lumot tahlili, innovatsiya, xarajatlarni kamaytirish, xavfni boshqarish, avtomatlashtirish, axloqiy SI.

KIRISH

Sun’iy intellekt (SI) – global iqtisodiyotga tub o‘zgarishlar olib kirayotgan texnologik inqilobning oldingi safida turibdi. Mashinali o‘rganish, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va robototexnika kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan SI insonning kognitiv jarayonlarini taqlid qiladi va ilgari inson aqlini talab qilgan vazifalarni mashinalar orqali bajarishga imkon yaratadi. Uni iqtisodiyotga – ya’ni tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi, taqsimoti va iste’moliga doir soha – tatbiq etilishi moliya, ishlab

chiqarish, chakana savdo, qishloq xo‘jaligi va davlat siyosatigacha bo‘lgan barcha sohalarda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. 2025-yil 10-aprel holatiga ko‘ra, Xalqaro Ma’lumotlar Korporatsiyasi (IDC) hisobotida keltirilishicha, dunyo bo‘yicha SI texnologiyalariga yillik xarajatlar 150 milliard dollardan oshib ketgan bo‘lib, bu xarajatlarning muhim qismi iqtisodiy sohalarga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiyotda sun’iy intellektni qo‘llashning afzalliklari juda keng va ko‘p qirrali. Asosiy jihatdan, SI takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi, ma’lumotlarga asoslangan tahlillar yordamida qaror qabul qilish sifatini yaxshilaydi va yangi bozorlar hamda imkoniyatlarni ochish orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Bu afzalliklar resurslar tanqisligi, bozorlarning beqarorligi va tobora o‘zaro bog‘lanib borayotgan dunyoda barqaror o‘sish ehtiyoji kabi dolzarb iqtisodiy muammolarga yechim bo‘lishi mumkin. Masalan, SI asosidagi bashorat modellari korxonalarga talabdagi o‘zgarishlarni oldindan ko‘rish imkonini beradi, aqlli avtomatlashtirish esa operatsion xarajatlarni keskin kamaytiradi va bizneslarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, hukumatlar SI’ni fiskal siyosatni optimallashtirish va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashishda qo‘llashmoqda, bu esa uning makroiqtisodiy ta’sirini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu tadqiqotga turtki bo‘lgan omil – bu SI texnologiyalarining tobora keng ko‘lamda qo‘llanilishi va ularning aniq iqtisodiy foydalarini tushunishga bo‘lgan ehtiyojdir. Tarixiy texnologik sakrashlar – masalan, sanoat inqilobidagi bug‘ dvigateli yoki XX asrdagi elektrlashtirish jarayoni – iqtisodiyotlarni o‘zgartirish uchun o‘nlab yillar talab qilgan bo‘lsa, SI texnologiyalari bulutli hisoblash tizimlari va ochiq manbali platformalar orqali bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirmoqda. McKinsey Global Institute’ning 2024-yildagi hisobotiga ko‘ra, SI 2035-yilgacha global YAIM o‘sishini har yili 1,2% ga oshirishi va 20 trillion dollardan ortiq iqtisodiy qiymat yaratishi mumkin. Biroq bu transformatsiya xavfsiz emas – ish o‘rinlarining qisqarishi va axloqiy muammolar kabi xavflar ham mavjud, bu esa SI’ning rolini muvozanatli baholashni talab qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Iqtisodiyotda sun’iy intellektning afzalliklarini o‘rganish uchun qat’iy sifatli tadqiqot metodologiyasi qo‘llanildi, bunda turli manbalardan olingan ikkilamchi ma’lumotlar tahlil qilindi. Ushbu yondashuv mavjud ilmiy-adabiy manbalar va amaliy misollardan to‘liq foydalanish imkonini bergani sababli tanlandi va yuqorida ko‘rib chiqilgan adabiyotlar tahliliga tayandi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: (1) chuqur kasbiy tadqiqotlar tahlili, (2) turli sohalar kesimida solishtirma tahlil, hamda (5) umumiy xulosalarni shakllantirish. Bu jarayonlarning barchasi 2025-yil aprel holatiga qadar bo‘lgan rivojlanishlarni aks ettirishga yo‘naltirilgan. “Natijalar” bo‘limida berilgan diagramma murakkab ma’lumotlarni vizual tarzda umumlashtirib, "bashoratli tahlil" va "iqtisodiy o‘sish" kabi asosiy kalit so‘zlar bilan uyg‘unlikda ishlatilgan. Ikkinchi bosqichda iqtisodiyotning turli tarmoqlari va geografik hududlarini aks ettiruvchi 10 ta kasbiy holat (case study) chuqur o‘rganildi. Uchinchi bosqichda tarmoqlararo taqqoslash orqali SI’ning turli sohalardagi ta’siri baholandi, bunda 2024-yilgi Jahon Iqtisodiy Forumi (World Economic Forum) tomonidan e’lon qilingan investitsiyalarning qaytimi (ROI) kabi statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Yakuniy bosqichda esa barcha natijalar IMRAD tuzilmasi doirasida umumlashtirildi: Adabiyotlar Sharhi kontekstni berdi, Usullar yondashuvni tushuntirdi, Natijalar grafikalar orqali natijalarni taqdim etdi va Muhokama esa ularning ahamiyatini talqin qildi. Tadqiqotning cheklovlari – ikkilamchi ma’lumotlarga tayanganligi va 2025-yil apreldan keyingi tendensiyalarning hisobga olinmaganligi – tahlil chuqurligi va vizual vositalar orqali qoplandi.

NATIJALAR

Tahlil natijasida iqtisodiyotda sun’iy intellektni qo‘llashning beshta asosiy ustunligi aniqlanib, ular ilmiy adabiyotlar, kasbiy holatlar (case studies) va tarmoqlararo kuzatishlar orqali tasdiqlandi. Ushbu afzalliklar diagramma (1–2-rasmlar) orqali ko‘rsatilgan bo‘lib, asosiy ma’lumotlar va tendensiyalarni vizual tarzda aks ettiradi va matndagi tahlillarni yanada kuchaytiradi.

Ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va bashorat qilishning kuchayishi SI katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va aniq bashoratlar berish imkoniyati bilan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Masalan, AQShdagi Renaissance Technologies kompaniyasining Medallion fondi maxsus sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanib, bozor signallarini tahlil qiladi va 1988-yildan beri yillik o‘rtacha 66% daromadga erishgan — bu inson tahlili bilan erishib bo‘lmaydigan ko‘rsatkichdir. 2024-yilda *Journal of Financial Economics* jurnalida

chop etilgan tadqiqotda bu muvaffaqiyat SI’ning real vaqt rejimida nozik tendensiyalarni — masalan, investor kayfiyati yoki xomashyo narxlaridagi o‘zgarishlarni — aniqlash qobiliyatiga bog‘liq ekani qayd etilgan.

Xuddi shuningdek, BP kompaniyasi AI texnologiyalaridan energiyaga bo‘lgan talabni bashorat qilishda foydalanadi va bu prognoz xatoliklarini 18% ga kamaytirishga yordam beradi (2023-yilgi kompaniya hisobotiga ko‘ra), bu esa beqaror bozor sharoitida resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligida John Deere kompaniyasining SI vositalari hosildorlikni 95% aniqlikda bashorat qiladi, bu esa fermerlarga ekin ekish jadvalini moslashtirish va isrofgarchilikni kamaytirish imkonini beradi, natijada qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti mustahkamlanadi. Markaziy banklar, masalan, Yevropa Markaziy banki SI yordamida inflyatsiya va ishsizlik ko‘rsatkichlarini modellashtiradi, natijada an’anaviy usullarga nisbatan prognoz xatolari 20% ga kamaygan (2025-yilgi ECB oq qog‘oziga ko‘ra).

1-rasm: Sun’iy intellekt asosidagi prognozlar aniqligi – sohalar kesimida[12]



Operatsion samaradorlik va xarajatlarni qisqartirish AI (sun'iy intellekt) turli sohalardagi jarayonlarni optimallashtiradi, bu esa xarajatlarni kamaytirish va unumdorlikni oshirishga olib keladi. Siemens kompaniyasining AI asosidagi prognoz+li texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari sanoat uskunalarini nazorat qiladi va 2024-yilgi yillik hisobotga ko‘ra, nosozliklar tufayli to‘xtab qolishlarni 30% ga, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini esa 25% ga kamaytirgan. Logistika sohasida, DHL kompaniyasining AI algoritmlari 220 ta mamlakat bo‘ylab yetkazib berish yo‘nalishlarini optimallashtiradi, bu esa yoqilg‘i xarajatlarini 15% ga tejash va yetkazib berish vaqtini 12% ga qisqartirish imkonini beradi (2023-yilgi logistika tadqiqotiga ko‘ra). Amazon bu borada yanada ilgari borgan bo‘lib, AI yordamida ombor robotlari va inventarizatsiyani boshqaradi hamda 2025-yilga kelib yillik $22 milliard tejalishini ta’minlaydi. Ishlab chiqarishda, Toyota o‘zining “just-in-time” ishlab chiqarish tizimiga AI ni integratsiya qilib, ortiqcha zaxiralarni 40% ga kamaytirgan (2024-yilgi Harvard Business Review tadqiqotiga ko‘ra). Deloitte’ning 2025-yildagi hisobotiga ko‘ra, AI asosidagi samaradorlik orqali 2030-yilgacha global sanoat sohalari yillik $5 trilliongacha mablag‘ tejashi mumkin. Quyidagi rasmda turli sohalar bo‘yicha xarajatlarning kamayish foizlarini ko‘rsatadigan doira diagrammasi tasvirlangan bo‘lib, sun’iy intellektning iqtisodiy ta’sirini yoritib beradi.

2-rasm: Sun’iy intellekt orqali optimallashtirish natijasida xarajatlarni tejash[13]

[12] Muallif ishlanmasi
[13] Muallif ishlanmasi





Mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash. AI (sun’iy intellekt) bizneslarning iste’molchilar bilan o‘zaro aloqasini o‘zgartirib, savdolar va mijoz sadoqatini oshiradi. Alibaba kompaniyasining AI asosidagi tavsiya tizimi 900 million foydalanuvchi uchun xarid tajribasini shaxsiylashtirib, konversiya ko‘rsatkichlarini 20% ga oshirgan (2024-yilgi kompaniya hisobotiga ko‘ra). Netflix’ning kontent tavsiya algoritmlari tomosha odatlariga asoslanib 80% ko‘rish vaqtini ta’minlaydi va yiliga $1 milliard daromad qo‘shadi (2023-yilgi moliyaviy hisobotga ko‘ra). Mastercard’ning AI chatbotlari mijoz murojaatlarining 70% ini avtomatik tarzda ko‘rib chiqadi, bu esa texnik yordam xarajatlarini 15% ga kamaytirib, javob berish tezligini yaxshilaydi (2025-yilgi sanoat tahliliga ko‘ra). Chakana bank sohasida, AI individual tavakkalchilik profiliga asoslangan kredit takliflarini tayyorlab, tasdiqlash ko‘rsatkichlarini 10% ga oshirgan (2024-yilgi Banking Journal tadqiqotiga ko‘ra). 2025-yilda PwC o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, iste’molchilarning 65% i tezkorligi va dolzarbligi sababli AI yordamidagi xizmatlarni afzal ko‘radi.

Innovatsiya va bozor yaratish.

AI iqtisodiy o‘sishni yangi sohalarni yaratish va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali tezlashtiradi. Shopify’ning AI vositalari kichik bizneslarga narx belgilash va marketingni optimallashtirishda yordam beradi, natijada 2025-yilga kelib foydalanuvchilar soni 2 millionga yetib, global e-tijoratga $50 milliard qo‘shilgan (2024-yilgi kompaniya hisobotiga ko‘ra). Sog‘liqni saqlashda IBM Watson’ning diagnostik AI tizimlari $75 milliardlik yangi bozorni shakllantirgan, bemorlar salomatligini yaxshilagan va butun dunyo bo‘ylab 500 mingta ish o‘rni yaratgan (2025-yilgi JSST bahosiga ko‘ra). Singapur hukumati AI dan shaharsozlik va soliq siyosatini optimallashtirishda foydalanib, 2020-yildan beri $10 milliard iqtisodiy qiymat yaratgan (2024-yilgi hukumat hisobotiga ko‘ra). Fintech sektori AI yordamida rivojlanmoqda — Stripe kabi kompaniyalar to‘lov jarayonlarini soddalashtirib, raqamli tranzaksiyalar hajmini global miqyosda 30% ga oshirgan (2025-yilgi Fintech Magazine hisobotiga ko‘ra).

Xatarlarni boshqarish va firibgarlikni aniqlash.

AI iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Mastercard’ning AI tizimlari yiliga 100 milliard tranzaksiyani tahlil qilib, firibgarlikni 99% aniqlikda aniqlaydi va faqat 2024-yilning o‘zida $30 milliard tejash imkonini bergan. Sug‘urta sohasida Allianz kompaniyasining AI modellari tavakkalchilikni 25% ga aniqroq baholaydi va soxta da’volarni 15% ga kamaytiradi (2025-yilgi sanoat hisobotiga ko‘ra). Energetika kompaniyalari, jumladan BP, AI yordamida bozor tebranishlarini oldindan bashorat qilib, 2022-yildan beri $5 milliard yo‘qotishning oldini olgan. Kiberxavfsizlikda esa Microsoft’ning AI tizimlari 2024-yilda 7 million kiberhujumni bartaraf etib, $100 milliard qiymatdagi raqamli aktivlarni himoya qilgan.

MUNOZARA

Sun’iy intellekt (AI) iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda — u mikro (kompaniya daromadliligi) va makro (YAIM o‘sishi) darajadagi jarayonlarni yangicha shakllantiradi. AI orqali chuqur tahlillar chiqindilarni kamaytirish (Renaissance Technologies, John Deere), ishlab chiqarish samaradorligini oshirish (Siemens, Amazon), mijozlar bilan aloqani yaxshilash (Alibaba, Mastercard), innovatsiya va ish o‘rinlarini yaratish (Shopify, IBM Watson), hamda xatarlarni boshqarish (BP, Mastercard) imkonini beradi. Biroq, bu afzalliklar bilan bir qatorda muammolar ham mavjud. AI avtomatlashtirish tufayli ish o‘rinlariga tahdid solmoqda — OECD’ga ko‘ra, 2040-yilgacha 1 milliard

ish o‘rni yo‘qolishi mumkin. Maxfiylik va algoritmik noxolislik muammolari ham mavjud: Pew va MIT tadqiqotlari iste’molchilar ishonchisizligi va ayrim guruhlarga nisbatan diskriminatsiyani ko‘rsatmoqda.

Shu sababli, manfaatdor tomonlar AI’ni axloqiy asosda joriy etishi, ishchilarni qayta tayyorlashi (LinkedIn, 2025), va kuchli nazorat siyosatini ishlab chiqishi lozim (EU AI qonuni, 2024). Finlandiyaning umumiy asosiy daromad tajribasi va UNESCO’ning ta’limdagi o‘zgarishlari bunga misol bo‘ladi. AI elektr energiyasidan ham kengroq ta’sirga ega bo‘lib, u butun iqtisodiy tizimlarni harakatga keltirmoqda. Ilgari sodir bo‘lgan salbiy holatlar (Flash Crash) esa hozirgi zamonaviy nazorat vositalari (real vaqtli circuit breaker) yordamida bartaraf etilmoqda. AI texnologiyalari arzonlashgani esa uni yanada ommalashtirmoqda (AWS SageMaker, 80% arzon).

XULOSA

AI iqtisodiyotdagi ustunliklari — ma’lumotlarni boshqarish, samaradorlik, mijozlar bilan aloqalar, innovatsiya va xavfsizlik — yangi davrni boshlab bermoqda, bu holat yuqoridagi rasmlarda yaqqol aks etgan. Renaissance Technologies’ning milliardlab foydalaridan John Deere’ning hosildorligigacha, AI o‘lchab bo‘ladigan natijalar bermoqda. Ish o‘rinlarining qisqarishi va noxolislik kabi muammolar mavjud bo‘lsa-da, tarix bizga shuni ko‘rsatadiki, jamiyat moslashishni uddalaydi — temir yo‘llar otlarni siqib chiqargan, biroq shaharlarni barpo etgan. Strategik nazorat ostida AI inklyuziv farovonlikni ta’minlashi mumkin, shu orqali iqtisodiyotning eng kuchli vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati (Literature Review uchun)

1. Acemoglu, D., & Restrepo, P. (2018). Artificial Intelligence, Automation, and Work. *NBER Working Paper Series.*
2. Aghion, P., Jones, B. F., & Jones, C. I. (2019). *The Economics of Artificial Intelligence.* University of Chicago Press.
3. Autor, D., et al. (2023). AI and the Economy. *Journal of Economic Perspectives, 37(2), 45–68.*
4. Bao, Y., et al. (2020). AI in Fraud Detection. *Journal of Financial Crime, 27(3), 789–805.*
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age.* W.W. Norton & Company.
6. Bughin, J., et al. (2018). AI and Economic Productivity. *McKinsey Quarterly.*
7. Chui, M., et al. (2018). Notes from the AI Frontier. *McKinsey Global Institute.*
8. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). The Future of Employment. *Oxford Martin School Working Paper.*
9. Huang, M.-H., & Rust, R. T. (2021). A Strategic Framework for AI in Service. *Journal of Service Research, 24(1), 3–22.*
10. Kshetri, N. (2021). AI and Cybersecurity. *IEEE Transactions on Technology and Society, 2(4), 145–157.*
11. McKinsey Global Institute. (2024). *AI’s Economic Potential: A $20 Trillion Opportunity.*
12. O’Neil, C. (2016). *Weapons of Math Destruction.* Crown Publishing.
13. PwC. (2025). *AI’s $20 Trillion Impact on the Global Economy.*
14. World Economic Forum. (2023). *Future of Jobs Report.*

YASHIL IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Ermatov Muhammadamin Akmaljon o’g’li
Gmail ermatovmuhammadsodiq75gmail.com
Andijon davlat texnika instituti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya Ushbu tezisda yashil iqtisodiyotda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning ekologik barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini ilmiy jihatdan yoritadi. tezisda sun’iy intellekt, narsalar interneti, katta ma’lumotlar, blokcheyn va bulutli hisoblash kabi texnologiyalarning yashil iqtisodiyotning turli sohalardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Global va O‘zbekiston kontekstida raqamli texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari, muammolari va rivojlanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Xususan, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi infratuzilma cheklovlari, moliyaviy resurslar yetishmasligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi

muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Tezisda global tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlarini ta’kidlaydi.

Asosiy qism Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydigan iqtisodiy model sifatida global miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot global iqlim o‘zgarishi muammolarini hal qilishda asosiy strategiya sifatida qaralmoqda. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ushbu modelni amalga oshirishda muhim vosita sifatida ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (AI), narsalar interneti (IoT), katta ma’lumotlar (Big Data), blokcheyn va bulutli hisoblash, yashil iqtisodiyotning turli sohalarda rivojlanishini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt yashil iqtisodiyotda resurslardan foydalanishni optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, AI asosidagi tahlil vositalari qishloq xo‘jaligida suv va o‘g‘it sarfini 20-30% ga kamaytirishga yordam beradi (FAO, 2024). Shuningdek, AI iqlim o‘zgarishini bashorat qilish, ob-havo sharoitlarini tahlil qilish va energiya tarmoqlarini boshqarishda qo‘llaniladi. McKinsey & Company (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, AI yordamida aqlli energiya tarmoqlari (smart grids) energiya yo‘qotishlarini 15% ga qisqartirishi mumkin.

Narsalar interneti (IoT) texnologiyalari aqlli shaharlar, transport tizimlari va qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasida real vaqt rejimida monitoring va boshqaruv imkonini beradi. Masalan, IoT asosidagi sensorlar yordamida shaharlarning transport tizimlarida yoqilg‘i sarfi optimallashtirilib, uglerod chiqindilari 10-20% ga kamaytiriladi (World Economic Forum, 2024). Katta ma’lumotlar tahlili ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitga ta’sirni monitoring qilishda muhim ahamiyatga ega. McKinsey & Company 2023-yil hisobotiga ko‘ra, Big Data asosidagi yechimlar yashil loyihalarning iqtisodiy samaradorligini 25-35% ga oshiradi. Blokcheyn texnologiyasi yashil iqtisodiyotda shaffoflik va ishonchlilikni ta’minlaydi, masalan, uglerod kreditlari savdosi va barqaror ta’minot zanjirlarini boshqarishda qo‘llaniladi. Xalqaro Energiya Agentligi (IEA, 2024) ma’lumotlariga ko‘ra, blokcheyn asosidagi tizimlar yashil moliyalashtirish loyihalarida investorlar ishonchini 30% ga oshiradi. Bulutli hisoblash texnologiyalari yashil iqtisodiyot loyihalarini rivojlantirishda resurslarni tejash va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. SaaS (Software as a Service) modellari orqali korxonalar qimmatbaho server infratuzilmasiga ehtiyoj sezmasdan raqamli yechimlarni qo‘llay oladi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2030-yilgacha qayta tiklanadigan energiya ulushini 40% ga yetkazish maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, bunda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. IT-Park Uzbekistan va boshqa tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan loyihalar orqali aqlli qishloq xo‘jaligi, suv resurslarini boshqarish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha sinov loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, IoT asosidagi suv taqsimlash tizimlari Farg‘ona viloyatida sinovdan o‘tkazilib, suv sarfini 15% ga kamaytirishga yordam. Biroq, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni yashil iqtisodiyotga integratsiya qilishda bir qator muammolar mavjud: yuqori tezlikdagi internet va IoT tarmoqlari cheklangan hududlarda keng joriy etish qiyin, moliyaviy resurslar yetishmasligi yashil loyihalarni moliyalashtirishni cheklaydi, shuningdek, AI, Big Data va blokcheyn kabi sohalarda mutaxassislar tanqisligi innovatsiyalarni joriy etishni sekinlashtirmoqda.

Global miqyosda raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. World Economic Forum 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiyaga sarmoya kiritgan mamlakatlar uglerod chiqindilarini 2030-yilgacha 20% ga kamaytirish imkoniyatiga ega. Evropada aqlli shahar loyihalari orqali energiya sarfi 25% ga qisqartirildi, bu iqtisodiy va ekologik foyda keltirdi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhimdir. Masalan, Xitoyning AI va IoT asosidagi qayta tiklanadigan energiya tarmoqlari O‘zbekiston uchun foydali model bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning o‘zi ham energiya sarfiga olib kelishi mumkin. Masalan, katta ma’lumotlar

markazlari global uglerod chiqindilarining 2% ini tashkil qiladi (IEA, 2024). Bu muammoni hal qilish uchun yashil energiya manbalariga asoslangan ma’lumot markazlarini rivojlantirish zarur.

Yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: yuqori tezlikdagi internet va IoT tarmoqlarini kengaytirish orqali raqamli infratuzilmani rivojlantirish, AI, Big Data va blokcheyn sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun ta’lim dasturlarini kengaytirish, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xususiy sektor bilan hamkorlik orqali yashil loyihalarni moliyalashtirish, raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari va grant dasturlarini kengaytirish, shuningdek, Evropa va Xitoy kabi davlatlarning yashil iqtisodiyotdagi tajribasini mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynab, resurslardan tejamkor foydalanish, atrof-muhitga zararni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. O‘zbekiston uchun ushbu texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy diversifikatsiya va ekologik barqarorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega. Biroq, infratuzilma cheklovlari, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolarni bartaraf etish zarur. Global tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali O‘zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muvaffaqiyatga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2023). *Global Green Economy Report 2023*. UNEP.
2. McKinsey & Company. (2023). *Digital Transformation in Green Economy: Efficiency and Sustainability*. McKinsey & Company Reports.
3. World Economic Forum. (2024). *The Role of IoT in Sustainable Urban Development*. WEF Publications.
4. International Energy Agency (IEA). (2024). *Blockchain for Green Finance and Carbon Markets*. IEA Reports.
5. Food and Agriculture Organization (FAO). (2024). AI in Agriculture: Towards Sustainable Farming. FAO Publications.
6. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2024). Aqlli qishloq xo‘jaligi loyihalari: Farg‘ona viloyati tajribasi.
8. IT-Park Uzbekistan. (2024). Texnologik innovatsiyalar va yashil iqtisodiyot:
9. Ellen MacArthur Foundation. (2023). Circular Economy and Digital Technologies. Ellen MacArthur Foundation Reports.
10. OECD. (2024). Digital Solutions for a Green Future: Policy Recommendations. OECD Publications.

EXPLORING THE AREAS OF FINANCIAL ASSESSMENT THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF GREEN STARTUPS IN UZBEKISTAN

Eshbayev Oybek Alik O’gli
Independent researcher, Digital economy department, Tashkent State University of Economics
eshyev1995@gmail.com, +998907456866

Access to sustainable finance is a sensitive indicator of entrepreneurial ecosystem change, and rapid assessment of digital financing mechanisms is necessary to more comprehensively understand the impacts on green startup scalability and environmental sustainability. This study contributes new empirical insights about the effectiveness of digital platforms for resource mobilization and provides a foundation for investigating innovation-driven funding strategies in the context of Uzbekistan’s green economy. A mixed-method approach was used to investigate relationships between common startup financing indices calculated from blockchain-enabled investment tools and sustainability performance indices from corresponding business development programs in three dominant startup ecosystem types across three major urban innovation hubs at regional level. Data sources were online crowdfunding

records, government-backed digital grant databases, and interviews with startup founders. The results suggest that fintech-enabled investment infrastructure contributes strongly to the response of early-stage funding indices and platform-generated analytics data can act as a surrogate to track financial access change associated with green business development and degradation. Overall, we find that integrated, easy-to-use digital platforms can monitor funding flows and changes related to ecosystem health condition and entrepreneurial activity in three dominant startup ecosystems.

Keywords: Digital Financing, Green Startups, Sustainable Entrepreneurship, Uzbekistan Innovation Ecosystem

Introduction

From a socio-economic innovation perspective, digital financing practices do not develop in isolation but rather are co-constructed as people interact and negotiate financial decisions with others (entrepreneurs, platform facilitators). Funding dynamics are the dominant factor controlling the amount of capital resources absorbed by a startup initiative and therefore growth and scaling potential, which ultimately dictates market entry and survival. The so-called financial viability threshold describes investment readiness as the relation between access to finance and entrepreneurial capability.

Although development-focused researchers and Uzbekistan’s government officials agree that new financing models are needed, implementation practices are not the same across regions and sectors. Despite the importance of financial support mechanisms for early-stage ventures and the growing policy attention regarding green transformation, our empirical understanding of how digital technologies shape financing pathways is very limited.

Following this line of inquiry, funding practices in Uzbekistan may look different from those in Eastern Europe or any other emerging market economy. Digital transformation changes have been accompanied by broad-scale shifts in entrepreneurial community composition and investment behavior, as well as fine-scale shifts in individual decision-making processes and digital tool adoption [1,2,3]. Further, some researchers have named the emerging ecosystem in the Uzbek context as "green fintech frontier", to differentiate the emerging models of financial innovation from the connotations of traditional banking with fixed institutional barriers and rigid compliance rules.

The multi-level interactions by platform users can result in mixed or masked outcomes with ambiguous policy signals due to overlapping infrastructural and regulatory features in the innovation landscape [4,5]. However, because entrepreneurial ecosystems are rapidly changing, there is an urgent need for nuanced insight into what the different forms of digital finance actually mean in the developmental trajectory of the green startup movement.

With this study, we aim to contribute conceptual clarity and empirical evidence by investigating the question ‘How do digital financing technologies shape the development of green startups in Uzbekistan?’

Research on the structure, governance, and performance of the digital financing environment is critical for better harnessing the potential transformative capacity of the green startup ecosystem at national and regional levels [6,7]. Using widely established analytical frameworks as basis, the main purpose of the present study was to examine startup financing behavior in relation to the technological and institutional aspects of their operational context, the related stakeholder dynamics and the implications of their digital resource use.

By relying on a combination of qualitative mapping and quantitative indices, we investigate a particularly underexplored but timely context for our study.

Discussions and conclusion

Performance metrics values from digital financing platforms measuring even low-scale investment flows show correlations with reputed entrepreneurship health indicators such as startup survival rates, innovation diffusion levels, and green economic impact indices. This study contributes to emerging literature on sustainable entrepreneurship by adding evidence from digitally mediated financing environments in transitional economic settings. Our findings suggest that blockchain-enabled investment channels have potential to transform resource allocation mechanisms in Uzbekistan’s green startup ecosystem in sustainable ways. It aligns with previous assertions that early-stage ecosystems of

developing countries actively implement decentralized finance tools in policy-supported innovation zones.

Our analytical framework provides several insights about how digital entrepreneurs of green startups deal with these opportunities and constraints. The best performing indicators of platform trust, investment diversity, data transparency, user engagement, and financial flow consistency had the strongest relationships ($p < 0.05$) with the indicators of ecosystem vitality, startup funding resilience, capital efficiency, entrepreneurial confidence, and sustainability integration, respectively, across all three urban innovation districts.

All datasets in this study were collected under voluntary participation models by choice; however, when considering a framework of longitudinal data collection, these sample limitations should be taken into consideration. By strengthening digital literacy and financial inclusion, creating awareness about green funding topics among the entrepreneurial community, and investing in capacity-building development, institutions and policymakers will be able to support the ecosystem's necessary resilience and flexibility to master the transition toward sustainable innovation [3,4].

Though we found an overall weakness in existing predictive models to accurately predict investment behavior in green sectors, a number of significant correlative relationships between platform activity and entrepreneurial performance with the index scores suggest they do capture meaningful patterns. Since the volume of crowdfunding transactions is a prominently used proxy for estimating startup viability, the use of real-time platform data to monitor ecosystem growth is a particularly interesting result. Hence, it may serve as a strategic guide for regional actors seeking evidence-based decision-making on digitally enabled financing approaches for their green innovation programs.

The consistent associations observed in all platform-generated indicators suggest these variables can be used to monitor structural transformation within green startup ecosystems. Our results suggest fintech-enabled financing contributes strongly to the response of these ecosystem indicators. Whereas prior literature mostly focus on macro-trends such as the number and types of startups, investment rounds, or patent filings, our study places the digital financing infrastructure at the center of our empirical assessment. The current study presented triangulated data from a heterogeneous entrepreneur group in a transitional innovation setting.

This study does not take into account the impact of institutional uncertainties common in early stages of financial reforms. Our evidence evidences the adaptability and strategic navigation of green entrepreneurs as they experiment with new digital financial tools that hold potential for inclusive economic transformation. However, the importance of contextual sensitivity based on the governance structures and evolutionary pathways of the financial ecosystem are important to take into account, as well, before making generalizations and policy decisions on the tailoring of incentive models, platform regulations or capacity-building programs related to them, and as basis of the future research agenda and implementation frameworks. These findings may help in designing and refining guidelines for future interventions, policy adaptations, and further research on the digitally enabled green startup ecosystems.

References

1. Asian Development Bank. (2023). *Uzbekistan's ecosystem for technology startups*. Asian Development Bank. https://www.adb.org/
2. Rakhimova, S. (2023). On the need to support entrepreneurship in the digital economy. *International Journal of Management and Economics Fundamental*, 3(12), 30–33.
3. Digilina, O. B., & Teslenko, I. B. (2022). The role of startups in the development of "green" technologies. *Science and Art of Management / Bulletin of the Institute of Economics, Management and Law of the Russian State University for the Humanities*, (4), 22–33.
4. Makhmudaliev, F. (2021). Fintech: The effective means of digital financing of small business and entrepreneurship. *Iqtisodiyot*. Retrieved from
5. Ismoilova, D. M. (2024). "Green" digital finance as a factor in ensuring sustainable development of the economy of the Republic of Tajikistan. *Scientific Review: Theory and Practice*, 14(7), 1254–1261.

6. Askarova, F., Nasirova, H., Negim, E., & Babadjanov, A. (2024). Green technologies and innovations for sustainable development. *E3S Web of Conferences*, 574, 02001.
7. Allayarov, S. A., & Ravshanova, M. (2021). Financial technology: Development of innovative fintech start-ups and its application in banking system of Uzbekistan. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(9), 214–219.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

Turobova Hulkar Rustamovna
Buxoro davlat univesriteti dotsenti, PhD
Eshbekov Murodjon Uktamovich
Buxoro davlat universiteti talabasi
E-mail : uktamovichmurodjon2004@gmail.com

$$v = \frac{dX}{dt} = \left(\frac{cdt/d\tau}{dX/d\tau}\right) = \gamma \left(\frac{cdX/dt}{dX/d\tau}\right)$$

Bu yerda τ o‘z vaqt, X 4-o‘lcham fazo-vaqt, x siljish, v 4-tezlik, γ Lorents faktori va t esa vaqt. Yuqoridagi formulalar 4-fazo-vaqt va 4-tezlik tavsifidir.

Kuzatilayotgan S' tizimda:

$$v' = \mathbf{\Lambda} v$$
$$x' = \Delta x$$

Bu yerda v' va x' kuzatilayotgan tezlik va fazo-vaqt, va Λ esa to‘rtinchi o‘lchamda Lorents o‘zgarishidir. Yuqoridagi formulalar yangilangan Lorents o‘zgarishining to‘rt o‘lchovli qo‘llanilishidir. Maxsus nisbiy Minkovskiy fazo-vaqt bilan integratsiyalash orqali umumiyroq shaklda qo‘llanilishi mumkin.

3.4. Energiya-impuls munosabatida Minkovskiy fazo-vaqti

Uch o‘lchamli impuls – uch o‘lchamli vektor va to‘rt o‘lchamli impuls esa to‘rt o‘lchamli impuls esa to‘rt o‘lchamli vektordir.

Uch o‘lchamli impuls: $P = (p_x, p_y, p_z) = m\gamma v$
To‘rt o‘lchamli impuls: $P = \begin{pmatrix} E/c \\ p \end{pmatrix} = (E/c, p_x, p_y, p_z)$

4. Matematik va fizik munosabatlar

4.1. Tarixiy asos

1905-yilgacha Lorents transformatsiyalari va Maykelson-Morli tajribasi mavjud bo‘lib, ular yorug‘likni tashuvchi efirning mavjudligini shubha ostiga qo‘yadi. Bu tajriba kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun Eynshteynning fikrlariga ilhom bergan.

1905-yilda Eynshteyn ikkita muhim postulatdan foydalangan holda fikr tajribalarini o‘tkazib, maxsus nisbiylik tuzilishini taklif qilib, klassik fizika va Maksvell tenglamalari o‘rtasidagi paradoksni ilgari surdi.

1908-yilda Minkovskiy uch o‘lchovli makon uchun masofa “hisobini” amalga oshirish imkonini beradigan matematik ramka bilan chiqdi. Fazo-vakniyat uzluksizligi tushunchasi keyinchalik umumiylashtirilgan Eynshteynning nisbiylik nazariyasini kiritdi. Eynshteyn umumiy nisbiylik haqidagi

maqolasini 1915-yilda nashr etdi.

4.2. Nazariy fizika va matematikaning maxsus nisbiylikdagi munosabatini muhokama qilish. Lorentsning asosiy transformatsiyasi va maxsus nisbiylik o‘rtasidagi bog‘liqlik kodifikatsiyadir.

Yuqoridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Lorentsning transformatsiyasi Eynshteynning harakatlanuvchi jismlar elektromagnetizmi haqidagi maqolasida vaqt kengayishi va uzunlik qisqarishi haqidagi fikr tajribalarini kodlash uchun matematik usuldan foydalanadi.

Minkovskiy fazo-vakniyat nazariyasi bilan Lorents transformatsiyasi to‘rt o‘lchovli bo‘lib yanada umumlashdi.

Bundan tashqari, Minkovskiy fazo-vaqt va Eynshteynning maxsus nisbiyligi o‘rtasidagi munosabat Karteziya koordinata tizimi va Nyuton qonunlari o‘rtasidagi munosabatda ham ko‘rinadi, bu esa matematikada fizikani kengroq qo‘llashni ko‘rsatadi.

Eynshteynning maxsus nisbiylik nazariyasi Minkovskiy fazo-vaqt nazariyasida geometriyaga mos keladigan ramka hisoblanadi, bu Eynshteynning natijalarini aniq matematik ifoda orqali kengaytiradi.

Minkovskiy nazariyasi shuningdek, XX asrda yangi fizikani integratsiya qiluvchi to‘rt o‘lchovli vaqt ifodasining g‘oyasini taqdim etish orqali yangi fizikaning asosiy ramkasi hisoblandi.

4.3. Matematika va nazariy fizika o‘rtasidagi munosabatlarning so‘nggi yangiliklari

1980-yillarga qadar, matematik natijalar fizika tadqiqotlarini yetaklab kelgan, chunki fizik tadqiqotlarda asosiy matematik natijalar allaqachon kashf etilgan edi. Matematika asosan fizika sohalarida kodlash yoki bashorat qilish vositasi sifatida xizmat qilgan va matematiklar fiziklardan yangi sezilarli narsalarni o‘rganmaganlar. Biroq, matematika keyinchalik fizikaning murakkab sohalarida “kashfiyotlar” ga aylangan masalan, murakkab sonlar, chiziqli operatorlar va algebralar dastlab matematiklar tomonidan aniqlangan va keyinchalik fizikada keng qo‘llanilgan.

1980-yillardan keyin matematika va fizika o‘zaro munosabatga kirdi. Xususan, tugun nazariyasi, Riman sathlari moduli va matematikadagi Mors nazariyasi fizika sohasida qo‘llanilib, o‘sha davrda “matematikaning tabiiy holati” deb hisoblangan. Fizika esa matematik tadqiqotlar uchun turli umumlashmalarni taqdim etdi. Masalan, nisbiylik va elektromagnitizm tadqiqotlari tugun invariantlarini yangi yo‘l bilan tasvirlashni kashf etdi; fizika sohasidagi bozonlar va fermionlar haqida eksperimental faktlar matematiklarga Mors tengsizliklarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Matematika va fizika o‘rtasidagi o‘zaro munosabat faqat o‘zaro bo‘lib qolmasligi, simlar nazariyasining taklifi bilan o‘zgardi. Simlar nazariyasi taklif etilgandan so‘ng, fizika nazariy jihatdan yashirin bo‘shliqni “sim kvant geometriyasi” yordamida kvant nazariyasida simlar nazariyasi orqali tasvirlab, matematikani rivojlantirishda yetakchi bo‘ldi.

Fizikadan matematikaga ko‘chadigan tendensiya olimlar orasida fizika rivoji uchun matematik strukturalarga asoslangan o‘ziga xos tanqidiy yondashuvni keltirib chiqardi. Ba'zi olimlar matematik elegansga haddan tashqari ko‘p e’tibor berish fizika uchun zararli bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Misol uchun, Hossenfelder fizika nazariyalarini rivojlantirishning ortiqcha matematik elegansga qaramligi haqida tanqidiy yondashuvni qo‘llab-quvvatladi. Bu esa fizikani fizik prinsiplardan chetga chiqishiga olib keladi. Xususan, supersimmetriya, tabiiy nazariyalar va ko‘pmisolli nazariyalar amalda kuzatilmaydi, lekin olimlar bu nazariyalarni asosan ularning matematik elegansiga ko‘ra o‘rganishni davom ettirishadi. Bu esa olimlar uchun muhim bo‘lgan mavzularda ko‘proq vaqtni isrof qilishiga olib keladi.

4.4. Nazariy fizika, eksperimental fizika va matematika

Ushbu maqola nazariy fizika va qo‘llanma fizika orasidagi yaqinlikni tasvirlaydi. Bundan tashqari, odamlar nazariyani haqiqatga yaqinlashtirish uchun eksperimental fizikani qo‘llaydilar. Xususan, olimlar tabiatni nazariya asosida prognozlash va bu prognozlarni tasdiqlash uchun eksperimental faktlar va tajribalardan foydalanadilar. Evgen Vigner fikriga ko‘ra, insoniyat “asosiy haqiqat”ga nazariyalardan tajribalar tomon doimiy izlanishlar orqali yaqinlashadi. Masalan, Eynshteyn umumiy nisbiylik nazariyasini keltirib chiqargan va to‘g‘ri ekanini isbotlagan Mikhelson-Morley tajribasidan ilhomlangan. Yillar o‘tib, Merkuriyning perihelion presessiyasi, tortishish qizil siljishi va tortishish to‘lqinlari umumiy nisbiylik nazariyasini tasdiqladi va boshqa tajribalar esa maxsus nisbiylikning ekvivalentlik prinsiplari to‘g‘riligini isbotladi.

Nazariy fizika va eksperimental fizika o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida nazariy fizika qo‘llanma fizika sifatida, xom sifatli nazariyani umumlashtirib, prognozlarni taqdim etish orqali muhim rol o‘ynadi.

5. Xulosa

Maxsus nisbiylik davrini hisobga olganda, matematika yangi fizikani rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi. Maxsus nisbiylik davridagi yangi fizika eksperimental dalillar va eski fizika o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqqan bo‘lib, yangi fizika an’anaviy fizika bilan mos emas edi. Ushbu maqola matematik modellar va fizika o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni muhokama qildi: Minkovskiy fazoviy modeli maxsus nisbiylikni umumlashtirib, Lorents o‘zgartirishlari yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘proq 4 o‘lchamli nuqtai nazarga imkon berdi.

Bundan tashqari, ushbu maqola matematika va fizika o‘rtasidagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqdi. Avval matematika fizika rivojlanishida yetakchi edi, lekin zamonaviy fizika bilan o‘zaro munosabatda teskari holat yuzaga keldi. Ushbu maqola nazariy fizikani eksperimental fizikada amaliy matematika va prognoz sifatida ishlatilishini ko‘rib chiqadi.

Ushbu ko‘rib chiqilgan maqolaning xulosasi matematik ramkalar va fizika tadqiqotlari o‘rtasidagi predmetlar bo‘yicha tadqiqot sohalariga qo‘llanilishi mumkin, odamlarni kelajakdagi tadqiqotlarga tayyorlash uchun matematika va fizika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning umumiy nuqtai nazarini tushunishga yordam beradi.

Kelajakda fizika matematika rivojlanishida yetakchi bo‘ladi, shuning uchun matematiklar tadqiqot sohasida o‘z o‘rnini topish uchun ko‘proq nazariy fizika ishlarini ko‘rib chiqishni o‘ylab ko‘rishlari mumkin. Fizika va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tadqiq qilish ikki sababga ko‘ra yanada istiqbolli bo‘lishi mumkin: sun'iy intellekt rivoji nazariy fizika tadqiqotlarida uning qo'llanilishini kuchaytiradi va fizika rivoji allaqachon matematikadan oldinda ketmoqda, bu esa olimlar kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo'llarni izlashlari kerakligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Einstein A. On the electrodynamics of moving bodies. 1905.
2. Gaio L M, Rizzuti B F. A categorical view on the principle of relativity. Reports on Mathematical Physics, 2023, 92(3): 291-307.
3. Cabral F, Lobo FS, Rubiera-Garcia D. Fundamental symmetries and spacetime geometries in gauge theories of gravity—prospects for unified field theories. Universe. 2020, 6(12): 238.
4. Mukhi S. The reciprocal interaction between mathematics and natural law. Current Science, 2005, 88(3): 366.
5. Minkowski H. Space and time: minkowski's papers on relativity. Minkowski Institute Press; 2013.
6. Einstein A. The foundation of the general theory of relativity. Annalen Phys. 1916, 49(7): 769-822.
7. Morin D. Special relativity: for the enthusiastic beginner. Scotts Valley: CreateSpace Independent Publishing Platform; 2017.
8. Forshaw J, Smith G. Dynamics and relativity. John Wiley & Sons, 2014.
9. Resnick R. Introduction to special relativity. John Wiley & Sons, 1991.
10. Taylor EF, Wheeler JA. Spacetime physics. Macmillan; 1992.
11. Michelson AA, Morley EW. On the relative motion of the Earth and the luminiferous ether. American journal of science. 1887, 3(203): 333-45.
12. Wigner EP. The unreasonable effectiveness of mathematics in the natural sciences. In Mathematics and science 1990, 291-306.
13. Hossenfelder S. Lost in math: How beauty leads physics astray. Hachette UK, 2018.
14. Butterfield J. Lost in Math? A review of' lost in math: how beauty leads physics astray', by Sabine Hossenfelder. ArXiv preprint arXiv:1902.03480. 2019.

RAQAMLI IQTISODIYOT ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDA O‘RNI

Haydarov Kamoliddin Baratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: haydarovk378@gmail.com
Tel: +998959092284

Annotatsiya. Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tarmoqlari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu tezisda ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o‘quv-tarbiya jarayonidagi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, ularning afzalliklari va to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha amaliy yondashuvlar muhokama qilinadi. Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimini rivojlantirish, sun’iy intellekt va interaktiv texnologiyalarni o‘qitishda qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, ta’lim texnologiyalari, internet tarmoqlari, innovatsion ta’lim.

Kirish

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi ta’lim sohasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda gadjetlar, smartfonlar va internet tarmoqlari nafaqat kundalik hayotimizning, balki ta’lim jarayonining ham muhim qismiga aylandi. Ushbu texnologiyalar ta’lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratib, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, samarali va moslashuvchan qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularning noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarning onlayn o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki vaqtni behuda sarflashga olib keladigan kontentga berilib ketishi kabi holatlar ta’lim jarayoniga putur yetkazishi mumkin.Shu sababli, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taqiqlash o‘rniga, ulardan oqilona va maqsadli foydalanish yo‘llarini o‘rgatish zarur. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” doirasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilarni AKT va raqamli resurslardan foydalanishga o‘rgatish, shuningdek, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tushuntirish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Zamonaviy texnologiyalarning ta’limdcatalogi o‘rniRaqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimi jahon miqyosida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalashish zarur. Masalan, elektron laboratoriyalar, interaktiv doskalar, o‘quv platformalari va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar dars jarayonini yanada samarali qiladi. O‘quvchilar uchun onlayn ta’lim resurslari, masalan, MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari orqali dunyoning yetakchi universitetlarida o‘qish imkoniyati yaratilmoqda.O‘qituvchilar uchun esa raqamli texnologiyalar darslarni avtomatlashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Masalan, o‘quv platformalari orqali dars davomiyligini, o‘quvchilarning faolligini va ularning muvaffaqiyat darajasini kuzatish mumkin. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos dars rejasini tuzishga yordam beradi.Texnologiyalardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarZamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda, ba’zi muammolar ham mavjud. Masalan, o‘quvchilarning ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari qaramligi, onlayn qimor o‘yinlari yoki boshqa vaqtni behuda sarflashga olib keladigan faoliyatlar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus darslar joriy etilishi lozim.

Bunday darslarda o‘quvchilarga internet tarmoqlaridan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari tushuntirilishi, shuningdek, ularga mas’uliyatli va strategik foydalanish ko‘nikmalari o‘rgatilishi kerak.Innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarTa’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim:Interaktiv metodlar:

O‘qituvchilar darslarni interaktiv metodlar asosida tashkil qilishi, o‘quvchilarda motivatsiyani oshirish uchun loyiha asosidagi ta’lim usullarini qo‘llashi lozim.Pedagogik loyihalar: O‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan raqamli dars ssenariylari sinfda sinovdan o‘tkazilishi va ularning samaradorligi tahlil qilinishi kerak.Ilmiy-uslubiy seminarlar: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tajriba almashish maqsadida o‘qituvchilar uchun seminarlar va treninglar tashkil etilishi lozim.Innovator jamoalar: Raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’lim usullarini joriy etishda yetakchi o‘qituvchilardan iborat jamoalar shakllantirilishi kerak.Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonida nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarni zamonaviy dunyo talablariga moslashtirishga yordam beradi. Raqamli sinf modellarini joriy etish orqali o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim muhiti yaratiladi, bu esa ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xulosa:

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutib, o‘quv-tarbiya jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ular darslarni avtomatlashtirish, o‘quvchilarga individual yondashuvni ta’minlash va ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologiyalardan mas’uliyatli foydalanishni o‘rgatish orqali o‘quvchilarni zamonaviy dunyoning xavf-xatarlaridan himoya qilish va ularni raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlash mumkin. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy yo‘nalishi sifatida qolmoqda.

Sinfdagi raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga alohida ehtiyojlarga ega bo‘lganlarga yordam berish uchun mo‘ljallangan turli xil dasturiy ta‘minot va gatjetlarga ishora qiladi. O‘qituvchining takroriy, ko‘p vaqt talab qiladigan vazifalar sonini kamaytirishning eng samarali yo‘li darsda texnologiyalardan foydalanishdir.

Ta’lim texnologiyalari ilovalari davomatni kuzatish va ishlash monitoring kabi kundalik operatsiyalarni avtomatlashtirish yoki qisman avtomatlashtirish orqali ko‘p vaqt va energiyani tejash imkonini beradi. O‘quvchilarga texnologiyalardan mas’uliyatli va strategik foydalanishni o‘rgatadi, bu ularga qaror qabul qilishda va o‘z o‘zini intizomli rivojlantirishda yordam beradi. Ta’limdagi texnologiya o‘quvchilarga umrbod ta’lim olishga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamarajabov, M.E. (2022). Technologies of digital didactics. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management, 2(4), 78–84.
2. Mamarajabov, M.E., & Ismoilova, D.S. (2020). Competence-based education in computer science and information technologies. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 10, 699–705.
3. Yusupov, G.Yu. (2023). Modern development and improvement of the personal and professional quality of a computer science teacher. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 13, 63–66.
4. Berdiyev, J.Q. (2023). Ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda ayrim muammolar. Scienceweb.uz.Tursunova, N.A. (2021). Raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi ahamiyati. Journal of Pedagogical Innovations, 5(2), 45–50.
5. Karimov, A.A. (2024). Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari: afzalliklari va muammolari. Uzbekistan Journal of Science and Technology, 7(1), 12–18.UNESCO. (2023). Digital transformation in education: Opportunities and challenges. Paris: UNESCO Publishing.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR UCHUN MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O’RNI.

Husenov Muhriddin Bahriddinovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Moliya fakulteti talabasi
mukhriddinhusenov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli texnologiyalarning yoshlar moliyaviy savodxonligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Mobil ilovalar, interaktiv platformalar va onlayn ta’lim resurslari yoshlarning byudjet tuzish, jamg‘arish, investitsiya va qarzlarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maqolada, shuningdek, O‘zbekistondagi mavjud loyihalar — xususan, Finlit.uz va Global Money Week dasturlarining ijobiy ta’siri yoritilib, yoshlarning raqamli moliyaviy ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy mustaqillikka erishish mumkinligi asoslab beriladi.

Bugungi kunda tez o‘zgarayotgan iqtisodiy muhitda raqamli texnologiyalar yoshlar orasida moliyaviy savodxonlikni oshirishning muhim vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Global iqtisodiyot tobora murakkablashib borar ekan, moliyaviy qarorlar qabul qilishda to‘g‘ri yo‘l tutish yoshlar uchun zarur ko‘nikmaga aylangan. Mobil ilovalar, byudjet tuzish vositalari, o‘yin shaklidagi moliyaviy ta’lim platformalari kabi raqamli yechimlar aynan shu ko‘nikmalarni yosh avlodga yetkazishda muhim rol o‘ynamoqda.

Raqamli moliyaviy savodxonlik nafaqat byudjet tuzish, jamg‘arish, investitsiya va qarzlarni boshqarish kabi asosiy tushunchalarni tushunishni, balki ularni zamonaviy raqamli vositalar orqali amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Yoshlarning raqamli vositalar yordamida moliyaviy bilimga ega bo‘lishi ularning qaror qabul qilishiga ijobiy ta’sir qiladi, moliyaviy mas’uliyatni rivojlantiradi va foydali odatlarni shakllantiradi.

Yoshlar orasida moliyaviy savodxonlikni oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Nobel mukofoti sovrindori Gari Bekkerning (1964) inson kapitali nazariyasiga ko‘ra [1], ta’limga kiritilgan har qanday sarmoya insonning unumdorligi va iqtisodiy farovonligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, raqamli moliyaviy ta’lim — bu inson kapitaliga yo‘naltirilgan sarmoya bo‘lib, u yoshlarning moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Masalan, mobil ilovalar yordamida xarajatlar nazorat qilinadi, jamg‘arma vositalari bilan moliyaviy xavfsizlik ta’minlanadi, investitsiya platformalari orqali esa aktivlar ko‘paytiriladi.

Bundan tashqari, raqamli vositalar qarzlarni boshqarish va moliyaviy xavflarni kamaytirishga oid bilimlarni ham beradi. Ko‘plab interaktiv ta’lim platformalari qarz olishning oqibatlari, byudjet rejalashtirish va xavfni boshqarish bo‘yicha virtual mashg‘ulotlarni taklif etadi. Bu esa yoshlarni moliyaviy qiyinchiliklardan himoya qilishga yordam beradi.

Raqamli moliyaviy ta’limning maktab va oliy o‘quv yurtlari dasturlariga kiritilishi ham sezilarli natijalarni bermoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli o‘quv vositalaridan foydalangan talabalar moliyaviy firibgarlik qurboniga aylanishi yoki ortiqcha qarzga botish ehtimoli pastroq bo‘ladi. Real vaqtdagi moliyaviy ma’lumotlar, simulyatsiya asosidagi mashg‘ulotlar va interaktiv vositalar yoshlarning iqtisodiy xavf va foydalarni tahlil qila olish qobiliyatini kuchaytiradi. Natijada ular o‘z mablag‘larini ongli tarzda jamg‘arish, sarflash va investitsiyalash bo‘yicha mustahkam qarorlar qabul qilishga o‘rganadi.

Shaxsiy byudjetni yuritish, moliyaviy maqsadlarni belgilash va ularga erishishda texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan byudjet tuzish ilovalari, soddalashtirilgan investitsiya platformalari va mobil bank xizmatlari orqali moliyaviy xizmatlarga kirish osonlashdi. Ammo bu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun yetarli moliyaviy bilim ham zarur. Moliyaviy va raqamli savodga ega yoshlar o‘z xarajatlarini tahlil qiladi, jamg‘arma rejalarini amalga oshiradi va moliyaviy sog‘lom hayot tarzini shakllantiradi.

Yoshlarning moliyaviy jihatdan ongli va mustaqil bo‘lishi jamiyat iqtisodiy barqarorligi uchun ham muhimdir. Raqamli moliyaviy bilimga ega avlod ortiqcha qarzdan qochadi, ko‘proq jamg‘aradi va

moliyaviy zarbalarni osonroq yengadi. Bu holat nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida yoshlarning raqamli moliyaviy savodxonligini rivojlantirish dolzarb vazifa bo‘lib, bunda madaniy, iqtisodiy va ta’lim omillari muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqamli moliyaviy ta’lim masalasi jiddiy e’tibor qozonmoqda. Mamlakatning global iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi jarayonida raqamli moliyaviy ko‘nikmalar yoshlar uchun zaruratga aylanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy texnologiyalar moliyaviy qarorlarni ongli qabul qilish imkonini oshiradi va yoshlarni raqamli moliyaviy muhitga tayyorlaydi.

Bu borada amalga oshirilgan loyihalardan biri — Finlit.uz [2] platformasi bo‘lib, O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan yaratilgan ushbu resurs yoshlar uchun jamg‘arish, byudjet tuzish va investitsiyaga oid foydali raqamli kontentni taqdim etadi. Bundan tashqari, xalqaro tashabbuslardan biri bo‘lgan Global Money Week [3] haftaligi doirasida o‘tkazilayotgan onlayn mashg‘ulotlar va o‘yin shaklidagi darslar yoshlarning moliyaviy bilimlarini yanada mustahkamlamoqda.

Shunga qaramay, ayrim muammolar mavjud. Mamlakatda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, barcha yoshlar moliyaviy ta’lim va vositalarga teng kirish imkoniyatiga ega emas. Ijtimoiy tengsizlik, ta’lim tizimida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha mavzularning yetarlicha yoritilmaganligi bu yo‘ldagi asosiy to‘siqlardir. Shuningdek, ayrim yoshlarning an’anaviy dunyoqarashi zamonaviy raqamli moliyaviy vositalarni qabul qilishni sekinlashtiradi.

Yoshlarning raqamli moliyaviy bilimga ega bo‘lishi ularni ongli va mas’uliyatli iqtisodiy qarorlar qabul qilishga undaydi. Ular ko‘proq jamg‘aradi, foydali investitsiyalarni tanlaydi va ortiqcha qarzdan qochadi. Bu esa nafaqat ularning moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘z biznesini boshlayotgan yosh tadbirkorlar uchun raqamli moliyaviy ko‘nikmalar juda muhim — ular bu ko‘nikmalar orqali o‘z moliyaviy resurslarini samarali boshqaradi va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish katta imkoniyatlarni ochib beradi. Bu nafaqat shaxsiy farovonlikni ta’minlaydi, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Finlit.uz kabi platformalar va Global Money Week kabi xalqaro tashabbuslar bu yo‘ldagi muhim qadamlardir. Endilikda asosiy e’tibor — raqamli moliyaviy ta’limni ta’lim tizimiga chuqur integratsiyalashga qaratilishi lozim. Shundagina raqamli zamonda to‘g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qila oladigan, raqobatbardosh va iqtisodiy jihatdan yetuk yosh avlodni shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gary S. Becker, 1964. "Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education, First Edition
2. https://uza.uz/oz/posts/moliyaviy-savodxonlik-boyicha-media-muloqot_697376
3. https://finlit.uz/uz/news/656862/

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMLARI

Qo‘chqorov Isroiljon Tavakkal o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Email: isroilkuchkorov11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning chiqindilarni boshqarish sohasidagi ahamiyati, ularning joriy etilishi orqali ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xususan, aqlli sensorlar, GPS tizimlari, IoT (Internet of Things), sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilining chiqindi to‘plash, saralash va qayta ishlash bosqichlaridagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijasida chiqindilarni raqamli nazorat qilish tizimlarini joriy etish orqali resurslarni tejash, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish hamda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga erishish mumkinligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, chiqindilarni boshqarish, IoT, sun’iy intellekt, chiqindilarni saralash, ekologik xavfsizlik.

Kirish: Bugungi kunda chiqindilar muammosi global miqyosda dolzarb masalaga aylanmoqda. Aholi sonining o‘sishi, urbanizatsiya va sanoatning rivojlanishi natijasida chiqindilar hajmi ortib bormoqda. An’anaviy chiqindi boshqaruv tizimlari bu o‘sishga moslasha olmayapti. Shu sababli, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish chiqindilarni samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Asosiy matn: Raqamli texnologiyalarning chiqindi boshqaruvidagi o‘rni. Raqamli texnologiyalar chiqindilarni yig‘ish, tashish, saralash va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu jarayonlarda quyidagi texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

Aqlli sensorlar: axlat konteynerlarining to‘lish darajasini o‘lchaydi va real vaqtda ma’lumot uzatadi.

GPS tizimlari: chiqindi yig‘ish mashinalarining harakatini nazorat qilish, marshrutlarni optimallashtirishda yordam beradi.

IoT (Internet of Things): barcha qurilmalarning yagona platforma orqali bog‘lanishi va boshqarilishi imkonini yaratadi.

Sun’iy intellekt (AI): chiqindilarni saralashda avtomatik aniqlash, tasniflash va qayta ishlash jarayonini boshqaradi.

Big Data: chiqindi miqdori, ularning tarkibi va vaqt bo‘yicha statistik tahlillarni amalga oshirishga yordam beradi.

Chiqindilarni aqlli yig‘ish tizimlari. Dunyodagi bir qator rivojlangan shaharlar (masalan, Amsterdam, Seul, Singapur) chiqindilarni yig‘ish tizimiga aqlli sensorlarni joriy qilgan. Bu texnologiyalar konteynerlar to‘lishi bilan avtomatik xabarnoma yuboradi va xizmat ko‘rsatuvchi mashinalar optimal yo‘nalish bo‘yicha chiqindini yig‘ib ketadi. Bu esa yoqilg‘i tejamkorligi, vaqtni tejash va atrof-muhitga kamroq zarar yetkazish imkonini beradi.

Chiqindilarni raqamli asosda saralash va qayta ishlash. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi mashinalar chiqindilarni vizual aniqlash va avtomatik tasniflash orqali qayta ishlash darajasini oshiradi. Xususan:

Plastmassa, qog‘oz va organik chiqindilarni alohida konteynerlarga ajratish

Raqamli nazorat orqali xavfli chiqindilarni aniqlash va bartaraf etish

Raqamli chiqindi boshqaruvi dasturlari va ilovalari. Ko‘plab korxonalar va shahar hokimiyatlari mobil ilovalar orqali aholiga chiqindi to‘plash jadvalini yuborish, qayta ishlanuvchi materiallar bo‘yicha ma’lumot berish imkonini yaratmoqda. Masalan: RecycleCoach, Bin-e, WasteHero.

Bu ilovalar foydalanuvchilarning ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda holat va raqamlashtirish imkoniyatlari. O‘zbekiston chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish bosqichida turibdi. “Toza Hudud” DUK faoliyati raqamlashtirish yo‘nalishida bosqichma-bosqich ishlarni boshlagan. Biroq, hali barcha hududlarda raqamli texnologiyalar joriy etilmagan. Bu borada quyidagi imkoniyatlar mavjud:

Shahar markazlarida aqlli sensorlarni o‘rnatish

Chiqindilarni saralashni avtomatlashtirish

Mobil ilovalar orqali foydalanuvchilar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish

Raqamli texnologiyalar chiqindilarni boshqarishda nafaqat monitoring, balki bashoratlash, tahlil qilish va resurslardan samarali foydalanish imkonini ham yaratadi. Xususan, IoT (Internet of Things) qurilmalari yordamida chiqindi konteynerlarining to‘lish darajasi real vaqtda kuzatilib, chiqindilarni yig‘ish rejalari optimallashtiriladi. Bu esa transport xarajatlarini kamaytiradi va atrof-muhitga zarar yetkazish xavfini kamaytiradi.

Masalan, Finlandiyaning ayrim shaharlarida chiqindi idishlariga o‘rnatilgan sensorlar to‘plash tizimlarini avtomatlashtirishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu tizim chiqindi miqdori ortgan hududlarga ko‘proq transport vositalarini yo‘naltirish imkonini bergan va shahar budjetida 20% gacha tejashga erishilgan.

Shuningdek, sun’iy intellekt (AI) asosida ishlab chiqilgan chiqindilarni saralash tizimlari organik va noorganik chiqindilarni avtomatik ajratib, qayta ishlash darajasini oshiradi. Bunday tizimlar yordamida inson omili kamayib, xatolik darajasi sezilarli darajada pasayadi.

GIS (Geografik axborot tizimlari) texnologiyalari chiqindilar to‘planadigan hududlarni xaritalash, eng samarali marshrutlarni aniqlash va ekologik xavf zonalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa butun boshqaruv tizimining aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Hozirgi kunda chiqindilarni boshqarish tizimlarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi ekologik xavfsizlikni ta’minlashda, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda va inson salomatligini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. IoT qurilmalari, sun’iy intellekt, geografik axborot tizimlari hamda raqamli monitoring vositalari chiqindilarni aniqlash, saralash, yig‘ish va qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar joriy etilgan hududlarda chiqindilarni boshqarish xarajatlari kamaygan, xizmat ko‘rsatish sifati oshgan va atrof-muhitga salbiy ta’sir sezilarli darajada kamaygan. Shuning uchun, chiqindilarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishda raqamli yechimlardan keng foydalanish zarur.

Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqotlar, zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali chiqindilarni samarali boshqarishning innovatsion modellari ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Taklif va tavsiyalar

1. Mahalliy boshqaruv organlari chiqindilarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratishi lozim.
2. Qonunchilik bazasi yangilanishi va raqamlashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi kerak.
3. Xalqaro tajriba asosida chiqindi boshqaruv tizimlarini mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.
4. Aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari olib borilishi lozim.
5. Xususiy sektorni jalb qilish orqali chiqindilarni raqamli asosda yig‘ish va saralash xizmatlari rivojlantirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNEP (2022). Digital Technologies for Sustainable Waste Management.
2. European Environment Agency (2021). Smart Waste Systems in Europe.
3. OECD (2020). Waste Management and the Circular Economy.
4. Toza Hudud DUK. Rasmiy veb-sayt: www.tozahudud.uz
5. Almatov A., Xasanov Sh. (2023). “O‘zbekiston sharoitida chiqindilarni saralash tizimlari”, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.
6. Bin-e Technologies. www.bin-e.com
7. Recycle Coach App – User Guide and Review (2021).
8. Ташландиқларни бошқариш бўйича экологик ва иқтисодий ёндашувлар. – Т.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
9. Баҳромов Б., Исроилов Ш. "Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш", Т.: Oliy ta'lim, 2019.
10. UNEP (United Nations Environment Programme). Digital Transformation in Waste Management. 2021. https://www.unep.org

MAMLAKATIMIZ IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TURIZM SOHASINING QO’SHGAN HISSASI

Juraqulov Doston Nodir o’g’li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Statistika yo’nalishi 1-kurs talabasi
jjurakulove@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda turizmning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi o‘rganiladi. Maqsad – turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni, uning mamlakatning yalpi ichki mahsuloti, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmat ko‘rsatish sektoriga ta'siri kabi masalalar orqali iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan hissasini aniqlashdir. Ish davomida turizmning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri, ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va hududlararo tenglikni ta'minlashdagi roli o‘rganilgan. Turizmning barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: turizm sanoati, iqtisodiy rivojlanish, Xalqaro investitsiyalar, ish o‘rinlari, xizmat ko‘rsatish sektori, turizmning iqtisodiy ta’siri.

Bugungi kunda turizm sanoati dunyo bo‘yicha iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo‘shmoqda. Turizm nafaqat xalqaro aloqalarni mustahkamlash, balki iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning turizm sohasida kuzatilayotgan o‘sish sur’atlari bu sohaga yanada ko‘proq e'tibor qaratilishini talab qilmoqda. Ajoyib tabiiy manzaralar, tarixiy obidalar va boy madaniy meros O‘zbekistonga xorijiy sayyohlarni jalb etish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, turizm sanoatining rivojlanishida hali mavjud muammolar ham bor.

O‘zbekistonning turizm sohasidagi o‘sish salohiyati hali to‘liq namoyon bo‘lmagan bo‘lib, bu yo‘nalishda xizmatlar sifati, infratuzilma rivoji va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Tadqiqotda turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilinadi hamda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda uchrayotgan muammolar va mavjud imkoniyatlar chuqur o‘rganiladi. Xususan, turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi roli, shuningdek, davlat tomonidan qo‘llanilayotgan siyosat va dasturlar tahlil etiladi. Shu bilan birga, ushbu sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga intilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – turizm sanoatining iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini aniqlash, ayniqsa, O‘zbekiston misolida bu sohaning iqtisodiyotdagi o‘rnini baholashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– Turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyatini nazariy jihatdan o‘rganish;

– O‘zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ta’sirini empirik tahlil qilish;

– Turizmni rivojlantirish yo‘lida mavjud muammolar va istiqbollarni aniqlash;

– Turizm sanoatining iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.Ushbu ishda turizm sohasining iqtisodiyotga bo‘lgan ta’siri va uning rivojlanishidagi muhim jihatlar o‘rganilib, kelajakda ushbu sohaga oid tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Turizm sohasi bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, oxirgi besh yilda turizm sohasida sezilarli o‘sish kuzatildi. Sayyohlik oqimining ko‘payishi, yangi xizmat tarmoqlari va infratuzilmalar paydo bo‘lishi orqali turizm boshqa iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishiga ham turtki bermoqda. Turizm sohasi mamlakatga nafaqat iqtisodiy foyda olib kelmoqda, balki madaniy almashinuv va ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qilmoqda.

Statistik ma’lumotlar turizmning iqtisodiyotdagi ulushini yanada ochiqroq ko‘rsatib bermoqda. Masalan:

Yil	Xorijiy sayyohlar soni (ming)	Turizm daromadlari (mlrd so‘m)
2019	**6 748**	**15 300**
2020	**1 504**	**5 000**
2021	**1 880**	**7 200**
2022	**3 402**	**12 500**
2023	**5 224**	**18 300**

(Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi, 2024)

Diagramma izohi: 2020-yilda pandemiya sabab sayyohlar sonida va turizm daromadlarida keskin pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda bu ko‘rsatkichlar tiklana boshlagan.

O‘zbekiston hududidagi tarixiy shaharlarda sayyohlik salohiyati yuqori darajada.

Masalan, Samarqand va Buxoroning o‘zi yiliga minglab sayyohlarni qabul qilmoqda. Hozirgi vaqtda turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida yangi mehmonxonalar, transport yo‘nalishlari va xizmat ko‘rsatish ob’ektlari barpo etilmoqda.

Bunga misol qilib, mehmonxona quvvatining yilma-yil ortishini ko‘rsatadigan quyidagi jadvalni keltirish mumkin:

Yil	Mehmonxonalar soni	Joylar soni (ming)
2019	950	26.5
2020	1 020	27.0
2021	1 150	29.5
2022	1 320	32.8
2023	1 500	35.4

(Manba: O‘zbekiston Turizm Qo‘mitasi hisobotlari)

Diagramma izohi: Yil sayin mehmonxona joylari ko‘payib, ichki va tashqi turizm salohiyatining ortishiga xizmat qilmoqda.

Turizm sohasi O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim tarmoqlardan biri sanaladi va uni yanada rivojlantirish uchun bir qator strategik yo‘nalishlar mavjud. Hozirgi vaqtda turizm sohasida erishilayotgan yutuqlarga qaramay, hali ham ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ular tizimli yondashuvni talab etadi.

Avvalo, infratuzilmani rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda yangi mehmonxonalar, transport tarmoqlari, yo‘llar va aeroportlar qurilishi davom etmoqda, ammo bu ishlarni yanada kengaytirish zarur. Ayniqsa, qishloq va ekologik turizm yo‘nalishida infratuzilmani kuchaytirish katta imkoniyatlar yaratadi.

Xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish ham asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab sayyohlar xizmatlardan norozilik bildirib, sifatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar bermoqda. Shu sababli, xodimlarni malakali tayyorlash va qayta o‘qitish tizimini rivojlantirish lozim. Turizm marketingi va brendlashtirish ham juda muhim. O‘zbekistonning tarixiy merosi, milliy madaniyati va tabiiy go‘zalliklarini dunyoga keng targ‘ib qilish orqali xorijiy sayyohlar oqimini oshirish mumkin. Shu bois, xalqaro ko‘rgazmalarda faol ishtirok etish, onlayn reklama kampaniyalarini kuchaytirish kerak bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida turizm sohasining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimizda turizm salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Statistik ma’lumotlar turizm sohasining izchil o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda va bu iqtisodiyotga sezilarli ta’sir qilmoqda. Shuningdek, xizmatlar sifatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish bo‘yicha hali bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar mavjudligi aniqlanib, turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Umuman olganda, turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda va xalq farovonligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Kelgusida tizimli yondashuv va davlat-xususiy hamkorlik asosida bu sohaning salohiyati yanada ortishiga ishonch bildiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori.
2. www.stat.uz.
3. www.tourism.uz.
4. Qodirov A., “Turizm iqtisodiyoti asoslari”, Toshkent, 2021.
5. Jo‘rayev B., “Xalqaro turizm va uning rivojlanish yo‘nalishlari”, Toshkent, 2020.
6. UNWTO (World Tourism Organization) xalqaro hisobotlari – www.unwto.org.

CHALLENGES AND OPPORTUNITIES FOR IMPROVING INDUSTRIAL MANAGEMENT SYSTEMS IN THE GREEN ECONOMY TRANSITION

Kamoliddin Nuriddinov Faxriddin o`g`li
Lecturer and Researcher at Tashkent State University of Economics, Department of Transnational Programs. Tashkent, Uzbekistan. Email: k.nuriddinov@tsue.uz

Abstract: The transition to a green economy presents significant challenges and opportunities for improving industrial management systems, particularly in developing countries like Uzbekistan. This paper aims to analyze the key obstacles faced by industrial enterprises in adopting sustainable practices while exploring practical solutions to enhance efficiency, reduce environmental impact, and achieve socio-economic growth. The study highlights innovative management approaches, policy recommendations, and technological advancements essential for optimizing industrial management systems during the transition to a green economy. Comparative analysis with other Central Asian countries is also presented to provide valuable insights for Uzbekistan’s industrial sector.

Keywords: Green Economy, Industrial Management Systems, Sustainability, Uzbekistan, Environmental Impact, Policy Recommendations, Technological Advancements.

Introduction:

The transition to a green economy is crucial for sustainable development globally, including Uzbekistan, where the industrial sector plays a significant role in economic growth. Challenges such as outdated technologies, financial limitations, regulatory gaps, and lack of expertise continue to hinder progress toward effective green management systems (OECD, n.d.; CABAR.asia, n.d.). However, opportunities exist in policy support, renewable energy investment, international collaboration, and technological advancements (World Bank, n.d.; Energy, Sustainability and Society, 2021). This paper aims to analyze the challenges and opportunities for improving industrial management systems in Uzbekistan, with comparisons to Kazakhstan and Kyrgyzstan.

Research Objectives:

The primary objective of this paper is to analyze the challenges and opportunities associated with improving industrial management systems during the transition to a green economy in Uzbekistan. The study seeks to provide practical recommendations for enhancing industrial efficiency, environmental responsibility, and socio-economic growth within the context of sustainable development.

The specific objectives are:

To identify the key challenges faced by industrial enterprises in Uzbekistan during the transition to a green economy.

To examine innovative management practices and technological solutions that can enhance industrial sustainability and efficiency.

To compare Uzbekistan’s industrial management systems with those of other Central Asian countries, particularly Kazakhstan and Kyrgyzstan, to identify best practices and areas for improvement.

To propose strategic recommendations for optimizing industrial management systems for a successful green economy transition in Uzbekistan.

Methodology:

This research employs a **comparative analysis methodology** to examine the challenges and opportunities faced by industrial enterprises in Uzbekistan and other Central Asian countries during the transition to a green economy. The study integrates qualitative and quantitative data from secondary sources, including government reports, policy documents, industrial case studies, academic publications, and international organizational reports.

The methodological approach consists of the following steps:

Literature Review:

The research began with an extensive review of scholarly literature, industry reports, and policy analyses focused on the green economy transition in Central Asia, with a particular emphasis on Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan. This involved not only examining foundational theories and concepts of sustainability and industrial management but also assessing empirical studies and comparative research across these countries (Organisation for Economic Co-operation and Development [OECD], 2023; Muitov & Akhmedova, 2024; United Nations Development Programme [UNDP], 2021). The review covered:

Academic articles published in regional and international journals addressing the implementation of green economy principles in post-Soviet economies (Muitov & Akhmedova, 2024).

Government strategy documents, such as Uzbekistan's *Strategy for the Transition to a Green Economy (2019–2030)* (OECD, 2023), Kazakhstan's renewable energy roadmaps (Climate Action Tracker, 2021), and Kyrgyzstan's sustainable development strategies (UNESCAP, 2022).

Reports from international organizations (e.g., World Bank, 2023; OECD, 2023; UNDP, 2021) analyzing industrial performance, environmental impact, and policy effectiveness in the region.

This broad literature base provided a solid theoretical and contextual foundation for identifying gaps, challenges, and opportunities in the green transition of Uzbekistan's industrial management systems.

Case Study Analysis:

The study further employed an in-depth case study approach to gain practical insights from real-world industrial practices. This involved:

Selecting key sectors in Uzbekistan, such as the **energy sector** (particularly renewable energy adoption and waste-to-energy projects) (Reuters, 2024; Hall, 2021), the **manufacturing sector** (including energy-efficient production upgrades) (International Energy Agency [IEA], 2022), and the **mining sector** (focused on environmental management improvements) (OECD, 2023).

Examining concrete examples, such as Uzbekistan's $1.3 billion investment in waste-to-energy plants and pilot programs introducing solar technologies in industrial zones (Reuters, 2024; Hall, 2021).

Drawing structured comparisons with successful initiatives in Kazakhstan, such as the integration of large-scale wind and solar projects supported by foreign investment (Astana Times, 2025; Zabanova, 2024), and Kyrgyzstan's focus on decentralized, community-driven renewable energy solutions (SWITCH-Asia, 2022; World Bank, 2023).

The case studies not only helped illustrate the successes and failures of specific projects but also highlighted transferable lessons that Uzbekistan can leverage to improve its own industrial management strategies under the green economy framework.

Comparative Analysis:

Indicator	***Uzbekistan***	***Kazakhstan***	***Kyrgyzstan***
Renewable energy share (%)	15% (targeted by 2030)	20% (by 2030)	10% (community-based projects)
Major challenges	Outdated tech, financing gaps	Strong policies, big investments	Outdated infrastructure, funding limits

Recent major initiative	$1.3B waste-to-energy project	Large-scale wind and solar projects	Local renewable energy initiatives
Government policy strength (1–5)	3	4	2.5

Table 1. *Comparative Indicators of Green Economy Progress in Central Asia (2024–2025)*

This table presents a comparative overview of key indicators related to green economy progress in Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan. It summarizes renewable energy targets, primary challenges, major initiatives, and the relative strength of government policies. The table helps highlight best practices and identifies areas where Uzbekistan can adapt successful strategies from its regional neighbors to enhance its green transition efforts.

Comparing Uzbekistan's approach to industrial management improvement with Kazakhstan and Kyrgyzstan, considering factors such as policy frameworks, technological integration, industrial performance, and environmental impact. Evaluating the progress of each country in achieving green economy objectives and identifying best practices that can be adapted to the Uzbek context.

Recommendations

Based on the findings of this study, several practical recommendations are proposed to enhance industrial management systems in Uzbekistan and support the country's successful transition to a green economy. These recommendations target key areas identified during the research, focusing on strengthening technological capacity, improving policy frameworks, and fostering multi-stakeholder collaboration.

Promote Technological Innovation:

Uzbekistan's industrial enterprises should prioritize the adoption of cutting-edge green technologies, including energy-efficient production systems, renewable energy integration, and waste-reduction innovations. Government incentives such as tax credits, subsidies, and innovation grants can accelerate technological modernization, especially in sectors with outdated infrastructure (OECD, 2023; Reuters, 2024). Additionally, fostering partnerships with international technology providers and research institutions can enhance access to advanced solutions and technical expertise.

Advance Policy Reforms and Regulatory Strengthening:

While Uzbekistan has adopted the *Strategy for the Transition to a Green Economy (2019–2030)*, there is a pressing need to close existing regulatory gaps, strengthen enforcement mechanisms, and ensure coherence between environmental and industrial policies (UNDP, 2021; OECD, 2023). Policymakers should streamline approval processes for green projects, set clear emissions targets, and establish monitoring systems to track industrial sustainability performance.

Enhance Financial Mechanisms and Investment Support:

Access to sustainable finance remains a key challenge. The government should work with domestic banks, international development institutions, and private investors to establish dedicated green financing programs, offering low-interest loans or blended finance schemes to incentivize green industrial upgrades (World Bank, 2023; SWITCH-Asia, 2022).

Collaborative Approaches and Capacity Building:

Technology transfer between developed and developing countries
Capacity building programs
Development of South-South cooperation

Climate Finance

Mobilization of Green Climate Fund resources for digital technologies
Development of blended finance mechanisms
Creation of carbon markets and digital MRV (Monitoring, Reporting, and Verification) systems

Specific Recommendations for Uzbekistan

Development of the "Digital Green Uzbekistan 2030" Strategy

Optimization of solar and wind energy using AI
Pilot projects in the Aral Sea region
Sustainable development of the cotton industry through precision agriculture

Creation of a Regional Hub

Establishment of a Green-Digital Innovation Center for Central Asia
Development of tech parks and incubators
Attraction of foreign investment

Human Capital Development

Green tech specializations at IT universities
AKKU courses and certification programs
International exchange programs

The implementation of these recommendations will ensure Uzbekistan's rapid transition to a green digital economy and increase its global competitiveness.

References:

1. Green Economy and Digital Transformation: A Systematic Review of Synergies and Trade-offs. Journal of Cleaner Production, 2023, Vol. 412, pp. 137-156. doi: 10.1016/j.jclepro.2023.137156
2. Artificial Intelligence for Climate Change Mitigation: Opportunities and Challenges. Nature Climate Change, 2024, Vol. 14, pp. 543-558. doi: 10.1038/s41558-024-1987-4
3. Blockchain Applications in Environmental Sector: A Comprehensive Analysis of Carbon Markets and Supply Chain Transparency. Environmental Research Letters, 2023, Vol. 18, Issue 8, Article 084032. doi: 10.1088/1748-9326/ace932
4. Smart Grid Technologies and Renewable Energy Integration: A Digital Twin Approach to Sustainability. IEEE Transactions on Sustainable Energy, 2024, Vol. 15, No. 2, pp. 1245-1260. doi: 10.1109/TSTE.2023.3287456

5. IoT-Enabled Circular Economy: From Theory to Implementation in Smart Cities. Technological Forecasting and Social Change, 2023, Vol. 192, Article 122578. doi: 10.1016/j.techfore.2023.122578
6. Quantum Computing for Environmental Optimization: Applications in Climate Modeling and Resource Management. Nature Computational Science, 2024, Vol. 4, pp. 321-335. doi: 10.1038/s43588-024-00512-7

ELEKTROMOBILLARNI ZARYADLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Patidinov Aslidin Xusnidin o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti
e-mail: aslidinbekbolasi@gmail.com

Annotatsiya: Elektromobillarni zaryadlashda raqamli texnologiyalar muhim ro‘l o‘ynaydi va ularni samarali, qulay hamda xavfsiz qilishga yordam beradi. Albatta hozirgi kunda elektromobillarga bo’lgan talab yuqori va bu talabni qondirish maqsadida yangi brenddagi avtomobillar olib kelinmoqda.

Kalit so’zlar:zaryadlash,elektr,zaryadlash stansiyasi, energiya sarfi.

Kirish. Elektromobil — akkumulyatorlar batareyasi o‘rnatilgan bir yoki bir necha elektr dvigatel yordamida harakatlanadigan avtomobil. 20-asr boshlarida G‘arbiy Yevropa va AQShda elektromobildan taksi, pochta furgoni, kommunal xo‘jalik mashinalari, yengil avtomobillar sifatida foydalanilgan. Fransiyalik Camille Jenatzy elektromobil tezligini 100 km/soatga yetkazgan[1-2]. Biroq, tezlikning cheklanganligi va energiya sig‘imining pastligi (20 W/soat kg gacha), akkumulyatorlar batareyasining massasi kattaligi elektromobilning rivojlanishiga to‘sqinlik qiddi. 1960-yillardan boshlab ichki yonuv dvigatel avtomobillardan chiqadigan gaz havoni zaharlashi va shovqinni kuchaytirishi tufayli elektromobildan shahar transportida foydalanishga ehtiyoj ortdi. Elektromobildagi akkumulyatorlar batareyasining bir galgi zaryadi (energiya zaxirasi) 100 km gacha yo‘l yurishga yetadi. Elektromobillarning akkumulyatorlari maxsus zaryadlash stansiyalarida zaryadlanadi. O‘zgaruvchan tok dvigatelidan foydalanilganda uni o‘zgarmas tokka aylantiruvchi o‘zgartirgich bo‘ladi.

Elektromobildan foydalanish shaharlarda shovqinni va havoning buzilishini kamaytiradi, suyuq yonilg‘ini tejashga imkon beradi. Elektromobillar shaharda foydalanishga mo‘ljallangan; yurish qismi, kuzovi yengillashtirilgan, alohida transmissiyali va akkumulyatorlar batareyalari almashtirish qulay qilib ishlanadi. Akkumulyatorlar batareyalari kuzov ostiga joylashtiriladi, tok dvigatelga tiristorli boshqarish bloklari orqali keladi. Dvigatel yetakchi ko‘prikli bloklarga (oldiga yoki orqasiga) yoki kardanli harakat bloklariga, yoxud g‘ildiraklarga o‘rnatiladi.Elektr energiya suyuq yoki gazsimon yoqilg‘idan bevosita avtomobilning o‘zida hosil qilinadigan elektromobillar ham bor[3-4]. Elektromobil, asosan, AQSh, Angliya, Rossiyada ishlab chiqariladi. AQSH va Germaniyada bir galgi zaryadi 200 km gacha yo‘l yurishga yetadigan elektromobillarning eksperimental nusxasi yaratilgan (2005). O‘zbekistonda elektromobilga doir ishlar Toshkent avtomobil yo‘llar institutida olib boriladi. Bizga ma’lumki hozirgi kunda yashil energiya manbalariga bo’lgan talab yuqori va quyida asosiy raqamli texnologiyalar va ularning elektromobillar zaryadlashdagi o‘rni keltirilgan:

1. Smart zaryadlash stansiyalari

- Raqamli boshqaruv tizimlari yordamida zaryadlash jarayoni avtomatlashtiriladi.
- Foydalanuvchi ilova yoki RFID kartalar orqali stansiyaga ulanishi mumkin.
- Stansiyalar zaryadlash kuchini avtomatik tarzda moslashtiradi, energiya samaradorligini oshiradi.

2. Mobil ilovalar va onlayn platformalar

- Foydalanuvchilar yaqin atrofdagi bo‘sh zaryadlash nuqtalarini topishlari, ularning holati va narxini ko‘rishlari mumkin.
- Zaryadlashni oldindan buyurtma qilish yoki to‘lovlarni onlayn amalga oshirish imkoniyati mavjud.

- Zaryadlash jarayonini real vaqtda kuzatish, batareya holatini ko‘rish.

3. IoT (Internet of Things)

- Zaryadlash stansiyalari va elektromobillar internet orqali bog‘lanib, ma’lumot almashadi.
- Bu orqali energiya taqsimoti samarali boshqariladi, shuningdek, tarmoqqa ortiqcha yuk tushmasligi nazorat qilinadi.

4. Ma’lumotlarni tahlil qilish va sun’iy intellekt

- Zaryadlash odatlari, energiya sarfi, batareya holati kabi ma’lumotlar to‘planib, tahlil qilinadi.
- Sun’iy intellekt yordamida zaryadlash jarayonini optimallashtirish, energiya taqsimotini boshqarish, va batareyani uzoqroq ishlatish mumkin.

5. Bulutli xizmatlar

- Zaryadlash stansiyalari va foydalanuvchi qurilmalari o‘rtasida bulut orqali ma’lumot almashinuvi amalga oshiriladi.
- Bulut platformalari zaryadlash tarixini saqlaydi, xizmat sifatini monitoring qiladi va xizmatlarni yangilaydi.

6. Blokcheyn texnologiyalari

- To‘lovlarni xavfsiz va shaffof tarzda amalga oshirish uchun blokcheyn texnologiyasi qo‘llanilishi mumkin.
- Elektr energiyasini sotib olish va sotish jarayonlari hamda energiya almashinuvi uchun ishonchli tizim yaratadi[5-6].

Xulosa. Sayyoramizning kelajagi haqida qayg‘urayotganlar ko‘payib bormoqda. Ular nafaqat iqlim o‘zgarishi va boshqa ekologik tahdidlardan qo‘rqishadi, balki atrof-muhitni asrash uchun ham o‘z hissalarini qo‘shishga harakat qilishadi. Buning ko‘plab usullari mavjud — chiqindilarni alohida yig‘ishdan tortib, yosh daraxtlarni ekishgacha. Eng samaralilaridan biri bu avtomobilingizni ichki yonuv dvigatelini elektromobilga almashtirishdir. Agar bu ommaviy miqyosda sodir bo‘lsa, global isishga sabab bo‘ladigan ifloslantiruvchi moddalarning atmosferaga chiqarilishini kamaytirish mumkin bo‘ladi. Biroq ekologik tozalik elektr motorli avtomobillarning yagona afzalligi emas — ularni saqlash arzonroq, qulayroq va xavfsizroq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Asliddin P. et al. SILINDR-PORSHEN GURUHI ELEMENTLARINING TAVSIFI VA DVIGATELNING EFFEKTIV KO’RSATKICHLARI //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 605-611.
2. Asliddin P. et al. PORSHEN HALQASINING ISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 11. – C. 611-620.
3. Xusniddin o’g’li P. A. PORSHEN HALQANING UZOQ ISHLASHINI BELGILOVCHI ASOSIY KATTALIKLAR //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 680-685.
4. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – C. 113-115.
5. Javlonbek Kholmirzaev, Isroiljon Kuchkorov, Adhamjon Kakhkharov PROBLEMS OF CARRYING OUT AUTO TECHNICAL RESEARCH WITH THE PARTICIPATION OF TWO-WHEELED MECHANICAL VEHICLES // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022.
6. Mamadzhanov B. et al. Dielectric separation //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – C. 02017.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA EKOLOGIK INNOVATSIYALAR

Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich talabasi
Qilichova Mohichehra Abdusoat qizi
E-mail: mohichehraqilichova87@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali katta o‘qituvchisi Bo‘riyev Sardor Norovich
E-mail: sardor_boriyev9696@mail.ru

Anotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiyaning ekologik innovatsiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi, ularning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Hozirgi global ekologik muammolar sharoitida zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt, “Internet of Things” (IoT), Big Data va blokcheyn kabi yechimlarning ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston misolida hozirgi bosqichdagi ishlar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ekologik innovatsiyalar, yashil iqtisodiyot, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida global isish, ekologik ifloslanish, tabiiy resurslarning kamayishi kabi muammolar insoniyatni barqaror rivojlanish yo‘lini izlashga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya ekologik sohada innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda asosiy omilga aylanmoqda. Ekologik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik monitoringni yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar ekologik muammolarning oldini olishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kengaytirmoqda. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda sun’iy intellekt yordamida chiqindilarni saralash tizimlari, IoT orqali real vaqtda ekologik monitoring, Big Data asosida iqlim o‘zgarishlarini prognozlash, blokcheyn orqali yashil moliyalashtirish nazorat qilinmoqda. O‘zbekistonda ham bu borada muhim qadamlar qo‘yilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va atrof-muhit monitoringi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ekologik nazorat tizimlari raqamlashtirilmoqda, chiqindilarni boshqarish sohasida axborot platformalari ishlab chiqilmoqda. “Aqlli shahar” loyihalari orqali energiya samaradorligini oshirish, suv va havo sifatini nazorat qilish kabi ekologik indikatorlarni monitoring qilishda zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ayni paytda qishloq xo‘jaligida ham raqamli texnologiyalar orqali agroekologik muhitni kuzatish, suvdan samarali foydalanish, agrotexnik tadbirlarni optimallashtirish ishlari boshlang‘ich bosqichda amalga oshirilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning ekologik innovatsiyalardagi roli

Texnologiya turi	Asosiy vazifasi	Ekologik foydasi
Sun’iy intellekt (AI)	Ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, avtomatik boshqaruv	Ekologik xavflarni oldindan aniqlash, resurslar iste’molini optimallashtirish
IoT (Internet of Things)	Sensorlar orqali real vaqtda monitoring	Havo, suv, tuproq holatini doimiy nazorat qilish
Big Data	Katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish	Iqlim o‘zgarishlarini prognozlash, qarorlar asoslash
Ekologik startaplar va inkubatorlar	Innovatsion yechimlar yaratish va tijoratlash	Yangi texnologiyalar orqali ekologik muammolarga yechim topish

Raqamli platformalar	Ma’lumot almashish, xizmatlar ko‘rsatish, nazorat tizimlari	Ochiqlik, ishtirok, ekologik xabardorlikni oshirish
Smart Grid (aqlli energiya tarmoqlari)	Energiya iste’molini avtomatik boshqarish	Energiya tejami, uzilishlarning oldini olish, isrofgarchilikni kamaytirish

Kelgusi yillarda ekologik innovatsiyalarni raqamli transformatsiya asosida chuqurlashtirish bo‘yicha bir qator ishlar olib borilishi rejalashtirilmoqda.

Ekologik ma’lumotlar bazalari atrof-muhit holati, havo sifati, suv resurslari, chiqindilar, tabiiy resurslardan foydalanish kabi ko‘rsatkichlarni to‘plash va saqlash uchun zarurdir. Ochiq va shaffof ma’lumotlar tizimi orqali fuqarolar, tadqiqotchilar, jurnalistlar va investorlar ekologik vaziyatni baholashda ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Bu ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va ijtimoiy nazoratni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Chiqindilarni yig‘ish, saralash, qayta ishlash va utilizatsiya qilish jarayonlarini raqamli tizimlar orqali boshqarish “nol chiqindi” (zero waste) siyosatini samarali yuritishga xizmat qiladi. Har bir chiqindining kelib chiqish manbai, miqdori, ishlov berish holati maxsus sensorlar va dasturlar orqali kuzatiladi. Bu chiqindi aylanmasining samaradorligini oshirish, noqonuniy tashlash holatlarining oldini olish va ekologik muhitni muhofaza qilishga imkon beradi.

Aqlli energiya tarmoqlari — bu elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida boshqaruvchi tizimdir. Ular energiyani real ehtiyojga qarab taqsimlaydi, isrofgarchilikni kamaytiradi, elektr ta'minotidagi uzilishlarni avtomatik aniqlab tuzatadi. Bu tizimlar qayta tiklanuvchi manbalarni umumiy energiya tizimiga integratsiya qilishni ham osonlashtiradi.

Precision agriculture — bu dronlar, sensorlar, GPS, AI va IoT yordamida fermerlik ishlarini optimallashtirishdir. Masalan, yerning har bir qismi uchun alohida sug‘orish rejimini belgilash, o‘g‘itlash va pestitsid qo‘llashni nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa resurslar (suv, o‘g‘it, yoqilg‘i)ni tejaydi, hosildorlikni oshiradi va atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytiradi. Ayniqsa, suv tanqisligi muammosi mavjud bo‘lgan hududlar uchun bu yondashuv juda dolzarbdir. Bu rejalarning amalga oshirilishi nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki O‘zbekistonni yashil iqtisodiyot sari olib boruvchi muhim qadam bo‘ladi.

Xulosa

Raqamli transformatsiya va ekologik innovatsiyalar uyg‘unligi – zamonaviy davrning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu ikki sohaning integratsiyasi orqali iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatga erishish mumkin. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishda hali ko‘p ishlar qilish lozim. Shu bois, raqamli texnologiyalarni ekologik muammolarga yechim sifatida joriy etish, ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqish, xalqaro tajribalardan foydalanish muhimdir. Maqsad – kelajak avlod uchun sog‘lom va toza atrof-muhitni saqlab qolishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2020 yil.
2. United Nations Environment Programme (UNEP). *Digital Transformation for a Sustainable Future*, 2022.

YASHIL IQTISODIYOTDA AYOLLAR BANDLIGINI KENGAYTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI ISH O‘RINLARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Raximova Lola Shavkatovna
Assistent, Menejment va marketing kafedrasi, Farg’ona Davlat Texnika Universiteti, Farg’ona shahar, O’zbekiston, loladhirinanor@gmail.com

Annotatsiya: Tezisda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ayollar ishtirokini kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ayollarni ekologik tadbirkorlik va qayta tiklanuvchi energiya sohalariga jalb qilishning afzalliklari o‘rganilib, xorijiy tajriba asosida samarali usullar ko‘rsatiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning mintaqada rivojlanishi uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, ayollar ishtiroki, kambag‘allikni qisqartirish, ekologik tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, iqtisodiy faollik.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga o‘tish global iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Barqaror rivojlanish tamoyillari insoniyatning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini ekologik muvozanatni buzmagan holda qondirishni talab qiladi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki kambag‘allikni qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga ham xizmat qilishi mumkin. Mamlakatda qabul qilingan **"Yashil iqtisodiyot"** konsepsiyasining ustuvor yo’nalishlari 2030-yilgacha iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish, ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza jarayonlarni rivojlantirish, suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish va qishloq xo‘jaligida organik mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash kabi barqaror rivojlanish maqsadlariga vazifa etib belgilangan[1].

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ayollar ishtirokini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayollar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularni ekologik tadbirkorlik, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik qishloq xo‘jaligi kabi sohalarga jalb qilish orqali nafaqat ularning iqtisodiy faolligini oshirish, balki kambag‘allikni qisqartirishga erishish mumkin. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ayollar ishtirokini kengaytirishning tashkiliy va iqtisodiy asoslari, xorijiy tajribalar hamda mintaqada qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi. Tezisning asosiy maqsadi yashil iqtisodiyot orqali ayollar kambag‘alligini qisqartirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yashil iqtisodiyot (Green Economy) — bu iqtisodiy faoliyatni ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va resurslardan samarali foydalanish tamoyillariga asoslangan holda tashkil qilish. Yashil iqtisodiyot atamasi birinchi marta 1989-yilda BMT tomonidan ilgari surilgan va bugungi kunda barqaror rivojlanishning muhim qismi sifatida e’tirof etiladi. Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini quyidagilardan iborat[2].

Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish.

Atmosfera, suv va tuproq ifloslanishini minimallashtirish.

Ish o‘rinlari yaratish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Ayni damda global muammo sifatida qaralayotgan iqlim o‘zgarishining oldini olish va ekologik muammolarni hal qilish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholining turmush darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish, tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish kabi dolzarb masalalarga yechim topish iqtisodiy tizimning asosiy maqsadidir

Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy faoliyatni joriy etish orqali Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan sohalarning rivojlantirib, energiya samaradorligini oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish va yashil sohalarda (masalan, qayta tiklanuvchi energiya,

ekologik qishloq xo‘jaligi) yangi ish o‘rinlarini yaratish mumkin. Shu bilan bir qatorda aholining ekologik savodxonligini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasidagi xarajatlarni kamaytirish (toblanmagan ekologiya tufayli kelib chiqadigan kasalliklar kamayishi) va en asosiysi xotin-qizlar va yoshlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish orqali ijtimoiy tenglikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda mavjud tabiiy resurslarning muhofazasi va ularning samarali boshqarilishi, atrof-muhit ifloslanishining kamayishi, biologik xilma-xillikni saqlashga erishish mumkin.

Ekologik sohalarni rivojlantirish masalan, quyosh energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash aholining turli qatlamlari uchun bandlikni ta’minlaydi. Yashil texnologiyalar qishloq xo‘jaligi va sanoatda resurslar isrofini kamaytirib, daromadlarni oshirish imkonini beradi. Bu esa o’z navbatida yangi ish o’rinlarini yaratish imkonini beradi[3].

Ayollarning yashil iqtisodiyotdagi ishtiroki faqat ijtimoiy barqarorlikka emas, balki iqtisodiy va ekologik natijalarni yaxshilashga ham yordam beradi. Yashil iqtisodiyot — bu barqaror rivojlanishga asoslangan iqtisodiy model bo‘lib, unda ekologik resurslar tejamkorlik bilan foydalaniladi[4]. Ayollarning ushbu jarayonda faol ishtiroki ayniqsa, oilada va mahalliy jamiyatlarda qaror qabul qilishda katta rol o‘ynaydi. Ularning ekologik ongini rivojlantirish orqali yashil texnologiyalar va barqaror yashash tarzini targ‘ib qilish mumkin. Xotin-qizlar kichik va o‘rta biznesda ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanib, barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishadi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza kiyim-kechak va gigiyena mahsulotlari kabi sohalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jamiyatning turli qatlamlarida ekologik ma'lumotlarni tarqatishda asosiy vositachi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu oilalar, mahallalar va ta’lim muassasalarida atrof-muhitni himoya qilishga bo‘lgan mas’uliyatni oshiradi.

Ayollar ekologik tadbirkorlik orqali nafaqat atrof-muhitni himoya qilishda ishtiroki, balki iqtisodiy mustaqillikka erishishi ham ahamiyatli[6]. Mamlakatda kambag’allik chegarasiga tushib qolgan xotin-qizlarni organik oziq-ovqatlar, tabiiy tozalash vositalari yoki qayta ishlangan materiallardan yaratilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish kabi tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish bir vaqtning o’zida bir qancha muammoga yechim bo’lib xizmat qiladi.

Ayollarni yashil iqtisodiyotga jalb qilish yangi ish o‘rinlarini yaratish va qashshoqlikni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Xotin-qizlar ekologik tashabbuslar va texnologiyalarni qabul qilishga ko‘proq moyil bo‘lib, bu barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni tezlashtiradi. Qayta tiklanuvchi energiya va ekologik innovatsiyalarni yanada rivojlantirishdagi ayollarning Ilm-fan va texnologiyalarga qo‘shgan hissasini aloxida ta’kidlash joiz.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritishni jadallashtirish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejash bo‘yicha davlat dasturlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, davlat sektori va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni tatbiq etish kerak. Mahalliy iqtisodiyotning ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga sarmoya kiritish va tarmoqni diversifikatsiya qilish orqali mahalliy iqtisodiyotni yashil iqtisodiyotga yo‘naltirish zarur. Bu, ayniqsa, qishloq joylarida yashovchi aholi uchun ijtimoiy va iqtisodiy foyda keltiradi.

Ayollarni yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvi:

Ayollarni ekologik sohalarda malakasini oshirish: Yashil iqtisodiyotda ayollarni faollashtirish uchun maxsus trening va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish kerak. Bu nafaqat ayollar bandligini oshirishga, balki ekologik sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratishga ham yordam beradi. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik tadbirkorlik va yashil texnologiyalar sohalarida ayollar uchun alohida imkoniyatlar yaratish muhim.

Gender tengligi asosida ijtimoiy-siyosiy qo‘llab-quvvatlash: Ayollarning yashil iqtisodiyotdagi ishtirokini oshirish uchun qonuniy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish zarur. Bu davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan huquqiy va moliyaviy islohotlar orqali amalga oshirilishi lozim[7].

Kambag‘allikni qisqartirishda yashil iqtisodiyotning roli tahlil qilib, yashil iqtisodiyotga o‘tish kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qilishi mumkin, chunki u yangi ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy ishlab chiqarish va biznesni rivojlantirishga yordam beradi. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga

oshirilgan chora-tadbirlar yashil iqtisodiyotning integratsiyasi bilan kuchaytirishi kerak. Misol uchun, ekologik bizneslarni qo‘llab-quvvatlash, issiqlik izolyatsiyasi va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Yashil iqtisodiyot sohasiga o‘tish uchun davlat va xususiy sektor tomonidan kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan maxsus kreditlar, subsidiyalar, va investitsiya dasturlarini ishlab chiqish lozim. Bu, ayniqsa, eng kam ta'minlangan qatlamlar uchun juda muhim. Yashil iqtisodiyotga o‘tishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan hukumatning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Hukumat ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha uzun muddatli strategiyalar ishlab chiqishi kerak. Dasturlar ekologik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muvozanatni saqlab, keng jamoatchilikni jalb qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu yo’nalishda samarali huquqiy asoslarni yaratish, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va amalga oshirish zarur. Davlat ekologik toza texnologiyalarga soliq imtiyozlari berish, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llab-quvvatlash kerak.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish orqali kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish mumkin, ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali davlat siyosati, huquqiy asoslar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarur. Ayollarning yashil iqtisodiyotdagi roli va ularga beriladigan imkoniyatlar barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo‘lib qoladi. Kambag‘allikni qisqartirish uchun yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishni davom ettirish, shu bilan birga ijtimoiy tenglikni ta'minlash, barcha qatlamlar uchun imkoniyatlar yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.12.2022yildagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
2. "Green Economy: A Conceptual Framework" - United Nations Environment Programme (UNEP). Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi o‘rni va uning kambag‘allikni qisqartirishdagi roli haqida batafsil tushunchalar.
3. "The Role of Women in Green Economy Transition" - International Labour Organization (ILO). Ayollarni yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvi bo‘yicha hisobot va tavsiyalar.
4. "Investing in Sustainable Development: Green Economy and Poverty Reduction" - The World Bank. Yashil iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy imkoniyatlari haqida maqolalar.
5. "Green Growth and Sustainable Development: The Role of Policy" – OECD Yashil iqtisodiyotga o‘tishning siyosiy va iqtisodiy jihatlari haqida.
6. "The Green Economy in the Context of Sustainable Development and Poverty Eradication" - UN Department of Economic and Social Affairs Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanish va kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri.
7. "Gender and Green Economy: A New Approach to Sustainable Development" - UN Women Yashil iqtisodiyotda gender tengligini ta’minlash va ayollarni ishga joylashtirish strategiyalari.

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA’MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH ISHLAB CHIQARISH QUVVATINI YAXSHILASHNING OMILI SIFATIDA

Rustam Shukurov,
Jizzax SAMBHRAM universiteti tadqiqotchisi
rustam.sambhram.uz@gmail.com
+998955302203

Annotatsiya: Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalarning ishlab chiqarish xajmi va unga tasir o’tkizuvchi omillar sifatida ta’minot zanjirini takomillashtirish yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan. Ishlab chiqarishni uzliksiz va sifatli tashkil etish ko’p jixatdan ta’minotning sifatli darajada yo’lga qo’yilganligiga bo’g’liq.

Kalit so’zlar: Ta'minot zanjiri, TMS, Internet buyumlar, platforma, samarasizlik, KPI, transchegaraviy, barja.

Ta'minot zanjiri ko'rinishining yaxshilanganligi kompaniyalarga dinamik bozor sharoitlariga moslashishga imkon beradi.

Ko‘rinishlilik yechimlaridan foydalangan holda, tashkilotlar uzluksizlik, samaradorlik va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydigan amaliy tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Bugungi ta'minot zanjirlari globallashuv, real vaqtda ma'lumotlarga bo'lgan talab, tabiiy ofatlar va geosiyosiy hodisalar tufayli uzilishlar va tartibga soluvchi hujjatlarning o'zgarishi tufayli tobora murakkablashib bormoqda. Oziq-ovqat sanoati uchun tez buziladigan mahsulotlar va muvofiqlik kabi muammolar bunday qiyinchiliklarni orttiradi. Ushbu to'siqlarni muvaffaqiyatli yengib o'tish uchun tovarlar, ma'lumotlar va resurslarning harakatini kuzatish va kuzatish uchun ishonchli vositalar kerak bo'ladi. Ko'rinishning yaxshilanishi operatsion samaradorlik, xarajatlarni tejash va mijozlarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish uchun zarurdir. Bu kompaniyalarga buzilishlarni oldindan bilish, o'zgaruvchan bozor dinamikasiga moslashish va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Mijozlarning o'z vaqtida va to'g'ri yetkazib berish yuzasidan kutganlari o'sishda davom etar ekan, kompaniyalar o'z majburiyatlarini aniq tushunishlari kerak. Real vaqtda kuzatuv va monitoring kompaniyalarga o'z vaqtida yetkazib berish imkonini beradi, kechikishlar va noto'g'ri ma'lumotlar xavfini kamaytiradi. Yaxshilangan kuzatuvni amalga oshirish bilan kompaniyalar barqaror xizmat ko'rsatish darajasini saqlab qolishlari va mijozlar ehtiyojlarini qondirishlari, ishonch va ishonchlilikni oshirishlari mumkin.

Kuzatish ham xavflarni kamaytiradi ham raqobatbardoshlikni oshiradi. Kompaniyalar dunyoda oldindan aytib bo'lmaydigan voqealar tufayli shakllangan muammolarni ular kuchayishidan oldin ko'rish va hal qilish uchun ko’maklashuvchi vositalarga muhtoj. Kuzatuvchanlik yechimlaridan foydalangan holda, tashkilotlar uzluksizlik, samaradorlik va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydigan amaliy tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Ta'minot zanjirining shaffofligiga erishishdagi qiyinchiliklar. Ko'pgina tashkilotlar uchun ta’minot zanjirining uzliksizligiga erishish qiyin bo'lib qolmoqda. Kompaniyalar ko'pincha samarali aloqa qila olmaydigan turli xil tizimlar bilan ishlaydi, bu esa ma'lumotlarning uzilib qolishiga olib keladi. Ushbu integratsiyaning etishmasligi qaror qabul qilishni va operatsion moslashuvchanlikni cheklaydi.

Eski tizimlar muammoni yanada kuchaytiradi, chunki ular real vaqt rejimida kuzatish va ta'minot zanjirining yaxlit ko'rinishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarga ega emas. Bundan tashqari, bir nechta manfaatdor tomonlar, mintaqalar va transport turlarini o'z ichiga olgan murakkab tarmoqlar ko'rinishda qo'shimcha bo'shliqlar yaratadi. Ularning biznes ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlaydigan transportni boshqarish tizimini (TMS) joriy qilish kerak . TMS operatsiyalarning har tomonlama ko'rinishini ta'minlash uchun turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtiradi. Bu, ayniqsa, samaradorlik, muvofiqlik va resurslarni optimallashtirishni ta'minlash uchun multimodal transport - temir yo'l, avtomobil, dengiz va barjani boshqarish uchun muhimdir.

TMSni amalga oshirish noyob operatsion ehtiyojlarga moslashtirilgan strategik amaliyotlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Integratsiyalashgan ma'lumotlarni boshqarish. TMS ta'minot zanjiri ma'lumotlarini markazlashtiradi, noaniqliklarni yo'q qiladi va jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv manfaatdor tomonlarga ongli qarorlar qabul qilish va harakatlarni muammosiz muvofiqlashtirish imkonini beruvchi yagona haqiqat manbasini taqdim etadi. Bir nechta turdagi yuklarni boshqaradigan ommaviy yuk jo'natuvchilar uchun yagona platformaga ega bo'lish operatsion aniqlik va izchillikni ta'minlaydi.

Real vaqt rejimida kuzatish yuk ichiga o'rnatilgan “Internet buyumlar” (IoT) qurilmalari va GPS trekerlari uning joylashuvi va holati haqida real vaqtda ma'lumot beradi. Ushbu faol yondashuv kompaniyalarga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tezda hal qilish, buzilishlarni minimallashtirish imkonini beradi. Misol uchun, real vaqt rejimida monitoring qilish haroratga sezgir bo'lgan tovarlarni o'z vaqtida etkazib berishni ta'minlash yoki temir yo'l transportida kechikishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Faol boshqarish TMS -dagi bashoratli tahlil vositalari ob-havo bilan bog'liq uzilishlar yoki uskunaning etishmasligi kabi potentsial xavflarni aniqlashga yordam beradi. Tarixiy ma'lumotlar va mavjud tendentsiyalarni tahlil qilish orqali kompaniyalar muammolarni oldindan bilishlari va faol choralar ko'rishlari mumkin. Ushbu prognoz darajasi, ayniqsa, kechikishlar sezilarli moliyaviy va operatsion ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarmoqlar uchun juda muhimdir.

Multimodal integratsiya ko'p transport turlaridan foydalangan holda ta'minot zanjirini boshqarish ommaviy va dona tovarlar logistikasining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. TMS temir yo'l, yuk mashinalari, dengiz va barja operatsiyalari o'rtasida uzluksiz integratsiyani qo'llab-quvvatlaydi, resurslarni taqsimlashni optimallashtiradi va samarasizlikni kamaytiradi. Ushbu qobiliyat kechikish xarajatlarini kamaytirish, vagondan foydalanishni yaxshilash va o'z vaqtida etkazib berishni ta'minlashni istagan korxonalar uchun muhimdir.

Normativ talablarga muvofiqligi. Normativ muhitda harakat qilish aniqlik va tafsilotlarga e'tibor berishni talab qiladi. TMS hujjatlashtirish va hisobot berish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahalliy va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash orqali muvofiqlikni soddalashtiradi. Ushbu funksiya jarimalar xavfini kamaytiradi va transchegaraviy tranzaktsiyalarni silliq amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Manfaatdor tomonlarni o'qitish. TMS potentsialini maksimal darajada oshirish uchun xodimlar va hamkorlar uning imkoniyatlarini tushunishlari kerak. Keng qamrovli treninglar jamoalarga samarali tushunchalarni yaratish, jarayonlarni optimallashtirish va operatsion maqsadlarga erishish uchun tizimdan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

Ishlash monitoringi. O'z vaqtida yetkazib berish, inventar darajalari va tranzit vaqtlari kabi ko'rsatkichlarni muntazam ravishda baholash kompaniyalarga yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu KPI monitoringi doimiy optimallashtirishni qo'llab-quvvatlaydi va strategik maqsadlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

Ta'minot zanjiri ko'rinishiga erishishning afzalliklari, ayniqsa, murakkab logistika yoki multimodal operatsiyalarni boshqaradigan korxonalar uchun juda muhimdir. Asosiy afzalliklarga quyidagilar kiradi:

Ish samaradorligini oshirish. Aktivlar joylashuvi va jo‘natish holatini ko‘rish kompaniyalarga transport vositalari va boshqa resurslardan foydalanishni optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, muvofiqlashtirilgan yuklash va tushirish jadvallari kechikish xarajatlarini kamaytiradi va qiyinchiliklarni oldini oladi.

Pulni tejash. Samarasizliklarni bartaraf etish va jarayonlarni avtomatlashtirishni oshirish orqali korxonalar xarajatlarni kamaytirishi va jamoa a'zolarini yanada samaraliroq joylashtirishi mumkin.

Mijozlarning qoniqish darajasini oshirish. To'g'ri kuzatish va o'z vaqtida yetkazib berish mijozlar bilan ishonch va munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi. Shaffof aloqa manfaatdor tomonlarning butun jarayon davomida xabardor bo'lishini ta'minlaydi.

Xatarlarni kamaytirish. Proaktiv nosozliklarni bartaraf etish uzilish vaqtini kamaytiradi va biznes uzluksizligini saqlaydi. Mumkin bo'lgan muammolarni erta aniqlash tezda tuzatish choralarini ko'rish imkonini beradi.

Aniq qarorlar qabul qilish. Haqiqiy vaqtda murakkab ma'lumotlarga kirish strategik rejalashtirish va amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlarga asoslangan yondashuv moslashuvchanlikni va uzoq muddatli muvaffaqiyatni qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi dinamik bozorda ta'minot zanjiri shaffofligi endi ixtiyoriy emas. TMS oddiy yoki murakkab jarayonlar bilan biznesning transport va logistika ehtiyojlarini boshqarish uchun mustahkam platformani taqdim etadi. Ushbu amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etish orqali kompaniyalar qiyinchiliklarni engib o'tishlari, operatsion samaradorlikni oshirishlari va barqaror o'sishga erishishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son farmoni.

2. 2024 CSCMP European Conference Unleashing Resilient, Sustainable Supply Chains June 20 - 21, 2024.
3. Mmereki D, “The management and prevention of food losses and waste in low- and middle-income countries. Waste Management & Research. 2024;42(4):287-307.
4. Бекжанова, С.Е. Основы логистики снабжения на предприятии // Молодой ученый. — 2021. — № 22 (364). — С. 171-173.
5. Берстень Е.В. Эволюция концепции «цепочки поставок». прогноз на 2023-2024 гг. в области управления цепочками поставок в России и Китае / Е.В. Берстень, Ю. Ван // Международный научно-исследовательский журнал. — 2023. — №6
6. К.А. Мухамеджанова. Мева–сабзавот маҳсулотлари таъминот занжиридаги йўқотишлар таҳлили // «Ўзбекистон Республикасининг ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истиқболлари» III Халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2-шўъба. ТДИУ, 2020 йил 10-11 декабрь. – Т.: «Маънавият», 2021. – 222-230 бет.

QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA SUN'IY INTELLEKTNING QO‘LLANILISH BOSQICHLARI: O'TMISHDAGI HARAKATLAR, HOZIR VA KELAJAKDAGI LOYIHALAR

Sa’dullayev Azamat Nafiddinovich
Buxoro davlat texnika universiteti doktoranti
+998934509822 azamatsadullayev9822@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari – o'tmishdagi harakatlar, hozirgi qo‘llanilish holati va kelajakdagi istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. O‘tmishdagi texnologik evolyutsiya jarayonlari, dastlabki ma'lumotlarni yig‘ish va oddiy avtomatlashtirilgan tizimlardan boshlab, hozirgi zamonaviy o‘z-o‘zini o‘rgatuvchi algoritmlarga o‘tish bosqichlari ko‘rsatib beriladi. Bugungi kundagi SI texnologiyalari, masalan, aqlli dehqonchilik (precision agriculture), hosil prognozi va kasalliklarni aniqlashda sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanish yutuqlari tahlil qilinadi. Kelajak istiqbollarida esa, genetik manipulyatsiya, muhitni adaptiv nazorat qilish va aqlli robotizatsiya kabi innovatsion loyihalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. sun'iy intellekt, qishloq xo‘jaligi, aqlli dehqonchilik, hosil prognozi, robotizatsiya, sun'iy neyron tarmoqlar, texnologik evolyutsiya, SI algoritmlari, kelajak texnologiyalari, ekologik monitoring

Kirish. Qishloq xo‘jaligi insoniyat jamiyatining eng qadimgi va hayotiy sohalaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi har doim ilm-fan va texnologiyaning taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. XXI asrga kelib, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi qishloq xo‘jaligida ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. An’anaviy dehqonchilik va chorvachilik usullaridan farqli ravishda, SI yordamida qishloq xo‘jaligi yanada samarali, aniq va ekologik jihatdan barqaror shaklga o‘tayapti.

Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi, aholining o‘sishi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari fonida yanada ortmoqda. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi faqat ko‘proq ishlab chiqarish bilan emas, balki resurslardan oqilona foydalanish va ekologik tizimlarga salbiy ta’sirni kamaytirish bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sun'iy intellekt qishloq xo‘jaligida strategik vosita sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot muammosi shundaki, qishloq xo‘jaligida SI texnologiyalarining tatbiq etilishi hanuz to‘liq o‘z potensialiga erishmagan. Ilmiy doiralarda bu texnologiyalarning samaradorligi, iqtisodiy rentabelligi va ekologik barqarorlikka ta’siri bo‘yicha turli fikrlar mavjud. Shuningdek, ba’zi hududlarda texnologiyalarning qamrovi va amaliyotdagi qo‘llanishi o‘rtasida tafovutlar kuzatilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — qishloq xo‘jaligi sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'tmishdagi rivojlanish bosqichlarini, hozirgi zamon amaliyotini va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini

chuqur ilmiy-tahliliy asosda yoritish, mavjud yutuq va muammolarni aniqlash, kelgusidagi innovatsion yo‘nalishlar haqida tahliliy xulosalar berishdir.

Tadqiqot usuli sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, zamonaviy SI texnologiyalarining amaliy misollarini ko‘rib chiqish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va xalqaro tajribalarga asoslangan xulosalar chiqarish usullari qo‘llanildi.

Asosiy qism. 1. O‘tmishdagi harakatlar: Sun'iy intellekt qishloq xo‘jaligiga kirib kelishi. Sun'iy intellekt qishloq xo‘jaligi sohasiga kirib kelishining dastlabki bosqichlari XX asrning oxiri — XXI asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda texnologik imkoniyatlar cheklangan bo‘lsa-da, dastlabki avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumot yig‘ish texnologiyalari shakllana boshladi. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan kompyuterlashtirilgan tizimlar hosil rejalashtirish, ob-havo bashoratlari va yer unumdorligini tahlil qilish uchun foydalanilgan.

Dastlabki harakatlar asosan quyidagilarga qaratilgan edi:

Ma'lumotlarni yig‘ish va saqlash: Yer maydonlari, tuproq tahlillari, ob-havo sharoitlari haqida dastlabki ma’lumotlar bazasini yaratish.

Avtomatlashtirilgan uskunalar: Hosil yig‘ish, urug‘ sepish va sug‘orish tizimlarining dastlabki avtomatlashtirilgan variantlari.

Oddiy ekspert tizimlari: Dehqonlarga oddiy maslahatlar beradigan dasturlar (masalan, qaysi kunlarda urug‘ sepish eng optimal bo‘lishini tavsiya qiluvchi tizimlar).

Bu jarayonda sun'iy intellekt aniq belgilangan qoidalarga asoslangan, **qoidalar asosidagi tizimlar** (rule-based systems) shaklida ishlatilgan. Masalan, agar tuproq namligi past bo‘lsa — sug‘orish tavsiya etilgan.

Quyidagi jadvalda dastlabki bosqichdagi asosiy texnologik rivojlanishlar ko‘rsatilgan:

Yil	Asosiy texnologik harakatlar	Ta'siri
1980-yillar	Qoidalarga asoslangan dasturlar	Ma'lumot asosida qishloq xo‘jaligi rejalari tuzish
1990-yillar	GPS asosida yer tahlil qilish	Geolokatsion ma'lumotlar yig‘ish
2000-yillar boshlarida	Dastlabki dronlar sinovi	Sug‘orish va urug‘ ekishni kuzatish

Bu davrning asosiy cheklovlari:

Ma’lumotlar sifati va hajmi yetarli emas edi.

Sun'iy intellekt algoritmlari juda soddalashtirilgan va har doim to‘g‘ri ishlamas edi.

Amaliyotda katta hududlarni qamrab olish imkoniyati cheklangan edi.

O‘tmishdagi bu harakatlar kelajakdagi rivojlanish uchun zamin yaratdi, chunki ular ma’lumot yig‘ish va avtomatlashtirishning dastlabki tajribasini shakllantirdi.

2. Hozirgi holat: Qishloq xo‘jaligida sun'iy intellektning amaliy qo‘llanilishi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi sohasi sun'iy intellekt (SI) va mashinali o‘rganish (MO) algoritmlarining jadal rivojlanishi natijasida tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar tufayli qishloq xo‘jaligida an'anaviy yondashuvlardan aqlli va ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish tizimlariga o‘tilmoqda. Bu esa hosildorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini bermoqda.

Bugungi kunda SI quyidagi asosiy sohalarda keng qo‘llanilmoqda:

2.1. Hosil prognozi va tahlili. Sun'iy intellekt algoritmlari tarixiy hosil ma’lumotlari, ob-havo sharoitlari, tuproq sifati va boshqa o‘zgaruvchilarga asoslanib hosil hajmini oldindan aniqlashda keng qo‘llanilmoqda. Bu dehqonlarga resurslarni optimal taqsimlash va iqtisodiy xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

2.2. Zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash. Kompyuter ko‘rish (computer vision) texnologiyalari yordamida o‘simliklar barglaridagi kasallik belgilarini avtomatik aniqlash imkoniyati paydo bo‘ldi. Mobil ilovalar orqali fermerlar dalada suratga tushirilgan rasm asosida aniq diagnoz olishlari mumkin.

2.3. Aqlli sug‘orish va resurslar boshqaruvi. IoT (Internet of Things) sensorlari va sun'iy intellekt algoritmlari asosida yer namligi, harorat va boshqa ko‘rsatkichlar real vaqt rejimida monitoring qilinib, suv sarfini optimallashtirish imkonini bermoqda.

2.4. Robotizatsiya va avtonom texnika. SI algoritmlari yordamida ishlaydigan dronlar va robotlar urug‘ sepish, o‘rim-yig‘im, pestitsid purkash kabi vazifalarni o‘zlari bajara olmoqda. Bu esa ishchi kuchi tanqisligini kamaytirishga va jarayonlarni tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

2.5. Katta ma’lumot (Big Data) va bulut texnologiyalari. Fermerlar millionlab ma’lumotlar nuqtalaridan foydalangan holda bulut platformalarida hosil prognozlari, tuproq tahlillari va iqlim tendensiyalarini baholashmoqda. Bu esa ma’lumotlarga asoslangan aniq qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi.

Quyidagi jadvalda hozirgi zamonda qishloq xo‘jaligida sun'iy intellekt qo‘llanilayotgan asosiy sohalar va texnologiyalar ko‘rsatilgan:

Soha	Sun'iy intellekt texnologiyalari	Amaliy natijalar
Hosil prognozi	Mashinali o‘rganish (ML), regressiya modellar	Oldindan rejalashtirish, risklarni kamaytirish
Kasallik aniqlash	Kompyuter ko‘rish, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN)	Erta ogohlantirish va tezkor aralashuv
Sug‘orish boshqaruvi	IoT, SI optimallashtirish algoritmlari	Suv tejash, resurslarni samarali sarflash
Robotik texnika	Avtonom navigatsiya, o‘zini o‘rganuvchi tizimlar	Mehnat unumdorligini oshirish
Ma'lumotlar tahlili	Big Data analitikasi, bulut texnologiyalari	Strategik qaror qabul qilish

Hozirgi holatning asosiy afzalliklari:

Ma'lumotlarga asoslangan dehqonchilik amaliyotlari.

Resurslardan samarali va ekologik foydalanish.

Hosildorlik va rentabellikning oshishi.

Qishloq xo‘jaligi risklarini minimal darajaga tushirish.

Ammo hozirgi zamonning cheklovlari ham mavjud:

Raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda SI texnologiyalarining kirib borishi sekin.

Texnologiya narxlari hali ham kichik va o‘rta fermerlar uchun yuqori.

Ma'lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik muammolari.

3. Kelajakdagi loyihalar: Sun'iy intellekt yordamida qishloq xo‘jaligining istiqbollari. Qishloq xo‘jaligi sohasida sun'iy intellektning rivojlanishi faqat amaldagi texnologiyalarni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Yaqin va uzoq istiqbolda SI qishloq xo‘jaligi tizimlarini tubdan o‘zgartiradigan, resurslardan deyarli mukammal darajada foydalaniladigan va ekologik muvozanatni saqlaydigan yangi konsepsiyalar va texnologiyalarni shakllantirishi kutilmoqda.

3.1. Genetika va sun'iy intellekt integratsiyasi. Genom tahlili va sun'iy intellekt algoritmlarining uyg‘unlashuvi natijasida yuqori hosildorlikka, qurg‘oqchilik va zararkunandalarga chidamli yangi o‘simlik navlari yaratish imkoniyatlari kengaymoqda.

AI yordamida:

Genetik xususiyatlarni tezkor tahlil qilish

Ideal gen kombinatsiyalarini aniqlash

Genetik modifikatsiya jarayonini optimallashtirish

Shu orqali kelajakda hosildorlik 30–50% gacha oshishi prognoz qilinmoqda.

3.2. Sun'iy muhit va iqlim adaptatsiyasi. Iqlim o‘zgarishlari qishloq xo‘jaligini yangi sharoitlarga moslashishga majbur qilmoqda. Kelajakda SI yordamida yaratiladigan sun'iy iqlim boshqaruv tizimlari quyidagilarni amalga oshiradi:

Ochiq dalalarda mikroiqlim sharoitlarini nazorat qilish

Namlik va harorat sharoitlarini optimallashtirish

Ekinlarni iqlim stressidan himoya qilish

3.3. To‘liq aqlli fermalar (Fully Smart Farms). Kelajakda dehqonchilik tamomila raqamlashtirilgan va SI asosidagi tizimlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

O‘zini o‘zi boshqaradigan traktorlar va yig‘im-terim mashinalari
Avtonom robotlar orqali pestitsid purkash va urug‘ sepish
Sun'iy intellekt asosida real vaqtli hosil monitoringi
Bunday fermalarda inson aralashuvi minimal darajaga tushadi va boshqaruv masofadan turib amalga oshiriladi.

3.4. Innovatsion loyihalar va istiqbollar. Dunyodagi yetakchi universitetlar va kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilayotgan ba’zi innovatsion loyihalar:

Plantix AI: O‘simlik kasalliklarini aniqlash va tavsiya berish uchun sun'iy intellekt asosidagi ilova.

Ecorobotix: O‘zini o‘zi boshqaradigan begona o‘tlarni aniqlash va yo‘qotish uchun mo‘ljallangan SI roboti.

IBM Watson Decision Platform for Agriculture: Katta ma’lumot va SI asosida fermerlar uchun qaror qabul qilish tizimi.

Quyidagi jadvalda kelajakda kutilayotgan asosiy texnologiyalar va ularning asosiy afzalliklari ko‘rsatilgan:

Yo‘nalish	Texnologiya	Kutilayotgan afzalliklar
Genetika	Genom tahlil va AI algoritmlari	O‘simliklarning hosildorligi va chidamliligi oshadi
Iqlim boshqaruvi	Sun'iy iqlim tizimlari	Hosildorlikning barqarorligi
Aqlli fermalar	Avtonom robotlar va dronlar	Ishchi kuchi ehtiyojining kamayishi
Innovatsion SI ilovalar	Kompyuter ko‘rish, Deep Learning	Tezkor kasallik aniqlash va oldini olish

Xulosa. Qishloq xo‘jaligi sohasida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi insoniyat tarixidagi eng muhim texnologik inqiloblardan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, SI dastlab ma'lumot yig‘ish va oddiy qoidalarga asoslangan tizimlar sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, hozirda esa hosil prognozi, kasallik aniqlash, resurslarni optimallashtirish va avtonom texnikalar kabi ko‘plab sohalarda faol tatbiq etilmoqda. Kelajak istiqbollarida esa SI texnologiyalari genom tahlili, sun'iy iqlim boshqaruvi va to‘liq aqlli fermalarning rivojlanishi orqali qishloq xo‘jaligini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarining to‘liq salohiyatidan foydalanish uchun raqamli infratuzilmani rivojlantirish, fermerlarni zamonaviy texnologiyalarga o‘rgatish va axborot xavfsizligini ta'minlash kabi muhim omillarni inobatga olish zarur. Sun'iy intellektni qishloq xo‘jaligiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish orqali global oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik muvozanat va iqtisodiy barqarorlikka sezilarli hissa qo‘shish mumkin.

Tavsiyalar

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Internet tarmog‘i va ma’lumot uzatish texnologiyalarini qishloq hududlarida kengaytirish SI texnologiyalarining joriy etilishini tezlashtiradi.

Fermerlar uchun trening va malaka oshirish dasturlari: Sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishni o‘rgatadigan maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish zarur.

One-Hot Encoding. Har bir kategoriya uchun alohida ustun yaratiladi. Qiymat ushbu ustunda 1, qolganlarida 0 bo‘ladi. Tartibsiz (nominal) kategoriyalar uchun ideal.

Target Encoding (yoki Mean Encoding). Har bir kategoriya uchun target (nishon) ustunining o‘rtacha qiymati olinadi. Statistik modellar uchun foydali, lekin overfitting xavfi bor.

Normalizatsiya va masshtablash. Bu ikkala usul ham mashinaviy o‘qitish jarayonida ma’lumotlarni bir xil o‘lchovga keltirish uchun ishlatiladi. **Normalizatsiya** — bu ma’lumotni [0, 1] oraliqqa keltirish usuli. Har bir qiymat quyidagi (1) formula bilan hisoblanadi:

$$x_{new} = \frac{x - x_{min}}{x_{max} - x_{min}} \qquad (1)$$

Barcha ustunlardagi qiymatlar bir xil chegarada bo‘lishi uchun. Bu ayniqsa, masofaga asoslangan algoritmlar (KNN, K-means, Neyron tarmoqlar) uchun muhim.

Masshtablash (ya'ni *standard scaling* yoki *z-score scaling*) — bu har bir qiymatni uning o‘rtacha qiymati (mean) va standart og‘ishiga (std) nisbatan o‘lchash orqali quyidagi (2) formula bilan hisoblanadi:

$$x_{new} = \frac{x - \mu}{\sigma} \qquad (2)$$

Bu yerda :

μ - o‘rtacha qiymat (mean)

σ - standart og‘ish (standard deviation)

Ustunlardagi qiymatlar normal taqsimotga ega bo‘lishi va markazga yaqinlashishi (0 atrofida bo‘lishi) uchun. Ayniqsa, logistik regressiya, SVM, PCA, Gradient Boosting kabi modellarda juda muhim. Bu ikkita usulni taqqoslamasi 2-jadvalda keltirilgan.

Ma’lumotlarni ajratish. Modelni tayyorlash uchun ma’lumotlarni **train/test** to‘plamlariga bo‘lish. Bunda ma’lumotlar to‘plamini o‘quv, validatsiya va test to‘plamlariga bo‘lish kerak bo‘ladi. Mashinaviy o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlarda ma’lumotlar to‘plamini odatda 15-20 foizini test to‘plami uchun olinishi samarali hisoblanadi. Shularni hisobga olib va bir nechta sinovlar natijasiga asoslanib tadqiqot uchun to‘plangan avtomobil tirbandliklarini baholash uchun dastlabki ma’lumotlar to‘plamidan 15% validatsiya va 15% test to‘plami uchun ajratib olindi.

Ma’lumotlarni sun’iy intellekt asosidagi modellar uchun moslashtirish jarayonida dastlab xom ma’lumotlar tozalandi, ya’ni mavjud bo‘lmagan qiymatlar aniqlanib, ularning o‘rniga statistik yoki kontekstual asosda mos qiymatlar kiritildi. So‘ngra kategorik atributlar raqamli ko‘rinishga kodlandi, mavjud ustunlar asosida qo‘shimcha informativ xususiyatlar (feature engineering) yaratildi va barcha sonli ustunlar muayyan oraliqqa keltirilib normalizatsiya qilindi. Bu bosqichlarning barchasi ma’lumotlar to‘plamini sun’iy intellekt modellarida ishlashga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichlar natijasida hosil bo‘lgan toza va strukturaviy jihatdan barqaror ma’lumotlar to‘plami 2-rasmda tasvirlangan.

2-jadval.

Normalizatsiya va masshtablash usullarining turli modellardagi taqqoslama jadvali

Holat	Normalizatsiya (MinMax)	Masshtablash (StandardScaler)
Neural networks	Juda muhim	Kamdan-kam
Masofaga asoslangan (KNN, K-means)	☑	✗
Statistika asosidagi modellar (Logistic Regression, SVM)	✗	Juda muhim
Agar ma’lumotlar normal taqsimlanmagan bo‘lsa	☑	✗
Agar outlier(katta farq)lar ko‘p bo‘lsa	✗	yaxshiroq

Sotuvdagi kechikishlarni aniqlash va ehtiyojni bashorat qilishda sun’iy intellekt modellarining muvaffaqiyatli ishlashi ko‘p jihatdan ma’lumotlarning tayyorlanish darajasiga bog‘liq. Ushbu maqolada savdo ma’lumotlari ustida olib borilgan tozalash, muhim ustunlar yaratish, kodlash va masshtablash bosqichlari chuqur tahlil qilindi. Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur bosqichlar bashorat modellarining aniqligi va umumlashuvchanligini oshiradi. Natijada, korxona savdo jarayonlarida yuzaga

keladigan kechikishlarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha aniq qarorlar qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.



	day	month	year	product_id	agent_id	quantity_sold	unit_price	category	week_nar	holiday
2	31	10	2023	3	43	1	41000	0	1	0
3	1	11	2023	3	38	30	1260000	0	2	0
4	1	11	2023	7	38	5	160000	0	2	0
5	1	11	2023	11	38	5	170000	0	2	0
6	1	11	2023	3	38	10	420000	0	2	0
7	1	11	2023	11	38	20	680000	0	2	0
8	1	11	2023	3	38	30	1290000	0	2	0
9	1	11	2023	3	38	30	1260000	0	2	0
10	1	11	2023	41	43	20	22000	0	2	0
11	1	11	2023	3	38	30	1260000	0	2	0
12	1	11	2023	3	43	14	574000	0	2	0
13	1	11	2023	3	43	25	1763000	0	2	0
14	1	11	2023	7	43	10	290000	0	2	0
15	1	11	2023	15	43	10	310000	0	2	0
16	1	11	2023	41	43	20	20000	0	2	0
17	1	11	2023	3	43	5	210000	0	2	0
18	1	11	2023	18	43	4	168000	0	2	0
19	1	11	2023	15	38	20	720000	0	2	0
20	1	11	2023	7	38	20	740000	0	2	0
21	1	11	2023	3	38	40	1800000	0	2	0
22	1	11	2023	11	38	20	780000	0	2	0
23	1	11	2023	22	38	20	620000	0	2	0

2-rasm. Sotuvdagi kechikishlarni aniqlash uchun ma’lumotlarining qayta ishlashga tayyorlagan ma’lumotlar to‘plami

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmed Neloy A., Sadman Haque H.M., Ul Islam M. “Ensemble Learning Based Rental Apartment Price Prediction Model by Categorical Features Factoring,” In Proceedings of the 2019 11th International Conference on Machine Learning and Computing, Zhuhai, China, 22-24 February 2019; pp. 350-356.
2. Ceh M., Kilibarda M., Lisec A., Bajat B. “Estimating the Performance of Random Forest versus Multiple Regression for Predicting Prices of the Apartments.” ISPRS Int. J. Geo-Inf. 2018, 7, 168.
3. Rustamovich, A.A., Mekhriddin N., Fayzullo N., Sabharwal M. “Intelligent system of labor market regulation based on the evolutionary modeling of employment” Proceedings - 2022 4th International Conference on Advances in Computing, Communication Control and Networking, ICAC3N 2022, 2022, страницы 2534–2539. DOI: 10.1109/ICAC3N56670.2022.10074149
4. Chatterjee S., Simonoff J.S., “Handbook ofRegression Analysis; John Wiley & Sons Inc.: Hoboken, NJ, USA, 2013, p. 240.
5. Friedman J.H. “Greedy Function Approximation: A Gradient Boosting Machine. Ann. Stat. 2001, 29, 1189-1232.

BARQAROR INVESTITSIYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING ROLI

Hamidova Shahzoda Odiljanovna
Andijon davlat texnika instituti, assistent.
shhzdhamidova@gmail.com
Tel: 99891 494 80 07
Usmonov Azizbek
Andijon davlat texnika instituti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli marketingning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni, xususan barqaror investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Muallif raqamli marketing strategiyalarining asosiy turlarini - ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketingi, email marketing va SEO kabi vositalarni tahlil qilgan holda, ularning kompaniyalar va tashkilotlarga maqsadli auditoriyaga yetib borishdagi samaradorligini ochib bergan. Tezisda raqamli marketingning o‘lchovlilik xususiyati va uni barqarorlik tamoyillarini targ‘ib qilishda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro brendlar misolida innovatsion yondashuvlar, jumladan AR/VR texnologiyalari, Big Data tahlili va interaktiv kontent orqali raqamli marketing kampaniyalarining barqarorlik mezonlariga qanday tarzda moslashtirilayotganligi keltirib o‘tilgan.

Raqamli marketing zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, chunki u investitsiyalarni jalb qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Raqamli marketing strategiyalari, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, email marketing, kontent marketingi va qidiruv tizimlari optimizatsiyasi (SEO), kompaniyalar va tashkilotlarga o‘z maqsadli auditoriyalarini aniqroq va

samaraliroq yo‘naltirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizda barqaror investitsiyalarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli marketingning birinchi afzalligi – bu keng aholi qatlamiga tez va samarali yetib borish imkoniyatidir. Bugungi kunda ko‘pchilik iste’molchilar va investorlar raqamli platformalarda faol bo‘lib, ular mahsulotlar va xizmatlar haqida ma’lumotlarni onlayn qidiradilar. Raqamli marketing orqali kompaniyalar o‘z brendlarini targ‘ib qilish, mahsulotlarini namoyish etish va potentsial investorlar bilan aloqalarni o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa barqaror investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi, chunki sarmoyadorlar ko‘pincha raqamli maydonlarda faoliyat yuritadigan kompaniyalarni tanlaydilar. Ikkinchi jihat – bu raqamli marketingning o‘lchovliligidir. Shuning uchun kompaniyalar o‘z kampaniyalarining samaradorligini real vaqt rejimida kuzatishlari mumkin. Bu ma’lumotlar asosida strategiyalarini yangilash va optimallashtirish imkonini beradi. Raqamli marketing orqali to‘plangan ma’lumotlar yordamida kompaniyalar o‘z auditoriyalarining xulq-atvorini tahlil qilib, ularning ehtiyojlariga mos ravishda takliflarni shakllantirishlari mumkin. Natijada, barqaror investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada maqsadli yondashuv amalga oshiriladi. Shuningdek, raqamli marketing ijtimoiy mas’uliyat va barqarorlik tamoyillarini targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Kompaniyalar o‘z faoliyatlarida barqarorlikni ta’minlash uchun innovatsion yechimlarni qo‘llab-quvvatlashlari va bu haqda raqamli platformalarda ma’lumot tarqatishlari va yig‘ishlari mumkin. Bunday yondashuv iste’molchilar va investorlar orasida ishonchni oshiradi va ularning barqaror investitsiya loyihalariga qiziqishini kuchaytiradi[1]. Natijada, raqamli marketing zamonaviy iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib qolmoqda. U yangi imkoniyatlar yaratish, auditoriya bilan aloqalarni mustahkamlash va barqarorlik tamoyillarini targ‘ib qilish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Raqamli marketing strategiyalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketingi va email marketingi, barqaror investitsiyalarni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usullar yordamida kompaniyalar o‘z brendlarini rivojlantirish, maqsadli auditoriyalarini jalb qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini targ‘ib qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar – bu raqamli marketingning eng kuchli vositalaridan biridir. Facebook, Instagram, Twitter va LinkedIn kabi platformalarda kompaniyalar o‘z mahsulotlari va xizmatlarini namoyish etish, iste’molchilar bilan muloqot qilish va brend imijini yaratish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqlarda barqaror investitsiyalarni targ‘ib qilish uchun kompaniyalar ekologik mas’uliyatli amaliyotlar, ijtimoiy loyihalar va barqaror rivojlanish strategiyalarini aks ettiruvchi kontent yaratishi kerak [2]. Masalan, kompaniya o‘zining barqaror ishlab chiqarish jarayonlari yoki ijtimoiy mas’uliyatli tashabbuslari haqida hikoya qiluvchi postlar e’lon qilishi mumkin. Bu esa potentsial investorlar va iste’molchilar orasida ishonchni oshiradi.

Kontent marketingi ham barqaror investitsiyalarni targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Yuqori sifatli, foydali va ma’rifiy kontent yaratish orqali kompaniyalar o‘z auditoriyalarini jalb qilish va ularni o‘z brendlariga qiziqtirishlari mumkin. Bloglar, maqolalar, infografikalar va videolar orqali barqarorlik, ekologiya va ijtimoiy mas’uliyat haqida ma’lumot berish potentsial investorlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin. Misol uchun, kompaniya o‘zining ekologik toza mahsulotlari haqida batafsil ma’lumot beruvchi maqola yozishi yoki barqarorlikka oid tadqiqotlar natijalarini taqdim etuvchi infografika yaratishi mumkin. Bunday kontent iste’molchilarga va investorlar uchun kompaniyaning barqaror rivojlanishga bo‘lgan majburiyatini ko‘rsatadi.

Email marketing – bu yana bir samarali vosita bo‘lib, kompaniyalar o‘z mijozlari va potentsial investorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetib borish va muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Email orqali barqaror investitsiyalarni targ‘ib qilish uchun kompaniyalar o‘z auditoriyalariga foydali ma’lumotlar, yangiliklar va takliflarni yuborishi mumkin. Masalan, barqaror rivojlanish bo‘yicha muvaffaqiyatli loyihalar haqida xabarnomalar yoki ekologik mas’uliyatli amaliyotlar bo‘yicha maslahatlar taqdim etilishi mumkin. Email marketing orqali shuningdek, maxsus takliflar yoki chegirmalar orqali potentsial investorlarni jalb qilish mumkin [3]. Bundan tashqari, raqamli marketing strategiyalarini birlashtirib ishlatish ham juda muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan kontentni email marketing kampaniyalarida foydalanish yoki blog postlarini ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish orqali kompaniyalar o‘z brendlarini yanada kengroq auditoriyaga tanitishlari mumkin. Natijada, raqamli marketing strategiyalari, jumladan, ijtimoiy

tarmoqlar, kontent marketingi va email marketingi orqali barqaror investitsiyalarni targ‘ib qilish usullari kompaniyalarga o‘z brendlarini rivojlantirish, auditoriyalarini jalb qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Barqarorlik mezonlari asosida ishlab chiqilgan raqamli marketing kampaniyalarining samaradorligi va innovatsion yondashuvlariga qanday ta’sir qilishini quyidagi misollar bilan tushunishimiz mumkin:

Kompaniyalar o‘z mahsulotlarini ekologik toza va barqaror manbalardan ishlab chiqarilgan deb taqdim etish orqali iste’molchilarni jalb qilishadi. Masalan, “Patagonia” brendi o‘zining barqarorlikka oid yondashuvini ko‘rsatish uchun “Don’t Buy This Jacket” kampaniyasini o‘tkazdi, bu esa iste’molchilarga ortiqcha xarid qilishdan saqlanishga chaqiradi.

Kompaniyalar ijtimoiy mas’uliyatni o‘z ichiga oluvchi kampaniyalarni yaratadilar. Misol uchun, “TOMS” brendi har bir sotilgan poyabzal uchun bir juft poyabzalni muhtojlarga berish orqali ijtimoiy mas’uliyatni ko‘rsatadi. Raqamli marketingda bu yondashuvni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali amalga oshiradi.

Ko‘plab kompaniyalar o‘z raqamli platformalarida barqarorlik haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish orqali iste’molchilarni jalb qilishadi. Masalan, “Unilever” o‘z brendlarining barqarorlik maqsadlari va natijalari haqida batafsil ma’lumot beruvchi interaktiv veb-sayt yaratdi.

AR va VR texnologiyalari yordamida kompaniyalar iste’molchilarga mahsulotlarni virtual muhitda ko‘rish imkoniyatini taqdim etadilar. Masalan, “IKEA” o‘zining AR ilovasi orqali foydalanuvchilarga mebellarni o‘z uylariga joylashtirish imkoniyatini beradi, bu esa barqaror dizayn va foydalanishni rag‘batlantiradi.

Kompaniyalar raqamli marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirish uchun katta ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qiladilar. Misol uchun, “Coca-Cola” o‘z mijozlari xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali barqarorlikka oid kampaniyalarini shaxsiylashtiradi va iste’molchilarning qiziqishlariga mos keladigan takliflar yaratadi.

Kompaniyalar Instagram, TikTok va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda interaktiv kontent yaratish orqali iste’molchilar bilan bevosita aloqada bo‘lishadi. Masalan, “Ben Jerry’s” brendi barqarorlikka oid masalalarni muhokama qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirlar o‘tkazib, auditoriyani jalb qiladi.

Xulosa

Raqamli marketing strategiyalari zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanish va investitsiyalarni jalb qilishning muhim vositasiga aylangan. Kompaniyalar raqamli platformalar orqali o‘z brendlarini samarali targ‘ib qilishi, iste’molchilar bilan bevosita aloqani mustahkamlashi va barqarorlik tamoyillarini keng jamoatchilikka yetkazishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar, masalan AR/VR, Big Data va interaktiv kontent, raqamli marketing kampaniyalarining ta’sirchanligini oshirib, kompaniyalar uchun raqobat ustunligini ta’minlaydi. Shunday qilib, raqamli marketing nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Barqarorlik mezonlari asosida ishlab chiqilgan raqamli marketing kampaniyalari nafaqat iste’molchilar bilan aloqalarni kuchaytiradi, balki kompaniyaning ijtimoiy mas’uliyatini ham oshiradi. Innovatsion yondashuvlar esa raqamli marketing strategiyalarini yanada samarali va qiziqarli qiladi, bu esa brendning raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Investitsiya: Darslik / J.R.Zaynalov, S.S.Aliyeva, N.X.Ruzibayeva va boshq; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. - 480 b.
2. A.U.Burxanov, Sh.X.Muminov, X.X.Xudoyqulov.Investitsiya va innovatsiyalar.– T.:”Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021. –462b.
3. Karimov N.G‘., Xojimatov R.X., Razzoqov J.X. Investitsiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2019. – 343 b.

IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH UCHUN STRATEGIK INTEGRATSIYA

Uktamjonova Zulayxo Anvarjon qizi,
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, Menejment kafedrasi assistenti

Annotatsiya: XXI asrda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiyotning yangi modelini, ya’ni raqamli iqtisodiyotning shakllanishini ta’minlamoqda. Raqamli iqtisodiyot davlatlar va jahon bozorining iqtisodiy tuzilmasini tubdan o‘zgartirmoqda, yangi biznes modellari va raqamli xizmatlar yaratilmoqda. Bu maqolada iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning milliy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning samarali integratsiyasi mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy o‘sishning yangi yo‘nalishlarini ochadi. Maqolada raqamli iqtisodiyotga o‘tishning asosiy tamoyillari, shu jumladan, infratuzilma, kadrlar tayyorlash, qonunchilikni takomillashtirish kabi masalalar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnalogiyalar, kiberxavfsizlik, milliy rivojlanish, sun’iy intellekt.

Iqtisodiyot – bu jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun resurslar taqsimotini tashkil etuvchi tizimdir. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bu tizimga yangi imkoniyatlar keltirmoqda. Misol uchun, sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, katta ma’lumotlar tahlili orqali bozor ehtiyojlari aniqlanmoqda, elektron to‘lovlar, raqamli xizmatlar va onlayn savdo kengaymoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu nafaqat texnologik yangilik, balki iqtisodiy fikrlash tarzining o‘zgarishidir. Unda vaqt tejaladi, xarajatlar kamayadi, ma’lumotlar oqimi tezlashadi, inson omili esa ancha kamayadi. Bularning barchasi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda elektron hukumat tizimi, raqamli to‘lov platformalari, soliq tizimining raqamlashtirilishi va raqamli bank xizmatlari jadal rivojlanmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida internet infratuzilmasi va IT-ta’lim innovatsion ekotizimlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar dunyo iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan. Bu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarishni yanada samarali qiladi, balki butun iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot global miqyosda biznes jarayonlarini o‘zgartirib, davlatlar orasidagi raqobatni kuchaytirmoqda. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, innovatsiyalarni kengaytirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish milliy rivojlanishning strategik yo‘nalishiga aylanmoqda.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiradigan muhim omilga aylandi. Sun’iy intellekt, bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar, robototexnika, blokcheyn va IoT (Internet of Things) kabi texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, xarajatlar kamayadi va innovatsiyalarni joriy etish jarayoni tezlashadi.

Mamlakatlarning raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llashi, ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Masalan, Koreya, Singapur, Yaponya va boshqa rivojlangan davlatlar raqamli texnologiyalarni keng qo‘llab, o‘z iqtisodiyotlarini raqamlashtirish orqali butun dunyoda muvaffaqiyatga erishgan. Shu sababli, O‘zbekiston uchun ham bu jarayonni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli xizmatlar va mahsulotlar bozorini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Ammo raqamli iqtisodiyotni joriy etishda muammolar ham mavjud: infratuzilmaning to‘liq shakllanmagani, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, malakali kadrlar yetishmasligi va kiberxavfsizlik tahdidlari asosiy to‘siqlardan hisoblanadi. Bu yo‘nalishlarda kompleks islohotlar olib borilishi zarur.

Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Infratuzilmani modernizatsiya qilish: Raqamli iqtisodiyotga o‘tish uchun kuchli axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi zarur. Bu davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun kuchli internet tarmog‘i, ma’lumotlar markazlari, va bulutli hisoblash imkoniyatlari zarur.

Kadrlarni tayyorlash: Raqamli iqtisodiyotga o‘tish kadrlar tayyorlash va malaka oshirishni talab qiladi. Raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar yetishmasligi ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining raqamlashtirish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun, davlat ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni o‘rgatish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni startaplar yaratishga rag‘batlantirish kerak.

Qonunchilikni moslashtirish: Raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi yangi qonunlarni ishlab chiqish va eski qonunchilikni takomillashtirishni talab qiladi. Axborot xavfsizligi, ma’lumotlar maxfiyligi, raqamli identifikatsiya va internetda huquqni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha yangi qonunlarni ishlab chiqish zarur.

Innovatsion ekotizimni rivojlantirish: Raqamli iqtisodiyotda innovatsion ekotizim yaratish juda muhimdir. Innovatsion ekotizim davlat, biznes va ilmiy jamiyatning samarali hamkorligi orqali yuzaga keladi. Startaplarni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni qo‘llashda muvaffaqiyatga erishgan kompaniyalarni rag‘batlantirish kerak.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, kiberxavfsizlikka bo‘lgan talab ham ortmoqda. Ma’lumotlar bazalarining xavfsizligi, foydalanuvchi ma’lumotlarining himoyasi va tarmoq infratuzilmasining barqarorligi iqtisodiyotning raqamli qismining muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlaydi. O‘zbekiston uchun kiberxavfsizlikni ta’minlash, raqamli xizmatlar va to‘lov tizimlarining ishonchliligini oshirish, va huquqiy normativlar yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish, shubhasiz, O‘zbekistonning kelajakdagi rivojlanishining asosiy omillaridan biri bo‘ladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat, biznes va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik zarur. Raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali iqtisodiy o‘sish tezlashadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, korrupsiya kamayadi va jamiyatning ijtimoiy farovonligi oshadi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda yirik ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik islohotlar talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar to’plami:

1. Teshaboyev, A. Raqamli iqtisodiyot va uning milliy iqtisodiyotdagi roli. – Toshkent: “Iqtisodiyot va huquq”, 2021.
2. Mirzaeva, S. Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot. – Toshkent: “Fan”, 2020.
3. Karimov, B. Raqamli texnologiyalar va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. – Toshkent: “Innovatsiya”, 2022.

AQLLI CHIQINDI O‘RNA - ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA INNOVATSION YECHIM

Ulkanboyeva Sevinch Murodjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi
sevinchulkanboyeva250@gmail.com
Olimova Muxlisa Vohidjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Sun’iy intellekt” kafedra katta o‘qituvchisi
mukhlis.olimova1323@gmail.com

Ushbu tezisda chiqindilarni saralash va boshqarish tizimlarini raqamlashtirishga qaratilgan “Aqlli chiqindi o‘rna” konsepsiyasini taklif etadi. Qurilma zamonaviy texnologiyalar — sun’iy intellekt, sensorlar, IoT (Internet of Things) va avtomatlashtirilgan boshqaruv modullari asosida ishlab chiqiladi. Ushbu tizim chiqindilarni avtomatik aniqlash va saralash imkonini beradi, bu esa ekologiyani toza saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va jamoat joylarida tozalikni saqlashda katta ahamiyatga ega. Loyiha atrof-muhit muhofazasi, yashil texnologiyalar va smart shaharlar rivojlanishi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi

Kalit so‘zlar: aqlli o‘rna, chiqindilarni saralash, sun’iy intellekt, IoT, ekologiya, avtomatlashtirish, smart shahar, raqamli nazorat, sensor texnologiyalari

Barchaga ma’lumki bugungi kunda global miqyosda chiqindilar muammosi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Aholining o‘sishi va iste’mol darajasining ortishi natijasida chiqindilar hajmi ham keskin ko‘paymoqda. O‘z navbatida, bu chiqindilarni samarali boshqarish va ularni qayta ishlash masalalarini ilgari suradi. An’anaviy axlat yig‘ish tizimlari esa bu ehtiyojlarga javob bera olmayapti. Shu munosabat bilan, texnologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan “aqlli chiqindi o‘rna” kontseptsiyasi zamonaviy muammo yechimidir. U nafaqat axlat yig‘ish jarayonini optimallashtiribgina qolmay, balki ekologik madaniyatni ham rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish global ekologik muammolarning oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 2 milliard tonnadan ortiq maishiy chiqindi hosil qilinadi, ularning katta qismi noto‘g‘ri ajratiladi va ko‘pchiligi qayta ishlanmaydi. O‘zbekiston sharoitida ham bu muammo sezilarli darajada: chiqindilarni saralash tizimi zaif, chiqindixonaga haddan tashqari ko‘p axlat bilan to‘lmoqda. “Aqlli chiqindi o‘rna” chiqindilarni avtomatik tarzda aniqlash va saralash, axlat yig‘ish tizimini raqamlashtirish orqali bu muammoni texnologik yo‘l bilan hal qilishga xizmat qiladi.

Texnologik komponentlar va ishlash prinsipi. Infraqizil (IR) yoki ultratovush sensorlar orqali axlat darajasi doimiy kuzatiladi va axlat o‘rnasi 80–90% to‘lganda tizim ogohlantiruvchi signal yuboradi. Bu esa turli xil hududlarda chiqindini haddan tashqari ko‘pligi tufayli turli joylarga tarqalib ketmasligi oldini oladi. O‘rna ichiga joylashtirilgan kamera esa foydalanuvchi tashlagan chiqindi turini (plastik, metall, organik, qog‘oz) tanib oladi va sun’iy intellekt modeli ma’lumotlar bazasi asosida chiqindini to‘g‘ri bo‘linmaga yo‘naltiradi.

Hattoki qurilma mobil aloqa (SIM, Wi-Fi) orqali axborotni markaziy serverga uzatadi. Bu kelib tushgan ma’lumotlar asosida axlat yig‘ish xizmatlari o‘rnaning holatini real vaqtda kuzatadi va maxsus ilova orqali esa chiqindilar xaritasi tuziladi va xizmat ko‘rsatish texnalogiyalari joriy qilinadi. Keyin esa mexanik mexanizm yoki motordan foydalangan holda chiqindi ichki bo‘limlarga avtomatik yo‘naltiriladi. Shunga ko‘ra bo‘limlar maxsus idishlar bilan almashtiriladi, bu esa gigiyenani saqlaydi.

Shuni ham aytish mumkinki bu o‘rna interfeys foydalanuvchiga tushunarli belgilar orqali chiqindi turini ko‘rsatadi ya’ni bu barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun qulay va tushunish oson tizim bo‘lgani uchun yoshi katta axoli ham kichik bolalar ham bemalol hech qanday qiyinchiliklarsiz foydalanishi mumkin. Hattoki, ilova orqali foydalanuvchi chiqindini to‘g‘ri tashlasa, QR-kod orqali ball yig‘adi (rag‘batlantiruvchi tizim).

Uning ekologik va ijtimoiy afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

Qayta ishlash darajasi oshadi – chiqindilar dastlabki bosqichda to‘g‘ri ajratiladi, bu esa sanoatga sifatli xom ashyo beradi.

Ekologik ifloslanish kamayadi – noto‘g‘ri saqlangan organik chiqindilar havoga metan chiqaradi, bu esa issiqxona effektiga olib keladi.

Aholining ekologik madaniyati oshadi – texnologiyaga asoslangan ta’limiy jarayon fuqarolarni to‘g‘ri chiqindi tashlashga o‘rgatadi.

Ko‘chalarda tozalik saqlanadi – to‘lib ketgan o‘rna haqida avtomatik xabar beriladi, bu esa vaqtida tozalanishini ta’minlaydi.

Iqtisodiy tejamkorlik – chiqindi tashish tizimi faqat to‘lib ketgan o‘rnalar bo‘yicha harakat qiladi, bu yoqilg‘i va vaqtni tejaydi.

Uni asosan quyidagi joylarda qo‘llash foydali va samarali bo‘ladi:

Universitet va maktablar: Talabalar ekologik madaniyatni amaliy o‘rganadilar.

Savdo markazlari: Katta hajmdagi chiqindilarni saralashga qulaylik yaratadi.

Bog‘lar va xiyobonlar: Jamoat joylarida tozalik darajasini oshiradi.

Ishxona va tashkilotlar: Ofis chiqindilarini avtomatik boshqarish imkonini beradi.

Transport markazlari (aeroport, vokzal): Katta yuklama ostida ham axlat to‘plamlarini samarali boshqaradi.

Xulosa

“Aqlli chiqindi o‘rna” loyihasi ekologik muhitni saqlashga qaratilgan raqamli innovatsiyadir. Bu loyiha nafaqat texnologik yangilik sifatida, balki ekologik muommolarni to‘gri va samarali bartaraf etish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. U chiqindilarni saralashni avtomatlashtiradi, shaharlarni tozalikda ushlab turishga yordam beradi va smart shahar infratuzilmasiga xizmat qiladi. Ushbu yechim ekologik barqarorlik va texnologik taraqqiyot yo‘lida muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy axboroti — www.envc.uz
2. “Chiqindilarni boshqarish va ekologik xavfsizlik” — Toshkent ekologiya universiteti o‘quv qo‘llanmasi, 2023-yil.
3. Park, M. (2021). *Smart Waste Management Systems*. Springer Nature.
4. UNEP (United Nations Environment Programme). *Waste Management Outlook*, 2020-yil.
5. www.smartcity.gov – Aqlli shahar texnologiyalari portali.

КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ДАРАЖАСИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

Усманов Тохир Зокиржонович
e-mail: toxirjon@nammti.uz
Наманган давлат техника университети таянч докторанти

Аннотация: Мазкур мақолада кичик бизнес субъектларининг рақамлаштириш даражасини баҳолашга доир замонавий усуллар ва ёндашувлар таҳлил қилинади. Рақамли технологияларни жорий этиш иқтисодий субъектлар фаолиятини оптималлаштириш, бозорда рақобат устунлигини таъминлаш ҳамда самарадорликни оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Тадқиқотда рақамлаштиришнинг функционал йўналишлари, мезонлари ва кўрсаткичлари тизимлаштирилади, улар асосида баҳолашнинг комплекс услублари – иерархiyalar таҳлили усули, идеал ечимга яқинликка асосланган усул ҳамда рақобатбардошликни баҳолаш индекси имкониятлари кўриб чиқилган. Шунингдек, Ўзбекистонда кичик бизнесни рақамлаштириш амалиёти ва халқаро тажриба ўзаро таққосланади ҳамда таҳлил натижалари асосида илмий хулосалар ва амалий таклифлар ишлаб чиқилади.

Мамлакатимиз иқтисодиётнинг асосий драйвери ҳисобланган кичик бизнес субъектларини тобора ривожлантиришга ахамият берилиши натижасида иқтисодиётини барқарорлигини, ахоли бандлигини таъминлаш, бозордаги талаб ва таклиф мувозанатини тартибга солиш, ишлаб чиқариш ҳамда хизмат кўрсатиш тизимларини янада ривожлантиришга эришилади. Бу ўз навбатида мамлакатнинг ижтимоий ва иқтисодий хаётида туб ўзгаришларга, ислохотларнинг изчиллиги таъминлаш хизмат қилади. Бироқ иқтисодий глобаллашув доимо такрорий иқтисодиётни қайта қайта қуришни такрорламайди у турлича ёндашув ва талабларни ўзида мужассамлаштиради.

Бугунги кунда дунё ҳамжамиятида рақамли иқтисодиёт атамасининг кириб келиши ортидан анъанавий иқтисодиётга ахборот технология коммуникацияларни жорий этилиши кераклиги талаб этмоқда.

Рақамли иқтисодиёт хақида олимлар томонидан турлича фикрлар, назарий қарашлар ва муаллифлик таърифлари келтирилган. Жумладан мамлакатимиз олимларидан бири О.Умаров ва бошқалар “Рақамли иқтисодиёт бу ишлаб чиқариш комплекси инсонлар учун қулайликларни таъминлайдиган маҳсулот ва хизматларни яратадиган виртуал муҳит бўлиб, рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда иқтисодий ишлаб чиқариш тизимидир” дея фикр билдирган [1].

Хорижлик олимлар Новосельцева Г.Б ҳамда Рассказова Н.В. кўра “Иқтисодиётни рақамлаштиришнинг назарий таҳлили бизнес юритувчи субъектларда учун мижозлар, ҳамкорлар, этказиб берувчилар ва бошқа манфаатдор томонлар билан янада самарали ўзаро муносабатлари учун янги имкониятларни тақдим қилиш. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятининг янги йўналишларини очиш имконияти беради” деб таъкидлаганлар [2].

Рақамли иқтисодиётда бизнес субъектларининг бошқарув ва хизмат кўрсатиш моделларини тезда ўзгартиришга қодир бўлган бизнесменлар бугунги бозор ислохотларнинг етакчисига айланмоқда.

Ю.И.Селиверстов, А.А.Рудычев, Ю.А.Дмитриевалarнинг келтиришича “Рақамли технологиялар ақл бовар қилмайдиган тезликда ривожланмоқда, улар бизнес-жараёнларнинг моҳиятини кўп жиҳатдан ўзгартириб, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш манбаларини ва маҳсулот таннархини камайтириш имкониятларини топишга ёрдам беради” [3].

Албатда рақамли технологиялар асосида бизнес субъектларини хизмат кўрсатиш, ишлаб чиқариш, савдо ва бошқарув жараёнлари янгича ёндашув, инновациялар ва тамойилларни кенг жорий этиш имкониятларни тақдим этсада ундан оқилона ва самарали фойдаланишда бизнес юритувчи вакиллардан билим ва кўникмаларни талаб этади.

Бизнесда ҳар қандай ахборот технологияларини қўллаш бўйича бошқарув қарорини қабул қилишдан олдин ташкилотнинг жорий бизнес жараёнларини таҳлил қилиш, тегишли манфаатдор

томонлар дуч келадиган муаммоларни тушуниш ва шундан кейингина рақамли трансформацияга ўтиш керак. (1-расм).



1-расм. Тадбиркорлик фаолиятиним рақамлаштириш жараёнларида турли фаолият соҳаларини бирлаштириш модели[1]

Кўриб турганимиздек, рақамли бизнесни ўзгартириш жараёни жуда мураккаб ва компютер фанлари, муҳандислик, когнитив фанлар, ахборот тизимлари, менежмент, 98 бизнес жараёнларини бошқариш, лойиҳаларни бошқариш, рақамли ривожланишни бошқариш, ва бошқалар.

Тадбиркорлик фаолиятида рақамли технологиялардан фойдаланиш бўйича ишончли статистик маълумотларни олиш жараёнида сезиларли қийинчиликлар мавжуд бўлганлиги сабабли, индексли ёндашувдан фойдаланиш, яъни корхоналарнинг саноат ва тижорат фаолиятини рақамлаштириш даражасини баҳолаш учта индекс бўйича таклиф этилади:

Корхоналарнинг рақамли ривожланиш индекси қуйидаги тенглама орқали ҳисобланади:

$K_{ri} = \sum_{k=1}^{n} K_{rfi}\, x\, a_{1k}$ **(2.1)**

бу ерда: K_{rfi} - корхонанинг рақамли фаоллигини тавсифловчи кўрсаткич;

a_{1k} - индикатор оғирлиги;

n - рақамли фаолият кўрсаткичлари сони.

2. Рақамли етуклик индексикорхоная ходимлари, мижозлари ва манфаатдор томонлари учун қиймат яратиш жараёнларини акс эттиради, яъни у манфаатдор томонлар томонидан корхона ичида ва ташқи муҳит билан алоқа қилиш учун фойдаланиладиган рақамли воситалар тўплами билан белгиланади. У қуйидаги тенглама орқали ҳисобланади:

$K_{rei} = \sum_{z=1}^{m} K_{re}\, x\, a_{2z}$ **(2.2)**

бу ерда:

K_{re} - корхонанинг рақамли етуклигини тавсифловчи кўрсаткич;

a_{2z} - индикатор оғирлиги;

m - рақамли етуклик кўрсаткичлари сони.

[1] Муаллиф ишланмаси

3. Рақамли ўзаро таъсир кўрсаткичи – корхона ишлаб чиқариш жараёнида хизмат кўрсатиш тармоқларида ўзаро алоқа ва ҳамкорликни таъминлаш учун рақамли хизматлардан (рақамли платформалар) фойдаланиш даражасини акс эттиради. Бу қуйидаги тенглама орқали аниқланади:

$K_{ti} = \sum_{p=1}^{h} K_{rd}\, x\, a_{3p}$ **(2.3)**

бу ерда:

K_{rd} - рақамли ўзаро таъсир даражасини тавсифловчи кўрсаткич;

a_{3p} - индикатор оғирлиги;

h - рақамли ўзаро таъсир кўрсаткичлари сони.

Қуйида биз учта индексни аниқлаш орқали (2.2.1; 2.2.2 ва 2.2.3) - тенгламалар бўйича корхоналарнинг рақамли трансформациясининг интеграл индексини ҳисоблаш аниқлаб чиқамиз.

$K_{rik} = K^{\propto}_{ri}\, x\, K^{\beta}_{rei}\, x\, K^{\gamma}_{ti}$ **(2.4)**

бу ерда:

α; β ва γ - динамик тортиш омиллари. Ҳар қандай кўрсаткични миқдорий баҳолаш тўғридан-тўғри уни ўлчаш натижаларига кўра, агар бундай баҳолашни ўрнатиш имкони бўлмаса, эксперт баҳолаш орқали амалга оширилиши мумкин. Рақамли фаоллик, етуклик ва ўзаро таъсир кўрсаткичларини аниқлашнинг умумий методологияси 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Рақамли фаоллик, етуклик ва ўзаро таъсир кўрсаткичларини ҳисоблаш методологияси[2]

Кўрсаткич	**Белгилаш**	**Методология**
1	**2**	**3**
1. Рақамли фаоллик индекси		
Корхонанинг ахборот тизимларини интеграциялашув даражаси	X_1	(интеграциялашган ахборот тизимлари сони) / (корхона ахборот тизимларининг умумий сони)
Бизнес жараёнларини автоматлаштириш даражаси	X_2	(автоматлаштирилган бизнес жараёнлар сони) / (автоматлаштирилиши мумкин бўлган бизнес жараёнларнинг умумий сони)
Алоқа сифати даражаси	X_3	(кенг полосали Интернетга уланган иш ўринлари сони)/(компютерлаштирилган иш ўринларининг умумий сони)
Ходимларнинг корхонанинг рақамли ривожланишининг мақсадлари, аҳамияти ва йўллари ҳақида тушунчаси	X_4	(корхонанинг рақамли ривожланиш стратегиясини тушунадиган ходимлар сони) / (ходимларнинг умумий сони)
Ходимларнинг замонавий рақамли технологиялар билан ишлаш малакасини ошириш	X_5	(ўтган йил давомида замонавий рақамли технологиялардан фойдаланиш бўйича малака ошириш курслари, тренинглар ва семинарларда қатнашган ходимлар сони) / (меҳнат вазифалари бевосита рақамли технологиялар билан боғлиқ бўлган ходимлар сони)
2. Рақамли етуклик индекси		
Корхонанинг веб-сайтининг истеъмолчилар	X_6	Сифатни, сайтдаги маълумотларнинг мавжудлигини ва интерфейснинг қулайлигини баҳолаш (0 дан 1 гача)

[2] Goloventchik G.G. Belarusian State University, Republick of Belarus, Minsk. New method of calculation of the index of

development of the digital economy. Golovenchik G.G. s.144-150.pdf асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган

талабларига мувофиқлиги даражаси		
Товар ва хизматларни сотиш каналларини рақамлаштириш даражаси	X_7	(рақамли савдо каналлари сони) / (савдо каналларининг умумий сони)
Мижозларнинг рақамли фаоллиги даражаси	X_8	(рақамли савдо каналларидан фойдаланувчи мижозлар сони) / (мижозларнинг умумий сони)
Мижозлар билан алоқа каналларини рақамлаштириш даражаси	X_9	(рақамли алоқа каналлари сони) / (алоқа каналларининг умумий сони)
3. Рақамли ўзаро таъсир кўрсаткичи		
Рақамли ўзаро ҳисоб-китоблардан фойдаланиш даражаси	X_{10}	(белгиланган давр учун рақамли хизматлардан фойдаланган ҳолда амалга оширилган операциялар сони) / (белгиланган давр учун молиявий операцияларнинг умумий сони)
Ахборот алмашинувини автоматлаштириш даражаси (электрон ҳужжат айланиши)	X_{11}	(кўрсатилган давр учун электрон форматда ўтказилган/қабул қилинган ҳужжатлар сони) / (ташқи муҳитдан кўрсатилган давр учун ўтказилган/қабул қилинган ҳужжатларнинг умумий сони)

Кўрсаткичларнинг оғирлигини аниқлаш учун эксперт баҳолаш усулини қўллаш таклиф этилади, яъни кейинги қарор қабул қилиш (танлаш) мақсадида мутахассисларнинг (экспертларнинг) фикрлари асосида муаммони баҳолаш. Эксперт баҳолаш уч босқичда амалга оширилади: экспертларни танлаш, сўров ўтказиш, натижаларни қайта ишлаш. Эксперт баҳолашларидан фойдаланишга асосланган усуллар икки гуруҳга бўлинади: индивидуал (шахсий) эксперт баҳолашлари ва гуруҳ (жамоа).

Экспертлар гуруҳининг ҳажмини ҳисоблаш учун ҳисоблаш усуллари мавжуд, аммо шу билан бирга, сўров ўтказилган экспертларнинг ихтиёрий сони тавсия этилади: 5 дан 20 кишигача, гарчи баъзи ҳолларда уларнинг кўпайиши ёки камайишига рухсат берилади. Шу боис, рақамли фаоллик, етуклик ва ўзаро таъсир кўрсаткичларининг тортиш коэффициентларини аниқлаш учун 9 (тоқ сон бўлиши лозим)[3] кишидан иборат эксперт гуруҳини – кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларида эксперт баҳосини бериш учун етарли даражада профессионаллик ва фикрлаш ижодкорлиги ахборот технологиялари соҳасидаги мутахассисларни шакллантириш таклиф этилади.

Рақамли ўзаро таъсир кўрсаткичи учун тахминий X_p^2 - 11,6 ни ташкил қилади. Эркинлик даражалари сони учун Pirson изчиллик мезонининг жадвал қиймати a = 2 ва аҳамиятлилик даражаси 0,01 X_T^2 = 9,7 га тенг (0,05 аҳамиятлилик даражаси X_T^2 = 5,87 га тенг). Демак, бу ҳолатда ҳам экспертлар фикрининг изчиллиги ҳақидаги гипотеза қабул қилинади. Оғирлик омилларини аниқлагандан сўнг, кейинги босқич - рақамли фаоллик, етуклик ва ўзаро таъсир кўрсаткичлари қийматларини ҳисоблаш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. О.Умаров. Рақамли иқтисодиёт ва унинг ривожланиш тенденциялари. (Мақола) –Т.: “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018. 2-б.
2. Новосельцева Г.Б Рассказова Н.В. Перспективы малого бизнеса в цифровой экономике. (Статья) –М.: Вопросы инновационной экономики Том 10. Номер 1. Январь-март 2020.с-524.

[3] Муаллиф эслатмаси

3. Ю.И.Селиверстов , А.А.Рудычев, Ю.А.Дмитриева. “Цифровая трансформация бизнеса субъектами малого и среднего предпринимательства как фактор роста конкурентоспособности”//статя//. Вестник алтайской академии экономики и права.: №11. 2020. С-532.
4. Ғ.М. Порсаев, Б.Ш. Сафаров, Д.Қ. Усманова. Рақамли иқтисодиёт асослари. (Дарслик) –Т.: «Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи», 2020. 7-б.
5. Климченя, Л.С. Электронная коммерция / Л.С. Климченя. – Минск: Высшая школа, 2016. Б-426.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XIZMATINI RAQAMLASHTIRISH: EKOLOGIK BARQARORLIK VA SAMARADORLIKNI TA’MINLASH

Usmonova Faridaxon Lazizbek qizi
faridaxonusmonova832.gmail.com
Andijon Davlat Texnika Instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida oziq-ovqat xizmatlarini raqamlashtirishning ekologik va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinadi. Oziq-ovqat xizmati sektori katta resurs sarfi va chiqindilar bilan bog‘liq bo‘lgani bois, uni raqamli texnologiyalar yordamida samarali boshqarish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda sun’iy intellekt, IoT, QR-menyu, raqamli buyurtma va to‘lov tizimlari, smart inventarizatsiya kabi texnologiyalarning qo‘llanilishi orqali chiqindilarni kamaytirish, energiya va mahsulot isrofini oldini olish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, foydalanuvchilar uchun ekologik toza xizmatni ta’minlashga xizmat qiluvchi amaliy yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar. QR-menyu, IoT texnologiyalari, smart inventarizatsiya, ekologiya, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, CO_2, elektron kvitansiyalar, avtomatlashtirish, smart sensor.

Oziq-ovqat xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim va eng ko‘p resurs sarflovchi sohalaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya va raqamli turmush tarzining kengayishi ushbu sohani nafaqat iqtisodiy, balki ekologik nuqtayi nazardan ham muhim tarmoqqa aylantirdi. So‘nggi yillarda global miqyosda yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga bo‘lgan qiziqish ortib borayotgani fonida, oziq-ovqat xizmatini ekologik barqarorlashtirish zarurati keskin dolzarb bo‘lib bormoqda. Yashil iqtisodiyot deganda, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga asoslangan, chiqindilarni kamaytiruvchi, uglerod izini nazorat qiluvchi va ijtimoiy mas’uliyatli iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Ushbu qarashlar zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashganda, oziq-ovqat xizmatini ekologik jihatdan barqaror va iqtisodiy samarador bo‘lgan tizimga aylantirish imkoniyati vujudga keladi.

Raqamli texnologiyalar ekologik izni kamaytirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Misol uchun, IoT texnologiyalari orqali oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash sharoitlari doimiy monitoring qilinadi, bu orqali mahsulotlarning sifati saqlanadi va isrof kamayadi. Shuningdek, raqamli buyurtma tizimlari yordamida ortiqcha ishlab chiqarish oldini olish mumkin [2].

Raqamli texnologiyalar hozirda oziq-ovqat sohasining barcha bosqichlariga chuqur kirib bormoqda. Jumladan, buyurtma berish, mahsulot yetkazib berish, zaxiralarni boshqarish, foydalanuvchilar bilan aloqa qilish, to‘lovlarni amalga oshirish kabi jarayonlarning barchasi raqamlashtirilgan. Ushbu texnologiyalarni yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq holda yo‘naltirish orqali ekologik xavfsizlik va resurs tejamkorligini oshirish mumkin. Misol uchun, an’anaviy oziq-ovqat xizmatlarida hali ham qog‘oz menyular, qo‘lda yoziladigan buyurtmalar va qog‘ozli kvitansiyalar keng qo‘llaniladi. Bu holat bir nechta muammolarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, qog‘oz menyularning ko‘p miqdorda chop etilishi natijasida katta hajmda qog‘oz sarflanadi, bu esa o‘rmonlarning kesilishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va umumiy ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo‘ladi. Ikkinchidan, qog‘oz menyular gigiyenik jihatdan xavfli bo‘lishi mumkin, chunki ular ko‘plab mijozlar

tomonidan ushlanadi, bu esa mikroorganizmlarning tarqalishiga zamin yaratadi. Xususan, pandemiya yoki epidemiya sharoitida bunday vositalar infeksiya tarqalishini tezlashtirishi mumkin. Ushbu muammoning zamonaviy yechimi sifatida QR-kodli raqamli menyular joriy etilishi orqali gigiyenik xavfsizlik oshadi, sarf-harajatlar kamayadi va ekologik foyda ta’minlanadi. “Yashil texnologiyalar innovatsiyaning manbai hisoblanadi.” Ushbu ilgari surilgan g‘oya oziq-ovqat xizmatlarini raqamlashtirishda (masalan, QR menyular, IoT) foydali bo‘lishini ko‘rsatadi. Yashil texnologiyalar foydalanuvchi qulayligini oshiribgina qolmay, chiqindilarni kamaytirishga xizmat qiladi [1].

Bundan tashqari, an’anaviy buyurtma berish tizimlarida ovqat isrofi keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Odatda, mijozlar taom miqdorini oldindan to‘g‘ri baholay olmaydi yoki menyuda noto‘g‘ri tushunilgan tanlovlar ortiqcha ovqat tayyorlanishiga olib keladi. Ovqat qoldiqlari esa nafaqat iqtisodiy zarar, balki chiqindilar orqali atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli buyurtma tizimlari esa foydalanuvchiga batafsil axborot taqdim etadi, mahsulot miqdorini aniq tanlash imkonini beradi va statistik ma’lumotlar asosida restoranlar optimal rejalashtirish olib boradi. Bu esa ovqat isrofini sezilarli darajada kamaytiradi.

Zaxiralarni boshqarishdagi asosiy muammolardan biri bo‘lib, mahsulotlarning yaroqlilik muddatini kuzatishdagi insoniy omilga bog‘liqlik va omborxonalarda mahsulotlar eskirib qolishi. Bu oziq-ovqat chiqindilarining oshishiga sabab bo‘ladi. IoT (Internet of Things) texnologiyasi yordamida mahsulot harorati, namligi va saqlash muddati avtomatik ravishda nazorat qilinadi. Smart sensorlar yordamida mahsulot eskirishidan oldin ogohlantirish tizimlari ishlaydi. Bu esa mehnat unumdorligini oshirib, chiqindilarni kamaytirish orqali ekologik yuklamani pasaytiradi. Yana bir muammo – omborxonalarda real vaqt monitoring tizimining yo‘qligi. Natijada mahsulot ortiqcha zaxiralanadi yoki yetarli darajada mavjud bo‘lmaydi, bu esa logistika muammolarini keltirib chiqaradi. Smart inventarizatsiya bu muammoni hal qilishga xizmat qiladi.

Qog‘oz kvitansiyalar, an’anaviy to‘lov tizimlari esa yana bir ekologik muammoga sabab bo‘ladi. Har bir buyurtma uchun kvitansiya chop etilishi minglab varoqlarning isrof bo‘lishiga olib keladi. Bu holat atrof-muhit uchun xavfli bo‘lgan termik qog‘ozlar bilan bog‘liq bo‘lsa, salomatlikka ham ta’sir qilishi mumkin. Elektron to‘lov va elektron kvitansiyalar orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin, ayni paytda bu foydalanuvchilar uchun qulaylik ham yaratadi.

Transport va yetkazib berish sohasida kuzatiladigan asosiy muammo bu yoqilg‘i sarfini optimallashtirmasdan amalga oshirilayotgan yetkazmalar. Bu nafaqat iqtisodiy zarar, balki ko‘p miqdordagi CO_2 chiqindilariga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bir necha mijozga birma-bir yetkazib berish, mos marshrutlarning tanlanmasligi va transport harakatining noto‘g‘ri rejalashtirilishi natijasida atrof-muhitga ta’sir oshadi. GPS va sun’iy intellekt asosidagi marshrut optimallashtirish tizimlari bu muammoni kamaytiradi. Sun’iy intellekt algoritmlari orqali eng qisqa va eng ekologik samarali yo‘nalish tanlanadi, bu esa yoqilg‘i tejalishiga va chiqindilar kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, ekologik bo‘lmagan transport vositalaridan foydalanish karbon izining asosiy manbalaridan biridir. Ichki yonuv dvigatelli avtomobillar o‘rniga elektromobillar yoki velotransport kabi muqobil vositalardan foydalanish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni joriy qilish uchun infrastrukturaviy tayyorgarlik, quvvatlash punktlari va davlat yordami talab etiladi. Yana bir muhim masala bu oziq-ovqat mahsulotlari uchun ishlatiladigan qadoqlarning ekologik xavfliligi. Aksar holatlarda plastik yoki qayta ishlanmaydigan materiallardan foydalaniladi. Bu chiqindilarning ko‘payishiga olib keladi. Biologik parchalanadigan yoki qayta ishlanadigan qadoqlarning joriy etilishi bu muammoni hal qiladi. Bu jarayonni avtomatlashtirish va boshqarish uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqish ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va mijozlar bilan bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Raqamlashtirilgan oziq-ovqat xizmati orqali kompaniyalar operatsion xarajatlarni kamaytiradi, foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi, xizmat sifatini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ekologik jihatdan mas’uliyatli xizmatlar ko‘rsatish kompaniyaning ijtimoiy imijini yaxshilaydi va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik ongli iste’molga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir davrda, yashil tamoyillarga asoslangan xizmat ko‘rsatish korxonalar uchun strategik ustunlik bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat xizmatlarini raqamlashtirish bugungi kunning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda zamonaviy raqamli texnologiyalar – IoT, sun’iy intellekt, mobil ilovalar, smart monitoring, GPS tizimlari kabi innovatsion vositalardan foydalanish orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, yuqori sifatli va samarali xizmat ko‘rsatish mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarining uyg‘unligi oziq-ovqat sohasining ekologik barqarorligini ta’minlaydi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotda keng qo‘llansa, kelajakda yanada sog‘lom, toza va raqobatbardosh oziq-ovqat tizimini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esty, D. C., & Winston, A. S. (2009). *Green to Gold: How Smart Companies Use Environmental Strategy to Innovate, Create Value, and Build Competitive Advantage*. Wiley.
2. Jones, A., Ström, P., Hermelin, B., & Rusten, G. (2015). *Services and the Green Economy: Sectoral Perspectives*. Palgrave Macmillan.
3. Weber, K. (Ed.). (2009). *Food, Inc.: What Industry Does to Food, and What Food Does to People*. PublicAffairs.
3. Разработка и внедрение гибридных скоринговых моделей. Комбинация классических моделей (логистическая регрессия, scorecard) с продвинутыми ML-алгоритмами (Random Forest, XGBoost, Neural Networks). Применение ансамблевых моделей для повышения устойчивости предсказаний. Тестирование моделей explainable AI (например, SHAP или LIME) для объяснения решений алгоритма.

4. Разработка системы персонализированного скоринга. Модели, адаптированные к конкретным сегментам клиентов (студенты, пенсионеры, предприниматели). Применение кластеризации (k-means, DBSCAN) для выявления сегментов клиентов с разным уровнем риска. Персональные предложения и условия кредитования на основе поведенческой аналитики.

5. Учет альтернативных источников данных. Использование нестандартных источников информации: мобильные данные, соцсети, платежи за коммунальные услуги. Разработка скоринговых моделей на основе цифрового следа клиента. Применение Natural Language

Processing (NLP) для анализа обращений клиентов и выявления рисков (например, тональности в чат-ботах или письмах).

6. Проведение A/B тестирования моделей в реальных условиях. Реализация пилотных проектов с участием банков и МФО. Сравнение эффективности существующих и предложенных ML-моделей на одинаковом клиентском портфеле. Анализ ключевых метрик: Precision, Recall, F1-score, ROC AUC, а также бизнес-метрик — снижение просрочки, рост прибыли.

7. Повышение компетенций специалистов. Организация специализированных курсов и стажировок по ML в финансах для сотрудников банков и исследователей. Разработка совместных программ между вузами, регуляторами и частным сектором по внедрению FinTech-решений. Поддержка молодых учёных, аспирантов и студентов в выполнении прикладных исследовательских проектов.

8. Нормативная и этическая база. Разработка правовых рамок применения автоматизированных решений в кредитовании. Защита персональных данных при использовании ML-моделей. Этические принципы: прозрачность решений, недопущение дискриминации, возможность обжалования скорингового решения.

Литература

1. *Isakov, Olmas. 2024. “Comparison of Machine Learning Methods in Bad Loan Predictions: Analysis of Micro Finance Data”. DTAI – 2024 1 (DTAI). https://dtai.tsue.uz/index.php/DTAI2024/article/view/305.*
2. *Abdullaevich, Abdullaev Nekruz, and Umarov Muzaffarbek Shavkatovich. 2022. “Modern Technologies and Modern Scoring in Modern Uzbekistan: Tasks, Methodologies, Problems”. Academic Journal of Digital Economics and Stability 18 (June):108-18. https://doi.org/10.51699/ajdes.v18i.532.*
3. *Джурабаев О.Т., Атаджанов Ш.Ш. “ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ФИНТЕХЕ В УЗБЕКИСТАНЕ. ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ”. 2024. Innovations in Science and Technologies 1 (5): 4-11. https://www.innoist.uz/index.php/ist/article/view/470.*
4. *Ochilova Khusniya Olim kizi. 2025. “METHODS AND TOOLS OF CREDIT RISK ASSESSMENT IN THE MODERN SYSTEM OF RISK MANAGEMENT”. E Global Congress 25 (January):1-8. https://eglobalcongress.com/index.php/egc/article/view/294.*
5. *Meliboev Azizjon. 2024. “BY USING DATA ANALYSIS AND MACHINE LEARNING TECHNIQUES FOR BANK TURNOVER PREDICTION”. University Research Base, April, 481-86. https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/372.*
6. *Yormatov Ilmidin Toshmatovich, and Mirzaliyev Axror Baxodirovich. 2024. “Theoretical Foundations of Credit Risk Assessment In Commercial Banks”. Journal of Marketing and Emerging Economics 4 (6):226-30. https://oajournals.net/index.php/jmee/article/view/2671.*
7. *Норов А.Р. Механизм кредитования через автоматизированную скоринговую систему в коммерческих банках / А.Р. Норов, и соавт. – 2023. – Журнал: OpenAccessJournals..*
8. *Джафарова Ш.А., Ботабоев М.Ш. “IMPROVING CREDIT RISKS IN UZBEKISTAN BANKS”. 2024. International Journal of Artificial Intelligence 4 (10): 602-4. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/2077.*
9. *Абдурашидова М.С., Балбаа М.Э. Искусственный интеллект в банковском секторе Узбекистана: изучение влияния и возможностей / М.С. Абдурашидова, М.Э. Балбаа. – 2023. – Журнал: ResearchGate].*
10. *Nuralievich, B. O., & Boltaevich, M. B. (2021, November). Method of Detection and Elimination of Tracks of Attacks in the Information System. In 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-2). IEEE.*
11. *Nuralievich, B. O., Boltaevich, M. B., & Ugli, B. U. B. (2022, September). The Procedure for Forming a List of Sources of Attack in the Information System. In 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-4). IEEE.*

12. *Bekmirzaev O., Shirinov B. An Algorithm for Viewing Node State Events Under Attack for Information Systems // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050003. DOI: 10.1063/5.0210404*
13. *Bekmirzaev O., Samarov H. A Method of Evaluating the Effectiveness of Information System Protection // AIP Conference Proceedings., 2024, 3147(1), 050004. DOI: 10.1063/5.0210405*
14. *Muminov, B., & Bekmirzaev, O. (2022). Structure and algorithms of online discussion information system. Scientific Collection «InterConf», (114), 373-384.*

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI KAPITAL BOZORIDAGI ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Valiyeva Muxlisa Saydullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
valiyevamuxlisa1986@gmail.com

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish va takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyotda ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Raqamli moliyaviy texnologiyalar (fintex) ushbu jarayonda investorlar va emitentlar o‘rtasidagi aloqalarni soddalashtirish, axborotning shaffofligini oshirish hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, blokcheyn, aqlli kontraktlar, sun’iy intellekt va bulutli hisoblash kabi texnologiyalar korporativ boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirib, kapital jalb qilish mexanizmlarini soddalashtirmoqda. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etgan korxonalar kapital bozorida 35–40% ko‘proq investor jalb etgan. Raqamli platformalar orqali aksiyalarning raqamli emissiyasi (security token offering) yangi investorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda[12]. Bu holat O‘zbekistonda kapital bozorini modernizatsiya qilish va aksiyadorlik jamiyatlarining likvidligini oshirishni talab etadi. Shu boisdan, raqamli moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy islohotlarning muhim bosqichiga aylangan. Mazkur jarayon mamlakatning xalqaro investitsion reytingiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli moliyaviy texnologiyalar aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi faoliyatini yanada samarali va tezkor asosda yo‘lga qo‘yishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar vositasida amalga oshiriladigan “raqamli due diligence” va “onlayn IPO” (initial public offering) jarayonlari kompaniyalar va investorlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ma’lumotlar tahliliga asoslangan qarorlar qabul qilish algoritmlari aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini baholashda aniqlikni oshiradi. Masalan, AQSh va Singapurda aksiyalarning elektron savdosi orqali qimmatli qog‘ozlar bozori hajmi so‘nggi 10 yilda 2 barobarga o‘sgan[13]. Raqamli texnologiyalar yordamida investitsion portfellarni boshqarish avtomatlashtirilgani tufayli aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan jalb qilinayotgan mablag‘lar rentabelligi ortmoqda. O‘zbekiston kapital bozorida ham “FinTech sandbox” va “RegTech” tizimlarini joriy etish orqali yangi moliyaviy mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa mahalliy va xorijiy investorlarning qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Kapital bozorining raqamli transformatsiyasi iqtisodiyotning barqaror moliyaviy asosda rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Raqamli moliyaviy texnologiyalar kapital bozorlarining zamonaviy rivojlanishida markaziy o‘rin tutib, investitsiya jarayonlarining tezkorligi, xavfsizligi va shaffofligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, blokcheyn, aqlli shartnomalar, sun’iy intellekt asosidagi tahlil vositalari va onlayn savdo platformalari orqali kapital bozor infratuzilmasining raqamlashtirilishi sarmoyadorlar uchun katta qulayliklar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar vositasida aksiyalar va obligatsiyalar bilan real vaqt rejimida savdo qilish imkoniyati bozor likvidligini oshiradi, bu esa aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiya oqimlarini barqaror shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, “open finance” va “robo-advisors” kabi innovatsion xizmatlar kichik investorlarning ishtirokini rag‘batlantiradi, ularni murakkab moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etadi[14].

Kapital bozorida axborot tahlilining raqamli vositalar orqali avtomatlashtirilishi risklarni baholashda inson omilining kamayishiga olib keladi va bu jarayonlarning aniq, tahliliy va ob’ektiv bo‘lishini kafolatlaydi[15]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar orqali aktivlar bahosining prognozi va portfel boshqaruvi sezilarli darajada takomillashadi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatmoqda: raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy qilgan kapital bozorlarda emissiya hajmlari va investorlar soni keskin oshgan. Shuning uchun ham, O‘zbekiston kapital bozorida raqamli moliyaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish – nafaqat ichki investorlar faolligini oshirish, balki xalqaro moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirish uchun ham muhim strategik vosita hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokining ahamiyati zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim strategik omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlari kapital bozorlar orqali o‘zlarining moliyaviy resurslarini erkin va shaffof usullarda shakllantiradi, bu esa ularga investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, aksiyalarni ommaviy muomalaga chiqarish orqali nafaqat yirik, balki kichik va o‘rta investorlar ham korxonalarning egalik tuzilmasida ishtirok etishi, moliyaviy inklyuzivlik darajasini oshiradi. Uchinchidan, kapital bozoridagi faol ishtirok kompaniyalarda korporativ boshqaruv me’zonlarini mustahkamlab, shaffoflik, javobgarlik va samaradorlik kabi mezonlarni keng joriy etadi. To‘rtinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozorida faol bo‘lishi makroiqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi, milliy valyuta barqarorligini mustahkamlaydi hamda ichki investitsiya muhitini yanada jozibador qiladi. Beshinchidan, ushbu jarayon aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, uy xo‘jaliklarining jamg‘armalarini real sektor orqali iqtisodiyotga yo‘naltirishga zamin yaratadi. Oltinchidan, kapital bozorida faol ishtirok etuvchi aksiyadorlik jamiyatlari xorijiy investorlarga nisbatan ochiqlik siyosatini yuritadi va bu orqali transmilliy sarmoya oqimini jalb etishga xizmat qiladi. Shu boisdan, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtiroki – bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini chuqurlashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy kapital bozorlarida aksiyadorlik jamiyatlari uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat raqobatbardoshlik, balki moliyaviy mustaqillik darajasini ham belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Elektron aksiyadorlar yig‘inlari, blokcheynga asoslangan ovoz berish tizimlari va raqamli audit texnologiyalari orqali korporativ boshqaruv sifatini oshirish mumkin. Fintex ekotizimining rivoji kompaniyalarga investitsion jalb etish muddatini qisqartirish va risklarni real vaqt rejimida boshqarish imkonini bermoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirgan davlatlarda kichik va o‘rta aksiyadorlik jamiyatlarining IPOga chiqish soni 25–30% ga oshgan[16]. O‘zbekistonda 2024–2026 yillarga mo‘ljallangan kapital bozorini rivojlantirish strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy qilish belgilangan. Bu jarayon shaffoflik, likvidlik va ishtirokchilar soni bo‘yicha bozorning global mezonlarga moslashuvini ta’minlaydi. Aksiyadorlik jamiyatlari esa raqamli moliyaviy vositalar orqali investitsion jalb etishda yangi bosqichga chiqadi. Uzoq muddatda esa bu strategiya kapitalning milliy iqtisodiy tizimdagi aylanish tezligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish usullari

№	Takomillashtirish usuli	Mazmuni va yo‘nalishi	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1	Moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish	Moliya hisobotlarini xalqaro standartlarda e’lon qilish, axborot simmetriyasini kamaytirish	Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) joriy etish, auditorlik mustaqilligini kuchaytirish	Investor ishonchini oshirish, savdo hajmining ko‘payishi

2	Korporativ boshqaruv tizimini isloh qilish	Aksiyadorlar manfaatlarini himoya qiluvchi tizimlarni kuchaytirish	Mustaqil kuzatuv kengashi a’zolari sonini oshirish, dividend siyosatini ochiq e’lon qilish	Kapital bozorida ishtirokchilar sonining ortishi
3	Elektron aksiyalar savdolarini joriy etish	Raqamli texnologiyalar asosida aksiyalarni soddalashtirilgan tartibda sotish	“Toshkent” RFB platformasini raqamlashtirish, mobil ilovalar orqali savdo	Aholi va investorlar orasida aksiyadorlik madaniyatining kengayishi
4	Ikkilamchi bozorni rivojlantirish	Oldindan chiqarilgan aksiyalar bilan faol savdolarni rag‘batlantirish	Litsenziyalangan brokerlik kompaniyalarini ko‘paytirish, likvidlikni oshirish	Bozor narxlari orqali korxona bahosining shakllanishi
5	IPO jarayonlarini soddalashtirish	Yirik korxonalarni kapital bozoriga jalb etish uchun ochiq aksiyalar chiqarish	IPOni yengillashtiruvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, soliq imtiyozlari	Yangi investorlarni jalb qilish, korxona kapitalining kengayishi
6	Mahalliy va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yaratish	Sarmoyadorlar ishtirokini rag‘batlantirish	Soliq imtiyozlari, dividend solig‘ining kamaytirilishi, soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish	Kapital oqimining ortishi, bozor likvidligini kuchaytirish
7	Aksiyadorlar bilan doimiy kommunikatsiyani kuchaytirish	Korxona va aksiyador o‘rtasida ochiq muloqotni tashkil qilish	Onlayn yig‘ilishlar, press-relizlar, kvartalik hisobotlar	Aksiyadorlarning faolligi va ishonchining ortishi
8	Sektorlararo diversifikatsiyani rivojlantirish	Aksiyadorlik jamiyatlarining faqat bir emas, bir nechta tarmoqlarda faoliyat yuritishi	Qo‘shma korxonalar, strategik investitsiyalar orqali portfelni kengaytirish	Kapital bozoridagi barqarorlikni ta’minlash

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirish ko‘p omilli, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Avvalo, moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta’minlash orqali investorlar ishonchini oshirish, korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish esa aksiyadorlar manfaatlarining samarali himoyasini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi, xususan elektron aksiyalar savdolarining soddalashtirilgan platformalar orqali amalga oshirilishi, aksiyalar likvidligini va aholi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, IPO jarayonlarini yengillashtirish, soliq va tartibga solish imtiyozlarini berish orqali nafaqat yirik, balki o‘rta biznes subyektlarini ham kapital bozoriga jalb etish mumkin. Aksiyadorlar bilan uzluksiz kommunikatsiya o‘rnatish kompaniyalar bilan investorlar o‘rtasida ishonchli hamkorlikni shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Kapital bozorining ichki barqarorligi va xalqaro integratsiyasini kuchaytirish uchun esa sektoral diversifikatsiyani rag‘batlantirish ham strategik ustuvorlik kasb etadi. Shu boisdan, yuqorida ko‘rsatilgan usullarni kompleks holda joriy etish orqali aksiyadorlik jamiyatlari va umuman kapital bozorining investitsiyaviy jozibadorligini tubdan oshirish mumkin.

Xulosa qilganda, aksiyadorlik jamiyatlarini kapital bozoridagi ishtirokini takomillashtirishda raqamli moliyaviy texnologiyalar muhim strategik vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, blokcheyn, aqlli kontraktlar, big data va sun’iy intellekt asosida ishlovchi platformalar orqali moliyaviy axborotlar shaffofligi, tezkorlik va investitsion qarorlar sifatini oshirish imkoniyati yuzaga kelmoqda.

Ushbu texnologiyalar yordamida elektron aksiyalar savdosi yo‘lga qo‘yilib, ichki va tashqi investorlar uchun qulay muhit shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalar aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvini kuchaytiradi, aksiyadorlar bilan onlayn muloqotni yo‘lga qo‘yadi va dividend siyosatining ochiqligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosida ishlovchi tahliliy vositalar risklarni baholash va aktivlarni samarali boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli moliyaviy texnologiyalar orqali kichik investorlarning ishtiroki kengayib, kapital bozorining likvidligi va barqarorligi oshadi. Shu bois, aksiyadorlik jamiyatlarining raqamli moliyaviy texnologiyalar asosida transformatsiyasi nafaqat ularning bozor ishtirokini kuchaytiradi, balki O‘zbekiston kapital bozorining raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank (2022). Digital Financial Services: Emerging Practices and Regulatory Frameworks. https://www.worldbank.org
2. International Monetary Fund – IMF (2023). The Role of Fintech in Capital Market Development. https://www.imf.org
3. **OECD (2022).** *The Tokenisation of Assets and Potential Implications for Financial Markets.*
4. Каримов , А. (2024). Капитал бозорини ривожлантириш йўналишлари . Insurance Market of Uzbekistan, 1(8), 34–37.
5. International Organization of Securities Commissions – IOSCO (2022). Fintech, Regtech and Suptech in Securities Markets. https://www.iosco.org

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВО В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Данияров Сайлаубай Сапарбай улы. доктор философии (PhD) по экономическим наукам
saylaubaydaniyarov@gmail.com
Начальник управления Национального агентства социальной защиты Республики Каракалпакстан

Аннотация: Распространение в мире коронавирусной инфекции определял практическую значимость цифровизации в современном социуме и сообществе, так как в результате пандемии актуализировался применение цифровых технологий в различных сферах общественной жизни. В то же время цифровые технологии являются катализатором не только экономического роста, но и социального развития различных территориальных систем, в том числе и сельских территорий. В статье рассматривается роль цифровых технологий в развитии деятельности сельского хозяйство Республики Узбекистан

Ключевые слова: сельское хозяйство, цифровизация, цифровые технологий, цифровоя экономика, сельскохозяйственные товаропроизводители.

На современном этапе, в эпоху всеобщей глобализации и перехода к шестому технологическому укладу цифровизация отражает собой неизбежный и объективный процесс. Цифровизация является новым вызовом, затрагивающим практически все отрасли экономики и социальной сферы. Так, в настоящее время удельная доля цифровой экономики, в которой непосредственно задействованы цифровой капитал и цифровые навыки работников, составляет около 23 процентов всей мировой экономики.

Безусловно, в условиях широкомасштабного развития процессов информатизации и цифровизации в аграрном секторе Республики Узбекистан существует объективная необходимость использования современных цифровых технологий в деятельности отечественных сельскохозяйственных товаропроизводителей и, на наш взгляд, современную аграрную экономику практически невозможно представить без цифровизации. Внедрение цифровых технологий представляется главным трендом развития аграрного сектора. Реализуемая в экономически развитых странах мира «четвертая промышленная революция» сопровождается цифровой трансформацией под воздействием «прорывных» «digital»-инноваций и технологий в

сельском хозяйстве. Рассматривая зарубежный опыт, цифровая экономика в сельском хозяйстве наиболее точно характеризуется немецкой концепцией «Индустрия 4.0» на основе эффективного внедрения принципов и методов «умного» производства и специализации.

Следует отметить, что цифровая экономика является не только прогнозируемым вектором развития территориальных образований, но она также отражает объективную реальность, которая непосредственно определяет деятельность отдельных субъектов хозяйствования в аграрном секторе, в том числе и деятельность сельхозтоваропроизводителей. Мировой опыт наглядно показывает, что при эффективном использовании современных цифровых технологий формируются оптимальные почвенно-агротехнические и организационно-территориальные условия для развития агроорганизаций, а также для активизации факторов, непосредственно направленных на рост производительности труда работников, снижение затрат производителей на электроэнергию и средства защиты растений.

Необходимо констатировать, что впервые термин «цифровая экономика» (англ. «digital economy») ввели канадский ученый Д. Тапскотт в 1994 г. в авторской монографии «Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевого интеллекта» и американский экономист Н. Негропонте в 1995 г. в своей книге «Цифровое существование». Сегодня термин «цифровая экономика» используется для характеристики современного этапа развития экономики параллельно с такими коррелирующими понятиями, как «новая экономика», «инновационная экономика» и «экономика знаний». В свою очередь, под цифровыми технологиями может рассматриваться способ преобразования, обработки и передачи используемых данных путем цифрового кодирования.

На современном этапе наблюдается усиление объективных потребностей предприятий агробизнеса в получении и передаче экономически значимых информативных данных. При этом расширение цифрового сельского пространства и активизация внедрения цифровых технологий в сельской местности в существенной степени обеспечивает возможность удобного получения товаропроизводителями информативных сведений о работах, услугах, товарах и их стоимости в цифровой компактной форме. С учетом этого важного обстоятельства визуализация результатов внедрения цифровых и информационных технологий, безусловно, придает развитию современной аграрной экономики совершенно новые качества, характеристики и свойства.

В настоящее время цифровое сельское хозяйство при переходе от рутинных операций к автоматизированным процессам включает в себя практическое применение таких современных технологий, как использование датчиков, робототехники и анализа данных. Цифровое («умное») сельское хозяйство определяется созданием продукции, при производстве которой технологии точного земледелия соединяются и действуют параллельно с интеллектуальными сетями и инструментами управления данными. Развитие «умного» сельского хозяйства, прежде всего, нацелено на формирование таких продуктивных агропродовольственных систем, которые характеризуются высокой приспосабливаемостью и адаптивностью к происходящим климатическим изменениям, что, в свою очередь, ведет к повышению уровня продовольственной безопасности нашей страны. В свою очередь, точное землепользование представляет собой интеллектуальную систему для сбора, анализа и обновления информации о состоянии почвенных и земельных ресурсов исследуемой местности.

Важно подчеркнуть, что в настоящих условиях цифровизация деятельности сельскохозяйственных товаропроизводителей постепенно модифицирует все элементы рассматриваемой агропродовольственной цепочки. Так, например, внедрение технологий блокчейна и ERP-систем позволяет на основе содержательного анализа информации, а также хранения и обработки сведений определять низкокачественные пищевые продукты во взаимосвязанных продовольственных и производственно-сбытовых цепочках, фиксировать конкретные результаты ветеринарно-санитарной экспертизы продуктов питания, подлежащих контролю, и тем самым формирует конкурентные преимущества отдельных производителей агропродовольствия. В данном содержательном аспекте технологии блокчейна, непосредственно характеризуют информационные массивы баз данных, которые обладают специфическими

характеристиками и признаками при применении данных, структурированных в блочную форму и взаимосвязанных на основе цепочки друг с другом.

Основные преимущества использования современных цифровых технологий в деятельности отечественных сельскохозяйственных товаропроизводителей представлены нами на рисунке 1.

Рис. 1. Преимущества использования современных цифровых технологий в деятельности сельскохозяйственных товаропроизводителей

Также одним из ключевых преимуществ применения цифровых технологий является накопление значительных объемов информационных данных (Big Data), используемых сельхозтоваропроизводителями, которые представляют своеобразный капитал нового «цифрового» качества. Необходимо отметить, что цифровые технологии способствуют более эффективному управлению сельхозугодиями, рациональному использованию ресурсов и, в свою очередь, развитие цифровизации в сельском хозяйстве даст мощный толчок рынку «Фуднет» и принятию IT-решениям в аграрном секторе.

Важнейшими составляющими, определяющими масштаб современных цифровых модификаций в аграрном секторе экономики, могут быть представлены:

- поддержка общей «цифровой» культуры предпринимательства и внедрения цифровых инноваций в агропродовольственной сфере;
- разработка программ, стратегий и мероприятий по государственной поддержке цифровизации;
- финансовая доступность и практические навыки работы с цифровыми технологиями.

Следует отметить, что ключевыми акторами современной цифровой экономики в сельской местности становятся отдельные сельскохозяйственные товаропроизводители. Конечно, цифровизация сельского хозяйства определяет существенные финансовые затраты на подготовку высококвалифицированных специалистов в области использования инновационных и информационно-компьютерных технологий.

В то же время при цифровизации появляются новые типы рисков, обуславливающие активизацию стратегии устранения асимметрии информации между различными субъектами агропродовольственного рынка. При этом, негативной стороной цифровизации является так называемый эффект возникновения технологической безработицы, результаты влияния которого непосредственно отражаются на деятельности работников, обладающих преимущественно невысокой квалификацией с учетом наиболее полного достижения условий информатизации, автоматизации и роботизации их рабочих мест.

Безусловно, цифровизация сельского хозяйства имеет свои характерные особенности, которые обусловлены как климатическими рисками и биологическими процессами в земледелии, так и сезонным характером осуществляемой деятельности сельскохозяйственных организаций в рассматриваемой местности. Необходимо констатировать, что не все агроорганизации республики имеют возможности внедрять цифровые технологии, что непосредственно связано с личной заинтересованностью и определенными мотивами собственников предприятий в цифровизации сельскохозяйственного производства, а также дополнительными затратами при установке дорогостоящего инновационного оборудования. В Республике Каракалпакстан цифровой разрыв как неравный доступ к информационным технологиям, безусловно, влияет на качество жизни населения, является препятствием для развития не только отдельных агроформирований, но и сельских территорий. Осуществленный нами контент-анализ показал, что в республике цифровые технологии применяются преимущественно крупными и эффективно работающими агроорганизациями, которые способны приобретать высокотехнологичную технику. В то же время существующие риски внедрения эффективных цифровых технологий в аграрном секторе, связаны не только с нехваткой IT-специалистов, но и с недостатком накопленного бэкграунда по применению цифровых навыков и умений.

Сегодня в регионе, безусловно, необходима эффективная организация онлайн-платформ и электронных систем для продажи продукций сельского хозяйства. Перспективные направления развития цифрового сельского хозяйства в регионе представлены на рисунке 2.

В настоящее время агробизнес находится в условиях становления цифровизации, и, на наш взгляд, объективно необходимо адаптировать сельскохозяйственные организации Республики Узбекистан к новым цифровым реалиям, то есть управленческим структурам необходимо эффективно внедрять инновации непосредственно в производственные процессы. Безусловно, следует осуществлять широкомасштабную цифровизацию сельского хозяйства на основе активного использования искусственного интеллекта и технологий больших данных (Big Data), внедрения комплекса технологий Интернет вещей (IoTAg) и создания интегрированных облачных сервисов в агроорганизациях.



Рис. 2. Перспективные направления развития цифрового сельского хозяйства в Республике Узбекистан

Таким образом, одной из ключевых стратегических возможностей развития аграрного сектора экономики Республики Узбекистан, является внедрение сельскохозяйственными товаропроизводителями цифровых и информационных технологий. Подчеркнем, что цифровое сельское хозяйство улучшает само качество сельской жизни. Безусловно, цифровизация в перспективе изменит как структуру рынка сельского труда, так и характер деятельности сельскохозяйственных товаропроизводителей. Также внедрение цифровые технологии поможет уменьшить информационную асимметрию и снизить операционные и транзакционные издержки непосредственно в аграрном секторе региона.

Следует подчеркнуть, что «умное» сельское хозяйство позволит обеспечить не только высокую эффективность аграрного производства, но и улучшить способности адаптироваться к климатическим изменениям, и тем самым повысить уровень продовольственной безопасности и устойчивость отраслей растениеводства и животноводства. На примере экономически развитых стран цифровые технологии помогают сформировать благоприятную рыночную среду, способствующую повышению скорости обмена инновационными идеями непосредственно между производителями и потребителями агропродовольственной продукции, что, в свою очередь, позволяет расширить их потенциальные возможности для внесения корректировок и совершенствования осуществляемых процессов управления сельскохозяйственного производства.

Необходимо резюмировать, что широкомасштабное внедрение информационных и цифровых технологий определяет оптимизацию производственно-хозяйственных процессов, снижение управленческих издержек и усиление конкурентных преимуществ на агропродовольственном рынке. Практическое применение цифровых технологий поможет сохранить естественное плодородие сельскохозяйственных угодий и решать актуальные экологические проблемы, непосредственно связанные с ведением рационального земледелия.

Цифровизация деятельности сельхозтоваропроизводителей обуславливает существенный прорыв как в области производства отдельных видов аграрной продукции, так и в продвижении продуктов питания до конечных потребителей. Использование в своей практической деятельности сельскохозяйственными товаропроизводителями современных цифровых технологий будет способствовать повышению производительности труда, принятию эффективных управленческих решений при повышении уровня устойчивости и конкурентоспособности агробизнеса.

Использованные литературы

1. Зинич Алла Владимировна ЦИФРОВИЗАЦИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ПРОБЛЕМЫ И ОЖИДАНИЯ МОЛОДЕЖИ // Экономика труда. 2022. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovizatsiya-v-selskom-hozyaystve-problemy-i-ozhidaniya-molodezhi (дата обращения: 19.04.2025).
2. Плотников Андрей Викторович Роль цифровой экономики для агропромышленного комплекса // Московский экономический журнал. 2019. №7.
3. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. Iqtisodiyot va uning tarmoqlarini raqamlashtirish. iqtisodiyotsohasiga raqamli texnalogiyalarni olib kirilishi. Scientificprogress, 2021. 2(3),825-831
4. Тешабоева З. Роль цифровых технологий в устойчивом развитии сельского хозяйства. Экономическое развитие и анализ, 2023 1(8), 273–279.
5. Стовба Е.В., Шарафутдинов А.Г., Горбунова О.С., Стовба А.В., Даминева Э.Р. Роль цифровых технологий в развитии деятельности сельскохозяйственных товаропроизводителей // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2021. № 3-2. С. 225-232;

IOT XIZMATLARI UCHUN LPWAN TEXNOLOGIYASI

Temirova Dilfuza Xusanovna
E-pochta: dilfuzatemirova1986@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyali universiteti Ma’lumotlar uzatish tarmoqlari va tizimlari kafedrasi assistenti

Ushbu tezisda IoT tarmog‘ida LPWAN texnologiyaning ishlash samaradorligi tahlil qilingan. Tezisda avvalo Buyumlar Interneti (IoT) tushunchasi, uning arxitekturasi hamda qo‘llanilish sohalari ko‘rib chiqilgan. Keyingi bosqichda LPWAN (Low Power Wide Area Network) texnologiyasining LoRaWAN, Sigfox va NB-IoT standartlari qiyosiy tahlil qilingan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida O‘zbekistonni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo‘lida raqamli texnologiyalar bosqichma-bosqich rivojlantirib kelinmoqda. Barcha hududlarda IT-parklar tashkil etilib, bu sohada o‘qish va ishlash uchun imkoniyat kengaygan. Internet tezligi va qamrovi oshgan. 190 mingdan ziyod aholi ishli bo‘lgan [1].

Hozirgi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida dunyoda raqamli transformatsiya keng miqyosda kechmoqda. Bu jarayon har bir sohada, jumladan sanoat, energetika, sog‘liqni saqlash, transport, qishloq xo‘jaligi va kundalik hayotda ham sezilarli darajada o‘z aksini topmoqda. Aynan shunday o‘zgarishlarning markazida Buyumlar Interneti (Internet of Things — IoT) texnologiyasi turibdi. IoT orqali millionlab qurilmalar o‘zaro bog‘lanib, ma’lumot almashishi va real vaqt rejimida boshqarilishi mumkin bo‘lib, bu texnologiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

LPWAN (Low Power Wide Area Network) texnologiyasi — kam quvvat sarfi bilan keng maydonga ma’lumot uzatishni ta’minlaydigan radiosignal tarmoqlar guruhi bo‘lib, IoT (Buyumlar Interneti) qurilmalarining uzoq masofalarga uzluksiz va arzon narxda ulanishingizni ta’minlaydi. An’anaviy simsiz tarmoqlarga nisbatan LPWAN tarmoqlari bir turi past tezlikda, ammo uzoq masofali bog‘lanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunday texnologiyalar qurilmalarning batareyaga bog‘liq ishlash muddatini bir necha yildan o‘n yillargacha oshirishga imkon beradi (1-rasm). LPWAN texnologiyalari asosan sanoat monitoringi, qishloq xo‘jaligi, ekologik nazorat, aktivlar kuzatuvi kabi kam ma’lumotli, ammo keng doirada joylashgan qurilmalar uchun ideal hisoblanadi [2].



1-rasm. Oddiy LoRaWAN simsiz tarmog‘i

LPWAN tarmoqlarining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Past quvvat sarfi (Low Power). Qurilmalar batareyasining umrini maksimal darajada uzaytirish maqsadida ulangan paytlar va ma’lumot uzatish intervallari optimal tarzda boshqariladi. Odatda, qurilmalar har kuni yoki har necha soatda bir marta ma’lumot yuboradi, qolgan vaqtda “uyqu” holatida bo‘ladi.

Keng maydon (Wide Area). Galvanizatsiyalangan LPWAN texnologiyalari bir bazaviy stantsiyadan 10–20 km gacha va ochiq maydonda ba’zi hollarda 30 kmgacha masofani qamrab olishi mumkin. Shahar muhitida esa devorlar va boshqa to‘siqlar sababli bu masofa odatda 2–5 kmni tashkil etadi.

Past tezlik (Low Data Rate). LPWAN protokollari odatda 0,3–50 kbit/s diapazonda ishlaydi. Bu past tezlik, biroq ko‘pchilik IoT ilovalariga yetarli bo‘ladi, chunki u yerda ko‘pincha har bir qurilmadan yuboriladigan ma’lumot hajmi o‘ta kichik bo‘ladi (masalan, harorat, namlik, batareya holati va hokazo parametrlar).

Ommaviy qurilmalarni ulash (Massive Connectivity). Bitta bazaviy stantsiya minglab yoki o‘n minglab kam quvvatli qurilmalarni birdaniga qabul qila oladi. Bu LPWAN tarmoqlarining mobil aloqadan sezilarli farqi bo‘lib, mobil tarmoq bazaviy stantsiyalari odatda bir necha yuzta qurilmani cheklangan kanallar orqali tutishga qodir.

Tez va arzon joriy etish (Low Deployment Cost). LPWAN diapazonidagi bazaviy stantsiyalar va tugunlar arzon apparat talablari, sodda antenna tizimlari hamda unlicensed (litsenziyasiz) chastotalarda ishlash imkoniyati bilan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Agar quyi chastotalar (ULPWA) xususiy tarmoq uchun xom xarajatlar minimal bo‘lsa, NB-IoT singari mobil operatorlar tarmog‘i bo‘lsa, ular yillik abonent to‘lovlari orqali xizmat ko‘rsatadi [3].

LPWAN texnologiyasining ishlash printsipi — juda katta link-budget (ulanish byudjeti) va kichik kanal o‘lchamlari («chirrup», narrowband) aralashmasiga asoslanadi. Link-budget darajasi devorga singish, chiqindilar va shovqin orqali signaldagi pasayishni hisobga olib, qabul qiluvchiga yetib

boradigan signal quvvatini belgilaydi. LPWAN texnologiyalarida link-budget 155–170 dB oralig‘ida bo‘lib, bu 802.15.4-ga qaraganda (100–120 dB) ancha yuqori, natijada masofa ham oshadi.

LPWAN standartlari ikki katta guruhga bo‘linadi.

Unlicensed band texnologiyalari (LoRaWAN, Sigfox, Ingenu, Weightless) — bu usullar bepul foydalaniladigan radiobandi (433/868/915 MHz) orqali ishlaydi. Ularning afzalligi — tarmoqni istalgan hududda mustaqil qurish imkoniyati, kam investitsiya mezonlari va konfiguratsiya erkinligi.

Lisenziyalangan band texnologiyalari (NB-IoT, LTE-M) — mobil operatorlar tarmoqlarini kengaytirish uchun ishlatiladi. Ular yuqori darajada ishonchli, qamrov doirasi mobil bazaviy stantsiyalarga bog‘liq, va operator xizmatiga obuna to‘lovlari mavjud.

LPWAN tugun va bazaviy stantsiya o‘rtasidagi muloqot odatda yulduz (“star”) to‘pologiyasi bo‘yicha tashkil qilinadi. barcha sensor tugunlari bevosita bazaviy stantsiyaga ulanib, tranzit tugun sifatida boshqa tugunlar orqali ma’lumot uzatilishi kamdan-kam qo‘llaniladi. Bu to‘pologiya XML, JSON yoki TTN (The Things Network) kabi platformalarga ma’lumotni soddalashtirilgan protokollarda uzatishni osonlashtiradi.

LPWAN protokollarining markaziy qatlamiga LPWAN framworklar kiradi. mavzulara asoslangan (publish/subscribe) MQTT-S (MQTT for Sensor networks), CoAP (Constrained Application Protocol), UDP-based ringan protokollar va shunga o‘xshash soddalashtirilgan MAC (Medium Access Control) qatlami. Masalan, LoRaWAN tarmog‘ida MAC qatlamidan foydalanib, ADR (Adaptive Data Rate) algoritmi orqali tugun va bazastantsiya o‘rtasida signallar kuchi va tezligini avtomatik sozlaydi [4].

LPWAN texnologiyasida energiya tejash strategiyalari muhim o‘rin tutadi.

Class A tugunlari. eng kam quvvat sarfi bilan ishlaydi, qabul rejimiga faqat ma’lumot jo‘natgandan keyin o‘tadi. Bu ideal, agar serverdan tugunga yuborilishi kerak bo‘lgan komanda kam bo‘lsa.

Class B tugunlari. belgilangan vaqti-vaqti bilan tinglash oynalari bo‘lishi mumkin, bu orqali server va tugun o‘rtasida belgilangan jadval asosida ikki tomonlama muloqot mumkin.

Class C tugunlari. qabul oynasi uzluksiz ochiq, ma’lumotni darhol olish imkonini beradi, ammo quvvat sarfi kattaroq. Ko‘proq doimiy energiya manbai bo‘lganda ishlatiladi.

LPWAN texnologiyalarida tezlik-masofa va quvvat-masofa o‘rtasidagi savdo-off muhim omil hisoblanadi. Masofa oshgani sari signallarni yanada ko‘p takrorlab uzatish, kam data rate va keng bandlanishdan foydalanish lozim. Bunga misol sifatida LoRa modulidagi chirp spread spectrum (CSS) texnikasini keltirish mumkin. signal har bir paketda ko‘p marta tarqatiladi, qabul qiluvchi esa uni qayta tiklash uchun murakkab DSP algoritmlaridan foydalanadi. Natijada LoRaWAN 0,3–50 kb/s tezlikda 10–15 km masofada ishonchli bog‘lanishni ta’minlaydi (2-rasm).



2-rasm. LoRaWAN tarmoq arxitekturasi

LPWAN tarmog‘ining boshqaruv paneli (network server) barcha tugunlardan kelayotgan ma’lumotni to‘playdi, autentifikatsiya va shifrlash (AES-128) yordamida xavfsizlikni ta’minlaydi hamda ma’lumotni backend ilovalarga (dashboard, BI tahlil, ma’lumotlar ombori) yo‘naltiradi.

LoRaWAN arxitekturasida masalan, ChirpStack yoki The Things Stack kabi ochiq manbali yechimlar, Sigfox bo‘lsa o‘ziga xos operator platformasi, NB-IoT esa mobil operator OSS/BSS tizimlari bilan integratsiya qilinadi.

LPWAN tarmoqlarining arxitekturasi uch asosiy komponentdan iborat. tugun (end-device), gateway (eshik stansiya) va network server. Tugunlar – bu egiluvchan (constrained) qurilmalar bo‘lib, ular sensor va aktuator signallarini yig‘adi yoki qabul qiladi, minimal hisoblash quvvatiga ega mikroprosessor va kam quvvatli radiosignal modulidan iborat. Tugunlar uzoq muddat “uyqu” holatida bo‘lib, faqat ma’lumot yuborish yoki aproksimativ boshqaruv buyruqlari kelganda uyg‘onadi, bu orqali batareya umrini bir necha yilgacha uzaytiradi [5].

Gateway’lar bir nechta LPWAN tugunlarini qamrab oladigan ko‘prik vazifasini bajaradi. Ular radiosignal qiluvchilardan kelayotgan chirp yoki narrowband signal paketlarini qabul qilib, bu paketlarni internet yoki operator tarmog‘i orqali network server’ga yuboradi. Gateway va tugun o‘rtasida hech qanday murakkab signal qayta ishlash yoki autentifikatsiya amalga oshmaydi – bu vazifalar network serverda bajariladi. Bir dona gateway o‘zi yuzlab yoki minglab tugunni xizmatga olishi mumkin, bu esa katta geografik hududlarda arzon infratuzilmani tashkil etishga imkon yaratadi.

Network server – bu LPWAN tarmog‘ining markaziy boshqaruv qatlami. U tugunlardan kelayotgan ma’lumot paketlarini to‘plab, AES-128 shifrlash bilan himoyalanganligini tasdiqlaydi, tugundan yuborilgan MIC (Message Integrity Code) orqali ma’lumot yaxlitligini tekshiradi. Keyin .json yoki .protobuf formatida dekodlangan paketlarni mos backend ilovalariga yo‘naltiradi. bu ob-havo monitoring platformalari, SCADA tizimlari, analytics dashbordlari, qaror qabul qilish modulalari va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, network server ADR (Adaptive Data Rate), tugunlarning uplink va downlink oynalarini boshqarish, firmware yangilash (FOTA) kabi qator nazorat funksiyalarini ham bajaradi.

LPWAN protokollarining modellashtirilganda tarmoq ko‘rsatkichlarini baholashda bir nechta asosiy parametrlar e’tiborga olinadi [6].

Link budget (dB) – signaldagi kuch pasayishini hisobga olgan holda, tugun va gateway o‘rtasidagi maksimal masofa sifatida aniqlanadi. Yuqori link budget devor, daraxt, yer tuzilishidan kelib chiquvchi yo‘qotishlarni kompensasiya qiladi.

Payload hajmi – ko‘plab LPWAN protokollarida bir paketdagi maksimal foydali ma’lumot hajmi 12 dan 243 baytgacha o‘zgaradi. Paket hajmi kichik bo‘lgani uchun ma’lumot sekin uzatiladi, ammo bu IoT ilovalari uchun ko‘pincha yetarli.

Duty cycle (%) – litsenziyasiz chastotalarda (868 MHz Yevropada, 915 MHz AQShda) ishlaydigan texnologiyalarda bir tugunning 1 soat ichida ma’lumot yuborishga ruxsat etilgan maksimal nisbati chegaralanadi (masalan, 1 %, 0.1 %). Bu tarmoqning adolatli ishlashini va bir xil chastota bo‘linishini ta’minlaydi.

Packet Error Rate – radiokanaldagi shovqin, to‘siqlar va interferensiyadan kelib chiquvchi uzatuv jarayonidagi yo‘qotishlar darajasi. LPWAN protokollarida ECC (Error Correction Code) va ko‘p martalik retranslyatsiya orqali ushbu foiz minimal darajada ushlab turiladi.

Latency – odatda bir necha soniyaga teng; masshtabli, ba’zi monitoring ilovalarida sekund darajasidagi kechikish muammo bo‘lmasa, real vaqtli boshqaruv tizimlari uchun ham alohida sinovlar o‘tkaziladi.

Turli LPWAN usullari, xususan LoRaWAN, Sigfox, NB-IoT va LTE-M, ushbu parametrlar bo‘yicha o‘ziga xos kombinatsiyani taklif etadi. Masalan, Sigfox’da duty cycle juda past (ya’ni juda kam xabar yuborish huquqi), lekin uni ommaviy monitoring loyihalarida arzon va globallashgan tarmoq sifatida qo‘llash mumkin. LoRaWAN’da duty cycle mintaqaviy regulyatsiyalarga bog‘liq, lekin mustaqil private tarmoqni qurish imkoni mavjud.

NB-IoT va LTE-M esa operator tarmog‘ida yuqori ishonchlilik, indoor qamrov va katta aylantirish sig‘imini beradi, ammo foydalanish xarajatlari ancha yuqori bo‘lishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. LPWAN va boshqa texnologiyalarning qiyosiya tahlili

LPWAN tugunlarining ichki jamg‘argan energiya strategiyalarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yondashuvlar qo‘llanadi.

Shunday qilib, LPWAN texnologiyasining asosiy tushunchalari uning kam quvvat sarfi, keng diapazon, masofa-tezlik-energiya balansini ta’minlash mexanizmlari, turli regulyator va operator bandlariga moslashuvchanligi va kelajakda integratsiyalashuv salohiyati orqali IoT tarmog‘i infratuzilmasining poydevorini tashkil etadi. Bu texnologiya nafaqat hozirgi kunning, balki kelajak IoT ekotizimining ham yurak urishi bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib, LPWAN texnologiyalari IoT ekotizimining muhim qismiga aylangan bo‘lib, kam quvvat sarfi, keng maydon, ko‘p qurilmalarni ulash va relativ arzon infratuzilma qurish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Turli sohalar — sanoat monitoringi, qishloq xo‘jaligi, ekologik kuzatuv, smart city, aktivlar kuzatuvi — bunday texnologiyalardan katta foyda ko‘rmoqda va kelajakda yana ko‘plab innovatsion yechimlarning asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni, 2020-yil 6-oktabr
2. William Stallings. Data and Computer Communications. – 10th Edition. – Pearson, 2014.
3. Молчанов А. А., “Интернет вещей: архитектура, технологии и протоколы”, Москва: Техносфера, 2020.
4. Centenaro, M., et al. “Long-range communications in unlicensed bands: the rising stars in the IoT and smart city scenarios,” IEEE Wireless Communications, 2016.
5. Официальный сайт LoRa Alliance – https://lora-alliance.org
6. Станислав Бокарев, “LPWAN-сети: протоколы и архитектура IoT-систем”, Журнал Телекоммуникации, №6, 2022.

BPMN YONDASHUVI ASOSIDA KON LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH

Shermatova Xosiyat Narkamalovna
shn.xosiyat_88@gmail.ru
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining doktoranti
Kadirov Yorkin Baxodirovich
navdki@mail.ru;
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tog‘-kon sanoatida yuk avtomobil haydovchilarining ish unumdorligini baholash jarayoniga zamonaviy yondashuv — Biznes jarayonlarni modellashtirish (BPM) modeli tatbiq etilishi yoritilgan. Model yordamida haydovchilarning ish faoliyatini baholovchi asosiy mezonlar aniqlanib, ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, BPM yondashuvi orqali transport jarayonlarining vizual ifodasi, resurslardan foydalanish ko‘rsatkichlari va samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlanadi. Maqola natijalari tog‘-kon sanoatida tashish tizimini optimallashtirish, ish unumdorligini oshirish va raqamli boshqaruvga o‘tish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: BPM modeli, axborot tizimi, real vaqt, tog‘-kon sanoati.

Bugungi kunga kelib, korxonalarda menejmentni muvaffaqiyatli va optimal takomillashtirish tobora ko‘proq mavjud korporativ axborot tizimlarini (KAT) kompleks tasvirlash va tahlil qilish, shuningdek, korxonaning asosiy biznes-jarayonlarini modellashtirish orqali menejment rivojlanish yo‘nalishlarini maksimal darajada ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda rejalashtirishni talab etmoqda.

Korxonaning biznes-jarayonlarini tavsiflash, loyihalash, modellashtirish va tahlil qilish bilan bog‘liq vazifalarni samarali hal etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari usullaridan foydalanish zarur.

Ushbu vazifalarni hal qilishda korxona resurslarini tejash imkonini beruvchi bir qator mos instrumentlar va texnologiyalar mavjud. Bu, avvalo, **BPM-notatsiya** bo‘lib, ular biznes-jarayonlarni nafaqat modellashtirish, balki ularni tahlil qilish va bajarilishini, hamda korxona axborot tizimining holatini bashorat qilish imkonini beradi.

BPM-notatsiyaning asosi – bu **boshqaruvning uzluksiz sikli** g‘oyasiga tayanadi. Ushbu sikl quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:



1- rasm. BPM-notatsiyaning boshqaruvning uzluksiz sikli

BPM-tizimlarning asosiy vazifasi har qanday biznes-jarayonlarni avtomatlashtirishdan iborat, biroq eng katta samaradorlik ularni tez-tez takrorlanadigan va murakkab mantiqiy tuzilishga ega jarayonlarda qo‘llaganda erishiladi. **BPMN-modellar tizimli modellar asosida quriladi.** Noshablon (favqulodda) vaziyatlarga xos jarayonlar esa harakatdan harakatga o‘tish shartlari, pool-lar, vaqt cheklovlari va boshqa resurslarga oid shartlar bilan modellashtiriladi.

Bunday jarayonlarning namunaviy modeliga **2-rasm** misol keltirilgan.

Har bir BPM tizimi modul tamoyiliga asoslanadi va odatda quyidagi asosiy komponentlardan iborat bo‘ladi:

Jarayonlarni tasvirlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan grafik funksiyalar;

Jarayonlarni bajarish serveri, ya’ni asosiy server, unda nazorat ostidagi BPM-jarayonlar bajariladi. U har bir jarayon va bu jarayon doirasidagi biznes-voqealarni kuzatadi;

Jarayonni bajarish jarayonida o‘zgarishlar kiritish imkonini beruvchi operativ ish vositalari, jumladan, ish ro‘yxatlari va ustuvorliklarni boshqarish funksiyalari;

Monitoring va boshqaruv vositalari, jumladan, monitoring moduli orqali jarayonlarning bajarilish darajasi va ularning holati nazorat qilinadi.



2-rasm. Yukni buyurtma qilishdan boshlab, mahsulotni qabul qilishgacha bo‘lgan logistika jarayoni

Mazkur BPMN diagramma tog‘-kon sanoati yoki boshqa og‘ir sanoat tarmoqlarida yuklarni avtomatlashtirilgan tarzda buyurtma qilish, yuklash, transport qilish va qabul qilish jarayonlarini tasvirlaydi. Ushbu tizim logistik zanjirning barcha ishtirokchilari – dispatcher, yetkazib berish bo‘limi va qabul qiluvchini o‘zaro bog‘lovchi intellektual axborot tizimi orqali boshqariladi.

В Узбекистане необходимость такой перестройки усиливается масштабом задач, установленных на 2026 г.: снижение безработицы до 4,5%, бедности до 2,8%, трудоустройство 1 млн человек на постоянные рабочие места и повышение доходов 4 млн граждан [1]. По исходным оценкам 2025 г. безработица составляла 4,8%, численность безработных - 744,9 тыс. человек, бедность - 5,8%, доля неформальной занятости - 37,9%, средняя номинальная заработная плата - 6376,7 тыс. сумов. Следовательно, дальнейший прогресс зависит не столько от количественного расширения программ, сколько от их результативности и адресности.

Принципы построения механизма

Первый принцип - ориентация на завершённую трудовую траекторию. Механизм начинается с выявления реального спроса работодателя и завершается не выдачей сертификата, а подтверждённым закреплением работника. Базовая цепь имеет вид: спрос работодателя - диагностика компетенций - целевая подготовка - независимое подтверждение квалификации - официальный найм - адаптация - удержание. Нарушение любого звена снижает эффект всей системы.

Второй принцип - финансирование результата. Государственная поддержка должна постепенно переходить от возмещения затрат к оплате подтверждённого трудоустройства. Учебная организация получает часть финансирования после завершения курса, следующую часть - после официального найма выпускника и заключительную - после сохранения занятости в течение установленного

периода. Работодатель получает субсидию при создании устойчивого рабочего места, а не только за подачу заявки. Такой подход снижает стимулы к формальному выполнению показателей.

Третий принцип - дифференциация по барьеру мобильности. Для одного работника основным ограничением является отсутствие профессии, для другого - транспорт, аренда жилья, документы или уход за ребёнком. Универсальная субсидия редко устраняет конкретную причину. Поэтому поддержка должна формироваться как персональный пакет услуг на основе профилирования соискателя и характеристик вакансии.

Четвёртый принцип - цифровая прослеживаемость. Все этапы траектории должны фиксироваться в единой информационной среде: исходный профиль компетенций, программа обучения, результаты оценки, вакансия, электронный договор, заработная плата и сохранение занятости. Цифровая запись не только сокращает документооборот, но и позволяет сравнивать эффективность поставщиков услуг, профессий и региональных программ.

Семиблочная организационно-экономическая архитектура

Предлагаемая архитектура включает семь взаимосвязанных блоков. Стратегико-нормативный блок устанавливает цели, права участников, стандарты качества и порядок обмена данными. Институционально-организационный блок распределяет ответственность между органами занятости, профессиональными центрами, работодателями, образовательными организациями и местными органами власти. Цифровой блок обеспечивает единые классификаторы, цифровые профили и обмен информацией.

Квалификационный блок включает прогноз спроса на профессии, диагностику навыков, модульные программы, дуальное обучение и независимую оценку. Экономико-стимулирующий блок объединяет ваучеры, субсидии и софинансирование. Социально-инфраструктурный блок снижает транспортные, жилищные и семейные барьеры. Адаптационно-мониторинговый блок сопровождает работника после найма, оценивает закрепляемость и формирует обратную связь для корректировки программ.

Таблица 1. Структура механизма повышения трудовой мобильности

Блок	Основные инструменты	Измеримый результат
1. Стратегико-нормативный	Цели, стандарты, регламенты, защита данных	Согласованность правил и ответственности
2. Институциональный	Координация служб занятости, работодателей и образования	Сокращение разрывов между участниками
3. Цифровой	Профиль компетенций, вакансии, электронный договор	Снижение информационной асимметрии
4. Квалификационный	Диагностика, обучение, оценка квалификации	Соответствие навыков вакансии
5. Экономический	Ваучеры и результативные субсидии	Снижение индивидуальных издержек перехода
6. Социально-инфраструктурный	Транспорт, аренда, уход, адаптация	Доступность территориальной мобильности
7. Мониторинговый	Контроль через 3, 6 и 12 месяцев	Устойчивая занятость и обратная связь

Источник: разработано автором.

Система ваучеров и экономических стимулов

Профессиональный ваучер предоставляет гражданину право выбрать аккредитованного поставщика обучения по профессии, подтверждённой прогнозом спроса или заказом работодателя.

Его стоимость может зависеть от сложности программы и ожидаемого доходного эффекта. Важным условием является софинансирование работодателя для профессий, специфичных для конкретного предприятия. Это повышает ответственность бизнеса за содержание подготовки.

Транспортный ваучер компенсирует расходы на ежедневный проезд или первоначальный переезд в другую территорию. Арендный ваучер покрывает часть расходов на жильё в первые месяцы занятости, когда работник ещё не накопил средства и сталкивается с максимальным риском возврата. Адаптационный ваучер может финансировать наставничество, языковую или производственную ориентацию. Сертификационный ваучер используется для независимого подтверждения компетенций и признания ранее приобретённых навыков.

Результативная субсидия работодателю должна быть связана с дополнительностью рабочего места, официальным договором, уровнем оплаты и сохранением занятости. Выплата может осуществляться поэтапно: при найме, после трёх и после шести месяцев. Для предотвращения замещения существующих работников требуется сравнение численности персонала и фонда оплаты труда с базовым периодом. Для уязвимых групп допустима более высокая ставка поддержки, но критерии результата должны сохраняться.

Таблица 2. Предлагаемые инструменты персонального пакета мобильности

Инструмент	Покрываемый барьер	Условие финансирования
Профессиональный ваучер	Недостаток востребованных навыков	Завершение программы и подтверждение компетенций
Транспортный ваучер	Высокая стоимость поездок и переезда	Официальное направление на подходящую работу
Арендный ваучер	Недоступность жилья в регионе притяжения	Трудовой договор и временная адресная поддержка
Сертификационный ваучер	Непризнание ранее приобретённых навыков	Независимая оценка квалификации
Адаптационный ваучер	Риск увольнения в первые месяцы	Наставничество и подтверждённое удержание
Субсидия работодателю	Риск найма и обучения нового работника	Дополнительное официальное рабочее место

Источник: разработано автором.

Цифровая инфраструктура и электронные трудовые отношения

Цифровая платформа должна стать функциональным ядром механизма, а не отдельным сайтом вакансий. Её архитектура объединяет профиль гражданина, данные об образовании и квалификациях, историю официальной занятости, вакансии работодателей, индивидуальный план услуг и результаты трудоустройства. Сопоставление строится не только по названию профессии, но и по набору компетенций, уровню оплаты, местоположению, графику и доступности транспорта.

Электронный трудовой договор обеспечивает автоматическое включение работника в систему официальной занятости и социальной защиты. Связь договора с цифровым профилем позволяет подтверждать стаж, снижает риск неуплаты заработной платы и формирует достоверную статистику переходов. Для работодателей единый формат уменьшает административные издержки, особенно для малого бизнеса. Для государства он создаёт основу мониторинга формализации и оценки эффективности субсидий.

Алгоритмическое сопоставление не должно быть непрозрачным. Гражданину необходимо объяснять, почему предложена конкретная вакансия и какие навыки требуют развития. Работодатель должен видеть степень соответствия, но не получать доступ к избыточным

персональным данным. Требуются аудит качества рекомендаций, возможность обжалования, человеческий контроль и единые стандарты классификации профессий. Иначе цифровизация может усилить дискриминацию или закрепить неполные данные.

Ключевым элементом является «аудит результата»: система сопоставляет факт обучения, электронный договор, заработную плату и продолжительность занятости. Если выпускники определённой программы систематически не находят работу, финансирование корректируется. Если вакансия приводит к высокой текучести, работодатель получает пониженный рейтинг качества. Таким образом, данные превращаются в механизм обратной связи, а не только в отчётность.

Адаптация подготовки кадров к спросу

Подготовка должна начинаться с профессионально-квалификационного заказа территории. Заказ формируется на основе заявок работодателей, инвестиционных проектов, динамики вакансий и сценариев отраслевого развития. Для снижения риска завышенных заявок часть заказа подтверждается софинансированием или обязательством принять выпускников на практику. Образовательная программа строится модульно, чтобы работник мог быстро освоить дефицитный набор компетенций и продолжить обучение после трудоустройства.

Независимая оценка квалификаций отделяет подтверждение результата от поставщика обучения. Это особенно важно для работников, уже обладающих навыками, но не имеющих официального документа. Признание ранее приобретённого обучения сокращает продолжительность и стоимость подготовки. Для мобильных работников цифровой сертификат должен быть переносимым между регионами и работодателями.

Эффективность подготовки измеряется долей официально трудоустроенных по профилю, уровнем начальной заработной платы, сохранением занятости и оценкой работодателя. В диссертационном исследовании обосновано, что внедрение механизма способно повысить трудоустройство после обучения с 65-70% до 75-80% и сократить время заполнения вакансий на 20-25%. Такие ориентиры требуют отбора программ по фактическому результату, а не по объёму освоенных средств.

Формализация неформальной занятости

Доля неформальной занятости, оценённая на уровне 37,9% в 2025 г., указывает на значительный резерв повышения качества труда. Формализация должна сочетать стимулы и снижение издержек. Для микро- и малых предприятий важны простой электронный договор, понятное налогообложение, консультационная поддержка и временная компенсация части социальных платежей при создании дополнительного рабочего места. Одновременно необходимо усиление контроля в секторах с систематическим нарушением трудовых прав.

Для работника официальный переход должен давать ощутимые преимущества: социальное страхование, пенсионные права, доступ к кредиту, подтверждённый стаж и защиту оплаты. Цифровая система может показывать накопленные права и тем самым повышать мотивацию к легализации. В отношении самозанятых и платформенных работников целесообразны гибкие формы добровольного страхования и переносимые социальные права.

Многоуровневая система мониторинга

Мониторинг предлагается вести на трёх уровнях. Операционный уровень фиксирует сроки предоставления услуг, стоимость и охват. Уровень непосредственного результата оценивает трудоустройство, соответствие профессии и сохранение работы через три и шесть месяцев. Высший социально-экономический уровень отслеживает изменение безработицы, неформальной занятости, доходов, производительности, миграционного давления и региональных диспропорций.

Для предотвращения формального выполнения показателей необходимо использовать контрольные группы или квазиэкспериментальные методы. Например, результат ваучерной программы сравнивается с исходами сходных граждан, не получивших поддержку. Стоимость программы соотносится с дополнительным числом устойчиво трудоустроенных, приростом заработной платы и налоговых поступлений. Такой анализ позволяет прекращать неэффективные

меры и масштабировать результативные.

Таблица 3. Ключевые показатели мониторинга

Уровень	Показатели
Операционный	Срок профилирования, стоимость услуги, число выданных ваучеров
Непосредственный результат	Официальное трудоустройство, соответствие профессии, закрытие вакансии
Устойчивость	Занятость через 3, 6 и 12 месяцев, изменение заработной платы
Системный эффект	Безработица, формальная занятость, производительность, миграционное давление

Источник: разработано автором.

Ожидаемый социально-экономический эффект и пилотирование

Сценарные расчёты показывают, что совместное внедрение подготовки по спросу, поддержки переезда, цифрового сопоставления и формализации может дополнительно снизить безработицу на 0,3-0,5 процентного пункта, увеличить долю официально занятых на 2-3 процентных пункта и повысить производительность труда на 4-6%. Эффект формируется за счёт сокращения продолжительности поиска, перехода работников в более производительные рабочие места, уменьшения текучести и расширения официальной занятости.

Пилотирование целесообразно проводить не в одном «среднем» регионе, а в четырёх территориях, представляющих разные функциональные типы рынка труда: центре притяжения, регионе массового поглощения, трудоизбыточной территории и переходно-сбалансированном регионе. Это позволит проверить различные комбинации инструментов. В центре притяжения акцент делается на жилье и адаптации; в трудоизбыточном регионе - на обучении и организованном перемещении; в регионе массового поглощения - на производительности и дуальной подготовке; в переходном - на диверсификации и цифровой доступности.

Пилот должен иметь единый дизайн данных, базовые значения и период не менее двух лет. Первый год позволяет настроить процессы и оценить краткосрочное трудоустройство, второй - устойчивость занятости и системные эффекты. По итогам необходимо подготовить сравнительную оценку стоимости одного дополнительного устойчивого рабочего места и нормативную модель масштабирования.

Управление, финансирование и распределение ответственности

Для устойчивой работы механизма необходим единый координатор, отвечающий за стандарты данных, правила финансирования и оценку результатов, при сохранении операционной роли региональных органов. Центральный уровень формирует методологию и цифровую архитектуру, регионы определяют приоритетные профессии и барьеры, работодатели подтверждают спрос и участвуют в софинансировании, а независимые организации оценивают квалификации и результаты программ. Такое разделение уменьшает конфликт интересов, когда один участник одновременно обучает, принимает результат и отчитывается об эффективности.

Финансирование целесообразно строить по принципу смешанного платежа. Базовая часть покрывает объективные затраты на диагностику и обучение, результативная часть зависит от официального трудоустройства, а премиальная - от сохранения занятости и роста заработной платы. Для граждан с инвалидностью, женщин с обязанностями по уходу, молодёжи без опыта и жителей отдалённых районов применяется корректировка сложности, чтобы поставщики не отбирали только наиболее легко трудоустраиваемых.

Бюджетный эффект следует оценивать в среднесрочном горизонте. Первоначальные расходы на ваучеры, цифровую интеграцию и поддержку переезда компенсируются ростом налоговых поступлений, снижением повторного обращения за пособиями и повышением производительности. Расчёт должен включать стоимость одного дополнительного устойчивого

рабочего места, прирост официального фонда оплаты труда и срок окупаемости. Публичное раскрытие этих показателей повысит доверие работодателей и граждан.

Важной частью управления является независимый аудит алгоритмов и программ. Ежегодно проверяются качество вакансий, корректность сопоставления, отсутствие дискриминационных эффектов, достоверность электронных договоров и выполнение условий субсидий. Результаты аудита используются для изменения весов рекомендаций, исключения недобросовестных поставщиков и обновления перечня востребованных профессий. Такая система создаёт непрерывный цикл обучения политики на собственных данных.

Заключение

Предлагаемый организационно-экономический механизм превращает поддержку трудовой мобильности из набора разрозненных услуг в управляемую траекторию. Его ядром является связь спроса работодателя, компетенций работника, адресных экономических инструментов и цифрового мониторинга. Переход к финансированию подтверждённых результатов повышает ответственность учебных организаций, работодателей и служб занятости.

Практическая реализация требует семиблочной архитектуры, персональных пакетов ваучеров, электронных трудовых договоров, независимой оценки квалификаций и мониторинга закрепляемости. Дифференцированное пилотирование по типам регионов позволит адаптировать инструменты к реальным ограничениям. В результате трудовая мобильность будет способствовать не только перемещению рабочей силы, но и формализации занятости, росту производительности, повышению доходов и сбалансированному развитию территорий Узбекистана.

Список литературы / References

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 февраля 2026 г. № ПП-49 «О мерах по повышению доходов населения, созданию устойчивых рабочих мест и сокращению бедности посредством развития территорий на основе новых подходов в 2026 году».
2. Указ Президента Республики Узбекистан от 4 августа 2025 г. № УП-126 «О дополнительных мерах по совершенствованию трудовых отношений и системы профессиональной подготовки, а также стимулированию работодателей».
3. Закон Республики Узбекистан «О занятости населения».
4. Трудовой кодекс Республики Узбекистан.
5. ILO. Methodological Issues Related to the Use of Online Labour Market Data. Geneva: International Labour Organization, 2022.
6. OECD. Better Use of Skills in the Workplace: Why It Matters for Productivity and Local Jobs. Paris: OECD Publishing, 2017.
7. OECD. Skills for Jobs 2022: Key Insights. Paris: OECD Publishing, 2022.
8. Kluve J. A Review of the Effectiveness of Active Labour Market Programmes. Geneva: ILO, 2016.
9. World Bank. Listening to Citizens of Uzbekistan: Poverty, Jobs and Social Protection. Washington, D.C.: World Bank, 2023.
10. Abdurahmanov K.Kh., Zokirova N.K. Modern Labor Economics. Moscow: Delo, 2025.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI ISHTIROKINI KENGAYTIRISH YO‘LLARI

Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Tezisda O‘zbekistonda davlat xaridlari bozorida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini kengaytirish masalalari iqtisodiy, institutsional va tashkiliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tahlil kichik korxonalarning xarid bozoriga kirishiga amalda ta’sir qiladigan bir qator omillarni - yirik lotlar, xarid hajmiga mos kelmaydigan malaka va moliyaviy talablar, ortiqcha hujjatlashtirish, axborot yetishmasligi, shartnoma ijrosidagi aylanma mablag‘ ehtiyoji hamda yetkazib beruvchilarning amaliy

ko‘nikmalarini qamrab oladi. Shu asosda lotlarni oqilona shakllantirish, talablarni xarid riski va qiymatiga mos belgilash, davlat axborot tizimlaridagi ma’lumotlardan qayta foydalanish, kichik yetkazib beruvchilar uchun amaliy o‘quv tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ishtirok natijalarini aniq indikatorlar orqali kuzatib borish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, raqobat, elektron xarid, lotlarga ajratish, malaka talablari, shaffoflik, yetkazib beruvchi, davlat buyurtmachisi.

Davlat xaridlari bozori kichik biznes uchun barqaror talab manbai, yangi mijozlar segmentiga kirish vositasi va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyati hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining davlat buyurtmalarida faol ishtiroki davlat uchun ham foydalidir: yetkazib beruvchilar sonining ortishi raqobatni kuchaytiradi, hududiy biznesning bozorga kirishini yaxshilaydi va xaridlarning moslashuvchanligini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni davlat xaridlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini belgilaydi va xarid jarayonida raqobat hamda ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. [9]

Mamlakatda ushbu yo‘nalishdagi islohotlar yangi bosqichga o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmonida 2030-yilgacha davlat xaridlarida raqobatli usullardan foydalanishni 80 foizga yetkazish, iqtisod qilingan mablag‘ miqdorini 25 trln so‘mga oshirish hamda tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini ikki karra oshirish maqsadi belgilangan. [10] Mazkur maqsadlar kichik biznesni xarid bozoriga keng jalb etishni faqat tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chorasi emas, balki davlat xaridlarida raqobat va budjet samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko‘rishni talab etadi.Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad davlat xaridlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining faol ishtirokiga xalaqit berayotgan omillarni aniqlash va ularni kamaytirishga xizmat qiladigan amaliy yechimlarni asoslash. Bunda bozorga kirish xarajatlarini pasaytirish bilan birga raqobat muhitini saqlash va xarid sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik mezoni asosiy shart sifatida olindi. Ishda tizimli, qiyosiy, institutsional va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Kichik biznesning davlat xaridlaridagi ishtirokini oshirish uchun faqat qo‘shimcha imtiyozlar berish yetarli emas. Amaliy jihatdan muhim masala - tenderda qatnashish bilan bog‘liq xarajatlarni va xarid predmetiga nisbatan ortiqcha bo‘lgan talablarni kamaytirishdir. Hujjatlar va sertifikatlarni tayyorlash, moliyaviy ko‘rsatkichlarni tasdiqlash, bank kafolatini olish, texnik tajribani asoslash hamda qisqa muddatda taklif shakllantirish kichik korxona uchun yirik biznesga qaraganda sezilarliroq yuk bo‘lishi mumkin. OECDning 2024-yilgi davlat xaridlari so‘rovi natijalariga ko‘ra, respondent mamlakatlarning 83 foizi kichik va o‘rta biznesning davlat xaridlariga kirishini yaxshilashga qaratilgan kamida bitta maxsus chorani qo‘llaydi. Shuningdek, 40 respondentdan 37 tasi, ya’ni 93 foizi, kichik qiymatli xaridlar uchun soddalashtirilgan qoidalar va tartib-taomillardan foydalanishini bildirgan. [11] Ushbu tajriba kichik biznes ishtirokini oshirishda tartiblarni mutanosiblashtirish va ma’muriy yukni kamaytirish eng keng tarqalgan vositalardan ekanini ko‘rsatadi.

OECDning kichik va o‘rta biznesning davlat xaridlaridagi ishtirokiga bag‘ishlangan tahlilida tender hajmining haddan tashqari yirikligi, murakkab protseduralar, yuqori texnik va moliyaviy malaka talablari, to‘lov shartlarining noqulayligi hamda axborot yetishmasligi kichik biznes uchun asosiy to‘siqlar sifatida qayd etilgan. [12] O‘zbekiston sharoitida ham mazkur omillarni xarid predmetining xususiyati va risk darajasiga qarab differensial boshqarish maqsadga muvofiq.

[9]O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
[10]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmoni.
[11]OECD. Implementing the OECD Recommendation on Public Procurement in OECD and Partner Countries: 2020–2024 Report. OECD Publishing, 2025.
[12]OECD. SMEs in Public Procurement: Practices and Strategies for Shared Benefits. OECD Publishing, 2018.

1-jadval

O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari[13]

2025 (joriy holat)	2026	2027	2028	2029	2030
35%	40%	48%	55%	62%	70%

Jadvaldan ko‘rinadiki, tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi faolligini 2025-yildagi 35 foizdan 2030-yilda 70 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bunday o‘sish xarid bozoriga kirish shartlarini kichik biznesning real imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Bunda yirik shartnomalarni iqtisodiy va texnologik jihatdan asoslangan lotlarga ajratish alohida ahamiyatga ega. Bir-biridan mustaqil yetkazib berilishi mumkin bo‘lgan pozitsiyalarni bitta katta paketga jamlash kichik korxonalarni moliyaviy yoki ishlab chiqarish quvvati sababli tanlovdan chetda qoldirishi mumkin. Oqilona lotlashtirish esa buyurtmachining ehtiyojini saqlagan holda raqobatchilar doirasini kengaytiradi.

Malaka va moliyaviy talablar ham barcha xaridlarga bir xil shaklda qo‘llanmasligi kerak. Masalan, aylanma, ish tajribasi, xodimlar soni yoki bank kafolati bo‘yicha yuqori mezonlar kichik qiymatli va past riskli xaridlarda bozorga kirishni asossiz qiyinlashtirishi mumkin. Shu bois talablarni xarid qiymati, texnologik murakkablik, yetkazib berish riski va shartnoma bajarilmasligining ehtimoliy oqibatiga qarab belgilash maqsadga muvofiq. Hujjatlarni qayta-qayta taqdim etish ham tadbirkorning vaqtini va xarajatini oshiradi. Ro‘yxatdan o‘tganlik, soliq holati, litsenziyalar, ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlar yoki oldingi shartnomalar ijrosi haqidagi ma’lumotlar davlat axborot tizimlarida mavjud bo‘lsa, ularni har bir tenderda yana talab qilish zarurati kamaytirilishi lozim. Elektron xarid tizimining soliq, biznes reyestri va litsenziya bazalari bilan integratsiyasi ayniqsa kichik yetkazib beruvchilar uchun ma’muriy yukni yengillashtiradi.

Yana bir muhim masala shartnoma ijrosi davridagi aylanma mablag‘ ehtiyojidir. Tenderda g‘olib bo‘lgan kichik korxona xomashyo, transport va mehnat xarajatlarini to‘lov kelishidan oldin moliyalashtirishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shartnoma turi va riskidan kelib chiqib avans, elektron hisob-faktura asosidagi tezkor to‘lov, factoring yoki bank kafolati bilan bog‘langan moliyalashtirish vositalaridan foydalanish bu bosimni kamaytirishi mumkin. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi rolini oshirish, ularning yiriklashishi va yangi bozor segmentlariga kirishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash vazifalari belgilangan. [14] Davlat xaridlari ana shu bozor segmentlaridan biri sifatida tadbirkorning o‘sish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlaydigan barqaror talab manbaiga aylanishi mumkin.

2-jadval

Kichik biznesning davlat xaridlaridagi ishtirokini cheklovchi omillar va ularni bartaraf etish mexanizmlari

Asosiy to‘siq	Kichik biznesga ta’siri	Taklif etilayotgan mexanizm	Kutilayotgan natija
Yiriklashtirilgan tender lotlari	Moliyaviy va ishlab chiqarish quvvati yetishmaydi	Xaridni funksional va hududiy lotlarga oqilona ajratish	Ko‘proq kichik yetkazib beruvchi kiradi

[13] Manba: PF-259-son Farmoni ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan., PF-259-son Farmoni, 6-ilova: 2025-yil joriy holati va 2026–2030-yillar maqsadli ko‘rsatkichlari.

[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoni.

Nomutanosib malaka talablari	Tenderga kirish xarajati oshadi	Talablarni xarid qiymati va riskiga mutanosib belgilash	Teng raqobat muhiti kengayadi
Takroriy hujjatlashtirish	Vaqt va ma’muriy xarajatlar ortadi	“Bir marta taqdim etish” va registrlar integratsiyasi	Ariza tayyorlash tezlashadi
Aylanma mablag‘ yetishmasligi	G‘olib bo‘lsa ham shartnoma ijrosi qiyinlashadi	Tezkor to‘lov, factoring, maqbul avans mexanizmlari	Shartnoma ijrosi barqarorlashadi
Xarid ko‘nikmasining pastligi	Xatolar va diskvalifikatsiya ko‘payadi	Yetkazib beruvchi maktabi, bepul konsultatsiya va namunaviy hujjatlar	Muvaffaqiyatli takliflar ulushi oshadi
Natijalar monitoringining zaifligi	Qo‘llab-quvvatlash chorasi samarasi noma’lum qoladi	Kichik biznes xaridlari dashboardi va KPI tizimi	Dalillarga asoslangan siyosat shakllanadi

Kichik yetkazib beruvchining tenderdagi muvaffaqiyati faqat moliyaviy imkoniyatga bog‘liq emas. Taklif tayyorlash, texnik hujjatlarni to‘g‘ri talqin qilish, narx kalkulyatsiyasi, elektron imzo, shikoyat tartibi va shartnoma boshqaruvi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli hududiy savdo-sanoat palatasi, vakolatli davlat organi, biznes markazlari va elektron platformalar hamkorligida “Davlat xaridlari yetkazib beruvchisi maktabi”ni tashkil etish mumkin. O‘quvni yakunlagan subyektga sertifikat berilishi mumkin, biroq bunday sertifikat tenderga kirish uchun majburiy talabga aylanmasligi kerak. Ishtirok natijalarini baholashda faqat ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlar yoki berilgan takliflar soniga tayanish yetarli tasavvur bermaydi. Monitoringda kichik biznesning tenderlardagi ishtirok ulushi, g‘oliblik darajasi, shartnomalar qiymatidagi ulushi, yangi yetkazib beruvchilar soni, hududiy qamrov, diskvalifikatsiya sabablari, to‘lov muddati va takroriy muvaffaqiyatli shartnomalar kabi ko‘rsatkichlarni birgalikda kuzatish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi omillarni bir tizimda ko‘rsatish uchun kichik biznes ishtirokining quyidagi konseptual ifodasidan foydalanish mumkin:

$$KBI = LA + MT + RI + MQ + NM$$

Bu yerda KBI - kichik biznes ishtiroki; LA - lotlar va xarid hajmining maqbulligi; MT - malaka talablarining mutanosibligi; RI - raqamli integratsiya va soddalashtirish; MQ - moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; NM - natijalar monitoringi. Ushbu ifoda ekonometrik hisob-kitob uchun emas, balki kichik biznesning davlat xaridlaridagi faolligiga ta’sir qiluvchi asosiy institutsional yo‘nalishlarni yaxlit ko‘rsatish uchun taklif etilgan.

Shu bilan birga, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash raqobatni cheklaydigan doimiy preferensiyalarga aylanib qolmasligi kerak. Maqsad kichik korxonaga g‘alabani kafolatlash emas, uning boshqa yetkazib beruvchilar bilan teng va samarali raqobatlashishiga xalaqit beradigan ortiqcha to‘siqlarni kamaytirishdir. Bunday yondashuv buyurtmachiga narx va sifat bo‘yicha maqbul taklifni tanlash imkonini saqlab qoladi.

XULOSA

O‘zbekistonda davlat xaridlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari ishtirokining kengayishi raqobat muhiti, hududiy biznes faolligi va davlat xarajatlari samaradorligi bilan uzviy bog‘liq. 2030-yilgacha tadbirkorlik subyektlari faolligini 70 foizga yetkazish maqsadi xarid bozoriga kirish shartlarini amaliy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, yirik xaridlarni asoslangan lotlarga ajratish va malaka talablarini shartnoma qiymati hamda riskiga moslashtirish kichik yetkazib beruvchilarning kirish imkoniyatini kengaytiradi. Davlat registrlarida mavjud ma’lumotlarni takroran so‘ramaslik tender tayyorlash xarajatini kamaytiradi. Shartnoma ijrosi bosqichida tezkor to‘lov va aylanma mablag‘ instrumentlarining mavjudligi esa g‘olib bo‘lgan kichik korxonaning majburiyatlarni barqaror bajarishiga yordam beradi. Bular bilan bir qatorda, amaliy o‘quv va konsultatsiya tizimi hamda ishtirok natijalarini maxsus indikatorlar asosida kuzatish mexanizmi zarur.

Taklif etilgan choralar izchil qo‘llansa, kichik biznesning davlat xaridlari bozoriga kirish xarajatlari pasayishi, yangi yetkazib beruvchilar soni va raqobatning ortishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada davlat buyurtmachisi narx, sifat va shartnoma ijrosi bo‘yicha kengroq tanlovga ega bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-5382974

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7952218

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7444738

4. OECD. SMEs in Public Procurement: Practices and Strategies for Shared Benefits. Paris: OECD Publishing, 2018. https://doi.org/10.1787/9789264307476-en.

5. OECD. Implementing the OECD Recommendation on Public Procurement in OECD and Partner Countries: 2020–2024 Report. Paris: OECD Publishing, 2025. https://doi.org/10.1787/02a46a58-en.

6. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. OECD/LEGAL/0411. Paris, 2015.

METHODOLOGICAL APPROACHES TO ASSESSING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

Sardor Akmal ugli Pulatov
Independent Researcher
ORCID: 0009-0004-5199-2537
Email: saibov22@gamil.com

Abstract. The thesis is devoted to the methodology of assessing the financial sustainability of non-governmental non-profit organizations (NGOs). The main approaches developed in the literature on non-profit finance are reviewed, and their limitations for organizations that work mainly on project funding are shown. A system of six indicators grouped into three blocks (structure of income, liquidity and reserves, operating efficiency) is proposed, its calculation is illustrated with a conditional example, and directions for the practical use of the system by NGOs, donors and state bodies in Uzbekistan are outlined.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, financial sustainability, financial vulnerability, indicators, revenue concentration, operating reserve, assessment methodology.

Introduction

The strengthening of the financial sustainability of civil society institutions has been set as a task in a number of policy documents of Uzbekistan, and the volume of state support for the sector is growing [1; 2]. However, a goal that is not measured is difficult to manage. At present the state of the sector is described mainly by the number of registered organizations and the amount of funds allocated, while there is no generally accepted methodology that would show how sustainable an individual NGO, or the sector as a whole, actually is.

The indicators used for commercial enterprises cannot be transferred mechanically to NGOs. Profitability is not the purpose of a non-profit organization; a considerable part of its funds is restricted to specific projects and cannot be used freely; and its “revenue” often depends on the decisions of a small number of donors rather than on sales. The assessment therefore requires a specific set of indicators.

Approaches in the literature

The starting point is the work of H. Tuckman and C. Chang, who defined a financially vulnerable non-profit as one that is likely to cut its services immediately when it experiences a financial shock, and proposed four criteria of vulnerability: inadequate equity balances, revenue concentration, low administrative costs and low or negative operating margins [3]. Low administrative costs are treated as a risk factor because an organization with no administrative “cushion” has nothing to reduce except its programmes.

J. Greenlee and J. Trussel used these criteria to build a model predicting financial vulnerability, defining it through a decline in programme expenses over three consecutive years [4]. M. Hager tested the criteria on arts organizations and showed that their predictive power differs between sub-sectors, which means that thresholds cannot be universal [5]. W. Bowman distinguished two dimensions, *capacity* (resources that allow an organization to seize opportunities and react to threats) and *sustainability* (the rate of change of capacity), and two time horizons: in the short term the key measure is the number of months of spending covered by available reserves, and in the long term the equity ratio and the return on assets [6]. G. Chikoto and D. Neely added a dynamic view, showing how the structure of revenue and overhead spending influence the growth of financial capacity over time [7].

Summarizing these approaches, three conclusions can be drawn. First, sustainability is multidimensional and cannot be expressed by one ratio. Second, it must be assessed over several years, not at a single date. Third, indicators must be calculated from data that an ordinary NGO actually has in its accounts.

Proposed system of indicators

On this basis the author proposes a compact system of six indicators grouped into three blocks (Table 1). All of them can be calculated from the annual financial report of an NGO.

Table 1. Proposed system of indicators of the financial sustainability of NGOs

Block	Indicator	Calculation	Interpretation
Structure of income	Revenue concentration index	Sum of the squared shares of each source in total income	From close to 0 (many equal sources) to 1 (a single source); the lower, the better
Structure of income	Share of unrestricted income	Income not tied to a specific project / total income	Shows freedom of manoeuvre; the higher, the better
Liquidity and reserves	Months of spending	Unrestricted liquid funds / average monthly expenses	Number of months the NGO can operate without new income
Liquidity and reserves	Equity ratio	Net assets / total annual income	Long-term capacity to absorb a fall in income
Operating efficiency	Operating margin	(Income − expenses) / income	A persistent negative value signals erosion of resources
Operating efficiency	Administrative cost ratio	Administrative expenses / total expenses	Both very high and very low values indicate risk

Source: developed by the author on the basis of [3], [4], [6].

The meaning of the first indicator can be illustrated with a conditional example. Suppose that organization A receives 70 per cent of its income from a state grant, 20 per cent from an international donor and 10 per cent from donations. Its concentration index equals $0.7^2 + 0.2^2 + 0.1^2 = 0.54$. Organization B has four sources of 25 per cent each, and its index equals $4 \times 0.25^2 = 0.25$. If the largest source is lost, organization A loses 70 per cent of its income and organization B only 25 per cent. The index thus translates the general idea of “dependence on one donor” into a number that can be tracked from year to year.

The third indicator is equally practical. In international practice an operating reserve of about three months of expenses is often cited as a reasonable minimum, although the appropriate level depends on the regularity of income. For an NGO that works exclusively on project grants this indicator is frequently close to zero, because project funds are restricted and must be spent in full. This shows that the problem lies not only in the management of a particular organization but also in the rules of funding.

Financial indicators alone do not give a complete picture. It is advisable to supplement them with a short qualitative block: the existence of a strategic and fundraising plan, a functioning governing board, a professional accountant, and published annual reports. These characteristics do not appear in the balance sheet, but they determine whether the financial indicators will improve in the future.

Application in the conditions of Uzbekistan

In the author’s view, the introduction of such a methodology in Uzbekistan faces several limitations: the financial data of NGOs are not available in a consolidated and comparable form; the accounting of many small organizations does not separate restricted and unrestricted funds or administrative and programme expenses; and there is a risk that indicators will be perceived as an additional control instrument rather than as a management tool. Taking this into account, the following is proposed:

1. **Self-assessment tool.** To develop, on the basis of the proposed indicators, a simple electronic calculator that allows an NGO to assess its own sustainability and to compare it with previous years.
2. **Use of existing data.** To integrate the calculation into the single electronic platform of state support, so that indicators are formed automatically from reports already submitted and no new reporting is required.
3. **Aggregate monitoring.** To publish annually the generalized values of the indicators for the sector by region and field of activity, which will make it possible to evaluate the real effect of state support programmes.
4. **Developmental, not punitive, use.** To use the indicators for targeting capacity-building support and institutional subsidies, and not as a ground for excluding organizations from competitions.
5. **Differentiated benchmarks.** To set reference values separately for groups of NGOs by size and type of activity, since, as the literature shows, uniform thresholds are unreliable.
6. **Adjustment of funding rules.** To allow the formation of an operating reserve and the coverage of administrative costs within state grants, because without this the liquidity indicators of project-funded NGOs cannot improve.

Conclusion

The financial sustainability of an NGO is a measurable characteristic. The proposed system of six indicators covers the structure of income, liquidity and reserves, and operating efficiency, relies on approaches tested in international research, and can be calculated from ordinary reporting data. Its introduction as a tool of self-assessment and sectoral monitoring would allow NGOs to manage their financial risks consciously, donors to make better-informed decisions, and the state to assess the results of its support policy by the condition of the organizations themselves rather than only by the amount of funds allocated.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On Approval of the Concept for the Development of Civil Society in 2021–2025”, 4 March 2021, No. PF-6181.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On Measures to Further Improve the System of State Support for Civil Society Institutions”, 26 August 2024, No. PF-124.
3. Tuckman H. P., Chang C. F. A Methodology for Measuring the Financial Vulnerability of Charitable Nonprofit Organizations. *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 1991, 20(4), pp. 445–460.
4. Greenlee J. S., Trussel J. M. Predicting the Financial Vulnerability of Charitable Organizations. *Nonprofit Management and Leadership*, 2000, 11(2), pp. 199–210.
5. Hager M. A. Financial Vulnerability among Arts Organizations: A Test of the Tuckman–Chang Measures. *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 2001, 30(2), pp. 376–392.
6. Bowman W. Financial Capacity and Sustainability of Ordinary Nonprofits. *Nonprofit Management and Leadership*, 2011, 22(1), pp. 37–51.
7. Chikoto G. L., Neely D. G. Building Nonprofit Financial Capacity: The Impact of Revenue Concentration and Overhead Costs. *Nonprofit and Voluntary Sector Quarterly*, 2014, 43(3), pp. 570–588.

O‘ZBEKISTONDA SIKLGA MOSLASHTIRILGAN BIRLAMCHI BUDJET SALDOSINI HISOBLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston uchun siklga moslashtirilgan birlamchi budjet saldosini (SMBBS) hisoblash tartibi ishlab chiqiladi. XVJning metodik ishlari asosida budjetning kuzatilgan saldosidan foiz to‘lovlari, iqtisodiy siklning daromad va xarajatlarga ta’siri hamda bir martalik operatsiyalarni izchil ajratish taklif etiladi. 2023–2025-yillardagi konsolidatsiyalashgan budjet saldosi rasmiy xalqaro qator asosida tahlil qilinadi; ushbu qatorning o‘zi SMBBSni hisoblash uchun yetarli emasligi ko‘rsatiladi. Maqolaning natijasi — ko‘rsatkichlar tizimi, hisoblash formulalari, ma’lumotlar talabi va sezgirlik tekshiruvlarini birlashtirgan amaliy algoritm. Shartli sonli misol formulalar ishlashini ko‘rsatadi, lekin O‘zbekistonning haqiqiy strukturaviy saldosi sifatida talqin qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: birlamchi saldo, siklik tuzatish, potensial YAIM, ishlab chiqarish tafovuti, daromad elastikligi, fiskal impuls.

KIRISH

Kuzatilgan budjet taqchilligi hukumatning diskretsion qarorlarini va iqtisodiy faollik o‘zgarishi tufayli paydo bo‘lgan avtomatik ta’sirlarni birlashtiradi. Iqtisodiyot kengayganda soliq tushumlari ko‘payib, saldo yaxshilanishi mumkin; bu holat har doim xarajatlarning qat’iy nazorat qilinganini anglatmaydi. Fiskal siyosatning siklga javobini baholash uchun foiz xarajatlarisiz, potensial ishlab chiqarish sharoitiga keltirilgan saldo kerak [2; 3].

O‘zbekistonda konsolidatsiyalashgan budjet saldosi YAIMga nisbatan 2023-yilda −4,6, 2024-yilda −3,0 va 2025-yilda −2,1 foiz bo‘lgan [1]. Bu yaxshilanishning qaysi qismi sikl, foiz to‘lovlari yoki vaqtinchalik tushumlardan kelib chiqqanini yillik umumiy saldodan aniqlab bo‘lmaydi. Tadqiqot maqsadi O‘zbekiston ma’lumotlariga mos, qayta hisoblanadigan SMBBS uslubiyotini taklif qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Empirik manba sifatida XVJning 2026-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha IV modda maslahatlashuvidagi 2023–2025-yillar konsolidatsiyalashgan budjet saldosi olindi [1]. Hisoblash mantiqi Fedelino, Ivanova va Hortonning siklik tuzatish bo‘yicha texnik qo‘llanmasi, XVJning strukturaviy saldo qo‘llanmasi hamda Fiskal monitoring izohlariga tayangan [2–4]. Metodlar: fiskal agregatlarni dekompozitsiya qilish, komponentlar elastikligi, shartli hisoblash va sezgirlik tahlili.

Belgilashlar: B — umumiy saldo; I — sof foiz to‘lovlari; PB = B + I — birlamchi saldo; Y — haqiqiy, Y* — potensial nominal YAIM. Ishlab chiqarish tafovuti $q = (Y/Y^* - 1) \times 100$. i-toifadagi daromad R_i uchun siklga mos qiymat $R_i^* = R_i \times (Y^*/Y)^{\varepsilon_i}$; siklga sezgir birlamchi xarajat G_j uchun $G_j^* = G_j \times$

$(Y^*/Y)^{\eta_j}$. Bu yerda ε_i va η_j tegishli elastikliklar. Siklga sezgir bo‘lmagan komponentlar haqiqiy miqdorida qoldiriladi [2; 3].
$SMBBS = [\Sigma R_i^* + R_0 - \Sigma G_j^* - G_0]/Y^* \times 100$. R_0 va G_0 — siklga sezgir bo‘lmagan daromad va birlamchi xarajatlar. Budjet saldosini vaqtincha oshiruvchi sof bir martalik operatsiyalar O alohida aniqlanadi: strukturaviy birlamchi saldo = SMBBS − $O/Y^* \times 100$. O manfiy bo‘lsa, vaqtinchalik xarajatning teskari tuzatishi yuz beradi. Shunday qilib, siklga moslashtirilgan va bir martalik omillardan ham tozalangan strukturaviy saldo o‘zaro aralashtirilmaydi.
Amaliy hisobning birinchi qadamida budjet qamrovi va hisoblash tamoyillari birxillashtiriladi. Ikkinchi qadamda potensial YAIM ishlab chiqarish funksiyasi va statistik trend orqali baholanib, real vaqt va keyinchalik qayta ko‘rilgan qiymatlar farqi saqlanadi. Uchinchi qadamda soliq turlari bo‘yicha elastikliklar, ishsizlikka bog‘liq xarajatlar va bir martalik operatsiyalar hujjatlashtiriladi. Yakunda SMBBS o‘zgarishi ΔSMBBS hamda fiskal impuls −ΔSMBBS hisoblanadi; kattaliklar YAIMning bir xil bazasida ifodalanadi.
Mazkur maqolada O‘zbekiston uchun elastikliklar va potensial YAIMning to‘liq qatori mavjud bo‘lmagani sababli haqiqiy SMBBS qiymati yoki ekonometrik parametr bahosi keltirilmaydi. Sonli misol faqat hisob mexanizmini ochib berish uchun shartli tarzda qurilgan.
NATIJALAR
Rasmiy ma’lumotlar kuzatilgan saldoning uch yilda 2,5 foiz punktga yaxshilanganini ko‘rsatadi (1-jadval). Biroq ushbu o‘zgarishni strukturaviy konsolidatsiya deb nomlash uchun foiz to‘lovlari, soliq bazalari, sikl va bir martalik omillar miqdori talab qilinadi.
1-jadval. Kuzatilgan fiskal saldo va SMBBS hisobiga zarur qo‘shimcha ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
Konsolidatsiyalashgan budjet saldosi, YAIMga nisbatan %	−4,6	−3,0	−2,1
Birlamchi saldo: sof foiz xarajatlari ajratilgach	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak
Siklik tuzatish: YAIM tafovuti va elastikliklar asosida	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak	Hisoblash kerak

Manba: birinchi qator XVJ ko‘rsatkichlari [1]; qolgan qatorlar muallifning zarur hisob bosqichlarini ifodalaydi. Jadvaldagi “hisoblash kerak” qiymat yo‘qligini bildiradi.
Formula natijasini tekshirish uchun quyidagi shartli misol keltiriladi. Faraz qilaylik, birlamchi daromad haqiqiy YAIMning 28 foizi, birlamchi xarajat 30 foizi, q = +2 foiz, barcha daromad elastikligi 1 va xarajat elastikligi 0. Bir martalik operatsiya yo‘q. $Y^*/Y = 1/1{,}02$ bo‘lgani uchun daromadning siklga mos qiymati haqiqiy YAIM birliklarida 28/1,02 = 27,45; xarajat esa 30 bo‘lib qoladi. Farq −2,55 birlikni potensial YAIM 98,04 birlikka bo‘lish SMBBS ≈ −2,60 foizni beradi. Haqiqiy birlamchi saldo esa −2,00 foiz: musbat tafovut budjetning kuzatilgan ko‘rinishini 0,60 foiz punktga qulaylashtirgan.
Misoldagi 28, 30 va 2 foiz O‘zbekiston statistikasi emas. Hisoblash bazasining YAIMdan Y^*ga o‘tishi e’tibordan chetda qoldirilsa, natijada xato paydo bo‘ladi. Shuningdek, bir martalik tushumni daromad elastikligiga qo‘shish uni iqtisodiy sikl sifatida noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi.
MUHOKAMA
Soddalashtirilgan umumiy elastiklik yondashuvi ma’lumot kam bo‘lganda qulay. Biroq qo‘shilgan qiymat solig‘i, foyda solig‘i, jismoniy shaxslar daromad solig‘i va tabiiy resurslardan tushumlar bir xil siklik xulqqa ega emas. Shu sababli O‘zbekiston uchun toifalar kesimidagi elastikliklar bilan hisoblash, resurs narxi va almashuv kursi ta’sirlarini alohida sezgirlik ssenariylarida ko‘rsatish maqsadga muvofiq [3; 5].

2-jadval. Tavsiya etilgan metodik tanlov va tekshiruvlar

Bosqich	Bazaviy hisob	Sezgirlik tekshiruvi
Budjet qamrovi	Konsolidatsiyalashgan sektor va	Davlat korxonalari bilan bog‘liq

	sof foizlar	kvazifiskal operatsiyalar
Potensial YAIM	Ishlab chiqarish funksiyasi	Trend usuli va real vaqt baholari
Elastiklik	Soliq turi bo‘yicha baho	Muqobil parametr va davrlar
Bir martalik omil	Hujjatlangan alohida ro‘yxat	Bahsli operatsiya kiritilgan/kiritilmagan holat

Siklning oxirgi davrlarini trend usuli bilan baholash qayta ko‘rish xatariga ega: bugun ijobiy ko‘ringan tafovut yangi ma’lumotlar bilan nolga yaqinlashishi mumkin. Shu bois SMBBS yagona nuqtaviy qiymat emas, q va elastiklik bo‘yicha oraliq sifatida e’lon qilinishi lozim. Hisoblash kodlari, ma’lumotlarning versiyasi va bir martalik operatsiya mezonlari ham ochiq bo‘lsa, ko‘rsatkichni tekshirish osonlashadi.

Fiskal impulsning ishorasi siyosat yo‘nalishini bildiradi, lekin uning YAIMga sababiy ta’sirini o‘lchamaydi. Natijani izohlashda pul-kredit siyosati, import ulushi, tashqi talab hamda xarajat tarkibi hisobga olinadi. XVJ ham siklga mos saldo hisobida potensial ishlab chiqarish va elastiklik haqidagi taxminlar hal qiluvchi ekanini ta’kidlaydi [2; 4].

Tadqiqot cheklovi — shartli misol va uch yillik umumiy saldo real O‘zbekiston SMBBS qatorini bermaydi. Uni empirik sinash uchun kamida choraklik fiskal tarkib, foiz xarajatlari, soliq bazalari va qayta ko‘rilgan milliy hisoblar qatori kerak.

XULOSA

O‘zbekistonda 2023–2025-yillarda budjet taqchilligining qisqarishi kuzatilgan, ammo umumiy saldo strukturaviy fiskal harakatning bevosita o‘lchovi emas. Birlamchi saldo orqali foiz to‘lovlarini, potensial YAIM va elastikliklar orqali avtomatik siklik ta’sirni, alohida reyestr orqali bir martalik operatsiyalarni ajratish zarur.

